TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

2025
2-son

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal



ISSN 2181-8274

TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYA

Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal.
1996-yilda tashkil etilgan.

Tahrir hay’ati raisi:
M.Boltabayev
Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi direktori

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari:
M.Esanov

Bosh muharrir:
J.Usmanov

Tahrir hay’ati a’zolari:
L.Abduxalilova
L.Zaripov
S.Xudoyberdiyeva
R.Jo‘raqulov
M.Aripov
B.Zaripov
U.Djumaniyazov
T.Axmedov
N.Toshpo‘latova
S.Maxsumova

Dizayner:
S.Musamedov

Ozoda Hazratqulova. FILOLOGIK TA’LIMDA O‘QUV TOPSHIRIQLARINING HOLATI TAHLILI 3
Furqat Anorboyev. SIYOSIY MODERNIZATSIYA TUSHUNCHASINING RIVOJLANISHIGA DOIR KONSEPTUAL QARASHLAR TAHLILI 8
Abrorjon Yarashev. VIZUAL VOSITALAR YORDAMIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI 12
Шахноза Алимова. СОВРЕМЕННЫЕ СРЕДСТВА ОБУЧЕНИЯ НА ЗАНЯТИЯХ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНСТРУМЕНТАРИЙ АКТИВИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ 16
Doniyor Jo‘lanov, Gulchehra Ulug‘berdiyeva. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI BILAN MATEMATIK KECHALAR , MATEMATIK OLIMLAR BILAN UCHARSHUV, OLIMPIADALAR O‘TKAZISH REJASINI TUZISH 19
Shuhrat Homidov. JINOIY DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNING MAMLAKAT IQTISODIY HAVFSIZLIGIGA TA’SIRINI BAHOLASH 25
Doniyor Jo‘lanov, Gulchehra Ulug‘berdiyevaBOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA MATEMATIKA DARSLARIDA QIZIQARLI VA MANTIQIY MASALALARNI ISHLASH USULLARINI O‘RGATISH METODIKASI 28
Yulduz Jurayeva. INTEGRATION WITH MODERN TECHNOLOGIES IN TEACHING GERMAN AND THE ATTENTION GIVEN TO GERMAN IN OUR COUNTRY 34
Умида Нарзуллаева. СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В НЕСПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ 38
Maxammadjon Ro‘zikov. PARAMETRLI KVADRAD TENGLAMALARNING BA’ZI XUSUSIYATLARI 41
Ulug‘bek Xonkulov. O‘QUVCHILARNING TRIGONOMETRIK TENGLAMALARNI YECHISHDA YO‘L QO‘YADIGAN XATOLARI HAQIDA 47
Anvarjon Rahmatjonov. MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA VIRTUAL VA TO‘LDIRILGAN REALLIK TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI 53
Nodira Mukhammadieva. DIGITAL MARKETING STRATEGIES FOR PROMOTING REGIONAL TOURISM: TOOLS AND TECHNIQUES 56
Rayxan Razakova. KEKSALARNING YOLG‘IZLIGINI KAMAYTIRISH VA ULARNI IJTIMOIY HAYOTGA QAYTARISH UCHUN PSIXOLOGLAR VA IJTIMOIY XIZMAT MUTAXASSISLARIDAN KOMPLEKS YONDASHUV 60
Marxabo Xakimova. TALABALAR MA’NAVIYTIDA MILLIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI 63
Iskandar Otabayev. KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA KREDIT MODUL TIZIMINI JORIY ETISHNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI 66
Sanobar Ashurova, Zuxra Maxkamova. MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA DUAL TA’LIM MODELINI JORIY ETISH VA INNOVASION BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIYA VA AMALIY YONDASHUVLAR 71
Oydina Otabayeva. MAKTABGACHA TA’LIM PEDAGOGLARI O‘RTASIDA IJTIMOIY HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TRENINGLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI 76
Ilxomjon Sirojidinov. PREVENTIV CHORA-TADBIRLAR ASOSIDA KASBIY TA’LIM MUASSASALARI O’QUVCHILARINING KASBIY-AXLOQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI 79
Izzatoy Turdiyeva. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR DIAGNOSTIKASI 84
Lola Elmurodova. PEDAGOGLARNING ILG‘OR PEDAGOGIK TAJRIBALARINI TO‘PLASH VA AMALIYOTDA QO‘LLASH 87
Xolbibi Qurbonova. ONA TILI TA’LIMIDA O‘QUVCHILAR KOMPETENTLIGINI OSHIRISH MASALALARI 90
Гулнора Жамалова. ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ 92

Muassislar:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Manzil: 100095, Toshkent sh.
2-Chimboy ko‘chasi, 96-uy.
Telefon: (71) 207-03-41
e-mail: rmxat@edu.uz

Jurnal O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligidan 2014-yil 26-dekabrda 0506 raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan.

Jurnal har oyda o‘zbek, rus va ingliz tillarida elektron shaklda chop etiladi.

“Ta’lim, fan va innovatsiya” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2015-yil 18-noyabrdagi 218/5-sonli qarori, 2018-yil 28-noyabrdagi 247/6-sonli qarori, 2024 yil 25 dekabrdagi 365-sonli qarori asosida quyidagi fanlar kiritilgan:
05.00.00 — Texnika fanlari,
08.00.00 — Iqtisodiyot fanlari,
13.00.00 — Pedagogika fanlari,
19.00.00 — Psixologiya fanlari
23.00.00 — Siyosiy fanlari
bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ta’lim, fan va innovatsiya” jurnalidan ko‘chirib bosish faqat tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi. Maqolada keltirilgan faktlarning to‘g‘riligi uchun muallif mas’uldir. Tahririyat fikri mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin.

*Jurnalning to‘liq matnini **esijournal.uz** rasmiy saytidan yuklab olishingiz mumkin.*

*Maqola va murojaatlarningizni **@esijournalbot** telegram botiga yuboring.*

Nodiraxon Xatamova. HUQUQ, TIBBIYOT VA GEODEZIYA SOHALARIDA MAXSUS MAQSADLAR UCHUN INGLIZ TILI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKTNING AHAMIYATI 96
Gulasal Usmanova. XOREOGRAFIYA SAN’ATI SOHASIDAGI ILMIY IZLANISHLAR 99
Ilhom Mattiyev. TALABALAR JAMOASI SOG‘LOM TURMUSH TARZI VA IJTIMOIY AGENTLAR TA’SIRINING XUSUSIYATLARI 103
Xudoyor Jumanov. XORIJIY VA MAHALLIY ELEKTRON DARSLIKLARI TAHLILI . 105
Feruza Kadirova. BENEFITS OF IMPLEMENTING WEB-TECHNOLOGIES IN FOREGN LANGUAGE LEARNING 111
Raykhan Aleuova. METHODS OF DEVELOPING PERSONAL COMPETENCE IN PRESCHOOL CHILDREN 115
Vasila Imamdjanova. DEVELOPING SPEAKING SKILLS IN FOREIGN LANGUAGES: ORGANIZING SUCCESSFUL COMMUNICATION AMONG STUDENTS 118
Shukhrat Salakhitdinov, Daniyar Alimov, Xayrulla Mirzakarimov, Sardor Tursunov. THE ADVANTAGE OF PCI ON NATIVE CORONARY VESSELS VERSUS PCI ON AORTOCORONARY BYPASS GRAFTS AFTER SURGICAL REVASCULARIZATION 121
Lukmon Bekmuratov, Eldor Jumaev. ASSESSMENT OF THE RESULTS OF BONE GRAFTING SURGERIES IN THE ORAL CAVITY: COMPLICATIONS AND OUTCOMES 125
Lukmon Bekmuratov, Eldor Jumaev. PROTOCOL FOR VERIFICATION OF THE TOOTH ROOT APEX DURING A CYSTECTOMY PROCEDURE 128
Gulnora Khalmatova. THE HISTORY AND LITERATURE OF THE RUSSIAN LANGUAGE 132
Gulchekhra Razzakova. REAL COMMUNICATION AND INTERACTION IN ENGLISH RATHER THAN ROTE MEMORIZATION OF GRAMMAR RULES 135
Ибодуллохон Солиев. ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ АВТОНОМИЯ ВУЗОВ УЗБЕКИСТАНА: СИНТЕЗ ГЛОБАЛЬНОГО ОПЫТА И НАЦИОНАЛЬНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ 139
Ikrom Rixsiboyev. OTA-ONALARNING TA’LIMDAGI ISHTIROKI141
Bekzodbek Madumarov. EKOTSENTRIZM FALSAFASINI TABIATGA TA’SIRI 145
Habiba Xalilova. BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUV DARSLARINI LOYIHALASHDA NEONOGIK YONDASHUVDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH 149
Hulkar Rasulova. IJTIMOIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI JAHON TAJRIBASINING PEDAGOGIK TAHLILI 153
Muxammadi Azimov. O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI ASOSIDA TALABALARDA DAXLDORLIK TUYG‘USINI RIVOJLANTIRISH MODELI 156
Sabina Mahmudova. MANTIQIY FIKRLASHGA O‘RGATISHNI BOSHLANG‘ICH SINFDAN BOSHLASH 161
Mohinur ShodiboyevaMAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN O‘YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH 164
Ma’suda Eshonqulova. MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI BOLALARIDA KONSTRUKSIYALASHGA OID KO’NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH 168
Xusniddin Umarov. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING ILMIY-ILMIY-IJODIY KOMPITENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH 173
Hilola Shokirova. BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI GENDER YONDASHUV ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASI 177
Dilfuza Nosirova. BO‘LAJAK TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI 181
Maftuna Bobokeldieva. THE ROLE OF STUDENT ENGAGEMENT IN TEACHING ENGLISH 186
Shoira Aliyeva. XX ASR BOSHLARIDA JADIDCHILIK G‘OYALARINI YOSHLAR TARBIYASIDAGI TA’SIRI 189
Nilufar Abdulazizova, Dilfuza Zokirova. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TAYYORLOV GURUHLARIDA DIDAKTIK JARAYONLARNI TASHKIL QILISH 193
Mukaddas Karimova. TA’LIMNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA O‘QITUVCHI KASBINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI 199
Nasiba Salikhova, Morevs Patriks. INNOVATION METHODS OF DESIGNING ACTIVITIES FOR DEVELOPING STUDENTS’ SPEAKING SKILLS IN TEACHING INTERMEDIATE LEVEL CLASSES 206

Bobur Saparov, Malohat To‘xtasheva, Asliddin Shokirov, Maftuna Jobborova. ISSIQLIK ENERGETIKA JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISH VA IOT TIZIMLARI YORDAMIDA REAL VAQT REJIMIDAGI MONITORING SAMARADORLIGI.....211
Dilshod Sohibov. BO‘LAJAK INFORMATIKA FANI O‘QITUVCHILARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH SAMARADORLIGI BO‘YICHA ILMIY-TADQIQOT ISHLARINING TIZIMLI TAHLILI.....216
Madina Ashirbaeva. KORPUS-LINGVISTIKASINING IJTIMOIY ZARURIYATI VA ASOSIY XUSUSIYATLARI.....222
Altinay Bekpolotova. FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE CHORAL GENRE IN KARAKALPAKSTAN 226
Avazbek Barotov, Mexriniso Sharipova. MOTIVATSIYA TURLARI VA UNING TA’LIMDAGI ROLI.....229
Odina Fozilova. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TANQIDIY VA IJODIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI.....233
Bekposhsha Dautova. SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV AOSIDA PEDAGOGIK TA’LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI.....236
Fotima Abdikarimova. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA POL-ELDER MODELIDAN FOYDALANISH.....240
Эркин Халтурсунов, Махбуба Шерматов. ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ В СТРОИТЕЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: АДАПТАЦИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА И СТРАТЕГИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ.....243
Arofat Xudayberdieva. FIZIKA FANINI TEXNIKA OLIYGOHLARDA O‘QITISH MUAMMOLARI VA ASPEKTLARI.....248
Ishankul Narmuratov. RUS TILI DARSLARIDA MULTIMEDIA RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI .253
Bexruz Turdiyev. JADIDCHILIK HARAKATINING TURKISTON SIYOSIY YUKSALISHIDAGI ROLI 258
Turg‘un Xoldarov, Abdukarim Jo‘rabaev, Umarali Jo‘raev. VALEOLOGIYA - SALOMATLIK VA SOG‘LOM TURMUSH TARZI HAQIDAGI TA’LIMOTNI TALABALARGA O‘RGATISH METODLARI.....262
Одилжон Рахматов. СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ КРЫШ ЗДАНИЙ ДЛЯ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СИСТЕМ 266
Бахтиёр Курамбаев, Отабек Мирзаев, Миржалол Исмоилов. ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОПАШНОГО АГРЕГАТА ДЛЯ МЕЖДУРЯДНОЙ ОБРАБОТКИ ХЛОПЧАТНИКА 277
Bekzodbek Madumarov. EKOTSENTRIZM FALSAFASINI TABIATGA TA’SIRI 283
Maxliyo Xolmatova. OLIY TA’LIMDA O‘QITUVCHILARNING RAQAMLI KOMPETENTSIYALARINI BAHOLASH. DARAJA KO‘RSATKICHLARI VA ULARNING TAHLILI. (DTPI misolida).....287
Dilnoza Ergasheva. SHARQ ALLOMALARINING ASARLARI ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMIDA TALABALARNING AXLOQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QO‘LLANILISHI.....294
Nodirbek Yoqubjonov. JISMONIY TARBIYA VA OMMAVIY SPORTNING RIVOJLANISHIGA JAMOALARNI OMMAVIY JALB ETISH 297
Muhabbat Berdiyeva. MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI O‘YIN TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI.....299
Манзура Астанакулова. СОДЕРЖАНИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ УПРАВЛЕНИЯ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ.....304
Xalima Toshmurodova. MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI BOLALAR NUTQINI O‘STIRISHDA KOMUNIKATIV MULOQOT O‘RNI 309
Yashin Narzulloyev. BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TYUTORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....314
Xabibullo Boyev, Sherzod Adilov. O‘ZBEKISTONDA BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 318
Umidaxon Sodiqova. ALKANLAR MAVZUSINI O‘QITISHDA KRITIK VA KREATIV FIRKLASHNI KROSSENS METODI YORDAMIDA SHAKILLANTIRISH.....323
Iftixor Ziyoev. “YANGI O‘ZBEKISTON” G‘OYASINI AMALGA OSHIRISHDA DAVLATNING BIZNES TUZILMALARI BILAN MUNOSABATLARINING SIYOSIY YO‘NALISHLARI.....327
Azamat Eshmurodov. GIDRAVLIKANI FANINI O‘QITISHDA TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHDA WEB TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....332
Nilufar Muxammadiyeva. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHISINING KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATI MAZMUNI.....337
Ravshan Shaynazarov. TALABALARGA GIDROTEXNIKA INSHOOTLARINI MODELLASHTIRISH DASTURIY VOSITALARI TAHLILI VA ULARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK ASOSLARI 341
Ravshan Abdullayev. TA’LIMIY-DASTURLI TUZILMALARNI TIZIMLI LOYIHALASHTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY TAHLILI 344
O‘tkir G‘uzarov. “GO‘ZAL XULQLAR” ASARINING OILAVIY VA IJTIMOIY TA’LIMDAGI TA’SIRI: PEDAGOGIK NUQTAYI NAZARDAN TAHLIL.....349
Madina Halimova. O‘QUVCHILARDA TABIIY FANLAR (SCIENCE) ASOSIDA DASTLABKI BILIM VA TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI 355
Oliya Nurova. MEXANIZMLAR DINAMIKASI VA ASOSIY MASALALARINI YECHIMLARI 359
Olimjon Otamirzaev, Dilnoza Zokirova. TALABALARNING ELEKTROTEXNIKAGA DOIR AMALIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA “KUBIK” METODIDAN FOYDALANISH.....364
Sevara Xakimova. INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH TAMOYILLARI ..367
Sherjaxon Abdufatayev. O‘QUVCHILARNING TAYANCH VA FANGA OID KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA ELEKTRON TA’LIM RESURSLARINING O‘RNI 371
Parvina Ikromova. THE ROLE OF ENOLASE ENZYME IN PRETERM BIRTH.....375
Iroda Yusupova. OILAVIY NIZOLAR VA ULARNING IJTIMOIY MUNOSABATLARGA TA’SIRI 379
Odina Baxronova. NATYURMORTDAN FOYDALANIB TASVIRLASHNI O‘RGANISHDA XOMAKI RASMLAR ISHLASHNING TUTGAN O‘RNI.....382
Shoira Bekchonova. IT TEXNOLOGIYASINI ADABIYOT FANLARIDA QO‘LLASHDA O‘QITUVCHILARNING KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH 386
Dilafruz Kenjabayeva. NAFOSAT TARBIYASINING NAZARIY ASOSLARI VA XORIJIY TIL O‘QITUVCHILARI UCHUN AHAMIYATI.....390
Dilshod Nabiyev. INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O‘QITISHDA MA’LUMOTLAR BAZASIDAN FOYDALANISH.....392

Дилноза Усмонова. ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННЫХ ГЛОБАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ 396
Ibodat Khidirova. DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE FOR ECONOMICS STUDENTS....401
O‘ktabar Samadova. BADMINTON SPORT O‘YINI BO‘YICHA OLIB BORILUVCHI MUSOBAQA TURLARI 403
Jahongir Uzaqov, Ulug‘bekmirzo Qurbonov. KASBIY VA PROFESSIONAL TA’LIM: KELAJAKNI QURISHDA MUHIM O‘RINDIR 406
Jamshid Mannopov, Islomjon Dexkonboyev. AKADEMIK LITSEYLARDA O‘QUV JARAYONLARINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISHDA RAQAMLASHTIRISHNING O‘RNI....408
Jahongir Uzaqov, Alisher Abdullayev. KASBIY VA PROFESSIONAL TA’LIM JARAYONLARINI BOSHQARISH AXBOROT TIZIMI....412
Moxirjon Maxmudjonov, Alisher Abdullayev. O‘ZBEKISTONDA AKADEMIK LITSEYLARDA RAQAMLI INNOVATSIYALAR ASOSIDA PEDAGOGIK METODLARNI MODERNIZATSIYA QILISH 415
Imronbek Xakimov, Ulug‘bekmirzo Qurbonov. O‘ZBEKISTONDA DIPLOMLARNI RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI: AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA KELGUSI REJALAR....418
Komronbek Xaydarov, Moxirjon Maxmudjonov. OLIY TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH: INNOVATSIYALAR VA YANGI TEXNOLOGIYALAR....421
Bexzod Aliyev, Ulug‘bekmirzo Qurbonov. TA’LIMGA ARIZA TOPSHIRISH JARAYONINING RAQAMLASHTIRILISHI: AFZALLIKLAR, KAMCHILIKLAR VA KELAJAKDAGI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI....425
Saodat Muratova, Nazira Xabibova. YURAK ISHEMIK PATOLOGIYALARI BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA STOMATOLOGIK STATUSI VA HAYOT SIFATINI BAHOLASH KO‘RSATKICHLARI....430
Dilshoda Saparboyeva. TARBIYADA O‘QUVCHI SHAXSINI HAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILI 433
Saodat Muratova, Nazira Xabibova. YURAK ISHEMIK PATOLOGIYASI BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA PARODONT TO‘QIMASIDAGI GISTOLOGIK O‘ZGARISHLAR 435
Дилдора Юлдашева. ИЗУЧЕНИЕ ГЛАГОЛОВ В НЕРУССКИХ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ 439
Malika Ibragimova. MIYA FALAJINING SPASTIK SHAKLLARI UCHUN REABILITATSIYA TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH....443
Farida Xudoyqulova. JIGARNING NOALKOGOL YOG‘ KASALLIGIDA FIBROZ VA INSULINGA REZISTENTLIKNING REABILITATSIYASI....447
Farida Xudoyqulova. JIGARNING NOALKOGOL YOG‘ KASALLIGI EPIDEMIOLOGIYASI 451
Maftuna Ravshanova. OYOQ BILAGI OG‘IR JAROHATLANGAN SPORTCHILARNI ERTA REABILITATSIYA QILISH UCHUN KOMPLEKS TEXNOLOGIYALAR 455
Gulnoza Burxanova. SHAXMAT BILAN SHUG‘ULLANADIGAN BOLALARDA TAYANCH-HARAKAT APPARATI KASALLIKLARINI KOMPLEKS REABILITATSIYA QILISH....459
Malika Egamova, Jamshedjon Rasulov. SURUNKALI GINGIVITNI REABILITATSIYADA FITOTERAPIYANING AHAMIYATI....463
Malika Egamova, Jamshedjon Rasulov. BOLALARDA STOMATITNI DAVOLASHDA XALQ TABOBATI USULLARINI QO‘LLASHNING SAMARADORLIGI....467
Sadoqat Berdiyeva. INKLYUZIV TA’LIMDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR....470
Zafar Batirov, Marjona Lutfullayeva. BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING SHAXSIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMOSI SIFATIDA....475
Zafar Batirov, Marjona Lutfullayeva. QISHLOQ XO'JALIGI MUHANDISINING HAYOTIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA KASBIY KOMPETENTSIYANI SHAKLLANTIRISH 479
Sadoqat Berdiyeva. XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA INKLYUZIV TA’LIMNI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 482
Madina Ashirbaeva. KORPUS-LINGVISTIKASINING IJTIMOIY ZARURIYATI VA ASOSIY XUSUSIYATLARI....485
Shirinoy Mustafayeva. PSIXOLOGIK BARQARORLIK KO‘NIKMALARINI MUSTAHKAMLASHNING NAZARIY METODOLOGIK BAZASI 489
Barnogul Raxmatova. SHAXS TAFAKKURIDA IJODKORLIK VA IXTIROCHILIK SIFATLARINI IFODALOVCHI OMILLAR493
Dilshod Abdug‘aniyev. RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI SHAROITIDA TA’LIM SIFATI MONITORINGININI BOSHQARISHNING PEDAGOGIK SHART SHAROITLARI....499
Шахноза Сабирова. ИННОВАЦИОННОЕ НАПОЛНЕНИЕ ПРОБЛЕМНО-ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В ПЕДАГОГИКЕ СФЕРЫ ИСКУССТВ И КУЛЬТУРЫ....503
Dilshod Abdug‘aniyev. OLIY TA’LIM TIZIMIDA TA’LIM SIFATI MONITORINGINI TAKOMILLASHTIRISH....505
Dilbar Urazbaeva. EFFECTIVE FORMS OF THE PROJECT METHOD IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO STUDENTS OF PEDAGOGICAL UNIVERSITIES 508
Shirinoy Mustafayeva. PSIXOLOGIK BARQARORLIK KO‘NIKMALARINI MUSTAHKAMLASHNING NAZARIY METODOLOGIK BAZASI 511
Temurmalik Shokirov. KREDIT-MODUL SHAROITIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING MUSTAQIL ISHLASHGA OID KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI 516
Dilfuza Raxmatova. TALABALARDA KOGNITIV FAOLIYATGA NISBATAN POZITIV KAYFIYATNI HOSIL QILISH USULLARI (MAKTABGACHA TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARI MISOLIDA) 519
Sofiya Narbaeva. UMUMIY O‘RTA TALIMDA MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR BO‘YICHA DIREKTOR O‘RINBOSARLARINING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI 523
Sofiya Narbaeva. MA’NAVIY-MA’RIFIY ISHLAR BO‘YICHA DIREKTOR O‘RINBOSARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH....526
Sunnatulla Musamedov. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR UCHUN INTERAKTIV KITOBLARNI YARATISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI....529
Nasiba Tursunbayeva. AHMAD YASSAVIYNING MA’NAVIY MEROSI....533
Jahongir Mamatqosimov. BO‘LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA’LIM MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI 535

FILOLOGIK TA’LIMDA O‘QUV TOPSHIRIQLARINING HOLATI TAHLILI

Ozoda Hazratqulova,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti,f.f.f.d.v.b.dots

Annotatsiya

Ta’limni tarixiga nazar tashlasak, topshiriq va mashqlar o‘zbek tili fan sifatida shakllangan dastlabki yillarda (1930-1940) chop etilgan darsliklarda ham uchramasligiga guvoh bo‘lamiz. Keyingi yillarda til o‘qitish metodikasi bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar hajm va sifat jihatdan oshib bormoqda, bunda asosiy e’tibor ta’lim mazmuniga qaratilayotgani ayni muddaodir.

Kalit so‘zlar: *Topshiriq, tarbiyaviy topshiriq, intelektual, mashq, mustaqil ish, ilmiy-pedagogik tadqiqot, faoliyat, ma’naviy qadriyat.*

Abstract

If we look at the history of education, we can see that assignments and exercises are not even found in the textbooks published in the first years (1930-1940) when the Uzbek language was formed as a science. In recent years, scientific researches related to the methodology of language teaching are increasing in terms of volume and quality, while the main attention is being paid to the content of education.

Key words: *Task, educational task, intellectual, exercise, independent work, scientific-pedagogical research, activity, spiritual value.*

Аннотация

Если обратиться к истории образования, то можно увидеть, что задания и упражнения не встречаются даже в учебниках, изданных в первые годы (1930-1940 гг.) формирования узбекского языка как науки. В последние годы научные исследования, связанные с методикой преподавания языка, увеличиваются по объему и качеству, при этом основное внимание уделяется содержанию образования.

Ключевые слова: *Задача, учебная задача, интеллектуальное, упражнение, самостоятельная работа, научно-педагогическое исследование, деятельность, духовная ценность.*

Kirish. Tilshunoslik fanlarini o‘qitishda o‘quv topshiriqlaridan foydalanish masalasi ham jiddiy muammo hisoblanadi. Zero, o‘qituvchi va talaba orasida aloqa, asosan, o‘quv topshiriqlari orqali yuzaga chiqadi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, til o‘qitish metodikasi va tilshunoslik fanlarini o‘qitishda o‘quv topshiriqlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmayapti. Ayniqsa, darslik va o‘quv qo‘llanmalarida an’anaviy savol va topshiriqlarda foydalanib kelinadi. Til ta’limida o‘quv topshiriqlarining turlari va vazifalarini aniqlash masalasi I.A.Allayorov, O.R.Rozikov, R.Ibragimov, B.R.Adizov, M.H.Mahmudov I.E.Davronovlar [1] tomonidan ta’lim oluvchining o‘quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, o‘quv topshiriqlari orqali o‘quvchi faolligi oshirish muammolari ham o‘rganilgan. Rus pedagoglari A.N.Leontev, J. A. Ponomarev, S.L.Rubenshteyn[2], avstraliyalik olim Jak Richards ingliz tilining ona tili va ikkinchi til sifatida o‘qitilishida o‘quv topshiriqlarini tadqiq qilgan. Uning o‘quv topshiriqlari tavsifi va tasnifiga doir yondashuvlaridan dunyo miqyosida foydalaniladi.

E. Davronov maqolasida taniqli psixologlar va didaktika nuqtai-nazaridan “topshiriq” tushunchasining mohiyati ochib berilgan, ona tili darslariga nisbatan mashq va topshiriqning vazifalari bayon etilgan [3,323].

E.Davronov topshiriqlarga ham maqsad, ham vosita sifatida qaraydi. Didaktik nazariyada “topshiriq”, “tarbiyaviy topshiriq”, “intellektual”, “muammo” atamalari bilan, “mashq” “mustaqil ish” atamalari bilan birga qo‘llaniladi. A.N.Leontiev topshiriq tushunchasini quyidagicha tushunadi: “Topshiriq – muayyan shartlarga asoslanib qo‘yilgan maqsaddir”[4,576]. U topshiriqning o‘ziga xos xususiyatlarini ta’riflash uchun “ehtiyoj”, “motiv” va “faoliyat” atamalaridan foydalanadi. Y.A.Ponomarev topshiriqlar nazariyasida bir qator toifalarni yaratdi, xususan, o‘quv vaziyatida sub’ekt va obyektning o‘zaro ta’sirini, bilimlarni o‘zlashtirish, ularni takomillashtirish bo‘yicha sub’ektning faoliyatini aniqlaydi. O.Roziqov esa o‘quv topshiriqlarini ilmiy-pedagogik tadqiqotda o‘quv materiali bilan bog‘liqligi nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Uning fikriga ko‘ra, “o‘quv topshirig‘i o‘quv maqsadlariga bog‘liq bo‘lgan o‘quv materialining o‘zgartirilgan shaklidir”[5,50].

Tadqiqot metologiyasi. O‘qitish ehtiyojlari asosida quyidagi xususiyatlar ta’kidlanadi: 1) qurish (strukturalash) imkoniyati; 2) strukturani qurish va qayta ko‘rib chiqish; 3) o‘quv materiali shaklining mavjudligi;

4) o‘quv jarayoni bosqichlarining mutanosibligi; 5) bir vazifani boshqalarga almashtirish imkoniyati; 6) ochiq tizim; 7) bir-birini to‘ldirish; 8) bilimlarni o‘rganish va takomillashtirish usullarining talablarga mosligi; 9) o‘qitish va o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish uchun sharoit yaratish. “Topshiriqlar insoniyat tomonidan to‘plangan tajribani aks ettiradi va shu bilan birga moddiy va ma’naviy qadriyatlarni yangilash va ularni yanada boyitish vositasiga aylanadi.

Bu borada filologik ta’lim tizimi sezilarli yutuqlarga erishganini ta’kidlash mumkin, OTM darsliklarida o‘quv topshiriqlari, o‘qitish metodikasidagi yondashuvlar ham zamonaviylashdi. Eng muhimi, o‘quv topshiriqlarining farqlanishi, ularning qo‘llanilish o‘rni va bajaradigan vazifalari belgilab olindi[6,156].

Adabiyotlar tahlili. E. Davronov o‘z maqolasida psixologik va didaktika nuqtai-nazaridan “topshiriq” tushunchasining mohiyatini ochib bergan, o‘zbek tili darslariga nisbatan mashq va topshiriqning vazifalari haqida ham qisman to‘xtalgan. Olim topshiriqqa ham maqsad, ham vosita sifatida qaraydi. Didaktik nazariyada “topshiriq”, “tarbiyaviy topshiriq”, “intellektual”, “muammo” atamalari bilan, “mashq” “mustaqil ish” atamalari bilan birga qo‘llaniladi. A.N.Leontiyev topshiriq tushunchasini quyidagicha tushunadi: “Topshiriq – muayyan shartlarga asoslanib qo‘yilgan maqsaddir”. U topshiriqning o‘ziga xos xususiyatlarini ta’riflash uchun “ehtiyoj”, “motiv” va “faoliyat” atamalaridan foydalanadi. Y.A.Ponomarev topshiriqlar nazariyasida bir qator toifalarni yaratdi, xususan, o‘quv vaziyatida subyekt va obyektning o‘zaro ta’sirini, bilimlarni o‘zlashtirish, ularni takomillashtirish bo‘yicha subyektning faoliyatini aniqlaydi. O.Roziqov esa o‘quv topshiriqlarini ilmiy-pedagogik tadqiqotda o‘quv materiali bilan bog‘liqligi nuqtayi nazaridan tahlil qilgan. Uning fikriga ko‘ra, “o‘quv topshirig‘i o‘quv maqsadlariga bog‘liq bo‘lgan o‘quv materialining o‘zgartirilgan shaklidir”.

Shu o‘rinda o‘qitish ehtiyojlari asosida quyidagi xususiyatlar ta’kidlanadi: 1) qurish (strukturalash) imkoniyati; 2) strukturani qurish va qayta ko‘rib chiqish; 3) o‘quv materiali shaklining mavjudligi; 4) o‘quv jarayoni bosqichlarining mutanosibligi; 5) bir vazifani boshqalarga almashtirish imkoniyati; 6) ochiq tizim; 7) bir-birini to‘ldirish; 8) bilimlarni o‘rganish va takomillashtirish usullarining talablarga mosligi; 9) o‘qitish va o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish uchun sharoit yaratish[1]. Olim yana “Topshiriqlar insoniyat tomonidan to‘plangan tajribani aks ettiradi va shu bilan birga moddiy va ma’naviy qadriyatlarni yangilash va ularni yanada boyitish vositasiga aylanadi”[7,256], deb ta’kidlaydi.

Ta’limda “mashq” va “topshiriq” atamalarini mohiyatan farqlash masalasida ham muayyan tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, metodist-olim M.Saidovning o‘quv materiallari sirasida o‘quv topshiriqlarini uch turga bo‘lib, ularni o‘zaro farqlaydi va, ko‘pincha, o‘qituvchilar o‘z ish faoliyatlari davomida “mashq”, “topshiriq” va “masala” tushunchalari qorishtirib yuborilishini ta’kidlaydi. Olim pedagogika fanlari doktori A.G‘ulomovning “Mashq ham o‘quv topshirig‘ining bir shakli, ham o‘qitishning muayyan bir usuli,” degan fikriga qo‘shiladi va topshiriq mashqning bir bo‘lagi, u, asosan, mashqning shartida o‘z ifodasini topishini, topshiriq mashqqa qaraganda torroq tushunchani ifodalashini e’tirof etadi[8,25].

Ma’lumki, til darsliklarida, asosan, “mashq”, “savol” va “topshiriq” atamalari, tabiiy va aniq fanlarda masala atamasi qo‘llaniladi. Ularning barchasi o‘quv topshiriqlari sirasiga kiruvchi ish turi bo‘lib, mazkur atama ayrim tadqiqotlarda o‘quv-biluv topshiriqlari deb ham talqin qilinadi[9,13].

Yuqorida ta’kidlaganimiz kabi, til ta’limining asosiy maqsad va vazifasi o‘quv topshiriqlarining mazmun-mohiyati va vazifaviy farqlanishidan kelib chiqadi. Shu bois tadqiqot ishimizda “mashq”,“savol”, “topshiriq” atamalari mazmuni, qo‘llanishi, vazifalari va tasnifi masalasiga alohida to‘xtalib o‘tish lozim.

G‘.Hamroyevning ta’kidlashicha, topshiriq mashqni ham, savolni ham o‘z ichiga oladigan, talabani bilim olishga yo‘naltiradigan, baholashda ishtirok etadigan, takrorga asoslangan mashqlar orqali malaka hosil qilishni tashkil qiladigan asosiy o‘quv topshirig‘idir. Uzoq muddatli kuzatishlar, tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, “Ona tili” darsliklaridagi **mashq** deb nomlangan o‘quv topshiriqlari ham mashq emas, ya’ni mashqning talablariga javob bermaydi. Aslida mashq bilim berish vositasi emas, u ko‘nikma va malaka hosil qilish uchun qo‘llanilishi kerak. Topshiriq esa, bilim olish, mashg‘ulotni tashkil etish va o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarni baholashi, savol esa, talabni fikrlashga undashi, sinab ko‘rish uchun qo‘llanilishi lozim. Amalda esa, ular aralash holda qo‘llaniladi. Shu sababli metodlar, darsliklar mazmuni yangilansa ham, dars samaradorligi sezilarli oshmay,

kasbiy ko‘nikmalar to‘laqonli rivojlanmay kelmoqda. Shu ma’noda, o‘quv topshiriqlari ona tili ta’limi mazmunini yuzaga chiqarishda, kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda katta ahamiyatiga ega, ta’lim jarayonida o‘quv topshiriqlarini tuzish va ulardan foydalanishga alohida e’tibor berish talab etiladi.

1-jadval

T/r	Oliy filologik ta’limda amalda qo‘llaniladigan o‘quv topshiriqlari mazmuni	Taklif etilayotgan pragmatik o‘quv topshiriqlar
1.	Hozirgi o‘zbek adabiy tilining qanday tarixiy ildizlari bo‘lgan?	Hozirgi o‘zbek adabiy tiliga fonetik, leksik jihatdan eng yaqin qadimgi manbalar qaysilar? Fikiringizni asoslovchi misollar keltiring.
2.	«O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi» fanining boshqa fanlar bilan aloqasi haqida fikringiz?	O‘zbek tili o‘qitish metodikasi fanining bola psixologiyasi fani bilan qanday aloqasi mavjud? Fanlar o‘rtasidagi aloqani misollar bilan izohlang.
3.	Metod birlashma faoliyatiga rahbarlik qilish kimning zimmasiga yuklatiladi?	OTMda o‘qitish metodikasini rivojlantirish ishalrini qanday tashkil etish mumkin? Takliflar tayyorlang.

Oliy filologik ta’limda, xususan, o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishlarida ham, asosan, topshiriq va savoldan foydalaniladi. Ularda mashqlar mavjud emas, shuning uchun ham bo‘lajak filologlarning, ona tili va adabiyot o‘qituvchilarining og‘zaki va yozma nutqida kamchiliklar bartaraf bo‘lmay, ta’lim jarayoniga, ishlab chiqarishga qo‘shilib, o‘quvchilarning, atrofidagilarning savodxonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tahlil va natijalar. H.Jamolxonov muallifligidagi “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi o‘quv topshiriqlari taqdim qilingan:

Tekshirish savollari

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining qanday tarixiy ildizlari bo‘lgan?
2. Bunday tarixiy ildizlar va jarayonlardan xabardor bo‘lishning amaliy ahamiyati nimada?
3. Qadimgi o‘zbek tili qanday unlilardan tarkib topgan?
4. Eski turkiy va eski o‘zbek adabiy tillari vokalizmi haqida nimalami bilasiz?
5. Vokalizm tizimidagi kontrast juftliklarni qanday tushunasiz?
6. Hozirgi o‘zbek adabiy tili vokalizmida nechta unli bor? Ular yo‘g‘onlikingichkalik belgisiga ko‘ra kontrast juftliklarni hosil qiladimi?
7. Qadimgi turkiy til konsonantizmi qanday undoshlardan tarkib topgan? Eski o‘zbek adabiy tili konsonantizmi-chi?
8. Hozirgi o‘zbek adabiy tili va qadimgi turkiy til undoshlari tizimining asosiy farqlari nimada?
9. Qadimgi turkiy tildan hozirgi o‘zbek adabiy tiligacha bolgan tarixiy taraqqiyot jarayonida fonem alarning paradigm atik va sintagm atik xususiyatlarida qanday o‘zgarishlar yuz bergan?
10. Singarmonizm haqida nimalarni bilasiz? Hozirgi o‘zbek adabiy tilida singarmonizm bormi? Shevalarda-chi?
11. Qadimgi turkiy tildan hozirgi o‘zbek adabiy tiligacha bo‘lgan davrda tilning leksik sathida (lug‘at boyligida) qanday o‘zgarishlar bo‘lgan?
12. Tilning grammatik qurilishida bo‘lgan o‘zgarishlar haqida nim alarni bilasiz?
13. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining dialektal asoslari haqida qanday fikrlar bor?
14. O‘zbek tili shevalari qanday lahjalarga birlashadi?
15. «Hozirgi o‘zbek adabiv tili» kursining qanday bo‘limlari bor?[10,260],

Mazkur savollar talabalarga bilim berish yoki ularning mavzu bo‘yicha o‘rganganlarini tekshirishga xizmat

qiladi. Aslida darslikda faqat savollar emas, topshiriqlar ham, zarur o‘rinlarda mashqalar ham berilishi maqsadga muvofiqdir.

Bu borada keyingi yillarda yana bir muammo paydo bo‘ldi. Filologiya fakultetlariga ham O‘zbek tili va adabiyoti fakultetlarga ham “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fani o‘quv rejaga kiritilgan. Biroq ikkalasi ikki xil ixtisoslik bo‘lsa ham, dasturdgi mavzular bir xil, ya’ni leksema, frazema, fonema, semantik maydon va boshqa shunga o‘xshash o‘ta ilmiy mavzular qamrab olingan. Bo‘lajak filologlarga mazkur mavzu va tushunchalar kerak, ammo OTM o‘qituvchilari bu qadar chuqur bilishi pragmatik tamoyillarga mos kelmaydi, bizningcha.

2-jadval

T/r	**Filologiya va tillarni o‘qitish ixtisosligida “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanidan o‘quv topshiriqlar**	**O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishida “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanidan o‘quv topshiriqlar**
1.	Frazema nima va uning leksemaga munosabatini izohlang.	Iboraning so‘z bilan ma’nodoshligini izohlang. Misolar keltiring.
2.	Fonemaning tovushdan farqini ilmiy nazariy fikrlar orqali asoslang.	Tovush va uning so‘zlardagi talaffuzi, tovush harf munosabatini tushuntiring.
3.	Semantik maydon nima?	Bosh va ko‘chma ma’no, ma’nodosh va ko‘p ma’noli so‘zlarni qanday farqlaysiz?

Universitetlar, shuningdek pedagogika institutlari filologiya fakultetlari uchun chop etilgan “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” darsligida esa quyidagi maznundagi savol va topshiriqlar berilgan:

“O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi”ning fan sifatida shakllanishi, rivojlanishi va hozirgi ahvoli to‘g‘risida nimalarni bilasiz?

“O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” fanining shakllanish jarayonini nechta davrga bo‘lib o‘rganish mumkin?

“Izohli o‘quv” ta’limi deganda nimani tushunasiz?

XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ta’lim sohasida yuz bergan o‘zgarishlar haqida nimalar bilasiz?

“Ona tili”dan yangi yo‘nalishdagi darsliklarning yaratilishiga nimalar asos bo‘lgan?

50–80-yillarda o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi fanining rivojlanishida kimlarning ilmiy qarashlari va asarlari muhim ahamiyatga ega bo‘lgan?

Mustaqillik yillarida ona tili ta’limi sohasidagi islohatlar haqida so‘zlang?

“O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” fanining obyekti, predmeti, maqsad va vazifalarini asoslang. Ona tilidan zaruriy bilim, malaka va ko‘nikmalar tizimi deganda nimani tushunasiz?

“O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” fanining ilmiy tadqiqot metodlarini ayting va asoslab bering. Diagnostik tahlil va uning bosqichlari haqida gapirib bering.

“O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” fanining boshqa fanlar bilan aloqasi haqida fikringiz? O‘qituvchining ijodkorligi, yaratuvchanligi deganda nimani tushunasiz?

OTM ona tili metod birlashmasining vazifalari nimalardan iborat? Yosh o‘qituvchilar bilan qanday ishlar amalga oshiriladi?

OTMda fan kabineti qanday jihozlanadi?

Fan o‘qituvchisi tadrijiy ish rejasini tuzishda nimalarga amal qilishi kerak?

OTMda o‘zbek tili fanidan o‘quv-metodik majmua yaratishning ahamiyati nimada?

Metod birlashma faoliyatiga rahbarlik qilish kimning zimmasiga yuklatiladi? Metod birlashma yig‘ilishlari yilda necha marta va qachon o‘tkaziladi?[11,376]

Mazkur darslik belgilangan talablar asosida shakllantirilgan, biroq undagi o‘quv topshiriqlarning mazmunini o‘rgartirish, talabani fikrlashga, mulohaza qilishga yo‘naltiradigan pragmatik topshiriqlar tuzish maqsadga muvofiqdir. Darslikda keltirilgan “Mustaqillik yillarida ona tili ta’limi sohasidagi islohatlar haqida

so‘zlang?” topshirig‘i so‘roq belgisi qo‘yilgan bo‘lsa-da topshiriq hisoblanadi, ammo bu o‘quvchini fikrlashga undamaydi. Yoki “«O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi» fanining obyekti, predmeti, maqsad va vazifalarini asoslang” degan topshiriq talabni darslikning kerakli betiga murojaat qilishga undaydi xolos. Bizningcha, darsliklarda talabani mavzu yuzasidan alohida izlanishga yo‘naltiradigan topshiriqlar, kreativ savollar bo‘lishi kerak.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, oliy filologik ta’limda talabalarning o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha malakali mutaxassisga aylanishi uchun darsliklardagi, jumladan, dars mashg‘ulotlaridagi savol va topshiriqlar mazmunini takomillashtirish zarur. Aks holda, talaba mutaxassislik bo‘yicha zarur ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lolmay, jamiyatda o‘z o‘rnini topolmay qolishi mumkin. O‘quv topshiriqlari ta’limning tayanch nuqtasi deyish mumkin, mashg‘ulotlar davomida topshiriqlar orqali talabani istalgan tarafga yo‘naltirish mumkin. Agar tilshunislik fanlarini o‘qitishda faqat savollar bilan kifoyalanilmay, topshiriq, imkon doirasida mashqlardan ham foydalanilsa, ta’lim sifati oshishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Adabiyotlar

1. Аллаёров И.А. Дидактические основы активного обучения. Автореф. дисс. ... докт. пед. наук. –Т.: 1994. -44 с.; .; Розыков О. Основы оптимального применения системы учебных задач в обучении. –М.: Ўқитувчи, 1981. -103 с.; Ибрагимов Р. Бошланғич синф ўқувчилари билиш фаолиятини шакллантиришнинг дидактик асослари: Пед. фанл. докт. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент: Қори Ниёзий номли ЎзПФИТИ, 2002. – 265 б.; Адизов Б.Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари. Пед. фанл. докт. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. –Т.: 2003. -280 б.; Маҳмудов М.Ҳ. Таълимни дидактик лойиҳалашнинг назарий асослари. Пед. фанл. докт. илм. дараж. олиш учун ёзилган дисс. автореферати. –Т.: 2004. -42 б.
2. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – М.: Педагогика, 1972. – 576 с.
3. Давронов, И. Э. Некоторые аспекты интерпретации понятий «задание» и «упражнение» / И. Э. Давронов. Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2012. – № 8 (43). – С. 323–326.
4. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики. – М.: Педагогика, 1972. – 576 с.
5. Розысков О.Р. Теоретические основы оптимального применения системы учебных задач в обучении школьников (на материалах гуманитарных предметов). Автореферат дисс…док. пед. наук. – Тбилиси, – 1986. – 50 с
6. Hamroyev G‘. Ona tilidan o‘quv topshiriqlarini tuzish metodikasi. Monografiya. –Toshkent, Donishmand ziyo, 2021. 156 b.
7. Розиков О.Р. ва бошкалар. Дидактика. – Т.: Фан, 1997. – 256 б.

Dissertatsiya va tezislar.

8. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: пед. фан. ном-ди дисс. автореф.ТДПУ. –Тошкент, 2000. – 25 б.
9. Қўчқорова Ф. М. Янги авлод дарсликларида тақдим этиладиган ўқув материалларини концентризм принципи асосида структуралашнинг дидактик параметрлари: фалсафа фан. докт. ... дисс.(PhD). – Тошкент, 2018. –13-бет.
10. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. –Toshkent. Talqin. 2005, 260 b.

Jurnal maqolasi

11. Khazratqulova O.A. //Linguistic foundations of philological education reform.// JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH. I SSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6.4/2023, SJIF(2023)-3,778. 27.12.2023 P.870-874.
12. Hazratqulova O.A. Oliy filologik ta'limda o‘quv topshiriqlari ustida ishlash bilan bog‘liq muammolar // O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/11/1] ISSN 2181-7324. B.259-261.

SIYOSIY MODERNIZATSIYA TUSHUNCHASINING RIVOJLANISHIGA DOIR KONSEPTUAL QARASHLAR TAHLILI

Furqat Anorboyev,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati mas’ul xodimi,
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada siyosiy modernizatsiya tushunchasiga xos konseptual qarashlari, bunda siyosiy institutlarning o‘rni, uning jamiyatda davlat boshqaruvini rivojlantirish barobarida faol fuqarolarni shakllantirishga ta’siri, jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarning siyosiy tahlili hamda uning ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy ahamiyati ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *modernizatsiya, siyosat, siyosiy ong, siyosiy saviya, siyosiy, ijtimoiy, siyosiy institutlar, zamonaviy jamiyat, siyosiy tafakkur, g‘oya, mutanosiblik.*

Аннотация

В статье рассмотрены концептуальные подходы к понятию политической модернизации, роль политических институтов в этом процессе, их влияние на развитие государственного управления и формирование активных граждан, а также политический анализ социальных изменений в обществе и их социальное, политическое и духовное значение с научной точки зрения.

Ключевые слова: *модернизация, политика, политическое сознание, политический уровень, политический, социальный, политические институты, современное общество, политическое мышление, идея, гармония.*

Abstract

The article examines conceptual approaches to the concept of political modernization, the role of political institutions in this process, their impact on the development of public administration and the formation of active citizens, as well as the political analysis of social changes in society and their social, political, and spiritual significance from a scientific perspective.

Keywords: *modernization, politics, political consciousness, political level, political, social, political institutions, modern society, political thinking, idea, harmony.*

Siyosiy tizimning barqarorligi har qanday davlat boshqaruvining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Unga ta’sir etuvchi omillardan biri siyosiy modernizatsiya hisoblanadi. Siyosiy fanlarda ushbu tushuncha muhim kategoriya hisoblanadi.

Siyosiy modernizatsiya[1] deganda noan’anaviy siyosiy tizimning jamiyatdagi o‘zgarishlarga muvaffaqiyatli moslashishi sifatida ta’riflash mumkin. Bunda hokimiyatni ratsionalizatsiya qilish, yangi siyosiy funksiyalarni differensiallashtirish hamda bu funksiyalarni bajarish uchun ixtisoslashgan tuzilmalarni ishlab chiqish va ommaviy ishtirok etish kiradi.

Shuningdek, zamonaviy bo‘lmagan siyosiy tizimning post-an’anaviy zamonaviy siyosiy tuzumga chuqur o‘zgarishini ham ko‘rsatishi mumkin. Siyosiy modernizatsiya davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati, demokratiya va inson huquqlari sohalaridagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonning asosiy maqsadi davlat tizimini samarali, adolatli va barqaror qilishdir.

Bunday jarayonlarning o‘rganilishi, ayniqsa, XX va XXI asrda o‘zgargan siyosiy real jarayonlarni tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Siyosiy modernizatsiya o‘zgarishlari bir qator omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ularga ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va texnologik rivojlanish, shuningdek, xalqaro siyosiy jarayonlarga ta’sir qiluvchi omillar kiradi.

Har bir mamlakatning siyosiy tizimi o‘zining tarixiy rivojlanish yo‘li, ijtimoiy strukturasi va madaniy xususiyatlariga qarab farq qiladi, shuning uchun siyosiy modernizatsiya jarayoni har bir davlatda alohida amalga oshiriladi. Bugungi kunda siyosiy modernizatsiya jarayoni, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda siyosiy islohotlar va yangi institutlar yaratishni talab qiladi.

Bunda ko‘pincha demokratik tuzumlarni rivojlantirish, korrupsiyaga qarshi kurashish, inson huquqlari va fuqarolik erkinliklarini ta’minlash kabi muhim elementlarni o‘z ichiga oladi. Siyosiy modernizatsiya jarayonining muvaffaqiyati va samaradorligi ko‘plab omillarga, jumladan, xalqaro siyosat, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy barqarorlikka bog‘liq.

Bu jarayon V. Starostin tomonidan qayd etib o‘tilgan bo‘lib [2], unga ko‘ra, modernizatsiyaning maqsadi va ma’nosi faqat iqtisodiy o‘sishdan emas, balki texnologik madaniyat, boshqaruv madaniyati, siyosiy va ijtimoiy madaniyatlarni o‘z ichiga oluvchi ijtimoiy madaniyat taraqqiyotining ma’lum darajasiga erishishdan iboratdir.

Shu o‘rinda, siyosiy modernizatsiya jarayonidagi o‘zgarishlarni tahlil qilish, ularning qanday qilib davlat boshqaruvini, fuqarolik jamiyatini va ijtimoiy tuzilmalarni o‘zgartirishga olib kelganini o‘rganish zarur. Bunda davlatlar o‘rtasidagi farqlar, ularning siyosiy tizimlari, tarixiy yo‘llarini va xalqning modernizatsiya jarayoniga bo‘lgan qarashlarini inobatga olish muhim sanaladi. Siyosiy modernizatsiya jarayonining tahlili orqali uning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz amalga oshirilgan holatlarini, shuningdek, bu jarayonlarning davlat va jamiyat uchun qanchalik samarali bo‘lishi mumkinligini aniqlashga erishish mumkin. Bu o‘zgarishlar, ayniqsa, demokratiya va siyosiy islohotlar sohasida, jamiyatda kuchli fuqarolik idorasini shakllantirish va siyosiy institutlarning ishonchliligini ta’minlashga qaratilgan muhim ahamiyatga ega.

Siyosiy modernizatsiya jarayoni jamiyatning siyosiy tuzilmalari, institutlari va amaliyotlarida sezilarli o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Chunki u yanada murakkab va o‘zaro bog‘langan dunyo talablariga moslashib boradi. Bu o‘zgarishlar odatda iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy o‘zgarishlar, madaniy siljishlar va texnologik taraqqiyot kuchlari bilan ta’minlanadi.

Siyosiy modernizatsiya ko‘pincha demokratik boshqaruvga o‘tish bilan bog‘liq bo‘lsa-da, turli sharoitlarda turli yo‘llarni bosib o‘tishi mumkin bo‘lgan ko‘p qirrali va chiziqli bo‘lmagan jarayon hisoblandi. Siyosiy modernizatsiyaning asosiy omillari iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlarda yotadi. Iqtisodiy rivojlanish, xususan, sanoatlashtirish, urbanizatsiya va o‘rta sinfning o‘sishi an’anaviy siyosiy tuzilmalarga tez-tez qarshilik ko‘rsatadigan yangi ijtimoiy dinamikani keltirib chiqaradi. Jamiyatlar sanoatlashgani sari, e’tibor ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotning tobora murakkablashib borayotganini boshqarish uchun yanada uyushgan va samarali boshqaruv tizimlariga bo‘lgan ehtiyojga qaratiladi.

Bular zamonaviy iqtisodiyot talablariga javob bera oladigan vakillik demokratiyalari, siyosiy partiyalar kabi siyosiy institutlarning rivojlanishiga olib keladi. Masalan, ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda shahar markazlarining o‘sishi va ta’limning kengayishi ko‘proq siyosiy ishtirok va vakillik talabini keltirib chiqaradi. Ushbu jarayonga qo‘shilish talabi ko‘pincha ilgari siyosiy jarayondan chetlashtirilgan guruhlardan, masalan, ishchilar harakati, qishloq aholisi yoki etnik ozchiliklardan kelib chiqadi. Iqtisodiyot modernizatsiya qilinar ekan, bu guruhlar boshqaruvda ko‘proq so‘zni egallashga intiladi. Bu esa tez-tez islohotlarga, jumladan, saylov huquqlarini kengaytirishga, konstitutsiyaviy o‘zgarishlarga va yanada inklyuziv institutlarni rivojlantirishga olib keladi.

Siyosiy modernizatsiya bo‘yicha ilmiy olimlarning yondashuvlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu jarayonlar doimo ularning diqqat markazida bo‘lgan. Jumladan, Maks Veberning jamiyatni ratsionalizatsiya qilish bo‘yicha ishi iqtisodiy o‘zgarishlar va siyosiy modernizatsiya o‘rtasidagi munosabatni tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Veberning ta’kidlashicha, kapitalizmning yuksalishi va byurokratik institutlarning kengayishi siyosiy tizimlarni modernizatsiya qilishda markaziy rol o‘ynagan [3]. Uning fikricha, jamiyatlar sanoatlashgan sari hokimiyatning an’anaviy shakllari (monarxiya yoki patrimonial boshqaruv kabi) borgan sari oqilona-huquqiy boshqaruv tizimlari bilan almashtiriladi.

Devid Xeld global siyosiy o‘zgarishlar kontekstida Veber va Marks nazariyalarini kengaytirib, iqtisodiy globallashuvning siyosiy tizimlarga ta’sirini ta’kidladi [4]. U rivojlanayotgan mamlakatlardagi siyosiy modernizatsiyani xalqaro iqtisodiy kuchlar milliy siyosiy taraqqiyotga ta’sir qiladigan global kapitalizm doirasida tushunish kerakligini ta’kidladi. Bundan tashqari siyosiy modernizatsiya jarayonida madaniy siljishlar va g‘oyalarning tarqalishi yaqqol ko‘zga tashlanishi mumkin.

Jamiyatlar modernizatsiya qilinar ekan, shaxs huquqlari, demokratiya va tenglik kabi yangi qadriyatlar e’tiborni tortadi. Bu qadriyatlar ko‘pincha ijtimoiylashuv jarayonida paydo bo‘ladi. Bu yerda fuqarolar ko‘pincha

ta’lim, ommaviy axborot vositalari yoki global aloqalar orqali yangi g‘oyalarga duch keladilar. Ushbu g‘oyalarning tarqalishi siyosiy islohotlar talablarini rag‘batlantirishi mumkin. Eski boshqaruv tizimlari eskirgan yoki aholi ehtiyojlariga javob bermaydigan bo‘lsa, sekin-astalik bilan o‘z o‘rnini yo‘qotib boradi.

Shu bilan birga, madaniy siljishlar siyosiy qonuniylikni qayta baholashga olib kelishi mumkin. Masalan, an’anaviy monarxiyalar yoki avtoritar rejimlar hokimiyatni yo‘qotishi mumkin, chunki yangi avlodlar demokratiya va inson huquqlari g‘oyalarini qabul qilishga odatlanadilar. Demokratik g‘oyalarning internet va ijtimoiy media kabi global tarmoqlar orqali tarqalishi ham chekka ovozlarni safarbar qilish va hukumatdan o‘zgarishlar talab qilish imkonini berib, siyosiy modernizatsiya jarayonini tezlashtiradi.

Ushbu madaniy-mafkuraviy siljishlarni rag‘batlantirishda fuqarolik jamiyati, jumladan, nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT), ommaviy harakatlar va faollarning o‘rni alohida ahamiyat kasb etishi mumkin bo‘ladi.

Gabriyel Almond va Verbaning fuqarolik madaniyati [5] (1963) asari siyosiy modernizatsiya nazariyasidagi muhim tadqiqotdir.

Ular siyosiy madaniyat barqaror demokratik tizimlar rivojlanishining asosiy omili ekanligini ta’kidladilar. Bunda fuqarolarning faolligi, siyosiy ishtiroki va demokratik institutlarni shakllantirishda siyosiy qadriyatlarning o‘rni muhim hisoblanadi. Shuningdek, ular an’anaviy jamiyatlardan zamonaviy demokratiyaga o‘tish, demokratik institutlarga bo‘lgan ishonchni oshirish kabi siyosiy munosabat va xatti-harakatlarning o‘zgarishini o‘z ichiga oladi, deb taklif qilishdi.

Aleksis de Tokvilning “Amerikada demokratiya” asari (1835)[6] ham siyosiy modernizatsiyada madaniy omillarning rolini ifoda etadi. Uning ta’kidlashicha, AQShdagi demokratiya Amerika jamiyatining o‘ziga xos madaniy xususiyatlari, jumladan, tenglik va shaxsiy erkinlikka sodiqlik bilan shakllangan. Uning tahlili madaniyat, ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlar siyosiy tizimlar faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi va siyosiy modernizatsiya demokratik me’yorlarga madaniy siljishni talab qilishini ko‘rsatdi.

Samuel Xantingtonning “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi”[7] (1996) asaridagi tezisi siyosiy modernizatsiya umumbashariy naqshga amal qiladi, degan g‘oyaga qarshi chiqadi. Buning o‘rniga u turli sivilizatsiyalar (masalan, G‘arb, Islom, Konfutsiy) o‘ziga xos siyosiy madaniyatlarga ega ekanligini va madaniy qadriyatlar siyosiy modernizatsiya sur’ati va turiga sezilarli darajada ta’sir qilishini ta’kidlaydi. Xantington G‘arb uslubidagi demokratiyaning tarqalishi kafolatlanmaganligini va madaniy omillar ko‘pincha turli mintaqalarda turli xil siyosiy natijalarga olib kelishini taklif qildi.

Siyosiy modernizatsiyaning markaziy xususiyatidan yana biri siyosiy tuzilmalarni institutsionallashtirishdir. Bu siyosiy tizimlarning yanada uyushgan, rasmiylashtirilgan va bashorat qilish mumkin bo‘lgan jarayonini anglatadi. Modernizatsiyaning dastlabki bosqichlarida siyosiy tizimlar ko‘pincha beqarorlikni namoyon qiladi yoki siyosiy hokimiyat yagona rahbar va kichik elita qo‘lida to‘plangan shaxsiy boshqaruvi bilan tavsiflanadi.

Vaqt o‘tishi bilan siyosiy tizim kamolotga yetgan sari siyosiy amaliyotlar institutsionallashib, hisobdorlik, oshkoralik va muntazam siyosiy ishtirok etish mexanizmlarini yaratadi. Masalan, siyosiy partiyalar, saylov tizimlari va vakillik institutlarining rivojlanishi siyosiy modernizatsiyaning asosiy bosqichi hisoblanadi. Ushbu institutlar boshqaruvi turli manfaatlar o‘rtasida muvofiqlashtirishni talab qiladigan zamonaviy jamiyatning tobora murakkab talablarini boshqarish uchun mo‘ljallangan.

Mustaqil sud hokimiyati, erkin matbuot va hisobdor byurokratiyaning o‘rnatilishi hokimiyatning taqsimlanishi va rahbarlarning jamoatchilik oldida mas’uliyatini ta’minlash orqali siyosiy tizimni yanada mustahkamlaydi. Biroq, institutsionalizatsiya jarayoni qiyinchiliklardan xoli emas. Ko‘p hollarda yangi siyosiy institutlar zaif bo‘lishi mumkin, ayniqsa, avtoritarizm yoki ziddiyatdan o‘tayotgan mamlakatlarda bu alohida ahamiyat kasb etadi.

Institutsional zaifliklar, korrupsiya va hokimiyat ustidan samarali tekshiruvlarning yo‘qligi siyosiy tizimlarning barqarorligi va qonuniyligini buzishi mumkin. Bu esa siyosiy orqaga qaytishga yoki demokratik va avtokratik elementlarni birlashtirgan gibrid rejimlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Samuel Xantingtonning siyosiy tartib bo‘yicha ishida “O‘zgaruvchan jamiyatlarda siyosiy tartib” (1968) modernizatsiya jarayonida siyosiy institutlarning muhimligini ta’kidlanadi[8].

Uning ta’kidlashicha, jamiyatlarni modernizatsiya qilishda siyosiy barqarorlikni saqlash uchun institutsionalizatsiya zarur. Siyosiy institutlarning institutsionalizatsiyasiz modernizatsiya beqarorlikka yoki siyosiy tizimlarning qulashiga olib kelishi mumkin. Xantington siyosiy hokimiyatning samarali amalga oshirilishi va nazorat qilinishini ta’minlash uchun kuchli institutlar (masalan, siyosiy partiyalar, huquqiy tizimlar) yaratish muhimligini ta’kidladi.

Yana bir siyosatshunos olim Mansur Olsonning jamoaviy harakatlar mantiqi va institutsional samaradorlik nazariyasi siyosiy modernizatsiyada institutlarning ahamiyatini tushunishga yordam beradi. Uning ta’kidlashicha, modernizatsiya qilinayotgan jamiyatlarda kuchli institutlar jamoaviy harakat muammolarini yengishda yordam beradi hamda shaxslar va guruhlarning jamoat manfaati yo‘lidagi xatti-harakatlarini muvofiqlashtiradi. Olsonning fikricha, zaif yoki parchalangan institutlar siyosiy taraqqiyot va iqtisodiy taraqqiyotga to‘sqinlik qiladi[9].

Duglas Nort yetakchi iqtisodchi va siyosatshunos, iqtisodiy va siyosiy modernizatsiyada institutlarning muhimligini ta’kidlaydi. Institutions, Institutional Change and Esonomis Performanse[10] (1990) asarida u insonlar o‘zaro munosabatlarini tuzuvchi rasmiy va norasmiy qoidalar sifatida belgilangan institutlar siyosiy va iqtisodiy ishtirokchilarni rag‘batlantirishni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Uzoq muddatli siyosiy barqarorlik va barqaror iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash uchun samarali institutlar zarur.

Xulosa qilib aytganda, siyosiy modernizatsiyaning eng muhim jihatlaridan biri – bu kengroq demokratlashtirish sari harakatdir. Jamiyatlar modernizatsiya qilinar ekan, ko‘pincha saylov huquqini kengaytirish, siyosiy huquqlarni himoya qilish hamda erkin va adolatli saylovlarni o‘tkazish imkonini beruvchi tizimlarni yaratishni o‘z ichiga olgan siyosiy ishtirokka talab ortib boradi. Avtoritar yoki monarxiya tuzumlaridan demokratik boshqaruvga o‘tish odatda bosqichma-bosqich jarayon bo‘lib, siyosiy elita, ijtimoiy harakatlar va fuqarolik jamiyati guruhlarini islohotlar o‘tkazishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. https://www.sciencedirect.com/topics/computer-science/political-modernization
2. https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiy/o-zbekistonda-siyosiy-modernizatsiya-jarayonlari-moxiyati-mazmuni-va-xususiyatlari
3. Max Weber; Hans Heinrich Gerth; Bryan S. Turner. From Max Weber: essays in sociology (англ.). — Psychology Press, 1991. — P. 1
4. The Cambridge University List of Members up to 31 December 1991, Cambridge University Press, 1991, p. 610
5. https://www.researchgate.net/publication/374493062_Analyzes_related_to_the_formation_of_political_culture
6. https://www.civisbook.ru/files/File/Tokville_Democracy_1.pdf
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Samuel_P._Huntington
8. Хантингтон С. Третья волна. Демократизация в конце XX века. — М.: РОССПЭН, 2003.С.45
9. Мансур Олсон. Власть и процветание. Перерастая коммунистические и капиталистические диктатуры = Power and Prosperity: Outgrowing Communist and Capitalist Dictatorships. — М.: Новое издательство, 2012. — 212 р
10. https://www.researchgate.net/publication/228179880_Institutions_Institutional_Change_and_Economic_Performance

VIZUAL VOSITALAR YORDAMIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Abrorjon Yarashev,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini axborot ta’lim muhitining vizual vositalari yordamida rivojlantirish imkoniyatlarini izlash va amalga oshirish g‘oyalari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *kasbiy kompetensiya, vizual vositalar, motivatsion, refleksiv, kognitiv, jarayon, sifat, intellektual, texnologik, nazorat, baholash.*

Аннотация

В данной статье представлена информация о поиске возможностей развития профессиональной компетентности будущих учителей с помощью визуальных инструментов информационно-образовательной среды и идей для реализации.

Ключевые слова: *профессиональная компетентность, наглядное пособие, мотивационный, рефлексивный, познавательный, процессный, качественный, интеллектуальный, технологический, контрольный, оценивающий.*

Abstract

This article provides information on the search for opportunities to develop the professional competence of future teachers using visual tools of the information and educational environment and ideas for implementation.

Key words: *professional competence, visual aid, motivational, reflective, cognitive, process, qualitative, intellectual, technological, control, evaluation.*

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini axborot ta’lim muhitining vizual vositalari yordamida rivojlantirishni tadqiq etishning tayanch tushunchalarini nazariy jihatdan tahlil qilish bilan bog‘liq tadqiqotlar dolzarb bo‘lib qolmoqda. Kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish, mustaqil ijodiy izlanishga qodir mutaxassislarni tayyorlashda jamiyatning ijtimoiy tartibini amalga oshirishga xizmat qiluvchi bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy va shaxsiy o‘zini o‘zi namoyon qilishiga asoslangan shaxsning kasbiy va ijodiy o‘zini o‘zi rivojlantirish bosqichlaridan biridir. Shubhasiz, bugungi kunda insonning dialektik o‘zini o‘zi anglashi kasbiy o‘zini o‘zi belgilashi (aniqlashi) bilan ham bog‘liq.

Oliy ta’lim muassasasi talabalarining samarali kasbiy o‘zini o‘zi belgilash ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

- psixologik va psixofiziologik idrokning shaxsiy o‘ziga xos xususiyatlarini bilish;
- axborot jamiyati tomonidan ushbu tanlovga qo‘yiladigan talablarni o‘z ichiga olgan kasbiy tanlovni anglash;
- ta’lim muassasasi sharoitiga moslashish va tanlagan kasb bo‘yicha ishlashga tayyorlik;
- tanlangan kasb sohasida yuqori rivojlanish darajasiga erishish uchun maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni anglash;
- tanlangan kasb bo‘yicha kelgusida ishlashga tayyorlik, shuningdek, ta’limni doimiy ravishda takomillashtirish va davom ettirishga yo‘naltirilganlik;
- butun hayot davomida ta’lim olishni davom ettirishga tayyorlikni anglash bilan birgalikda kasbni o‘zgartirish hamda qayta yo‘naltirish imkoniyatlarini hisobga olish.

Bir qancha olimlar tomonidan talabalarda ta’lim jumladan, mustaqil ta’lim olish motivatsiyasini kuchaytirish, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning dolzarbligi hamda ahamiyati alohida ta’kidlanib, uni rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan omillarni izlash ishlari olib borilmoqda. Axborot ta’lim muhitining vizual vositalari yordamida shaxsiy mustaqil ta’lim va kasbiy faoliyat sohasidagi mustaqil ta’limning yaxlitligi g‘oyasiga suyanuvchi pedagogik shart-sharoitlarni shakllantirishga imkon berdi. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar

uchun motivatsion, refleksiv, kognitiv va kognitiv faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan an’anaviy komponentlarni asos qilib olganlar deb xulosa qilish mumkin. Masalan:

- motivatsion kompetensiya - bilish faoliyatini mustaqil baholash va mustaqil nazorat qila olish qobiliyati sifatida;
- metodik kompetensiya - o‘z-o‘zini boshqarishning tashkiliy va tartibga solish funksiyalari bilan bir qatorda, vosita va usullarni o‘zlashtirish va faoliyatda mustaqillikni namoyon qilish orqali;
- kommunikativ kompetensiya - til afzalliklari, ko‘nikma va malakalar orqali;
- kasbiy-vaziyatli kompetensiya - mustaqil ta’lim faoliyati natijalarini qo‘llash orqali ochib beriladi.

Ushbu komponentlar yetarlicha murakkab baholanadi, chunki kasbiy kompetensiyaning barcha komponentlarini shakllantirish va rivojlantirish ilmiy-metodik ta’minot, pedagogik funksiyalar va tizimni shakllantiruvchilar, oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisining axborot muhitida loyihalash, tashkiliy, kommunikativ, gnostik, tadqiqot va integrativ vizual vositalar bilan ishlash bo‘yicha pedagogik ko‘nikmalari bilan bevosita bog‘liq.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, bu komponentlar o‘lchash uchun qiyin sanaladi, chunki shaxsning motivatsiyasini uning qadriyatlaridan, refleksiyani baholash va o‘z-o‘zini baholashdan va shaxsning kognitiv sohasini uning faoliyatidan ajratish qiyin. Motivatsion-qadriyatli komponent va motivatsiyani rivojlantirishda ko‘plab mualliflar ushbu komponentni bo‘lajak o‘qituvchilarda shakllantirish va rivojlantirish milliy ta’limning muhim muammosi ekanligini ta’kidlaydilar.

Zamonaviy jamiyatda pedagog kasbi har doim ham muhim yoki nufuzli kasblardan biri sifatida e’tirof etilmaydi. Bizning fikrimizcha, o‘qituvchining o‘z-o‘zini amalga oshirishi uning dars beruvchi fanga bo‘lgan shaxsiy qiziqishi va keng ma’noda o‘zini o‘zi takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoji orqali sodir bo‘ladi. Motivatsion-qadriyatli komponent ichki motivdan boshlanadi, u esa o‘z navbatida xulq-atvorni tashkil etishga yordam berib, shaxsning yo‘nalishini aniqlash, kasbiy faoliyatida yangi marralarni zabt etish hamda raqobatbardoshlikning yaqin va uzoq muddatli maqsadlarini belgilashga yordam beradi.

Shaxsning motivatsion-qadriyatli sohasi haqida gapirganda, ta’kidlash joizki, uning asosiy maqsadi o‘quvchilarini ta’lim va mustaqil ta’lim olishga yo‘naltirish va ularning barkamol shaxs qadriyati sifatida mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan motivlarini rivojlantirishdan iborat bo‘lgan o‘z kasbiy o‘sishiga va o‘zini o‘zi anglashga intilishdir. Pedagogning kasbiy rivojlanganlik motivining yuqori darajasini mahoratga erishish va bo‘lajak o‘quvchilarga namuna bo‘la olish istagi deb hisoblaymiz. Ushbu istakga mustaqil ta’lim motivi nafaqat o‘qituvchi shaxsiga, balki o‘quvchiga ham qaratilgan taqdirda erishish mumkin.

O‘qituvchilarda motivatsion-qadriyatli komponentni rivojlantirish bo‘yicha bizning ideal tasavvurimiz, kasbiy o‘zaro ta’sir vaziyatlarida, vizual vositalar va elektron ta’lim resurslarini loyihalashda, birgalikda samarali ishlash, “mening fanim emas” pozitsiyasini qayta ko‘rib chiqish, bir xil tushunchalar va tezauruslar asosida fanlar (masalan, pedagogik)ning butun bir modulini shuningdek, vizual vositalarni birgalikda loyihalashdan iborat.

Refleksiv-baholash komponentini o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z shaxsini tanqidiy baholash, o‘z harakatlarini bashoratlash va nazorat qilish bilan tavsiflash mumkin. Ushbu tadqiqot kontekstida ushbu komponent o‘z his-tuyg‘ulari va tajribasini tahlil qilish, o‘qitish metodikasi bo‘yicha o‘z bilimlarini (metod, usul, yondashuv va pedagogik qobiliyatlari) o‘quvchilarga yetkazish, shuningdek, vaqt doiralarini baholash demakdir. Bundan tashqari, komponent o‘z ichiga maktab dasturlari mazmunini baholash, asosiy va muhim narsalarni ajrata olish qobiliyatini baholash va turli pedagogik vazifalarni hal qilish uchun qo‘llaniladigan vizual ko‘rgazmali vositalar arsenalini baholashdir.

Kognitiv-faoliyatli komponent bu rivojlangan fikrlash faoliyati, o‘rganish, tasavvur qilish, ijodkorlik, fazoviy tasavvurlarni qamrab oluvchi kognitiv qobiliyat bo‘lib, u dastlab umumlashgan ko‘nikmalarga, keyin esa yakuniy natijada o‘quv va kasbiy faoliyatning shakllanishiga, ya’ni kelajakdagi faoliyatda rivojlangan kasbiy ko‘nikma va mahoratga olib keladi.

Kognitiv komponent shaxsning o‘zini o‘zi anglash va o‘zini o‘zi identifikatsiya qilish tuzilmasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u shaxsning “Men-konsepsiyasi”ga integratsiya qilinishi mumkin bo‘lgan o‘zi, shaxsiy fazilatlari, tashqi ko‘rinishi, qobiliyatlari va boshqalar haqidagi tasavvurlarni o‘z ichiga oladi. Psixologiyada kognitiv (yoki aqliy) jarayonlarga sezgi, idrok, tafakkur va xotira kiradi. Ushbu tadqiqot

kontekstida, mustaqil ta’lim faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan mustaqil ta’lim kompetensiyasi ko‘rib chiqilganligi sababli, biz ko‘plab mualliflar tomonidan alohida ko‘rib chiqilgan kognitiv va faoliyatli komponentlarni birlashtirdik.

Kognitiv-faoliyatli komponent ta’lim va ta’lim olish faoliyatining keyingi majmui sifatida olingan ma’lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va sintez qilish natijasida qo‘yilgan kasbiy vazifalarga erishishda texnologiya, bilim yoki texnikani qo‘llash usullarini tanlashni nazarda tutadi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlar va turli mualliflarning dissertatsiya tadqiqotlarini nazariy tahlil qilish natijasida ilmiy-metodik ta’minot masalalari bo‘yicha yagona qarashlar, yondashuvlar mavjud emasligi ma’lum bo‘ldi. Uning birinchi qismi konseptual asoslarni qurish, ikkinchisi metodik ta’minotni yaratish, uchinchisi esa, eksperimental amalga oshirish muammosini o‘rganadi. Bu tarkibiy bloklar talabalar ya’ni, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoit guruhlarini ajratishda asos bo‘ladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun axborot ta’lim muhitining vizual vositalarini qo‘llashning ilmiy-metodik ta’minoti quyidagilardan iborat:

- modelni ishlab chiqish;
- maqsad va vazifalarni belgilash;
- o‘qitish jarayonida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar darajalari va guruhlarini asoslash;
- ta’lim muhitining vizual vositalari yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini darajaviy rivojlantirish mezonlari tarkibi va tuzilmasini ajratib ko‘rsatish;
- o‘qituvchilar va talabalar (bo‘lajak o‘qituvchilar) foydalanishi uchun vizual vositalarni tanlash;
- ta’lim muassasasi o‘qituvchilarini o‘qitish uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish hamda seminarlar, qisqa malaka oshirish kurslarini tashkil etish va o‘tkazish;
- ta’lim muassasasida metodik ishlarni tashkil etishning ilg‘or tajribasini umumlashtirish va ommalashtirish.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish uchun axborot ta’lim muhitining vizual vositalarini anglash, axborot ta’lim muhiti sharoitida vizualizatsiya vositalarini izlash va asoslashga yo‘naltirilgan motivatsion-qadriyatli, refleksiv-baholash va kognitiv-faoliyatli kabilarga ajratish mumkin. Buning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlariga mos keladigan maxsus tanlangan vositalar yordam berishi mumkin.

Quyida kasbiy kompetensiyaning kognitiv-faoliyat komponenti kontekstida ushbu tadqiqot uchun muhim bo‘lgan asosiy qoidalarni tahlil qilamiz:

- ta’limning har bir bosqichida uzviylik;
- ijodiy, asta-sekin murakkablashib boradigan topshiriqlar;
- ta’lim oluvchilar bilan birgalikdagi faoliyatga yo‘naltirish;

O‘zaro bog‘liq motivlar va umuminsoniy qadriyatlarga: 1) atrofdagilarni tan olish va hurmat qilish; 2) salomatlik va intellektni rivojlantirish; 3) jamiyatdagi munosib o‘rin egallash; 4) martaba va nufuzli kasb va ish; 8) munosib ish haqi va moddiy ta’minlanganlik; 6) nufuzli oliy o‘quv yurtida o‘qish; 7) o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish; 8) zararli odatlardan xalos bo‘lish va boshqalar misol bo‘la oladi.

Ba’zi mualliflar kasbiy kompetensiyasi shakllangan uchta darajani aniqlaydilar: yuqori (ekspert va ijodiy), o‘rta (izohli), o‘rtachadan past (qayta ishlab chiqarish) va past (deyarli mavjud emas).

Bizning tadqiqotimiz kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilishi bilan, u o‘quv jarayonini ma’lum darajada qayta tashkil qilishni talab qiladi:

a) o‘qituvchilar va talabalar (bo‘lajak o‘qituvchilar)ga ushbu kompetensiyalarni samarali shakllantirish va rivojlantirish imkonini beradigan mustaqil ta’lim kompetensiyasining tarkibiy qismlarini rivojlantirishning yangi ilmiy-metodik va didaktik yondashuvlarini ishlab chiqish va usullarini joriy etish;

b) didaktik o‘quv materialini va o‘qituvchi rahbarligida mustaqil ishlash va o‘quv materialini mustaqil egallashga mo‘ljallangan elektron ta’lim resurslari materialini vizuallashtirish vositalari bilan boyitish va jalb qilish orqali ko‘rgazmali materialni taqdim etish usullarini qayta ko‘rib chiqish;

c) talabalar (bo‘lajak pedagoglar)ning o‘quv faoliyatiga faoliyatning mustaqil shaklini joriy etish va uni rivojlantirish;

d) axborot ta’lim muhitining vizual vositalaridan (tasviriy, grafik va multimedia) optimal foydalanish, shuningdek, ularni mustaqil konstruksiyalash va modernizatsiya qilish texnologiyasini joriy etish.

Tadqiqot jarayonida, komponentlarni rivojlantirishning darajaviy xususiyatini hisobga olgan holda axborot ta’lim muhitining vizual vositalaridan foydalanuvchi o‘quv jarayonini tashkil etishga maqsadli yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini yaxlit rivojlanishini ta’minlashi aniqlandi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini axborot ta’lim muhitining vizual vositalari orqali rivojlanishini mazmun va protsessual jihatdan ochib berish tahlili natijasida kasbiy kompetensiyaning tuzilmasi, rivojlanish darajalari, kompetentlikni tashxislash, kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari va mezonlari masalalari bo‘yicha yagona yondashuvlarning mavjud emasligini ta’kidlash mumkin.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish uchun axborot ta’lim muhitining vizual vositalarini qo‘llashning ilmiy-metodik ta’minoti quyidagilarni o‘z ichiga olishi aniqlandi: o‘qitish jarayonini tashkil etishning maqsad va vazifalarini shakllantirish; bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot ta’lim muhitining vizual vositalari yordamida mustaqil ta’lim kompetensiyasini rivojlantirishning ishlab chiqilgan modelini tavsiflash; o‘qitish jarayonida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar guruhlarini asoslash; ta’lim muhitining vizual vositalari yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ta’lim kompetensiyasini darajaviy rivojlantirish mezonlari tarkibi va tuzilmasini ajratib ko‘rsatish; kasbiy kompetensiyani rivojlantirish samaradorligiga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar; ta’lim muassasasida metodik ishlarni tashkil etish tajribasini umumlashtirish va ommalashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Zaripov L.R. Kredit-modul tizimi asosida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchilari kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc). Diss. -T.:2023 y.-252 b.

2. Tolipov O‘.Q. Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Ped.fan. dokt. diss. - T.: 2004 y. – 314 b.

3. Haydarova O.Q. Bo‘lajak kasb ta’lim o‘qituvchilarini ta’lim jarayoniga texnologik yondashuvga tayyorlash: Diss. ... ped. fan. nomz. – T.: 2005. – 143 b.

4. Mannanov. J.A. Inovatsion yondashuv asosdida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchhilarinining metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari. Dis. …. p.f.f.d. (PhD) – Toshkent, 2020. – 143 b.

5. Qo‘ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy–pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari: Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik (DSc) diss. – Toshkent, 2019. – 200 b.

СОВРЕМЕННЫЕ СРЕДСТВА ОБУЧЕНИЯ НА ЗАНЯТИЯХ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНСТРУМЕНТАРИЙ АКТИВИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

Шахноза Алимова,
доктор философии по педагогическим наукам (PhD),
Навоийский государственный университет

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы использования современных средств обучения, стимулирующих умственную и познавательную активность учащихся на уроках русского языка в вузе. Также на уроках русского языка широко обсуждалось повышение интереса учащихся к урокам и интерес к русскому языку с использованием инновационных технологий. Одной из наиболее актуальных проблем современной российской системы образования является поиск эффективных методов и приемов активизации учебной деятельности учащихся. Для активизации учебной деятельности учащихся на уроках русского языка учитель должен опираться при подаче материала на три составляющие: целеполагание, мотивацию и средства.

Ключевые слова: *современные требования, средства обучения, активность, познание, интеграция, язык, формирование, мышление, творчество.*

Annotatsiya

Maqolada universitetdagi rus tili darslarida talabalarning aqliy va kognitiv faolligi uchun rag‘batlantiruvchi zamonaviy o‘quv vositalaridan foydalanish masalalari muhokama qilinadi. Shuningdek, rus tili darslarida talabalarning darslarga bo`lgan qiziqishi hamda, innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda rus tiliga bo`lgan qiziqishini ortirish keng muhokama qilingan. Zamonaviy rus ta'lim tizimining eng dolzarb muammolaridan biri bu samarali usul va usullarni izlashdir talabalarning o‘quv faoliyatini faollashtirish. Rus tili darslarida talabalarning o‘quv faoliyatini faollashtirish uchun o‘qituvchi materialni topshirishda uchta tarkibiy qismga tayanishi kerak: maqsadlarni belgilash, motivatsiya va vositalar.

Kalit so‘zlar: *zamonaviy talablar, o‘qitish vositalari, faollik, bilish, integratsiya, til, shakllantirish, fikrlash, ijodkorlik.*

Abstract

The article discusses the issues of using modern educational tools that provide incentives for the mental and cognitive activity of students in Russian language classes at the University. Also, the interest of students in classes in the Russian language, as well as the interest in the Russian language using innovative technologies, has been widely discussed. One of the most pressing problems of the modern Russian educational system is the search for effective methods and methods to activate the educational activities of students. In order to activate the educational activity of students in the lessons of the Russian language, the teacher must rely on three components when submitting the material: goal setting, motivation and tools.

Keywords: *modern requirements, learning tools, activity, cognition, integration, language, formation, thinking, creativity.*

Введение. Проблема активизации познавательной деятельности студентов была и остаётся одной из актуальных в теории и практике обучения. А в русле компетентностного подхода познавательная активность является психологической основой обучения студентов. Современная ориентация образования предполагает создание дидактических и психологических условий, в которых студент может проявить интеллектуальную и познавательную активность, личностную социальную позицию, свою индивидуальность, выразить себя как субъект обучения. [1].

Исследователями Г. И. Щукиной, Т. И.Шамовой, Л.В.Занковым, Л. С. Выготским и др. описаны источники, уровни, признаки познавательной активности обучающихся. На наш вгляд, к средствам бучения русскому языку относятся: учебники, учебные материалы (сборники упражнений, словари, справочники); средства (зрительной, слуховой, зрительно-слуховой) наглядности, компьютерная техника. Широкое применение последней требует от преподавателя и студентов умения работать с

цифровыми образовательными ресурсами, обеспечивать компьютерную поддержку занятий, вести поиск информации, т.е. овладения ИКТ- компетентностью.

Однако в теории развитие познавательной активности связывается, прежде всего с такими средствами активизации, как учебное содержание, методы, приемы, формы обучения. [2]

Методы. В литературе чаще всего средства обучения рассматриваются лишь как дополнительный фактор мотивации. Практико-ориентированный анализ показывает, что иногда учителя могут недооценивать роль средств обучения, не связывать выбор средств с целями обучения, преувеличивать роль средств обучения или использовать их не в системе.

Современные условия развития общества предполагают обращение к личности студента, направление на развитие его лучших качеств и формирование разносторонних качеств личности. В связи с этим особое значение приобретает вопрос обучения с использованием на занятиях по русскому языку современных средств обучения. Они дают возможность преподавателю в процессе учебной деятельности развивать у студентов творческие способности.

Помочь студентам проявить свои способности, самостоятельность, развивать творческий потенциал, инициативу – одна из основных задач современного вуза, а успешная реализация этой задачи во многом зависит от сформированности у студентов познавательного интереса. [3]

Электронные образовательные ресурсы приобретают немаловажное значение для формирования познавательного интереса студентов, развития образного восприятия, эмоциональных переживаний: удовлетворенности, радости, а может быть даже и огорчения. Работа преподавателя в этом направлении создает объективные предпосылки для успешного усвоения программного материала.

К современным средствам обучения относятся:

-инновационные средства обучения (функционирующие на базе цифровых технологий);

-традиционные средства обучения (на печатной и непечатной основах, а также оборудование, приборы и инструменты для проведения натурных экспериментов и практических действий);

- интерактивные средства обучения. [4]

Результаты.

Использование в образовательном процессе интерактивных средств обучения позволяет студентам проявить самостоятельность при изучении нового материала, в работе с текстом, раскрывающим основное содержание предмета, оценить уровень своей подготовки по конкретной проблеме на данный момент времени.

Использование информационных технологий на занятиях русского языка, например, интерактивной доски, позволяет активизировать мышление, воображение, память, внимание, развивать познавательные интересы, речь, творческие способности. Опыт практической работы показывает, что занятие, проведенное с использованием мультимедиа, дает более качественные знания, чем обычное занятие. На таком занятии студенты проявляют большую активность, стремление к познанию нового, желание учиться. [5]

Компьютер, интерактивная доска помогает в реализации очень важного принципа дидактики – принципа наглядности. В этом случае будет обеспечен высокий уровень усвоения предоставленного на занятии материала по сравнению с использованием традиционных наглядных пособий, в частности, схем, таблиц.

Благодаря достижениям новых информационных и компьютерных технологий, новое звучание приобретают направления дидактики, связанные с развитием новых педагогических технологий, в том числе дидактических средств обучения, компьютеризированного обучения, которые фундаментально подлежат исследованию. На смену приоритетов в расстановке целей образования пришла готовность к овладению современными компьютерными технологиями и способность использовать полученную с их помощью информацию для дальнейшего самообразования. [6]

Использование компьютерных технологий позволяют сделать занятие по русскому языку более мобильным, продуманным, интересным.

Преподаватель использует учебный и занимательный материал, где отсутствует необходимость готовить к занятию массу дополнительных пособий – иллюстраций, репродукций, схем, таблиц.

Важно строить учебный процесс, применяя как можно больше качественного иллюстративного материала, вовлекая в восприятие нового не только зрение, но и слух, эмоции, воображение. В этом случае большую роль играет яркость и занимательность компьютерных слайдов.

Преподаватель, применяя информационные компьютерные технологии, может перейти от объяснительно-иллюстрированного способа обучения к деятельностному, при котором студент становится активным участником учебной деятельности. Это формирует более качественное, осознанное усвоение знаний.

Сочетание различных средств обучения на занятиях по русскому языку способствует тому, что преподаватель лучше доносит до студентов сущность изучаемых явлений, помогает выделить основные понятия и показать взаимосвязь между ними. Обладая высокой степенью наглядности, средства обучения дают возможность организовывать передачу информации на таком уровне, который был бы доступен для данной категории студентов, а постоянный оперативный контроль в процессе изложения позволяет более объективно судить о ее доступности. Таким образом, применение средств обучения на занятии позволяет решить следующие задачи:

- более полно и глубоко раскрыть сущность изучаемых объектов, явлений и процессов;
- лучше организовать учебно-познавательную деятельность студентов на этапах занятия по усвоению знаний, умений и навыков и приобретению компетенций;
- установить внешнюю и внутреннюю обратные связи, на основании которых можно осуществлять корректировку процесса обучения.

Современный преподаватель понимает: сегодня педагог просто обязан овладеть интерактивными средствами обучения, чтобы обеспечить одно из главнейших прав студента – право на качественное образование.

Необходимость и эффективность применения информационных технологий на занятиях по русскому языку обосновывается не только целью повышения уровня мотивации ученья, совершенствованием навыков грамотного письма студентов, но и психологической подготовкой к полноценному существованию в современном «информационном» обществе. [7]

Электронная техника на занятии по русскому языку ориентирована на поддержку традиционного курса обучения, и в этом случае она не только не отвлекает, а скорее, служит развитию у студента повышенного интереса к нему.

Обсуждение. Таким образом, преимущества новых технических средств очевидны, и рано или поздно любой преподаватель встанет перед проблемой внедрения в учебный процесс компьютерной системы обучения. [8]

Применение электронной техники на занятии русского языка – это не только ответная реакция на сдвиги, происходящие в современном Узбекистане, но и существенное изменение в содержании обучения, новое средство самовыражения. Совместное творчество преподавателей и студентов, межпредметные связи выступают как совершенно естественный элемент интеграции образования, науки, техники и технологий.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ И ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Баринова Е. А., Боженкова Л. Ф., Лебедев методика русского- языка, м., 1974.Глава III.
2. Минимумы (лексический, фразеологический грамматический, фонетикоорфоэпический, примерный ситуативно-тематический.
3. Научные основы учебника русского языка и литературы для национальной школы. Сб. статей, М., 1974.
4. Общая методика обучения иностранным языкам в средней школе. Под ред. А. А. Миролюбова, И. В. Рахманова, В. С. Цетлия. м., 1967.
5. Текучев А. В. «Методика русского языка в средней школе, М., 1970, II. Типовая программа по русскому языку для национальной средней школы (I—X классы), Ротапринт. м., 1980.

6. Методика преподавания русского языка в школах народов туркоязычной группы. Под ред. проф. В. М. Чистякова. м., 1964.

7. Методика преподавания русского языка в школах народов финно-угорской группы. Под ред. проф. С. С. Филялпова. М., 1963.

8. Глава 1. А. Миролюбова, И. В. Рахманова, в. с. Цетлин. м., 1967. Главы Т и II. Педагогика школы. Под ред. И. Т. Огородякова. м., 1978.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI BILAN MATEMATIK KECHALAR , MATEMATIK OLIMLAR BILAN UCHARSHUV, OLIMPIADALAR O‘TKAZISH REJASINI TUZISH.

Doniyor Jo‘lanov,
Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
Gulchehra Ulug‘berdiyeva,
Navoiy davlat konchilik va texnologoyalar universiteti huzuridagi 2-sonli akademik litseyi oliy toyifali matematika o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash qobiliyatlarini faollashtirishda matematik to‘garaklar, olimpiadalar, qiziqarli matematik kechalar va matematik ekskursiyalarning ahamiyati to‘g‘risida so‘z borgan. Ushbu ishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan matematik kechalar, matematik olimlar bilan uchrashuvlar va olimpiadalar o‘tkazish rejasining metodikasi ko‘rib chiqiladi. Maqsad – o‘quvchilarda matematikaga bo‘lgan qiziqishni oshirish, ularning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, hamda bilimlarni yanada chuqurlashtirish orqali ularning intellektual salohiyatini shakllantirish. Reja ishlab chiqishda asosiy e'tibor o‘quvchilarni matematika sohasida kengroq bilim olishga rag‘batlantirishga, shuningdek, ular orasida ilmiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlarga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *matematik to‘garaklar, olimpiadalar, qiziqarli matematik kechalar, matematik ekskursiyalar, matematik viktorina, matematik burchak.*

Аннотация

В статье обсуждается важность математических клубов, олимпиад, увлекательных математических вечеров и математических экскурсий в активизации мыслительных навыков учащихся начальной школы. В работе рассматривается методика планирования математических вечеров, встреч с учеными-математиками и олимпиад для учащихся начальной школы. Цель — повысить интерес учащихся к математике, развить их мыслительные способности и нарастить их интеллектуальный потенциал за счет дальнейшего углубления знаний. Основное внимание при разработке плана уделяется поощрению учащихся к получению более широких знаний по математике, а также мероприятиям, направленным на развитие у них научного и творческого мышления.

Ключевые слова: *математические клубы, олимпиады, веселые математические вечера, математические экскурсии, математические викторины, математический уголок.*

Annotation

This article discusses the importance of mathematical circles, Olympiads, interesting mathematical evenings and mathematical excursions in activating the thinking skills of primary school students. This work considers the methodology for planning mathematical evenings, meetings with mathematical scientists and Olympiads with primary school students. The goal is to increase students' interest in mathematics, develop their thinking skills, and form their intellectual potential by deepening their knowledge. The main emphasis in developing the plan is on encouraging students to gain broader knowledge in the field of mathematics, as well as on activities aimed at developing scientific and creative thinking among them.

Keywords: *math clubs, olympiads, interesting math evenings, math excursions, math quiz, math corner.*

Kirish. “Kechagi dars berish uslubi bilan matematikani jadal rivojlantirib bo‘lmaydi. Shu bois avval amalda yaxshi natija bergan xorijiy metodika asosida ta’lim dasturlari yaratib, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash zarur. Metodika shunday bo‘lishi kerakki, u bolalarda matematikaga muhabbat uyg‘otsin. Buning uchun o‘quvchilar bu fan hayotda, har bir sohada o‘ziga kerakligini anglashi zarur. Yoshlar imtihondan o‘tish uchun emas, bilimli mutaxassis bo‘lish uchun o‘qishi lozim, – deb ta’kidladi Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev”.[1] Mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilandi hamda matematika ilm-fani va ta’limi rivojlantirishini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, 2019- yil 9- iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387-sonli Qarori, 2020- yil 7- maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-sonli Qarori, 2020- yil 24- yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida matematika fani va ta’limini har tomonlama takomillashtirish va rivojlantirish yuzasidan qator salmoqli vazifalar belgilangan. Respublikamizda ta`lim-tarbiya sifatini yaxshilash borasida hamda o‘qtuvchilarning kasbiy malakasini muntazam oshirib borishga oid ishlarga katta e`tibor berilmoqda. Bunday ishlarni tizimli amalga oshirish muvofiqdir.[2]

Metodlar. Matematika sinfdan tashqari ishlarning mohiyati va uning turlari Sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarning matematik bilimlarini chuqurlashtirsh va kengaytirish, murakkab misol va masalalarni yechishni mashq qilish, matematikaning hayot bilan bog‘liq bo‘lgan tomonlarini ochadigan va dasturga kirmagan ba’zi savollar bilan tanishtirishni maqsad qilib oladi. Sinfdan tashqari ishlarning quyidagi turlari uchraydi:

Matematik to‘garaklar, olimpiadalar, qiziqarli matematik kechalar, matematik ekskursiyalar. Shuningdek, matematik gazetani chiqarish, matematik viktorina va burchaklarni tashkil qilish.

Matematikadan sinfdan tashqari ishlar deganda o‘quvchilar darsdan tashqari vaqtda tashkil qilingan dastur bilan bog‘liq bo‘lgan material asosida ixtiyoriylik tamoyiliga asoslangan mashg‘ulotlar tushuniladi. Sinfdan tashqari ishlar orqali quyidagilar amalga oshiriladi:

bilimlarni va amaliy ko‘nikmalarni chuqurlashtirish hamda kengaytirish; o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini, matematik ziyrakliklarini rivojlantirish;

matematikaga qiziqishlarini orttirish, qobiliyatli va layoqatli bolalarni topish, talabchanlik, irodani tarbiyalash, mehnatga muhabbat, mustaqillik, uyushqoqlik va insoniylikni tarbiyalash.[3, 488]

Sinfdan tashqari ishlar darslarga nisbatan ba’zi farq qiluvchi xususiyatlarga ega:

1.O‘z mazmuni bo‘yicha matematika dasturiga taalluqli emas. Ammo beriladigan bilimlar o‘quvchilarning kuchiga mos bo‘lishi kerak.

2.Sinfdan tashqari ishlar imkoni boricha barcha o‘quvchilarni jalb qilishi, ya’ni qiziqarli bo‘lishi zarur. Past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar ham qiziqish yordamida faol o‘quvchilarga aylanishi mumkin.

3.Sinfdan tashqari ishlar ixtiyoriylik tamoyiliga asosan tashkil qilinadi, lekin qiziqishni ta’minlash lozim. Bu mashg‘ulotlarga baho qo‘yilmaydi, ammo faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

4.Mashg‘ulot mazmuni va shakllariga qarab, 10–12 minutdan 1 soatgacha mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin.

5.Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni va shakllarining turli-tumanligi.

Sinfdan tashqari ishlarga: qiziqarli matnli masalalar, o‘tkir zehnlilikka oid masalalar, hazil masalalar, berilgan ma’lumotlari etishmaydigan yoki berilgan ma’lumotlari ortiqcha masalalar, mantifiy masalalar, qiziqarli matematik voqealar, arifmetik rebuslar, o‘yinlar, fokuslar, boshqotirmalar tarixiy ma’lumotlar berish va boshqalar kiradi. [4, 160]

Maktab amaliyotida hozir quyidagilar uchraydi: matematik 10 minutliklar, soatliklar, matematika kechalari, matematika to‘garaklari, ertaliklar, viktorinalar, tanlovlar, olimpiadalar.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o‘tkazish metodikasi quyidagilarga asoslanishi kerak:

1. Darsda o‘quvchilar olgan bilim, malaka va ko‘nikmalarni hisobga olgan holda o‘tkaziladi.

2. Sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarning xohishi, havaskorligi, ijodkorligi tamoyillariga asoslanishi va ularning individual fikrlarini qoniqtirish maqsadida tashkil qilinadi.

3. Sinfdan tashqari ishlarni o‘tkazish shakllari darslardan farq qilib, qiziqarli tomoni kuchli bo‘ladi. Buning uchun zaruriy shart shuki,o‘tkaziladigan ishning rejalashtirilishi va tizimliligining murakkabligidadir.

Quyida sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘tkazish rejasini keltiramiz.

Tadbir shakli.

Tadbir mavzusi.

Tadbir maqsadi.

O‘qituvchi faoliyati.

O‘quvchi faoliyati.

1. Matematik o‘yinlar: Sehrli kvadrat. Tez va aniq hisoblash. O‘yinni boshqarish, o‘quvchilarni qiziqtirish va sehrli kvadrat tarixi bilan tanishtirish. Mantiqiy fikrlash.

2. Qiziqarli matematik soatlar: Rebuslar, fokuslar, krasvordlar. Matematika darslarida olingan bilimlarni chuqurlashtirish.Turli rebuslarni, krasvordlarni tayyorlash.Rebuslar va krasivordlarni toppish.

3. Matematik viktorina: Hamma narsalarni bilishni istayman. Murakkab masalalar.Turli murakkab masalalarni tayyorlash va viktorinani boshqarish. Hamma masalalarni bilishga intiladilar.

4. Matematika ertaligi: Tarixiy masalalar. Tarixiy misollarni o‘rganish. Misollarni tayyorlash va ertaliklarni boshqarish. Tarixiy misollarga qiziqtirish. Misollarni yechishga harakat qilish.

5. Matematik to‘garaklar: Mashhur matematik olimlarning hayoti va faoliyati. Olimlarning matematikaga qo‘shgan hissasi, matematika tarixini chuqur o‘rganish.Matematika to‘garagini boshqarish va senariy yozish. Tarixiy materiallar to‘plami.

6. Devoriy gazeta: Qiziqarli tarixiy hikoyalar, olimlarning ijodi va hayotidan yangiliklar. O‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishga erishish. Devoriy gazeta uchun material to‘plash. Devoriy gazetalarni chiqarish va tarixiy materiallarni o‘rganish.

7. Ekuskursiyalar: Tarixiy muzeylarga sayohatlarga olib borish. Milliy grafika, geometrik shakllar bilan tanishtirish. Ekskursiya jarayonida tarixiy materiallar bilan tanishtirish. Matematikadan yangi bilimlarga ega bo‘lish. Matematika darslarining samaradorligini oshirishda tarixiy materiallardan foydalanish darslar tizimi.

Natijalar. Matematik to‘garak matematikadan tizimli sinfdan tashqari ishning eng ko‘p tarqalganidan biri. Uning asosiy vazifasi – matematikaga alohida qiziqish ko‘rsatgan o‘quvchilar bilan bajariladigan chuqurlashtirilgan ish. Matematik to‘garak ishi qiziqarli matematika soatlaridan quyidagilar bilan farq qiladi: Matematika to‘garagiga o‘quvchilar tanlashda ularning matematikaga nisbatan alohida qiziqishlarini, moyilliklari va imkoniyatlarini hisobga olish kerak. Mustaqil ravishda ko‘rgazmali qurollar (abaklar, ba’zi o‘yinlar uchun misollar yozilgan kartochkalar va boshqalar) tayyorlaydilar, matematika kechalarini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘radilar va hokazo. [5, 192]

Matematika to‘garagini o‘tkazish uchun oldindan uning ish rejasini tuzish kerak.

1-topshiriq: Nazorat savollari:

1. Sinfdan tashqari ishlarning tashkil qilish xususiyatlari va ularning turlari haqida nimalarni bilasiz?

2. Sinfdan tashqari ishlarning turlari bo‘yicha namunaviy mashg‘ulot tayyorlang. **MATEMATIKA KECHASI**.

Tadbir o‘tkazilayotgan joy bayramona ruhda bezatiladi. Devorda Al-Xorazmiy surati aks ettirilib, uning atrofida matematika faniga doir so‘zlar yoziladi. Tadbir quvnoq musiqa sadolari bilan boshlanadi. Sahnaga milliy kiyingan ikki nafar o‘quvchi chiqib keladi.

1- boshlovchi: Assalom, yurtimizning bilimga boy maskani! Assalom, ey ilm-u fanning sohib-u davronlari! Davramizga xush kelibsiz, elning sharaf-shonlari, Siz kelajak bunyodkori, topqir-u zukkolari!

2- boshlovchi: Matematik tadbirdan bo‘ling deymiz siz shodon, Jilo bersin davraga turfa xil she’r betakror. Qiziq topshiriq, misol sizga bo‘lsin armug‘on, Bobomiz al-Xorazmiy ruhi bo‘lsin madadkor!

1-boshlovchi: — Assalomu alaykum, qadrli ustozlar, bilimga chanqoq o‘quvchilar!

2- boshlovchi: — Bugungi bayram tadbirimizni hisob-kitob ilmi — matematika faniga bag‘ishladik.

1- boshlovchi: — Tadbirimiz rang-barang she’r va quvnoq topshiriqlarga boy.

2- boshlovchi: — Qani, aziz tengdoshlar! Matematika fani bizga nimalarni o‘rgatar ekan? (Shu payt sahnaga 4- sinf o‘quvchilari chiqadi. Matematika fani haqida she’r o‘qib eshittiradi).

1- o‘quvchi: — Matematika atamasi yunonchadan olingan bo‘lib bilim, fan ma’nosini beradi. U aniq mantiqiy mushohada, hisoblash amallari bilan shug‘ullanadigan fandir.

2- o‘quvchi: Hisob-kitob ilmini o‘rgat, matematika. «Qo‘sh, ayir, bo‘l, ko‘paytir», oddiy arifmetika.

3- o‘quvchi: Raqamni bir-bir sanab, o‘rgan amal tartibin. Qiziqarli ifoda va tenglamalar tuzgin.

4- o‘quvchi: Ko‘paytirish jadvalin ikkilanmasdan yodla, O‘lchov birliklarini yoddan aytgin baralla.

5- o‘quvchi: Chizgin chiziq va kesma, Perimetr, yuza top. Gorizontal, vertikal, Bunda barcha so‘z noyob.

6- o‘quvchi: Birlar, o‘nlar va yuzlar, Ko‘p xonali sonlar bil. Sodda, qiyin masala, Yechishga to‘pla aql.

7- o‘quvchi: Hisob-kitobni bilsang, Barcha yo‘l senga ochiq. Hayotda qoqilmaysan G‘oliblik senga tortiq!

1- boshlovchi: — Matematika faniga kim asos solganini bilasizmi?

2- boshlovchi: — Ha, albatta, matematika faniga buyuk bobomiz, qomusiy olim Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy asos solgan.

1- boshlovchi: — Al-Xorazmiy 783- yilda Xorazmda tug‘ilgan, jahonga tatigulik olamshumul asarlar yaratib, butun umrini ilm-u fanga bag‘ishlab, 850- yilda vafot etgan.

2- boshlovchi: — Bir necha asrlardan buyon saqlanayotgan ma’lumotlarga ko‘ra, bobomiz bolalikdan o‘tkir zehnli bo‘lgan ekan. Yoshligidan O‘rta Osiyoning ko‘pgina shaharlarida bo‘lib, ularning tarixi, geografiyasini yaxshi o‘rgangan.

1- boshlovchi: — Bog‘dodga kelib, bu yerda tashkil etilgan «Baytul-hikma» nomli ilm o‘chog‘ida olimlar bilan ko‘plab ilmiy kashfiyotlar qilib, buyuk olim bo‘lib yetishgan.

2- boshlovchi: — Demak, biz ana shunday buyuk daholarga munosib avlod bo‘lishimiz lozim. (Shu payt sahnaga al-Xorazmiy qiyofasiga monand o‘quvchi tashrif buyuradi).

1- boshlovchi: — Assalomu alaykum, bobojon.

2- boshlovchi: — Davramizga xush kelibsiz, donishmand bobo! Al-Xorazmiy: — Assalomu alaykum, bilimga chanqoq bolajonlar. Siz bilan uchrashib turganimdan bag‘oyat xursandman. Ishonamanki, siz kelajakning buyuk olim-u davronlarisiz. Bilasizmi, bolajonlar matematika fanining asosiy jihatlari nimada?

1- boshlovchi: — Buyuk bobokalon, keling bu savolga tengdoshlarimizdan javob eshitamiz. (Sahnaga +, -, :, · amallari tasvirini ko‘tarib, bir qancha o‘quvchilar chiqadi).

1- o‘quvchi: Arifmetik to‘rt amal, Qo‘shish hamda ayirish, Mulohazaga chorlar Bo‘lish va ko‘paytirish.

2- o‘quvchi: Uchga to‘rtni qo‘shamiz Javobi bo‘lar yetti. Shunday oson topilar qo‘shishda har yig‘indi.

3- o‘quvchi: Kamayuvchi, ayriluvchi, hosil bo‘lar ayirma, Yuzdan saksonni ayir javob bo‘lar yigirma.

4- o‘quvchi: Karra jadvalni bilsang, Ko‘paytirish oson ish, Yodda tutgin, hayotda hisob kerak yoz-u qish.

5- o‘quvchi: Bo‘linuvchi, bo‘luvchi, Qani, bo‘linma toping. O‘nni o‘nga bo‘lganda Bir bo‘lar, shuni biling.

1- boshlovchi: — Buyuk bobokalon, bilamizki, matematika fanida tezkorlik muhim. Al-Xorazmiy: — Albatta, tezkorlik va topqirlik bu — bilimlar cho‘qqisi sari olib boruvchi yo‘l. Men topqir bolajonlar uchun bir qancha topshiriqlar tayyorlab kelganman.

2- boshlovchi: — Keling, bobojon, unda davradagi tengdoshlarimizning zehni va tezkorligini sinab ko‘ramiz. (Shundan so‘ng sahnaga ixtiyoriy ravishda to‘rt-besh o‘quvchi chiqadi. Ishtirokchilarga quyidagi tezkor savollar bilan murojaat qilish mumkin).

1. 30 sonidan 6 marta kichik sonni ayting.
2. Qaysi son 90 sonidan 9 marta kichik?
3. 20 va 10 sonlarining ko‘paytmasini 10 marta kamaytiring.
4. 100 va 10 sonlarining bo‘linmasini 10 marta orttiring.
5. 70 va 30 sonlari yig‘indisidan 30ni ayiring.
6. 80 va 20 sonlarining ayirmasiga 20ni qo‘shing.
7. Habiba 10ta kitob, Muslima undan 10ta ko‘p kitob sotib oldi. Ikkala dugona nechta kitob sotib oldi?
8. Asadbek 8ta inga don sepib chiqdi. Har bir inda 8tadan qush bor edi. Asadbek nechta qushga don berdi?

9. Mushtariy 18ta derazani tozaladi. Har bir uyda 2tadan deraza bor. Mushtariy nechta uyning derazasini tozalagan?

1- boshlovchi: — Bilasizmi, matematika fani bizga mantiqan fikrlashni o‘rgatadi, shu bilan birga, tafakkurimizni boyitadi.

2- boshlovchi: — Keling, davradagi tengdoshlarimizga mantiqan fikrlashga undaydigan topshiriqlar bilan murojaat qilamiz.

1. Umidjon quyonchalarning inida 12 juft quloqchalarni sanadi. Umidjonning quyonchalari nechta?

2. 10ta uyning lampochkasi yonib turgan edi. 2 juft uyning lampochkasi o‘chib qoldi. Nechta uyda lampochka yoqilgan turibdi?

3. Rassom 20 nafar o‘g‘il bolaning rasmini chizish uchun nechta ko‘z, quloq, qo‘l va oyoq chizishi kerak? Hammasi qancha bo‘ldi?

4. Marjona hozir 5 yoshda, 4 fasl o‘tgandan so‘ng u necha yoshga to‘ladi?

5. Sevara 12 yoshga to‘lgach, yana necha oydan so‘ng 15 yoshga to‘lishini hisoblab topdi. Sevara necha oydan so‘ng 15 yoshga to‘ladi?

6. Fotima 12 oydan so‘ng 10 yoshga to‘ladi, Zuhra ham 12 oydan so‘ng 10 yoshga to‘ladi. Opa-singillarning ikkalasi necha oydan so‘ng 10 yoshga to‘ladi?

7. Madinaga oyisi 3 metr atlasdan chiroyli ko‘ylak tikib berdi. Oyisi 3 metr shoyidan Madinaga nechta ko‘ylak tikib bera oladi?

8. Dilshoda roppa-rosa 56 kundan so‘ng imtihon topshiradi. Imtihonga necha hafta qoldi?

9. Said bug‘doyni 3 soatda, arpani 120 minutda o‘rib bo‘ldi. Said hammasini necha soatda o‘rib bo‘ldi?

10. Eshik oldida 24ta oyoq kiyim bor. Uyda nechta mehmon borligini aniqlang.

1- boshlovchi: — Hayotimizda uchraydigan har bir predmet, har bir narsa biz matematika fanida tanishgan geometrik shakllardan tashkil topgan. [6]

2- boshlovchi: — Keling, unda navbatni geometrik shakllarga beraylik. Ular sahnamizga tashrif buyurishibdi.

1- o‘quvchi: To‘rt tomonim bor mening, Yana to‘rttala burchak. Viqorimga qarab bil, Nomim mening to‘rtburchak.

2- o‘quvchi: Tabiatdan izlama Meni o‘zing yasab ol, Yasa sandiq, quticha, Javon, mashina, uy sol.

3- o‘quvchi: Yana nega kerakman, Buni o‘zing o‘ylab top! Yaxshilab razm solgin, Men kerakli, hammabop!

4- o‘quvchi: Mening nomim jarangdor, Uchburchakman, uchburchak, Uch tomonli shaklman Sanab ko‘r, bor uch burchak.

5- o‘quvchi: Nelar uchburchak ekan, Angla dono bo‘lsang gar. Uylar tomi va yana bilgil zalvorli tog‘lar.

6- o‘quvchi: Shakllar malikasi Men kerakli aylana. Barcha joyda men shayman Yetar bo‘lsam bir dona.

7- o‘quvchi: Bolalarga koptokman, Hofizlarga doira, Bayramlarda rangli shar, Yana yasang nog‘ora.

8- o‘quvchi: Turli mevalar chizing, Polizda ham men hozir, Choynak, soat, g‘ildirak, Globus, quyosh, patir… Al-Xorazmiy: Barakalla, donolar, Zehningizga lol bo‘ldim. Ma’naviy meroslarim, Ishonchli qo‘lda, bildim! O‘quvchilar: Algebra fani uchun, Solgansiz asos, bobo! O‘zbek nomin tanitgan, Siz xorazmlik daho! Hisob-kitob ilmini va sirli raqam nolni, O‘nlik, birlik, kesmani, Kashf etdingiz — bir asar. Siz yaratgan asarlar, Taratar nur ziyoni. Yana ming-ming asrlar, Lol qoldirsin dunyoni!

1- boshlovchi: — Bugungi fayzli davramizning aziz ishtirokchilari, shu bilan tadbirimiz o‘z nihoyasiga yetdi.

2- boshlovchi: — Barchangizga faol ishtirokingiz va e’tiboringiz uchun tashakkur aytamiz! Xayr, salomat bo‘ling!

Biz qiziqarli va mantiqiy bo‘lgan bir nechta olimpida masalalarning yechilishini ko‘rib chiqamiz:

1-masala. Ikki xonali sonning o`nliklar xonasidagi raqam birliklar xonasidagi raqamdan 4 marta katta. O`quvchi 507 ni shu ikki xonali songa ko`paytirmoqchi edi. Ammo u ikki xonali sonning raqamlari o`rnini almashtirib yozib qo`ydi. Natijada, u topgan ko`paytma masalaning javobidan 27378 ga kichik chiqdi. Dastlabki berilgan sonni toping.

Yechilishi. Dastlab bizga berilgan ikki xonali sonning birlar xonasidagi raqami – x ga, o‘nliklar xonasidagi raqami – 4x ga teng ekan. Biz bilamizki ikki xonali son

$\overline{ab} = 10 \cdot a + b$ ko‘rinishda bo‘ladi. Shunga asosan tenglamamiz quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi.

$507 \cdot (10 \cdot 4 \cdot x + x) - 507 \cdot (10 \cdot x + 4 \cdot x) = 27378$

$507 \cdot 41 \cdot x - 507 \cdot 14 \cdot x = 27378$, $507 \cdot (41 \cdot x - 14 \cdot x) = 27378$

27x=27378:507, 27x=54, x=54:27, x=2. $4 \cdot x = 4 \cdot 2 = 8$.

Bundan ko‘rinadiki bizga berilgan ikki xonali sonning birlar xonasidagi raqami 2 ga, o‘nlar xonasidagi raqami 8 ga teng bo‘lar ekan.

Javob. Dastlab bizga berilgan ikki xonali son 84 ga teng ekan.

2-masala. Sinovda 60 ta savol berildi, har bir to`g‘ri javob 5 ballga baholandi. 4 ta noto`g‘ri javob uchun jarima sifatida bitta to`g‘ri javob bekor qilinadi. Bu sinovda hamma savollarni belgilagan bir o`quvchi 225 ball olgan bo`lsa, u nechta savolga to`g‘ri javob bergan?

Yechilishi. To‘g‘ri yechilgan masalalar soni – x ta, noto‘g‘ri yechilgan masalalar soni esa – (60-x) taga teng. Bundan quyidagi tenglamaga ega bo‘lamiz:

$5 \cdot x - \frac{5 \cdot (60-x)}{4} = 225$, 20x-300+5x=900, 25x=1200, x=1200:25, x=48.

Javob. Bundan ko‘rinadiki sinov testida o‘quvchi 225 ball to‘plash uchun 60 ta savoldan 48 tasiga to‘g‘ri javob bergan ekan.

3. So‘roq belgisi o‘rnida qaysi son turishi kerak?

639 (33), 584 (37), 965 (39), 868 (?)

Yechilishi.

6+3·9=6+27=33, 5+8·4=5+32=37, 9+6·5=9+30=39, 8+6·8=8+48=56.

Javob. Demak so‘roq o‘rnidagi son 56 ga teng ekkkan.

4-masala. So‘roq belgisi o‘rnida qaysi son turishi kerak?

361 (21), 952 (63), 862 (?)

Yechilishi.

3·(6+1)=3·7=21, 9·(5+2)=9·7=63, 8·(6+2)=8·8=64.

Javob. Demak so‘roq o‘rnidagi son 64 ga teng ekkkan.

5-masala. Zavod mashina ishlab chiqarish bo‘yicha buyurtmani 15 kunda bajarishi kerak edi. Zavod yangi texnologiyani joriy etib, har kuni rejadan tashqari 2 ta ortiq mashina ishlab chiqarib, muddatga 2 kun qolganda faqat rejani bajaribgina qolmasdan, rejadan ortiq yana 6 ta mashina ishlab chiqardi. Zavod 15 kunda reja bo‘yicha nechta mashina ishlab chiqarishi kerak edi? [7]


Yechilishi. Zavod reja bo‘yicha bir kunda – x ta detal tayyorlaydi.

15x+6=13·(x+2), 15x+6=13x+26, 15x-13x=26-6, 2x=20, x=20:2, x=10.

15·10=150.

Javob. Zavod 15 kunda reja bo‘yicha 150 ta mashina tayyorlashi kerak ekan.

6-masala. Matematika shaydosi bo‘lmish Mirjalol 3×3 kvadrat ichiga 1 dan 9 gacha bo‘lgan sonlarni yozdi va u har bir ustun va har bir qatordagi sonlar yig‘indisini hisobladi. Hosil bo‘lgan yig‘indilarning 5 tasi 12, 13, 15, 16, 17 bo‘lsa, u holda 6 – yig‘indini toping.



Yechilishi. 1-chi qatordagi raqamlar x;y;z ga, 2-chi qatordagi raqamlar b;c;d ga, 3-ch qatordagi raqamlar m;n;k ga teng bo‘lsa, u holda quyidagi yig‘indilarni hosil qilamiz:

x+y+z=12, b+c+d=13, m+n+k=15, x+b+m=16, y+c+n=17, z+d+k=?

Dastlaki 3 ta yig‘indini qo‘shsak, quyidagi yig‘indiga ega bo‘lamiz:

x+y+z+b+c+d+m+n+k=12+13+15, (x+b+m)+(y+c+n)+(z+d+k)=40,

16+17+z+d+k=40, z+d+k=40-33, z+d+k=7.

Javob. 6-chi qo‘shiluvchi 7 ga teng ekan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun matematika fanidan nafaqat boshqa fanlardan faqat darsliklardagi misol va masalalardan cheklanib qolmay sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarning o‘rgangan bilimlarini va o‘rganayotgan bilimlarini yanada chuqurroq o‘rganishga yordam beradi. Sinfdan tashqari ishlar o‘quvchilarning savodxonligini oshiradi. Ularning erkin fikrlashini, mantiqiy fikrlash doirasini kengaytiradi. Har bir sinf doirasida ikkita guruhga bo‘lib tashkillashtirish maqsadga muvofiqdir. Chunki sinfda past o‘zlashtiruvchi hamda yuqori o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bo‘ladi. Ularni bilimlarini o‘zlashtirish darajasiga qarab topshiriqlar berib boriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining2019-yil 29- apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni. www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 30- sentyabrdagi“Xalq ta’limi tizimidagi maktabdan tashqari ta’lim samaradorligini tubdan oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4467-son qarori. www.lex.uz

3. Mirziyoyev Sh.M.Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz.– Toshkent: O‘zbekiston, 2017.-488b

4. L. O‘rinboyeva [va boshq.]. Matematika. 1-sinf uchun darslik. – Toshkent:Respublika ta’lim markazi, 2021. –160 b

5. L. O‘rinboyeva [va boshq.]. Matematika. 2-sinf uchun darslik. – Toshkent:Respublika ta’lim markazi, 2021. –192 b.

6. Ergashev J. “Matematikani o‘qitishda interaktiv yondashuv”. T.: “Fan va texnologiyalar” – 2016.

7. Abdullayeva B.S., Sadikova A.V., Toshpo„latova M.I. Boshlang„ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish T.: OOO «Jahon - Print», 2011

JINOIY DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNING MAMLAKAT IQTISODIY HAVFSIZLIGIGA TA’SIRINI BAHOLASH

Shuhrat Homidov,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti

Annotatsiya

Jinoiy daromadlarni legallashtirish zamonaviy jamiyatlar uchun jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Bu jarayon, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni qonuniy ko‘rinishga keltirishga qaratilgan bo‘lib, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan ko‘plab tavakkalchiliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada, jinoiy daromadlarni legallashtirish bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni mamlakat iqtisodiy havfsizligiga ta’sirini baholash masalalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *jinoiy daromadlar, legallashtirish, tavakkalchilik, moliyaviy va nomoliyaviy tashkilotlar, iqtisodiy havfsizlik, korruptsiya, odam savdosi, pul yuvish.*

Аннотация

Легализация доходов, полученных преступным путем, является одной из серьезных проблем современного общества. Этот процесс, направленный на легализацию доходов, полученных преступным путем, несет в себе множество экономических, социальных и политических рисков. В данной статье представлена информация по вопросам оценки влияния рисков, связанных с отмыванием денег, на экономическую безопасность страны.

Ключевые слова: *преступные доходы, отмывание денег, риски, финансовые и нефинансовые организации, экономическая безопасность, коррупция, торговля людьми, отмывание денег.*

Abstract

Legalization of criminal proceeds is one of the serious problems for modern societies. This process, aimed at legitimizing the proceeds of crime, poses many economic, social and political risks. This article provides information on how to assess the impact of money laundering risks on the economic security of a country.

Key words: *criminal proceeds, money laundering, risks, financial and non-financial organizations, economic security, corruption, human trafficking, money laundering.*

Kirish. Jinoiy daromadlar, ya'ni jinoiy faoliyatidan olingan moliyaviy va nomoliyaviy resurslar, zamonaviy jamiyatlar uchun jiddiy muammo hisoblanadi. Ular nafaqat iqtisodiy barqarorlikni tahdid ostiga qo‘yadi, balki ijtimoiy va siyosiy tuzilmalarga ham salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Jinoiy daromadlar, ko‘pincha “pul yuvish” jarayoni orqali qonuniy iqtisodiyotga kiritiladi, bu esa iqtisodiy barqarorlikka ta’sir ko‘rsatib, jamoatchilikning davlat organlariga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi va davlatlarning huquqiy tizimlariga zarar yetkazadi. Jinoiy daromadlarning manbalari juda xilma-xil bo‘lib, ular orasida korruptsiya, soliq va bojhona sohasidagi jinoyatlar, narkotik moddalarning noqonuniy savdosi, odam savdosi, firibgarlik va boshqa jinoyatlar mavjud. Ushbu daromadlarning legallashtirilishi, ya'ni qonuniy ko‘rinishga keltirilishi, jinoiy faoliyatlarning davom etishiga imkon beradi va bu jarayonning murakkabligi jinoiy tizimlar va iqtisodiyot o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yanada kuchaytiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Jinoiy daromadlarni legallashtirish har bir davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy barqarorligiga tahdid soluvchi muammolardan biridir. Ushbu jarayonni milliy darajada baholash, jinoiy daromadlarning qonuniy iqtisodiyotga kirishining oqibatlarini tahlil qilishni talab etadi. Birinchidan, jinoiy daromadlarni legallashtirish jarayonining iqtisodiy tavakkalchiliklari ko‘p jihatdan iqtisodiyotning shaffofligi va barqarorligiga ta'sir qiladi. Adabiyotlarda ko‘rsatilishicha, jinoiy daromadlarning qonuniy iqtisodiyotga kirishi, raqobatni kuchaytirishi va qonuniy bizneslarga zarar yetkazishi mumkin. Shuningdek, jinoiy daromadlar, iqtisodiy o‘sishni pasaytirishi hamda davlat byudjetiga to‘lovlarni kamaytirishi mumkin. Bu holat, rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa, ko‘zga tashlanadi, chunki bu davlatlar ko‘pincha jinoiy faoliyatlar natijasida iqtisodiy barqarorlikni yo‘qotadilar. Ijtimoiy jihatdan, jinoiy daromadlarni legallashtirish jarayoni jamiyatda ishonchni yo‘qotishga olib kelishi mumkin. Adabiyotlarda, jamoatchilikda jinoiy faoliyatga qarshi salbiy fikrlar mavjudligi, ijtimoiy muammolarni kuchaytirishi va odamlar o‘rtasida ishonchni pasaytirishi mumkinligi ta'kidlanadi. Jinoiy faoliyatlar, shuningdek, ijtimoiy tengsizlikni oshirishi, chunki qonuniy daromadlar va jinoiy daromadlar o‘rtasida farq paydo bo‘lishi mumkin. Bu holat, ijtimoiy barqarorlikni tahdid ostiga qo‘yadi va jamoatchilik o‘rtasida ishonchni pasaytiradi. Siyosiy jihatdan, jinoiy daromadlarni legallashtirish davlatlarning ichki siyosatiga ta'sir ko‘rsatadi. Adabiyotlarda ko‘rsatilishicha, davlatlar jinoiy faoliyatga qarshi kurashishda qattiq choralar ko‘rishga majbur bo‘lishadi, bu esa huquqiy tizimlarni murakkablashtirishi mumkin. Jinoiy faoliyatlar va pul yuvish jarayonlari bilan bog‘liq qonunlar va tartiblarning o‘zgarishi, davlatlarning ichki va xalqaro siyosatiga ta'sir ko‘rsatadi. Davlatlar, jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirishi zarur, chunki jinoiy faoliyatlar ko‘pincha transmilliy xarakterga ega bo‘ladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jinoiy daromadlarni legallashtirish jarayonining tavakkalchiliklarini baholashda, davlatlarning huhuqiy tizimlari va institutlarining roli muhimdir. Huhuqiy tizimlar, jinoiy faoliyatga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega. Agar davlatda kuchli va samarali huhuqiy tizim mavjud bo‘lsa, jinoiy daromadlarni legallashtirish jarayoni kamayishi mumkin. Shuningdek, davlatlar, jinoiy faoliyatlarga qarshi kurashishda, jamoatchilikni jalb etish va ularning ishtirokini oshirishga harakat qilishi zarur. Jinoiy daromadlarni legallashtirish jarayonini baholashda xalqaro hamkorlik ham muhim ahamiyatga ega. Davlatlar o‘rtasida ma'lumot almashish, tajriba va bilimlarni bo‘lishish, jinoiy faoliyatga qarshi kurashishda samarali strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishda xalqaro tashkilotlar ham muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tashkilotlar, davlatlarga jinoiy faoliyatga qarshi kurashishda yordam berish uchun turli dasturlar va loyihalarni amalga oshirishadi.[1]

Natijalar. Jinoiy daromadlarni legallashtirish jarayoni, avvalo, iqtisodiy tavakkalchiliklar bilan bog‘liq. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlar, qonuniy iqtisodiyotga kirganda, bu iqtisodiyotning strukturasi va barqarorligiga ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Jinoiy daromadlarning legallashtirilishi, bir tomondan, qonuniy bizneslar uchun yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin, masalan, yangi ish o‘rinlari va investitsiyalarni jalb qilish. Biroq, bu jarayonning ikkinchi tomoni ham bor: jinoiy faoliyatlar qonuniy iqtisodiyotga zarar yetkazishi, raqobatni

susaytirishi va iqtisodiy barqarorlikni xavf ostiga qo‘yishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ko‘zga tashlanadi, chunki bu davlatlarda jinoiy faoliyatlar ko‘pincha rasmiy iqtisodiyotga kirib, uning o‘sishiga to‘sqinlik qiladi. Ijtimoiy jihatdan, jinoiy daromadlarni legallashtirish jarayoni jamiyatda ishonchni yo‘qotishga olib kelishi mumkin. Jamoatchilikda jinoiy faoliyatga qarshi salbiy fikrlar mavjud bo‘lsa, bu ijtimoiy muammolarni kuchaytirishi va odamlar o‘rtasida ishonchni pasaytirishi mumkin. Jamiyatda jinoiy faoliyatning mavjudligi, odamlar o‘rtasida xavfsizlik hissini yo‘qotishga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida, ijtimoiy aloqalarni zaiflashtirishi va jamiyatdagi muammolarni kuchaytirishi mumkin. [2]

Muhokama. Jinoiy daromadlarni legallashtirish jarayonining tavakkalchiliklarini baholashda, davlatlarning huquqiy tizimlari va institutlarining rolini ham e'tiborga olish zarur. Huquqiy tizimlar, jinoiy faoliyatga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega. Agar davlatda kuchli va samarali huquqiy tizim mavjud bo‘lsa, jinoiy daromadlarni legallashtirish jarayoni kamayishi mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Davlatlar, jinoiy faoliyatga qarshi kurashishda, shuningdek, jamoatchilikni jalb etish va ularning ishtirokini oshirishga harakat qilishi zarur. [3]

Jamiyatlar, o‘z navbatida, jinoiy faoliyat va pul yuvish jarayonlariga qarshi kurashishda faol ishtirok etishlari kerak. Bu, o‘z navbatida, jamoatchilikning ishonchini oshirishi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Jamiyatda jinoiy faoliyatlarga qarshi kurashish uchun ta'lim tizimini kuchaytirish, jamoatchilikni xabardor qilish va ularni jinoiy faoliyatlarga qarshi kurashishga jalb etish zarur. Jinoiy daromadlarni legallashtirish jarayonining tavakkalchiliklarini baholashda, shuningdek, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik va siyosiy barqarorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni ham e'tiborga olish zarur. Iqtisodiy rivojlanish, jinoiy faoliyatning kamayishiga olib kelishi mumkin, bu esa ijtimoiy barqarorlikni oshiradi. Ijtimoiy barqarorlik esa, o‘z navbatida, siyosiy barqarorlikni ta'minlaydi. Bu jarayonlar o‘rtasidagi bog‘liqlik, jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishda muhim ahamiyatga ega.[4]

Xatarlarni aniqlash va tushunish xalqaro hamjamiyat tomonidan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga (JDL/TMQK) qarshi kurashning xalqaro standartlari sifatida e’tirof etilgan Moliyaviy choralar ishlab chiquvchi guruh tavsiyalarining ajralmas qismi hisoblanadi.[5]

O‘zbekiston Respublikasining JDL/TMQK milliy tizimining faoliyati 2004-yilda “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi bilan va u 2006-yil 1-yanvardan boshlandi. Qonun JDL/TMQK sohasida xalqaro standartlaridagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda sezilarli darajada qayta ko‘rib chiqildi.

Pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulk bilan operatsiyalarni amalga oshiruvchi tashkilotlar uchun majburiy bo‘lgan har bir sektorda JDL/TMQK me’yoriy-huquqiy bazasi shakllantirildi, ichki nazorat qoidalari tasdiqlandi va amaliyotga joriy qilindi.[6]

Keyingi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy iqtisodiyotni tarkibiy tuzilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

O‘zbekiston Respublikasi JDL/TM bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni aniqlash, tushunish va baholash hamda ularni minimallashtirish choralarini ishlab chiqish borasidagi ishlar 2017 yildan boshlab faollashdi.

2019-yilda mamlakatda tavakkalchiliklarni milliy darajada baholash o‘tkazildi, hisobot Idoralararo komissiyaning 2019-yil 30-dekabrdagi qarori bilan tasdiqlandi.

Tavakkalchiliklarni milliy darajada baholash hisobotida Juda yuqori xavf toifasiga korruptsiya va poraxo‘rlik, soliq va bojxona jinoyatlari, giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishi va jinoiy uyushma tuzish kiritildi.

Firibgarlik, shuningdek, savdo yoki xizmatlar ko‘rsatish qoidalarini buzish, odam savdosi, litsenziyasiz faoliyat natijasida JDL/TM xavfi yuqori, dori vositalarining noqonuniy savdosi, kontrabanda, jinoiy mulkni qo‘lga kiritish va sotish, tovlamachilik, shtamplar, hujjatlar, muhrlarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, noqonuniy alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish, ekologik jinoyatlari o‘rta darajadagi hafv toifasig kiritildi.[7]

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, jinoiy daromadlarni legallashtirish jarayoni murakkab va ko‘p qirrali masala bo‘lib, uning milliy darajada baholanishi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tavakkalchiliklarni o‘z ichiga oladi.

Davlatlar, xalqaro tashkilotlar va jamiyatlar birgalikda jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishda samarali strategiyalarni ishlab chiqishlari zarur. Bu jarayon, nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki jamiyatning ijtimoiy va siyosiy rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishda, barcha qatlamlarning ishtiroki va hamkorligi muhimdir, chunki bu masala faqat davlatlar darajasida emas, balki jamiyatning har bir a'zosi uchun ham dolzarbdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayev, A. (2020). "Jinoiy daromadlarni legallashtirish va uning iqtisodiy ta'siri". Tashkent: Iqtisodiyot va statistika universiteti.
2. Karimov, B. (2019). "Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi: muammolar va yechimlar". Samarkand: Samarqand davlat universiteti.
3. Qodirov, D. (2021). "Legallashtirish jarayonlari va iqtisodiy xavfsizlik". Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
4. Rasulov, E. (2018). "Jinoiy faoliyat va uning iqtisodiyotga ta'siri". Buxoro: Buxoro davlat universiteti.
5. Murodov, F. (2022). "Iqtisodiy xavfsizlik va jinoiy daromadlarni legallashtirish". Tashkent: O‘zbekiston davlat iqtisodiyot universiteti.
6. Tursunov, G. (2020). "Jinoiy daromadlar va ularni legallashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari". Nukus: Qoraqalpog‘iston davlat universiteti.
7. Shodmonov, H. (2021). "Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va jinoiy daromadlarni legallashtirish". Andijon: Andijon davlat universiteti.
8. Xudoyberdiyev, I. (2019). "Legallashtirish jarayonlari va ularning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri". Farg‘ona: Farg‘ona davlat universiteti.
9. Sirojiddinov, J. (2022). "Jinoiy iqtisodiyot va uning mamlakat xavfsizligiga ta'siri". Tashkent: O‘zbekiston milliy universiteti.
10. Usmonov, K. (2023). "Iqtisodiy xavfsizlik va jinoiy daromadlarni legallashtirish: nazariy va amaliy jihatlar". Tashkent: Iqtisodiyot va moliya instituti.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA MATEMATIKA DARSLARIDA QIZIQARLI VA MANTIQIY MASALALARNI ISHLASH USULLARINI O‘RGATISH METODIKASI

Doniyor Jo‘lanov,
Navoiy davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
Gulchehra Ulug‘berdiyeva,
Navoiy davlat konchilik va texnologoyalar universiteti huzuridagi 2-sonli akademik litseyi oliy toifali matematika o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash qobiliyatlarini faollashtirishda qiziqarli va mantiqiy masalalarni o‘rgatishning ahamiyati to‘g‘risida so‘z borgan. Mazkur ishda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematikada qiziqarli va mantiqiy masalalarni ishlash usullarini o‘rgatish metodikasi ko‘rib chiqiladi. O‘quvchilarni matematik fikrlashga, mantiqiy yondoshuvga va masalalarni hal etishda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan usullar va metodlar tavsiflanadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematikaga bo‘lgan qiziqishni oshirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish va masalalarni echishda samarali yondashuvlarni qo‘llash katta ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *mantiqiy masala, arifmetik amal, miqdor, sodda, murakkab, taqqoslash, umumlashtirish, sahnalashtirilgan, ko‘rgazmali.*

Аннотация

В данной статье обсуждается важность преподавания интересных и логических задач для активизации мыслительных навыков учащихся начальной школы. В данной работе рассматривается методика обучения учащихся начальной школы интересным и логичным способам решения задач по математике. Описаны методы и приемы, направленные на развитие у учащихся математического мышления, логического подхода, творческих способностей при решении задач. Согласно полученным данным, большое значение имеет повышение интереса к математике, развитие логического мышления и использование эффективных подходов к решению задач у учащихся начальной школы.

Ключевые слова: *логическая задача, арифметическая операция, количество, простое, сложное, сравнение, обобщение, постановочный, демонстративный.*

Annotation

This article discusses the importance of teaching interesting and logical problems in activating the thinking skills of primary school students. This work considers the methodology of teaching methods of working on interesting and logical problems in mathematics to primary school students. Methods and techniques aimed at developing students' mathematical thinking, logical approach, and creative abilities in solving problems are described. According to the data, it is of great importance to increase interest in mathematics among elementary school students, develop logical thinking, and use effective approaches to solving problems.

Keywords: *logical problem, arithmetic operation, quantity, simple, complex, comparison, generalization, staged, demonstrative.*

Kirish. Respublikamizda Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi, yoshlar ta’lim – tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora – tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etildi, umumiy o‘rta ta’limda qiziqarli masalalar yechish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga asoslangan davlat ta’lim standartlari hamda fan o‘quv dasturlari ishlab chiqildi, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me’yoriy asoslari yaratildi.

Matematik masalalar yechish matematika o‘qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalar yechmasdan matematikani o‘zlashtirishni tasavvur ham etib bo‘lmaydi. Matematikada masalalar yechishning nazariyasini amaliyotga tadbiq qilishning muhim yo‘lidir. Masalalar yechishning boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan u yoki bu nazariy materiallarni o‘zlashtirish jarayonida muhim rolni va o‘quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini o‘stiradi, muhim ro‘l o‘ynaydi. Masalalar amaliy ishlar sistemasi asosida tuziladi. Bu degan so‘z har bir yangi tushunchani tarkib toptirish har doim bu tushuncha ahamiyatini tushuntirishga yordam beradigan, uning qo‘llanishini talab qiladigan u yoki bu masalani yechish bilan amalga oshadi.[2] Arifmetik amallarning mazmunini amallar orasidagi bog‘lanishlarni, amal komponentlari bilan natijalar orasidagi bog‘lanishlarni ochib berishda, har xil miqdorlar orasidagi bog‘lanishlar bilan tanishishda mos sodda masalalardan foydalaniladi. Sodda masalalar o‘quvchilarda murakkab masalalarni yechish uchun zarur bo‘ladigan bilimlar malakalar va ko‘nikmalarni tarkib toptirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning foydali vositasi bo‘lib, odatda o‘z ichiga ayrim bilimlarni oladi.[1]. Bu bilimlarni qidirish masala yechuvchidan analiz va sintezga mustaqil murojaat qilish faktlarni taqqoslash, umumlashtirish va hokazolarni talab qiladi. Bilishning bu usullarini o‘rgatish matematika o‘qitishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Masalalarni yechishda predmetga bo‘lgan qiziqish rivojlanadi, umuman mustaqillik erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilishlik rivojlanadi. O‘quvchilarga tarbiya berishda ham hayotiy masalalar fikr doiralarni kengaytirishga yordam beradi.

Metodlar. Boshlang‘ich sinflarda masalalarni o‘rganish yangi tushunchalarni shakllantirish, sodda masalarni yechishdan murakkablarni yechishga o‘tish yordamida amalga oshiriladi. Bunda qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lishga doir har xil sodda masalalar ya’ni bir xil qo‘shiluvchilarning yig‘indisini topishga karrali va teng bo‘laklarga bo‘lishlarga doir sonni bir necha kattalashtirish hamda kichiklashtirishga oid masalalar sonlarni taqqoslashga amallarning noma’lum komponentlarni topishga doir sodda masalalar shuningdek turli murakkab masalalar, shu jumladan keltirib yechiladigan masalalar, ikki ko‘paytuvchining yig‘indisini topishga doir va unga teskari masalalar yig‘indisini so‘ngra ko‘paytirish bo‘lishga keltiradigan va boshqa masalalarni ko‘rib chiqamiz.

Agar berilgan masala o‘zining murakkabligi bilan sinfda yechilgan masalalarga mos yoki o‘xshasa, u holda o‘quvchilar taklif qilingan masalaning yechilish yo‘lini mustaqil topishga o‘rgatish kerak. Shu maqsadda o‘quvchilar masalalar yechishga yaqinlashishning eng sodda umumiy usullarini egallashlari lozim.

Sahnalashtirilgan masalalar. Sahnalashtirilgan masalalarga katta e’tibor beriladi. Bu masalalarda bolalarning kuzatgan ko‘pincha o‘zlari bevosita bajargan harakatlari aks ettiriladi. Bu yerda savolga javob berish emas, balki bu berilgan sonlar ko‘rgazmali asosida ko‘rinib turishi mumkindir. Birinchi sinf bolalari ko‘pincha masalani yechishni bilmaydilar, chunki ular u yoki bu harakatni ifodalovchi (sarf qildi, bo‘lishib oldi, sovg‘a qildi va hakozo) so‘zlarning ma’nosini tushunmaydilar. Shuning uchun maktabda, tayyorlov guruhida u yoki bu harakatni ifoda etuvchi so‘zlarning mazmunini ochib berishga alohida e’tibor berish kerak. Shu maqsadda, masala asosiga qanday amaliy harakatlarni kiritish zarurligini hisobga olish kerak. Bunda qarama-qarshi harakatni: keldi-ketdi, yaqin kelishdi-uzoqlashdilar, oldi-berishdi, ko‘tarishdi-tushirishdi, olib kelishdi- olib ketishdi, uchib ketishdi nazarda tutuvchi yig‘indi va qoldiqni topishga oid masalalarni taqqoslash maqsadga muvofiqdir. [3, 488]

Ko‘rgazmali masalalar. Dastlab bolalarga mavzu mazmuni to‘g‘risida gapiriladi, hamda berilgan sonlar tasvirlangan rasmlar ko‘rsatiladi. Rasm bo‘yicha birinchi masalani o‘qituvchining o‘zi tuzadi.U bolalarni rasmlarni ko‘rib chiqishiga, berilgan sonlarni hamda miqdoriy munosabatlarning o‘zgarishiga olib kelgan hayotiy harakatlarni ajratib olishga o‘rgatadi. Masalan, rasmda 5 ta shar ushlagan bola tasvirlangan, u 1 ta sharni qizchaga bermoqda. Rasmni kuzatayotib o‘qituvchi: Bu yerda nima tasvirlangan? Bola nima ushlab turibdi? Unda nechta shar bor? U nima qilmoqda? Biz nimani bilamiz? Masalani shartini tuzing. Nima haqida so‘rash mumkin? deb so‘raydi.O‘qituvchi berilgan sonlarni o‘zgartirib, bolalarni ayni bir mavzuda har xil mazmundagi yig‘indi va qoldiqni topishga oid masalalarni o‘ylab topishga, hikoya qilishga o‘rgatishda foydalanadigan xohlagan mazmundagi rasm asosida masala tuzishga undaydi.[4, 160]

Matematik masalalar sodda va murakkab masalalarga ajratiladi. Bitta amal bilan yechilishi mumkin bo‘lgan masalalarga sodda masalalar deyiladi. Bir nechta sodda masalalardan tuzilgan va shu sababli ikki yoki undan ortiq amallar yordamida yechiladigan masalalarga murakkab masalalar deyiladi.

Masalan: daraxt shoxida 6 ta qush bor edi. Ulardan 2 tasi uchib ketdi? Bu masalaga 2 ta teskari masala tuzish mumkin.

1)Daraxt shoxida bir nechta qush bor edi. 2 ta qush uchib ketgandan so‘ng daraxt shoxida 4 ta qush qoldi. Daraxt shoxida nechta qush qoldi?

2)Daraxt shoxida 6 ta qush qo‘nib turgan edi, bir nechta qush uchib ketgandan so‘ng 2 ta qush qoldi. Nechta qush uchib ketdi?

Sodda masala orasidan bevosita ifodalangan masala ajratilgan.

1-masala. Bir qutida 8 ta olma bor. Bu olmalar ikkinchi qutidan 5 ta ortiq. Ikkinchi qutida nechta olma bor.

Yechilishi. 8-5=3 ta (olma)

Javob. Ikkinchi qutida 3 ta olma bor.

2-masala. Vali 6 ta quyon rasmini chizdi. Valini chizgan rasmlari Zokirni chizgan rasmlaridan 2 ta ortiq. Zokir nechta quyon rasmini chizdi?

Yechilishi. 6-2=4 ta.

Javob. Zokir 4 ta quyon rasmini chizdi.

Sodda masalalardan yig‘indi va qoldiqni topishga doir masalalar.

3-masala. Ahmad 3 ta qo‘g‘irchoq va 2 ta koptok rasmini chizdi. Ahmad nechta o‘yinchoq rasmini chizdi?

Yechilishi. 3+2=5 ta.

Javob. Ahmad 5 ta o‘yinchoq rasmini chizdi.

4-masala. Zokir olma daraxtidan 7 ta olmani oldi va 3 tasini yedi. Zokirda nechta olma qoldi?

Yechilishi. 7-3=4 ta (olma).

Javob. Zokirda 4 ta olma qoldi.

5-masala. Stol ustida 4 ta qizil qalam bor edi yana unga 4 ta ko‘k qalamni qo‘shdi. Endi stol ustida nechta qalam bo‘ldi?

Yechilishi. 4+4=8 ta

Javob. Stol ustida 8 ta qalam bo‘ldi

Mantiqiy va qiziqarli masalalarni yechish bolalarda avvalo mukammal matematik tushunchalarni shakllantirish ularning programmada belgilab berilgan nazariy bilimlarini o‘zlashtirish bilan birga o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan: Agar biz o‘quvchilarda qo‘shish haqida to‘g‘ri tushuncha shakllantirishni istasak, buning uchun bolalar yig‘indini topishga doir yetarli miqdorda sodda masalalarni deyarli har gal to‘plamlarni birlashtirish amalini bajarib yechishlari zarur. Masalan: quyidagi masala berilgan.

Ahmadda 6 ta rangli va 3 ta oddiy qalam bor. Ahmadda hammasi bo‘lib nechta qalam bor?

Buni yechish uchun oldin 6 ta cho‘p oladilar va buning yoniga yana 3 ta cho‘pni surib qo‘yadilar va hammasi bo‘lib nechta cho‘p bo‘lganini sanaydilar. So‘ngra masalani yechish uchun 6 ga 3 ni qo‘shish kerakligi va hosil bo‘lgan 9 son bu ikki sonning yig‘indisi bo‘lishini tushuntiradi. Shunga o‘xshash masalalarni ko‘plab yechib, bolalar qo‘shish amali haqidagi tushunchalarni asta sekin egallab boradilar va uni umumlashtrish asosida qo‘shish uchun ularni birga sanash kerakligini tushunalilar. Masalan: amalning noma‘lum komponentini topishga doir masalani yechayotib o‘quvchilar arifmetik amallarning komponentlari va natijalar orasidagi bog‘lanishni ajratish va uni masalalar yechishda qo‘llashga harakat qiladilar. Mavjud bilimlar va fikrlash qobiliyatlar tadbiq qilinishi jarayonida mustahkamlanib boradi. Masalalarni shakllantirishda aniq material bo‘lgan holda nazariyani amaliyot bilan o‘qitishni turmush bilan bog‘lab olib borish imkonini beradi. O‘quvchi masalalarni yechayotganda ko‘p matematik tushunchalar aniq hayotda odamlarning tajribasida o‘z ildizi ekanligiga ishonch hosil qiladi. Masalalar yechish orqali bilim va tajriba sohasida muhim bo‘lgan ma‘lumotlar bilan tanishadilar. Masalan, boshlang‘ich sinflarda yechiladigan ko‘p masalalarning mazmunida bolalar va kattalarning mehnati mamlakatimizning xalq xo‘jaligi, texnika sport va madaniyatda erishgan yutuqlari yotadi. Masalalar yechish jarayonining o‘zi ma’lum metodikada o‘quvchilarning aqliy rivojlanishiga ancha ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki u aqliy operasiyalarni: analiz va sintez, aniqlashtirish va taqqoslash, umumlashtirishni talab etadi. Masalan, o‘quvchi istagan masalani yechishda analiz qiladi. Savolni masala shartidan ajratadi. Yechish rejasini tuzayotganda sintez qiladi, bunda u aniqlashtirishdan foydalanadi, biror bir turdagi masalalarni ko‘p marta yechish natijasida o‘quvchi bu turdagi masalalarda berilgan va izlanayotgan sonlar orasidagi bog‘lanishlar haqidagi bilimni umumlashtiradi.[5,192]. Mantiqiy va qiziqarli masalalar yechish jarayonida o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish. Masalalar yechish matematikada o‘qitishni muhim tarkibiy qismidir. Masalalar yechmasdan matematikani o‘zlashtirishni tasavvur ham qilib bo‘lmaydi. Masalalar yechishda nazariyani amaliyotga tadbiq qilinishi haqida fikr yuritishida natural sonlar arifmetikasini o‘rganish maqsadga muvofiq masalalar va amaliy ishlar sistemasi asosida tuzilgan. Arifmetik amallarning mazmunini amallar orasidagi bog‘lanishlarni amalda qo‘llanishlari bilan natijalar orasidagi baholashlarni ochib berishda har xil miqdorlar orasidan baholashlar bilan tanishishiga yechish va ular haqida fikr yuritish katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Sodda va murakkab masalalarni fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning foydali vositasi bo‘lib odatda o‘z ichiga yashirin ma’lumotni oladi. Masalalarni yechishda predmetga bo‘lgan qiziqishi rivojlanadi. Umuman mustaqillik, erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik maqsadga muvofiqdir. Qo‘shish va ayirishga o‘rgatish 1-sinfda matematika o‘qitishning asoslaridan biridir. Bolalar bog‘chasida asosiy tayyorlov ishlari olib boriladi. Bolalar arifmetik masalalarni yechib, hisoblash malakalarini egallab boradi. Bu arifmetik masalalarning ma’nosini tushunishiga hamda unga ongli ravishda yondoshishlar, xatoliklar natija hamda amallar komponenti orasidagi o‘zaro bog‘lanishlarni aniqlashga imkon beradi. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar bir amalli oddiy masalalarni, ya’ni narsalar ustida ish bajarishdan qo‘shish ayirishdan bevosita kelib chiqadigan (qo‘shdik ko‘paydi, ayirdik kamaydi) arifmetik masalalarni yechadilar.

Natijalar. Bular yig‘indi va qoldiqni topishga qaratilgan masalalardir. Bolalarga katta son kichik sonlarni qo‘shish hollari bilan tanishtiriladi. Ularni avval 1 sonini qo‘shish va ayirish, keyinroq 2 va 3 sonlarni qo‘shish va ayirishga o‘rgatib boriladi. Masalalar yechish bolalarga, avvalo, mukammal matematik tushunchalarni shakllantiradi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, o‘ylash masalalarni hayotga tatbiq eta olish, har bir amalning ma’nosini tushunishdan iboratdir. Qo‘shish amallariga doir masalalar yechishiga to‘plam elementlarini birlashtirish natijasida belgilarni aniqlaydilar, amallarning noma’lum komponenti (noma’lum qo‘shiluvchi, ko‘payuvchi, bo‘luvchi) topishga doir masalani yechayotib, bolalar arfimetik amallarning komponentlari va orasidagi bog‘lanishni o‘zlashtiradilar. Masalalar konkret material bo‘lib, ular yordamida o‘quvchilarda yangi

bilmlar vujudga keladi va mavjud bilmlar tadbiq qilish mobaynida mustahkamlanib boriladigan holda nazariyani amaliyot bilan o‘qitish tushuntirish bilan bog‘lab olib borish imkonini beradi. Boshlang‘ich sinflarda yechiladigan masalalarni deyarli yarmi og‘zaki bajarilishi kerakligi haqida mulohaza qiladilar. Masalalar yechish o‘quvchilarda masala mazmuniga chuqurroq qarash haqida berilgan sonlar va izlanayotgan hamda orasidagi bog‘lanishni har tomonlama fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. O‘quvchilarni mustaqil masalalar yechishiga o‘rgatishning bir qancha bosqichini ko‘rsatamiz. [6]

1-bosqich. Masala o‘quvchining yo‘naltiruvchi savollar bo‘yicha yechiladi va bu yechish doskada va daftarga bir vaqtda bajariladi.

2-bosqich. Masala shartini o‘qituvchi rahbarligida analiz qiladi va yechish rejasini tuzadi.

3-bosqich. O‘qituvchi rahbarligida masala faqat analiz qiladi. Yechish rejasi va yechishning o‘zini o‘quvchilarga mustaqil bog‘laydi.

4-bosqich. Masalani o‘qituvchining hech bir yordamisiz mustaqil yechish uchun fikr yuritadilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yoshiga mos bo‘lgan bir necha mantiqiy masalalarning yechilishini ko‘rsatib o‘tamiz:

6-masala. Akvariumdagi sakkizoyoqlar va baliqlarning jami soni 33 ta. Ularning jami oyoqlari soni 96 ta. Akvariumda nechta baliq bor?

Yechilishi. Biz bilamizki, baliqda oyoq bo‘lmaydi, masalada berilgan oyoqlar soni faqat sakkizoyoqlilarga tegishlidir. Bu masalani quyidagi ko‘rinishda yechamiz.

Birinchi navbatda, sakkizoyoqlilar sonini toppish uchun 96 sonini 8 ga bo‘lamiz:

96:8=12 ta.

Jami sondan sakkizoyoqlilar sonini ayirsak, akvarumdagi baliqlar soni kelib chiqadi.

33-12=21 ta.

Javob. Jami akvarumda 21 ta baliq bor ekan.

7-masala. Qutidagi ko‘k sharlarning qizil sharlarga nisbati 2:1 edi. Doniyor bu qutiga yana 12 ta qizil shar joyladi. Natijada ko‘k sharlarning qizilsharlarga nisbati 4:5 bo‘lib qoldi. Boshida qutida nechta shar bo‘lgan?

Yechilishi. Qutidagi ko‘k sharlar soni – 2x ta, qizil sharlar soni esa – x taga teng. Qutiga 12 ta qizil shar qo‘shilgandan keyin $\frac{2x}{x+12} = \frac{4}{5}$ sharlar nisbati ko‘rinishda bo‘ladi. Bu hosil bo‘lgan tenglamani quyidagi ko‘rinishda yechamiz:

$\frac{2x}{x+12} = \frac{4}{5}$, $2x \cdot 5 = 4 \cdot (x + 12)$, 10x=4x+48, 10x-4x=48, 6x=48, x=48:6, x=8.

Dastlab qutidagi jami sharlar sonini toppish uchun 3 ni 8 ga ko‘paytiramiz:

3·8=24.

Javob. Dastlab qutida jami 24 ta shar bo‘lgan.

8-masala. 2, 3, 4, 10, 38 sonlar ketma-ketligidan qonuniyat asosida keyingi sonni toping.

Yechilishi. 4 sonidan boshlab har bir son o‘zidan oldingi ikkita son ko‘paytmasidan 2 ni ayirsak kelib chiqar ekan:

2·3-2=6-2=4, 3·4-2=12-2=10, 4·10-2=40-2=38, 10·38-2=380-2=378.

Javob. 378.

9-masala. So‘roq belgisi o‘rnida qaysi son turishi kerak?

65, 84, 105, ?, 153, 180

Yechilishi. Berilgan sonlar orasidagi farq 19 sonidan boshlab ketma-ket toq sonlarga farqlanayapti:

65+19=84, 84+21=105, 105+23=128, 128+25=153, 153+27=180.

Javob. So‘roq o‘rnidagi son 128 ga teng ekan.

10-masala. So‘roq belgisi o‘rnida qaysi son turishi kerak?


7, 22, 67, 202, ?

Yechilishi. Ketma-ket har bir songa 3 ni ko‘paytirib 1 ni qo‘shganda keying son hosil bo‘lar ekan:

7·3+1=21+1=22, 22·3+1=66+1=67, 67·3+1=201+1=202, 202·3+1=606+1=607.

Javob. Demak biz izlayotgan son 607 ga teng.

11-masala. So‘roq belgisi o‘rnida qaysi son turishi kerak?



Yechilishi. Bu masalani yechish uchun aylana ichidagi sonlarni tartib bilan yozib olamiz:

1, 6, 11, 16, 21, 26, ?, 36. Sonlar orasidagi farq 5 taga teng. Demak so‘roq o‘rnidagi son 31 ga teng ekan.

Javob. 31.

12-masala. So‘roq belgisi o‘rnida qaysi son turishi kerak?

473 (50), 578 (65), 529 (?)

Yechilishi.

47+3=50, 57+8=65, 52+9=61.

Javob. So‘roq o‘rnidagi son 61 ga teng ekan.

13-masala. So‘roq belgisi o‘rnida qaysi son turishi kerak?

2	3	5	8
1	5	6	11
3	8	11	19
4	13	17	?

Yechilishi. Satr bo‘yicha ham yoki ustun bo‘yicha ham hisoblaganda uchinchi qatordan boshlab har bir son o‘zidan oldingi ikkita son yig‘indisiga teng bo‘ladi.

2+3=5, 3+5=8, 1+5=6, 5+6=11, 3+8=11, 8+11=19, 4+13=17, 13+17=30.

Demak so‘roq o‘rnidagi son 30 ga teng.

Javob. 30.

14-masala. Lift 12 ta katta yoshdagi odamlarni yoki 20 ta bolalarni ko‘tara oladi. Agar liftda 9 ta katta yoshdagi odamlar bor bo‘lsa, ular bilan birga yana nechta bolalar liftga chiqishlari mumkin?

Yechilishi. Bu masalani yechish uchun katta yoshdagi odamlarni ham, bolalarni ham alohida-alohida 4 tadan guruhga ajratamiz. Bunda bitta guruhda katta yoshdagi odamlar 3 kishini, bolalar esa 5 kishini tashkil etadi. Bundan ko‘rinadiki, 3 nafar katta yoshdagi odamlarning og‘irligi 5 nafar bolalar og‘irligiga teng ekan. Shu sababli, agar liftda 9 nafar katta yoshdagi odamlar bo‘lsa, ular bilan yana 5 nafar bolani liftga chiqarish mumkin.

Javob. 5 nafar.

15-masala. Matematika to‘garagiga 8 ta o‘gil bola va 4 ta qiz bola qatnashayapti. Har haftada esa 4 ta o‘gil bola va 6 ta qiz bola kelib qo‘shilayapti. Necha haftadan so‘ng to‘garakdagi o‘g‘il bolalar soni qiz bolalar soniga teng bo‘ladi?

Yechilishi. Agar haftalar soni – x ga teng bo‘lsa, u holda bu masalani quyidagi ko‘rinishda yechamiz:

8+4x=4+6x, 6x-4x=8-4, 2x=4, x=4:2, x=2.

Demak, ikki haftadan so‘ng matematika to‘garagidagi o‘g‘il bolalar soni bilan qiz bolalar soni teng bo‘lar ekan.

Javob. 2 hafta.

16-masala. Fermada 30 ta sigir, bir nechta o‘rdaklar bor. O‘rdaklarning jami oyoqlari soni sigirlarning jami oyoqlari soniga teng. Fermada jami nechta hayvon bor?

Yechilishi. Birinchi navbatda barcha sigirlarning oyoqlari sonini topamiz:

30·4=120 ta.

O‘rdaklarning jami oyoqlari soni sigirlarning jami oyoqlari soniga teng bo‘lganligi uchun 120 ni 2 ga bo‘lsak, fermadagi o‘rdaklar soni kelib chiqadi:

120:2=60 ta.

Fermadagi jami hayvonlar soni 60+30=90 ta ekanligi kelib chiqadi.

Javob. 90 ta.

17-masala. 2 ta tarvuz va 1 ta qovun birgalikda 6500 gr. 1 ta qovun 1 ta tarvuzdan 500 gr og‘irroq bo‘lsa 2 ta qovunning og‘irligini toping.

Yechilishi. 1 ta tarvuzning og‘irligi – x gr, 1 ta qovunning og‘irligi esa – (x+500) gr ga teng.

2x+x+500=6500, 3x=6500-500, 3x=6000, x=6000:3, x=2000.

Masala shartiga ko‘ra 2 ta qovunning og‘irligi

2·(2000+500)=2·2500=5000 (gr) ga teng ekan.

Javob. Ikkita qovunning og‘irligi 5000 grammga yoki 5 kilogrammga teng.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf matematika darslarida o‘quvchilar bilan mantiqiy va qiziqarli masalalar bilan ko‘proq shug‘ullanilsa, ularning mantiqiy tafakkurining shakllantirilishiga va fikrlash qobiliyatining o‘sishiga katta yordam beradi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni. www.lex.uz

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 30- sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimidagi maktabdan tashqari ta’lim samaradorligini tubdan oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4467-son qarori. www.lex.uz

3. Mirziyoyev Sh.M.Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.-488b

4. L. O‘rinboyeva [va boshq.]. Matematika. 1-sinf uchun darslik. –Toshkent:Respublika ta’lim markazi, 2021. –160 b

5. L. O‘rinboyeva [va boshq.]. Matematika. 2-sinf uchun darslik. –Toshkent:Respublika ta’lim markazi, 2021. –192 b.

6. Ergashev J. “Matematikani o‘qitishda interaktiv yondashuv”. T.: “Fan va texnologiyalar” – 2016.

INTEGRATION WITH MODERN TECHNOLOGIES IN TEACHING GERMAN AND THE ATTENTION GIVEN TO GERMAN IN OUR COUNTRY

Yulduz Jurayeva,

Karshi State Technical University German language teacher

Annotatsiya

Nemis tilini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyasi bugungi kunda ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Texnologiyaning rivojlanishi, xususan, internet va mobil qurilmalarning keng tarqalishi, ta'limning sifatini oshirish, o‘qitish jarayonini qiziqarli va samarali qilishda katta yordam bermoqda. Ushbu maqolada nemis tilini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarning qanday qo‘llanilishi, ularning afzalliklari va muammolari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: *zamonaviy texnologiyalar, nemis tili, darslar, interaktiv dasturlar, texnologiya, texnologik vositalar, individual yondashuv.*

Аннотация

Интеграция современных технологий в преподавании немецкого языка стала сегодня неотъемлемой частью образовательного процесса. Развитие технологий, в частности широкое использование Интернета

и мобильных устройств, во многом помогает повысить качество образования, сделать учебный процесс интересным и эффективным. В данной статье представлена информация о том, как современные технологии используются в преподавании немецкого языка, их преимуществах и проблемах.

Ключевые слова: *современные технологии, немецкий язык, уроки, интерактивные программы, технологии, технологические средства, индивидуальный подход.*

Abstract

The integration of modern technologies in teaching the German language has become an integral part of the educational process today. The development of technology, in particular, the widespread use of the Internet and mobile devices, greatly helps to improve the quality of education, make the teaching process interesting and effective. This article provides information about how modern technologies are used in teaching German, their advantages and problems.

Keywords: *modern technologies, German language, lessons, interactive programs, technology, technological tools, individual approach.*

Introduction. Nowadays, the attention paid to the German language in our country is reflected in every field, including education, economy, culture and communication. German is recognized as a global language, plays an important role in international relations and trade, and is of particular importance in educating the younger generation. The increase in demand for learning German in our country has led to its strengthening its place in the education system and in everyday life. The emphasis on German is primarily reflected in the education system. German language classes have been introduced in preschools, secondary schools, colleges and higher education institutions. As part of the reforms of the President of the Republic of Uzbekistan in the field of education, new programs for learning German have been developed. Courses aimed at training teachers and improving their qualifications are being organized in educational institutions. This helps teachers master modern pedagogical methods and provides quality education to students. The conditions created for learning German are also important. Special attention is paid to the provision of materials, textbooks and electronic resources necessary for teaching in German in schools and higher education institutions. Learning opportunities are being created for students through interactive lessons, video materials and online platforms. This will increase students' interest in German and help them to further strengthen their knowledge. Attention to the German language is reflected not only in the educational system, but also in the economic sphere.

Literature review. Nowadays, many companies and organizations are looking for personnel who know German. With the development of international trade and business relations, the ability to communicate in German is in demand. This creates new opportunities for young people and helps them in their professional development. By learning German, young people become part of the global market and have the opportunity to work in international companies. In our country, attention to learning German is also reflected in the field of culture and communication. An opportunity to get acquainted with the cultures, literature and art of other countries is being created through the German language. Students develop their language skills by reading books, watching movies and listening to music in German. This broadens their worldview and helps them understand other cultures. The focus on German is also important in international relations and diplomacy. At a time when the Republic of Uzbekistan is actively participating in the international arena, the need to know German is increasing. Uzbekistan's cooperation with international organizations, participation in various conferences and forums further increases the need for German-speaking specialists. This will help strengthen our country's position in the global arena. [1]

However, with the emphasis on German, there are also some problems. Issues such as students' difficulties in learning German, teachers' incompetence, and lack of necessary conditions in educational institutions need to be addressed. At the same time, it is necessary to use innovative methods in teaching German and develop new approaches to increase students' interest. The attention paid to the German language should not diminish the importance of the Uzbek language. The place and importance of the Uzbek language as a state language must be preserved. Along with teaching in Uzbek and developing Uzbek culture, learning German plays an important role in preparing the young generation to actively participate in the global environment. This helps to preserve the Uzbek language and culture.[2]

Results. Modern technologies are used in German language teaching in several ways. First, the learning process is made easier through online platforms and resources. Interactive materials, video lessons, games and many other resources designed for students allow teachers to teach German in a fun and effective way. For example, through mobile applications such as Duolingo, Babbel, Rosetta Stone, students can learn German at their own time and place. These platforms facilitate the teaching process and increase student motivation. Secondly, modern technologies provide an individual approach to teaching German. Every student has their own learning style and pace. With the help of technological tools, teachers can plan lessons according to the needs of each student.[3]

For example, students can view or repeat lessons at their convenience. This helps students to improve their knowledge. Thirdly, there is an opportunity to integrate students into the global environment with the help of modern technologies in teaching German. Through the Internet, students have the opportunity to communicate with their peers from other countries, exchange cultures, and practice the language. Such experiences help students develop their language skills and expand their interactions. Also, with the help of modern technologies, teachers can make their lessons more interesting and interactive. For example, interactive presentations, video materials, and games can be used to attract and retain students' attention. Such an approach ensures active participation of students and makes the teaching process more effective. However, there are also some problems in the application of modern technology in teaching German. First, not all students may have access to modern technology. Access to the internet or having the necessary devices may be a problem for some students.[4]

This can lead to inequality in education. Second, the excessive use of technology can cause students to move away from traditional learning methods. Students can become more attached to technology, which can hinder their development of communication and other skills. Therefore, teachers need to balance modern technology with traditional teaching methods. Another important aspect of integrating modern technologies in German language teaching is teacher training. Teachers should know how to use new technologies and use them effectively in the teaching process. For this, it is necessary to organize trainings, seminars and online courses for teachers. Teachers need to constantly update their knowledge in order to master new technologies and be effective in teaching them to students.[5]

Discussions. In general, the integration of modern technology in teaching German plays an important role in making the educational process more effective and interesting.With the help of technologies, students will have the opportunity to strengthen their knowledge, learn new skills and actively participate in the global environment. However, it is necessary to take into account problems in the application of technologies. Teachers and educational institutions should develop effective strategies to solve these problems. At the same time, the use of modern technologies in teaching German enhances communication between teachers and students. With the help of technology, teachers can answer students' questions quickly and effectively, and make lessons more interactive. This increases students' confidence in teachers and makes the teaching process more effective. There is also an opportunity to develop students' creativity in teaching German with the help of modern technologies. Students can express themselves and express their ideas in German through a variety of projects, presentations and creative works. This will help them develop their language skills and increase their ability to express themselves. Teachers can use different methods to help students learn German using modern technology. For example, by grouping students, discussing and working together, mutual learning can be encouraged. This approach helps students develop their language skills and increases their ability to communicate with each other.The emphasis on German in our country also serves the purpose of cross-cultural exchange. As Uzbekistan's relations with different countries are developing, knowledge of German facilitates mutual understanding and exchange of cultures. By learning German, students have the opportunity to communicate with other countries, learn about their cultures and traditions. The emphasis on German also affects the personal development of young people. By learning German, young people have the opportunity to expand their knowledge, improve their communication skills and express themselves. This will help them achieve their self-development and professional goals. Nowadays, the attention paid to the German language in our country is important in every way. The role of German in the education system, economy, culture and international relations is increasing. In order to strengthen Uzbekistan's position in the global arena, to educate the younger generation and help them in

their professional development, it is necessary to continue to focus on learning German. All parties, including teachers, students, parents and government organizations, must work together to implement this process effectively. Only in such cases, the attention paid to the German language in our country will develop further and play an important role in preparing the young generation for the modern world.[6]

The integration of German language teaching with modern technologies and the attention paid to the German language in Uzbekistan have undergone significant changes in recent years. During the years 2020-2024, these processes had a significant impact on the education system and made learning German more effective and convenient. The COVID-19 pandemic has had a serious impact on educational processes, and the importance of online learning platforms has increased during this period. Teachers and students have started taking classes on platforms like Zoom, Google Classroom, and Microsoft Teams. These changes have allowed teachers to conduct lessons remotely, helping students to continue learning German. In addition, mobile applications and interactive learning materials have also become widespread. Students have made learning German a more interesting and productive experience through apps like Duolingo, Babbel. Teaching methods through interactive games and simulations helped to increase students' interest and develop language skills. The government of Uzbekistan has developed a number of programs and strategies to increase the attention given to the German language. The "National Strategy for German Language Teaching" adopted in 2021 aims to develop the process of learning German in the country. As part of this strategy, measures aimed at training teachers, improving the quality of German language teaching in educational institutions and creating new opportunities for students were implemented. International seminars and trainings were organized to improve teachers' qualifications. Through these events, teachers had the opportunity to master modern pedagogical methods and technologies and become more effective in the teaching process. In general, during 2020-2024, the integration of modern technologies and the attention paid to the German language in the teaching of the German language in Uzbekistan have increased significantly. These processes have created new opportunities in the educational system, updated teaching methods, and made learning German more interesting and effective for students. As a result, we can see that new horizons are opening for the young generation learning German in Uzbekistan.[7]

Conclusion. In conclusion, modern technology plays an important role in teaching German. They greatly help to make the teaching process interesting and effective, to increase the level of knowledge of students and to integrate them into the global environment. However, it is necessary to take into account problems in the application of technologies. Teachers and educational institutions must learn how to use modern technologies in an effective and balanced way. At the same time, it is necessary to constantly search for innovations in the use of modern technologies in order to further increase the knowledge of students and develop their creativity.

REFERENCES:

1. Abdurakhmanov, A. (2020). "Using Technologies in Modern Education: The Case of German." Education of Uzbekistan, 2020.

2. Kadyrov, Sh. (2021). "Using multimedia tools in teaching German." Ministry of Education of the Republic of Uzbekistan, 2021.

3. Muradov, D. (2019). "Innovative methods and technologies in teaching German ." Education and Innovation, 2019.

4. Khodiev, B. (2022). "Youth and the German Language: Contemporary Approaches." Youth and Education, 2022.

5. Rasulov, A. (2023). "Online platforms and their effectiveness in teaching German ." Education of Uzbekistan, 2023.

6. Tursunov, A. (2020). "Digital Technologies in German Language Education." Education and Digital Innovation, 2020.

7. Karimova, N. (2021). "Interactive methods in teaching German." Ministry of Education of the Republic of Uzbekistan, 2021.

8. Ismailov, S. (2022). "Modern pedagogical technologies in German language teaching." Education and Innovation, 2022.

9. Abdullayeva, M. (2023). "Learning German with the help of modern technologies." Education of Uzbekistan, 2023.

10. Sattorov, E. (2020). "Modern approaches to the development of communicative competence in German." Education and Innovation, 2020.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В НЕСПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

Умида Нарзуллаева,

Преподаватель Нукусского инновационного института

Аннотация

Преподавание русского языка как иностранного (РКИ) в неспециализированных образовательных учреждениях сталкивается с множеством вызовов и изменений. В последние годы наблюдается значительное развитие методик и подходов к обучению, однако существуют и серьезные проблемы, требующие решения. Русский язык, как государственный и литературный язык, занимает центральное место в учебных планах и программах. В условиях глобализации и интеграции образовательных стандартов, необходимо рассмотреть текущее состояние преподавания русского языка, его методические подходы, проблемы и перспективы. В настоящее время преподавание русского языка в некоторых вузах нашей страны развито недостаточно. Обычно иностранные языки рассматриваются как вспомогательные предметы по отношению ко многим другим. Например, иностранные языки уже включены в перечень предметов, преподаваемых по специальности "Литература". Но даже в этом случае их обучают на недостаточном уровне. В настоящее время все вузы стремятся привлечь квалифицированных преподавателей иностранных языков. Для этого необходимо улучшить реальные условия работы. Обучение большинства преподавателей длится менее 3 месяцев. Таким образом, за столь короткое время учителя просто не успевают хорошо освоить предмет, а значит, и не могут потом дать ученикам реальные знания.

Ключевые слова: *цифровые ресурсы, критическое мышление, творческие способности, популяризация языка, проблемы преподавания, современные методики, адаптированные, влияние иностранных языков.*

Annotatsiya

Nomutaxasis ta'lim muassasalarida rus tilini chet tili sifatida o‘qitish ko‘plab qiyinchiliklar va o‘zgarishlarga duch keladi. So‘nggi yillarda o‘qitish usullari va yondashuvlarining sezilarli rivojlanishi kuzatilmoqda, ammo hal qilishni talab qiladigan jiddiy muammolar mavjud. Rus tili davlat va adabiy til sifatida o‘quv rejalari va dasturlarida Markaziy o‘rinni egallaydi. Globallashuv va ta'lim standartlarining integratsiyasi sharoitida rus tilini o‘qitishning hozirgi holatini, uning uslubiy yondashuvlarini, muammolari va istiqbollarini hisobga olish kerak. Hozirgi vaqtda mamlakatimizning ba'zi universitetlarida rus tilini o‘qitish etarli darajada rivojlanmagan. Odatda chet tillari boshqalarga nisbatan yordamchi mavzular sifatida qaraladi. Masalan, chet tillari allaqachon "adabiyot"mutaxassisligi bo‘yicha o‘qitiladigan fanlar ro‘yxatiga kiritilgan. Ammo bu holda ham ular etarli darajada o‘qitilmaydi. Hozirgi vaqtda barcha universitetlar chet tillarini o‘qitish bo‘yicha malakali ishchilarni jalb qilishga intilmoqda. Buning uchun haqiqiy ish sharoitlarini yaxshilash kerak. Ko‘pgina o‘qituvchilar uchun trening 3 oydan kam. Shunday qilib, bunday qisqa vaqt ichida o‘qituvchilar shunchaki mavzuni yaxshi o‘zlashtira olmaydilar va shuning uchun keyinchalik talabalarga haqiqiy bilim bera olmaydilar.

Kalit so‘zlar: *raqamli manbalar, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, tilni ommalashtirish, o‘qitish muammolari, zamonaviy texnikalar, moslashtirilgan, chet tillarining ta'siri.*

Abstract

Teaching Russian as a foreign language in non-specialized educational institutions is facing many challenges and changes. In recent years, there has been a significant development of teaching methods and approaches, but there are also serious problems that need to be addressed. Russian, as the official and literary language, occupies a central place in curricula and programs. In the context of globalization and integration of educational standards, it is necessary to consider the current state of teaching the Russian language, its methodological approaches, problems and prospects. Currently, the teaching of the Russian language in some universities in our country is not well developed. Usually, foreign languages are considered as auxiliary subjects in relation to many others. For example, foreign languages are already included in the list of subjects taught in the specialty "Literature". But even in this

case, they are taught at an insufficient level. Currently, all universities are striving to attract qualified teachers of foreign languages. For this, it is necessary to improve the real working conditions. Most teachers' training lasts less than 3 months. Thus, in such a short time, teachers simply do not have time to master the subject well, and, therefore, they cannot then give real knowledge to students.

Keywords: *Digital resources, critical thinking, creativity, language popularization, teaching problems, modern methods, adapted, the influence of foreign languages.*

Введение. Современное общество предъявляет высокие требования к уровню владения языком, как со стороны учащихся, так и со стороны работодателей. Русский язык не только служит средством общения, но и является ключом к культуре, истории и традициям. Однако, несмотря на это, преподавание русского языка в неспециализированных учреждениях сталкивается с рядом вызовов [2].

В последние годы в преподавании русского языка наблюдается переход от традиционных методов к более современным и интерактивным подходам. Среди них можно выделить:

1. Коммуникативный подход: акцент на развитие навыков общения, что позволяет учащимся использовать язык в реальных ситуациях.

2. Проектное обучение: вовлечение студентов в создание проектов, что способствует развитию критического мышления и творческих способностей.

3. Интеграция технологий: использование цифровых ресурсов, онлайн-курсов и приложений для изучения языка.

В целях повышения качества преподавания русского языка, студенты должны рассматриваться в качестве субъектов образовательного процесса, а педагоги, в свою очередь, должны разрабатывать и применять оптимальные учебные методы [3]. Опираясь на долгосрочную практику использования модели преподавания «студент - субъект, педагог - направляющий», можно сделать вывод о её эффективности. На таких практических занятиях по русскому языку поощряется преподавание как процесс деятельности педагога, используется тематическое преподавание, существует возможность применять разнообразные учебные методы [4]. Преподаватели обращают внимание на «изучение» обучающимися материала вместо простого «преподавания», играют ориентирующую роль в образовательном процессе, пробуждают интерес к изучению русского языка, совершенствуют и свои собственные знания.

Анализ литературы по теме (Literature review). Несмотря на положительные изменения, преподавание русского языка в неспециализированных образовательных учреждениях сталкивается с рядом проблем:

1. Недостаток квалифицированных кадров: многие учителя не имеют достаточной подготовки для использования современных методик.

2. Снижение мотивации учащихся: влияние иностранных языков и культур может приводить к снижению интереса к изучению русского языка.

3. Ограниченные ресурсы: нехватка учебников, материалов и технической базы для эффективного преподавания.

Содержание учебных предметов, учебная литература, которая используется при преподавании русского языка, не успевает вовремя обновляться, а, следовательно, имеет определенное отставание от реальности.

Недостаточность учебных ресурсов также во многом способствует устареванию преподавания по указанной специальности. Хотя вопросы разработки учебных пособий относятся к ведению специализированных государственных органов, вузам самим необходимо способствовать обновлению технической и научной базы. Серьёзной проблемой является отсутствие осознания необходимости реформирования и внедрения инноваций [5].

Преподавание литературы уже на данный момент не удовлетворяет потребностям современного общества. Представляется важным обратить внимание международного сообщества на существующую проблему. Это должно обеспечить осознание необходимости проведения масштабных преобразований в данной сфере.

Методология исследования (Research Methodology). Должна быть гибкой и адаптируемой в зависимости от специфики выбранной темы и условий проведения исследования. Важно учитывать разнообразие образовательных учреждений и контекст, в котором происходит обучение русскому языку. В последние годы наблюдается переход к коммуникативным методам обучения, которые акцентируют внимание на практическом использовании языка [6]. Это включает в себя использование интерактивных технологий, проектного обучения и т.д. Внедрение информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) в образовательный процесс, использование онлайн-ресурсов и платформ для обучения. Сравнение традиционных методов (лекции, грамматические упражнения) с современными подходами (игровые технологии, проектная деятельность).

Применение текстов, видео и аудио материалов, которые отражают современную русскую культуру и жизнь.

Анализ и результаты (Analysis and results). Для улучшения состояния преподавания русского языка в неспециализированных образовательных учреждениях необходимо:

1. Повышение квалификации учителей: организация курсов и тренингов по современным методикам преподавания.
2. Разработка новых учебных материалов: создание адаптированных программ и ресурсов, учитывающих интересы и потребности учащихся.
3. Стимулирование интереса к языку: проведение мероприятий, конкурсов и проектов, направленных на популяризацию русского языка и культуры.

Современное состояние преподавания русского языка в неспециализированных образовательных учреждениях требует комплексного подхода, который учитывает как традиционные методы, так и современные тенденции. Необходимо активное взаимодействие между образовательными учреждениями, государственными органами и обществом для повышения качества образования и мотивации учащихся [7]. Разработка и распространение анкет среди преподавателей и учащихся для сбора статистических данных о методах преподавания, уровне владения языком и мотивации.

Сбор и анализ данных об успеваемости учащихся по русскому языку за определенный период.

Выводы и предложения (Conclusion/Recommendations). Современное состояние преподавания русского языка в неспециализированных образовательных учреждениях требует комплексного подхода к решению существующих проблем. Внедрение современных методик, повышение квалификации педагогов и активизация интереса учащихся к языку могут значительно улучшить качество образования в данной области. Русский язык продолжает оставаться важным инструментом коммуникации и культуры, и его преподавание должно соответствовать современным требованиям общества.

Ещё одним перспективным направлением является индивидуализация обучения. С помощью специальных программ и приложений можно создавать учебные планы, учитывающие индивидуальные особенности и потребности каждого студента. Это позволяет учителям и преподавателям создавать персонализированные курсы и следить за прогрессом каждого студента более эффективно.

Классификация современных технологий преподавания русского языка в высших учебных заведениях может быть представлена следующим образом:

Электронные учебники и учебные материалы в электронном формате;

Образовательные игры и задания для студентов;

Системы онлайн тестирования и оценки знаний.

Аудио курсы и аудиоматериалы для развития навыков аудирования;

Использование видеоконференц-связи для онлайн общения и обучения.

Применение презентаций с использованием видео, аудио и графики для обучения;

Создание виртуальных экскурсий и туров для знакомства с культурой и историей страны русского языка.

Использование социальных сетей и образовательных платформ для общения и обмена знаниями;

Организация групповых проектов и заданий через онлайн средства.

Использование адаптивных методик и программ для индивидуализации обучения;

Технологии машинного обучения для анализа прогресса студентов и рекомендации персонализированных заданий [8].

Такая классификация позволяет охватить разнообразие современных технологий, которые применяются в преподавании русского языка в высших учебных заведениях для эффективного и интерактивного обучения студентов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Кузин В.П. Мультимедийные средства обучения как инструмент совершенствования методики преподавания русского языка. // Педагогика и психология. - 2020. - № 3. - С. 45-56.

2. Смирнова Н.А. Использование онлайн-платформ в преподавании русского языка как иностранного. // Иностранные языки и культура. - 2019. - Т. 21, № 4. - С. 112-125.

3. Иванова О.С. Интерактивные методики преподавания русского языка в высших учебных заведениях. // Актуальные проблемы образования. - 2018. - № 2. - С. 78-89.

4. Петрова Е.И. Эффективность использования мультимедийных ресурсов в обучении русскому языку в высших учебных заведениях. // Методика преподавания русского языка. - 2017. - Т. 10, № 1. - С. 33-46.

5. Горбунова Т.М. Тенденции развития современных технологий в преподавании русского языка. // Научно-педагогический вестник. - 2016. - Т. 5, № 3. - С. 24-38.

6. Акишина А.А., Каган О.Е. Учимся учить. - 3-е изд., испр. и доп. - М.: Рус.яз. Курсы, 2004.

7. Гнездилова З.Ю. Формирование интеллектуальной активности учащихся в процессе обучения: диссертация ... кандидата психологических наук. - Иркутск, 2001.

8. Лысковская В.Н. Когнитивные психологические стратегии формирования языковой грамотности в процессе индивидуального обучения: диссертация ... кандидата психологических наук. - Новосибирск, 2002.

PARAMETRLI KVADRAD TENGLAMALARNING BA’ZI XUSUSIYATLARI

Maxammadjon Ro‘zikov,
Farg‘ona davlat universiteti matematika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada parametrli masalalarning ba’zi xususiyatlari, jumladan parametrli kvadrat uchhadning biror oraliqqa tegishli ildizlarini topishga oid kriteriylar bayon qilingan. Shuningdek undan har bir kriteriy boyicha nazariy ma’lumotlar, ularga oid tipik misollar keltirilgan. Parametrik masalalarning ahamiyati haqida mulohazalar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: *parametrli masalalar, parametrli kvadrat uchhad, erkli o‘zgaruvchi, umummantiqiy tafakkur, fiksirlangan noma'lum son.*

Аннотация

В статье описаны некоторые свойства параметрических задач, в том числе критерии нахождения корней параметрического квадратного уравнения на интервале. Также приводятся теоретическая информация и типичные примеры по каждому критерию. Существуют соображения о важности параметрических вопросов.

Ключевые слова: *параметрические задачи, параметрические квадратные уравнения, произвольные переменные, общее логическое мышление, фиксированное неизвестное число.*

Annotation

The article describes some features of parametric problems, including criteria for finding the roots of a parametric quadratic equation in an interval. It also provides theoretical information on each criterion and typical examples. It also discusses the importance of parametric problems.

Keywords: *parametric problems, parametric quadratic equations, arbitrary variables, general logical thinking, fixed unknown number.*

Kirish (Introduction). Parametr tushunchasi maktab matematikasi va oliy ta’lim matematika kurslarida keng qo‘llanilishiga qaramay, uning metodik xususiyatlari to‘la tadqiq etilmagan. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarning parametrli masalalarni tushunishi va yechishida ba’zi qiyinchiliklarni yuzaga chiqaradi. Ayniqsa, o‘quvchilar parametrli masalalarni yechishda p**arametr va o‘zgaruvchini farqlashga qiynalishadi, p**arametr va erkli o‘zgaruvchilarni ajratishda chalkashlik yuzaga keladi. Masalaning u**mumiy** yechimlarni to‘liq ifodalash va parametrning turli qiymatlari uchun yechimlarning mavjudligi, sonini aniqlashda xatolarga yo‘l qo‘yiladi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun o‘quvchilarga parametrli masalalarni turli metodlar bilan yechish strategiyalarini o‘rgatish, matematika ta’limida parametrli masalalar nazariyasini yanada chuqurroq tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi qismi (Research Methodology). Ko‘plab ilmiy va metodik adabiyotlarda "parametr" va "parametrli masala" tushunchalarining o‘ziga xos xususiyatlari alohida qayd etilgan. Ushbu tushunchalar ta’rifi mohiyatiga e’tibor berilsa *parametr – bu biror formulaga yoki ifodaga tegishli qiymat bo‘lib, ko‘rib chiqilayotgan masala doirasida o‘zgarmas (konstanta) sifatida qaraladi, lekin boshqa masalalarda turli qiymatlarni qabul qilishi mumkin. Masalan, biror analitik ifoda ikki turdagi argumentlar guruhidan iborat bo‘lsin. Ulardan birini* $x, y, z...$ *bilan belgilamiz, ikkinchisini esa* $a, b, c...$ *orqali belgilab ularni parametrlar deb atash mumkin. T*adqiqotchilarning ko‘pchiligi *agar matematik ifoda noma'lumlardan tashqari harflar bilan belgilangan noma’lum sonlardan iborat bo‘lsa, ularni parametrlar deb atashni taklilf qilishgan.* I.A. Ledovskix [1,110] esa $f(a,b,c,...x) = \varphi(a,b,c,...x)$ tenglamada $a, b, c, x, ...$-o‘zgaruvchilar, ularning ba’zilari tenglamani yechish jarayonida o‘zgarmas bo‘lgani uchun ularni parametr deb ataydi. A.X. Shaxmeyster [2,56] fikricha *"Parametr - bu berilgan masalada qiymati fiksirlangan (o‘zgarmas) erkli o‘zgaruvchidir".* Masalan, $2x^2 - (3p+5)x + (p^2+3p-2) = 0$ tenglamada koeffitsientlar aniq sonlar emas, balki harfiy ifodalardir. Bunday tenglamalar harfiy koeffitsientli tenglamalar yoki parametrli tenglamalar deb ataladi. Parametrli masalalar berilgan analitik ko‘rinishdagi masalalarni umumiy holda yechishni nazarda tutadi va o‘quvchilarni umummantiqiy fikrlashga undaydi. $ax^2 + bx + c = 0$ shakldagi kvadrat tenglamani yechish masalasi (x ga nisbatan) uchta a, b, c parametrga bog‘liq bo‘lib, maetmatik model sifatida ildizlarni topishni nazarda tutadi. Demak, parametr bu fiksirlangan noma'lum son bo‘lib, uni ma’lum shartlar asosda o‘zgaruvchi son sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi, *ikkinchi tomondan esa u erkli o‘zgaruvchi bo‘lib, o‘zgaruvchanlik darajasi cheklangan bo‘ladi.*

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili qismi (Literature review). Tadqiqotlar tahliliga ko‘ra koeffitsiyentlari harfiy ifodalardan iborat tenglama va tengsizliklarni yechish usullari (M.S. Adamchuk [3,49]), GeoGebra dasturidan foydalanib parametrik tenglamalarni umumiy matematik nazariya bilan bog‘lash yo‘llari (Y. Zengin**[4,750])**, o‘zgaruvchilar **va parametrlarning faqrli jihatlari (**N.S Svirnevskiy [5,105], A. I. Kozko **[6,9]) muayyan darajada o‘rganilgan. Lekin shunday bo‘lsada parametrli masalalarni** yechishda mustahkam mantiqiy fikrlash va kreativ tafakkur, yangi metodlardan foydalanish talab etiladi. Ayniqsa parametrli kvadrat uchhadning berilgan oraliqqa tegishli ildizlarini topish masalasini kengroq o‘rganish zaruriyati mavjud.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O‘quvchilarning aksariyati quyidagi ifodani ko‘paytuvchilarga ajratish masalasini osongina yecha oladi: $x^2 - 5x + 6$. Lekin kam sonli o‘quvchilar quyidagi ifodani ko‘paytuvchilarga ajrata oladi: $3x^2 - 13xy + 4y^2$. Chunki ushbu misolni yechishda oddiy yondashuvlar yetarli emas, balki o‘zgaruvchilardan biriga nisbatan ko‘paytuvchilarga ajratish keraklilgi haqida keng qamrovli mantiqiy fikrlash talab etiladi. Bundan tashqari, parametrli masalalarni yechish uchun mavjud standart usullar yetarli bo‘lmay, ularni to‘ldirish uchun maxsus metodlar zarur bo‘ladi. Xatto tadqiqotchilar tomonidan berilgan ta’riflar ham ancha munozarali bo‘lib parametr tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, matematik modellashtrish asoslari uchun zaruruy shartlar sifatida qaraladi. Masalan ba’zi adabiyaotlarda parametr

tushunchasuga quyidagicha ta’rif beriladi: *"Agar tenglamada noma’lumlardan tashqari harflar bilan belgilangan sonlar ham qatnashsa, bu harflar parametrlar deb ataladi."* [6,342] Biroq, bu ta’rif yetarlicha mukammal emas, chunki belgi (harf) bilan ifodalash parametr tushunchasining muhim xususiyati emas. Masalan, π va e kabi o‘zgarmas qiymatlar ham "o‘ziga xos nom"ga ega, lekin ular parametr sifatida qaralmaydi. Agar masalada noma’lumdan boshqa o‘zgaruvchi bo‘lmasa, bu uning parametrli masala emasligini anglatmaydi. Masalan, quyidagi tenglamalarni ko‘rib chiqamiz: $\sqrt{\cos x-1}+\cos 2x=1,\quad tg(\pi\cos x)=1$. Ushbu tenglamalarda parametr yo‘qdek tuyuladi, ammo ularni yechish jarayonida parametrlar tabiiy ravishda yuzaga keladi. Bunday holatlar, ayniqsa, trigonometrik tenglamalarda keng tarqalgan. Shu sababli, parametr tushunchasi aniq belgilanishi, maxsus metodik yondashuvlar ishlab chiqilishi lozim.

Biz $f(x)=ax^2+bx+c,\quad a\neq 0$ kvadrat uchhadning $(m;n)$ oraliqqa tegishli ildizlarini topish masalasini ko‘rib chiqamiz. Quyida bu holatlar batafsil tahlil qilinadi:

1) agar $D=b^2-4ac<0$ bo‘lsa $ax^2+bx+c=0,\quad a\neq 0$ tenglama ildizga ega emas;

2) agar $D\geq 0$ va $\begin{cases}a\cdot f'(m)>0\\ a\cdot f(m)>0\end{cases}$ bo‘lsa, **tenglama haqiqiy ildizlarga ega,** lekin ikkala ildiz ham m dan kichik bo‘lgani sababli, ular $(m;n)$ oraliqda joylashmagan;

3) agar $D\geq 0$ va $\begin{cases}a\cdot f'(n)<0\\ a\cdot f(n)>0\end{cases}$ bo‘lsa, t**englama haqiqiy ildizlarga ega**, lekin ikkala ildiz ham n dan katta bo‘lgani sababli, ular $(m;n)$ oraliqda joylashmagan;

4) agar $D\geq 0$ va $\begin{cases}a\cdot f(m)<0\\ a\cdot f(n)<0\end{cases}$ bo‘lsa, ildizlar **umuman oraliqda joylashmaydi**, chunki biri m dan kichik, ikkinchisi esa n dan katta;

5) agar $D\geq 0$ va $\begin{cases}a\cdot f(m)<0\\ a\cdot f(n)>0\end{cases}$ bo‘lsa, $(m;n)$ oraliqda kvadrat tenglamaning katta ildizi yotadi;

6) agar $D\geq 0$ va $\begin{cases}a\cdot f(m)>0\\ a\cdot f(n)<0\end{cases}$ bo‘lsa, $(m;n)$ oraliqda kvadrat tenglamaning kichik ildizi yotadi;

7) agar $D\geq 0$ va $\begin{cases}a\cdot f'(m)<0\\ a\cdot f(m)>0\\ a\cdot f'(n)>0\\ a\cdot f(n)>0\end{cases}$ bo‘lsa, kvadrat tenglamaning **ikkala ildizi ham** $(m;n)$ oraliqda joylashgan bo‘ladi.

Ushbu natijalar quyidagi umumiy kriteriyga asoslanadi: $f(m)\cdot f(n)<0$, ya’ni agar uzluksiz $f(x)$ funksiya berilgan kesmaning ikki uchida qarama-qarshi ishorali qiymatlar qabul qilsa, unda bu kesmada $f(x)=0$ tenglama kamida bitta ildizga ega bo‘ladi. Agar $(m;n)$ **oraliq o‘rniga** $[m;n)$, $(m;n]$, $[m;n]$ kabi sohalar qaralsa, avval **chegaraviy nuqtalar** uchun alohida tekshirish o‘tkaziladi, keyin esa yuqoridagi kriteriylardan foydalaniladi.

1-misol. $(m-2)x^2-2(m+3)x+4m=0$ tenglamaning bitta ildiz 2 dan kichik, ikkinchi ildizi 3 dan katta bo‘lagan m parametrning qiymatlarida toping.

Yechish. $f(x)=(m-2)x^2-2(m+3)x+4m$ kvadrat uchhadni olamiz. Parametrning izlanayotgan qiymatlari yuqorida keltirlgan 4-shartni qanoatlantiradi:

$$\begin{cases}(m-2)\ f(2)<0\\(m-2)\ f(3)<0\end{cases};$$

Demak, $\begin{cases}(m-2)(4(m-2)-4(m+3)+4m)<0\\(m-2)(9(m-2)-6(m+3)+4m)<0\end{cases}\Leftrightarrow\begin{cases}(m-2)(4m-20)<0\\(m-2)(7m-36)<0\end{cases}\Leftrightarrow$

$$\Leftrightarrow\begin{cases}(m-2)(m-5)<0\\(m-2)\left(m-\frac{36}{7}\right)<0\end{cases}\Leftrightarrow\begin{cases}2<m<5\\2<m<\frac{36}{7}\end{cases}\Leftrightarrow 2<m<5$$

Javob: (2;5)

2-misol. m parametrning qanday qiymatlarida $4x^2-2x+m=0$ tenglamaning ildizlari (-1;1) oraliqda yotadi.

Yechish. $f(x)=4x^2-2x+m$ kvadrat uchhad uchun $f'(x)=8x-2$. Parametrning izlanayotgan qiymatlari uchun 7-qoida o‘rinli:

$$\begin{cases}1-4m\ge 0\\4(-10)<0\\4(4+2+m)>0\\4\cdot 6>0\\4(2+m)>0\end{cases};\ \begin{cases}m\le\frac{1}{4}\\m>-2\\m>-6\end{cases}\Leftrightarrow -2<m\le\frac{1}{4}$$

Javob: $\left(-2;\frac{1}{4}\right]$

3-misol. Parametrning ixtiyoriy qiymatlari uchun $25^x-(a-1)5^x+2a+3=0$ tenglamani yeching va parametrning qanday qiymatlarida berilgan tenglama yagona ildizga ega ekanligini ko‘rsating.

Yechish. Ushbu tenglama transsendent tenglama hisoblanadi va $5^x>0$, $5^x=y$, ildizlar musbat. Quyidagi teng kuchli sistema hosil bo‘ladi:

$$\begin{cases}y^2-(a-1)y+2a+3=0\\y>0\end{cases}$$

Parametrning qanday qiymatida sistema yagona yechimga ega ekanligini aniqlaymiz. Bu diskriminantga, balki ildizlarning ishorasiga ham bog‘liq.

Agar ildizlardan biri musbat, ikkinchi ildiz 0 bo‘lsa $\begin{cases}-(a-1)<0\\2a+3=0\end{cases}$. Bundan $a=-1{,}5$, ammo $-(-1{,}5-1)>0$. Bu shartni qanoatlantirmaydi. U holda $\begin{cases}(a-1)^2-4(2a+3)=0\\a-1>0\end{cases}$;

$$\begin{cases}(a-1)^2-4(2a+3)=0\\a-1>0\end{cases}\Leftrightarrow\begin{cases}a>1,\\a^2=10a-11=0\end{cases}\Leftrightarrow a=11.$$

Endi ikkala ildiz ham musbat bo‘lgan holni ko‘ramiz:

$$\begin{cases}(a-1)^2-4(2a+3)>0\\ a-1>0\\ 2a+3>0\end{cases}\Leftrightarrow a>11.$$

Parametrni qiymatini tenglamaga qo‘yib noma’lumni topamiz:

$$25^x-(a-1)5^x+2a+3=0\Leftrightarrow$$

$$\Leftrightarrow\begin{cases}a\ge 11\\ \left[\begin{array}{l}5^x=\dfrac{a-1+\sqrt{a^2-10a-11}}{2}\\ 5^x=\dfrac{a-1-\sqrt{a^2-10a-11}}{2}\end{array}\right.\end{cases}\Leftrightarrow\begin{cases}a\ge 11\\ \left[\begin{array}{l}x=\log_5\dfrac{a-1+\sqrt{a^2-10a-11}}{2}\\ x=\log_5\dfrac{a-1-\sqrt{a^2-10a-11}}{2}\end{array}\right.\end{cases}$$

Tahlildan so‘ng ko‘rsatgichli tenglamaning ildizlari mavjudligini isbotlashning hojati yo‘q.

Javob: Agar $a<11$ bo‘lsa tenglama ildizga ega emas, agar $a\ge 11$ bo‘lsa,

$$x=\log_5\frac{a-1-\sqrt{a^2-10a-11}}{2},\quad x=\log_5\frac{a-1+\sqrt{a^2-10a-11}}{2}$$

4-misol.

$$\sqrt[3]{8x^2-7x+2}+\sqrt[3]{2x^2-7x+8}=\sqrt[3]{(3a-22)x^2-(6a+97)x+3a+32}+$$
$$+\sqrt[3]{(20a-198)x^2-(40a-607)x+20a+208}$$

tenglama 0 dan kichik ikkita ildizga ega bo‘ladigan a parametrning barcha qiymatlarini toping.

Yechish. Tenglama ko‘p sonli radikallarni o‘z ichiga olganligi uchun bunday tenglamalarni an’anaviy usullar yordamida yechish deyarli mumkin emas. Odatda radikallarni shunday guruhlash mumkinki, radikal ifodalarning farqlari yo bir-biriga teng bo‘ladi yoki bir-biridan qandaydir songa ko‘paytirish yo‘li bilan olinadi. Agar tenglamada kvadratik irratsionalliklar ishtirok etsa, u holda tenglamaning har bir qismini uning tarkibiy qismlari yig‘indisiga ko‘paytirish yoki bo‘lish orqali dastlabki tenglamaga ekvivalent tenglamani olamiz. Agar tenglama yuqori darajadagi irratsionallikni o‘z ichiga olsa, u holda tenglamaning har bir qismi yig‘indining to‘liq bo‘lmagan binomialiga ko‘paytiriladi va bo‘linadi.

Demak, $\sqrt[3]{2x^2-7x+8}-\sqrt[3]{(20a-198)x^2-(40a-607)x+20a+208}=$

$$=\sqrt[3]{(3a-22)x^2-(6a+97)x+3a+32}-\sqrt[3]{8x^2-7x+2}$$

Tenglamaning har ikkala qismini tenglamaning har bir qismidagi ifodalar yig‘indisining to‘liq bo‘lmagan kvadratiga ko‘paytiramiz va bo‘lamiz, $a^3-b^3=(a-b)(a^2+ab+b^2)$ formulani inobatga olamiz:

$$\frac{(3a-30)x^2-(6a-90)x+3a+30}{A^2+AB+B^2}=-\frac{(20a-200)x^2-(4aa-600)x+20a+200}{C^2+CD+D^2}$$

bu yerda A, B, C, D belgilari mos irratsionallikni bildiradi, u holda:

$$\left((a-10)x^2-(2a-30)x+a+10\right)\left(\frac{3}{A^2+AB+B^2}+\frac{20}{C^2+CD+D^2}\right)=0$$

$$(a-10)x^2-(2a-30)x+a+10=0.$$

$f(x)=ax^2+bx+c$ kvadrat uchhad ildizlarning mavjudligi va manfiyligi shartlari $\begin{cases} D>0 \\ ab>0 \\ ac>0 \end{cases}$ inobatga olinsa,

$$\begin{cases} (2a-30)^2-4(a^2-100)>0 \\ (a-10)(2a-30)>0 \\ (a-10)(a+10)>0 \end{cases} \Leftrightarrow \begin{cases} a<10\frac{5}{6} \\ 10<a<15 \\ \left[\begin{array}{l} a<-10 \\ a>10 \end{array}\right. \end{cases} \Leftrightarrow 10>a<10\frac{5}{6}$$

Javob: $\left(10;10\frac{5}{6}\right)$.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). O‘quvchilar odatda standart masalalarni yechishda faqatgina “hisoblash algoritmlari” ga e’tibor qaratadi. Biroq matematik bilimlarning mohiyati mantiqiy tahlil qilish, matematik faktlarni tanlash va ulardan samarali foydalanishdan iborat bo‘lishi lozim. Bu yerda maktab matematikasining strategik muammosi o‘quvchilarning standart masalalar doirasida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat bo‘lib, bunda aksariyat masalalar oldindan belgilangan algoritmlarni bajarish bilan cheklanadi. Biroq parametrli masalalar shunday turkumga kiradiki, ularning aksariyatini oddiy algoritmlar yordamida yechib bo‘lmaydi. Parametr masalalar mustaqil mantiqiy tahlil va keng qamrovli matematik konstruktsiyalar qurishni talab qiladi. Shuning uchun matematika ta’limida parametrli masalalarni o‘rganishni chuqurlashtrish o‘quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantrishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ледовских, И. А., Горбанева, Л. В., Жулидова, Ю. В. ЗАДАЧИ с ПАРАМЕТРАМИ: с ЧЕГО НАЧАТЬ. // *Международный Научно-исследовательский Журнал*. 2020. *№ 11 (101), Часть 3. С. 107-111.*

2. Шахмейстер А.Х. Уравнения и неравенства с параметрами / А.Х. Шахмейстер – 4-е изд. – СП.: «Виктория плюс»: М.: МЦНМО: СП.: «Петроглиф», 2019. – 304 с.

3. Адамчук М.С., Самсикова Н.А. Метод параметризации как средство анализа условия геометрических задач // современные проблемы науки и образования. 2020. № 4. С. 45-56.

4. Zengin, Y. (2021). Students’ understanding of parametric equations in a collaborative technology-enhanced learning environment. *International Journal of Mathematical Education in Science and Technology*, *54*(5), 740–766.

5. Свирневский Н.С., Скрипник Т.К. Использование теории параметризации при постановке задачи геометрического моделирования объектов // Вісник Хмельницького національного університету. 2010. № 5. С. 103-109.

6. Козко А. И. Задачи с параметром и другие сложные задачи / А.И. Козко, В.Г. Чирский. – М.: МЦНМО, 2007. – 296 с.

O‘QUVCHILARNING TRIGONOMETRIK TENGLAMALARNI YECHISHDA YO‘L QO‘YADIGAN XATOLARI HAQIDA

Ulug‘bek Xonkulov,
Farg‘ona davlat universiteti matematika kafedrasi professori, (PhD)

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarning trigonometrik tenglamalarni yechishda yo‘l qo‘yadigan tasodifiy, tipik va tizimli xatolari haqida mulohazalar bayon qilingan. Shuningdek unda trigonometrik tenglamalarini yechishda o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yiladigan xatolarni oldini olish uchun metodik tavsiyalar, ishlanmalar va topshriqlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: *trigonometrik tenglamalar, tasodifiy xatolik, tipik xatolik, birlik aylana, trigonometric formulalar.*

Аннотация

В статье представлены наблюдения о случайных, типичных и систематических ошибках, которые допускают учащиеся при решении тригонометрических уравнений. В нем также даны методические рекомендации и задания, позволяющие предотвратить ошибки, допускаемые учащимися при решении тригонометрических уравнений.

Ключевые слова: *тригонометрические уравнения, случайная ошибка, стандартная ошибка, единичная окружность, тригонометрические формулы.*

Annotation

The article presents observations on random, typical, and systematic errors made by students when solving trigonometric equations. It also offers methodological recommendations and tasks to prevent errors made by students when solving trigonometric equations.

Keywords: *trigonometric equations, random error, standard error, unit circle, trigonometric formulas.*

Kirish (Introduction). Maktab, akademik litsey matematika ta’limi bo‘yicha tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ayni paytda o‘quvchilarning matematik savodxonligi xususan, trigonometrik tenglamalar va tengsizliklarni yechish ko‘nikmasining yetarli emasligi bilan bog‘liq ba’zi muammolar kuzatilmoqda. Ushbu muammoning dolzarb ekanligi uning quyidagi jihatlari bilan ajraladi. Trigonometrik tenglamalar va ularni yechish usullari maktab matematikasining murakkab bo‘limlaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarning ushbu mavzuda yo‘l qo‘yayotgan tasodifiy xatolari tizimli takrorlanishi matematik savodxonlikka salbiy ta’sir qilishi ma’lum. O‘rta va o‘rta maxsus ta’limida matematikadan yakuniy attestatsiya, xalqaro SAT, milliy sertifikat imtihonlari natijalari 2020–2024-yillar tahlilli shuni ko‘rsatadiki, trigonometriya bo‘yicha topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilarning ko‘rsatgichlari xatolarni oldini olish bo‘yicha maxsus metodik yondashuvlarni talab qilmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, trigonometrik tenglamalarini yechishda yo‘l qo‘yiladigan xatolarni oldini olish muammosi nafaqat o‘quvchilarning imtihon natijalarini yaxshilash, balki ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish jihatidan ham ahamiyatlidir.

Tadqiqot metodologiyasi qismi (Research Methodology). Trigonometrik tenglamalarni yechishda o‘quvchilarning yo‘l qo‘yadigan xatolarini tizimli tahlil qilish va ularning oldini olishga qaratilgan samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqishda empirik va nazariy metodlarni ug‘unlashtirish lozim. Shuning uchun o‘quvchilarning yo‘l qo‘yadigan xatoliklarini aniqlashda eksperimental sinov va statistik ma’lumotlarni baholash kabi usullar keng qo‘llaniladi. O‘quvchilarning trigonometrik tenglamalar bo‘yicha tipik xatolari va ularning oldini olish uchun yo‘llari sifatida biz noto‘g‘ri yechilgan misollarni berib, xatolarni topish va tushuntirish topshiriqlari, teskari masalalar yechish texnikasi (trigonometrik tenglamalarni noto‘g‘ri yechish orqali tahlil qilish va xatolarni tuzatish), o‘quvchilarning tushunish darajasini oshirish uchun maxsus test va mashqlarni tavsiya qilamiz. Trigonometrik tenglamalarni yechish bo‘yicha ilg‘or ilmiy tadqiqotlar va o‘quvchilarning xatoliklariga doir ishlanmalar tahlili turli diagnostik testlar va baholash tizimlari orqali xatoliklarni o‘rganib borishni nazarda tutadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili qismi (Literature review). Trigonometrik tenglamalarni yechish usullari va ularni takomillashtirish, tenglama, tengsizliklarni yechishdagi muammolar I.V. Yashenko [1], K.Ya.

Xabibullin [2], M.H. Usman [3], D. Fahrudin [4], Valerie May [5], P.I. Samsonov [6], E.I. Mayer [7] va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy va metodik maqolalari ushbu muammoga muayyan darajada qaratilgan. O‘quvchilarni trigonometrik tenglamalarni yechishda yo‘l qo‘yadigan xatolari bo‘yicha manbalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ayni paytda ushbu muammo quyidagi aspektlarda o‘rganilmoqda: tasodifiy xatolarning matematik tahlili (I. V. Yashenko [1,3], D. Fahrudin [4,2]); tizimli va tipik xatolar tahlili (K.Ya. Xabibullin [2,32], P.I. Samsonov [6,46], M.H. Usman [3,2]); ttrigonometrik tenglamalarni o‘rganishning ayrim uslubiy jihatlari (E.I. Mayer [7,366], Valerie May [5,26]). Lekin trigonomtrik tenglama shartini tushunmaslik va funksiya qiymatlarini noto‘g‘ri hisoblashdagi xatoliklar, ko‘nikma, malakaning rivojlanmaganligi va trigonometrik formulalarni qo‘llay olmaslik yoki noto‘g‘ri qo‘llash, trigonometrik shakl almashtrishdagi xatolar, tenglamaning ildizlari toplamini aniqlash, tenglamani yechish usulini noto‘g‘ri tanlashdagi xatoliklar tasodifiy yoki tizimli ravishda kuzatiladi. Shuningdek o‘quvchilarning trigonometrik tenglamalarni yechishda yo‘l qo‘yadigan xatoliklari tasodifiy (stoxastik) xarakterga egaligi inobatga olinsa, ushbu muammoni doimiy ravishda tadqiq etish zaruriyati saqlanib qolgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ushbu maqolada o‘quvchilar tomonidan trigonometrik tenglamalarni yechishda yo‘l qo‘yadigan xatoliklari ikki turga bo‘lib tahlil qilindi:

1) Tasodifiy xatolar – ayrim o‘quvchilarda faqat bir marta yoki ikki marta uchraydi, ba’zida xisoblashlarda texnik xatoliklar kuzatiladi;

2) Tizimli yoki tipik xatolar - bunday xatolar bir necha o‘quvchi tomonidan muntazam ravishda takrorlanadi yoki bitta topshiriqda ko‘pchilik o‘quvchilar xato qilishadi.

Tasodifiy xatoliklar asosan o‘quvchilarning ko‘pincha formulalarni va trigonometrik funksiya qiymatlarini yaxshi yodlamaslik bilan bog‘liq bo‘lib bu xolat ko‘p hollarda topshiriqqa yuzaki qarash natijasida kelib chiqadi.

Masalan, quyidagi tenglamani yechish talab qilinsin: $\sin 2x = \frac{\sqrt{3}}{2}$. Bundan

$$2x = (-1)^n \arcsin\frac{\sqrt{3}}{2} + \pi n;\ 2x = (-1)^n \frac{\pi}{3} + \pi n;\ x = (-1)^n \frac{\pi}{6} + \frac{\pi n}{2}.$$

Birinchi xatolik: Xatolik sodda trigonometrik tenglamalarni yechish formulasi yoki birlik aylanadan foydalanish qoidasini mukammal bilmaslikdan kelib chiqadi. $2x = \arcsin\frac{\sqrt{3}}{2} + 2\pi n;\ \ 2x = \frac{\pi}{3} + \pi n;$

$x = \frac{\pi}{6} + \frac{\pi n}{2},\ n \in Z.$

Ikkinchi xatolik: teskari trigonometrik funksiya qiymatlarini yaxshi yodlamaslikdan kelib chiqadi.

$$2x = (-1)^n \arcsin\frac{\sqrt{3}}{2} + \pi n;\ 2x = (-1)^n \frac{\pi}{6} + \pi n;\ x = (-1)^n \frac{\pi}{12} + \frac{\pi n}{2},\ n \in Z.$$

Yuqorida qayd etilgan tasodifiy xatolarni bartaraf etish biz maxsus masalalar tizimidan foydalanishni tavsiya qilamiz. Masalan, bunda o‘quvchilarga tayyor yechimdagi xatolarni topish bo‘yicha topshiriqlar, to‘g‘ri javoblarni tanlash bo‘yicha test topshiriqlari (nostandart testlar), formulalarni mustahkamlashga qaratilgan topshiriqlarni berish mumkin.

Formulalarni mustahkamlashga doir topshiriqlar:

1. Berilgan tengliklardan to‘g‘rilarini toping:

a) $\cos 4\alpha = \cos^2 4\alpha - \sin^2 4\alpha$; в) $\sin 2\alpha = 2\sin\alpha\cos\alpha$;

c) $\sin 4\alpha = \cos^2 2\alpha + \sin^2 2\alpha$; d) $\sin 2\alpha = \sin\alpha\cos\alpha$.

e) $\cos 4\alpha = 2\cos^2 2\alpha - 1$; п) $\cos 2\alpha = 2\cos^2\alpha - 2\sin^2\alpha$;

k) $\cos 2\alpha = 1 - 2\sin^2\alpha$; f) $\cos\alpha = \cos^2\frac{\alpha}{2} - \sin^2\frac{\alpha}{2}$.

2) Formulalardagi bo‘sh joylarni to‘ldiring:

a) $\sin\alpha \pm \sin\beta = ...\sin\frac{\alpha...\beta}{2}\cos\frac{\alpha...\beta}{2}$;

б) $\cos\alpha - \cos\beta = ...\frac{\alpha...\beta}{2}\sin\frac{\alpha...\beta}{2}$;

c) $\cos\alpha + \cos\beta = 2...\frac{\alpha+\beta}{2}...\frac{\alpha...\beta}{2}$.

d) $tg\alpha \pm tg\beta = \frac{...(\alpha \pm \beta)}{...\alpha \cdot ...\beta}$ e) $ctg\alpha \pm ctg\beta = \frac{...(\beta \pm \alpha)}{...\alpha \cdot ...\beta}$

3. Trigonometrik formulalarning chap va o‘ng tomonlarini moslang:

a) $\sin\alpha \cdot \sin\beta$	1) $\frac{1}{2}(\cos(\alpha-\beta) - (\cos(\alpha+\beta))$;
б) $\sin\alpha \cdot \cos\beta$	2) $\frac{1}{2}(\cos(\alpha-\beta) + \cos(\alpha+\beta))$;
в) $\cos\alpha \cdot \cos\beta$	3) $\sin\alpha\cos\beta \pm \sin\beta\cos\alpha$;
г) $\sin(\alpha \pm \beta)$	4) $\cos\alpha\cos\beta \mp \sin\alpha\sin\beta$;
д) $\cos(\alpha \pm \beta)$	5) $\frac{1}{2}(\sin(\alpha+\beta) - \sin(\alpha-\beta))$.

4. a) –g) tenglamalarni yechishda foydalanilagan 1) – 4) formulalardan birini tanlang.

a) $\sin x \sin 3x = -\cos 2x$;

б) $\cos x + \cos 2x + \cos 3x + \cos 4x = 0$;

в) $\sin^2 3x + \sin^2 4x - \sin^2 5x - \sin^2 6x = 0$;

г) $\frac{1}{\cos x} + \frac{1}{\cos\left(x - \frac{3\pi}{2}\right)} = 4\cos\left(\frac{7\pi}{4} - x\right)$.

1) $\sin^2 x = \frac{1-\cos 2x}{2}$; 2) $\cos\left(\frac{\pi}{2} - \alpha\right) = \sin\alpha$;

3) $\sin\alpha \cdot \sin\beta = \frac{1}{2}(\cos(\alpha-\beta) - \cos(\alpha+\beta))$;

4) $\cos\alpha + \cos\beta = 2\cos\frac{\alpha+\beta}{2}\cos\frac{\alpha-\beta}{2}$.

Tizimli yoki tipik xatoliklar haqida gap ketganda, tajriba-sinovlar natijasida ularning tasnifiy belgilari quyidagilardan iboratligi aniqlandi: trigonometrik formulalardan noto‘g‘ri foydalanish; trigonometrik tenglamalar ildizlarini umumlashtirishda xatolik; oddiy trigonometrik tenglamalarni maxsus hollarini noto‘g‘ri yechish; birlik aylana bilan ishlashda qiynalish; trigonometrik tenglamalarning berilgan oraliqda ildizlarini tanlashdagi xatolar; yakuniy javobni noto‘g‘ri rasmiylashtirish.

Masalan, $4\sin^2 x+12\sin x+5=0$ tenglamaning $\left[-\frac{5\pi}{2};\pi\right]$ kesmaga tegishli ildizlarini topish talab qilinsin. Bundan $\sin x=y$; $-1\le y\le 1$; $4y^2+12y+5=0$; $y_1=-\frac{5}{2}$ ($-1\le y\le 1$ ni qanoatlantirmaydi); $y_2=-\frac{1}{2}$; $\sin x=-\frac{1}{2}$; $x=(-1)^k\arcsin\left(-\frac{1}{2}\right)+\pi k, k\in Z$; $x=(-1)^{k+1}\arcsin\frac{1}{2}+\pi k$; $x=(-1)^{k+1}\frac{\pi}{6}+\pi k$, $k\in Z$. Berilgan kesmaga tegishli ildizlarni topish uchun $x=(-1)^{k+1}\frac{\pi}{6}+\pi k$ to‘plamni qulay shaklda yozib olamiz: $k=0$ bo‘lsa, $x_1=-\frac{\pi}{6}+2\pi k$; $k=1$ bo‘lsa, $x_2=\frac{7\pi}{6}+2\pi k$, $k\in Z$. $\left[-\frac{5\pi}{2};\pi\right]$ kesmaga tegishli ildizlar: $-\frac{\pi}{6}; -\frac{13\pi}{6}$.

Birinchi xatolik: trigonometrik funksiyalarining qiymatlari to‘plamini bilmaslik natijasida kelib chiqadi. O‘zgaruvchilarni almashtirish usulidan foydalanilganda o‘quvchilar ko‘pincha xatoga yo‘l qo‘yishadi. $y_1=-\frac{5}{2}$; $y_2=-\frac{1}{2}$; $\sin x=-\frac{1}{2}$; $x=(-1)^{k+1}\frac{\pi}{6}+\pi k$, $k\in Z$; $\sin x=-\frac{5}{2}$; $x=(-1)^{k+1}\arcsin\frac{5}{2}+\pi k$, $k\in Z$. O‘quvchilar $\sin x=a$, $a\in[-1;1]$ ekanligiga e’tibor berishmaydi. Natijada tenglamaning chet ildizlari hosil bo‘ladi.

Ikkinchi xatolik: trigonometrik tenglamalarning berilgan oraliqdagi ildizlarini topishda yakuniy ildizlar to‘plamini qulay shaklda yozib olmaslik va ishora aniqligida topiladigan ildizlarni hisobga olmaslik natijasida kelib chiqadi. $x=(-1)^{k+1}\frac{\pi}{6}+\pi k$; $-\frac{5\pi}{2}\le -\frac{\pi}{6}+\pi k\le\pi$; $-\frac{\pi}{6}; -\frac{7\pi}{6}$.

Ushbu xatolikni oldini olish uchun $\sin x=a, |a|\le 1$ tenglamada $x=(-1)^k\arcsin a+\pi k$, $k\in Z$ bilan birga $\left[\begin{array}{l} x_1=\arcsin a+2\pi k \\ x_2=\pi-\arcsin a+2\pi k, k\in Z\end{array}\right.$ alternativ formulani berish lozim.

Trigonometrik tenglamalarini yechishda yo‘l qo‘yiladigan xatolarni oldini olish uchun quyidagi metodik tavsiyalarni taklif qilamiz:

-nazariy materialni tizimli takrorlash, barcha turdagi tenglamalar va ularni yechish usullarini mashq qilishga qaratilgan topshriqlarni tanlash;

-birlik aylanadan foydalanib ildizlari to‘plamini birlashtrishni takrorlash;

-o‘quvchilarga tenglamani yechishdagi xatoni topish, trigonometrik tenglamalarni yechishdagi xatolarni tushuntirish va tuzatishga oid topshiriqlar berish;

-trigonometrik funksiyalarning davri, qiymatlar sohasi, aniqlanish sohasi va berilgan oraliqqa tegishli ildizlarni topishga oid topshiriqlarni bajarishni talab qilish.

Masalan, bunda quyidagi ko‘rinishdagi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

- trigonometrik tenglamalar ildizlari to‘plamini birlashtrish va birlik aylana bilan ishlashga oid xatoliklarni oldini olishga qaratilgan topshiriqlar.

1. Sonlar to‘plamini birlashtiring $(n,k\in Z)$:

а) $x_1 = \frac{3\pi}{2} + \pi k$ va $x_2 = \pm\frac{\pi}{2} + 2\pi n$ б) $x_1 = \frac{\pi}{2}k$ va $x_2 = \frac{\pi}{3}n$

2. Tenglamalarni yeching:

а) $\cos x + \cos 2x - \cos 3x = 1;$ б) $tgx + tg2x - tg3x = 0;$

в) $\sin\frac{7x}{2}\cos\frac{3x}{2} + \sin\frac{x}{2}\cos\frac{5x}{2} + \sin 2x\cos 7x = 0$

г) $\sin^2 x + \sin^2 2x = \sin^2 3x;$

д) $\sin x + \sin 7x - \cos 5x + \cos(3x - 2\pi) = 0;$ е) $\frac{\cos 3x}{\sin 2x} = 0.$

-$\sin x = a$, $\cos x = a$, $tgx = a$ и $ctgx = a$ *tenglamalarni yechishda xatoliklarning oldini olishga qaratilgan topshiriqlar.*

Tenglamalrni yechishda ularning alohida maxsus holatlarni eslab qolish talab etiladi: а) $\cos x = a$; b) $\cos x = 1$; в) $\cos x = -1$; г) $\cos x = 0$; д) $\sin x = a$; е) $\sin x = 1$; д) $\sin x = -1$; з) $\sin x = 0$; и) $tgx = a$; к) $ctgx = a$.

Oddiy trigonometrik tenglamalarni yechishda xatoliklarning oldini olish uchun har bir tenglamaga uning yechimini taklif etilgan variantlardan biri ichidan topish vazifasini qo‘yilish foydali bo‘ladi.

1. Tenglamaning mos ildizini toping:

а) $\cos x = \frac{\sqrt{3}}{2}$ 1) $x = \frac{\pi}{2} + \pi n, \quad n \in Z$

б) $ctgx = -1$ 2) $x = \frac{3\pi}{4} + \pi k; \ k \in Z$

в) $\cos x = 0$ 3) $x = \frac{\pi}{6} + \pi m; \ m \in Z$

г) $tgx = \frac{\sqrt{3}}{3}$ 4) $x = \pm\frac{\pi}{6} + 2\pi k; \ k \in Z$

-*Berilgan oraliqda ildizlarni topishda yo‘l qo‘yiladigan xatoliklarni oldini olishga qaratilgan topshiriqlar.*

1	2	3	4	5
$\frac{\pi n}{4}; \ n \in Z$	$-\frac{\pi}{6} + \pi n; \ n \in Z$	$\frac{\pi}{2} + \pi k; \ k \in Z$	$\frac{\pi}{2} + \pi k; \ k \in Z$	$\frac{\pi}{2}n; \ n \in Z$
$\left[2\pi; \frac{17\pi}{6}\right]$	$\left[-4\pi; -\frac{5\pi}{2}\right]$	$[-4\pi; -2\pi]$	$[-5\pi; -3\pi]$	$\left[-\frac{3\pi}{2}; -\frac{\pi}{2}\right]$
$-\frac{7\pi}{2}; -\frac{5\pi}{2}$;	$2\pi; \frac{9\pi}{4}$;	$\frac{5\pi}{2}; \frac{11\pi}{4}$;	$-\frac{3\pi}{2}; -\pi$;	$-\frac{\pi}{2}; -\frac{9\pi}{2}; -\frac{7\pi}{2}; -\frac{19\pi}{6}$

Bu yerdan o‘quvchilar har bir ildizlar to‘plamining xar bir intervalda yotgan ildizlarini topashadi. Keyin agar ular jadvalning oxirgi satrida berilgan bo‘lsa ularni belgilab qo‘yishi yoki berilmagan bo‘lsa yozishi talab etiladi.

-tenglamaning ildizlarini yozishda xatolarning oldini olishga qaratilgan topshiriqlar.

1. Ushbu trigonometrik tenglama uchun berilgan javob to‘g‘ri yoki noto‘g‘rilini aniqlang, zaruriyat bo‘lsa, ularni to‘g‘rilang.

а) $\cos\left(\frac{3\pi}{2}+2x\right)=\cos x$; Javob: $x=\pm\frac{\pi}{6}+2\pi k,\quad k\in Z$.

б) $4\sin^2 x-12\sin x=-5$; Javob: $x=\frac{\pi}{6}+2\pi k$, $x=(-1)^k\arcsin\frac{5}{2}+\pi k,\quad k\in Z$

в) $\sin x+\sin^2\frac{x}{2}=\cos^2\frac{x}{2}$; Javob: $x=\frac{\pi}{4}+\pi k,\quad k\in Z$.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Taklif etilayotgan topshiriqlar yangi materialni o‘rganish, o‘rganilgan materialni mustahkamlash darslarida, bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darslarida, shuningdek, sinfdan tashqari darslarda qo‘llanilishi mumkin. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning asosiy xatolari nazariy materiallarni puxta o‘zlashtirmaslik, formulalarni noto‘g‘ri qo‘llash, oraliq chegaralarini hisoblashda adashish va umumiy yechimni noto‘g‘ri yozish bilan bog‘liq. Xatolarni oldini olish uchun teskari masalalar texnikasi va takrorlashga oid yondashuvlar o‘qituvchilar tomonidan dars jarayonida keng qo‘llanilishi zarur. Ilg‘or tajribalar va statistik dalillar asosida ishlab chiqilgan yuqoridagi topshiriqlar o‘quvchilarning trigonometrik tenglamalarni yechishdagi xatoliklarini kamaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ященко И.В. Методические рекомендации для учителей, подготовленные на основе анализа типичных ошибок участников ЕГЭ 2022 года по математике / И.В. Ященко, И.Р. Высоцкий, А.В. Семенов. – М.: Федеральная служба по надзору в сфере образования и науки ФГБНУ «Федеральный институт педагогических измерений», 2022. – 35 с

2. Хабибуллин, К.Я. Систематизируем методы решения тригонометрических уравнений /К.Я. Хабибулин //Образование в современной школе. - 2009. - №9. С. 30-38.

3. Usman M.H., Hussaini M.M. Analysis of Students’ Error in Learning of Trigonometry Among Senior Secondary School Students in Zaria Metropolis, Nigeria /M.H Usman., M.M. Hussaini //IOSR Journal of Mathematics (IOSR-JM). - 2017. - P. 1-4.

4. Fahrudin D., Mardiyana and Pramudya I. Profile of students' errors in trigonometry equations /Fahrudin D., Mardiyana and Pramudya I. //IOP Conf. Series: Journal of Physics: Conf. Series 1188. - 2018. - P. 1-8

5. Valerie May, Scott Courtney Developing Meaning in Trigonometry / Valerie May, Scott Courtney //Illinois Mathematics Teacher. - 2016. - P. 25-32.

6. Самсонов, П.И. Простые замечания о сложной методике обучения решению тригонометрических уравнений» /П.И. Самсонов //Математика. - 2010. - №7. С. 46-47.

7. Майер, Е.И. Некоторые методические аспекты изучения тригонометрических уравнений в школьном курсе математики /Е.И. Майер //Наука и образование: Новое время. - 2017. - С. 365-369.

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA VIRTUAL VA TO‘LDIRILGAN REALLIK TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Anvarjon Rahmatjonov,
Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg‘ona filiali “Sport psixologiyasi, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasi” o‘qituvchisi

Annotatsiya

So‘nggi yillarda virtual va kengaytirilgan reallik (VR va AR) ta’lim sohasida muhim vositaga aylandi. Ular o‘rganish va kasbiy rivojlanish, xususan, o‘qituvchilar malakasini oshirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Ushbu maqolada o‘qituvchilarning malakasini oshirishda VR va AR texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari va amaliyoti muhokama qilinadi. Shuningdek, virtual va to‘ldirilgan reallik o‘qituvchilarga an’anaviy ta’lim muhitida amalga oshirish qiyin bo‘lgan o‘quv jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkoniyatini berishi masalasi dalillangan.

Kalit so‘zlar: *virtual reallik, kengaytirilgan reallik, malaka oshirish, o‘qituvchilar, ta’lim texnologiyalari.*

Аннотация

В последние годы виртуальная и дополненная реальность (VR и AR) стали важными инструментами в образовании. Они открывают новые возможности для обучения и профессионального развития, особенно для подготовки учителей. В статье рассматриваются возможности и практика использования технологий виртуальной и дополненной реальности в подготовке учителей. Также утверждается, что виртуальная и дополненная реальность может предоставить учителям возможность внедрять инновационные подходы к процессу обучения, которые трудно реализовать в традиционной образовательной среде.

Ключевые слова: *виртуальная реальность, дополненная реальность, профессиональное развитие, педагоги, образовательные технологии.*

Abstract

In recent years, virtual and augmented reality (VR and AR) have become an important tool in education. They open up new opportunities for learning and professional development, in particular, for teacher training. This article discusses the possibilities and practice of using VR and AR technologies in teacher training. It also argues that virtual and augmented reality can provide teachers with the opportunity to introduce innovative approaches to the learning process that are difficult to implement in a traditional educational environment.

Keywords: *virtual reality, augmented reality, training, teachers, educational technologies.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’sirida doimiy o‘zgarishlarda. O‘qituvchilar ta’lim tizimining asosiy shaxslari sifatida o‘z mahorati va o‘qitish usullarini takomillashtirib, doimiy ravishda ushbu o‘zgarishlarga moslashishi kerak. Bu ko‘nikmalarni rivojlantirishning samarali strategiyalarini talab qiladi.

Virtual (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) texnologiyalari o‘qituvchilarning malakasini oshirish jarayonini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin bo‘lgan innovatsion vositalardir. Ular turli xil o‘quv muhitlariga moslashtirilishi mumkin bo‘lgan real va boshqariladigan o‘quv ssenariylarini yaratish qobiliyatini ta’minlaydi. Bu o‘qituvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni xavfsiz va ta’lim muhitida amaliyotda qo‘llash, ularning kasbiy mahoratini oshirish jarayonini yanada interfaol va immersiv qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Virtual va to‘ldirilgan reallik o‘qituvchilarga an’anaviy ta’lim muhitida amalga oshirish qiyin bo‘lgan o‘quv jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkoniyatini beradi. Virtual reallik (VR) va kengaytirilgan reallik (AR) o‘qituvchilar nafaqat bilim berishlari, balki muhim kasbiy ko‘nikma va malakalarni ham rivojlantirishlari mumkin bo‘lgan interfaol va immersiv ta’lim muhitini yaratish konsepsiyasiga asoslanadi.

Virtual reallik (VR). VR texnologiyalari o‘qituvchilarga o‘qitish strategiyalarini mashq qilishlari va o‘rganishlari mumkin bo‘lgan simulyatsiya qilingan ta’lim ssenariylarini yaratish imkoniyatini beradi. Bu chidamlilik va boshqarish uchun kuchli shaxslararo ko‘nikmalarni talab qiladigan qiyin sinf vaziyatlarini

simulyatsiya qilishni o‘z ichiga olishi mumkin. Smit va boshqalarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, ushbu virtual simulyatsiyalar metodik usullarni chuqurroq o‘rganishga va o‘qituvchilar tayyorlashning muhim tarkibiy qismlari bo‘lgan tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi [1].

VR ning ta’limda muvaffaqiyatli qo‘llanilishiga misol sifatida o‘qituvchilarga o‘quvchilar bilan real ssenariylarda o‘zaro muloqot qilish, turli xil o‘qitish usullari va turli xil o‘qitish yondashuvlarini qo‘llash imkonini beradigan virtual sinflardan foydalanish mumkin [2]. Bu haqiqiy darslar oldidan stressni kamaytirishga va kutilmagan vaziyatlarga tayyorlanishga yordam beradi.

Kengaytirilgan reallik (AR). AR atrofimizdagi dunyoga raqamli elementlarni qo‘shib, an’anaviy faoliyatni yanada qiziqarli va tushunarli qilish orqali boyitadi. Bunday texnologiyalar o‘quv materiali bilan interaktiv o‘zaro ta’sir qilish orqali murakkab va mavhum tushunchalarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Masalan, fanni o‘rganayotganda sinfda murakkab molekulyar tuzilmalarni ko‘rish mumkin, bu ma’lumotni vizual idrok etishni yaxshilaydi va materialni tushunishni osonlashtiradi [3].

Kengaytirilgan reallik, shuningdek, o‘qituvchilarga o‘quv materiallarini o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirishga imkon beradi, ularga mavzularni chuqurroq va o‘z tezligida o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu interaktivlik va individuallashtirish elementini qo‘shish orqali tasdiqlangan o‘rganish yondashuvlarini kengaytiradi.

Rolli o‘yinlar va simulyatsiyalar. VR va AR sizga murakkab pedagogik vaziyatlarni rolli o‘yinlar orqali taqlid qilish imkonini beradi, bu ayniqsa o‘qituvchilarning sinfni boshqarish va nizolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun qimmatlidir. Ushbu simulyatsiya muhitlarida o‘qituvchilar boshqariladigan o‘quvchilar avatarlari bilan o‘zaro aloqada bo‘lishlari mumkin, bu ularga turli xil o‘rganish strategiyalari bilan xavfsiz tajriba o‘tkazish va ularning natijalarini boshqariladigan muhitda kuzatish imkonini beradi. Bu haqiqiy hayotda samarali o‘rganish uchun zarur bo‘lgan ishonch va malakalarni rivojlantirishga yordam beradi.

O‘qitishni moslashtirish va individuallashtirish. O‘quv materiallari mazmunini o‘quvchilarning o‘ziga xos ehtiyojlariga moslashtirishga imkon beradi. Bu, ayniqsa, individual yondashuv talab qilinadigan maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashda foydali bo‘lishi mumkin. Masalan, kengaytirilgan haqiqatdan foydalanib, o‘qituvchilar o‘quvchilarga materialni yaxshiroq tushunish va saqlashga yordam berish uchun qo‘shimcha tushuntirishlar yoki ko‘rgazmali qo‘llanmalarni taqdim etadigan interfeyslarni yaratishi mumkin.

Samaradorlikni baholash. VR va AR o‘qituvchilarning o‘quv muhiti bilan o‘zaro aloqalari haqidagi ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish orqali o‘qitish samaradorligini baholash uchun ham qo‘llanilishi mumkin. Bunday texnologiyalar o‘qituvchilarning o‘quvchilar va kontent bilan qanchalik tez-tez va qanday aloqada bo‘lishini kuzatib borishi, sifatli fikr-mulohazalarni taqdim etishi mumkin. Ushbu ma’lumotlar ta’lim strategiyalari va o‘qitish usullarini takomillashtirish, shu orqali ta’lim jarayonining umumiy darajasini oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Hamkorlikda o‘rganish va tarmoq yaratish. Virtual va kengaytirilgan reallik nafaqat o‘qituvchilar va o‘quvchilar, balki o‘qituvchilarning o‘zaro hamkorlikda o‘rganish imkoniyatlarini sezilarli darajada boyitishi mumkin. Hamkorlikda o‘rganish va tajriba almashish uchun virtual maydonlarni yaratish o‘qituvchilar o‘zaro muloqot qilishlari, ilg‘or tajribalarni almashishlari va yangi ko‘nikmalarni o‘rganishda bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashlari mumkin bo‘lgan professional jamoalarni mustahkamlashga yordam beradi.

Umuman olganda, VR va AR texnologiyalarining o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi an’anaviy o‘qitishni o‘zgartirish va o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish samaradorligini oshirish uchun kuchli vositalarni taqdim etadi. Ushbu texnologiyalar o‘qituvchilar ijodiy, tajriba va amalda o‘rganishlari mumkin bo‘lgan yanada dinamik va inklyuziv ta’lim muhitini yaratishga yordam beradi. [4].

Tahlil va natijalar. Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalarini o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish uchun ushbu innovatsion vositalarni samarali idrok etish va ulardan foydalanishni maksimal darajada oshirishi mumkin bo‘lgan bir nechta asosiy jihatlarni ko‘rib chiqish muhim:

1. Muntazam treninglar va seminarlar o‘tkazish. Doimiy o‘quv tadbirlari o‘qituvchiga VR va AR texnologiyalaridan foydalanishning asosiy va ilg‘or jihatlarini o‘zlashtirishga yordam beradi. Bu seminarlar nafaqat texnik jihatlarga, balki ushbu texnologiyalarni o‘quv amaliyotida qo‘llashning uslubiy yondashuvlariga

ham e’tibor qaratish lozim. Amaliy mashg‘ulotlar va amaliy tadqiqotlar o‘qituvchilarga VR va AR-dan real hayotdagi ta’lim ssenariylarida foydalanish imkoniyatlarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

2. Zamonaviy qurilmalar va dasturiy ta’minotdan foydalanishni ta’minlash. Tegishli infratuzilmasiz texnologiyalarni muvaffaqiyatli integratsiyalash mumkin emas. O‘qituvchilar VR garnituralari, AR-ni qo‘llab-quvvatlaydigan planshetlar va smartfonlar, shuningdek, maxsus dasturiy ta’minot kabi zamonaviy jihozlardan foydalanishlari kerak. Shuningdek, texnik va dasturiy ta’minotning zamonaviy standartlarga va funksionallikka muvofiqligini ta’minlash uchun ularni doimiy yangilab borishni ta’minlash ham muhim ahamiyatga ega.

3. Amaliyot hamjamiyatlarini yaratish. O‘qituvchilar tajriba, g‘oyalar va ilg‘or tajriba almashishi mumkin bo‘lgan professional hamjamiyatlarni tashkil etish VR va AR bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun muhim qadamdir. Bunday jamoalar o‘qituvchilar o‘rtasida aloqa va o‘zaro yordam tarmog‘ini yaratishga yordam beradigan onlayn platformalar yoki muntazam uchrashuvlar sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Bu, shuningdek, texnologiyadan foydalanishda ijodiy yondashuvlarni rag‘batlantirishga yordam beradi.

4. VR va AR elementlarini o‘qituvchilar tayyorlash dasturlariga integratsiyalashuvi. Ushbu texnologiyalarning muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi ularni barcha darajadagi o‘qituvchilar tayyorlash dasturlariga kiritishni taqozo etadi – boshlang‘ichdan yuqori darajagacha. Bunday dasturlar moslashuvchan bo‘lishi va VR va AR texnologiyalaridagi so‘nggi yutuqlarga va ularni ta’lim muhitida qo‘llashga muvofiq muntazam ravishda yangilanishi kerak.

5. Baholash va doimiy takomillashtirish. So‘rovlar o‘tkazish va o‘qituvchilardan fikr-mulohazalarni yig‘ish orqali VR va AR texnologiyalarini joriy etish samaradorligini muntazam ravishda baholash muhim ahamiyatga ega. Bu ham muvaffaqiyatli amaliyotlarni, ham takomillashtirishni talab qiladigan sohalarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu ma’lumotlarga asoslanib, o‘qitish va texnologiya integratsiyasi strategiyalarini sozlash mumkin.

6. Innovatsiyalarni rag‘batlantirish. O‘qituvchilar o‘rtasida VR va AR bo‘yicha tashabbuslar va tadqiqotlarni rag‘batlantirish o‘qitish amaliyotini boyitadigan yangi, noyob yondashuvlar va ilovalarni yaratishi mumkin. Grantlar, mukofotlar va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlashning boshqa shakllari o‘qituvchilarni zamonaviy texnologiyalardan faolroq va ijodiy foydalanishga undashi mumkin.

Ushbu tavsiyalar VR va ARni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan bo‘lib, bu o‘quv faoliyatining umumiy samaradorligi va sifatini oshirish imkonini beradi. [6].

Xulosa. Virtual va kengaytirilgan reallik (VR va AR) texnologiyalari o‘qituvchilarni tayyorlash va malaka oshirishga yondashuvlarni sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan kuchli vositadir. Ular nafaqat bilim va ko‘nikmalarni uzatish jarayonini boyitadi, balki o‘rganishni yanada interaktiv, qiziqarli va har bir o‘qituvchining individual ehtiyojlariga moslashtiradi.

1. Yangi ta’lim imkoniyatlari. O‘qituvchilarga o‘quv materiallari bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish va o‘quv vaziyatlarini simulyatsiya qilish uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Bu o‘qituvchining sinf bilan ishlashga yaxshiroq tayyorlanishiga yordam beradi va bilimlarni yanada samarali uzatishga hissa qo‘shadi.

2. Ishtirok etish va motivatsiyani oshirish. Texnologiyadan foydalanish o‘qituvchilarning rivojlanishini yanada qiziqarli qiladi va rag‘batlantiradi. Interaktiv simulyatsiyalar va kengaytirilgan haqiqat o‘qituvchilarni o‘quv jarayoniga jalb qiladi, ularning qiziqishi va kasbiy rivojlanish istagini oshiradi.

3. Infratuzilma va ta’limga qo‘yiladigan talablar. Texnologiyadan muvaffaqiyatli foydalanish zamonaviy qurilmalar va dasturiy ta’minotdan foydalanishni talab qiladi. Infratuzilmani qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish, shuningdek, o‘qituvchilar uchun VR va ARni o‘zlashtirish va undan samarali foydalanish bo‘yicha treninglar o‘tkazish muhim qadamdir.

4. Moslashish va doimiy yangilanish. VR va ARni ta’lim dasturlariga joriy etish o‘qituvchilarning o‘zlari tomonidan muntazam yangilanish va moslashishni talab qiladi. Ta’lim muassasalari texnologik taraqqiyot va ta’lim muhitining o‘zgaruvchan ehtiyojlariga muvofiq o‘quv dasturlari va metodologiyalarini qayta ko‘rib chiqish va tuzatishga tayyor bo‘lishi kerak.

5. Kasbiy jamoalar va tajriba almashish. O‘qituvchilarning professional jamoalarini yaratish va rivojlantirish tajriba almashish va yangi texnologiyalardan foydalanishda yordam beradi. Bunday tarmoqlar

o‘qituvchilarga bir-birini qo‘llab-quvvatlash, innovatsion yondashuvlarni muhokama qilish va muayyan ta’lim muammolariga yechim topish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, VR va ARning ta’limdagi salohiyati juda katta, ammo ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish kadrlar tayyorlash, infratuzilmani yangilash va ta’lim muhitida innovatsiya madaniyatini shakllantirishga kompleks yondashuvni talab qiladi. Ushbu qadamlar ta’lim sifatini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi va ta’lim jarayonini yanada dinamik va zamon talablariga moslashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Smit, J. va Li, M. (2022). Ta’limda virtual haqiqat: texnologiya orqali o‘rganishni kuchaytirish. Ta’lim texnologiyasi jurnali, 15(3), 45-67.
2. Jonson, P. (2023). VR yordamida o‘qituvchilarni tayyorlashda innovatsion amaliyotlar. Ta’lim innovatsion hisobotlari markazi, 9(1), 89-102.
3. Braun, T. (2021). Sinfda kengaytirilgan haqiqat: texnologiya va ta’limni birlashtirish. Ta’lim sharhi, 12(4), 27-39.
4. Farxod Mulaydinov, Dilyorjon Solidjonov. Virtual va to‘ldirilgan reallik texnologiyalari (VR, AR, AV, MR texnologiyalari). O‘quv qo‘llanma, 219 bet.
5. Вайндорф-Сысоева, М.Е. Организация виртуальной образовательной среды: теория и практика [Текст] : моногр. / М.Е. Вайндорф-Сысоева. –Germany: LAP LAMBERT Academic Publishing GmbH & Co. KG, 2011. –368 с.2.
6. Tangirov K. E., Jomurodov D. M., Murodkasimova S. K. The importance of e-learning and e-learningresources in individualized learning //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). –2021. –T. 10. –No. 3. –C. 464-469

DIGITAL MARKETING STRATEGIES FOR PROMOTING REGIONAL TOURISM: TOOLS AND TECHNIQUES

Nodira Mukhammadieva,
“Silk Road” International University of Tourism and Cultural heritage

Abstract. *The digital era has revolutionized tourism marketing, particularly for regional destinations seeking to enhance their visibility and appeal. This article explores digital marketing strategies and tools tailored for regional tourism, highlighting theoretical underpinnings, methodologies, and practical applications. Through a comprehensive review and analysis of contemporary approaches, this paper provides actionable insights for regional tourism stakeholders.*

Keywords*: Digital Marketing, Regional Tourism, Content Marketing, Social Media, SEO, Influencer Partnerships, Data Analytics.*

Аннотация

Цифровая эра произвела революцию в туристическом маркетинге, особенно для региональных дестинаций, стремящихся повысить свою узнаваемость и привлекательность. В данной статье рассматриваются стратегии и инструменты цифрового маркетинга, адаптированные для регионального туризма, освещаются теоретические основы, методологии и практическое применение. Благодаря всестороннему обзору и анализу современных подходов, данная статья предоставляет практические рекомендации для заинтересованных сторон регионального туризма.

Ключевые слова: *Цифровой маркетинг, региональный туризм, контент-маркетинг, социальные медиа, SEO, партнерство с влиятельными лицами, аналитика данных.*

Annotatsiya

Raqamli davr turizm marketingida ularning tanilishi va jozibadorligini oshirishga intilayotgan mintaqaviy yo‘nalishlar uchun asos bo‘ldi. Ushbu maqolada mintaqaviy turizmga moslashtirilgan raqamli marketing strategiyalari va vositalari ko‘rib chiqiladi, nazariy asoslar, metodologiyalar va amaliy qo‘llanmalar yoritiladi.

Zamonaviy yondashuvlarni har tomonlama ko‘rib chiqish va tahlil qilish orqali ushbu maqola mintaqaviy turizm manfaatdor tomonlari uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: *raqamli marketing, mintaqaviy turizm, kontent marketingi, ijtimoiy media, SEO, obro‘li shaxslar bilan hamkorlik, ma’lumotlar tahlili.*

Introduction. Regional tourism is pivotal for economic and cultural development, granting destinations the platform to highlight their unique cultures, historical narratives, and natural landscapes. These areas serve as reservoirs of authenticity and distinct experiences, attracting tourists seeking niche and personalized travel encounters. However, regional destinations frequently confront challenges that include limited visibility compared to well-known locations, constrained marketing budgets, and highly competitive environments. These obstacles necessitate innovative approaches to capture and maintain tourist interest.

In the digital age, marketing has undergone a profound transformation, allowing regional tourism entities to transcend geographical barriers and engage with potential visitors globally. By adopting sophisticated digital marketing strategies, regions can increase their brand awareness, attract more tourists, and drive economic growth. This article delves into the myriad of digital marketing tools and techniques that can be strategically employed to elevate regional tourism marketing efforts. Through the examination of practical case studies and the latest theoretical developments, this paper aims to provide regional tourism stakeholders with actionable insights and strategic frameworks, highlighting how targeted digital approaches can address the intricacies of promoting regional tourism amidst a rapidly evolving digital landscape.

Theoretical Part

Digital marketing theory provides a foundation for understanding how technology and consumer behavior intersect to create effective marketing strategies. At its core, digital marketing emphasizes user engagement, behavior analysis, and the delivery of personalized content that resonates with individual consumer needs and preferences. In the context of regional tourism, these principles offer invaluable opportunities to tailor marketing efforts that capture the unique essence of a destination and effectively communicate its appeal to targeted audiences.

Key principles central to digital marketing include social proof, network theory, and the attention economy. Social proof suggests that individuals rely on the actions and recommendations of others, particularly in the digital space, to guide their own choices [1]. Network theory explores the interconnectedness of social networks, emphasizing the importance of influencers and the ripple effects of shared content [2]. Meanwhile, the attention economy focuses on capturing consumer attention in an environment saturated with information, highlighting the need for engaging and relevant content [3]. Each of these components is crucial for amplifying regional tourism through digital strategies.

1. **Social Media Marketing**: Platforms such as Instagram, Facebook, and TikTok serve as dynamic channels to engage with audiences through visually appealing and interactive content. For regional tourism, social media offers the opportunity to create vibrant showcases of local attractions, activities, and cultural events. By encouraging user-generated content and social sharing, destinations can leverage the power of social proof, facilitating a community-driven approach to marketing [4].

2. **Content Marketing**: The art of storytelling is a cornerstone of content marketing, which uses blogs, videos, and podcasts to weave compelling narratives around destinations. This strategic communication not only informs but also emotionally connects with potential tourists by painting vivid pictures of the local experience. Through storytelling, regional attractions can build strong, memorable brands that stand out in a competitive market [5].

3. **Search Engine Optimization (SEO)**: SEO strategies involve the enhancement of content and websites to achieve higher visibility in search engine results. By optimizing keywords, meta descriptions, and overall website architecture, regional tourism entities can increase their discoverability among travelers searching for specific destinations or experiences. Effective SEO drives organic traffic, ensuring that regions remain top-of-mind for potential visitors during the planning phase of their journeys [6].

4. **Influencer Partnerships**: Travel influencers, with their established credibility and engaged followings, can serve as powerful partners for regional tourism marketing. By aligning with influencers whose

values and interests match those of the destination, marketers can harness authentic and persuasive endorsements that resonate deeply with target audiences. This approach not only amplifies reach but also enhances the perceived trustworthiness of the destination's offerings [7].

5. **Data Analytics and Personalization**: The integration of data analytics into marketing strategies allows for a deeper understanding of consumer behavior and preferences. By leveraging insights from data, marketers can develop highly personalized campaigns that speak directly to individual needs, thereby increasing engagement and conversion rates. Personalized marketing fosters a sense of connection and relevance, essential for attracting and retaining tourists in competitive environments [8].

These theoretical frameworks and strategies underscore the transformative potential of digital marketing in promoting regional tourism, offering a robust foundation for practical application in the real-world marketing landscape.

Practical Application

To demonstrate the real-world impact of digital marketing strategies in enhancing regional tourism, this section presents a case study of a successful initiative in Tuscany, Italy. This renowned region, celebrated for its picturesque landscapes, rich history, and vibrant culture, utilized a comprehensive digital marketing campaign to elevate its tourism profile and attract a broader audience. By leveraging social media, search engine optimization (SEO), and influencer partnerships, Tuscany effectively engaged potential tourists and increased both online interaction and actual visits.

Social Media Marketing. Tuscany utilized platforms like Instagram, Facebook, and TikTok to curate visually compelling content that highlighted its scenic beauty and cultural heritage. By employing professional photography and video storytelling, the region was able to offer prospective visitors a glimpse into the Tuscan experience. Tuscany's marketing team encouraged user-generated content by launching hashtag campaigns, fostering a sense of community among visitors who shared their experiences with friends and followers. This approach capitalized on social proof, as travelers' endorsements resonated with broader audiences, amplifying reach and influence.

Content Marketing. The storytelling approach was pivotal in Tuscany's content marketing strategy. The region developed a series of engaging blog posts, short documentaries, and podcast episodes that delved into the local culture, gastronomy, history, and lesser-known attractions. By focusing on authentic narratives, such as winemaking traditions and artisan crafts, Tuscany was able to construct a compelling brand narrative that captured the imagination of potential tourists. This content was strategically distributed across various digital platforms, providing consistent touchpoints for audience engagement.

Search Engine Optimization (SEO). To enhance discoverability among travelers, Tuscany's campaign included targeted SEO efforts. The tourism board optimized its website content and metadata with strategic keywords such as "Tuscan wine tours," "medieval villages in Tuscany," and "Tuscan cooking classes." These efforts improved the site's ranking on search engine results pages (SERPs), driving more organic traffic. Additionally, local attractions and events were featured in online directories and travel blogs, broadening Tuscany's digital presence.

Influencer Partnerships. Recognizing the power of influencer marketing, Tuscany collaborated with travel influencers and bloggers whose audiences align with the region's target demographics. Influencers were invited to experience Tuscany firsthand, participating in activities such as vineyard tours, culinary classes, and historical explorations. By sharing their authentic experiences through posts, stories, and vlogs, influencers provided credible and engaging endorsements that attracted their followings. These partnerships effectively extended Tuscany's reach and enhanced its brand image.

Targeted Ad Campaigns. Complementing these strategies, Tuscany implemented targeted advertising across social media platforms and search engines. By utilizing demographic and interest-based targeting, the campaign reached specific audience segments likely to be interested in travel to Tuscany. Ads showcased the region's unique offerings and promoted special events or seasonal attractions, prompting immediate engagement and facilitating conversions from interest to action.

Through the integration of these digital marketing strategies, Tuscany significantly improved its online engagement metrics and experienced a notable increase in visitor numbers. This case study highlights the practical application and efficacy of tailored digital marketing strategies in promoting regional tourism, offering valuable insights for other destinations seeking to amplify their tourism appeal in a competitive digital landscape.

Conclusions

Digital marketing has emerged as a formidable toolset for enhancing regional tourism, providing diverse and effective means to reach and engage potential visitors. The integration of social media, content marketing, SEO, influencer partnerships, and data analytics enables regional destinations to overcome challenges related to visibility and competition. By strategically employing these tools, tourism entities can create compelling narratives, enhance their online presence, and cultivate trust with targeted audiences, ultimately contributing to sustainable tourism growth.

Key takeaways from the successful implementation of these strategies include:

1. **Enhanced Visibility and Engagement**: By harnessing digital platforms, regional destinations can significantly increase their visibility and engagement. Social media and content marketing, in particular, allow for the creation of impactful and shareable narratives that resonate with diverse audiences.
2. **Competitive Advantage**: In a crowded tourism market, digital marketing provides a competitive edge by enabling destinations to highlight unique cultural, historical, and experiential offerings. Strategic use of SEO ensures discoverability, while influencer partnerships amplify reach and credibility.
3. **Data-Driven Personalization**: Data analytics play a crucial role in understanding visitor behavior and preferences, allowing for personalized and targeted marketing efforts. This personalization improves conversion rates and enhances visitor satisfaction by meeting specific interests and needs.
4. **Empowerment through Social Proof**: User-generated content and influencer endorsements provide powerful social proof, building trust and interest among potential visitors. Encouraging authentic sharing of experiences can exponentially increase a destination's credibility and appeal.
5. **Sustainability and Adaptability**: Digital marketing fosters sustainable tourism by promoting responsible travel initiatives and engaging communities in the creation and sharing of content. Moreover, the flexibility of digital marketing allows for continual adaptation in response to changing trends and technological advances.

Looking ahead, future research should delve into the potential of emerging trends such as virtual reality (VR) and artificial intelligence (AI) in digital marketing for tourism. VR can offer immersive pre-travel experiences, enticing potential visitors, while AI can enhance personalization and improve customer service through advanced data analysis and automation. Exploring these technologies will provide deeper insights and further opportunities for innovation in regional tourism marketing. By staying abreast of these trends, regional destinations can continue to evolve and enhance their marketing strategies, ensuring enduring success in a rapidly changing digital landscape.

REFERENCES:

1. Cialdini, R. B. (2009). Influence: Science and Practice. Allyn & Bacon.
2. Rogers, E. M. (2010). Diffusion of Innovations. Free Press.
3. Davenport, T. H., & Beck, J. C. (2001). The Attention Economy: Understanding the New Currency of Business. Harvard Business School Press.
4. Hudson, S., & Thal, K. (2013). The impact of social media on the consumer decision process: Implications for tourism marketing. Journal of Travel & Tourism Marketing, 30(2), 156-160.
5. Pulizzi, J. (2012). The rise of storytelling as the new marketing. Publishing Research Quarterly, 28(2), 116-123.
6. Holliman, G., & Rowley, J. (2014). Business to business digital content marketing: marketers' perceptions of best practice. Journal of Research in Interactive Marketing, 8(4), 269-293.
7. Gretzel, U. (2018). Influencer Marketing in Tourism. Journal of Travel Research, 57(1), 1-18.

8. Milan, S., & Treré, E. (2019). Big Data from the South: The beginning of a conversation we must have. Television & New Media, 20(4), 379-391.

KEKSALARNING YOLG‘IZLIGINI KAMAYTIRISH VA ULARNI IJTIMOIY HAYOTGA QAYTARISH UCHUN PSIXOLOGLAR VA IJTIMOIY XIZMAT MUTAXASSISLARIDAN KOMPLEKS YONDASHUV

Rayxan Razakova,
Ma’mun universiteti “Psixologiya va tibbiyot” kafedrasi
prof.v.b., mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada keksalarning yolg‘izligini kamaytirish va ularni ijtimoiy hayotga qaytarish uchun psixologlar va ijtimoiy xizmat mutaxassislaridan kompleks yondashuv asosida yoritilgan. Keksalikdagi yolg‘izlik yaqinlarini yo‘qotish, faollikning pasayishi, shuningdek, ijtimoiy aloqalarning cheklanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu omillar keksalarni ijtimoiy izolyasiyaga nisbatan ko‘proq himoyasiz qilib qo‘yadi va bu ularning hayotdan umumiy qoniqish darajasining tushib ketishiga hamda salomatlik bilan bog‘liq muammolarining kuchayishiga olib keladi. Ushbu muammoni samarali hal etish uchun psixolog mutaxassislardan kompleks yondashuv talab etiladi.

Kalit so‘zlar: *hissiy qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy hayot, faoliyat, ruhiy salomatlik, individuallik, “keksalik” tushunchasi.*

Аннотация

В данной статье представлен комплексный подход психологов и специалистов социальных служб к уменьшению одиночества среди пожилых людей и их возвращению к социальной жизни. Одиночество в пожилом возрасте может быть связано с утратой близких, снижением активности, а также ограничением социальных связей. Эти факторы делают пожилых людей более уязвимыми к социальной изоляции, что приводит к снижению общего уровня удовлетворенности жизнью и обострению проблем со здоровьем. Для эффективного решения данной проблемы требуется комплексный подход со стороны специалистов в области психологии.

Ключевые слова: *эмоциональная поддержка, социальная жизнь, активность, психическое здоровье, индивидуальность, понятие «старость».*

Annotation

This article highlights a comprehensive approach by psychologists and social service specialists to reduce loneliness among the elderly and reintegrate them into social life.. Loneliness in old age can be associated with the loss of loved ones, reduced activity, and limited social connections. These factors make elderly people more vulnerable to social isolation, leading to a decrease in overall life satisfaction and an increase in health issues. An effective solution to this problem requires a comprehensive approach from psychology specialists.

Keywords: *emotional support, social life, activity, mental health, individuality, concept of “old age”.*

Kirish. Keksalarning yolg‘izligi bugungi jamiyatdagi dolzarb ijtimoiy-psixologik muammolardan biri sifatida o‘rganilmoqda. Yoshi ulug‘ insonlar uchun yolg‘izlik ko‘pincha yaqin kishilarini yo‘qotish, sog‘liqning yomonlashuvi, ijtimoiy aloqalarning qisqarishi va kundalik faoliyatning kamayishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu ularni ichki va tashqi jihatdan izolyatsiya holatiga olib keladi. Ushbu holat nafaqat ruhiy salomatlikka, balki umumiy hayot sifatiga ham jiddiy ta'sir ko‘rsatadi.

Yolg‘izlik keksalarning stress darajasini oshiradi, o‘zini tashlab qo‘yish hissini kuchaytiradi va depressiyaga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan qaraganda, bunday holatlar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlari bilan ta’minlanmaslik oqibatida yuzaga keladi, bu esa ularning hissiy va ruhiy ehtiyojlariga javob bera olmaslik bilan izohlanadi.

Keksalarning yolg‘izligini kamaytirish va ularni ijtimoiy hayotga qaytarish uchun psixologlar va ijtimoiy xizmat mutaxassislaridan kompleks yondashuv talab qilinadi. Bu esa, o‘z navbatida, ijtimoiy guruhlar, qo‘llab-

quvvatlovchi dasturlar, maslahat xizmatlari va faoliyatni rag‘batlantiruvchi tadbirlarni tashkil etishni o‘z ichiga oladi.

Yolg‘izlikka qarshi kurashish orqali keksalarning ruhiy salomatligini yaxshilash, ularning hayotdan qoniqish darajasini oshirish va ijtimoiy izolyatsiyaga tushib qolishdan himoya qilish mumkin. Shu tariqa, yolg‘izlikning salbiy ta'sirlarini kamaytirish nafaqat keksalarning, balki butun jamiyatning farovonligiga xizmat qiladi.

Keksalar bilan ijtimoiy sohada ishlash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishning dolzarbligi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- Birinchidan, zamonaviy sharoitlarda keksalar uchun ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni tashkil etish bo‘yicha ijtimoiy xizmat ko‘rsatish muassasalari rolining ortishi bilan bog‘liq;

- Ikkinchidan, ijtimoiy xodim — bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri mijoz bilan muloqot qiladigan, uning muammolarini biladigan va yordam berishga harakat qiladigan shaxsdir;

- Uchinchidan, keksalarni aniqlash, ularning muammolarini belgilash va ularni bartaraf etish uchun eng samarali usullarni qo‘llash zarurati tug‘ilmoqda[1].

Ushbu mavzuning dolzarbligi shundaki, yolg‘iz qariyalarning ijtimoiy muammolarini aniqlash va ushbu toifadagi fuqarolar bilan ijtimoiy ish olib borishda yangi texnologiyalarni joriy etishdan iborat. Ijtimoiy xodimlar va yaqinlarining vazifasi — gerontopsixologiyani bilish va tushunish orqali yolg‘iz keksalarga imkoni boricha moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash va hurmat ko‘rsatishdan iborat [2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qarish jarayonining ritmi keksa yoshdagi odamlarning hayot tarzi, oiladagi o‘rni, turmush darajasi, mehnat sharoitlari, ijtimoiy va psixologik omillarga bog‘liq. Qariyalar bilan ishlash uchun ularning ijtimoiy holatini, ruhiy xususiyatlarini, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini bilish kerak va bu faoliyatda sotsiologik, ijtimoiy-psixologik va boshqa turdagi tadqiqotlar ma’lumotlariga asoslanish lozim.

Keksalik davrida qarishning realligi yolg‘izlikning ko‘plab sabablarini keltirib chiqaradi. Eski do‘stlarning hayotdan ko‘z yumishi keksa inson uchun og‘ir zarba, shunday bo‘lsada inson yashashda davom qilishi lozimligi haqidagi fikr ko‘pincha yetarli tasalli bermaydi. Farzandlar katta bo‘la boshlagach ota-onalaridan uzoqlashadi, ba’zan faqat jismoniy jihatdan emas, ko‘pincha shaxsiy muammolari va munosabatlari bilan shug‘ullanish zarurligidan kelib chiqib, emotsional tarzda ham uzoqlashadilar. Keksa shaxslarda qarilik bilan birga sog‘liqning yomonlashuvi va o‘limdan qo‘rqish tufayli yuzaga keladigan qo‘rquv va yolg‘izlik paydo bo‘ladi.

Atrof - muxitga yaxshi moslashish uchun insonning shaxsan bog‘langan yaqin kishisi ham, keng do‘stlar doirasi ham bo‘lishi lozim. Ushbu turdagi munosabatlardan har birining yetishmasligi keksa yoshdagi insonlarda emotsional yoki ijtimoiy yolg‘izlikka olib kelishi mumkin.

Barcha tadqiqotchilar yolg‘izlikni umumiy ma’noda insonning odamlar jamoasidan, oiladan, tarixiy reallikdan, tabiatning uyg‘un dunyosidagi bog‘lanishlaridan uzilganligi tuyg‘usi bilan bog‘lashadi. Ammo bu keksalar yolg‘iz yashasalar, albatta, yolg‘izlik hissini boshdan kechiradilar, degani emas. Inson odamlar ichida yoki oila davrasida bo‘lgan holda ham o‘zini yolg‘iz his qilishi mumkin. Keksa insonlar orasidagi yolg‘izlik ko‘pincha do‘stlar va bolalar bilan ijtimoiy munosabatlarning kamayishi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, hamisha ham ayni shu ma’noda tushunilmaydi.

Perlan va uning hamkasblari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shunday natijalarni ko‘rsatdiki, qarindoshlari bilan yashayotgan keksa yolg‘izlar orasida yolg‘izlik hissi yolg‘iz yashaydigan qariyalarga nisbatan ancha yuqori bo‘lishi mumkin. Ma’lum bo‘lishicha, do‘stlar yoki qo‘shnilar bilan bo‘lgan ijtimoiy aloqalar qarindoshlar bilan bo‘lgan aloqalarga nisbatan inson farovonligiga ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi[3].

Do‘stlar va qo‘shnilar bilan aloqalar keksalarning yolg‘izlik hissini pasaytiradi, shuningdek, ularga o‘zini kerakli, hurmatga sazovor deb his qilish imkonini beradi. Keksalar yolg‘izligining darajasi va uning sabablari yosh guruhlariga ko‘ra farq qiladi. 80 yosh va undan katta bo‘lganlar «yolg‘izlik» tushunchasini boshqa yosh guruhlaridan boshqacharoq qabul qiladilar. Qariyalar uchun yolg‘izlik ijtimoiy aloqalarning yo‘qligi bilan emas, balki mehnatga layoqatsizlik yoki harakatlanish imkoniyati cheklanganligi tufayli faoliyatning pasayishi bilan bog‘liq.

Tadqiqot metodologiyasi. Inson hayotida qarilik ko‘pincha yordam va qo‘llab-quvvatlash talab etadigan davr bo‘lib qoladi. Buning ichida bir asosiy muammo yotadi: o‘z qadr-qimmatini his qilish, mustaqillik va o‘zini hurmat qilishga qarshi qo‘yiladigan yordam ularni amalga oshirishga to‘sqinlik qilishi mumkin. Yashash muddatini uzaytirish mustaqillikdan voz kechishga yetarli mukofot bo‘lishi mumkin.

Yolg‘izlikning yana bir tomoni bor, bunda ko‘proq erkaklar ayolardan ko‘ra ko‘proq jabr chekadilar. Bu, jismoniy faollik pasayishi bilan birga, intellektual faollik tufayli kelib chiqadigan yolg‘izlikdir. Ayollar nafaqat erkaklardan uzoqroq yashaydilar, balki umumiy holatda qarishning ta’siriga kamroq uchraydilar ham.

Keksa ayollar odatda uy ishlariga cho‘mgan holda yolg‘izlikdan chetlanishni erkaklarga nisbatan osonroq uddalaydilar: “mehnatkash ari qayg‘urishga vaqt topolmaydi”. Keksa ayollarning ko‘pchiligi uy yumushlariga cho‘mgandek, ularga ko‘p vaqt sarflaydilar, erkaklar esa kamdan-kam bunday qilishi mumkin. Nafaqaga chiqqanidan keyin erkaklar qiladigan ishlar soni kamayadi, ayolining yumushlari esa sezilarli darajada ortib boradi. Nafaqaga chiqqan erkak o‘zining “asosiy oilani ta’min etuvchi” rolini yo‘qotsa, ayol uy bekasi sifatidagi vazifalaridan ajralmaydi. Erkak nafaqaga chiqqanidan keyin ayol uy xo‘jaligini yuritishda xarajatlarni qisqartiradi, uning sog‘lig‘i yomonlashadi va yashash uchun kuchi pasayadi.

Yosh o‘tishi bilan ayollar yelkasiga tushadigan yuk an’anaviy yosh farqi sababli kuchayadi. Keksa yoshdagi ayollar nafaqat o‘z sog‘lig‘i haqida qayg‘urishlari kerak, balki erlarining sog‘lig‘i haqidagi g‘amxo‘rlikni ham o‘z zimmalariga olishadi va bu qarish jarayonida yanada kuchayadi. Ayol o‘zini "ona roliga" qaytargandek bo‘ladi, endi esa bu rolini turmush o‘rtog‘iga nisbatan bajaradi. U erining vaqtli shifokorga borishini, parhezini, davolanishini nazorat qilish va uning faoliyatini muvofiqlashtirish vazifalarini ham bajara oladi. Shu sababli, oila keksa yoshdagi erkaklar uchun ayollarga nisbatan ko‘proq foydali bo‘ladi.

Shunday qilib, ayollar yolg‘izlikka kamroq moyildirlar, chunki ularning ijtimoiy rollari o‘rtacha erkak rollariga nisbatan ko‘proqdir.

Tadqiqotlarga ko‘ra, beva qolgan erkaklar turmush qurgan erkaklarga nisbatan ko‘proq yolg‘izlikni his qilishadi, ammo nikohdagi va beva qolgan ayollar orasida yolg‘izlik hissida sezilarli farq aniqlanmagan. Turmush qurgan erkaklar va ayollar yakka yashaydiganlarga nisbatan yolg‘izlikka kamroq moyil, lekin bu ta’sir erkaklarda ayollarga qaraganda kuchliroq sezilgan. Yolg‘iz erkaklar yolg‘izlikdan eng ko‘p aziyat chekuvchi guruhga kirar ekan, oilali erkaklar esa yolg‘izlikni eng kam his qiluvchi guruhga mansub bo‘lishgan. Oilali va yolg‘iz yashaydigan ayollar esa bu ikki guruh o‘rtasidagi o‘rtacha holatni egallashgan[4].

Bu natijalar keksa yoshdagi erkak va ayollarning bo‘sh vaqtni tashkil etishdagi farqlari bilan qisman tushuntiriladi. Natijalarga ko‘ra, yolg‘iz erkaklarning uchdan ikki qismi o‘z vaqtini yakka bajariladigan ishlarda o‘tkazgan bo‘lsa, yolg‘iz ayollarning uchdan ikki qismidan ko‘prog‘i bo‘sh vaqtini turli ijtimoiy faoliyatlarga bag‘ishlaydi.

Yolg‘iz keksalarga yordam ko‘rsatishda ularni yolg‘izlikka olib keluvchi omillarning xilma-xilligini hisobga olish zarur. Do‘stlik aloqalari, ijtimoiy muhit va shaxsiy faoliyat yolg‘iz keksalarga yordam ko‘rsatishda tibbiy aralashuvga muqobil bo‘la oladi. Yolg‘iz odamlarga yordam berish uchun ba’zan shaxsning o‘zini emas, balki u yashayotgan atrof-muhitini o‘zgartirish maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar. Yolg‘izlik muammosini hal qilishda keksa yoshdagi kishilar uchun ijtimoiy reabilitatsiya va ijtimoiy yordam tizimlarining ahamiyati katta. Ijtimoiy reabilitatsiya bu aholi guruhining jamiyatda munosib hayot kechirishini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy, huquqiy, kasbiy va boshqa chora-tadbirlar majmuasini o‘z ichiga oladi.

Keksalik va qariyalik davrida yolg‘izlikning ortib boruvchi tendensiyalari bu muammoni yanada kuchaytirib, uni chuqur o‘rganishni nafaqat tibbiyot xodimlari, balki sotsiologlar, demograflar, iqtisodchilar va psixologlar tomonidan ham o‘rganishni muhim qiladi.

Keksalarning yolg‘izligi - bu aholi o‘rtasida keksalar ulushining ortib borishi bilan bog‘liq muhim ijtimoiy muammo bo‘lib, u ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda dolzarb demografik tendensiyaga aylanmoqda. Bunday dinamika, avvalo, sog‘liqni saqlash sohasidagi yutuqlar bilan bog‘liq: tibbiyotdagi muvaffaqiyatlar, xavfli kasalliklarni nazorat qilish va hayot sifati ortishi odamlarning o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini oshirishga yordam beradi.

Biroq, keksa yoshdagi odamlar sonining ortishi ko‘pincha ijtimoiy va psixologik qiyinchiliklar, jumladan yolg‘izlik bilan kechadi, bu ularning emotsional va jismoniy farovonligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Keksalikdagi yolg‘izlik yaqinlarini yo‘qotish, faollikning pasayishi, shuningdek, ijtimoiy aloqalarning cheklanishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu omillar keksalarni ijtimoiy izolyasiyaga nisbatan ko‘proq himoyasiz qilib qo‘yadi va bu ularning hayotdan umumiy qoniqish darajasining tushib ketishiga hamda salomatlik muammolarining kuchayishiga olib keladi.

Ushbu muammoni samarali hal etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi, jumladan, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlarini rivojlantirish, tibbiy va psixologik xizmatlarning mavjudligini yaxshilash, shuningdek, keksalarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Социальная работа с пожилыми людьми: Настольная книга специалиста по социальной работе. – Москва: Институт социальной работы., 1996 г.
2. Социальная геронтология. // Под общ. Ред. Р.С. Яцемирской – Москва, 1998 г.
3. Покровский Н.Е. Лабиринты одиночества.-М.: 1989. С. 14
4. Холостова Е.И. Социальная работа с пожилыми людьми: Учебное пособие. – М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2002. – 296с.
5. Urazbaeva, D. (2023). Psixosomatik kasalliklarda bemorlar bilan psixologik tadbirlar olib borish zarurati. *TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi*, *1*(2), 189-192.

TALABALAR MA’NAVIYTIDA MILLIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Marxabo Xakimova,
O‘zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy texnologiyalarning milliy qadriyatlarimizni avlodlarga yetkazish hamda milliy qadriyatlarimiz haqida ma’naviy tushunchalarni yoshlar ongida kengaytirishdagi o‘rni haqida ma’lumotlar yoritiladi. Shuningdek, ma’naviy qadriyatlarimizni o‘rganish yoshlarga mana’viy salohiyatni tarkib topishi uchun xizmat qilishi haqidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlari: *texnalogiyaning o‘rni, ma’naviyat, milliy qadriyat, tafakkur, ma’naviy qadriyat, milliy ong.*

Аннотация

В данной статье рассматривается роль современных технологий в передаче наших национальных ценностей будущим поколениям и расширении духовного понимания наших национальных ценностей в сознании молодежи. В нем также говорится, что изучение наших духовных ценностей помогает молодым людям развивать свой духовный потенциал.

Ключевые слова: *роль технологии, духовность, национальная ценность, мышление, духовная ценность, национальное сознание.*

Abstract

This article provides information on the role of modern technologies in conveying our national values to generations and expanding spiritual understandings of our national values in the minds of young people. It also provides information on how studying our spiritual values helps young people to develop their spiritual potential.

Keywords: *the role of technology, spirituality, national value, thinking, spiritual value, national consciousness.*

Muammolarni aniqlash va ularning yechimlari bo‘yicha tizimli choralarni amalga oshirish, dual ta’lim modelini maktabgacha ta’lim tizimida samarali joriy etishga va ta’lim-ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Dual ta’lim modelini maktabgacha ta’lim tashkilotlarida joriy etish va uning innovasion boshqaruv mexanizmlari orqali rivojlanishi sohada tubdan yangiliklar kiritish imkonini beradi. Bu mexanizm bir necha yo‘nalishda yuqori natijalarga erishish uchun zamin yaratadi, jumladan, ta’lim sifatining oshishi, kadrlar tayyorlashning mehnat bozori talablariga moslashuvchanligi va global raqobatbardoshlikni kuchaytirish. Ta’lim sifati oshishi borasida, dual ta’lim modeli maktabgacha ta’lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish orqali bilim va ko‘nikmalarning sifatli o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Innovasion yondashuvlar ta’lim jarayonidagi an’anaviy usullardan farqli ravishda ta’lim berishga interaktiv, amaliy va tadqiqotga asoslangan yondashuvlarni qo‘shish imkonini beradi. Bu esa bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olib, ta’limning ta’sirchanligini oshiradi. Pedagog va rahbarlarning malakasini oshirish dual ta’limning eng muhim yutuqlaridan biri hisoblanadi. Amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuv, xususan, rahbar va pedagoglarga zamonaviy boshqaruv uslublarini qo‘llash va ta’lim jarayonini yuqori samaradorlik bilan tashkil qilish imkonini yaratadi. Bu jarayonda pedagoglar zamonaviy ta’lim vositalari va metodlari bo‘yicha amaliyotda zarur bo‘lgan bilimlarni o‘zlashtiradi, shuningdek, rahbarlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ta’lim va ishlab chiqarishning integratsiyasi mehnat bozori ehtiyojlariga javob beradigan kadrlar tayyorlash jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshishini ta’minlaydi. Bu jarayonda ish beruvchilar va ta’lim muassasalari o‘rtasida hamkorlik munosabatlari rivojlanadi, bu esa tayyorlanayotgan kadrlarning amaliyotga yo‘naltirilganligini oshiradi. Ishlab chiqarish tarmoqlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar o‘quv jarayonini boyitib, bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Innovasion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali maktabgacha ta’lim tizimini raqobatbardosh modelga aylantirish ehtimoli yuqori. Bu mexanizm xalqaro standartlarga mos keluvchi ta’lim tizimini rivojlantirish imkonini beradi. Jahon standartlariga muvofiq ta’lim berish nafaqat ichki, balki xalqaro bozorlarda ham kadrlarning talabgorligini ta’minlaydi. Bundan tashqari, raqobatbardosh tizimning yaratilishi ta’limning barcha bosqichlarida yuqori natijalarga erishish uchun mustahkam asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, dual ta’lim modelini maktabgacha ta’lim tashkilotlariga joriy etish ta’lim va boshqaruv tizimlarini sifatli o‘zgarishlarga olib keladi. Innovasion mexanizmlarning samarali joriy etilishi kadrlar tayyorlash va ta’lim jarayonini zamonaviy talablarga moslashtirishni, shuningdek, mehnat bozoriga integratsiyani ta’minlaydi.

Dual ta’lim va innovasion boshqaruv mexanizmlarini joriy qilish jarayonini samarali tashkil etish uchun quyidagi ilmiy va amaliy takliflar taklif etiladi:

- **Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish.** Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish uchun maktabgacha ta’lim muassasalarini zamonaviy multimedia vositalari va interaktiv platformalar bilan ta’minlash kerak. Masalan, bolalar uchun interaktiv dars materiallarini yaratish, pedagoglar uchun onlayn malaka oshirish kurslarini joriy qilish muhimdir.

- **Ishlab chiqaruvchi tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlari va ish beruvchilar o‘rtasida sheriklik aloqalarini kuchaytirish uchun maxsus dastur va kelishuvlar ishlab chiqilishi kerak. Amaliyot jarayonlari ish o‘rinlarida tashkil qilinishi pedagoglarga real sharoitlarda ishlash ko‘nikmasini oshirish imkonini beradi.

- **Innovasion boshqaruv kurslarini tashkil qilish.** Maktabgacha ta’lim rahbarlari va pedagoglari uchun innovasion boshqaruv bo‘yicha maxsus malaka oshirish dasturlari va treninglarini yo‘lga qo‘yish zarur. Bu kurslarda strategik boshqaruv, resurslarni samarali taqsimlash va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash kabi mavzular qamrab olinadi.

- **Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.** Germaniya, Shveysariya va Yaponiya kabi mamlakatlarning dual ta’limdagi ilg‘or tajribasini mahalliy sharoitlarga moslashtirish va xalqaro grantlar yordamida loyihalarni amalga oshirish tavsiya etiladi.
- **Mehnat bozoriga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari.** Ta’lim dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish maqsadida ish beruvchilar bilan birgalikda o‘quv rejalarini ishlab chiqish zarur. Bu, ayniqsa, pedagoglar va rahbarlar uchun zarur bo‘lgan amaliyot va nazariya uyg‘unligini ta’minlaydi.

Dual ta’lim modelini maktabgacha ta’lim tizimida joriy etish innovasion boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishning samarali yo‘li hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, ishlab chiqaruvchi tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, pedagog va rahbarlar uchun malaka oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish orqali ushbu model o‘zini oqlaydi. Xalqaro tajribaga tayanish va milliy sharoitlarga moslashish jarayonidagi muvaffaqiyat ta’lim tizimini global raqobat muhitida ustunlikka olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni. https://lex.uz/docs/5013007
2. "2030 yilgacha O‘zbekistonda ta’limni rivojlantirish strategiyasi". https://lex.uz/docs/4673830
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. "Maktabgacha ta’lim muassasalarini boshqarishni takomillashtirish dasturi". https://www.mpe.uz
4. Muslimov, N.A. "Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari". https://diss.natlib.uz/uz/ResearchWork/Details/1123
5. Mirzaxmedov, B.M., Olimov, Q.T. "Kasb-Hunar Ta'limi Tizimida Maxsus Fanlardan O‘quv Adabiyotlarining Yangi Avlodini Yaratish Muammolari." Uzluksiz Ta'lim, 2004.

MAKTABGACHA TA’LIM PEDAGOGLARI O‘RTASIDA IJTIMOIY HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TRENINGLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Oydina Otabayeva,
Nordik xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya

Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining kasbiy kompitentligini treninglar vositasida rivojlantirish, zamonaviy ta’lim texnologiyalari va metodlari asosida shaxsiy rivojlanish, kasbiy rivojlanish, jamoaviy ishlashlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish, bolalarning rivojlanish xususiyatlarini chuqurroq anglash, ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish nafaqat pedagoglarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga, balki ta’lim jarayonining umumiy samaradorligiga ham ta’sir ko‘rsatishi ushbu maqolada yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, pedagog, trening, kasbiy rivojlanish, ijtimoiy hamkorlik, zamonaiy ta’lim.*

Аннотация: *развитие профессиональной компетентности педагогов дошкольной образовательной организации средствами тренингов, личностного развития на основе современных образовательных технологий и методов, профессионального развития, коллективной работы, освоения современных педагогических технологий, более глубокого понимания особенностей развития детей, развития социального взаимодействия оказывает влияние не только на личностное и профессиональное развитие педагогов, но и на общую эффективность образовательного процесса, о чем рассказано в данной статье.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, педагог, обучение, профессиональное развитие, социальное сотрудничество, современное образование.*

Annotation: *Development of professional competence of Educators of the preschool educational organization through training, personal development based on modern educational technologies and methods, professional development, teamwork, mastering modern pedagogical technologies, deeper understanding of the features of children’s development, the development of social cooperation affects not only the personal and professional development of educators, but also the overall effectiveness of the educational process.*

Keywords: *preschool education, educator, training, professional development, social cooperation, modern education.*

Bugungi kunda ta’lim tizimini takomillashtirish, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini oshirish va jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirish global miqyosda muhim ahamiyatga ega masalalardan biriga aylandi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tizimida ishlaydigan pedagoglar uchun ijtimoiy hamkorlik muhitini shakllantirish nafaqat ularning faoliyatining samaradorligini oshirish, balki bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki maktabgacha ta’lim tizimida bolaning shaxsiy rivojlanishi uchun mas’ul bo‘lgan pedagoglarning bir-biri bilan ijtimoiy munosabatlari, o‘zaro aloqa va hamkorligi ularning ish jarayonida o‘z vazifalarini samarali bajarishlarini ta’minlaydi. Bu jarayonda esa treninglar ta’sirchan vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Treninglar ta’lim tizimida turli yo‘nalishlarda samarali vosita sifatida foydalaniladi. Ular nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamoada ishlash, o‘zaro ishonchni shakllantirish va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish uchun ham muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy trening texnologiyalari pedagoglarning ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirishda qator imkoniyatlar yaratadi. Jumladan, treninglar orqali pedagoglar jamoaviy ish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar, turli ijtimoiy vaziyatlarda samarali muomala qilishni o‘rganadilar va umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda harakat qilish muhimligini anglaydilar. Bu esa maktabgacha ta’lim tashkilotlarida barqaror ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi [2, 32].

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari o‘rtasida ijtimoiy hamkorlikni shakllantirishda qator omillar muhimdir. Bular qatoriga jamoaviy ish qobiliyati, o‘zaro ishonch va o‘zaro muloqot madaniyati, hamkorlik muhitini shakllantirish kabi jihatlar kiradi. Aynan mana shu jihatlar pedagoglarning kasbiy faoliyatining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish uchun treninglarning o‘rnini o‘rganish, ularning metodik asoslarini ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llashning samaradorligini baholash bugungi kunning dolzarb ilmiy masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Treninglar orqali ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish nafaqat pedagoglarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga, balki ta’lim jarayonining umumiy samaradorligiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, treninglar jarayonida pedagoglar jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallaydilar. Shuningdek, treninglar ularning o‘zaro ishonch va aloqa madaniyatini oshirishga yordam beradi. Bu esa jamoa a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash va ish jarayonidagi samaradorlikni oshirish uchun muhim ahamiyatga ega [1, 21].

Treninglarning ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishdagi samaradorligi qator ilmiy tadqiqotlar va amaliyotdagi tajribalar asosida o‘z tasdig‘ini topgan. Masalan, rolli o‘yinlar, interaktiv mashg‘ulotlar, keys tahlillari kabi trening shakllari pedagoglar o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Bu usullar pedagoglarga turli ijtimoiy vaziyatlarda o‘zlarini qanday tutishni o‘rgatadi, jamoada ishlash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantiradi va ularning ijtimoiy kompetentligini oshiradi.

Ijtimoiy hamkorlik tushunchasi ijtimoiy munosabatlar tizimida muhim o‘rin tutadi. Bu tushuncha ko‘p qirrali bo‘lib, turli sohalarda, jumladan, ta’lim, ishlab chiqarish, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarda qo‘llaniladi. Ta’lim tizimida ijtimoiy hamkorlik, ayniqsa, jamoa a’zolari o‘rtasida o‘zaro ishonch, samarali muloqot va birgalikdagi faoliyat orqali umumiy maqsadlarga erishish jarayonini anglatadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari o‘rtasida ijtimoiy hamkorlik nafaqat jamoada ishlash samaradorligini oshirish, balki bolalar ta’lim-tarbiyasi jarayonini yuqori darajada tashkil etish uchun ham muhimdir [4, 13].

Ijtimoiy hamkorlik – bu jamoa a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, hamkorlik qilish va umumiy maqsadlar yo‘lida birlashish jarayonidir. Ijtimoiy hamkorlik doirasida quyidagi muhim jihatlar ajralib turadi [5, 10]:

- **O‘zaro ishonch**: Jamoa a’zolari o‘rtasida ishonchli munosabatlar shakllanishi faoliyatning samaradorligini ta’minlaydi.
- **Samarali muloqot**: Fikr almashish, muammolarni birgalikda hal qilish va jamoadagi aloqalarni yaxshilash jarayoni ijtimoiy hamkorlikning ajralmas qismidir.

- **Jamoaviy mas’uliyat**: Har bir a’zo umumiy maqsadga erishish uchun o‘z mas’uliyatini his etib, jamoa uchun ishlaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari o‘rtasida ijtimoiy hamkorlik quyidagi masalalarda muhim ahamiyatga ega:

- **Bolalar ta’limida birdamlikni ta’minlash**: Pedagoglar o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlik bolalar ta’lim-tarbiyasida yaxlit yondashuvni ta’minlaydi.
- **Maqsadli ish rejalarini ishlab chiqish**: Jamoa a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar yaxshilanganida maqsadlar aniq va to‘g‘ri qo‘yilib, ularga erishish strategiyasi samaraliroq bo‘ladi.
- **Munosabatlarda ziddiyatlarni kamaytirish**: Ijtimoiy hamkorlik muhitida ziddiyatlar kamayadi, chunki jamoa a’zolari o‘zaro murosa va hamkorlik qilishga o‘rganadilar.
- **Innovatsiyalar kiritish**: Maktabgacha ta’limda ijtimoiy hamkorlik yangi pedagogik texnologiyalar va yondashuvlarni joriy etishga sharoit yaratadi.

Treninglar ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ular quyidagi jihatlarda ijtimoiy munosabatlarni yaxshilaydi:

- **Tajriba asosida o‘rganish**: Treninglar jarayonida pedagoglar real vaziyatlarda hamkorlik qilishni amalda o‘rganadilar.
- **O‘zaro muloqot va aloqa madaniyatini shakllantirish**: Treninglar orqali pedagoglar o‘zaro munosabatlarni yaxshilash, muloqotni samarali tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.
- **Jamoaviy mas’uliyatni kuchaytirish**: Treninglar jamoa a’zolarining umumiy vazifalarga mas’uliyat bilan yondashishlarini rag‘batlantiradi.

Shunday qilib, treninglar ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ular jamoa a’zolari o‘rtasida o‘zaro ishonchni shakllantirish, samarali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish va jamoada hamkorlik muhitini yaratishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari uchun treninglar ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishdagi asosiy platforma sifatida xizmat qiladi. Quyida treninglarning ijtimoiy hamkorlikka ta’siri batafsil yoritiladi [3, 12].

1. O‘zaro ishonchni mustahkamlash

Ijtimoiy hamkorlikning asosiy tarkibiy qismi — bu jamoa a’zolari o‘rtasidagi ishonchdir. Treninglar jarayonida ishtirokchilar bir-birlari bilan yaqinroq tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Birgalikdagi mashg‘ulotlar, simulyatsiyalar va rolli o‘yinlar orqali ular o‘zaro ishonchli munosabatlarni shakllantiradilar.

2. Samarali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish

Ijtimoiy hamkorlik muloqotsiz imkonsiz. Treninglar pedagoglarga muloqotning turli shakllarini o‘rganish, o‘zaro fikr almashish va muloqotda muvaffaqiyatli strategiyalarni o‘zlashtirishga imkon beradi.

3. Jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish

Jamoaviy ishlash ijtimoiy hamkorlikning eng muhim jihatlaridan biridir. Treninglar orqali pedagoglar guruhda ishlash, mas’uliyatni bo‘lishish va umumiy maqsadga erishish uchun harakat qilishni o‘rganadilar.

4. Maqsadli hamkorlik muhitini yaratish

Treninglar orqali ijtimoiy munosabatlarning sifatini oshirish mumkin. Ularda ishtirok etgan pedagoglar bir-birlarini yaqindan bilishadi, turli vaziyatlarda birgalikda ishlashni o‘rganadilar va ish muhitini yaxshilashga hissa qo‘shadilar.

5. Ziddiyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish

Ijtimoiy hamkorlik jarayonida ziddiyatlar paydo bo‘lishi mumkin. Treninglar pedagoglarga bu kabi ziddiyatlarni samarali hal qilish, murosa topish va jamoaviy munosabatlarni saqlab qolish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

6. Innovatsion yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlash

Treninglar orqali ijtimoiy hamkorlik jarayonida innovatsion yondashuvlar kiritilishi mumkin. Pedagoglar yangi g‘oya va yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni jamoada qo‘llash ko‘nikmasini shakllantiradilar.

7. Emotsional barqarorlikni ta’minlash

Treninglar emotsional barqarorlikka ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Pedagoglar stress holatlarini boshqarishni o‘rganadilar va jamoa muhitidagi tenglikni saqlashga intiladilar.

8. O‘zaro qo‘llab-quvvatlash muhitini shakllantirish

Ijtimoiy hamkorlik jamoadagi har bir a’zoning bir-birini qo‘llab-quvvatlash qobiliyatiga asoslanadi. Treninglar orqali pedagoglar o‘zaro qo‘llab-quvvatlashning ahamiyatini tushunadilar va buni amalda qo‘llaydilar.

Treninglar ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ular orqali pedagoglar o‘zaro ishonchli munosabatlar o‘rnatish, jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, ziddiyatlarni samarali hal qilish va emotsional barqarorlikni ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shunday qilib, treninglar nafaqat kasbiy rivojlanish, balki ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash uchun ham keng imkoniyat yaratadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida treninglarni muntazam o‘tkazish orqali ijtimoiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Vatutina N.D. Pedagogicheskoye obiyeniye vajneysheye sredstvo gumanizasii pedagogicheskogo prosessa v detskom sadu // Gumanizatsiya pedagogicheskogo prosessa doshkolnogo uchrejdeniya: Mejvuz. sb. nauch. tr. Magnitogorsk: MGPI, 1995. - S. 15-21.

2. Yermentayeva A.R. Professionalno-pedagogicheskiy trening kak sredstvo podgotovki uchiteley nasionalnix shkol k pedagogicheskomu obiyeniyu: dis. ...kand. ped. nauk/ A.R. Yermentayeva. -M, 1995.

3. Jukov Yu.M. Trening kak metod sovershenstvovaniya kommunikativnoy kompetentnosti: dis. ... d-r. psix, nauk / Yu.M.Jukov. - Moskva, 2003.-356 s.

4. Ibragimova Ye.V. Trening kak pedagogicheskaya podderjka lichnostnogo samoopredeleniya studentov vuza: dis. ...kand. ped. nauk / Ye.V. Ibragimov. - Orenburg, 2007.

5. Igri obucheniye, trening, dosug./ Pod red. V.V. Petrusin-skogo. V semi kn. Kn. 6. Na puti k sovershenstvu. Kn. 7. Iskusstvo ekspromta. - M.: Gumanit. syentr "Enrof", 1995. - 88 s.

PREVENTIV CHORA-TADBIRLAR ASOSIDA KASBIY TA’LIM MUASSASALARI O‘QUVCHILARINING KASBIY-AXLOQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Ilxomjon Sirojidinov,
Professional ta’limni rivojlantirish institut mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada preventiv chora-tadbirlar asosida kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilarining kasbiy-axloqiy madaniyatini shakllantirish metodikasi tahlil qilinadi. Kasbiy-axloqiy madaniyat shaxsning kelajakdagi professional faoliyatida muhim omil bo‘lib, uning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi o‘rni beqiyosdir. Tadqiqotda kasbiy-axloqiy madaniyat tushunchasi, uning tarkibiy qismlari va rivojlantirish yo‘llari ilmiy asosda o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada preventiv chora-tadbirlarning samaradorligi va kasb-hunar ta’limi muassasalarida bu jarayonni tashkil etish bo‘yicha ilg‘or metodik yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari preventiv pedagogik chora-tadbirlarning kasbiy-axloqiy madaniyatni shakllantirishdagi o‘rnini aniqlashga hamda kasbiy axloq normalariga asoslangan o‘quv muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Kasbiy ta’lim, kasbiy-axloqiy madaniyat, preventiv chora-tadbirlar, kasbiy etika, ijtimoiy-pedagogik yondashuv, kasbiy madaniyat, pedagogik texnologiyalar.*

Аннотация

В данной статье анализируется методика формирования профессионально-нравственной культуры учащихся профессиональных образовательных учреждений на основе превентивных мер. Профессионально-нравственная культура является важным фактором будущей профессиональной деятельности личности, ее роль в общественно-трудовых отношениях неоценима. В исследовании научно изучено понятие профессионально-нравственной культуры, ее составляющие и пути развития. Также в статье рассматривается эффективность превентивных мер и передовые методические подходы к организации

этого процесса в профессиональных образовательных учреждениях. Результаты исследования служат выявлению места превентивных педагогических мер в формировании профессионально-нравственной культуры, а также созданию образовательной среды, основанной на нормах профессиональной этики.

Ключевые слова: *профессиональное образование, профессионально-нравственная культура, превентивные меры, профессиональная этика, социально-педагогический подход, профессиональная культура, педагогические технологии.*

Annotation

This article analyzes the methodology for the formation of professional and moral culture of students of vocational education institutions on the basis of preventive measures. Professional and moral culture is an important factor in the future professional activity of an individual, and its role in social and Labor Relations is incomparable. In the study, the concept of professional-moral culture, its components and ways of development are studied on a scientific basis. The article also examines the effectiveness of preventive measures and advanced methodological approaches to the organization of this process in vocational training institutions. The results of the study serve to determine the place of preventive pedagogical measures in the formation of a professional-moral culture, as well as to create an educational environment based on the norms of professional ethics.

Keywords: *professional education, professional-moral culture, preventive measures, professional ethics, social-pedagogical approach, professional culture, pedagogical technologies.*

Zamonaviy kasb-hunar ta’limi tizimi nafaqat kelajak mutaxassislarini kasbiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga, balki ularning shaxsiy va axloqiy jihatdan yetuk inson bo‘lib shakllanishiga ham xizmat qilishi lozim. Chunki bugungi mehnat bozorida nafaqat kasbiy bilim va mahorat, balki shaxsning kasbiy-axloqiy madaniyati, mas’uliyat, halollik, tartiblilik, mehnatsevarlik, jamoa bilan ishlash qobiliyati kabi fazilatlari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kasbiy ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning kasbiy-axloqiy madaniyatini shakllantirish jarayoni turli omillarga bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda preventiv chora-tadbirlar muhim o‘rin tutadi. Preventiv yondashuv orqali o‘quvchilarning axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish, huquqbuzarliklarning oldini olish va ular orasida ijobiy xulq-atvorni shakllantirish mumkin. Bu borada, ayniqsa, kasbiy faoliyatga oid ma’naviy-me’yoriy talablarga rioya qilish, kasb odob qoidalarini tushuntirish va real kasbiy muhitda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Mazkur maqolada preventiv chora-tadbirlar asosida kasbiy ta’lim muassasalari o‘quvchilarining kasbiy-axloqiy madaniyatini shakllantirish metodikasi tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida kasbiy-axloqiy madaniyat tushunchasi, uning tarkibiy qismlari, rivojlantirish yo‘llari, shuningdek, bu boradagi ilg‘or pedagogik texnologiyalar va metodik yondashuvlar ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi.

Ijtimoiy-pedagogik loyihalashning afzalligi shundaki, u o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshiradi, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘zini namoyon qilish va o‘zini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Bu preventive chora-tadbirlarni tashkil etishga, ya’ni bu faoliyatni o‘quvchilarning shaxsiy ahamiyatga ega faoliyatiga aylantirishga imkon beradi [2, 12].

Biz tomonidan ishlab chiqilgan modeliga asos sifatida xizmat qildi, uning tuzilmasi quyidagi komponentlardan iborat: maqsadli, sub’yektiv, motivatsion, tashkiliy-metodik, mazmuniy, jarayoniy (faoliyat), baholovchi-natijaviy. Modelni yaratish jarayonida o‘quvchilarda kasbiy-axloqiy madaniyatni shakllantirish imkoniyatlari va uning sifatini oshirish zaxiralari aniqlab olindi. Ushbu modelda profilaktik antinarkotik faoliyatning asosiy xususiyatlari, muhim sifatlari va komponentlari aks ettirilgan bo‘lib, ular loyihalash faoliyati davomida amalga oshiriladi. Tajriba-sinov ishi orqali tashkil etilayotgan profilaktik faoliyatning muvaffaqiyat darajasi hamda ushbu faoliyatda ishtirok etishning o‘quvchilarda kasbiy-axloqiy madaniyatni shakllantirishga ta’siri baholanadi.

Preventive chora-tadbirlarning sub’yektiv komponenti sifatida yoshlar jamoat birlashmasi, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, ijtimoiy pedagog, pedagog-psixolog, kurator va maslahat kengashi jamoasi qatnashdi. Loyihani amalga oshirishga tibbiyot xodimi, narkolog, OITS markazi mutaxassislari jalb qilindi.

Ta’lim muassasalarida antinarkotik profilaktika faoliyatini tashkil etishda tanlangan yondashuv loyihaning asosiy g‘oyalaridan biriga — faoliyatni o‘quvchi uchun shaxsiy ahamiyatga ega qilishga xizmat qildi.

Yoshlarni loyihada ishtirok etishga jalb qilish uchun hamkorlik va birgalikda boshqaruv tizimi (motivatsion komponent) tashkil etildi. Ijobiy psixologik muhit o‘quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish va amalga oshirishga yordam berdi. Loyihaviy faoliyatda ishtirokchilar, o‘quvchilar va rahbarlar o‘rtasida “teskari aloqa” tizimi (munozara, guruh muhokamasi va boshqalar) tashkil qilindi va foydalanildi. Preventiv chora-tadbirni loyihaviy shaklda tashkil qilish o‘quvchilarning o‘zaro muloqoti orqali ular o‘rtasidagi munosabatlarni faollashtirishga imkon berdi, bu esa kasbiy-axloqiy madaniyatni shakllanishiga motivatsiya usullaridan yana biri bo‘ldi [5, 21].

Kasbiy ta’lim muassasasi o‘quvchilari avval o‘zlari antinarkotik profilaktika faoliyatiga jalb qilingan holda dastlabki tajribani orttirib, keyinchalik ushbu faoliyatni o‘zlari tashkil etish orqali ishtirok etishdi. O‘quvchilar mavjud an’analarni qabul qilibgina qolmay, balki o‘z ijodiy ishlanmalari bilan bu faoliyatni boyitib borishdi. Ushbu mexanizm antinarkotik profilaktika faoliyatining muvaffaqiyat omillaridan birini amalga oshirishni ta’minladi.

O‘quvchilarning antinarkotik profilaktika faoliyati maqsad va vazifalarini anglashlari (maqsadli komponent) uchun dastlab ularda mavjud vaziyat haqida to‘liqroq tasavvur yaratish zarur edi. Shu maqsadda ikkita o‘quv seminari o‘tkazildi.

Birinchi seminarda o‘quvchilar statistik ma’lumotlar va antinarkotik profilaktika faoliyati bilan bog‘liq tushunchalarni tushunish uchun zarur bo‘lgan asosiy ma’lumotlar bilan tanishtirildi. Bu jarayonda o‘quvchilar narkotik nimani anglatishi, yoshlar orasida narkotik moddalarning tarqalish darajasi, uning tibbiy oqibatlari haqida nafaqat ma’lumot olishdi, balki bu mavzularni muhokama qilishdi. O‘quvchilar narkotik moddalarga qaramlikning xavfi va qaytarib bo‘lmas oqibatlari haqida bahslashishdi.[1, 12]

Ikkinchi seminar, olingan ma’lumotlarni mintaqaviy vaziyat bilan bog‘lashga qaratilgan edi. Ular qaram odamlarga yordam berish, to‘g‘ri hayotiy qadriyatlar va ustuvorliklarni belgilash, qaramlikdan voz kechish va sog‘lom turmush tarzini boshlashda yordam berish bilan shug‘ullanadilar. Ushbu uchrashuv quruq statistikani hayotiy ma’lumotga aylantirdi; o‘quvchilarga sog‘liqqa ega bo‘lishning ahamiyatini tushunishga, qaram odam bo‘lishning naqadar murakkab va xavfli ekanini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishga va yana ozod bo‘lish uchun qanday kuchli harakatlar qilish kerakligini eshitishga imkon berdi.

Uchrashuvda hayotiy faktlar, mamlakatimizdagi hozirgi vaziyat, o‘smirlar va yoshlar orasida narkotik moddalardan foydalanish ko‘lami muhokama qilindi.

O‘quv seminarlaridan keyin yig‘ilishi o‘tkazildi va unda “o‘quvchilarga yanada samaraliroq va esda qolarliroq ish shakli bo‘lganini ko‘rsatdi. Bunday suhbatlar zamonaviy yoshlar boshidan kechirayotgan hayotiy vaziyatlarga yaqin bo‘lib, zararli odatlar muammolarini real baholashga imkon berdi.

O‘quvchilarni tengdoshlari orasida antinarkotik faoliyatda ishtirok etishga muvaffaqiyatli rag‘batlantirish ularga loyihaviy faoliyatning o‘ziga xos jihatlari, antinarkotik yo‘nalishdagi ijtimoiy-pedagogik loyihalarni amalga oshirish tajribasi bilan tanishtirishning zarurligini ta’kidladi. Yig‘ilishning asosiy qismi loyiha muammoli sohasini aniqlash va loyihaviy faoliyatning maqsad va vazifalarini belgilash bo‘ldi.

Loyihaviy faoliyatning maqsadi — o‘quvchi yoshlar orasida kasbiy-axloqiy madaniyatni shakllantirish edi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish zarur edi:

1. Narkotizatsiyaning salbiy ta’sirini minimallashtirish, asosiy ta’lim muassasalari o‘quvchilari orasida faol hayot tarziga rag‘batlantirish, ularni ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega faoliyatga jalb qilish.

2. O‘quvchi yoshlar orasida ijtimoiy faollikni rivojlantirish, sog‘lom hayot tarzini shakllantirish va samarali xulq-atvor strategiyasini rivojlantirish uchun sharoit yaratish.


3. Antinarkotik profilaktika faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan asosiy ta’lim muassasalarining (shu jumladan, o‘quvchi jamoat birlashmalarining) resurslarini faollashtirish.

Loyiha ishtirokchilari tomonidan qo‘yilgan maqsad va vazifalar asosiy ta’lim muassasalarida shakllangan vaziyat bilan bog‘liq muhim va hayotiy masala sifatida qabul qilindi. Ushbu vaziyat o‘quvchilarning sog‘lig‘iga mas’uliyatsiz munosabatda bo‘lishi, shaxsiy passivlik, narkotik muammolariga nisbatan befarqlik va narkotikaga moyillikning o‘sishi bilan tavsiflanadi.

Faoliyatning tashkiliy-metodik komponenti loyihaviy faoliyatning mazmunini aniqlash, uning chegaralari, xarakteri, o‘lchami, o‘zaro hamkorlik tuzilmasini belgilash, qo‘yilgan maqsad va vazifalarga erishish

uchun zarur bo‘lgan asosiy bosqichlar va harakatlarni aniqlash; loyiha ishtirokchilarining funksiyalarini belgilashni o‘z ichiga oladi [1, 13].

Antinarkotik profilaktika faoliyati yoshlar birlashmalari va ijtimoiy-pedagogik xizmat tomonidan tashkil etildi, bu faoliyatni kasb-hunar ta’lim muassasasi ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari boshqaradi va muvofiqlashtiradi (1-rasm).



1-rasm. Loyihaviy faoliyat doirasida antinarkotik profilaktika faoliyatini tashkil etish jarayonidagi asosiy o‘zaro hamkorlik tuzilmasi

Ushbu rasmda loyihaviy faoliyat doirasida antinarkotik profilaktika faoliyatini tashkil etish jarayonidagi asosiy o‘zaro hamkorlik tuzilmasini aks ettiradi. Diagrammaning tuzilishi loyiha ishtirokchilarining roli va ularning o‘zaro bog‘liqligini tushuntirish uchun mo‘ljallangan. Bu diagramma ilmiy sharhni talab qiladigan muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Ijtimoiy-pedagogik xizmat**: Bu xizmat antinarkotik profilaktika faoliyatini boshqaruvchi asosiy tashkilot sifatida rasmning yuqorisida joylashgan. Ushbu xizmat loyihaning umumiy strategiyasini belgilab beradi va faoliyatni boshqaradi.

2. **Loyiha rahbari va ijtimoiy pedagog**: Bu ikki asosiy vakil ijtimoiy-pedagogik xizmatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘langan va loyihaning amaliy jihatlarini boshqaradi. Loyiha rahbari butun loyihaning rivojlanishini nazorat qiladi, ijtimoiy pedagog esa o‘quvchilarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yordam ko‘rsatadi va faoliyatni muvofiqlashtiradi.

3. **Loyihaning doimiy ishtirokchilari**: “Tashabbus Guruhi” va “Tashkiliy jamoasi” mavjud bo‘lib, ular loyihaning asosiy ijrochilari hisoblanadi. Ushbu jamoalar loyihaning kundalik vazifalarini amalga oshiradi va o‘quvchi yoshlarni antinarkotik xulq-atvorni shakllantirishga yo‘naltiradi.

4. **Loyihaga jalb etilgan ishtirokchilar**: Diagrammaning o‘ng tomonida joylashgan bu qismda "Boshqa ta'lim muassasalari o‘quvchi birlashmalari" hamda "Jamoat birlashmalari va ijtimoit tashkilotlar" mavjud. Ushbu tashkilotlar hamkorlikni kuchaytirish, tajriba almashish va resurslarni birlashtirish uchun jalb etilgan.

5. **Profilaktika inspektori**: Profilaktika inspektori barcha jarayonni shaxsan kuzatib boradi. Preventive chora-tadbirlarni amalga oshiradi hamda o‘quvchilarning kasbiy-axloqiy madaniyatini shakllantirishda director o‘rinbosari bilan hamkorlikda ishlar olib boradi.

Ushbu chizma o‘quvchi yoshlarni antinarkotik profilaktika faoliyatiga jalb qilishda kompleks yondashuv zarurligini ta’kidlaydi. Har bir komponent o‘quvchi yoshlarning kasbiy-axloqiy madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi va loyiha ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlaydi.

Dastur bloklarga bo‘lingan bo‘lib, bu antinarkotik xulq-atvor shakllanishining izchilligi va mantiqiy ketma-ketligini ta’minlaydi hamda loyiha ishtirokchilarining faollik va mustaqilligini oshirish zarurati bilan

bog‘liqdir. Har bir oldingi blok ishtirokchilarni keyingi blok mazmunini anglash va yangi antinarkotik faoliyat shakllarini egallashga tayyorlaydi.

Birinchi blok — ma’rifiy blok. Ushbu blokning maqsadi antinarkotik xulq-atvorning kognitiv elementini amalga oshirishdir.

Ikkinchi blok — Tahliliy blokning maqsadi o‘quvchilarda antinarkotik xulq-atvorning kreativ elementini shakllantirishdir.

Uchinchi va to‘rtinchi bloklar — Interfaol bloklarning maqsadi antinarkotik xulq-atvorning ko‘rinishli elementini amalga oshirishdir.

Uchinchi va to‘rtinchi bloklarga yoshlar jamoat birlashmasi, tashabbus guruhi (o‘quvchilar xohishiga ko‘ra), guruh kuratorlari, pedagog-psixolog va ijtimoiy pedagog hamkorligida ishlab chiqilgan, tayyorlangan va amalga oshirilgan interaktiv profilaktika tadbirlari kiradi. Bunday tadbirlar o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarziga intilish motivatsiyasini shakllantirishga va sog‘lom hayot tarzining amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berdi [4, 12].

O‘quvchilarning sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishi ular uchun mo‘ljallangan guruhlarda samaraliroq bo‘lib, o‘quvchi muhitida do‘stlarning fikri va jamoaviy afzalliklar katta ahamiyatga ega. Muhokama qilinayotgan masalalarga nisbatan o‘quvchilar munosabatining hissiy jihati ham muhim edi. Shakllangan shaxsiy faol pozitsiya narkotizatsiya profilaktikasini yanada samarali qilishga yordam berdi.

To‘rtinchi blok natijalarni baholashni, ishtirokchilar tomonidan erishilgan yutuqlarni muhokama qilishni o‘z ichiga oladi.

Faoliyat komponenti asosiy profilaktika faoliyati shakllari va metodlari, hamda loyihalash texnologiyasidan iborat edi. Profilaktika dasturining mazmuni dastlab belgilangan maqsad va vazifalarga muvofiq ishlab chiqildi.

Kasb-hunar o‘quv yurtida aksiya tashkil etuvchilar o‘quvchilar e’tiborini o‘z shiorlariga ko‘proq jalb qilish uchun turli faktlarga murojaat qilishdi va ularni zamonaviy yoshlar safiga qo‘shilishga taklif qilishdi.

Loyihaviy faoliyatning rivojlanishi o‘quvchilarda tashabbuskorlikni kuchaytirdi. O‘quvchilar “Kasallik asoratlari” nomli gazeta chiqardilar, unda kasalliklarning tarqalishi statistikasi, sabab va oqibatlari keltirildi.

Faol o‘quvchilarning profilaktika tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirishga jalb etilishi antinarkotik faoliyatning samaradorligini oshirdi. Tarix, huquq, psixologiya va pedagogika fanlari o‘qituvchilari esa o‘quvchilar kasallik asoratlari muammosini o‘quv fanlari doirasida qiziqish bilan o‘rganishayotganini ta’kidlashdi.

Natijalarni baholash komponenti ijtimoiy pedagog tomonidan olib borilgan tadqiqotni o‘z ichiga oldi. Tadqiqot narkotizatsiya xavfining darajasini, kasbiy-axloqiy madaniyatni shakllantirish darajasini dastur joriy etilishidan oldin va uning amalga oshirilishi davomida baholashga qaratildi.

Profilaktika faoliyatining muhim natijalaridan biri o‘quvchilar ijtimoiy faolligini baholash edi. Bu maqsadda “Eng yaxshi guruh” tanlovi muhim o‘rin tutdi. O‘quvchilar akademik, ilmiy, sport, ijodiy va ijtimoiy faoliyatdagi yutuqlari orqali o‘z guruhining reytingini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Tadbir yutuqlari reytingga ta’sir qilgan holda, o‘quvchilarning ushbu ijtimoiy tashabbusga nisbatan munosabatini mustahkamladi.

Profilaktika faoliyati doirasida ijtimoiy hamkorlar soni kengaydi va ishtirokchilar soni oshdi. Shu bilan birga, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, sportni ommalashtirish va yoshlarni mavjud muammolarni hal qilishga jalb qilish kabi imkoniyatlar yaratildi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu antinarkotik profilaktika tadbirlari samaradorligini oshirish uchun ijtimoiy-pedagogik hamkorlik rivojlantirildi, hamda profilaktika faoliyatida ijtimoiy hamkorlar bilan samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.

Shunday qilib, kasb-hunar ta’limi muassasalarining ijtimoiy-pedagogik xizmati va yoshlar jamoat birlashmalarining birgalikda amalga oshirilgan antinarkotik profilaktika faoliyati orqali keng o‘quvchi qatlamlari orasida antinarkotik profilaktika g‘oyalarini targ‘ib qilishga, o‘quvchilar tashabbuslarini kengaytirishga, ularning ijtimoiy faolligini oshirishga, shuningdek, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyatlarda o‘z-o‘zini namoyon qilish, rivojlantirish va amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratishga erishildi. Pereventiv chora-

tadbirlar mazmunining interfaol tarzda tashkil etilishi kasbiy-axloqiy madaniyatni shakllantirishni ta’minladi. Ushbu jarayonda ajratilgan tashkilotchilik-pedagogik sharoitlarning amalga oshirilishiga alohida e’tibor qaratildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ahad, MA., et al. (2017). "Causes of drug addiction among youth in Sylhet city of Bangladesh." IOSR Journal, 23-bet.
2. Bentler, PM. (1992). "Etiologies and consequences of adolescent drug use." Journal of Addictive Diseases, 78-bet.
3. Maqsudov, Xushnur. (2022). Giyohvandlikka qarshi kurashga oid qonunlarning ijrosi ustidan prokuror nazorati tushunchasi. Obщyestvo i innovasii. 3. 470-473. 10.47689/2181-1415-vol3-iss4/S-pp470-473.
4. Obiagu, AN., & Onele, AV. (2024). "Prevalence and causes of drug abuse among youth-recipients of school-based drug education programs." Canadian Journal of Family and Youth, 56-bet.
5. Spooner, C. (1999). "Causes and correlates of adolescent drug abuse." Drug and Alcohol Review, 45-bet.
6. Tulu, SK., & Keskis, W. (2015). "Assessment of causes, prevalence and consequences of alcohol and drug abuse among Mekelle University students." American Journal of Applied Psychology, 49-bet.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR DIAGNOSTIKASI

Izzatoy Turdiyeva,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada, maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxslararo munosabatlar diagnostikasi haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. Shaxslararo munosabatlar insonning ijtimoiy o‘zaro ta’sirining asosini tashkil etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda munosabatlarni o‘rnatish va saqlash qobiliyati hissiy, kognitiv va ijtimoiy rivojlanish uchun juda muhimdir. Ushbu shakllanish yillarida shaxslararo munosabatlar naqshlarini tashxislash o‘qituvchilar, tarbiyachilar va ruhiy salomatlik bo‘yicha mutaxassislarga muammolarni aniqlashga va bolaning ijtimoiy-emotsional o‘sishini qo‘llab-quvvatlash uchun erta aralashishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: *Shaxslararo munosabatlar, maktabgacha yoshdagi bolalar, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, tengdoshlarning o‘zaro ta’siri, o‘yinni kuzatish, ijtimoiy ko‘nikmalar, hissiy tartibga solish, biriktirish uslublari, rivojlanish skriningi, sotsiometrik texnikalar.*

Аннотация

В данной статье будут рассмотрены и рассмотрены вопросы диагностики межличностных отношений у детей дошкольного возраста. Межличностные отношения составляют основу социального взаимодействия человека. У дошкольников способность устанавливать и поддерживать отношения имеет решающее значение для эмоционального, когнитивного и социального развития. Диагностика паттернов межличностных отношений в эти годы становления может помочь учителям, опекунам и специалистам в области психического здоровья выявлять проблемы и на раннем этапе вмешиваться для поддержки социально-эмоционального роста ребенка.

Ключевые слова: *межличностные отношения, дошкольники, социально-эмоциональное развитие, взаимодействие со сверстниками, игровое наблюдение, социальные навыки, эмоциональная регуляция, стили привязанности, скрининг развития, социометрические методы.*

Annotation

In this article, the issues of diagnosis of interpersonal relationships in preschool children will be considered and considered. Interpersonal relationships form the basis of human social interaction. In preschoolers, the ability to establish and maintain relationships is crucial for emotional, cognitive, and social development. Diagnosing patterns of interpersonal relationships during these formative years can help teachers, caregivers, and mental health professionals identify problems and intervene early to support a child's socio-emotional growth.

Key words: *interpersonal relationships, preschoolers, socio-emotional development, interaction with peers, play observation, social skills, emotional regulation, attachment styles, developmental screening, sociometric methods.*

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalar, odatda 3 yoshdan 5 yoshgacha, ijtimoiy va hissiy qobiliyatlarning jadal rivojlanish davrini anglatadi. Ushbu bosqichda bolalar tengdoshlar bilan parallel o‘ynashdan to‘g‘ridan—to‘g‘ri o‘zaro ta’sir qilmasdan—umumiy maqsadlar, navbatchilik va hamkorlikni o‘z ichiga olgan kooperativ o‘yinlarga o‘tadilar. Ushbu o‘zaro ta’sirlar bolalarga hamdardlik, muloqot va nizolarni hal qilish kabi ko‘nikmalarni mashq qilish imkoniyatini beradi [1, 496].

Hissiy tartibga solish: tengdoshlar va kattalar bilan munosabatlar bolalarga his-tuyg‘ularini boshqarishni o‘rganishga yordam beradi. Masalan, o‘yin paytida ziddiyat bolaga sabr-toqatni yoki his-tuyg‘ularini konstruktiv tarzda ifoda etishni o‘rgatishi mumkin. Til va muloqot qobiliyatlari: ijtimoiy o‘zaro ta’sirlar ko‘pincha og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan muloqotni talab qiladi, bu esa bolalarga ushbu ko‘nikmalarni kontekstda rivojlantirishga yordam beradi. O‘z-o‘zini kontseptsiyani rivojlantirish: munosabatlar bolalarga o‘zlarini boshqalar bilan solishtirish, ijtimoiy rollarni tushunish va o‘ziga xoslik hissini rivojlantirish imkonini beradi.

Maktabga tayyorlik: tengdoshlarning ijobiy munosabatlari rasmiy maktabga yaxshiroq moslashishni bashorat qiladi, chunki ijtimoiy vaziyatlarda harakatlana oladigan bolalar tuzilgan muhitda qatnashish uchun yaxshiroq jihozlangan [2, 76]. Biroq, shaxslararo munosabatlarni shakllantirish yoki saqlashdagi qiyinchiliklar ijtimoiy chekinish, tajovuzkorlik yoki o‘zini past baholash kabi qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun erta tashxis qo‘yish juda muhimdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxslararo munosabatlarni qanday shakllantirishi va saqlashini bir necha omillar shakllantiradi:

- Temperament: tabiatan uyatchan temperamentli bolalar tengdoshlariga yaqinlashish uchun kurashishlari mumkin, temperamentli bolalar esa guruh sharoitida ustun bo‘lishlari mumkin.
- Ilova uslubi: tarbiyachilarga bog‘lanish sifati bolalarning boshqalar bilan qanday munosabatda bo‘lishiga sezilarli ta’sir qiladi. Xavfsiz biriktirilgan bolalar ko‘pincha yaxshi ijtimoiy ko‘nikmalarni namoyish etadilar.
- Ijtimoiy ko‘nikmalar: almashish, navbatchilik va ehtiyojlarni ifodalash kabi qobiliyatlar tengdoshlarning o‘zaro ta’siriga aniq ta’sir qiladi.
- Atrof-muhit ta’siri: oila dinamikasi, madaniy me'yorlar va erta ta’lim sifati bolaning ijtimoiy tajribasiga ta’sir qiladi [3, 228].

Neyrorivojlanish sharoitlari: autizm spektrining buzilishi yoki diqqat etishmasligi giperaktivligi buzilishi kabi holatlar ijtimoiy signallarni tushunish va munosabatlarni saqlashda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxslararo munosabatlarni tashxislash kuzatish, tuzilgan baholash va tarbiyachilar va o‘qituvchilarning ma’lumotlarini birlashtirishni o‘z ichiga oladi. Asosiy usullarga quyidagilar kiradi:

O‘yinni kuzatish: bepul o‘yin paytida bolalarni tomosha qilish ularning ijtimoiy xatti-harakatlari haqida tushuncha beradi. Misol uchun, doimiy ravishda yolg‘iz o‘ynaydigan bola tengdoshlarning o‘zaro munosabatlarida yordamga muhtoj bo‘lishi mumkin. Mojarolarni hal qilishni kuzatish: bolaning nizolarni qanday hal qilishini kuzatish ularning hissiy tartibga solish va muammolarni hal qilish qobiliyatlari haqida ma’lumot beradi.

Sotsiometrik texnikasi: bu ularning peer preferensiyalar haqida bolalarni so‘rab jalb, ular bilan o‘ynash kabi kim kabi. Inklyuziya va istisno qilish naqshlari guruh ichidagi ijtimoiy dinamikani ta’kidlashi mumkin. Rivojlanish skrining vositalari: yosh va bosqichlar kabi vositalar anketalar:ijtimoiy-emotsional ijtimoiy-emotsional rivojlanishni baholashga yordam beradi. Bolani yaxshi biladigan kattalarning ma’lumotlarini to‘plash turli xil sharoitlarda bolaning ijtimoiy o‘zaro ta’siriga yaxlit qarashni ta’minlaydi [4, 125].

Bolalar xulq-atvorini tekshirish ro‘yxati yoki ijtimoiy ko‘nikmalarni takomillashtirish tizimi kabi baholashlar ijtimoiy xatti-harakatlar va muammoli joylarning standartlashtirilgan choralarini taklif qiladi. Bolalar bilan suhbatlar, yoshga mos tildan foydalangan holda, ularning do‘stlik, nizolar va tengdoshlari haqidagi his-

tuyg‘ularini ochib berishi mumkin. Ushbu diagnostika usullari orqali shaxslararo munosabatlarning bir nechta naqshlari paydo bo‘lishi mumkin, jumladan:

Ijtimoiy ko‘nikmalari yaxshi rivojlangan bolalar ko‘pincha hamkorlikda o‘ynashadi, hamdardlik ko‘rsatadilar va o‘zaro do‘stlikni shakllantiradilar. Ular tengdoshlar tomonidan qabul qilinadi va nizolarda chidamlilikni namoyon etadi. Ba’zi bolalar peer shovqinlarni oldini olish mumkin, yolg‘iz o‘yin afzal. Bu uyatchanlik, tashvish yoki ijtimoiy muhitga ishonchsizlikni ko‘rsatishi mumkin. O‘zaro munosabatlar paytida tajovuzkorlik yoki nazoratni tez-tez ishlatadigan bolalar impuls nazorati yoki ijtimoiy me'yorlarni tushunish bilan kurashishlari mumkin.

Tengdoshlari tomonidan doimiy ravishda chetlatilgan bolalar, boshqalar haddan tashqari talabchan, yopishqoq yoki ijtimoiy belgilarga javob bermaslik kabi xatti-harakatlarni namoyon qilishi mumkin [6, 84]. Ba’zi bolalar ijtimoiy munosabatlarda vositachilik qilish uchun kattalarga haddan tashqari ishonishlari mumkin, bu mustaqillik va ishonchni rivojlantirishda qo‘llab-quvvatlash zarurligini ko‘rsatadi. Shaxslararo munosabatlar naqshlari aniqlangandan so‘ng, maqsadli aralashuvlar bolalarga sog‘lom ijtimoiy xatti-harakatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Strategiyalarga quyidagilar kiradi:

Almashish, navbatchilik va samarali muloqotni o‘rgatadigan tuzilgan tadbirlar bolaning tengdoshlari bilan ijobiy munosabatda bo‘lish qobiliyatini oshirishi mumkin. Tengdoshlar bilan boshqariladigan o‘yin mashg‘ulotlari bolalarga xavfsiz, qo‘llab-quvvatlovchi muhitda ijtimoiy ko‘nikmalarni mashq qilish imkonini beradi. Bolalarga o‘zlarida va boshqalarda his-tuyg‘ularni tanib olish va belgilashga yordam berish empatiya va hissiy tartibga solishni yaxshilaydi.

Kattalar nizolarni xotirjamlik bilan hal qilish kabi tegishli ijtimoiy xatti-harakatlarni modellashtirishi va bu ko‘nikmalarni mashq qilish uchun bolalarni rol o‘ynash stsenariylariga jalb qilishi mumkin. Ota-onalarga uyda ijtimoiy ko‘nikmalarni tarbiyalash haqida ma’lumot berish juda muhimdir. Bunga playdates-ni rag‘batlantirish, ijobiy munosabatlarni modellashtirish va kooperativ xatti-harakatlarni maqtash kiradi.

Sinf sharoitida o‘qituvchilar ijtimoiy jihatdan cheklangan bolalarni do‘stona tengdoshlari bilan bog‘lash yoki hamjihatlikni o‘rnatish uchun guruh faoliyatidan foydalanish orqali inklyuziv muhit yaratishi mumkin. Muhim qiyinchiliklarga duch kelgan bolalar uchun bolalar psixologi yoki xulq-atvor terapevtining aralashuvi zarur bo‘lishi mumkin. Masalan, ASD bilan og‘rigan bolalar amaliy xulq-atvorni tahlil qilish terapiyasi yoki ijtimoiy ko‘nikmalar guruhlaridan foydalanishlari mumkin [7, 110].

Taraqqiyotni baholash va kerak bo‘lganda strategiyalarni sozlash uchun aralashuvlarni muntazam ravishda kuzatib borish kerak. Yaxshilanishlar bolaning o‘yinni boshlashga tayyorligi, nizolarni boshqarish qobiliyati yoki izchil do‘stlikni shakllantirishda namoyon bo‘lishi mumkin. Ota-onalar, o‘qituvchilar va mutaxassislar o‘rtasidagi hamkorlik bolaning ijtimoiy-hissiy ehtiyojlarini sozlash bo‘yicha izchil hal qilinishini ta’minlaydi.

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxslararo munosabatlarni tashxislash ularning ijtimoiy va hissiy farovonligini oshirishda hal qiluvchi qadamdir. Qiyinchiliklarni erta aniqlash o‘z vaqtida aralashishga imkon beradi, bu esa bolalarga ijobiy ta’sir o‘tkazish va uzoq muddatli muvaffaqiyat uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishga imkon beradi. Kuzatuv texnikasi, tuzilgan baholash va birgalikda qo‘llab-quvvatlashni birlashtirib, tarbiyachilar va mutaxassislar maktabgacha yoshdagi bolalarga hayot davomida sog‘lom munosabatlar uchun poydevor yaratishda yordam berishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abramova G. S. Amaliy psixologiya. M., Triksta. 2005. 496.
2. Uzluksiz ma’naviy tarbiya tushunchalar. Toshkent-2019 yil 76,
3. Norboyeva M. O. Maktabgacha talim Psixodiagnostika Termiz, 2015 yil 228.
4. Norboyeva M. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini rivojlantirishda o‘yin texnologiyalardanfoydalanishning axamiyati. J. Pedagogika. 2021 125 b
5. Norboyeva M. A. Bolalar psixologiya va psixodiagnostika. T.,2020 yil
6. Kaziev E., Samarova Sh. Bolalar psixologiya T., 2012 yil 84.
7. Homentauskas G. T. Bolaning ko‘zlari bilan oila. M., Pedagogika. 1989 yil 110.

PEDAGOGLARNING ILG‘OR PEDAGOGIK TAJRIBALARINI TO‘PLASH VA AMALIYOTDA QO‘LLASH

Lola Elmurodova,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada, pedagoglarning ilg‘or pedagogik tajribalarini to‘plash va amaliyotda qo‘llash haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. Hozirgi kunda yangi pedagogik texnologiyalaming 200 ga yaqin turi mavjud. O‘qituvchi ana shu texnologiyalardan o‘z darsida qanday foydalanishni to‘g‘ri tanlay bilishi kerak. Bugungi kunda ilm-fan taraqqiyoti natijasida zamonaviy texnika vositalari kirib kelmoqda. An'anaviy o‘qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va o‘g‘zaki so‘zlarga tayanib ish ko‘rishi tufayli "axborotli o‘qitish" sifatida tafsiflanadi, chunki o‘qituvchi faoliyati birgina o‘quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta’kidlagan holda baholanmoqda.

Kalit so‘zlar: *Ilg‘or pedagogik tajriba, tajriba to‘plash, tajribani qo‘llash, pedagogik innovatsiyalar, o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishi, innovatsion texnologiyalar, loyiha faoliyati, raqamli integratsiya, ta’limni individuallashtirish, pedagogik tajribalar.*

Аннотация

В этой статье будут рассмотрены мнения и размышления педагогов о накоплении и применении передового педагогического опыта. В настоящее время существует около 200 видов новых педагогических технологий. Учитель должен уметь правильно выбирать, как использовать эти технологии на своем уроке. Сегодня в результате развития науки появляются современные технические средства. Традиционная система обучения, можно сказать, характеризуется как "информативное обучение" из-за видения работы, опирающейся на письменное и устное слово, поскольку деятельность учителя оценивается с акцентом на то, что он становится авторитетным источником знаний, а не только организатором учебного процесса.

Ключевые слова: *передовой педагогический опыт, накопление опыта, применение опыта, педагогические инновации, профессиональное развитие педагогов, инновационные технологии, проектная деятельность, цифровая интеграция, индивидуализация образования, педагогический опыт.*

Annotation

This article will consider the opinions and reflections of teachers on the accumulation and application of advanced pedagogical experience. Currently, there are about 200 types of new pedagogical technologies. A teacher should be able to choose the right way to use these technologies in their lesson. Today, as a result of the development of science, modern technical means are emerging. The traditional teaching system can be said to be characterized as "informative learning" because of the vision of work based on written and oral word, since the teacher's activity is evaluated with an emphasis on the fact that he becomes an authoritative source of knowledge, and not only the organizer of the educational process.

Key words: *advanced pedagogical experience, accumulation of experience, application of experience, pedagogical innovations, professional development of teachers, innovative technologies, project activities, digital integration, individualization of education, pedagogical experience.*

Kirish. Bugunning har bir pedagogi har tomonlama rivojlangan, yetuk, barkamol avlodni tarbiyalab, davlatimizga munosib mutaxassis yetkazishni o‘z oldiga asosiy maqsad qilib qo‘yishi lozim. Shunday ekan, u pedagogik texnologiyalar asosida darsni tashkil etish va ta’lim sifati, samaradorligini oshirishda o‘z hissasini qo‘shish zimmasidagi asosiy vazifalardan biri ekanligini unutmasligi lozim [1, 332]. Pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish va ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

Zamonaviy ta’lim tizimi vaqt muammolari, ilmiy-texnik taraqqiyot va o‘qitish sifatiga bo‘lgan talablarning ortishi natijasida sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Shu nuqtai nazardan, ilg‘or pedagogik tajriba

o‘qituvchilarga ta’lim muammolarini samarali hal qilishda, kasbiy mahoratini oshirishda va yosh avlodni sifatli o‘qitish va tarbiyalashda yordam beradigan qimmatli manbaga aylanadi [2, 85].

Ilg‘or pedagogik tajriba - bu amalda samarali ekanligi isbotlangan va yuqori ta’lim natijalariga erishishga yordam beradigan o‘qitish va tarbiya usullari, texnologiyalari, texnikasi va shakllari to‘plamidir. Mukammallikning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ✓ Yangilik: nostandart yondashuvlardan foydalanish, innovatsion texnika va vositalarni joriy etish.
- ✓ Samaradorlik: o‘rtacha ko‘rsatkichlardan yuqori bo‘lgan muhim natijalarga erishish.
- ✓ Dolzarbligi: muayyan davrda ta’limning dolzarb muammolarini hal qilish.
- ✓ Ko‘paytirish imkoniyati: boshqa ta’lim muassasalari va tizimlarida qo‘llanilishi.

Ilg‘or pedagogik tajribani to‘plash jarayoni bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi: Har bir o‘qituvchi o‘z ishi jarayonida yangi texnika va usullarni o‘zlashtiradi va rivojlantiradi. Ushbu ishlanmalar tizimli bo‘lishi va natijalarni tahlil qilishga asoslanishi muhimdir [3, 136].

Konferentsiyalar, seminarlar, treninglar, mahorat darslarida qatnashish o‘qituvchilarga o‘z amaliyotlariga moslasha oladigan yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish imkonini beradi. Pedagogik adabiyot va ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish o‘qituvchiga zamonaviy tendentsiyalar va yangiliklardan xabardor bo‘lishga yordam beradi. O‘qituvchilar tarkibidagi munozara va tajriba almashish kasbiy amaliyotni boyitishga yordam beradi. Buni pedagogik kengashlar, uslubiy birlashmalar va ijodiy guruhlar orqali amalga oshirish mumkin.

Mualliflik texnikasini yaratish yoki yangi texnologiyalarni joriy etish ularning samaradorligini tekshirish uchun tajribalar o‘tkazishni talab qiladi. Bu jarayonda kuzatish, aks ettirish va sozlash muhim ahamiyatga ega [4, 48].



Muntazam ravishda umumlashtirish, qo‘llaniladigan usullarning muvaffaqiyati va ularning o‘quvchilarga ta’sirini tahlil qilish o‘qituvchiga muvaffaqiyatli amaliyotlarni shakllantirish va to‘plash imkonini beradi. Pedagogik tajribani boshqa sharoitlarda tarqatish va qo‘llash uchun uni tizimlashtirish va hujjatlashtirish kerak. Ushbu jarayonda quyidagi qadamlar ajralib turadi:

Ilg‘or deb tan olingan pedagogik tajriba natijalar bilan tasdiqlanishi kerak: o‘quv samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga qiziqishini oshirish, ularning vakolatlarini rivojlantirish. Texnikaning samaradorligini ta’minlaydigan asosiy elementlarni ajratib ko‘rsatish, shuningdek uning muvaffaqiyatiga ta’sir

qiluvchi shartlar va omillarni aniqlash kerak. Tajribani uslubiy tavsiyalar, o‘quv dasturlari, video darsliklar yoki ilmiy maqolalar shaklida tavsiflash bilimlarni boshqa o‘qituvchilarga etkazish imkonini beradi [5, 12].

Tanlovlarda, konferentsiyalarda yoki professional jamoalarda amaliyotni taqdim etish uning mukammallik maqomini tasdiqlashga yordam beradi. Boshqa o‘qituvchilar amaliyotida ilg‘or pedagogik tajribani qo‘llash muayyan ta’lim muhiti, talabalar tarkibi va moddiy-texnik bazaning xususiyatlarini hisobga olish uchun ehtiyotkorlik bilan moslashishni talab qiladi.

Ilg‘or tajribalarni amalga oshirishni istagan o‘qituvchilar uning nazariy va amaliy asoslarini, shu jumladan uni muvaffaqiyatli qo‘llash shartlarini tahlil qilishni chuqur o‘rganishlari kerak. Sinov darslari, darslar yoki loyihalarni o‘tkazish ushbu tajriba muayyan sharoitlarga qanchalik mos kelishini tekshirishga imkon beradi. Texnika va texnologiyalar talabalarning o‘ziga xos xususiyatlarini, ularning tayyorgarlik darajasini va ta’lim muassasasining xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirilishi kerak.

O‘qituvchilar yangi texnika va usullarni o‘rganishlari mumkin bo‘lgan treninglar va mahorat darslarini tashkil etish ilg‘or tajribalarni muvaffaqiyatli joriy etishni ta’minlaydi. Tajribani amalga oshirgandan so‘ng, uning ta’lim jarayoniga ta’sirini baholash, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullarini aniqlash muhimdir. Loyiha ta’limi boshlang‘ich va o‘rta maktablarda faol qo‘llaniladi. Bu bolalarda hamkorlik ko‘nikmalarini, tanqidiy fikrlashni va mustaqil ravishda muammolarga echim topish qobiliyatini rivojlantiradi [6, 241].

Interfaol doskalar, o‘quv platformalari va ilovalardan foydalanishning eng yaxshi amaliyotlari o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va o‘rganishni yanada qiziqarli qiladi. Maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar bilan ishlashning muvaffaqiyatli misollari boshqa o‘qituvchilar uchun Ilhom manbai bo‘lib xizmat qiladi. Har bir talabaning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olishga qaratilgan mualliflik dasturlari yuqori samaradorlikni ko‘rsatadi.

Ilg‘or pedagogik tajriba nafaqat ta’lim sifatini oshirishga, balki o‘qituvchilarning kasbiy o‘sishiga ham yordam beradi. Innovatsiyalarni amalga oshirish o‘qituvchidan moslashuvchanlik, ijodkorlik va o‘z-o‘zini tarbiyalashga tayyorlikni talab qiladi. Yangi yondashuvlarni o‘zlashtirish o‘qituvchining ishini yanada xilma-xil va qiziqarli qiladi, kasbiy charchashning oldini olishga yordam beradi. Bundan tashqari, o‘z yutuqlari bilan faol o‘rtoqlashadigan o‘qituvchilar professional hamjamiyat etakchilariga aylanib, hamkasblar tomonidan tan olinib, ta’lim tizimining rivojlanishiga ta’sir o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

O‘quvchilarni zamon talablari asosida tarbiyalash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu esa o‘qituvchilar zimmasiga ulkan vazifalar yuklaydi. O‘qituvchi o‘z sohasining mohir bilimdoni, muammolarning oqilona yechimlarini topa oladigan, o‘z ustida doimiy ijodiy ishlab, ya ngiliklar yarata oladigan, o‘quvchilari qalbidan munosib o‘rin egallagan bo‘lishi lozim [7, 254].

Yosh avlodga zamon talablari asosida bilim berish uchun pedagog o‘zining prosessional kompetentligiga ega bo‘lishi kerak. Bu pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli hal qilish uchun zarur bo‘lgan, kasbiy va shaxsiy sifatlar yig‘indisidir. Pedagogik faoliyatini, pedagogik muloqotni yuqori darajada amalga oshiradigan, o‘quvchilarning ta’lim-tarbiyasi sohasida yuqori darajadagi stabil natijalarga erisha oladigan o‘qituvchini professional kompetentli o‘qituvchi deyish mumkin.

Xulosa. Hozirgi kunda mamlakatimizda barcha jabhalar qatori ta’lim sohasida ham juda katta o‘zgarishlar, islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, maktablarda moddiy-texnik baza mustahkamlandi, darsliklar takomillashtirildi. Ilg‘or pedagogik tajriba zamonaviy ta’lim tizimining muammolarini hal qilishning asosiy vositasidir. Uning to‘planishi, tizimlashtirilishi va joriy etilishi ta’lim sifatini yaxshilashga, o‘qituvchilarning kasbiy darajasini oshirishga va talabalar uchun qulay ta’lim muhitini yaratishga yordam beradi. Hozirda darslarni axborot kommunikatsiya texnologiyalarsiz olib borishni tasavvur qilish qiyin. Yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars o‘tilishi ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga asos yaratmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ismailova Z.K. Pedagogika. Darslik. -Toshkent, Molya-iqtisod, 2008. 332.
2. Haydarova G.A., Pardaeva K, Gapparov B.N. "Xalq pedagogikasi". O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2009 yil. 85.

3. Ziyomuxamedov B., Tojiev M. "Milliy pedagogik texnologiyani ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbig‘i va uning yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishdagi o‘rni". Toshkent. Mumtoz-Soz. 2010 yil. 136.

4. Ziyomuxamedov B. "Ta’lim texnologiyalari". O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2012 yil. 48.

5. Otayorov O. "Aqliy salohiyatni oshirish sirlari" ma’rifat gazetasi. № 101 (8646) 18-dekabr 2013 yil, 12-bet.

6. Hasanboeva O., Djamilova N. Pedagogik fanlarni o‘qitish metodikasi. - T.: 2008. 23. Ibragimov X.I. Pedagogika-psixologiya – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007 241.

7. Ibragimov X.I.., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008. 254.

ONA TILI TA’LIMIDA O‘QUVCHILAR KOMPETENTLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Xolbibi Qurbonova,
NavoiyDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada murakkab, mashaqqatli, kutilmagan holatlarga boy, ammo jamiyatning zaruriy ehtiyoji hisoblangan ta’lim-tarbiya tizimini yangicha ko‘rinish va yangicha mazmunda amalga oshirish, ona tili ta’limi jarayonida bugungi kun darsliklarida berilgan rang-barang, turli mavzular aks etgan matnlarni zamonaviy topshiriqlar asosida o‘rganish, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo‘llash orqali ta’lim samaradorligiga, integratsiyaga, o‘quvchilar kompetentligiga erishish davr talabi ekanligi masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari, zamonaviy topshiriq, ijodiylik, tafakkur, mustaqil fikrlash, matn, ta’lim maqsadi, nutqiy faoliyat, muloqot, kompetensiya, integratsiya, kompetentlik.*

Abstract

This article highlights the need to implement the education system, which is complex, arduous, full of unexpected situations, but a necessary need of society, in a new form and with a new content. It also focuses on studying the diverse texts with different themes presented in today's textbooks in the native language education process, using modern tasks and effectively applying innovative pedagogical and information technologies to achieve educational efficiency, integration, and student competence.

Keywords: *Innovative pedagogical and information technologies, modern task, creativity, thinking, independent thinking, text, educational purpose, speech activity, communication, competence, integration, competence*

Аннотация: *В данной статье освещаются вопросы реализации системы образования, сложной, трудоемкой, полной неожиданных ситуаций, но являющейся необходимой потребностью общества, в новом виде и с новым содержанием, изучение разнообразных текстов с различными темами, представленных в современных учебниках в процессе обучения родному языку, на основе современных заданий, эффективное применение инновационных педагогических и информационных технологий для достижения образовательной эффективности, интеграции и компетентности учащихся, что является требованием времени.*

Ключевые слова: *инновационные педагогические и информационные технологии, современное задание, творчество, мышление, самостоятельное мышление, текст, образовательная цель, речевая деятельность, общение, компетенция, интеграция, компетентность*

Ma’lumki, falsafada har bir umumiy tushuncha yakka, juz’iy tushunchalar yig‘indisidan tarkib topadi, degan qoida mavjud. Ona tili darslarida o‘quvchi faoliyatini tashkil etishda ham xuddi shu qoidaga asoslanadi. Muayyan bo‘laklarga ajratilgan til hodisalarini kuzatish, ularning birini ikkinchisi bilan taqqoslash orqali o‘quvchi umumiy ta’rif, qoida va xulosalarga keladi. Falsafa fikrlash va rivojlanishga o‘zaro uyg‘unlikda qaraydi. Sharqning buyuk ensiklopedik olimlari (Umar Xayyom, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino va h.k.) rivojlanish - fikrlashning mahsuli deb biladilar.

Til materiallari o‘quvchi tomonidan ijodiy fikrlash, integratsiya orqali egallangan bo‘lsa, u amaliy ahamiyatga molik bilim, ko‘nikma va malakalar bo‘lib sanaladi.

Shuni unutmaslik kerakki, til hodisalarining mohiyatini anglash, ular orasidagi o‘xshash va farqli tomonlarni aniqlash, til imkoniyatlaridan nutqiy faoliyatda foydalanish singari zaruriy malakalar ijodiy fikrlash orqali amalga oshadi.

Ona tili materiallarini o‘zaro, fanlararo bog‘lab(integratsiyalab) o‘rganish, yiriklashtirish, til hodisalarini kuzatish, taqqoslash, guruhlarga ajratish, umumlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga til hodisalari mohiyatini chuqurroq o‘rganishga, nutqda so‘zni me’yorida va o‘rnida ishlatish ko‘nikmalarini mustahkamlashga ijobiy ta’sir etadi.

Ona tili o‘qitishda oldingi o‘rganilganlarga tayanib, yangi tushunchalarni kuzatish, guruhlarga ajratish, qiyoslash, umumlashtirish orqali o‘zi mustaqil qoida, ta’rif chiqarishga o‘rgangan o‘quvchi bir-biriga o‘xshash va farqli hodisalar ustida ishlaydi, o‘qituvchi yordamida xulosa va hukm chiqaradi.

Genetik bog‘lanish o‘zbek tilini o‘zbek xalqi tarixi bilan bog‘lanishni taqozo etadi. Jamiyatdagi har qanday o‘zgarish, shubhasiz, tilda o‘z aksini topadi. Ana shu o‘zgarishlar, natijasida yangi so‘zlar paydo bo‘ladi, ayrim so‘zlar tilimizdan chiqib ketadi.

Demak, ona tili ta’limida kognitiv va integrativ yondashuv o‘quvchini ta’lim jarayoning subyektiga, faol fikrlovchi hamda hukm va xulosalar chiqaruvchi shaxsga aylantiradi. Bu esa, o‘z navbatida o‘rganilayotgan til materialining puxta o‘zlashtirilishi hamda o‘quvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish garovidir. Shuningdek, ona tili darslarida kommunikativ va boshqa kompetentliklarini tarbiyalash har bir o‘quvchida mavjud bo‘lgan fikrlash, ijodkorlik xususiyatlarini tarkib toptirish, integrativ talim imkoniyatlarini ishga solish, uni ta’lim maqsadiga muvofiq keladigan darajaga ko‘tarish bilan bog‘liq.

Ko‘rinadiki, bolalarimizning mustaqil, ijodiy tafakkurini o‘stirishda, ijodiy fikr asosida muloqotga kirishishlarida ona tili favqulotda hal qiluvchi omildir.

Demak, insonning ichki dunyosi qanchalik boy, dunyoqarashi nechog‘li keng, bilimi qay darajada baland bo‘lsa, fikrlash tarzi shunga yarasha bo‘ladi. Tafakkur-fikrlash inson ongining, aqlining faoliyati.

Tafakkurning inson hayotidagi o‘rni nimada? Tafakkur orqali kishi odam va olam sirlarini o‘rganishda o‘zidan oldin hosil bo‘lgan qarashlar, tushunchalar, farazlar, insoniyat tomonidan chiqarilgan xulosa hamda kelingan qarorlar qanchalik to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini belgilab oladi. Mulohaza yuritib, narsa va hodisalar o‘rtasidagi munosabatlar, xossalar, xususiyatlar, ularni bir-biri bilan bog‘lab yoki ajratib turuvchi vositalar hamda ularni faollashtirishni anglab yetadi.

Bu haqiqatni Hazrat Navoiy bundan necha yillar ilgari: “…har ishki qilmayin odamizod tafakkur birla bilmish odamizod” - deya ifodalagan.

Tafakkur keng qamrovli tushuncha bo‘lib, bir tomondan falsafali ikkinchi tomondan mantiqda, yana boshqa tomondan psixologiyada o‘rganiladi. Til va tafakkur chambarchas bog‘liq hodisalar, demak, til muammolarining hal etilishi tafakkurga ham ta’sir etadi. Nutq-tafakkur qilish va fikrlashuvda tildan foydalanish jarayoni, jamiyat tomonidan ishlangan o‘zaro fikr almashuv vositasining yagona shakliy ko‘rinishidir. Ona - tili milliy tafakkurni shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi va ifodalovchi eng asosiy vosita. Shuningdek, ona tili ta’limining maqsadi ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalashdir.

Demak, til o‘rganish ta’lim-tarbiya jarayonining har bir bosqichida o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishlari o‘ziga xos tarzda fikrlash, tasavvur qilish va his etish orqali amalga oshiriladi.

Tafakkur mustaqil aqliy faoliyat mahsulidir. O‘quvchi til hodisalari yuzasidan mustaqil aqliy faoliyat ko‘rsatmas ekan, unda mantiqiy tafakkurning rivojlanishi haqida gap bo‘lishi mumkin emas. Ijodiy izlanish va ijodiy fikrlash o‘quvchida ijodiy tafakkurni yuzaga keltiradi. Ijodiy tafakkur esa noma’lum bo‘lgan til hodisalarining mohiyatini bilib olishga yordamlashadi: egallangan bilimlarning puxtaligini ta’minlaydi: o‘quv materialiga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi. O‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishda ona tili darsliklaridagi matnlar, ular asosida beriladigan savol va zamonaviy topshiriqlarning ahamiyati katta. Taffakkurni rivojlantirish aqliy faoliyat usullari (kuzatish, qiyoslash, guruhlash, umumlashtirish kabilar)ni to‘gri ishga solish bilan chambarchas bog‘langan. [1, 18]

Davlat ta’lim standartlarida belgilangan darajalarga erishish uchun o‘quvchi o‘zida tayanch va xususiy kompetensiyalarni rivojlantirishi kerak bo‘ladi. Aniqroq aytganda, inson o‘z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi,eng muhimi, o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarga ham ega bo‘lishi lozim. Kompetensiya so‘zining lug‘aviy ma’nosi DTSda quyidagicha ta’riflanadi: “Mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati”.[2, 12] “Pedagogik atamalar lug‘ati” kitobida quyidagicha ta’riflanadi : “U yoki bu soha bo‘yicha bilimdonlik”[3, 21] kabi ma’nolari beriladi.

Ona tili bo‘yicha **kompetentli shaxs** deganda: mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan, savodxon shaxs tushuniladi. Shuning uchun jamiyat o‘zbek tili ta’limi oldiga o‘quvchi shaxsida fikrlash, o‘zgalar fikrini anglash va fikr mahsulini og‘zaki, yozma shaklda savodli bayon qila olish, ya’ni mustaqil, ijodiy tafakkurni hamda kommunikativ savodxonlikni rivojlantirish vazifasini qo‘yadi.

Murakkab, mashaqqatli, kutilmagan holatlarga boy, ammo jamiyatning zaruriy ehtiyoji hisoblangan ta’lim-tarbiya tizimini yangicha ko‘rinish va yangicha mazmunda amalga oshirish, ona tili ta’limi jarayonida bugungi kun darsliklarida berilgan rang-barang, turli mavzular aks etgan matnlar, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo‘llash orqali ta’lim samaradorligiga, integratsiyaga erishish davr talabidir.

Ta’lim muassasasi bitiruvchisi o‘z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi, o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlashda asosan pedagog kadrlar salohiyati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Demak, jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uyg‘unlashtirish uchun shaxsiy yetuklik bilan birga shaxsiy, ijtimoiy, kasbiy kompetentlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Ona tili darslarida o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish bilan parallel ravishda predmetga oid kompetensiyalar ham shakllantirilib boriladi. Xususan, o‘quvchilar kompetentligini oshirishda - ona tili ta’limining asosiy usuli talablariga ko‘ra, o‘quvchi mavzu bo‘yicha belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi uchun darslikdagi matnlarga tayaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘ulomov A., Ne’matov H.Ona tili ta'limi mazmuni —T,: O‘qituvchi, 1995.-B. 125.
2. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti.-Toshkent.:2017. 5-bet.
3. “Pedagogik atamalar lug‘ati” .-Toshkent.:"Fan", 2008. 53-bet.

ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Гулнора Жамалова,
кандидат политических наук, доцент кафедры «Общественных и точных наук» Ташкентского государственного экономического университета

Аннотация

Статья посвящена исследованию процесса формирования экологических компетенций среди студентов высших учебных заведений Узбекистана. Рассматриваются ключевые факторы, влияющие на успешное освоение экологических знаний, а также методы их внедрения в образовательные программы. В статье анализируются актуальные подходы, направленные на улучшение экологической подготовки студентов, и выделяются проблемы, которые могут препятствовать эффективному обучению. На основе проведенного исследования предложены рекомендatsii по optimizatsii процесса экологического образования в условиях современных вызовов, связанных с устойчивым развитием и изменением климата.

Ключевые слова: *экологические компетенции, высшие учебные заведения, Узбекистан, экологическое образование, устойчивое развитие, практико-ориентированное обучение.*

Annotatsiya

Maqola O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari talabalari o‘rtasida ekologik kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ekologik bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar, shuningdek, ularni ta’lim dasturlariga joriy etish usullari ko‘rib chiqilgan. Maqolada talabalarning ekologik tayyorgarligini yaxshilashga qaratilgan dolzarb yondashuvlar tahlil etilib, samarali o‘qitishga to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan muammolar aniqlanmoqda. O‘tkazilgan tadqiqot asosida iqlimning barqaror rivojlanishi va o‘zgarishi bilan bog‘liq zamonaviy tahdidlar sharoitida ekologik ta’lim jarayonini optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar taklif etildi.

Kalit so‘zlar: *ekologik kompetensiyalar, oliy o‘quv yurtlari, O‘zbekiston, ekologik ta’lim, barqaror rivojlanish, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim.*

Abstract

The article is dedicated to studying the process of developing environmental competencies among students in higher educational institutions of Uzbekistan. It examines the key factors influencing the successful acquisition of environmental knowledge, as well as methods for integrating it into educational programs. The article analyzes current approaches aimed at improving students' environmental training and highlights the challenges that may hinder effective learning. Based on the research conducted, recommendations are proposed to optimize the process of environmental education in the context of contemporary challenges related to sustainable development and climate change.

Keywords: *environmental competencies, higher educational institutions, Uzbekistan, environmental education, sustainable development, practice-oriented learning.*

Введение. Экологические проблемы, такие как изменение климата, опустынивание и деградация водных ресурсов, становятся всё более актуальными для стран Центральной Азии, включая Узбекистан. В связи с этим национальная стратегия устойчивого развития Узбекистана ставит перед высшими учебными заведениями задачу формирования экологически грамотных специалистов, способных решать как локальные, так и глобальные экологические проблемы. Одной из ключевых задач современного образования является формирование экологических компетенций у студентов — совокупности знаний, навыков и ценностей, необходимых для решения экологических задач.

Изменение климата оказывает сильное влияние на аграрный сектор и водоснабжение, что крайне важно для Узбекистана, где значительная часть экономики зависит от сельского хозяйства. Повышение температур и сокращение осадков ведут к росту аридизатsii и рискам возникновения засух, что ухудшает условия для ведения сельскохозяйственных работ. Кроме того, деградатsiя земель, вызванная нерatsиональным использованием ресурсов, усиливает опустынивание, что негативно сказывается на биоразнообразии и благосостоянии сельских сообществ.[1, 31]

Водные ресурсы являются ещё одной значимой экологической проблемой Узбекистана и региона в целом. Большая часть водных ресурсов в стране зависит от трансграничных рек, таких как Амударья и Сырдарья. Изменение климата, наряду с высоким уровнем водопотребления в сельском хозяйстве, создает давление на водную систему. Кроме того, такие экологические катастрофы, как усыхание Аральского моря, подчёркивают важность сохранения и patsионального использования водных ресурсов. Снижение уровня воды в этом регионе привело к катастрофическим последствиям для экосистемы, здоровья населения и экономической деятельности, что подчёркивает необходимость усиленной защиты водных ресурсов.

Национальная стратегия устойчивого развития Узбекистана ставит целью справиться с этими вызовами и создать базу для экологически устойчивого будущего. Эта стратегия направлена на смягчение последствий изменения климата, patsиональное использование природных ресурсов и защиту окружающей среды. В рамках этой стратегии особое внимание уделяется роли образовательных учреждений в формировании специалистов, которые будут способствовать решению локальных и глобальных экологических задач.

Анализ литературы. Экологическое образование в Узбекистане начало развиваться после обретения независимости, когда страна столкнулась с серьезными экологическими проблемами, в частности, деградацией Аральского моря. Одной из первых попыток систематизации экологических

знаний стала инициатива правительства по введению экологических дисциплин в школьные и университетские программы. Как отмечает Юсупов (2021), в последние два десятилетия в Узбекистане произошли значительные изменения в области экологического образования, однако его развитие по-прежнему неравномерно. В учебные программы вузов включены курсы по экологии, но их недостаточно для формирования комплексных экологических компетенций. Студенты, особенно на технических и экономических специальностях, сталкиваются с нехваткой междисциплинарных экологических знаний.

Согласно Юсупову, существует необходимость разработки программ, которые бы связывали экологические вопросы с различными профессиями и будущими карьерными путями студентов. Например, в инженерных и строительных специальностях могут быть внедрены курсы по экологически устойчивым технологиям, а в экономических направлениях — курсы по экологическому менеджменту и устойчивому развитию.

Мировая практика показывает, что наиболее эффективное экологическое образование основывается на междисциплинарном подходе, который включает изучение экологических проблем через призму различных областей знаний. Например, исследования Кина и Джонса (2020) в США и Германии подчеркивают важность связи экологических вопросов с инженерией, экономикой, медициной и юриспруденцией. Эти исследователи обнаружили, что экологические знания гораздо легче усваиваются и применяются на практике, когда студенты видят их связь с собственной профессией.[2, 21]

Более того, согласно исследованиям Сейлора и Брауна (2017), в США и Европе активно развивается концепция образования для устойчивого развития, где студенты учатся не только экологической грамотности, но и тому, как применять устойчивые методы в своих профессиональных областях. Это может быть полезным примером для Узбекистана, где подобный междисциплинарный подход только начинает внедряться.

Практико-ориентированное обучение — одна из ключевых составляющих успешного формирования экологических компетенций. Смит и Браун (2018) подчеркивают важность полевых исследований, экологических проектов и лабораторных занятий для студентов. Практическая деятельность позволяет студентам напрямую участвовать в решении реальных экологических проблем, будь то оценка качества воды, изучение воздействия изменения климата или разработка проектов по улучшению городской экологии.

Абдураимов (2019) отмечает, что в Узбекистане практико-ориентированное обучение в экологии ограничено из-за недостатка ресурсов и возможностей для проведения полевых исследований. Вузам часто не хватает специализированного оборудования и финансирования для организации выездных практик или проведения научных исследований. Это препятствует активному вовлечению студентов в реальную экологическую деятельность, что, в свою очередь, снижает их мотивацию и практическую подготовленность.

Важной частью экологических компетенций является этическое воспитание и формирование ценностного отношения к природе. В исследованиях Воронцовой и Андреевой (2016) подчёркивается, что экологические компетенции не ограничиваются знанием экологических проблем; они также включают развитие осознания своей ответственности перед природой и обществом. Это особенно важно в Узбекистане, где многие экологические проблемы связаны с неустойчивыми практиками землепользования и водопользования.[3, 43]

Культурные и социальные аспекты играют важную роль в формировании ценностных установок. Как отмечают Азимова и Ахмедова (2019), воспитание экологической культуры должно начинаться ещё в школе, и продолжаться на всех уровнях образования, включая университет. Это требует комплексного подхода, где изучение теоретических аспектов экологии сочетается с практическими примерами ответственного поведения по отношению к природе.

Анализ литературы показывает, что экологическое образование в Узбекистане находится на этапе активного развития, но сталкивается с рядом трудностей. Необходимо дальнейшее расширение учебных программ, включающих экологические знания, особенно для студентов инженерных, экономических и социальных направлений. Международный опыт показывает, что междисциплинарный подход и

практико-ориентированное обучение, усиленные использованием цифровых технологий, являются ключевыми факторами успешного формирования экологических компетенций. В Узбекистане важно усилить внимание к развитию практических навыков студентов и внедрению новых образовательных технологий для формирования специалистов, способных решать реальные экологические проблемы.

Методология и обсуждение. Исследованы учебные планы и программы ведущих вузов Узбекистана для оценки степени интеграции экологических дисциплин. Результаты исследования показывают, что, несмотря на растущее осознание важности экологических знаний, образовательная система Узбекистана сталкивается с рядом вызовов при формировании экологических компетенций. Для решения этих проблем необходимо внедрение междисциплинарных подходов, которые связывают экологические знания с профессиями студентов. Практико-ориентированное обучение должно стать неотъемлемой частью учебных программ, а также следует активнее использовать современные цифровые технологии и видеоконтент для более глубокого понимания экологических проблем.

Кроме того, необходимо усилить подготовку преподавателей по вопросам устойчивого развития и использования новых технологий в экологическом обучении.[4,53]

Образование в этой области играет ключевую роль в развитии экологически грамотного общества. Высшие учебные заведения Узбекистана интегрируют экологические дисциплины в учебные программы для подготовки студентов, способных решать сложные экологические проблемы. Современное образование должно не только предоставлять студентам теоретические знания, но и развивать практические навыки и ценности, необходимые для принятия экологически ответственных решений. Это становится особенно важным в контексте подготовки кадров, которые будут участвовать в реализatsii natsionalьных программ устойчивого развития и экологических инициатив.

Формирование экологических компетенций студентов включает несколько аспектов:

1. Знания — студенты должны быть хорошо осведомлены о глобальных и местных экологических процессах, понимать причины и последствия экологических изменений. Это требует изучения экологических систем, а также экономических и социальных факторов, влияющих на окружающую среду.
2. Навыки — помимо теоретических знаний, студентам необходимо развивать аналитические и практические навыки. Они должны уметь разрабатывать и реализовывать проекты, направленные на улучшение экологической situatsii. Например, это могут быть проекты по возобновляемым источникам энергии, устойчивому сельскому хозяйству или управлению отходами.
3. Ценности — важной частью экологической компетентности является формирование ценностного отношения к природе и ресурсам. Студенты должны осознавать важность устойчивого развития и быть готовыми применять эти принципы в своей профессиональной и личной жизни.

Для этого высшие учебные заведения должны интегрировать междисциплинарные подходы к обучению, включая проектное обучение, которое стимулирует студентов к участию в решении реальных экологических проблем. Важно, чтобы будущие специалисты понимали, что экологическая устойчивость — это не только защита природы, но и гармонизatsiя взаимодействия между обществом, экономикой и окружающей средой.

Кроме того, для успешного формирования экологических компетенций необходимо сотрудничество образовательных учреждений с международными организациями и участие в глобальных проектах. Это позволяет внедрять передовые методики обучения и практики устойчивого развития, а также обмениваться опытом с другими странами, которые сталкиваются с аналогичными проблемами. Примером такого сотрудничества могут быть совместные исследования с международными экологическими фондами и участие в программах ООН по устойчивому развитию.

Таким образом, экологические вызовы, стоящие перед Узбекистаном и Центральной Азией, требуют комплексного подхода, в основе которого лежат устойчивые стратегии и подготовка квалифицированных специалистов. Важную роль в этом процессе играют образовательные учреждения, которые формируют у студентов знания, навыки и ценности, необходимые для решения экологических проблем.[5, 34]

Заключение. Формирование экологических компетенций у студентов вузов Узбекистана является важной задачей, требующей комплексного подхода. Включение экологических знаний в учебные программы всех направлений, практическая ориентatsiя обучения и использование современных технологий могут существенно повысить уровень экологической грамотности студентов. Это позволит подготовить специалистов, способных эффективно решать актуальные экологические проблемы и вносить вклад в устойчивое развитие страны.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Абдураимов, М.Т. (2019). Проблемы экологического воспитания студентов ВУЗов. *Журнал педагогики и экологии*, 4(7), 28-32.

2. Ким, Д.Н. (2020). Влияние образовательных технологий на формирование экологической культуры у студентов. *Технологии в образовании*, 3(9), 56-63.

3. Юсупов, Р.Х. (2021). Экологическое образование и его роль в устойчивом развитии Узбекистана. *Наука и образование в XXI веке*, 12(5), 45-50.

4. Смит, Дж., & Браун, Л. (2018). Практико-ориентированное обучение в экологическом образовании: опыт и результаты. *Экология и образование*, 5(3), 12-20.

5. Keen, J., & Jones, A. (2020). Integrating Environmental Education into Interdisciplinary Studies. *Journal of Environmental Education*, 10(1), 22-36

HUQUQ, TIBBIYOT VA GEODEZIYA SOHALARIDA MAXSUS MAQSADLAR UCHUN INGLIZ TILI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKTNING AHAMIYATI

Nodiraxon Xatamova,
Toshkent Davlat Yuridik Universiteti, ingliz tili o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqola sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (English for Specific Purposes, ESP) o‘qitilishidagi ahamiyatini, xususan, huquq, tibbiyot va geodeziya kabi ixtisoslashgan sohalardagi rolini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Globallashuv sharoitida ingliz tili xalqaro kasbiy kommunikatsiya, ilmiy almashinuv va hamkorlikning asosiy vositalaridan biriga aylandi. SI texnologiyalarini, shu jumladan aqlli o‘qitish tizimlari, tabiiy tilni qayta ishlash va matn korpuslarini mashinaviy tahlil qilishni o‘quv jarayoniga integratsiya etish orqali moslashuvchan hamda kontekstga muvofiq o‘quv materiallarini yaratish imkoniyati kengayadi. Bu esa o‘z navbatida, kasbiy terminologiyani chuqurroq anglash, fikrni aniq va ravon ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda o‘qitish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Maqolada ESPda SI qo‘llashning afzalliklari, jumladan, ta’lim jarayonini mustaqil qilish, fikr-mulohazalarni takomillashtirish va autentik manbalarga kirish doirasini kengaytirish kabi omillar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, professional yo‘naltirilgan til ta’limida SI texnologiyalaridan foydalanish bilan bog‘liq cheklovlar va axloqiy jihatlarga ham e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: *Jarayonlar, korpus, texnologiya, termin, ta’lim, axloq*

Annotation

This article is dedicated to analyzing the role of artificial intelligence (AI) in teaching English for Specific Purposes (ESP) in such specialized fields as law, medicine, and geodesy. Under conditions of globalization, English has become a key means of professional communication, scientific exchange, and international collaboration. The integration of AI technologies, including intelligent tutoring systems, natural language processing, and machine-based corpus analysis, facilitates the creation of adaptive and contextually relevant learning materials. This, in turn, improves the understanding of professional terminology, develops the skills needed for precise and competent expression, and enhances the overall efficiency of the learning process. The article examines the advantages of applying AI in ESP, such as personalized instruction, improved feedback quality, and expanded access to authentic

sources. In addition, it addresses potential limitations and ethical considerations associated with the use of AI technologies in professionally oriented language education.

Keywords: *Processes, Corpus, Technology, Term, Education, Ethics*

Аннотация

Статья посвящена анализу роли искусственного интеллекта (ИИ) в преподавании английского языка для специальных целей (English for Specific Purposes, ESP) в таких специализированных областях, как право, медицина и геодезия. В условиях глобализации английский язык стал ключевым средством профессиональной коммуникации, научного обмена и международного сотрудничества. Интеграция ИИ-технологий, включая системы интеллектуального обучения, обработку естественного языка и машинный анализ корпусов текстов, способствует созданию адаптивных и контекстно-релевантных учебных материалов. Это, в свою очередь, улучшает понимание профессиональной терминологии, развивает навыки точного и грамотного выражения мыслей, а также повышает эффективность обучения. В статье рассматриваются преимущества применения ИИ в ESP, такие как персонализация образовательного процесса, повышение качества обратной связи и расширение доступа к аутентичным источникам. Кроме того, уделено внимание возможным ограничениям и этическим аспектам использования ИИ-технологий в профессионально-ориентированном языковом образовании.

Ключевые слова: *Процессы, Корпус, Технология, Термин, Образование, Этика*

Kirish. So‘nggi yillarda Sun’iy Intellekt (SI) texnologiyalarining rivojlanishi ESP sohasiga yangi imkoniyatlar ochdi. Sun’iy Intellekt, ayniqsa tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), aqlli repetitor tizimlari (Intelligent Tutoring Systems), mashinaviy o‘qitish va o‘rganish analitikasi (learning analytics) yordamida o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish, kasbiy terminologiyani chuqurroq o‘rgatish, real vaqtda baholash va analitik yondashuvni kuchaytirish imkoniyatini beradi. Mazkur maqolada huquq, tibbiyot va geodeziya sohalarida ESP o‘qitishda SI texnologiyalarining o‘rni, afzalliklari va cheklovlari, shuningdek, olimlarning ilmiy izlanishlariga asoslangan holda, chuqur tahlil etiladi.

ESP, avvalo, kasbiy kontekstga asoslangan til o‘qitish metodologiyasi sifatida tasniflanadi. Anthony (2018) o‘z tadqiqotlarida ESPni “o‘quvchilarning aniq kasbiy yoki akademik ehtiyojlariga qaratilgan, maxsus terminologiya va matn turlarini o‘z ichiga olgan chet tilini o‘qitish yondashuvi” sifatida ta’riflaydi. Huqoq sohasida ESP kurslari xalqaro huquq, shartnoma matnlari, sud qarorlari va huquqiy tahliliy hisobotlar bilan ishlashni o‘z ichiga olsa, tibbiyot sohasida klinik ko‘rsatmalar, ilmiy maqolalar, bemor bilan muloqot qilish usullari va diagnostika jarayonlaridagi lingvistik xususiyatlar e’tiborga olinadi. Geodeziya sohasida esa xaritalar, o‘lchov natijalari, texnik hisobotlar va geografik axborot tizimlari (GIS) bilan bog‘liq atamalar, tuzilmaviy xususiyatlar, matn janrlari o‘rganiladi [1,10]

Sun’iy Intellektning ushbu jarayondagi roli asosan uch mezon asosida namoyon bo‘ladi. Birinchidan, SI o‘quvchilarning ehtiyoj va imkoniyatlarini aniqlab, materiallarni shaxsiylashtirishga yordam beradi. Ikkinchidan, SI dasturlari tabiiy til korpuslarini tahlil qilib, eng kerakli, tez-tez uchraydigan kasbiy terminologiya va nutq modellarini aniqlaydi. Uchinchidan, SI real vaqtda o‘quvchi nutqini yoki yozma ishlarini baholab, xatolarni tuzatish, tavsiyalar berish orqali o‘qitish jarayonini optimallashtiradi [2,12].

Huquq Sohasida SI va ESP. Huquq sohasida terminologiya o‘ta murakkab, matnlar mantiqiy, rasmiy va aniq ifodaga boy bo‘lgani sababli, talabalar odatda xalqaro hujjatlar, shartnomalar va sud qarorlarini ingliz tilida o‘qishda qiynaladilar. SI asosida ishlovchi intellektual tizimlar huquqiy matnlarni korpus sifatida tahlil qilib, eng ko‘p qo‘llaniladigan terminlar, jumla tuzilmalari va nutq strategiyalarini ajratib chiqadi. James & Gordon (2020) tadqiqotlarida AI’dan foydalangan ESP kurslari huquq talabalarining shartnoma matnlarini tushunish va izohlash ko‘nikmalarini 20-30% ga yaxshilaganini qayd etadi. Shuningdek, Jackson & Ren (2023) o‘z izlanishlarida AI yordamida korpus-tahlil asosida tuzilgan o‘quv materiallari huquqiy nutq qulaylik bilan o‘zlashtirilishiga imkon berganini, talabalar murakkab hujjatlarni tezroq o‘qish, tushunish va sharhlashni o‘zlashtirganini ma’lum qiladi.

Tibbiyot Sohasida SI va ESP. Tibbiyot mutaxassislari xalqaro konferensiyalar, ilmiy izlanishlar, davolash protokollari va qo‘llanmalarni tushunish hamda bemor bilan ingliz tilida aniq va tushunarli muloqot qila olishlari zarur. Li, Jin & Luo (2021) o‘z tadqiqotlarida tibbiy ESP kurslariga SI integratsiyasining samaradorligini o‘rgangan holda, chat-bot va intellektual repetitor tizimlari yordamida talabalar 15 hafta mobaynida tibbiy terminologiyani aniqroq va ishonchliroq qo‘llashni boshlashganini, ayniqsa og‘zaki nutqda kasbiy atamalarni

izchil o‘zlashtirishganini qayd etadi. Shu tarzda, bemor bilan suhbati yoki kasallik tarixini baholashda qo‘llaniladigan maxsus lug‘atlar, qisqartmalar va ifoda shakllarini o‘rgatish SI yordamida tez va samarali kechadi. Zhao, Tang & Zhang (2022) meta-tahlil natijalarida tibbiy ESP kurslarida SI asosida ishlovchi intellektual repetitor tizimlari samaradorligi ko‘rsatilgan. Tadqiqotchilar, bu holat talabalar talaffuzini to‘g‘irlash, lingvistik xatolarni qisqartirish, tibbiy matnni tezroq tushunish hamda sohaviy terminlarni faol ishlatishga olib kelishini ta’kidlashadi.

Geodeziya Sohasida SI va ESP. Geodeziya global miqyosda geografik axborotlarni o‘lchash, tahlil qilish, xaritalar tuzish va integratsiya qilish bilan shug‘ullangani sababli, ingliz tili ilmiy maqolalar, texnik hujjatlar, xalqaro geodezik standartlar va ma’lumotlar bazalariga keng yo‘l ochadi. Geodeziya sohasida ESP kurslari uchun korpus tahlili yondashuvni qo‘llash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda Aleksić & Čubrović (2022) SI vositasida korpus tahlili imkoniyatlarini o‘rgangan. Natijada, geodeziya sohasida tez-tez uchraydigan terminlar, xaritalash, koordinatlar va geofazoviy modellash bilan bog‘liq atamalar ajratib olinib, o‘quvchilarga aniq yo‘naltirilgan lug‘atlar hamda mashq materiallari taqdim etilgan. Bu esa talabalar ingliz tilida sohaviy ma’lumotlarni aniqroq tushunishi va taqdim qilishi, yozma va og‘zaki muloqotda mukammallikka erishishiga xizmat qilgan.

Sun’iy Intellektning muhim jihatlaridan biri bu moslashuvchanlik va shaxsiylashtirishdir. Har bir o‘quvchi turli daraja, turli ehtiyoj va turli qiziqishlarga ega. SI asosidagi platformalar o‘quvchi ko‘rsatkichlarini, xususan, test natijalari, yozma ishlar, talaffuz namunalarini tahlil qilib, o‘quv dasturini individual ravishda moslashtirishi mumkin (Warschauer, 2019). Ngan (2021) ta’kidlashicha, SI analiz orqali har bir o‘quvchining zaif nuqtalarini tez aniqlab, shu sohalarga qaratilgan maxsus mashqlar va materiallar taqdim etadi. Bu esa o‘qitish jarayonini “bitta qolipdagi darslik” uslubidan chiqarib, differentsial yondashuvni yo‘lga qo‘yadi.

Shuningdek, baholash jarayonida ham SI imkoniyatlari kengdir. Mashinaviy o‘qitish algoritmlari talabalar yozgan matnlarni o‘qituvchi ko‘rsatmasiz ham grammatik, leksik hamda uslubiy jihatdan baholay oladi. Bu real vaqtda tahlil qilish, xato va nuqsonlarni tezda aniqlash, o‘quvchiga muammo haqida darhol xabar berish imkonini yaratadi. Shunday qilib, baholash jarayoni ham tezlashadi, ham o‘quvchilar uchun tushunarliroq bo‘ladi.

SI va ESP integratsiyasi qator afzalliklarni beradi. Birinchidan, u individual yondashuvni kuchaytiradi. Ikkinchidan, real vaqtda qayta aloqa (feedback) natijasida o‘quvchilar o‘z xatolarini darhol tuzatish imkoniga ega bo‘ladilar. Uchinchidan, kasbiy terminologiya va nutq tavsiflarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri korpus tahlili orqali olish, o‘quv materiallari sifatini oshiradi.

Ammo cheklovlar ham mavjud. Johnson (2023) o‘quvchi ma’lumotlarining maxfiyligi va ma’lumotlar xavfsizligi masalasini ko‘taradi. SI tizimlarida to‘plangan axborotlar noto‘g‘ri qo‘llanilishi yoki boshqa shaxslar qo‘liga tushishi mumkin. Shuningdek, agar ishlatilayotgan matn korpusi noto‘g‘ri tanlansa yoki yetarlicha xilma-xil bo‘lmasa, SI o‘rgangan til namunalarida muayyan tarafkashlik (bias) vujudga kelishi, terminlar va ifodalarni noan’anaviy yoki nojo‘ya shaklda takrorlashi mumkin.

Bundan tashqari, SI texnologiyalari o‘qituvchining rolini kamaytirishi haqida xavotirlar ham mavjud. Biroq, mutaxassislar o‘qituvchilar texnologiya bilan hamnafas bo‘lib, uni metodik jihatdan kuzatish, natijalarni talqin qilish va o‘quvchilar bilan bevosita muloqotda bo‘lish orqali o‘z o‘rnini mustahkamlashi mumkinligini ta’kidlaydi (Anthony, 2018). Ya’ni, SI o‘qituvchi o‘rnini to‘liq egallab olmaydi, aksincha ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi.[4, 21]

ESP va SI integratsiyasi hali ham rivojlanish bosqichida bo‘lib, kelajakda yanada takomillashishi kutiladi. Yangi avlod generativ sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchilarga yanada murakkab, tabiiy matnlar bilan ishlash, bir nechta manbalardan axborotni sintez qilish va hatto mashqlarni o‘quvchi ehtiyojiga qarab dinamik tarzda ishlab chiqish imkonini beradi. Bu jarayonda soha mutaxassislari, lingvistlar, dasturchilar va psixologlar hamkorligi muhim rol o‘ynaydi. Interfakultet tadqiqotlari esa ESP materiallari yaratishda innovatsion yondashuvlarni kashf qilishga yordam beradi.

Xulosa. Huquq, tibbiyot va geodeziya kabi murakkab va ixtisoslashgan sohalar uchun ingliz tilini o‘qitish jarayonida Sun’iy Intellekt alohida ahamiyat kasb etmoqda. SI ESP ta’limida adaptivlik, korpus-tahlilga asoslangan terminologiya ajratish, real vaqtda baholash va muloqot modellarini yaratish imkonini beradi. Natijada talabalar kasbiy terminologiyani aniqroq, tezroq va ishonchliroq o‘zlashtiradi, o‘qituvchilar esa yaxshiroq

metodik qarorlar qabul qilishda analitik ma’lumotlarga ega bo‘lishadi. Bu jarayon global me’yorlarga javob beradigan, xalqaro maydonda raqobatbardosh, kasbiy jihatdan yetuk kadrlar tayyorlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aleksić, G., & Čubrović, B. (2022). Corpus-based approach in ESP for geodesy: A pilot study. English for Specific Purposes World, 64(23), 45–62.
2. Anthony, L. (2018). Introducing English for specific purposes. Routledge.
3. Huhta, M., Vogt, K., Johnson, E., & Tulkki, H. (2013). Needs analysis for language course design: A holistic approach to ESP. Cambridge University Press.
4. Jackson, J., & Ren, J. (2023). Towards AI-informed ESP instruction in law faculties: A corpus-driven study. ESP Today: Journal of English for Specific Purposes at Tertiary Level, 11(2), 156–175.
5. James, G., & Gordon, D. (2020). Integrating AI tools in legal English curricula: Potentials and pitfalls. International Journal of Legal Discourse, 5(3), 300–318.
6. Johnson, R. (2023). Ethics and data protection in AI-mediated language learning. Computer Assisted Language Learning, 36(4), 425–443.
7. Li, R., Jin, X., & Luo, S. (2021). The effectiveness of an AI-assisted chatbot for medical English training. Asia-Pacific Education Researcher, 30(2), 187–201.
8. Ngan, S. (2021). AI-assisted language learning analytics: Implications for ESP curriculum design. Journal of English for Academic Purposes, 53, 101001.
9. Warschauer, M. (2019). New tools for teaching writing. Language Learning & Technology, 23(2), 1–7.
10. Zhao, Y., Tang, L., & Zhang, H. (2022). The impact of intelligent tutoring systems on ESP: A meta-analysis in medical English education. Computer Assisted Language Learning, 35(1–2), 87–104.
11. Xatamova, N., & Ashurov, J. (2024). The Future of Legal English Learning: Integrating AI into ESP Education. SPAST Reports, 1(7).

XOREOGRAFIYA SAN’ATI SOHASIDAGI ILMIY IZLANISHLAR

Gulasal Usmanova,
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi
«Xoreografiya jamoalari rahbari» kafedrasi mudiri, s.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.

Annotatsiya

O‘zbek raqsshunosligi o‘zini uzoq tarixi mobaynida baletmeysterlarining badiiy uslublarini o‘rganishi, badiiy yaxlit raqs asralarini estetik-tarbiyaviy, jozibali, jonli tomonlarini ilg‘or tomoshabin hisoblanmish san’atshunoslar qalbdan his etib tomoshabinlarga yetkazish masalalari yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda milliy raqs san’atining ilmiy amaliy jihatdan o‘rganish, o‘zbek xoreografiyasida aynan ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlar, olib borilgan tadqiqotlar, raqsshunoslikdagi yutuq va kamchiliklari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: *baletmeyster, raqs chizmasi, xoreografik lison, dramaturgiya qonunlari, xoreografik asar.*

Аннотация

За многовековую историю узбекского танцевальноведения освещены вопросы освоения художественных стилей балетмейстеров, донесения передовой публикой эстетических, образовательных, привлекательных и живых аспектов художественной целостной танцевальной эпохи. Также были изучены научно-практическое изучение национального танцевального искусства Узбекистана, ученые, проводившие научные исследования в области узбекской хореографии, проводившие исследования, достижения и недостатки танцевальной науки.

Ключевые слова: *балетмейстер, танцевальный рисунок, хореографический язык, законы драматургии, хореографическое произведение.*

Annotation

During the long history of Uzbek dance studies, the issues of learning the artistic styles of ballet masters, bringing the aesthetic, educational, attractive, and lively aspects of the artistic holistic dance eras to the audience by the advanced audience are highlighted.

Also, scientific and practical study of the national dance art in Uzbekistan, scientists who conducted scientific research in Uzbek choreography, conducted research, achievements and shortcomings in dance science were studied.

Key words: *ballet master, dance drawing, choreographic language, laws of dramaturgy, choreographic work.*

Ilmiy yondashish, ilmiy o‘rganish har bir fanda tarixiy, nazariy va tanqidiy mezonlarni qamrab oladi. Tomoshaviy, “jonli” san’atlarni ijodiy mahsulotlari – spektakl, raqs, jonli konsert tomoshabin ko‘z oldida ijro etiladi va bir lahzada o‘tadi-ketadi. Ularni videoga yozib olsa bo‘ladi. Lekin teatr, estrada rejissyorlarini, baletmeysterlarni jonli muloqotga (artist-tomoshabin) qaratilgan rakurslari xisobga olinmaydi va jonli san’at asarlar spesifik jozibasini yo‘qotadi. Bu ma’noda jahon san’atshunosligi-raqsshunosligi o‘zini uzoq tarixi mobaynida baletmeysterlarining badiiy uslublarini o‘rgangan, targ‘ib etgan. Badiiy yaxlit raqs asralarini estetik-tarbiyaviy, jozibali, jonli tomonlarini ilg‘or tomoshabin hisoblanmish san’atshunoslar qalbdan his etib tomoshabinlarga yetkazishgan.

O‘zbekistonda 1928 yilda M.Qoriyoqubov tashabbusi bilan “Xoreografiya va musiqa” instituti tashkil etilib, keyinchalik “San’atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti” deb nomlangan. O‘sha davrda san’atshunoslik instituti Samarqandda, keyin Toshkentda o‘zbek raqs merosini ilmiy o‘rganish ishlarini boshlagan. Leningradda olima-etnoraf I.G.Baxta taniqli o‘zbek musiqashunosi Ye.E.Romanovskaya bilan Farg‘ona raqs maktabini “Katta o‘yin” raqs turkumini yozib olishdi. O‘zbek xoreografiyasining buyuk ustalari Usta Olim Komilov va Yusuf qiziq Shakarjonov uslublari asosida talqin etilgan “Katta o‘yin” ham yozib olindi.

Taniqli o‘zbek yozuvchisi, dramaturg G‘ulom Zafariy San’atshunoslik instituti ishlari doirasida “Raqs imo-ishoralari lug‘ati”ni tuzdi va Farg‘ona raqsini bir necha muhim “syujet”larini ochdi.[1,21]

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshida o‘zbek xoreografiyasining ikki yirik tadqiqotchilari G‘.Zafariy va I.Baxta sovet davriga oid qimmatli ma’lumotlar keltirdilar. I.G. Baxta 30-yillarning oxirida o‘zbek raqsining eng keksa ixlosmandlari tomonidan qayd etilgan farg‘ona uslubidagi “Katta o‘yin” raqsini yig‘di va Farg‘ona raqs uslubiga doir turli dalillarni to‘pladi. Shoir G‘ulom Zafariy o‘zbek raqsiga doir uncha katta bo‘lmagan, lekin ma’no jihatdan keng bo‘lgan lug‘at yaratdi.[2,12]

1950 yildan boshlab folklor va an’anaviy professional san’at na’munalarini foto va video kinolentaga yozib olshi maqsadida San’atshunoslik instituti ilmiy xodimlari – teatrshunoslar, raqsshunoslar, musiqashunoslar respublikaning turli hududlari va viloyatlariga ilmiy ekspeditsiyalarga safarga chiqishni boshladilar. Shular safiga kirgan yosh teatrshunos Lyubov Aleksandrovna Avdeeva yig‘ilgan manbalarni ilmiy o‘rganishga kirishib, o‘zbek raqsining tarixiy shakllangan “element”larini tadqiq etdi.

Mashxur xoreograf I.Moiseevning: bir raqqosdan boshqasiga o‘tadigan jarayonda raqsda albatta “ildizli element”lar saqlanib qolinadi, - degan fikrlaridan kelib chiqib, L.Avdeeva ushbu “ildizli element”larning qiyosiy tahlilini bir jadvalga keltiradi. Ushbu jadval hanuzgacha milliy xoreografiyaning butun bir qatlamlarini belgilashga, atroflicha xulosalar qilishga imkon beradi. L.Avdeeva o‘zbek xoreografiya san’atining nafaqat tarixchisi, balki o‘zbek xalqining raqs madaniyatini “yodgorligi” – asrlar osha ijrochilar e’zozlab saqlab qolgan – “tirik raqsining” estetikasini, jozibasini anglashga harakat qilgan nazariyachi va tanqidchisidir.

L.Avdeevaning “O‘zbek milliy raqs tarixidan” deb nomlangan monografiyasida raqs maktablari tasnifiy ta’riflanar ekan, ulardagi xarakterli xususiyatlar, harakatlar semantikasi, ijro maromi bilan bir qatorda liboslar tavsifiga ham alohida o‘rin berilgan. Tadqiqotchi mazkur masalalarni qadim raqslar xususiyatiga oid nodir manbalar hamda Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, M.Turg‘unboeva kabi ustoz san’atkorlar tomonidan sahnalashtirilgan raqslar misolida yoritadi.

Milliy raqs maktablari o‘ziga xosligini o‘rganib, ilmiy tadqiq etarkan, L.Avdeeva mana bunday xulosaga keladi “Raqs turkumlari qadimda “Maqomlar” deb atalgan. Farg‘ona vodiysida ular ellikta (afsonalarga ko‘ra 250 ta) usul, o‘ziga xos ritmik formulalar, shunga muvofiq raqs jumlalaridan tuzilgan “Katta o‘yin” nomi bilan yuritilgan. Qadimiy o‘zbek raqs san’ati tarixida maqom raqsi ijodkorlari uzoq muddat davomida raqs shakllarini to‘plash, saralash va sayqal berish bilan shug‘ullangan. Ularni tizimlashtirgan kishilarning nomi saqlanib

qolmagan. Biroq bizga ushbu bebaho merosni o‘zlaridan oldingi avlodlardan qabul qilib, uni o‘nlab yillar va asrlar mobaynida ko‘z qorachig‘idek saqlab kelgan ko‘pgina ijrochilarning nomlari ma’lum. Mashhur ustalar, an’anaviy raqs ijrochilari va musiqachi-akkompaniatorlar – Yusufjon qiziq Shakarjonov, Ahmadjon Umurzoqov, Lutfixonim Sarimsoqova, Rahim Ollaberganov, Aka Buxor, Xodiyatxon Hamdamova, Himmatxon Sultonova, Sharofat To‘raeva, Matlatif Sa’diev, Xudoybergan Abdurahmonov, Mixailxonim Hakimova, Bobojon Sa’dullaev, Tamaraxonim va boshqalar. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab o‘tgan o‘nlab taniqli raqs ustalarining nomlarini aytishgan. Biroq birinchi manbalardan olingan ushbu ma’lumotlar ham afsonaviy tusga ega. [3, 45]

O‘zbek xalq sahnaviy raqsining shakllanishi birinchi galda Asqar hoji Haydaralievning XX asr boshida faoliyat ko‘rsatgan ansambli va atoqli raqqos Hamdamxon nomi bilan chambarchas bog‘liqdir. Hamdamxon Farg‘ona vodiysi shaxarlarida, Toshkent va Samarqandda, Kavkazorti mamlakatlarida o‘zbek xalq raqsini yangi asosda sahnalarda ijro etib, yangi yo‘nalishni boshlab berdi.

Ma’lumki, o‘zbek milliy raqs san’ati mamlakatimizda XX asrning 20 yillarida yanada rivojlandi. Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg‘unboeva, Isoxor Oqilov, Roziya Karimova kabi fidoyi san’atkorlar milliy ijrochilik maktabini yaratdilar. Ustoz san’atkorlar milliy raqs san’atini ko‘p asrlardan buyon asrab-avaylab kelayotgan an’ana va asriy qadriyatlar asosida boyitdilar. Bu asosan yakka va umumiy raqslarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ko‘plab baletmeyster va bastakorlarning sa’y-harakatlari bilan o‘nlab yakka tartibda ijro etiladigan raqslar, duetlar, ommaviy raqslar mamlakatimiz va jahon tomoshabinlarining bir qancha avlodini maftun etib, o‘zbek raqs san’ati zahirasidan joy oldi. “Tanovar”, “Munojot”, “Katta o‘yin”, “Pilla”, “Paxta”, “Lazgi”, “Dilxiroj”, “Cho‘pon o‘yin”, “Namanganning olmasi”, “Andijon polkasi” va boshqalar shu jumladandir.

O‘zbekistonda o‘zbek raqs san’ati muammolariga bag‘ishlangan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, 1965 yilda L.A.Avdeevaning “Traditsii i novatorstvo v uzbekskoy xoreografii”, G.Hamraevaning “Obщie zakonы ssenicheskoy xoreografii i natsionalnыy obraz tansa: na primere analiza programmы ansamblya «Bahor»”, 1987 yilda T.G.Litvinovaning “Formirovanie karakalpakskogo narodno-ssenicheskogo tansa”, 1991 yilda M.V.Isroilovning “Uygurskiy tanes na territorii Sredney Azii i Kazaxstana” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Oxirgi nomzodlik dissertatsiyasi 1991 yil 24 dekabrda himoya qilingan.

Mustaqillik yillarida milliy raqs san’ati amaliy jihatdan rivojlanib, turli ansambllar tashkil topishiga qaramasdan, ilmiy jihatdan oqsoqlandi. Sahnalashtirilayotgan raqs asarlari, ansambllar faoliyati ilmiy tahlil qilinmadi. Oxirgi nomzodlik dissertatsiyasi himoyasidan so‘ng 2022 yil noyabr oyida (30 yildan so‘ng) G.N.Usmanova “Mustaqillk davri milliy raqs san’atining rivojlanish tamoyillari” -o‘zbek raqs san’atining yangi tarixiy sharoitdagi taraqqiyoti tahliliga bag‘ishlangan ilk fundamental tadqiqot yaratildi. Unda 1991-2022-yillarda O‘zbekistonda milliy raqs san’atining badiiy-madaniy hayotida kechgan jarayonlar, yangi ijodiy yo‘nalishlar va an’anaviy shakllarning mutanosibligi masalalari o‘rganildi.

L.Avdeeva va R.Karimova San’atshunoslik instituti “Teatr va xoreografiya” bo‘limida olib borgan ilmiy faoliyatlari mobaynida o‘zbek xoreografiya san’ati amaliyotini muntazam ravishda jonlanib turishi uchun ulkan hissa qo‘shgan. Ularning ilmiy-amaliy qo‘lyozma risolalari, monografiyalari an’anaviy professional san’atning badiiy uslublarini, raqs sur’ati va siyratini yoritishga bag‘ishlanganligi bilan ahamiyatlidir.

2001 yilda San’atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 10 yilligiga bag‘ishlangan “O‘zbekiston san’ati” (1991-2001 yillar) to‘plami nashr ettirildi. Mazkur kitobda “Opera va balet”, “Raqs san’ati” maqolalari tarixiy nuqtai nazardan puxta yozilgan va talaygina misollar bilan boyitilgan. “Raqs san’ati” maqolasining bir qismi O‘zbekiston viloyatlari hududlaridagi folklor-etnografik ansambllar tarkibi, repertuariga bag‘ishlangan bo‘lsa, qolgan qismida “Tanovar” raqs teatri ijodigi bag‘ishlangan va bu ijodiy guruh spektakllari, raqs dasturlari atroflicha tahlil etilgan.

2008-2009 yillarda San’atshunoslik institutida M.To‘laxo‘jaevaning Fan va texnologiyalarni rivojlantirish qo‘mitasi granti asosida nashr etilgan “Zrelищnыe iskusstva Uzbekistana v sisteme xudojestvennoy kulturы Uzbekistana XX veka” to‘plamining 1,2-jildlarida “bu tanqid emas, lekin ta’kidlash joizki, teatr, kino, ssenografiya va sirk tarixi, o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan, lekin xoreografiya mutaxassislari bo‘lmagani uchunmi raqs san’ati haqida maqola yo‘q”–degan edi.

2012 yilda “San’at” nashriyoti tomonidan “Bahor” ansamblining iste’dodli raqqosasi G.Hamraevaning “Raqsning milliy qiyofasi” (Natsionalnыy obraz tansa) monografiyasi o‘zbek va rus tillarida nashr etilgan.

2009 yildan boshlab Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabida o‘tkazilgan xoreografiya san’ati va ta’lim metodikasiga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy konferensiyalarda qatnashgan pedagoglar, ilmiy xodimlar, magistrlar iste’dodli talabalarning ma’ruzalari nashr etib kelingan. 2012 yilda o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy konferensiya mavzusi “Globallashuv jarayonida xoreografiya san’ati sohasida milliylikni saqlash muammolari” deb nomlangan.

2014 yilda nashr etilgan to‘plam tarkibiga “M.Turg‘unboeva ijodi va uning o‘zbek sahna xoreografiyasi rivoji uchun qo‘shgan hissasi” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari kiritilgan. 2015 yilda nashr etilgan to‘plam tarkibiga “O‘zbek xoreografiyasi san’atida vorislik masalalari” nomli konferensiya materiallari kiritilgan.

2016 yilda nashr etilgan to‘plam tarkibida “O‘zbekiston xoreogarafiya san’ati: an’ana va zamonaviylik” mavzusiga bag‘ishlangan konferensiya materiallari kiritilgan bo‘lib, mazkur to‘plamda xoreogarafiya san’atiga endigina kirib kelayotgan yosh olimlarning sohaga oid qator fikr-mulohazalari bayon etilgan.

2017 yilda nashr etilgan to‘plam tarkibida “O‘zbekistonda xoreografik ta’limning zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari”, 2018 yilda esa “O‘zbekistonda milliy raqs va xoreografiya ta’limining dolzarb masalalari” mavzulariga bag‘ishlangan konferensiya materiallari kiritilgan.

2019 yilda nashr etilgan to‘plam “O‘zbekistonda raqs san’ati rivojlanishi va istiqbollari: ijtimoiy jarayonlar” deb nomlanib, uning 19-20 sahifalarida san’atshunoslik fanlari nomzodi Tohir Yuldashev tomonidan mustaqillik davrida xoreografiya san’atini ilmiy jihatdan qanday o‘rganilganligi yoritilgan.

2020 yildan boshlab O‘zbekiston xoreografiya akademiyasida o‘tkazilgan xoreografiya san’ati va ta’lim metodikasiga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy konferensiyalar xalqaro miqyosda o‘tkaziladigan bo‘lib, I-Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya “Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy hamkorlik istiqbollari” deb nomlangan. Mazkur konferensiya pandemiya sharoiti tufayli onlayn tarzda o‘tkazilib, unda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida aynan xoreografiya san’ati soxasida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, ilmiy xodimlar, magistrlar, iste’dodli talabalar ishtirok etdilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Mustaqillikka erishilganidan so‘ng, Xoreografiya san’atiga ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarini ilg‘or jahon tajribalari asosida yaratilgan yangi avlod darslik, o‘quv qo‘llanmalari hamda davriy nashrlar bilan tizimli ta’minlash maqsadida juda ko‘plab o‘quv adabiyotlari nashr etildi. Avvalari milliy raqs san’ati bo‘yicha o‘quv darsliklari juda kam edi. Bugun esa xoreografiya akademiyasining mutaxassislik fanlari bo‘yicha deyarli barcha o‘quv adabiyotlari yaratildi. Masalan, K.S.Sagatov hamda M.Muxamedovalar tomonidan “O‘zbekiston madaniyati va san’atining fidoyilari” o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi milliy raqs san’atiga bugungi kunga qadar o‘z xissasini qo‘shib kelgan o‘zbek raqs san’atining asoschilari, raqqos-raqqosalar, baletmeysterlar va aynan ushbu sohada ta’lim berayotgan professor-o‘qituvchilarning ijodiy faoliyatlariga bag‘ishlangan bo‘lsa, O.K.Komarovaning “Metodika prepodavaniya narodnogo-ssenicheskogo tansa”, A.A.Magdievaning “Metodika izucheniya narodnogo-ssenicheskogo tansa”, K.B.Ibragimovaning “Metodika izucheniyai istoriko-bытovogo tansa”, K.S.Sagatovning “Metodika prepodavaniya kassicheskogo tansa (mujskoy klass)”, R.R.Iskandarovaning “Klassik raqs”, A.I.Eshimbetovaning “Xalq sahna raqsini o‘qitish uslubiyoti” kabi o‘quv qo‘llanmalari nashr etildi.

Milliy raqs san’atida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va ularni sohadagi asosiy adabiyotlar bilan ta’minlash maqsadida O‘.Muxamedova “O‘zbek raqsini sahnalashtirish amaliyoti”, L.N.Nasibulina “Istoriya uzbekskogo xoreograficheskogo iskusstva”, M.M.Mahmudova “O‘zbek raqsini o‘qitish uslubiyoti”, Z.K.Fazlieva “O‘zbek raqsini o‘rganish uslubiyoti (Farg‘ona raqs maktabi)”, Sh.Sh.Jalilova “O‘zbek raqsini o‘qitish uslubiyoti”, E.Ya.Saitova “O‘zbek raqsini o‘rganish uslubiyoti (Surxon raqs maktabi)”, E.Ya.Saitova “O‘zbek raqsini o‘rganish uslubiyoti (Uyg‘ur raqs maktabi)”, D.M.Abduhakimova “Raqs kompozitsiyasi asoslari” kabi asosiy mutaxassislik fanlariga oid o‘quv qo‘llanmalarni nashr ettirdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. T.Yuldashev. O‘zbek raqsshunosligi tarixiga bir nazar. O‘zbekistonda raqs san’ati rivoji va istiqbollari: ijtimoiy jarayonlar (II-Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari). –T., 2019. 19-bet.

2. Avdeeva L.A. O‘zbek raqsi dissertatsiyasi. 4 b. (San’atshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti arxiv fondida T(I) A18 № 560 raqami bilan saqlanadi).

3. O‘zbek raqsshunosligi tarixiga bir nazar. O‘zbekistonda raqs san’ati rivoji va istiqbollari: ijtimoiy jarayonlar (II-Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari). –T., 2020. 20-bet.

TALABALAR JAMOASI SOG‘LOM TURMUSH TARZI VA IJTIMOIY AGENTLAR TA’SIRINING XUSUSIYATLARI.

Ilhom Mattiyev,
Samarqand iqtisodiyat va servis instituti
“Tillarni o‘qitish” kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalar jamoasining sog‘lom turmush tarzi targ‘ibotidagi roli, ijtimoiy agentlarning ko‘rsatadigan ta’siri hamda talabalar orasida sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish usullari, inson salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan umumiy tamoyillar majmuasi, asosan, madaniy va psixologik ko‘rsatmalari talabaning kelajakdagi sog‘lom hayot tarziga asos bo‘lishi, yashash sharoitlari masalalari borasida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *sog‘lom turmush tarzi, barqaror rivojlanish, chekish, spirtli ichimlik, narkotiklar, ijtimoiy agentlar, sog‘lom hayot, inson salomatligi, faoliyat turi, milliy dastur, madaniy va psixologik, sog‘liqni saqlash siyosati.*

Abstract

In this article, the role of the student community in the promotion of a healthy lifestyle, the influence of social agents and methods of developing a healthy lifestyle among students, a set of general principles aimed at maintaining and strengthening human health, mainly cultural and psychological instructions are the basis of the student's future healthy way of life, the issues of living conditions are discussed.

Keywords: *healthy lifestyle, sustainable development, smoking, alcohol, drugs, social agents, healthy life, human health, type of activity, national program, cultural and psychological, health policy.*

Аннотация

В данной статье рассматривается роль студенческого сообщества в пропаганде здорового образа жизни, влияние социальных агентов и методов формирования здорового образа жизни среди студентов, комплекс общих принципов, направленных на сохранение и укрепление здоровья человека, преимущественно культурного характера. и психологические инструкции составляют основу будущего здорового образа жизни студента, обсуждаются вопросы условий жизни.

Ключевые слова: *здоровый образ жизни, устойчивое развитие, курение, алкоголь, наркотики, социальные агенты, здоровый образ жизни, здоровье человека, вид деятельности, национальная программа, культурно-психологическая, политика здравоохранения.*

Sog‘lom turmush tarzi (STT) har bir insonning, ayniqsa, yoshlarning kelajagini belgilashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Talabalar jamoasi esa ushbu tamoyilni shakllantirishda va uni ommalashtirishda yetakchi rol o‘ynaydi. Yoshlar sog‘lom turmush tarzini qabul qilish orqali nafaqat o‘z salomatligini mustahkamlaydi, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham sezilarli hissa qo‘shadi. Ushbu maqolada talabalar jamoasining STT targ‘ibotidagi roli, ijtimoiy agentlarning ko‘rsatadigan ta’siri hamda talabalar orasida STTni rivojlantirish usullari batafsil tahlil qilinadi.

Sog‘lom turmush tarzi tushunchasi va uning ahamiyati shundaki, sog‘lom turmush tarzi bu inson salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan umumiy tamoyillar majmuasidir. Bu tushuncha o‘z ichiga quyidagi elementlarni oladi:

Jismoniy faollik – muntazam sport mashg‘ulotlari va kundalik harakatlilik.

To‘g‘ri ovqatlanish – oziq-ovqatda balansli vitamin va minerallarni saqlash.

Zararli odatlardan voz kechish – chekish, spirtli ichimlik va narkotiklardan uzoq turish.

Psixologik sog‘liqni qo‘llab-quvvatlash – stressni boshqarish va ijobiy fikrlashni shakllantirish.

Talabalar jamoasida STTni shakllantirish yo‘llari - talabalar yoshligidan STT tamoyillarini o‘zlashtirsa, ular o‘z salomatliklarini nafaqat hozirgi, balki kelajakda ham mustahkam saqlab qoladi. Buning uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi:

Sport mashg‘ulotlari - talabalarga sport bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida universitetlarda sport to‘garaklari tashkil etilishi kerak. Bu jarayonda turli sport musobaqalari, marafonlar va boshqa tadbirlar orqali talabalar o‘rtasida jismoniy faollik rag‘batlantiriladi. Masalan, Oziq-ovqat madaniyati shakllantirish - talabalar orasida balansli ovqatlanish madaniyatini keng targ‘ib qilish muhimdir. Universitet oshxonalarida sog‘lom menyular joriy etilishi, maxsus seminar va treninglar orqali to‘g‘ri ovqatlanish bo‘yicha tushunchalar berilishi talab etiladi [1.56-bet].

Zararli odatlarga qarshi kurash - talabalar jamoasida chekish va alkogol mahsulotlariga qarshi targ‘ibot kampaniyalari o‘tkazish ijobiy natija beradi. Masalan, “Sog‘lom hayot” loyihasi doirasida amalga oshirilgan tadbirlar haqida batafsil fikr yuritiladi [2. 89-bet].

Psixologik sog‘liqni mustahkamlash - Stress va depressiyadan qochish uchun universitetlarda psixologik maslahat xizmatlari yo‘lga qo‘yilishi lozim. Talabalar uchun maxsus treninglar va dam olish mashg‘ulotlari tashkil etilishi kerak.

Ijtimoiy agentlarning STT shakllanishidagi roli - ijtimoiy agentlar STT targ‘ibotida muhim o‘rin tutadi. Ular quyidagi asosiy guruhlarga bo‘linadi:

Oila - Oila birinchi navbatda sog‘lom odatlarni shakllantiruvchi agent hisoblanadi. Oilaning madaniy va psixologik ko‘rsatmalari talabaning kelajakdagi sog‘lom hayot tarziga asos bo‘ladi. Bu haqda ko‘proq ma’lumotlar keltirilgan [3. 112-bet].

Ta’lim muassasalari - Universitet va kollejlar STT targ‘ibotidagi asosiy maydon hisoblanadi. Masalan, Toshkent davlat pedagogika universiteti tomonidan o‘tkazilgan “Sog‘lom turmush tarzi - baxtli hayot kafolati” seminarining natijalari bunga yaqqol misoldir [4.76-bet].

Davlat tashkilotlari - Davlat tomonidan ishlab chiqilgan sog‘liqni saqlash siyosati va dasturlari yoshlar orasida STTni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Masalan, “Yoshlar sog‘lomligi milliy dasturi” haqida batafsil ma’lumotlar berilgan [5. 43-bet].

Ommaviy axborot vositalari (OAV) - OAV talabalarga STTni targ‘ib qilishda muhim vosita hisoblanadi. Maxsus televizion dasturlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali STT targ‘ib qilinadi. Masalan, “Yoshlar uchun sog‘lom hayot” telekanalining loyihalari haqida keng doirada fikrlar bildirilgan [6. 67-bet].

Talabalar jamoasi STT shakllanishida nafaqat faollik, balki tashabbuskorlik ham ko‘rsatmoqda. Ularning sog‘lom turmush tarzini qabul qilishi jamiyat barqarorligi va rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunda ijtimoiy agentlarning hamkorligi, davlat dasturlari va talabalarning o‘z tashabbuslari birlashganda STTni ommalashtirish va talabalarning salomatligini yaxshilashga erishiladi. Ushbu maqolada talabalar jamoasining STTni shakllantirishdagi roli va ijtimoiy agentlarning ta’siri batafsil yoritilib, manbalar asosida ilmiy xulosalar chiqarildi.

Mustaqillik yillari davomida mamlakatimizda sog‘lom avlod g‘oyasi asosidagi davlat siyosati bosqichma-bosqich, rejalashtirilgan, maqsadli va manzilli tarzda amalga oshirildi. Uning amalga oshirilishi jarayoni muntazam moddiy, moliyaviy hamda eng ilg‘or moddiy-texnik baza bilan ta’minlandi. Sog‘lom avlod g‘oyasi o‘z mazmuniga quyidagilarni qamrab oladi:

Yangi barpo etilayotgan demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatida inson qadriyatlarini ustuvor anglash;

Millat genofondini sog‘lom saqlash va e’zozlash;

Sog‘lom avlod g‘oyasini targ‘ib va tashviq etish;

Sog‘lom avlod g‘oyasining amalda joriy etilishi uchun moddiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, tibbiy va pedagogik omillarni hamda shart-sharoitlarni ta’minlash;

O‘sib kelayotgan avlodni sog‘lom tafakkur egasiga aylantirish uchun, uning sog‘lom turmush tarzi asosida hayot kechirishi uchun mamlakat miqyosida sog‘lomlashtirish infratuzilmasini (tibbiy, ijtimoiy, sog‘lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport) yaratish;

Inson omilini tibbiy, ekologik, mafkuraviy, axborot xurujlari va tahdidlardan muhofaza qilish tizimini tashkil etish;

Jismoniy tarbiya va sportga yoshlarda salomatlikni mustahkamlash tizimi sifatida qarash hamda mamlakatning har bir hududida uning keng tarmoqlangan infratuzilmasini yaratish.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan sog‘lom avlod va salomatlikni muhofaza qilish davlat siyosati turli davlat hujjatlari, farmonlar, qarorlar va direktiv yo‘riqnomalar orqali huquqiy ta’minlandi va amaliyotga joriy etish uchun qabul qilindi.

Istiqlol yillarida sog‘liqni saqlash sohasiga doir o‘ndan ortiq qonunlar qabul qilinib, fuqarolar salomatligini yaxshilash bo‘yicha yuksak natijalarga erishilganligi shundan dalolat beradi. E’tiborli jihati shundaki, mazkur yutuqlar xalqaro miqyosda ham e’tirof etildi va tan olindi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng amalga oshirilgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy-mafkuraviy islohotlar jarayonining eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish, sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish, sog‘lom turmush madaniyati, salomatlikni asrash tafakkuri asosida hayot tarzini tashkil etish va fuqarolar salomatligini muhofaza qilish masalalari belgilandi.

Bugungi avlodni sog‘lom avlod qilib yetishtirish uchun esa ularda sog‘lom turmush tarziga rioya etish ko‘nikmalari va malakalari mavjud bo‘lishi, ularning hayot tarzlarida sog‘lom turmush madaniyati g‘oyalari shakllantirilgan bo‘lishi lozimligi ta’kidlandi. Mazkur dolzarb yo‘nalishlar davlat ahamiyatiga molik vazifalar qatoridan o‘rin oldi.

Mamlakatimizda sog‘lom turmush tarzi, sog‘lom madaniyatni shakllantirishga oid barcha ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy chora-tadbirlar belgilandi va ularni amalga oshirish bo‘yicha davlat hujjatlari, maxsus qonunlar, davlat dasturlari va ish rejalar qabul qilindi. Shunday qilib, sog‘lom avlodni tarbiyalash istagi O‘zbekistonda umummilliy g‘oya darajasiga ko‘tarildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nazarova D.A., “Jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati”, Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2019, 56-bet.
2. Mamatov A., “Zararli odatlar va ularning oldini olish”, Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 2020, 89-bet.
3. Qodirov R., “Oila va sog‘liq”, Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2021, 112-bet.
4. Karimova S., “Talaba hayotida sportning ahamiyati”, Toshkent: Fan nashriyoti, 2022, 76-bet.
5. Abdullayev J., “Davlat va sog‘lom turmush tarsi”, Toshkent: Adolat nashriyoti, 2020, 43-bet.
6. Aliyeva G., “OAV va sog‘liqni saqlash”, Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2021, 67-bet.

XORIJIY VA MAHALLIY ELEKTRON DARSLIKLARI TAHLILI

Xudoyor Jumanov,

Nukus innovatsion instituti “Dasturiy injinering va raqamli iqtisodiyot” kafedrasi assistent o‘qituvchisi. Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada darsliklarning afzalliklari va kamchiliklari aniq va vizual ko‘rinishda taqdim etilgan. Shu bilan bir qatorda xorijiy va mahalliy elektron darsliklarning farqlari va afzalliklari yoritilgan. Hamda, an’anaviy va elektron darsliklarning ta’lim jarayonida qo‘llanishiga oid afzalliklar va salbiy tomonlari ham taqqoslab ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *Interaktiv, integratsiya, ananaviy darslik, elektron darslik, texnologik imkoniyat, pedagogik texnologiya, texnologik vosita, individual, Web-texnologiya, EDI.*

Аннотация

В этой статье в ясной и наглядной форме представлены преимущества и недостатки учебников. Кроме того, выделены различия и преимущества зарубежных и отечественных электронных учебников.

Также сравниваются преимущества и недостатки использования традиционных и электронных учебников в образовательном процессе.

Ключевые слова: *интерактивный, интеграция, традиционный учебник, электронный учебник, технологическая возможность, педагогическая технология, технологический инструмент, личность, Web-технология, EDI.*

Abstract

This article presents the advantages and disadvantages of textbooks in a clear and visual way. In addition, the differences and advantages of foreign and local electronic textbooks are highlighted. Also, the advantages and disadvantages of using traditional and electronic textbooks in the educational process are compared.

Key words: *Interactive, integration, traditional textbook, electronic textbook, technological opportunity, pedagogical technology, technological tool, individual, Web-technology, EDI.*

O‘zbekistonda ta’lim tizimining rivojlanishi bilan bir qatorda darsliklarning turli xil shakllaridan foydalanish kengaymoqda. Xususan, an’anaviy va elektron darsliklar taqqoslanishi, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilish, shuningdek, xorijiy va mahalliy elektron darsliklarni o‘rganish orqali ta’lim samaradorligini oshirishga erishish mumkin.

An’anaviy darsliklar va elektron darsliklar ta’lim jarayonida asosiy manbalar sifatida qo‘llaniladi. Har ikkala formatning ham ijobiy va salbiy tomonlari mavjud bo‘lib, ularni chuqurroq tahlil qilish ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega.

An’anaviy darsliklar uzoq yillardan beri ta’limning asosiy manbai hisoblanadi. Ularning quyidagi ijobiy va salbiy tomonlarini ko‘rsatish mumkin:

An’anaviy darsliklarning ijobiy tomonlari:

- Ishonchlilik va barqarorlik: An’anaviy darsliklar o‘z mazmunining uzoq muddat davomida o‘zgarishsiz qolishini ta’minlaydi, bu esa uzoq muddatli ta’lim uchun mos keladi[1.112].
- Ko‘z sog‘lig‘ini saqlashga yordam beradi: Bosma shaklda bo‘lgan darsliklar ko‘zga zarar yetkazmaydi va uzoq muddat davomida foydalanish uchun qulay.
- Jismoniy mulk sifatida egalik: Talabalar uchun darsliklarni o‘zlariga mos ravishda belgilash, qayd qilish qulayligi mavjud.
- Kuzatish va yozuv qulayligi: An’anaviy darsliklar o‘quvchilarga sahifalarda izohlar yozish va o‘qilgan mavzularni alohida belgilash imkonini beradi[2.34].
- Kirish imkoniyati: Elektr quvvati yoki internet tarmog‘iga bog‘liq bo‘lmaganligi sababli, an’anaviy darsliklardan istalgan joyda foydalanish mumkin.

An’anaviy darsliklarning salbiy tomonlari:

- Yangilanish qiyinchiliklari: Bosma darsliklarni yangilash murakkab va qimmat bo‘lib, bu o‘quv mazmunini zamonaviylashtirishni qiyinlashtiradi[3.87].
- Jismoniy cheklovlar: Og‘irligi sababli ularni tashish va foydalanishda qiyinchiliklar yuzaga keladi.
- Cheklangan interaktivlik: An’anaviy darsliklar interaktiv ta’lim texnologiyalari bilan boyitilmagan.
- Statik kontent: Har bir mavzuni chuqur tushuntirish uchun maxsus ilovalar yoki amaliyot materiallari yo‘q.
- Og‘irligi: O‘quvchilar bir nechta darslikni maktabga olib borishda qiyinchiliklarga duch keladi.

Elektron darsliklarning ijobiy tomonlari: Elektron darsliklar ta’lim jarayoniga yangi imkoniyatlarni olib kiradi:

- Yangilanish tezligi: Elektron darsliklar osonlik bilan yangilanishi mumkin, bu esa mazmunni zamonaviy talablar asosida o‘zgartirishni osonlashtiradi[4.54].
- Qulaylik va moslashuvchanlik: Elektron darsliklar har qanday qurilmada foydalanish uchun qulay.
- Interaktiv imkoniyatlar: O‘quvchilar uchun qo‘shimcha video, audio va boshqa interaktiv materiallar mavjud bo‘lishi ta’lim jarayonini boyitadi.
- Multimediali materiallar: Elektron darsliklar dinamik kontent, video va interaktiv mashqlar orqali o‘quvchilarni jalb etadi. Masalan, matematik grafiklar va diagrammalarni real vaqt rejimida qurish mumkin.

- Yangilanish tezligi: Elektron darsliklarga yangi materiallarni qo‘shish yoki eskilarini yangilash jarayoni an’anaviy darsliklarga nisbatan ancha oson[5.76].

Elektron darsliklarning salbiy tomonlari:

- Texnologik bog‘liqlik: Elektron darsliklardan foydalanish uchun texnologik vositalar va internet kerak bo‘ladi, bu esa ba’zi hududlarda qiyinchilik tug‘diradi[6.92].

- Ko‘zga salbiy ta’sir: Uzluksiz ekranga qarash ko‘z sog‘lig‘iga zarar yetkazishi mumkin.

- Huquqiy cheklovlar va mualliflik huquqi: Elektron darsliklarning noqonuniy ko‘chirilishi mualliflik huquqlariga zid.

- Texnologik bog‘liqlik: Elektron darsliklar texnologik vositalar va barqaror internet tarmog‘ini talab qiladi. Bu, ayniqsa, qishloq hududlarida cheklov bo‘lishi mumkin.

- Ko‘z zo‘riqishi: Elektron qurilmalardan uzoq vaqt foydalanish o‘quvchilarning salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin[7.112].

Yuqoridagi taqqoslashlardan ko‘rinib turibdiki, har ikkala turdagi darsliklar ham o‘ziga xos afzalliklar va kamchiliklarga ega. Zamonaviy ta’limda ularni integratsiyalashgan holda qo‘llash eng maqbul yondashuv hisoblanadi.

Asosiy jihatlar	An’anaviy darsliklar	Elektron darsliklar
Ijobiy tomonlari		
Ishonchlilik va barqarorlik	Mazmun uzoq muddat davomida o‘zgarishsiz qoladi.	Mazmun tez yangilanadi va zamonaviy talablar asosida oson moslashtiriladi.
Sog‘liqni saqlash	Ko‘zga zarar yetkazmaydi, uzoq muddat foydalanish uchun qulay.	
Egasi bo‘lish imkoniyati	Darsliklarga qaydlar kiritish va belgilash qulay.	
Interaktivlik		Video, audio va boshqa interaktiv materiallar yordamida ta’limni boyitadi.
Salbiy tomonlari		
Yangilanish qiyinchiliklari	Bosma darsliklarni yangilash qiyin va qimmatga tushadi.	Foydalanish uchun texnologik vositalar va internet talab qilinadi.
Jismoniy cheklovlar	Og‘irligi sababli tashish va foydalanishda qiyinchiliklar mavjud.	Ko‘zga zarar yetkazishi mumkin, ayniqsa, uzluksiz ekranga qarash orqali.
Cheklangan interaktivlik	Interaktiv ta’lim texnologiyalari bilan boyitilmagan.	Ba’zi hududlarda foydalanishda texnologik va huquqiy cheklovlar mavjud bo‘lishi mumkin.

1-jadval. An’anaviy va elektron darsliklarni ijobiy va salbiy tomonlarini taqqoslash

Xorijiy va mahalliy elektron darsliklar tahlili - Xorijiy elektron darsliklar, odatda, zamonaviy texnologiyalar asosida yaratilgan bo‘lib, yuqori darajada interaktivlik va vizual kontentga ega. Masalan, “Khan Academy” yoki “Coursera” platformalarida taklif etiladigan materiallar keng ko‘lamli mashqlar va avtomatik baholash tizimini o‘z ichiga oladi.

Mahalliy elektron darsliklarning afzalliklari:

-Til va mazmun mosligi: Mahalliy elektron darsliklar o‘zbek tilidagi mavzular va milliy o‘quv dasturlariga muvofiqligi bilan ajralib turadi.

-Qulay narx: Xorijiy darsliklarga nisbatan mahalliy elektron darsliklar ko‘proq iqtisodiy jihatdan qulaydir[8.56]. An’anaviy va elektron darsliklar o‘zaro bir-birini to‘ldiruvchi vositalar sifatida ta’lim jarayonida alohida ahamiyatga ega. Ularning samaradorligini oshirish uchun xorijiy va mahalliy elektron darsliklarni o‘zaro integratsiyalash va milliy o‘quv dasturlariga moslashtirish zarur. Shuningdek, ta’limda barqarorlikni ta’minlash uchun texnologik imkoniyatlarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy darsliklar	Elektron darsliklar	Xorijiy elektron darsliklar	Mahalliy elektron darsliklar
Ijobiy tomonlar	1. Kuzatish va yozuv qulayligi	1. Multimediali materiallar	1. Yuqori darajada interaktivlik	1. Til va mazmun mosligi
	2. Kirish imkoniyati	2. Yangilanish tezligi	2. Avtomatik baholash tizimi	2. Quvay narx
Salbiy tomonlar	1. Statik kontent	1. Texnologik bog‘liqlik	1. Internetga doimiy ehtiyoj	1. Internetga doimiy ehtiyoj
	2. Og‘irligi	2. Ko‘z zo‘riqishi	2. Ko‘z zo‘riqishi	2. Cheklangan texnologik imkoniyatlar
O‘rganish usuli	Mustaqil o‘qish, qo‘lda yozish va tahlil qilish	Interaktiv mashqlar, video va grafik materiallar	Avtomatik baholash va mashqlar bilan interaktiv o‘rganish	O‘quv dasturlari va milliy talablar asosida tayyorlangan
Alohida xususiyatlar	An’anaviy shakl, qog‘ozda ishlash	Real vaqt tahlili, video materiallar	Kengaytirilgan vizual va interaktiv imkoniyatlar	O‘zbek tilida va milliy ta’lim dasturlariga muvofiq
Narx	Nisbatan yuqori (qog‘oz va chop etish xarajatlari)	Ba’zan bepul yoki arzon, ammo texnologiyalarga bog‘liq	Ko‘p hollarda pulli (premium versiyalar)	Odatda, arzonroq va bepul foydalanish imkoniyatlari

2-jadval. ***An’anaviy va elektron darsliklarning taqqoslanishi***

Bugungi kunda ta’lim jarayonida an’anaviy darsliklar bilan bir qatorda elektron darsliklar keng qo‘llanmoqda. Bu ikki xil o‘quv resursining o‘ziga xos xususiyatlari va foydalanish samaradorligini tahlil qilish ta’limni yanada rivojlantirish uchun muhimdir. Xususan, matematik ta’limda elektron darsliklardan foydalanish, bir tomondan, zamonaviy o‘quv vositalaridan unumli foydalanish imkonini bersa, boshqa tomondan, ularning ayrim cheklovlarini bartaraf etish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

An’anaviy va elektron darsliklarning ta’lim jarayonida ma’lum kriteriyalar yordamida qo‘llanishida bir qancha afzallik va salbiy tomonlari mavjud.

-Mustahkam manba sifatida xizmat qilishi: An’anaviy qog‘oz darsliklar uzoq muddat davomida foydalanish uchun qulaydir. Masalan, o‘quv yilidan-yiliga darsliklarni qayta nashr qilmasdan foydalanish mumkin.

-Mavzular izchilligi: Darsliklardagi mavzularning tartibi va ketma-ketligi o‘quvchilarga materialni tizimli o‘rganishga yordam beradi.

-Muloqotning jonli shakli: An’anaviy darsliklar o‘qituvchi bilan bevosita muloqotda foydalanishni talab qiladi, bu esa o‘quvchilarning dars davomida faol bo‘lishini ta’minlaydi[9.112].

-Elektron darsliklarning afzalliklari: Elektron darsliklar esa zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, ularning quyidagi ijobiy tomonlari bor:

-Interaktivlik: Elektron darsliklar ta’lim jarayoniga interaktiv elementlarni kiritishga imkon beradi. Masalan, matematik topshiriqlarning yechimlarini real vaqt rejimida ko‘rish yoki murakkab tenglamalarni animatsiya yordamida tushuntirish osonroq bo‘ladi.

-O‘zlashtirishning moslashuvchanligi: Har bir o‘quvchi uchun individual topshiriqlarni avtomatik tarzda tanlash imkoniyati ta’lim jarayonini optimallashtiradi.

-Tezkor qayta aloqa: O‘quvchi tomonidan bajarilgan topshiriqlar darhol baholanadi va xatolar bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Bu, ayniqsa, matematika kabi fanlarda o‘quvchilar xatolarini aniqlash va tushunish uchun samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi[10.88].

-Xorijiy elektron darsliklar tahlili: Xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqilgan elektron darsliklar ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishni ko‘zda tutadi. Masalan, AQShning Khan Academy platformasi matematika fanlarini o‘rgatishda keng foydalaniladi. Bu darsliklar yuqori sifatli grafikalar, audio va video materiallardan iborat bo‘lib, o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi. Germaniyada esa Mathematikum kabi interaktiv o‘quv platformalari maktab o‘quv dasturlariga integratsiya qilingan.

-Mahalliy elektron darsliklar tahlili: O‘zbekistonda ishlab chiqilgan elektron darsliklar ham xorijiy tajribalar asosida yaratilgan bo‘lib, ular mahalliy o‘quv dasturlariga moslashtirilgan. Jumladan, matematika faniga oid elektron darsliklar yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, mahalliy darsliklarning ayrim cheklovlari ham mavjud. Xususan, interaktivlik darajasi xorijiy darsliklarga nisbatan pastroq bo‘lishi mumkin. Ijobiy va salbiy tomonlarning taqqoslanishi.

-Ijobiy tomonlar: An’anaviy darsliklar barqarorlik va uzoq muddat foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi. Elektron darsliklar esa interaktivlik, qayta aloqa va individual yondashuvni taqdim etadi.

-Salbiy tomonlar: Elektron darsliklardan foydalanishda texnologik vositalarga bog‘liqlik kuchli bo‘lib, bu infratuzilmasi zaif hududlarda qiyinchilik tug‘diradi. An’anaviy darsliklar esa zamonaviy interaktiv metodlarni joriy qilish imkoniyatidan mahrum. Elektron darsliklardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim vosita bo‘lib, ular o‘quvchilarni qiziqtiruvchi texnologik yechimlarni taklif etadi. Ayniqsa, matematikani o‘qitishda elektron resurslar abstrakt tushunchalarni tushunishni osonlashtiradi. Shu bilan birga, an’anaviy darsliklarning barqarorligi va sinovdan o‘tgan tizimli yondashuvlarini inkor etmaslik lozim. O‘zbekistonda xorijiy tajribalarni o‘rganib, mahalliy sharoitga moslashtirish orqali darsliklarni yanada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Kriteriylar	An’anaviy Darsliklar	Elektron Darsliklar
Mustahkam Manba	Qog‘oz darsliklar uzoq muddat davomida saqlanishi mumkin.	Elektron darsliklar texnologiyaga bog‘liq bo‘lgan holatlar mavjud.
Mavzular Izchilligi	Darslikdagi mavzular ketma-ketligi o‘quvchilarga materialni tizimli o‘rganishga yordam beradi.	Interaktiv elementlar orqali mavzularni ko‘rish va o‘rganish osonroq bo‘ladi.
Muloqot Shakli	Bevosita o‘qituvchi bilan muloqotda foydalaniladi.	Ta’lim jarayonida interaktivlik orqali qayta aloqa tezda amalga oshiriladi.
Interaktivlik	Mavjud emas yoki minimal darajada mavjud.	Murakkab tenglamalarni animatsiya orqali tushuntirish va interaktiv mashqlarni o‘tkazish mumkin.
O‘zlashtirishning Moslashuvchanligi	O‘quvchi darajasiga moslashish imkoniyati cheklangan.	Har bir o‘quvchi uchun individual yondashuv va avtomatik topshiriq tanlash imkoniyatini beradi.
Tezkor Qayta Aloqa	O‘qituvchi tomonidan berilgan baholar va tavsiyalar orqali amalga oshiriladi.	Elektron darsliklar orqali darhol xatolarni aniqlash va o‘quvchiga tavsiyalar berish mumkin.
Texnologiyaga Bog‘liqlik	Texnologiyaga bog‘liq emas, faqat qog‘oz darsliklar kerak.	Elektron qurilmalarga, internetga bog‘liqlik mavjud.
Afzalliklar	Barqarorlik va uzoq muddat foydalanish, mavzular izchilligi, jonli muloqot.	Interaktivlik, individual yondashuv, tezkor qayta aloqa.
Salbiy Tomonlar	Zamonaviy interaktiv metodlar cheklangan.	Texnologiyaga bog‘liqlik, infrastruktura zaif joylarda qiyinchiliklar.
Xorijiy Tajribalar	-	Khan Academy va Mathematikum kabi platformalar misolida elektron darsliklardan foydalanish.
Mahalliy Tajribalar	-	O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan elektron darsliklar mavjud.

3-jadval. ***An’anaviy va elektron darsliklarning ta’lim jarayonida qo‘llanishi.***

Elektron darsliklarning ta’lim jarayonida interaktivlik, tezkor qayta aloqa, va moslashuvchanlik kabi ijobiy jihatlari bilan birga, texnologik bog‘liqlik va infrastruktura cheklovlari kabi salbiy tomonlari ham mavjud. An’anaviy darsliklar esa uzoq muddat foydalanish imkonini berish bilan birga, zamonaviy interaktiv metodlarni joriy qilishda cheklangan.

Bu masalani hal qilish uchun, Internet-darslikning tarkibini tezda yangilash, yangi Internet-resurslarni qo‘shish, yangi gipermatnli havolalarni kiritish imkoniyatiga ega bo‘lgan tuzilma va texnik realizatsiyani ishlab chiqish zarur. Ushbu ishni tarmoq darsliklari mualliflari dasturchilarsiz amalga oshirishi kerak. Zamonaviy ED, albatta, Internet-yordamga ega bo‘lishi kerak, chunki bu materialni yangilashning noyob imkoniyatini yaratadi va foydalanuvchining mustaqil ishini faol tarzda olib borishga sharoit yaratadi.

Multimedia imkoniyatlari taqdim etilayotgan materialning ko‘rgazmaliligini oshirish va o‘qishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirishga yordam beradi, chunki ular o‘quv materialini tovush, animatsiya, grafik va video materiallari bilan qo‘llab-quvvatlaydi.

Interfeys esa kompyuterli o‘qitish tizimining tuzilishini va foydalanuvchi bilan aloqani tashkil etadigan imkoniyatlarni o‘z ichiga oladi. Bu imkoniyatlar ko‘p darajali menyu tizimini tashkil etish, ko‘p oyna interfeysi, gipermatnli havolalar tizimi, matn bo‘yicha qidiruv, turli xil servis xizmatlarini (yordam, kalkulyator, hisoblash natijalarini saqlash va boshqalar) o‘z ichiga oladi.

Tarmoq muhiti elektron darsliklarning yangi turini yaratishga sabab bo‘ldi - Internet-elektron darsliklari. Ular an’anaviy elektron darsliklarning barcha xususiyatlariga ega bo‘lish bilan birga, Web-texnologiyalari tomonidan taqdim etilgan qo‘shimcha imkoniyatlarni ham o‘z ichiga oladi. Elektron darsliklarning barcha asosiy elementlarini uchta guruhga bo‘lish mumkin: ma’noli elementlar, multimedia elementlar va interfeys elementlari, Internet-darsliklar esa Web-elementlarini ham o‘z ichiga oladi.

Ma’noli elementlar o‘quvchiga fan mavzusining nazariy materialini o‘rganish, olingan bilimlarni vazifalarni bajarish, mashqlarni amalga oshirish, kompyuter eksperimentlarini o‘tkazish, oraliq va yakuniy nazoratdan o‘tish imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu elementlar o‘quv jarayonini an’anaviy ta’lim usullariga yaqinlashtiradi.

Web texnologiyalari ta’lim oluvchi va tutor o‘rtasida interaktiv aloqani tashkil etishga imkon beradi. Bu oddiy elektron pochta xizmati orqali bo‘lishi mumkin, shuningdek, off-line yoki on-line konferensiyalarni tashkil etish, Global tarmoqdagi ilmiy va o‘quv ma’lumotlarini qidirish, dunyo bo‘yicha olimlarning ishlariga havolalar o‘rnatish va boshqa imkoniyatlar ham mavjud.

Ochiq ED esa Internet-darslik bo‘lib, u tashqi ma’lumot manbalariga, ma’lumotlar bazalari va bilimlarga havolalarni o‘z ichiga oladi. Bunday darsliklar global kompyuter tarmog‘ida joylashtiriladi. Internet-darsliklarni ishlab chiqishda axborot texnologiyalari va kompyuter fanlari sohasidagi ilmiy tadqiqotlar, shuningdek, o‘z sohasi bo‘yicha so‘nggi ilm-fan yutuqlari qo‘llaniladi. Bu, har doim yangilanib turadigan ilmiy va ta’limiy ma’lumotlarning katta oqimining mavjudligi bilan bog‘liq. Ushbu ma’lumotlar o‘quvchilarga tezda yetkazilishi lozim, chunki shaxsning rivojlanishi uchun zamonaviy fan yutuqlari haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish zarur.

Shunday qilib, agar Web imkoniyatlari bilan kengaytirilgan elektron darslikning standart sxemasi yaratilsagina, Internet-uchun darslikning sxemasi yuzaga keladi. Shuningdek, masofaviy ta’lim tizimi yaratishda elektron Internet-darslik sifatida bir qancha qo‘shimcha omillarni hisobga olish zarur. Bunga nafaqat EDI asosiy formatlari va texnologiyalarining o‘zaro mosligi, balki Internet-muhit bilan ham mosligi kiradi.

Har bir variantning o‘z afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Lokal versiya bilan ishlash uchun Internetga ulanish talab etilmaydi, lekin zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlar, shu jumladan savollar bazasi, CD da joylashtirilishi kerak. Bundan tashqari, lokal versiyada o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish qiyin bo‘ladi. Seta tarmog‘iga ulangan versiya uchun esa telekommunikatsiya kanali talab qilinadi (uning o‘tkazuvchanligi shuncha yuqori bo‘lishi kerakki, shunchalik multimedia vositalari ishlatiladi). Ammo tarmoq versiyasida kursning dolzarbligini saqlab turish muammo bo‘lmaydi, hatto o‘quvchining darslik bilan ishlash jarayoni ham protokollanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov Sh.A. “Ta’lim texnologiyalari asoslari”, Toshkent: “O‘zbekiston”, 2018.
2. Abduvohidov Jahongir Mirzohidovich. “Ta’limda darsliklar o‘rni”, Toshkent: “Ilm Ziyo Nashr”, 2018.
3. Nazarov A. “Bosma va elektron darsliklar”, Toshkent: “Ma’naviyat”, 2020.
4. Qodirov I. “Raqamli ta’lim”, Toshkent: “Innovatsiya nashriyoti”, 2022.
5. Karimova Dilafruz Ismoilovna. “Raqamli ta’lim resurslari”, Toshkent: “Fan Nashriyoti”, 2020.
6. Karimov O. “Elektron ta’limda samaradorlik”, Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2023.
7. Rasulova Mohira Baxtiyorovna. “Raqamli darsliklar tahlili”, Toshkent: “Yangi Nashr”, 2022.
8. Qodirov Sherzod Abdumalikovich. “Milliy darsliklar: imkoniyat va istiqbollar”, Toshkent: “Ma’rifat”, 2023.
9. Komilov Rustam Zokirovich. “Ta’limda an’anaviy metodlar”, Toshkent: “Ma’rifat Nashriyoti”, 2020.
10. Ismoilov Azizbek Anvarovich. “Elektron ta’lim vositalarining afzalliklari”, Toshkent: “Ilm-Fan Nashriyoti”, 2021.

BENEFITS OF IMPLEMENTING WEB-TECHNOLOGIES IN FOREGN LANGUAGE LEARNING

Feruza Kadirova,
Tashkent university of Information technologies named after
Muhammad al-Khwarizmiy
English language department senior teacher

Abstract

The article explores how Web-technologies have revolutionized foreign language learning and teaching, expanding beyond traditional classroom methods to include digital platforms like Learning Management Systems (LMS), mobile apps, video conferencing tools, social media, and AI-based systems. These technologies offer personalized, flexible, and interactive learning environments that enable learners to practice language skills with immediate feedback. Teachers can also use these tools to deliver content more effectively and engage students dynamically.

Key words: *Web-technologies, foreign language learning, language teaching, learning Management Systems (LMS), mobile learning apps, video conferencing tools, AI in education, Virtual reality (VR), Gamification, personalized learning.*

Аннотация

В статье исследуется, как веб-технологии произвели революцию в изучении и преподавании иностранных языков, выйдя за рамки традиционных методов обучения и включив в себя цифровые платформы, такие как системы управления обучением (LMS), мобильные приложения, инструменты видеоконференций, социальные сети и системы на основе искусственного интеллекта. Эти технологии предлагают персонализированную, гибкую и интерактивную среду обучения, которая позволяет учащимся практиковать языковые навыки с немедленной обратной связью. Учителя также могут использовать эти инструменты для более эффективной подачи контента и динамичного вовлечения учащихся.

Ключевые слова: *Веб-технологии, изучение иностранных языков, преподавание языков, системы управления обучением (LMS), мобильные приложения для обучения, инструменты видеоконференций, искусственный интеллект в образовании, Виртуальная реальность (VR), геймификация, персонализированное обучение.*

Annotatsiya

Maqolada veb-texnologiyalar xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitishda qanday inqilob qilgani, an'anaviy sinf usullaridan tashqari, o‘rganishni boshqarish tizimlari (LMS), mobil ilovalar, video konferentsiya vositalari, ijtimoiy media va sun'iy intellektga asoslangan tizimlarni o‘z ichiga olgan raqamli platformalarni o‘z ichiga olganligi o‘rganiladi. Ushbu texnologiyalar shaxsiylashtirilgan, moslashuvchan va interfaol o‘quv muhitlarini taklif etadi, bu

esa o‘quvchilarga darhol fikr-mulohaza bilan til ko‘nikmalarini mashq qilish imkonini beradi. O‘qituvchilar ushbu vositalardan tarkibni yanada samaraliroq yetkazib berish va talabalarni dinamik ravishda jalb qilish uchun ham foydalanishlari mumkin.

Qarshi davlat universiteti pedagogika kafedrasi v/b dotsenti, p.f.f.d.

Annotatsiya

Ushbu maqolada muallif boshlang‘ich sinflarda tarbiya darslarini loyihalashtirishda neonologik yondashuvni takomillashtirishning ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolada neonologik yondashuvning pedagogik jarayonda qo‘llanishi, ta’limda yangi texnologiyalarni va innovatsion metodlarni integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning kreativ fikrlashini va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Yangi yondashuv o‘quvchilarga nafaqat bilimlar, balki ijtimoiy, emotsional va axloqiy rivojlanishga ham ta’sir etishi kutilmoqda. Shuningdek, maqolada o‘qituvchilarning professional rivojlanishi va darslarni interfaol tarzda tashkil etish masalalari yoritilgan. Neonologik yondashuvni takomillashtirish orqali boshlang‘ich ta’lim tizimining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarni zamonaviy hayotga tayyorlashning imkoniyatlari va yo‘llari muhokama qilinadi. Maqola, o‘quvchilarning o‘z qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirish, ta’limda innovatsiyalarni amalda qo‘llash uchun zarur bo‘lgan metodik yondashuvlarni tavsiya qiladi

Kalit so‘zlar: *Yondashuv, tarbiya, mezon, talab, mas’uliyat, axloq, nazorat, odat, javobgarlik, fazilat, inson, ong, loyiha, integratsiya.*

Аннотация

В данной статье автор анализирует важность совершенствования неонологического подхода при построении учебных занятий в начальных классах. В статье рассматривается использование неонологического подхода в педагогическом процессе, возможности развития творческого мышления учащихся и способности принимать самостоятельные решения путем интеграции новых технологий и инновационных методов в образование. Ожидается, что новый подход повлияет не только на знания учащихся, но и на социальное, эмоциональное и моральное развитие. Также в статье освещены вопросы профессионального развития учителей и интерактивной организации занятий. Обсуждаются возможности и пути повышения эффективности системы начального образования и подготовки учащихся к современной жизни путем совершенствования неонологического подхода. В статье рекомендуются методические подходы, необходимые для максимального развития способностей учащихся и практического применения инноваций в образовании.

Ключевые слова: *Подход, воспитание, критерий, требование, ответственность, мораль, контроль, привычка, ответственность, добродетель, человек, разум, проект, интеграция.*

Abstract

In this article, the author analyzes the importance of improving the neonological approach in the design of educational lessons in primary classes. The article examines the use of the neonological approach in the pedagogical process, the possibilities of developing students' creative thinking and the ability to make independent decisions by integrating new technologies and innovative methods in education. The new approach is expected to affect students not only knowledge, but also social, emotional and moral development. The article also covers the issues of professional development of teachers and interactive organization of classes. Possibilities and ways of improving the effectiveness of the primary education system and preparing students for modern life by improving the neonological approach are discussed. The article recommends methodical approaches necessary for the maximum development of students' abilities and the practical application of innovations in education.

Keywords: *Education, upbringing, criteria, trebovanie, otvetstvennost, morale, control, privychka, otvetstvennost, dobrodetel, human, reason, project, integration.*

Kirish (Introduction). Bugungi kunda jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini modernizatsiyalashda pedagogik yangiliklarni klassifikatsiyalash, ta’lim subyektlari o‘rtasida neonologik va kreativ yondashuvli natijaviy munosabatlarni takomillashtirish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, xalqaro amaliyotda o‘qitishni integratsiyalash va modellashtirishning istiqbolli yo‘nalishlari asosida boshlang‘ich

ta’lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, sifat menejmentini joriy qilish, ta’lim-tarbiyaning didaktik tamoyillari va o‘qituvchi faoliyatini modellashtirish, ko‘p komponentli yondashuvlarni rag‘batlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Komil inson tarbiyasi har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlod tarbiyasidagi loqaydlik jamiyatni ma’naviy inqirozga olib kelishi o‘tmish ajdodlarimiz tajribalaridan yaxshi ma’lum. Negaki, taraqqiyot uchun har qanday jamiyatda ham moddiy, ham ma’naviy boyliklar doirasi to‘xtovsiz ravishda kengayib borishi zarur. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma’naviy boyliklarni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq yarata bilishlari kerak [4;184]. Kichik maktab yoshidan o‘quvchilarda ana shunday moddiy va ma’naviy qobiliyatlarni shakllantirish uchun esa Tarbiya darslarini loyihalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish tizimiga ega bo‘lish muhim sanaladi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review). Respublikamizda ta’lim oluvchilarning umumo‘quv malakalarini maqsadli rivojlantirish o‘qituvchining pedagogik mahorati bilan bog‘liqligi masalalari Sh.A.Abdullayeva, R.Sh. Ahlitdinov, A.A.Abduqodirov, U.Sh. Begimqulov, O.A.Abdulayeva, B.R. Adizov, Sh.Mardonov, A.Sohibov, R.Jo‘rayev, O.Musurmonova, X.Ibragimov, K.Riskulova, B.B.Ma’murov, M.Quronov, N.Shodiyev, S. Turg‘unov A.Xoliqov, B.Xodjayev, M.Mirsoliyevalar tomonidan tadqiq etilgan [1;69].

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlaridan tadqiqotchilari Ye.L. Alekseyeva, P.K Anoxin, B.S. Gershunskiy, A.S. Glinskiy, V.V. Davidov, S.V. Dzyubenko, O.G. Zuyev, V.V. Krayevskiy, A.O. Kochnev, M.M. Potashnik, P.G. Postnikov, A.V. Xutorskoylarning ilmiy izlanishlarida o‘quv-biluv faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqib o‘qituvchilarning ta’lim jarayoniga yangiliklarni tatbiq etish masalalarini tadqiq etganlar.

Xorijlik olimlardan Dj.Dyui, E.P.Torrance, Y.Doll, J.Dewey, R.Mirabile, M.Stephensonlar tomonidan ta’lim jarayonini modellashtirish, o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarini sinergetik yondashuv asosida o‘ziga xosliklari, nazariy-metodologik jihatlarini yoritib berganlar.

Ilmiy va nazariy darajada bolalarda mas’uliyatlilikni shakllantirish muammosini o‘rganishning dolzarbligi, shaxs ma’suliyatini shakllantirishni o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab ishlar MDH olimlari (L.I. Bojovich, Z.N. Borisova, V.A. Gorbacheva, L.I. Dementiy, K.A. Klimova, B.C. Muxina, V.P. Pryadein va boshqalar) va xorijlik olimlar (L. Kolberg, J. Piaje, J. Rotter, F. Xayder va boshqalar) tadqiqot olib borishgan

“Tarbiya” fanini o‘qitishdan ko‘zlangan maqsadni aniqlashtirish uchun, avvalo, mazkur tushuncha mazmuniga to‘xtalib o‘tish joiz. Ilmiy izlanishlarimiz doirasida bir qator pedagog, psixolog, sotsiolog va huquqshunos olimlarning tadqiqot ishlarini nazariy jihatdan tahlil qildik. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ularda “tarbiya” tushunchasi keng va tor ma’nolarda tahlilga tortilgan. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ko‘rsatilganidek, “Tarbiya – aniq maqsadli hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama kamol toptirishga, ularning ongini, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan tizimli jarayon”.

Shu o‘rinda tadqiqot ishimiz mohiyatini yoritishga xizmat qiladigan neologiya tushunchasi anglatadigan ma’noni oydinlashtirish ham maqsadga muvofiq. “Neologiya” so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, “neo” – “yangi” va “logos” – “ta’lim”, ya’ni yangiliklar haqidagi ta’limot ma’nosini beradi.

Pedagogik neologiya – pedagogikada ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, yangilik kiritish demak. Bunda pedagogikada yangilik, pedagogik yangiliklarning klassifikatsiyasi, yangilik yaratish sharoiti, yangilik mezonlari, o‘zlashtirish va qo‘llashga doir tayyorgarlik normalari, an’analar va novatorlik, yangilik yaratish bosqichlari, yangilik yaratuvchilar singari kategoriyalar tushuniladi, sohadagi har qanday yangiliklar o‘rganiladi va umumlashtiriladi. Aytish o‘rinliki, neonologik yondashuv asosini tizimli yondashuv tashkil qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Neonologik yondashuv asosida boshlang‘ich sinflarning tarbiya darslarini loyihalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish pedagogik zaruriyat ekanligini asoslash;

boshlang‘ich sinflarning tarbiya darslarida mutafakkir olimlar ilmiy merosidan foydalanishga doir metodik talablarini aniqlashtirish;

boshlang‘ich sinflarning tarbiya darslarini loyihalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish indikatorlarini ta’lim va tarbiya jarayoniga ijtimoiy baholash mezonlarini kiritish va ularning o‘zaro integratsiyasini o‘quvchilarning rivojlanish vektoriga moslashtirish orqali ta’minlash asosida aniqlashtirish;

boshlang‘ich sinflarning tarbiya darslarini loyihalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish jarayonlarini modellashtirish metodikasi va modulli ishlanmasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Natijalar va muhokama (Result and Discussions). Mamlakatimiz uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida “Tarbiya” fanini o‘qitishning konseptual g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etish, metodik shart-sharoitlarini aniqlashtirish, ta’lim-tarbiya sifatini oshirishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, ayniqsa, o‘quv-tarbiya jarayonining natijaviyligini ta’minlash hamda kreativ yondashuvga asoslangan o‘qitish modellarini ishlab chiqish zarurati ko‘zga tashlanmoqda.

Mazkur vazifani amalga oshirish muammosining dolzarbligi quyidagilarga asos bo‘ladi:

birinchidan, ta’lim nazariyasi va amaliyotida har bir shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan aqliy, jismoniy, badiiy-estetik va axloqiy-ma’naviy xususiyatlarni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan neonologik yondashuvdan foydalanish;

ikkinchidan, o‘quv-tarbiya jarayonida besh yo‘nalishda kechadigan: imon tarbiyasi, ma’naviy tarbiya, dunyoviy tarbiya, jismoniy tarbiya, ruhiy tarbiya asoslarini tayanch kompetensiyalar tarkibida shakllantirish;

uchinchidan, “Tarbiya” fanini o‘qitishda yangicha, tizimli yondashuv asosida ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni to‘liq yuzaga chiqarish va fanlararo ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko‘tarish va h.k.

Boshlang‘ich sinflarning Tarbiya darslarini loyihalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish ta’lim jarayonining negizi bo‘lgan, doimiy e’tiborni talab qiladigan, o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan pedagogik muammodir. Chunki, har bir shaxsning jamiyat maqsad va manfaatlariga mos keluvchi intilishlari uning ma’naviy dunyosi, nuqtai nazarlari va shu asosda shakllangan ideali orqali tartibga solinadi.

Global internet tarmog‘idagi yangilanishlar, “ommaviy madaniyat rivoji” akseleratsiya jarayonini bir qadar tezlashtirib yubordi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, boshlang‘ich sinflar “Tarbiya” fanini o‘qitish mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida yuksak axloqiy ideallarni shakllantirish ma’naviy ehtiyojga aylandi.

“Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining “Tarbiya” fani “Konsepsiyasi”da belgilanganidek, fanni quyidagi mazmun va bosqichlarda o‘qitish ko‘zlangan maqsadga xizmat qiladi:

– boshlang‘ich sinf (A2), 9-sinf (A2+), 11-sinf (V1) bitiruvchisiga qo‘yiladigan minimal malaka talablari, kompetensiyalar, baholash tartibi va o‘quv dasturlari. Har bir bosqich ma’naviy-axloqiy, tafakkur, huquqiy, fuqaroviy, iqtisodiy, jismoniy, ekologik, estetik tarbiya turlarini o‘z ichiga olishi lozim;

– o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash;

– tarbiyada oilaning maktab bilan samarali hamkorligini mustahkamlash, kattalarga, boshqa millat va madaniyat vakillariga bo‘lgan hurmatni umuminsoniy tamoyillar asosida shakllantirishni qo‘llab-quvvatlash;

– bola huquqlarini himoya qilish va ularning qonuniy manfaatlarini ta’minlash;

– uzluksiz ta’lim tizimiga “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyiliga asoslangan milliy qadriyatlarni singdirish;

– o‘quvchilarni ijtimoiy hayotga moslashtirish va turli murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish;

– bolada faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish;

– dunyo dinlarining ko‘p asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan ma’naviy qadriyat ekanini tushuntirish qatorida biror dinda zo‘ravonlik, terrorizm va ekstremizm g‘oyalari targ‘ib etilmasligini tushuntirish;

– shaxs faoliyatida ijtimoiy-ma’rifiy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish;

– ma’naviy-axloqiy jihatdan muammosi bor yoki tarbiyasida bo‘shliqlar mavjud bo‘lgan yoki notinch oila farzandlari, jinoyatchilikka moyil yoki profilaktik ro‘yxatda turadigan yoshlar bilan individual ishlash tizimini takomillashtirish.

Aytish o‘rinliki, tadqiqotimizdan ko‘zlangan maqsad ham boshlang‘ich sinflarning *Tarbiya darslarini loyihalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishning innovatsion klassifikatsiyasi, mezonlari, omillari, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish*dan iborat.

“Tarbiya” fani mamlakatimiz ta’lim tizimida yangi bo‘lib, uni o‘qitish asoslari, metod va texnologiyalarini ishlab chiqish zarurligi O.M.Jabborova, Z.Abduraxmanovnalar tomonidan tahlilga tortilgan. Shu sababli mazkur fan o‘qituvchilarining kasbiy malakalarini oshirib borish, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlash va muammolar bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish taqozo etilishi yoritilgan. Bu boradagi tajribalar muvofiqlashtirib borilishi muhimligi alohida ta’kidlangan [4;28].

Haqiqatan ham, “Tarbiya” fanining asosiy fanlar sifatida o‘qitilishini ta’minlash muhim pedagogik va ijtimoiy ahamiyatga molik masaladir. Boshlang‘ich ta’lim – bu eng muhim va asosiy bosqich bo‘lib, mazkur davrda bolaning ta’lim faoliyati yetakchi faoliyatga aylanadi. Bu bosqichda qo‘llab-quvvatlovchi bilimlar tizimi, sub’ektlar va universal harakatlar usullari dastlabki shakllanish jarayoni hisoblanib, u boshlang‘ich, o‘rta maktabda o‘qishni davom ettirish imkoniyatini beradi. O‘z bilimini butun hayoti davomida yaxshilash istagi va qobiliyatini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Shu nuqtai nazardan yondashilganda, umumiy o‘rta ta’lim tizimida “Tarbiya” fani 1–4-sinflarda haftasiga 1 soatdan, o‘quv yili davomida esa 34 soat o‘qitiladi. Internet tarmog‘ining www.tarbiyam.uz platformasida o‘quv-uslubiy ta’minotning axborot platformasini yaratish maqsadida fanga doir ma’lumotlar va o‘qituvchining vazifalari bayon etilgan metodik ma’lumotlar bazasi shakllantirildi. Bu platformada o‘qituvchilar uchun “Tarbiya” fanining maqsad-vazifalarini ochib beruvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar – fan konsepsiyasi, Davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari, uslubiy tavsiyalar, taqvim-rejalar, fanni o‘qitishga doir texnologiyalar, dars ishlanmalari joylashtirilgan. Shuningdek, platformada o‘quvchilar va ota-onalar uchun maxsus ruknlar ham mavjud [4;30].

Tarbiya darslarini neonologik yondashuv asosida tashkil etish ijtimoiy zaruriyatdir. Binobarin, boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning umumiy o‘rta ta’limni davom ettirishlari uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar asoslarini shakllantirish tadbirlari amalga oshiriladi.

M.M.Tilavovaning ilmiy izlanishlarida “O‘g‘il va qiz bolalarning har bir xalq madaniyatida har xil tarbiyalanishi tufayli, ular maktabga kelgan davrdan boshlab jinslarning psixologik farqlari ma’lum bo‘ladi” [5;125] degan fikr ilgari suriladi. Shuningdek, olima ta’lim jarayonida gender ijtimoiylashtirish to‘g‘risida fikr yuritib, ijtimoiylashtirishni o‘quvchi tomonidan o‘zi yashaydigan jamiyat gender madaniy tizimining o‘zlashtirilishi jarayoni sifatida ta’riflaydi. Ta’lim jarayonida gender ijtimoiylashtirishning muhim belgilari sifatida: o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish; o‘quv mehnatini to‘g‘ri taqsimlash; ularda gender xoslikka asoslangan shaxsiy sifatlarni qaror toptirish masalalariga alohida urg‘u beriladi. Olimaning ilmiy mulohazalariga tayanib, o‘g‘il va qiz bolalar tarbiyasiga sharqona uslubda yondashish ularni milliy qadriyatlarga sodiq va vatanparvar etib tarbiyalash asosi ekanligini ta’kidlash mumkin.

Pedagog I.A.Uzakovning ilmiy izlanishlarida uzluksiz ta’lim tizimining asosiy bosqichi bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, xorijiy mamlakatlarda bu sohada qo‘lga kiritilgan tajribalarni o‘rganish, ularni tahlil etish, shuningdek, milliy-mintaqaviy xususiyatlarni inobatga olish asosida ilg‘or tajribalardan respublika boshlang‘ich ta’lim maktablarida foydalanish maqsadga muvofiqligi qayd etilgan [7;23]

Ta’kidlash o‘rinliki, bugungi texnogen sivilizatsiya va “Yevropa madaniyati” bolalar tarbiyasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Achinarlisi, o‘quvchilarning kichik maktab yoshidan mobil aloqa vositalariga berilib ketishlari sharqona tarbiyadan “uzoqlashayotgani”ga misoldir. Shu bois Rossiya, AQSh, Yaponiya va Fransiya davlatlari va yetakchi xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimi tajribalarini o‘rganish sohada bir qator ijobiy an’analar rivojiga ta’sir ko‘rsatadi [7;25].

Xulosa. Boshlang‘ich sinflar “Tarbiya” darslarini loyihalashtirishda o‘qituvchilarning ta’lim texnologiyalarining konseptual asoslari, ta’lim berish modeli, ya’ni maqbul yo‘l (usul va shakl)lar va vositalar yig‘indisi asosida o‘quv-biluv faoliyatini bashoratlash, loyihalashtirish, rejalashtirish, tashkillashtirish, nazorat va baholash, shuningdek, neonologik yondashuv asosida boshqaruv xulosasini qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar – ta’lim samaradorligi omili; monografiya / T.: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2020, 184-b.
2. Hashimov K., Nishova S. Pedagogika tarixi, II-qism, Darslik. - T.: A.Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashriyoti, 2005, 304-b.
3. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Homidov H. Pedagogika tarixi: O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: O‘qituvchi, 1997. –248 b.
4. Xalilova H. Neonologik yondashuv asosida boshlang‘ich sinflarning tarbiya darslarini loyihalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish. Ped. fan.f.d ... diss. Chirchiq, 2013. – 137 b.
5. Хуторской А.В. Инноватсии в обще образовательной школе. Методы обучения. Сборник научных трудов / Под ред. А.В.Хуторского. – М.: ГНУ ИСМО РАО, 2006. – 290 с.
6. Egamberdiyeva N.M. Ijtimoiy pedagogika. Darslik. - T.: A.Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashriyoti, 2009. - 232 b.
7. Erkayev A. Ommaviy madaniyat va ma’naviy tarbiya. – T.: Ma’na-viyat, 2015. – 30 b.

IJTIMOIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI JAHON TAJRIBASINING PEDAGOGIK TAHLILI

Hulkar Rasulova,
QarshiDU Maktabgacha ta’lim kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish borasidagi jahon tajribasining pedagogik tahlili yoritilgan. Bolaning ijtimoiy kompetentligining rivojlanishi bilim, ko‘nikma va malakalar, harakat usullari, munosabatlar normalari, estetik mulohazalar shaklida taqdim etilganligi, bolalarning ijtimoiy kompetentligi rivojlanishiga eng katta ta'sir ko‘rsatadigan usullarni izlash didaktika muammolaridan biri ekanligi, *ta’limning muvaffaqiyati va ijtimoiy kompetentlik rivojlanishning samaradorligi jonli hayot tajribasining ta’lim jarayoniga to‘liq kiritilishiga bog‘liq ekanligi, ta’lim jarayonida hayot tajribasini qo‘llashga bo‘lgan yondashuvi yangi ma’lumot va hayot tajribasi orasidagi o‘zaro bog‘lanish zarurati bilan bog‘liq ekanligi, ijtimoiy rivojlanishning muvaffaqiyati va shakllanish darajasi, asosan kundalik amaliy ish-faoliyatdan kelib chiqishi, vitagen tajriba bolaning atrofdagi voqelikdan yoki o‘quv jarayonida olingan bilimga munosabatining asosi ekanligi bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy kompetentlik, didaktika, ta’lim tizimi, hayotiy tajriba, vitagen ta’lim, ijtimoiy rivojlanish, vitagen tajriba, kategoriya.*

Аннотация

В данной статье представлен педагогический анализ мирового опыта в области развития социальной компетентности детей. Указывается, что развитие социальной компетентности ребенка проявляется в виде знаний, навыков и умений, способов действий, норм отношений, эстетических размышлений. Одной из дидактических проблем является поиск методов, оказывающих наибольшее влияние на развитие социальной компетентности детей. Успех образования и эффективность развития социальной компетентности зависят от полного включения жизненного опыта в образовательный процесс. Подход к использованию жизненного опыта в обучении связан с необходимостью взаимосвязи между новыми знаниями и жизненным опытом. Успех социального развития и степень его формирования в значительной мере определяются исходя из повседневной практической деятельности. Витагеновый опыт является основой отношения ребенка к окружающей действительности или к знаниям, полученным в процессе обучения.

Ключевые слова: *социальная компетентность, дидактика, система образования, жизненный опыт, витагенное образование, социальное развитие, витагенный опыт, категория.*

Abstrac

This article presents a pedagogical analysis of the global experience in the development of children's social competence. It is explained that the development of a child's social competence is presented in the form of knowledge, skills and abilities, methods of action, norms of relationships, and aesthetic reflections. The search for methods that

have the greatest influence on the development of children's social competence is one of the didactic issues. The success of education and the effectiveness of social competence development depend on the full integration of life experience into the educational process. The approach to applying life experience in education is related to the necessity of linking new information with life experience. The success of social development and the degree of its formation largely stems from everyday practical activities. Vytagen experience is the foundation of the child's relationship to the surrounding reality or the knowledge gained during the learning process.

Key words: *social competence, didactics, education system, life experience, vitagenic education, social development, vitagenic experience, category.*

Kirish (Introduction). Zamonaviy hayotning ta'lim va tarbiyani tashkil etishga qo‘yadigan yuqori talablari bizni bolalarning maktabda o‘qishga tayyorligi talablariga javob beradigan ta'lim natijalarini olishga qaratilgan yangi, yanada samarali psixologik-pedagogik yondashuvlarni izlashga majbur qiladi, buning natijasida intellektual rivojlanish muammosi mavjud. Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishi alohida ahamiyatga ega. Uning yechimi maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim va tarbiyani tashkil etishning maqsad va tamoyillarini belgilash bilan bog‘liq. Mahalliy psixologik-pedagogika fanida bolaning ijtimoiy kompetentligining rivojlanishi bilim, ko‘nikma va malakalar, harakat usullari, munosabatlar normalari, estetik mulohazalar shaklida taqdim etilgan ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish jarayoni sifatida qaraladi.

Ta’limning barcha bosqichlarida yosh avlod ta’lim tizimini takomillashtirish vazifasi psixolog va pedagoglarning diqqat markazida. Bolalarning ijtimoiy kompetentligi rivojlanishiga eng katta ta'sir ko‘rsatadigan usullarni izlash didaktika muammolaridan biri - bilim mazmuni muammosiga ilmiy qiziqish uyg‘otdi, chunki aynan ta'lim mazmuni ko‘p jihatdan umumiy yo‘nalishni belgilaydi.[1]

Adabiyotlar tahlili (Literature review). I.S. Mar'enko fikriga ko‘ra, shaxsning hayotiy tajribasini shakllantirishda axloqiy xulq-atvor tajribasini to‘plash birinchi darajali ahamiyatga ega, bu tajriba uning axloqiy sifatlari, xatti-harakatlari va faoliyat motivlari bilan namoyon bo‘ladi.

Maktabgacha yosh davri, insonning hayotidagi muayyan sifatga ega bo‘lgan davr bo‘lib, u davomida bolalar katta miqdordagi bilimlar, aqliy va amaliy ko‘nikmalarni, malakalarni o‘zlashtiradilar. Bu davr bolalar uchun katta istiqbolga ega ahamiyatga ega. L.N. Tolstoy va A.S. Makarenko tomonidan aytilgan, bu yoshning inson tajribasini o‘zlashtirish, asosiy psixologik sifatlarni shakllantirishdagi abadiy ahamiyati haqida gapirgan mashhur fikrlar shu haqda guvohlik beradi. Ushbu psixologik sifatlar kelajakdagi hayotga katta ta'sir ko‘rsatadi.

A.P.Usovaning ta’lim jarayonida hayot tajribasini qo‘llashga bo‘lgan yondashuvi yangi ma’lumot va hayot tajribasi orasidagi o‘zaro bog‘lanish zarurati bilan bog‘liq. Bu, o‘z navbatida, bolalarning olib borayotgan bilimlari, ko‘nikmalari va malakalarini to‘g‘ri shakllantirishni talab qiladi. Umumiy natijalar — ijtimoiy rivojlanishning muvaffaqiyati va shakllanish darajasi, asosan kundalik amaliy ish-faoliyatdan kelib chiqadi, shuning uchun har bir bolaning kundalik amaliy tajribasiga e’tibor berish juda muhim.

I.S.Yakimanskaya shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasini ishlab chiqarishda bolaning hayot tajribasini muhim manbaa sifatida tan olishni ta’kidlaydi, bu esa ta’limda bolaning faol ishtirokini, uning hayot tajribasi bilan pedagogik ta’sirning «uchrashuvi»ni ta’minlaydi [4].

Hayotiy ta'lim g‘oyasi o‘qituvchilar tomonidan hech qachon rad etilmagan, ammo ta'lim jarayonida hayotiy tajribadan foydalanish zamonaviy pedagogika fani tomonidan hali yetarlicha o‘rganilmagan. A.S. Belkina, D.V. Kachalova, V.A. Krivenkoning fikriga ko‘ra, vitagen tajriba bolaning atrofdagi voqelikdan yoki o‘quv jarayonida olingan bilimga munosabatining asosi sifatida qaraladi.

Keltirilgan fikrlardan ko‘rsatilganidek, ta’limning muvaffaqiyati va ijtimoiy kompetentlik rivojlanishning samaradorligi jonli hayot tajribasining ta’lim jarayoniga to‘liq kiritilishiga bog‘liq. Shuningdek, ko‘plab tadqiqotchilar bu muammoga alohida e’tibor qaratishgan. Masalan, V.G. Nechayeva yangi material va hayot tajribasining o‘zaro bog‘lanishi bolalarning ijtimoiy rivojlanishini yaxshilash, ularning bilimlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, fikrlashni faollashtirish va mustaqillikni rivojlantirishga yordam beradi deb ta’kidlagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, agar bolalar individual tarqoq ma'lumotni emas, balki ma'lum bir faoliyatga xos bo‘lgan oddiy, ammo ahamiyatli aloqalar va

bog‘liqliklarni aks ettiruvchi taniqli elementar bilim tizimini o‘rgansalar, maktabgacha yoshdagi bolaning intellektual rivojlanishi yanada jadalroq bo‘ladi.

Har bir shaxs o‘zining va jamiyatning axloqiy xulq-atvor tajribasini to‘plashi kerak, bu faol hayotiy pozitsiyaning kondensatsiyalangan ifodasi sifatida ko‘rinadi. Har bir yosh avlod, ota-onalari va onalarining eng yaxshilarini o‘z ichiga olgan holda, o‘z hayotiy salohiyatini to‘playdi. Lekin bu tajriba o‘rganish passiv jarayon emas, balki faol va ijodiy jarayondir. Har bir yangi avlod hayotdagi asosiy masalalarga nisbatan shaxsiy munosabatini belgilab, o‘z ideallarini tanlaydi va o‘z tuzatishlarini kiritadi. Shuning uchun tajribani aloqa va o‘zaro munosabatlarning yakuniy natijasi deb hisoblash mumkin emas, chunki u doimiy ravishda rivojlanib boradi.

Tajriba tushunchasining mazmunini tahlil qilgan holda, vitagenik tajriba olishning quyidagi ishchi ta'rifini taklif qilamiz: "Insonlar uchun vitagenik tajriba olish yo‘llari - bu bilimlar, aqliy va amaliy ko‘nikmalar o‘zaro munosabatidir, bu ko‘nikmalar insonlar tomonidan nafaqat o‘z hayoti davomida, balki avlodlarning jamiyat-tarixiy tajribasini o‘zlashtirish jarayonida ham o‘zlashtiriladi."[2]

Shunday qilib, vitagenik tajriba kategoriya sifatida ilmiy tushunishning asosini tashkil etadi, bu esa bolalarni o‘z tajribalarini tahlil qilishga, umumlashtirishga va rivojlanish jarayonida undan foydalanishga o‘rgatish pedagogika va psixologiyaning muhim vazifalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi.

Bolalar bog‘chasidagi ta’limning fikrlash jarayonlarini va hayot tajribasini faollashtirishga yo‘naltirilganligi sababli, maktabgacha yoshdagi bolalar yuqori darajada ijtimoiy rivojlanishga erishadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar faqatgina atrofdagi realitet haqidagi yangi bilimlarni o‘rganib qolmasdan, balki o‘sha bilimlar asosida qarashlarni tahlil qilish, sintez qilish, solishtirish, umumlashtirish kabi boshlang‘ich amallarni o‘rganishlari kerak. Eng asosiysi ularning tajribalarini yangi bilish jarayonlariga qo‘shishni o‘z ichiga oladi.

To‘g‘ri tashkil etilgan tarbiya-o‘qitish jarayonida pedagog bolalarning hayot tajribasini foydalanish va unga tayanch hisobiga ta’limni samarali tashkil etishni bilishi kerak.

Agar bolaning hayot tajribasi ta’limda yetarlicha hisobga olinmasa, bu na faqat ta’limning mahalliylashtirilishiga, balki bilimlarni o‘rganishda formalizmga olib kelishi mumkin — "to‘g‘ri" bilimlarni qayta ishlash bilan ularni amalda qo‘llash o‘rtasidagi farqni yuzaga keltiradi, shaxsiy ma’nolar, qadriyatlar, hayot rejalari va maqsadlarini yashirishga bog‘liq bo‘ladi [3].

Vitagenik ta'lim nazariyasi shundaki, vitagenik tajriba faqat yordamchi emas, balki mustaqil ta'lim funktsiyasini bajaradi, bu esa pedagogik jarayonda «o‘tganning rivojlanish tendentsiyalarini kelajakdagi hayot tajribasiga olib borish» uchun prognozlash faoliyatini amalga oshirish imkonini beradi, shuningdek, o‘qitish jarayonida olingan nazariy bilimlarni hayotning real sharoitlari bilan samarali bog‘lashni yaratadi.

Natijalar va muhokama (Result and Discussions). Hayot tajribasida shaxsiy va ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan tajribalar mavjud bo‘lib, ular shaxsni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega [5].

Hayotiy tajriba talabalarning ijtimoiy kompetentligi rivojlanishining vositasi bo‘lib xizmat qiladi, agar:

- hayotiy tajribadan unumli foydalanish uchun ta’lim jarayonida pedagogik shart-sharoitlarning yaratilgan mezonlariga rioya etishi;
- talabaning hayoti va ilmiy g‘oyalari o‘zaro bog‘liqligi;
- talabalarning tajribasini tashkil etish va boyitilsa.

Shaxsiy tajribani hisobga olish zarurligi shundaki, hayotiy tajriba qabul qilingan ma’lumotlarni saqlashga asos bo‘lib xizmat qiladi. U o‘zining ishlash yo‘nalishini ham belgilaydi, o‘rganish jarayonidagi talablarni va bola bilan bo‘lgan mavjud tajribani muvofiqlashtiradi.

Shu bilan, mavjud ma’lumotlar tahlili orqali hayotiy tajribadagi asosiy komponentlarni va ularning ijtimoiy rivojlanish bilan o‘zaro aloqasini aniqlash mumkin. Bu bizga bolalarning ta’lim muassasalardagi hayotiy tajribalarining asosiy komponentlari va ko‘rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi.

Har bir insonning tajribasi o‘ziga xosdir va uni hech kim bilan almashtirib bo‘lmaydi; Hayotiy tajriba har bir shaxsning o‘ziga xos rivojlanish jarayonini qamrab oladi. Bu hayotiy tajriba avvalo, bu atrofdagi haqiqatni tushunish natijasidir, lekin u ham insonning his-tuyg‘ulari bilan chambarchas bog‘liq. Bir tomondan hayotiy tajriba boshdan kechirgan narsalarni tahlil qilish, boshqa tomondan esa orzu qilingan kelajakni bashorat qilish va

unga erishish vositasi sifatida ishlaydi. Hayotiy tajribaga tayanish - mavjud bilimlarni voqelikka, qiymatga, ta'lim va yashash maydonidagi bilimlarga aylantirishning asosiy usuli hisoblanadi.

Xulosa. Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, hayotiy tajriba bolaning ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi, uning manbalari cheksiz bo‘lib, bilimlar, ko‘nikmalar va amaliy tajribalarni to‘plashda asosiy o‘rin tutadi. Ta’lim jarayonida hayotiy tajribani hisobga olish muhimdir, chunki ta’limning natijasi faqat didaktik jihatga emas, balki bolaning hayotiy tajribasini ham hisobga olishga tayanishi kerak.

Shuningdek, kattalar tomonidan bilimlarni o‘zlashtirishning xususiyatlarini belgilovchi omil — bu ularning hayotiy tajribasidir. Kattalar tomonidan o‘rganilayotgan nazariy bilimlar va ularning hayotiy tajribasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, bir tomondan, nazariyani o‘zlashtirish sifatini oshiradi, ikkinchi tomondan esa shaxsiy tajribaning kengayishiga olib keladi.

Shunday qilib, vitagenik tajriba kategoriya sifatida ilmiy tushunishning asosini tashkil etadi, bu esa bolalarni o‘z tajribalarini tahlil qilishga, umumlashtirishga va aqliy rivojlanish jarayonida undan foydalanishga o‘rgatish pedagogika va psixologiyaning muhim vazifalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ишмуҳамедов Р.Ж., Юлдашев М.А. Таълим ва тарбияда инновацон педагогик технооғиялар (таълим тизими ходимлари, методистлар, ўқитувчилар,тарбиячи ва мураббийлар учун ўқув қўлланма) - Т. 2017, 368 б.
2. Rustamova, N. R. (2020). Training of students of cognitive processes based on vitagen educational situations. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(8 Special Issue), 869-872. Retrieved from www. scopus.com
3. Якиманская И.С. Знание и мышление школьника. -М., 1985. -С.78.
4. Якиманская И.С. Разработка технологии личностноориентированного обучения // Вопросы психологии. - 1995. - №2. -С.31.
5. Яковлева Т.С. Педагогические условия повышения умственной работоспособности детей 4-5 лет: Дис. ... канд.пед.наук. -М., 1986. -128с.

O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI ASOSIDA TALABALARDA DAXLDORLIK TUYG‘USINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Muxammadi Azimov,
Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi tayanch doktaranti

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonning eng yangi tarixiga daxldorlik masalasi, uni shakillantirish yo‘llari va vositalari bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb fikr va nazariyalar bayon qilingan. Shuningdek, unda tarixga daxldorlikni rivojlantiruvchi pedagogik modellar, ularning ahamiyati, tarixiy jarayonlardagi o‘rni haqida ma’limotlar berilgan. Ushbu tadqiqot ishi tarixda modellashtirish muammosi, tizimlashtirish, modellashtirishning pedagogik imkoniyatlarini bahlash va unga yangicha yondashuvlarni keng miqyosda muhokama qilishga mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: *O‘zbekistonning eng yangi tarixi, tarixiy model, modelllashtirish, daxldorlik tuyg‘usi, tizimlashtirish, tarixiy ong va tafakkur.*

Аннотация

В статье описаны современные идеи и теории, связанные с актуальностью проблемы, пути и средства ее формирования в новейшей истории Узбекистана. Он также предоставляет информацию о педагогических моделях, развивающих историческую значимость, их важности и роли в исторических процессах. Данная исследовательская работа призвана широко обсудить проблему моделирования в истории, систематизацию, оценку педагогических возможностей моделирования и новых подходов к нему.

Ключевые слова: *новейшая история Узбекистана, историческая модель, моделирование, чувство принадлежности, фактор развития, систематизация, историческое сознание и мышление.*

Annotation

The article describes the current ideas and theories related to the issue of relevance, the ways and means of shaping it in the latest history of Uzbekistan. It also provides information about pedagogical models that develop historical relevance, their importance, and their role in historical processes. This research work is intended to discuss the problem of modeling in history, systematization, assessment of pedagogical possibilities of modeling and new approaches to it on a large scale.

Key words: *the latest history of Uzbekistan, historical model, modeling, sense of belonging, development factor, systematization, historical consciousness and thinking.*

Kirish. Bugungi kunda model va modellashtirish barcha fanlarda keng tarqalgan ilmiy metodga aylanib bormoqda. Ijtimoiy fanlarda ham bu turdagi tadqiqotlarning salmog‘i ancha oshmoqda. O‘tmishda tarixga daxldorlik tuyg‘usini shakillantirish borasida ko‘plab uslublar va strategiyalar ishlab chiqilgan. Ularning ba’zilari o‘z samarasini bergan, boshqalari esa mavjud mexanizm bo‘lmaganligi uchun yetarlicha takomillashmagan. Bunga sabab ushbu tizimni ishlab chiqish, shakillantirish va uni amalaga oshirish jarayonidagi rivojlantirish modelining samarasiz tashkil etilishi deb hisoblash mumkin. Aslini olganda har qanday modelni ishlab chiqishdan oldin, uning sohaga oidligini, obyekt va subyektlar bilan o‘zaro aloqadorligi, uning tarkibiy qismlari va rivojlanish mexanizmlarini oydinlashtirib olish lozim. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasiga ko‘ra, keng ma’noda model – biror obyekt yoki obyektlar tizimining obrazi yoki namunasini bildiradi[2,672]. Tarixiy konteksdagi model esa ma’lum bir tarixiy jarayon, hodisa, davr, ijtimoiy-siyosiy tuzum, g‘oya va mafkuralarning aksini ifoda etishga hamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan vositalarni anglab yetishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tarixdagi ba’zi voqea va hodisalarni tushunishda talabalar bir necha murakkabliklarga duch kelishadi. Bunga sabab, ushbu davrga oid ma’lumotlarning yetishmasligi yoxud xilma-xil mafkuralarning ta’sir kuchlari doirasiga tushib qolish hisoblanadi. Bunday vaziyatda tarixni modellashtirish orqali o‘rganish muammoning yechimini topishga yordam beradi. Modellashtirish tarixga daxldorlik tuyg‘usini shakillantiruvchi mexanizmning analogini paydo qilishga yordam beradi. Modellashtirish rejali asosda talabalardagi taxldorlikni rivojlantiruvchi vositalarni aniqlaydi va yo‘naltiradi. Ushbu metod mavjud voqeylikni tasavvurda idrok etib ushbu tasavvur mahsuli asosida pragnoz hosil qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Tarixiy jarayonlarni modellashtirishning vujudga kelishi tarixi, uning mazmuni va o‘ziga xos turlari bilan bog‘liq jarayonlar H.Giora, R. Bernard[11,323] tadqiqotlarida tahlil qilingan. Unga ko‘ra, tarixiy voqea va hodisalarning ba’zi qismlari subyektiv yoritilgan yoki yo‘q qilinganligi bois ularni tiklash uchun modellashtirishdan foydalanish lozim.

Tarixni modellashtirishning ilmiy metodologik asoslari S.Shadmanova[3,72], D.Alimova[1,190] va N.Shermuhamedova[4,232] qarashlarida o‘z aksini topgan. Ilmiy nuqatayi-nazardan tarixni qayta tiklash uning modelini shakillantirish orqali amalga oshadi. Bunda tarixchilar pedagogikaning umumiy va maxsus uslublaridan foydalanishadi. Ushbu metodlar modellashtirish jarayonida talabalardagi daxldorlik sifatlarini ochib berishga yordam beradi.

Daxldorlik tuyg‘usi va uning shaxsda namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq pedagogik ilmiy tadqiqot ishlari A.Ro‘zimetov, Sh.Abdullayeva, R.Yormatov, B.Xodjeyev[10,19] larning milliy o‘zlikni anglash, jamiyatga daxldorlikni his qilish, tarbiyaning barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati, aloqadorlikni shakillantirishga oid pedagogik vositalar va ularning mazmun mohiyatini tushunish bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlari ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshirgan. Qolaversa, respublikamizning yosh tadqiqotchi olimlaridan E.Shermonov[9,14], S.Abdullayev[7,15] va A.Raxmonovlar[8,16] talabalarda islohatlar, ijtimoiy soha rivoji va milliy iftixor tuyg‘ulariga nisbatan daxldorlik fazilatlarini shakillantirishning pedagogik imkoniyatlarini rivojlantirishga oid maxsus ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan.

Tarixga daxldorlik tuyg‘usining o‘rganilishi va uni rivojlantirish ishlari har qanday mamlakat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bu boradagi ishlar yetarlicha tadqiq etilmasa, millatda hamjihatlik va birlik kabi ulug‘vor tuyg‘ular sekin-asta yo‘qolib boradi. Ya’ni, umumiy manfaatlarni anglash, mamlakat taraqqiyoti uchun hissa qo‘shish, boy tarixiy merosni asrab-avaylash va uni kelajak avlodga yetkazish bilan bog‘liq bo‘lgan

muammolar borgan sayin ortib boradi. Yurt ravnaqi uchun bel bog‘laydigan yoshlar millat ko‘z o‘ngida yo‘qotishi mumkin. Shuning uchun ham yoshlarni mamlakat taqdiri va tarixiga daxldor shaxs sifatida tarbiyalash modellari tarbiya jarayonida juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu modellarni ishlab chiqishning yagona yo‘li xorijiy davlatlar tajribasi asosida talabalarda tarixga daxldorlik tuyg‘usini shakillantirish modelini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etishdir.

Tahlil va natijalar. Globallashuvning turli xil tendensiyalari tufayli talabalarda tarixga ayniqsa O‘zbekistonning eng yangi tarixiga bo‘lgan daxldorlik hissi milliy g‘urur kuchi sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotish jarayoni kuchayib bormoqda. Bunga asos bo‘luvchi bir nechta sabablar mavjud:

Birinchidan, o‘qitish va o‘quv modelini yaratish bilan bog‘liq jarayonlarning olib borilayotgan islohotlardan ortda qolib ketishi. Ya’ni, ba’zi o‘quv dasturlari mamlakatimizda fan sohasida olib borilayotgan islohatlar davrida emas, balki undan keyingi davrda isloh qilinadi. Bu maqsadga erishish yo‘lidagi muammolarni yanada ko‘paytiradi.


Ikkinchidan, talabalardagi tarixga bo‘lgan qiziqish va intuitsiya mamlakatimizning eng yangi davrida keskin kamaymoqda. Negaki, aynan ushbu davrda xon, sulton, imperator, shoh va sarkardalarning o‘zaro urushlar, ular o‘rtasidagi keskinliklar hamda kurashlar arsenali kamdan kam uchraydi. Bu turdagi tarixiy ma’lumotlar talabalarni o‘ziga ko‘proq jalb qiladi. Shuning uchun ham eng yangi davr tarixini o‘qitishda ta’limning interfaol metodlaridan samarli foydalanish zarur.

Uchunchidan, hozirgi davr yoshlarining diqqat markazida tarixdan ko‘ra, treding, marketing, tarjima nazariyasi va sun’iy intelekt kabi serdaromad ta’lim yo‘nalishlari muhim o‘rin egallaydi. Talaba yoshlarning aksariyati milliy o‘zlikni anglashni emas, balki yuqoridagi kabi ommalashgan kasblarni tanlashga harakat qilishmoqda. Buning yomon tamoni ulardagi ma’naviy qashshoqlikning paydo bo‘lish xavfida bo‘lsa, yaxshi tamoni aynan ushbu soha vakillari mamalakat iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirish qobiliyatiga ega hisoblanadi. Ularni to‘g‘ri yo‘naltirish esa pedagoglarning birinchi galdagi burchlaridan biri hisoblanadi.

To‘rtinchidan, tarixni yoritish davomida obyektiv va subyektiv yondashuvlarni hisobga olish lozim. Tarixni davr siyosatiga moslab yoritib bo‘lmaydi. Agarda, tarix davlat siyosati va u bilan bog‘liq jarayonlarga to‘la bo‘lsa, undagi obyektivlik yo‘qoladi. Bu esa uni o‘rganuvchi ko‘plab subyektalarda tarixga bo‘lgan ishonchni susayishiga olib keladi. Pirovardida ushbu turdagi manbalarga asoslalngan tarixni kech kim o‘rganmaydi. Shuning uchun ham tarix adolatli yoritilishi lozim.

Tarixga mansublik tuyg‘usini takomillashtirish modelini ishlab chiqish kishilarda tarixga bo‘lgan hissiy munosabatlarni yaxshi tomonga o‘zgarishiga olib keladi va daxldorlikning modellashtirilgan shaklini tushunish ularda ushbu sohaga bo‘lgan qiziqishning kuchayishiga olib keladi. Shuningdek modellashtirilgan manbalar asosida tarixni o‘rganish boshqa metodlardan ko‘ra ko‘proq samaraliroq hisoblanadi. Chunki, modellashtirilgan manba asosida o‘rganilayotgan tarixiy obyekt aniq va vizual asoslarga ega bo‘ladi hamda uni boshqa bir tarixiy hodisalarga taqqoslash mumkin. Bundan kelib chiqadiki, bu metod ma’lumotlarni o‘xshash va farqli asoslarga ajratish imkonini beradi. Shuning uchun ham jahondagi ko‘plab tadqiqotchi olimlar modellashtirish metodidan o‘z ilmiy ishlarining pragnoz qismida foydalanishga harakat qilishadi. Tarixiy modellashtirish metodini zamonaviy ta’lim metodlari sirasiga kiritish mumkin. Sababi, ushbu model talabalarning tarixiy tafakkurini shakillantirishning ta’sviriy ifodasini aniq aks ettirishga qodir metoddir. Qolaversa, modellashtirish metodi murakkab tushunchalarning izohini tasviriy asosda tushunishga yordam beradi. O‘qituvchi uchun modellashtirishni tushuntirish murakkab bo‘lsa, talaba uchun aksincha. Ya’ni, talaba modellashtirilgan ma’lumotlarni tezda qabul qiladi va xotirada osongina saqlaydi. Ushbu metod ma’ruza mashg‘ulotlarini olib borishda pedagog o‘qituvchilarga juda kerakli dastur amal bo‘lib xizmat qiladi.

1-rasm. O‘zbekistonning eng yangi tarixi asosida talabalarda daxldorlik tuyg‘usini rivojlantirish modeli



Modellashtirish deyarli barcha fanlarda qo‘llaniladigan universal metod bo‘lib, undan uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarni ishlab chiqishda keng qo‘llaniladi. Modellashtirish ilmiy faoliyatning keng tarqalgan shakllaridan biridir. Barcha fanlarda modellashtirilayotgan hodisalar haqida ma’lumot olishda, farazlar va nazariyalarni ishlab chiqishda modeldan foydalaniladi[1,192]. Modellashtirish metodining asosiy maqsadi mavjud tizimlarning o‘ziga xos xususiyatlarini, ular orasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni va vaqt o‘tishi bilan yuzaga keladigan o‘zgarishlarning mohiyatini anglashdan iborat.

Ijtimoiy fanlarda modellashtirishning eng keng tarqalgan metodi bo‘lgan konseptual modellashtirish keng ishlatiladi. Bu usul mavjud tizimni tushuncha va tassavur asosida modellashtiradi. Tarixga daxldorlik tuyg‘usi va uni shakillantirish ham konseptual modellashtirish metodi talabalardagi daxldorlik xislatlarini aniqlash, uni o‘rganish, tahlil qilish va u haqida pragnozlar berishda juda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Biz chizgan holatlarda biz modeldan foydalanish haqiqatan ham turli maqsadlarga ega ekanligini aniq ko‘ramiz. Ilm-fan tarixchilari va faylasuflari sifatida bizning vazifamiz foydali farqlarni aniqlash va rolli modelini aniqlashdir[11.324]. Modellashtirish ilmiy tadqiqotning asosiy vositalardan biri hisoblanadi va u ilmiy faoliyat davomida mavjud bo‘lgan muammolarni aniqlashga yordam beradi. Shu sababli ham modellashtirish metodi tarixiy hodisalarni optimallashtirish uchun ishlatiladi.

O‘zbekistonning eng yangi tarixini o‘rganishda qo‘llaniladigan modellashtirish metodi bizga so‘ngi yillarda mamlakatimizdagi tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoy modellashtirish usullarini qo‘llash asnosida talabalardagi tarixga daxldorlik tuyg‘usining rivojlanish jarayonlarini matematik, statistik, iqtisodiy va ijtimoiy modellar yordamida yangicha tahlil qilish va loyihalash imkonini beradi. Tarixdagi abstrakt voqealarni manba asosida o‘rganish va ularning modelini talabalar tasavvurida ko‘chirishdan iborat hisoblanadi. Shundagina, tarixni o‘rganuvchi subyektlar tarixiy hodisalarni osonlikcha anglab yetishadi[5,97]. Shuning uchun tarix o‘qituvchilari modellashtirish metodi haqida ko‘proq tasavvurga ega bo‘lishlari lozim.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, O‘zbekistonning eng yangi tarixi asosida talabalarda daxldorlik tuyg‘usini rivojlantirish jarayonini modellashtirish usuli orqali o‘rganish yoshlarda milliy tarixni anglash, unga munosabat bildirish, uni rivojlantirish, tarixiy voqealarga psixologik yondashish va tarixiy hodisalarni pragnozlashtirishga yordam beradi. Modellashtirish metodini ta’lim tizimiga integratsiya qilish tarixiy jarayonlarni tushunishda qiyinchiliklarga duch keluvchi talabalar guruhini faollashtirish imkonini beradi.

O‘zbekistonning eng yangi tarixi asosida talabalarda daxldorlik tuyg‘usini rivojlantirish modelini takomillashtirish uchun quydagilarni amalga oshirish lozim:

- Talabalarga taxdorlik tuyg‘usini anglab yetishga doir tarixiy modellarni misollar yordamida tushuntirish;
- O‘zbekistonning zamonaviy tarixini o‘rganish asnosida talabalarning milliy tarixdagi rolini tushuntirish va mamlakat taqdiriga ularning taqdirini bog‘liqliligini yetkazish;
- Interaktiv ta’lim metodlari va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish pozitsiyasini talabalarga topshirish orqali ularda daxldorlik hissini paydo qilish;
- Talabalarni mamlakat rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi loyihalarga jalb qilish;
- Talabalarda umumxalqaro madaniyatdan milliy me’rosni asrab avaylash va unga qarshi immunitet hosil qilishni ko‘nikmasini shakillantirish.

FOYDALANILGAN DABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alimova D.A., Ilxomov Z.A. Tarix fani metodologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. – 234 b.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent. 2013. – B 672.
3. Shadmanova S. Tarix tadqiqotlarining metodologiyasi va zamonaviy usullari. Darslik. – T.: Barkamol fayz media, 2018, – 216 b.
4. Shermuhamedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Darslik. –T.: Fan va texnologiya, 2014. 464 b.
5. Azimov M.A. Tarixga daxldorlik tuyg‘usini vujudga keltirishda xorijiy tajribalarni qo‘llash me’zonari. // Namangan davlat pedagogika instituti “Ta’lim va taraqqiyot” ilmiy-uslubiy jurnali. 2024-yil 2-son. ISSN: 2992-9008. UDK: 37. – B. 95-103.

6. Azimov M.A. Talabalarni tarixiy voqeliklardan xulosalash ko‘nikmasini rivojlantirish metodikasi. Ta’lim, fan va innovatsiya” ma’naviy-marifiy, ilmiy-uslubiy jurnalining 2024-yil 1-soni, ISSN 2181-8274. – B. 193-196.

7. Abdullayev S. Ta’lim jarayonida talabalarda ijtimoiy daxldorlik fazilatini rivojlantirishning pedagogik asoslarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. F., 2023. – B. 56.

8. Raxmonov A. Talabalarda milliy iftixor tuyg‘usini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Ch., 2023. – B. 47.

9. Shermonov E. O‘smirlarda islohatlarga daxldorlik fazilatini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. S., 2020. – B. 44.)

10. Xodjaev B. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish. Pedagogika fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. T., 2016. – B. 82.

11. Giora Hon, Bernard R. Goldstein, Maxwell's role in turning the concept of model into the methodology of modeling, Studies in History and Philosophy of Science, Volume 88, 2021, Pages 321-333, ISSN 0039-3681, https://doi.org/10.1016/j.shpsa.2021.03.010

MANTIQIY FIKRLASHGA O‘RGATISHNI BOSHLANG‘ICHSINFDAN BOSHLASH

Sabina Mahmudova,
Guliston davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3- bosqich talabasi

Annotatsiya

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mantiqiy fikrlashga o‘rgatish ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va hayotiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda juda muhimdir. Nafaqat bu jarayonlarda balki, PIRLS, TIMS, PISA kabi xalqaro baholash dasturlarida ilg‘or xorijiy davlatlar bilan bir qatorda turish uchun ham mustahkam tirgak bo‘la oladi. Aynan manashu tirgakka ega bo‘lish uchun ilk qadam maktab partasidan boshlanadi. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mantiqiy fikrlashga o‘rgatish, o‘rgatish usullari, turlari, ushbu jarayonda pedagogning o‘rni, tafakkurni kengaytirish to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *mantiq, mantiqiy fikrlash, mantiqiylik, tafakkur, mantiqiy ketma-ketlik, mantiq doirasi, PIRLS xalqaro baholash dasturi, sekvensiya.*

Аннотация

Обучение учащихся начальных классов мышлению логически имеет большое значение для развития их мыслительных способностей и формирования умений решать жизненные задачи. Не только в этих процессах, но и в международных программах оценки, таких как PIRLS, TIMS, PISA, он может стать прочной опорой, позволяющей стоять рядом с передовыми зарубежными странами. Первый шаг к получению такой поддержки начинается со школьной парты. В данной статье рассматривается обучение учителей начальных классов мышлению логически, методы обучения, виды, роль педагога в этом процессе. обсуждается расширение мышления.

Ключевые слова: *логика, логическое мышление, логичность, рассуждение, логическая последовательность, логическая структура, международная программа оценивания PIRLS.*

Abstract

Teaching elementary school students to think logically is very important in developing their thinking ability and forming the skills to solve life problems. Not only in these processes, but also in international evaluation programs such as PIRLS, TIMS, PISA, it can be a strong pillar to stand alongside advanced foreign countries. The first step to getting this kind of support starts from the school desk. In this article, teaching elementary school teachers to think logically, teaching methods, types, the role of the pedagogue in this process, the expansion of thinking is discussed.

Keywords: *logic, logical thinking, logicality, reasoning, logical sequence, logic framework, PIRLS international assessment program, sekvensiya.*

Kirish. Davlatning ertangi kuni yoshlarning qay darajada bilimli ekani bilan bevosita bog‘liq. Shu bois, ta'lim tizimini takomillashtirish masalasiga hukumat darajasida e'tibor qaratilishi har bir davlatning muhim vazifasi hisoblanadi. Shu jumladan so‘nggi yillarda O‘zbekistonda ta'limga oid ko‘plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayitgan va amalga oshirilishi kutilayotgan ushbu islohotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022.28.01 Farmoni asosida qabul qilingan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida belgilab qo‘yilgan. 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to‘g‘risidagi qonunda" aks ettirilgan. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan "Taraqqiyot strategiyasi" ning to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishida "Sifatli ta'lim -tarbiya masalasi doimiy e'tibor markazida bo‘lishi" takidlangan.[1]

Bolalarning bilim olishlariga poydevor qo‘yiladigan eng asosiy davr, boshlang‘ich 1-4-sinfda ta'lim olayotgan davrlaridir. O‘quvchilarining boshlang‘ich sinfdagi bilimlari kelajakda oladigan bilimlariga zamin yaratadi. Shunday ekan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta'lim olish jarayonlariga katta e'tibor qaratish lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini mantiqiy fikrlashga o‘rgatish ta'lim jarayoni va hayottada muhimligi bilan bir qatorda, Xalqaro baholash tizimi PIRLS dasturida ham muhim ahamiyat kasb etadi.Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini mantiqiy fikrlashga o‘rgatish ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish, muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va hayotiy tajribalarini kengaytirishga yordam beradi. Bu jarayon qiziqarli, bosqichma-bosqich va o‘quvchilarning yoshiga mos bo‘lishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Har qanday fikrlash kabi mantiqiylik ham vazifalarni bajarishda ma'lum bir yosh bosqichida shakllana boshlaydi. Vaqt o‘tishi bilan bu mantiqiy qobiliyatlarni yuqori darajada o‘zlashtirish bo‘lib, bu odamga o‘z faoliyatida muvaffaqiyat qozonish, kasbiy vazifalarni samarali bajarish va kundalik muammolarni yengish imkonini beradi.Martinez va Hernandez esa (2019) o‘z tadqiqotlarida, "Interaktiv ta’lim vositalari va dasturiy ta’minotlar o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vositalar hisoblanadi, chunki ular o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va o‘rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi" degan xulosaga kelishadi. Mantiqiy fikrlashni oshirishga doir bir nechta usullarni ko‘rib chiqamiz.

Matn asosida mantiqiy fikrlashga o‘rgatish. Hozirda boshlang‘ich sinf ona tili darslarida matn va u asosida bajariladigan topshiriqlarni ko‘rishimiz mumkin. Bunda o‘quvchiga taqdim etilgan matn asosida testlar bo‘lishi mumkin. Ushbu jarayonda o‘quvchi matn bilan tanishib chiqishiga vaqt ajratiladi. O‘quvchi matn bilan tanishib chiqqandan so‘ng, ushbu matn asosidagi testlar va topshiriqlarni bajaradi. Ushbu topshiriqlar matndagi izchillik va mantiqiy bog‘liqlikni o‘zida mujassam etgan mantiqiy tahlil qilish va mantiqiy fikrlashga undovchi topshiriqlar bo‘ladi. Bajarilgan topshiriqlar tekshirilibgina qolinmay muhokama qilinadi. O‘quvchi ma'lum bir javob to‘g‘riligini emas, balki nima uchun uning javobi to‘g‘ri emasligini anglashi lozim. Chunki tanlagan javobining nima uchun xato ekanligini anglab olgan o‘quvchida fikrlash o‘sadi va keyingi bosqichlarda to‘g‘ri javobni aniqlayotganda, javobni topish bilangina chekkanmay boshqa variantlarni nima sababdan to‘g‘ri javob bo‘la olmasligini ham aniqlashni o‘rganadi. Ushbu jarayonda o‘quvchidagi mantiqiy tahlil qilish o‘sadi. Matn asosidagi topshiriqlar bilan shug‘ullanishda tanlangan har bir matndan o‘quvchi yangi ma'lumotlarni olishi bu uning asosiy maqsadlaridan biridir. Shu boisdan matn ilmiyroq va shu bilan birga qiziqarliroq bo‘lishi lozim. Tasviriy matnlardan foydalanilsa, ehtimol u o‘quvchilarga tantanavor so‘zlar orqali chiroyli tasviriy ifodalardan foydalanishni o‘rgatar ammo uning bilimlarini oshirib, fikrlash jarayonini kengaytirib bermaydi.

Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi ham mantiqiy fikrlashning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu nazariya bo‘yicha, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari ijtimoiy o‘zaro ta'sir va madaniy vositalar (til, belgilar, ramzlar) orqali shakllanadi. Ta'lim jarayonida bu, o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan muloqotda bo‘lishining va ularni mantiqiy fikrlashni talab qiluvchi faoliyat turlariga jalb etishining muhimligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotchi Q. Rahmonovaning tadqiqotiga ko‘ra hozirgi kunda ko‘p tilga olinayotgan "muammoli ta'lim" ham bilim oluvchilarning aqliy faolligini oshirish, mustaqil ijodiy izlanish,

mantiqiy fikrlashni oshirish, o‘zi uchun yangi bilimlarni kashf etishda katta ahamiyat kasb etadi. Muammoli ta'limda muammoni hal etish shartli ravishda uch bosqichga bo‘linadi:

— aniqlash bosqichi;

— anglash bosqichi;

— fikrlash bosqichi.

Aniqlash bosqichida o‘quvchilarda mavjud bo‘lgan tushunchalar aniqlab olinadi va ularning diqqati muammoga jalb qilinadi. Ular muammoni o‘rganishadi. Anglash bosqichida esa asosiy maqsad o‘qish jarayonining dinamikasini ta'minlash, yangi o‘quv ma'lumotlarini o‘zlashtirishdan iborat. Bunda qo‘yilgan muammoning mohiyatini anglab yetish va hal etish nazardan tutiladi. Fikrlash bosqichida muammoning yechimi chiqarilib, fikr-mulohazalar bildiriladi. O‘quvchilarni fikrlashga jalb etish uchun ularga " Bu haqda qanday o‘ylaysiz?", "Qanday yangi fikrlar keldi?", " Fikringizni asoslay olasizmi?" kabi savollari bilan murojaat qilish samarali sanaladi.[4,8-b] Ammo shuni ham e'tiborga olish kerakki, bu jarayonda o‘quvchilarning fikrlari turli xil bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi esa bularni eshtishi zarur, garchand bu mantiqiy jihatdan to‘g‘ri bo‘lmasada [3,12-b]. Chunki bularni eshitish orqali o‘qituvchi o‘quvchilarini qaysi holatda yangilash qaror qabul qilishayotganini, aynan qaysi holatlarni e'tibordan chetda qoldirishayotganlarini bilib, buni to‘g‘irlash imkoniga ega bo‘lish bilan bir qatorda o‘quvchilarga ularning fikrlari muhim ekanligini ham ifodalab, har bir o‘quvchining mustaqil o‘z fikriga ega bo‘lishiga ham zamin yaratadi. [2, 49-b]

Mustaqil, tanqidiy fikrlash mantiqiy fikrlash jarayonida kechadigan jarayonlardir. Har qanday mustaqil fikr mantiqiy bo‘lmasligi mumkin, lekin har bir mantiqiy fikr mustaqil qabul qilinadi. Adabiy ta’limda mantiqiy fikrashga qanday erishiladi? Professor Entoni Metive mantiqiy fikrlashni rivojlantiradigan usullar haqida yozar ekan, masala(muammo) yuzasidan yozish, tinglash, tahlil qilish mashqlarini tavsiya qiladi. Shuningdek u savollar berishda nima, kim, qachon kabi emas, balki nega endi, qanday qilib kabi boshqa turdagi murakkab savollar berishga o‘tishni maslahat beradi[6].

Mantiqiy o‘yinlar krasvord, mantiqiy ketma-ketlik (bir qator tavsiya etilgan narsalarning ortiqcha miqdorini topish yoki rasmlarni mantiqiy turkumini yaratish), mantiqiy aloqani topish (ikkita ob'ekt o‘rtasidagi o‘xshashlikni aniqlash), ortiqchasini topish kabi o‘yinlar nafaqat bolani mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi, balki, uning tafakkur olamini ham kengaytiradi. Yuqoridagilardan biri bilan tanishib chiqsak. Sekvensiyalar yordamida o‘rgatish :Sekvensiya — biror ketma-ketlikni aniqlash va davom ettirish qobiliyatini rivojlantiradigan samarali usul. Bu usul bolalarning mantiqiy fikrlashi, kuzatuvchanligi va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Usulni qo‘llash bosqichlari

1. Vizual materiallar tayyorlash:

Turli shakllar, ranglar yoki tasvirlardan tashkil topgan kartochkalar tayyorlang. Masalan, aylana, uchburchak, kvadrat ketma-ketligidagi rasm.

Raqamlar yoki harflar ketma-ketligi (masalan, 1, 2, 4, … yoki A, B, D, …).

2. Topshiriqni tushuntirish:

Bolalarga boshlang‘ich ketma-ketlikni ko‘rsating va so‘rang: “Keyingi shakl qanday bo‘ladi?” yoki “Keyingi raqam nima bo‘ladi?”Ketma-ketlikdagi mantiqni tushuntirib bering: “Bu yerda shakllar va ranglar navbat bilan almashadi. Keyingi shakl qanday rangda va shaklda bo‘lishi kerak?”

3. Amaliy mashq qilish:

Farqli darajadagi sekvensiyalar tayyorlang: osonidan (ikki elementli ketma-ketlik) qiyinrog‘igacha (bir nechta xususiyatni hisobga olish kerak bo‘lgan ketma-ketlik).Bolalar ketma-ketlikni davom ettiradi yoki o‘z ketma-ketliklarini yaratadi.

Tahlil va natijalar. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun eng samaralilari bu rasm asosidagilaridir. Sababi, bolalar yoshligida vizual ma’lumotni o‘qish va tushunishdan ko‘ra tezroq va osonroq qabul qiladilar.[5,12-b] Rang-barang va ko‘zga tushadigan rasmli savollar ularni jalb qilib, diqqatini uzoqroq saqlashga yordam beradi. Biroq doim ham rasmlardan foydalanish to‘g‘ri bo‘lmaydi , chunki matnlar bolalarning o‘qish malakalarini rivojlantirish uchun muhim, ularni bolalarga mos va qiziqarli tarzda tayyorlash undanda muhim. Xo‘sh bu qanday amalga oshiriladi? Kombinatsiya usulida. Masalan, qisqa, sodda va hikoyaviy uslubda yozilgan savollar bolalarning e’tiborini tortadi. Agar matnli savollar rasm bilan birga keltirilsa, bu bolalarga matnni

yaxshiroq tushunish va tasavvur qilishga yordam beradi. Xuddiki Albert Enshteyn : "Har qanday murakkab muammoni hal qilish uchun mantiq va tasavvur birgalikda ishlashi kerak," —deb aytganidek.

Xulosa va takliflar. Lekin shuni unutmaslik lozimki, mantiqiy fikrlash insonning miyasidagi ma'lumotlarga borib taqaladi. Insonning miyasidagi ma'lumotlar, ilgari yechilgan yechimlar insondagi mantiqni tashkil etadi. Shunga ko‘ra kimdadir mantiq yuqori kimdadir esa pastroq bo‘lishi mumkin. Mantiqiy fikrlashni o‘rganish uchun eng avvalo ilmiy ma'lumotlar, ilmiy kitoblarni ko‘proq o‘qish lozim. Buni esa aynan boshlang‘ich sinfdan boshlash kerak. Eng samarali usul bolalarni o‘zlari sezmagan holda o‘rganishga jalb qilishdir. O‘yin va amaliy faoliyat orqali ta’lim berish qiziqarli va esda qolarli bo‘ladi, shuningdek, bu usullar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Muntazam rag‘batlantirish va natijalarini qadrlash esa jarayonni yanada samarali qiladi. Eng asosiysi jarayonni amalga oshirish, zero hammasi maktab partasidan boshlanadi. Mantiqiy fikrlash tug‘ma qobiliyat bo‘lmay, keyinchalik shakllanadigan, ta’lim-tarbiya, muhit bilan bog‘liq jarayondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni. https://lex.uz

2. A'zam Xoliqov. Pedagogik mahorat. Tafakkur bo‘stoni. Toshkent-2011. 424 bet.

3. Aliyev A. Pedagogik madaniyat: metod va mahorat qirralari // Xalq ta’limi. – Toshkent, 2007. 205 bet.

4.Q. Raxmanova. O‘quvchilarning bilish faoliyatining kengayishida ta’lim jarayonlarining o‘rni. Maqola. 10 bet

5. R. Mavlyanova , N. Rahmonqulova. Boshlang‘ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiya. T.: 2013, 177 b.

6. How to Think Logically (and Permanently Solve Serious Problems) (magneticmemorymethod.com) https://www.magneticmemorymethod.com/how-to-think-logically/.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN O‘YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Mohinur Shodiboyeva,
Guliston davlat pedagogika instituti “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta’limning sifat va samaradorligiga erishishga kompentensiyaviy yondashuv, guruhlarni har bir yosh guruhiga mos adabiyotlar bilan boyitib borish, bolalarning kundalik faoliyatini mazmunli va qiziqarli tashkil etish, ularning bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanish, qobiliyatlarini aniqlash va shunga qarab jarayonga ijodiy yondashish, o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar va manbalarni bolalar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan holatga keltirish maqsadida ratsional va tizimli tahlil qilishni ko‘zda tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda integratsiyalashgan o‘yin texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Integratsiyalashgan o‘yin texnologiyalari yordamida bolalarning tabiatga qiziqishini oshirish, ularning bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan usullar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *tabiat bilan tanishtirish, maktabgacha ta’lim, integratsiyalashgan o‘yin texnologiyalari, metodika, bilish faoliyati.*

Аннотация

В статье рассматриваются пути достижения качества и эффективности дошкольного образования, в том числе компетентностный подход, обогащение групп литературой, соответствующей каждому

возрасту, организация повседневной деятельности детей содержательно и интересно, эффективное использование их свободного времени, выявление их способностей и, соответственно, творческого подхода к процессу, предполагает рациональный и системный анализ существующих видов деятельности и ресурсов с целью обеспечения их соответствия потребностям детей и общества. Подчеркиваются роль и значение интегрированных игровых технологий в приобщении детей дошкольного возраста к природе. Описаны методы, направленные на повышение интереса детей к природе и развитие их познавательной активности с использованием интегрированных игровых технологий.

Ключевые слова: *приобщение к природе, дошкольное образование, интегрированные игровые технологии, методика, познавательная деятельность.*

Abstract

This article provides for a competency-based approach to achieving the quality and effectiveness of preschool education, enriching groups with literature appropriate for each age group, organizing children's daily activities in a meaningful and interesting way, using their free time effectively, identifying their abilities and, accordingly, a creative approach to the process, rational and systematic analysis of the activities and resources conducted in order to bring them to a state that meets the needs of children and society. The role and importance of integrated game technologies in introducing preschool children to nature are highlighted. Methods aimed at increasing children's interest in nature and developing their cognitive activity with the help of integrated game technologies are described.

Keywords: *introduction to nature, preschool education, integrated game technologies, methodology, cognitive activity.*

Kirish. Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida tabiat bilan tanishish jarayoni katta ahamiyatga ega. Ushbu yosh davrida bolalar atrof-muhitni bilish va tushunishga asos soladi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim-tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlarni, jumladan, o‘yin texnologiyalarini integratsiyalash zarurati tug‘iladi. Mazkur maqolada ushbu metodikaning ilmiy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. [1, 45-b]

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning turli yosh guruhlarida tarbiyachi kuzatishlarni tashkil etar ekan, uning turli xillaridan foydalanadi. Kuzatishlar davomiyligi va xarakteri bo‘yicha qisqa muddatli va uzoq muddatli hamda qiyoslash (solishtirma) bo‘lishi mumkin. O‘simlik va xayvonlarni o‘sishi hamda rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar haqidagi bilimlarning jamg‘arilishi uchun kuzatishning ancha murakkabroq turi uzoq muddatli kuzatishlardan foydalaniladi. Bunda bolalarning obyektning kuzatilayotgan holatini ilgarigisi bilan qiyoslashlariga to‘g‘ri keladi. Kuzatish narsalarning ayrim belgilariga qarab holatlarini aniqlash (masalan, gulning bargiga qarab uni sug‘orish, akvariumdagi suvning holatiga qarab suvni almashtirish, yoki qordagi izga qarab qaysi qushning izi ekanligi, mevalarning pishgan yoki xomligini rangiga qarab ajratish) maqsadida ham tashkil etiladi. Kuzatishning bu turi bolalarda tabiat hodisalarini analiz qilish, ayrim ma’lumotlarni qiyoslash, soddaroq xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini hosil bo‘lishiga yordam beradi. Solishtirma va uzoq muddatli kuzatishlar mazmuniga ko‘ra murakkab bo‘lganligi sababli, maktabgacha ta’lim, o‘rta, katta hamda maktabga tayyorlov guruhlarida foydalaniladi. Bu kuzatuvlar davomida bolalarda analiz qilish, qiyoslash, xulosalar chiqarish jarayoni takomillashadi. Kuzatishlar mazmuniga va tarbiyachining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga ko‘ra o‘simlik va xayvonlar, ob-havo hamda kattalaming tabiatdagi mehnati bilan ekskursiya, sayrlarda, shuningdek tabiat burchagidagi mashg‘ulotlarda tashkil etiladi. Qisqa muddatli kuzatish jarayonida bolalar narsalarning shakli, rangi, kattakichikligi, tuzilishi, fazoviy joylashuvi, xarakterini farqlashni, xayvonlar bilan tanishganda esa harakat xarakteri, ulaming chiqaradigan tovushlarini o‘rganadilar. Bu kuzatish turiga masalan, qor yoki yomg‘ir yog‘ishi, kamalakning hosil bo‘lishi kabi holatlar kiradi. Barcha hollarda kuzatish bolalarning yuksak aqliy faoliyatini rivojlantirishi, ularni fikrlashga, berilgan savollarga javob topishga undashi, shuningdek, ulardagi qiziqishlami rivojlantirishi va tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni tarbiyalashi lozim.[8, 86-b]

Hozirgi vaqtda maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’limni integratsiyalashda raqamli texnologiyalardan foydalanish muammolari kelajakdagi rivojlanish strategiyasi va yo‘nalishini tanlash bilan bog‘liq tadqiqotlar uchun sababdir.[7, 109-b]

Pedagogik ijodning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va xususiyatiga bog‘liqdir. Pedagogik faoliyat – bu inson shaxsiyatini, uning dunyoqarashini, e’tiqodini, ongini, xarakterini shakllantirish kabi umumiy maqsadga bo‘ysunadigan bir qator pedagogik muammolarni hal qilish jarayonidir. O‘qituvchining

ijodiy faoliyati ta’lim usullarini izlashda va ushbu muammolarga yechim topish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik ijod manbayi pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba muammoli vaziyatlarga to‘ladir [6, 143-b]

Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarni ma’naviy yetuk, axloqli, pok insonlar qilib voyaga yetkazishda tabiat bilan tanishtirish metodikasi fani muhim ahamiyat kasb etadi. Uning maqsadi, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash, tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, Vatanga mehrli bo‘lish, ekologik ta’lim-tarbiyani amalga oshirish, tabiat haqida mukammal bilimga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalashdir.[2, 78-b].

Tabiat bilan tanishtirish metodikasining vazifasi o‘quvchilarni tabiat bilan tanishtirish usullari, ish shakllari, shuningdek pedagog, psixolog olimlar va mutafakkirlarning tabiatning inson hayotidagi ahamiyati haqidagi bilimlari bilan tanishtirish va nazariy bilimlar berishdan iborat. Tabiat bilan tanishtirish metodikasi fani pedagogikaning bir qismidir, chunki tabiat bilan tanishtirish orqali barcha tarbiya turlari amalga oshiriladi. Tabiat bilan bolalarning yosh xususiyatlari, fiziologik tuzilishlarini hisobga olgan holda tanishtirilad. Shu bilan birga turli yosh guruhlarda ularning qiziqishlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari, xarakter hislatlari, iste’dodlari hisobga olinadi. Bola a’zolarining tuzilishi — oliy nerv sistemasi, ichki a’zolari, tana tuzilishi, yoshga qarab hosil bo‘ladigan o‘zgarishlar tabiat bilan tanishtirishda muhim ahamiyatga ega. Bundan ko‘rinib turibdiki, bu kurs bolalar fiziologiyasi fani bilan ham bevosita bog‘langan. Biologiya fani tabiat bilan tanishtirish metodikasining asosini tashkil etadi. Chunki biz bolalarni jonli va jonsiz tabiat, tabiat hodisalari, yilning turli fasllari bilan tanishtiramiz.[4, 16-b]

Tabiat bilan tanishtirish metodikasi fani falsafa, biologiya, pedagogika, psixologiya, fiziologiya va barcha metodikalar bilan bog‘liq holda bir-birini to‘ldirib, mustahkamlaydi. Bolalarning jonsiz tabiat hodisalari, o‘simliklar va hayvonlar, inson mehnati haqidagi tushuncha va tasavvurlarini kengaytirish hamda boyitish, shuningdek, o‘simliklar o‘stirish, hayvonlarni parvarish qilishda bolalarda oddiy ko‘nikmalar hosil qilish ta’lim berishning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bunda bolalarda kuzatuvchanlik, bilimga qiziqish, tafakkur va mantiqiy nutq rivojlanadi, so‘z boyligi ortadi, yangi tushunchalar hosil bo‘ladi. Bolalarda mehnatni sevish, o‘zgalar mehnatini qadrlash, o‘simlik va hayvonlarni asrash, ularni parvarish qilish, o‘z Vatanini, tabiatni sevish, tabiat go‘zalliklarini ko‘ra olish kabi hislatlarni o‘stirish orqali tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi. [2, 95-b] Maktabgacha ta’lim muassasalarida tabiat bilan yaqindan tanishtirmasdan turib, bolalarni jismonan rivojlantirish, nutq va tafakkurlarini boyitish vazifalarini amalga oshirish mumkin emas. O‘simliklar dunyosi, hayvonot olami yosh qalbning to‘g‘ri o‘sib shakllanishida, tabiatda bo‘ladigan voqea-hodisalarning sir-asrorini o‘rganib voyaga yetishida katta manba bo‘lib xizmat qiladi. [3, 138-b]

Tabiatdagi narsalar ikki qismdan: jonsiz va jonli tabiatdan iboratdir. Jonsiz tabiatga yer, quyosh, yulduzlar, suv, havo, toshlar, tuproq, jonli tabiatga esa o‘simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar, odamlar kiradi. Jonsiz tabiat dcyilishiga sabab ular oziqlanmaydi, o‘smaydi, ko‘paymaydi, rivojlanmaydi. Masalan, toshni olsak, unga suv ham, havo ham kerak emas. Jonli tabiatga kiruvchilar esa oziqlanadilar, nafas oladilar, o‘sadilar va ko‘payadilar. Jonli tabiat vakillari o‘simlik, havo, suv, yorug‘lik, issiqlik va ozuqa bo‘lmasa yashay olmaydi. Jonli tabiatdagi barcha mavjudotlardan eng qudratlisi insondir. Inson fikrlaydi, mehnat qiladi, turli kashfiyotlar ixtiro qiladi. Tabiat insonni ma'naviy boyitishning bitmastuganmas manbaidir. Tabiat bilan inson o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashda ekologik ta’limtarbiyaning roli nihoyatda katta. [5,193-b]

Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan uzluksiz ekologik ta’lim va tarbiya insonning tabiatiga, qolaversa, o‘ziga nisbatan yangi munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Bu o‘z navbatida barkamol insonning shakllanishida poydevor bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Tabiatga nisbatan muhabbat uyg‘otish ona Vatanga, uning tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalari, xalqimizning an’analariga hurmat ruhida tarbiyalashga, yuksak ma’naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi. Tabiatdagi narsalar ikki qismdan: jonsiz va jonli tabiatdan iboratdir. Jonsiz tabiatga yer, quyosh, yulduzlar, suv, havo, toshlar, tuproq, jonli tabiatga esa o‘simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar, odamlar kiradi. Jonsiz tabiat deyilishiga sabab ular oziqlanmaydi, o‘smaydi, ko‘paymaydi, rivojlanmaydi. Masalan, toshni olsak, unga suv ham, havo ham kerak emas. Jonli tabiatga kiruvchilar esa oziqlanadilar, nafas oladilar, o‘sadilar va ko‘payadilar. Jonli tabiat vakillari o‘simlik, havo, suv, yorug‘lik, issiqlik va ozuqa bo‘lmasa yashay olmaydi. Jonli tabiatdagi barcha mavjudotlardan eng

qudratlisi insondir. Inson fikrlaydi, mehnat qiladi, turli kashfiyotlar ixtiro qiladi. Tabiat insonni ma’naviy boyitishning bitmastuganmas manbaidir.

Tabiat bilan inson o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashda ekologik ta’lim-tarbiyaning roli nihoyatda katta. Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan uzluksiz ekologik ta’lim va tarbiya insonning tabiatiga, qolaversa, o‘ziga nisbatan yangi munosabatlarning shakllanishini taqozo etadi. Bu o‘z navbatida barkamol insonning shakllanishida poydevor bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Tabiatga nisbatan muhabbat uyg‘otish ona Vatanga, uning tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalari, xalqimizning an’analariga hurmat ruhida tarbiylashga, yuksak ma’naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

Material va usullar. Quyida tadqiqotda foydalanilgan material va usullar keltirilgan:

Metod	Tavsif
Ilmiy-adabiyotlarni o‘rganish	Mavzuga oid ilmiy va metodik manbalarni tahlil qilish
Eksperiment o‘tkazish	Bolalar bilan integratsiyalashgan o‘yin mashg‘ulotlari o‘tkazish
Kuzatish	Pedagogik jarayonlarni kuzatib, natijalarni qayd etish
Intervyu	Tarbiyachilar va ota-onalar bilan suhbatlar

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, integratsiyalashgan o‘yin texnologiyalarini qo‘llash bolalarda tabiatga nisbatan qiziqishni oshiradi. Shuningdek, ular orqali bilish faoliyati va kreativ fikrlash qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlanadi.

Quyidagi jadval tadqiqot natijalarini ko‘rsatadi:

Ko‘rsatkichlar	Eksperimentdan oldin	Eksperimentdan keyin
Tabiatga qiziqish darajasi	45%	78%
Bilish faoliyati rivoji	O‘rtacha	Yuqori
Ijtimoiy faollik	Past	O‘rtacha

Munozara. Integratsiyalashgan o‘yin texnologiyalari bolalarning rivojlanishiga kompleks ta‘sir ko‘rsatadi. Bu texnologiyalar bolalar ongida tabiat haqidagi bilimlarni mustahkamlash bilan birga, ularning ijtimoiy va emosional rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, ushbu metodikaning amaliyotda qo‘llanilishida pedagoglarning malakasi va metodik tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Faoliyatning umumiy turi aniqlangach, bolalar tomonidan ayrim usullar turli darajada qo‘llanilishi mumkin. O‘quvchilar faoliyatning nisbatan yuqori shakllari va turlariga (shuningdek, aqliy) masalan, aniq va abstrakt bilimlarni bog‘lay olish va o‘zaro nisbatini aniqlay bilishga o‘rgatilishi lozim. Bolaning fikrini ham tez-tez inobatga olib turilsa, uning o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonch hissi ortadi. Rivojlanish jarayonida faqat bilim va faoliyat usullarining o‘zgarishi va murakkablashishi sodir bo‘lib qolmaydi. Bolaning psixik rivojlanishi uning butun shaxsidagi o‘zgarishlarni, ya’ni shaxs umumiy xususiyatlarining rivojlanishini o‘z ichiga oladi. Rivojlanish jarayonida bolalar psixik faoliyatining turli jihatlari o‘zgaradi, usullar yig‘ilishi va o‘zgarishi sodir bo‘ladi. Bola ko‘p miqdordagi turli harakatlarni bajara oladi, bilim va tasavvurlari o‘zgaradi. Qizlar va o‘g‘il bolalar yetuk va komil shaxs bo‘lib voyaga yetishi uchun yana bir muhim omil hayot tarziga aylanishi zarur. U ham bo‘lsa zamonaviy axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanishdir. Bunda ota-ona, oila muhiti muhim o‘rin egallaydi. O‘rgimchak to‘ridek dunyoni egallab olgan elektron olam bolalarning ongu shuurini butunlay egallab olmasidan oldinroq ularda hayotda har bir narsaning me`yorini bilish ko‘nikmasini hosil qilishimiz va bunga o‘zimiz ham amal qilishimiz juda zarur. Zero bola aytganni emas, ko‘rganini qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning intintellektual salohiyatini rivojlantirish orqali yuksak intellekt sohiblarini tarbiyalashimiz bizning asosiy maqsadlarimizdan hisoblanadi.

Integratsiyalashgan o‘yin texnologiyalaridan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga bo‘lgan qiziqishini oshirish va ularning bilish faoliyatini rivojlantirishning samarali usulidir. Ushbu metodikani keng joriy etish maktabgacha ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.[91]
2. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children.[428]
3. Montessori, M. (1995). The Absorbent Mind.[409]
4. Mohinur, S., & Hilola, S. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI HAR TOMONLAMA RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVLAR. *Journal of new century innovations*, *53*(6), 16-19.
5. Shodiboyeva, M. (2022). MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI. *Journal of Integrated Education and Research*, *1*(5), 193-196.
6. Jamshid, R. Z. (2024). BO‘LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, *4*(4), 141-146.
7. Ruzimatov, J. (2024). IMPROVING THE METHODOLOGY OF USING DIGITAL EDUCATIONAL TECHNOLOGIES OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS. *NRJ*, *1*(3), 755-760.
8. Bolalami tabiat bilan tanishtirish: darslik /N.M. Quchqorova, I.R. Avazmetova, D.U. Ikramova. - Toshkent: Bookmany print, 2023. -214 b .

MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI BOLALARIDA KONSTRUKSIYALASHGA OID KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH

Ma’suda Eshonqulova,
GulDU “Texnologik va maktabgacha ta’lim” kafedrasi p.f.b.f.d.(Phd)

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabga tayyorlov guruhi bolalarida konstruksiyalashga oid ko‘nikmalarni shakllantirishning zaruriyati, maktabgacha tayyorlov guruhi bolalarni konstruksiyalashga o‘rgatish bosqichlar hamda usullari xususida fikr yuritilgan. Shuningdek maqolada respublikamiz va jahon maktabgacha ta’lim tizimidagi olib borilayotgan islohotlar, fikr-mulohazalar ham keltirib o‘tilgan. Kostruksiyalash tushunchasi, uning mohiyatini ochib berish maqolaning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Maqolaning maqsadi, maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida konstruksiyalashga oid ko‘nikmalarini shakllantiruvchi eng muhim ma’lumotlarni pedagogik-psixologik jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Kalit so‘zlar: *Maktabgacha tayyorlov, kontruksiyalash, tarbiyalanuvchi, tarbiyachi, ta’lim, tarbiya, fikr, tajriba, texnologiya, metodika.*

Аннотация

В данной статье рассматривается необходимость формирования строительных навыков у детей подготовительной группы к школе, этапы и методы обучения строительству детей дошкольной подготовительной группы. В статье также упоминаются реформы и мнения системы дошкольного образования нашей республики и мира. Понятие конструкции, раскрытие ее сущности является одной из основных целей статьи. Цель статьи - проанализировать важнейшую информацию, формирующую строительные навыки учащихся группы подготовки к школе с педагогической и психологической точки зрения.

Ключевые слова: *Дошкольная подготовка, строительство, воспитанник, воспитатель, воспитание, воспитание, мысль, опыт, технология, методика.*

Abstract

This article discusses the need to build construction skills in children of the preparatory group for school, the stages and methods of teaching construction to children of the pre-school preparatory group. The article also mentions the reforms and opinions of the preschool education system of our republic and the world. The concept of construction, revealing its essence is one of the main goals of the article. The purpose of the article is to analyze the most important information that forms the construction skills of students of the school preparation group from a pedagogical and psychological point of view.

Keywords. *Preschool preparation, construction, pupil, educator, education, education, thought, experience, technology, methodology.*

Kirish. Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, zamonaviy ilg‘or xorijiy tajribalar asosida innovatsion jarayonni tashkil etishga qaratilgan amaliy ishlar olib borilmoqda. 0 ‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi 802-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”[1] gi qarorida “Davlat standartining maqsadi - maktabgacha ta’lim tizimini zamonaviy talablarga asoslangan holda tashkil etish, bolalarni sog‘lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etish hamda ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta’lim tashkilotini qurish va jihozlashga, maktabgacha yoshdagi bolalaming soglom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy minimum talablami joriy etish va nazoratini tashkil etishdan iborat” ekanligi alohida ta’kidlangan. Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning innovatsion tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Istiqbolni, rivojlantirish bosqichlari va uning o‘quv metodik ta’minotini yaratish masalalari bo‘yicha respublikamiz, hamdo‘stlik mamlakatlari va xorijiy olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilgan. Jumladan, respublikamizda F.R.Qodirova, H.X.Begmatova, D.J.Sharipova, D.A.Abdurahimova, H.SH.Abdullayeva, G.A.Berdaliyeva, M.M.Berdiyeva, G.M.Hazirova, I.I.Tuychiyeva, H.I.Rejametova, G.E.Djanpeisova, SH.Sodiqova, A.E.Xo‘jaqulov, M.H.Xushnazarova, M.H.A’zamova va boshqa olimlar tadqiqotlar olib borgan. Hamdo‘stlik mamlakatlarida YE.A.Avilova, A.Arushanova, M.Bakina, E.Bern, H.A.Vasilyeva, L.M.Volobueva, A.S.Makarenko, H.A.Menchinskaya, YE.Meteleva, YE.Kachmasheva, H.Hyukomb, L.A.Paramonova kabi olimlarning tadqiqot ishlarini keltirib o‘tishimiz mumkin. Xorijiy olimlardan M.Montessori, Jan Piaje, A.Hashfeld, S.Kuger, K.H.Shristiane, H.Gibbons, R.Kramer, G.V.Leonidova, S.Simlesa, Z.Seser, H.G.Ogelman, O.Alev, S.Damjan va boshqalar tadqiqotlar olib borishgan.

Jahonda maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasi, ularning fikrlash jarayonini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Janubiy Koreya, Fransiya, Yaponiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan davlatlar tajribasida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning matematik zehnini rivojlantirish bilan bir qatorda, tafakkur erkinligini shakllantirishga jiddiy yondashadilar. Fransiyada Frene va Vulsonlarning metodikalari, Amerikaning Inernational Rresshool Surrisulum dasturlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama shakllanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi mustaqil fikrlash jarayonini rivojlantirishga xizmat qiladigan innovatsion usullar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan, bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlashda bu kabi jahon miqyosidagi ilg‘or tajribalarni ommalashtirish zarurati vujudga kelmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Konstruksiyalash bolalar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Konstruksiyalash bolalarning eng sevimli faoliyatlaridan biridir. Konstruksiyalash faoliyati - amaliy faoliyat bo‘lib, oldindan belgilangan, biror maqsadga qaratilgan real voqelikdir. Bu faoliyatga o‘rgatish jarayonida (qog‘ozlami buklash, detallami o‘zaro biriktirish va hokazo) bolalarning aqliy, sensor, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi yanada shakllanib boradi. Bunday faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalami tevarak-atrofdagi narsa-buyumlami tahlil qilish, ular haqida mustaqil fikr yuritish, maqsadga intilish, o‘z faoliyatini rejalashtirishga undaydi, badiiy didini o‘stiradi, o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasini egallashga yordam beradi, o‘z faoliyatini mustaqil tashkil etishga o‘rgatadi, shuningdek, bolalami maktabda o‘qishga tayyorlaydi. Bolalar qurish-yasash, konstruksiyalash ishida

qurish materiallari, ya’ni qog‘oz, karton, qurilish bloklari, lego, konstruktor, kubiklar, geometrik shakllar, tangram, mozaika, qutilar, geometrik loto, pazllar va boshqa materiallardan turli xil o‘yinchoqlar, inshootlar yasashga o ‘rganadi. Bu faoliyat orqali kichkintoylar geometrik shakllarning ayrim xossalari va ular bilan bog‘liq fazoviy tushunchalami egallay boradilar. Ular nutqida kub, konus, piramida, silindr va boshqa shu kabi so‘zlar paydo boladi. [5, 79-b]

Ayni paytda ular narsa-buyumlarning joylashishi, harakat yo‘nalishi kabi aniq tushunchalami ifodalovchi so‘zlami ham egallashga harakat qiladilar. Masalan, ustida-tagida, o‘ng-chap, tepa-past, orqaold, yaqinda va hokazo. Mohiyatan bolalaming qurish-yasash faoliyati ko‘pincha tasvirlash va o‘yin faoliyati bilan o‘xshashdir. Ular tomonidan yasalgan narsabuyumlar, asosan, amaliyotda ishlatiladigan narsalardir. Masalan, archani yasatish uchun o‘yinchoqlar yasaladi, onalar uchun sovg‘alar tayyorlanadi, mashinalar hamda yasalgan narsalar ishtirokida turli rolli o ‘yinlar tashkil etiladi. Qurish material i may da va yirik geometrik figuralardan (kub, silindr, prizma va hokazo) iborat. Rivojlanish markazida bolalar faoliyatini tashkil etish uchun qurish materiallaridan, turli xil mayda to‘plamlardan foydalaniladi. Masalan, “Mening shahrim”, “Teleminora quramiz”, “Mening kelajakdagi uyim”, “Zamonaviy shahar”, “Qurish materiallaridan sonlar yasaymiz” va boshqalar. Rivojlanish markazlarida bolalar faoliyatini samarali tashkil etish uchun qurish-yasash materiallari ko‘p bo‘lishi lozim. Tarbiyachi shu maqsadda qurish materiallari sifatida odamlar, hayvonlar, o‘simliklar, transportlami ifodalovchi mayda o‘yinchoqlar tanlaydi. Bolalaming konstruksiyalash texnikasini yaxshi o‘zlashtirib olishlari uchun guruhlarda zarur shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Namunaga qarab qurish-yasash, konstruksiyalash bilan bogiiq faoliyat turida kichkintoylami qurish materiallaridan cheklab qo‘ymay, har biriga keragicha taqsimlab berish lozim. Bunday sharoitda bolalarda zarur materiallarni tanlab olib ishlatish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi.

Konstruksiyalash jarayonida yaratilgan o‘yinchoqlami amalda qo‘llash bolalar hayotida muhim o‘rin egallaydi: ular hayotda kerak bo‘ladigan narsa-buyumlar yasayotganliklarini his etib, bundan faxrlanadilar. Ahamiyatga molik yana bir jihati shundaki, ayrim yirikroq narsalami qurish-yasash jarayoni ham, o‘yinlar ham jamoa bo‘lib faoliyat ko‘rsatishni taqozo etadi. [4, 403-b] Ayniqsa, bolalar jamoasini to‘g ‘ri uyushtirishda qurish materiallari bilan o‘tkaziladigan o‘yinlar muhim ahamiyat kasb etadi. Konstruksiyalash o‘yinlari jamoada mehnat qilish, mustaqillik, tashabbuskorlik va boshqa muhim shaxsiy fazilatlami tarbiyalashga yordam beradi. Bundan tashqari, ularda diqqatni bir joyga to‘plash, oldiga qo‘ygan maqsadiga chidam va sabot bilan erishish, olgan bilimi va malakasi asosida ijodiy tashabbus ko‘rsatish sifatlari shakllanib boradi. Bolalar qurish-yasash, konstruksiyalash mashg‘ulotlarida narsa buyumlarning tashqi umumiy ko‘rinishini ko‘z oldiga keltirib qurish materiallaridan maqsadga muvofiq foydalana olishni o‘rganadilar. Shuningdek, ular o‘zlari qurayotgan yoki yasayotgan narsasini badiiy jihatdan bezashning oddiy usullarini o‘zlashtirib oladilar. Bolalaming konstruksiyalash o‘yinlari rollarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlarning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Konstruksiyalash o‘yinlarida ham ular o‘z taassurotlaridan kelib chiqqan holda tevarak-atrofdagi narsalami, kattalaming faoliyatlarini ifoda etishga harakat qiladilar, transport harakati, kattalarning mehnati haqidagi o‘z tasavvurlarini aks ettiradilar. Bunday o‘yinlaming mazmunini bolalaming o‘zlari o‘ylab topadilar. Ular ko‘pincha kattalaming qurilishdagi faoliyatlariga taqlid qilib, quruvchi, suvoqchi, g‘isht temvchi rolini ijro etadilar. [2, 66-b]

Bolalarning qurish o‘yinlari qiziqarli ijodiy faoliyatdir. Bunday o‘yinlar bolalaming tashabbus ko‘rsatishlariga, mantiqan fikr yuritgan holda faolroq harakat qilishlariga, hamkorlik namoyon etishlariga erishish uchun keng imkoniyat yaratadi. Tarbiyalanuvchilar konstruksiyalash faoliyati va o‘yin paytida bir-birlari bilan turlicha munosabatda bo‘ladilar. Ular bir-birlari bilan kelishgan holda rollami o‘zaro bo‘lishib oladilar, ishlami bajarishda bir-birlariga yordam beradilar va maslahatlashadilar. Konstruksiyalash o‘yinlarida harakat elementlari ko‘p bo‘lib, bolalaming tabiatiga mos tushadi: ular doim harakatda bo‘ladilar. Kichkintoy biror narsani qurib bo‘lgandan keyin konstruksiyalash materiallarini tegishli joyga olib borib qo‘yadi, masalan, stol yoki pol ustiga joylashtiradi, buning uchun engashadi, bu vaqtda uning qo‘llari faol bo‘ladi, ya’ni ma’lum miqdorda jismoniy kuch sarflaydi. Mayda konstruksiyalash materiallari bilan o‘ynaganda qo‘lning mayda muskullari yaxshi rivojlanadi. Konstruksiyalash o‘yinlarini o‘ynash natijasida bolalaming kuzatuvchanligi, texnikaga bo‘lgan qiziqishlari ortadi. Bundan tashqari, ular o‘yin jarayonida oddiy geometrik shakllaming tuzilishi bilan ham tanishadilar.[5, 80-b] Konstruksiyalash o‘yinlarining tarbiyaviy ta’siri shundaki, bunda bolalar ifoda etadigan hodisa va narsa-buyumlarning amaliy ahamiyati va g‘oyaviy mazmuni o‘z aksini topadi. Konstruksiyalash

o‘yinlari esa bolalaming tafakkurini, ijodiy qobiliyatini o‘stiradi. Ular tarbiyachi ko‘rsatgan narsa-buyumlami esda saqlab qolish va uni qayta esga olishga intilib, ulami bir-biriga solishtiradilar, tahlil va sintez qiladilar, o‘zlari uchun o‘xshash jihatlarini aniqlaydilar, farqli tomonlarini ajratadilar, qurish amallarini puxta o‘ylab, to‘g‘ri xulosa chiqargan holda bajarish, maqsadga muvofiq yo‘l tutishga o‘rganadilar. Konstruksiyalash o‘yinlari birinchi navbatda tarbiya topish, qolaversa, tevarak-atrofni kuzatish va o‘z hayotiy bilimlarini oshirish vositasidir. Bolalar atrofda qurilayotgan yangi turar joylami, maktablar, bolalar bog‘chalari, do‘konlarni ko‘radilar, kattalardan ular haqida ma’lumot oladilar. [3, 130-b]

Konstruksiyalash o‘yinlari esa ularni ana shunday bunyodkorlik ishlariga tayyorlash uchun ham xizmat qiladi. Qurilgan obektlar, yasalgan narsa-buyumlar hayotda kerak bo‘lishini his etish javobgarlik tuyg‘usini shakllantiradi. Turli o‘yinchoqlar yasash va onalar, aka-ukalar, buvi, buvalar yoki o‘rtog‘i uchun sovg‘a qilish uchun biror narsani qo‘l ishi sifatida tayyorlash bolalarda yaqin kishilariga e’tiborli bo‘lish, atrofdagilami xursand qilish hissini o‘stiradi. Konstruksiyalash faoliyati, narsa-buyumlami chiroyliroq qilib bezashga bo‘lgan intilish bolalami go‘zallikka oshno etadi. Go‘zallik tuyg‘usi tabiatni kuzatish jarayonida kuchliroq namoyon bo‘ladi. Ushbu tuyg‘u o‘z navbatida atrof-olamga bo‘lgan o‘zgacha munosabatni ham yuzaga keltiradi, uni shakllantiradi. Tabiat go‘zalligi o‘simlik dunyosiga nisbatan kuzatuvchan bo‘lish, gul, daraxt va ildizlarning rang-barangligi, shakllarining xilma-xilligini ko‘rish, ulardan andaza olish bolalaming hissiy jihatlarini boyitadi, konstruksiyalash jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Konstruksiyalash faoliyati narsa-buyumning umumiy ko‘rinishidan ikir-chikirlariga tomon asta-sekin murakkablashadi. Ushbu jarayonda bolalarning narsalarning qismlari va ichki tuzilishi haqidagi bilimlari kengayib, chuqurlashib boradi. Bunda konstruksiyalash materiallarining boyitilishi ham muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, maxsus konstruktorlar alohida ahamiyat kasb etadi. [2, 90-b]

Konstruksiyalash bolalar uchun eng sodda va qiziqarli, mahsuldor faoliyat turi bo‘lib, bu faoliyat o‘yin bilan chambarchas bog‘lanib, yana ham maroqli tus kasb etadi. Bolalar o‘zlari qurilmalar yasaydilar, o‘yin jarayonida ularga turli xil o‘zgartirishlar kiritadilar. Shu bois metodist olimlar konstruksiyalash faoliyatini “qurish yasash o‘yinlari” deb nomlaganlar. Bunda o‘yin turli mazmunga ega bo‘lgan bolalar faoliyati orqali konstruksiyalash jarayoni bilan qo‘shilib ketadi.

Tahlil va natijalar. Konstruksiyalash jarayoni ikki bosqichda amalga oshadi: g‘oyaning vujudga kelishi (yaratiladigan qurilmaning namunasini yaratish, materiallami tanlash, harakatni amalga oshirish yoilarini topish va rejalashtirish) hamda amaliy faoliyatni ro‘yobga chiqarish. Keyingi holatda bola bajaruvchigina emas, balki tadqiqotchi (ijodkor) bo‘lib faoliyat ko‘rsatadi, chunki u qo‘llari bilangina harakat qilmay, fikr yuritadi ham: bir nechta yechimni tekshiradi, g‘oyalami qisman o‘zgartiradi, detallami moslaydi va hokazo. [5, 80-b]

O‘z g‘oyasi asosida mustaqil konstruksiyalashni amalga oshira bilish - bola faoliyatining yuqori ko‘rsatkichigina emas, balki umumiy rivojlanish belgisi hamdir. Biroq g‘oya asosida qurish-yasash faqatgina konstruksiyalashda emas, balki qurish-yasashning boshqa turlarida (namuna bo‘yicha va sharoitga mos ravishda) ham shakllantiriladi. Mashg‘ulotlarda konstruksiyalashga o‘rgatish uchun stol ustida o‘ynaladigan konstruksiyalash to‘plamidan foydalangan ma’qul, chunki bu konstruksiya materiallari bir vaqtning o‘zida ko‘pchilik bolalar qurib o‘ynashi uchun imkon beradi. Yirik konstruksiyalash materiallari esa bolalarni ko‘pchilik bo‘lib qurishga, o‘ynashga o‘rgatadi. Mashg‘ulot vaqtida bolalarga konstruksiyalashning eng zarur usullarigina ko‘rsatiladi, shuning uchun mashg‘ulot uzoq cho‘zilmasligi kerak. Bolalarga konstruksiyalash usullarini ko‘rsatish va harakat bilan tushuntirishda dastlab namunani ko‘rsatish-namoyish hamda tahlil qilish metodlaridan foydalaniladi. Bunda avval qurish materiallaridan nimalar yasash mumkinligini ko‘rsatuvchi tayyor qurilmalar, yasalgan narsa-buyumlar namuna vazifasini bajaradi, so‘ng qurish-yasash jarayonining o‘zi (rasmlar seriyasi) shu maqsad uchun xizmat qiladi. Bolalar bino yoki inshootni qurishni bilib olishlari uchun (baland poydevoriing ustini qanday bekitish, bir qismni qanday qilib boshqasi bilan almashtirish, tekislikni qanday kengaytirish va shu kabilar) qurilishning ayrim qismlarini ko‘rsatishga o‘tiladi. Ma’lum bosqichga kelib bolalarga tarbiyachi bajara boshlagan ob'yekt yoki narsa-buyumning ayrim qismlarini mustaqil davom ettirishni taklif qilishi mumkin. Bunda quriladigan obyekt haqida tushuncha berish, masalan, hajmini (katta—kichikligini) aytish, o‘yinchoqlarga mos bo‘lishi kerakligini eslatish muhim o ‘rin tutadi. Bolalarni o‘zlari ijod qilib qurishga o‘rgatish va amaliy faoliyatga jalb etish uchun ular zarur sharoitlar va ashyolar bilan ta’minlangan bo‘lishlari kerak.

Konstruksiyalash materiallarining turlari konstruksiyalash usulini aniqlab beradi. Konstruksiyalash materiali mayda va yirik geometrik figuralardan (kub, silindr, prizma va hokazo...) iborat bo‘lishi mumkin. Bu materiallar turli xil mayda to‘plamlarda berilishi ham mumkin. Bolalarni konstruksiyalash materiallarini tanlash vaziyatiga solish foydalidir. [4, 404-b]

Bolalar hayotiy zaruriyatdan kelib chiqqan holda turli o‘yinchoqlami mo‘ljallab biror ob'yekt qurishga, masalan, quyon uchun uy, mashinalar va yo‘lovchilar uchun ko‘prik qurishga katta qiziqish namoyon etadilar. Darhaqiqat, qurish-yasashda o‘yinchoqlarni ishlatish katta ahamiyatga ega: bu narsa o‘yin faoliyatini yanada jonlantiradi. Konstruksiyalash materiallari ma’lum bir javonlarda, tartib bilan saqlanadi. Bolalarning aqliy va qurish-yasash qobiliyatlarini, fantaziyalarini rivojlantirishda konstruktorlar (taxta, plastmassa, metall va keramika) muhim ahamiyatga ega. Bunday to‘plamlar orqali turli konstruksiyalar yasash mumkin. Tarbiyachi avval o‘zi konstruktor bilan tanishib, qurilma yig‘ishga doir metodik ko‘rsatmalami o‘rganib chiqadi, o‘zi namuna sifatida ishlab ko‘radi, qismlarni birlashtirish tartibini bilib oladi, ana shu tartibda bolalar faoliyatini ma’lum vaqt oralig‘ida oz-ozdan, bolalarning o‘zlashtirishlariga qarab tashkil etish izchilligini rejalashtiradi. Dastlab tarbiyalanuvchilar tarbiyachi rahbarligida suratlarga qarab turli xilmurakkab obyektlar quradilar, harakatli konstruksiyalar yaratadilar. Asosiy diqqat bolalarda qismlarni birlashtirishga oid yangi usullar bilan tanishishga, tegishli malakalarni shakllantirishga qaratiladi. Bunda bolalarning qo‘l muskullari faol ishtirok etadi, muskul harakatlari yaxshilanadi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida bayon etilganlardan ma’lum bo‘ladiki, maktabgacha yoshdagi bolalarga konstruksiyalashni o‘rgatish masalasiga majmuaviy yondashish talab qilinadi. Tarbiyalanuvchilar qismlarni birlashtirish usullari, konstruksiyalash materiallari, ulami tanlash, bunda yasalgan narsa buyumlarni amaliy ahamiyatini his etish, bolalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, mustaqillik, bir-biriga yordam berish, hamkorlikda jamoa bo‘lib ishlash, go‘zalikka intilish kabi shaxsiy fazilatlarni egallashlari alohida e’tiborga olinadi, konstruksiyalash materiallarining rang-barangligi, yetarli miqdorda bo‘lishi, qurish usullarining asta-sekin murakkablashib borishi nazarda tutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi 802-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarori.

2. Djurayeva B.R., Tojiboyeva X.M., Nazirova G.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari.-T.: O‘zPFITI,2015.-115 b

3. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi.-T.: Tarbiyachi, 1993.-265 b

4. Qodirova F.R., Toshpoiatova SH., A’zamova M. Kayumova N. Maktabgacha pedagogika. darslik-T.:Tafakkur nashriyoti,2019.-658 b

5. Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna Maktabgacha ta’limda STEAM texnologiyalari / O‘quv qo‘llanma/- Toshkent: “TAMADDUN”, 2022,145 bet.79-bet

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING ILMIY-ILMIY-IJODIY KOMPITENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Xusniddin Umarov,
Guliston davlat pedagogika insituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ilmiy-ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga oid muammolar ko‘rib chiqilgan. Shuningdek maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ilmiy-ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish bo‘yicha shakllantiruvchi metod hamda bir nechta xorij hamda respublikamiz pedagog olimlarning asosli qarashlari, nazariyalari tahlillari ham ko‘rib chiqilgan. Ilmiy-ilmiy-ijodiy yondashuv, kompetentsiyaviy yondashuv, kompetentsiya tushunchalariga muallif tomonidan atroflicha izoh berib o‘tilgan hamda ushbu mavzu pedagogik va psixologik tomonlama tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *kompetentsiya, ilmiylik, ilmiy-ijodiy yondashuv, metod, psixologiya, ta’lim, tarbiya, o‘qituvchi, o‘quvchi, nazariya.*

Аннотация

В данной статье рассматриваются проблемы совершенствования методики развития научно-творческих компетенций будущего учителя начальных классов. Также в статье рассмотрен формирующий метод совершенствования развития научных и творческих компетенций будущих учителей начальной школы, а также анализ фундаментальных взглядов и теорий ряда зарубежных и республиканских ученых-педагогов. Научно-творческий подход, компетентностный подход, понятия компетентности были подробно разъяснены автором, а также данная тема проанализирована с педагогической и психологической точки зрения.

Ключевые слова: *компетентность, научный, творческий подход, метод, психология, образование, обучение, учитель, студент, теория.*

Annotation

This article deals with the problems of improving the methodology of developing the scientific and creative competencies of the future primary school teacher. Also, in the article, a formative method for improving the development of scientific and creative competences of future elementary school teachers, as well as the analysis of the fundamental views and theories of several foreign and our republic's pedagogic scientists were also considered. Scientific-creative approach, competence approach, the concepts of competence were explained in detail by the author, and this topic was analyzed from a pedagogical and psychological point of view.

Key words: *competence, scientific, creative approach, method, psychology, education, training, teacher, student, theory.*

Kirish. Ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, jamiyat ravnaqi uchun yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash ta’lim tizimi xodimlarining umumiy vazifasidir. Shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya tizimini nazariy-metodologik jihatdan qurollantirish – bugungi kunda pedagogika fanining bosh maqsadi sifatida belgilangan. Yuqorida bayon etilgan yuksak, ammo, sharafli vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash har bir pedagog xodimdan yuksak kasbiy mahorat, bilimdonlik va keng dunyoqarashni talab etadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ,,Yana bir muammoni hal etish o‘ta muhim hisoblanadi: bu pedagog va professor o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy-ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur”, - degan fikrlari kata ahamiyat kasb etadi.[1, 45-b]

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ilmiy-ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha shakllantiruvchi tajriba ishtirokchisi bo‘lgan har bir o‘qituvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatining individual trayektoriyasi o‘z-o‘zini bilishda sodir bo‘ladigan, ilmiy-ijodiy faoliyatga

bo‘lgan ehtiyojni aniqlash ishi amalga oshadigan boshlang‘ich nuqtadan, ilmiy-ilmiy-ijodiy faoliyatga jalb etilganlik va ilmiy-ilmiy-ijodiy shakllanish uchun o‘z-o‘zini tashkil etish darajasigacha tashkil topadi. Psixologik nuqtai nazardan, qurshab turgan dunyoning hali insoniyatga ma'lum bo‘lmagan obyektiv yangi qonuniyatlarini kashf etadigan olimning ilmiy-ijodiy faoliyati va faqat o‘zi uchun yangi narsalarni kashf etadigan o‘qituvchining mahsuldor tafakkuri orasida jiddiy farq yo‘q, chunki bularning asosida psixik qonuniyatlar yotadi. Shu sababli eksperimentda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ta'lim faoliyatining shakl, usul va vositalarining bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining uchun mavjud bo‘lgan turlariga o‘xshashlari tanlanadi. Biroq, kashfiyotga olib keladigan aqliy faoliyat darajasi turlicha bo‘lgani kabi, ularda yangi bilimlarni topish shart-sharoitlari ham farq qiladi. Bunday farqlarni aniqlash maqsadida, maktab o‘quvchilarining shunga o‘xshash faoliyatlarini aksariyat tadqiqotchilar "mahsuldor faoliyat" atamasi bilan atashni afzal biladilar va "ilmiy-ijodiy faoliyat" atamasini esa inson bilimlari uchun tubdan yangi, o‘ziga o‘xshashi bo‘lmagan asl nimadir kashf etuvchi shaxslarning tafakkuri faoliyatining eng yuqori pog‘onasini anglash uchun ishlatishadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ilmiy-ilmiy-ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun eng qulay yosh davrlardan biri, V.N. Drujinin fikriga ko‘ra, bu kichik maktab yoshidir. Ushbu yosh davrda boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar aqliy qobiliyati, xayoli, fikrlashi, diqqati rivojlanishi faollashadi, ilmiy-ijodiy faoliyatga qobiliyat rivojlanadi. Bir qator psixolog va pedagog olimlar: A.V. Petrovskiy, B.M.Teplov, V.A. Krutetskiy, E. G‘oziyev, G‘.Shoumarov, O.Roziqov, B. Adizov ta’kidlashlaricha, - bu davrda o‘quv faoliyati ta’sirida bolalarning ruhiy faoliyati, diqqati, xotirasi, idrok etish darajasi, tafakkuri, his tuyg‘usi kabi jarayonlar rivojlanadi.

Kompetensiya - lotincha «Competentia» so‘z bo‘lib, o‘zbek tilidagi lug‘aviy ma’nosi «inson yaxshi biladigan», «tajribaga ega bo‘lgan» kabi ma’nolarni bildiradi. Kompetentlik - biron bir ishni samarali qila olish qobiliyati, ishni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati, aniq ishchi funksiyalarni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati. [5, 338-b]

Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir. L.M.Mitina pedagogik kompetentlik - deganda predmet haqidagi bilimlar, o‘qitish metodikasi va didaktikasi, pedagogik muloqot ko‘nikma va malakasi, shuningdek o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘zo‘zini amalga oshirish usullari va vositalarining uyg‘un birlashishini tushungan. U pedagogik kompetentlik tuzilmasida quyidagi uchta tashkil etuvchini ajratgan: faoliyatli, kommunikativ va shaxsiy.

L.M.Mitina tomonidan taklif etilgan pedagogik kompetentlikni tuzilmalashtirishdan kelib chiqqan holda, biz, bo‘lajak mutaxassislar uchun egallanish darajasi pedagogik kompetentlikning rivojlanish darajasini aniqlaydigan quyidagi kompetensiyalar majmuasi yetarli va zarur deb hisoblaymiz: - faoliyatli yoki maxsus kompetensiya (bilim, ko‘nikma, malaka va pedagogik faoliyatni amalga oshirishning individual usullari); - shaxsiy yoki kasbiy kompetensiya (kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirish va o‘zo‘zini amalga oshirishga oid bilim, ko‘nikma va malakalar); - kommunikativ kompetensiya (pedagogik faoliyatni ilmiy-ijodiy amalga oshirishga oid bilim, ko‘nikma va malaka) Professionallik va kompetentlik tushunchalari umumiy xususiyatlarga ega. [5, 339-b]

Tadqiqot metodologiyasi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish mustaqil ta'lim faoliyatiga ilmiy-ijodiy vazifalar, nostandart vaziyatlar va ularga tegishli shakl, usul va vositalarni kiritishni talab qiladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda professional ilmiy-ijodiy ehtiyojlar va motivatsiya muhim rol o‘ynaydi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarining shakllanishi va o‘z ustilarida ishlashlari natijasida kasbiy kompetentlik namoyon bo‘la boshlaydi.[2, 10-bet]

Ilmiy-ijodiy faoliyat xarakteri; o‘qituvchilarining nostandart vazifalarni tanlashda bevosita ishtiroki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ilmiy-ijodiy faoliyatining qadriyat-motivatsion, konstruktiv va refleksiv-maqsadli komponentlari yangilanadigan shaxs uchun ahamiyatli vaziyatlardan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ilmiy-ijodiy faoliyatini takomillashtirishni belgilovchi omillar hisoblanadi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish texnologiyasining tashxis bosqichini batafsilroq ko‘rib chiqamiz.

Tashxis bosqichida ta'lim muassasasi psixologi ijodxonada ishtirok etish istagini bildirgan o‘qituvchilar (eksperimental guruh) va boshlang‘ich maktablarning ko‘ngilli o‘qituvchilari guruh (nazorat guruhi) bilan ishlaydi va ularda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ilmiy-ijodiy kompetentligining rivojlanishining dastlabki rivojlanganlik darajasini va rivojlanishi uchun mavjud shart-sharoitlarni aniqlaydi. Tashxis qo‘yish o‘rganilayotgan hodisaning ma'lum me'yor va mezolarga muvofiqligini o‘rnatish imkonini beradi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining dastlabki ilmiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish darajasini diagnostika qilish va baholash jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ilmiy-ijodiy faoliyatini takomillashtirish jarayonini optimallashtirish uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar aniqlanadi va aniqlashtiriladi; ilmiy-ijodiy faoliyatni rivojlantirishning xususiyatlaru va uning ayrim psixologik-pedagogik mexanizmlari o‘rganiladi. Xususan, bu bosqichida olingan tashxisiy ma'lumotlar keyingi loyihalashtirish bosqichi uchun "kirish" ma’lumotlari bo‘lib xizmat qiladi. [6, 180-b]

Tashxis bosqichining maqsadi, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ehtiyojini rivojlantirishdan iborat. Bu bosqichda tajribani tahlil qilish va hamkasblar bilan baham ko‘rish uchun tajribani ko‘paytirish amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda muammo-vazifalarni qo‘yish bilan yangi g‘oyalarni qisman tushuntirishni o‘z ichiga oluvchi qisman qidirish usullariga ustuvorlik beriladi; ijodxona ishtirokchilarining ta'lim-bilish ishlarida muammoli vaziyatlar yaratiladi. Mohir o‘qituvchi qidiruv usullaridan foydalanib hamkasblar faoliyatini boshqaradi va to‘g‘irlaydi, ijodxona ishtirokchilarini individual izlanishga, tadqiq ishlari olib borishga, ilmiy adabiyotlar, ma'lumotnomalar, jadvallar va internet bilan mustaqil ishlashga undaydi. Metod shaxsning sifat harakatlarni puxta o‘ylab tushunish, tanlash qobiliyati, refleksivlik, funksiyalarini rivojlantirish va ilmiy-ijodiy o‘zaro faoliyat jarayonini tashkil qilish yo‘li vazifasini bajaradi. Ilmiy-ijodiy faoliyatda qidiruv usullari munosib o‘rin egallaydi.

Hamkorlikdagi o‘zaro faoliyat jarayonida mahorat darsini olib boruvchi va ijodxona ishtirokchilari bilan o‘zaro munosabatlarning guruh shakllaridan foydalanib, ularni faol ilmiy-ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi mohir o‘qituvchi yetakchi rol o‘ynaydi. Mohir o‘qituvchi o‘z-o‘zini tahlil qiladi va ijodxona ishtirokchilari faoliyatda yuzaga keladigan professional qiyinchiliklarni qayd qilib boradi. Ish natijalariga asoslanib, ijodxonaning barcha ishtirokchilari, jumladan, mohir o‘qituvchi ham tashxis natijalariga, ehtiyojlariga, qobiliyatiga va mustaqil ilmiy-ijodiy faoliyatga tayyorlik darajasiga ko‘ra, professional qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun individual ta'lim yo‘lini yoki mustaqil ta'limning individual rejasini tuzishadi.[3,10 b]

Tahlil va natijalar. Ijodkorlik o‘qituvchining o‘z mehnati davovomida jarayonida mustaqil faoliyat olib borishi kasbiy faoliyatining ta’lim mazmunini belgilovchi o‘qituvchining ijodkorligida namoyon bo‘ladi.

Ijodkorlik - bu o‘qituvchining ta’lim tarbiya jarayonida sifat jihatidan yangi orginal va takrorlanmas biror ilmiy yangiliklarni paydo qiluvchi jarayondir. O‘qituvchining mahsuldor ijodkorligida belgilangan har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi, ijod qilishga layoqatli bo‘lgan o‘qituvchilarning asosiy qismida bu jihatlar namoyon bo‘ladi [2, 43-b].

O‘qituvchining ilmiy ijodkorligi, jahonda ro‘y berayotga kasbiy faoliyatiga yangiliklarni dadil o‘zlashtirish va targ‘ib qilishni anglatadi, ya’ni uning asosida g‘oyalar, farazlar hosil qilish intensifikatsiya qilish va ularning haqiqatga yaqinligini, ehtimolligini, ishonchliligini izchil amalga oshirish va bundfa yangi holatda dadil harakat qilish qobilyati, fikirlash jarayoni asosida tafakkurni rivojlantirish kuzatiladi. O‘qituvchining kreativ ijodkorligida ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yangi nazariyalarni yaratish mujassamlashgan, u o‘zining mustaqil g‘oyalar va takliflar bilan chiqadi, mohir va tajribali, layoqatli o‘qituvchilargina bunga erishishi mumkin. Yevropalik sotsiologlarning o‘qituvchining mehnatining ijobiy holatini “oqimini his qilish”, ya’ni o‘za faoliyatiga to‘liq kirishib ketish va faoliyat jarayonida qoniqish hosil qilish deb atashadi, bu esa, o‘z navbatida, o‘qituvchining yuqori ichki refleksiv holati kuchli bo‘lishi haqida haqida guvohlik beradi [3, 56-b]. O‘z kasbi jarayonida ijodkorlikni va mehnatidan qoniqishni his qilmaydigan o‘qituvchilarning mehnat faoliyati ko‘pincha harakatsizlikka, asablarining tez charchashiga va g‘ashlikka olib keladi. Bugungi yosh avlod tarbiyasidagi, ularning har tomonlama yetuk insonlar bo‘lib yetishuvida qudratli qurol bo‘lgan adabiyot fanining o‘rni beqiyosdir. Chunki badiiy asar vositasida o‘quvchining dunyoqarashi shakllanib, xarakteri tarbiyalanib boradi. Yosh avlod kitob vositasida xalqimiz, vatanimizning o‘tmishi bilan tanishadi,buyuk ajdodlar qoldirgan bebaho merosdan bahramand bo‘ladi. Muammoli ta’lim texnologiyasi mustaqil ta'lim faoliyatining maqsadlarini mustaqil

qo‘yish, rejalari, strategiyalari va o‘z o‘zini baholash mezonlarini rivojlantirishga alohida o‘rin beriladi. Dastlab har bir o‘qituvchi mohir o‘qituvchining tajribasini amalda qo‘llab tekshirilgan, uslubiy ishlanmalar va tavsiyalarda bayon etilgan namunalar va etalon darajasida o‘rganadi, ikki tomonlama aloqadan foydalanadi, o‘z ta'sirlarini natijalariga ko‘ra isloh qiladi, u "metodik qo‘llanma", "shablon" va mohir o‘qituvchi tajribasi asosida ish yuritadi. Bu jarayonda maxsus pedagogik kompetentlik ham oshadi, ya'ni pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish uchun yetarli ma’lumotga ega bo‘ladi.

Shundan keyin o‘qituvchi yangilikni: o‘zi uchun pedagog tomonidan pedagogik muammolarni hal qilishning o‘zgaruvchan nostandart yo‘llarini topish yoki o‘zi va boshqalar uchun original yondashuvlarni, ma'lum pedagogik tajribani qayta tiklovchi individual metodlarni yaratishni va topish ishiga o‘tadi. Muammoning yangi ekanligi uni hal qilishning sakrashlarga o‘xshash ish, evristik, qidiruv namunalarini kiritish, semantikaning katta roli, muammoni mazmunli tahlil qilish kabi yangi usullarni qo‘llashni taqozo etadi. Bu jarayonda verbal-mantiqiy, yaxshi anglangan bajarilgan umumlashmalar bilan birga, dastavval so‘zda o‘ziga tegishli aksini topmaydigan ituitiv amaliy umumlashtirishlar juda muhimdir. Ular ko‘rgazmali vaziyatlarni tahlil qilish, konkret amaliy muammolarni hal qilish, real harakatlarni ob'ektlar yoki ularning modellari bilan tahlil jarayonida paydo bo‘ladi. Bu esa noma'lum narsani qidirishni osonlashtiradi, ammo bu qidiruv jarayoni ongning aniq sohasidan tashqarida, intuitiv ravishda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda bilimga ilmiy-ijodiy munosabat, va o‘zlashtirilgan mustaqil ta'lim texnologiyasining yo‘qligida paydo bo‘ladigan bilishga bo‘lgan ilmiy-ijodiy ehtiyojini vaziyatga asoslanib, betartib mustaqil qoniqtirish kuzatiladi.

Xulosa va takliflar. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish natijasida, ularning boshqa faoliyatlarida ham o‘sish yuzaga keladi. Shuni aytish kerakki, ilmiy-ilmiy-ijodiy kompetentsiyani rivojlantirish bosqichma-bosqich va uzluksiz jarayon. U oliy ta'lim muassasasida boshlansa, ish joyida davom etadi. Pedagogik faoliyatning individual uslubini shakllantirishda har bir oliy ta`lim o‘qituvchisi o‘zi uchun talabalarni o‘qitishning har qanday evristik shakllari va usullarini tanlashi mumkin. Shu bilan birga, ularni qo‘llash natijalari bo`lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ilmiy-ijodiy yondashuvlar asosida kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko‘rsatishini ta'minlashi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M ‘‘Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. O‘zbekiston. Toshkent, 2017.
2. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ilmiy-ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.dok.disser. T.,2003 yil. 276 bet
3. B.A.Nazarova. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ yondashuv asosida tadqiqotchilik layoqatini tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslari. (Monografiya). –T.: “Fan va texnologiya”, 2007, 164 b.
4. Davletshin M., To‘ychieva S. Umumiy psixologiya T.:TDPU, 2002.– 202 b
5. Rasulova Zilola., Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 October 2021 / Volume 2 Issue 10. 338-348 bet
6. G‘oziyev E. Psixologiya. O‘qituvchi nashriyot matbaa-ilmiy-ijodiy uyi., T.: 2008. 352 bet

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI GENDER YONDASHUV ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASI

Hilola Shokirova,
Nizomiy nomidagi TDPU tayanch doktaranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak tarbiyachilarni gender yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyalari tahlil qilinadi. Ta'lim tizimida gender tengligi va diversifikatsiya masalalari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu tarbiyachilarning malaka oshirish jarayonida gender yondashuvini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Maqolada gender yondashuvning ta'limda roli, bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlashda gender masalalarini integratsiyalash va ularning pedagogik faoliyatdagi qo‘llanilishi haqida fikrlar bayon etiladi. Shuningdek, maqola gender muammolariga yechimlar taklif qilib, tarbiyachilarning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishda gender yondashuvining ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so‘zlar: *gender yondashuv, tenglik, kasbiy tayyorgarlik, integratsiya, fikr, tarbiyachi, malaka, kompetentsiya, samaradorlik, ta’lim, tarbiya.*

Аннотация

В статье анализируются стратегии подготовки будущих педагогов к профессиональной деятельности на основе гендерного подхода. Вопросы гендерного равенства и диверсификатsii важны в системе образования, что указывает на необходимость учета гендерного подхода в процессе подготовки педагогов. В статье описывается роль гендерного подхода в образовании, интегратsiя гендерных проблем в подготовку будущих педагогов и их применение в педагогической деятельности. Также в статье предлагаются пути решения гендерных проблем и подчеркивается важность гендерного подхода в эффективной организатsii профессиональной деятельности педагогов.

Ключевые слова: *гендерный подход, равенство, профессиональная подготовка, интегратsiя, мнение, педагог, компетентность, компетентность, эффективность, образование, обучение.*

Abstract

This article analyzes the strategies of preparing future educators for professional activities based on gender approach. Issues of gender equality and diversification are important in the education system, which indicates the need to take into account the gender approach in the process of training educators. The article describes the role of the gender approach in education, the integration of gender issues in the training of future educators and their application in pedagogical activities. Also, the article offers solutions to gender problems and emphasizes the importance of the gender approach in effectively organizing the professional activities of educators.

Keywords: *gender approach, equality, professional training, integration, opinion, educator, competence, competence, efficiency, education, training.*

Kirish. Bugungi zamonaviy ta'lim tizimida gender masalalari dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, ularning ta'lim jarayonlarida aks etishi bo‘lajak tarbiyachilarning professional malakasini oshirishdan iborat. Ushbu maqolada bo‘lajak tarbiyachilarni gender yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyalarini o‘rganish uchun bir necha metodlar qo‘llanildi: adabiyotlarni tahlil qilish, so‘rovnoma o‘tkazish, intervyu o‘tkazish, amaliyotga oid tadqiqotlar, statistik tahlil.

Dunyoning ilg‘or ilmiy tadqiqot institutlari va xalqaro markazlarida bo‘lajak kadrlarni tayyorlashda gender yondashuvdan samarali foydalanish, talabalarning gender madaniyatini rivojlantirish, gender ta’lim-tarbiya metodikasini zamonaviylashtirishga doir bir qancha ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmqoda. Jumladan, YUNESKOda bo‘lajak kadrlarning gender madaniyatga doir bilimlarini rivojlantirish asosida insonlar qadr-qimmatini hamda jinsidan qat’iy nazar ularning tengligini ta’minlash, turli separatistik qarashlarni va ijtimoiy steriotiplarni bartaraf etishda pedagogika fanlarining imkoniyatlaridan unumli foydalanish, gender pedagogika va oila pedagogikasining metodik asoslarini gender ta’lim samaradorligiga yo‘naltirish muhimligi xulosa qilinmoqda. O‘zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida ham “xotin-qizlar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni yaratish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta’minlash”

vazifalari belgilanganligi va bu borada ko‘plab tashkiliy-huquqiy choralar, ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishi natijasida “gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan”ligi gender madaniyatni rivojlantirish vazifalarining dolzarbligini ko‘rsatib beradi. Buning uchun esa bo‘lajak kadrlarni tayyorlashda gender yondashuvdan unumli foydalanish, bo‘lajak pedagoglarda gender madaniyatni rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirishga alohida ehtiyoj sezilmoqda. [1]

Ushbu maqolada bo‘lajak tarbiyachilarni gender yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyalari tahlil qilindi. O‘zbekiston ta'lim tizimida gender tengligini ta'minlash va gender yondashuvni qo‘llash zarurligi ko‘rsatilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gender yondashuv ta'lim jarayoniga integratsiyalash orqali ta’lim oluvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini kuchaytirishga, shuningdek, tarbiyachilar malakasini oshirishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda gender ta’lim-tarbiyani tashkil etish, gender madaniyatni rivojlantirish, gender steriotiplarni bartaraf etishning pedagogik jihatlarini T.Norboyeva, O.Musurmonova, M.To‘xtaxo‘jayeva, N.Sagindikova, F.Bayjonov, N.Radjapova, Z.Xolmatova, A.Radjabova, G.Qurbonova, G.Ishankulova, D.Buzrukova, X.Tojiboyeva kabi olimlarning izlanishlarida tadqiq etilgan. MDH mamlakatlarida gender tarbiyani tashkil etish, gender pedagogikaning imkoniyatlaridan oliy ta’limda, bo‘lajak kadrlarni tayyorlashda samarali foydalanish, gender bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishning metodik asoslariga doir ilmiyratsional izlanishlarni YU.Bezelyanskiy, A.Veselovskiy, V.A.Geodakyan, E.I.Kalinina, I.S.Kletsina, N.Xamitov, L.I.Shinelova, S.V.Polenina, B.Tugelbayeva, A.Tabishaliyeva, A.Karasayeva, T.A.Mashika, T.N.Sidorova, E.A.Ballayeva kabi olimlarning ilmiy asarlarini ko‘rish mumkin. Xorij olimlaridan R.Konnella, P.Burde, Dj.Skott, N.Najib, E.Xelen, A.Kitchen, M.Kovalskiy, D.Ruts, L.Xusniy K.Amundsen, O.Veyninger, B.Fridan, K.Flint, L.Xaberning ilmiy izlanishlarida, gender tenglikka erishish, xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, ularga teng imkoniyatlar yaratish, jamiyatda gender steriotiplarni qayta baholashning pedagogik asoslari, ta’limiy-tarbiyaviy vazifalari tadqiq etilgan.

Olimlarning fikricha, tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda gender jihatlarni ishlab chiqish jarayoni va amalga oshirish tamoyillari ularni pirovard natijaga olib keluvchi asosiy bosqich hisoblanadi. Gender jihatlarni tushungan o‘qituvchi gender muammolaridan xabardorligi va his qila olishi asnosida yosh avlodni ongli fikrlash va harakat qilishiga imkon yarata oladi. [2, 30-b]

Oliy ta’lim tizimida gender tafovutlar va gender stratifikatsiyasi ijtimoiy va pedagogik nuqtai nazardan o‘zini oqlaydi. J.Stenli gender tafovutlarga nisbatan ilmiy nazariyani ilgari suradi. Genderdagi differentsiatsiya shunday jarayonki, unda erkaklar va ayollar o‘rtasidagi biologik farqlar ijtimoiy mazmunga ega bo‘ladi va ijtimoiy tasniflash vositasi sifatida qo‘llaniladi. Hozirgi davrda har tomonlama rivojlangan, keng dynëqarashga ega bo‘lgan talaba-qizlarni mutaxassis qilib tayyorlash va ular yordamida mamlakatimiz xotin-qizlari salohiyatini ko‘tarish orqali jamiyatimiz ma’naviyati va moddiy farovonligini yanada oshirishning falsafiy-ijtimoiy xususiyatlari hamda pedagogik-psixologik o‘ziga xosliklari mavjuddir. [6,102-b]

Tadiqotchi olim N.Sagindikova o‘zining “Bo‘lajak o‘qituvchilarda mas’uliyatni oshirishning gender xususiyatlari” mavzusidagi tadqiqotida bo‘lajak o‘qituvchilarda mas’uliyatni oshirish uchun ijtimoiy-psixologik sharoitlar, omillar, vositalar va rivojlantirish yo‘llarini tadqiq etgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarda mas’uliyatni oshirish uchun hayotiy sohadagi jihatlardan, «gender», «mas’uliyat», «stereotip» kabi tushunchalarni ijtimoiy psixologik sharoitlarni o‘rganish asosida nazariy va uslubiy tahlil qilish, shuningdek yigit va qizlar psixologik xususiyatlarida mas’uliyatning namoyon bo‘lishi asoslari yoritilgan. [4, 31-b]

Yana bir olim Z.Xolmatovaning “O‘quvchilarda sharqona tarbiyani shakllantirishda genderli yondashuvning nazariy-metodologik asoslari” mavzusidagi tadqiqotida o‘quvchilarda sharqona tarbiyani shakllantirishda genderli yondashuvning nazariymetodologik asoslarini takomillashtirish, o‘quvchilarda sharqona tarbiyani shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari, o‘g‘il va qiz bolalarning gender tengligini ta‘minlash texnologiyalari takomillashtirilgan.[5, 279-b]

G.Qurbonovaning “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari katta guruhi bolalarida gender tolerantlikni shakllantirish texnologiyasi” nomli tadqiqotida maktabgacha ta’lim tashkilotlari katta guruh bolalarida gender tolerantlikni shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish masalalari o‘rganilgan.[3, 32-b]

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy ta'lim tizimida gender masalalari dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, ularning ta'lim jarayonlarida aks etishi bo‘lajak tarbiyachilarning professional kasbiy malakasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Gender yondashuv ta'limda faqat ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tenglikni ta'minlash emas, balki ta'lim muhitida ijtimoiy va madaniy jihatlardan kelib chiqadigan turli xil muammolarni hal etishga yordam beradigan yondashuvdir. Gender masalalarini ta'lim jarayonlariga kiritish, talabalarni gender tengligini tushunishga, turli ijtimoiy ro‘llarni qadrlashga va qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlashda gender yondashuvning ahamiyatini inobatga olish zarur. O‘qituvchilar gender muammolarini yodda tutishlari, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olib, pedagogik faoliyatlarini tashkil etishda yondashuvlarini moslashtirishlari lozim. Ushbu maqolada gender yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyalari, ularning amaliyotdagi qo‘llanilishi va ta'lim tizimidagi ijtimoiy o‘zgarishlarga ta'siri ko‘rib chiqiladi. Bu jarayon ta'limda gender tengligi va adolatni ta'minlash, shuningdek, o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlarni yaratish imkoniyatini taqdim etadi.

Ushbu maqolada bo‘lajak tarbiyachilarni gender yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyalarini o‘rganish uchun bir necha metodlar qo‘llanildi:

Adabiyotlarni tahlil qilish: Gender yondashuv va ta'lim sohasidagi xorijiy va o‘zbek adabiyotlari tahlil qilindi. Maqolalar, kitoblar va ilmiy tadqiqotlar orqali gender tengligi va yondashuvlarning ta'lim jarayonidagi o‘rni, shuningdek, tarbiyachilarnitayyorlash jarayonida qo‘llanilishi ko‘rib chiqildi. Bu tahlil gender masalalari bo‘yicha mavjud bilimlarni tizimli ravishda o‘rganish imkonini berdi. Amaliyotga oid tadqiqotlar: Gender yondashuvni ta'lim jarayonlariga integratsiyalash bo‘yicha ilg‘or tajribalar o‘rganildi. O‘zbekiston va xorijiy davlatlardagi muvaffaqiyatli amaliyotlar tahlil qilindi, ularning gender tengligini ta'minlash va tarbiyachilarnitayyorlash jarayonidagi roli ko‘rib chiqildi.

Ushbu metodlar, bo‘lajak tarbiyachilarni gender yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyalarini o‘rganish va tavsiya etish jarayonida keng qamrovli va tizimli yondashuvni ta'minladi. Tadqiqot natijalari, gender yondashuvning ta'lim jarayonidagi muhim o‘rnini va bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ushbu yondashuvni qo‘llash zarurligini tasdiqlaydi.

Ta’lim, ilm-fan, sport hamda sog‘likni saqlash sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan.

«Gender tenglikka erishish strategiyasi asosan, uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, qator ustuvor yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. Davlat xizmatida, ijtimoiy-iqtisodiy oilaviy munosabatlar hamda bolalar tarbiyasi sohasida, saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash shular jumlasidan. [6, 203-b]

Gender strategiyasini amalga oshirish orqali quyidagilarga erishiladi[5, 280-b]
: • Yuqori va quyi tizimdagi davlat organlarining rahbarlik lavozimlariga xotin-qizlarni tayinlash amaliyotini kengayadi. • Gender nomutanosiblik mavjud bo‘lgan davlat organlarida vaqtinchalik kvotalash tizimini joriy qilish orqali xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi mutanosiblik ta’minlanadi. • Ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta’minlangan, ayniqsa qishloq joylaridagi oilalar xotinqizlarini ish bilan ta’minlash, ularga munosib mehnat sharoitlarini yaratish va ijtimoiy qo‘llabquvvatlash, shuningdek, o‘zini o‘zi band qilishga erishiladi. • Eng asosiysi — xotin-qizlarga nisbatan ish joylaridagi tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldi olinib, jamiyatda ularga nisbatan shakllangan salbiy qarashlarga barham beriladi.

Tahlil va natijalar. Gender tenglik bu – huquqlarning tengligi demakdir. Hayotning har jabhalarida, jumladan ta’lim tizimida ayol va erkaklarga bo‘lgan munosabat hamda imkoniyatlarning tengligini anglatadi.[6, 33-b]

Bugungi kunda ta’lim sifatini ko‘rsatkichi sifatida ta’limda gender yondoshuvi elementlarini joriy etish tobora ommaviylashmoqda. Ta’limda gender tengligi ijtimoiylashuv jarayonini ta’minlash hamda me’yor va tushunchalarni yetkazishda, shu jumladan gender tengligi to‘g‘risidagi sifatli bilim olishdan teng foydalanishni anglatadi. Jamiyatda gender tengligini ta’minlashga qaratilgan sifatli ta’lim bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda, o‘quv dasturlarida, o‘quv adabiyotida, ta’lim jarayonida, talaba va o‘qituvchilar

o‘rtasidagi munosabatlarda gender tengsizlik masalalariga ta’sir qilish va hal qilishga qaratilgan. Bolonya jarayonining Ijtimoiy o‘lchovida (Social Dimension) Yevropa oliy ta’limining (European Higher Education Area) raqobatbardoshligi va jozibadorligini oshirish uchun muhim omil etib ta’limga mazkur sifat tavsifi berilgan. Berlin kommyunikesida (2003-y.) milliy va Yevropa darajalarida ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash hamda ijtimoiy va gender tengsizlikni qisqartirish maqsadida ta’lim raqobatbardoshligini oshirishning zarurati Yevropa oliy ta’limining ijtimoiy tavsiflanishini yaxshilanishi bilan muvozanatlanishi kerak deb belgilab qo‘yilgan. Genderga ta’sirchan amaliyotlarni va kamsitmaslik tamoyillarini qo‘llashni ta’minlovchi malakali kadrlarni tayyorlash ta’lim tizimiga genderga oid bilimlarni kiritish orqali amalga oshiriladi. Ta’limga gender tengligiga oid jihatlarni kiritish nafaqat xohish-istak va sifat masalasi, shu bilan birga, bu ta’lim tizimining yuridik majburiyati degan fikr ham mavjud. Masalan, Shvetsiyada Kamsitilish to‘g‘risidagi qonun (Discrimination Act, 2008 y.) qabul qilingan bo‘lib, unga ko‘ra gender tengligini targ‘ib qilish bo‘yicha faol choralarni ko‘rish, misol uchun aniq maqsadlarni kiritish, ta’qib qilishni oldini olish bo‘yicha choralarni ko‘rish ish beruvchilar va o‘quv muassasalarining majburiyatlariga kiritilgan. Ta’lim olish orqali jamiyatda madaniy, siyosiy, etnik, diniy va gender xilma-xilliklarga bag‘rikenglik g‘oyalari shakllanadi. Ko‘pincha ta’limdagi gender tengligi to‘g‘risidagi bahslar gender prioritetni muhokama qilish bilan cheklanib qolinadi: masalan, agar yigit va qizlarga oliy ma’lumot olishi uchun o‘qishga kirish imkoni berilgan bo‘lsa, demak ta’limdagi gender tenglik ta’minlandi deb hisoblanadi. Biroq, ta’limda gender tengligini ta’minlash – bu gender prioritetni ta’minlashdan ham kengroq bo‘lgan konsepsiyadir. Ta’limdagi gender tengligini tahlil qilishda turli xil o‘lchovlarni ajratib olish mumkin. YUNESKO gender tengligiga erishish bo‘yicha quyidagi Doiraviy dasturni qo‘llashni tavsiya qiladi (Gender Equality Framework): [5, 280-b]

• ta’lim olishda tenglik deganda yigit va qizlarga rasmiy va norasmiy ta’limga kirish uchun teng imkoniyatlar yaratish tushuniladi; • o‘quv jarayonidagi tenglik yigit va qizlar o‘quv jarayonida adolatli baho va e’tibor olishi, ya’ni ular o‘g‘il va qiz bolalarni o‘qitishning turli xil usullari bilan bog‘liq bo‘lgan maqbul kelishmovchiliklarni inobatga olib tuzilgan bir xil o‘quv dasturlari orqali shug‘ullanishini nazarda tutadi; • ta’lim natijalaridagi tenglik yigit va qizlarning ta’lim natijalaridagi baholari ularning individual iste’dodi va say-harakatlariga asoslanadi deganidir. Muvaffaqiyatga erishishning adolatli imkoniyatlarini ta’minlash uchun ta’lim muddati, akademik malaka va diplomlari jinsiy mansublikka qarab farqlanishi mumkin emas; • tashqi natijalardagi tenglik bu ayol va erkakning maqomi ularning tovar va resurslarni qo‘lga kiritishda, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy faoliyatda ishtirok etish va foyda olishda o‘z hissasini qo‘shishdagi qobiliyati tengligidir.

Hozirgi kunda xalqaro tajribada oliy ta’lim tizimida genderga oid ta’lim berishning ikki xil yondoshuvi qo‘llanilmoqda: “Gender tizimi” tushunchasi turli tarkibiy qismlardan tashkil topgan bo‘lib, turli mualliflar tomonidan har xil izohlanadi. Gender tizimi jinslararo munosabatlar birligidir. [2, 34-b] Gender tizimi ommaviy va norasmiy sohalarning gender o‘lchovini taqozo etgani, gender ierarxiyasi boshqa ijtimoiy ierarxiyalar tizimlari bilan solishtirish tufayli bu turdagi tahlilda gender texnologiyalarini amalga oshiruvchi ijtimoiy institutlar rolini o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda. Gender munosabatlarining hukmronlik ma’nolari ko‘p jihatdan ana shunday yondashuv rivojlanishi jarayonida namoyon bo‘ldi.

Xulosa va takliflar. Zamonaviy sharoitda oliy ta’lim tizimida talaba-qizlarning jamiyatdagi siyosiy-ijtimoiy ishtiroki dinamikasi, ilmiy salohiyatni egallashdagi faoliyati, mehnat bozorida bandlik darajasi, nikoh munosabatlarida qadriyatli ëndashyvlar haqidagi faoliyati tarixiy davrlar nazariyalari bo‘yicha tavsiflanadi. Gender yondashuv va shaxsga qadriyatli yondashuv asosida talabaqizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish bugungi kunda ta’lim sohasi hamda yoshlar ma’naviy saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, ta’limda gender tenglikni amalga oshirish harakati o‘qituvchidan boshlanib, uning kasbga tayyorlash bosqichidan, to uzluksiz malaka oshirish bosqichigacha, butun faoliyatini qamrab olishi kerak. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy bilim va ko‘nikmalardan tashqari, ularga muhim hayotiy ko‘nikmalarni, shu jumladan tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini, muammolarni hal qilish, moslashuvchanlik, shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, shuningdek mustaqil va hamkorlikda ishlashga o‘rgatish gender kompetentlikni shakllantirish juda muhim hisoblanadi. Buning uchun oliy ta’lim tizimiga gender yondashuvni tatbiq etish va uni boshqarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Pedagogika fanlarining mashg‘ulot mavzulariga gender madaniyatni rivojlantirishga alohida mavzularni ajratish va milliy tarbiya tizimiga gender tarbiya va gender madaniyatni rivojlantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish vazifalarini kiritish maqsadga muvofiq. Bo‘lajak tarbiyachilarning gender tenglik orqali kasbiy faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan elektron platforma hamda gender tarbiya va gender madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi elektron ilmiy-ommabop saytlar hamda nashrlarni ko‘paytirish lozim. Bo‘lajak pedagoglarning gender madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yangi avlod o‘quv adabiyotlari, darsliklarini yaratish, ilg‘or xalqaro OTMlarning tajribalarini olib kirish bilan birga mutaxassislarni genderli yondashuv tarbiyasiga ixtisoslashtirish maqsadga muvofiq

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 1059-sonli qarori. https://lex.uz/docs/4676839

2. Saydullayeva Aziza Raximovna bo‘lajak pedagoglarda gender madaniyatni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (pedagogika fanlari misolida) mavzusidagi Pedagogik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati - Farg‘ona 2024, 62 bet.

3. Qurbonova Go‘zal Rajab qizi., Maktabgacha ta’lim tashkilotlari katta guruhi bolalarida gender tolerantlikni shakllantirish texnologiyasi mavzusidagi Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati- Buxoro – 2023, 52 bet.

4. Sagindikova Nargiza Djubatkanovna., Bo‘lajak o‘qituvchilarda mas’uliyatni oshirishning gender xususiyatlari mavzusidagi psixologiya fanlari doktori (DsC) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2024, 68 bet.

5. S.O‘. Sharifzoda., Bo‘lajak tarbiyachilarnigender yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash strategiyalari - Inter education & global study jurnali, 2024, №8, 282 bet.

6. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2007. – 300-b.

BO‘LAJAK TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Dilfuza Nosirova,
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirish metodikasining nazariy va amaliy jihatlari, asosiy yo‘nalish va vositalari tahlil qilingan. Maqolada tarbiya fanlarini tashkil etish metodikasi, raqamli texnologiyalarning bugungi ta’lim jarayonidagi ahamiyati va samaradorligi, ta’lim metodlarini qo‘llashda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari keng ochib berilgan. Shuningdek, maqolada respublikamiz hamda xorij pedagog olimlarining mavzuga doir ilmiy hamda tahliliy qarashlari, mulohazalari tahlili ham keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *tarbiya, raqamli ta’lim, texnologiya, metodika, vosita, pedagog, auditoriya, kompetentsiya, kasbiy tayyorgarlik, imkoniyat.*

Аннотация

В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты, основные направления и инструменты методики совершенствования профессиональной подготовки будущих учителей образования с помощью цифровых технологий. В статье широко раскрыты способ organizatsiu учебных предметов, значение и эффективность цифровых технологий в современном образовательном процессе, возможности использования цифровых технологий в применении образовательных методов. Также в статье упоминается

анализ научно-аналитических взглядов и мнений ученых-педагогов нашей республики и зарубежья по данной теме.

Ключевые слова: *образование, цифровое образование, технология, методология, инструмент, педагог, аудитория, компетентность, профессиональная подготовка, возможности.*

Abstract

This article analyzes the theoretical and practical aspects, the main directions and tools of the methodology of improving the professional training of future teachers of education with the help of digital technologies. In the article, the method of organizing educational subjects, the importance and effectiveness of digital technologies in today's educational process, the possibilities of using digital technologies in the application of educational methods are widely disclosed. Also, in the article, the analysis of the scientific and analytical views and opinions of the pedagogic scientists of our republic and abroad on the subject is also mentioned.

Keywords: *education, digital education, technology, methodology, tool, pedagogue, audience, competence, professional training, opportunity.*

Kirish. Raqamli ta’lim – ta’lim jarayoniga yordam beradigan va aniq natijalarga olib keladigan o‘quv amaliyotidir. U nafaqat raqamli ta’lim vositalar orqali o‘quv jarayonini davom ettirish, balki ta’lim sifatini va samarasini yanada oshirishga xizmat qiladi. [9, 67 b] O‘quv jarayoniga raqamli ta’limni joriy qilinishi axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida amalga oshiriladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boshlang‘ich sinf tarbiya fani o‘qituvchisi innovatsion faoliyatining asosiy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ular pedagogga ma’lumotni boshqarish, undan foydalanish, shuningdek, inson faoliyatining barcha sohalarida bilimlarni tarqatish imkoniyatini beradi. Axborotlashuv asrida davlatning innovatsion imkoniyatlarini shakllantirish jarayonida asosiy vazifa o‘qituvchilar zimmasiga tushmoqda. Bunday muhim vazifani zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini mukammal egallagan, o‘z ustida doimiy ishlaydigan, bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtiruvchi, ishiga kreativ yondashuvchi o‘qituvchigina hal eta oladi.

“Ta’lim jarayonini, oliy ta’limning o‘quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy-ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish zarur”[1].

Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirish samarali pedagogik shart-sharoitlariga bog‘liq.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xalqaro miqyosda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, yigirma yildan ko‘proq vaqt davomida sinflarda texnologiyalarni joriy etish, o‘qitish jarayonlari sifatini oshirish nuqtai nazaridan kutilgan natijalarni bermoqda.

Raqamli texnologiyalar va vositalardan o‘z ishida mohirona foydalanadigan insonning intellektual samaradorligi sezilarli darajada oshadi. Kozlova N.Sh fikriga ko‘ra, bugungi kunda kompyuter barcha turdagi ma’lumotlar bilan ishlash uchun birinchi universal ommaviy vositaga aylanmoqda[7, 56-b]. Zamonaviy kompyuter dasturlari tasvirlar, tovushlar, videomateriallar va matnlar, hisob-kitoblar, turli obyektlarning axborot modellari va boshqalar bilan yangi usulda ishlash imkonini beradi. Ko‘pchilik olimlar ta’limdagi raqamli texnologiyalarni raqamli va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan zamonaviy ta’lim muhitini tashkil etish usuli sifatida yoritib bergan. Masalan: Burtsev D.S., Gavrilyuk E.S., Shaugaraeva D.I. kabi ko‘plab olimlar ta’lim jarayoniga raqamli va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish muammolari, yechimlar va ulardan kutiladigan natijalar keltirgan.[6, 132-b] Oliy ta’limni raqamlashtirishning nazariy asoslari ko‘plab tadqiqotchilarning ishlarida ko‘rish mumkin. Masalan: E.M. Egorova A.A. Verbitskiy, N.V. Shamova va boshqalar. Strasser T. “Raqamli texnologiyalarning imkoniyatlarini tahlil qilish kadrlar tayyorlash jarayonini tashkil etish, ta’lim jarayoniga kiritishning didaktik asoslarini ishlab chiqishda tubdan yangi yondashuvlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladigan xususiyatlarni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi” deb ta’kidlagan[4, 102-b]. Umuman olganda yuqoridagi olimlar olib borgan tadqiqotlardan kelib chiqib aytish mumkinki, raqamli texnologiyalarning insonlar hayotining barcha jabhalariga faol kirib borishi tegishli mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etadi va bu, o‘z navbatida, ta’lim tizimida ijobiy o‘zgarishlarga olib keladi.

Oliy ta'lim muassasalarida malakali mutaxassislarni tayyorlashda kasbiy-metodik tayyorgarlik tamoyili muhim o‘rinni egallaydi. Bu tamoyilni tadqiq etgan pedagog olimlar V.A.Suhomlinskiy, V.P. Bespalko

V.A.Slastenin, I.YA.Lerner, A.K.Markova, E.F.Zeer, N.N.SHahmatova V.V.Kraevskiy, I.A.Zimnyaya, A.V.Barannikov, V.A.Adolf, M.V.Dolgih, A.R.Hayrullin[8, 480-b] kabi pedagog olimlar shug‘ullanishgan. O‘zbekiston olimlaridan bo‘lajak o‘qituvchilarni bilim va malakalarni shakllantirish, malakali kadrlar tayyorlash masalasini U.Tolipov, N.Sayidahmedov, F.Yuzlikayev, N.Muslimov, O.Qo‘ysinov, D.Himmataliyev, B.Rahimov, M.Urazova, SH.Urakov, N.Niyazova va boshqalar o‘zlarining ilmiytadqiqotlarida muammoni ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil etishgan [3, 23-b].

Kasbiy-metodik tayyorgarlik va kasbga yo‘naltirilganlik asosida, insonning kelajak kasbiga nisbatan munosabatini ifodalovchi ehtiyojlar, qiziqish va nizomlar tizimi tushuniladi. V.Kuzmina va V.A.Slastenin o‘z asarlarida pedagogik mutaxassisliklarga nisbatan kasbiy-metodik tayyorgarlik muammolarini o‘rganib chiqadilar[8, 35-b].

Tadqiqot metodologiyasi. Tarbiya - yosh avlodni har tamonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lib, shaxsni aqliy, jismoniy, ahloqiy, ma‘naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, insonning jamiyatda yashashini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarini tarkib toptirishning jarayonlaridir. Tarbiya shaxsni tarkib toptirishga qaratilgan bo‘lib, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta‘minlaydigan qadriyatlar asosida rivojlanadi. Tarbiya nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan jarayonlar bo‘libgina qolmay, uning yetakchi g‘oyalari ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar orqali singdirilgan mafkurani ham o‘z ichiga oladi.[3, 23-b]

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyev ta'kidlaganidek, “Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz” [2]

Tarbiya fani O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy o‘rta ta'lim muassasalarida 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab joriy qilindi. Ushbu fan Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o‘quvchilarda "Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari" g‘oyasini singdirish, ularni ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e'tiqotlilik, ma'rifatparvarlik, bag‘rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishni maqsad qilib qo‘ygan.

Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirishning birinchi shart-sharoiti bu raqamli ta’lim muhitida ishlash uchun o‘quv maqsadlarini ishlab chiqishdir. Bo‘lajak “Tarbiya” fani o‘qituvchisining asosiy o‘quv meyo‘riy hujjatlarini (o‘quv reja, fan dasturi, modullar) o‘rganishi, amalyotlarni o‘tashi, ilmiy tadqiqot ishlarini o‘zlashtirish o‘quv kasbiy faoliyatiga kiradi.So‘ngra o‘quv kasbiy faoliyat maqsadi belgilanadi. O‘quv maqsadlari orqali tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirishdagi kasbiy sifatlarga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqiladi. Maqsadlarga erishish bir qator quyidagi vazifalarni hal qilish orqali amalga oshiriladi.

- pedagogik texnikani shakllantirish; - raqamli ta’lim muhiti faoliyatini rejalashtirish va tahlil qilish;- ta’lim jarayonini faollashtirish; - oliy ta’lim muassasalarini tugatgandan keyin ham raqamli ta’lim muhitida ishlashga ehtiyoj;

-raqamli ta’lim muhitida ishlash uchun o‘zining kasbiy malakasini doimiy oshirib borish; -o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatish kabi muhim kasbiy sifatlarni shakllantirish.

Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirishda informatsion model sifatida qarash mumkin. Bunday modelni ishlab chiqishda metodologik yondashuv bo‘lishi lozim. “Boshlang‘ich ta’lim” yo‘nalishlarida, ma’ruza, seminar, laboratoriya, mustaqil ish, ilmiy-tadqiqot, amaliy mashg‘ulotlar va darslardan tashqari mashg‘ulotlar-bular mashg‘ulot turlari bo‘lib, ushbu mashg‘ulotlarni o‘tkazishda guruxiy, kichik guruxlarda ishlash, juftlikda va induvidual ishlash shakllarining to‘g‘ri tanlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. [10, 33-b].

Biz mashg‘ulotlarni raqamlashtirish ta’lim muhitida qanday tashkil qilish to‘g‘risida to‘xtalamiz. 1.On-line ma’ruzlar. Ma’ruza mashg‘ulotlari “On-line” ma’ruza ko‘rinishida o‘tkazish orqali nazariy o‘quv materialini hajmini oshirish, boshqa universitetlar olimlarini jalb qilish, ma’ruza o‘tish vaqtini erkin belgilash, taqdimotlar va illyustratsiyalarini taqdim etish imkoni yaratiladi. Ma’ruzalarni video fayl shaklida platformaga joylashtirish mumkin.

2.Seminar, amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya mashg‘ulotlarini “On-line” kurslar, “On-line” treninglar , vebinar, “On-line” laboratoriya shaklida o‘tish imkonini yaratadi. Shuningdek, laboratoriya mashg‘ulotlarini virtual stendlar orqali o‘tkazish orqali talabalarga murakkab texnologik ob’ektlar va jarayonlar haqida real tasavvur hosil qilishi mumkin.
3.Mustaqil ishlash talabaning masofadan turib biron bir topshiriqlarini metodik yordamini maslahat ko‘rinishida bajarish jarayonidir. Topshiriqlar pedagog yordamisiz ham talaba tomonidan mustaqil bajarilishi mumkin.
Talabalarni mustaqil ishlashga faolligini oshirish uchun quyidagi ta’lim metodlarini va shakllarini qo‘llash talab etadi. [11, 122-b]
- Moodle maxsus platforma orqali “On-line” o‘qitishni kiritish;
- Google, HTMIS , On-line Dokument hujjatlari bilan ishlash;
- Ijtimoiy tarmoqlar bilan ishlash (Telegram, Instagram, Face book);
- On-line so‘rov (Tovushli, test);
- interaktiv grafiklar va jadval bilan ishlash. -On-line monitoring platformalari bilan ishlash. -Ta’limiy saytlar bilan ishlash.
Talabalar ilmiy tadqiqot ishlari bu dastlabki malakalarni shakllantiradigan ta’lim shakli hisoblanadi. Talabalarda ilmiy tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirish quyidagi mashg‘ulotlarda amalga oshiriladi:
-ilmiy amaliy konferensiyalar, seminarlar va davra suhbatlarda.
-kichik guruhlarda hamkorlikda loyihalarni bajarish, laborataoriya mashg‘ulotlari, guruhiy ilmiy izlanishlar.
-kurs ishi, referat, ma’ruza, va ijodiy topshiriqlarni bajarish. O‘qitishning ta’limiy shakllari orqali raqamlashtirish ta’lim muhitida yaratish ta’lim jarayonida o‘zgartirishlarni talab etiladi. Raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak “Tarbiya” fani o‘qituvchisini raqamli ta’lim muhitida ishlashga o‘rgatish ta’limni yangi sifat darajasiga ko‘taradi.
Raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirish quyidagi texnologiyalar orqali amalga oshiriladi: loyihali, muammoli, faol, elektron va masofaviy ta’lim texnologiyalari shular jumlasidandir.

Tahlil va natijalar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha pedagogning kasbiy mahorati quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) ta’lim tizimining global axborot jarayonlariga jalb qilinishi to‘g‘risida xabardorlik;

b) deyarli cheksiz miqdordagi ma’lumotlarga va ushbu ma’lumotlarni tahliliy qayta ishlashga samarali kirish usullarini o‘zlashtirishga tayyorlik;

d) innovatsion pedagogik natijalarni olish uchun zamonaviy axborot muhitida pedagogik g‘oyalarni shakllantirishga imkon beradigan shaxsiy ijodiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishga intilish, shuningdek, o‘ziga xos axborot muhitini yaratish;

e) ilmiy va ijtimoiy tajribani birgalikda rivojlantirishga, axborotning o‘zaro ta’sirining barcha subyektlari bilan birgalikda aks ettirish va o‘z-o‘zini aks ettirishga tayyorligi;

f) ma’lumotlarni olish, tanlash, saqlash, takrorlash, taqdim etish, uzatish va integratsiya qilish madaniyatini o‘zlashtirish;

g) doimiy o‘zgarib turadigan axborot jamiyatida, uzluksiz ta’lim sharoitida kasbiy o‘sishning muhim yo‘nalishi sifatida zamonaviy interfaol telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlik; h) axborot va ta’lim muhitini modellashtirish va loyihalashtirish va o‘z kasbiy faoliyati natijalarini bashorat qilish qobiliyati. [11, 123-b]

Raqamli ta’lim muhitida o‘quv-kasbiy faoliyatni maqsadi va mazmunini loyihalash quyidagi tamoyillarga asoslanadi.
1.Ilmiylik-raqamli ta’lim muhitida pedagoglarni tayyorlashda o‘quv predmeti va ilmiylik orasidagi bog‘liqlik o‘rnatish.
Bunda quyidagi talablar qo‘yiladi:
-Raqamli ta’lim muhiti sharoitida pedagogika fani nazariyasi va qonunlari tushunchalari va ilmiy dalillar bilan talabalarni tanishtirish;
-Raqamli ta’lim muhiti sharoitida pedagogika ilmi texnologiyalari va metodlarini o‘rganish;

-Raqamli ta’lim muhiti sharoitida kasbiy masalalarni yechishda ilmiy dalillar, qonunlar va nazariyalardan foydalanish.
-On-line dasturlar bilan ishlash, kerakli ma’lumotlarni izlab topishi va keraklisini tanlash, adabiyotlarni tahlil qilish, taqdimotlar va ilmiy maqolalar tayyorlash.
2. Yaxlitlik. Raqamli ta’lim muhitida nazariy va amaliy integratsiyasini ta’minlash.Bunda quyidagi talablar bajarilishi kerak.
-raqamli ta’lim muhitida kasbiy masalalarni yechish masalasi shakllantiriladi.
-raqamli ta’lim muhitida kasbiy faoliyatga amalga oshirish ritmi bo‘yicha tayyorgarligini ta’minlash.
-raqamli ta’lim muhitida ta’lim tizimiga yangi talablar kiritiladi.
-bo‘lajak “Tarbiya” fani o‘qituvchilarining raqamli ta’lim muhitida kasbiy pedagogik faoliyatini amalga oshirish bo‘yicha o‘z-o‘zini rivojlantirishi.
3.Raqamli ta’lim muhitini yaratish orqali o‘quv tabiyaviy jarayonida shaxsga kompleks ta’sirini tashkil qilish. Bundan quyidagi talablarni bajarish lozim:
- raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirilishi bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish.
-dars va darsdan tashqari faoliyatda talabalar bilan olib boriladigan kompleks tadbirlar.
- raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirish darajasini aniqlash bo‘yicha kompleks tadbirlar.
4. Tizimlilik. Raqamli ta’lim muhitida ishlash sharoitida pedagogik nazariya bilan amaliyoti orasida aloqadorlikni o‘rnatish. Bunda-nazariy va amaliy o‘quv materialining mantiqiy ketma ketlikda tuzilishining bayon etilishi, nazariy va amaliy mashg‘ulotlarini orasidagi integratsiya o‘rnatilishi lozim.
5. Kasbiy pedagogik faoliyatlilik. Bu tamoyilga diagnostika, tashxislash, monitoring, loyihalash, dasturlash kiradi. [6, 56-b]

Raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirishda uchinchi sharoit ham muhim hisoblanadi. Bu raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashganligini baholashdir.
Raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashganlik darajasini aniqlash uchun baholash mezonlari ishlab chiqildi. Bu mezonlarni quyidagi motivatsion-ehtiyojli, gnostik, jarayonli va o‘z-o‘zini baholash guruhlarga ajratildi.
Xulosa va takliflar. Biz tomondan o‘tkazilgan izlanishlarimiz Raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirish muammolari holati o‘rganilib, tanlangan muvzuning pedagogik nazariyasi va amaliyotda hamda bugungi kunda tarbiya fani bo‘yicha o‘quvchilarni tayyorlash sohasida dolzarbligini asoslab berdi.
Bizni fikrimizcha raqamli ta’lim muhitida ishlash bo‘yicha muhim kasbiy sifatlar- raqamli ta’lim muhitida pedagog faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan kompleks sifatlar majmuidir. Shunday qilib biz raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirishda uchta pedagogik shart-sharoitni aniqladik.
1. Raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirishda o‘quv-kasbiy faoliyat maqsadi va mazmunini loyihalash.
2. Raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirishda pedagog va talaba harakatlarini tartiblashtirish.
3. Raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini raqamli texnologiyalar vositasida takomillashtirish natijalarini baholash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi. 2017-yil 20-aprel, PQ-2909-son qarori.
2. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.

3. R. A. Mavlonova, N. Rahmonqulova, B. Normurodova, K. Matnazarova. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografiyada nashr qilindi. Toshkent, 2004- yil. 338 bet.

4. Adizov B. R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. –T.: “Fan”, 2007. – 218 b.

5. Роберт И.В. Теория и методика информатизатsiи образования (психолого-педагогический и технологический аспекты). –М.: Ред. журн. “Профессиональное образование. Столица”, 2010. -48с.

6. Андреева, Л. А. Дидактические игри как средство развития профессио-нально значимих качеств будущего специалиста: дисс. … канд. пед. наук: 13.00.08 / Л. А. Андреева – Орел, 1999. – 228 с.

7. Иванов, Д. А. Компетентностний подход в образовании: проблеми, по-нятия, инструментарий [Текст] / Д. А. Иванов, К. Г. Митрофанов, О. В. Соколова. – М., 2003. – 101 с.

8. SlasteninV.A. Pedagogika: uchebnik dlya stud. uchrejdeniy vissh. prof. obrazovaniya / V.A.Slastenin, I.F.Isaev, E.N.Shiyanov; pod red. V.A.Slastenina. -10-e izd., pererab. -M.: Akademiya, 2011. -608 s

9. Nosirova, D. (2023). Bo‘lajak boshlang ‘ich sinf o‘qituvchilari uchun “pedagogik mahorat” darslari samaradorligini oshirishning shart-sharoiti. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 2(6), 67-70.

10. Nosirova, D. (2024). Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun “pedagogik mahorat” darslarida raqamli texnologiyalar samaradorlikni oshirish vositasi sifatida. Евразийский журнал академических исследований, 4(4), 35

11. Mo‘minova D. K., Bo‘lajak “texnologiya” fani o‘qituvchilarining raqamlashtirish ta’lim muhitida ishlash bo‘yicha muhim kasbiy sifatlarini shakllantirishning pedagogik sharoitlari., Образование и инноватsионные исследования (2022 год №3)121-126 betlar.

THE ROLE OF STUDENT ENGAGEMENT IN TEACHING ENGLISH

Maftuna Bobokeldieva,
English teacher, Department of teaching foreign languages,
Tashkent State University of Economics

Abstract

Student engagement plays a crucial role in the process of teaching and learning English as a second or foreign language. Engagement is a multidimensional construct that encompasses behavioral, emotional, and cognitive aspects, all of which contribute to the effectiveness of language acquisition. This paper explores the importance of student engagement in English language learning, examining how motivation, classroom interaction, and instructional strategies affect learners' outcomes. Through a review of existing literature, this study discusses various approaches that enhance student engagement, such as interactive activities, technology integration, and student-centered learning. The results highlight the significance of fostering a stimulating learning environment that encourages active participation and deep learning. The findings suggest that educators should prioritize engagement-driven pedagogical strategies to enhance language proficiency and overall academic success in English learning.

Keywords: *Student engagement, English language teaching, motivation, interactive learning, cognitive engagement, active participation, technology integration, classroom interaction, student-centered learning.*

Аннотация

Вовлеченность студентов играет решающую роль в процессе преподавания и изучения английского языка как второго или иностранного. Вовлеченность — это многомерная конструкция, которая охватывает поведенческие, эмоциональные и когнитивные аспекты, каждый из которых способствует эффективности усвоения языка. В этой статье рассматривается важность вовлеченности студентов в изучение английского языка, изучается, как мотивация, взаимодействие в классе и учебные стратегии влияют на результаты учащихся. В этом исследовании посредством обзора существующей литературы обсуждаются различные подходы, которые повышают вовлеченность студентов, такие как интерактивные занятия, интеграция технологий и обучение, ориентированное на студента. Результаты подчеркивают важность создания стимулирующей учебной среды, которая поощряет активное участие и глубокое обучение.

Результаты показывают, что преподаватели должны отдавать приоритет педагогическим стратегиям, ориентированным на вовлеченность, для повышения уровня владения языком и общей успеваемости в изучении английского языка.

Ключевые слова: *вовлеченность студентов, преподавание английского языка, мотивация, интерактивное обучение, когнитивная вовлеченность, активное участие, интеграция технологий, взаимодействие в классе, обучение, ориентированное на студента.*

Annotatsiya

Ingliz tilini ikkinchi yoki chet tili sifatida o‘qitish va o‘rganish jarayonida talabalarning faolligi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ishtirok etish - bu xulq-atvor, hissiy va kognitiv jihatlarni o‘z ichiga olgan ko‘p o‘lchovli tuzilma bo‘lib, ularning barchasi tilni o‘zlashtirish samaradorligiga hissa qo‘shadi. Ushbu maqola talabalarning ingliz tilini o‘rganishdagi ishtirokining ahamiyatini o‘rganadi, motivatsiya, sinfdagi o‘zaro ta'sir va o‘qitish strategiyalari o‘quvchilar natijalariga qanday ta'sir qilishini o‘rganadi. Mavjud adabiyotlarni ko‘rib chiqish orqali ushbu tadqiqot interaktiv faoliyat, texnologiya integratsiyasi va talabalarga yo‘naltirilgan ta'lim kabi talabalarning faolligini oshiradigan turli yondashuvlarni muhokama qiladi. Natijalar faol ishtirok etish va chuqur o‘rganishni rag‘batlantiradigan rag‘batlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish muhimligini ta'kidlaydi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilar ingliz tilini o‘rganishda tilni bilish va umumiy akademik muvaffaqiyatni oshirish uchun faollikka asoslangan pedagogik strategiyalarga ustuvor ahamiyat berishlari kerak.

Kalit so‘zlar: *Talabalarning faolligi, ingliz tilini o‘rgatish, motivatsiya, interaktiv ta’lim, kognitiv faollik, faol ishtirok, texnologiya integratsiyasi, sinfdagi o‘zaro ta’sir, o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim.*

Introduction. Teaching English as a second or foreign language is a dynamic process that requires educators to employ effective strategies to facilitate language acquisition. One of the most influential factors in this process is student engagement, which has been widely recognized as a determinant of academic success. Engagement refers to the level of attention, curiosity, and involvement that students demonstrate in their learning activities. The more engaged students are, the more likely they are to develop language skills effectively and retain what they have learned.

This study aims to analyze the role of student engagement in teaching English and explore ways in which educators can enhance engagement levels in the classroom. It will examine different dimensions of engagement, including behavioral, emotional, and cognitive aspects, and discuss how they contribute to the effectiveness of English language learning. Additionally, the paper will explore various instructional strategies that have been proven to increase student engagement, such as technology integration, collaborative learning, and interactive teaching methods.

Literature review.

1. Understanding Student Engagement

Student engagement is a broad concept that encompasses different dimensions, each of which plays a role in the learning process. According to Fredricks, Blumenfeld, and Paris, engagement can be categorized into three dimensions:

- **Behavioral Engagement:** Refers to students' participation in academic tasks, their attendance, and their involvement in classroom activities [1].
- **Emotional Engagement:** Involves students' feelings about learning, their motivation, and their sense of belonging in the classroom [2].
- **Cognitive Engagement:** Reflects students' willingness to invest in their learning, their use of deep learning strategies, and their ability to self-regulate their progress [3].

2. The Impact of Engagement on Language Learning

Research has shown that student engagement significantly influences language acquisition. Engaged students are more likely to practice speaking, writing, reading, and listening skills actively, leading to better language proficiency. Furthermore, motivation, which is closely linked to engagement, has been found to be a key predictor of success in learning English as a second or foreign language [4].

Studies suggest that students who are emotionally engaged are more persistent in overcoming language-learning challenges, while those who are cognitively engaged are more likely to apply metacognitive strategies, such as self-monitoring and reflection, to improve their language skills [5].

3. Strategies to Enhance Student Engagement in English Learning

Several strategies have been identified as effective in increasing student engagement in English language classrooms:

- **Active Learning Techniques:** Encouraging participation through debates, role-playing, and collaborative projects [6].
- **Technology Integration:** Using multimedia, gamification, and online platforms to create interactive learning experiences [7].
- **Student-Centered Approaches:** Giving students autonomy over their learning and incorporating their interests into lesson planning [8].
- **Authentic Learning Materials:** Using real-world content, such as news articles, movies, and songs, to make lessons more relevant and engaging [9].

DISCUSSION

1. The Relationship Between Engagement and Language Proficiency

Engagement plays a direct role in improving language skills. When students are actively engaged, they are more likely to participate in communicative activities, which are essential for language development. Speaking and listening, in particular, benefit from engagement-driven methodologies, as students gain confidence in using the language in real-world contexts.

Additionally, reading and writing skills improve when students are engaged with meaningful texts and tasks. Cognitive engagement, which involves deep processing and critical thinking, helps students develop strong writing abilities and comprehension skills [10].

2. The Role of the Teacher in Fostering Engagement

Teachers play a crucial role in creating an engaging learning environment. Effective educators employ various techniques to sustain student interest, such as:

- Creating a supportive and inclusive classroom atmosphere.
- Using diverse teaching methods that cater to different learning styles.
- Encouraging peer collaboration and discussion.
- Providing timely and constructive feedback.

By adopting these strategies, teachers can ensure that students remain motivated and actively involved in the learning process.

3. Challenges in Promoting Student Engagement

Despite the importance of engagement, educators often face challenges in maintaining high levels of student involvement. Some common barriers include:

- **Lack of Motivation:** Some students may lack intrinsic motivation to learn English, especially if they do not see its relevance to their future goals.
- **Classroom Diversity:** Mixed-ability classrooms can make it difficult for teachers to address all students' needs.
- **Technological Distractions:** While technology can enhance engagement, it can also lead to distractions if not managed effectively.

Overcoming these challenges requires innovative teaching methods, personalized learning experiences, and continuous assessment of student needs.

RESULTS

The findings of this study highlight the importance of student engagement in teaching English. Key results include:

1. **Increased Participation Leads to Better Language Proficiency:** Students who actively participate in class activities show significant improvement in their speaking and listening skills.
2. **Emotionally Engaged Students Perform Better:** Motivation and emotional involvement contribute to language retention and learning persistence.
3. **Technology and Interactive Methods Enhance Engagement:** Digital tools, gamification, and collaborative activities make learning more enjoyable and effective.

4. **Teacher Strategies Are Critical:** The role of the teacher in fostering engagement through creative and student-centered approaches is indispensable.

Conclusion. Student engagement is a fundamental aspect of teaching English, influencing learners' motivation, participation, and overall academic success. Behavioral, emotional, and cognitive engagement all contribute to effective language acquisition, making it essential for educators to adopt strategies that encourage active learning. Methods such as technology integration, student-centered teaching, and the use of authentic materials can significantly enhance engagement levels.

Despite challenges such as motivation issues and classroom diversity, teachers can overcome these obstacles by implementing dynamic and inclusive teaching strategies. Future research should focus on developing new engagement techniques tailored to different learning environments and student needs. By prioritizing engagement, educators can create a more effective and enjoyable English learning experience for students.

REFERENCES:

[1] Fredricks, J. A., Blumenfeld, P. C., & Paris, A. H. (2004). School engagement: Potential of the concept, state of the evidence. *Review of Educational Research, 74*(1), 59-109.

[2] Reeve, J. (2012). A self-determination theory perspective on student engagement. *Handbook of Research on Student Engagement*, 149-172.

[3] Appleton, J. J., Christenson, S. L., & Furlong, M. J. (2008). Student engagement with school: Critical conceptual and methodological issues. *Psychology in the Schools, 45*(5), 369-386.

[4] Dörnyei, Z. (2001). *Motivational strategies in the language classroom.* Cambridge University Press.

[5] Mercer, S., & Dörnyei, Z. (2020). Engaging language learners in contemporary classrooms. *Language Teaching Research, 24*(4), 461-480.

[6] Bonwell, C., & Eison, J. (1991). *Active learning: Creating excitement in the classroom.* ERIC Digest.

[7] Wang, S., & Tahir, R. (2020). The effect of gamification on student engagement in language learning. *Educational Technology & Society, 23*(1), 1-14.

[8] Weimer, M. (2013). *Learner-centered teaching: Five key changes to practice.* John Wiley & Sons.

[9] Krashen, S. (1982). *Principles and practice in second language acquisition.* Pergamon.

[10] Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a self-regulated learner: An overview. *Theory into Practice, 41*(2), 64-70.

XX ASR BOSHLARIDA JADIDCHILIK G‘OYALARINI YOSHLAR TARBIYASIDAGI TA’SIRI

Shoira Aliyeva,
Amaliy fanlar universiteti “Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi v.b dotsenti

Annotatsiya

Jadidchilik g‘oyalari yoshlar orasida yangi bilimlarni qabul qilish, ilm-fanni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirdi. Ta'limni zamonaviy usullar asosida tashkil etish va yoshlarni barcha sohalarda bilimli qilish — jadidchilikning asosiy maqsadlaridan biri bo‘ldi. Bu, ayniqsa, o‘qituvchilarning yangicha pedagogik metodlarga o‘tishiga, yangi maktablarning ochilishiga olib keldi. Ushbu maqolada aynan shu yo‘nalishdagi tizimli islohotlar va jadidchilik harakatining madaniy merosimiz hamda tafakurimizdagi ahamiyati haqida atroflicha bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: *jadidlik harakati, mafkura, milliy g‘oya, zamonaviy islohotlar, ilm-fan rivoji, yoshlar tarbiyasi va h.k.*

Abstract

The ideas of Jadidism increased the interest of young people in acquiring new knowledge and studying science. One of the main goals of Jadidism was the organization of education based on modern methods and the education of

young people in all spheres. This, in particular, led to the transition of teachers to new pedagogical methods and the opening of new schools. This article details the systemic reforms in this direction and the significance of the Jadid movement in our cultural heritage and thinking.

Keywords: *Jadid movement, ideology, national idea, modern reforms, development of science, youth education, etc.*

Аннотация

Идеи джадидизма повысили интерес молодежи к приобретению новых знаний и изучению науки. Одной из главных целей джадидизма было организация образования на основе современных методов и обучение молодежи во всех сферах. Это, в частности, привело к переходу учителей на новые педагогические методы и открытию новых школ. В данной статье подробно описываются системные реформы в этом направлении и значение джадидского движения в нашем культурном наследии и мышлении.

Ключевые слова: *Джадидское движение, идеология, национальная идея, современные реформы, развитие науки, воспитание молодежи и т.д.*

Kirish. XX asr boshlarida jadidchilik g‘oyalari o‘zining ta'sirini nafaqat siyosat va ijtimoiy hayotda, balki yoshlar tarbiyasida ham chuqur sezdirgan. Jadidchilik, ayniqsa, o‘zbek jamiyatining o‘sha davrdagi ta'lim tizimi, tarbiyasi va madaniyatida katta o‘zgarishlar kiritishga harakat qilgan harakat sifatida tanilgan. Jadidchilik g‘oyalari, umumiy ta'lim va ilm-fan sohalarida yangiliklarni kiritishni o‘z ichiga olgan. Jadidchilar eski an'anaviy ta'lim tizimining orqada qolganligini va yangilanish zarurligini ta'kidladilar. Ular yoshlarni yangicha, zamonaviy bilimlar bilan tarbiyalashni maqsad qilganlar. Shu boisdan, jadidchilikning asosiy g‘oyalaridan biri — yoshlarni ilm-fan, axloqiy va madaniy jihatdan rivojlantirish edi. Jadidchilik yoshlarni nafaqat ilm-fan bilan, balki milliy qadriyatlar va madaniyatni hurmat qilishga o‘rgatishga harakat qildi. Ular yoshlarni milliy o‘zlikni anglashga, tarixiy va madaniy merosni qadrlashga chaqirdilar. Bu, o‘z navbatida, o‘zbek yoshlarining o‘z milliy kimligini rivojlantirishga, mustaqillikka erishish yo‘lida faol bo‘lishlariga turtki berdi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahili. XX asr boshlarida jadidchilik g‘oyalarini o‘rganish, tahlil qilish va rivojlantirishga bir nechta muhim avtorlar va ilmiy shaxslar katta hissa qo‘shgan. Ushbu avtorlar, o‘z asarlarida jadidchilik g‘oyalarining yoshlar tarbiyasidagi, madaniy va ilmiy rivojlanishdagi ahamiyatini ko‘rsatib, ta'lim tizimi va jamiyatni isloh qilishga bo‘lgan ehtiyojni ilgari surdilar. Abdulla Avloni jadidchilik harakatining asosiy namoyandalaridan biri bo‘lgan. U o‘zining ilmiy va pedagogik faoliyati bilan yoshlar tarbiyasiga katta ta'sir ko‘rsatdi. Avloni, o‘z asarlarini yaratishda, eski an'anaviy ta'lim tizimiga qarshi turib, zamonaviy ilm-fan va pedagogikani o‘zlashtirishni targ‘ib qildi. "Ma'naviyat" (1905) va "Tafsir al-ulum" kabi asarlarda u yoshlarni ilmiy bilimlar va ijtimoiy rivojlanish asosida tarbiyalash zarurligini ta'kidlagan. U shuningdek, ta'lim tizimini isloh qilishni maqsad qilgan va jadidchilik g‘oyalarini jamiyatda keng targ‘ib qilgan. Munavvar Qori, jadidchilik harakatining eng mashhur va ta'sirchan shaxslaridan biri bo‘lgan [6]. U o‘zining ta'limotlari va asarlari orqali yoshlarni zamonaviy dunyoqarash bilan tarbiyalashga, eski an'anaviy ta'lim tizimiga qarshi kurashishga harakat qilgan. Uning "Vatanparvarlik" va "Ilmga intilish" kabi asarlari, yoshlarni faqat ilm-fanga emas, balki ijtimoiy mas'uliyatni his qilishga, mustaqil fikrlashga va milliy qadriyatlarni hurmat qilishga chaqiradi. Mahmudxoja Behbudi jadidchilik harakatining boshqa yetakchi shaxslaridan biri bo‘lib, yoshlarni ilm-fan, madaniyat va axloqiy rivojlanish tomon yo‘naltirishga katta hissa qo‘shgan. Behbudi, o‘zining ilmiy va adabiy faoliyatida, yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash va ularga zamonaviy bilimlar berish zarurligini ta'kidlagan. U jadidchilik g‘oyalarining yoshlar tarbiyasidagi rolini yuqori baholagan va bu g‘oyalar asosida yangi ta'lim dasturlarini ishlab chiqqan.

Abduqodir Sidqi o‘zining jadidchilik g‘oyalari bilan tanilgan va ilmiy-ijtimoiy sohalarda katta ta'sir ko‘rsatgan. U yoshlarni nafaqat ilm-fan, balki jamiyatda ijtimoiy mas'uliyat va axloqiy qadriyatlarni hurmat qilishga ham tarbiyalagan. Sidqi o‘zining asarlarida ilmiy va madaniy yangilanishlar, yoshlarning zamonaviy dunyoqarashni qabul qilishlari zarurligini ta'kidlagan. Uning asarlarida, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar va mustaqillik g‘oyalari ham o‘rganilgan. Shamsuddin Validi jadidchilik g‘oyalarining muhim targ‘ibotchisi bo‘lgan va yoshlar tarbiyasiga katta ta'sir ko‘rsatgan. U, ilm-fan va ta'limni zamonaviylashtirish zarurligini ta'kidlagan. Validi, ayniqsa, ta'lim sohasidagi yangiliklarni yoshlar o‘rtasida qo‘llab-quvvatlab, ularga yangi pedagogik usullarni o‘rgatishga intilgan. Uning asarlarida yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan ta'minlash,

madaniy o‘zlikni anglash va ijtimoiy adolatni ta'minlash haqida ko‘plab fikrlar mavjud. Ismoilbek G‘aznavi, jadidchilik harakatining ta'lim sohasidagi muhim namoyandalaridan biri bo‘lgan. U, ayniqsa, o‘zining pedagogik faoliyatida yoshlar tarbiyasining axloqiy va madaniy jihatlariga katta e'tibor qaratgan. G‘aznavi o‘zining asarlarida yoshlarni faqat ilmiy bilimlar bilan emas, balki milliy qadriyatlarni hurmat qilishga, o‘z xalqining tarixini anglashga va jamiyatda faol bo‘lishga chaqirgan. U jadidchilikning madaniy va ijtimoiy islohotlaridagi o‘rin va ahamiyatni tahlil qilib, yoshlarning intellektual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlagan [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Jadidchilikning ta'siri faqat ma'naviy va ilmiy rivojlanish bilan cheklanib qolmadi. Bu g‘oyalar, shuningdek, yoshlarning mustaqil fikrlash, yangi g‘oyalarni qabul qilish va o‘zgarishlarga tayyor bo‘lishiga yordam berdi. Jadidchilar yoshlarni nafaqat ijtimoiy hayotda, balki siyosatda ham faollikka undadilar. Ular yoshlarni mamlakatning kelajagi sifatida ko‘rdilar va ularga yangi fikrlar, yangi dunyoqarashlar orqali o‘zlarini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratdilar. Bundan tashqari, jadidchilik g‘oyalari yoshlarda ijtimoiy va siyosiy mas'uliyatni rivojlantirishga yordam berdi. Jadidchilik o‘zining g‘oyalari bilan yoshlarni faqatgina ilmga qiziqtirmadi, balki ularni ijtimoiy adolat, tenglik va mustaqillik uchun kurashish ruhida tarbiyaladi. XX asr boshlarida jadidchilik g‘oyalari o‘zining ta'sirini nafaqat jamiyatda, balki yoshlar tarbiyasida ham sezilarli darajada ko‘rsatdi. Jadidchilik harakati, eng avvalo, ta'lim tizimini isloh qilish va yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan tarbiyalashga intildi. O‘sha davrda, o‘zbek jamiyatida an'anaviy ta'lim tizimi va darsliklar eski usullarga asoslangan bo‘lib, bu yoshlarning ilm-fan va texnologiyada rivojlanishini to‘xtatardi [1]. Jadidchilar esa, jamiyatni yangilash va o‘zgartirishni maqsad qilib, yangi fikrlar va bilimlarni yoshlar orasida tarqatishga harakat qildilar.

Jadidchilik yoshlarni ilm-fan bilan yaxshilab tarbiyalashga, ularni yangicha usullar bilan o‘qitishga e'tibor qaratdi. Jadidchilar eski maktablar va diniy ta'limning o‘rnini zamonaviy ta'lim tizimi bilan to‘ldirishni istadilar. Ular, o‘zlarining ta'lim dasturlarini ishlab chiqib, o‘quvchilarga nafaqat diniy bilimlar, balki zamonaviy fanni ham o‘rgatishga harakat qildilar. Bu esa, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, ularni yangi g‘oyalar va bilimlarga ochiq qilishga xizmat qildi. Jadidchilik yoshlarni faqat ilmiy bilimlar bilan emas, balki axloqiy va ijtimoiy jihatdan ham tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Jadidchilikning asosiy g‘oyalaridan biri – yoshlarni milliy madaniyat va urf-odatlarni qadrlashga, ammo shu bilan birga, zamonaviy ijtimoiy qoidalar va qadriyatlarni ham qabul qilishga o‘rgatish edi [2]. Bu, o‘z navbatida, yoshlarni jamiyatdagi o‘rnini anglashga va ijtimoiy mas'uliyatni his qilishga yo‘naltirdi.

Ushbu davrning ta’limtarbiyasi haqida gapirilganda albatta Turkistonda yetishib chiqqan Behbudiy, Avloniy, Hamza, Fitrat, Cho‘lpon kabi ziyolilarning faoliyatlariga to‘xtalib o‘tish joizdir. Jadidlar ham, eng avvalo, o‘qitishning eski usuli yaramasligini, yoshlarga zamonaviy ilmlarni o‘rgatish zarurligini tushindilar, o‘quv dasturida ona tilidagi darslar nisbatini oshirish, ularda vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg‘ularini tarbiyalaydi, oxir-oqibatda esa bu yoshlarda milliy-ozodlik kurashi uchun zamin hozirlaydi, degan xulosaga keladilar. Ana shu harakat zamirida jadidlarning pedagogik qarashlari ham shakllanib, takomillashib bordi. Muhimi ularning pedagogik qarashlari ijtimoiy hayotning talabi, ehtiyoji orqasida tug‘ildi. Jadidlar, jadidchilik haqida so‘nggi yillarda ko‘plab maqolalar, ilmiy-tadqiqot ishlari yuzaga keldi, ancha narsalar oydinlashdi. Eng avvalo, «Jadidchilik nima uchun yuzaga keldi? Uning mohiyati nimda?» degan savollar tug‘ilishi tabiiy.

Turkistonda jadidchilik faoliyatini mazmun-mohiyati, ularning o‘sha davr ma’rifiy-ma’naviy taraqqiyoti jarayonida qanday o‘rin tutganligi to‘g‘risida bilim va tasavvurlar hosil qilish. Jadidlar faoliyati orqali ta’lim-tarbiyada milliy zamin asosi hisoblangan yo‘l ona tilida o‘qitish orqali yoshlarda vatanparvarlik, millatparvarlikni shakllantirish va shu vatan farzandiman degan tuyg‘uni rivojlantirishga ko‘maklashish [3]. Jadidlarni maorifdagi mustamlakachilikka qarshi faoliyatini keng tarzda talabalarga yoritib berish. Jadidlarning milliy-ma’naviy va ma’rifiy qarashlari jamiyatni ijtimoiy rivojlanishidagi o‘rni qanday bo‘lganligini yoritib berish. Talabalarga jadidlarning teatr, san’at, maorifni rivojlantirishdagi tutgan o‘rnini tahlil qilib berish. Insonlarning ma’naviy va ma’rifatsiz bo‘lishi jamiyat taqdiriga katta ta’sir ko‘rsatishi muqarrar ekanligini anglatish. Har bir insonda milliy-ma’naviy tiklanishga, boshqa millatlarga nisbatan ishonch, o‘zaro xurmat tuyg‘usini shakllantirish va ma’naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish.

Tahlil va natijalar. Jadidchilik harakati, yoshlarning siyosiy tafakkurini rivojlantirishga ham katta ahamiyat berdi. Jadidchilar, yoshlarni faqat ilm-fan va madaniyat sohasida emas, balki siyosiy va ijtimoiy hayotda

ham faol bo‘lishga undadilar. O‘sha davrda o‘zbek yoshlari ko‘plab siyosiy va ijtimoiy masalalarda faollik ko‘rsatganlar. Jadidchilik g‘oyalari yoshlarni o‘z-o‘zini anglash, o‘z huquqlarini bilish va jamiyatdagi o‘zgarishlarga faol qo‘shilishga undadi. Jadidchilik yoshlarni milliy o‘zlikni anglashga, o‘z tarixini va madaniyatini qadrlashga o‘rgatdi. Bu g‘oyalar yoshlarni o‘z milliy kimligini rivojlantirishga yordam berdi. Jadidchilik o‘zining ta'lim va tarbiya usullarida, yoshlarni nafaqat o‘zbek tilida, balki boshqa tillarda ham bilim olishga rag‘batlantirdi, bu esa ularni dunyoqarashini yanada kengaytirishga va xalqaro miqyosda faoliyat ko‘rsatishga undadi. XX asr boshlarida jadidchilik g‘oyalari, ayniqsa, yoshlar tarbiyasiga oid ilgari surilgan prinsiplar bugungi kunda ham madaniyat va marifat sohalarida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Jadidchilik, o‘z davrida, ilm-fan, axloq, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni yangilashga qaratilgan bo‘lsa, bugungi kunda ham bu g‘oyalar jamiyatimizda yangilikka ochiqlik, o‘z-o‘zini rivojlantirish va madaniy boyliklarni saqlash kabi masalalarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadidchilik, yoshlarni ilm-fan va ta'lim sohalarida zamonaviy bilimlarga ega qilishga harakat qilgan edi. Bugungi kunda bu g‘oya ayniqsa muhimdir, chunki zamonaviy dunyoda bilim va texnologiyalarni yangilash, o‘quv jarayonini yangilash va zamonaviy metodlarni qo‘llash talab etiladi. Jadidchilik ta'lim tizimini yangilashga qaratilgan g‘oyalar bugungi o‘quv tizimida muhim o‘rin tutadi: bu o‘qituvchilarning pedagogik metodlarini, o‘quv dasturlarini va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirishni taqozo etadi. Yoshlarni zamonaviy bilimlar bilan tarbiyalash, ularni ilmiy va texnologik yangiliklarga tayyorlash – bu jadidchilikning bugungi madaniyatdagi dolzarb ahamiyatidir [5]. Madaniy meros va milliy o‘zlikni anglashda esa jadidchilar yoshlarni milliy o‘zlikni anglash va o‘z madaniyatini qadrlashga o‘rgatgan. Bu g‘oya bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda, chunki globalizatsiya va madaniyatlararo aloqalar kuchaygan bir vaqtda, milliy o‘zlik va madaniy merosni saqlash juda muhimdir. O‘zbek madaniyatini va tarixini anglash, uni avloddan-avlodga yetkazish, shuningdek, bugungi kunda milliy qadriyatlarimizni rivojlantirishda jadidchilik g‘oyalari katta o‘rin tutadi. Yoshlarni o‘z madaniyati va an'analariga hurmat bilan qarashga undash, ular uchun o‘z tarixini, san'atini va adabiyotini o‘rganish imkoniyatlarini yaratish bugungi jamiyatimizning bir qismi bo‘lishi kerak.

Shunindek, jadidchilik yoshlarni faqat ilmga o‘rgatib qolmasdan, ularni jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglashga, axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatni his qilishga ham undadi. Bugungi kunda bu g‘oya yanada muhim bo‘lib, yoshlarni nafaqat o‘z bilimlarini oshirishga, balki jamiyatda ijtimoiy adolat, tenglik, va boshqalar bilan munosabatda mas'uliyatli bo‘lishga chaqiradi. Yoshlar orasida ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish, inson huquqlari va tenglikni ta'minlash – bularning barchasi jadidchilik g‘oyalaridan ilhomlanib amalga oshirilishi mumkin [8].

Bugungi kunda bu g‘oya zamonaviy ta'lim va jamiyat rivojida muhim ahamiyatga ega. Mustaqil fikrlash, yangi g‘oyalarni qabul qilish va innovatsiyalarni yaratish, yoshlarning kelajakda samarali faoliyat yuritishiga asos bo‘ladi. Jadidchilar yangiliklarga ochiq, ijtimoiy, madaniy va ilmiy yangilanishlarga tayyor bo‘lishni ta'kidladilar. Bugungi dunyoda, texnologiya va ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarga moslashish, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va yangicha fikrlarni rivojlantirish aynan jadidchilik g‘oyalarining bugungi kundagi ahamiyatidir. Jadidchilik, yoshlarni nafaqat o‘quv jarayonida, balki ular hayotda muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun ham tarbiyalashga harakat qilgan edi. Bugungi kunda yoshlarning global miqyosda raqobatbardosh bo‘lishi, ularni turli madaniyatlar va iqtisodiy tizimlar bilan aloqada bo‘lishga tayyorlash kerak. Jadidchilik g‘oyalari yoshlarni nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham muvaffaqiyatli bo‘lishga tayyorlashga yo‘naltirilgan edi. Shu bois, yoshlarni har tomonlama rivojlantirish, ularni zamonaviy dunyoning talablariga javob beradigan mutaxassislar etib tayyorlash bugungi kunda ham dolzarb masala hisoblanadi [9].

Xulosa va takliflar. XX asr boshlaridagi jadidchilik g‘oyalari bugungi kunda madaniyat va marifat yo‘nalishlarida katta ahamiyatga ega. Bu g‘oyalar yoshlarni ilmiy, axloqiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishga, ularni zamonaviy dunyo talablariga moslashtirishga va milliy o‘zlikni anglashga yo‘naltirishda katta rol o‘ynaydi. Jadidchilik g‘oyalaridan ilhomlanib, bugungi jamiyatda bilim va madaniyatni rivojlantirish, yoshlarni ijtimoiy va siyosiy mas'uliyatga tayyorlash mumkin. Bu, o‘z navbatida, jamiyatning barqaror rivojlanishiga va kelajak avlodning muvaffaqiyatli bo‘lishiga olib keladi. Jadidchilik yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatdi. O‘zgarishlar va yangiliklarga ochiq bo‘lish, jamiyatda ijtimoiy adolatni o‘rnatish uchun kurashish g‘oyasi yoshlarni mustaqillikka tayyorlashga yordam berdi. O‘zining mustaqil fikrlashini rivojlantirgan yoshlar, kelajakda O‘zbekistonning mustaqillik yo‘lida katta rol o‘ynashdi. XX asr boshlarida jadidchilik

g‘oyalari yoshlar tarbiyasiga katta ta'sir ko‘rsatdi. Bu g‘oyalar yoshlarni ilmiy, madaniy, axloqiy va siyosiy jihatdan rivojlantirishga, milliy o‘zlikni anglashga, zamonaviy bilimlarni qabul qilishga va jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarga faol qo‘shilishga undadi. Jadidchilik, o‘zining ta'siri bilan, yoshlarni nafaqat o‘z zamonasining, balki kelajakning ham yetakchi shaxslariga aylantirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. «O‘zbekiston», 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent.: O‘zbekiston, 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent.: O‘zbekiston, 2017.
4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: O‘zbekiston, 2017.
5. Tulenov J. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka. T. «Sharq». 2000 y.
6. O‘zbekiston tarixi (1917-1939). Birinchi kitob. Toshkent. “O‘zbekiston”. 2019.
7. Abdurashidxonov M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2003.
8. Abdirashidov Z. Ismail Gasprinskiy i Turkestan v nachale XX veka: svyazi-otnosheniya-vliyanie. - T.: Akademnashr, 2011.
9. Abdullayev D. O‘zbekistonda xayriya va homiylikningng rivojlanish tarixi (XIX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari). Toshkent “INNOVATSIYAZIYO” 2019.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TAYYORLOV GURUHLARIDA DIDAKTIK JARAYONLARNI TASHKIL QILISH

Nilufar Abdulazizova,
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi
Dilfuza Zokirova,
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruhlarida didaktik jarayonlarni tashkil qilish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish omillari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *pedagogik o‘qitish texnologiyalarni , Maktabgacha ta’lim tashkioltlarida “Ilk qadam”, Maktabgacha yoshidagi bolalar, raqamli texnologiya.*

Аннотация

В статье рассмотрены факторы организации дидактических процессов и содержательной организации свободного времени в подготовительных группах дошкольных образовательных организаций.

Ключевые слова: *педагогические технологии, «Первый шаг» в дошкольных образовательных организациях, дети дошкольного возраста, цифровые технологии.*

Abstract

This article describes the factors of organizing didactic processes in preparatory groups in preschool educational organizations, meaningful organization of free time.

Keywords: *pedagogical teaching technologies, "First step" in preschool educational organizations, preschool children, digital technology.*

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Xarakatlar strategiyasida “uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy extiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” ustuvor vazifalari belgilanib, bu borada kasbiy kompetentlikni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini shakllantirishning pedagogik tizimini

takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta‘lim jarayoniga yangi pedagogik o‘qitish texnologiyalarni va faol metodlarni qo‘llash orqali bo‘lajak kadrlarni ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, yangi bilimlarni mustaqil egallash qobiliyatini rivojlantirishga erishish mumkin.

Pedagogik texnologiyalar nafaqat umumiy o‘rta yoki oliy ta’limda bugungi kunda maktabgacha ta’lim sohasida ham keng qo‘llanilib kelinmoqda. Bu esa bolalarning maktab ta’limiga sifatli tayyorlashiga, o‘z ustida mustaqil ishlashiga olib kelmoqda. Aynan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhlarida olib borilayotgan islohotlar natijasini biz bugungi kunda 6-7 yoshli bolalarning maktabga tayyor holatda ya’ni o‘qish va yozishni, maktab ta’limi haqidagi tasavvurga ega bo‘lib kelganligida ko‘rishimiz mumkin.

Maktabgacha ta’lim tashkioltlarida “**Ilk qadam**” davlat o‘quv dasturi asosida xar bir yoshga xos bo‘lgan talablar asosida mashg‘ulot jarayonlari olib borilmoqda. Bolalarning nutqini ravon qilish, ularni yozishga, o‘qishga o‘rgatish, ularning tafakkurini kengaytirish, borliq haqida bilimlar berish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ushbu davrda bolalarda ijodiy tafakkurlarning shakllanishiga, kelgusida qaysi kasb egasi bo‘lishini hal qilishga bo‘lgan qiziqishni ko‘rishimiz mumkin. Bu esa o‘z navbatida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar bilan olib borilayotgan o‘quv tarbiya mashg‘ulot jarayonlarini samarali yo‘lga qo‘ygan tarbiyachilarning bilim salohiyatiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Mashg‘ulot jarayonlarida yangi pedagogik texnologiyalardan, AKT vositalaridan to‘g‘ri foydalanishini tashkil qila olish qobilyatining mavjudligi esa bolalarning mashg‘ulot jarayoniga bo‘lgan qiziqishini va e’tiborini o‘ziga jalb qiladi.

Mashg‘ulot jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘qitish ta‘lim mazmunining barcha to‘rtta (bilim, ko‘nikma, malaka, ijodiy faoliyat) komponentlarini o‘zlashtirishga ijobiy ta‘sir etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhlarida didaktik jarayonlarni hamda vositalarini takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish zarurligi; maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘qitish samaradorligini va bolalarning bilish faolligini oshirish muammosini hal qilishga bo‘lgan ijtimoiy buyurtma tufayliligidadir.

Bola shaxsining shakllanish jarayoni tarbiya va ta’lim sharoitida insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasini o‘zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu xilma-xil faoliyat turlarida ro‘y beradi. Natijada bola o‘zi yashayotgan jamiyat ijtimoiy munosabatlari sistemasiga kiradi. Bolaning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Qiyinchilik shundan iboratki, bola, bir tomondan, mazmun, hajm va umumlashtirish darajasi jihatidan murakkab bo‘lgan insoniy tajribani o‘zlashtirishi kerak bo‘lsa, ikkinchi tomondan, u mazkur tajribani o‘zlashtirish usullarini hali egallamagan bo‘ladi.

Maktabgacha yosh davridagi ehtiyojlar, his-tuyg‘ular, maqsadlarni tarbiyalash va rivojlantirish shu darajaga yetadiki, u bolaga maktabdagi muntazam o‘qishga o‘tish imkonini beradi. Bolaning jamiyatdagi yangi mavqeiy o‘z xatti-harakatini va tengdoshlarining xatti-harakatini o‘zgacha nuqtayi nazardan baholashni shart qilib qo‘yadi. Bola faollik, ijodkorlik ko‘rsatib, kattalarning uning xulq-atvoriga va faoliyatiga qo‘yayotgan tobora murakkablashib borayotgan talablarini bajarishga intiladi. Har bir faoliyat turi, mazmuni va tuzilishi, ijtimoiy-tarixiy xarakteri yosh avlodga obyektiv ravishda ta’sir ko‘rsatadi. Odamlarning ishlab chiqarish qurollarida, bilimda, san’atda, axloqda va hokazolarda jamlangan sermahsul faoliyati natijalari birgalikdagi faoliyatda va muloqotda bo‘lgan paytda tarbiya va ta’lim vositasida katta avloddan kichiklarga beriladi. Odam shaxsining ijtimoiy tabiati ana shunday shakllanadi.

Ta’lim-tarbiyaviy ishlar mashg‘ulotlardan tashqarida: kundalik turmush, o‘yin, mehnatda ham davom ettiriladi. Rejada bolaning xulq-atvorini: bir-birlariga xayrixohlik munosabatini, bir-birining o‘yiniga qiziqishlari bilan hisoblashishni, yuzaga kelgan nizolarni haqgo‘ylik bilan hal qilish kabilarni tarbiyalash vazifalari nazarda tutiladi.

Rejada o‘yinda bolalarni o‘zaro munosabatlari va xulq-atvorlarini tarbiyalash vazifasini kiritib, tarbiyachi bolalar o‘yinlarining mazmunli, ularning o‘ynash ko‘nikmalarini hisobga oladi. Kun davomida tarbiyachsi xilma xii harakatli va didaktik o‘yinlarni uyushtiradi, ularga rahbarlik rejalashtiradi.

Pedagogik jarayonni yagona bir butun sifatida tashkil etish vazifasi rejalashtirishda yetakchi hisoblanadi.

Rejalashtirish pedagogik jarayonni yaxlit tashkil etishga: bolalar jamoasi va ayrim bolalarni tarbiyalash vazifasini aniqlashga, bolalarni yoshiga ko‘ra pedagogik ta’sir mazmunini va usullarini tanlashga, bolalar hayoti,

faoliyat turlari, rahbarlik metodlari va shu kabilarni tashkil etishning turli shakllaridan foydalanishga yo‘llangan bo‘lishi kerak

Reja bolalar bilan amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya ishlariga oldindan puxta tayyorgarlik ko‘rish metod va usullarni yaxshilab o‘ylab olish, kerakli material va jihozlarni tayyorlash imkonini yaratadi. Tarbiyachi rejalashtirgan hamma ishlar har bir bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashi lozim. Shu bilan birga reja qotib qolgan narsa bo‘lmay, vaziyatdan kelib chiqib, unga o‘zgarishlar kiritish mumkin. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berish ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun dasturni yaxshi bilishning o‘zi yetarli emas, shu bilan birga, har bir bolaning shaxsini rivojlantirish yo‘llarini yaxshi bilish, bolaning bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallab olish qobiliyati har hilligini ham e’tiborga olish kerak.

Mashg‘ulotni rejalashtirish bolalar tomonidan ma’lum xajmdagi bilimlarni egallash va kengaytirish imkoniyatini yaratibgina qolmay, shu bilan birga ularning bilimlarini aniqlash, mustahkamlash, mustaqil faoliyatlarida qo‘llash imkonini beradi. Bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko‘nikmalarning hajmi mashg‘ulotdan mashg‘ulotga kengaytirib, murakkablashtirib boriladi. Masalan, tarbiyachi birinchi mashg‘ulotda bolalarni uy hayvonlari bilan tanishtiradi, bolalar ularni kuzatishadi, nomini aytishga o‘rganadi. Keyingi mashg‘ulotda esa bu bilimlar mustahkamlanib, hayvonlarni kuzatish jarayonida yangi bilimlar hosil bo‘ladi. Bolalar bu hayvonlarning foydali belgilarini, xatti-harakatini kuzatishsa, kelgusi mashg‘ulotda bolalar uy hayvonini odamlar qanday parvarish qilishi va bu parvarishga hayvonlar o‘z “minnatdorchiligini” qanday bildirishi to‘g‘risida gap boradi.

Didaktik o‘yinlar va mashqlar

- Bolalarning yoshiga mos keladigan o‘yin shakllari tanlanadi. Masalan, matematik mantiqiy masalalar, so‘z boyligini oshirish uchun lug‘aviy o‘yinlar yoki tabiatni o‘rganishga qaratilgan ko‘rgazmali faoliyatlar.
- O‘yin jarayonida bolalarning diqqatini bir masalaga jamlash, qoidalarga amal qilish va jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Didaktik o‘yinlar va mashqlar

Didaktik o‘yinlar va mashqlar tayyorlov guruhlarida bolalarning qiziqishini uyg‘otish, ularning bilim olish jarayonini osonlashtirish va rivojlanishiga yordam beruvchi samarali metod hisoblanadi. Quyida didaktik o‘yinlar va mashqlarni tashkil qilish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar keltiriladi:

1. Bolalarning yoshiga mos o‘yin shakllarini tanlash

Bolalarning rivojlanish darajasi va qiziqishlarini inobatga olib, turli mavzular bo‘yicha o‘yinlar tashkil qilinadi:

- **Matematik o‘yinlar:**

“Sonlarni top”: Bolalarga maxsus kartochkalarda sonlarni ko‘rsatib, ularni to‘g‘ri tartibda joylashtirish vazifasi beriladi.

“**Qaysi biri ortiqcha?”:** Ob’ektlar orasidan mos kelmaydigan shaklni yoki sonni topish.

- **Lug‘aviy o‘yinlar:**

“So‘z zanjiri”: Har bir bola bir so‘z aytadi va keyingi bola o‘sha so‘zning oxirgi harfidan boshlanadigan so‘z o‘ylaydi.

“**So‘zlarni to‘g‘ri joylashtir”:** Bolalarga chalkash holatda yozilgan so‘zlarni berib, ularni to‘g‘ri tartibda joylashtirish so‘raladi.

- **Tabiat bilan bog‘liq o‘yinlar: “Kim biladi?”:** Bolalar tabiat haqidagi savollarga javob berishadi. Masalan, “Yozda daraxtlar qanday bo‘ladi?”, "Hayvonlar qishda nima qiladi?"
- **“To‘g‘ri juftlikni top”:** Bolalar hayvonlar va ularning yashash joylari, o‘simliklar va ularning mevalari orasidagi bog‘liqlikni topadilar.

Didaktik o‘yinlar orqali maqsadga yo‘naltirish

O‘yin davomida quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantirishga e’tibor qaratiladi:

- **Diqqatni jamlash:** O‘yin jarayonida bolalarga aniq topshiriqlar berib, ularning e’tiborini bir masalaga qaratish.
- Masalan, “Barcha qizil rangdagi shakllarni toping” yoki “Bir xil tovush bilan boshlanadigan so‘zlarni ayting”.

• **Qoidalarga amal qilish:** Har bir o‘yinda qatnashuvchilar uchun qoidalar ishlab chiqiladi va bolalar ularga amal qilishni o‘rganadi.

• **Jamoaviy ish:** Guruh bo‘lib ishlashni talab qiladigan o‘yinlar orqali bolalarda hamkorlik qilish, boshqa bolalar bilan kelishish va o‘z fikrini bildirish ko‘nikmalari shakllanadi.

Ko‘rgazmali materiallardan foydalanish

Didaktik jarayonni yanada qiziqarli qilish uchun ko‘rgazmali materiallar (rasmlar, maketlar, kartochkalar, slaydlar)dan foydalanish lozim.

• Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, masalan, multimedia vositalarini qo‘shish orqali bolalarning faolligi oshiriladi.

Ko‘rgazmali materiallardan foydalanish

Tayyorlov guruhlarida didaktik jarayonning samaradorligini oshirishda ko‘rgazmali materiallardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu materiallar o‘quv jarayonini qiziqarli, tushunarli va esda qolarli qilishga xizmat qiladi.

1. Ko‘rgazmali materiallar turlari

Mashg‘ulotlarda quyidagi ko‘rgazmali materiallardan foydalanish tavsiya etiladi:

Rasmlar va plakatlar:

• Mavzuga oid rangli va tushunarli rasmlar yordamida bolalarning diqqatini jalb qilish.

• Masalan, hayvonlar, o‘simliklar, geometrik shakllar yoki mavsumlar tasvirlangan plakatlar.

Maketlar va modellar:

• Jismoniy ob’ektlarning modellaridan foydalanish orqali mavzuni yaxshiroq tushuntirish.

• Masalan, uy hayvonlarining plastik modellaridan foydalanib, ularning nomlari va xususiyatlarini o‘rgatish.

Kartochkalar:

• Raqamlar, harflar, shakllar yoki ob’ektlar tasvirlangan kartochkalar yordamida bolalarning e’tiborini jalb qilish.

• Bolalarga topshiriqlar berib, kartochkalarni to‘g‘ri juftlash yoki guruhlashni so‘rash mumkin.

Slayd va videolar:

• Interfaol darslar uchun multimedia vositalaridan foydalanish. Masalan, mavzuga oid qisqa videolar yoki animatsiyalarni ko‘rsatish.

Mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan interfaol metodlar

Rolli o‘yinlar

• **Tavsif:** Bolalarga turli rollarni taqsimlab, o‘yin shaklida mashg‘ulot o‘tkazish.

• **Misol:**

o Do‘kon o‘yini: Bolalar sotuvchi va xaridor rollarini bajaradilar. Ular orqali raqamlarni o‘rganish va muloqot qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

o Tabiatshunos o‘yini: Bolalar tabiat hodisalarini tushuntiradigan rollarni bajaradilar.

Savol-javob metodi

• **Tavsif:** Bolalarga savollar berish va ularning javoblarini tinglash orqali interaktiv muloqot tashkil qilish.

• **Misol:**

o Darsda bolalarga mavzuga oid oddiy savollar beriladi, masalan, “Qaysi hayvonlar qishda uxlaydi?” yoki "Bahorda tabiatda qanday o‘zgarishlar ro‘y beradi?"

Klaster metodi

• **Tavsif:** Biror mavzu atrofida g‘oyalarni guruhlash yoki bog‘lash orqali mantiqiy tafakkurni rivojlantirish.

• **Misol:**

o Bolalar bilan "Tabiat ne’matlari" mavzusida ishlash. Ular daraxtlar, mevalar, gullar va boshqa ne’matlarni klaster shaklida tasniflaydilar.

“Aqliy hujum” metodi

• **Tavsif:** Berilgan mavzu bo‘yicha bolalarning fikrlarini erkin bayon qilishga undash.

• **Misol:**

- “Keling, qishda qanday kiyim kiyish kerakligi haqida fikr yuritamiz!” Bolalar o‘z fikrlarini aytadilar, o‘qituvchi esa ularni to‘ldiradi va jamlaydi

Guruhda ishlash

- **Tavsif:** Bolalarni kichik guruhlarga ajratib, ularga birgalikda bajariladigan topshiriqlar berish.
- **Misol:**
  - Har bir guruhdan rasm chizib, mavzuga oid hikoya yaratish so‘raladi. Guruhda ishlash bolalarda hamkorlik va jamoaviy mas’uliyat hissini shakllantiradi.

Pantomima

- **Tavsif:** Bolalarga so‘zsiz, harakat orqali tushunchani ifodalash imkonini beruvchi metod.
- **Misol:**
  - Bolalar hayvonlarni harakat bilan tasvirlaydilar, boshqa bolalar esa ularning qanday hayvon ekanligini topadilar.

Ota-onalar bilan hamkorlik

- Didaktik jarayonni yanada samarali qilish uchun ota-onalar bilan yaqin hamkorlik o‘rnatiladi.
- Uyda o‘yinlar va mashqlarni davom ettirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Ota-onalar bilan hamkorlik

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ota-onalar bilan samarali hamkorlik qilish, bolalar rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki ota-onalarning farzandlari tarbiyasidagi faol ishtirokini ta’minlaydi.

Ota-onalar bilan hamkorlikning ahamiyati

- **Bolalar rivojlanishi:** Uyda va ta’lim muassasasida o‘rganilgan bilim va ko‘nikmalarni uyg‘unlashtirishga yordam beradi.
- **Faol ishtirok:** Ota-onalar ta’lim jarayoniga jalb etilsa, bu bolalarning motivatsiyasini oshiradi.
- **O‘zaro tushunishni mustahkamlash:** O‘qituvchi va ota-onalar o‘rtasida ishonchli munosabatlar shakllantiradi.
- **Muammolarni hal qilish:** Ota-onalar bilan yaqindan ishlash bolalar duch keladigan qiyinchiliklarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishga imkon beradi.

Ota-onalar bilan hamkorlik shakllari

1 Individual suhbatlar

- **Tavsif:** Har bir bolaning rivojlanishi, ehtiyojlari va qobiliyatlari haqida ota-onalar bilan shaxsiy suhbatlar tashkil etish.
- **Misol:** Bolaning rivojlanishidagi o‘zgarishlar yoki qiyinchiliklar haqida maslahatlashish.

2. Ota-onalar yig‘ilishlari

- **Tavsif:** Guruhdagi barcha ota-onalarni bir joyga yig‘ib, ta’lim jarayoni, dastur mazmuni va yutuqlar haqida ma’lumot berish.
- **Misol:** O‘quv yili boshlanishida yoki tugashida yig‘ilish o‘tkazish.

3. Seminar va treninglar

- **Tavsif:** Ota-onalarga tarbiya, ta’lim va bolalarning rivojlanishi bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar berish.
- **Misol:** "Erta yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanishi" yoki "Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari" mavzularida treninglar o‘tkazish.

4. Tadbir va festivallarda ishtirok

- **Tavsif:** Ota-onalarni bolalar uchun tashkil etiladigan bayram va tadbirlarga jalb qilish.
- **Misol:** "Navro‘z bayrami", "Oila kuni" yoki sport musobaqalarini birgalikda o‘tkazish.

5. Uyga topshiriqlar va tavsiyalar

- **Tavsif:** Ota-onalarga bolalar bilan uyda qanday ishlash bo‘yicha yo‘l-yo‘riq va topshiriqlar berish.
- **Misol:** Uyda kitob o‘qish, bolalar bilan rasm chizish yoki qo‘l mehnati bo‘yicha mashg‘ulotlar tashkil etish.

6. Axborot stendlari va elektron platformalar

• **Tavsif:** Ota-onalarga ma’lumot yetkazish uchun maxsus stendlar yoki zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.

• **Misol:** Telegram guruhlari, mobil ilovalar yoki elektron pochta orqali ota-onalarni ta’lim jarayoni bilan tanishtirish.

Ushbu metodika doimiy takomillashtirishni talab qiluvchi jarayondir. Har bir mashg‘ulotda innovatsion yondashuvlar qo‘llash va bolalarning qiziqishlarini hisobga olish o‘qitish samaradorligini oshiradi va maktabga tayyorlash jarayonini yanada muvaffaqiyatli qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining tayyorlov guruhidagi tarbiyalanuvchilarning ta’limiy faolligini oshirish muammosini hal qilishda yuqorida keltirilgan omillarga e’tibor qaratishimiz juda muhimdir. Shu nuqtai nazardan ta’kidlash mumkinki, ta’lim muhiti har bir o‘quvchiga nafaqat samarali, balki ijodiy o‘rganish, shuningdek, o‘z o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etish imkoniyatini berish kerak. Tarbiyachi ijodiy faoliyati maktabgavha ta’limda ta’limiy faolligini oshirishning muhim tarkibiy qismidir.

Maktabgacha yoshidagi bolalar bilan munosabatda nihoyat ehtiyotkorona, ularni talim olishda cho‘chitib emas mehr berib kirishishlariga ko‘makdosh bo‘la olishimizda birinchidan, biz yumshoq ko‘ngil odam bo‘lishimiz va bolalarni ular qanday bo‘lsa, shundayligicha yaxshi ko‘rishimiz kerak. O‘yinqaroq bolani ham, mo‘min-qobil bolalarni ham, serfahmini ham, kaltafahmini ham, ishyoqmasini ham, tirishqog‘i ham birdek yaxshi ko‘rishimiz kerak. Yana biz qalb qo‘rimizni bolalarga bab–baravar taqsimlashimiz kerakki har bir hulq-atvorli bolaning ham ko‘nglidagi ishtiyoqini uyg‘ota bilishimizda bu albatta bizga asqotadi. Bolalarga muosabatimizdagi yaxshilik qilish , mehr qo‘yish bu bizning ichki kechinmamiz emas, pedagogik faoliyatimizdagi asosiy motiv bo‘lishi kerakki biz o‘zimizning bu holatimizdan jahlimiz chiqqanda ham, quvnoqlik paytimizda ham foydalana olaylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Гунн Г.Е. Компьютер: как сохранить здоровье : Рекомендации для детей и взрослых, СПб.: Нева; М. : Олма-Пресс, 2003.

2. Evtukh E.P. Information and communication technologies in the context of continuing education of music teacher [Electronic resource] // Vestnik kafedry UNESCO «Musykalnoye iskusstvo i obrazovanie». – 2013. – No. 3. – Available at: https://cyberleninka.ru/article/n/informatsionnye-i-kommunikatsionnye-tehnologii-vkontekste

3. Titova S.V. Didactic problems of integrating mobile applications to the learning process innovation [Electronic resource] // Vestnik TGU. – 2016. – No. 7-8 (159-160). – Available at: https://elibrary.ru/item.asp?id=26525573 [in Russian]

4. Микова Т.Е. Возможности и последствия применения смартфонов в обучающей деятельности // Современная высшая школа: инновационный аспект. – 2019. – Т. 11. – № 3. С. 53-61. DOI: 10.7442/2071-9620-2019-11-3-53-61

5. Влияние сотового телефона на здоровье подросков. Рустамова Д.Б.

6. Анкета Университета штата Айова «Изучение номофобии».- http://psihologiya.org/13-kak-ponyat-zavisimy-li-vy-ot-mobilnogo-telefona.html

7. Гигиеническое нормирование электромагнитного поля, создаваемая элементами сотовой радиосвязи в Российской Федерации.- http://www.vrednost.ru/normyrus.php#4

8. H Абдулазизова “FACTORS OF THE ORGANIZATION OF FREE TIME IN THE PREVENTION OF HARMFUL HABITS OF STUDENTS” Web of Scientist International Scientific Research Jornal, 3(11) betlari 624- 631. 2022.11.11.

9. Abduraxmonovna, A. N. (2022, April). Abdulazizova Nilufar Abduraxmonovna. In E Conference Zone (pp. 47-49).

10. Abdulazizova N. A. (2022.April) O‘QUVCHILARDA ZARARLI ODATLARGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA BO‘SH VAQTLARINI TASHKIL ETISH OMILLARI. In E Conference Zone (118-120)

11. N Abdulazizova “O‘quvchilarda zararli odatlarini oldini olishda mexnat faoliyatining o‘rni” MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS. ISSUE 5(39) Part 2 June 2021 betlari 104-106

12. N Abdulazizova.Masofali o‘qitishning uzluksiz ta’lim tizimidagi axamiyati. Журнал Ученый XXI века.том 42.2016й

13. **Abdulazizova Nilufar Abduraxmonovna,** Mo‘minov Islomjon Iqboljon o‘g‘li. O‘smirlarda zararli odatlarga qarshi immunitetni shakllantirishning ahamiati.

TA’LIM JARAYONINING DOLZARB MASALALARI: MUAMMO, YECHIMLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. Respublika ilmiy-amaliy anjumani MATERIALLARI. 20-may 2023.

14. Abdulazizova Nilufar Abdurakhmonovna. Mechanisms of Immunity Formation Against Harmful Habits in Adolescents. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL AND APPLIED SCIENCES. Volume: 04 Issue: 08 | Aug 2023 ISSN: 2660-5317. https://cajotas.centralasianstudies.org

15. Abdulazizova Nilufar. Yuqori sinf o‘quvchilarida zararli odatlarga qarshi immunitetni rivojlantirish metodlari. “DEVELOPMENT AND INNOVATIONS IN SCIENCE” International scientific-online conference. 2024 yil 16 mart.38-44 betlar

16. Abdulazizova Nilufar Abdurakhmonovna The Practical Importance of Forming Immunity against Harmful Habits in Students. AMERICAN Journal of PediatricMedicine and Health Sciences 2024 yil 3 mart 2993-2149 275-279 betlar

TA’LIMNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA O‘QITUVCHI KASBINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Mukaddas Karimova,
Farg‘ona davlat universiteti Pedagogika kafedrasi dotsenti.p.f.n.

Annotatsiya

Ushbu maqolada Oliy ta’lim, o‘qituvchi kasbi, shakllanish, rivojlanishi, kishilik jamiyati, texnika, texnologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, taraqqiyot, mas’uliyat, vazifalar, kasbiy faoliyat, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik kompetentlik, pedagogik mehnat, ta’lim sohasi, global tendensiyalar, ma’rifatlilik, madaniyat, o‘qitish, tarbiyalash, ilg‘or texnologiyalar, funksional, malakaviy, kompotent, aksiologik, antrorologik, yondashuvlar, kompetentsiya, kompetetnlik, talablar, pedagogik ta’limni modernizatsiyalash jarayoni, axborotlashtirish, pedagogik ta’limni modernizatsiyalash, shaxsiy o‘zini o‘zi rivojlantirish, kasb ta’limi standartlari, o‘qituvchining malakasi, ta’lim-tarbiya, kasbiy bilimlar, psixologik fazilatlar, o‘qituvchi shaxsining aniq sifatlari, pedagogik masalalar, kasbiy funksiyalarni bajarish layoqati, faoliyt tayyorgarligi.

Kalit so‘zlar: *modernizatsiya, o‘qituvchi kasbi, pedagogic faoliyat, kasbiy kompetentsiya.*

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы высшего образования, профессии учителя, становления, развития, общества личности, техники, техники, информационно-коммуникационных технологий, развития, ответственности, задач, профессиональной деятельности, профессиональной подготовки, педагогической компетентности, педагогического труда, сферы образования, глобальных тенденций, просвещения, культуры, обучения, воспитания, передовых технологий, функциональных, компетентностные, составные, аксиологические, антропологические, подходы, компетентность, компетентность, требования, процесс модернизации педагогического образования, информатизация, модернизация педагогического образования, личностное саморазвитие, стандарты профессионального образования, квалификация педагога, учебно-воспитательные, профессиональные знания, психологические качества, специфические качества личности педагога, педагогические вопросы, умение выполнять профессиональные функции, готовность к деятельности.

Ключевые слова: *модернизация, профессия учителя, педагогическая деятельность, профессиональная компетентность.*

Abstract

This article discusses issues of higher education, the teaching profession, formation, development, society of personality, technology, technology, information and communication technologies, development, responsibility, tasks,

professional activity, professional training, pedagogical competence, pedagogical work, education, global trends, enlightenment, culture, education, education, advanced technologies, functional, competence-based, composite, axiological, anthropological, approaches, competence, competence, requirements, the process of modernization of teacher education, informatization, modernization of teacher education, personal self-development, standards of professional education, teacher qualifications, educational, professional knowledge, psychological qualities, specific qualities of a teacher's personality, pedagogical issues, ability to perform professional functions, readiness for activity.

Keywords: *modernization, teaching profession, pedagogical activity, professional competence.*

Kirish. Respublikamizda shakllangan pedagogik ta’lim tizimi boy an’analarga, ko‘p yillik intensiv amaliyotda to‘rlangan katta tajribaga ega. Shu bilan birga, pedagogik ta’limni modernizatsiyalash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish ushun boshqaruv kadrlari va malakali o‘qituvshilar tarkibini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir.

O‘qituvch kasbining shakllanishi va rivojlanishi kishilik jamiyati, texnika, texnologiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va boshqalarning taraqqiyoti tarixi bilan uzviy bog‘liq. O‘qituvchiga xos bo‘lgan mas’uliyatli vazifalar undan o‘z kasbining ustasi bo‘lishni, kasb-korini muntazam rivojlantirishni, ta’lim oluvshilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishning yangi metodlarini o‘zlashtirishni, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste’dodi, e’tiqodi va amaliy tayyorgarligini har tomonlama takomillashtirib borishni talab qiladi.

Oliy ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish borasida qator (2019 yil 8 oktabrdagi RQ-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgasha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”[1], 2020 yil-27-fevraldagi RQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish shora-tadbirlari to‘g‘risida”gi) [2] qaror va farmonlar qabul qilindi. Ushbu qaror va farmonlarda kasbiy va pedagogik faoliyatga (vazifalar, kompetentsiyalar) hamda o‘qituvchining shaxsiga, o‘qituvchi kasbiga qo‘yiladigan talablar ifodalangan. Ana shunga bog‘liq holda, o‘qituvchining kengaytirilgan ta’lim muhiti sub’yektlari bilan ijtimoiy o‘zaro aloqalarni o‘rnatishga qaratilgan funksiyalari ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy-pedagogik faoliyatning yangi funksiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish ushun bo‘lg‘usi o‘qituvchilar ijtimoiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlarini rivojlantirishlari hamda ijtimoiy o‘zaro munosabatga kirisha olish bo‘yicha muayyan kompetentsiyalarni egallashlari zarur. Ta’lim sohasidagi global tendensiyalarni, so‘nggi yillardagi kasbiy-pedagogik faoliyatdagi o‘zgarishlarni, o‘qituvchi kasbi rivojlanishini, pedagogik ta’limni modernizatsiyalash, zamonaviylashtirish jarayonlarini tahlil etish shuni ko‘rsatadiki, hozirgi zamon sharotida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mahoratiga ham, shaxsiy sifatlariga ham juda yuqori talablar qo‘yilmoqda.

Pedagogik kuzatishlar va amaliyot shuni ko‘rsatadiki, hozirgi zamon o‘qituvchisidan pedagogik faoliyatda duch keladigan asosiy muammolar sifatida ta’lim sifatini ta’minlash, tinmay izlanish, bilim olish, o‘zining kasbiy kompetentligi va amaliy tayyorgarligini uzluksiz takomillashtirib borish; ijodiy masalalarni va tadqiqot vazifalarini qo‘yish va hal qilish; ma’rifatlilik va madaniyat, o‘qitish va tarbiyalashning ilg‘or texnologiyalarini, vatanimiz va xorijiy mamlakatlarda ta’lim-tarbiya sohasida to‘plangan tajribalarni, pedagogika fanining eng so‘nggi yutuqlarini doimiy ravishda o‘zlashtirish, ularni o‘zining predmet faoliyatiga, individual xususiyatlari va qobiliyatlariga moslashtira olish; pedagogika faniga yondosh falsafa, psixologiya, tibbiyot, dinshunoslik, iqtisod, huquq, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kabi fanlardan o‘zlashtirilgan bilimlardan integrativ foydalanish kabilarni hal etish talab etiladi. O‘qituvchi kasbining rivojlanishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq, shubhasiz, zamonaviy o‘qituvchi bu sohada ham kompotentli bo‘lmog‘i va ularni o‘quv jarayoniga tatbiq eta olishi dolzarb masalalardan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar va innovatsiyalarni hisobga olgan holda, zamonaviy o‘qituvchi kasbining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini ilmiy asosda o‘rganishni taqoza etadi. Bu quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Ilmiylik va tizimlilik – o‘qituvchilik kasbi shakllanishining nazariy asoslari, ta’lim paradigmalari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar (konstruktivizm, kompetensiyaviy yondashuv) asosida ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. O‘qituvchilik kasbining shakllanishi ilmiy asoslangan nazariyalarga tayanadi. Ta’lim paradigmalari

doimiy ravishda rivojlanib, yangilanib boradi va bu jarayon o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Pedagogik ta’lim va o‘qituvchilar tayyorlash tizimi uzluksiz ravishda ilmiy asosda takomillashtiriladi. Ta’lim paradigmalari asosida zamonaviy o‘quv dasturlari va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqiladi. O‘qituvchilik kasbining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar (psixologik, sotsial, texnologik) ilmiy jihatdan tadqiq qilinadi va amaliyotga joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

Integrativ yondashuv – pedagogik, psixologik, sotsial va texnologik omillar uyg‘unligi asosida o‘qituvchi kasbiy rivojlanishining uzluksizligini ta’minlash. O‘qituvchi kasbining rivojlanishi turli fanlar va yo‘nalishlarning integratsiyasi orqali amalga oshiriladi. Pedagogik jarayon pedagogik, psixologik, sotsial va texnologik jihatlar uyg‘unligi asosida tashkil etilganda samarador bo‘ladi. Psixologik omillar o‘qituvchining shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlasa, sotsial omillar jamiyatda ta’lim sohasining ahamiyatini oshiradi. Texnologik yondashuv esa innovatsion vositalardan foydalanish orqali ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Pedagogika, psixologiya, texnologiya va sotsiologiya fanlari asosida kompleks dasturlar ishlab chiqish zarur, bu o‘qituvchilar uchun kasbiy rivojlanishga asos bo‘ladi.

Zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos kadrlarni tayyorlash uchun pedagogik dasturlarni mehnat bozori talablariga mos holda yangilab borishni taqoza etadi. Bu choralar ta’limni modernizatsiyalash jarayonida o‘qituvchi kasbining uzluksiz rivojlanishini ta’minlaydi va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ta’limni modernizatsiyalash sharoitida o‘qituvchi kasbining shakllanishi va rivojlanishini amalga oshirish raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) imkoniyatlari o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini takomillashtirish, darslarni interaktiv tarzda tashkil etish va individual yondashuvni ta’minlash imkonini beradi. Masofaviy ta’lim platformalari, o‘quv tizimlari va virtual laboratoriyalar o‘qituvchilarning zamonaviy kompetensiyalarni egallashida muhimomil hisoblanadi..

O‘qituvchi kasbiy faoliyatining asosiy mezonlaridan biri uning metodik va didaktik kompetensiyalariga ega bo‘lishidir. Ushbu kompetensiyalar zamonaviy ta’lim jarayonining sifatini oshirish, ta’limning samaradorligini ta’minlash hamda o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Metodik kompetensiya – bu o‘qituvchining ta’lim jarayonini rejalashtirish, uni samarali tashkil etish va o‘quvchilarga tushunarli yetkazish bo‘yicha kasbiy mahoratidir. Metodik kompetensiya quyidagi asosiy jihatlarni qamrab oladi.

Didaktik kompetensiya – bu o‘qituvchining ta’lim mazmunini shakllantirish, o‘quvchilarga oson va tushunarli yetkazish, dars jarayonini samarali tashkil etish qobiliyatidir. Bu quyidagi jihatlarni qamrab oladi: O‘qituvchi o‘quv dasturiga muvofiq dars mazmunini shakllantirishi va uni ilmiy-tizimli asosda yetkazishi kerak. Muhim jihatlari o‘qituvchining o‘quv dasturlariga asoslangan holda dars materiallarini tayyorlashdan iboratdir.

Adabiyotlarning tahlili. O‘qituvchi kasbi - bu katta avlodlarning insoniyat tomonidan to‘plangan madaniyat va tajribalarni yosh avlodlarga uzatishga, ular shaxsining rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga va ularni jamiyatda muayyan ijtimoiy vazifalarni bajara olish tayyorlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy faoliyatning alohida turidir. O‘qituvchining kasbiy faoliyati tuzilishi haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, uning asosiy o‘ziga xos xususiyati mehnat ob’yekti va vositalarining o‘ziga xosligi bilan belganishini ta’kidlab o‘tish joiz.

N.V.Kuzmina, A.K.Markova, Ye.F.Zeer, V.A.Slastenin, T.F.Loshakova o‘qituvchining “kasbiy kompetentlik” haqida ko‘plab ishlarni amalga oshirganlar. B.A.Nazarova o‘zining ilmiy ishida D.Dyui, U.Uoller, M.Mid, K.Yung, R.Sorokin, F.Znanetskiylarning falsafasida kasbiy kompetentlik tushunchasiga shunday ta’rif berganliklarini ta’kidlaydi: “Bu muhitga o‘rganish vositasi, chunki kasb odamni unga to‘g‘rilaydi, odamning qiziqishlarini aniqlaydi, bitta kasbda ishlagan odamlarning qiziqishlarini jamlaydi”.[7,62] D.L.Tompson, D.Pristinlar: “Kasbiy kompetentlik - ishda kerak bo‘lgan bilimlarning va barcha axloqiy qoidalarning yig‘indisidir”, - deb ta’kidlaydilar. I.V.Grishina kasbiy kompetentsiya shaxsning o‘z professional faoliyatini qanchalik darajada egallaganligi- deb baho beradi.[9]

Psixologiyada I.N.Shrilrien, S.G.Gellershteyn, Ye.A.Klimov, V.D.Shadrikov, K.K.Platonov, N.V.Kuzmina fikrlariga ko‘ra hayotda yuz beradigan turli vaziyatlarni, muammolarni yechishga yordam beradigan fazilatlar, qobiliyatlar kompetentlik deb tushuntiriladi.[10,26]

Kasbiy kompetentlik – bu qaysidir kasbda bor bo‘lgan standartga rioya qilish. O.B.Akulova kasbiy kompetentlikni shunday ta’riflaydi: “O‘z faoliyatida kerak bo‘lgan yangiliklarning, bilimlarning, qobiliyatlarning yig‘indisi va atrof muhit bilan o‘zaro to‘g‘ri kelishi”.[4,123]

Pedagogik kompetentlik pedagogik mahorat tushunchasiga bog‘liqligini N.V.Kuxarev shunday ta’riflaydi: “Psixologik – pedagogik tayyorgarligidan kelib chiqadigan o‘qituvchi shaxsining aniq sifatlarini va pedagogik masalalarini eng samarali usulda echadigan fazilatlar to‘rlami”.[10, 31]

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda pedagogik ta’limni tashkil etish (xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda), o‘qituvchi kasbining rivojlanishi sohasidagi asosiy dolzarb masalalar quyidagilardan iborat:

1. Bo‘lajak o‘qituvchining yagona axborot muhitida ishlashga tayyorligini shakllantirish. Ushbu muammoni, bir tomondan, ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini bilish va tushunish qobiliyatini shakllantirish, ikkinshi tomondan, ta’lim jarayonida o‘qitishning an’anaviy va zamonaviy yangi texnologiyalarining oqilona nisbatini ta’minlash orqali hal etish.

2. Yagona axborot makonini yaratish va o‘qituvchiga diqqat-e’tibori va vaqtini nafaqat o‘qitishni tashkil etish hamda uni amalga oshirish uslublariga, balki o‘quv jarayonining konseptual jihatlariga ham jamlashga imkon beradigan yagona tezaurusni shakllantirish.

3. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishga tayyorgarlik ko‘rish. Ushbu jarayon o‘quv kurslarining axborot-kompyuter ta’minotini ishlab shiqishni, shu jumladan, ta’lim muassasalarining o‘quv rejalarida belgilangan gumanitar blokni rivojlantirishni nazarda tutadi.

4. Yagona axborot muhitida o‘quv jarayonining dasturiy-metodik ta’minotini tayyorlash. Bunda o‘qituvchilar, metodistlar, psixologlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yisha mutaxassislarning o‘quv jarayonini pedagogik-dasturiy vositalari bilan ta’minlash bo‘yisha hamkorlikda ishlashlari talab etiladi.

O‘qitish va tarbiyalash jarayonida ko‘p narsalar o‘qituvchining shaxsiga bog‘liq. O‘qituvchining shaxsiyati talabaning shaxsiyati shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Jahon va mamlakatimiz pedagogikasida ideal o‘qituvshi va uning tayyorgarligi modellari ishlab shiqilmoqda, o‘qituvshilarning “modeli” manzarisiga, deyarli har bir mutaxassis egallashi lozim bo‘lgan minimal bilimlarga jahon standartlari asosidagi talablar qo‘yilmoqda.

Pedagogik ta’limni modernizatsiyalash sharoitida zamonaviy o‘qituvshi shaxsining quyidagi komponentlarini rivojlantirish taqozo etiladi:

- gnoseologik: inson va biosferaning yaxlitligini anglash;
- pedagogik faoliyatning shaxs ta’lim-tarbiyasidagi o‘rni va ahamiyatini anglash.
- aksiologik: inson tomonidan hayotning eng oliy qadriyatlarining anglab etilganligi;
- shaxsning atrof-olam, tabiat bilan birligini anglashi;
- inson hayoti davrlarining o‘ziga xos qadr-qimmatini e’tirof etish; shaxsiy o‘zini o‘zi rivojlantirishni ta’limning eng oliy maqsadi sifatida e’tirof etish va boshqalar.
- ijodiy: o‘zining hayotini uzluksiz umummadaniy va kasbiy o‘zini o‘zi takomillashtirish muhiti sifatida tashkil etish; o‘quv jarayonini hamkorlikdagi ijodiy faoliyat sifatida qurish qobiliyati va boshqalar.
- kommunikativ: fikrlash va dialog tizimida o‘quv-tarbiya jarayonini qurish qobiliyati; boshqalarni tushuna bilish, o‘zgalar bilan til topisha bilish, murosaga kelishish, munozara o‘tkaza olish va boshqalar.
- axloqiy: ta’limning madaniy va ijodiy funksiyalarini, o‘zaro munosabatlar madaniyatini anglash qobiliyati; pedagogik jarayonni avlodlar suhbati orqali amalga oshiriladigan ikki dominantli (ustuvorlikka ega) jarayon sifatida anglash; hodisalarni baholashning yestetik mezonlarni shakllantirish qobiliyati.

Doimiy ravishda o‘zgarib turadigan hozirgi zamon jamiyatida yuksak kasbiy mahorat va kasbiy kompetentlik ham katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu bevosita ta’lim sohasi xodimlari, xususan, o‘qituvchilar ushun ham taalluqlidir, shunki, birinshidan, o‘qituvchilarning o‘zlari, eng avvalo, o‘zining faoliyat sohasi bo‘yisha kompotentli bo‘lishi kerak, ikkinshidan, ta’lim har doim va har sohada shaxsni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan va doimo ana shunday bo‘lib qolaveradi. Ta’limning eng birinshi galdagi vazifasi shaxsni o‘zi va butun jamiyat ushun eng katta foyda keltiradigan ijtimoiy ishlab chiqarishda faol va samarali ishtirok etishga

tayyorlashdan iborat. Bu esa kelajak avlod tarbiyashisi bo‘lgan o‘qituvchining doimo kasbiy rivojlanishini taqozo etadi.

Mamlakatimiz va xorijiy davlatlarning olimlari tadqiqotlarini tahlil qilish asosida kasb mohiyatini, shu jumladan, o‘qituvch ikasbining mohiyatini tushunishga bo‘lgan bir neshta yondashuvlar, jumladan, funksional, malakaviy, kompotentli, aksiologik va antrorologik yondashuvlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Funksional yondashuv o‘qituvch ifaoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beruvshi muayyan funksiyalarni texnologik o‘zlashtirishni nazarda tutadi. Funksional yondashuv nuqtayi nazaridan qaraganda, muayyan kasbning asosida sub’yekt tomonidan o‘zlashtirilgan mehnatning funksional mazmuni yotadi. Funksional yondashuv doirasida o‘qituvchi kasbi haqida so‘z yurtilganida o‘qituvchining faoliyati funksiyalar yoki funksional xususiyatlar tizimi sifatida qaraladi. Funksional yondashuv tavsiflovshi sifatida talqin qilinishi mumkin, shunki u yoki bu o‘qituvchi kasbi doirasidagi mehnatning funksional vazifasi har doim tarixiy jihatdan o‘zgaruvshandir. Bu erda asosiy e’tibor kasbning ijtimoiy aloqalar tizimidagi o‘rni va ahamiyatiga emas, balki individning ma’lum kasbiy funksiyalarni bajarish layoqati va uning faoliyt tayyorgarligi muammosiga qaratilgan. Buning natijasida kasbiy talablar tushunshasi nazariy masalalardan amaliy jarayonga tomon sezilarli darajada siljishi ta’minlangan.

Malakaviy yondashuvda o‘qituvchi faoliyatining muayyan funksiyalarini texnologik o‘zlashtirish bilan birga, o‘qituvchi kasbini egallagan insonning bilimlari, qobiliyati, tajribasining unikalligi, muhimligini tushunganligi ham zarur hisoblanadi. Malakaviy yondashuv kasbiy rivojlanish kasbiy faoliyat jarayonidagi shart-sharoitlar, shuningdek, xodim shaxsining rivojlanishi shart-sharoitlari bilan uzviy bog‘liqligini nazarda tutadi. Ana shundan kelib shiqqan holda, ular o‘qituvchi kasbini ikki jihatdan, ya’ni ob’yektiv va sub’yektiv jihatdan izohlaydi. Bundan tashqari, ularning fikriga ko‘ra, kasb tushunshasining o‘zi ikkinshi jihatni, ya’ni malakani ifoda etadi.

Kasb ta’limi standartlarida o‘qituvchining malakasi uning kasbiy tayyorgarligi darajasini va ta’lim sohasida ishlashga tayyorligini, ya’ni kompetentligini bildiradi, kompetentlik kasbiy kompetentsiyalar yig‘indisidan iborat. Malakaviy toifalar, eng avvalo, o‘qituvchi oldida turgan kasbiy masalalarni hal qilishning murakkabligi va sifati darajasining farqlanishini nazarda tutadi. Ular ierarxik xarakterga ega bo‘lib, egallangan lavozimga muvofiqlik tushunshasi o‘qituvchining mutaxassislik bo‘yisha mosligini bildiradi.[9]

Kompotentli yondashuvda o‘qituvchining shaxsi, egallagan malakalari (kompetentsiyalari) asosida uning muayyan kasbiy masalalarni yechish qobiliyatlarining noyobligi birinshi o‘ringa qo‘yiladi. Ayni yondashuv doirasida o‘qituvchining nafaqat kasbiy bilimlarni egallashi va talab etilgan mehnat funksiyalarini bajarish qobiliyati, balki shu bilan birga, o‘qituvchi faoliyatini amalga oshirishda u foydalanadigan resurslar ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi kasbini tushunishga kompotentli yondashuv uning maxsus sifatlari yig‘indisini, u egallaydigan va kasbiy faoliyatida muayyan natijalarga erishishiga, ma’lum pedagogik vaziyatga oid masalalarni yechishga yordam beradigan kompetentsiyalarning unikalligini birinshi o‘ringa olib shiqadi.

Kompetentlik nuqtayi nazaridan o‘qituvchi kasbi bugungi kunda ko‘plab ijtimoiy-madaniy kontekstlar bilan belgilanadi va o‘qituvchilardan nafaqat kasbiy kompetentsiyalarni, balki umummadaniy xususiyatlarga ega bo‘lishni talab qiladi. U o‘qituvchiga o‘z pedagogik faoliyatini yaxlit holda tushunishga imkon beradi.

Aksiologik va antrorologik yondashuvlarda o‘qituvchi faoliyatining sub’yektivlashishi–kasbiy faoliyatning refleksiv mazmuni (o‘z ishidan qanoatlanish, kasbiy holati, kasbiy tanlash, kasbiy qadriyatlar va boshqalar) muhim hisoblanadi. Kasbiy faoliyatning turli vaziyatlarida o‘qituvshi xulq-atvori strategiyasini tanlashning qadriyatiy asoslari rivojlantiriladi.

Kasb tushushasiga aksiologik yondashuv doirasida mutaxassis egallaydigan kompetentsiyalar nafaqat jamiyat va ijtimoiy muhit (sotsium) talablari, odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatish tamoyillari (me’yorlar, xulq-atvor me’yorlari va boshqalar) bilan, balki qadriyatlar tizimi (shaxs, jamiyat) bilan ham uzviy bog‘liq. Uning shakllanishi insonga u yoki bu kasbiy sohada xatti-harakatlar (xulq-atvor) strategiyasini mustaqil tanlash imkonini beradi. Uning barsha vakillari tomonidan taqsimlanadigan professional guruhning qadriyatlari mutaxassis kasbiy faoliyatining asosini tashkil etadi.

Kasbga antrorologik yondashuvga asoslanib, aytish mumkinki, o‘zining kasbiy faoliyatini tahlil etish shaxsiy qadriyatlarni va xulq-atvorini o‘zgartirish mexanizmiga aylanadi. O‘qituvchi kasbiga aksiologik

yondashuvning asosiy qoidalari va antrorologik yondashuv o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatning insonparvarlik, “insoniy ijodkorlik” g‘oyalari bilan bog‘liq.

Ko‘rib o‘tilgan yondashuvlar (funksional, malakaviy, kompotentli, aksiologik va antrorologik) asosiy g‘oyalarning izchilligi bilan tavsiflanadi. O‘qituvchi kasbiga yondashuvlarning asosiy qoidalari muayyan tarzda o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lib, o‘qituvchikasbi tushunshasi rivojlanishining dinamikasini aks ettiradi.

Pedagogik ta’limni modernizatsiyalash jarayonida o‘qituvchiga bir nechta talablar qo‘yilmoqda:

- O‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab etishi hamda bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri tarbiya bera olish.
- Zamonaviy o‘qituvchining ilm-fan texnika texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lish
- O‘qtuvchi o‘z mutaxassisligi yuzasidan, puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz izlanish
- O‘qituvchi ijodkor tashabbuskor, tashkilotchilik qobiliyatlari ega bo‘lishi,
- O‘qituvchi pedagogika psixologiya fanlari yuzasidan puxta bilishi ta’lim tarbiya jarayonida, o‘quvchining yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyatni to‘gri tashkil qilishi lozim.

O‘qituvchi nutq madaniyatiga ega bo‘lishi lozim uning nutqida quyidagi xususiyatlari aks etishi kerak:

- nutqning to‘g‘riligi
- nutqning aniqligi
- nutqning sofligi
- nutqning ravonligi
- nutqning boyligi. [9;67-b]

Hozirgi zamon sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilardan quyidagi kasbiy va shaxsiy sifatlar talab etiladi:

-o‘zgaruvshan hayotiy vaziyatlarga tez moslasha olish, muloqotman o‘rnata olish va jamoada ishlay bilish;

-zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaxshi o‘zlashtirishlari ushun yangi bilimlarni mustaqil egallay olish;

-axborotlardan to‘g‘ri foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida zaruriy ma’lumotlarni izlab tora bilish;

-aqliy imkoniyatini rivojlantirish, umumiy madaniyatini oshirish.[19]

Faqat shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi asosidagina bo‘lajak o‘qituvchilarda bunday sifatlarni shakllantirish mumkin. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim - talabalar va o‘qituvchilarning o‘zaro ta’sirini tashkil etishga asoslangan ta’lim tizimidir.

Bunda zamonaviy pedagogik ta’limning rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari, hozirgi zamon jamiyatidagi funksiyalari va o‘ziga xos jihatlari, bo‘lajak pedagoglarning amaliy tayyorgarligi mazmunini loyihalash yo‘nalishlari hamda uning o‘qituvchikasbi rivojlanishiga ta’siri muhim rol o‘ynaydi. Pedagogik ta’limning rivojlanish tendensiyalari nafaqat uning yo‘nalishini, balki rivojlanish istiqbollarini ham belgilab beradi. pedagogik ta’lim rivojlanishining yyetakchi tendensiyalari jahon, milliy, mintaqaviy miqyosdagi umumiy tendensiyalarni o‘zida aks ettirib, pedagogik ta’lim tizimiga xos xarakterli xususiyatlarni ham qamrab oladi. Ana shunga bog‘liq holda bo‘lajak o‘qituvshilarni tayyorlash tizimini loyihalashning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash ushun ularni tahlil qilish zarur.

Oliy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash pedagogik ta’limning nisbatan mustaqil turi bo‘lib, uning natijasi bo‘lajak o‘qituvchida kasbiy fikrlash, pedagogik ong, kasbiy yo‘naltirilgan xulq-atvorni shakllantirishdan iboratdir. Talabalar zamonaviy o‘qituvchining kasbiy kompetentligiga qo‘yiladigan talablarga muvofiq ravishda amaliy pedagogik faoliyatni amalga qo‘llashga imkon beradigan bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashi zarur.

Xulosa va takliflar. O‘qituvchi quyidagi didaktik tamoyillar asosida ta’lim jarayonini olib borishi lozim: Izchillik va tizimlilik – bilimlarni ketma-ketlik asosida berish; Tushunarlilik – murakkab mavzularni oddiy tilda tushuntirish; Hayotiylik va amaliyotga yo‘naltirish – o‘quvchilarning hayotiy tajribasiga asoslangan misollar keltirish; Faollik va mustaqillik – o‘quvchilarning faolligini oshirish uchun interaktiv metodlardan foydalanish.

O‘qituvchi har bir mavzuni tushunarli qilib yetkazish uchun quyidagilarga e’tibor qaratishi kerak:Yangi bilimlarni avvalgi bilimlar bilan bog‘lash; O‘quvchilarning qiziqishini oshirish uchun vizual materiallar va misollardan foydalanish; Qiyin tushunchalarni oddiy va mantiqiy asosda tushuntirish.

Har bir o‘quvchi o‘zining individual qobiliyatlari va o‘zlashtirish darajasiga ega. O‘qituvchi quyidagilarni inobatga olishi lozim: Kam o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan individual ishlash; Iqtidorli o‘quvchilar uchun qiyinroq topshiriqlar berish; Har bir o‘quvchining ehtiyojlarini inobatga olib mos metodlarni qo‘llash.

O‘qituvchi o‘z faoliyatini doimiy tahlil qilib, ta’lim samaradorligini oshirishga harakat qilishi kerak. Bunga quyidagilar kiradi: Dars jarayonining natijalarini tahlil qilish; O‘quvchilarning fikr-mulohazalarini inobatga olish; O‘z metodlarini doimiy ravishda takomillashtirish.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshirish muhimdir. Buning uchun quyidagilar amalga oshiriladi: Rag‘batlantirish va baholash tizimidan samarali foydalanish, o‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatini berish, qiziqarli va ijodiy yondashuvlarni joriy etishdan iborat.

Metodik va didaktik kompetensiyalar o‘qituvchining pedagogik mahoratini belgilovchi muhim omillardan biridir. O‘qituvchi ta’lim jarayonida metodik yondashuvni chuqur o‘zlashtirishi, didaktik tamoyillar asosida o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqishi hamda o‘quvchilarning faolligini oshirish bo‘yicha samarali usullarni qo‘llashi zarur. Bu esa ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi RF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgasha rivojlantirish konsertsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi RQ-4623-son “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish shora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. www.lex.uz.

3. Prezident Sh.Mirziyoyevning Oliy ta'limni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risidagi farmoni RF-5847.

4. Акулова, О.В. Компетентностная модел современного педагога : Учебно-методическое пособие / О. В. Акулова, Е. С.Заир-Бек, С. А. Писарева, Е. В. Пискунова, Н. Ф. Радионова, А. П. Тряпицына. - СПб. : Изд-во РГПУ им. Герцена, 2009. - 158 с.

5. Гришина И.В. Профессионалная компетентност директора школы. Автореферат: дис.: …док.пед.наук. – М.: 2004 – 40 с.

6. Кларин М. В. Инновационные модели обучения. Исследование мирового опыта. Монография. М: Луч, 2016. 640 с.

7. Маркова, А.К. Психологические критерии и ступени профессионализма учителя // Педагогика. – 1995. – № 6. – С. 55-63.

8. Митина, Л.М. Учител как личност и профессионал - М.: 1994. - 216 с.

9. O‘razova M.B., Yeshrulatov Sh.N. - Bo‘lajak o‘qituvshining loyihalash faoliyati. Metodik qo‘llanma. T.: TDRU Rizografi, 2014 yil

10. Шадриков, В. Д. Новая модел специалиста : инновационная подготовка и компетентностный подход / В. Д. Шадриков // Высшее образование сегодня. - 2004. - № 8. - С. 26-31

INNOVATION METHODS OF DESIGNING ACTIVITIES FOR DEVELOPING STUDENTS’ SPEAKING SKILLS IN TEACHING INTERMEDIATE LEVEL CLASSES.

Nasiba Salikhova,
The English language department of applied disciplines, USWLU
Morevs Patriks,
EKA University of Applied Sciences Riga Latvia

Abstract

This article explores effective innovation methods for designing speaking activities suitable for learners in intermediate level. It examines various pedagogical approaches and different activity, analysing their strengths and weaknesses in fostering collaborative and communicative competence. The research focuses on practical application, providing teachers with a framework for creating engaging and challenging speaking tasks that cater to the specific needs and proficiency levels of intermediate level students. The eventual goal is to equip educators with the tools necessary to design activities that enhance students’ speaking skills and confidence in real-life interaction.

Keywords: *intermediate, approach, learning type, proficiency, speaking development, activity, academic, non-academic, individual, communication, authentic language.*

Annotatsiya

Ushbu maqola o‘rta darajadagi o‘quvchilar uchun mos nutq faoliyatini loyihalashning samarali innovatsion usullarini o‘rganadi. U turli xil pedagogik yondashuvlarni va turli faoliyatni ko‘rib chiqadi, ularning kuchli va zaif tomonlarini hamkorlikda va kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirishda tahlil qiladi. Tadqiqot amaliy qo‘llashga qaratilgan bo‘lib, o‘qituvchilarga o‘rta darajadagi talabalarning o‘ziga xos ehtiyojlari va malaka darajalariga javob beradigan qiziqarli va qiyin nutq vazifalarini yaratish uchun asos yaratadi. Yakuniy maqsad - o‘qituvchilarni o‘quvchilarning nutq qobiliyatlari va real hayotdagi o‘zaro munosabatlarga ishonchini oshiradigan faoliyatni loyihalash uchun zarur vositalar bilan jihozlashdir.

Kalit so‘zlar: *oraliq, yondashuv, o‘rganish turi, malaka, nutqni rivojlantirish, faoliyat, akademik, akademik bo‘lmagan, individual, muloqot, o‘ziga xos til.*

Аннотация

В этой статье рассматриваются эффективные инновационные методы разработки речевых упражнений, подходящих для учащихся среднего уровня. В ней рассматриваются различные педагогические подходы и различные виды деятельности, анализируются их сильные и слабые стороны в развитии совместной и коммуникативной компетенции. Исследование сосредоточено на практическом применении, предоставляя учителям основу для создания увлекательных и сложных речевых заданий, которые отвечают конкретным потребностям и уровням владения языком учащихся среднего уровня. Конечная цель — снабдить педагогов инструментами, необходимыми для разработки упражнений, которые улучшают речевые навыки учащихся и уверенность в реальном взаимодействии.

Ключевые слова: *средний уровень, подход, тип обучения, владение, развитие речевых навыков, деятельность, академический, неакадемический, индивидуальный, коммуникация, аутентичный язык.*

An essential factor in designing activities for students in order to encourage speaking development is to consider their cultural, academic, and, if possible, personal background, as well as individual learning type. It means that it is impossible to create a single set of tasks and implement it in every student and every class, as this approach would mostly be ineffective. Each academic case must be thoroughly analysed and prepared individually. Moreover, each age group has to be approached differently and at an individual pace. On these occasions, there are some bullet points to be specifically attentive to.

It is very important that an exercise should be understood not simply as training in a figurative monologue, but as a form of interaction between subjects, a teacher, and students as learners, mediated by educational material and having its own structure as a “small scenario of an act of learning, in which a program of actions is

set as a unit of teaching any type of foreign language speech activity, namely: reading, listening, monologue speaking, writing, we accept a specially organized exercise in a specific type of foreign language speech activity.

Cultural background. An extremely important point to consider when designing speaking activities for students is what their outlook is based on the cultural experience. Especially, when a class is intercultural. Nationality and cultural surroundings strongly affect the speaking production of every speaker. A widespread mistake for intermediate level speakers is to speak with the structure of their mother tongue using English words, and the goal of speaking practice is to correct it. The key tool to affect this tendency is to understand the problem, this way a teacher can spot and point it out to the student, which leads to avoiding repetition in the future.

Learning type. As every teacher knows, there are four predominant types of learning outlined: auditory (listening), sensual (kinaesthetic), visual (watching), and read/write (understanding through text). In order to make practice maximum effective, these types must be considered thoroughly. The teacher has to be flexible in combining activities of different types and reforming each activity when ongoing, if it does not hit the class as expected. Most of the time these types are mixed with one dominating, so activities must be variable and flexible for each approach.

Age. Mostly intermediate levels of learners are school students. However, adults may learn the language too, which makes the variety of the approaches wider. On this occasion, not only the type of activity but the pace must be considered, as well as the attention span. Apart from the physiological features of each age group, personal capacities play a key role in the learning process, so this is another bullet point. It is also essential to mix academic and non-academic approaches in different proportions for different classes: if middle-school students are used to completing a great number of academic studies and consume a lot of information at once, most adults have forgotten what is a classroom and might be reluctant to consume formal knowledge in plain form. The teacher’s job is to analyse each class and select an appropriate set of activities. As every student has some background knowledge and social experience, the teacher needs to imply the schemata for each purpose, specifically when it comes to speech production. Based on the communicative and personal-activity approaches, we adopt as a unit of teaching figurative monologue utterance at the level of formation of speech lexical-phraseological skills and speech abilities a specially organized exercise in figurative monologue utterance with the aim of generating a coherent, whole microtext containing a complete thought.

Personal background. In the first part of the exercise – the instructions – all components of the incentive-motivational phase of the internal structure of the speech activity of monologue speaking are actualized, namely the conditions, strategy of the activity, needs, subject, motives, goal-task, goal-result individual and collective, information basis, stimuli, connection of speech acts of speaking with speech acts of reading, listening and writing. Last but not least factor of preparation is to clearly understand that students are first of all people and are all different. Some might be social and talkative, while others prefer not to be in the spotlight. Nonetheless, every type is productive in learning if approached correctly. It means that activities have to be flexible not only in academic approach, but in the number of participating students as well. Especially, when working with children and teenagers. In order not to fail a lesson if something goes out of the planned curriculum, the teacher has to be ready to change or correct the process of activity to allow each student to take part in a comfortable way.

Another important factor in conducting lessons for intermediate level students is to create an ambiance where no other language can be used. It is important to avoid speaking native or any other language as much as possible so that the students adapt to expressing themselves in English and make speaking a natural process. Taking into account modern requirements, teaching a foreign language in secondary school

should be communicative-oriented in all types of speech activity; special attention should be paid to speaking. Speaking is a productive (expressive) type of speech activity, through which oral speech communication is carried out together with listening.

When teaching learners in schools, learning centres, or any other group form, activities must be equally involving every participant and give an opportunity to practice and be assisted by the teacher. For this approach the activities have to be relevant to the group and suitable for the level. Mostly these are conversational interactions, which are formed and edited depending on the topic. Here are some examples of the possible options:

Interview. This type of exercise is usually used for lower levels classes to demonstrate the speaking process and engage the speakers to use recently learned grammar structures, whereas with higher level students’ similar activity might be used in order to practice structuring ideas and enriching speech with new and more topic-relevant vocabulary. Interview might be conducted in pairs or in small groups. Provided with cue cards, students have to receive the necessary answers from one another and then give the feedback and report it to the teacher. If necessary, the teacher may outline some set phrases or sentence structures beforehand to help the students avoid misusing newly learned vocabulary or grammar rules.

This exercise is also very flexible and combines easy with every topic that a group may discuss. The questions for cue cards might be found online or designed be the teacher (which is more recommended as fits more to the individual purposes).

Debates. This activity is mostly recommended for high-school classes, college groups, and adult students, as requires skills of argumentation and critical thinking. This is an engaging conversation, nonetheless, being risky to conduct in large groups. Debates are the process of approving and disapproving the given statement, that not only involves students in speaking process, but demand expressing their ideas proving arguments to support them. In order to hold debates without turning it into a raw, some strict discipline rules must be set beforehand and thoroughly followed.

The statement has to be a clear affirmative statement which does not cause any ambiguity. It would be a mistake to provide a question as a debate statement, as it might be understood from different points of view and cause the disagreement. You should remember that debates are not about agreeing or disagreeing and there cannot exist any personal opinion, and it is crucial to make the students understand this difference. Arguments provided by each side have to prove that the statement is objectively right or wrongs and provide relevant argument to support these evidences. Moreover, the teacher must not have any personal preferences regarding the topic during hosting the debates, and is in grade to accept arguments supported enough or reject those not fitting into frames of objectivity. There must not be any counterarguments, but only individual ideas for and against the statement bringing points to each side. A bad example of a debate statement is: *“Is social media good or bad?”.* A good example of a debate statement would be: *“Social media have negative influence on the mindset and outlook of teenagers”.* After giving the statement, the teacher should offer the class to prove it is true or false, and not agree or disagree with it.

Another good idea when hosting debates would be to divide students in two groups with the point of view that is contrary from their own opinion on the given topic. This approach works well for the students who are already well adopted in the curriculum and have enough capacity of critical thinking.

In the case of individual lessons encouraging a student to speak naturally is more complex as the only accessible conversation partner is the teacher. For such students, it is necessary to provide different situations and circumstances in which the student would be forced to produce the speech. Mostly, at the point of intermediate level language barrier is not so strong anymore as the student has now quite a circle of grammar and vocabulary structures. This factor makes it easier to adopt any necessary topic into a speaking practice. Here are some options for engaging an individual student to speak.

Picture description. This method is suitable for kids, teenagers, and adult learners, with only different levels of complexity of the picture. Nevertheless, there are several criteria to select a relevant image and set a clear task. First of all, the picture has to be full of details. It might be a lot of subjects to describe, activities to name, and any other complex plot to talk about. Visual narrative has to be rich enough to let the student speak non-stop. Obviously, it depends on the individual creativity of each learner, and in case of a lack of ideas, the teacher has to help spot features to describe.

The picture also must be relevant to the student’s language level and individual capacities. This means that the image should be interesting for the learner based on their age, interests, and outlook. Finally, the task has to be clear enough and vary based on the grammar topic or a vocabulary piece to practice. So instead of just asking to describe the provided picture, the teacher may offer to create a story around it or describe the positions of objects and directions of each movement (if the topic is relevant). In the case of higher-level students, the picture may reflect a problem to resolve or a situation to analyse.

Speaking prompts. In order to encourage fluent and well-structured speech it is necessary to offer something to start with. Instead of a bare example, the teacher may prepare several prompts to set the sentence structure to use, and bring the system into the student’s speech. This exercise is also flexible and allows to involve any topic and grammar structure to work on. Moreover, after a set task for the prompt, the conversation might be developed with some follow-up questions. However, not any prompt works well. The phrase has to offer a clear idea to continue. An inefficient prompt would be: *“I think, that…”.* A good prompt would be: *“My biggest wish about life is…”*.

It is also important to clarify what exactly the student needs to do. For instance, should they finish the sentence with several words, or only one, should it be a particular grammar form, or is it up to the student’s idea. The success of this practice fully depends on how clearly the task is set.

Although project-based learning requires some time, it is one of the best ways to encourage and provoke direct contact with the English language. Usually, this method is used for schools, however, it might also be successfully applied to adult groups and even individual learners. The efficiency of the outcome only depends on the form of the project and the initial aim. As the main focus of this article is speaking, this will be the primary goal of any example given.

Presentation. The main task of the presentation is to investigate the topic and present it to the audience, which might be a class or the teacher. The topic may vary, but anyway preparation process involves independent research, which means enlarging vocabulary and contact with authentic language. After this experience, the student is offered to use all the accessible means of their speech to convey what they have learned to the audience. This is mostly suitable for those struggling to find ideas on what to speak about, as provides a clear set of content to discuss. Moreover, presentation develops the skill of structured speech and paraphrasing, and even teamwork if done in a group.

Glottodrama. Learning through theatre performance is a creative, uniting, and efficient way not only to develop the speech of learners but also to break the barrier of fluency. Surprisingly, not the show itself, but the preparation and rehearsals are the key tool that brings the outcome. An additional benefit is that such activities attract the student’s attention to the art of theatre and literature of a certain culture, which encourages the level of concern about the language.

One of the most challenging factors of implementing learning through theatre in the class is that not every student wishes to perform in public. As it was mentioned before, personal aspects must be clearly analysed before planning the activity. Moreover, this method is mostly suitable for kids and teenagers, where psychological features and capacities are the strongest factors to consider. However, good organization and clear leadership multiply the chance of success.

Another important factor in the successful implementation of glottodrama is the wise choice of the story. It should be chosen and then edited (which is mostly necessary) to be relevant to the student’s interest and up to date. The story must be interesting to be a part of so that the participants get more involved in rehearsals and communicating within the set plot.

The Glottodrama approach might also be applied as a secondary (non-academic) activity. In schools, there are usually drama groups that also approach to develop academic skills acquired during academic sessions. In this case chance to succeed is higher as involves only the students interested in drama and theatre, but involves fewer participants, which makes the activity selective and not universal.

Nowadays authentic content is widely accessed by any age group of language learners thanks to the internet and gadgets implemented in daily use. Social media, television and radio broadcasts, and unlimited sources of any type of informative content make acquiring the authentic language faster and more accessible even in non-English-speaking countries without face-to-face communication of the native speakers. On this occasion, the teacher has a great opportunity to encourage further independent investigation. This interest might be reached by offering curious content during the lessons, which is mainly related to cultural aspects of the English-speaking countries. These might be captures from famous TV series, books, video clips, popular songs, films, etc. By catching the learner’s attention by hooking pieces of information and following advice to find out more and then sharing the information during classes complemented with suggested links and sources to investigate. The teacher

is given the opportunity to select an audio video clip with the text of the recording to listen to. After listening to the text, the student records his speech on a voice recorder. Using an audio recording, you can compare your voice with the speech of a native speaker, determine which sounds were pronounced correctly and which were not. After analyzing the recording, the teacher gives recommendations for adjusting and practicing the necessary sounds. This approach not only motivates speaking development, but encourages soaking the authentic language, idioms, collocations, and vocabulary chucks during the research. In this occasion, the role of the teacher is to navigate among the tricky aspects of the language that a student may encounter, such as obscene lexis, idioms, set phrases, citations related to cultural references, etc., and encourage to use the newly learned phrases in appropriate situations.

Concluding the research work we would like to mention that main approach to encourage fluent and accurate speech of our students is to provide clear examples of what it sounds like (with the speech of the teacher and authentic materials) and to create circumstances in the class so that students have no other option rather than to communicate in English, and then form their speech to be grammatically and lexically correct. Moreover, the main responsibility of the teacher during designing activities for speech encouragement is to be flexible and clearly understand the needs and problems of each student or group based on specific aspects. If so, fluent and natural speech would be reached within a brief period and without tough struggles.

REFERENCES:

1. Antonietta Gobbis, Marco Paoli Legler. Insegnare Letteratura Attraverso il Glottograma a Studenti di Italiano LS/L2 // Italiano LinguaDue – 2015
2. Anthony J. Liddicoat. Teaching Language, Teaching culture // Applied Linguistics – 1997
3. Michael Bryam. Teaching culture and language: towards an integrated model // Multilingual matter - 1990
4. Michael Ennis. Toward an Integrated Approach to Language, Culture and Communication in the Foreign Language Classroom // Free University Bozen-Bolzano – Italy – 2015
5. Muhammad Sharif Uddin. Critical Pedagogy and its Implication in the Classroom // Morgan State University – USA – 2019
6. Salikhova N.I. THE DIGITAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF SPOKEN ENGLISH AMONG STUDENTS IN GRADES 10-11 CLASSES. 2024., p-258.
7. Paulo Freire. Pedagogy of the Oppressed // The Continuum International Publishing Group Inc – 2005.

ISSIQLIK ENERGETIKA JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISH VA IOT TIZIMLARI YORDAMIDA REAL VAQT REJIMIDAGI MONITORING SAMARADORLIGI

Bobur Saparov,
Toshkent kimyo – texnologiya instituti assistenti
Malohat To‘xtasheva,
Toshkent kimyo – texnologiya instituti dotsenti
Asliddin Shokirov,
Toshkent kimyo – texnologiya instituti assistenti
Maftuna Jobborova,
Toshkent kimyo – texnologiya instituti stajyor-o‘qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada issiqlik energetika jarayonlarini avtomatlashtirish va IoT texnologiyalari yordamida real vaqt rejimidagi monitoring samaradorligi tahlil qilinadi. Avtomatlashtirish tizimlari, jumladan SCADA va IoT platformalari, yoqilg‘i sarfini optimallashtirish, emissiyalarni kamaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarini barqarorlashtirishga qanday ta’sir ko‘rsatishi yoritiladi. Maqolada optimal boshqaruv tizimlarining yoqilg‘i tejamkorligiga ta’siri, avtomatlashtirish natijasida atmosferaga chiqariladigan zararli gazlarning kamayishi hamda IoT tizimlari orqali real vaqt rejimida monitoring natijalari grafik tahlillar yordamida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, avtomatlashtirish texnologiyalari energetika sohasida samaradorlikni oshirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *Avtomatlashtirish, SCADA, IoT, yoqilg‘i sarfi, emissiyalar, real vaqt monitoringi, issiqlik energetikasi*

Аннотация

В данной статье анализируется эффективность мониторинга в реальном времени в процессе автоматизации тепловых энергетических процессов с применением технологий IoT. Рассматривается влияние автоматизированных систем, включая SCADA и IoT-платформы, на оптимизацию расхода топлива, снижение выбросов и стабилизацию производственных процессов. В статье проводится графический анализ влияния оптимального управления на экономию топлива, уменьшение вредных выбросов в атмосферу за счет автоматизации, а также результатов мониторинга в реальном времени с применением IoT-систем. Результаты исследования показывают, что технологии автоматизации играют важную роль в повышении эффективности энергетического сектора и обеспечении экологической устойчивости.

Ключевые слова: *Автоматизация, SCADA, IoT, расход топлива, выбросы, мониторинг в реальном времени, тепловая энергетика.*

Annotation

This article analyzes the efficiency of real-time monitoring in the automation of thermal energy processes using IoT technologies. It examines the impact of automated systems, including SCADA and IoT platforms, on fuel consumption optimization, emission reduction, and stabilization of production processes. The article presents graphical analyses of the effects of optimal control on fuel savings, the reduction of harmful atmospheric emissions through automation, and real-time monitoring results enabled by IoT systems. The research findings indicate that automation technologies play a crucial role in increasing efficiency in the energy sector and ensuring environmental sustainability.

Keywords: *Automation, SCADA, IoT, fuel consumption, emissions, real-time monitoring, thermal energy.*

Kirish Zamonaviy issiqlik energetika tizimlarida avtomatlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv energiya samaradorligini oshirish, yoqilg‘i sarfini kamaytirish va ekologik ta’sirni minimallashtirishga yordam beradi. Bugungi kunda elektr stansiyalari, issiqlik ishlab chiqarish korxonalari va boshqa sanoat

tarmoqlari avtomatlashtirish vositalaridan keng foydalanmoqda. Buning natijasida ishlab chiqarish barqarorligi oshib, inson omiliga bog‘liq xatolar kamaymoqda[1-3].

2. Issiqlik energetika jarayonlarining avtomatlashtirish asoslari Issiqlik energetika tizimlarini avtomatlashtirish quyidagi omillarni o‘z ichiga oladi:

- **Sensor va o‘lchov tizimlari:** Real vaqt rejimida harorat, bosim, oqim tezligi kabi parametrlarni nazorat qilish.
- **Avtomatik boshqaruv tizimlari (ABT):** Issiqlik jarayonlarini optimal boshqarish orqali samaradorlikni oshirish.
- **Model asosida boshqarish:** Issiqlik jarayonlarini oldindan prognozlash va optimallashtirish uchun matematik modellar va algoritmlar.
- **Sun’iy intellekt va tarmoqli tizimlar:** Mashinani o‘rganish va neyron tarmoqlari orqali avtomatlashtirish tizimlarini yanada intellektual qilish.
- **Bulutli texnologiyalar:** Issiqlik jarayonlarini masofadan nazorat qilish va real vaqt rejimida tahlil qilish.

3. Avtomatlashtirish texnologiyalari

- **Dasturiy ta’minot bilan boshqarish:** SCADA va DCS tizimlari orqali real vaqt rejimida ma’lumotlarni qayta ishlash va operativ boshqaruv [1-3].
- **Internet buyumlari (IoT) va bulutli texnologiyalar:** Sensorlar va IoT qurilmalar yordamida harorat, bosim, gaz tarkibi kabi parametrlarni real vaqtda kuzatish va optimallashtirish.
- **Intellektual boshqaruv tizimlari:** Sun’iy intellekt algoritmlari yordamida avtomatik ravishda issiqlik jarayonlarini boshqarish.
- **Kiberxavfsizlik texnologiyalari:** Avtomatlashtirilgan tizimlarning ishonchliligini ta’minlash va kiberhujumlardan himoya qilish.

4. Issiqlik energetika tizimlarida avtomatlashtirishning afzalliklari


- **Energiya samaradorligini oshirish:** Optimal boshqaruv orqali yoqilg‘i sarfini kamaytirish va energiya tejamkorligini oshirish [4-6].
- **Xavfsizlikni oshirish:** Avtomatik tizimlar inson omilini minimallashtirishga yordam beradi va favqulodda vaziyatlarning oldini oladi.
- **Ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligi:** Xatolar va nosozliklarni oldindan aniqlash imkoniyati mavjud.
- **Chiqindilar va zararli emissiyalarni kamaytirish:** Atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish uchun avtomatlashtirilgan nazorat va filtrlash tizimlari.
- **Resurslardan samarali foydalanish:** Sun’iy intellekt va IoT texnologiyalari orqali issiqlik energiyasidan maksimal foydalanish imkoniyati.

5. Ilmiy va sanoat tadqiqotlari

- **Matematik modellashtirish orqali jarayonlarni optimallashtirish:** Fuzzy logika, differensial tenglamalar va boshqa matematik usullar yordamida issiqlik jarayonlarini modellashtirish.
- **Sun’iy intellekt asosida issiqlik jarayonlarini nazorat qilish:** Mashinali o‘rganish algoritmlari orqali issiqlik energetikasida optimal parametrlarni avtomatik tarzda topish.
- **Eksperimental tadqiqotlar orqali avtomatlashtirish tizimlarining samaradorligini baholash:** Laboratoriya sharoitida va sanoat muhitida avtomatlashtirish texnologiyalarining samaradorligini sinash va takomillashtirish.

6. Hisoblash natijalari va grafik tahlillar Quyida avtomatlashtirishning samaradorligi bo‘yicha hisob-kitob natijalari va grafik tahlillar keltirilgan:

1. Optimal boshqaruvning yoqilg‘i sarfiga ta’siri: Optimal boshqaruvning yoqilg‘i sarfiga ta’siri grafigi yoqilg‘i iste’molining vaqt davomida qanday o‘zgarishini ko‘rsatadi.




1- grafik: • Optimal boshqaruvning yoqilg‘i sarfiga ta’siri

- Qizil chiziq – optimal bo‘lmagan boshqaruv (ko‘proq yoqilg‘i sarfi).
- Ko‘k chiziq – optimal boshqaruv (kamroq yoqilg‘i sarfi).

Optimal boshqaruv yordamida yoqilg‘i sarfi sezilarli darajada kamayadi, bu esa samaradorlikni oshiradi va ekspluatatsiya xarajatlarini pasaytirishga yordam beradi.

- **Avtomatlashtirish natijasida emissiyalarni kamaytirish: Avtomatlashtirish natijasida emissiyalarni kamaytirish** grafigi avtomatlashtirish joriy etilgan va etilmagan holatlarda CO_2 chiqindilarining vaqt davomida qanday kamayishini ko‘rsatadi.




2- grafik: Avtomatlashtirish natijasida emissiyalarni kamaytirish

- **Q**izil chiziq – avtomatlashtirishsiz emissiyalar kamayishi sekin kechadi.
- Ko‘k chiziq – avtomatlashtirish bilan emissiyalar tezroq kamayadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, avtomatlashtirilgan tizimlar energiya samaradorligini oshirish orqali atrof-muhitga zararli chiqindilarni sezilarli darajada kamaytiradi.

- **SCADA tizimlarining ishlab chiqarish samaradorligiga ta’siri:** SCADA **(Supervisory Control and Data Acquisition) tizimi** – bu ishlab chiqarish, energetika, transport va boshqa sohalardagi texnologik jarayonlarni real vaqt rejimida nazorat qilish, boshqarish va tahlil qilish uchun mo‘ljallangan avtomatlashtirilgan

boshqaruv tizimi. SCADA tizimlarining ishlab chiqarish samaradorligiga ta’siri grafigi SCADA tizimi joriy etilgan va etilmagan holatlarda ishlab chiqarish samaradorligining yillar davomida qanday o‘zgarishini ko‘rsatadi [7-8].



3- grafik: • SCADA tizimlarining ishlab chiqarish samaradorligiga ta’siri

• Qizil chiziq – SCADA tizimisiz, samaradorlikning o‘sishi sekinroq.

• Ko‘k chiziq – SCADA tizimi bilan, samaradorlik ancha tez oshadi.


SCADA tizimlari ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida kuzatish va optimallashtirish orqali samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Bu energiya tejamkorligi, jarayonning barqarorligi va ishlab chiqarish hajmining oshishiga olib keladi.

- **IoT tizimlari yordamida real vaqt rejimidagi monitoringning natijalari: IoT (Internet of Things)** – bu internetga ulanadigan va real vaqt rejimida ma’lumot almashadigan aqlli qurilmalar va tizimlar tarmog‘idir. IoT sanoat, sog‘liqni saqlash, transport, qishloq xo‘jaligi va kundalik hayotda keng qo‘llaniladi.

IoT texnologiyalarining monitoring jarayoniga ta’siri grafigi real vaqt rejimida ma’lumot yig‘ishning samaradorligini ko‘rsatadi.

Grafikda ikki asosiy holat tasvirlangan:

- Qizil chiziq (IoT tizimisiz) – Monitoring aniqligi pastroq va vaqt o‘tishi bilan katta o‘zgarishlarga ega bo‘ladi. Ma’lumotlar noto‘g‘ri yoki kechikib kelishi mumkin, bu esa ishlab chiqarish jarayonlarida xatolarga olib keladi.
- Ko‘k chiziq (IoT tizimi bilan) – Monitoring aniqligi yuqori bo‘lib, barqaror ishlaydi. IoT datchiklari uzluksiz ma’lumot yetkazib beradi, bu esa tizimning o‘z vaqtida to‘g‘ri qaror qabul qilishiga imkon yaratadi [9-13].



4- grafik: • IoT tizimlari yordamida real vaqt rejimidagi monitoringning natijalari

7. Xulosa Issiqlik energetika tizimlarining avtomatlashtirilishi sanoatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali energiya samaradorligini oshirish, atrof-muhitga ta’sirni kamaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish mumkin. Avtomatlashtirishning rivojlanishi issiqlik energetikasida yangi innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga imkon yaratadi.

IoT, SCADA va avtomatlashtirish tizimlari zamonaviy ishlab chiqarish va energetika sohalarida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu texnologiyalar real vaqt rejimida monitoring, optimal boshqaruv va resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi.

Asosiy natijalar:

✓ **Optimal boshqaruv yoqilg‘i sarfini kamaytiradi** – energiya tejamkorligi ortib, operatsion xarajatlar kamayadi.

✓ **Avtomatlashtirish emissiyalarni pasaytiradi** – ekologik xavfsizlik yaxshilanadi.

✓ **SCADA tizimlari ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi** – real vaqt rejimida monitoring va operatsion xavflarni kamaytirish imkoniyati yaratiladi.

✓ **IoT tizimlari aniq va barqaror monitoringni ta’minlaydi** – nosozliklarni oldindan aniqlash va tezkor chora ko‘rish imkonini beradi.

Bu texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarini yanada samarali, ekologik xavfsiz va iqtisodiy jihatdan foydali qilishga yordam beradi. Kelajakda ushbu tizimlarni rivojlantirish avtomatlashtirish darajasini oshirib, raqamli transformatsiyani jadallashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. **Bolton, W.** (2015). *Instrumentation and Control Systems*. Elsevier. – SCADA va avtomatlashtirish tizimlarining asosiy nazariyalari va amaliy qo‘llanilishi.

2. **Krishna, C. R.** (2017). *Industrial Internet of Things and SCADA: Future Trends*. IEEE Transactions. – IoT va SCADA tizimlarining sanoatdagi qo‘llanilishi va istiqbollari.

3. **Mitra, A., & Roy, S.** (2019). *Smart Manufacturing: A Guide to Industry 4.0 Technologies*. Springer. – Sanoat 4.0 doirasida aqlli monitoring va avtomatlashtirish tizimlarining rivojlanishi.

4. **Daneels, A., & Salter, W.** (1999). *What is SCADA?*. CERN Report. – SCADA tizimlarining asosiy tarkibiy qismlari va ularning ishlash tamoyillari.

5. **Lee, J., Bagheri, B., & Kao, H. A.** (2015). *A Cyber-Physical Systems Architecture for Industry 4.0-based Manufacturing Systems*. Manufacturing Letters, 3(4), 18-23.– IoT, avtomatlashtirish va kiber-jismoniy tizimlar asosida ishlab chiqarishni optimallashtirish.

6. **International Energy Agency (IEA)**. (2022). *Digitalization and Energy*. – Energetika sohasida raqamlashtirish va avtomatlashtirishning yoqilg‘i sarfiga ta’siri.

7. **Chen, B., Wan, J., Shu, L., Li, P., & Mukherjee, M.** (2018). *Smart Factory of Industry 4.0: Key Technologies, Application Case, and Challenges*. IEEE Access, 6, 6505-6519. – IoT va SCADA tizimlarining aqlli zavodlardagi qo‘llanilishi va samaradorligi.

8. **European Environment Agency (EEA)**. (2021). *Reducing Industrial Emissions through Automation and AI*. – Avtomatlashtirish orqali atmosferaga chiqariladigan zararli gazlarni kamaytirish bo‘yicha tadqiqotlar.

9. Tavbaev J.S., Saparov B.J., Payzieva M., Narmanov O.A., Narmanov U.A. “Modeling theory of acquisition mode materials of high-strength flexible structures” International Journal of Mechanical Engineering. Vol. 6 No. 3 October-December, 2021

10. Tavbaev J.S., Saparov B.J., Narmanov U.A., Narmanov O.A. Research solution of the forming a flat structure of finite width from a high – temperature melt. Annals Of The Romanian Society For Cell Biology., ISSN: 1583-6258, Vol. 25, Issue 6, 2021, Pages. 312-317 Receieved 25 April 2021: Accepted 08 May 2021

11. B Saparov, M Rakhimov, D Mamatqulova, A Sangirov// Study of the brıttle-elastıc matrıx and deformatıons ın the struts// International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 7, Issue 02, February (2024)

12. Saparov Bobur, Rakhimov Murodullo, Sultanova Husnora, Gazakboyeva Sevinchoy// New-Generatıon Composıte Materıals: Advancesın Manufacturıng Technology// Amerıcan Journal of Educatıon and Learnıng Volume-3| Issue-2| 2025

13. Saparov Bobur, Rakhimov Murodullo, Sultanova Husnora, Gazakboyeva Sevinchoy// Efficıency of manufacturıng processes usıng modern materıals for product development: a revıew// International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers Volume-13| Issue-2| 2025

BO‘LAJAK INFORMATIKA FANI O‘QITUVCHILARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH SAMARADORLIGI BO‘YICHA ILMIY-TADQIQOT ISHLARINING TIZIMLI TAHLILI

Dilshod Sohibov,
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada pedagogik faoliyatning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan asosiy omillar, shuningdek, pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatga erishishning innovatsion va an’anaviy yo‘llari, bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlashda ta’lim jarayonlarining o‘rni va ahamiyati, ta’lim muhitini shakllantirishda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirishning dolzarb masalalari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarining mazmuni, ularning natijalari, pedagogik amaliyotga tatbiq etilishi va ushbu tadqiqotlarning ta’lim sohasidagi o‘zgarishlarga qanday hissa qo‘shayotgani haqida tizimli tahlil keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *informatika, axborot texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellect, avtomatlashtirish, raqamlashtirish, ta’limda axborot texnologiyalari.*

Аннотация

В статье глубоко проанализированы ключевые факторы, направленные на повышение качества и эффективности педагогической деятельности, а также инновационные и традиционные пути достижения успеха в педагогической деятельности, роль и значение образовательного процесса в подготовке будущих учителей информатики и информационных технологий к педагогической деятельности, актуальные вопросы развития профессионального потенциала будущих педагогов в формировании образовательной среды. Кроме того, приведен системный анализ содержания выполненных научно-исследовательских работ, их

результатов, внедрения в педагогическую практику и вклада этих исследований в изменения в сфере образования.

Ключевые слова: *информатика, информационные технологии, цифровые технологии, искусственный интеллект, автоматизация, цифровизация, информационные технологии в образовании.*

Abstract

The article provides an in-depth analysis of the key factors aimed at improving the quality and effectiveness of pedagogical activity, as well as innovative and traditional ways to achieve success in pedagogical practice. It examines the role and significance of the educational process in preparing future teachers of computer science and information technologies for pedagogical work, along with pressing issues related to developing the professional potential of future educators in shaping the educational environment. Additionally, a systematic analysis of the content of completed research works, their results, implementation in pedagogical practice, and the contribution of these studies to changes in the field of education is presented.

Keywords: *computer science, information technologies, digital technologies, artificial intelligence, automation, digitalization, information technologies in education.*

Dunyo hamjamiyatida globallashuv, avtomatlashtirish va raqamlashtirish jarayonlari tez sur’atlarda rivojlanayotganligi tufayli, bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarini har tomonlama yetuk pedagok sifatida tayyorlash katta ahamiyat kasb etmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik foliyatga tayyorlashda ilm-fan va innovatsiyalar yutuqlaridan keng foydalanish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon, mamlakatning munosib kelajagini qurishning muhim omili sifatida yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni ta’minlaydi. Ta’limda axborot texnologiyalarini keng joriy etish, o‘qitishda zamonaviy, interaktiv va ijodiy usullarni keng tatbiq etish orqali bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarning motivatsion, kognitiv, amaliy, refleksiv va o‘z-o‘zini baholash kabi ko‘rsatkichlar asosida ilmiy izlanishlarni amalga oshira oladigan qobiliyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashadi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida dars jarayonlarini innovatsion shaklda tashkil etish, o‘quv rejalarini zamon talablari bilan doimiy muvofiqlashtirib borish, talabalarning fanlarga qiziqishini oshiruvchi tizim yaratish, ta’limni zamonaviy yondashuvlar orqali tashkil etish, bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarining innovatsion bilimlarga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirish, pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini o‘rganish va ularni tizimlashtirish zaruratini ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta’lim o‘quv jarayonlarining sifatini yaxshilash, pedagog-kadrlarning bilim va ko‘nikmalarini xalqaro standartlarga mos ravishda oshirish, oliy ta’lim tizimini to‘liq raqamlashtirish, qolaversa zamonaviy dunyo tobora globallashib, axborot almashinuvi tezlashib borayotgan bir vaqtda yoshlarni axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanishga yo‘naltirish, ularga yuqori darajada bilim berish uchun bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarini kasbiy mahoratini oshirish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish oliy ta’lim tizimining dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Bo‘lajak “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash Respublikamizda rivojlanayotgan uzluksiz ta’lim tizimining ijtimoiy talablarga mos holda takomillashtirilayotgan o‘qitish metodikasida alohida o‘rin tutadi. Bu jarayonda yuzaga kelayotgan muammolarni hal etishda, avvalo, kunduzgi ta’lim shaklida o‘qitish jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy qilish, zamonaviy pedagogik metodlarni qo‘llash va zaruriy axborot infratuzilmasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning dasturlash, tarmoq texnologiyalari, ma’lumotlarni tahlil qilish kabi sohalardagi bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni o‘quvchilarning raqamli savodxonligini oshirishga yo‘naltirilgan faol dars usullari bilan boyitish talab etiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2022- yil 14-aprel kuni Axborot texnologiyalari vazirligining faoliyati va 2022-yildagi rejalari muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishda “Taraqqiyot strategiyasida raqamli iqtisodiyotni drayver sohaga aylantirib, IT xizmatlarini 2,5 barobar oshirish va eksportni 500 million dollarga yetkazish”[1] kabi muhim vazifalar belgilangan bo‘lib, axborot texnologiyalari sohasining dolzarbligi va bu borada qilinishi kerak bo‘lgan ishlar ko‘pligi, shu bilan birga ushbu soha rivojlanmasa, boshqa tarmoqlarning ham rivoji qiyinlashishi, axborot texnologiyalari har bir jabhada qo‘llanilishi va odamlarga qulayliklar yaratilishiga

asosli ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, bu esa jamiyatning umumiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shishini ko‘rsatadi.

Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan Matematika va informatika ta’lim yo‘nalishi talabalarining asosiy kasbiy faoliyat ob’yekti bu umumiy o‘rta ta’lim maktablari bo‘lib, uning o‘quv rejasidagi “Informatika va axborot texnologiyalari” fanining bo‘lajak o‘qituvchilari hisoblanadi. Informatika va axborot texnologiyalari fani – zamonaviy texnologiyalarni chuqur o‘rganish, axborotlarni samarali boshqarish va ulardan to‘g‘ri foydalanish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning axborot madaniyatini, raqamli savodxonligini, ilmiy va matematik bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan o‘qitish va ta’lim jarayoni bo‘lib, bu jarayon pedagogik texnologiyalarni integratsiya qilish, axborot tizimlarini yaratish va ular orqali ta’lim samaradorligini oshirishni ta’minlaydi. Bu fan, shuningdek, axborot texnologiyalari vositalarini o‘zlashtirish, innovatsion texnologiyalarni amaliyotda qo‘llash, pedagogik mahoratni rivojlantirish, shuningdek, ijtimoiy moslashuvchanlik, raqobatdoshlik va shaxsiy rivojlanish kabi kasbiy faoliyatni ta’minlovchi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Informatika va axborot texnologiyalari fanining asosiy maqsadi talabalarga zamonaviy axborot tizimlarini yaratish, ulardan samarali foydalanish va ularni o‘z pedagogik faoliyatida integratsiyalash imkoniyatlarini o‘rgatishdir. Ta’lim tizimida bu fan, talabalarning o‘quv-uslubiy tayyorgarligini kuchaytirish, ularning innovatsion pedagogik yondoshuvlarni o‘zlashtirish va axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Respublikamiz olimlaridan Sh.U. Usmonqulovning “Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish” nomli ilmiy-tadqiqot ishida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetentligi mazmuni va tarkibiy qismlari kurslar ichida optimallashtirilgan. Integrativ yondashuv asosida kompetentlikni rivojlantirish bosqichlari aralash ta’lim muhitida adaptiv didaktik topshiriqlar orqali takomillashtirilgan bo‘lib, kasbiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish usullari grafikli topshiriqlarni qayta ishlash va produktiv-dizaynli yondashuvlar orqali talabalarning akademik faoliyatida qo‘llanilgan. Kompetentlikni baholash mezonlari axborotni tahrirlashga oid pragmatik mashqlar va individual-refleksiya orqali ishlab chiqilgan [2].

Tadqiqodchi F.Sh. Shirinovning “Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining elektron metodik ta’minot yaratish kompetentligini rivojlantirish metodikasi (“Kompyuter grafikasi” fani misolida)” nomli ilmiy-tadqiqot ishida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining elektron metodik ta’minot yaratish kompetentligini rivojlantirish uchun elektron ta’lim resurslaridan foydalanishga oid uslubiy-didaktik ta’minot tizimi takomillashtirilgan. Bu jarayon kompetensiyaviy, metodologik va ijodiy yondashuvlar, loyihalash, izchillik, ko‘rgazmalilik, ta’limda onglilik va faollik tamoyillariga asoslangan bo‘lib, o‘qituvchilarning metodik-didaktik, pedagogik-psixologik va texnik-konstruktiv ko‘nikmalari takomillashtirilib, “Case study”, “Blended learning”, “Classic couple strategy” metodlari orqali uzluksizlik, tizimlilik va innovatsionlik tamoyillariga ustuvorlik berilgan. Jarayonni baholash mezonlari rivojlantiruvchi parametr va indikatorlar asosida strategik prognozlash va tizimlashtirish orqali takomillashtirilgan [3].

M.T. Mambetniyazovning “Web-texnologiyalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi” nomli ilmiy-tadqiqot ishida Web-texnologiyalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish metodikasi yosh xususiyatlari va didaktik maqsadlarning ta’sirini taqqoslash hamda vizual ma’lumotlar, animatsiyalar va Web-resurslarni alohida ehtiyojli talabalarga moslashtirish orqali takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish modeli onlayn platformalar, telekonferensiyalar, blog texnologiyalari va integrativ topshiriqlarni bosqichma-bosqich o‘rganish motivatsiyalari bilan mukammallashtirilgan. Kasbiy tayyorgarlik bosqichlari o‘quvchilarni mustaqil qidiruv-ijodiy faoliyatga, sayt yaratish va Web-resurslarni ishlab chiqishga yo‘naltirish orqali ijodiy fikrlashga oid jarayonlar asosida yaxshilangan. Shuningdek, Web-texnologiyalar orqali ta’lim mazmunining moslashuvchanligi va texnologik holatlari diagnostik modellashtirish orqali rivojlantirilgan [4].

Tadqiqotchi N.N. Zaripovning “Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda dasturlash muhitidan foydalanish metodikasini takomillashtirish (umumiy o‘rta ta’lim maktablari misolida)” nomli ilmiy-tadqiqot ishida umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida dasturlash muhiti bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun motivatsion, hamkorlikda o‘qitish, integratsiya va o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarini

rivojlantirish kabi pedagogik shart-sharoitlar aniqlangan. Delphi dasturlash muhitini o‘rgatishda dars tuzilmasi Access, Excel, Word kabi dasturlar bilan integratsiya qilinib, ma’lumotlarni eksport va import qilish orqali yaxshilangan. Dasturlash muhitini o‘qitish modeli o‘yin dasturlari, trenajerlar, multimedia vositalari va ilovalar yaratish orqali takomillashtirilgan. O‘quvchilarning dasturlashdan foydalanish samaradorligini oshirish uchun “Komponentalar bilan ishlash texnologiyasi” va “Mustaqil murakkab dasturlarni virtual ishlanmalar” kabi elektron resurslar asosida mashqlar to‘plami ishlab chiqilgan [5].

D.B. Sulaymanovaning “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini mediatexnologiyalar asosida o‘qitishning metodik tizimini takomillashtirish (5-sinf misolida)” nomli ilmiy-tadqiqot ishida, “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini mediatexnologiyalar asosida o‘qitish metodikasi axborot savodxonligi, raqamli kontent yaratish, xavfsizlik va hamkorlik ko‘nikmalarini algoritmik tafakkur bilan uyg‘unlashtirish orqali takomillashtirilgan. Ta’lim jarayoni hamkorlikda o‘qitish, teskari sinf, o‘yinlashtirish va VAK usullarini aralash ta’lim formatida qo‘llash orqali boyitilgan. Mustaqil o‘quv faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan metodika taym menejment va raqamli kompetensiyalarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Mediatexnologik resurslar “Web-quest+Mediatools” interfaol usuli yordamida o‘quv jarayoniga adaptiv qo‘llanilib, ta’lim samaradorligi oshirilgan [6].

Shu bilan birga bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida ularning kasbiy mahoratini oshirish, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash qobiliyatini rivojlantirish va o‘quvchilarga samarali ta’lim berish usullarini o‘rgatish kabi muhim masalalar yurtimizning bir qator taniqli olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar asosida chuqur o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlar natijalari asosida o‘qituvchilarning pedagogik samaradorligini oshirish, ularning innovatsion yondashuvlarni qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish va ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarni integratsiyalash bo‘yicha yangi metodik yechimlar ishlab chiqilgan.


Bugungi kunda Respublikamizning ta’lim jarayonida yangi islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta’lim tizimiga oid qonunlar ayniqsa Oliy ta’lim tizimiga oid qaror va farmonlar hamda konsepsiyalar qabul qilinmoqda. So‘nggi yillarda Respublikada ilmiy va innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, ta’lim tizimida universitetlarning o‘zaro raqobatbardoshliligini oshirish, ilmiy ishlanmalar va innovatsiyalarni tijoratlashtirish, shuningdek, korporativ sektorga iqtidorli kadrlar tayyorlash borasida amaliy tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Ta’lim sohasida bunday tub islohotlar, albatta, yurtimizning kelajakda rivojlanishiga va xalqaro miqyosda ta’lim va ilm-fan sohalarida o‘z o‘rnini topishiga katta hissa qo‘shadi [7].

Ushbu tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonida Respublikamizda 2003-2024-yillarda 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) ixtisosligidan bajarilgan dissertatsiyalarining umumiy soni to‘qson yetti (97) ta ekanligi va pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining umumiy soni to‘qson uchta (93) ta hamda pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalarining umumiy soni to‘rt (4) ta ekanligi ushbu tanlangan mavzuning dolzarbligini esa, o‘qitish metodikasiga oid bajarilgan tadqiqod ishlaridan bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash hamda axborot texnologiyalari fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish mazmunidagi dissertatsiyalarining umumiy soni uchta (21) ta bo‘lib, u ham bo‘lsa aynan 13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) ixtisosligidan pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiya tadqiqotlari amalga oshirilmaganligini ko‘rish mumkin (1.1-jadvalga qarang).

1.1-jadval

2003- 2024-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalaridan 13.00.02– Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) ixtisosligidan hamda Bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish mazmunidagi dissertatsiyalarining umumiy soni

2003- 2024-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalaridan 13.00.02– Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) ixtisosligidan dissertatsiyalarining umumiy soni		2003- 2024-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo‘yicha (PhD) va (DSc) dissertatsiyalaridan Bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish mazmunidagi dissertatsiyalarining umumiy soni	
97		21	
Shundan 13.00.02– Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) ixtisosligidan pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining umumiy soni	Shundan 13.00.02–Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologik ta’lim) ixtisosligidan pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalarining umumiy soni	Bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish mazmunidagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining umumiy soni	Bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish mazmunidagi pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalar umumiy soni
93	4	21	0



1.1-rasm. 2003- 2024-yillarda bajarilgan pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyalaridan 13.00.02–Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) ixtisosligidan hamda Bo‘lajak informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish mazmunidagi dissertatsiyalarining foizda ko‘rsatgichlari

Yuqoridagi 2003-2024-yillarda Respublikamiz miqyosida olib borgantadqiqot ishlarining tahlili bo‘lajak informatika fani o‘qituvchilarini pedagogik faoliyatga tayyorlash masalasiga alohida e’tibor qaratilganligini ko‘rsatadi. Tadqiqotlar natijasida samarali metodlar, innovatsion texnologiyalar va zamonaviy yondashuvlar asosida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etishi aniqlangan. Bu esa pedagogik jarayonning sifatini oshirish hamda zamonaviy ta’lim talablariga mos mutaxassislar tayyorlash imkoniyatini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Axborot texnologiyalari vazirligining faoliyati va 2022 yildagi rejalari muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilish nutqi. 14 aprel, 2022 - yil.
2. Usmonqulov Sh.U. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Chirchiq, 2023 – yil, 52 b.
3. Shirinov F. Sh. Bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining elektron metodik ta’minot yaratish kompetentligini rivojlantirish metodikasi (“Kompyuter grafikasi” fani misolida). Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent, 2023-yil. 58 b.
4. Mambetniyazov M.T. Web-texnologiyalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent, 2023 – yil. 43 b.
5. Zaripov N.N. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda dasturlash muhitidan foydalanish metodikasini takomillashtirish (umumiy o‘rta ta’lim maktablari misolida). Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati Buxoro, 2022- yil. 56 b.
6. Sulaymanova D.B. “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini mediatexnologiyalar asosida o‘qitishning metodik tizimini takomillashtirish (5-sinf misolida). Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertasiyasi avtoreferati Chirchiq, 2022 – yil. 41 b.
7. Lutfillaev M.H. Oliy ta’lim o‘quv jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalari iintegratsiyasi (Informatika va tabiiy fanlar misolida): Dis. dokt. ped. nauk. -Toshkent: O‘zDPITI, 2006. –212 b.
8. Lutfillaev M.H. Axborot texnologiyalari integratsiyasi asosida ta’lim samaradorligini oshirish // Kasb hunar ta’limi. –Toshkent, 2004. -№5. –B. 28-29.
9. Zaripov N. Informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda webfreelance faoliyati //sentr nauchnыx publikatsiy (buxdu. uz). – 2021. – T. 3. – №. 3.
10. Sohibov, D. (2023). О квадратичном стохастическом операторе с неподвижной точкой. *Innovations in Technology and Science Education*, *2*(10), 747-752.
11. Mamurov, B. J., Sharipova, M. Sh., & Soxibov, D. B. (2021). О неподвижных точках одного квадратичного стохастического оператора в С. *Problemы nauki*, (4 (63)), 13-16.

KORPUS-LINGVISTIKASINING IJTIMOIY ZARURIYATI VA ASOSIY XUSUSIYATLARI

Madina Ashirbaeva,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Lingvistika va ingliz tilini o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ko‘pgina taniqli olimlar (Sinclair, Leech, Biber, Francis, Johnson, Conrad, Hunston va McCarthy va boshqalar) korpus lingvistikasi bilan shug‘ullanib, uning rivojida ulkan rol ijro etishgan. Albatta, ulardan faqat bir nechtasininggina ishlarini ko‘rib chiqdik. Bu olimlar o‘tmishda ham, hozirgi kunda ham korpus lingvistikasi sohasiga katta hissa qo‘shib kelmoqda va ularning korpus xususiyatlari, yoki korpusni Internetdan ajratib turadigan muhim elementlari bo‘yicha bergan xulosalarini maqolamizda ko‘rib chiqildi. Ko‘plab korpusshunos olimlar Jon Sinklerni zamonaviy korpus tilshunoslarining eng nufuzli olimlaridan biri deb bilishadi. Sinkler so‘z o‘z-o‘zidan ma’noga ega emasligini aniqladi, lekin bu ma’no ko‘pincha u bilan birga keladigan so‘zlar ketma-ketligi orqali amalga oshiriladi degan g‘oyani berdi [Sinclair,1991]. Bu esa korpus lingvistikasining asosini tashkil etuvchi g‘oya bo‘lib xizmat qildi.

Kalit so‘zlar: *korpus, korpus lingvistikasi/tilshunosligi, autentiklik, reprezentativlik, korpus o‘lchami, muvozanat, O‘zbek Milliy Korpusi.*

Аннотация

Многие выдающиеся ученые (Синклер, Лич, Бибер, Фрэнсис, Джонсон, Конрад, Ханстон и Маккарти и другие) занимались корпусной лингвистикой и сыграли важную роль в ее развитии. Конечно, мы рассмотрели работы лишь некоторых из них. Эти ученые внесли значительный вклад в область корпусной лингвистики как в прошлом, так и в настоящем, и в нашей статье рассматриваются их выводы относительно особенностей корпусов или важных элементов, отличающих корпус от Интернета. Многие исследователи корпусной лингвистики считают Джона Синклера одним из самых влиятельных ученых среди современных корпусных лингвистов. Синклер обнаружил, что слово само по себе не имеет значения, но это значение часто передается через последовательность слов, которые его сопровождают [Синклер, 1991]. Эта идея легла в основу корпусной лингвистики.

Ключевые слова: *корпус, корпусная лингвистика, аутентичность, репрезентативность, размер корпуса, баланс, Узбекский национальный корпус*

Abstract

Many prominent scholars (Sinclair, Leech, Biber, Francis, Johnson, Conrad, Hunston and McCarthy, etc.) have been involved in corpus linguistics and have played a major role in its development. Of course, we have considered the work of only a few of them. These scholars have made significant contributions to the field of corpus linguistics both in the past and in the present, and their conclusions on the characteristics of corpora, or important elements that distinguish a corpus from the Internet, are considered in our article. Many corpus scholars consider John Sinclair to be one of the most influential scholars of modern corpus linguists. Sinclair established that a word does not have meaning by itself, but that this meaning is often carried out through the sequence of words that accompany it [Sinclair, 1991]. This idea served as the basis of corpus linguistics.

Keywords: *corpus, corpus linguistics, authenticity, representativeness, corpus size, balance, Uzbek National Corpus.*

So‘nggi yillarda tilshunoslarning ilmiy til doirasiga “matnlar korpusi” tushunchasi tobora ko‘proq kirib kelmoqda, uning asosida korpus lingvistikasi rivojlanmoqda**.** Bu tushuncha ilmiy adabiyotlarda “matnlar to‘plami”, “to‘liq matnli ma’lumotlar bazasi”, “elektron arxiv”, “elektron kutubxona” tushunchalari bilan birga mavjud bo‘lib, ko`pincha birlashib keladi. Tor ma’noda matn korpusi odatta ma’lum bir filologik va kengroq ma’noga ega bo‘lgan elektron shakldagi lingvistik (nutq) ma’lumotlarining birlashtirilgan, tizimlashtirilgan va belgilangan to‘plami sifatida tushuniladi.

Korpus bilan birgalikda korpus tilshunosligi konsepsiyasini ko‘rib chiqilishi zarur, chunki u dastlab korpus bilan shug‘ullangan akademik sohadir. Mavzuni to‘liq va progressiv tushunishni ta’minlash uchun va mavzuni yanada rivojlantirish uchun korpus tilshunosligining asosiy tamoyillari taqdim etilishi zarur bo‘ladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, “... korpuslarni tahlil qilish, xususan, generativ nazariyaga yo‘ki umuman til haqidagi nazariyaga hech narsa taklif qilinmadi deb o‘ylash xatodir” [Meyer, 2002]. Korpus lingvistikasida eng ommabop yondashuv, tilga nafaqat ijtimoiy kontekstda ham e’tibor qaratadigan *firthian* va *neofirthian* yondashuv hisoblanadi. Korpus lingvistikasining maqsadi tildan foydalanishning barcha empirik jihatlarini tavsiflashdan iborat va buning uchun Aarts (1993) tilning tavsifiy modeli uchun bir qator talablarni ishlab chiqdi va ular quyidagilar:

- Model ma’lumotlarning miqdor va sifat tavsifini birlashtirishga imkon berishi kerak;
- Model til tizimidan tashqaridagi hodisalar bilan tizim ichki hodisalar o‘rtasidagi munosabatni o`rnatishi kerak;
- Model o‘z-o‘zidan tahrir qilinmagan (odatda og‘zaki) tildan tortib, o‘z-o‘zidan tahrirlangan tildan foydalanishgacha (odatda yozma yoki bosma) turlarning to‘liq spektrini tavsiflash imkonini berishi kerak;
- Model sintaktik, leksik va nutq xususiyatlarini yaxlit tavsiflash imkonini berishi kerak. [Aarts in Olohan, 2013,424].

Korpus lingvistikasi lingvistik javoblarni sifat va miqdoriy tahlil orqali izlashga harakat qiladi. Korpus lingvistikasida Internetdan foydalanish tadqiqotga yangi imkoniyatlarni qo‘shadi, u “...tildan foydalanish bo‘yicha umumlashmalarni amalga oshirishga imkon beradi, e’tiborni va qiziqishni odatda nima sodir bo‘layotganiga emas, balki nima sodir bo‘lishi mumkinligiga e’tibor qaratishni ta’kidlaydi”[Kennedy, 1998].

Korpuslarni matnlar to‘plami sifatida tavsiflovchi ta’riflar mavjud bo‘lsa ham, biz ularni bundan-da kengroq ko‘rib chiqishimiz kerak bo‘ladi. Agar biz korpusni faqat matnlarning oddiy to‘plami sifatida tan oladigan bo‘lsak “bir nechta matndan iborat deyarli har qanday to‘plamni ... korpus deb atash mumkin” [McEnery & Wilson, 2001] va bu tadqiqotchilar va tilshunoslar uchun juda qiyin bo‘lar edi.

Korpusni o‘rganish doirasini cheklash uchun tilshunoslar korpusning “...asosiy mezonlar va standartlarni o‘z ichiga olgan” (aniq va bilvosita) ta’riflarini taklif qilishdi [Gatto, 2013], ya’ni yuqorida keltirilgan ta’riflar.

Korpus tadqiqotlari bo‘ylab ko‘plab standart ta’riflar mavjud, ammo rekvizit bo‘yicha fundamental kelishuv: “korpus matnlari haqiqiy, ifodali va mashina tomonidan o‘qilishi shart” [McEnery & Xiao, 2006] degan xulosaga kelishgan. Korpus hisobga olishi kerak bo‘lgan boshqa muhim elementlar ham bo‘lib ular balans, namuna olish bo‘lib, bunga o‘lcham va tarkib ham kiradi.

B.B. Rikov korpus xususiyatlari to‘g‘risida shunday ta’riflarni beradi: “korpus lingvistikasida qabul qilingan korpusning ta’rifi 4 ta asosiy xususiyatlarni qamrab oladi: korpusning mashina dasturlari orqali joylashtirilishi, og‘zaki materiallarning standart ko‘rinishi, maxsus tanlov natijasida reprezentativlik, kvalitativ, kvantitativ o‘lchamlar ilmiy adabiyotlarda eng muhim xususiyatlari” [B.Rikov, 2004]

Yana boshqa rus olimi korpus rivojiga katta hissa qo‘shgan korpusshunos olim V. Plungyan ham til korpusini “elektron shaklda kiritiladigan va ilmiy texnikalar bilan ishlangan, aniq bir tildan olingan matnlar to‘plami” [Plungyan] deb ta’riflagan. Y. Kratovaning fikriga ko‘ra, korpus—bu “bir asosli matnlar, ya’ni bir turdagi foydalanuvchilar tomonidan ma’lum vaziyatlarda qo‘llaniladigan yoki yoziladigan ma’lum bir sohani qamrab olgan matnlar to‘plami” [E.B.Kratova, 2013] deb tushuntirgan.

Ko`p olimlarning ta’riflarida keltirilgan haqiqiylik (autentiklik) xususiyati deganda, korpus tanasi haqiqiy og‘zaki va yozma matnlardan iborat bo‘lishi kerak. Eksperimental sharoitlardan va suniy holatlardan olingan ma’lumotlar hech qanday tadqiqot uchun haqiqiy emas, chunki u tadqiqotning boshqa tabiiy natijalari qatoriga sun’iy yoki o‘zgartirilgan ma’lumotlarni kiritadi. Bu sifat reprezentativlik bilan chambarchas bog‘liq. Haqiqiy matn yoki sun’iy bo‘lmagan matn tilning adekvat ifodasi bo‘ladi. Masalan, “televidenie interviyulari matnlari tabiiy bo‘lib ko`rinishi mumkin, ammo ular tomoshabinlarning e’tiborini jalb etadigan javoblarni olish uchun ataylab sun’iy sharoitlarga qo‘yiladi” [Dash, 2015].

Korpus hisobga olishi kerak bo‘lgan yana bir muhim element—bu reprezentativlik. Korpuslarning akademik jihatdan an’anasiga ko‘ra reprezentativlik korpusning muhim xususiyati sifatida kiritilgan [Francis,1992; Biber va boshqalar, 1998]. Francis korpus deganda “ma’lum bir til, dialekt yoki tilning boshqa quyi to‘plamining vakili bo‘lgan lingvistik tahlil uchun foydalaniladigan matnlar to‘plami” deb tushundi [Francis, 1992]. Xuddi, shu satrlarda Biber quyidagilarni keltirib o‘tgan:

“Korpus shunchaki matnlar to‘plami emas, aksincha, korpus tilni yoki tilning biron bir qismini ifodalashga intiladi. Shu sabab, korpus uchun to‘g‘ri dizayn va u nimani ifodalashi kerakligiga bog‘liq. Korpusning reprezentativligi, o‘z navbatida, hal qilinishi mumkin bo‘lgan tadqiqot savollarining turlarinini va tadqiqot natijalarining umumlashtirilishini belgilaydi” [Biber, 1998].

“Reprezentativlik” korpus nima ekanligi haqidagi ikkala ta’rifda ham ko‘rsatilgan yagona umumiy xarakterli element ekanligini ta’kidlash muhimdir. Korpus nima ekanligini aniqlashga urinayotganda “reprezentativlik” tushunchasi paydo bo‘lishi juda keng tarqalgan, chunki korpusning yakuniy maqsadiga tegishli va yakuniy xulosa chiqarish uchun tilni yoki uning bir qismini ifodalashdir. Korpus tilshunosligining maqsadi “individual ishlash darajasidagi til namunalarida” tendensiyalar va so‘z shakllarini topish [Gatto, 2013], shuning uchun korpusda ma’lum qilingan tilning autentikligi (haqiqiyligi) va reprezentativligi uni shunday qimmatli va foydali vositaga aylantiradi. Boshqacha qilib aytganda, korpus tilshunosligi va uning evolyutsiyasi tadqiqotlari natijalari ushbu ikki qadriyatga asoslanadi va shuning uchun ular korpusda juda muhimdir.

Korpusning o‘lchami haqida gap ketganda, kelishilgan taxminiy standart o‘lcham mavjud emas. Har bir korpusning o‘z maqsadi va ma’lumotlari bor, shuning uchun maqbul o‘lcham nima ekanligini aniqlash juda murakkab. Shubhasiz, talaba tomonidan 30 daqiqada yaratilgan korpus tadqiqot maqsadlari uchun mo‘ljallangan korpus bilan bir xil o‘lchamda bo‘lmasligi mumkin. Tadqiqot maqsadlari uchun tuzilgan korpus obyektlarining til shakllarining turli dalillarinini taqdim etishga harakat qiladi, shuning uchun dalil sifatida muhim ma’lumotlarni taqdim etish uchun u etarlicha katta va izchil bo‘lishi kerak. Aksincha, bir marta foydalanish uchun yaratilgan

korpus nisbatan ancha kichikroq bo‘lgan. Bu kamchilik vaqt o‘tishi va texnologiyaning hajmi eksponent ravishda o‘sdi va kengayib bormoqda.

Misol tariqasida, birinchi kompyuterlashtirilgan korpus, Broun korpusi bir million so‘z hajmiga ega edi va Collins Cobuild Bank of English kabi hozirgi zamon korpusida 650 million so‘z va WebCorpora 1 milliard so‘zni tashkil qilishi mumkin. Bu 1 millard so‘zli korpus ehtimol vaqt o‘tishi bilan eskirib qoladi. Korpusga tegishli haqiqat shundan iboratki, korpus qanchalik katta bo‘lsa o‘zida shunchalik ko‘p ma’lumotlarni saqlaydi, ammo bu ma’lumotlarning barchasi ham mavzu va tadqiqot maqsadi uchun foydali bo‘lmasligi mumkin.

Til korpusining asosiy xususiyatlaridan biri, ya’ni uni internetdan ajratib turadigan tomoni, undagi keltirilgan til ma’lumotlari shakli (yoki muvozanati) bo‘lib, u korpusdagi turli davrlar va janrlardagi matnlarning mutanosib shakli sifatida tushuniladi, bu esa o‘z navbatida kerakli to‘liqlik va o‘ziga xoslikni ta’minlaydi.

O‘zbekistonda korpus va korpus lingvistikasining shakllanishi 2018-yillarda nazariy jihatidan o‘rganishlar bilan boshlanadi, va 2021 yilda O‘zbek tilining ta’limi korpusi yaratilishi bilan amaliy jihatdan rivojlana boshladi. Ayni o‘zbek korpusshunosligining rivojlanishi borasida M.Abjalovaning darsligida ko‘rsatib o‘tilgan. Bunga ko‘ra o‘zbek tilshunosligida korpus lingvistikasi rivoji jadallashganligi, amaliy ishlanmalar foydalanuvchilarga taqdim etilganligi va bu soha aslida kompyuter lingvistikasi zamirida rivojlanganligini ta’kidlagan. Demak, o‘zbek korpusshunosligida katta hajmli matnlar ustida ishlash, maxsus elektron matnlar majmuining ko‘plab ta’limiy tadqiqotlar borasida dastlabki fikrlarni A.Polatov, A.Rahimovlar tomonidan ilgari surilgan. Keyinchalik B.Mengliyev, Sh.Xamroyeva, M.Abjalova, A.Eshmuminov, D.Axmedova, O`.Xoliyorov, N.Abdurahmonova, G.Toirova, D. O‘rinboyeva, B.Elov va A.Raxmanova tomonidan korpuslar va ularning turlari tadqiq etilgan [M.Abjalova]. Tadqiqotlar natijasida quyidagilar mualliflik tadqiqotlar o‘rganildi:

- Korpus tuzishning lingvistik asoslari [Sh.Xamroyeva]
- Tabiiy tilni qayta ishlash [M.Abjalova]
- Sinonim so‘zlarni semantik teglash [A.Eshmuminov]
- O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish [L.Raupov, B.Elov, M.Abjalova, R.Alayev]
- Atov birliklarini leksik-semantik teglash [D.Axmedova]
- Elektron korpuslar modellari
- Korpus tuzishning kompyuter ususllari [A.Rahmanova]

Ushbu nazariy tadqiqotlar natijasida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida ilmiy jamoa tomonidan “O‘zbek tilining ta’limiy korpusi” yaratildi va bu bilan o‘zbek korpusshunosligida O‘zbek Milliy Korpusiga tamal toshi qo‘yildi. Hozirda ushbu korpusda matnlar bazasi boyib bormoqda.[M.Abjalova, 2021] Ushbu mavzuda yana kengroq ta’riflar berilishi shart degan fikrga qo‘shilgan holda, bu borada keyingi maqolalarimizda kengroq izohlar berib tahlil qilinib, o‘rganib chiqiladi.

Xulosa. Ushbu maqolada korpus va korpus lingvistikasining nazariy jihati ko‘rib chiqildi va tahlil qilindi. Bunda korpus va lingvistikasining nima ekanligini aniqlash va bu birmuncha qiyinligini ko‘rish uchun turli olimlarning bergan ta’rif va izohlari taqdim etildi. Maqolada taqdim etilgan barcha izohlar bilan o‘quvchi mavzu bo‘yicha o‘z xulosalarini chiqarishi mumkin, yoki aksincha, chunki bu savolga, hatto olimlar tomonidan ham aniq bir fikrga kelingan javob bo‘lmasligi mumkin. Olimlar tomonidan universal ta’rif bo‘yicha kelisha olmasligining sabablaridan biri, korpuslar doim ularni yaratadigan maqsad va ma’lumotlarga bog‘liq bo‘lib, ular doim o‘zgarib turadi degan faktlarga asoslanishi mumkin. Va yana bu mavzu har doim rivojlanib, ta’kidlanganidek o‘zgarib boradi. Va maqolada ko‘rib chiqilgan korpus elementlari bo‘yicha ko‘pgina olimlarning fikrlarini umumlashtirilgan holda shuni ta’kidlash mumkin bo‘ladi. Ulardan eng asosiylari bu—autentiklik, reprezentativlik, aniq o‘lcham va muvozanatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aarts, J. (1999). ‘The description of language use’. H. Hasselgård & S. Oksefjell (eds) (1999). Out of Corpora: Studies in honour of Stig Johansson. Amsterdam and Atlanta;

2. Abjalova M. Korpus lingvistikasi. Uslubiy qo`llanma/ M.A Abjalova.—Toshkent: Bookmany print, 2022.—103 b.

3. Biber, D., Conrad, S. and Reppen, R. (1998), ‘Corpus Linguistics. Investigating Language Structures and Use’. -Cambridge: Cambridge University Press., 1998.-286 p.

4. Dash, N.S., “Corpus based language teaching: A new method”//Proceedings of the Orientation-Cum-Workshop Programme on recent trends in language teaching, Institute of advanced studies in education, Kalkutta, India, 2010,-vol 13.1. 200-207 p.

5. Francis, N.W. “Language corpora B.C.”, in J. Svartvik (ed.), 17 p.

6. Gatto, M. (2013). ‘The Web as Corpus: Theory and Practice Cambridge: Cambridge University Press

7. Meyer Ch.F. English corpus linguistics: An Introduction. Cambridge University Press, 2002.-p.68.

8. McEnery, A. M., & Wilson, A.(2001). Corpus linguistics: An Introduction. Edinburgh: Edinburgh University Press

9. Sinclair, J. Corpus, concordance, collocation.—Oxford, UK: Oxford University Press., 1991-pp. 13-18.

10.Кратова Е. Б. Корпусная фразеография на материале немецкого языка.—дисс.канд.фил.наук.-Москва.: 2013.-296 с.

11.Плунгян В.А. Корпус как инструмент и как идеология о некоторых уроках современной корпусной лингвистики// Русский язык в научном освещении.—Москва, 2008.-№ 02 (16).-с. 7-20.

12.Рыков В.В. Корпус текстов как онтология речевой деятельности и труды международного семинара Диалог. -М.: Наука, 2004-59-61с.

FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE CHORAL GENRE IN KARAKALPAKSTAN

Altinay Bekpolotova,
Nukus region of the Uzbek State Institute of Arts and Culture
Senior Lecturer of the Department of Vocal

Annotation

This scientific article is devoted to the formation of choral music in Karakalpakstan, the stages of its development, and its place in cultural heritage. The article analyzes the features of Karakalpak choral music, its unique styles and structure. The role of local traditions, folk music, and cultural heritage in the formation and development of choral music is examined. The article also examines the historical development of the choral genre and the role of the choir in Karakalpak music in the modern era. The role of the choir in Karakalpak music and its significance as a cultural heritage are emphasized. The types of choral music, their differences and similarities, as well as the stages of development of choral ensembles and groups, are highlighted.

Keywords: *Karakalpak choral music, features of choral music, stages of development of the choral genre, the role of the chorus in Karakalpak music, cultural heritage, features of choral music.*

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqola Qoraqalpog‘istondagi xor musiqasi, uning rivojlanish bosqichlari va madaniy merosdagi joyni shakllantirishga bag‘ishlangan. Maqolada qoraqalpoq musiqasi, uning o‘ziga xos uslublari va tuzilishi tasvirlangan. Xor musiqani shakllantirish va rivojlantirishda mahalliy urf-odatlar, xalq musiqasi va madaniy merosining roli ko‘rib chiqiladi. Maqolada zamonaviy davrda xor janrining tarixiy rivojlanishi va xorning roli qoraqalpoq musiqasida qanday o‘ringa ega ekanligi ta’kidlanadi. Xorning qoraqalpoq musiqasida va madaniy meros sifatida uning ahamiyati qayd etilgan. Xor musiqasi, ularning farqlari va o‘xshashliklari, shuningdek, xor ansambllari va guruhlarini rivojlantirish bosqichlari ajratib qo‘yilgan.

Kalit so‘zlar: *Qoraqalpoq xor musiqasi, xor musiqasining xususiyatlari, xor janrining rivojlanish bosqichlari, Qoraqalpoq musiqasida xorning roli, madaniy meros.*

Аннотация

Эта научная статья посвящена формированию хоровой музыки в Каракалпакстане, этапам ее развития и ее месту в культурном наследии. В статье анализируются особенности хоровой музыки

Каракалпака, ее уникальных стилей и структуры. Рассматривается роль местных традиций, народной музыки и культурного наследия в формировании и развитии хоровой музыки. В статье также рассматривается историческое развитие хорового жанра и роль хора в музыке Каракалпака в современную эпоху. Подчеркивается роль хора в музыке Каракалпака и его значение как культурного наследия. Выделены типы хоровой музыки, их различия и сходства, а также стадии развития хоровых ансамблей и групп.

Ключевые слова: *Каракалпакская хоровая музыка, особенности хоровой музыки, этапы развития хорового жанра, роль хора в каракалпакской музыке, культурное наследие*

Introduction. Karakalpak choral music has its roots in the music of the ancient Turkic and Mongolian peoples. Historical processes, in particular, the unique culture of Central Asia, Khorezm, and Karakalpakstan, had a great influence on its development. In the period of early formation, the first forms of choral music date back to the pre-Christian era. Like many peoples of Uzbekistan, the Karakalpaks, preserving their musical traditions, strived to express every event or situation in vocal performance and songs. [1, 102]

During the Middle Ages, the Karakalpak people interacted extensively with Khorezm and other medieval regions, and during this period, new elements appeared in their music. Influences on the music of the Uzbek, Turkmen, and other Central Asian peoples, in particular, intensified. The history of choral music is an integral part of the cultural history of the Karakalpak people. The music of the Karakalpak people was formed and developed differently in different periods.

Literature analysis and methodology. 19th century: In the 19th century, Karakalpak choral music was more commonly used in military and religious ceremonies. In this period, the elements that make up the song, singing, and choir in music had a more religious meaning. 20th century: In the 20th century, Karakalpak choral music, during the period of Uzbekistan's independence, was based on the development of its own distinctive imagery and voices. During this period, choral music existed in performance forms based on numerous theatrical and ensemble developments, and a number of popular choral ensembles were formed.[2, 44] Soviet period: Although the development of Karakalpak choral music during the Soviet period was somewhat limited, the folk and national approach to music was preserved. Also, at that time, it was observed that the choir was mainly integrated with Russian and Uzbek music. Today, Karakalpak choral music, while remaining faithful to its folk traditions, is enriched with modern musical styles. New musical technologies and global musical influences have brought new forms and styles to this genre. However, Karakalpak choral music has not abandoned its traditional aspects, in particular, the harmony of vocal voices and performance styles.

The choral genre originated from the ancient traditions of the Karakalpak people, which initially passed down from generation to generation mainly orally. The first steps consisted mainly of various events, rituals, and songs related to nature. During this period, choral songs were mainly dedicated to work songs, everyday life, and labor processes. The Karakalpak people have historically undergone many cultural and social changes.[3, 95]During this period, the choral genre developed and became an important component of folk art. In particular, various musical instruments (dombra, dutar, accordion, and others) have become an integral part of songs and music. Among the people, choral music is often aimed at promoting mutual relations, kindness, and peace.

During the Soviet era, the traditional choral music of the Karakalpak people underwent many changes. For a long time, the genre of folk music and choir developed under the influence of Soviet policy, and attempts were made to preserve its individual characteristics. However, at the same time, the process of modernization of choral music was also carried out, new methods, genres, and styles of music became popular. During the Soviet era, the choral genre participated in many international festivals and music competitions.

Results and discussion. In Karakalpakstan, the choral genre has undergone its own development in historical processes. If in previous periods it depended on the labor, nature, and customs of the people, then later, under the influence of the Soviet era, with the advent of independence, it transitioned to new stages. Currently, the choral genre has largely adapted to all trends in contemporary music while preserving national values and musical traditions. The cultural heritage of the Karakalpak people is manifested mainly in oral traditions, folk songs, and musical genres. Choral music is one of such folk traditions.[4, 16] Choral songs were originally passed down orally from generation to generation, they were dedicated to various ceremonies, events, guests, and holidays, reflecting the social life, labor, love, customs, and traditions of the people. By the beginning of the 20th

century, the musical culture of the Karakalpak people had entered the initial stage of its development. During the Soviet era, culture and art, including choral music, also faced political influences. Nevertheless, the choral genre retained its unique characteristics. After independence, choral music again entered a new stage in the preservation and development of national values. A deep analysis of the features of Karakalpak choral music reveals a number of specific and distinctive features. Some of them are:

Melodic structure: Choral music mainly has a wide range and repetitive melodies. Often, unchanging melody and rhythm prevail in songs, which creates harmony and unity among musical performers. The originality of the melodies was formed, in particular, from the natural landscapes of the Karakalpak people, from the musical influences of hotels and neighboring peoples.[4, 22] Vocal characteristics: Vocal expression plays an important role in Karakalpak choral music. Often, choral songs are performed by a large group, in which one can observe a vocal balance and proportionality between men and women. There are distinct variations in the vocal styles, musical phrases, and rhythmic structure of women and men.

Rhythm and tempo The rhythm of choral music is very important. Usually, triad and quatrain rhythms are used in music, which ensures the uniqueness of folk music. Increased rhythm and changes in tempo enhance the expressiveness of music and enhance its psychological impact.[3, 92] Musical Instruments The use of musical instruments in choral music also deserves special attention. Choir performers often use traditional musical instruments such as the dombra, dutar, accordion, and tambur.[3, 93] These instruments are especially necessary for melodic and harmonic support. Choir songs often reflect the customs, values, relationships, and work life of the people. In choral music, lyrical texts are often connected with nature and social life, calling on students to understand not only the music itself, but also its meaning and spirituality.

Earlier periods (ancient period): Choral music originated from oral folk art. Folk songs were mainly dedicated to the natural environment, labor processes, and customs, which people performed together while performing their work or during holidays. During this period, social needs played a key role in the formation of the choral genre. Soviet era: During the Soviet era, choral music developed as part of cultural policy. During this period, choral music was more focused on reflecting collectivism and the spirit of the public. Choral music was also adapted to state policy, and in some cases, rules prohibiting traditional folk expressions were applied.[5, 136]

Conclusion. In Karakalpakstan, choral music, as a cultural heritage of the people, has developed and preserved its characteristics over various historical periods. Its melodic structure, vocal expressions, rhythmic and poetic features, as well as the use of musical instruments are important aspects that distinguish this genre. The development of choral music, under the influence of social and cultural changes, including national independence, moved to new stages, which allowed the genre to develop in new forms, based on modern trends. Choir music is of great importance for preserving the cultural identity of the Karakalpak people and passing it on to future generations.

REFERENCES:

1. Шарипова Г., Ходжаева З. Мусиқа ўқитиш методикаси. – Тошкент: “НИФ МШ”. 2020. 136 б.
2. Надирова А. Қарақалпақ музыка тарийхы. – Ташкент: “Сано-стандарт”. 2018. 384-б.
3. Надирова А. Қарақалпақ музыка тарийхы. – Ташкент: “Сано-стандарт”. 2018. 384-б
4. Ayımbetov Q. Xalıq danalıǵı. – Nókis: Qaraqalpaqstan,1988; 79-bet.
5. Jarimbetov Q. Nizamatdinov J. Allambergenova I. Qaraqalpaq folklorı. – Tashkent: “Nano-standart”. 2018. 256 b.

MOTIVATSIYA TURLARI VA UNING TA’LIMDAGI ROLI

Avazbek Barotov,
Buxoro davlat pedagogika instituti Biologiya kefedrasi dotsenti, (PhD)
Mexriniso Sharipova,
Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqola Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Rayhon Beruniyning o‘qituvchining o‘z bilimini doimiy ravishda takrorlashi va yangi bilimlarni o‘zlashtirishi o‘qitish jarayonining samaradorligiga bevosita ta’sir etishi haqidagi g‘oyalarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogning kasbiy mahorati nafaqat sohadagi chuqur bilimlarida, balki ularni turli xil pedagogik metodlar orqali dars jarayoniga muvaffaqiyatli tatbiq eta olish qobiliyatida ham namoyon bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: *didaktik vositalar, akademik maqsadlar, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya, ijtimoiy bilish, individuallik, operativ shartlash.*

Аннотация

Данная статья посвящена анализу представлений великого мыслителя Востока Абу Райхана Беруни о том, что постоянное повторение учителем собственных знаний и усвоение новых знаний напрямую влияет на эффективность процесса обучения. В современной системе образования профессионализм педагога проявляется не только в его глубоких знаниях в данной области, но и в умении успешно применять их в процессе урока с помощью различных педагогических методов.

Ключевые слова: *дидактические средства, академические цели, внутренняя мотивация, внешняя мотивация, социальное познание, индивидуальность, оперантная обусловленность.*

Annotation

This article is devoted to the analysis of the ideas of the great thinker of the East Abu Rayhan Beruni that the constant repetition of a teacher's own knowledge and the assimilation of new knowledge directly affects the effectiveness of the learning process. In the modern education system, the teacher's professionalism is manifested not only in his deep knowledge in this field, but also in the ability to successfully apply them in the teaching process using various pedagogical methods.

Keywords: *didactic means, academic goals, intrinsic motivation, extrinsic motivation, social cognition, individuality, operant conditioning.*

Kirish. Ta’lim – shaxs kamolotining, jamiyat taraqqiyotining va kelajak bunyodkorligining muhim asosi. XXI asr globallashuvi va axborot texnologiyalari davrida ta’limning ahamiyati yanada ortib, unga qo‘yilayotgan talablar ham o‘zgarmoqda. Bugungi kunda ta’lim tizimi o‘quvchilarni nafaqat bilim bilan qurollantirishi, balki ularda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, muammolarni hal etish va o‘z ustida ishlash kabi muhim ko‘nikmalarni ham shakllantirishi zarur. Bu esa ta’lim jarayonida motivatsiyaning o‘rni beqiyos ekanligini yaqqol namoyon etadi.

Motivatsiya – o‘quvchilarni bilim olishga undovchi, ularning qiziqishini oshiruvchi va maqsad sari yo‘naltiruvchi ichki kuchdir. Motivatsiyaga ega o‘quvchilar darslarda faol ishtirok etadilar, topshiriqlarni sidqidildan bajaradilar va yangi bilimlarni o‘rganishga doimo intiladilar. Motivatsiya ta’lim natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, chunki yuqori motivatsiyaga ega bo‘lgan o‘quvchilar yaxshi natijalarga erishadilar va o‘quv materialini chuqurroq anglaydilar.

Buyuk qomusiy olim, mutafakkir va pedagog Abu Rayhon Beruniyning ta’lim va ilmga bo‘lgan qarashlari hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Beruniy o‘z asarlarida ilmga va bilimga bo‘lgan ehtiyojni doimo ta’kidlagan, shuningdek, o‘quvchilarga motivatsiya berishga ham alohida e’tibor qaratgan.

Beruniyning fikricha, ilm – insonning eng oliy maqsadlaridan biri bo‘lishi lozim. U ilm olishni hayotning ma’nosi deb bilgan va har bir insonni bilim olishga, o‘rganishga va izlanishga chorlagan. Beruniyning

ta’kidlashicha, ilm insonni jaholatdan qutqaradi, unga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadi va jamiyatga foyda keltirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada motivatsiyaning ta’limdagi o‘rni va ahamiyati, uning turlari, shuningdek, o‘quvchilarni motivatsiyalash usullari Abu Rayhon Beruniyning ta’limiy qarashlari asosida tahlil etiladi. Maqsad – ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarga o‘quvchilarni motivatsiyalash va ularning muvaffaqiyatli ta’lim olishlari uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni berishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Motivatsiya ta’lim sohasida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini, faolligini va muvaffaqiyatini belgilaydi. Ushbu adabiyotlar tahlili motivatsiyaning turli xil nazariyalari va ta’limdagi rolini o‘rganadi.

Ichki va tashqi motivatsiya: Deci va Ryan (1985) tomonidan ishlab chiqilgan o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi (Self-Determination Theory) ichki va tashqi motivatsiyani farqlaydi. Ichki motivatsiya shaxsning o‘z qiziqishi va zavqi uchun faoliyat bilan shug‘ullanishini anglatadi, tashqi motivatsiya esa tashqi mukofotlar yoki jazolardan kelib chiqadi [1].

Kutish nazariyasi: Vroom (1964) tomonidan taklif etilgan kutish nazariyasi motivatsiyani uchta omil bilan bog‘laydi: kutish (harakatning muvaffaqiyatga olib kelishi), instrumentalizm (muvaffaqiyatning mukofotga olib kelishi) va valentlik (mukofotning qiymati) [2].

Maqsadga yo‘naltirilganlik nazariyasi: Dweck (1986) maqsadga yo‘naltirilganlik nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchilarning motivatsiyasi o‘z maqsadlariga bog‘liq. Ular o‘rganish maqsadiga (bilim olishga intilish) yoki ishlash maqsadiga (boshqalarga yaxshi ko‘rinishga intilish) yo‘naltirilishi mumkin [3].

Tadqiqot metadologiyasi. Motivatsiya – bu shaxsni muayyan maqsadga erishish uchun harakatga undaydigan ichki kuch. Ta’lim sohasida motivatsiya o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini, intilishini va faolligini oshirishga xizmat qiladi. Motivatsiyaga ega o‘quvchilar o‘quv jarayonida faol ishtirok etadilar, yangi bilimlarni o‘rganishga intiladilar va o‘zlarining qobiliyatlarini rivojlantirishga harakat qiladilar.

Motivatsiya ikki asosiy turga bo‘linadi: ichki va tashqi motivatsiya.

−Ichki motivatsiya: Bu o‘quvchining o‘z ichki qiziqishlari, ehtiyojlari va qadriyatlaridan kelib chiqadigan motivatsiya. Ichki motivatsiyaga ega o‘quvchilar o‘qish jarayonidan zavq olishadi, yangi bilimlarni o‘rganishga intilishadi va o‘zlarining qobiliyatlarini rivojlantirishga harakat qiladilar. Ichki motivatsiya o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashuvga va o‘z-o‘zini rivojlantirishga undaydi.

−Tashqi motivatsiya: Bu o‘quvchining tashqi omillar (mukofot, jazo, baho, e’tirof) ta’sirida paydo bo‘ladigan motivatsiya. Tashqi motivatsiyaga ega o‘quvchilar yaxshi baho olish, maqtov eshitish yoki jazodan qochish uchun o‘qishadi. Tashqi motivatsiya o‘quvchilarni ma’lum bir vazifani bajarishga undashi mumkin, lekin u ichki motivatsiya kabi uzoq muddatli va barqaror emas.

Bundan tashqari, motivatsiyani ijobiy va salbiy turlarga ham ajratish mumkin:

−Ijobiy motivatsiya: O‘quvchining muvaffaqiyatga erishish, maqsadga yetishish va ijobiy natijalarga erishishga intilishi bilan bog‘liq motivatsiya.

−Salbiy motivatsiya: O‘quvchining muvaffaqiyatsizlikdan qochish, jazodan qo‘rqish va salbiy oqibatlardan saqlanishga intilishi bilan bog‘liq motivatsiya.

−Motivatsiya ta’lim jarayonida muhim rol o‘ynaydi. U o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning faolligini va mustaqilligini ta’minlaydi, o‘zlashtirish darajasini yaxshilaydi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorlaydi.

−Qiziqishni oshirish: Motivatsiya o‘quvchilarni o‘quv materiallariga qiziqish bilan yondashishga undaydi. Qiziqish bilan o‘qigan o‘quvchilar yangi bilimlarni osonroq o‘zlashtiradilar va o‘quv jarayonidan zavq olishadi.

−Faollikni ta’minlash: Motivatsiya o‘quvchilarni darslarda faol ishtirok etishga, savollarga javob berishga, munozaralarda qatnashishga va mustaqil ishlashga undaydi.

−O‘zlashtirishni yaxshilash: Motivatsiya o‘quvchilarni o‘quv materiallarini yaxshiroq o‘zlashtirishga va yuqori natijalarga erishishga undaydi.

−Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish: Motivatsiya o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga, yangi g‘oyalarni yaratishga va muammolarni hal qilishga undaydi.

−O‘ziga ishonchni mustahkamlash: Motivatsiya o‘quvchilarni o‘zlarining qobiliyatlariga ishonishga va muvaffaqiyatga erishishga undaydi.

−Kasbiy faoliyatga tayyorlash: Motivatsiya o‘quvchilarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlaydi, ularga o‘z sohalarida muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni beradi.

Ta’lim jarayonida motivatsiyani oshirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

−O‘quv materiallarini qiziqarli va hayotiy misollar bilan bog‘lash: O‘quv materiallarini real hayotdagi vaziyatlar, kundalik tajribalar va o‘quvchilarning qiziqishlari bilan bog‘lash orqali ularning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish mumkin. Masalan, matematikani o‘rgatishda kundalik xarajatlarni hisoblash, biologiyani o‘rgatishda esa o‘simliklar va hayvonlar dunyosiga sayohat qilish kabi misollardan foydalanish mumkin. Shuningdek, o‘quv materiallarini zamonaviy texnologiyalar (video, audio, animatsiya) yordamida taqdim etish ham o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi [4].

−O‘quvchilarga mustaqil ishlash va ijodiy vazifalarni bajarish imkoniyatini berish: O‘quvchilarga mustaqil loyihalar, tadqiqotlar va ijodiy ishlar topshirish orqali ularning o‘zlashtirish darajasini oshirish mumkin. Mustaqil ishlash o‘quvchilarga o‘zlarining qiziqishlari va qobiliyatlariga mos keladigan mavzularni tanlash, ma’lumotlarni izlash, tahlil qilish va xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi. Ijodiy vazifalar esa o‘quvchilarni yangi g‘oyalarni yaratishga, muammolarni hal qilishga va o‘z fikrlarini ifoda etishga undaydi.

−O‘quvchilarni rag‘batlantirish va ularning muvaffaqiyatlarini e’tirof etish: O‘quvchilarni har qanday muvaffaqiyati uchun maqtash, rag‘batlantirish va e’tirof etish ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. Rag‘batlantirish usullari turli xil bo‘lishi mumkin: maqtov, diplom, sovg‘a, qo‘shimcha ball, darsdan tashqari tadbirlarda ishtirok etish imkoniyati va hokazo. Muhimi, rag‘batlantirish adolatli va o‘quvchining harakatlariga mos bo‘lishi kerak.

−O‘quvchilarga o‘z maqsadlarini belgilash va ularga erishishda yordam berish: O‘quvchilarga o‘zlarining qisqa muddatli va uzoq muddatli maqsadlarini belgilashda yordam berish ularning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. Maqsadlar aniq, o‘lchanadigan, erishiladigan, real va vaqt bilan cheklangan bo‘lishi kerak (SMART maqsadlar). O‘qituvchilar o‘quvchilarga maqsadlariga erishish uchun reja tuzishda, resurslarni topishda va qiyinchiliklarni yengishda yordam berishlari kerak [5].

−O‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatini yaratish: O‘quvchilarga darslarda, munozaralarda va boshqa tadbirlarda o‘z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatini yaratish ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. O‘qituvchilar o‘quvchilarning fikrlarini hurmat qilishlari, ularga savollar berishlari va ularning javoblarini diqqat bilan tinglashlari kerak. Shuningdek, o‘quvchilarga o‘z fikrlarini yozma ravishda (insho, referat, taqdimot) ifoda etish imkoniyatini berish ham muhimdir.

−O‘quv jarayonida o‘yinlar, munozaralar va boshqa interaktiv usullardan foydalanish: O‘quv jarayonida o‘yinlar, munozaralar, guruhli ishlar, rolli o‘yinlar, viktorinalar va boshqa interaktiv usullardan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, ularning faolligini ta’minlaydi va o‘zlashtirish darajasini yaxshilaydi. Interaktiv usullar o‘quvchilarga o‘zaro hamkorlik qilish, fikr almashish, muammolarni birgalikda hal qilish va o‘z bilimlarini amalda qo‘llash imkoniyatini beradi.

−O‘quvchilarga o‘zlarining qiziqishlari va ehtiyojlariga mos keladigan o‘quv materiallarini tanlash imkoniyatini berish: O‘quvchilarga o‘zlarining qiziqishlari va ehtiyojlariga mos keladigan o‘quv materiallarini tanlash imkoniyatini berish ularning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. Masalan, o‘quvchilarga turli xil kitoblar, maqolalar, video materiallar va internet resurslaridan tanlash imkoniyatini berish mumkin. Shuningdek, o‘quvchilarga o‘zlarining loyihalarini va tadqiqotlarini o‘z qiziqishlariga mos ravishda tanlash imkoniyatini berish ham muhimdir.

−O‘quvchilarga o‘zlarining o‘quv jarayonini boshqarish imkoniyatini berish: O‘quvchilarga o‘zlarining o‘quv jarayonini boshqarish imkoniyatini berish ularning mustaqilligini oshiradi va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. Masalan, o‘quvchilarga o‘zlarining o‘quv jadvalini tuzish, vazifalarni bajarish tartibini belgilash va o‘zlarining o‘quv uslublarini tanlash imkoniyatini berish mumkin. Shuningdek, o‘quvchilarga o‘zlarining o‘quv natijalarini baholash va o‘zlarining o‘quv jarayonini takomillashtirish imkoniyatini berish ham muhimdir.

−O‘quvchilarga o‘zlarining muvaffaqiyatlarini nishonlash va o‘zlariga rag‘bat berish imkoniyatini berish: O‘quvchilarga o‘zlarining har qanday muvaffaqiyatlarini nishonlash va o‘zlariga rag‘bat berish imkoniyatini berish ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi. Muvaffaqiyatlarni nishonlash usullari turli xil bo‘lishi mumkin: o‘zlarini sevimli mashg‘ulotlari bilan band qilish, do‘stlar bilan uchrashish, kino ko‘rish, yangi narsa sotib olish va hokazo. Muhimi, rag‘bat o‘quvchining harakatlariga mos bo‘lishi va unga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kerak.

Ushbu usullarni qo‘llash orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishlari va ularning muvaffaqiyatli o‘qishlari va rivojlanishlari uchun sharoit yaratishlari mumkin.

Motivatsiya ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, o‘quvchilarning muvaffaqiyatli o‘qishi va rivojlanishi uchun zarurdir. O‘qituvchilar o‘quvchilarni motivatsiyalash uchun turli usullardan foydalanishlari va ularning qiziqishlarini, ehtiyojlarini va qadriyatlarini hisobga olishlari kerak. Motivatsiya o‘quvchining o‘quv jarayonida qanchalik faol bo‘lishini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Yuqori ishtiyoqli talabalar diqqatini jamlab sinf muhokamalarida faol qatnashadilar va mustaqil ta’lim olish ehtimollari ham yuqori. Motivatsiya diqqatni kuchaytiradi, bu ma’lumotni samarali qayta ishlash va o‘rganilgan narsalarni saqlab qolish uchun juda muhimdir.

Motivatsiya ayniqsa ta’lim jarayonida qiyinchiliklarga duch kelganda, talabaning qat’iyligiga ta’sir qiladi. Motivatsiyaga ega bo‘lgan talabalar o‘zlarining ta’lim yo‘lidagi to‘siqlarni yoki qiyinchiliklarni yengish uchun ko‘proq kuch sarflashadi. Ichki motivatsiya chidamlilikni rag‘batlantiradi, chunki o‘quvchilarning fanga qiziqishi yoki o‘z-o‘zini takomillashtirishga bo‘lgan ichki istagi sabab bo‘ladi. Hatto muvaffaqiyatsizlikka uchraganda ham, ular sabr-toqat bilan yondashadilar, o‘qituvchi noroziligi yoki past baho qo‘yganda qo‘rquv his qilmaydilar.

Tashqi motivatsiya talabalarni topshiriqni bajarishga undashda samarali bo‘lsa-da, darhol mukofotlar bo‘lmaganda qat’iyatning pasayishiga olib kelishi mumkin. Masalan, talaba imtihon uchun astoydil o‘qishi mumkin, ammo mukofot omili bo‘lmasa, ya’ni yaxshi baho qo‘yilmasa, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi pasayishi mumkin. O‘z-o‘zini tartibga solish va rivojlanish motivatsiya, shuningdek, o‘z-o‘zini tartibga solish va avtonom o‘zgarishni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘z-o‘zini tartibga soluvchi o‘quvchilar maqsadlarni belgilash, ta’lim strategiyalarini rejalashtirish, ularning taraqqiyotini kuzatish va kerak bo‘lganda o‘z yondashuvlarini o‘zgartirishga qodir. Motivatsiya o‘quvchilarni o‘z bilimlarini egallashga va resurslar yoki qo‘shimcha amaliyotlarni izlashda faol bo‘lishga undaydi [6].

Ichki motivatsiya avtonomiyaga yordam beradi, chunki o‘quvchilar o‘z shaxsiy ta’lim maqsadlarini belgilashlari va tashqi ko‘rsatmalarsiz bilimlarni faol ravishda izlashlari mumkin. Bu ularning ta’limga nisbatan egalik tuyg‘usini va shaxsiy o‘sishga sodiqligini kuchaytiradi. Tashqi motivatsiya talabalarni ko‘rsatmalariga rioya qilishlari va tashqi talablarni qondirish uchun topshiriqlarni bajarishlariga olib kelishi mumkin. Bu hali ham akademik muvaffaqiyatga olib kelishi mumkin bo‘lsa-da, bu ichki motivatsiya kabi mustaqil o‘rganish yoki shaxsiy o‘sish darajasini rivojlantirmasligi mumkin.

Motivatsiya akademik ko‘rsatkichlar bilan bevosita bog‘liqdir. Motivatsiyaga ega bo‘lgan talabalar yuqori baholarga erishadilar, topshiriqlar va imtihonlarni yaxshiroq bajaradilar va mavzuni yuqori darajada tushunishlarini namoyon etadilar. Ichki motivatsiya o‘quvchilarda kreativlikni rivojlantirishga yordam beradi, bu ta’lim jarayonini yanada boy va qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi.

Xulosa. Motivatsiya ta’lim jarayonida eng muhim komponentlardan biri hisoblanadi. Ichki va tashqi motivatsiya turlari o‘quvchilarni muvaffaqiyatga erishish yo‘lida qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilar o‘quvchilarni ilhomlantiruvchi, rag‘batlantiruvchi va qiziqarli metodlar bilan ta’lim berish orqali motivatsiyani kuchaytirishi mumkin. Ta’limda motivatsiyaning rolini tushunish va uni samarali boshqarish o‘qish jarayonining samaradorligini oshiradi, natijada o‘quvchilar yuqori natijalarga erishishi ta’minlanadi. Benabou va Tirol kabilarning fikriga ko‘ra, tashqi motivatsiya kerakli xatti-harakat uchun ijobiy mustahkamlovchi bo‘lib xizmat qiladigan mukofotlar bilan mehnat va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, o‘qituvchilar o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini rivojlantirishga e’tibor qaratishlari zarur, chunki bu nafaqat o‘qish jarayonini yaxshilaydi, balki o‘quvchilarning shaxsiy o‘sishiga ham yordam beradi. Motivatsiya ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglashini, o‘z maqsadlariga erishish uchun kurashishini va o‘z bilimlarini kengaytirishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Deci, E. L., Ryan, R. M. (2000). The "what" and "why" of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior. Psychological Inquiry, 11(4), 227-268.
2. Ryan, R. M., Deci, E. L. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. American Psychologist, 55(1), 68-78.
3. Ames, C. (1992). Classrooms: Goals, structures, and student motivation. Journal of Educational Psychology, 84(3), 261-271.
4. Pintrich, P. R. (2003). A motivational science perspective on the role of student motivation in learning and teaching contexts. Journal of Educational Psychology, 95(4), 667-686.
5. Hattie, J., & Timperley, H. (2007). The power of feedback. Review of Educational Research, 77(1), 81-112.
6. Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a self-regulated learner: An overview. Theory into Practice, 41(2), 64-70.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TANQIDIY VA IJODIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Odina Fozilova,
Farg‘ona Davlat Universiteti, f.f.f.d (PhD), v/b dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlari hamda kollobarativ ko‘nikmalarni shakllantirish usullari ta’limning sifati va samarali jihatlari ifodalangan. Maktabgacha ta’lim tashkilotida rivojantiruvchi markazlarning faoliyatiga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *integratsiya, uzviylik, uzluksizlik, kreativ yondashuv.*

Аннотация

В данной статье описывается уникальность интеграции в образовании детей дошкольного возраста и ее эффективные аспекты как воспитания. Обсуждена деятельность развивающих центров в организации дошкольного образования

Ключевые слова: *интеграция, последовательность, преемственность, творческий подход*

Annotation

This article describes the uniqueness of integration in the education of preschool children and its effective aspects as education. The activities of developmental centers in the organization of pre-school education were discussed

Keywords: *and phrases: integration, coherence, continuity, creative approach*

Kirish. Maktabgacha ta’limni uzluksiz ta’lim tizimining ajralmas, birlamchi bo‘g‘ini sifatida takomillashtirish bo‘yicha davlatimiz rahbari tomonidan qator muhim hujjatlar qabul qilindi**.** Maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’limning uzluksizligi va uzviyligini ta’minlash, maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish, sohada faoliyat yuritayotgan xususiy sektor vakillarini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash, ta’lim jarayoniga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish maqsadi qilib olingan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6108-son Farmoni [1.1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabr, PF-152 Farmoni “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” [1.2].

XXI asr ko‘nikmalari va turlari haqida umumiy tushuncha. 4K - kollaboratsiya, kommunikatsiya, kritik va kreativ fikrlash ko‘nikmalarining izohi, ularning domenlari va xususiyatlari, ulardan ko‘zlangan maqsad va vazifalar talab etadi.

Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligining maktabgacha ta’limning davlat ta’lim dasturi doirasida kichik va o‘rta guruhlardagi bolalarda kognitiv, psixomotor va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, katta va maktabga tayyorlov guruhlaridagi bolalarda bilim olish, kommunikativ va ijodiy kompetentsiyalarni shakllantirishga qaratilgan o‘quv-metodik materiallarni ishlab chiqish vazifasi belgilandi.

Prezident farmoni mohiyatida maktabgacha ta’lim tashkilotining direktori o‘rinbosari lavozimi joriy etildi hamda uning zimmasiga ta’lim sifatini ta’minlash, pedagog xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish, ta’lim va tarbiya jarayonlariga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish vazifalari yuklatildi.

Erta yoshdagi bolalarni ta’lim sohasini o‘rganish, ularning dinamikasi tasavvur, qiziquvchanlik va ishtiyoqining shakllantirishning ta'sir doirasida tarbiyachi faoliyati turadi. Tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalar ongini rivojlanishi, ta'lim natijalarini ijobiy bo‘lishi uchun innovatsion metodologiyalarni o‘rganishi zarur. Ushbu metodologiya zaminida o‘yinlarning integratsiyasi jonli va samarali ta'limni rivojlantirishga asoslangan istiqbolli yo‘l va usullarini qo‘llash zarur.

Tahlil va natijalar. Maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’limning uzluksizligi va uzviyligini ta’minlash, maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirishda bolalarda kommunikativ, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlari hamda kollobarativ ko‘nikmalarni shakllantirish, ularning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish ustuvor vazifalardan bo‘lib, maktabga sifati tayyorlashda respublikaning barcha tuman (shahar)larida kamida bittadan tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi hamda ushbu tashkilotlarning direktor o‘rinbosarlaridan iborat malakali trenerlar guruhi shakllantiriladi. Bunda malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda trenerlar uchun alohida tayyorlov kurslari tashkil, barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida malaka oshirishning «Metodik mahorat soati»ni tashkil etilib, uning doirasida direktor o‘rinbosarlari tomonidan maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari faoliyati tahlil qilinadi, ularga metodik yordam ko‘rsatiladi va kasbiy rivojlanishi bo‘yicha tavsiyalar berilishi hamda «Metodik mahorat kuni» doirasida tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotlari trenerlari tomonidan boshqa maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor o‘rinbosarlari uchun o‘quv mashg‘ulotlari va seminarlar o‘tkazish vazifasi qo‘yilgan.

Bugungi kunda takomillashga “Ilk qadam” davlat dastur maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘ynab o‘rganishni nazarda tutib, oy va hafta mavzulari bolalarni borliq haqidagi tasavvurlarini yanada boyitishga xizmat qiladi. Rivojlanish markazlari bolalarda tabiiy fanlar, texnologiya, injenerlik, san’at, ijodkorlik, matematika fanlarining amaliy jihatlarini ifodalaydi. Qurilish yasash va matematika markazi, qurish-yasash va elementar matematika ta’limiy faoliyatni, syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirish markazi, badiiy adabiyot ta’limiy faoliyat va ijodiy o‘yinlarni ifodalasa, til va nutq markazi, nutq o‘stirish va savodga o‘rgatish ta’limiy faoliyatini, ilm fan va tabiat markazi atrof-olam va tabiat bilan tanishtirish ta’limiy faoliyatini, san’at markazi rasm chizish, loy yoki plastilin hamda applikatsiya ta’limiy faoliyatlari bilan integrallashgan. [3.26].

Ta’limiy rivojlantirishda maktabgacha ta’lim kontseptsiyasiga muvofiq pedagog L.S.Vigotskiyning quyidagi nazariyasiga tayaniladi "Har qanday faoliyat turining rivojlanishi quyidagicha bo‘ladi: avval kattalar bilan hamkorlikdagi, so‘ng tengdoshlari bilan birgalikdagi faoliyat amalga oshiriladi va nihoyat bolaning mustaqil faoliyati amalga oshiriladi" degan fikrlari rivojlantiruvchi markazlar faoliyatida o‘z samarasini ifodalaydi[4.47].

Maktabgacha ta’lim tashkilotida har bir guruhlar uchun bola yosh xususiyatidan kelib chiqib “Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’im jarayonini mavzuli rejalashtirish” nomli o‘quv qo‘llama asosida rivojlantiruvchi markazlarda olib boriladigan ta’lim jarayoni ifodalangan

Masalan, katta guruh sentiyabrni birinchi haftasi “Mening qadrdon O‘zbekistonim”, mavzu: «Qurilish materiallaridan shahar quramiz».

Maqsad: Qurilish materiallari va turli kattalikdagi gishtchalardan mustaqil uylar qura oladi.

Kerakli jihozlar: qubiklar, geometrik shakllar, dekorativ o‘simliklar, shahar qurinishi tasvirlangan suratlar.

Faoliyatning borishi:

1. «Mening shahrim» mavzusidagi suratlarni kuzatish.
2. Shahar qurilishi rejasini tuzish.
3. Mustaqil qurish ishlarini amalga oshirish.
4. Do‘sti bilan suhbatga kirishish.
5. Do‘stining ishlarini taxlil etish va rag‘batlantirish.

Qushimcha: Tarbiyachi qurilish ishlarini bezatishda mayda qushimchalar (o‘yinchoqlar, mashinachalar, gulchalar)dan foydalanishni taklif etish.

Alohida e’tibor qaratiladi: Jamoada ishlash malakalari, shahar ko‘rinishini tasavvurida aks etishi.

Bu jarayon orqali bolalar matematk tasavvurlarni shakllantirish ta’limiy faoliyatidan olgan bilimlarini ifodalaydilar. O‘lchov, son sanoq, fazoviy hajm, shakl. Yana jarayonda bola nutq o‘stirish: (tovush madaniyati, bog‘lanishli nutq, nutqni gramatik tuzilishini shakllantirish va lug‘at boyligini faollashtirish), sensor tarbiya: (eshitish, ko‘rish, hid bilish, qo‘l barmoq mayda matorikasi), tabiat bilan tanishtirish: (gulchalar, o‘simliklar va daraxtlar), atrof olam: (kasb, hunar, uy, mahalla, vatan), etika: (jamoada ishlash, tejamkorlik, tozalik), estetika: (go‘zallik), texnologiya: (ijodkorlik qobiliyati, kreativ ko‘nikma), tasviriy faoliyat: (badiiy-estetik tafakkur va emotsional sezgirlik), jismoniy tarbiya: (irodaviy ruhiyat, harakat), kimyo: (bo‘yoq, plasmassa, taxta), chizmachilik: (texnik detal va buyumlar) kabi bilimlarini egallashga qaratilgan. Bu albatta bolalarni uzliksiz ta’lim maktab ta’limiga sifatli tayyorlashni amaliy faoliyatini ifodalanadi.

Prezidentining farmonida maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining shaxsiy fazilatlari, kasbiy bilimlari, malaka va ko‘nikmalariga qo‘yiladigan asosiy talablarni belgilaydigan maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini belgilash vazifasi nazarda tutilgan.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda 2025 yil 1 martga qadar yangi ishlab chiqilgan kasbiy standart asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish, davlat oliy ta’lim tashkilotlarida maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha dual ta’lim shakli joriy etish, davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlarini shakllantirishda maktabgacha ta’lim yo‘nalishining sirtqi va kechki ta’lim shakllari bo‘yicha har yili kamida 200 ta maqsadli qabul kvotalari ajratish hamda maqsadli qabul kvotalari bo‘yicha ajratiladigan o‘rinlarga maktabgacha ta’lim yo‘nalishida kamida besh yil ish stajiga ega bo‘lgan pedagog kadrlar tabaqalashtirilgan to‘lov-kontrakt asosida qabul qilish vazifalari belgilandi.

Bu albatta ta’lim sifatini ko‘tarib bolalarda kommunikativ, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlari hamda kollobarativ ko‘nikmalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar va birinchi sinf o‘quvchilari uchun turli xil ta’lim shakllari, shu jumladan, integral faoliyat asosida aniq faoliyat turlarini qo‘llash, o‘quv jarayonida bolalar o‘zlarining tajribalaridan foydalanishlar uchun sharoit yaratadigan loyiha-tadqiqot faoliyatidan foydalanish, faoliyatni bolalarning kundalik (frontal, kichik guruhlar) hayoti, ularning mustaqil (o‘yin, badiiy, konstruktiv va boshqa) faoliyati bilan o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash, bolalar faoliyati mazmunini funksional ravishda simulyatsiya qilish amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida va boshlang‘ich maktabda ham rivojlantiruvchi muhitni qo‘llab quvvatlash, bolalarda fikrlash, tasavvur (xayolot), qidiruv faoliyatini faollashtiradigan usullar, ya’ni o‘rganishda muammolilik elementlarini yanada kengroq qo‘llash, o‘yin texnikasidan kengroq foydalanish, hissiy jihatdan ahamiyatli vaziyatlar, mustaqil amaliy faoliyat uchun sharoitlar yaratish, katta maktabgacha yoshdagi guruhlarda va boshlang‘ich maktabning 1-sinfdagi darslarida bolalar faoliyatining barcha turlari, bolalarning muloqot shakllari o‘zgartirishni amalga oshirish belgilangan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ta’limni integratsiyalashning asosiy maqsadi bolalarda tabiat va jamiyat haqidagi yaxshi tasavvur asoslarini qo‘yish, asosiy fanlarni o‘zlashtirish, predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarni o‘rnatish va olamdagi bor narsalarning qonuniyatlarini qulay yo‘llar orqali tushinish imkonini beradi. Bu albatta maktabgacha ta’lim tashkilotlari rivojlantiruvchi markazlari faoliyatida amalga oshirilib, ularni tezroq o‘rganish imkonini, ijtimoiy va interaktiv bo‘lishi, mehnatsevar va sabrli bo‘lishiga yordam beradi. STEAM ta’lim texnologiyasi asosida o‘quv jarayoni amalda qo‘llash, “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni

rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”ni bajarish orqali 1-sinf o‘quvchilarida davlat ta’lim standartlarini amalga oshirishdagi uzviylik va uzliksizlikni ta’minlaydi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Lex.UZ on-line.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabr, PF-152 Farmoni “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. Lex.UZ on-line.

3. “Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’im jarayonini mavzuli rejalashtirish” T:, 2018

4. Texnologiya fani konsepsiyalari va milliy o‘quv dasturi. T: 2021.- 47 b.

5.О.Абобакирова. Общество с ограниченной ответственностью Издательство. Молодой ученый– 2016– 734-736 С.

6.О.Абобакирова. Формирование у старших дошкольников эстетических чувств средствами кукольного театра. Молодой ученый, 2018. – 148-150 С.

7.O.Fozilova. Bolalarni maktabga tayyorlashda innovatsion yondoshuv usullari. FarDU.ILMIY XABARLAR. 2022.– 363-364

SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV AOSIDA PEDAGOGIK TA’LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI

Bekposhsha Dautova,
UrDU Tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqola shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimida kreativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik modellarning samaradorligini tahlil qiladi. Maqolada ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish va o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, mustaqil qarorlar qabul qilish va innovatsion yondashuvlarga qobiliyatlarini rivojlantirish zarurati haqida so‘z yuritiladi. Tadqiqotda integratsiyalashgan o‘rganish modeli, o‘z-o‘zini boshqarish modeli va muammoga asoslangan o‘qish modellari asosida tajriba o‘tkazilgan.

Kalit so‘zlar: *shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kreativ kompetentlik, innovatsion pedagogik modellari, integratsiyalashgan o‘rganish modeli, o‘z-o‘zini boshqarish modeli, muammoga asoslangan o‘qish modeli, kreativ fikrlash, ta’lim jarayoni, o‘quvchilar, pedagogik yondashuvlar*

Annotation

This article analyzes the effectiveness of innovative pedagogical models aimed at developing creative competence within a student-centered education system. The article discusses the necessity of enhancing the effectiveness of the educational process and developing students' creative thinking, independent decision-making, and ability to adopt innovative approaches. The study was conducted based on the integrated learning model, self-directed learning model, and problem-based learning model.

Keywords: *student-centered education, creative competence, innovative pedagogical models, integrated learning model, self-directed learning model, problem-based learning model, creative thinking, educational process, students, pedagogical approaches*

Аннотация

В данной статье анализируется эффективность инновационных педагогических моделей, направленных на развитие креативной компетенции в системе образования, ориентированной на личность. В статье рассматривается необходимость повышения эффективности образовательного процесса и развития у учащихся творческого мышления, самостоятельного принятия решений и способности к инновационному подходу. Исследование было проведено на основе моделей интегрированного обучения, самоорганизующегося обучения и обучения, основанного на решении проблем.

Ключевые слова: *образование, ориентированное на личность, креативная компетенция, инновационные педагогические модели, модель интегрированного обучения, модель самоорганизующегося обучения, модель обучения, основанного на решении проблем, творческое мышление, образовательный процесс, учащиеся, педагогические подходы*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni qabul qilgan holda, ta’lim jarayonining samaradorligini yanada oshirish, o‘quvchilarni nafaqat bilim bilan, balki ijodiy fikrlash, mustaqil qarorlar qabul qilish va innovatsion yondashuvlarga qobiliyatlarini rivojlantirishni maqsad qilgan. Ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvi, o‘quvchi shaxsining individual ehtiyojlarini, qiziqishlarini va salohiyatini hisobga olishga asoslanadi, bu esa o‘quvchilarni ta’lim jarayonida faol ishtirok etishga va o‘zini erkin ifodalashga rag‘batlantiradi. Bu o‘zgarishlar ta’lim sohasida kreativ kompetentlikni rivojlantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Kreativ kompetentlik ta’lim sohasida o‘quvchilarning innovatsion fikrlashini, muammolarni ijodiy yechish qobiliyatini va yangi g‘oyalar yaratishdagi faoliyatini oshirishga yordam beradi. Bu kompetentlik faqatgina akademik bilimlar bilan cheklanmay, balki shaxsning umumiy rivojlanishiga, uning shaxsiy va ijtimoiy qobiliyatlarini kengaytirishga ham xizmat qiladi. Kreativ kompetentlikning rivojlanishi, o‘z navbatida, ta’lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalarni amalga oshirishga, ta’lim metodikalarini yangilashga va o‘quvchilarni o‘zini o‘zi rivojlantirishga undaydi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda kreativ kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion modellari, o‘quvchining faolligini oshirish, uning o‘z qobiliyatlarini kashf etishga imkon yaratish va ta’lim jarayonining mazmunini boyitish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ta’limda kreativlikni rivojlantirish orqali o‘quvchi nafaqat o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashni o‘rganadi, balki innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish, yangi g‘oyalar bilan ishlash va keng qamrovli fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Kreativ kompetentlikni shakllantirishda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Innovatsion pedagogik modellarning asosiy maqsadi ta’lim jarayonini o‘quvchining shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlariga moslashtirishdir.

Shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik ta’limda kreativ kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion modellardan bir nechta eng samarali yondashuvlarni ko‘rib chiqish mumkin. Bir nechta asosiy modellar hozirgi kunda ta’lim tizimida samarali qo‘llanilayotgan va o‘quvchilarning kreativ kompetentliklarini rivojlantirishga yordam beradigan yondashuvlar hisoblanadi. Shulardan biri integratsiyalashgan o‘rganish modelidir. Bu modelda o‘quvchilarning bilimlari va ko‘nikmalari turli sohalar bo‘yicha birlashtirilgan holda o‘rgatiladi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga asoslanib, o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va qiziqishlariga qarab, bilimlar real hayot muammolariga asoslanadi. O‘quvchilar faqat bir darslik yoki fan bilan cheklanmay, bir nechta fanlarni integratsiyalashgan tarzda o‘rganadilar. Misol uchun, tabiiy fanlar, san’at, matematika va ijtimoiy fanlarni birlashtirib, o‘quvchilarni muammolarni ijodiy tarzda hal qilishga undaydi. Bu yondashuv o‘quvchilarning kreativ fikrlashini va muammolarni turli nuqtai nazarlardan ko‘rishni rivojlantiradi. Shuningdek, o‘quvchilar o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashga o‘rganadilar. O‘z-o‘zini boshqarish va mustaqil o‘qish modeli, o‘quvchilarga o‘z o‘qish jarayonini mustaqil ravishda boshqarishga imkon beradi. Bu modelda o‘quvchilar o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z ehtiyojlariga mos ravishda maqsadlar qo‘yishlari mumkin. O‘quvchilar o‘z vaqtlarini, resurslarini va ta’lim metodlarini tanlashda erkinlikka ega bo‘ladilar, bu esa ularning kreativliklarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilarning mustaqillik, mas’uliyat va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu, shuningdek, o‘quvchilarning o‘z salohiyatlarini kashf etishga va kreativ yechimlar ishlab chiqishga yordam beradi. Ko‘proq o‘zaro faoliyatga asoslangan o‘qish modeli o‘quvchilarga guruhda ishlash imkoniyatini yaratadi. Bunda o‘quvchilar bir-birlariga yordam berish, fikr almashish va birgalikda innovatsion yechimlar ishlab chiqish orqali ta’lim oladilar. O‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifodalash, turli fikrlarni muhokama qilish va guruhda qarorlar qabul qilishga o‘rgatiladi. Bu model o‘quvchilarning kommunikatsiya va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi, shuningdek, kreativ fikrlashni va jamoaviy qarorlar qabul qilishni rag‘batlantiradi. Muammoga asoslangan o‘qish modeli o‘quvchilarni real hayotdagi muammolarni hal qilishga undaydi. Bu modelda o‘quvchilarni amaliy muammolarni yechishga, ularni tahlil qilishga, va innovatsion yechimlar topishga jalb qilishadi. O‘quvchilar faqat bilimlarni o‘rganish emas, balki ularni turli real hayot vazifalarida qo‘llashni o‘rganadilar. Zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga qo‘llash orqali o‘quvchilar virtual muhitlarda

o‘qishadi. Ushbu modelda o‘quvchilar uchun interaktiv ta’lim platformalari, onlayn kurslar, simulyatsiyalar, video materiallar va virtual laboratoriyalar kabi resurslar taqdim etiladi. Bu, o‘quvchilarga o‘z bilimlarini yangi shakllarda o‘zlashtirish va kreativ kompetentliklarini rivojlantirish imkonini beradi. Virtual muhitda o‘qish o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi, shu bilan birga, ularga yangi texnologiyalarni o‘rganish va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatini yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim pedagogikada o‘quvchining individual ehtiyojlari, qiziqishlari va salohiyatini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishga qaratilgan yondashuvdir. Bu yondashuv o‘quvchining o‘z-o‘zini o‘rganish qobiliyatini rivojlantirishga, o‘z vaqtida va samarali ta’lim olishga imkon beradi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning asosiy maqsadi – har bir o‘quvchining o‘z salohiyatini amalga oshirish, uning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va uni ta’lim jarayoniga faol jalb qilishdir (Tomlinson, 2001). Kreativ kompetentlik – bu o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishni ta’minlaydigan asosiy omil hisoblanadi. Amaliyotda kreativ kompetentlikni rivojlantirish uchun o‘quvchilarga yangi, noan’anaviy yondashuvlar, tasavvurga asoslangan fikrlash va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish imkoniyatlarini yaratish muhimdir. O‘quvchilar o‘z bilimlarini nafaqat o‘zlashtirish, balki ulardan yangi va samarali g‘oyalar yaratishda foydalanishni o‘rganishlari kerak (Guilford, 1950). Innovatsion pedagogik modellarga misol sifatida, "falsafiy muloqot", "o‘z-o‘zini o‘rganish", "problemaga asoslangan o‘qish" va "kollaborativ o‘qish" kabi metodlar kiritilishi mumkin. Bular o‘quvchilarning fikrlash jarayonlarini rivojlantirishga, ta’lim jarayoniga faollashtirishga va ijodiy fikrlashga undashga xizmat qiladi. Masalan, o‘z-o‘zini o‘rganish modeli o‘quvchilarga o‘zlarini rivojlantirish, maqsadlar qo‘yish va ularni amalga oshirishni o‘rgatadi, bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini va kreativlikni rivojlantirishga xizmat qiladi (Knowles, 1975). Muammoga asoslangan o‘qish modeli o‘quvchilarga real hayotdagi muammolarni hal qilishga imkon yaratadi. Bu yondashuvda o‘quvchilar o‘z bilimlarini amaliy muammolarni hal qilishda qo‘llashga o‘rganadilar. O‘qituvchi o‘quvchilarga muammoni hal qilishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi, ammo asosan o‘quvchilarning o‘zlari turli g‘oyalarni ishlab chiqib, muammoni hal qilishadi. PBL modeli o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishga va tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi (Barrows, 1986). Kollaborativ o‘qish (Collaborative Learning) o‘quvchilarning jamoaviy ishlash va guruhda muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu modelda o‘quvchilar bir-birlariga yordam berish, o‘z fikrlarini erkin ifodalash va birgalikda yangi g‘oyalarni ishlab chiqish orqali ta’lim olishadi. Kollaborativ yondashuv o‘quvchilarning kommunikatsiya va hamkorlik ko‘nikmalarini oshiradi va ularni ijodiy fikrlashga undaydi (Johnson & Johnson, 1999). Zamonaviy texnologiyalar, masalan, virtual muhitlar, onlayn ta’lim platformalari, raqamli resurslar va interaktiv simulyatsiyalar o‘quvchilarga ta’lim olishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarga ta’lim jarayonida ijodiy yondashuvlarni qo‘llashga, yangi g‘oyalarni ishlab chiqishga va o‘z bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rishga yordam beradi. Shu bilan birga, texnologiyalar yordamida o‘quvchilarni virtual dunyo va ta’lim platformalarida o‘qishga jalb qilish, kreativ kompetentlikni rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi (Siemens, 2005).

Metodologiya. Tajriba asosida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda kreativ kompetentlikni rivojlantirishni tekshirib ko‘ramiz. Tajribada 60 nafar talaba tanlab olinadi va ularni 3 ta guruhga bo‘lamiz. Tajriba muddati 1 oyni o‘z ichiga oladi.

A Guruh: Integratsiyalashgan o‘rganish modeli

B Guruh: O‘z-o‘zini boshqarish va mustaqil o‘qish modeli

C Guruh: Muammoga asoslangan o‘qish modeli

Tajribadan oldin har bir talabadan kreativ kompetentlikni o‘lchash uchun test (**Guilford’s Alternate Uses Test**) olinadi. Bu testlar orqali talabalar ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalar yaratish va muammolarni hal qilish qobiliyatlari baholanadi. Test natijalari guruhlar bo‘yicha to‘planadi: har bir guruhdan olingan o‘rtacha ball va standart og‘ish hisoblanadi. 1 oy mobaynida har bir guruhga alohida metodika asosida ta’lim beriladi. A Guruh (Integratsiyalashgan o‘rganish modeli) – bir nechta fanlarni integratsiya qilish, masalan, matematika, san’at, ijtimoiy fanlarni birlashtirib o‘qitish. B Guruh (O‘z-o‘zini boshqarish modeli) – talabalarga o‘z o‘quv jarayonlarini mustaqil ravishda boshqarishga imkon berish. C Guruh (Muammoga asoslangan o‘qish modeli) – real hayotdagi muammolarni hal qilish uchun guruhlar bilan ishlash va yechimlar ishlab chiqish. Tajriba yakunida

talabalar uchun yana shu testlar o‘tkaziladi. Tajribadan oldingi va tajribadan keying natijalari orasidagi farq hisoblanadi. Endi testdan oldingi va keyingi natijalar uchun statistic hisob kitobni amalga oshiramiz: Buning uchun quyidagi formulalardan foydalanamiz:

O‘rtacha ballni hisoblash formulasi:

$$\bar{X} = \frac{\sum X_i}{n}$$

Standart og‘ishni hisoblash formulasi:

$$\sigma = \sqrt{\frac{\sum (X_i - \bar{X})^2}{n}}$$

Yuqoridagi formulalarga asosan quyidagi natijalarga ega bo‘lamiz.

Guruhlar	**Testdan oldingi o‘rtacha ball**	**Testdan oldingi standart og‘ish**	**Testdan keyingi o‘rtacha ball**	**Testdan keying standart og‘ish**
A Guruh Integratsiyalashgan o‘rganish modeli	75	6	85	5
B Guruh O‘z-o‘zini boshqarish modeli	70	7	78	6
C Guruh Muammoga asoslangan o‘qish modeli	80	5	90	4

Integratsiyalashgan o‘rganish modeli ning testdan oldingi va testdan keyingidagi o‘rtacha ballarida sezilarli o‘zgarish kuzatildi. Testdan oldingida o‘rtacha ball 75 bo‘lgan bo‘lsa, testdan keyingida bu 85 ga ko‘tarildi. Bu guruhda 10 ball lik o‘sish mavjud. Standart og‘ish ham kamaygan – testdan oldingida 6, testdan keyingida esa 5 bo‘lgan. Bu shuni anglatadiki, integratsiyalashgan o‘rganish modeli talabalarning kreativ fikrlashini yaxshilashga yordam bergan. O‘z-o‘zini boshqarish modeli ning natijalari ham o‘zgarish ko‘rsatmoqda, ammo o‘zgarish boshqa guruhlarga qaraganda kichikroq. Testdan oldingida o‘rtacha ball 70 bo‘lib, testdan keyingida 78 ga ko‘tarildi, ya’ni 8 ball lik o‘sish yuz berdi. Standart og‘ish esa testdan oldingida 7, testdan keyingida 6 bo‘lib, o‘zgarmagan. Bu, o‘z-o‘zini boshqarish modeli shaxsiy motivatsiyani oshirganini, ammo kreativlikni rivojlantirishda integratsiyalashgan modelga qaraganda unchalik samarali bo‘lmaganini ko‘rsatadi. Muammoga asoslangan o‘qish modeli eng yuqori natijaga erishdi. Testdan oldingida o‘rtacha ball 80 bo‘lgan bo‘lsa, testdan keyingida bu 90 ga ko‘tarildi. Bu 10 ballik o‘sish. Shuningdek, standart og‘ish testdan oldingida 5, testdan keyingida esa 4 ga kamaydi. Muammoga asoslangan o‘qish modeli o‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda eng samarali bo‘lgan, chunki bu model o‘quvchilarni real hayotdagi muammolarni yechishga undaydi va ijodiy yondashuvni rag‘batlantiradi. Guilford’s Alternate Uses Test asosida o‘tkazilgan tajriba kreativlikni o‘lchashda samarali usul ekanligini ko‘rsatdi. Har bir guruhning testdan oldingi va testdan keyingi natijalari orqali kreativlikdagi o‘zgarishlar kuzatildi. Bu test nafaqat o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga undash, balki o‘quvchilarning qobiliyatlarini baholash uchun ham muhim vosita bo‘ladi.

Xulosa. Kreativ kompetentlikni rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlar muhim rol o‘ynaydi. Integratsiyalashgan o‘rganish modeli, o‘z-o‘zini boshqarish modeli va muammoga asoslangan o‘qish modellari o‘quvchilarning ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali

natijalarga erishdi. Har bir model o‘quvchilarga yangi yondashuvlar, amaliy tajribalar va muammolarni ijodiy hal qilish imkoniyatlarini taqdim etib, ularning shaxsiy rivojlanishiga hissa qo‘shdi. Ta’lim jarayonida bunday yondashuvlar o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ularning kreativlik darajasini yaxshilaydi. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik metodlarni qo‘llash ta’lim sifatini oshirishga va o‘quvchilarning umumiy kompetentliklarini rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Tomlinson, C. A. *How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms.* Allyn Bacon. 2001
2. Guilford, J. P. *Creativity: Some Suggestions for Its Testing and Development. Psychological* Bulletin, 47(1), 30–38. 1950
3. Barrows, H. S. *A Taxonomy of Problem-Based Learning Methods.* Medical Education, 20(6), 481–486. 1986
4. Knowles, M.. *Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers.* Association Press. 1975
5. Johnson, D. W., & Johnson, F. P. *Joining Together: Group Theory and Group Skills.* Prentice Hall. 1999
6. Siemens, G. *Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age.* International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2(1), 3–10. 2005

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA POL-ELDER MODELIDAN FOYDALANISH

Fotima Abdikarimova,
UrDU tayanch doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqolada Pol-Elder tanqidiy fikrlash modelining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining fikrlash ko‘nikmalariga ta’siri o‘rganilgan. Tajriba natijalari, t-test yordamida tahlil qilingan bo‘lib, tajriba guruhining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari sezilarli darajada yaxshilanganini ko‘rsatdi va bu o‘z navbatida Pol-Elder modelining samarali pedagogik yondashuv ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: *Pol-Elder modeli, tanqidiy fikrlash, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, pedagogik yondashuv, eksperiment, tahlil, ko‘nikmalarni rivojlantirish, an’anaviy o‘qitish va fikrlash jarayoni.*

Annotation

This study investigates the influence of the Paul-Elder critical thinking model on the cognitive skills of primary school teachers. The experimental results, analyzed using t-test, demonstrate a significant enhancement in the critical thinking abilities of the experimental group, thereby validating the effectiveness of the Paul-Elder model as a pedagogical approach.

Keywords: *Paul-Elder model, critical thinking, primary school teachers, pedagogical approach, experiment, analysis, skill development, traditional teaching methods, thinking process.*

Аннотация

В данной статье исследуется влияние модели критического мышления Поля-Элдера на когнитивные навыки учителей начальных классов. Экспериментальные результаты, проанализированные с помощью t-теста, показали значительное улучшение навыков критического мышления в экспериментальной группе, что подтверждает эффективность модели Поля-Элдера как педагогического подхода.

Ключевые слова: *Модель Поля-Элдера, критическое мышление, учителя начальных классов, педагогический подход, эксперимент, анализ, развитие навыков, традиционное преподавание, процесс мышления.*

Kirish. Pedagogikada o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bir qancha modellardan foydalaniladi. Har bir model o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, turli bosqich va yo‘nalishlarda o‘quvchilarda

tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan. Shulardan biri Pol-Elder tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan modelidir. Bu model tanqidiy fikrlash nazariyasi va pedagogikasini rivojlanishiga ulkan hissa qo‘sha olgan modellardan biri hisoblanadi va u Richard Pol va doktor Linda Elder tamonidan ishlab chiqilgan. Bu modelning asosiy maqsadi ta’lim muassasalarida talabalarda fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu model fikrlash jarayonini qismlarga ajratish orqali odamlarga yanada samaraliroq va ishonch bilan fikrlashga yordam berish uchun mo‘ljallangan. Model o‘z mohiyatiga ko‘ra aniq, mantiqiy va tugal fikrlashning ahamiyatini ochib beradi. O‘z navbatida bu ko‘nikmalar nafaqat akademik kontekstda, balki kundalik hayotda qarorlar qabul qilishda, muammolarni hal qilishda va axloqiy mulohaza yuritishda ham nihoyatda zarurdir.

Adabiyotlar tahlili. Faylasuf va pedagog doktor Richard Pol o‘z faoliyatini tanqidiy fikrlash, mantiq va pedagogika bilan chuqur qiziquvchi o‘qituvchi va tadqiqotchi sifatida boshlagan. Uning dastlabki ishi odamlarning qanday fikrlashi va ma’lumotlarni baholashni boshqaradigan kognitiv jarayonlarga qaratilgan. 1970-yillarda Pol ko‘plab talabalar va shaxslarda analitik va tanqidiy fikrlash jarayonlarini o‘rganib chiqadi. Polning e’tiqodi tanqidiy fikrlashni odamlarga aniq o‘rgatish mumkin va kerak degan ishonchga asoslangan edi. 1980 va 1990 yillar davomida doktor Pol tanqidiy fikrlash qobilayatlarini yaxshilash bo‘yicha bir qancha g‘oyalarini ishlab chiqdi va takomillashtirdi, oxir-oqibat fikrlash va u bilan bog‘liq kognitiv tuzilmalarni keng qamrovli modelni yaratdi. Psixolog va o‘qituvchi doktor Linda Elder bilan hamkorlikda Pol o‘zining tanqidiy fikrlash modelini keyinchalik Pol-Elder modeli deb ataladigan versiyada ifodalash va kengaytirish ustida ishladi. Turli xil pedagogik adabiyotlarga qaraydigan bo‘lsak, ularda Pol-Elder modeli o‘quvchilarga tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o‘rgatish va ularda bu qobiliyatlarni rivojlantirish uchun asosiy modellardan biri sifatida keng yoritib berilgan. Jumladan, Fakione (2011) tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida ushbu modelning o‘quvchilarga murakkab mulohaza yuritish jarayonlarini boshqarishdagi o‘rni qanday ekanligi batavsil berilgan. U o‘quvchilarga intellektual me’yorlar (tartiblilik, aniqlik, dolzarblik va boshqalar) hamda intellektual xususiyatlar (kamtarlik, jasorat, to‘g‘rilik va boshqalar) bilan bir qatorda maqsad, savol va axborot kabi “fikr elementlari”ni ham o‘rgatishga qaratilgan. Ennis (2011) fikricha Pol-Elder modeli o‘quvchilarni nafaqat fikrlash elementlarini tushunishga, balki ularning fikrlash sifatini baholash uchun intellektual standartlarni qo‘llashga undash orqali ularda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Snyder (2008) Pol-Elder modeliga asoslangan rubrikalardan foydalanish o‘qituvchilarga nafaqat talabalarning yakuniy natijasini baholash imkonini, balki ularning fikrlash jarayonlarini ham ayni bir vaqtda baholashga imkon berishini ta’kidlaydi. Beyer (2012) ishlarida esa ushbu model tadqiqotchilarga argumentlarining ravshanligi va mantiqiyligini yaxshilashda qanday yordam berganligi tekshirilgan. Shuningdek, model dalillarga asoslangan murakkab fikrlash jarayonini qanday qilib osonlashtirishini o‘rganadi. Kuhn (1999) modelning tadqiqotlarda taxminlar va oqibatlarni baholashga berilgan urg‘usi mavjud dalillarni yanada chuqurroq tahlil qilishni talab qiladi va tadqiqot masalasiga bo‘lgan intellektual qiziqishni kuchaytiradi deb ta’kidlaydi.

Metodologiya. Pol-Elder tanqidiy fikrlash modeli bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga qanday ta’sir qilishi va muammolarni hal qilish jarayonida tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishini tekshirish maqsadida quyidagi eksperimentni ko‘rib chiqamiz. Tajriba uchun 60 nafar Urganch davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarni tanlab olamiz. Ularni ikkita tajriba va nazorat guruhlariga ajratib olamiz. Ikkala guruhda ham tanqidiy fikrlash bo‘yicha teng bilimlar bo‘lishi kerak (bu, oldindan berilgan tanqidiy fikrlash testi orqali o‘lchanadi). Tajriba guruhi Pol-Elder modeliga asoslangan tanqidiy fikrlashni rivojlantirish dasturi asosida o‘qitiladi. Nazorat guruhi an’anaviy o‘qitish usullari asosida o‘qitiladi, bunda tanqidiy fikrlashga alohida e’tibor berilmaydi. Eksperiment 8 hafta davomida o‘tkaziladi, har hafta 2 soatlik dars tashkil etiladi. Har bir darsda Pol-Elder modelining turli komponentlari (fikr elementlari, intellektual standartlar, argumentatsiya)ga e’tibor beriladi. Eksperiment boshlanishidan oldin barcha ishtirokchilarga tanqidiy fikrlash bo‘yicha test o‘tkaziladi. Bu test o‘quvchilarning analitik fikrlash, mantiqiy tahlil va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini baholashga qaratiladi. Eksperiment oxirida, 8 hafta o‘tgach, ishtirokchilarga yana bir marta tanqidiy fikrlash testi o‘tkaziladi. Tanqidiy fikrlashni o‘lchash uchun Fikrlashning umumiy ko‘nikmalari testi (Critical Thinking Skills Test) yoki shunga o‘xshash maxsus testlardan foydalaniladi. Ushbu testlar o‘quvchilarning analitik fikrlash, qaror qabul qilish, muammo yechish va

argumentatsiya qobiliyatlarini o‘lchaydi. O‘quvchilarga Pol-Elder modeliga asoslangan yondashuvlar orqali tanqidiy fikrlashni o‘rgatish:

a) Fikr elementlarini tahlil qilish (savol, maqsad, dalil, axborot).
b) Intellektual standartlar orqali fikrlarni baholash (aniqlik, dolzarblik, tartib, mantiqlik).
c) Muntazam aks ettirish va fikrlarni himoya qilish.
d) Guruh muhokamalari va kooperativ o‘qish jarayonlari.

Nazorat guruhiga tanqidiy fikrlashga alohida e’tibor bermagan holda an’anaviy o‘qitish metodlari orqali ma’ruzalar, mashqlar va ko‘nikmalarni rivojlantirish. Bu guruhda talabalar faqat ma’lum mavzularni yod olish va tushunishga qaratilgan metodlardan foydalanadilar. Har hafta guruh muhokamalari va yozma ishlar orqali o‘quvchilarning fikrlash jarayonlari tahlil qilinadi. Tajriba guruhidagi o‘quvchilardan fikrlarining mantiqan aniq va o‘zaro izchil ekanligi talab qilinadi. Tajribadan oldingi va keying natijalar quyidagi jadvalda berilgan.

Guruhlar	O‘rtacha ball	Standart og‘ish	Ishtirokchilar soni
Tajriba guruhi (Oldin)	50	10	30
Nazorat guruhi (Oldin)	50	12	30
Tajriba guruhi (Keyin)	75	8	30
Nazorat guruhi (Keyin)	60	11	30

T-test yordamida tahlil:

Noll gipotezani inobatga olsak ya’ni tajriba guruhi va nazorat guruhi o‘rtasida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarida farq yo‘q. **Alternativ gipoteza**da esa tajriba guruhi va nazorat guruhi o‘rtasida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarida sezilarli farq mavjud. T-test uchun formula:

$$t = \frac{(\bar{X}_1 - \bar{X}_2)}{\sqrt{\frac{s_1^2}{n_1} + \frac{s_2^2}{n_2}}}$$

Bu yerda:

$\bar{X}_1$ va $\bar{X}_2$ - tajriba va nazorat guruhlarining o‘rtacha ballari.

s_1^2 va s_2^2 - har bir guruhning varianslari(standart og‘ishning kvadrati).

n_1 va n_2 - har bir guruhdagi ishtirokchilar soni.

Formulaga qo‘yib hisoblaymiz:

$$t = \frac{(75-60)}{\sqrt{\frac{8^2}{30} + \frac{11^2}{30}}}$$

$$t = \frac{15}{\sqrt{\frac{64}{30} + \frac{121}{30}}}$$

$$t = \frac{15}{\sqrt{2.13+4.03}} = \frac{15}{\sqrt{6.16}} = \frac{15}{2.48} \approx 6.05$$

30 kishilik guruh uchun **t-taqsimoti**da 0.05 ishonchlilik darajasida **kritik qiymat** taxminan **2,042** ga teng bo‘ladi. Bizning hisoblangan **t-qiymatimiz** 6.05 bo‘lib, bu **kritik qiymatdan** katta. Demak, **null gipoteza**ni rad etishimiz mumkin, ya’ni **tajriba guruhi va nazorat guruhi o‘rtasida statistika jihatidan ahamiyatli farq mavjud.** P-qiymatni hisoblash uchun **t-taqsimoti**dan foydalaniladi. Bizning **t-qiymatimiz** 6.05 bo‘lib, P-qiymat 0.0001 dan kam bo‘ladi, bu esa 0.05 darajadagi ishonchlilik uchun juda kichikdir. Demak, bu **statistik jihatdan**

ahamiyatli farqni anglatadi. Eksperimentdan olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, **tajriba guruhi** o‘qitilgan Pol-Elder modeliga asoslangan metodlar orqali **nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yaxshilangan.** T-test natijalari tajriba guruhining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining o‘sishini ko‘rsatmoqda. Bundan kelib chiqadiki, Pol-Elder modeli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirgan va bu pedagogik yondashuv samarali ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Pol-Elder modeli boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu model o‘qituvchilarga nafaqat o‘z fikrlarini tahlil qilishni, balki o‘quvchilari uchun tanqidiy fikrlash jarayonini yaratishda yordam beradi. Modelning asosiy tamoyillari qarorlar qabul qilish, fikrlarni baholash va tahlil qilishni o‘rgatadi, bu esa o‘qituvchilarga o‘z o‘quvchilarini faol va mustaqil fikrlashga yo‘naltirish imkonini beradi. Har bir bosqichda, o‘qituvchilar o‘quvchilarga savollarni yangi nuqtai nazardan ko‘rishga, izlanishga va o‘z fikrlarini puxta shakllantirishga yordam beradi. Pol-Elder modeli o‘qituvchilarni o‘z kasbiy rivojlanishiga undaydi, ularga metodik yondashuvni kuchaytirishda yordam beradi va ta’lim jarayonini yanada samarali qilishga turtki bo‘ladi. Natijada, bu model o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirib, ta’limning sifatini yaxshilaydi va o‘quvchilarning fikrlash darajasini yangi yuksakliklarga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. **Paul, R., & Elder, L.** *Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Professional and Personal Life.* Pearson Education. 2011
2. **Fakione, J.** *Critical Thinking: What It Is and Why It Counts.* Foundation for Critical Thinking. 2011
3. **Ennis, R. H.** *Critical Thinking: A Streamlined Conception. In Critical Thinking: A Concise Guide.* Routledge. 2011
4. **Snyder, L.** *Critical Thinking in the Classroom: Teaching for Reasoning.* Critical Thinking Press & Software. 2008
5. **Beyer, B. K.** *The Impact of the Paul-Elder Model on Teaching and Learning.* Journal of Educational Psychology, 104(3), 674-687. 2012
6. **Kuhn, D.** *Metacognitive Development. In Handbook of Child Psychology* (6th ed.). Wiley. 1999

ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ В СТРОИТЕЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: АДАПТАЦИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА И СТРАТЕГИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

Эркин Халтурсунов,
Туринский политехнический университет в Ташкенте, PhD, доцент,
Махбуба Шерматова,
Туринский политехнический университет в Ташкенте, докторант

Аннотация

Строительный сектор Узбекистана обладает значительным потенциалом для повышения энергоэффективности. В последние годы в стране появились новые здания, реализующие современные энергоэффективные технологии, такие как принципы пассивного дома и интеграция возобновляемых источников энергии. Анализ международного опыта позволяет адаптировать успешные стратегии к местным условиям. Несмотря на ряд препятствий, включая высокие первоначальные инвестиции и недостаточное финансирование, применение комплексных мер, таких как государственные стимулы, обновление нормативных актов и повышение осведомленности, может способствовать устойчивому развитию строительного сектора. В статье рассматриваются практические примеры, преимущества энергосберегающих решений и рекомендации по их внедрению.

Ключевые слова: *энергоэффективность, пассивный дом, строительный сектор, возобновляемая энергия, устойчивое развитие, Узбекистан, международный опыт.*

Annotatsiya

O‘zbekiston qurilish sektori energiya samaradorligini oshirish uchun salmoqli salohiyatga ega. So‘nggi yillarda mamlakatimizda passiv uy tamoyillari va qayta tiklanadigan energiya manbalarini integratsiyalash kabi zamonaviy energiya tejamkor texnologiyalarni joriy qiluvchi yangi binolar paydo bo‘ldi. Xalqaro tajribani tahlil qilish muvaffaqiyatli strategiyalarni mahalliy sharoitga moslashtirish imkonini beradi. Bir qator to‘siqlarga, jumladan, boshlang‘ich investitsiyalarning yuqoriligi va yetarli mablag‘ ajratilmaganiga qaramay, davlat tomonidan rag‘batlantirish, yangilangan me’yoriy-huquqiy hujjatlar va aholining xabardorligini oshirish kabi kompleks chora-tadbirlardan foydalanish qurilish sohasini barqaror rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin. Maqolada amaliy misollar, energiya tejovchi echimlarning afzalliklari va ularni amalga oshirish bo‘yicha tavsiyalar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *energiya samaradorligi, passiv uy, qurilish sektori, qayta tiklanadigan energiya, barqaror rivojlanish, O‘zbekiston, xalqaro tajriba.*

Abstract

The construction sector of Uzbekistan has significant potential for increasing energy efficiency. In recent years, new buildings have appeared in the country, realizing modern energy-efficient technologies, such as the principle of passive house and integration of renewable energy sources. Analysis of international experience allows adapting successful strategies to local conditions. Nesmotrya na ryad prepyatstvii, vklyuchaya vysokie pervonachalnye investitsii i dosstatochnoe finansirovanie, primenenie kompleksnykh mer, takikh kak gosudarstvennye stimily, obnovlenie normativnykh actov i povyshenie osvedomlennosti, mojet sposobstvovat ustoychivomu razvitiyu stroitelnogo sektor. V state rassmatrivayutsya prakticheskie primery, preimushchestva energosberegayushchikh resheniy i rekomendatsii po ix vnedreniyu.

Keywords: *energy efficiency, passive house, construction sector, renewable energy, sustainable development, Uzbekistan, international experience.*

Введение. Рост потребления энергии и необходимость снижения выбросов углерода ставят перед строительным сектором Узбекистана задачу внедрения энергоэффективных технологий. В последние годы в стране реализованы проекты, демонстрирующие успешное применение энергосберегающих решений. Однако для масштабного внедрения энергоэффективных стратегий необходимо учитывать международный опыт и адаптировать его к местным климатическим и экономическим условиям. Настоящая статья рассматривает примеры успешных проектов, анализирует барьеры на пути их внедрения и предлагает меры по стимулированию энергоэффективного строительства.

Анализ существующих исследований в области энергоэффективного строительства

Вопросы повышения энергоэффективности в строительном секторе являются ключевыми для многих стран, включая Узбекистан, где значительная часть энергии потребляется зданиями и сооружениями. Современные исследования подчеркивают необходимость внедрения инновационных технологий и передовых практик для снижения энергопотребления и минимизации экологического воздействия строительной отрасли [1].

Одним из основных направлений повышения энергоэффективности является использование энергоэффективных материалов и технологий строительства. Например, применение теплоизоляционных материалов на основе минеральной ваты, пенополиуретана или современных композитов позволяет значительно снизить теплопотери в зданиях [2]. Эти материалы характеризуются низкой теплопроводностью и долговечностью, что делает их особенно привлекательными для использования в регионах с суровыми климатическими условиями, таких как Узбекистан. Кроме того, активно обсуждается роль "зеленых" технологий, таких как установка солнечных панелей, использование энергоэффективных окон и систем умного управления энергопотреблением [3].

В контексте Узбекистана важно отметить исследования, посвященные региональным особенностям энергоэффективности. Согласно анализу, проведенному Агентством по развитию жилищно-коммунального хозяйства Узбекистана, существующие здания в стране характеризуются высоким уровнем энергопотребления, что связано с устаревшими строительными нормами и недостаточным вниманием к энергосбережению при проектировании [4]. Многие здания, построенные в

советский период, имеют низкие показатели теплоизоляции и устаревшие системы отопления, что приводит к значительным потерям энергии. В то же время, международные эксперты подчеркивают, что адаптация глобальных стандартов энергоэффективности к местным условиям может стать ключевым фактором успеха [5]. Например, использование пассивных систем отопления и охлаждения, которые учитывают особенности климата Узбекистана, может значительно снизить энергопотребление.

Интерес представляет опыт других стран с аналогичными климатическими условиями. Например, Казахстан и Турция успешно внедряют программы модернизации существующих зданий, включая замену старых систем отопления и вентиляции на более эффективные, а также стимулируют строительство новых объектов с использованием энергоэффективных технологий [6]. Эти примеры демонстрируют важность государственной поддержки и создания благоприятной нормативно-правовой базы для развития энергоэффективного строительства. В частности, в Турции действуют программы субсидирования проектов, связанных с использованием возобновляемых источников энергии, что способствует их широкому распространению.

Также стоит отметить исследования, посвященные экономическому аспекту энергоэффективности. По данным Всемирного банка, инвестиции в энергоэффективные технологии окупаются в среднесрочной перспективе за счет снижения затрат на энергоресурсы и увеличения стоимости недвижимости [7]. Однако для Узбекистана остаются актуальными вопросы финансирования таких проектов, поскольку многие застройщики сталкиваются с ограниченным доступом к кредитам и высокими первоначальными затратами [8]. Это особенно важно для малого и среднего бизнеса, который играет значительную роль в строительной отрасли страны. Решение этой проблемы может заключаться в разработке специальных программ кредитования и предоставлении налоговых льгот для компаний, внедряющих энергоэффективные технологии.

Наконец, нельзя игнорировать роль общественного сознания и образования в продвижении энергоэффективных практик. Исследования показывают, что информирование населения о преимуществах энергоэффективности способствует более широкому принятию новых технологий и стандартов [9]. Это особенно важно для Узбекистана, где традиционные подходы к строительству доминируют на рынке. Например, образовательные кампании, направленные на повышение осведомленности о преимуществах энергоэффективных зданий, могут способствовать изменению предпочтений потребителей и стимулировать спрос на такие объекты. Кроме того, обучение строителей и проектировщиков новым технологиям и методам работы является важным шагом на пути к повышению энергоэффективности в строительной отрасли.

Важным аспектом является также рассмотрение роли цифровых технологий в повышении энергоэффективности. Современные системы автоматизации и мониторинга энергопотребления позволяют оптимизировать использование ресурсов и выявлять потенциальные области для улучшений [10]. Например, системы "умный дом" могут автоматически регулировать температуру, освещение и другие параметры в зависимости от времени суток и наличия людей в помещении. Это не только снижает энергопотребление, но и повышает комфорт для жильцов. В Узбекистане такие технологии пока находятся на начальной стадии внедрения, но их потенциал огромен.

Практические примеры и передовой опыт. Строительный сектор Узбекистана имеет значительный потенциал для повышения энергоэффективности. В последние годы появилось несколько новых зданий, в которых реализованы энергоэффективные стратегии проектирования, предлагающие ценные идеи о передовой практике.

Одним из ярких примеров является принятие принципов пассивного дома, которые отдают приоритет герметичной конструкции, превосходной изоляции и вентиляции с рекуперацией тепла для минимизации нагрузок на отопление и охлаждение [1]. Эти стратегии проектирования были успешно реализованы в Узбекистане, что привело к существенному сокращению потребления энергии и выбросов углерода. Кроме того, интеграция солнечных фотоэлектрических систем еще больше повысила энергоэффективность этих зданий, что позволило им вырабатывать часть собственной электроэнергии на месте [2].

Хотя первоначальные инвестиционные затраты на энергоэффективные здания, как правило, выше, долгосрочные выгоды в виде сокращения счетов за электроэнергию, снижения выбросов углерода и повышения комфорта для жильцов являются весомым аргументом в пользу их принятия [2]. Поскольку Узбекистан продолжает развивать свой строительный сектор, крайне важно применять уроки, извлеченные из этих тематических исследований, и изучать потенциал адаптации успешных стратегий энергоэффективности из других стран, таких как Германия, Швеция и Япония, к местным условиям [1] [3].

Международный опыт и его применимость. Германия, Швеция и Япония внедрили эффективные стратегии энергоэффективного строительства, которые могут быть актуальны для Узбекистана. Например, использование принципов пассивного дома и интеграция технологий возобновляемой энергии сыграли важную роль в достижении высокого уровня энергоэффективности в зданиях в этих странах. Анализируя примеры и передовой опыт международного опыта, Узбекистан может выявить возможности для адаптации и применения наиболее актуальных и эффективных стратегий в своем строительном секторе с учетом местного климата, ресурсов и практики строительства.

Проблемы и препятствия на пути внедрения. Энергоэффективность широко признана как важнейшая стратегия для решения растущего спроса на энергию и экологических проблем во всем мире. Однако внедрение энергоэффективных технологий и практик в Узбекистане столкнулось с рядом существенных проблем.

Одним из основных препятствий является высокая первоначальная стоимость этих технологий, что часто препятствует их широкому внедрению [1] [2]. Ограниченный доступ к вариантам финансирования еще больше усугубляет эту проблему, затрудняя для частных лиц и организаций инвестирование в энергоэффективные решения [3]. Кроме того, отсутствие осведомленности и опыта среди строителей, застройщиков и жителей о преимуществах и передовых методах энергоэффективности может препятствовать прогрессу [2].

Нормативные и политические ограничения также представляют собой существенное препятствие. Слабое обеспечение соблюдения норм энергоэффективности и устаревшие строительные нормы создают нормативную среду, которая недостаточно стимулирует или обязывает к принятию мер по повышению энергоэффективности [1].

Кроме того, суровые климатические условия Узбекистана и ограниченная доступность передовых энергоэффективных технологий на местном рынке представляют собой дополнительные проблемы. Для преодоления этих барьеров необходим комплексный подход, включающий политические реформы, финансовые стимулы и кампании по повышению осведомленности общественности.

Рекомендации по политике и будущие стратегии. Поощрение энергоэффективного строительства имеет решающее значение для Узбекистана в плане сокращения потребления энергии и борьбы с изменением климата. Для достижения этой цели можно использовать несколько ключевых стратегий, включая государственные стимулы, ужесточение строительных норм, наращивание потенциала и инвестирование в исследования и разработки.

Во-первых, государственные субсидии, налоговые льготы и кредиты с низкими процентными ставками могут быть эффективными в поощрении инвестиций в энергоэффективные здания [1]. Эти финансовые стимулы могут сделать энергоэффективное строительство более доступным и привлекательным для застройщиков и домовладельцев, способствуя его широкому внедрению.

Во-вторых, обновление строительных норм для обязательного применения энергоэффективных методов строительства имеет важное значение для обеспечения долгосрочного повышения энергоэффективности. Усиление правил и правоприменение могут заставить строительную отрасль внедрять энергоэффективные методы, создавая равные условия и стимулируя инновации.

Программы по наращиванию потенциала и повышению осведомленности общественности также имеют решающее значение для ускорения перехода к энергоэффективному строительству. Программы обучения для архитекторов, инженеров и строителей могут снабдить их необходимыми навыками и знаниями для внедрения энергоэффективного проектирования и методов строительства. Одновременно

кампании по повышению осведомленности общественности могут информировать домовладельцев и жильцов зданий о преимуществах энергоэффективных зданий, создавая спрос и поддерживая переход.

Наконец, инвестиции в местные исследования и разработки в области энергоэффективных строительных материалов и технологий могут способствовать инновациям, адаптированным к особенностям климата и потребностям Узбекистана [2]. Это может привести к разработке экономически эффективных и культурно приемлемых решений, которые могут быть широко приняты, что еще больше ускорит переход к устойчивому строительству.

Заключение

Повышение энергоэффективности в строительном секторе Узбекистана играет ключевую роль в сокращении потребления энергии и снижении негативного воздействия на окружающую среду. Применение передовых технологий, таких как пассивный дом и солнечная энергетика, уже демонстрирует успешные результаты. Анализ международного опыта показывает, что сочетание финансовых стимулов, нормативных реформ и образовательных программ способствует эффективному переходу к устойчивому строительству. Узбекистану необходимо активное взаимодействие государства, бизнеса и общественности для преодоления существующих барьеров и создания благоприятных условий для дальнейшего развития энергоэффективного строительства.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

[1] Международное энергетическое агентство (IEA). (2022). Энергоэффективность в строительстве: Глобальные тренды и перспективы.

[2] Smith J., & Brown A. (2021). Advanced Materials for Energy-Efficient Construction. Journal of Sustainable Building, 15(3), 45-60.

[3] Zhang L., & Wang H. (2020). Smart Technologies in Green Building Design. Renewable Energy Review, 28, 123-135.

[4] Агентство по развитию ЖКХ Узбекистана. (2021). Анализ текущего состояния энергоэффективности в жилых зданиях.

Shu bois bo‘lsa kerak, jadidchilik harakati o‘zining innovatsion g‘oyalari bilan qancha vaqt o‘tsada, o‘zining falsafiy mazmun-mohiyati va dolzarbligini yo‘qotmayapti. Aksincha o‘tgan yillar davomida Yangi O‘zbekiston ijtimoiy taraqqiyoti ideosferasini insonparvarlik g‘oyalari bilan ezgulikka, yangilikka, adolatparvarlikka, ilm-ma’rifat va Uchinchi Renessansni bunyod etishga chorlab kelmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda inson qadri ulug‘lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarimiz jadid bobolarimizning ezgu g‘oya va dasturlariga har jihatdan uyg‘un va hamohangdir” [3]. Darhaqiqat, bugun yurtimizni dunyodagi rivojlangan davlatlar, xalqimizni taraqqiy topgan millatlar qatoridan munosib joy olishi – jadidchilik g‘oyasining asosini tashkil etadi. Ta’kidlash joizki, ushbu bunyodkor g‘oyalar – Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessanni bunyod etish g‘oyasi bilan hamohang bo‘lmoqda. Ushbu g‘oyani hayotga tatbiq etish uchun millat oydinlari, birinchi navbatda, yangi usulda ta’lim-tarbiya, jahonda kechayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlardan xabardor, ma’rifatli yoshlarni tarbiyalash yo‘lidan borishgani ham bugungi islohotlarimiz bilan uyg‘un ekanligidan dalolat beradi. Bu yo‘lda Abdulla Avloniy, Behbudiy, Munavvarqori, Ubaydulla Xo‘jayev, Fayzulla Xo‘jayev, Akmal Ikromov, Abdurauf Fitrat, Ishoqxon Ibrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug‘ ma’rifatparvarlar milliy uyg‘onish harakatining rivojiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar.

Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, xalq siyosiy dunyoqarashi va yashash tarzini o‘zgartirishga yo‘naltirilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar faoliyatini yo‘lga qo‘ydilar. Yoshlarni rivojlangan davlatlarga o‘qishga yuborib, kadrlar masalasiga e’tibor qaratdilar. Shuningdek, davlat boshqaruvi, sud-huquq, moliya, soliq tizimlari va yer masalalarini isloh qilish bo‘yicha g‘oyaviy va amaliy ishlarni amalga oshirdilar. Xullas, jadidlar jamiyat ideosferasini yangilash, millatimiz dunyoqarashini o‘zgartirish va milliy taraqqiyotga erishish, o‘zlarining innovatsion harakat dasturlarini ro‘yobga chiqarish borasida bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Ammo ular o‘sha davrdagi siyosiy tuzum va vaziyat sababli o‘z dasturlariga

qo‘ygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga muvaffaq bo‘la olmadilar. O‘sha davrdagi siyosat va tuhmatlar sabab dastlab rus podsholigi, keyinchalik sho‘rolar hukumati siyosatining qurboniga aylanishdi. Ularning milliy ozodlik va xalq baxt-saodati uchun jonlarini fido qilish yo‘lidagi ilmiy-ma’rifiy, g‘oyaviy, mafkuraviy meroslari bugungi davr taraqqiyotida muhim poydevor vazifasini o‘tamoqda.

XX asrning yirik siyosiy arboblardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919 yy) hisoblanib, u mamlakatni tanazzuldan, xalqni siyosiy bo‘shliqdan chiqarish uchun ilm-fanni rag‘batlantirish zarurligini uqtiradi. Uning fikricha, millat va jamiyat ideosferasi yuksalishi uchun: “Har zamon uchun asbobi isloh va taraqqiyi ionat boshqarur. Millatg‘a ionat emoq uchun, islohi maktab va mudarris uchun, rusiy maktablarig‘a bola tayyorlamoq uchun, dehqon va san’atkorlarni rivoj bermoq uchun “Jamiyati xayriya”, “Nashri maorif”, qiroatxonalar, fo‘ndlar, kurjuklar, jaridalar, majallalar, nashriyotlar... kerakdur” [4].

Behbudiy jamiyat siyosiy tafakkurini yangilanish uchun mamlakatda keng ko‘lamli islohotlar o‘tkazish lozimligini ta’kidlaydi. Shu maqsadda alloma insonni zamon va madaniyatdan xabardor bo‘lishi uchun matbuot va teatr zarurligini yoqlab chiqadi. Behbudiy o‘zbek dramaturgiyasining birinchi “Padarkush” dramasi, ayni shu maqsadda yaratilib, jaholat va nodonlik oqibatlarini ochib beradi. Xullas, Behbudiy jamiyat mafkurasini shakllantirishda milliy qadriyatlarni asragan holda rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqadigan mustaqil va yangicha fikrlaydigan yosh avlodni tarbiyalash yo‘lida o‘zining beqiyos xizmatini ko‘rsatgan.

Abdulla Avloniy (1878-1934 yy) jamiyat tafakkurini ma’rifat va tarbiya orqali yuksaltirish lozimligi, tarbiya yoshlarda bilim, axloqiy fazilat va yaratuvchanlik xislatlarini shakllantiruvchi vosita ekanligini uqtiradi. Xususan, uning “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g‘ayratlik bo‘lishiga sabab bo‘ladur” [5], – degan so‘zlari tasdiqlaydi. Bugungi davrda allomaning jamiyat ongini ma’rifiy jihatdan yuksalishi va barkamol avlodni milliy – axloqiy tarbiya ruhida kamol toptirish bu jamiyat rivojining muhim omillardan biri ekanligi haqidagi qarashlari ham o‘z ahamiyati va qimmatini yo‘qotmagan.

Jadidchilik harakatining nazariy asoschilaridan biri Abdurauf Fitrat (1886-1938 yy) tomonidan ilgari surilgan taraqqiyparvarlik g‘oyalari, uning ibratli siyosiy faoliyati va fuqarolik jasorati faqatgina olim yashab ijod etgan davr uchun ahamiyat kasb etmay, hozirgi davr uchun ham o‘ziga xos mahorat va ibrat maktabi bo‘lib kelmoqda. Fitrat butun umri davomida Turkistonning ozod va mustaqil bo‘lishi uchun ilm-ma’rifatni targ‘ib qilganligini uning “Islohot va Buxoro” dasturini ishlab chiqishda yetakchilik qilganligi isbotlaydi. U jamiyat tafakkurini o‘zgaritish yo‘lidan borib, bunda xalq orasida ma’rifat tarqatishni, maktab va oliy o‘quv yurtlarini isloh qilish zarurligini uqtiradi: “Bas, ma’lum bo‘ladiki, bani Odam ibtidodan to hozirgi kungacha taraqqiy qilib kelgan va taraqqiy qiladi ham. Shunday qilib, odamda hayot g‘oyasi bor ekan, ya’ni hazrati Xoliqi hakim insonlar uchun bir baland martabani va bir a’lo manzilni ko‘rsatgan ekan, inson ham unga qarab harakat qiladi, taraqqiy etadi” [6].

Cho‘lpon (1897-1938 yy) milliy uyg‘onish harakatida o‘chmas iz qoldirib, Turkistonda hurfikrlikka erishish va milliy tafakkurni yuksaltirishda adabiyotning beqiyos ahamiyatga ega ekanligini qayd etgan. Shuning uchun u: “Adabiyot yashasa – millat yashar. Adabiyoti o‘lmag‘an va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishdirmag‘an millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo‘lur. Muni inkor qilib bo‘lmas. Inkor qilg‘an millat o‘zini inqirozda ekanun bildirur!” [7]. Xullas, Cho‘lpon jamiyat tafakkurini yuksaltirish yo‘llarini tahlil qilish orqali adabiy, ijtimoiy-siyosiy bilimlarni oshirishga va buni butun jamiyat hayotiga targ‘ib qilishga harakat qilgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931 yy) jamiyat siyosiy ongini yuksaltirish masalasiga to‘xtalar ekan, bu borada ta’lim va tarbiyaga alohida e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, ta’lim-tarbiya − milliy g‘oya va milliy o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurni, mustaqil fikrni shakllantirish vositasidir. “Tarbiyali bola ulug‘larni izzat va hurmat qilur. O‘zi barobarig‘a yaxshi muomala qilur. Va o‘zidan kichiklarga shafqat va marhamat qilur. Har kimning qadrini bilur. O‘zidan rozi qilmoqg‘a harakat qilur. Qo‘lidan kelganicha boshqa insonlarga yordam berur...” [8]. Demak, mutaffakir jamiyat taraqqiyotida ilm-ma’rifat rolini e’tirof etib, Turkiston xalqini ilm-fan yutuqlaridan bahramand bo‘lishi jamiyat ideosferasi taraqqiyotiga xizmat qilishini e’tirof etadi.

Davlat va jamoat arbobi Fayzulla Xo‘jayev (1896-1938 yy) tomonidan ilgari surilgan g‘oya va islohotlar hozirgi davrda buyuk allomalar, aziz-avliyolar merosini, atoqli davlat arboblari, yengilmas sarkardalar, zamondoshlarimiz jasoratini yoshlarga yetkazishda, ularning qalbida Vatanga sadoqat, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini kuchaytirishda hissa qo‘shgan. F.Xo‘jayev 1913-yilda jadidlar harakatiga qo‘shilib, Buxoroda demokratik harakat jamiyat siyosiy ongini o‘zgartirmasdan turib bo‘lmasligini anglab, aholi o‘rtasida bilim, ma’rifat va madaniyat tarqatish uchun o‘z kuch-g‘ayratini ayamadi. Jumladan, F.Xo‘jayev tomonidan ishlab chiqilgan 5 yillik reja asosida xalq maorifi sohasida bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalarni ilgari surdi [9].

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, buyuk ma’rifatrarvarlarning jamiyat siyosatini yangilanish, mafkura va mafkuraviy faoliyatni tizimli yo‘lga qo‘yishga oid qarashlari XX asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ko‘ra ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Keltirilgan ushbu asoslar shundan dalolat beradiki, jadidlar hayot yo‘li, ularning ma’naviy merosi Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti uchun yangicha siyosiy muhitni yaratib bermoqda. Professor Ismoil Saifnazarov asoslab berganidek, “Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan amaliy ishlar jadidchilik harakatining asosiy g‘oya va maqsadlari bilan uyg‘un va hamohangdir. Shu sababli biz tariximiz, xususan, ma’rifatparvar ajdodlarimiz merosini chuqur o‘rganib, ulardan bugungi shiddatli zamon uchun ibratli xulosalar chiqarib yashashimiz zarur” [10]. Demak, ana shunday bilim va ma’rifat asosida tahsil olayotgan yoshlarni tarbiyalash va mana shu ikki tayanch ustun orqali mamlakatimizning rivojlangan davlatlar safidan o‘rin olishiga hissa qo‘shishimiz mumkin. Bu milliy g‘oyamizga ishonch va e’tiqodni mustahkamlaydigan innovatsion mexanizmlarni yaratishga asos bo‘ladi. Ammo shuni yodda saqlash lozimki, biz faqatgina ajdodlarimiz yaratgan merosga mahliyo bo‘lib, kelajakni yoddan chiqarmasligimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Normatov K. Ta’lim va fan ma’rifiy-siyosiy ehtiyojni ruhan poklash vositasi //“Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2023-yil 25-may, №101 (890).
2. Ergasheva M. Jadidlar ilm olish huquqini tiklash yo‘lida //Huquq va burch, №2, 2024. –B.16-18.
3. Mirziyoyev Sh.M. Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga //“Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2023-yil 12-dekabr, №258 (1047).
4. Маҳмудхўжа Беҳбудий Танланган асарлар: Жилд I /Масъул муҳаррир: Баҳодир Каримов. – Тошкент: “Академ нашр”, 2018. –Б.391.
5. Abdulla Avloniy. So‘ylasang so‘yla yaxshi so‘zlardin. –Toshkent: “Ma’naviyat”, 2022. –B.14.
6. Abdurauf Fitrat Najot yo‘li. –Toshkent: “Ma’naviyat”, 2022. –B.14-15.
7. Абдулҳамид Чўлпон. Асарлар: Жилд IV /Масъул муҳаррир: Д.Неъматова. –Тошкент: “Академ нашр”, 2016. –Б.4.
8. Мунаввархори Абдурашидхонов. Танланган асарлар. –Тошкент: “Маънавият”, 2003. –Б.77.
9. Хўжаев Ф. Танланган асарлар: 2 том /Масъул муҳаррир: Саломова Ш.С. –Тошкент: “Фан”, 1978. – Б. 289.
10. Saifnazarov I. Taraqqiyot yoxud tanazzul: qay biri tomonn borishimiz bugungi intilishlarimiz shiddatiga bog‘liq //“Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2023-yil 9-noyabr, № 233 (1022).
11. Turdiyev, B. (2021). Behbudi’s views on the spiritual renewal of society. Центр Научных Публикаций (buxdu. uz), 5(5).
12. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.

VALEOLOGIYA – SALOMATLIK VA SOG‘LOM TURMUSH TARZI HAQIDAGI TA’LIMOTNI TALABALARGA O‘RGATISH METODLARI

Turg‘un Xoldarov,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi p.f.n.dotsenti
Abdukarim Jo‘rabaev,
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi katta o‘qituvchisi
Umarali Jo‘raev,
Jizzax davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarini valeologiya fani orqali salomatlik va sog‘lom turmush tarzi haqidagi bilimlarini, valeologiya asosiy tushunchalari, salomatlik ahvolining miqdorini baholash va uni tadqiq etish, sog‘lom hayot tarzi yuritishga maqsadni shakllantirish, salomatlikni saqlash va mustahkamlashga oid tadqiqot ma’lumotlari berilgan. Sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya jarayonida hal qilinishi lozim bo‘lgan ta’lim vazifalari kabilar qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: *salomatlik, sog‘lom hayot, sog‘lomlashtirish, psixologik, salomatlik kushandalari, jismoniy rivojlanish, ovqatlanish, dam olish, oits, darajasini aniqlash, vosita, musobaqa mashg‘ulotlari.*

Annotation

This article provides research information on the knowledge of health and healthy lifestyle of students of higher educational institutions through the science of valeology, basic concepts of valeology, assessment and research of health status, goal formation for healthy lifestyle, health maintenance and strengthening. The educational tasks to be addressed in the process of healing physical education is note.

Keywords: *Health, healthy life, health, psychological, health caughties, physical development, nutrition, restoration, recreation, means of emergence, tools, competitions.*

Аннотация

В этой статье исследование знаний о здоровье и здоровом образе жизни, основах здоровья высших учебных заведений, проводятся исследования по статусу здоровья и формировании здоровья, формировании здорового образа жизни, сохранении здоровья и укреплении. Образовательные задачи, которые должны решаться в процессе исцеления физического воспитания.

Ключевые слова: *здоровье, здоровая жизнь, здоровье, психологическое, медицинское страхование, физическое развитие, питание, восстановление, отдых, средства появления, инструменты, соревнования.*

Kirish. Oliy ta’lim muassasalari tarbiyasining eng muhim vazifasi tashkilotchilik va ijtimoiy-siyosiy ishlarga layoqatli, rahbarlik va murabbiylik qobiliyatiga ega yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashdir. Oliy ta’lim muassasida tarbiyaviy jarayon ko‘p qirrali bo‘lib, g‘oyaviy-siyosiy, ma’naviy, kasbiy, mehnat, estetik, huquqiy va valeologik yo‘nalishlarini o‘z ichiga qamrab oladi.


Jismoniy tarbiya, valeologiyaning tarkibiy qismi sifatida, salomatlikni mustahkamlashga, o‘quv jarayoni unumdorligini oshirishga, jismoniy madaniyat elementlarini shakllantirishga qaratilgandir. Bitiruvchi-mutaxassislarning ijtimoiy-kasbiy vazifalarini bajarish darajasi, ularning jismoniy yetukligi, gavda tuzilishi, jismoniy tayyorgarligi, salomatligining ahvoli, ishga layoqatligi ularning kasbiy mahoratini belgilaydi. Mustahkam salomatlik–jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanish, sog‘lom hayot tarzini olib borishning natijasi bo‘lib, o‘quv va mehnat faoliyati unumdorligining asosidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. «Valeologiya» lotincha so‘z bo‘lib, valoe-«salomatlik», «sog‘lom bo‘lish» ma’nosini anglatadi. Bu atamani birinchi bo‘lib K.I. Brexman (1987) yilda kiritdi. Valeologiya fan va o‘quv predmeti sifatida keng e’tibor qozonmoqda. Darslik mualliflaridan biri V.N. Vayner (2001)ning fikricha

«Valeologiya» oliy ta’lim muassasalarida o‘z o‘rniga ega.[1, 1323] Valeologiya - inson salomatligi, uni mustahkamlash yo‘llari, aniq sharoitlarda inson hayotiy faoliyatini shakllantirish va saqlash haqidagi bilimlarning fanlararo yo‘nalishidir. O‘quv fani sifatida u inson salomatligi va sog‘lom hayot tarzi haqidagi bilimlar majmuasini tashkil etadi. Valeologiyaning markaziy muammosi - individual salomatlikka munosabat va shaxsni individual rivojlantirish jarayonida salomatlik madaniyatini tarbiyalashdir.

Darslik mualliflaridan biri V.N. Vayner (2001)ning fikricha «Valeologiya» oliy ta’lim muassasalarida o‘z o‘rniga ega.

VALEOLOGIYA FANINING TARKIBIY TUZILISH JADVALI



Valeologiya predmeti-individual salomatlik va inson salomatligi zahiralari, shuningdek sog‘lom hayot tarzi demakdir. Valeologiyaning turli kasalliklarning oldini olishni tavsiya etuvchi profilaktik meditsinadan asosiy farqi ham shundadir. [2, 176] Valeologiya organizm tuzilishi va vazifalari, uning harakat imkoniyatlari, jismoniy holatini takomillashtirish, salomatlikni saqlash va yaxshilash, sog‘lom hayot tarzi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni tizimini o‘rganish, muntazam jismoniy mashqlarni bajarishga ehtiyojini mustahkamlashga yo‘naltirilgan faoliyat sifatida ko‘rib chiqiladi.

Shu munosabat bilan insonning jismoniy rivojlanishi haqidagi pedagogik qonunlarni tadqiq etish, shu asosda har tomonlama yetuk insonni shakllantirish bo‘yicha maxsus pedagogik tarbiya jarayoni nazariyasi va metodikasini aniqlash valeologiya fanining predmeti hisoblanadi. O‘qituvchilarning magistrlarda sog‘lom hayot tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni salomatlik va jismoniy yetuklikni asrash va yaxshilash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar bilan qurollan-tirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyati valeologiya fanining ob’ekti hisoblanadi. Jismoniy yetuklikka intilish deganda insonni turli hayotiy sharoitlarga optimal moslashuvini ta’minlovchi va faol

ijodiy turmush, o‘quv va kelajakdagi mehnat faoliyati, hayotdagi o‘rnining manbasi hisoblanuvchi jismoniy holati, jismoniy va funksional tayyorgarligi, gavda tuzilishi va jismoniy rivojlanishini yaxshi-lovchi pedagogik jarayon tushuniladi.

Valeologiya anatomiya, fiziologiya, psixologiya, sotsiologiya, falsafa, matematika, kibernetika va boshqa fanlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Valeologiyaning yuqorida qayd etilgan fanlar bilan bog‘liqligi haqida keyinroq aniq vazifalarini bayon etishda so‘z yuritiladi. Hozir esa bu muammoning ayrim umumiy masalalariga to‘xtalib o‘tish joiz.Valeologiya predmeti-individual salomatlik va inson salomatligi zahiralari, shuningdek sog‘lom hayot tarzi demakdir. Valeologiyaning turli kasalliklarning oldini olishni tavsiya etuvchi profilaktik meditsinadan asosiy farqi ham shunda. [2, 178].

Natija muhokama. Jismoniy tarbiyaning eng asosiy vazifasi inson salomatligini asrash va yaxshilashdir. Shu munosabat bilan inson salomatligi tibbiy-pedagogik tadqiqotlarning obyekti bo‘lishi lozim. Bu yerda jismoniy rivojlanish, gavda tuzilishi, yurak-qon tizimining ishlashi, jismoniy tayyorgarlik va jismoniy ahvol salomatlikning tarkibiy elementlari ekanligini qayd etish muhim. Shuning uchun insonni boshqarish va uning jismoniy yetukligiga erishish uchun jismoniy tayyorgarlikni qator ko‘rsatkichlar bo‘yicha kompleks baholash kerak. Olingan to‘liq ma’lumotlar asosida inson salomatligi darajasini aniqlash mumkin. Shuni aytib o‘tish kerakki, jismoniy komillikka erishish jarayonini individuallashtirish uchun insonning shaxsiy xususiyatlarini bilish kerak. Buning uchun turli psixologik testlardan foydalanish mumkin. Tibbiy pedagogik va psixologik tadqiqotlar ma’lumotlarini kompleks hisobga olish jismoniy holat haqida obyektiv axborot olish sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiyaning turlari va usullarini aniqlab olish imkonini beradi.

Maqola mualliflari tomonidan quyidagi xulosalarga kelishdi. Pedagogik tadqiqotlar, tibbiy tekshirishlar va axborot ta’minoti usullari qo‘llanilgan kompleks ma’lumotlar quyidagi masalalarni hal etishda yordam beradi:

-jismoniy ahvoli aniqlandi.

-jismoniy rivojlanish, jismoniy va funksional tayyorgarlikni baholash mezoni belgilandi.

-insonning jismoniy yetukligi dinamikasini aniqlandi.

-sog‘lomlashtirishning effektiv usullarini aniqlash yo‘lga qo‘yildi.

-yetuklikka erishish jarayonini rejalashtirish tizimi o‘rganildi.

-jismoniy yetuklikka erishishni individuallashtirildi.

-jismoniy mashqlar bilan mustaqil, muntazam, amaliy shug‘ullanishga ehtiyoji rivojlantirildi.

-o‘z-o‘zini nazorat qilish usullariga o‘rgatildi va h.k.[5, 6]

Insonning jismoniy yetukligi haqida ma’lumot pedagogik, tibbiy-biologik va psixologik ko‘rsatkichlar bilan bog‘liqlikda ko‘rib chiqilishi kerak, bu jismoniy ahvolni ob’ektiv boshqarish imkonini beradi. Pedagogik ko‘rinishlarni son jihatdan tahlil qilishda matematik statistik usuldan foydalanildi. Matematik statistika jismoniy yetuklikka erishish va jismoniy tarbiyaning ob’ektiv qonunlarini o‘rganishning effektiv usullaridan biridir. Jismoniy yetuklikka erishishning effektiv sog‘lomlashtiruvchi vositalarini aniqlash uchun jismoniy rivojlanishi, gavda tuzilishi va jismoniy, funksional tayyorligi ko‘rsatkichlarining korrelatsion bog‘liqligini aniqlash kerak. Yoshlarning jismoniy yetuklikka erishishining ilmiy asoslangan vositalarini aniqlashga bunday yondashuv sog‘lomlashtirish profilaktika ishlarini effektiv rejalashtirish va mashqlarni to‘g‘ri tanlash imkonini beradi. Ushbu maqolada biz valeologiyaning asosiy vazifalarini quyidagicha belgiladik:

-inson salomatlligi va sog‘liq rezervlarini tadqiq etib va son jihatdan baholash meyorini ishlab chiqdik.

-talabalarni sog‘lom hayot tarziga yo‘naltirishga yo‘llanma berildi.

-inson salomatligi va sog‘liq rezervlarini sog‘lom hayot tarziga yo‘naltirish orqali saqlash va mustahkamlashga tavsiya berildi.

Jismoniy yetuklikka erishish - salomatlikni asrash va mustahkamlashdir, shunday ekan sog‘lomlashtirish ta’lim va tarbiyaviy masalalarni hal etadi. Insonlarda yuksak axloqiy-siyosiy sifatlarni shakllantirish, mustahkam intizom ko‘nikma va odatlarini hosil qilish valeologiyaning tarbiyaviy vazifalariga kiradi. Jismoniy tarbiya pedagogik jarayon sifatida har tomonlama ta’lim-tarbiyaviy ta’sir kuchiga ega.

Sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya jarayonida hal qilinishi lozim bo‘lgan ta’lim vazifalari hayotiy muhim, professional sport amaliy harakatlariga o‘rgatish va sog‘lom hayot tarzi ko‘nikma-larini tarbiyalashni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi asoslarini o‘rganish ham

ta’lim vazifalaridan biri hisoblanadi. Amalda mustahkamlangan bilimlar asosida sog‘lomlashtiruvchi jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanishning foydasi va zaruriyatiga ishonch shakllanadi. Salomatlikni mustahakamlash, tanani chiniqtirish, uning turli kasalliklarga qarshiligini oshirish bu pedagogik jarayonning sog‘lomlashtiruvchi vazifalari hisoblanadi. Sog‘lomlashtiruvchi vazifalarning muvaffaqiyati jismoniy mashg‘ulotlarning sog‘lomlashtiruvchi pedagogik prinsiplari talablariga rioya qilishga bog‘liqdir. Sog‘lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning jismoniy rivojla-nishi bilan bog‘liq muhim masala hal etiladi.

Jismoniy rivojlanish deganda organizm shakli va funksiyalari yetilishining pedagogik jarayoni tushuniladi. Jismoniy rivojlanish inson kuchi yetilayotgan paytda, shuningdek, uning salomatligida maxsus tashkil etilgan tarbiya ta’siri ostida ro‘y berayotgan sifat o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Bu ma’noda u jismoniy tarbiyaning natijasi sifatida ko‘rib chiqiladi.

Jismoniy yetuklik shaxsni jismoniy tarbiya vositalari yordamida shakllantiruvchi pedagogik jarayon natijasidir. Ta’lim berish - yuksak ishchanlik qobiliyatini tarbiyalash, salomatlikni asrash va mustahkamlash, sog‘lom hayot tarziga yo‘naltirish uchun kerak bo‘ladigan bilim va ko‘nikmalar bilan yoshlarni qurollantirishdir.

Biz pedagogik tadqiqotlarni turli usullar yordamida amalga oshirdik. Ularga quyidagilar kiradi: pedagogik kuzatish, pedagogik eksperiment, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va o‘zlashtirish, tadqiqotning ijtimoiy usullari (anketa, reyting), matematik statistika usullari, pedagogik g‘oyalarni nazariy tahlil qilish usuli va jismoniy rivojlanishni baholash usullari.

Shuni qayd etish kerakki, jismoniy tarbiya, asosan, insonni jismonan rivojlantirishga yo‘naltirilgan. «Jismoniy rivojlanish» deganda maxsus tashkil etilgan tarbiya ta’sirida inson salomatligini saqlash va mustahkamlash jarayonida ro‘y berayotgan sifat o‘zgarishlar tushuniladi. Shuning uchun jismoniy yetuklik nafaqat jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari, balki jismoniy rivojlanish, organizmning funksional va jismoniy ahvoli haqidagi ma’lumotlar bilan ham belgilanadi. Tarbiyaviy sog‘lomlashtirish jarayonini to‘liq xarakterlash uchun har bir pedagog tibbiy-biologik tekshirishlardan foydalanishi kerak. Nazorat ishlari shug‘ullanuvchining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash; qo‘llanilayotgan jismoniy mashqlarning afzal-liklari va kamchiliklarini topish; amaliy mashg‘ulotlar rejasini tuzish imkonini beradi.

Nazorat ishlari turli mashqlar yoki testlar yordamida o‘tkazildi. Nazorat mashqlarini qo‘llashning aniq tizimi testlash deyiladi. Nazorat mashqlari ayrim jismoniy sifatlar (kuch, chidamlilik, chaqqonlik, chayirlik va h.z.) yoki jismoniy tayyorgarlikni aniqlash maqsadida qo‘llaniladigan mazmuni, shakli va baja-rilishi shartlari standartlashtirilgan harakatlardir. Nazorat mashqlari oddiy jismoniy mashqlar sifatida qo‘llanildi.

Gavda tuzilishini o‘rganishda Ketlening vazn – bo‘y indeksi, gavda tuzilishining pishiqligi, semizlik, tananing yog‘ va faol massasi ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi.

Yurak-qon tizimining funksional holatini tadqiq etish dozalashtirilgan jismoniy yuklama (30 *sek* ichida 20 marta o‘tirib-turish), Kverg indeksi, Rufe sinovi va h.z. lar yordamida amalga oshiriladi.

Jismoniy ahvol tadqiq etish telemetrik kompyuter komp-leksi, yurak urishi monitori, L. Ivashenko testlari, Ye.A. Petrova, G.A. Apanesenko, L.A. Kalinina metodikasi va inson salomatligi darajasining ko‘rsatkichlari yordamida amalga oshirildi.[4, 124]

Tayyorgarlikni kompleks baholash yordamida magistr shaxsiya-tini har tomonlama o‘rganish jismoniy kamolotga erishish va yoshlarni tarbiya qilish, salomatlik darajasini aniqlash jarayonini boshqarishning asosi va valeologiya fanining bazasidir.

Jismoniy ahvol tadqiq etish telemetrik kompyuter komp-leksi, yurak urishi monitori, L. Ivashenko testlari, Ye.A. Petrova, G.A. Apanesenko, L.A. Kalinina metodikasi va inson salomatligi darajasining ko‘rsatkichlari yordamida amalga oshirildi.[3, 145]

Xulosa va takliflar. 1.Salomatlik va sog‘lom hayot tarzi aholi salomatligining 40-50% hayot tarziga bog‘liq. Zararli odatlar, noto‘g‘ri ovqatlanish, alkogol va tamakini me’yoridan ortiq iste’mol qilish, ko‘p o‘tirish, stress, atrof-muhitning iflosligi turli kasalliklarga (yurak-qon va nafas olish sistemasi kasalliklari, oshqozon-ichak funksiyalarining buzilish va h.z.) olib kelishi mumkin.

2.Salomatlik darajasini tana og‘irligi, o‘pkalarning hayotiy sig‘imi, yurak qisqarishlarining chastotasi, qon bosimi, standart sinovdan keyin yurak urishi tiklanishiga ketgan vaqt va h.z.larning oddiy ko‘rsatkichlarini doim

nazoratda olib borish. Salomatlikni asrash va mustahkamlash, deganda jismoniy rivojlanish gavda tuzilishi, jismoniy va funksional tayyorlikni yaxshilash tushuniladi. Salomatlikni yaxshilashga esa muntazam jismoniy mashg‘ulotlar orqali erishiladi.

3.Organizmni insonning yoshi, jinsi, sog‘lig‘ining ahvoli, jismoniy rivojlanishidan qat’iy nazar rivojlantirish va mustahkamlash.

3.1.Yoshlarni mehnatga va Vatan himoyasiga jismonan tayyorlash.

3.2.Yoshlarning faol dam olish va bo‘sh vaqtdan unumli foydalanish ehtiyojini qondirish.

3.3.Yoshlarning irodasini, jismoniy qobiliyatlarini va harakat imkoniyatlarini chiniqtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Даминов И.А. Спортивная деятельность - как фактор влияния на личность дзюдоистов / И.А. Даминов // Academic research in educational sciences. Volume 2, Issue 4, 2021. –pp. 1322 -1329.

2. Даминов, И. (2021). Совершенствование технико-тактической и психологической подготовки юных дзюдоистов. Общество и инноватsiи, 2(11/S), 175–180.

3. Mirzaev, A. M., & Daminov, I. A. (2021). Improving Tne Physical Fitness Of Students Through The Conduct Of Individual Programs. Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT), 12(11), 144-148.

4. Кошбахтиев И.А., Исмагилов Д.К., Даминов И.А. Особенности развития высшей физкультурной школы на современном этапе / И.А. Кошбахтиев, Д.К. Исмагилов, И.А. Даминов // Молодой учѐный.- Казань, - 2015. №3 (83). – С. 874.

5. Hasanov, I.T., Mamataov, F. B. (2022). Effectiveness of approaching a combination of theoretical and practical exercises in preparation for preschool children in physical training. Miasto Przyszłości, 24, 4-7.

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ КРЫШ ЗДАНИЙ ДЛЯ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СИСТЕМ.

Одилжон Рахматов,

PhD докторант Ферганского политехнического института

Аннотация

Настоящее исследование представляет собой обзор существующих методов оценки потенциала фотоэлектрических (ФЭ) систем на крышах зданий с применением геоинформационных систем (ГИС), LiDAR-данных и машинного обучения. В работе рассматриваются ключевые подходы к анализу солнечного потенциала крыш, включая геостатистическое моделирование, выборочный анализ, трехмерное моделирование, алгоритмы оптимизации и машинное обучение.

Ключевые слова: *ГИС, LiDAR, фотоэлектрические системы, потенциал солнечной энергии, машинное обучение, оптимизация, моделирование.*

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot bino tomlaridagi fotoelektrik (FE) tizimlar salohiyatini baholashning mavjud usullarini geoaxborot tizimlari (GAT), LiDAR ma’lumotlari va sun’iy intellektni qo‘llagan holda ko‘rib chiqadi. Ishda tomlarning quyosh energiyasi salohiyatini tahlil qilishning asosiy yondashuvlari, jumladan geostatistik modellashtirish, tanlab o‘rganish, uch o‘lchovli modellashtirish, optimallashtirishning algoritmlari va mashinali o‘qitish usullari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *GAT, LiDAR, fotoelektrik tizimlar, quyosh energiyasi salohiyati, mashinali o‘rganish, optimallashtirish, modellashtirish.*

Abstract

This study is an overview of existing methods for assessing the potential of photovoltaic (PV) systems on the roofs of buildings using geographic information systems (GIS), LiDAR data, and machine learning. The work

examines key approaches to roof solar potential analysis, including geostatistical modeling, sampling analysis, three-dimensional modeling, optimization algorithms, and machine learning.

GIS, LiDAR, photovoltaic systems, solar potential, machine learning, optimization, modeling.

Введение. В последние десятилетия стремительный рост урбанизации и возрастающее потребление электроэнергии в городах усилили необходимость перехода на возобновляемые источники энергии. Городские территории, потребляющие до 70% мировых энергетических ресурсов и генерирующие свыше 65% выбросов углекислого газа, нуждаются в эффективных решениях для устойчивого энергоснабжения. Согласно прогнозам Международного энергетического агентства (IEA), к 2024 году солнечная энергетика может составлять до 50% всех возобновляемых источников энергии, что делает исследование фотоэлектрического потенциала крыш особенно актуальным.

Оценка технического потенциала ФЭ-систем на крышах зданий является сложной задачей, требующей учета множества факторов, таких как геометрия крыши, затененность, ориентация и угол наклона. Для решения этой проблемы широко применяются геоинформационные системы (ГИС) в сочетании с LiDAR-данными, спутниковыми снимками и алгоритмами машинного обучения. ГИС-технологии позволяют моделировать трехмерные городские территории и анализировать пригодность крыш для установки солнечных панелей, тогда как машинное обучение значительно улучшает точность прогнозов и автоматизирует процесс оценки.

Методология исследования. В данной статье представлен обзор современных методов оценки солнечного потенциала крыш с использованием ГИС и LiDAR, а также анализируются новые подходы, такие как усиленное обучение и алгоритмы оптимизации. Рассматриваются количественные примеры из различных стран, демонстрирующие эффективность применяемых методов. Основной целью исследования является выявление наиболее перспективных инструментов для оценки и оптимизации размещения ФЭ-систем на крышах зданий.

Литературный обзор. Авторы исследования [1] провели обзор существующих методов оценки потенциала солнечной фотоэлектрической энергии на крышах зданий с использованием геоинформационных систем (ГИС). В работе рассматриваются четыре основных подхода: выборочный анализ (sampling), геостатистические методы (geostatistics), моделирование (modeling) и машинное обучение (machine learning). Авторы подчеркивают, что ГИС в сочетании с LiDAR-технологией позволяют достичь высокой точности при оценке потенциала солнечной энергии, однако наибольший потенциал для масштабных расчетов демонстрируют методы машинного обучения.

Актуальность исследования обусловлена ростом урбанизации и увеличением энергопотребления в городах, которые уже сейчас потребляют 70% мировых энергетических ресурсов и генерируют более двух третей глобальных выбросов углекислого газа. К 2060 году площадь урбанизированных территорий увеличится на 230 млрд м², что создаст значительные вызовы для энергетической инфраструктуры. Согласно прогнозам Международного энергетического агентства (IEA), к 2024 году солнечная энергетика будет составлять до 50% всех возобновляемых источников энергии, что делает вопрос оценки потенциала фотоэлектрических систем на крышах зданий особенно актуальным.

В статье рассмотрены количественные показатели, демонстрирующие эффективность применения ГИС для оценки солнечного потенциала. Например, использование солнечных панелей на крышах может покрывать до 30% годового энергопотребления городов (на примере Сеула). В Испании 4% общего спроса на электроэнергию можно удовлетворить за счет установки солнечных панелей на крышах зданий. В Канарских островах использование 45% общей площади крыш может обеспечить около 9000 ГВт·ч в год. Оценка солнечного потенциала крыш зданий в Пьемонте (Италия) с применением ГИС и LiDAR выявила возможность генерации 6,9 ТВт·ч электроэнергии в год.




Рис. 1. Классификация формы крыши: (a) среднегодовое количество получаемой солнечной радиации (кВт·ч/м^2); и (b) средняя энергия фотоэлектрических установок в зависимости от формы крыши (МВт·ч/год).

Таким образом, статья представляет собой ценный обзор современных подходов к оценке фотоэлектрического потенциала крыш зданий, демонстрируя важность интеграции передовых технологий для решения глобальных задач устойчивого развития и снижения выбросов углекислого газа. В перспективе авторы рекомендуют дальнейшую разработку методов машинного обучения, способных дополнить и даже заменить традиционные методы ГИС-оценки, обеспечивая более точные и менее затратные расчеты потенциала солнечной энергии в городских условиях.

Исследование авторов [2] посвящена разработке модели оптимального планирования фотоэлектрических систем на крышах зданий с использованием методов машинного обучения и геоинформационных систем (ГИС). В работе представлена новая методика, основанная на алгоритме усиленного обучения (reinforcement learning, RL), которая позволяет учитывать неопределенность будущих сценариев и оптимизировать экономическую прибыль от фотоэлектрической установки на протяжении всего жизненного цикла здания. Авторы исследуют, как можно использовать ГИС для пространственного анализа крыш зданий и последующей оптимизации размещения солнечных панелей. Важной особенностью статьи является использование метода **Proximal Policy Optimization (PPO)**, который позволяет находить оптимальные решения в условиях изменяющихся параметров, таких как стоимость модулей, цены на электроэнергию и деградация фотоэлектрических элементов.

Исследование проводилось в районе **Nonhyeon (Южная Корея)**, где был выполнен анализ **123 жилых зданий** с различными сценариями экономических условий. Итоги исследования показывают, что предложенная модель **превосходит существующие методы планирования**, такие как **генетические алгоритмы (GA), метод Монте-Карло и DQN (Deep Q-Networks)**, и позволяет повысить рентабельность фотоэлектрических систем.

Разработанная модель позволила добиться значительного экономического эффекта. **Общий доход от внедрения составил 539 197 долларов США**, что на **4,4% выше**, чем при использовании традиционных методов (генетических алгоритмов), и на **4,3% выше**, чем при использовании других существующих методов планирования. Средняя прибыль на здание составила **4 379 долларов США** при установке панелей мощностью **285 Вт** и **3 773 долларов США** при установке панелей **320 Вт**. Важно, что использование предложенной модели позволило снизить выбросы **CO_2 на 91,8%** по сравнению с энергосистемой Южной Кореи (GWP = 38,29 gCO_2/kWh против 465 gCO_2/kWh). Особенно заметным стало улучшение экономических показателей в неблагоприятных сценариях, например, в условиях **низкой солнечной радиации доход увеличился на 25,18%** по сравнению с традиционными методами.





Рис. 2. Сравнение средних экономических выгод с использованием модели GA, модели на основе правил, модели DQN и модели RL на основе ГИС.

Главным преимуществом модели является ее способность учитывать **различные сценарии будущих изменений**, такие как колебания цен на электроэнергию, стоимость солнечных панелей и их деградацию. В отличие от традиционных методов, **усиленное обучение (PPO) позволяет системе адаптироваться к неопределенности и находить оптимальные решения в реальном времени**. Например, в сценариях с высокой неопределенностью разработанная модель показала лучшие экономические результаты по сравнению с методами **Монте-Карло и генетическими алгоритмами**, поскольку она обучается на основе текущих данных и корректирует стратегию размещения панелей в зависимости от изменений внешних условий.

Таким образом, статья демонстрирует, что сочетание **ГИС и усиленного обучения (reinforcement learning, PPO)** может стать **ключевым инструментом** для повышения рентабельности фотоэлектрических систем. Применение данной методики позволяет учитывать неопределенность рыночных факторов и повышает эффективность планирования солнечной энергетики на уровне зданий и городов. В дальнейшем авторы предлагают расширить исследование за счет **учета трехмерных геоданных зданий и мультиобъективной оптимизации**, которая будет одновременно учитывать экономическую выгоду и экологические показатели.

В исследовании авторов [3] разработана стратегия оптимального планирования распределенных фотоэлектрических (ФЭ) систем на крышах зданий в условиях плотной городской застройки. Основной проблемой, которую решает исследование, является высокая сложность выбора подходящих крыш для установки солнечных панелей из-за затенения, разнообразных характеристик доступной площади и ограничений бюджета.


Авторы предложили новую стратегию оптимального планирования, основанную на **целочисленном линейном программировании (ILP)**, которая позволяет максимизировать выработку электроэнергии, учитывая ограничения бюджета и экспортной мощности в энергосистему. В рамках исследования был проведен **практический эксперимент в Гонконге**, в котором анализировались **582 крыши реальных зданий**. Методология включала **3D-моделирование зданий с использованием ГИС и алгоритмов глубокого обучения** для высокоточной оценки солнечного потенциала. Разработанная стратегия была протестирована на **5 000 000 решений, сгенерированных методом Монте-Карло**, что позволило подтвердить ее эффективность.



а) б)

Рис. 3. Результаты высокоточного анализа потенциала солнечной энергии на крышах исследуемого района. а) Годовое накопленное солнечное излучение на крышах и типичные профили солнечного излучения на крышах. b) Доступные площади крыш и препятствия.

Количественные результаты показывают, что использование ILP-оптимизации позволило улучшить **соотношение производительность-стоимость на 17,7%** по сравнению с лучшими альтернативами Монте-Карло. Кроме того, стратегия превзошла два эвристических метода (основанных на приоритете общей энергии и энергоинтенсивности), обеспечив **превосходство до 23,3%**. Оптимальное размещение ФЭ-систем также позволило минимизировать воздействие на энергосеть, предотвращая перегрузки из-за колебаний солнечной радиации.



Исследование авторов [4] представляет собой систематический обзор методов оценки потенциала фотоэлектрических систем (ФЭ) на крышах зданий в городских условиях. Основная цель исследования — выявить ключевые факторы, влияющие на точность таких оценок, и определить наиболее эффективные методологии, которые можно использовать для создания глобальной базы данных по солнечному потенциалу городов.

Авторы подчеркивают, что быстрый рост городов и увеличение потребления энергии делают оценку солнечного потенциала крыш особенно актуальной. К 2050 году более 70% мирового населения будет проживать в городах, что приведет к 75% мирового энергопотребления. Использование крыш зданий для установки солнечных панелей может стать одним из ключевых решений для обеспечения устойчивого энергоснабжения. Однако, несмотря на значительное развитие технологий, до сих пор не существует унифицированного метода оценки фотоэлектрического потенциала, который можно было бы применить на локальном, региональном и глобальном уровнях.

Авторы выделяют четыре ключевых фактора, определяющих потенциальную выработку электроэнергии:

1. Физический потенциал – максимальное количество солнечной энергии, поступающей на городские территории, которое зависит от метеорологических условий, таких как уровень радиации и индекс прозрачности атмосферы.
2. Географический потенциал – влияние городской застройки, включая затенение от других зданий и деревьев, ориентацию крыш, их наклон и наличие надстроек.
3. Технический потенциал – максимальная электрическая мощность, которую можно получить с учетом характеристик солнечных панелей (КПД, коэффициент деградации, потери в инверторах и кабелях).
4. Экономический потенциал – учет стоимости установки, обслуживания и рентабельности проектов, включая государственные субсидии и рыночные факторы.

Практические примеры из различных стран показывают, что грамотное использование солнечного потенциала крыш может покрывать до 45% городского энергопотребления. В Испании, например, внедрение ФЭ-систем может привести к 78,9% снижению зависимости от внешних источников энергии, а в Гонконге установка солнечных панелей на всех доступных крышах обеспечила бы 14,2% от общего спроса на электричество.

Исследование авторов [5] посвящено разработке метода оценки пригодности крыш зданий для установки фотоэлектрических (ФЭ) систем с минимальной мощностью. Основной целью исследования является создание подхода, который позволит анализировать крупные городские территории с использованием геоинформационных систем (ГИС), LiDAR-данных и аэрофотоснимков. Авторы подчеркивают, что точное знание геометрии крыш и их физических характеристик играет решающую роль в прогнозировании возможного влияния массовой установки солнечных панелей на распределительные сети электроэнергии.

Исследование выявляет, что существующие методы анализа солнечного потенциала крыш имеют ряд ограничений. Например, свободно доступные инструменты, такие как PVGIS и PVWatts, требуют ввода угла наклона и ориентации крыши, что делает их менее точными для больших территорий. В отличие от них, предложенная методика автоматически определяет наклон, ориентацию и доступную площадь крыш, используя данные авиационного LiDAR-сканирования в сочетании с аэрофотоснимками и ГИС-инструментами. Методика была протестирована на данных города Ноттингем (Великобритания), где использовалась база данных 886 жилых домов, оборудованных ФЭ-системами.

Количественные результаты показывают, что 97,5% всех установленных солнечных панелей были корректно идентифицированы моделью, а точность оценки угла наклона составила 87% в пределах ±10 градусов от реальных значений. Оптимизированный метод определения ориентации крыш показал 100% попадание в нужный диапазон азимута, если учитывать допуск в 45 градусов. Новый алгоритм, основанный на анализе стандартного отклонения азимута, позволил улучшить качество прогнозирования по сравнению с традиционными методами, такими как генетические алгоритмы и методы на основе средних значений.

Исследование авторов [6] представляет собой всесторонний анализ технического потенциала солнечной генерации на крышах зданий в США. Авторы используют комбинацию методов геоинформационных систем (ГИС), данных лазерного сканирования (LiDAR) и статистического моделирования для оценки пригодности крыш зданий для установки фотоэлектрических (ФЭ) систем.

Целью исследования является определение максимально возможной солнечной генерации, которая может быть получена от всех подходящих крыш на территории смежных штатов США. Авторы анализируют данные для отдельных городов, использующих LiDAR, а затем применяют статистические модели для экстраполяции результатов на всю страну, включая территории, где данные LiDAR отсутствуют. Полученные результаты моделируются с учетом размера зданий, уклона крыш, ориентации и затенения, а также производительности солнечных панелей.

Количественные результаты исследования показали, что:

- В США насчитывается 8,13 млрд м² пригодной для ФЭ-панелей площади крыш.
- Общая возможная установленная мощность составила бы 1 118 ГВт.
- Годовой объем выработки электроэнергии может достигать 1 432 ТВт·ч, что эквивалентно 38,6% общего объема потребления электроэнергии в США (по данным за 2013 год).
- 82% всех небольших зданий (до 5000 кв. футов) имеют хотя бы одну поверхность крыши, подходящую для размещения солнечных панелей, а для средних и крупных зданий этот показатель превышает 99%.
- В большинстве штатов фотоэлектрические системы на крышах могут позволить жилым зданиям компенсировать большую часть их потребления электроэнергии. В некоторых штатах, таких как Мэн, Вермонт и Род-Айленд, солнечная генерация с крыш могла бы полностью компенсировать годовое потребление электричества в жилом секторе.

Авторы исследования [7] разработали метод автоматического извлечения контуров крыш зданий из спутниковых изображений с целью оценки их фотоэлектрического (ФЭ) потенциала. Авторы представляют двухэтапную методологию, включающую обнаружение крыш с помощью алгоритмов машинного обучения и расчет ФЭ потенциала с использованием ГИС-инструментов. В качестве примера исследования использованы спутниковые изображения части города Madinaty (Каир, Египет).

В первом этапе реализуется автоматическая сегментация и классификация крыш с помощью методов обработки изображений, включая гамма-коррекцию, маскирование теней, кластеризацию k-means и алгоритм Support Vector Machine (SVM). В ходе тестирования точность SVM-классификатора составила 95,7% (precision) и 90% (recall). Общая площадь обнаруженных крыш составила 26 131 м², из которых после учета препятствий и теней было признано пригодными 9 381 м².



Рис. 4. Пример результата после применения метода опорных векторов (Support Vector Machine).

На втором этапе проводится расчет ФЭ потенциала двумя ГИС-методами: PVGIS и Solar Analyst Tool в ArcGIS. Оценки показали, что:

- По методу PVGIS годовая генерация составила 9,3 МВт·ч/год.
- По методу Solar Analyst Tool — 8,7 МВт·ч/год.
- Использование PVGIS дало более точные результаты благодаря актуальным данным солнечной радиации в Африке.
- Компенсация выбросов CO_2 составила 48% при переходе на солнечную энергетику.

Авторы исследования [8] разработали метод оценки технического потенциала солнечной генерации на крышах зданий с использованием анализа теней (Hillshade analysis) в геоинформационных системах (ГИС). Основная цель исследования заключается в создании модели, которая учитывает влияние затенения от окружающих зданий и изменение положения солнца для точной оценки доступных площадей крыш, пригодных для установки фотоэлектрических (ФЭ) систем.

Методика оценки солнечного потенциала была разделена на три этапа: расчет физического потенциала, который определяет общее количество солнечной радиации, поступающей на крыши зданий; определение географического потенциала, включающего анализ затененности и доступности площадей крыш; и расчет технического потенциала, который оценивает возможную выработку электроэнергии с учетом эффективности солнечных модулей. Для проверки работоспособности метода исследование было проведено в районе Гангнам (Сеул, Южная Корея), где анализировались 27 774 здания. В процессе моделирования применялся Hillshade-анализ в ArcGIS, который учитывал положение солнца каждый час в течение года, позволяя оценить динамику изменения затененности.

Количественные результаты исследования показали, что общее поступление солнечной радиации на крыши зданий составило 9 287 982 МВт·ч в год, из которых пригодной для установки ФЭ-панелей оказалась площадь 4 964 118 м², что эквивалентно 66,03% от общей площади крыш в районе. Однако из-за затененности и технических ограничений возможная годовая выработка электроэнергии составила 1 130 371 МВт·ч, что составляет лишь 12,17% от физического потенциала. Максимальная солнечная генерация наблюдалась с 12:00 до 14:00, когда доступность солнечного света на крышах была наивысшей, а

минимальные значения приходились на зимние месяцы, когда уровень доступного солнечного света снижался из-за низкого угла падения лучей и увеличенного времени затенения.

Исследование авторов [9] посвящено разработке упрощенной модели оценки оптимального размещения фотоэлектрических (ФЭ) систем на крышах двускатного типа (gable roofs). Основная цель исследования заключается в создании методики, позволяющей оценивать как экономическую, так и экологическую эффективность ФЭ-систем с учетом жизненного цикла и типа установки. В качестве примеров для исследования были выбраны военные объекты в трех регионах Южной Кореи (Гимпо – север, Тэджон – центр, Поханг – юг), что позволило учесть климатические и географические различия.

Разработанная модель позволяет автоматически определять оптимальную конфигурацию ФЭ-систем в зависимости от угла наклона (SoP), ориентации крыши (AoP) и площади доступной поверхности. В качестве ключевых показателей для выбора лучшего варианта использовались чистая приведенная стоимость (NPV) и коэффициент окупаемости инвестиций (SIR) за 25 лет эксплуатации. В исследовании тестировались пять типов установки панелей: на одной стороне крыши с существующим или оптимальным наклоном, на обеих сторонах с существующим или оптимальным наклоном, а также с ориентацией строго на юг.

Количественные результаты показали, что максимальная годовая генерация электроэнергии наблюдается при установке панелей на обеих сторонах крыши с оптимизированным углом наклона. Например, в регионе Тэджон наибольшая выработка электроэнергии была зафиксирована в конфигурации ToI-2opt (279 484 кВт·ч/год), тогда как ориентация панелей строго на юг (ToI-3opt) привела к снижению мощности, но повысила эффективность системы. В регионе Гимпо максимальная выработка составила 231 502 кВт·ч/год, а в Поханге – 233 082 кВт·ч/год.

Анализ жизненного цикла показал, что:

DigCompEdu (Digital Competence Framework for Educators) [7]. — bu o‘qituvchilar uchun raqamli kompetensiyalarni baholash va rivojlantirishga qaratilgan Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan ramka. Ushbu ramka o‘qituvchilarga raqamli texnologiyalarni o‘quv jarayonida samarali va maqsadga muvofiq ravishda qo‘llash uchun zarur bo‘lgan kompetentsiyalarni aniqlaydi. ***UNESCO*** [8]**.** tomonidan ishlab chiqilgan “

ICT Competency Framework for Teachers ” ta’lim sohasida texnologiyalardan foydalanishni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, o‘qituvchilarning raqamli kompetentsiyalarining turli darajalarini baholashga yordam beradi.

ISTE [9]**.** (International Society for Technology in Education) — bu xalqaro tashkilot bo‘lib, ta’limda texnologiyalarning samarali qo‘llanilishini targ‘ib qilish va pedagogik amaliyotlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. U pedagoglar uchun raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish, texnologiyalarni samarali qo‘llash va o‘qituvchilarni zamonaviy o‘qitish metodologiyalari bilan ta’minlashga yo‘naltirilgan ko‘plab resurslar va treninglar taqdim etadi. Shuningdek, ISTE dunyo bo‘ylab ta’lim tizimlarida texnologik innovatsiyalarni ilgari suradi va o‘qituvchilarni bu jarayonga jalb qiladi.

Tadqiqotchi ***Xolmatova M.I.*** [10]**.** xalqaro tajribalar, ilmiy tadqiqotlar va milliy standartlarni o‘rganib, pedagoglarda raqamli kompetentsiyalarining daraja ko‘rsatgichlarini baholash uchun asosiy oltita mezon ishlab chiqqan.

1- rasm. Pedagoglarda raqamli kompetentsiyalarining daraja ko‘rsatgichlarini baholovchi samaradorlik ko‘rsatgichlari

SAMARADORLIK KO‘RSATGICHLARI		
Yuqori samaradorlik	***O‘rta samaradorlik***	***Samaradorlik ko‘rsatilmagan***
1. “Raqamli savodxonlik” Raqamli vositalardan (Internet va komyuter texnologiyalaridan) foydalanash qobilyatiga ega.	1. “Raqamli savodxonlik” Raqamli vositalardan (Internet va komyuter texnologiyalaridan) qisman foydalana oladi.	1. “Raqamli savodxonlik” Raqamli vositalardan (Internet va komyuter texnologiyalaridan) foydalanash haqida tushinchaga ega emas.
2. “Axborotni boshqarish” Axborotlarni izlash, topish, qayta ishlash va ma’lumotlarni boshqarish ko‘nikmalarga ega.	2. “Axborotni boshqarish” Axborotlarni izlash, topish, qayta ishlash va ma’lumotlarni boshqarish bo‘yicha qisman ko‘nikmalarga ega.	2. “Axborotni boshqarish” Axborotlarni izlash, topish, qayta ishlash va ma’lumotlarni boshqarish bo‘yicha tasavvurga ega emas.
3. “Aloqa va hamkorlik” Raqamli vositalar yordamida aloqa o‘rnatish, axborotlarni almashish va birgalikda ishlash qobiliyatiga ega	3. “Aloqa va hamkorlik” Raqamli vositalar yordamida aloqa o‘rnatish, axborotlarni almashish va birgalikda ishlashda qisman faol bo‘lish	3. “Aloqa va hamkorlik” Raqamli vositalar yordamida aloqa o‘rnatish, axborotlarni almashish va birgalikda ishlash haqida ma‘lumotlarga ega emas
4. “Raqamli kontentni yaratish” Raqamli vositalardan foydalangan holda kontent va dasturlar yaratish, tahrir qilish, va ulashish ko‘nikmalariga ega	4. “Raqamli kontentni yaratish” Raqamli vositalardan foydalangan holda kontent va dasturlar yaratishni, tahrir qilishni, va ulashishni qisman bajarish	4. “Raqamli kontentni yaratish” Raqamli vositalardan foydalangan holda kontent va dasturlar yaratish, tahrir qilish, va ulashish ko‘nikmalari shakllanmagan


5. “Xavfsizlik” Raqamli muhitda axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha to‘liq ma‘lumotlarga ega.	5. “Xavfsizlik” Raqamli muhitda axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha qisman ma‘lumotlarga ega.	5. “Xavfsizlik” Raqamli muhitda axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha ma‘lumotlarga ega emas
6. “Muammolarni hal qilish” Raqamli vositalardan foydalangan holda pedagogik faoliyatga oid muammolarni hal qilish, innovatsion yechimlar topish va ularni amaliyotga tatbiq etish.	6. “Muammolarni hal qilish” Raqamli vositalardan foydalangan holda muammolarni hal qilish, innovatsion yechimlar topish va ularni qisma amaliyotga tatbiq etish.	6. “Muammolarni hal qilish” Raqamli vositalardan foydalangan holda muammolarni hal qilish, innovatsion yechimlar topish va ularni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tushinchalarga ega emas.
XULOSA		
Yuqorida belgilangan mezonlar asosida bo‘lajak pedagoglar raqamli kompetentsiyalarga ega bo‘lgan holatda zamonaviy texnologiyalar va internetdan samarali va xafvsiz foydalana oladi. Bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llay oladi.	Ushbu ustundagi mezonlar asosida bo‘lajak pedagoglar raqamli kompetentsiyalarga qisman ega bo‘lgan holatda zamonaviy texnologiyalar va internetdan samarali va xafvsiz foydalanishda muammolarga duch kelishi tabiiy. Bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llay olishda qiyinchiliklarga duch keladi.	Ushbu ustunda belgilangan mezonlar asosida bo‘lajak pedagoglar raqamli kompetentsiyalarga ega bo‘lmaydi. Chunki ular zamonaviy texnologiyalar va internetdan samarali va xafvsiz foydalanishda haqida tasavvurga ega emas va raqamli vositalardan foydalanish ko‘nikmalari shakllanmagan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Tadqiqotimiz doirasida 2025-yil Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida professor-o‘qituvchilarning raqamli kompetentsiyalarini aniqlash maqsadida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma savollari yuqorida keltirilgan oltita ko‘rsatgichga asoslangan. Savollar professor-o‘qituvchilarda mavjud raqamli kompetentsiyalarini to‘liq qamrab olishga qaratilgan bo‘lib, ularning axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalari, onlayn ta’lim platformalaridan foydalanish tajribasi, raqamli kontentlarni yaratish va xavfsizlikka oid bilimlari, hamda pedagogik faoliyatida raqamli vositalarni qo‘llashga oid ko‘nikmalarining qanday darajada ekanligini aniqlashga qaratilgan.

So‘rovnomada pedagogika fakultetidagi professor-o‘qituvchilar ishtirok etdi. Professor-o‘qituvchilar orasida olingan so‘rovnomada respondentlarning lavozim bo‘yicha ko‘rsatgichlari quydagicha namoyon bo‘ldi:

2- rasm. Respondentlarning lavozim bo‘yicha ko‘rsatkichlari




Internet tarmog‘idan foydalanish imkoniyatlari bo‘yicha berilgan savolga javob ko‘rsatgichlari quyidagicha:

3-rasm. Internetdan foydalanish imkoniyati.




Kasbiy faoliyatda foydalaniladigan ilmiy resurslar va ilmiy bazalarni aniqlash maqsadida berilgan savolga javob ko‘rsatgichlari quyidagicha:

4-rasm. Kasbiy faoliyatingizda qaysi ilmiy bazalardan foydalanasiz? (uchtasini tanlang)




Ilmiy bazalardan qanday va nima maqsadlarda foydalanishini va ularning ilmiy faoliyatda qanchalik muhim o‘rin tutishini aniqlashga qaratilgan savolga javob ko‘rsatgichlari quyidagicha:

5-rasm. Ilmiy bazalardan qanday maqsadlarda foydalanasiz? (uchtasini tanlang)



O‘qituvchilar darsni samarali va interaktiv o‘tkazish uchun qaysi platformalar, dasturlar yoki ilovalardan foydalangan holda kontentlar yaratishlarini aniqlash maqsadida berilgan savolga javob ko‘rsatgichlari quyidagicha:

6-rasm. Dars mashg‘ulotlaringiz uchun kontent yaratishda qaysi vositalardan foydalanasiz? (uchtasini tanlang)



Raqamli muhitda axborot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha qanday chora-tadbirlarni qo‘llashlarini aniqlashga qaratilgan savolga javob ko‘rsatgichlari quyidagicha:

7-rasm. Raqamli ma’lumotlaringizni yo‘qotmaslik uchun qanday chora ko‘rasiz?




O‘qituvchilarning ta’limdagi texnologiyalardan foydalanish, darsni rejalashtirish, talabalarni baholash va o‘quvchilarga qo‘llaniladigan yondashuvlar haqida ma’lumot olishga yordam beradigan savolga javob ko‘rsatgichlari quyidagicha:

8-rasm. Axborot-kommunikatsiya vositalaridan ko‘proq qaysi jarayonda foydalanasiz?




Onlayn ishlashda texnologiyalarni qanday samarali qo‘llashni , talabalar bilan onlayn tarzda ishlashda qanday raqamli vositalar va dasturlardan foydalanayotganini , interaktiv yondashuvlarni tatbiq etish va o‘quvchilarning faolligini qanday ta’minlash mumkinligini aniqlashga yordam beradigan savolga javob ko‘rsatgichlari quyidagicha:

9-rasm. Siz talabalar bilan raqamli vositalar orqali onlayn birgalikda ishlashda qaysi dasturlardan foydalanasiz? (uchtasini tanlang)



O‘qituvchilarning talabalarni baholash uchun qaysi raqamli vositalardan foydalanishlarini va baholash metodlarini zamonaviy raqamli vositalar orqali qanday qo‘llayotganini aniqlashga qaratilgan savolga javob ko‘rsatgichlari quyidagicha:

10-rasm. Talabalarni baholashda qaysi raqamli vositalardan foydalanasiz? (ikkitasini tanlang)



So‘rovnoma natijalari tahlili va ochiq savollarga berilgan javoblar orqali OTMda pedagoglarning raqamli kompetentsiyalarini rivojlantirishda sub’ektiv va ob’ektiv omil bilan bog‘liq muammolar mavjudligi aniqlandi:

- *Birinchidan,* so‘rov o‘tkazilgan OTMda professor-o‘qituvchilarning **raqamli kompetentsiyalarini rivojlantirish uchun** yangi raqamli vositalardan foydalanishda, zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish va qo‘llashda o‘zlariga nisbatan ishonch va qiziqishning kamligi. Yangi raqamli vositalarni va ulardan samarali foydalanishni o‘rganish vaqt talab qiladi. Ba’zi o‘qituvchilarning ish yuklamasi juda katta bo‘lib yoki boshqa pedagogik faoliyatlar bilan band bo‘lishlari sababli yangi vositalar bilan ishlashga vaqt ajrata olmasligi. Yangi zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llash bo‘yicha professor-o‘qituvchilarda maxsus seminar va treninglar tashkillashtirilmasligi, qo‘llab-quvvatlashlar, motivatsiya yetishmasligi (sub’ektiv omil);

- *Ikkinchidan,* oliy ta’lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) samarali foydalanish imkoniyatlari yetarli darajada rivojlanmagan. Moddiy-texnik baza talab darajasida emas, zamonaviy kompyuterlar, internet aloqalari, interaktiv ta’lim vositalari va dasturiy ta’minot kabi zarur texnologik resurslar barcha o‘quv xonalarida yetishmaydi yoki eskirgan. (ob’ektiv omil);

Xulosa va takliflar (Conclusion, recommendations). So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilarning aksariyati raqamli vositalarni o‘quv jarayonida samarali qo‘llashda tajriba orttirgan, lekin ba’zi sohalarda, xususan, zamonaviy raqamli platformalar va interaktiv texnologiyalarni qo‘llashda muammolar mavjud. Bu esa, o‘qituvchilarning raqamli kompetentsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan qo‘shimcha ta’lim va malaka oshirish dasturlarini joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari, oliy ta’lim tizimida raqamli kompetentsiyalarni rivojlantirish va o‘qituvchilarning raqamli ko‘nikmalarini yanada oshirish uchun amaliy yondashuvlar va strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

[1] “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 8 10 2019. https://lex.uz/ru/docs/4545884.

[2] “ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi,” 24 01 2020. https://lex.uz/ru/docs/4727235.

[3] Boulton.H., “The role of digital competence in educational practices.,” Europen Journal of Education, pp. 235-250, 2019.

[4] M. Koehler.M.J., “Technological Pedagogical Content Knowledge : A Framework for Teacher Knowledge.,” Teachers College Record, pp. 128-147, 2009.

[5] K. A. K. V. Sampson D. G., “The Integration of Digital Competence in Teaching and Learning Practices,” Europen Journal of Teacher Education., pp. 355-372, 2017.

[6] N. A. S., “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari - oliy ta'lim sifati va samaradorligini oshirish omili.,” Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan), pp. 10-19, 2020.

[7] “European Commission, Joint Research Centre,” 2020. https://ec.europa.eu/jrc/en/digcompedu..

[8] “ICT Competency Framework for Teachers,” 2011. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000213647.

[9] “International Society for Technology in Education (ISTE),” 2017. https://www.iste.org/standards/for-educators.

[10] X. M.I., ““Bo‘lajak pedagoglarda raqamli kompetentsiyalarning sifat ko‘rsatgichlarini baholash”,” in MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, Parij, 2024.

SHARQ ALLOMALARINING ASARLARI ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMIDA TALABALARNING AXLOQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QO‘LLANILISHI

Dilnoza Ergasheva,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Zamonaviy ta’lim tizimida bu asarlar talabalarning axloqiy madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi, chunki ular yoshlarga faqat ilm olishni emas, balki o‘z jamiyatiga foyda keltiradigan axloqiy va etnik me'yorlarni tushunish va hayotga tatbiq etishni ham o‘rgatadi.

Kalit so‘zlar: *sharq allomalari, axloqiy madaniyat, ilm-fan, axloqiy qadriyatlar, zamonaviy ta’lim tizim, talaba, insoniy fazilat.*

Аннотация

В данной статье в современной системе образования эти работы служат формированию нравственной культуры учащихся, поскольку учат молодежь не только получать знания, но и понимать и воплощать в жизнь моральные и этнические нормы, приносящие пользу их обществу.

Ключевые слова: *восточные ученые, нравственная культура, наука, нравственные ценности, современная образовательная система, ученик, человеческая добродетель.*

Annotation

This article discusses how the works of Eastern scholars contribute to shaping the ethical culture of students in the modern education system. These works teach young people not only to acquire knowledge but also to understand and apply ethical and moral norms that benefit their society. Furthermore, the knowledge and educational values presented in the works of Eastern scholars are still valuable today for students in developing self-improvement, social responsibility, and promoting humanity.

Keywords: *Eastern scholars, ethical culture, science, ethical values, modern education system, student, human virtues.*

Kirish. Respublikamiz mustaqillikka erishgach ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish uchun bir qancha yangi asoslar yuzaga keldi. Jumladan “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunning yangilanishi ta’limni tubdan isloh etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatini beradi.

Tarbiya tushunchasi millat tarixi va jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha mohiyatga ega bo‘lib, har xil tarzda izohlanib kelindi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiyani izohlashda yangi sog‘lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi.[1] Endilikda tarbiyaning irsiy-biologik jihatlari va milliyligiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi qismi: Milliy tarbiya xalq nomi va uning tarixi chambarchas bog‘liqdir. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, allomalarning pedagogik qarashlari tizimli sinchkovlik bilan o‘rganilmoqda. Tarbiya jarayonini amalga oshirishda ijtimoiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya jarayoni ijtimoiy xarakterga ega bo‘ladi. Ijtimoiy tarbiya bolada ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlarni rivojlantirish jarayonidir. Tarixdan ko‘pgina allomalarimiz tarbiyaga katta ahamiyat berib jamiyatning asosiy vazifalaridan deb bilishgan. “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” A. Avloniyning ushbu so‘zlaridan ham tarbiya naqadar muhum ijtimoiy jarayon ekanligini bilib olishimiz mumkin.[3] Markaziy Osiyo allomalarining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarida ma’naviy qadriyatlarga bo‘lgan e’tibor asosiy o‘rinda turadiki, bu bevosita inson kamolotini shakllantirishga omil bo‘la oladigan hodisadir.

Sharq Renessansi deb nom olgan IX-XV asr Markaziy Osiyo ma’naviy madaniyatining eng yuksaklikka ko‘tarilgan, boy davri bo‘lib, bu davrda ilm-fanning ikki yo‘nalishi (birinchisi) inson uchun tabiiy fanlardirki, u aql ko‘zi bilan egallanadi, (ikkinchisi) bu fanlar inson tomonidan (boshqa) kishilardan taqlid qilib o‘rganiladi, ular asosida shariat qonunlari yotadi. Bu fanlarning asosini Qur’onda va Sunnada bo‘lga Alloh va uning elchisining oldindan belgilab bergan yo‘l-yo‘riqlari tashkil etadi. Bu davrda Sharq madaniyatini umuminsoniy qadriyat darajasiga ko‘tarish markazi “Ma’mun akademiyasi” (IX asr, Bag‘dod, ”Baytul hikma”) tashkil etildi. Akademiya ilmiy ijodkorlari faoliyatida Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari moddiy va ma’naviy madaniyatining qo‘shilishi asnosida hozirgi Markaziy Osiyo madaniyatining maxsus bir-biridan ajratilmagan ko‘p qirrali qorishiq turi vujudga keldi. Bunday ko‘p qirrali ilmiy qadriyatlarning madonga kelishida vatandoshlarimiz Sharq mutafakkirlarining ma’naviy madaniyat sohasiga qo‘shgan ulushlari nihoyatda boy bo‘lib, mazmunan qadriyatlarning barcha yo‘nalishlarini qamrab olganligi bilan xarakterlanadi.

Forobiy pedagogik qarashlarini, ta’lim-tarbiya haqidagi ta’limotini o‘rganishda inson xislatlari to‘g‘risidagi falsafiy fikrlari nihoyat muhim ahamiyat kasb etadi. Forobiy o‘zining falsafiy qarashlarida odamning tuzilishini, ruhiyatini, madaniy va ma’naviy olamini o‘rganishga ahamiyat beradi. [4] Uning ta’limotida, inson barcha boshqa jismlarda bo‘lmagan qobiliyat va kuchga, ruhiy quvvatga, aql va so‘zlash qobiliyatiga egaligi bu kuch uni tabiatdagi boshqa jismlardan ajratib turishi va uning ustidan hokim bo‘lish imkoniyatini berganligi namoyon bo‘ladi.

Abu Rayhon Beruniy bilim umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganishning kaliti ekanligini alohida ta’kidlaydi. Ilm-ma’rifatli odam jamiyat taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoqdir. ”Ilmning foydasi ochko‘zlik bilan oltin-kumush to‘plash uchun bo‘lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo‘lishdir” Umuman, Abu Rayhon Beruniy ilm-fanning buyuk homiysi va muxlisi sifatida mamlakatning obodonchiligi ilm-fanning gullashida, odamning baxti esa uning bilim va ma’rifatida deb bildi. Yaratgan asarlarida u ta’lim-tarbiyaga doir she’r va hikmatlardan misollar keltirib, ular orqali har bir inson o‘z qalbining farmoyishiga ko‘ra xayr-ezgulikka intilishi, sun’iy obro‘, shuhrat qozonish uchun muruvvat va sharofat ko‘rsatmasligi kerakligini ta’kidlaydi.

Yusuf Xos Hojib ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liq holda bo‘lishini tavsiya etadi, o‘g‘il bolalarning bir necha san’at turlarini va hunarlarni tugal o‘rganmog‘i lozimligini ta’kidlaydi. Bu, ularning kelajak hayotlari, jamiyat rivoji uchun zarurligini aytadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi yosh avlodni hayotga tayyorlash, ular tarbiyasini samarali amalga oshirish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu ehtiyoj tarbiya borasida orttirilgan tajribalar to‘plangandan keyin o‘sha tajribalarni umumlashtirish, yoshlar tarbiyasi haqida qonun-qoidalarni ishlab chiqish zaruratini taqozo etadi. Avvalo pedagogikaning nazariy kurtaklari falsafa negizida paydo bo‘ladi. Ta’lim-tarbiya masalalari hamisha mutafakkir, yozuvchi, olimlar xayolini band qilib kelgan. Ular o‘zlarini bola tarbiyasi, ularni barkamol inson qilib tarbiyalash haqidagi yorqin mulohazalari bilan pedagogik fikrlar ravnaqiga ulush qo‘shganlar. Masalan: Nizomulmulkning «Siyosatnoma», Nosir Xisravning «Saodatnoma», Ahmad Yugnakiyning «Hibatul-Haqoyiq», Alisher Navoiyning «Mahbub - ul qulub», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarlari bevosita odob, axloqqa daxldordir.[3]

XXI asrda ta’lim tizimi global miqyosda tez rivojlanib borayotgan zamonaviy bir jarayon sifatida, nafaqat bilim va ma’lumotlarni berish, balki shaxsiy axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat, va insoniy fazilatlarni shakllantirishga ham katta e'tibor qaratiladi. Bu jarayonda Sharq allomalarining asarlari ham o‘zining ulkan o‘rnini egallaydi. Sharq allomalari, ularning ilmiy va falsafiy qarashlari zamonaviy ta’limda talabalarning axloqiy madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Sharq allomalarining asarlarida insoniyatning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatlariga oid nazariyalar keng o‘rganilgan va ular bugungi kunda ta’lim tizimiga amaliy qo‘llanma sifatida tatbiq etilishi mumkin. Sharq allomalari tarixan o‘z asarlarida axloq, adolat, mehr-shafqat, halollik, sabr-toqat kabi asosiy insoniy fazilatlar haqida ko‘plab hikmatlar yaratganlar. Misol uchun, Abu Hamid al-G‘azzoliy, Ibn Sino, Al-Farobiy va boshqa ko‘plab olimlarning asarlari o‘z davrlarida axloqiy madaniyatni shakllantirishda asosiy vosita bo‘lgan. Ularning fikrlari, talabalarga faqat ilm berish emas, balki ularni axloqiy jihatdan yetuk, odobli va ijtimoiy mas'uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi. Abu Hamid al-G‘azzoliy "Ihyo ulum al-din" (Din ilmlarini tiklash) asarida, axloqiy tarbiyani inson

hayotining eng muhim jihati sifatida ko‘rib chiqadi. U, shuningdek, ilm va axloqning o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlab, ilmli insonni faqat bilimga ega bo‘lish emas, balki uning amaliyotda adolatli, saxovatli va vijdonli bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Bunday qarashlar, zamonaviy talabalarning shaxsiy axloqiy madaniyatini shakllantirishda o‘z o‘rnini topishi mumkin.

Tahlil va natijalar: Zamonaviy ta’lim tizimida axloqiy madaniyatni shakllantirishda Sharq allomalarining asarlaridan foydalanish, talabalarga nafaqat ilm berish, balki ularni ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan ham to‘liq rivojlantirishga yordam beradi. Sharq allomalari asarlarida ta’limning maqsadi, avvalo, insonni mukammal qilib tarbiyalashdir. Ular ta’limni faqat mantiqiy va ilmiy ma’lumotlarni o‘zlashtirish deb emas, balki axloqiy fazilatlarni rivojlantirish deb ham tushunishgan. Misol uchun, Al-Farobiy "Fazilali shahar" asarida axloqiy fazilatlar va ijtimoiy mas'uliyatni ta’kidlagan. U, jamiyatda yashovchi insonlarning o‘zaro munosabatlarida adolat, sabr-toqat va samimiyatni qo‘llash zarurligini ko‘rsatgan. Uning fikrlariga ko‘ra, axloqiy fazilatlar jamiyatda tinchlik va farovonlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, talabalarga axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatni singdirishda Al-Farobiyning g‘oyalari juda foydalidir. [4] O‘tmish allomalarining pedagogik fikr va g‘oyalarini bilish va yuqori baholashgina emas, balki ulami ijodiy qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini egallash zarurligi ham uqtiriladi. Yakuniy mashg‘ulotda

mavzuga doir konferensiya darsi o‘tkazish ham mumkin. Konferensiya darsini “Hozirgi zamon talaba-yoshlarining ma’naviy sifatlari: u qanday bo‘lishi kerak” mavzusida o‘tkazish maqsadga muvofiq. Konferensiyaga tayyorlanishda, albatta, Sharq mutafakkirlarining talabalar ma’naviy sifatlarini tarbiyalashga xizmat qiladigan fikr va g‘oyalari bilan birga hozirgi davrda yoshlar egallashi zarur bo‘lgan xislatlar uyg‘unlashadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida axloqiy madaniyatni shakllantirishda Sharq allomalarining asarlarini qo‘llash nafaqat axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish, balki talabalarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda, axloqiy madaniyatni shakllantirishda quyidagi yo‘nalishlarni kiritish mumkin: Etika va axloqiy ta’lim: Sharq allomalari asarlarida keltirilgan etika va axloqiy normalarni o‘rganish, talabalarga o‘z hayotida adolat, sabr-toqat, mehr-muhabbat va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishni o‘rgatadi. Shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatni o‘rgatish: Talabalarga ijtimoiy mas'uliyat, xalq va jamiyat oldidagi majburiyatlarni tushuntirish, ularni nafaqat ilm, balki ma’naviy jihatdan ham to‘laqonli insonlar sifatida tarbiyalash zarur.

Ruhiy va ma’naviy o‘sish: Sharq allomalari insonning ichki dunyosini rivojlantirishga katta e'tibor berishgan. Ularning asarlarida ruhiy va ma’naviy o‘sishning ahamiyati, dunyoqarashni kengaytirish va insonni yaxshilash borasidagi g‘oyalar zamonaviy ta’limda talabalarning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Xalqaro hamkorlik va tushunish: Sharq allomalari o‘z asarlarida boshqa xalqlar, madaniyatlar va dinlar bilan murosa va hurmat asosida yashashni ta’kidlaganlar. Bu g‘oyalar bugungi global ta’lim tizimida, talabalarning xalqaro hamkorlikka tayyorligini oshirishda foydalidir.

Xulosa takliflar: Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, sharq allomalarining asarlari zamonaviy ta’lim tizimida talabalarning axloqiy madaniyatini shakllantirishda juda katta ahamiyatga ega. Ular o‘z asarlarida insonning axloqiy va ma’naviy tarbiyasini eng yuqori qadriyat sifatida ko‘rsatganlar va bu g‘oyalar bugungi kunda talabalarga axloqiy fazilatlar, ijtimoiy mas'uliyat va ma’naviy o‘sish yo‘lida yo‘nalish berishga xizmat qiladi. Sharq allomalari ta’lim tizimiga kiritilganida, bu nafaqat ilmiy, balki axloqiy rivojlanishga ham katta hissa qo‘shadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. SH.M.Mirziyoyev “ Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”- Toshkent,” O‘zbekiston”, 2017-yil, 488 bet, 2-bet.

2. SH.M.Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017-yil,592 bet 10-bet.

3. SH.M.Mirziyoyev “ Maktabgacha ta’lim tizmi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari” to‘g‘risidagi PF-5198 son farmoni 30.09.2017yil, 7-8-bet.

4. B.R.Djurayeva, H.M.Tojiboyeva, G.M.Nazirova “Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari” – Toshkent, O‘zPFTTI nashriyoti, 2015-yil, 198-b.

5. Y.Abdullayev. Eski maktabda xat-savodga o‘rgatish. T.: 1960 y. 120-b

JISMONIY TARBIYA VA OMMAVIY SPORTNING RIVOJLANISHIGA JAMOALARNI OMMAVIY JALB ETISH

Nodirbek Yoqubjonov,
Andijon davlat pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va ommaviy sportning rivojlanishi vaqt o‘tishi bilan tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan belgilanadigan sezilarli o‘zgarishlarga duch kelganligi aniqlandi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijalari ushbu sohalarning asosiy jihatlari va tendentsiyalari haqida qimmatli fikrlarni beradi. Keng qamrovli tibbiy ta’lim, yangilangan o‘quv dasturlari va dalillarga asoslangan o‘qitish usullarini integratsiyalashuvi talabalarning rivojlanayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun juda muhimligi o‘rganildi. Ta’lim muassasalari, sog‘liqni saqlash mutaxassislari va siyosatchilar o‘rtasidagi hamkorlik jismoniy faoliyat va salomatlikni mustahkamlash bo‘yicha say-harakatlarning ta’lim tizimlarida integratsiyalashuvini yanada kuchaytirishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *rivojlanish, kontekst, salomatlik, inklyuziv, texnologiya, integratsiya, elektron sport.*

Аннотация

В статье показано, что развитие физического воспитания и массового спорта со временем претерпело существенные изменения, обусловленные историческими, социальными и культурными факторами. Результаты анализа научной литературы дают ценную информатsiю об основных аспектах и тенденциях в этих областях. Стало известно, что комплексное медицинское образование, обновленные учебные программы и интегратsiя научно обоснованных методов обучения имеют решающее значение для удовлетворения меняющихся потребностей студентов. Сотрудничество между образовательными учреждениями, специалистами здравоохранения и политиками может еще больше усилить интегратsiю физической активности и усилий по укреплению здоровья в системы образования.

Ключевые слова: *развитие, контекст, здоровье, инклюзивность, технологии, интегратsiя, киберспорт.*

Annotation

The article shows that the development of physical education and mass sport has undergone significant changes over time due to historical, social and cultural factors. The results of the analysis of scientific literature provide valuable information on the main aspects and trends in these areas. It became known that comprehensive health education, updated curricula and the integration of evidence-based teaching methods are crucial to meet the changing needs of students. Collaboration between educational institutions, health professionals and policy makers can further strengthen the integration of physical activity and health promotion efforts into education systems.

Keywords: *development, context, health, inclusion, technology, integration, esports.*

Kirish. Jismoniy tarbiya va jamoat sporti jismoniy faollikni targ‘ib qilish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, shaxs va jamiyatning umumiy farovonligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportning rivojlanishi tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar ta’sirida vaqt o‘tishi bilan rivojlandi.

Tarixan jismoniy tarbiya ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib, uning maqsadi jismoniy tayyorgarlik, harakat qobiliyatlari va sog‘lom turmush tarzi haqidagi bilimlarni rivojlantirishdir. Ananaga ko‘ra, tizimli jismoniy faoliyat, sport mashg‘ulotlari va o‘quvchilarda jismoniy savodxonlikni rivojlantirish imkoniyatlarini ta’minlaydigan maktab dasturlariga e’tibor qaratildi. Maktablarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari muntazam ravishda sport bilan shug‘ullanish va sog‘lom odatlarga ega bo‘lish muhimligini ta’kidlab, sport va jismoniy faollik bilan umrbod shug‘ullanish uchun zamin yaratadi.

So‘ngi yillarda jismoniy tarbiya va ommaviy sportning rivojlanishiga bir qancha asosiy tendentsiyalar ta’sir ko‘rsatdi. Salomatlik va farovonlikning ahamiyatini tan olish va samaradorlikka asoslangan yondashuvlardan yanada inklyuziv va yaxlit istiqbollarga o‘zgartirishga olib keldi. Umumiy salomatlikni yaxshilash, surunkali kasalliklarning oldini olish va ruhiy farovonlikni yaxshilash vositasi sifatida jismoniy faollikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jismoniy tarbiya va ommaviy sportda inklyuzivlik va xilma-xillikka e‘tibor kuchaymoqda. Odamlar uchun teng foydalanish va ishtirok etish imkoniyatlarini ta’minlash, gender tengligini rag‘batlantirish va nogironlar uchun moslashtirilgan dasturlarni taqdim etish bo‘yicha say-harakatlar amalga oshirildi. Inklyuzivlikka urg‘u berish, ular xizmat ko‘rsatadigan turli xil populyatsiyalarni kutib oladigan, qo‘llab-quvvatlovchi va aks ettiradigan muhitni yaratishga qaratilgan.

Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan siyosat ham muhim o‘rin tutadi. Turli darajadagi hukumatlar jismoniy faollik va sport bilan shug‘ullanishni rag‘batlantirish uchun mablag‘, infratuzilma va yo‘l-yo‘riq beradi. Ular jismoniy tarbiya va jamoat sportining ijtimoiy afzalliklarini, jumladan, sog‘liqni saqlashni yaxshilash, jamiyatni rivojlantirish va ijtimoiy hamjihatlikni tan oladilar [1. 4 б].

Adabiyotlar sharhi. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportning rivojlanishi vaqt o‘tishi bilan tarixiy sharoit, ijtimoiy o‘zgarishlar, texnologik yutuqlar, salomatlik va farovonlikka bo‘lgan munosabat kabi turli omillar ta’sirida sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi. Ushbu munozaralar bo‘limida adabiyotlarni o‘rganish natijasida olingan asosiy xulosalar va mavzular batafsilroq ko‘rib chiqildi, ularning oqibatlari yoritildi va jismoniy tarbiya va ommaviy sportning kelajakdagi yo‘nalishlari muhokama qilindi [2. 13 b].

1. Ta’lim va sog‘liqni saqlash: Maktablarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘quvchilarda jismoniy faollikni rivojlantirish, harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish va sog‘lom odatlarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Biroq, o‘quv dasturlari va o‘qitish usullarini rivojlanayotgan ta‘lim falsafalari va tadqiqotga asoslangan ilg‘or tajribalar bilan uyg‘unlashtirish uchun doimiy ravishda yangilab turish zarurati mavjud. Keng qamrovli sog‘liqni saqlash bo‘yicha ta‘limni o‘z ichiga olish, ruhiy farovonlik muhimligini ta‘kidlash va ijobiy tana qiyofasini targ‘ib qilish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, maktablar, sog‘liqni saqlash mutaxassislari va siyosatchilar o‘rtasidagi hamkorlik jismoniy faoliyat va salomatlikni mustahkamlash bo‘yicha say-harakatlarning ta’lim tizimlarida integratsiyalashuvini yaxshilashi mumkin [3. 19 b].

2. Inklyuzivlik va tenglik: Jismoniy tarbiya va jamoat sportida inklyuzivlik va tenglikni rag‘batlantirishga qaratilgan say-harakatlar barcha odamlar uchun teng imkoniyatlarni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Gender tafovutlarini bartaraf etish, nogironligi bo‘lgan odamlar uchun moslashtirilgan va qulay dasturlarni taqdim etish va aholining kam ta’minlangan qatlamlarini qamrab olish uchun strategiyalar amalga oshirilishi kerak. Turli xil shaxsiyat va qobiliyatlarni o‘z ichiga olgan xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish tegishlilik tuyg‘usini rivojlantirish va jismoniy faoliyatda umrbod ishtirok etishni rag‘batlantirish uchun muhim ahamiyatga ega [4. 41 b].

3. Ijtimoiy va ijtimoiy imtiyozlar: Jismoniy tarbiya va jamoat sporti inson salomatligidan tashqari keng ko‘lamli ijtimoiy imtiyozlarni beradi. Ular jamiyatni rivojlantirish, ijtimoiy birdamlik va madaniyatni saqlashga yordam beradi. Tashkil etilgan tadbirlar, jamoaviy sport dasturlari va sport diplomatiyasi tashabbuslari ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishga, madaniy farqlarni ko‘paytirishga va turli odamlar guruhlari o‘rtasida o‘zaro tushunishga yordam beradi. Ta’lim muassasalari, jamoat tashkilotlari va mahalliy hokimiyat organlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash jismoniy tarbiya va sportning mahalliy hamjamiyatlarga ijobiy ta’sirini kuchaytirishi mumkin [5. 114 b].

4. Kelajakdagi yo‘nalishlar: Kelajakga nazar tashlaydigan bo‘lsak, jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirishda qator yo‘nalishlarga yanada e‘tibor qaratish zarurligini ta’kidlash mumkin. Birinchidan, jismoniy faoliyat va farovonlikni oshirish uchun turli yondashuvlar, aralashuvlar va siyosatlarning samaradorligini baholash uchun doimiy tadqiqotlarga ehtiyoj bor. Bu jismoniy tarbiyaning odamlar salomatligiga uzoq muddatli ta’sirini o‘rganish va ananaviy sport mashg‘ulotlariga kamroq qatnashadigan odamlarni jalb qilish uchun innovatsion strategiyalarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, psixologiya, sotsiologiya va sog‘liqni saqlash kabi sohalar o‘rtasidagi fanlararo hamkorlikni rag‘batlantirish jismoniy faoliyat xatti-harakatlariga ta’sir qiluvchi omillarni yanada yaxlitroq tushunishga yordam beradi. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish jadal va rivojlanayotgan sohadir [6. 67 b].

Ta’lim va sog‘liqni saqlashni rivojlantirish, inklyuzivlik va tenglik, texnologiya integratsiyasi, ijtimoiy va jamiyat foydalari va kelajakdagi yo‘nalishlar kabi asosiy muammolarni hal qilish orqali manfaatdor tomonlar jismoniy tarbiya va jamoat sportining shaxslar va jamoalarga ijobiy ta'sirini yanada kuchaytirishi mumkin. Ushbu

muhim sohalarda doimiy rivojlanish va muvaffaqiyatni ta’minlash uchun doimiy izlanishlar, innovatsion yondashuvlar va hamkorlikdagi sa‘y-harakatlar zarur [7. 36 b].

Jismoniy tarbiya va ommaviy sportning rivojlanishi vaqt o‘tishi bilan tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan belgilanadigan sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi. Adabiyotlarni o‘rganish natijalari ushbu sohalarning asosiy jihatlari va tendentsiyalari haqida qimmatli fikrlarni beradi.

Maktablarda jismoniy tarbiya o‘quvchilarning jismoniy savodxonligini oshirish, sog‘lom odatlarni shakllantirish va umumiy farovonligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Keng qamrovli tibbiy ta’lim, yangilangan o‘quv dasturlari va dalillarga asoslangan o‘qitish usullarini integratsiyalashuvi talabalarning rivojlanayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun juda muhimdir. Ta’lim muassasalari, sog‘liqni saqlash mutaxassislari va siyosatchilar o‘rtasidagi hamkorlik jismoniy faoliyat va salomatlikni mustahkamlash bo‘yicha say-harakatlarning ta’lim tizimlarida integratsiyalashuvini yanada kuchaytirishi mumkin.

Xulosa. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportning rivojlanishi, ularning tarixiy mazmuni, asosiy jihatlari va hozirgi tendentsiyalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. Maktablarda jismoniy tarbiya darslari muhimligi va jamoat joylarida ommaviy sportning rivojlanayotganligi tahlil qilindi. Unga ko‘ra salomatlik va inklyuzivlik, texnologiya integratsiyasi, jismoniy tarbiya va jamoat sportining ijtimoiy va jamiyatdagi afzalliklariga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. T.S.Usmonxo‘jayev, O‘.Tursunov, X.A.Meliyeva. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti. O‘quv qo‘llanma.- T.: O‘qituvchi nashriyoti. 2008 y. 168 b.

2. А.Е.Меркушева. Анализ мирового опыта поддержки инноватsионной деятельности// – Текст: непосредственный. Молодой ученый. 2017. 13-18 С.

3. R.X.Qodirov. Jismoniy tarbiya va sport faoliyatini ilmiy tadqiq qilishyu. Darslik.- Buxoro. Buxoro nashriyoti, 2020. 272 b.

4. А.Г.Гогоберидзе, О.В.Солнцевой. Дошкольная педагогика с основами методик воспитания и обучения//Учебник для вузов. 2-е изд. СПб.: Питер. 2016. 464 с.

5. П.И.Готовцев. Долголетие и физическая культура//–М.: Физкультура и спорт. 1985. 112 с.

6. Ж.К.Холодов, В.С.Кузнецов. Теория и методика физического воспитания и спорта: Учебуние пособие для студента//Высший учебний заведений. 2-е изд., испр. И доп. –М.: Академия. 2001. 481 с.

7. S.S.Xamrayev. Sport to‘garaklari orqali o‘quvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirish. Dissertatsiya. 2022 y. 141 b.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI O‘YIN TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI.

Muhabbat Berdiyeva,
Termiz davlat pedagogika instituti
dotsenti, PhD

Annotatsiya

Maqolada tarbiyachilarning kasbiy vakolatlarini takomillashtirish muammolari ko‘rib chiqilgan, metodik yordam modelini amalga oshirish orqali yosh tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha ishlash tajribasi keltirilgan. Kasbiy kompetensiyani shakllantirish bosqichlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim sifati, kasbiy malakasi, maktabgacha ta’lim tarbiyachisi, metodik yordam modeli, tarbiyachilarning malakasini oshirish*

Аннотация

В статье рассматриваются проблемы повышения профессиональной компетентности педагогов, опыт работы по формированию профессиональной компетентности молодых педагогов посредством

реализации модели методической помощи. Описаны этапы формирования профессиональной компетентности.

Ключевые слова: *качество образования, профессиональные качества, воспитатель дошкольного образования, модель методической помощи, повышение квалификации воспитателей.*

Abstract

The article discusses the problems of improving the professional competence of educators, the experience of working on the formation of professional competence of young educators through the implementation of the model of methodological assistance. The stages of formation of professional competence are described.

Keywords: *quality of education, professional skills, preschool educator, model of methodological assistance, professional development of educators*

Kirish. Jamiyating ravnaqi inson hayot kechirayotgan muhit, ana shu inson faoliyatining turli sohalarida namoyon bo‘layotgan ma’naviy asosga ko‘p jihatdan bog‘liq. Ma’naviy asosga yillar davomida tarkib topgan xalq pedagogikasi ham kiradi. Zero, shaxsning rivojlanishi, uning ma’naviy kamol topishida xalq pedagogikasi boy manbalarga ega. Xalq pedagogikasi umumxalq, ijodiy mahsulining natijasi, pedagogik madaniyatining asosiy ifodasi bo‘lib, uning ildizi qadim-qadimlarga borib taqaladi. U o‘zida xalqning orzu istaklari, qarashlari, inson, oila, yosh avlod tarbiyasi haqidagi tasavvurlarini aks ettiradi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, xalq pedagogikasi – mehnatkash xalq va xalq donishmandligining yosh avlodni maqsadga muvofiq kishilar etib yetishtirishdagi tarbiyaning maqad va vazifalariga bo‘lgan qarashlari hamda xalq ommasi tomonidan ta’lim-tarbiyani amalga oshirish borasida qo‘llanilib usul, vosita, ko‘nikma va malakalar birligini ifodalovchi tajribalar asosida to‘plangan bilim va ma’lumotlar majmuidir. Boshqacha qilib aytganda, xalq pedagogikasi xalq ommasining og‘zaki tarzda yaratgan va avloddan – avlodga o‘tib kelayotgan tarbiya haqidagi ma’lumotlari – pedagogik ijodlari majmuidir.

Hozirda ta’lim jarayoni oldiga qo‘yilgan asosiy buyurtma jamiyatga raqobatbardosh mutaxassisni yetishtirib berishdan iborat. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ko‘pchilik ish beruvchilar mustaqil o‘qib o‘rganish, zarur hollarda tezkor va samarali qaror qabul qilish, o‘z faoliyatini doimiy tahlil qilish (refleksiya) ko‘nikmalariga ega bo‘lgan xodim bilan shartnoma tuzishni ma’qul ko‘radilar. Shuning uchun ham tarbiyachi avvalo, bilimli bo‘lishi, o‘zi yashab turgan ulkan hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, ijtimoy faol bo‘lishi, umumiy va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi va bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi kerak. Shuningdek, pedagogik tarbiyachining hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan yondashuvi bolani hartomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga imkon beradi. Buning uchun o‘sib kelayotgan yosh avlodni bilimlar bilan qurollantirish milliy qadriyatlarimiz, ma’naviyatimizni tiklash jahon madaniyati, milliy madaniyatimiz durdonalari bilan tanishtirish, ularni jismoniy sog‘lom ma’naviy yetuk qilib tarbiyalashdek vazifalar qo‘yildi. Buning uchun har bir tarbiyachi o‘zini talab va nazorat qila bilishi davlatimiz maktabgacha ta’lim tashkilotlari oldiga qo‘ygan talablarni amalga oshirishning garovidir.

Bunga quyidagilar kiradi:

- Bolaning sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash.
- Aqliy qobiliyatini o‘stirish.
- Milliy qadriyatimiz va ma’naviyatimizning g‘oyaviy-aqliy tamoyillariga mos keluvchi e’tiqod va qarashlarini tarkib toptirish.
- Ona vatanga muhabbatini, ijtimoiy faollikni shakllantirish. Yosh avlodda o‘rtoqlik, do‘stlik hissini halollik va mehnatsevarlikni tarkib toptirish.

Tadqiqot metodologiyasi. A.E.Izmailovning ta’kidlashicha xalq pedagogikasini tadqiq etgan barcha tadqiqotchilarning ta’rificha, xalq pedagogikasi avloddan-avlodga o‘tgan tarbiya haqidagi bilimlarining yig‘indisiga emas, balki xalqning tarbiyaviy faoliyati tajribasi asosida mazkur bilimlarning malaka va ko‘nikmaga aylanishi majmui hamdir. Haqiqatdan ham xalq pedagogikasida faqat tarbiya jarayoni emas, balki ta’lim jarayoni ham asosiy manba sifatida katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Shunday ekan, olimning fikricha xalq pedagogikasi ta’rifida ta’lim va tarbiya ikki tomonlama jarayon sifatida o‘z ifodasini topmog‘i kerak, ya’ni, xalq pedagogikasi – xalq ommasining tarixiy va ijtimoiy tajribasi sifatida og‘zaki shaklda avloddan-avlodga o‘tib kelgan, tajribada

sinab ko‘rilgan va jamlangan empirik bilimlar, ma’lumotlar, malaka va ko‘nikmalar majmuidir. xalq og‘zaki ijodi tarkibida milliy urf-odatlar, an’analar, marosimlar, xalq o‘yinlari, diniy ta’limotlar, xalq amaliy san’ati va hunarmandchiligiga oid, milliy musiqa, raqs san’ati, xalq tabobati va boshqa manbalarni ham uchratish mumkin. Ana shu manbalardan eng muhimi xalq og‘zaki ijodi bo‘lib, xalqimizning o‘z tarixiy-ijtimoiy taraqqiyoti davomida avloddan-avlodga o‘tib, sayqallanib kelayotgan, shaxsning ma’naviy-ahloqiy takomilida o‘ziga xos ta’sir doirasiga ega. [1, 95]

Xalq og‘zaki ijodi bilan tarixchilar tarixiy voqealarning unda qanday aks etgani elshunoslar xalqning urf-odatlari bilan, san’atshunoslar folklordagi musiqa, raqs, o‘yin va boshqalarni, tilshunoslar uning lahja va shevalari bilan, adabiyotshunoslar uning yozma adabiyot bilan munosabatlarini tekshiradilar, - deydi K.Imomov. Biz esa bu ta’rifga pedagogika fani ta’lim-tarbiya masalalari xalq og‘zaki ijodida qanday ifodalangani bilan shug‘ullanishi, uning aqliy, ahloqiy, mehnat, nafosat, jismoniy tarbiyada muhim manba ekanligini alohida ta’kidlamoqchimiz. Zero, xalq og‘zaki ijodi xalq hayotining badiiy ifodasi bo‘lib, xalqning ijtimoiy hayot haqidagi tushunchalarini, uning didini, zavqini, ijtimoiy, tarixiy, falsafiy, badiiy-estetik qarashlarini o‘zida aks ettiradi. Shuning uchun ham xalq og‘zaki ijodining qimmati, uning ma’rifiy, g‘oyaviy tarbiyaviy va estetik ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi. U Xalqimizning uzoq tarixi, urf-odati, ijtimoiy hayoti, dunyoqarashining kengligi ijtimoiy munosabatining xilma-xilligi, orzu – umidalarining ulug‘vor va shaxs munosabatining hilma-xilligi, orzu-umidlarining ulug‘vor va teranligi bilan bilim beradi va ma’naviy – ahloqiy tarbiya manbai bo‘lib xizmat hisoblanadi. Ayniqsa, bolalarning o‘smirlik davrida xalq og‘zaki ijodiga qiziqishi o‘ta kuchli bo‘ladi. Chunki bu yoshda ular kata orzu-umidlar bilan yashaydilar va o‘z orzuumidlarini yuzaga chiqarishda xalq og‘zaki ijodidagi sehr kuchiga, fantaziyaga ishonuvchanlik kuchli bo‘ladi. [2, 45]

Tarbiyachi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, chunonchi kommunikativlik layoqatiga ega bo‘lish, pedagogik texnika, nutq, yuz, qo‘l, oyoq va gavda harakatlari, mimika, jest, pantomimika) qonuniyatlarini chuqur o‘zlashtirib olish lozim. Tarbiyachi bolalarni ko‘zata oladigan, ularni xulqi, xatti-harakati sab-blarini to‘g‘ri tahlil qilib, unga ta’sir etuvchi vositalarni qo‘llay oladigan bo‘lishi kerak.

Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko‘nikmalardan xabardor qilish uchun tarbiyachi nutq madaniyatiga ega bo‘lishi va uning nutqi quyidagi xususiyatlarda aks ettira olishi kerak.

- Nutqning aniqligi.
- Nutqning irodaviyligi.
- Nutqning sofligi (uning turli sheva so‘zlaridan xoli bo‘lib), faqat adabiy tilda ifoda etish, jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassislarga xos so‘zlar), varvarizm (muayyan millat tilida bayon etiladigan nutqqa o‘zga millatlarga xos so‘zlarning o‘rinsiz qo‘llanilishi), vulgarizm (harakat qilish, so‘kishda qo‘llaniladigan so‘zlar) hamda konselyarizm (o‘rinli bo‘lmagan vaziyatlarda rasmiy nutqda so‘zlash) so‘zlaridan xoli bo‘lishi va pedagogning nutqi sodda, ravonva tushunarli bo‘lishi kerak.

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. [3, 58]

Tahlil va natijalar. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir.

- Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.
- Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:
- Psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik.
- Muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish; metodik

kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash; informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish; kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish; innovatsion kompetentlik–pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

- Kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.
- Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.
- Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.
- Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik. [4, 17]

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash, o‘zo‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining tarbiyachisining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish – bu kasbiy, shuningdek, umumiy insoniy munosabatlarning kombinatsiyasidir, buning natijasida nafaqat o‘quv jarayonini samarali boshqarish, balki vazifalarni bajarish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli hal qilish mumkin bo‘ladi. Bu, shubhasiz, kasbiy pedagogik kompetensiyani takomillashtirish va pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirishga ta’sir qiladi. [5, 56]

Ta’limni rivojlantirishning ushbu bosqichida kompetensiyaga asoslangan yondashuv maktabgacha tarbiyachilar faoliyatida yetakchi yo‘nalish hisoblanadi.Ushbu maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilar kasbiy kompetensiyasi – bu maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarning malaka vazifalarini aniq bajarish uchun zarur bo‘lgan tajriba, bilim ko‘nikmalari, texnika va usullarni o‘zlashtirish. Maktabgacha tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi bu kompetensiyalar majmuasidir: uslubiy, psixologik va pedagogik, kommunikativ, tadqiqot, taqdimot, AKT kompetensiya, hissiy kompetensiya.

Kasbiy vakolatlarni takomillashtirish va rivojlantirish yo‘lida yosh maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi quyidagi bosqichlardan o‘tishi kerak:

- ✓ Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachining kasbiy vakolatlarini rivojlantirish
- ✓ Uslubiy birlashmalarda, ijodiy guruhlarda ishlash
- ✓ Tadqiqot faoliyati
- ✓ Innovatsion faoliyat, yangi pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish
- ✓ Pedagogik tanlovlarda, ilmiy-amaliy konferensiyalarda faol ishtirok etish
- ✓ Ilg‘or ish tajribani ommalashtirish

o‘ziga biriktirilgan guruh talabalarining ta’lim olishlarida, shuningdek, darsdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishlarida ko‘maklashadi. Ularni insonparvarlik, adolat, mexnatsevarlik, Vatanga muhabbat ruxida tarbiyalash, beshta muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan to‘garak va klublariga jalb etish, ta’lim olish jarayonida yuzaga keladigan barcha masala va muammoni o‘rnatilgan tartibda bartaraf etishga qaratilgan faoliyatni olib boradi. Tyutor talabalar turar joylarida, ijaradagi va xususiy xonadonlarda yashovchi talabalarning yashash manzillariga muntazam borib, u yerda yaratilgan sharoitlar va talabalarning muammolarini o‘rganib borish va ularni yaxshilash choralarini ko‘rish faoliyati bilan shug‘ullanadi. Tyutor o‘z faoliyatida amaldagi qonun hujjatlari, oliy ta’lim muassasasi ichki tartib va odob- axloq qoidalari hamda ushbu nizomiga rioya etadi.

-Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). “Tyutor”-ustoz, murabbiy. Ba’zi hollarda ma’ruza o‘qituvchisi bilan tinglovchi orasidagi bog‘lovchi hisoblanadi. Ya’ni ma’ruzachi tomonidan berilgan bilimlarni keng egallashda maslahatchi vazifasini bajaradi. Bu so‘z o‘zbek tilining izohli lug‘atiga kiritilmagan. Shunga qaramay yangi termin sifatida nafaqat tilimizda, balki oliy ta’limda ma’lum bir lavozim sifatida qo‘llanmoqda.

2021 yil 1 sentyabrdan talabalar bilan ishlash bo‘yicha “Guruh murabbiylari” instituti bekor qilindi va 1-3 kurs talabalari uchun muammolarni bartaraf etishda yaqindan yordam ko‘rsatuvchi “Tyutor”larni biriktirish amaliyoti yo‘lga ko‘yildi. Hujjatga muvofiq, har 120-150 nafar talabaga 1 ta shtat birligi hisobidan “Tyutor” lavozimi kiritildi.

Tyutorlik faoliyatining kelib chiqish tarixi va rivojlanish tendensiyalari bo‘yicha bir qator tahliliy ma’lumotlar asosida “tyutor” so‘zining ma’nosi va unga berilgan ta’riflarni ham ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Mavjud izohli lug‘atlarda “tyutor” so‘ziga quyidagicha turli xil ta’riflar berilgan va ular asosida tyutorlik faoliyatining ma’nosini ham turlicha tushunish mumkin:

Tyutor{ingl. “tutor”-repetitor, curator, ta’lim muassasasidagi tarbiyachi}. Ta’lim oluvchilarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlariga umumiy rahbarlikni amalga oshiruvchi pedagog, ayrim universitetlarda o‘qituvchilik lavozimi [3;390 b];

Tyutor {lot. “tutor”-himoyachi, vasiy}. O‘qituvchi-konsultant yoki o‘quvchiga individual o‘qishini tashkil qilishda yordam beruvchi va muayyan o‘quv dastur doirasida o‘quv jarayoniga o‘quv-metodik rahbarlikni amalga oshiruvchi kurator [4];

Tyutor{ingl. “tuter”- repetitor, murabbiy}. Talabalarga ta’lim olish jarayonini eng yaxshi natija beradigan darajada tashkil qilishga yordam beruvchi o‘qituvchi, murabbiy [5];

Tyutor-guruh rahbari lavozimiga mos keladigan, lekin o‘quvchilarning qobiliyatlarini test sinovlari orqali aniqlash asosida kasb tanlashga tayyorlash maqsadida har bir o‘quvchi uchun qulay faoliyat sharoitlarini yaratish funksiyalariga ega bo‘lgan lavozim hisoblanadi [6; 152 b].

Ayrim elektron lug‘atlarda tyutorning mavqei internet-muhiti nuqtai nazaridan qaralgan, bu yerda tyutor o‘qituvchi-maslahatchi sifatida kursni samarali o‘rganishni tashkil qilish, seminarlar o‘tkazish, yozma topshiriqlar bo‘yicha sharhlar berish, o‘z-o‘zining mustaqil o‘rganish jarayonini tartibga solish, tajriba almashish uchun yuzma-yuz mashg‘ulotlar o‘tkazish va faol o‘qitish usullardan keng qo‘llanilishi nazarda tutilgan [7].

Izohli lug‘atlardan tashqari, sohaning bir qator olimlari va boshqa mutaxassislari tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida tyutor so‘ziga quyidagicha ta’riflar berilgan:

Yu.L.Derajne tomonidan “tyutor ochiq ta’lim tizimida murabbiy, metodist, konsultant funksiyalarini bajaradigan muhim komponent hisoblanishi” [8].

T.I.Konyanina tomonidan “tyutor- bu mustaqil bilim olish jarayoniga, yakka tartibdagi ta’limga oid izlanishga ko‘maklashuvchi, qo‘llab-quvvatlovchi, individual ta’lim loyihalari va dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlovchi” [9].

P.G.Shedroviskiy tomonidan tyutor- bu “o‘quvchiga individual ta’lim dasturini ishlab chiqishda, unga ta’lim jarayonining o‘ziga va uning alohida elementlariga moslashishida yordam bera oladigan konsultant…” [10].

S.A.Shennikov tomonidan “tyutor” o‘qituvchi-konsultant sifatida- ta’lim va mustaqil ta’lim olishni tashki etuvchi mutaxassis” [11].

L.Rilova tomonidan “tyutor pozitsiyasi ta’lim oluvchining bilim olishini o‘zi belgilash jarayonini qo‘llab-quvvatlashning maxsus shakli (maqsadni belgilash, harakatni refleksiv tahlil qilish va o‘zini-o‘zi baholash, ta’lim yo‘lida o‘zini-o‘zi nazorat qilish va boshqa) va individual ta’lim trayektoriyasini (dasturi) yaratish uchun resurslarni qidirishni belgilash;

N.Jevakina tomonidan tyutor faoliyati o‘qituvchining kasbiy faoliyatining ixtisoslashuvi sifatida qaraladi. Ushbu turdagi o‘qituvchilarni tayyorlash uchun ularning kommunikativ, analitik, reflesiv ko‘nikmalarini rivojlantirish, virtual muhitda ishlashga psixologik tayyorligi, ko‘maklashish ko‘nikmalarini rivojlantirish, talabalarni yangi ta’lim shakliga moslashtirish [12].

T.M.Kovaleva tomonidan “tyutor- bu individuallashtirish tamoyili asosida ishlovchi va individual ta’lim dasturini tuzish va amalga oshirishga ko‘maklashuvchi alohida pedagog” [13] degan fikrlar berilgan.

Olimlar va soha mutaxassislari tomonidan tyutor haqida turlicha ta’riflar berilganligiga qaramasdan, ko‘pchilik mutaxassislar tomonidan hozirgi kunda jahon miqyosida hamda amaliyotida keng tarqalgan T.M.Kovalevaning tyutorlik- bu pedagogik ko‘maklashishning alohida turi – u ochiq ta’lim jarayonida talabani individuallashtirish jarayoniga ko‘maklashishdir, degan fikrini qo‘llab-quvvatlash mumkinligi alohida qayd etilganligini ko‘rish mumkin.

Tyutor tushunchasi bo‘yicha respublikamizda ham bir qator tajribalar mavjud bo‘lib, ilmiy tadqiqot ishlar va davlatimiz tomonidan qabul qilingan qonun hujjatlarda quyidagicha ta’riflar berilgan:

Jumladan, davlatimizda ushbu soha bo‘yicha tadqiqot olib borilgan ilmiy tadqiqotchi olimlar sifatida A.Asqarov, A.Ibraymov ishlarida “Tyutor (o‘qituvchi-konsultant)- masofadan malaka oshirish o‘quv jarayonida tegishli o‘quv moduli bo‘yicha tinglovchilar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi va boshqaruvchi, metodik yordam ko‘rsatuvchi, o‘qish va bilish nazoratini amalga oshiruvchi hisoblanishi” hamda tyutorlar masofaviy malaka oshirishda 4 ta o‘qitish shakli bo‘yicha faoliyat olib borilishi ta’kidlangan.

-Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tyutor-talabalar shaxsini rivojlanishiga, universitet, respublika va xalqaro miqyosdagi olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga, shuningdek, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishiga ko‘maklashuvchi inson bo‘lib, u yigit-qizlarni kasbga yo‘naltirish, Vatanga muxabbat ruxida tarbiyalash, turli ilmiy to‘garaklarga jalb etish hamda muammo va kamchiliklarini o‘rganib, ularga atroflicha yechim topish bilan shug‘ullanadi.

Tyutorlarning asosiy maqsadi ta’lim-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish, talabalar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, ularning universitet hayoti va ta’lim jarayoniga moslashishiga ko‘maklashish, ularga uslubiy, ijtimoiy psixologik yordam ko‘rsatish va tanlagan kasbiga muxabbatni oshirishdir. Shu bilan birga tyutor yigit- qizlarning dars mashg‘ulotlarini muntazam taxlil qilib boradi va sifatini oshiradi. Ularning darsdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishini ta’minlaydi hamda ijtimoiy axvolidan doimiy xabardor bo‘lib turadi.

Tyutorlar ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy-tarbiya, o‘quv va o‘quv- uslubiy hamda ilm- fan, innovatsion va ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlarida o‘z faoliyatini olib boradi. Har bir tyutor o‘zi ga biriktirilgan guruh talabalarini ijodiy qobiliyati va iste’dodini namoyon etishi uchun imkon yaratadi. Talabalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi, ularning ta’lim olishi, ilm bilan shug‘ullanishi, yashashi va dam olishi uchun sharoitlar yaratishga ko‘maklashadi. Iste’dodli yigit-qizlarning o‘quv intizomini mustahkamlash, ularda ijodiy fikrlash, halollik, to‘g‘ri so‘zlik kabi xislatlarni shakllantirish borasida tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yadi. Iqtidorli talabalarni aniqlab, ularning turli tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga loyihalarni amalga oshirishga ko‘maklashadi. Bundan tashqari, talabalarning darslarni o‘zlashtirish darajasini nazorat qilib boradi, ularning innovatsion ta’lim texnologiyalari va o‘quv- uslubiy materiallar, axborot-resurslari bilan ta’minlash va ushbu manbalardan keng va unumli foydalanishi uchun zamin yaratadi. Shu bilan birga tyutor talabalarni o‘ylantiradigan qator masalalar, xususan, ularni turar joy bilan ta’minlash, qoldirilgan darslarni o‘zlashtirishiga yordam berib boradi. Har bir tyutor o‘ziga biriktilgan akademik guruhlarning darslarini, talaba davomatini va dars sifatining monitoringini olib borish maqsadida kuzatish, talabalarga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishini talab qilish, TTJga joylashishi uchun e’lon berish va bu boradagi komissiya yig‘ilishida talabaning

ishtirokini ta’minlash, talabaga tavsifnoma va akademik ta’til berish masalasini hal qilishda ishtirok etish, ularni rag‘batlantirilishi yoki jazolanishi, turli stipendiyalarga tavsiya qilishda xulosa va fikrnoma berish huquqiga ega. Shuningdek, har bir tyutor talabalarning sha’ni va qadr-qimmatini, obro‘sini hurmat qilish, ularning jismoniy, ruxiy holatidan muntazam xabardor bo‘lish, o‘quv, ma’naviy va ilmiy faoliyatini monitoring qilib borish, yigit-qizlarning darslarda faol ishtirok etishini tashkil etadi.

-Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning muhim komponentlari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

-Motivatsion komponenti: Bo‘lajak pedagoglarda tyutorlik faoliyatiga qiziqish, tyutorlik qo‘llab-quvvatlashining o‘zi uchun qanday ahamiyatga ega ekanini anglash va uni professional faoliyatida muhim deb bilish zarur.

-Shaxsiy-reflektiv komponent: Bu o‘z potensial imkoniyatlarini anglash, o‘zini rivojlantirish va reflektiv faoliyatni rivojlantirishga tayyorlikni o‘z ichiga oladi. Bu tyutorlik faoliyatida doimiy ravishda o‘z ishlarini tahlil qilish va o‘zgarishlar kiritish zaruriyatini bildiradi.

-Kognitiv-operatsion komponenti: Pedagogning tyutorlik sohasidagi professional bilimlar va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak. Bu komponent, shuningdek, tyutorlik texnologiyalarini amalda qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi.

-Tashkiliy-faoliyat komponenti: Bu bo‘lajak pedagoglarning talabalarning individual ta’lim so‘rovlari bo‘yicha faoliyatni tashkil etish, tyutorlik texnologiyalarini yaratish va o‘quv jarayonini tyutorlik metodologiyasiga moslashtirish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasining bosqichlari

-Analitik-diagnostik bosqich: Tyutorlik faoliyati haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish darajasini yig‘ish, tahlil qilish, tizimlashtirish va baholash.

-Tashkiliy-determinant bosqichi: Texnologiyaning amalga oshirilish yo‘nalishlarini aniqlash, usul, shakl, metod va vositalarni tanlash, tyutorlik kompetensiyasini shakllantirish dasturini ishlab chiqish, universitet o‘qituvchilarini pedagogik o‘zaro ta’sirga tayyorlash.

-Faoliyat bosqichi: Bo‘lajak pedagoglarning tyutorlik faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish texnologiyasining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi.

-Reflektiv-tuzatish bosqichi: Tyutorlik faoliyatiga tayyorgarlik darajasining dinamikasini baholash va tuzatish chora-tadbirlarini aniqlash.

-Natijaviy bosqich: Bo‘lajak pedagoglarning tyutorlik faoliyatiga tayyorgarlik darajasini baholash va keyingi rivojlanish istiqbollari.

-Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tyutor uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirishda uning chuqur o‘rganishi, to‘laqonli anglashi, oliy ta’lim muassasalarida tarbiya jarayonini takomillashtirishning asosini tashkil etadi. Shu bilan birga uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi asosida ta’lim muassasalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ta’lim-tarbiya jarayonlarining tashkil etishga xizmat qiladi. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepiyasi, ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratishi asosida talaba shaxsi ma’naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma’naviy-axloqiy madaniyatini tarbiyalashda muhim o‘rin tutuvchi nazariy g‘oyalarni amalga tatbiq etishda alohida o‘rin tutadi. Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasida ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda tyutorning pedagogik faoliyati, uning pedagogik mahorati muhim ahamiyatga ega. CHunki tyutor milliy tarbiya an’analari, qadriyatlarini tiklash, ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, qadriyatlariga zid bo‘lgan turli ma’naviy taxdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etadi. Bu o‘rinda tyutor talabalarda vijdonan mehnat qilish, tadbirkorlik, kasbiy-ma’naviy, innovatsion tafakkur, tashabbuskorlik, fidoiylik fazilatlariga ega bo‘lish, halol mehnat qilish, mustaqil hayotda muvaffaqiyatga erishish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Jamiyatda har bir yigit-qizning kamida uchta zamonaviy kasb-hunar sirlarini egallashlari uchun yetarli sharoitlar yaratilganligidan kelib chiqqan holda ularni hayotga tayyorlashga o‘rgatish tadbirlarini tashkil etish, mehr-oqibat, odamiylik, ota-onalarga hurmat va sadoqat kabi fazilatlarni mustahkamlash vazifalarini amalga oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni//lex.uz
2. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021 yil 30-sentabrdagi 390-son buyrug‘i//lex.uz
3. Словарь-справочник по педагогике/ Фвт.- сост. АЮМижериков; По общ. Ред. П.И.Пидкасистого.- М.:ТЦ Сфера, 2004.-448 с
4. Новый словарь методических терминов и понятий. Авт.-сост. Э.Г.Азимов, А.Н.Щукин.- М.: Издательство ИКАР. Э.Г.Азимов, А.Н.Щукин.-2009.-448 с.
5. Большой толковый словарь руского языка. // Авт. –сост. С.А.Кузнецов.-1-е изд-е: СПб.: Норинт. С.А.Кузнецов.-1998.-1534
6. Современный образовательный процесс: основный понятия и термины. Авт.-сост. М.Ю.Олешков, В.М.Уваров.- М.:Компания Спутник +.Ю.Олешков, В.М.Уваров.-2006.-191 с.
7. Бизнес-словарь- URL: http://www.businessvoc.ru/bv/Term
8. Деражне Ю.Л Тьютор в открытом обучении: Учебно-методическое пособие.-М.: Изд-во Департамента федаральной государственной службы занятоси населения Московской области, 1998.-58 с
9. Канянина Т.И Роль тьютора в повышении ИКТ –компетентности педагогов: URL: http://msk.ito.edu.ru/section/61/2974
10. Шедровицкий П.Г Проблема индивидуальности:сборник научных трудов по материалам IV Всероссийской научной тьюторской конференсии. Томск, 2000 С. 13-25.
11. Щенников.С.А Открытое дистанционное образование.-М.: Наука, 2002.-527.
12. Жевакина Н.В. Педагогические основы обучения студентов-инностранцев: моногр.- Минск , 2009.-232 сю
13. Ковалева.Т.М Практика работы с процессом индивидуализации:сборник научных трудов по материалам IV Всероссийской научной тьюторской конференсии. Томск, 2000 С. 49-53.

O‘ZBEKISTONDA BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.

Xabibullo Boyev
TDIU iqt.fan.dok.prof.
Sherzod Adilov,
Ilmiy tadqiqotchi

Annotasiya

O‘zbekistonda aholi kambag‘allashuvini kamaytirishda kichik biznesni moliyalashtirishni takomillashtirish istiqbollari mavzusidagi maqolada biznes bilan shug‘ullanish natijasida xususiy mulkdorga aylanish, shuningdek, mulkka ega bo‘lish natijasida kambag‘allikdan chiqilishi haqida fikr yuritilgan.

Dunyodagi hamma mamlakatlarda kambag‘allik turli darajada mavjudligi uning keltirib chiqaradigan sabablar ko‘ratib berilgan. Kambag‘allikdan qutulish uchun avvalo aholini ish bilan ta’minlash, kichik biznes korxonalarini butun imkoniyatlar bilan ko‘paytirish orqali ishsiz aholini ish bilan ta’minlab, aholini biznes bilan shug‘ullanishiga davlat tomonidan huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, moliyaviy yordamlarni ko‘rsatilishi juda juda muhim ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar tarkibidagi o‘zgarishlar ko‘rsatilgan.

Jahonda biznesni rivojlanishi iqtisodiy rivojlangan davlatlardan boshlanib, butun dunyoga tarqalib ketganligi tufayli boshqa mamlakatlar ham xorij tajribasidan foydalanishi natijasida Evropa va O‘rta Osiyodagi davlatlar biznesni rivojlantirayotganliklari tufayli ularni aholisi mulkdorga aylanib, kambag‘allik va qashshoqlikni kamaytirishni turli yo‘llarini izlab topayotganligi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *Kambag‘allik, qashshoqlik, kambag‘allashuv, biznes bilan shug‘ullanishni ommalashtirish, biznesni jamiyatda tadqiq etish, ilmiy-texnikaviy axborotlar, innovator, agrobiznes, ishsiz aholini ishga joylashtirish orqali aholini o‘z-o‘zini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish.*

Abstract

In the article on the prospects of improving financing of small businesses in reducing population poverty in Uzbekistan, it is thought about becoming a private owner as a result of doing business, as well as getting out of poverty as a result of owning property.

All countries of the world have different levels of poverty, and the causes of poverty are given. In order to get rid of poverty, first of all, it is necessary to provide employment to the population, to provide employment to the unemployed population by increasing small business enterprises with all the possibilities, it was shown that it is very important to provide legal, economic, organizational, and financial assistance by the state to people doing business. Changes in the composition of incomes in the market economy are indicated.

Due to the fact that the development of business in the world started from economically developed countries and spread to the whole world, as a result of the use of foreign experience by other countries, it is shown that due to the fact that the countries in Europe and Central Asia are developing business, their residents are becoming owners and are looking for different ways to reduce poverty and poverty.

Key words: *Poverty, poverty, impoverishment, popularization of doing business, research of business in society, scientific and technical information, innovator, agribusiness, strengthening of self-social protection of the population by employing the unemployed population.*

Аннотация

В статье о перспективах улучшения финансирования малого бизнеса в снижении бедности населения в Узбекистане рассматривается возможность стать частным собственником в результате ведения бизнеса, а также выхода из бедности в результате владения собственностью.

Во всех странах мира разный уровень бедности, приведены причины бедности. Чтобы избавиться от бедности, прежде всего, необходимо обеспечить занятость населения, обеспечить занятость безработного населения за счет увеличения предприятий малого бизнеса со всеми возможностями, было показано, что очень важно оказывать юридическую, экономическую, организационную и финансовую помощь со стороны государства людям, занимающимся бизнесом. Обозначены изменения в составе доходов в рыночной экономике.

В связи с тем, что развитие бизнеса в мире началось с экономически развитых стран и распространилось на весь мир, в результате использования зарубежного опыта другими странами, показано, что благодаря тому, что страны Европы и Центральной Азии развивают бизнес, их жители становятся собственниками и ищут разные пути сокращения бедности.

Ключевые слова:

Бедность, нищета, обнищание, популяризация ведения бизнеса, исследование бизнеса в обществе, научно-техническая информация, новатор, агробизнес, усиление самосоциальной защиты населения за счет трудоустройства безработного населения.

Kirish. Jahonda biznesni rivojlanishi avvalo Evropa va AQShdan boshlanib, butun dunyoga tarqalib ketganligi tufayli boshqa mamlakatlar ham xorij tajribasidan foydalanib, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Turkiya, Eron, Arab Amirliklari, xatto xitoy, xindiston, O‘rta Osiy respublikalaridagi davlatlar biznesni rivojlantirayotganliklari tufayli ularni aholisi mulkdorga aylanib, kambag‘allik va qashshoqlikni kamaytirishni turli yo‘llarini izlab topishmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 martdagi “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid Davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5975-sonli Farmoni [1, 3], shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash zaminida, biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish natijasida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha maqbul davlat hayotga joriy etish tizimi ishlab chiqildi va shu asosda O‘zbekistonda kambag‘allik va qashshoqlikni tugatish uchun chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonning ham iqtisodiy rivojlanishi avvalo mamlakat miqyosida tadbirkorlikni rivojlanishi hamda jamiyatda biznes bilan shug‘ullanishni ommalashtirish orqali hozirgacha mavjud bo‘lgan kambag‘allik kamaytirishimiz biznes kichik korxonalarni sonini ko‘paytirib, ishsiz aholini ishga joylashtirish orqali aholini o‘z-o‘zini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishimiz maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 dekabrdagi PF-269-sonli “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni bilan [2,2] O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi qarorlari iqtisodiy barqarorlikning muhim tashkiliy asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Biznesni ayniqsa agrobiznesni rivojlanishiga yangi to‘sqinlik sun’iy ravishda vujudga keltirildi, bu dunyodagi buyuk mamlakatlarni aralashuvi natijasida O‘zbekistonda suv muammosi sun’iy ravishda Afg‘oniston tomonidan Amudaryo suvini Qo‘shtepa kanali orqali 287 km lik dalalarga suv etkazib berish baxonasi bilan Surxondaryo, Qashqadaryo va shularlarga tutash bo‘lgan qariyb 10 mln aholi istiqomat qiladigan va dehqonchilik, poliz va chorvachilik bilan shug‘ullanadigan xo‘jaliklar endi suv tanqisligiga uchrashi oddiy tabiiy holga aylanib qoldi. Albatta bu muammoni diplomatik kanallar orqali bartaraf etish ehtimoli mavjud, bu avvalo hukumat a’yonlariga bog‘liqdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi vaqtda biznes faoliyatiga ta’alluqli ilmiy tadqiqotlar ko‘p bo‘lsada, biznesni jamiyatda tadqiq etishni kengaytirish orqali insonlarni ish joylariga ega bo‘lishi va daromad topish, har bir biznes bilan shug‘ullanuvchi fuqaro o‘zini, oilasini doimo daromad bilan ta’minlab turishiga ishontirish asosiy masaladir. O‘zbekistonda aholini tashabbuskorligini uyg‘otish, uni biznes bilan shug‘ullanishga yo‘naltirish hukumat va boshqaru organlarining kunlik hayotiga aylanishi kerak.

Ushbu ilmiy maqolani yoritishda biznesni rivojlantirish istiqbollariga yo‘naltirilgan O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga daxldor jahondagi mashhur iqtisodchilarni asarlarini mazmun-mohiyati o‘rganilib, biznes sektorini rivojlantiruvchi statistik ko‘rsatkichlar taxlil etildi va turli nazariyalarni o‘rganishda mantiqiy fikrlar ilmiy mushohida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Maqola mazmunini yoritishda ilmiy-texnikaviy axborotlardan, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, monografiyalardan, xorijiy adabiyotlar, davriy matbuotlardan, internet ma’lumotlaridan samarali foydalanildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda har qanday iqtisodiy rivojlanishning asosini malakali inson omili hisoblanadi, jahon tajribasida ma’lum bo‘lgan biznesni yuksalishi tadbirkorlik sohasida faol insonlar hisoblanib kelgan.

Buning uchun O‘zbekistonda oliy ma’lumotlilar sonini 15 foizdan 60 foizgacha etkazish biznesda ham katta iqtisodiy yuksalishga olib keladi, innovator bo‘lgan etuk mutaxassislar har doim rivojlanishni ta’minlagan.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda agrobiznesda, ishlab chiqarishdagi modernizasiyalashda erishgan natijalar ishlovchilar soni bilan emas, balki agrobiznesda o‘rtacha ishlovchi har bir kishiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari bilan izohlanadi.

Mamlakatda agrobiznesni rivojlanish darajasini hisoblashda maxsus resurslarini agrobiznesga, tadbirkorlikka moyillik darajasini aniqlash muhim hisoblanadi. Iqtisodiy faol aholi qatlami iqtisodiy munosabatlarda qatnashish jarayonida jismoniy va aqliy imkoniyatlarini ishga soladi. O‘zbekistonda Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlari aholisi shunday aktiv biznesmenlar hududi hisoblanadi.

Mashhur amerikalik iqtisodchi, Nobel mukofotining laureati P.Samuelson aytadiki: “Shu narsa ma’lumki, o‘z-o‘ziga xo‘jayin bo‘lgan odam, ish haqi olib ishlaydiganlarga nisbatan xaftasiga ish bilan ko‘proq vaqt band bo‘ladi, ..., lekin baribir odamlar har doim o‘z mustaqil faoliyatini boshlamoqchi bo‘ladilar. Ular o‘z ishlarining muvaffaqiyatli chiqishiga ishonadilar,..., hattoki hech qachon yiliga bir necha ming dollardan ziyod topmasalar ham, baribir o‘z rejalarini tuzib, turli masalalarni hal qilishda ular uchun qandaydir joziba bor”.

Haqiqatdan ham biznes yo‘lida uchraydigan qiyinchiliklardan cho‘chimaslik kerak. Biznes bo‘yicha dunyoga mashhur amerikalik mutaxassis Robert Uotermenning ta’rificha: “Hayotda yagona o‘zgarmas narsa-bu yangilikdir, yangilikni biznesmen yaratadi”. O‘zbekistondan chiqqan mashhur biznesmenlarni Alisher Usmonov, Shodiev, Fattoxova va boshqalarni butun dunyo taniydi. Dunyoning mashhur biznesmenlaridan M.Smol aytadiki: “Biznes olamiga kirib borishda “Men pul topaman” degan fikrni biznesmen o‘z ongiga kiritishi shart” dir.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasini 41-moddasida aytiladiki: “Har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqli”, 43-moddasida “Davlat fuqarolarning bandligini ta’minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek, kambag‘allikni qisqartirish choralarini ko‘radi”, deb alohida ko‘rsatib o‘tilgan [4, 4].

Mamlakatda dastlab moliyaviy institutlar va xorijiy mamlakatlar O‘zbekistonda biznesni rivojlantirish uchun kredit liniyalari, grantlar hisobidan 157,8 mln.AQSh dollari miqdorida kredit mablag‘lari ajratildi yoki belgilangan prognoz ko‘rsatkichi 124,4 foizga bajarildi. O‘zbekistonda biznesni rivojlantirish orqali mulkdorlar sinfi shakllanadi, sog‘lom raqobatchilik muhiti shakllanadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi, iqtisodiyotning yangi yuqori sohalariga moliyaviy kapitalning ko‘chishi tufayli iqtisodiy o‘sish jadallashib boradi. O‘zbekistonda biznesni davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tufayli har 1000 kishiga 2 ta kichik biznes sub'ekti to‘g‘ri keladi. Tojikistonda 1ta, Turkmanistonda 1ta, Qozog‘istonda 6ta, rossiyada 2ta to‘g‘ri kelmoqda. Inglig klassik iqtisodchisi Adam Smit ta’kidlaganidek: “Biznesni boshlash uchun kerak bo‘ladigan asosiy omil:inson kapitali va moddiy kapitalni uyg‘unlashtirishga qulay sharoit, iqtisodiy tilda infratuzilma yaratishni rag‘batlantirish lozim” degan fikr olg‘a suradi. O‘zbekistonda biznesni rivojlantirish istiqboliga erishish uchun davlat tomonidan past foizgda moliyaviy yordamni kuchaytirish hayotiy zaruriyatdir. Moliyaviy muassasalar rolini muvofiqlashtiruvchi davlat Markaziy bankini biznesga moliyaviy yordam berish jarayonini rolini yanada oshirish lozim deb hisoblaymiz. Soliq tizimi orqali yangi yaratilgan biznes sub'ektlarining ko‘chmas mulklaridan mol-mulk solig‘idan biznes faoliyatining dastlabki yillarida soliqdan batamom ozod qilish lozim deb hisoblaymiz.

Tahlil va natijalar. O‘zbekistonda biznesni jadal rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish, mulkchilik munosabatlarini rivojlantirish, mulk muhofazasi bo‘yicha huquqiy kafolatlarni yanada takomillashtirish, mulkdorlarni safini ko‘paytirish orqali mamlakatda mavjud bo‘lgan kambag‘allik va qashshoqlikdan qutulish davlatimiz olib borayotgan adolatli ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini mahsuli bo‘lib qoladi.

O‘zbekistonda biznesni ommalashtiradigan bo‘lsak 2030 yilga borib mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot 160 mlrd.dollarga etishi hamda aholi jon boshiga daromad 4 ming dollardan oshishi mumkin. Buning uchun mamlakatda biznes yuritishni soddalashtirish, biznes faoliyat yuritish uchun beriladigan ruxsatnomalar va lisenziyalar sonini ikki barobar qisqartirish, 1000 ga yaqin byurokratik talablarni aslida bekor qilishimiz kerak. Biznesmenlar uchun soliq to‘lashni adolatli hamdja teng sharoitlar yaratish lozim. Mahalliy investorlarni va xorijiy investorlarni biznesni moliyalashtirishga jalb etish zarur. Kichik biznes korxonalari har tomonlama qulayligi, afzalligi bozor kon'yukturasi o‘zgarishlariga tez moslashuvchanligi, kam mablag‘ talab etish, yangiliklarni tez joriy etish va tarqatish imkoniyatlariga egaligida namoyon bo‘lib kelayotganligi sir emas. (IMF)ning hisobotiga ko‘ra dunyodagi 90 foiz korxonalar kichik va o‘rta biznes korxonalar bo‘lib, asosan biznesga tegishlidir, ular butun dunyoning 63 foiz aholisini ish bilan ta’minlab kelmoqdalar. Evropa ittifoqi miqyosida kichik va o‘rta biznesning umumiy salmog‘i 99,8 foizni tashkil etgan holda 85 foiz aholini ish bilan ta’minlab, jami qo‘shilgan qiymatning 58 foizini yaratishda ishtirok etmoqda. Jumladan, boshqa ma’lumotlarga ko‘ra xitoyda ish bilan band aholining 81,4 foizi yalpi ichki mahsulotning 54,3 foizi, Yaponiyada mos ravishda 70,8 foiz va 67,0 foiz, AQShda 50,6 foiz va 53,1 foiz kichik biznes ulushiga to‘g‘ri kelmoqda. Mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish uchun hamma imkoniyatlarni yaratish zarur, qachonki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jamiyat miqyosida rivojlantirilgan taqdirda ayniqsa qishloqlarda ortiqcha ishchi kuchlarini ish bilan band etish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Kichik biznesni qanchalik rivojlantirsak aholini mulkdor bo‘lishiga intilishi kuchayib, mulkka egalik tuyg‘usi yanada yuksaladi. Sanoatda kichik biznes 27 foizga, savdoda 21 foizga, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 13 foizga, qurilishda 10 foizga ko‘paydi. O‘zbekistonda davlat siyosati iqtisodiyotni rivojlantirish va kichik biznesni hamda xususiy mulkchilikni har tomonlama rivojlantirish orqali fuqarolarimizni mulkdor bo‘lishiga yo‘naltirish.

Biznesni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish borasida amalga oshirilgan ishlar va chiqarilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari bajarilishi natijasida kichik biznesni respublika YaIM dagi ulushi 2023 yil yanvar-dekabr oylarida ijobiy ko‘rsatkichlarga erishildi [3, 7].

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning Respublika iqtisodiyoti tarmoqlari bo‘yicha YaIM dagi ulushi *(2023 yil, % hisobida)*

Hududlar	YaIM (YaHM) dagi ulushi	Sanoat	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	Qurilish	Xizmatlar sohasi
O‘zbekiston Respublikasi	51,2	21,4	95,6	77,0	40,4

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mintaqalar iqtisodiyoti tarmoqlari bo‘yicha YaIM dagi ulushi *(2023 yil, % hisobida)*

Hududlar	YaIM (YaHM) dagi ulushi
O‘zbekiston Respublikasi	**51,2**
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	58,7
Andijon	66,0
Buxoro	71,7
Jizzax	73,7
Qashqadaryo	68,4
Navoiy	26,0
Namangan	72,8
Samarqand	72,8
Surxondaryo	75,9
Sirdaryo	63,6
Toshkent viloyati	48,7
Farg‘ona	69,5
Xorazm	69,7
Toshkent shahri	49,8

Xulosa va takliflar. Olib borilgan ilmiy monografik tadqiqotlarimiz asosida quyidagi xulosa va takliflarni amaliyotga tatbiq etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

-O‘zbekistonda biznesni rivojlantirishda davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan foydalangan holda oilaviy biznesni rivojlanitirish istiqbollaridan;

-Davlat tomonidan biznes ob’ektlarini moliyaviy jihatidan qo‘llab-quvvatlanayotganligi har bir inson biznes bilan shug‘ullanishga yaratilgan imkoniyatlardan hamisha foydalinishi zarur;

-Biznesga yoshlarni, mehnat faoliyatini saqlab qolgan nuroniylarni jalb etish orqali ustoz-shogird bo‘lib kelgan qadimiy an'analarni yanada hozirgi sharoitda qo‘llash, fuqarolar daromadlarini oshiradi hamda aholi daromadlarini ko‘paytiradi;

-Bo‘sh turgan binolar, yerlar, asbob-uskunalarni tashabbuskorlarga qonuniy tarzda biriktirishni amalga oshirish lozim;

-Biznesdan kelgan pul mablag‘lariga katta korxona, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish asosida ishlayotgan mulklarni xarid qilish orqali halqimizni mulkdorlarga aylantirib, kambag‘allikdan chiqarish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 martdagi “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid Davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5975-sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 dekabrdagi PF-269-sonli “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining asosiy ko‘rsatkichlari. 2023 yil yanvar-dekabr.
4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.

ALKANLAR MAVZUSINI O‘QITISHDA KRITIK VA KREATIV FIRKLASHNI KROSSENS METODI YORDAMIDA SHAKILLANTIRISH

Umidaxon Sodiqova,
Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya
Ushbu maqolada maktablarda kimyo fanini o‘qitishda XXI asr ko‘nikmalaridan kritik ya’ni tanqidiy va kreativ fikrlashni shakillantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlardan na’muna berilgan.Krossens metodi yordamida o‘quvchilarni kimyo fani bo‘yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyot bilan oson bog‘lashlari,tanqidiy fikrlashlarini rivojlantirishlari va fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish mumkinligi haqida ma’lumot berilgan.
Kalit so‘zlar: *kritik va kreativ fikrlash,4K, Krossens metodi,alkanlar*
Аннотация
В данной статье приведен пример заданий, направленных на формирование критического и креативного мышления от навыков XXI века при преподавании химии в школах.Метод кроссенса информирует студентов о том,что теоретические знания, полученные в области химии, можно легко связать с практикой, развить критическое мышление и развить интерес к науке.
Ключевые слова:*критическое и творческое мышление,4K, метод кроссенса,алканы.*
Annotation
This article lists na’muna from 21st century skills in teaching chemistry in schools to assignments focused on shaping critical and creative thinking.Using the crossens method, students are shown to be able to easily connect their theoretical knowledge of chemistry with practice,develop their critical thinking, and increase their interest in science.
Key words: *critical and creative thinking, 4K, Crossens method, alkanes*

Kirish. Bugungi kun darsliklarining yangiligi o‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakillantirishga doir 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidadir. Ya’ni bu tamoyilda quruq ma’lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o‘qish-yozishni o‘rgatish bilan cheklanilmaydi. O‘quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganadi. Bugun zamonaviy darslar o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish lozimligini taqazo etadi. Ta’limni isloh qilish esa tizimga yangi innovatsion uslublarni joriy etish bilan bog‘liq. Ana shunday yondashuvlardan biri - 4Kmodelidir.Ushbu maqolada kimyo fani bo‘yicha o‘quvchilarda kritik fikrlash va kreativlik ko‘nikmalarini shakillantiradigan topshiriqlar ishlab chiqish dolzarb vazifa sifatida tanlab olingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Kreativ fikrlash:o‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishadi.[1, bet-45] Berilayotgan topshiriqlarga yangicha yondashgan holda yechim topishadi. Kritik fikrlash:bu metodologiya o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri va mulohazalarini shakillantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.[2, bet-500].

Tadqiqot metodologiyasi. Krossens metodi - bu murakkab muammolarni hal qilish yoki ilmiy tadqiqotlar o‘tkazish jarayonida qo‘llaniladigan tizimli yondashuvlardan biri. Bu metod, odatda, muammolarni tahlil qilish, yechimlarni ishlab chiqish va tajribalar o‘tkazish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.[3,bet-3] Krossens metodi asoslari:

- Muammoni aniqlash – tadqiqot yoki muammoning aniq chegaralarini belgilash.

- Ma’lumot to‘plash – muammoga oid mavjud ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish.
- Gipotezalarni ishlab chiqish – muammoning mumkin bo‘lgan yechimlarini taklif qilish.
- Tajribalar o‘tkazish – gipotezalarni tekshirish uchun eksperimentlar o‘tkazish yoki ma’lumotlar tahlilini amalga oshirish.
- Natijalarni tahlil qilish – eksperiment yoki tadqiqot natijalarini o‘rganish va baholash.
- Optimal yechimni tanlash – eng samarali yechimni aniqlash va amaliyotga joriy qilish.[4,bet-8].

Asosiy qism. Kimyo darslarida u metoddan foydalanish uchun bizga ko‘rgazmali qurol ya’ni rasmlar jamlanmasi kerak bo‘ladi.[10, bet-86].Rasmlar turli tuman bo‘lishi,bir-biriga bog‘lanmaydigan bo‘lishi,ammo tub mazmuni aynan bitta mavzuga doir bo‘lishi kerak.Bu metod amaliy metod hisoblanadi.[5,bet 87].Bunda o‘quvchlar berilgan rasmlardan foydalanib,kimyo faniga mos hikoya tuzishlari kerak bo‘ladi.Hikoya shunday bo‘lishi keraakki,rasmlar mantiqan bir-biriga bog‘liq ravishda tasvirlanishi lozim.Bu metodni sinfda qo‘llaganimizda o‘quvchilarga rasmdan foydalanib vatm yoki A3 formatli qog‘ozga hikoyani yozib,kerakli joylarga rasmlarni yopishtirishlari kerak bo‘ladi.Bu metodni kichik guruhlarda qo‘llash tavfsiya etiladi.Topshiriqni bajarish uchun5-8-daqiqa vaqt talab etiladi.vazifa bajarib bo‘lingach guruhlardan ikkitan o‘uvchi taqdimot qilishlari so‘raladi.

O‘quvchilarga nima beradi-?

- ✓ O‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni shakillantirishga;
- ✓ Ijodkorlik va kreativlikni yanada rivojlantirishga;
- ✓ Vaziyatni tahlil qila olish,undagi bog‘liqliklarni topa olish ko‘nikmasi shakillanadi;
- ✓ Guruhlarda ishlash ko‘nikmasi shakillanadi;
- ✓ Yozish texnikasi rivojlanadi;
- ✓ Muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri yechim topishga yordam beradi.

O‘qituvchiga nima beradi-?

- ✓ Mavzuni o‘quvchilar xotirasida yanada yorqin,obrazli eslab qolinishiga yordam beradi;
- ✓ Darslarni qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi;
- ✓ O‘quvchilarning iqtidorini aniqlashga yordam beradi;
- ✓ Darsda ijodiy muhit paydo bo‘ladi;
- ✓ Guruhlarda ishlash o‘quvchilarda o‘zaro hurmat,birdamlik va xayrixoxlik sifatlarini shakillantiradi.

Quyida 10-sinf kimyo darsligidagi “Alkanlarning fizik xossalari va ishlatilishi “ mavzusi bo‘yicha tuzilgan Krossensdan na’muna berilgan.O‘quvchilar berilgan rasmlarga diqqat bilan qarshlari va har bir rasmlarni biri-biriga bog‘lashlari kerak.Bunda alkanlarning fizik-kimyoviy xossalari,tabiatda uchrashi,ishlatilishi, olinishi haqidagi olgan nazariy bilimlarini yodaga olib,amaliyotga bog‘lashlari lozim.[6,bet-9].Har bir rasmlar ilmiy va mantiqiy jihatdan to‘g‘ri bog‘lanishi kerak.























C_nH_{2n+2}



Adolf Vyurs

O‘quvchilarning javobi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Natijalar tahlili. Alkanlar C_nH_{2n+2} umumiy formulaga ega bo‘lib, ularni tarkibidagi barcha uglerod atomlari faqat σ (sigma) bog‘ orqaligina bog‘langan bo‘ladi. To‘yingan uglevodorodlar fransuz kimyogari **Adolf Vyurs (1855-yil) reaksiyasi** bo‘yicha galoidalkillarga natriy metalini ta’sir ettirib olinadi:

$$CH_3—I + 2\,Na + I—CH_3 \longrightarrow 2\,NaI + CH_3–CH_3$$

$$C_2H_5—I + 2\,Na + I—C_2H_5 \longrightarrow 2\,NaI + C_2H_5–C_2H_5$$

Metil yodid va etil yodidlar natriy metali bilan ta’sirlashishi natijasida 3 xil mahsulot propan, etan va butan hosil bo‘ladi.

Reaksiya quyidagicha boradi:

1) $CH_3—J + Na + Na + J—CH_3 \longrightarrow CH_3—CH_3 + 2NaJ$

2) $CH_3—CH_2—J + Na + Na + J—CH_2—CH_3 \longrightarrow CH_3—CH_2—CH_2—CH_3 + 2NaJ$

3) $CH_3—J + Na + Na + J—CH_2—CH_3 \longrightarrow CH_3—CH_2—CH_3 + 2NaJ$

Tabiiy gazning asosi metan yoqilg‘i sifatida ishlatiladi. Metandan metil spirt, sirka kislota, etil spirt, sintetik kauchuk, mochevina olinadi. Dixloretan, xloroform va tetraxlormetanlar erituvchi sifatida foydalaniladi. Alkanlar oddiy va nisbatan arzon yoqilg‘i bo‘lib qolmay, balki, yirik sanoat ishlab chiqarish jarayonlari uchun xomashyo hisoblanadi. Masalan, metandan xlormetanlar, nitrometan, rezina sanoati uchun qurum, sintez gazi, uglerod sulfid, formaldegid, sianid kislotasi va boshqa mahsulotlar olinadi. [7,bet-176].Metandan sirka kislota olishda xam foydalaniladi.Sirka kislotadan kundalik faoliyatimizda keng foydalaniladi va u xalq tilida uksus deb ataladi.Sirka va sirka kislotasi o‘rtasidagi munosabatni ko‘rib chiqadiganbo‘lsak,sirka tarkibida 4-5 % sirka kislotasi birligini ko‘ramiz.Biroq uyimizdagi tuzlangan bodringni tayyorlash uchun foydalaniladigan sirka tarkibida 18 % sirka kislotasi bo‘lishi kerak.[8,bet-381].Shunday qilib tuzlashni istagan sabzavot yoki mevalar uzoq vaqt buzilmasdan suvda qolishi mumkin.Suvdagi meva yoki sabzavotlarning buzilishiga olib keladigan mikroorganizmlar sizrka kislotasi bilan zararsizlantiriladi va bu sabzavotlar yoki mevalarni uzoq vaqt saqlanishiga sabab bo‘ladi. Neftdan olinadigan alkanlar va boshqa uglevodorodlarning aralashmasi ichki yonuv dvigatellari va reaktiv dvigatellar uchun motor yoqilg‘isi hisoblanadi. Tabiatda bakteriyalar faoliyati natijasida kletchatka metanli bijg‘ishga uchraydi va to‘xtovsiz metan hosil bo‘lib turadi. Metan kavsh qaytaruvchi hayvonlar chiqargan nafas havosida, botqoq gazi tarkibida bo‘lib, suv havzalari tubida to‘planadi.

Alkanlarning ikkinchi nomi parfafinlar deb ataladi.[9,bet-30].Ular C_{18}-C_{35} gacha bo‘lgan uglevodorodlar aralashmasidir.Sof paraffin rangsiz,hidsiz,ta’msiz modda.Suvda va spirtda erimaydi ammo ko‘pkinga organic erituvchi va mineral moylarda yaxshi eriydi.Suyuqlanish harorati 45-65 C^0.Parafinlar izolyatsion material sifatida, yog‘ochni parafinlashda,qog‘oz, to‘qimachilik,poligrafiyalok-bo‘yoq sanoatida va tibbiyotda qo‘llanladi.

Qolaversa oziq-ovqat sanoatida xam parafinlar tarkibiga kiruvchi Ovalex dan ham keng foydalaniladi.Uning vazifasi rulet, keks va biskivitlarni oshiruvchi emulsifikator - ya’ni yaxshilovchi,stabilizator va tuzilish hosil qiluvchi vositadir.[9,bet-30].

Xulosa. Kimyo darslarida o‘quvchilarni tanqidiy va kreativ fikrlashlarini rivojlantirishda Krossens metodi juda katta yordam beradi.O‘quvchilar xotirasida mavzu bo‘yicha moddalarning tarkibini, tuzilishini, olinishi, xossalari va ishlatilishi haqidagi ma’lumotlarni rasmlar yordamida eslab qolishga undaydi. Darsga bo‘lgan qiziqishlari ortadi.Har bir moddalarni kundalik hayotimizdagi ahamiyati, kimyoviy elementlarni o‘simliklar hayotidagi ,inson organizmidagi rolini chuqurroq anglashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. A. A. Ismoilov,X. J. Daminov Z. A. Kosimova G. A. Primov “Kreativ fikrlashni baholash”.Toshkent-2021(45-bet)

2. Каршиева, Д. К. O‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda xalqaro tadqiqotlarning o‘rni / Д. К. Каршиева, О. Н. Усмонова. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2023. — № 2 (449). — С. 500-505. URL: https://moluch.ru/archive/449/98832/ (дата обращения: 24.05.2024)

3.Литвинова М.И. «Технология «кроссенс»как средство развития познавательной активности детей старшего дошкольного возраста» город Ейск 2022 год.(Стр-3)

4. Alimova F.A., Sodiqova U.B. “Kimyo fanidan kollaboratsiya va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga doir topshiriqlar ishlab chiqish metodikasi “//Aniq va tabiiy fanlarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni: muammolar va innovatsion yechimlar mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik konferensiya// (4-5-oktyabr.2024-yil. 3-qism. 277-bet)

5.Clarita D.T. The use of integrated lecture-laboratory approach in teaching general chemistry. 2002. CDPG000077.(pg-87)

6. Alimova F.A., Sodiqova U.B. “Kimyo darslarida XXI asr ko‘nikmalarini shakillantirishda kimyo fani o‘qituvchilarining pedagogik-psixologik jihatlari” //Ta’limni modernizatsiyalash sharoitida kimyo va uni o‘qitishdagi dolzarb masalalar: Yutuqlar,muammo, yechimlar Respublika konferensiya//(17-sentyabr 2024-yil,9-bet)

7. Alimova F.A., Sodiqova U.B. “Kimyo darslarida 4k ko‘nikmalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirishga qatarilgan topshiriqlar ishlab chiqish metodikasi” “//Aniq va tabiiy fanlarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni: muammolar va innovatsion yechimlar mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik konferensiya// (4-5-oktyabr.2024-yil. 1-qism. 176-bet)

8. Sodiqova U.B. “Kimyo fanidan kritik va kreativ fikrlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar ishlab chiqish metodikasi”// Коллоидная химия: инновации и решения для химической технологии, экологии и промышленности Международная научно-техническая конференция//(7-8-fevral 2025-yil

3-tom,381-bet)

9. Kadirova G.X., Sodiqova U.B. “Organik kimyo darsligi”. Toshkent -2024-yil(30-31-betlar)

10. Sapayeva G.I. Oliy ta’lim muassalarida innovatsion va ta’lim faoliyatini axborot-tahliliy ta’minlashning pedagogik tizimi// “Nazariy va eksperimental kimyo hamda kimyoviy texnologiyaning zamonaviy muammolari” Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. (2023-yil 86-87betlar)

“YANGI O‘ZBEKISTON” G‘OYASINI AMALGA OSHIRISHDA DAVLATNING BIZNES TUZILMALARI BILAN MUNOSABATLARINING SIYOSIY YO‘NALISHLARI

Iftixor Ziyoev,
O‘zMu tadqiqotchisi

Annotatsiya

Maqolada "Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi boshqaruvning asosiy tamoyillari sifatida ijtimoiy adolat va inklyuzivlikni ta’kidlanadi aynan shu g‘oya tahlili orqali jamiyat hayotida ijtimoiy davlat sifat parametrlarini ko‘rsatish va tengsizliklarni kamaytirish, ta’lim va sog‘liqni saqlashdan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash, turli mintaqalar va aholi guruhlari o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni bartaraf yetish siyosati bo‘yicha takliflar beriladi. Bundan tashqari yuqoridagi g‘oya asosida davlat va biznes tuzilmalari o‘rtasidagi iqtisodiy va siyosiy holatlarni ham tahlil etilgan bo‘lib xulosa va takliflar qismida yangicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi, Davlat va biznes tuzilmalari, davlat va biznes tuzilmalari o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar Davlat biznes manfaatlari, davlat organlari, xususiy tashkilotlar, shartnomalar, Davlat-xususiy sheriklik: siyosat va moliya tamoyillari.*

Аннотация

В статье идея «Нового Узбекистана» подчеркивает социальную справедливость и инклюзивность как основные принципы управления, и через анализ этой идеи необходимо показать качественные параметры социального государства в жизни общества. и сократить неравенство, использовать образование и здравоохранение. Даны предложения по политике улучшения возможностей, устранения социально-экономических различий между различными регионами и группами населения. В разделе предложений разработаны новые рекомендатsiи.

Ключевые слова: *Идея «Нового Узбекистана», Государство и бизнес-структуры, Политические отношения между государством и бизнес-структурами, Интересы государственного бизнеса, Государственные органы, частные организатsiи, контракты, Государственно-частное партнерство: принципы политики и финансов.*

Annotation

In the article, the idea of "New Uzbekistan" emphasizes social justice and inclusiveness as the main principles of management, and through the analysis of this idea, it is necessary to show the quality parameters of the social state in the life of society and reduce inequalities, use education and health care. suggestions are given on the policy of improving the opportunities, eliminating socio-economic disparities between different regions and population groups new recommendations have been developed in the proposals section.

Keywords: *The idea of "New Uzbekistan", State and business structures, political relations between state and business structures, State business interests, state bodies, private organizations, contracts, Public-private partnership: principles of politics and finance.*

Kirish (Introduction). “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi muhim siyosiy mazmunga ega, chunki u o‘zbek jamiyati va boshqaruvining turli jabhalarini o‘zgartirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar dasturini ifodalaydi. “Yangi O‘zbekiston” tashabbusi siyosiy tizimni liberallashtirish va demokratik boshqaruvni rivojlantirishga qaratilgan say-harakatlarni o‘z ichiga oladi. Bu siyosiy yerkinliklarni kengaytirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash, davlat institutlarida shaffoflik va javobgarlikni oshirish kabi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Hukumat ichida ham, mahalliy darajada ham hokimiyat va qarorlar qabul qilish vakolatlarini markazsizlashtirishga ye’tibor qaratiladi. Bu hududiy va mahalliy hokimiyat organlariga ko‘proq mas’uliyat yuklash, mahalliy hamjamiyatlarning vakolatlarini kengaytirish va ishtirokchi boshqaruvni rag‘batlantirishni o‘z ichiga oladi. Davlat va biznes tuzilmalari o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar deganda davlat organlari va xususiy sektor tashkilotlari o‘rtasida mamlakatning siyosiy va iqtisodiy doirasi doirasida o‘rnatilgan o‘zaro munosabatlar, hamkorlik va qoidalar tushuniladi. Bu munosabatlar ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va kengroq ijtimoiy maqsadlarga yerishish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Prezident Shavkat

Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston” tashabbusi O‘zbekiston jamiyatining turli tarmoqlari, jumladan, iqtisodiyotni keng qamrovli isloh qilish va modernizatsiya qilish istiqbollarini belgilab beradi. Ushbu tashabbus kontekstida davlat va biznes tuzilmalari o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda bir qancha tendensiyalarni kuzatish mumkin:

Iqtisodiyotni erkinlashtirish: O‘zbekiston hukumati iqtisodiyotni liberallashtirish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va yanada qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish bo‘yicha katta say-harakatlarni amalga oshirdi. Bu ma’muriy tartib-qoidalarni soddalashtirish, meyoriy-huquqiy hujjatlarni soddalashtirish, tadbirkorlik va xususiy sektor rivojlanishiga ko‘maklashishni o‘z ichiga oladi.

Xususiylashtirish va diversifikatsiya qilish: Davlat korxonalarini (DK) xususiylashtirish va iqtisodiyotni paxta va tabiiy resurslar kabi an’anaviy tarmoqlarga bog‘liqlikdan uzoqlashtirishga intilish kuzatildi. Hukumat turli sohalarga, jumladan, ishlab chiqarish, turizm va xizmat ko‘rsatish sohalariga xususiy sarmoya kiritishni rag‘batlantirdi.

Xorijiy investitsiyalar va savdo integratsiyasi: O‘zbekiston xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va mintaqaviy va jahon bozorlari bilan savdo integratsiyasini rivojlantirishga faol intildi. Bunga sarmoyaviy muhitni yaxshilash, investorlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish, infratuzilmani rivojlantirish va savdo kelishuvlari orqali savdoni osonlashtirish bo‘yicha islohotlar kiradi.

Hukumat korxonalar faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar, qoidalar va siyosatlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Ushbu meyoriy-huquqiy baza litsenziyalash, soliqqa tortish, atrof-muhitni muhofaza qilish, mehnat huquqlari, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish va raqobat siyosati kabi sohalarni qamrab oladi. Davlat biznes manfaatlarini kengroq ijtimoiy farovonlik maqsadlari bilan muvozanatlashtiradigan qulay tartibga solish muhitini yaratishda markaziy rol o‘ynaydi.

Biznes tashkilotlari ko‘pincha hukumat siyosati va qarorlar qabul qilish jarayonlariga ta’sir qilish uchun lobbichilik va advokatlik harakatlari bilan shug‘ullanadi. Ular biznes o‘sishini, investitsiyalarni rag‘batlantirishni, savdoni liberallashtirishni, infratuzilmani rivojlantirishni yoki sohaga oid qoidalarni rag‘batlantiradigan siyosatlarni himoya qilishlari mumkin. Hukumat, o‘z navbatida, siyosatni shakllantirish va taklif yetilayotgan meyoriy hujjatlarning potensial ta’sirini baholash uchun biznes manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazasiga tayanadi.

– Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) Hukumat xususiy sektor sotuvchilaridan raqobatli tender jarayonlari yoki bevosita muzokaralar orqali tovarlar va xizmatlar sotib oladi. Davlat xaridlari siyosati va tartiblari xaridlar jarayonida shaffoflik, adolatlilik va samaradorlikni ta’minlashga qaratilgan. Tadbirkorlik subyektlari davlat shartnomalari va imtiyozlari uchun raqobatlashadi, bu yesa katta daromad olish imkoniyatlarini ifodalaydi va davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni rivojlantiradi.

Davlat-xususiy sheriklik davlat infratuzilmasi loyihalarini moliyalashtirish, rivojlantirish va boshqarish yoki davlat xizmatlarini ko‘rsatish uchun hukumatlar va xususiy sektor subyektlari o‘rtasidagi hamkorlikni o‘z ichiga oladi. Davlat-xususiy sheriklik infratuzilmadagi kamchiliklarni bartaraf yetish, xizmatlar sifatini yaxshilash va davlat xarajatlarini optimallashtirish uchun xususiy sektor tajribasi, resurslari va innovatsiyalaridan foydalanadi. Bu hamkorliklar mas’uliyat va pul qiymatini ta’minlash uchun yehtiyotkorlik bilan muzokaralar, xavflarni taqsimlash bo‘yicha kelishuvlar va tartibga soluvchi nazoratni talab qiladi.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) davlat xizmatlari va infratuzilmasini taqdim etishda ham davlat, ham xususiy tuzilmalarning kuchli tomonlaridan foydalanish vositasi sifatida turli sohalarda tobora keng tarqalmoqda.

–Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review) “Davlat-xususiy sheriklik: siyosat va moliya tamoyillari” E. R. Yeskomb: har tomonlama ko‘rib chiqilishi, ularning tamoyillari, tuzilmalari va moliyaviy jihatlari ko‘rsatilgan. Ko‘pincha bu sohada asosiy matn hisoblanadi.

Jan Shoul, Enn Stafford va Pam Stapleton tomonidan "Infratuzilma uchun davlat-xususiy sheriklik: siyosat va moliya tamoyillari": infratuzilma loyihalariga alohida e'tibor qaratgan holda, ushbu kitob PPP tamoyillari va amaliyotlarini, jumladan, loyihalarni amalga oshirish va moliyalashtirishdagi rolini o‘rganadi[1,193].

Hana Polackova Brixi, Allen Shick va Barri P. Bosvort tomonidan "Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda davlat-xususiy sheriklik: Chexiya, Slovakiya va Vengriyadan olingan saboqlar": Rivojlanayotgan iqtisodlarga e'tibor qaratgan holda, ushbu kitob PPPdan olingan tajriba va saboqlarni o‘rganadi[2,29].

A. Bonnitcha va A. Varudakisning "Davlat-xususiy sheriklik: Qozog‘iston va Rossiya oldida turgan siyosat va boshqaruv muammolari": Bu kitob Qozog‘iston va Rossiya kontekstlarida davlat-xususiy sheriklik bilan bog‘liq siyosat va boshqaruv muammolarini ko‘rib chiqadi, huquqiy, tartibga solish bo‘yicha tushunchalarni taqdim etadi.

Stiven Osborn, Xelen Sallivan va Adrian Braun tomonidan tahrirlangan “Mahalliy boshqaruvda davlat-xususiy sheriklikning roli”: Bu tahrirlangan jild mahalliy boshqaruvdagi DXShlarning rolini o‘rganib, ularning demokratik javobgarlik va xizmat ko‘rsatish uchun potentsial afzalliklari, muammolari va oqibatlarini muhokama qiladi[3,251].

Goran Svensson va Fredrik Grundströmning "O‘tish davridagi davlatlarda davlat-xususiy sheriklik: siyosat, boshqaruv va amaliyot": O‘tish davri davlatlariga e'tibor qaratgan holda, ushbu kitob siyosiy, iqtisodiy va siyosiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni boshdan kechirayotgan mamlakatlarda davlat-xususiy sheriklik tamoyillarini amalga oshirish bilan bog‘liq siyosat, boshqaruv va amaliy mulohazalarni ko‘rib chiqadi[4,126]. Ushbu adabiyot manbalari turli sektorlar va geografik mintaqalardan nazariy asoslar, amaliy tushunchalar va amaliy tadqiqotlarni o‘z ichiga olgan DXH bo‘yicha bir qator istiqbollarni taklif etadi. Ular siyosatchilar, amaliyotchilar va davlat-xususiy sheriklikni tushunish va hamkorlik qilishdan manfaatdor tadqiqotchilar uchun qimmatli tushunchalarni taqdim etadi.

Tadbirkorlik subyektlari jamiyat rivojlanishi, atrof-muhit barqarorligi va axloqiy biznes amaliyotiga hissa qo‘shish orqali tobora ko‘proq ijtimoiy mas’uliyatni namoyish yetishlari kutilmoqda. Hukumatlar soliq imtiyozlari, hisobot talablari yoki ixtiyoriy standartlar orqali tadbirkorlik subyektlari tashabbuslarini rag‘batlantirishi yoki tartibga solishlari mumkin. Davlat va biznes tuzilmalari o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar tadbirkorlik subyektlari siyosati va amaliyotiga, shuningdek, korporativ faoliyatning kengroq ijtimoiy ta’siriga ta’sir qilishi mumkin. Amerikalik T.Rubel va S.Paladinolarning ta’kidlashicha, “Tadbirkorlar jamiyatga boylikni olib keladilar, kichik biznes egalari esa mavjud bo‘lgan boylikni o‘zlashtiradilar”[5, 207]

– Tahlil va natijalar (Analysis and results) Davlat va biznes tuzilmalari o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar ishbilarmonlik muhitini shakllantirishda, iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirishda va jamiyat maqsadlariga yerishishda muhim rol o‘ynaydi. Shaffof, hamkorlikka asoslangan va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali hukumatlar va biznes umumiy muammolarni hal qilish, barqaror o‘sishni rag‘batlantirish va fuqarolar farovonligini oshirish uchun birgalikda ishlashi mumkin.

“Yangi O‘zbekiston” kun tartibiga inson huquqlari himoyasini yaxshilash va fuqarolar yerkinliklarini ta’minlash bo‘yicha majburiyatlar kiritilgan. Bu so‘z yerkinligi, ommaviy axborot vositalari yerkinligi, diniy yerkinlik va ozchiliklar huquqlari kabi muammolarni hal qilishga qaratilgan islohotlarni o‘z ichiga oladi.

Korrupsiyaga qarshi kurash “Yangi O‘zbekiston” tashabbusining markaziy tayanchidir. Bu korrupsiyaga qarshi qonun va institutlarni mustahkamlash, davlat faoliyatida shaffoflikni oshirish, davlat xizmatida axloqiy meyorlarni ilgari surish bo‘yicha chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

“Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi boshqaruvning asosiy tamoyillari sifatida ijtimoiy adolat va inklyuzivlikni ta’kidlaydi. Bu tengsizliklarni kamaytirish, ta’lim va sog‘liqni saqlashdan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash, turli mintaqalar va aholi guruhlari o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni bartaraf yetish siyosatini o‘z ichiga oladi.

“Yangi O‘zbekiston” dasturi O‘zbekistonning xalqaro obro‘sini oshirish va xalqaro hamjamiyat bilan yanada faolroq aloqada bo‘lish say-harakatlarini o‘z ichiga oladi. Bu diplomatik tashabbuslarni ilgari surish, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash va O‘zbekistonni global masalalarda ishonchli sherik sifatida ilgari surishdan iborat. Zero, “Immijologiya, brending (ba’zi yekspertlar ularni fanning mustaqil sohalariga ajratadilar) kabi bo‘limlarni hisobga olgan holda ikkita nomli nazariya tushunchalaridan foydalanish bizga imidj, brend, obro‘ni rivojlanish bosqichlari (bosqichlari) sifatida tahlil qilish imkonini beradi. yakuniy natija (obro‘) va yagona koordinata tizimida turli xil aloqa texnologiyalaridan foydalanish, bu ularning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi”[6,21]

“Yangi O‘zbekiston” dasturi doirasida O‘zbekistonning milliy o‘ziga xosligi va madaniy merosini targ‘ib qilishga alohida ye’tibor qaratilgan. Bu o‘zbek tili, urf-odatlari va madaniy an’analarini asrab-avaylash va targ‘ib qilish, shu bilan birga xilma-xillik va bag‘rikenglikni o‘z ichiga oladi.

Davlat-xususiy sheriklik (DXH): Hukumat infratuzilmani rivojlantirish va davlat xizmatlarini ko‘rsatish uchun xususiy sektor resurslari va tajribalaridan foydalanish vositasi sifatida DXShlarni ilgari surdi. Transport, yenergetika va kommunal xizmatlar kabi sohalarda DXSH loyihalari boshlangan.

Ijtimoiy inklyuzivlik va inson kapitalini rivojlantirish: “Yangi O‘zbekiston” tashabbusi iqtisodiy o‘sishning harakatlantiruvchi omili sifatida ijtimoiy inklyuzivlik va inson kapitalini rivojlantirishga ahamiyat beradi. Bunga ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish, malaka oshirish va kasb-hunar ta’limi darajasini oshirish, xotin-qizlarning iqtisodiyotdagi faolligini oshirish tashabbuslari kiradi.

Yangi O‘zbekiston hukumatning iqtisodiyot ustidan nazoratini kamaytirishga va tadbirkorlik faoliyatidagi byurokratik to‘siqlarni kamaytirishga intiladi. Bu tadbirkorlikni ro‘yxatdan o‘tkazish tartib-taomillarini soddalashtirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritishdagi ma’muriy to‘siqlarni kamaytirish va qulay investitsiya muhitini yaratishni o‘z ichiga oladi.

Hukumat soliq imtiyozlari, kredit dasturlari, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash kabi turli chora-tadbirlar orqali xususiy sektor va tadbirkorlikni rivojlantirishni faol qo‘llab-quvvatlaydi.

Yangi O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish va sanoatni modernizatsiya qilish uchun xorijiy sarmoyalarni jalb qilishga asosiy ye’tibor qaratilmoqda. Bunga qulay investitsiya muhitini yaratish, huquqiy tartibga solishni takomillashtirish va investorlar huquqlarini himoya qilish kiradi.

Investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarini rivojlantirishni rag‘batlantirish maqsadida tadbirkorlik subyektlariga alohida huquq va imtiyozlar berilgan maxsus iqtisodiy zonalar va sanoat parklari tashkil yetiladi.

Yangi O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalarni rivojlantirishga ye’tibor qaratilmoqda. Davlat texnologik startaplar, innovatsion klasterlar va rivojlanish markazlarini yaratishni qo‘llab-quvvatlaydi, shuningdek, raqamli infratuzilmaga sarmoya kiritadi.

Yangi O‘zbekistonda davlat va tadbirkorlik tuzilmalari o‘rtasidagi munosabatlarning ushbu siyosiy yo‘nalishlari qulay iqtisodiy muhit yaratish, sarmoya va tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish, shuningdek, mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan.

Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlik biznesning rivojlanishiga, uning iqtisodiyotdagi roliga va umuman davlat va jamiyat bilan munosabatlariga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-siyosiy jihatlarning keng doirasini qamrab oladi.

Iqtisodiy muhitning sifati va biznesning huquqiy asoslari uning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Qonunchilikning shaffofligi, huquqni muhofaza qilish tizimining samaradorligi, mulk va shartnoma majburiyatlarini himoya qilish - bularning barchasi tadbirkorlar va investorlarning Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotiga bo‘lgan ishonch darajasiga ta’sir qiluvchi muhim jihatlardir.

Biznes nafaqat foyda keltirishi, balki jamiyatning ijtimoiy farovonligiga ham hissa qo‘shishi kutilmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish, ta’lim va sog‘liqni saqlashni qo‘llab-quvvatlash, ish o‘rinlari yaratish va mehnat sharoitlarini yaxshilash kabi biznesning ijtimoiy mas’uliyati bo‘yicha tashabbuslar Yangi O‘zbekistonda zamonaviy biznesda tobora muhim ahamiyat kasb yetmoqda.

Biznes va hukumat o‘rtasidagi munosabatlar tadbirkorlik faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Biznes va hukumat o‘rtasidagi muloqot, maslahatlashuv va hamkorlik har ikki tomon manfaatlarini hisobga olgan holda biznes uchun yanada qulay muhit yaratishga yordam beradi. “Davlat va biznesning o‘zaro hamkorligi samaradorligini oshirish uchun biznes hamjamiyatining o‘zining savdo-sanoat palatalari, sanoatchilar va tadbirkorlar uyushmalari kabi zamonaviy institutlarining, jumladan, jamoat tuzilmalari tarkibidagi siyosiy faolligini oshirish zarur. biznesning iqtisodiy va siyosiy manfaatlarini himoya qilish va uning faoliyatini ijtimoiy va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal qilishga yo‘naltirish uchun mo‘ljallangan”[7, 187]

Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlikning ijtimoiy-siyosiy jihatlari ham davlat, ham biznes, balki butun jamiyat ye’tiborini talab qiladigan keng ko‘lamli masalalarni qamrab oladi. Biznesni muvaffaqiyatli rivojlantirish barcha manfaatdor tomonlarning manfaatlarini hisobga oladigan hamda barqaror va inklyuziv iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydigan muvozanatli yondashuvni talab qiladi.

Biznes elitasining O‘zbekiston mintaqaviy siyosatidagi o‘rni va roli katta va vaqt o‘tishi bilan, xususan, mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida o‘zgarib bordi.

O‘zbekistonda biznes elitasi yirik korxonalarga egalik qilish, asosiy tarmoqlarga sarmoya kiritish va moliyaviy resurslarni nazorat qilish tufayli muhim iqtisodiy ta’sirga ega. Ular ko‘pincha siyosiy arboblar va qaror qabul qiluvchilar bilan yaqin aloqada bo‘lib, bu mintaqaviy iqtisodiy siyosatga, investitsiya ustuvorliklariga va biznes qoidalariga ta’sir qilishi mumkin.

Biznes elitasi infratuzilma loyihalarini ishlab chiqish, davlat xizmatlarini ko‘rsatish yoki iqtisodiyotning strategik sektorlariga sarmoya kiritish uchun hukumat bilan davlat-xususiy sheriklik aloqalarini o‘rnatishi mumkin. Davlat-xususiy sheriklik davlat va xususiy sektor o‘rtasida hamkorlikni talab qiladi, biznes elitasi loyihalarni moliyalashtirish, amalga oshirish va boshqarishda asosiy rol o‘ynaydi.

Siyosiy makondagi biznes elita - bu muhim iqtisodiy ta’sirga ega bo‘lgan va mamlakat siyosiy hayotida faol ishtirok yetadigan nufuzli ishbilarmonlar va tadbirkorlar guruhi.

Biznes elitalari ko‘pincha siyosiy makonda o‘z manfaatlarini lobbi qilish uchun o‘zlarining iqtisodiy ta’siri va resurslaridan foydalanadilar. Bu siyosiy kampaniyalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, qonunchilik va tartibga solishga ta’sir qilish va siyosiy faoliyatda bevosita ishtirok yetishni o‘z ichiga olishi mumkin. “Biznesning siyosatda ishtirok yetishining o‘ziga xos shakli zamonaviy lobbichilikdir. Haqiqatda mavjud bo‘lib, u hali qonunchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanmagan. Jamiyat (fuqarolar) va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishdagi bo‘shliqni to‘ldirishi kerak bo‘lgan federal qonunlar to‘plamini ("Davlat xizmati to‘g‘risida", "Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida", "Lobbichilik faoliyati to‘g‘risida" va boshqalarni) qabul qilish kerak. hokimiyat organlari, shuningdek, turli guruhlar, jamoat birlashmalari va birlashmalarining hokimiyat organlariga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari, sharoitlari va imkoniyatlarini yaratadi”[8,21]

Biznes elitasi siyosiy partiyalar va ularning manfaatlarini qo‘llab-quvvatlovchi nomzodlarni moliyalashtirishi yoki biznes uchun foydali siyosatni amalga oshirishga va’da berishi mumkin. Bu biznes elitasiga siyosiy jarayonlar va qarorlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi.

Biznes elitasining ayrim a’zolari hukumat, parlament yoki boshqa siyosiy institutlarda muhim lavozimlarni egallashi mumkin. Ularning qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki ularga biznes manfaatlariga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan siyosat va qonunlarga bevosita ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi.

Biznes elita vakillari ko‘pincha turli sohalarda, jumladan, iqtisodiyot, moliya, texnologiya va innovatsiyalar bo‘yicha mutaxassislardir. Ularning fikri va maslahatlari siyosatchilar va davlat organlari tomonidan iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni ishlab chiqishda talab qilinishi mumkin. Biznes elitasining ba’zi a’zolari jamoat hayotida va xayriya loyihalarida faol ishtirok yetadilar, bu yesa ularning jamiyatdagi siyosiy ta’siri va obro‘sini kuchaytirishi mumkin.

– **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)** Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Siyosiy makonda biznes elitasining roli ham konstruktiv bo‘lishi mumkin, iqtisodiy rivojlanish va innovatsiyalarni rag‘batlantiradi, shuningdek, odamlarning tor guruhi manfaatlarining mumkin bo‘lgan ustunligi va siyosiy jarayonlarga nodemokratik ta’sir ko‘rsatishi sababli tashvish uyg‘otadi. Jamiyatning barqaror va adolatli rivojlanishini ta’minlashda biznes va siyosat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda shaffoflik, qonuniylik va adolat tamoyillariga rioya qilish muhim ahamiyatga ega.

Kichik biznes ko‘pincha mahalliy hamjamiyatlarning bir qismi bo‘lib, tadbirkorlar, xodimlar, mijozlar va boshqa manfaatdor tomonlar o‘rtasida ijtimoiy tarmoqlar va aloqalarni yaratadi. Bu aloqalar fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, axborot va tajriba almashish, o‘zaro yordam ko‘rsatishga xizmat qilishi mumkin. Tadbirkorlar, ayniqsa, kichik biznes vakillari ijtimoiy mas’uliyatli tashabbuslarda faol ishtirok yetishi, mahalliy hamjamiyatni qo‘llab-quvvatlashi, ijtimoiy adolat va yekologik barqarorlik uchun kurashishi mumkin. Bu fuqarolik mas’uliyati va ongli tuyg‘usini rivojlantirishga yordam beradi.

Kichik biznes notijorat tashkilotlari, jamoat tashabbuslari kabi fuqarolik institutlarini rivojlantirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va yirik korporatsiyalar yoki davlat idoralariga qaramlikni kamaytirishda rol o‘ynashi mumkin.Kichik biznes fuqarolar faolligini, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, fuqarolik va mas’uliyatni rivojlantirish, ijtimoiy tarmoqlar va institutlarni qurish orqali fuqarolik jamiyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynashi mumkin. Biznes elitasi O‘zbekistonning mintaqaviy siyosatida muhim rol o‘ynaydi, iqtisodiy siyosat, investitsiya qarorlari va biznesni tartibga solishga ta’sir qiladi. Ularning siyosiy doiralar bilan yaqin aloqasi, iqtisodiy ta’siri, davlat-xususiy sheriklikdagi ishtiroki mamlakat iqtisodiyoti rivojiga, mintaqa ravnaqiga xizmat

qilmoqda. Biroq, korrupsiya va tartibga solish to‘siqlari kabi muammolarni hal qilish O‘zbekistonda biznesning o‘sishi va barqaror rivojlanishi uchun yanada qulay muhit yaratish uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Weihe, Guri (2009) : Public-private partnerships: Meaning and Practice, PhD Series, No. 2.2009 p-193

2.https://home.treasury.gov/system/files/226/Expanding_the_Market_for_Infrastructure_Public_Private_Partnerships_Alternative_Risk_and_Profit_Sharing_Approaches_to_Align_Sponsor_and_Investor_Interests_APR2015.pdf

3. Helby Petersen, O.Public-Private Partnerships: Policy and Regulation - With Comparative and Multilevel Case Studies from Denmark and Ireland. Copenhagen Business School, 2011, p-251

4. A.Katherine , K.Adrian Multi-level governance conceptual challenges and case studies from Australia. ANU Press The Australian National University Acton ACT 2601. 2017, p-126

5.Rubel T., Palladino S. The significance of small business. Small Business Research Trust, NatWest Bank. PCP, 1994, 207 p.

6.Харламов И.Г. Формирование репутатsiи в политике и бизнесе: сравнительный анализ : автореферат дис. ... кандидата политических наук. - Москва, 2009. - 21 с.

7.Гуринский Г.Л. Взаимодействие государства и бизнеса в условиях политики модернизатsiи в России : диссертатsiя ... кандидата политических наук. - Санкт-Петербург, 2013. - 187 с.

8.Кораблин Ю.В. Политика и бизнес в современной России: особенности взаимодействия : автореферат дис. ... кандидата политических наук. - Москва, 1999. - 21 с.

GIDRAVLIKANI FANINI O‘QITISHDA TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHDA WEB TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Azamat Eshmurodov,
Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqola texnika ixtisosligi talabalarida mustaqil ta’limni tashkil etishda gidravlika fanini o‘qitishda web texnologiyalardan foydalanish uchun ijtimoiy xizmatlarining afzalliklari, turlari, ta’limda qo‘llanilishiga bag‘ishlangan. Web texnologiyalari axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘lib, foydalanuvchilarning o‘z faoliyatini ta’minlash maqsadida xizmatlarni ishlab chiqish usullari majmuasini o‘z ichiga oladi.

Maqolada murakkab nazariy va tavsifiy tahlil usullari qo‘llaniladi. Ta’limda mustaqil ishlarni tashkil etishda Web texnologiyalarini joriy etish - o‘quv Internet xizmati orqali mustaqil ta’limni tashkil etish maqsadida Web texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan internet xizmatlari tanlangan.

Kalit so‘zlar: *Web, Internet, interaktivlik, ijtimoiylashuv, tarmoq tizimlari, tarmoq kundaliklari, vikilar, xatcho‘plar, multimedia, Google Classroom, Google Drave, Google Calendar, Google Meet, Telegram, Watsapp, Facebook, Instagram.*

Аннотация

Статья посвящена преимуществам, видам социальных услуг для использования web-технологий в преподавании гидравлики при организации самостоятельного обучения студентов технических специальностей, их применению в образовании. Web-технологии - это информационно-коммуникационные технологии, включающие в себя комплекс методов разработки услуг с целью обеспечения собственной деятельности пользователей.

В статье используются сложные теоретические и описательные методы анализа. В целях внедрения Web-технологий в организации самостоятельной работы в образовании - организации самостоятельного обучения через учебную Интернет-услугу были выбраны интернет-услуги, разработанные на основе Web-технологий.

Ключевые слова: *Интернет, интерактивность, общение, сетевые системы, сетевые дневники, Вики, закладки, мультимедиа, Google Classroom, Google Drave, Google Calendar, Google Meet, Telegram, WhatsApp, Facebook, Instagram.*

Annotation

The article is devoted to the advantages, types of social services for the use of web technologies in teaching hydraulics in the organization of independent learning for students of technical specialties, their application in education. Web technologies are information and communication technologies that include a set of methods for developing services to ensure users' own activity.

The article uses complex theoretical and descriptive methods of analysis. To implement Web technologies in the organization of independent work in education - the organization of independent learning through the educational Internet service, Internet services developed on the basis of Web technologies were chosen.

Keywords: *Internet, Interactivity, Communication, Network systems, Network Diaries, Wikis, Bookmarks, Multimedia, Google Classroom, Google Drive, Google Calendar, Google Meet, Telegram, Facebook, Instagram, WhatsApp.*

Kirish. Bugungi kunda internet jamiyatning barcha jabhalariga kirib bormoqda. Global sharoitda gidravlikaning talimda qo‘llanilishi internetdan foydalanishning yangi usullarini taqdim etadi. Zamonaviy jamiyatning rivojlanishining hozirgi bosqichida ta’lim - har bir talabaning shaxsiy salohiyatini maksimal darajada rivojlantirish uchun ta’lim oluvchilar oldiga interaktivlik va ijtimoiylashuv internet xizmatlaridan unumli foydalanishni taqozo etadi va o‘qituvchilar oldiga mustaqil ta’lim jarayonini boshqarishni optimallashtirishga katta yordamchi vazifasini bajaradi.

Web texnologiyalarni mustaqil ta’limga qo‘llash yangi yondashuvlarni keltirib chiqaradi, ya’ni talabalarni tez jalb qiladi, faollashtiradi va muloqotni oson hal qiladi. Web texnologiyaning afzalligi shundaki, barcha talabalarni o‘quv jarayonida nafaqat ta’lim mazmuni iste'molchilari, balki uning faol yaratuvchilari sifatida ham ishtirok etish uchun jalb qilish imkoniyatini beradi. Web texnologiyalar o‘quv jarayonini boshqarish nuqtai nazaridan mustaqil bo‘lib, o‘quv materiallarini yaratishda va o‘quv jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan o‘zaro aloqada faolroq bo‘lgan talaba pedagogik jarayonning markazida bo‘lishiga yordam beradi.[1; 21-b].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Texnika ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun gidravlika fanidan mustaqil ta’limni tashkil etishda ijtimoiy xizmatlar bugunning dolzarb maslalaridan biri hisoblanadi. Ma’lumki, hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassalari kredit ta’lim tizimiga asoslangan o‘qitish jarayonidadir. Kredit ta’lim tizimida auditoriya soati hajmi 40 %ni, mustaqil ta’lim soati hajmi 60 % ni tashkil etadi. Shu bois, talabalar bilan mustaqil ta’limda talabalar bilimini rivojlantirish uchun web texnologiyalarini joriy etish metodikasini ishlab chiqish bugungi kunda murakkab fanlararo muammo sifatida qaraladi.

Maqolani tayyorlash va dolzarbligini asoslashda xorijiy pedagogik olimlar, jumladan: Y.P.Ajell, Y.D. Patarkin, D. B.Yarmaxov, K.S.Itinson, Saidov I.D, Linkov V.V va boshqalarning ilmiy maqolalari o‘rganildi va tahlil qilindi. [2;3-b.].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolaning maqsadi, oliy ta’limda texnika ixtisosligi talabalarida mustaqil ta’limini tashkil etishda texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari, afzalliklari, qo‘llash istiqbolllari va ta’sirini o‘rganishdan iborat.

E. D. Patarakin va D. B.Yarmaxov Web texnologiyalardan foydalanishning quyidagi imkoniyatlarini ajratib ko‘rsatishadi. Ya’ni ta’limdagi texnologiyalar:

- Web texnologiyalar gidravlika sohasida maxsus bilimga ega bo‘lmagan odamlarni osongina o‘z ichiga olgan faoliyat uchun mutlaqo yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

- Web texnologiyalarining tarqalishi natijasida tarmoqqa kirishda o‘quv maqsadlarida ishlatilishi mumkin bo‘lgan juda ko‘p miqdordagi ochiq materiallar mavjud.

- Web texnologiyalar materiallarni yaratish va ularni internetda nashr etish jarayonini soddalashtiradi, bunda har kim nafaqat matnlar, tasvirlar, chizmalar, videofayllarning raqamli to‘plamlariga kira oladi, balki o‘z tarmoq tarkibini shakllantirishda ham ishtirok etadi.

- Web texnologiyalar talabaning shaxsiy makonini tashkil qilish imkonini beradi.

- Talabalar va o‘qituvchilarning professional tarmoq jamoalarida ishtirok etish imkoniyatlari kengaytiradi.

Shunday qilib, ta’lim tizimi uchun web texnologiyalarining asosiy afzalligi shundaki, ular sizga maxsus mo‘ljallangan Internet xizmatlarida ma’lumotlarni saqlashga imkon beradi, bu esa ularning mavjudligini ta’minlaydi. O‘quv jarayonida web texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish, refliksiv va kommunikativ madaniyat kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Web texnologoyalarning ijtimoiy xizmatlariga ijtimoiy tarmoqlar va ijtimoiy taqdimot tizimlari, tarmoq kundaliklari, Vikilar, xatcho‘plarni onlayn saqlash tizimlari, multimedia tizimlari va boshqalar kiradi.

Internetda bugungi talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish uchun ko‘plab ijtimoiy xizmatlar mavjud, shulardan biri Google ijtimoiy xizmatlaridir. Google ijtimoiy xizmatlariga kiruvchi Google classroom o‘qituvchilar oldiga quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi. Test (bir tanlovli va ko‘p tanlovli), amaliy topshiriq-bunda talaba berilgan topshiriqni biror dasturiy ta’minot orqali bajaradi va o‘qituvchi profiliga jo‘natadi. Google Classroomda bundan tashqari rasmli, audio, video turdagi fayllarni yuklash mumkin yoki Google Drave paltformasiga qo‘yib uning giperhavolasini qo‘yib qo‘yish mumkin. Google Classroomda talabalar kirishi uchun shaxsiy akkaun ochishlari zarur. Bugungi kunda, bu tizimlar uchun Telegram, Watsapp, Facebook, Instagram ijtimoiy tarmoqlariga ham integrtsiya qilish mumkin. O‘zbekiston hududida, juda ko‘plab foydalnuvchilar telegram ijtimoiy tarmog‘idan foydalanishadi. Demak, talabalar bilan aloqani qilish uchun Google xizmatlarini integratsiya qilib qo‘yib, sms xabar yoki fayllar alamshish dolzarb masalalardan biridir[2;39-b.].

Tahlil va natijalar.


Texnika ixtisosliklari talabalarida mustaqil ta’limini tashkil etishda gidravlika fanini o‘qitishda web texnologiyalaridan foydalanish orqali quyidgilar tahlil qilindi;

Web texnologiyalardan foydalanish qulayligi, foydalanish imkoniyati, axborot makonini tashkil etish samaradorligi, interaktivlik, multimedia, ishonchlilik va xavfsizlik kabi xususiyatlar tufayli web texnologiyalar kelajakdagi mutaxassislarning madaniyatlararo vakolatlarini shakllantirishda muhim salohiyatga ega bo‘ladi. O‘quv materialining vizual taqdimoti va uning hissiy tarkibiy qismining kuchayishi tufayli darslar tezligini tezlashtirishda va axborot texnologiyalardan foydalainish va madaniyatlarini o‘rganish motivatsiyasini oshirishadi. Har bir talabaga o‘quv materialini o‘zlashtirishning maqbul usuli va tezligini tanlash imkoniyatini berish orqali mustaqil ish samaradorligi ta’minlanadi. Samarali hamkorlik ko‘nikmalarini takomillashtirish, internet madaniyatini bilish, tarmoq foydalanuvchilari, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalarda ishtirok etish orqali professional mavzularda munozaralarni tashkil etish va o‘tkazish qobiliyati shakllanadi. Talabalarni qiziqtirgan ma’lumotlarga tezkor kirishni ta’minlaydi.[4;13-b.].

Texnika ixtisosliklari talabalarining mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etishda web texnologiyalarini joriy etish metodikasi izchil va uzviy ravishda amalga oshiriladigan bosqichlardan iborat bo‘lib, o‘z ichiga mazkur texnologiyalarni joriy etish uchun turtki bo‘lgan omillar hamda shart-sharoitlar, metodikaning alohida komponentlari va ular orasidagi o‘zaro bog‘liqliklarni oladi (1-rasm).

Mazkur metodikaning ishlab chiqilishiga turtki bo‘lgan omillar sifatida OTM texnika ixtisosliklarini bitiruvchilariga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar hamda jamoatchilikning ehtiyoji sifatida hosil bo‘lgan ijtimoiy buyurtmalarni keltirib o‘tishimiz mumkin. Ushbu ikki omil, ya’ni zamonaviy talablar hamda jamoatchilikning ehtiyoji bugungi kun OTM bitiruvchisidan o‘z malakasini mustaqil ravishda oshirib borish, internet texnologiyalarining tez sur’atlarda o‘sishi bilan mutanosib ravishda yangi faoliyat turlarini tezlik bilan o‘zlashtirish kabi kasbiy sifatlarni talab qiladi. Shuningdek, mamlakatimizda bu sohadagi asosiy meyoriy hujjat hisoblanadigan oliy ta’limning DTS tomonidan qo‘yiladigan malaka talablar ham asosiy omil sifatida qaraladi.

Mazkur bosqichning asosini texnik ixtisosliklarida tayyorlanayotgan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qilishning muhim tamoyillari va unga qaratilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar tashkil etadi. Bosqichning aksiologik komponenti talabalarning kelgusidagi kasbiy faoliyatida web texnologiyasini qo‘llashga munosabat, texnologiyani barqarorlashtirish va uning ahamiyatini asoslab berishga qaratilgandir.



Natija: Axborot texnologiyalari fanidan talabalar mustaqil ishlarini tashkillashtirish samaradorlik ko‘rsatgichini oshganligi

1-rasm. Talabalar mustaqil ishlarini tashkillashtirishda Web texnologiyalaridan foydalanishning takomillashtirilgan metodikasi modeli.

Gidravlika fanidan talabalarning gidravlika fanidna mustaqil ta’limini tashkil etish metodikasi yordamida talablarning bilimini oshirish samaradorligini ko‘tarishda muhim algoritm hisoblanib, unda web xizmatlar orqali mustaqil ish topshiriqlarini tashkillashtirish, nazorat qilish va baholash ishlari to‘liq amalga oshiriladi.

Texnika yo‘nalishidagi talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etishda web texnologiyalaridan foydalanish metodikasi quyidagi bosqichlardan iborat:

- tayyorgarlik bosqichi: mazkur metodikani joriy etishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar haqida tasavvurni shakllantirishga qaratiladi;

- ishlab chiqish bosqichi: o‘z ichiga texnologik komponentni (gidravlika bo‘yicha mustaqil ishni tashkil etishni hisobga olgan holda) oladi;

- to‘ldiruvchi bosqich: asosan, mundarijaviy komponent (fanlar bo‘yicha axborot tayyorgarligini amalga oshirishni ta’minlaydigan asosiy ta’lim dasturi), tashkiliy komponet (usul, vosita, shakl), nazoratni ta’min etuvchi komponent (kirish, joriy, mavzular bo‘yicha, oraliq, ilmiy tadqiqotlarda qatnashishni baholash, loyihani baholash, yakuniy) kabi komponentlardan iborat;

- metodika nuqtai nazaridan kuzatib borish bosqichi (ta’limiy Internet-servislardan foydalanish bo‘yicha uslubiy yo‘riqnomalar ishlab chiqish).

Xulosa va takliflar. Web texnologiyalarini joriy etish - o‘quv jarayonida internet ijtimoiy xizmatlari orqali texnika ixtisosligi talabalarida mustaqil ta’limni tashkil etish maqsadida google xizmatlarni tanlangan.

Web texnologiyalar talabalarning mustaqil ta’limini boshqarish uchun maqbul yechimlardan biri hiosblanadi. Buning o‘qituvchilar tomonidan Google classroom, Google meet va Google calendar eng mashur bo‘lgan ijtimoiy xizmatlardan boridir. Bu izimlar yirdamida gidravlika fani boyicha talabalarga mustaqil ish topshiriqlarni tayyorlashi, yuborishi, testlar tuzish imkoniyati, video va har xil interaktiv oyinlar orqali baholash imkoniyatini beradi. Google meet orqali esa talabalar bilan fan boyicha videokanferensiyalar tashkiul etib mavjud muammolar muhokama qilinadi va yechimlar taklif qilinadi. Google Calendar xizmati yordamida videokonferensiyalarni rejalashtirish, o‘qituvchi va talabalar uchun shasiy ishlarini belgilash amaliyotlarini joriy rtish mumkin. Bu xizmatlardan foydalanish orqali mustaqil ta’limni tashkil etish jarayonida talablarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi oshirilishiga sabab bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Y.P.Ajel, “Ispolzovaniye texnologiy VEB 2.0 v prepodavanii inostrannix yazikov”, “Young Scientist” . #6 (41) . June 2012.
2. Patarakin YE. D. Sotsialniye vzaimodeystviya i setevoye obucheniye 2.0. Moskva.© NK «Projekt Xarmoni, Ink.», 2009.101-105 str.
3. I.K.Slavin, “Web 3.0-texnologii v obrazavanii i nauchnix issledovaniyax”, Karalean Skiyentifik journal. 2020.T.9.№1(30),22-24 betlar.
4. K.S.Itinson, “Web 3.0 –tenologii v obrazavanii i nauchnix issledovaniyax”. Pedagogical scinece. 2020 g. 22-24-str.
5. Linkov V.V. Pravoviye problemi informatsionnogo prostranstva pri perexode k konsepsiyam Internet veshey i web 3.0//Zakon i pravo. — 2019. — № 8. — S. 140-142
6. Bagirov R.V., Abdusalamov R.S. Sravneniye konsepsiy Internet-texnologiy predstavleniya informatsii Web 2.0 i Web 3.0//Sbornik materialov III Vserossiyskoy nauchno-texnicheskoy konferensii «Studencheskaya nauka dlya razvitiya informatsionnogo obshestva». — 2015. — S. 103-104.

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHISINING KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATI MAZMUNI

Nilufar Muxammadiyeva,
Qarshi Davlat universiteti 3-kurs doktoranti

Annotatsiya

Aytish kerakki, bitta “kasbiy pedagogik faoliyat” tushunchasida mahorat, qobiliyat, iqtidorni anglatuvchi turli ma’nodagi konseptlarning qo‘llanilishi ma’lum bir tushunchani o‘rganishga nisbatan subyektiv yondashuv hisoblanmasligi lozim. Tadqiq etayotganimiz tushunchaning aynan shunday ko‘pma’noli, ko‘pqirrali tarzda talqin etilishi, bizning nazarimizda, uni tizimli yondashuv nuqtai nazaridan o‘rganish lozimligini taqozo etadi, zero, faqat tizimli yondashuvda muayyan bir tushunchaning mundarijaviy va jarayonli aspektlarining birligini tushuntirish mumkin.

Bundan tashqari qobiliyatning faoliyatdagi o‘rnini belgilovchi ko‘rsatkichlar sifatida faoliyat negizini tashkil etuvchi mehnatni bajarish sur’ati, pirovard mahsulotning omillarni keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *ta’lim, shaxs, pedagog, mehnat, qobiliyat, mutaxassis, o‘qituvchi, talaba, ijodiy imkoniyat, kasb, kasbiy pedagogik faoliyat.*

Аннотация

Следует отметить, что использование в рамках понятия «профессиональная педагогическая деятельность» понятий с различным значением, обозначающих умения, способности, таланты, не следует считать субъективным подходом к изучению того или иного понятия. Именно такая многогранная, разносторонняя трактовка изучаемого нами понятия, по нашему мнению, требует его изучения с позиций системного подхода, поскольку только при системном подходе может быть раскрыто единство содержательной и процессуальной сторон конкретного понятия. концепция должна быть объяснена.

Кроме того, в качестве показателей, определяющих место способностей в деятельности, упоминаются темпы выполнения труда, лежащие в основе деятельности, и факторы конечного продукта.

Ключевые слова: *образование, личность, учитель, труд, способность, специалист, преподаватель, студент, творческие возможности, профессия, профессионально-педагогическая деятельность.*

Annotation

It should be noted that the use of concepts with different meanings, denoting skills, abilities, and talents, within the concept of "professional pedagogical activity" should not be considered a subjective approach to the study of a particular concept. It is precisely such a multifaceted, multifaceted interpretation of the concept we are studying that, in our opinion, requires its study from the perspective of a systematic approach, since only in a systematic approach can the unity of the content and process aspects of a particular concept be explained.

In addition, as indicators determining the place of ability in the activity, the rate of work performance, which is the basis of the activity, and the factors of the final product are mentioned.

Key words: *education, personality, teacher, labor, ability, specialist, teacher, student, creative opportunity, profession, professional pedagogical activity*

Kirish. “O‘qituvchi o‘z bilim malakasini oshirish usullarini puxta egallamog‘i, mustaqil ishlashini o‘rganmog‘i lozim” – degan edi A. Jomiy.

Mamlakatimizda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlar tayyorlashni nazarda tutuvchi oliy ta’lim tizimida zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishni ta’minlashga qaratilgan islohotlar natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ2909-sonli, 2017 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5264-sonli qarorlari, 2018 yil 25 yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF5313- sonli Farmoni va boshqa ushbu sohaga

tegishli meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘rni alohida hisoblanadi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi maktabga ilk qadam qo‘ygan o‘quvchilarning savodini chiqarishda, ularni shaxs sifatida shakllanishida muhim o‘rin egallaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Mazkur tadqiqot ishimizda L.S.Vigotskiy tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot ishlari asosida insondagi individual psixologik qobiliyatlar, qobiliyatning har qanday faoliyatda shaxsning ilg‘orligini ta’minlovchi omil ekanligi, qobiliyatni faqat muayyan soha bo‘yicha bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar, mahorat va tajribalarning yig‘ilib borishi natijasida shakllanishi, bunday usul bilan shaxsning individual-psixologik o‘ziga xosliklari rivojlanishi, shaxs o‘zining qaysi qobiliyati (yoki individual-psixologik o‘ziga xosligi) qanday faoliyat turi uchun lozim bo‘lishi aniqlashtirib olingan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ma’lumki, respublikamizda barkamol avlodni tarbiyalash masalalariga katta e’tibor qaratilib, ta’lim-tarbiya ishlaridagi asosiy mas’ullar bo‘lgan pedagoglar tayyorlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi darajasiga ko‘tarilgan. Zero, yosh avlodning ongida yangicha dunyoqarashni, mustaqil tafakkurni hamda ahloqiy fazilatlarni yuksak darajada shakllantirish vazifasini zimmasiga olgan pedagoglar tayyorgarligiga alohida e’tibor qaratish mazkur sohadagi muammolar yechimiga qaratilgan ishlardan biridir. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Yana bir muammoni hal etish o‘ta muhim hisoblanadi: bu pedagoglar va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta’lim olish, ma’naviy ma’rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur”[1,41]. – deb aytgan fikrlari ushbu muammoning dolzarbligini asoslaydi.

- OTMlarda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash mundarijasi va texnologiyasi bilan bog‘liq muammolarning yechimida pedagogik faoliyatning tub mohiyatini aniqlashtirish masalasi muhim o‘rin tutadi. Kasbga yo‘naltirilganlikda shaxsning kasbga nisbatan ijobiy-emotsional munosabatlari, kasb sohasida o‘z ichki imkoniyatlarini safarbar etish, kasbning sirlarini mufassal egallash bilan bog‘liq kuchli istaklari namoyon bo‘ladi.
- Pedagogik yo‘naltirilganlikning tabaqaviy tuzilmasi quyidagi ko‘rinishda taqdim etilishi mumkin:
- Pedagog ta’lim oluvchilar va boshqa shaxslarning ehtiyojlari, qiziqishlaridan kelib chiqib, ularga o‘z-o‘zini rivojlantirishga astoydil (ba’zan altruistik tarzda) yordam berishga intiladi.

Pedagog pedagogik mehnat doirasida o‘z-o‘zini takomillashtirish va bu mehnatga butun salohiyati hamda potensialini sarflash uchun e’tiborini o‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratadi.

Pedagog o‘z kasbining fanniy jihatlarini birinchi o‘ringa qo‘yib, butun diqqat-e’tibori bilan o‘quv materiali mundarijasini boyitib boradi.

Bizningcha, kasbiy yo‘naltirilganlik ko‘pqirrali va turfa tabiatli faktorlar ta’sirida rivojlanadigan dinamik tizim sifatida tasavvur etilishi lozim. Kasbiy yo‘naltirilganlik xususiyatiga ega bo‘lgan pedagogda bir qator kasbiy va shaxsiy sifatlar yaqqol namoyon bo‘lib turadi. Jumladan:

-o‘z kasbiga ijobiy munosabat, o‘z kasbiy faoliyatiga mutaassiblarcha o‘zini bag‘ishlash, qiziqishning emotsional tarzda namoyon bo‘lishi;

mehnatsevarlik, intiluvchanlik, tashabuskorlik, izlanuvchanlik kabi sifatlarning shakllanganligi va faoliyat davomida muntazam namoyon bo‘lishi;

olib borayotgan faoliyati uchun zarur bo‘lgan bilim, mahorat, tajriba, malaka, ko‘nikma va boshqa qobiliyatlarning mavjudligi hamda pedagogik mehnat davomida namoyon bo‘lishi;

faoliyatni olib borish asnosida o‘z mehnati mahsulidan zavq, qoniqish, ijodiylik, ko‘tarinkilik va boshqa ijobiy-emotsional tuyg‘ularni his etish.

Shu tariqa, biz boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash mundarijasi va texnologiyasini ishlab chiqishga kirishar ekanmiz, bu jarayonga qo‘yiladigan bir qator talablarni ham inobatga olishimiz lozim bo‘ladi [6,112].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). O‘qituvchining kasbiy pedagogik faoliyati bilan bog‘liq masalalarni o‘rganishda *pedagogik qobiliyatlar* muammosining muvaffaqiyatli hal etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Olimlarning bu boradagi mulohazalari va qarashlarini tahlil etib shunday xulosaga keldikki, pedagogik qobiliyatlarning mohiyati, tarkibiy tuzilmasi va namoyon bo‘lish usullari haqida bildirilgan fikrlar o‘rtasida jiddiy

tafovutlar yo‘q. Faqat mazkur tushuncha bilan bog‘liq masalaning tavsif etilishida ayrim juz’iy alohida holatlarni kuzatish mumkin. Umumiy tarzda, qobiliyatlar, asosan, ikki aspektda o‘rganiladi:

1. Umumnazariy aspektda.

2. Maxsus qobiliyatlar (badiiy, musiqiy, pedagogik va shu kabi qobiliyatlar).

Qobiliyatlar nazariyasining metodologik asosi sifatida B.G. Ananyev, L.S.Vigotskiy, A.N. Leontyev, S.L. Rubinshteyn, B.M. Teplov kabi mutaxassislarning ishlari olinadi. Mazkur ishlarda individual psixologik qobiliyatlar o‘rganiladi. Olimlar qobiliyatning har qanday faoliyatda shaxsning ilg‘orligini ta’minlovchi omil ekanligini isbotlab berdilar. Aytish lozimki, qobiliyatni faqat muayyan soha bo‘yicha bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar, mahorat va tajribalarning yig‘ilib borishi natijasida shakllanadi, deb hisoblash to‘g‘ri emas. Bunday usul bilan shaxsning individual-psixologik o‘ziga xosliklari rivojlanadi. Shaxs o‘zining qaysi qobiliyati (yoki individual-psixologik o‘ziga xosligi) qanday faoliyat turi uchun lozim bo‘lishini aniqlashtirib olish muhim.

Maxsus qobiliyatlarning shakllanish va rivojlanish muammolari A.N.Leontyeva, S.L. Rubinshteyn, B.M. Teplov kabi olimlarning ishlarida o‘rganib chiqiladi. Olimlarning fikricha, maxsus deb tasniflanadigan qobiliyatlar inson borliq va uning rivojlanish tarixini o‘zlashtirish jarayonida shakllanadi. Maxsus yoki xos (A.N. Leontyev) qobiliyatlar alohida, maxsus faoliyat turlarida, masalan, badiiy ijokorlik, rassomlik kabi sohalarda namoyon bo‘ladi va aynan o‘sha faoliyat asnosida rivojlana boradi. Aytish kerakki, maxsus (yoki alohida) faoliyat turlarining shaxs tomonidan boshlanishi ham qobiliyat yuzaga chiqishining hosilasidir. Maxsus qobiliyatlarni rivojlantirish – murakkab va qiyin jarayon. Qobiliyatning faoliyatdagi o‘rnini belgilovchi ko‘rsatkichlar sifatida faoliyat negizini tashkil etuvchi mehnatni bajarish sur’ati, oson va qiziqarli ekanligi, pirovard mahsulotning sifati omillarni keltirish mumkin.

Bizning tadqiqotlarimiz doirasida F.N. Gonobolin, K.K. Platonov, N.V. Kuzmina, A.K. Markova kabi mutaxassislarning ishlari ahamiyat jihatdan muhim deb e’tirof etiladi. Mazkur mutaxassislarning ishlarida kasbiy, jumladan, pedagogik qobiliyatlar ham chuqur o‘rganiladi[8,233].

K.K. Platonov kasbiy qobiliyatlarni shaxsning yetarlicha barqaror, ammo tarbiya vositasida o‘zgartirish mumkin bo‘lgan individual-psixologik sifatlari, deb hisoblaydi. Olimning ta’kidlashiga ko‘ra, bir qobiliyat ikkinchisini rivojlantiradi va qobiliyatning tarkibiy komponentlari ham bir-birini to‘ldiruvchanlik xususiyatiga ega, shuning uchun ham qobiliyat har doim faoliyatning muvaffaqiyatli, jo‘shqin kechishini ta’minlovchi eng muhim omil bo‘lib qolaveradi.

N.V. Kuzmina pedagogik qobiliyatlarni maxsus qobiliyatlar qatoriga qo‘shib o‘rganishni taklif qiladi. Uning fikricha, pedagogik qobiliyatlar bir vaqtning o‘zida tashkilotchilik qobiliyatining tuzilmaviy elementlarini hamda samarali aqliy mehnat qobiliyatlarini ham o‘zida mujassam etadi. Aqliy mehnat qobiliyatining psixologik mohiyati shundan iboratki:

-birinchidan, u ko‘proq fikrlash asnosida amalga oshiriladi;

-ikkinchidan, fiziologik jihatlariga ko‘ra, aqliy mehnat davomida birinchi va ikkinchi signallar tizimi o‘rtasida sodir bo‘ladigan murakkab aloqalarning yuksak darajasida kechadi;

-uchinchidan, aqliy mehnatda shaxsning mulohazakorligi, tasavvuri, tanqidiy-tahliliy sifatlari namoyon bo‘ladi[9,63].

Olimaning ta’kidlashiga ko‘ra, aqliy qobiliyatlarga xos bo‘lgan xususiyatlar quyidagilarda ko‘rinadi:

-pedagog o‘zini to‘liq jalb etgan mazmunga emotsional jo‘shqinlik bilan kirishib ketadi;

-mavzuda ifodalangan fikr va g‘oyalarni osonlik bilan anglaydi hamda o‘zlar yordamida o‘z qarashlarini mufassal ifodalaydi, buning natijasida esa lug‘ati boyib boradi;

-voqelar rivojini oldindan ko‘rib, shunga muvofiq harakatlarini oldindan rejalashtira oladi.

Aqliy qobiliyatlarning eng ko‘p namoyon bo‘ladigan turi intuitsiya (ichki sezgi) bo‘lib, u fikrlashning maxsus shakli sifatida e’tirof etiladi.

1) Olim va mutaxasislar ilgari surgan fikrlarga ko‘ra, talabalarda qobiliyatlarni shakllantirish uchun quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:

2) Har bir insonda ma’lum darajada ijodiy potensial mavjud, bu potensial shaxs tanlagan faoliyat turi, uning tuzilmasi hamda shaxsning bu faoliyatni olib borish motivlariga bog‘liq.

3) Aqliy qobiliyatlar integrativ xususiyatga ega bo‘lib, aqliy harakatlarni sodir etish sur’atida,

mulohazakorlikda va tanqidiq qarashlarda namoyon bo‘ladi.

4) Kommunikativ qobiliyatlar faoliyatni tashkil etish va olib borishda yetakchi qobiliyatlar hisoblanadi.

5) Pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda qobiliyatlar rivodlanganligini ko‘rsatuvchi bir qator ko‘rsatkichlarni, jumladan, faoliyatning muvaffaqiyatli natijalarini, faoliyat olib borishning o‘ziga xosligini, faoliyat doirasidagi mehnatni bajarishdagi mustaqillikni, muhitdagi noxush sharoitlarni bartaraf eta olish darajasini, yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish sur’atlarini hisobga olish lozim.

6) OTMda bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashda talabalarning ichki potensiallarini, ijodiy salohiyatlarini yuzaga chiqarish masalasiga alohida e’tibor qaratish, ulardagi qobiliyat va iqtidorlarni tarbiyalash uchun qulay muhit yaratish lozim. Alohida talabaning qobiliyat darajasini ko‘rsatuvchi omil sifatida undagi bilim obyektiga bo‘lgan o‘sib boruvchi qiziqish, mustaqillik, ijodiylik, qaror qabul qilishdagi tezkorlik va maqbullik, mustaqil va tadqiqot ishlarini, topshiriqlarni bajarish natijadorligi kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi[5,127].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tadqiqot ishimiz mavzusiga oid adabiyotlar hamda olimlarning fikr va mulohazalaridan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkin.

Bizningcha, OTM talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash mundarijasi va texnologiyasini ishlab chiqishda bir qator qoidalarga amal qilishimiz lozim bo‘ladi:

Birinchidan, pedagogik faoliyatning asosi shaxsning (ya’ni bo‘lajak o‘qituvchining) aqliy mehnatni muvaffaqiyatli (mahsuldor va natijador) amalga oshirish qobiliyatidir. Ayna shu qobiliyat o‘qituvchining innovatsion ko‘nikmalarini rivojlantiradi va pedagogik vazifalarni bajarishdagi faolligini oshiradi, kasbiy va umumiy dunyoqarashini kengaytiradi.

Ikkinchidan, pedagogik qobiliyatlar orasida eng muhimi, ustivori va yetakchisi kommunikativ qobiliyatdir. Bunday qobiliyatga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘quv jarayonida iliq, mahsuldor pedagogik munosabatlar o‘rnatish orqali, ta’lim oluvchi shaxsnini rivojlantira oladigan pedagogik ta’sirni amalga oshira oladi.

Uchinchidan, talabalarning ijodiy imkoniyatlarini, ichki potensiallarini yuzaga chiqarish, ularda pedagogik intuitsiyani shakllantirish ham istiqboldagi pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatli kechishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak”. Toshkent 2017, 45-bet.

2. Лесгафт П. Ф. Семейное воспитание ребенка и его значение. / П.Ф.Лесгафт. – М.: Педагогика, 1991. – 174 с.

3. Ананьев, Б.Г. Избр. психол. труды: в 2 т. [Текст] /Б.Г.Ананьев /под ред. А.А. Бодалева [и др.]. - М.:Педагогика,1980. -Т. 2. - 288 с.

4. Выготский, *Л.С.* Проблемы развития психики [Текст] /Собр. соч.: в 5 т. /Л.С. Выготский /под ред. А.М. Матюшкина. - М.: Педагогика, 1983. - Т. 3.-368 с.

5. Леонтьев А. Деятельностный ум (Деятельность. Знак. Личность). – М.: Смысл, 2001. – 392 с.

6. Платонов, К.К. Проблемы способностей [Текст] /К.К. Платонов.- М.: Наука, 1972.-312 с.

7. Davletshin M.G. Yosh davrlar va pedagogik psixologiya asoslari. – Toshkent: TDPU, 2006. – 43 b.

8. Знаков В.В. Духовность человека в зеркале психологического знания и религиозной веры // Составитель Куликов Л.В. Психология личности в трудах отечеств. психологов. – СПб: ПИТЕР, 2000 – 426 с.

9. Musayev O.Q. Kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik qobiliyatlar kompleksini takomillashtirish: ped. bo‘y. fal. dok. (Phd) diss. –T., 2016. – B.66.

10. Xalikov A.A. Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish: ped. fan. dokt.... diss. –T.,2016. – B.72.

TALABALARGA GIDROTEXNIKA INSHOOTLARINI MODELLASHTIRISH DASTURIY VOSITALARI TAHLILI VA ULARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Ravshan Shaynazarov,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot istituti

Annotatsiya

Ushbu maqolada gidrotexnik inshootlarni loyihalashda zamonaviy modellashtirish texnologiyalarini qo‘llagan holda qurish va ulardan foydalanishni ta‘minlaydigan tashkilotlar faoliyatini avtomatlashtirish, IT kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgan gidrotexnik inshootlarning 3D-loyihasini zamonaviy muhadislik dasturlari yordamida loyihalash bo‘yicha yechimlari ko‘rsatilgan.

Shuningdek, maqolada gidrotexnika inshootlarini modellashtirish uchun eng yaxshi dasturlar va ulardan foydalanish texnologiyalari va shu bilan birga Gidrotexnika inshootlarini modellashtirish dasturlaridan foydalanishni o‘rganishdir zaruriyati asoslangan. Bundan tashqari, video o‘yinlar uchun ham, professional loyihalar uchun ham 3D modellarni tayyorlashni o‘rganishning eng yaxshi variantlari bo‘lgan ba’zi birlari aytib berilgan hamda ushbu muammolar bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlar faoliyatiga nazar tashlab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *gidrotexnik inshootlar, vizuallashtirish, didaktika, vizual tasvirga aylantirish, infografika, muhandislik grafikasi, 3D texnologiyalar, SketchUp, Blender.*

Аннотация

В данной статье показаны решения по автоматизации деятельности организаций, обеспечивающих строительство и использование при проектировании гидротехнических сооружений современных технологий моделирования, по проектированию 3D-проектов гидротехнических сооружений с использованием современных инженерных программ, разработанных IT компаниями.

Также в статье рассматриваются лучшие программы для моделирования гидротехнических сооружений и технологии их использования, а также обосновывается необходимость изучения использования программ для моделирования гидротехнических сооружений. Кроме того, были описаны некоторые из лучших вариантов обучения созданию 3D-моделей как для видеоигр, так и для профессиональных проектов, а также дан обзор деятельности ученых, проводивших исследования по этим проблемам.

Ключевые слова: *гидротехнические сооружения, визуализация, дидактика, преобразование в визуальное изображение, инфографика, инженерная графика, 3D-технологии, SketchUp, Blender.*

Annotation

This article presents solutions for automating the activities of organizations that provide construction and use of hydraulic structures using modern modeling technologies, and designing 3D projects of hydraulic structures developed by IT companies using modern engineering programs.

The article also discusses the best programs for modeling hydraulic structures and the technologies of their use, as well as the need to learn how to use programs for modeling hydraulic structures. In addition, some of the best options for learning how to create 3D models for both video games and professional projects are outlined, and the work of scientists who have conducted research on these issues is reviewed.

Keywords: *hydraulic structures, visualization, didactics, visual representation, infographics, engineering graphics, 3D technologies, SketchUp, Blender.*

Kirish. Barchamizga ma‘lumki, suv xo‘jaligi va melioratsiya sohasi respublikamizning iqtisodiy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan Respublikamizda yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish, gidrotexnika inshootlarini ishlatishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, hamda yirik gidromeliorativ inshootlar havfsizligini ta‘minlash bo‘yicha bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan Prezidentimiz rahbarligi ostida ishlab chiqilgan va-O‘zbekistonni 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”da barcha sohalar qatori qishloq va suv xo‘jaligini ham modernizatsiya qilish borasida eng muhim

vazifalarni aniq belgilab, ularni izchil amalga oshirib borayotganligi sohadagi ulkan muvaffaqiyatlarga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Texnika rivojlanib bormoqda va shu bilan birga ko‘p narsalarni o‘zimiz qila olishimiz kerak, ulardan biri gidrotexnika inshootlarini modellashtirish dasturlaridan foydalanishni o‘rganishdir. Shu sababli, endi biz ushbu maqsadda foydalanishning eng oson dasturlari haqida gaplashamiz. Shu tarzda siz ushbu dizayn dunyosida nimani boshlash ideallari haqida tasavvurga ega bo‘lishingiz mumkin. Shuni eslatib o‘tish joizki, 3D modellarni yaratish bo‘yicha barcha dasturlar murakkablik darajasiga ega, ammo, albatta, hamma narsa unga bo‘lgan qiziqish darajangizga bog‘liq[1,136].

Adabiyotlar tahlili. K.E.Razlogov vizuallashtirish kompyuterning ma’lum bir aloqa vositasi va turli maqsadlar uchun ma’lumot uzatish uchun tegishli kanal bilan barqaror va samarali integratsiyalashtirishni nazarda tutadigan ekran madaniyatida aks etadi, deb hisoblaydi.

B.G.Ananyevning ta’kidlashicha, vizuallashtirishni ma’lum vizual tizimlarning turli ko‘rinmas hissiy signallarni ko‘rinadigan signallarga aylantirish imkoniyati shaklida tushunish kerak deb ta’kidlaydi.

Tadqiqot metadologiyasi. Biz sizga ushbu mavzu bo‘yicha bir nechta mutaxassislarning fikriga ko‘ra, video o‘yinlar uchun ham, professional loyihalar uchun ham 3D modellarni tayyorlashni o‘rganishning eng yaxshi variantlari bo‘lgan ba’zi bir ro‘yxat orqali aytib beramiz. Biz allaqachon bilamizki, ushbu resurs juda ko‘p qirrali xususiyatga ega. Shu sababli, ushbu maqolada keltiriladigan dasturlarning har birining kamida asosiy jihatlarini bilishimiz muhimdir.

Barchasini tushunarli va sodda tarzda bajarish uchun biz har birining narxiga va qiyinligiga qarab qilamiz. Sizga qoldiradigan dizayn dasturlari variantlarining har birida biz ularning bepul yoki pulli ekanligini aniqlaymiz. Buning sababi, biz sizni qiziqtirishi mumkin bo‘lgan har qanday raqamli manba haqida gapirganda shaffof bo‘lishni muhim deb bilamiz[2,183].

Tahlil va natijalar. Gidrotexnika inshootlarini modellashtirish bo‘yicha eng yaxshi dasturlarni namoyish etishdan oldin, keyinroq ko‘rishni xohlashingiz mumkin, Gidrotexnika inshootlarini modellashtirish dasturlari:

SketchUp. Ushbu dastur 3D dizayn olamida boshlaganlar uchun ideal hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, biz buni yangi boshlanuvchilar uchun eng yaxshi variant deb ayta olamiz, chunki bu boshqalar bilan taqqoslaganda 3D modellarni yaratish dasturlari bu juda sodda va tushunish oson. Boshqaruv paneli juda intuitiv va ushbu faoliyatning barcha asosiy tamoyillaridan foydalanish oson. Ushbu dastur bizni ishlatishimiz mumkin bo‘lgan asboblarning barcha piktogrammalarini yuqori va yon panellarda ko‘rsatadi va ularni aniqlash juda oson.

Muhim narsa shundaki, biz chalkashmasligimiz va eskizni oddiy dastur deb o‘ylashimiz kerak, aslida uni boshqarish oson. Ammo bu faqat 3D-dizayndagi yangi boshlanuvchilar tomonidan ishlatilishi mumkin degani emas. Darhaqiqat, platforma kengaytmalarni kiritish uchun bir nechta variantlarni taklif qiladi, ular yordamida siz olgan tajribangizga qarab tobora to‘liq dastur tuzishingiz mumkin.

Sketchup bilan ko‘proq professional ish namunasi.

Ushbu dasturning asosiy afzalliklaridan biri shubhasiz uning ko‘p qirraliligi, undan barcha turdagi odamlar foydalanadilar. U duradgorlar va shkaf ustalari tomonidan o‘z mijozlariga taqdim etadigan modellar uchun, shuningdek dizayn va muhandislik kabi kasblar talabalari tomonidan qo‘llaniladi. Va, albatta, biz ushbu Gidrotexnika inshootlarini modellashtirish dasturidan kompaniyalarda namoyish etadigan loyihalari uchun foydalanadigan ko‘plab mutaxassislarni eslatib o‘tolmaymiz.

Sketchup uchun mas’ul kompaniya 1978 yildan beri faoliyat yuritib kelayotgan Trimble kompaniyasidir. Shunday qilib biz ushbu platformaning jiddiyligi to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lishimiz mumkin, bu bizga arzon narxlarda ushbu kuchli tahrirlash dasturiga ega bo‘lishni taklif qiladi.

Modellashtirish uchun ushbu 3D dizayn vositasining narxi va ishlatilishi haqida biz uning veb-versiyasida bepul deb ayta olamiz. Shaxsiy loyihalarni amalga oshirishingiz va ularni bulutda saqlashingiz mumkin bo‘lgan joy, chunki u bizga 10 Gb saqlash hajmini taklif qiladi. Pulli versiyaga kelsak, biz narx yiliga 255 evroni tashkil qiladi deb aytishimiz mumkin. Bu har qanday shaxsiy va professional loyihalarni amalga oshirishingiz mumkin bo‘lgan dasturning eng to‘liq versiyasi bo‘ladi.

Siz Sketchup-ni qaysi qurilmalarda ishlatishingiz mumkin deb o‘ylashingiz mumkin.

Ushbu dasturning eng yaxshi xususiyatlaridan biri shundaki, u turli xil platformalar va qurilmalar bilan mos keladi va biz sizning ismingizni ayting:

- Bulut, SaaS, Internet
- Mac (ish stoli)
- Windows (ish stoli)
- Linux (Mahalliy)
- Android (mobil)
- iPhone (mobil)

Ko‘rib turganingizdek, bu juda ko‘p qirrali, ammo bunga qo‘shimcha ravishda bizda quyidagi xizmatlarni taklif qiluvchi mijozlarga xizmat ko‘rsatish markazi mavjud:

- Tez-tez so‘raladigan savollar
- Bilimlar bazasi
- Telefon yordami

Elektron pochta orqali qo‘llab-quvvatlash

Sketchup bo‘yicha xulosa.

Xulosa sifatida xulosa qilish Sketchup haqida ma’lumot aytish mumkinki, bu 3D modellarni tayyorlashni o‘rganish uchun juda yaxshi imkoniyatdir. Ammo bu mutaxassislar darajasidagi odamlar uchun juda mos, bu mutaxassislar tomonidan qo‘llaniladigan dasturdir. Bunga qo‘shimcha ravishda, biz unga taqdim etadigan barcha funksiyalari tufayli 4.5 balli tizimda 5 baho bera olamiz. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu maqolada sizni qoldirgan havoladan sinov versiyasini tanlashimiz mumkin[3,86].

Blender. Bu biz topa oladigan eng yaxshi Gidrotexnika inshootlarini modellashtirish dasturlaridan yana biri. Bundan tashqari, bepul va ochiq manba, bu 3D modellarni yasashni o‘rganayotgan odamlar uchun ajoyib imkoniyatdir. Ammo bu sizni nafaqat bu bilan cheklab qo‘ymaydi, balki tekstura, suyuqlik va tutunni simulyatsiya qilish, zarrachalarni simulyatsiya qilish va kompozitsiyani ham bajarishingiz mumkin. Ko‘rib turganingizdek, bu juda to‘liq dastur bo‘lib, uning yordamida har bir funksiyasidan tez va oson foydalanishni o‘rganishingiz mumkin. Ammo bu hammasi emas, Blenderning yana bir afzalligi shundaki, u o‘rnatilgan o‘yin dvigateliga ega. Xuddi shu narsa uni ushbu sektorning eng ajoyib vositalaridan biriga aylantiradi.

Blender bizga nimani taklif qilayotganiga chuqurroq to‘xtaladigan bo‘lsak, bu loyihalarni taqdim etish, simulyatsiya qilish va yuqori sifatli videolarni tahrirlashda professional ishni istaganlar uchun ideal vosita deb ayta olamiz.

Ushbu o‘ta realistik tizim bizga GPU va protsessorlarni ko‘rsatish imkoniyatlarini taklif etadi, bu esa yuqori quvvatli dasturni talab qiladigan odamlar uchun maqbul sharoitda video simulyatsiyalarni bajarishi uchun qulaydir.

Blenderni amalga oshirish va qo‘llab-quvvatlash.

Ushbu dasturni ikkala Mac va Windows-da, ham ish stoli versiyalarida ishlatishimiz mumkin.

Yordamga kelsak, biz uni Chat orqali olishimiz mumkin, shunda platformadagi har qanday texnik muammoga aniqlik kiritishimiz mumkin.

Blender xususiyatlari

- Tezlikni sozlash
- Ovoz yozish
- Bo‘linish va birlashish

Gidrotexnika inshootlarini modellashtirish loyihasi Blender bilan qanday ishlashiga misollar

Birinchi misolda biz kubok yoki Graelning oddiy namunasini ko‘ramiz, unda har bir detal asta-sekin o‘zgartirilishi mumkin.

Blender bilan Gidrotexnika inshootlarini modellashtirishning ushbu ikkinchi misolida biz platforma tomonidan taqdim etiladigan vositalarning ko‘proq funksiyalari qo‘llaniladigan yanada rivojlangan loyihani ko‘rishimiz mumkin.

Blenderdan foydalanishni o‘rganing.

Blender - bu ochiq kodli dastur, shuning uchun uni bepul ishlatishimiz mumkin, bu bepul dastur yordamida 3D modellarni qanday qilishni o‘rganishni istaganlar uchun katta afzallik. Agar siz ushbu dasturdan qanday foydalanishni bilishni xohlasangiz, biz sizga o‘zingizning tezligingizda o‘rganishingiz uchun ushbu platformadagi mutaxassisdan sizga juda yaxshi video darslikni qoldiramiz.

Blender haqida xulosalar. Shubhasiz, biz ushbu sohada o‘rganish va rivojlantirish uchun eng yaxshi dasturlardan biri. Bundan tashqari, yuqorida aytib o‘tilgan maxsus funksiyalar tufayli yangi boshlanuvchilar uchun ham, mutaxassislar uchun ham idealdir. Foydalanish qulayligi tufayli biz Blenderga 4.7 balli tizimda 5 reytingini bera olamiz va biz sizga qoldirgan variantdan bepul olishimiz mumkin[4,66].

Xulosa. Texnika rivojlanib bormoqda va shu bilan birga ko‘p narsalarni o‘zimiz qila olishimiz kerak, ulardan biri Gidrotexnika inshootlarini modellashtirish dasturlaridan foydalanishni o‘rganishdir. Shu sababli, endi biz ushbu maqsadda foydalanishning eng oson dasturlari haqida gaplashamiz. Shu tarzda siz ushbu dizayn dunyosida nimani boshlash ideallari haqida tasavvurga ega bo‘lishingiz mumkin. Shuni eslatib o‘tish joizki, 3D modellarni yaratish bo‘yicha barcha dasturlar murakkablik darajasiga ega, ammo, albatta, hamma narsa unga bo‘lgan qiziqish darajangizga bog‘liq.

Biz sizga ushbu mavzu bo‘yicha bir nechta mutaxassislarning fikriga ko‘ra, video o‘yinlar uchun ham, professional loyihalar uchun ham 3D modellarni tayyorlashni o‘rganishning eng yaxshi variantlari bo‘lgan ba’zi bir ro‘yxat orqali aytib beramiz. Biz allaqachon bilamizki, ushbu resurs juda ko‘p qirrali xususiyatga ega. Shu sababli, ushbu postda gaplashadigan dasturlarning har birining kamida asosiy jihatlarini bilishimiz muhimdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Берн, Д. Цифровое освещение и визуализация / Берн Д. – М.: Вильямс, 2003 – 330 с.
2. Ганеев, С.М. Формирование графической грамотности учащихся при обучении решению планиметрических задач в условиях компьютерной поддержки: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.02 / Ганеев Сабир Минигалиевич. – Омск, 2004 – 220 с.
3. Георге, И.В. Педагогические условия организации самостоятельной работы в структуре формирования профессиональных компетенций студентов образовательных организаций высшего образования: дис. … канд. пед. наук: 13.00.08 / Георге Илона Владимировна. – Санкт-Петербург, 2016. – 192 с.
4. Докторова, Е.А. Мультимедиа технологии / Е.А. Докторова. – Ульяновск: УлГТУ, 2009. 139 с.
5. Залогова, Л. А. Компьютерная графика. Элективный курс [Электронный ресурс]: практикум / Л. А. Залогова.– М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2014. – 245 с.

TA’LIMIY-DASTURLI TUZILMALARNI TIZIMLI LOYIHALASHTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY TAHLILI

Ravshan Abdullayev,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Pedagogik loyihalashtirishning metodik shartlari va ilmiy va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va amaliyotchi o‘qituvchilarning tajribasi o‘qituvchining joriy prodseduralari ijtimoiy-pedagogik loyihalashning mazmunini loyihalash tartib-qoidalarini aniqlashga hamda ularni amalga oshirish shartlarini aniqlashga imkon beradigan jihatlar keltirib o‘tilgan. Shuningdek, maqolada shaxsni rivojlantiruvchi pedagogik paradigmalarga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *Loyihalash, arxitekturasi, pedagogik loyihalashtirish, jarayonlarini tadqiq qilish, metodlar, joriy prodseduralar, ijtimoiy-pedagogik loyihalash, o‘quv predmeti va boshqalar.*

Аннотация

В данной статье приведены методические предпосылки педагогического проектирования и аспекты анализа научно-методической литературы и опыта педагогов-практиков, позволяющие определить

процедуры проектирования содержания социально-педагогического проектирования текущих процедур педагога, а также условия их реализации. В статье также рассматриваются педагогические парадигмы развития личности.

Ключевые слова: *проектирование, архитектура, педагогическое проектирование, исследование процессов, методы, текущие процедуры, социально-педагогическое проектирование, учебный предмет и др.*

Annotation

In this article, the methodological conditions of pedagogical design and the analysis of scientific and methodological literature and the experience of practicing teachers are brought to the point that the current prodseduras of the teacher allow you to determine the procedures for designing the content of socio-pedagogical design and determine the conditions for their implementation. The article also focuses on pedagogical paradigms that develop personality.

Keywords: *design, architecture, pedagogical design, process research, methods, current prods, socio-pedagogical design, subject of study, etc.*

Kirish. Loyihalash mohiyatining barcha ehtimolli talqinlarini hisobga olgan holda, hamda pedagogik loyihalash shakllanishining genezisini kuzatib, biz pedagogik loyihalashni tushunishga yondashuvlarni ajratib ko‘rsatamiz.

Ta’rifning tahlili “loyihalash” tushunchasining eng umumiy talqini texnik va ijtimoiy fanlar sohalarida, shuningdek, ergonomikada berilganligini ko‘rsatdi. Keng ma’noda loyihalash qurilish, san’at va arxitektura bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda ta’riflangan bo‘lib, bunda “loyihalash” ostida tahlil qilish, tekshirish, tajriba va standartlar bilan bog‘lashning ma’lum bir ketma-ketligini nazarda tutgan iteratsion jarayon sifatida tushuniladi.

Ijtimoiy rivojlanishning barcha sohalarida, shu jumladan ta’limda ham ijtimoiy-madaniy ustuvorliklarning o‘zgarishi tufayli so‘nggi yillarda pedagogik loyihalash muammosi juda dolzarb bo‘lib qoldi. N.G.Alekseyev , Ye.A.Kryukova , I.V.Kotlyarov , V.Ye.Radionov , V.I.Slobodchikov , J.T.Toshyenko va boshqalar ta’kidlashicha, ta’lim mazmuni loyihalash ob’yekti bo‘lishi mumkin[1,128].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). L. Archer loyihalashni “masalalarni yechish uchun maqsadli faoliyat” sifatida tavsiflaydi. M.Azimov buni “noaniqlik sharoitida xatolik holatida og‘ir oqibatlarga olib keladigan qaror qabul qilish” deb ta’riflaydi.

P.Buker va T.Vudson ta’kidlashicha, loyihalash iterasion jarayon bo‘lib, unda loyihani ishlab chiqish bo‘yicha qayta-qayta qarorlar qabul qilinadi hamda loyihalash ob’yekti qayta-qayta modellashtiriladi. Dj.Peydj loyihalash jarayonini “hozirgi payt faktlaridan kelajak imkoniyatlariga ilhomlangan sakrash” deb tushunadi. G.Nadler va Dj.Djons loyihalashni funksional ahamiyatini ajratib ko‘rsatib, u qaysidir jihati bo‘yicha mavjudlaridan yaxshiroq bo‘lgan va ijtimoiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan ob’yektlarning ideal modellarini yaratishdan iborat. Loyihalashning mohiyatini tushunishga bo‘lgan yondashuvlardagi farqlarga qaramay, umumiy jihat shundan iboratki, u muayyan natijaga erishish uchun masalani yechish jarayoni bo‘lib hisoblanadi.

Tarixiy hujjatlar tahlili loyihalash konstruktiv fanlardan: tizim texnikasi, operatsiyalarni tadqiq qilish usuli, ergonomika, texnik estetikadan kelib chiqqanligini ko‘rsatdi. P.Buker , T.Vudson , Dj.Djons ta’kidlaganidek, aynan shu sohalarda loyihalash natijasi bo‘lib loyiha hisoblanadi. Dj.Djons fikricha, loyihalashning maqsadi insonni o‘rab turgan sun’iy muhitda o‘zgarishlarni boshlashdan iborat. Bundan kelib chiqadiki, loyihalash – bu sun’iy muhitda o‘zgarishlarni boshlaydigan jarayondir. Texnika, sosiologiya, iqtisodiyot va pedagogika nuqtai nazaridan mazkur muhitning elementlari bo‘lib shaharlar, binolar, mahsulotlar, qonunchilik, jamoatchilik fikri, ta’lim mazmuni va hokozolar bo‘lishi mumkin[1,175].

I.V.Kotlyarov , V.Ye.Radionov , J.T. Toshyenko va V.M. Shepellar ta’kidlashicha, loyihani amalga oshirish muvaffaqiyati ko‘p jihatdan loyihalash bosqichlari ketma-ketligiga rioya qilishga bog‘liq. Ularning ilmiy ishlarida quyidagi bosqichlarni ajratib ko‘rsatish mumkin: maqsadni belgilash, ilmiy tadqiqotlar, vazifani shakllantirish, g‘oyalarni izlash, konsepsiyani ishlab chiqish, tahlil qilish, tajriba, yechimlar Dj. Van Gig loyihalashning uch bosqichini ajratib ko‘rsatadi: strategiyani shakllantirish va dastlabki rejalashtirish; taklif qilinayotgan natijalarni baholash; amalga oshirish, natijalarni tahlil qilish, ularni amalga oshirish jarayonida tuzatish.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Boshqaruvchilik jarayonlarini tadqiq qilishda loyihalashning bir qator bosqichlarini ajratib ko‘rsatib, ular quyidagilarni ishlab chiqishni nazarda tutadi: 1) nazariy asoslangan loyiha; 2) uni amalga oshirish proseduralari; 3) har bir bosqich uchun asboblar to‘plami; 4) o‘lchov mezonlari va rejani amalga oshirish natijalarini aniqlash usullari; 5) muayyan vaziyatda inson huquqlari va qadr-qimmatini himoya qilish shartlari va vositalari.

Shunday qilib, quyidagi bosqichlar umumiy ekanligini aytish mumkin: maqsadlarni belgilash; nazariy asoslangan loyihani ishlab chiqish; amalga oshirish; tahlil qilish.

Ijtimoiy jarayonlar va hodisalarning rivojlanishi, “insoniyatning porloq kelajagi”ni qurishga urinishlar sababli, maxsus soha – ijtimoiy loyihalash paydo bo‘lib, uning maqsadi ijtimoiy muhitda o‘zgarishlarga bosh bo‘ladigan jarayonni tashkil etishdan iborat. Loyihalashda shaxsdagi xilma-xil o‘zgarishlarga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillardan tashqari, inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning tabiatini ham hisobga olish zarurati ijtimoiy-pedagogik makonga maqsadli ta’sir ko‘rsatishga asoslangan *ijtimoiy-pedagogik loyihalash* paydo bo‘lishiga olib keldi.

J.T. Toshyenko ijtimoiy-pedagogik loyihalashni nafaqat g‘oyani oldindan ko‘rish va sub’yektiv belgilashga, balki ijtimoiy-pedagogik qonuniyatlarni o‘rganishga, o‘zaro ta’sir qilish qobiliyatini, shaxsning psixologik qobiliyatlarini maqsadli rivojlantirishga qaratilgan faoliyat deb hisoblaydi. U loyihalash mantig‘ini umumiy ehtiyojlarni aniqlashtirish orqali tavsiflaydi; erishmoqchi bo‘lgan natija ko‘rinishidagi maqsadni belgilash; maqsadga erishish uchun vositalarni tanlash; harakatlar dasturi ko‘rinishidagi muayyan konsepsiyani qabul qilish[2,13].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Loyihalash mantig‘iga o‘xshash yondashuvni Ye.A. Kryukova rivojlantirib, uni quyidagicha ko‘rsatadi: 1) g‘oyani – maqsadga erishishni ta’minlaydigan omillar tizimining umumiy g‘oyasini ishlab chiqish; 2) maqsadni aniqlash- manbalarini hisobga olgan holda maqsadni belgilash; 3) belgilangan maqsadga erishish uchun zarur ma’lumotlarni to‘plash va unga erishishni ta’minlaydigan vositalarni tanlash; 4) jarayonni dinamik strukturalash; 5) sub’yektlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish variantlarini belgilash; 6) natijalar diagnostikasi; 7) loyihalash jarayoni va natijalarini rasmiylashtirish.

Shunday qilib, ijtimoiy va ijtimoiy-pedagogik loyihalash mantig‘i quyidagi umumiy bosqichlarga ega: maqsadlarni belgilash; maqsadlarga erishish uchun vositalarni tanlash; natijalarni amalga oshirish va tuzatish.

XX asrning 80-yillarida ijtimoiy-pedagogik loyihalash bilan parallel ravishda *pedagogik loyihalash* rivojlana boshladi. Muammo bo‘yicha ishlarning tahlili pedagogik loyihalash noaniq ta’riflanishini ko‘rsatdi.

Ye.S.Zair-Bek, G.L.Ilin, V.M.Monaxov, V.Ye.Radionov pedagogik loyihalashni pedagogik tizimning yangi sifatini yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan pedagogik faoliyatning elementi sifatida belgilaydi.

I.I.Ilyasov, M.V.Klarin va boshda pedagogik loyihalashning tartibga solinganligini hamda o‘ziga xos mantiqiy tuzilma va me’yoriy asosga ega ekanligini, u maqsadli va ongli ravishda amalga oshirilishini, lekin loyihalash faqat mantiq va nazariyaga asoslansa, pedagogik loyihalash ob’yektlari ular quruq bo‘lib, haqiqatdan ajralishini ta’kidlaydilar. Pedagogik loyihalashni kengroq tushunishda, N.G. Alekseyev fikriga ko‘ra, loyihalash sub’yektlarining ongdan tashqari, faoliyati, his-tuyg‘ulari, irodasi va qobiliyatlari ham ishtirok etadi. O.S.Anisimov , R.U.Bogdanova, G.L.Ilin, A.D.Romishevskiylar pedagogik loyihalash o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi “yangi” munosabatlarni tashkil etishni o‘z ichiga olishi, kattalar va bolalar o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlarini o‘rnatishga yordam berishiga e’tibor qaratishadi va shu bilan mualliflar loyihalashning o‘qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyatida o‘rnini aniqlaydilar.

V.S.Bezrukova faoliyat aspektiga urg‘u berib, pedagogik loyihalashni talabalar va pedagoglarning bo‘lajak faoliyatining asosiy tafsilotlarini dastlabki ishlab chiqish deb hisoblaydi. Ushbu ta’rif pedagogik jarayonni yaratishda o‘qituvchi faoliyatining eng umumiy va soddalashtirilgan algoritmini ko‘rsatadi. V.V Krayevskiy tushunchasiga ko‘ra, “pedagogik loyihalash ijtimoiy maqsadlarni belgilashning o‘ziga xos shaklidir”. Biz uchun T.K.Smikovskaya yondashuvi yaqinroq bo‘lib, unga ko‘ra “pedagogik loyihalash – pedagogikaning va tashkil etiladigan amaliy faoliyatning amaliy ilmiy yo‘nalishi bo‘lib, tizimlar ishlashida ularning rivojlanishi, o‘zgarishi, takomillashtirilishi, ziddiyatlarni bartaraf etish, muayyan sharoitlarda pedagogik jarayonlarni

modernizatsiyalashga qaratilgandir”. Mazkur ta’rif bir qator shartlar bilan belgilanadigan loyihalash masalalarining noaniqligiga qaratilgan.

T.K.Smikovskaya fikriga ko‘ra, loyihalashni tashkil etishning muhim jihati bo‘lib uning uzluksizligi hisoblanadi. Uzluksizlik tashkil etiladigan jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi, bosqichma-bosqichligi va bo‘linuvchanligi sifatida aniqlanadi. U loyihalash bosqichlarini tashkil etishning muhimligini ta’kidlaydi, keyingi bosqichlarning har birining oldingi bilan aloqasi va o‘zaro bog‘liqligini asoslaydi, oldingisi esa keyingisini tashkil etishga qaratilgan bo‘ladi; mualliflarga keyingi bosqichda yordam beradi va shu bilan birga ta’lim jarayonlarini rivojlantirish va takomillashtirishni to‘liq yakunlab bo‘lmaydi, deb hisoblaydi[3,79].

V.A.Chenobitov fikriga ko‘ra, pedagogik loyihalash (loyihani yaratish) loyihalash mantig‘ida yaratilgan modelni yanada ishlab chiqish (batafsillashtirish, dekompozisiya) va uni foydali pedagogik natija olish mexanizmini tavsiflash darajasigacha, ya’ni amaliy foydalanish darajasigacha yetkazish vazifasini bajaradi. Loyihalash jarayonining tarkibi g‘oyaning paydo bo‘lishidan foydali pedagogik natija olgunga qadar “o‘tish” kerak bo‘lgan ma’lum bir qator qadamlar bilan tavsiflangan loyihalash mantig‘idan boshqa narsa emas.

XX asr 90-yillarning o‘rtalarida V.V.Arnautov, Ye.S.Zair-Bek, G.L.Ilin, V.M.Monaxov, V.Ye.Radionov va boshqalar ilmiy ishlarida pedagogik loyihalashning pedagog kasbiy faoliyatining elementi sifatida va, ularning fikricha, prosessual xarakterga ega bo‘lgan ta’rifi namoyon bo‘ladi.

Biz Ye.A.Kryukova yondashuviga qo‘shilib, u pedagogik loyihalashni muayyan pedagogik ob’yekt, hodisa yoki jarayonni tasvirlab beruvchi bilimlar majmuasi sifatida qaraladigan ma’lum bir pedagogik tizimni amalga oshirish shartlarini aniqlash bo‘yicha faoliyat sifatida tushuniladi. Mazkur talqin loyihalashning konseptual asosini, uning mazmun-ma’noviy o‘zagini belgilaydi hamda loyihalashning maqsadga muvofiqligi va dinamikligining ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi.

Bizning tadqiqotimiz doirasida pedagogik loyihalash ostida o‘quv amaliyotini o‘zgartirish uchun ilmiy bilimlarni qo‘llash maqsadida shart-sharoitlar yaratish, rejalashtirish va bo‘lajak faoliyatni amalga oshirish bo‘yicha maqsadli faoliyatni tushunamiz.

N.G.Alekseyev Ye.A.Kryukova , T.K.Smikovskayalar fikriga ko‘ra, pedagogik loyihalash quyidagi umumiy loyihalash tamoyillariga asoslanadi: ilmiy tavsiyalarga tayanish; yangi tizim loyihasi uchun g‘oyalar manbalarining yetarlicha to‘liqligi; tizimlarni loyihalash o‘zaro bog‘liqligini sinxronlashtirish;

- loyiha g‘oyalarini erkin generatsiyalash (loyihalashning ijodiy xarakterini ta’minlashga qaratadi); partisipativlik (har qanday sub’yektning loyihalashda ishtirok etishni qabul qilish); ishtirok etishning mutlaq ixtiyoriyligi; mehnat va mas’uliyatni taqsimlash (loyihalash guruhida mehnatni ixtisoslashtirish va muvofiqlashtirishni nazarda tutadi); loyihachilarning “jamoaviy” ishi; kollegiallik va konsensus (kelishilgan loyiha qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishga mutlaq intilish); loyihalashning birligi va uzluksizligi.

Tadqiqotchilar pedagogik loyihalashning turli bosqichlarini ajratib ko‘rsatishadi. Shunday, T.K. Smikovskaya bosqichlarning quyidagi ketma-ketligini ko‘rsatadi: loyihalash mafkurasi; pedagogik tizimlar, ob’yektlar, jarayonlarning mantiqiy tuzilmasi; pedagogik tadqiqotning iterasion xarakterdagi paradokslarni aniqlash; adekvat monitoring tizimi va hisoblagichlarni tanlash muammosi; yaratilgan loyihaning ekspertizasi. Taklif etilayotgan variant, loyihalash yo‘nalishini tanlashdan tashqari, loyihachiga maxsus asboblar to‘plami bilan jihozlangan o‘lchash tizimi yordamida harakatlar natijalarini kuzatish imkonini beradi, bu esa loyihaning ob’yektiv ekspertizasini belgilaydi[5,22].

V.I.Danilchuk, V.S.Ilin, V.V.Serikovlar pedagogik loyihalashning quyidagi mantiqini taklif qiladilar: reja tuzish; maqsadni diagnostik berish; yangi hosilaga olib keladigan mazmun va sharoitlarni aniqlash; pedagogik vaziyatning umumlashtirilgan tavsifi; jarayonni dinamik strukturalash; natijalar diagnostikasi.

I.A.Kolesnikova pedagogik loyihalash mantig‘ini quyidagi bosqichlar ketma-ketligi sifatida taqdim etadi: maqsadni belgilash; prognozlash; amaliyotni konstruksiyalash; natijalarni olish va baholash. Ko‘rsatilgan loyihalash mantig‘i, bizning fikrimizcha, loyihani amalga oshirishning chegara shartlarini hisobga olishni nazarda tutmaydi, bu esa loyihani tuzatish bosqichini istisno qilishni belgilab beradi.

V.Ye.Radionov pedagogik loyihalash quyidagi bosqichlardan o‘tishi kerak, deb hisoblaydi: 1) o‘zgartirishlarga ehtiyojni anglash sodir bo‘ladigan ishga tushirishdan oldingi bosqich; 2) dekompozisiya, ya’ni umumiy g‘oyani bir qator alohida vazifalarga bo‘lish va ularni amalga oshirish uchun tegishli vositalarni tanlash;

3) transformatsiya, bunda dastlabki g‘oyalar yaqqol tuzilmaga ega bo‘ladi va real mazmun bilan to‘ldiriladi; 4) konvergensiya, bunda ta’lim tizimlari va ta’lim standartlarini rivojlantirish dasturlariga xususiy loyihaviy yechimlarni “yig‘ish” sodir bo‘ladi. Taqdim etilgan loyihalash bosqichlarining ketma-ketligi ularning har birini batafsil takrorlaydi va loyihani amalga oshirishni uzluksiz jarayon sifatida ko‘rsatadi, ammo mazkur sxemada jarayon sub’yektlarining loyiha faoliyatida ishtirokini ta’minlaydigan maqsadlar bilan ishlash bosqichi mavjud emas.

Ye.S.Zair-Bek quyidagi bosqichlarni ajratib ko‘rsatadi: g‘oyani aniqlash; loyiha eskizi; harakat modellarini ishlab chiqish; vazifalar darajasida real strategiyalarni va ularni amalga oshirish shartlarini rejalashtirish; teskari aloqani tashkil etish, jarayonni baholash; natijalarni baholash va tahlil qilish. Ushbu sxemada loyihani ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bir vaqtda loyihaning borishi va natijalarini ekspertizadan o‘tkazish tashkil etiladi, bu esa loyihalashning integrativ proseduralarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi[6,27].

A.M.Saranov ishlarida pedagogik loyihalashning umumiy sxemasi batafsillashtirilgan:

1) g‘oyani belgilash vaziyatni tahlil qilish, ziddiyatlarni topish, hal qilish uchun muammolarni aniqlash, muammolarni diagnostika qilish, yechimlar uchun g‘oyalarni tanlash va ularni muvofiqlashtirishdan boshlanadi;

2) loyihani ishlab chiqish uchun g‘oyalarni, qadriyatlar tizimini shakllantirish, sxema yoki tasvirni - loyihaning eskizini yaratish, farazlarni ilgari surish, aniq mezonlar bo‘yicha loyihalash maqsadlarini aniqlash, prognozlash, yechim variantlarini ishlab chiqish va baholash, eng samaralisini tanlash, loyihalash usullari tizimini aniqlash, ya’ni loyiha konsepsiyasini shakllantirish;

3) harakatlarning umumlashtirilgan modellarini, ya’ni loyihani amalga oshirishni boshqarishning strategik dasturini ishlab chiqish;

4) bajarilishi kerak bo‘lgan vazifalarni aniqlashtirish, maqsadlarga erishish uchun shartlar va vositalarni aniqlash va asoslash, harakatlar taktikasini va loyihalarni amalga oshirish uchun o‘zaro ta’sirlar tizimini ishlab chiqish, ya’ni strategiyalarni amalga oshirishni rejalashtirish;

5) loyihani amalga oshirish, bu bosqichda uzluksiz teskari aloqa, jarayonni baholash, takomillashtirish, sozlash tashkil etiladi;

6) natijalarni baholash, tahlil qilish va umumlashtirish, faoliyatning keyingi yo‘nalishlarini belgilash;

7) loyihalash jarayonini va pedagogik ijodning muayyan mahsulotlarini – loyiha hujjatlari, nashrlar, xabarlar, hisobotlar rasmiylashtirish. Muallif har bir bosqichda maqsadni aniqlashtirishga e’tibor beradi. Bundan tashqari, tahlil, diagnostika, prognozlash va tuzatish doimiy ravishda pedagogik loyihalashga yo‘ldosh bo‘ladi, bu esa loyihachining faoliyatiga mos keladi.

V.V.Serikovning pyedagogik loyihalash bosqichlari sxemasi shaxsning rivojlanishi va o‘z-o‘zini anglashiga qaratilgan loyihalash bosqichlarining eng to‘liq tavsifini beradi va quyidagilardan iborat: g‘oyani ishlab chiqish; maqsadni diagnostik belgilash; yangi hosilaga olib keladigan tarkib va sharoitlarni aniqlash; pedagogik vaziyatning umumlashtirilgan tavsifi; jarayonni dinamik strukturalash; pedagogik vositalarni topish; pedagog xatti-harakati variantlarini o‘ylab chiqish; natijalar diagnostikasi.

V.S.Bezrukova, loyihalashni pedagogik faoliyat elementi sifatida belgilab, uning quyidagi elementlarini ajratib ko‘rsatadi: modellashtirish; loyihalash; konstruksiyalash (loyihaning ajralmas qismi sifatida konstruktni yaratish).

Turli xil loyihalash sxemalarini tahlil qilib, biz ***loyihalashning umumiy bosqichlarini*** ajratib ko‘rsatamiz: maqsadni belgilash (muammoni aniqlash, dunyoni tushunishni tadqiq qilish, maqsadlarni belgilash); loyihalash shartlari va vositalarini tanlash; loyiha natijalarini prognoz qilish; natijalar diagnostikasi, tahlili va tuzatish[7,109].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Shaxsiy tajribadan foydalanish tamoyilini ta’kidlash shuni ko‘rsatadiki, tarkibni o‘zlashtirishning boshlang‘ich nuqtasi talabaning tajribasi bo‘lib, u o‘z qonunlariga ko‘ra muhitining hodisalari, jarayonlari va ta’sirini tanlaydi va sharhlaydi va ularga shaxsiy ma’no beradi. Taklif etilayotgan kursda ushbu tamoyil o‘quv mashg‘ulotini taqdim etish mantig‘ida, darslarni qurish tizimida, o‘quv topshiriqlarida amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Теплов Б.М. Избранные труды: В 2-х т. - М., 1985. - Т.1. - 382 с.
2. Абрамов А. Как создать новое содержание образования? // Народное образование. -1997. - Ш 7-8. - С. 11-16.
3. Азимов М. Язык науки. - М.:Мир, 1985. - 280 с.
4. Алексашина И. Ю. Учитель и новые ориентиры образования. - СПб, 1997.
5. Алексеев Н.Г. Методологические принцины проектирования образовательных систем // Проектирование в образовании: проблемы, поиски, решения. - М., 1994. - С. 20 – 23.
6. Радионов В.Е. Теоретические основы педагогического проектирования: Автореф. дисс.... д-ра пед. наук. - СПб, 1996. - 31с.
7. Narzulloyevich, Abdullayev Ravshan. "SOFTWARE DESIGN AS AN ELEMENT OF THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF AN INFORMATICS TEACHER". *Intent Research Scientific Journal.* 2.12 (2023): 106-113.

“GO‘ZAL XULQLAR” ASARINING OILAVIY VA IJTIMOIY TA’LIMDAGI TA’SIRI: PEDAGOGIK NUQTAYI NAZARDAN TAHLIL

O‘tkir G‘uzarov,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
“Boshlang‘ich ta’lim metodikasi”
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada “Go‘zal xulqlar” asarida muallif ilgari surgan g‘oyalar, xususan oila haqidagi qarashlari va bevosita ta’lim tarbiyaga bog‘liq hamda zamonaviy ta’limga ta’sir qiluvchi fikrlari tahlil qilinadi.

Shuningdek, asardagi yetuk fikrlar zamonaviy dunyodagi jamiyatshunoslik ilmlari, jamiyatdagi kadrlar, individuallarni kasb egasi bo‘lishdagi iqtisodiy nazariyalar, kuchli jamiyat, kuchli oila, oilaga oilashunoslar ta’rifi, o‘zaro yordamning jamiyatda ta’siri, “kuchsiz rishtalarning ahamiyati” kabi teoriyalarga bog‘lik ekani tahlil qilindi. Asardagi fikrlar doim, har zamon va makonga mos tushishi, nafaqat diniy, oilaviy masalalarda balki iqtisodiy hayotimizda ham “Go‘zal xulqlar” asari muhim ekanligi o‘ziga hos nazariyalar bilan isbotlandi.

Kalit so‘zlar: *kuchsiz oila, kuchli oila, jamiyatdagi kadrlar, iqtisodiy nazariyalar, kuchli va kuchsiz rishtalarning ahamiyati.*

Аннотация

В данной статье анализируются идеи, выдвинутые автором в произведении «Прекрасные нравы», в частности его взгляды на семью, вопросы, связанные с образованием и воспитанием, а также их влияние на современное образование.

Кроме того, глубокие мысли, изложенные в произведении, были проанализированы в контексте современных социологических наук, экономических теорий, связанных с профессиональным развитием кадров и индивидов, концепции сильного общества, сильной семьи, определения семьи семейными специалистами, влияния взаимопомощи в обществе, а также теории «значимости слабых связей». Было показано, что идеи произведения актуальны во все времена и в любом месте, и что оно имеет значение не только в религиозных и семейных вопросах, но также и в экономической жизни. Это было доказано с использованием оригинальных теоретических обоснований.

Ключевые слова: *слабая семья, сильная семья, кадры в обществе, экономические теории, значение сильных и слабых связей.*

Annotation

This article analyzes the ideas presented by the author in the work "Beautiful Morals", particularly his views on the family, issues related to education and upbringing, and their influence on modern education.

Furthermore, the profound ideas in the work have been examined in the context of modern sociological sciences, economic theories related to the professional development of individuals and society, the concept of a strong society and a strong family, definitions of family by family specialists, the impact of mutual assistance in society, and the theory of "the importance of weak ties." It has been demonstrated that the ideas of this work remain relevant at all times and in any context. The work is shown to be significant not only in religious and familial matters but also in economic life, as supported by unique theoretical justifications.

Keywords: *weak family, strong family, societal workforce, economic theories, importance of strong and weak ties.*

Kirish (Introduction). Ma’lumki, jamiyatning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan oilalar qanchalik tinch va totuv bo‘lsa, shundagina davlat tinch va barqaror ravnaq topishi mumkin. Shu jihatdan, oila qo‘rg‘onining mustahkamligi va unda ma’naviy jihatlarning shakllanishi muhim ahamiyatga ega. Binobarin oila deb atalmish muqaddas makonda farzandlar kamolga yetadi, ulg‘ayadi.

Shunday ekan, jamiyatda yuzaga kelayotgan oilalar qanchalik mustahkam qurilmoqda, ularning poydevori-chi?

Darhaqiqat, oilaning barpo etilishida kimlar yoki nimalar muhim rol o‘ynaydi, tashqi ta’sirlar-chi? Mavjud oilalar va yangi barpo etilayotgan kichik bir oila o‘z mavqeyini qanchalik asramoqda?

Oila – muqaddas qo‘rg‘on, oila – ma’naviy kamolot belgisi kabi va boshqa bir qancha so‘z va iboralar bilan oilaning mavqeyini belgilaymiz. Albatta, jamiyatda namunali oilalar talaygina. Namunali oila deganda, oilaviy munosabatlar ma’naviy mezonlar asosida qurilgan, yaxshi va axloqli farzandlar tarbiyalagan, nurli, pir-u badavlat otaxon va onajonlar ko‘z oldimizga keladi. Ularning borligi boshqalar uchun ibrat maktabidir.

Ammo, ming afsuslar bo‘lsinki, bizni o‘ylantirgan masala bu – oila qo‘rg‘onining buzilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan bir qancha tashqi va ichki omillardir. Tashqi omil sifatida g‘arbona yashash tarzining o‘zlashtirilishi bo‘lsa, ichki omil sifatida esa, yoshlarning oilaga ma’naviy jihatdan etarli tayyorgarlikka ega bo‘lmaslik masalasidir.

Oila borasida hozirgi kunda juda ko‘pchilik jamiyatshunoslar ilmiy ishlar qilishadi zero bu jamiyatda eng asosiy mexanizm. Masalan Professor Jon Difreyn: “Agar tadqiqotchilar faqat oilaviy muammolarni o‘rganishsa, ular faqat oilaviy muammolarni topishlari mumkin. Xuddi shunday, agar o‘qituvchilar, jamoat tashkilotchilari, terapevtlar va tadqiqotchilar oilaning kuchli tomonlariga qiziqsa, ular har sohada turli nazariya, yangiliklarni izlayotgan bo‘lishadi. Buning natijasida kuchli tomonlar(ilmiy isbotlangan urg‘u berilishi kerak bo‘lgan bo‘limlar) aniqlansa, ular oila va jamiyatdagi uzluksiz o‘sish va ijobiy o‘zgarishlar uchun asos bo‘lishi mumkin”-deydi[3,1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Biz tahliliga kirishgan asarda barcha muammolarning boshlanishi sifatida “Nafs balosi” ko‘rsatilgan. Xususan muallif:

hirs bu kuchli rag‘batdir. Agar ortib ketsa illat hisoblanadi. Chunki rag‘bat yutuqqa erishish sababidan bo‘lsa maqtaladi, hirsning nixoyasi esa tanazzulni keltirib chiqaradi. Shu sababdan “Haris inson mahrum bo‘lur” deyiladi. Qanoat bu ko‘p narsalarning oziga ham rozi bo‘lishdir. Dunyo ishlarida jiddu-jahd qilib turgan bo‘lsa, qanoatli bo‘lishi maqtalgandir. Ammo oxirat ishlarida jiddi-jahd qilmay qanoat qilish maqtalgan hisoblanmas. Inson tabiatan qiziquvchandir, bataxqiq inson ochko‘z va qiziquvchan qilib yaratildi. Alloh taolo aytadi:

“Nafslar qizg‘onishga xozir qilingandir”.

Uning muolajasi qanoatning fazilatlarini bilishdir, qanoatni fazilatlarini insha Alloh o‘z o‘rnida bayon qilib o‘tamiz.”

Oilaviy,ijtimoiy,iqtisodiy muammolarning barchasining boshlanishi bu egoism, nafsiga qul bo‘lish ekanini bir necha yuz yillar ilgari Imom Burhoniddin Nasafiy bayon qilgan va bunga qanoat, shukr qilish yechim bo‘la olishini keltirib o‘tgan.

Ma’naviy tahdid sifatida baholanayotgan hozirgi kundagi g‘arbona madaniyat, g‘arbona yashash, g‘arbona muomala, g‘arbona hayot tarzi va hokazolar bizning muqaddas qo‘rg‘onimizga qanchalik salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini yetarli darajada o‘ylab ko‘rmayapmiz.

Men bu fikrlarim bilan G‘arbdan voz kechishimiz kerak degan noo‘rin qarashlardan yiroq ekanimni maqolamning so‘ngida tahlil etilayotgan asar va G‘arbning zamonaviy iqtisodiy nazariyasini korrelatsiya qilgan

holda isbotlayman. Biroq kunlik hayotimizdagi G‘arbning yumshoq kuchi (bu atama Jozef Ney tomonidan fanga kuchli mamlakatlarning jamiyatlarini boshqarish uchun tizimlashtirilgan propagandasini ta’riflash uchun kiritilgan[1]) ta’sirida kirib kelgan va oddiy hol sifatida qabul qilayotganimiz turli filmlar, seriallar, kliplar aslida shovqinli, jangari, toshbag‘ir bir hayot tarzini bizga in’om etmayotganmikan. G‘arb seriallarida kelinini erkalayotgan qaynota, turmush o‘rtog‘ini ochiqdan-ochiq haqorat qilayotgan xotin yoki uning eriga xiyonat qilayotgan dugona, yarim yalang‘och qizdan mamnun ona, oiladan halovat topmagan farzandning giyohvand moddalarga berilishi va boshqalar bizning farzandlarimiz tarbiyasiga, oilaviy muhitning nosog‘lom bo‘lishiga olib kelmasmikan. Aksariyat oilalarda bunday hayot tarzi qanday bo‘lsa, shundayligicha o‘zlashtirmoqda. Ko‘p hollarda, bizning mentalitetimizga, yashash tarzimizga to‘g‘ri keladimi, yo‘qmi, hattoki buni o‘ylab ko‘rmayapmiz. Natijada oilalar arzimas muammo oldida dosh berolmay, yengil yelpi, havoyi nafs qurboniga aylanishmoqda. G‘arb taklif etayotgan xudbinlik, toshbag‘irlik kabi illatlarni aksariyat insonlar yashashning mazmuni sifatida qabul qilib olmoqdalar. Buning oqibatida ayol kimningdir qo‘g‘irchog‘iga aylanmoqda, go‘daklar mehrdan mosuvo holda yetimlikka mahkum etilmoqda. Bu kabi misollarni yana qator keltirish mumkin. Oila tinchligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan bunday muammolar aslida har bir vijdonli insonning qalb og‘riqlari emasmi? Yong‘in chiqsa, ho‘l-quruq barobar yonadi deganlaridek, oila buzilsa, yoki farzand axloqsiz chiqsa, birgina inson emas, atrofdagi insonlar, boringki, butun jamiyat hayotiga, uning farovonligiga, tinchligiga raxna solingan bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Muallif bu so‘zlari bilan oila qurishdagi ilk bosqichlar juda muhim ekaniga urg‘u berib o‘tgan. Ya’ni oila qurish Islomiy e’tiqod prinsiplariga rioya qilgan holda o‘tkazilishi muhim, unga qarash kerak ekanligini hatto oila qurishdan asosiy maqsadlarni birma-bir sanagan, chunki muallif juda yaxshi biladiki insonlar ma’lum maqsadlar sababli aloqa o‘rnatishadi. Muallif xatto er-xotinning o‘zaro xurmat chegaralarini ham qisqa bayon qilib o‘tgan: “kuyov kelin bilan birga haddan ziyod hazil qilmasligi va rashk qilishda ham haddan oshmasin”.

Umumiy aytadigan bo‘lsak hamma narsaning asosi ma’naviy yetuklikka borib taqaladi. Axloqimizga tashqi jihatlar salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan ekan, ulardan himoyalanishning yagona yo‘li ham ma’naviy yetuklikdir. Ma’nan yetuk inson atrofdagi har bir narsaga befarq qaray olmaydi. Ma’nan boy inson g‘arbona yashash, g‘arbona madaniyatni qanday bo‘lsa, shundayligicha o‘zlashtirmaydi, aksincha o‘zbekona, milliy xususiyatlarimizga uyg‘unlashtiradi. Oila deb atalmish muqaddas qo‘rg‘onni asrab avaylashga intiladi. Oilaning bir butunligini tashkil etayotgan er va xotin ma’nan boy, aqlan kamolga yetgan bo‘lsa, har qanday zararli ta’sirlarni oldindan ko‘radi va oilasini himoya qila oladi. Ayni paytda, farzandlar tarbiyasiga ham shu mezonlardan turib yondashadi.

Bolaga birinchi galda go‘zal xulqlarni ta’lim bering. Uni yomon yondoshlardan saqlang. Doim to‘kin-sochinlikka o‘rgatib qo‘ymang. Chunki buning ortida yertaga afsuslanish bor. tashqi odoblarni unga singdiring. O‘zgalarni o‘zidan ustun ko‘rish va tabiatiga zid bo‘lgan narsalardan uzoq bo‘lishi uchun hayoni xushlating. She’rlarni ham tanlab-tanlab saxovat, shijoat kabi tuyg‘ularni jo‘shtiradiganlarini o‘qiting. Kiyim-kechak, yeb-ichishda qattiqqo‘llikka odatlantiring. Bundan tashqari jismoniy mashqlarga nisbatan ko‘nikma hosil qiling. Umuman olganda bolani har qanday xayrli ishga targ‘ib yeting. Yomonlikning barcha turidan uzoqda tuting. Odatda yomonlikni qabul qilishi oson bo‘ladi, chunki tarki odat amri maholdir.

Agar novdani egsang rost, bo‘lar to‘g‘ri

Daraxt bo‘lgach kuching yetmas o‘nglagani”.

Yuqorida biz zikr qilgan G‘arbona madaniyatning zararlari nafaqat bizni balki ularni ham qiynab kelmoqda.

Muhokama va natijalar (Discussion and results). Ko‘pgina tadqiqotlar 20-asrda oilalar “Nega oilalar muvaffaqiyatsizlikka uchradi?” degan savolga javob topishga e’tibor qaratdilar, ya’ni yaxshi oilalarga e’tibor qaratish “Oilalar qanday qilib muvaffaqiyatga erishadi?” degan savolga javob topishga yordam beradi. Masalan, Devid Meys Buyuk Britaniya va Qo‘shma Shtatlardagi nikohni ma’nan boyitish harakatining asoschilaridan biri edi. U iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar oilalari mukammal emasligiga ishongan. Muvaffaqiyatli oilalarni o‘rganish dunyoda mustahkam oilalar sonini ko‘paytirish orqali inson hayotini yanada baxtli qilishga yordam

berish uchun oila haqidagi izlanishilarda muhim bilimlarni berishi mumkinligiga ishondi va bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni qizg‘in qo‘llab-quvvatladi.

Yillar davomida tadqiqotchilar, jamiyatshunos olimlar va oddiy odamlar hayotda yaxshi yashayotgan oilalarni tasvirlash uchun ishlatgan atamalar juda xilma-xildir: kuchli oilalar, hissiy jihatdan sog‘lom oilalar, muvozanatli oilalar, baxtli oilalar, muvaffaqiyatli oilalar, maqbul oilalar va hokazo. Yana boshqalarini ilmiy adabiyotlardada topish mumkin. Ammo qaysi atama ishlatilmasin, ta’riflanayotgan asosiy mavzu bir oila kuzatuvchisidan ikkinchisiga sezilarli darajada mos keladi: mohiyatiga ko‘ra, bu oilalar hayotda yaxshi ishlayotganiga ishonishadi va bir-birlari bilan munosabatlaridan mamnun.

Ehtimol, bularning barchasi juda oddiy. Bunday ta’riflar haqida so‘z yuritgan Professor Jon Defreyn bunday deb xulosa qiladi: “Yaqinda Devid Olson va men “Nikoh va oila: xilma-xillik va kuchli tomonlar” nomli 700 betlik “Oilaviy hayot” darsligimizning uchinchi nashri ustida ishlashni tugatganimizda kulishimga to‘g‘ri keldi. “Yetti yuz sahifa!” deb o‘ylanib qoldim. "Uch so‘z bilan aytilishi mumkin bo‘lgan narsani aytish uchun bizga 700 sahifa kerak bo‘ldi: "Bir-biringizni seving""[8].

Jamiyat millionlab individlardan iboratdir. Biz har kuni turli aloqalarimizni ishlatib doimiy harakatda bo‘lamiz: mehmonxona buyurtma qilishda, chet elga yuk jo‘natishda, do‘kondan yaxshiroq buyumni xarid qilishda, yangi ishlar qidirishda va hokazo. Bunda biz aloqa qilgan har bir jismoniy yoki yuridik shaxs bilan bir bog‘ bog‘laymiz. Bog‘lar aloqa qilinganlarga qarab turlicha bo‘ladi. Xo‘sh, bog‘larning qanday turlari bor?

“Masalan LinkedIn (LinkedIn - professional va professionallarga ulanish uchun maxsus mo‘ljallangan ijtimoiy tarmoq. 65 milliondan ortiq mutaxassis LinkedIndan o‘zlarining martaba va bizneslarini rivojlantirish maqsadida foydalanadi. LinkedIn har qanday va har kim bilan "do‘st" bo‘lishingiz mumkin bo‘lgan boshqa ijtimoiy tarmoqlardan farqli o‘laroq, strategik munosabatlarni o‘rnatish haqidadir[6]) sizning ulanishlaringizni kuzatish uchun qulay vositadir, ammo sizning tarmog‘ingiz ijtimoiy tarmoqlardan tashqarida bo‘lishi mumkin. Ishda, ehtimol sizning tashkilotingizdagi odamlar bilan bog‘lanish imkonini beruvchi ichki elektron pochta ro‘yxati mavjuddir.

Siz ota-onalar bolalar futbol o‘yinlariga avtomashinalarni o‘tkazishni muvofiqlashtiradigan mahalla chatining bir qismi bo‘lishingiz ham mumkin. Xatto sizning shajarangiz ham kuchliroq (yaqin oila) va zaifroq (kengaytirilgan oila) aloqalar tarmog‘idan iboratdir”[7,25].

Shuning uchun har qanday to‘g‘ri "kuchli aloqalar" va "zaif aloqalar" ta’riflari hayotning barcha sohalarida qo‘llanilishi kerak. Sotsiolog Mark Granovetter, Stenford universitetining sotsiologiya professori, zaif aloqalar nazariyasiga asosiy hissa qo‘shgan shaxsdir. U quyidagi tushunchalarni belgilaydi:

“Zaif rishtalar - bu siz biladigan, lekin unchalik yaxshi bo‘lmagan odamlardir. Ular shunchaki tanishlar. Siz bu odamlar bilan ishda va shaxsiy hayotingizda faqat kerakli darajada muloqot qilasiz.

Kuchli rishtalar siz juda yaxshi biladigan odamlardir. Ishdan keyin yoki dam olish kunlari tashrif buyuradigan odamlar bilan yaqin aloqada bo‘lishingiz mumkin. Bu siz doimiy ravishda muloqot qiladigan do‘stlaringizdir - bu ish joyidagi do‘stingiz yoki o‘rta maktabdan beri tanish bo‘lgan yaqin do‘stingiz”[7,23].

Agar siz o‘zingizning shaxslararo munosabatlaringizni ushbu ta’riflar asosida tasniflasangiz, mustahkam munosabatlar ro‘yxati zaif munosabatlar ro‘yxatidan kuchliroq ko‘rinadi. E’tibor bering “ko‘rinadi” dedim.

Zaif uyushmalarning yoki aloqalarning ta’siri Professor Marl Gronovettorga ko‘ra juda ulkan. Sodda qilib aytsak odatda jamiyatdagi insonlar juda ham zaif aloqalari orqali daromadli ishlarga, masalan Vazirlikda yuqori lavozim yoki katta korporativ tashkilotda menejment bo‘limida xodimlik, erishishadi. Ya’ni mening akamning uzoqroq o‘rtog‘i yoki sobiq ishxonamdagi 10 yil ko‘rishmagan “do‘stim” menga ukamdan, har kuni KFC filiallaridan birida tushlik qiladigan yaqin do‘stimdan ko‘ra moddiy jihatdan foydaliroq bo‘ladi.

“Zaif aloqalarning mustahkamligi ta’sirchan ijtimoiy-ilmiy nazariya bo‘lib, ijtimoiy tarmoqlar orqali ma’lumot uzatishga ta’sir ko‘rsatishda zaif uyushmalarning (masalan, tanish va yaqin do‘stlik) muhimligini ta’kidlaydi. Biroq, bu paradoksal nazariyaning sababiy sinovlari qiyin bo‘ldi. Tajribalar shuni ko‘rsatdiki, zaif rishtalar ish o‘tkazmalarini oshiradi, lekin faqat bir nuqtaga qadar, shundan so‘ng rishtalarning zaifligi uchun marjinal daromadlar kamayadi. Mualliflarning ta’kidlashicha, eng zaif aloqalar ish o‘rinlarining harakatchanligiga eng katta ta’sir ko‘rsatdi, eng kuchli aloqalar esa eng kam ta’sir ko‘rsatdi. Bu natijalar

birgalikda "zaif aloqalar paradoksini" hal qilishga yordam beradi va zaif aloqalar nazariyasining mustahkamligini isbotlaydi”- deydi iqtisodiy tahlilchi Meggiy Vul[7,25].

Zaif rishtalar va kuchli aloqalar: Nima uchun ikkalasi ham muhim?

Agar LinkedIn foydalanuvchisi bo‘lsangiz, sizda 300 dan 999 gacha ulanishlar mavjud bo‘lishi mumkin. Ulardan ba’zilari sovuq ulanishlar bo‘lishi mumkin, ba’zilari siz o‘tkinchi uchrashgan odamlar bo‘lishi mumkin, boshqalari esa siz haqida hech narsa eshitmagan sobiq hamkasblaringiz bo‘lishi mumkin.

Siz ushbu ulanishlarning barchasiga muhtojmisiz deb o‘ylashingiz mumkin. Siz ularning barchasi bilan muntazam ravishda gaplashmaysiz va ular nima bilan shug‘ullanganini ko‘rish uchun hech qachon ularning profillarini bosmaysiz - buning sababi oddiy: siz juda bandsiz.

Ammo "Ulanishni o‘chirish" tugmasini bosishdan oldin, kengaytirilgan tarmog‘ingiz siz o‘ylagandan ko‘ra ko‘proq qiymatga ega ekanligini bilib oling. Mashhur ijtimoiy tarmoq nazariyasiga ko‘ra, sizning unchalik taniqli bo‘lmagan kontaktlaringiz o‘zingizdan tashqaridagi professional doiralarga kirish nuqtalaridir.

Bu shaxslar orqali siz har doimgi bir kishining kontaktlar tarmog‘idan o‘chirilasiz – bir kun kelib sizga martaba yo‘nalishida yordam berishi mumkin bo‘lgan turli soha va kompaniyalardan odamlar.

Ushbu ulanishlarning ahamiyatini to‘liq tushunish uchun ularni yaqinroq biladigan odamlarga nisbatan tortish foydalidir. Bu siz doimiy ravishda gaplashadigan, tez-tez muloqot qiladigan va doimiy ravishda tekshiradigan odamlardir. Boshqacha qilib aytganda, ular sizning professional va ijtimoiy tarmoqlaringizdagi kuchli aloqalardir.

Kuchli va zaif aloqalar hayotingizda har xil, ammo bir xil darajada muhim rollarni bajaradi. Do‘stlaringiz, oilangiz va yaqin hamkasblaringiz siz uchun ko‘proq hissiy qadriyatga ega bo‘lishi mumkin. Ammo bu sizning zaifroq aloqalaringizning foydaliligini kamaytirishingiz kerak degani emas.

Nima uchun yuqoridagi juda ham ulkan, turli qarama-qarshi fikrlarga boy ilmiy-iqtisodiy nazariyani bu asar tahlili o‘rnida keltirdim, chunki har qanday yangi tuzilgan aloqa, bog‘liqlik ilk qolgan taasurotlarga bog‘liqdir. Meni hayotida 3 marta umumiy hisobda olsak 10 daqiqadan kam muddatda ko‘rib, suhbatlashib butun boshli ish-karyeram rivojiga yordam beradigan ishni, masalan tavsiyanoma berish, qilish uchun men uni haqorat qilmagan bo‘lishim, hurmatini, izzatini o‘z o‘rniga qo‘ygan holda muomila qilgan bo‘lishim shart. Bu nafaqat asarda ilgari surilgan go‘zal sifatlar, balki insoniylik doim qo‘llab quvvatlagan ishdir. Xususan biz yuqorida zikr qilgan zaif va kuchli aloqalar haqida asarda quyidagilar bayon etilgan.

Xususan, III -shaxsdan boshlanadigan kuchli rishtalarning avvalgisi do‘stlik haqida asarda quyidagicha zikrlar mavjud: “Do‘st, birodarchilik va go‘zal suhbatdosh mavzusida gaplashadigan bulsak, kimdaki quyidagi besh xislat topilsa, birodarlikka va go‘zal suhbatdosh bo‘lishga munosi bo‘ladi: aql, husni xulq, gunoh ishlardan, bid’atdan, dunyoga ruju qo‘yishdan qaytarish. Birodarchilik, go‘zal suxbatdoshlikning haqqi teng huquqlilik asosida emas balki mol davlat ila kifoya qilarli darajada saxovat qilish bilan, extiyoji miqdorida biroddariga yordam berish, so‘rashidan avval samimiylik bilan yordam berishga shoshilish, o‘z ehtiyojlaridan ko‘ra birodarini afzal ko‘rish va boshqa ishlarda yordam berish, hatolarini kechirish, vafotidan so‘ng haqqiga duo qilish, birodarining huzurida ham yo‘q paytida ham ayblarini aytmaslik, sodir etgan ayblarini kechirish bilan bo‘ladi. Do‘stiga josuslik qilmasin, balki yaxshi gumonda bo‘lsin va sirlarini yoymasin. “Ahrorlar qalbi asrorlar qabridir”, degan hikmat buning misolidir”[1,233].

Imom Burhoniddin Nasafiy zaif aloqalarni yo‘llab qo‘yish bilan va xalq kabi sifatlar bilan nomlagan. Va bu haqida shunday deydi:

[dalaala] bu to‘g‘ri yo‘lga undash va yo‘lni bayon qilishdir. Albatta yaxshi ishlarga dalolat qilish yaxshilik, yomonlikka chorlash esa yomonlikdir. Paygambarimiz alayhissalom shunday deganlar: “Dalolat qiluvchi amal qiluvchi kishi kabidir”[4,202]

Xalq bilan bilan bo‘lgan muomalalarda avval boshidan ularga haqlarini berib muomala qiladi, so‘ragan vaqtlarida javob beradi. Yordam berish durust bo‘lgan o‘rinda yordamini ayamaydi va ularning gunohkorlariga istig‘for aytadi, tavba qilganlarini yaxshi ko‘radi, o‘ziga yaxshi ko‘rgan narsasini ularga ham ilinadi, o‘ziga yomon ko‘rgan narsasini ularga ham yomon ko‘radi, kattalarini hurmat qilib, kichiklarini izzat qiladi, chaqimchilik qilmaydi va chaqimchilarga quloq ham solmaydi, ularga takabburlik qilmaydi, balki ochiq yuz bilan

hushxabar berib, ular bilan xossatan, zaif kishilar bilan bo‘ladi, insonlarga yaxshilik qilish ularning haqqi hisoblanadi.

Demak, asarga ko‘ra, ochiq yuzli bo‘lish, muomila qilinayotgan shaxslarning yoshlariga qaramay izzat-hurmat qilish va albatta asosiysi yordam berish durust bo‘lgan o‘rinda yordamini ayamaslik insonga nafaqat jamiyatni isloh qilishda hissa qo‘shishiga balki, o‘zining hamda o‘zgalarning iqtisodiy hayotlarida,moddiy barqarorliklarida, shaxsiy rivojlanishlarida, ish topishlarida hal qiluvchi omil va o‘ziga hos ta’sir kuchini keltirib chiqarar ekan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak biz tarjima va tahlil qilishga uringan asar, “Go‘zal xulqlar” va uning ichidagi o‘lmas qarashlarga butun jamiyatimiz, nafaqat o‘zbek millati yoki Islom diniga e’tiqod qiluvchilar balki zamonaviy jamiyatshunoslar, olimlar muhtojdir. Bir paytlar Jon Kalvin (Fransiyada Reformatsiya namoyandalaridan biri, kalvinizm asoschisi[6]) ning g‘oyalari o‘ziga hos harakatlarni va bu harakatlar zamonaviy kapitalistik dunyoni shakllantirgan edi. Vaholanki Kalvin soddagina, cherkoviga qatnovchi, zamonaviy qarashlarni ham inkor etmaydigan ruhoniy edi. Biz qo‘rqmay jamiyatshunos, oilashunos, iqtisodiy va siyosiy tahlilchi deb atasak ham bo‘ladigan shaxs - Imom Burhoniddin Nasafiy ham hayotdagi, insonlar bilan vujudga keladigan muammolarga barcha davrlarga to‘g‘ri keladigan yechimlarni taklif qilgan. Bu takliflarni ko‘plab sohalarga bog‘lab o‘rganishimiz mumkin.

Xususan asarda biz maqolada urg‘u bergan oila, oila qurish, farzand tarbiya qilish, jamiyatdagi insonlar bilan bo‘ladigan kuchli va zaif aloqalar kabi bo‘limlar juda muhimdir. Chunki Globallashayotgan olamda qadriyatlarga asoslanib rivojlanish juda murakkab ish, murakkabligi shundaki yangilik doim mo‘rt bo‘lgan bo‘lsa eskilik zamonga mos kelishga qiynaladi. “Go‘zal xulqlar” asari esa qadriyatli kishilar uchun zamonaviy dunyoda yashash uchun muhim qo‘llanmalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qur’oni Karim ma’nolari tarjimasi. Toshkent. «Hilol-Nashr» . 2022-yil. 632 bet.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.:O‘zbekiston, 2017. – 28 b.
3. Jon Defreyn. Oila masalalari. - Avstraliya oila tadqiqotlari instituti, Kanberra 1999. 1 va 13-betlar.
4. Al-Bayhaqiy, Abu Bakr Ahmad ibn Husayn. Shu‘ab al-Iman. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2004. – B. 201–205.
5. An-Navaviy, Abu Zakariyya Yahyo ibn Sharaf. Al-Maqosid. – Qohira: Al-Azhar nashriyoti, 2001. – B. 74–79.
6. https://en.wikipedia.org/wiki/Softpower
7. Mark Granavetter. Zaif zanjirlar kuchi. – Amerika sotsial jurnali, 78-nashr. Chikago Universiteti Nashriyoti: AQSh 1973-yil. http:/www.jstor.org. 31 bet.
8. https://kapitalbanklearning.wixsite.com/kapitalbanklibrary/post/linkedinbu.

O‘QUVCHILARDA TABIIY FANLAR (SCIENCE) ASOSIDA DASTLABKI BILIM VA TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Madina Halimova,
Qarshi davlat universiteti 3-kurs doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy fanlar (SCIENCE) dan elementar tushunchalarni shakllantirish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash, o‘rganish, tahlil qilish va ularni bartaraf etish orqali o‘quvchilarning fizika fani asoslari bo‘yicha chuqur va mustahkam bilimlarni egallashi, shuningdek, ularni mustaqil ravishda to‘ldirishi va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini takomillashtirishga qaratilishi lozimligi haqida aytib o‘tilgan.

Bundan tashqari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun joriy qilingan tabiiy fanlar (SCIENCE) darsligining amaliyotga tadbiq qilinishi, yangi darslikning muvaffaqiyatli tomonlarini tahlil qilish va bu orqali o‘quvchilarda atrof-muhit, tabiat va olam haqidagi elementar tushunchalarni shakllantirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *Bilim, fizik tushunchalar, atrof-muhit, qiziqish, ijodkorlik, tadqiqot, amaliy ish, tabiat hodisasi, kuzatish, science, texnik vositalar, amaliyot, ekskursiya.*

Аннотации

В данной статье элементарные факторы из естествознания (SCIENCE) в производственных процессах, их изучение, анализ и создание глубоких и прочных знаний основ естествознания у студентов, обладающих, создающих, их самостоятельных. необходимо для обеспечения наглядности его применения на практике.

Кроме того, обсуждалась реализация введенного для учащихся младших классов учебника НАУКА, анализ успешных аспектов нового учебника и формирование посредством этого элементарных представлений об окружающей среде, природе и Вселенной у учащихся.

Ключевые слова: *Знание, природа, интерес, креативность, исследовать, практическая работа, естественное явление, наблюдение, технические средства, упражняться, экскурсия.*

Annotation

In this article, by identifying the problems that arise in the process of forming elementary concepts from natural sciences (SCIENCE), by studying them, analyzing them and eliminating them, students acquire deep and solid knowledge of the basics of natural science, as well as it was mentioned that they should be filled in independently and focused on improving the skills of practical application.

In addition, the implementation of the SCIENCE textbook introduced for elementary school students, the analysis of the successful aspects of the new textbook, and the formation of elementary concepts of the environment, nature and the universe in students through this were discussed.

Keywords: *Knowledge, environment, interest, creativity, research, practical work, natural phenomenon, observation, science, technical means, practice, excursion.*

Kirish. “O‘quvchilarning ilmiy bilimga qiziqishini, shakllantirish jarayoni qanchalik tez boshlansa, yoshlarimiz mustaqil ijodiy, ilmiy ish yo‘liga shunchalik tez kirib boradi” [4;29-b] degan fikr asoslidir. O‘quvchilarning ilmiy bilimlarga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish, fanni o‘qitishning ilmiy saviyasini oshirishga, fizikaviy nazariyalarni o‘rganishga e’tiborni kuchaytirishga, ulardan fizik hodisalarni, jismlarning xususiyatlarini tushuntirishda keng foydalanishga yordam beradi.

Olib borilgan tadqiqotlarda keltirib o‘tilgan fikrlar o‘quvchilar tomonidan fanlarni o‘zlashtirilishi ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish tamoyiliga qat’iy rioya qilishni, har bir o‘quv yili uchun ta’lim oluvchilar uchun taqdim etilayotgan dalillarni to‘g‘ri tanlash, bilim chuqurligi va hajmini to‘g‘ri aniqlashga alohida e’tibor berishni talab qilgan. Shu jumladan, boshlang‘ich sinflar tabiiy fanlar darsligida berilgan mavzular yuzasidan berilayotgan bilimlar o‘quvchi yosh xususiyati bilan o‘zaro muvofiq kelishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Mazkur tadqiqot ishimizda M.K. Shosalimov o‘zlarining olib borgan tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, boshlang‘ich sinflardanoq bolalarni kuzatishga, muayyan xulosalar chiqarishga, ular ko‘rgan har bir hodisaga tadqiqotchi sifatida yondashuvni o‘rgatish kerak, deb hisoblashgan. Unga ko‘ra, “fanlar asoslarini o‘rganishda tadqiqot usuli o‘quvchilarda tevarak-atrofdagi tabiatga chuqur qiziqish uyg‘otadi, olamdagi hodisalarni idrok etishga, o‘rganishga, olingan bilimlarni ham amaliy, ham nazariy muammolarni hal etishda qo‘llashga intilishni uyg‘otadi. Shu bilan birga, mazkur usul xulosa chiqarishda eng katta tafakkurning hushyorligini tarbiyalaydi” [4;42-b].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Bu pedagogika fani oldida turgan asosiy muammoni – bilimlar hajmini va ularni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini kengaytirish muammosini aniqlash imkonini beradi. O‘quvchilar o‘rganilayotgan tushunchalarga tezda yechim topishga tayyor bo‘lishlari kerak. Bunda axborotning umumlashtirilishi va tizimliligi katta ahamiyatga ega. Shu sababli zamonaviy maktab o‘qituvchilarining faoliyati o‘quvchilarni fan asoslari bo‘yicha chuqur va mustahkam bilimlarni egallashi, ularda o‘z bilimlarini doimiy ravishda oshirishga bo‘lgan intilishlarini, shuningdek, ularni mustaqil ravishda to‘ldirish va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Boshlang‘ich sinf Tabiiy fanlar (Science) darsligi o‘quvchilarda boshlang‘ich kasbiy ko‘nikmalar va malakalarni egallash, texnik vositalar va asboblardan foydalanish bo‘yicha ma’lumotlar olish, labaratoriya ishlari va loyiha ishlari bilan tanishish, texnik va ilmiy ma’lumotlarda yo‘nalishni topishga yordam berish, o‘quvchilarning dunyoqarashi va shaxsini muvaffaqiyatli shakllantirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Biroq, tabiiy fanlarining shaxsni shakllantirishdagi juda katta salohiyati har doim ham to‘liqligicha amalga oshirilmaydi. Bu jarayon ko‘plab omillarga bog‘liq. “Asosiysi, tabiiy fanlarni o‘rganayotgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilari birinchi kunlardanoq yangi tushunchalar va ma’lumotlarni idrok etishlari kerak, ularni o‘zlashtirish o‘quvchilarning ma’lum bir qismi uchun ma’lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ba’zan ayrim tushunchalarning mohiyati va mazmuni o‘quvchilar ongiga yetib bormaydi, ularda o‘quv materialini mexanik yo‘l bilan yod olishga majbur bo‘ladi, qiziqishi susayadi, o‘quv predmetiga nisbatan salbiy munosabat paydo bo‘ladi” [6;49-b].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy fanlar bo‘yicha dastlabki bilimlarni shakllantirish va ularga bo‘lgan qiziqishni uzluksizlik tamoyili asosida uyg‘otish dastur materialini o‘zlashtirish sifatini oshirishga imkon beradi, nafaqat o‘rganilayotgan mavzu, balki umuman tabiiy fanlarga qiziqishning rivojlanishiga ham yordam beradi. O‘qitish nazariyasi va amaliyotida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiiy fanlar bo‘yicha dastlabki bilimlarini shakllantirish muammosining ayrim jihatlarini yetarli darajada rivojlantirmaganligi ushbu muammoni hal etishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy fanlar bo‘yicha dastlabki bilimlarni shakllantirish muammosi holatini o‘rganish maqsadida biz kompleks yondashuvdan foydalandik: tadqiqot mavzusi bo‘yicha pedagogik va uslubiy adabiyotlarni, pedagogik matbuot materiallarini o‘rganish va nazariy tahlil qilish; boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining dars va mavzu rejalarini va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar rejalarini o‘rganish; qatnashgan darslar tahlili va o‘qituvchilar bilan suhbatlar o‘tkazish; kuzatishlar; boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘rtasida so‘rovnoma; boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiiy fanlardan bilim darajasini aniqlash maqsadida konstatatsiya tajribalarini o‘tkazish.

O‘quvchilar amaliy va laboratoriya topshiriqlarini bajarishda atrofidagi olamda sodir bo‘ladigan tabiat hodisalari va oddiy jarayonlarning mohiyatini tushuntirishda xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Ularda texnik vositalar, o‘lchov va yordamchi asboblardan foydalanish ko‘nikmalari ham kam rivojlangan. Bu boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining tabiiy fanlar bo‘yicha yetarlicha bilimga ega emasligi hamda o‘quvchilarning tabiatshunoslik, botanika, fizika, geografiya va texnologiya fanlari bo‘yicha asosiy materialini o‘rganish jarayonida ularda tabiiy fanlar bo‘yicha boshlang‘ich bilimlarni shakllantirish uslubiyoting to‘liq shakllanmaganligi bilan ma’lum darajada belgilanadi

Olib borilgan tadqiqotlarda quyidagi tasdiqlangan dalillar keltirib o‘tiladi. Darhaqiqat, respublika maktablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tabiatshunoslik tushunchalarining mazmun-mohiyatini

tushuntirish, bu tushunchalarning fan va texnikadagi o‘rni va rolini aniqlash, o‘rganilayotgan jarayonning belgi va qonuniyatlarini o‘rnatish, o‘rganilayotgan jarayonning o‘rni va qonuniyatlarini o‘rnatishga, tabiatshunoslik tushunchalarini aniqlash bo‘yicha amaliy ish olib borishga har doim ham imkoniyatga ega bo‘lavermaydi. Bizning tajribamiz, kuzatishlarimiz va boshlang‘ich sinf fanlari o‘qituvchilari ishini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ularning ko‘pchiligida tajribalar, amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish, didaktik materiallar va texnik o‘qitish vositalaridan foydalanish uchun asboblar tanlash va ulardan foydalanish qiyin kechadi. Obyektlarga va tabiatga maxsus ekskursiyalar, o‘rganilayotgan tabiiy-ilmiy tushunchalar bilan tanishish va mustahkamlash, asboblar bilan ishlash va ulardan foydalanish malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun amaliy mashg‘ulotlar yetarli darajada tashkil etilmagan. Ko‘pgina tushunchalar aniq va asosli taqdimotsiz qo‘llaniladi. Shuning uchun o‘quvchilarda tabiiy-ilmiy tushunchalar va g‘oyalar tizimining mazmunli elementlari shakllanmaydi.

Dastlabki tabiiy-ilmiy tushunchalar tizimini shakllantirish uchun sharoit yaratadigan tegishli aloqalarsiz fizika, kimyo, biologiya va fanning boshqa sohalari qonuniyatlari va hodisalarini o‘zlashtirish amalda qiyin kechadi [2;54-b].

Ammo bir qator biologik jarayon va hodisalar 2-4-sinflarda fizika va biologiya fanlarini o‘rganishdan oldin o‘rganiladi. Shunday qilib, ba’zi tushunchalar boshqalari bilan to‘ldiriladi, bir-biriga o‘tadi, o‘zgaradi va umumlashtiriladi. Bu esa o‘quvchilar tomonidan tabiatshunoslik, matematika va texnologiya kurslarini o‘rganish jarayonida tabiiy fanlar bo‘yicha dastlabki bilimlarni shakllantirishni taqozo etadi.

Boshlang‘ich sinflarda joriy qilingan yangi tahrirdagi Tabiiy fanlar darsligi o‘quvchilarda fizika, geografiya, biologiya, zoologiya, astranomiya bo‘yicha dastlabki bilim va tushunchalarni shakllantirishda asosiy o‘quv materiali bo‘yicha ishonchli dalillarni o‘zlashtirishga asos bo‘lib xizmat qiladi va o‘quvchilarni amaliy va nazariy muammolarni hal qilishda faollashtirishi, o‘quv materialini ongli ravishda tushunishga hissa qo‘shishi, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirishi, aqliy faoliyatini rag‘batlantirishi uchun bevosita xizmat qiladi. Shuning uchun, ham fizikaviy tushunchalarni bosqichma-bosqich shakllantirish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini fizikani o‘rganishga tayyorlashning zaruriy sharti hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinflarda fizikaviy tushunchalarni shakllantirish o‘rganilayotgan fizik hodisa va jarayonlarning mohiyatini to‘g‘ri tushunishga, ularning sabab va qonuniyatlarini aniqlashga, o‘quvchilarning kuzatish qobiliyatini oshirishga, ularni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini, shuningdek, fizikaga qiziqishlarini tarbiyalashga xizmat qilishi kerak” [6;21-b].

Bundan tashqari, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga quyidagi tavsiyalarni berish mumkin (fizik tushunchalarni shakllantirish misolida):

- “boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari 1-4-sinf o‘quvchilariga dars berish jarayonida o‘rganilayotgan fizik tushuncha va atamalar, tabiat hodisa va jarayonlarining mohiyatini tizimli ravishda ochib berishlari, o‘rganilayotgan materialning ilmiyligini oshirishlari, shakllangan va shakllanayotgan tushunchalarni mustahkamlash maqsadida amaliy mashg‘ulotlar, tabiat va boshqa obyektlarga ekskursiyalar tashkil etishlari zarur;

- boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari fizik ko‘rgazmali tajribalar o‘tkazish metodikasini puxta ega bo‘lishlari, didaktik materiallar va o‘qitishning texnik vositalaridan foydalana olishlari kerak” [6;28-b].

Muallifning ushbu fikrlariga qo‘shilib, biz bu tavsiyalar ham yetarli emas deb hisoblaymiz. Bizning fikrimizcha, tabiiy fanlar o‘qituvchisi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiiy fanlar bo‘yicha boshlang‘ich bilimlarni shakllantirish jarayonida faol ishtirok etishi kerak. Buning uchun tabiiy fanlar o‘qituvchilari va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari (tabiatshunoslik, matematika, texnologiya fanlari bo‘yicha) faoliyatida mustahkam aloqalar o‘rnatilishi kerak.

Bu aloqalar nimada yaqqol ifodalanishi kerak? Bizning fikrimizcha, bu aloqalar quyidagicha ifodalanadi:

a) tabiiy fanlar o‘qituvchisining ko‘rsatilgan fanlar o‘qituvchilariga ularni tabiiy-ilmiy fanlar elementlarini taqdim etishga tayyorlashda uslubiy yordami;

b) tabiiy fanlar o‘qituvchisining fan o‘qituvchilarining “kesishuvchi” masalalarni o‘rganishga bag‘ishlangan darslarida ishtiroki;

v) fan o‘qituvchilarining tabiiy fanlar o‘qituvchilarining darslarida ishtiroki;

g) tabiiy fanlar o‘qituvchilari uslubiy birlashmalari va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uslubiy birlashmalarining qo‘shma yig‘ilishlarini o‘tkazish;

d) boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlar o‘qituvchisi tomonidan tegishli mavzular bo‘yicha darslar o‘tkazish [6;21-b].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Boshlang‘ich sinflar o‘quv dasturida nazarda tutilgan tabiat haqidagi bilimlar mazmuni va tabiati jihatidan ancha xilma-xil ekanligini hisobga olib, uni o‘zlashtirishda turli xil tarbiyaviy ish usullarini talab qiladigan o‘quv faoliyati mavjud, degan xulosaga keladi. Tabiat haqidagi bilimlarni egallashda eng maqbul o‘quv faoliyati umumiy usullari sifatida muallif “obyektlarning holati va tashqi xususiyatlarini o‘rganish va ularni tavsiflashga qaratilgan kuzatish; o‘rganilayotgan obyektlarni guruhlash va taqqoslash” ni tanlaydi [7;9-b]. Tadqiqotchilar ushbu muammoni o‘rganar ekan, “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tabiat haqidagi bilimlar bilan tanishtirishda ko‘p darslarda og‘zaki o‘qitish usullari va o‘qituvchining o‘qituvchilik faoliyati ustunlik qiladi.

Yangi ta’lim mazmunining o‘ziga xos xususiyati shundaki, uni o‘zlashtirish o‘quvchilarni o‘rganishga faol jalb qilishni talab qiladi.

Shu sababli maktab o‘quvchilarining aniq fanlar, shu jumladan tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida ta’lim faoliyati masalasini hal qilish zarurati tug‘iladi. Ma’lumki, boshlang‘ich ta’limni qayta qurish boshlang‘ich maktab o‘quvchilarini tabiat bilan, tabiiy tushunchalar bilan tanishtirish mazmuniga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Bu ko‘plab didaktik va uslubiy masalalarni hal qilishni talab qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Bahromov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Tabiatshunoslik. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2020. – 88 b.

2. Bahromov a, Sharipov sh, Nabiyeva m. Tabiatshunoslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. SHARQ, Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent–2017– 64-b.

3. Bahromov A., Sharipov Sh., Nabiyeva M. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2017– 80-b.

4. Suyarov K.T., Tillayeva Z.Y., Sangirova B va boshqalar. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. Toshkent – 2021– 103-b.

5. Suyarov K.T., Tillayeva Z.Y., Sangirova B va boshqalar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. “G‘afur G‘ulom” nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2021–94-b

6. Sharipova D., Xodiyeva D.P., Shirinov M.K. Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi Toshkent, “Barkamol fayz media” 2018–108-b.

7. Шодиев Р.Д, Қосимова Г.И. Табиатшунослик ва уни ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. – Қарши: Насаф, 2021. – 130 б.

MEXANIZMLAR DINAMIKASI VA ASOSIY MASALALARINI YECHIMLARI

Oliya Nurova,
Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti dotsenti

Annotasiya

Maqolada talabalar mexanizmlar dinamikasida - kuchlar ta’siridagi mexanizmlar harakatiga doir qator masalalar o‘rganiladi. Ya’ni, mexanizmlar bo‘g‘inlariga ta’sir etadigan kuchlarni to‘g‘ri taqsimlash hisobiga, mashinalar uchun dolzarb bo‘lgan maqbul ish rejimlarini, energiya va resurs tejamkorlikni ta’minlash, yuqori ish unumdorlikka erishish yo‘llari o‘rganiladi.

Kalit so‘lar: *o‘quv materiali, o‘qitish metodikasi, metodik tavsiyalar, yakka tartibdagi topshiriq, texnologik xarita, o‘qitish shakllari, zveno, mexanizm, inersiya kuchi.*

Аннотация

В статье студенты изучают ряд вопросов, связанных с динамикой механизмов - движением механизмов под действием сил. То есть за счет правильного распределения сил, действующих на соединения механизмов, изучаются пути обеспечения оптимальных режимов работы машин, энерго и ресурс эффективности, пути достижения высокой производительности.

Ключевые слова: *учебный материал, методика обучения, методические рекомендации, индивидуальное задание, технологическая карта, связь форм, обучения, механизм, сила инерции.*

Abstract

In the article, students study a number of issues related to the dynamics of mechanisms - the movement of mechanisms under the action of forces. That is, due to the correct distribution of forces acting on the connections of mechanisms, ways to ensure optimal operating modes of machines, energy and resource efficiency, ways to achieve high productivity are studied.

Keywords: *teaching material, methodical training, methodical recommendations, individual task, technological card, union form, training, mechanism, force inertia*.

Kirish. Ma’lumki, ta’lim-tarbiya jarayonini nazorat va tahlil qilish pedagogik jamoa ishiga rahbarlik qilishning asosiy shakllaridan biridir. Nazorat va tahlil qilishning asosiy maqsadi kamchiliklarni topish, ishning holatini tasdiqlash emas, balki o‘qituvchilar tomonidan olib boriladigan ta’lim-tarbiya jarayonining to‘g‘ri rejalashtirilayotgani, oqilona tashkil etilayotgani orqali ularning o‘qitish metodikasini yaxshilash, ishlaridagi xato va kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish hamda ularga kerakli metodik tavsiyalar berishdan iboratdir [1, 6].

Adabiyotlar tahlili. Nazariy dars va amaliy mashg‘ulotlarni tahlil etish deganda, pedagog faoliyatini o‘rganish, uning ijobiy va salbiy tomonlarini chuqur bilishga asoslanib, amaliydidaktik yordam berish tushuniladi. Pedagogik nazoratning mohiyati shundan iboratki, unda ta’lim muassasasi rahbarlari yoki monitoring va ichki nazorat bo‘limi xodimlari oldindan rejalashtirilgan maqsad bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarining sifati va fanlar bo‘yicha ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajalarini har tomonlama o‘rganadilar [2, 24].

Ta’lim-tarbiya jarayonini o‘rganishda mutaxassis bo‘lmagan o‘quv muassasa rahbarlari ayrim fanlar bo‘yicha ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirishda tajribali mutaxassis o‘qituvchilar bilan birgalikda darsni kuzatishlari lozim. To‘g‘ri tashkil etilgan nazorat ishi o‘qituvchilarning eng yaxshi tajribalarini aniqlashga hamda ularning pedagogik mahoratini ommalashtirishga yordam beradi.

Dars deganda o‘qituvchining o‘quv guruhiga uyushgan, tayyorgarlik darajasi bir xil, tarkibi o‘zgarmas o‘quvchilar bilan mashg‘ulot o‘tkazishi tushuniladi. Dars ta’lim muassasasda ta’limni tashkil etishning asosiy shakli hisoblanadi. Har bir dars o‘quv jarayonining bir qismi hamda bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashning bir butun mantiqiy yakunlangan bosqichidir [3, 54].

"Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi" fanlari texnik sohalarda bakalavrlarni tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Bu erda uning ahamiyatining bir nechta asosiy jihatlari keltirilgan [5]: -ushbu fan mexanizmlar va mashinalarning ishlash tamoyillari to‘g‘risida fundamental bilimlarni beradi, bu esa yanada murakkab

muhandislik muammolarini tushunish uchun asosdir; -talabalar mexanizmlarni loyihalashni, ularning ishlarini tahlil qilishni va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlashni o‘rganadilar. Bu yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va mavjudlarini yaxshilash uchun juda muhimdir; -ushbu fan orqali olingan bilimlar mashinasozlik, robototexnika, avtomatlashtirish va boshqa muhandislik mutaxassisliklari kabi turli sohalarda qo‘llaniladi; -mexanizmlar va mashinalar nazariyasini o‘rganish analitik fikrlashni va murakkab muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi, bu muvaffaqiyatli muhandislik amaliyoti uchun zarurdir; -ushbu fan laboratoriya ishlari va loyihalarni o‘z ichiga oladi, bu talabalarga nazariy bilimlarni amalda qo‘llash va zamonaviy uskunalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Umuman olganda, "Mexanizmlar va mashinalar nazariyasi" fani muhandislik sohasida muvaffaqiyatli martaba uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar bazasini shakllantiradi va texnik muammolarni hal qilishda tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma’lumki harakat qilayotgan har qanday zvenoga momentlar va tashqi kuchlar bo‘lishi mumkin. Bular: a) zvenoning o‘zining og‘irligi- vektori doimo er markaziga qarab yo‘nalgan kuch va uni G bilan belgilaymiz. b) agar zveno o‘zgaruvchan tezlik bilan ilgarilanma harakat qilganda *inersiya kuchi* paydo bo‘ladi va bu kuchni biz P_i bilan belgilaymiz; c) agar zveno o‘zgaruvchan tezlik bilan murakkab harakat qilsa unda zvenoda P_i dan tashqari shu kuchning momenti ham paydo bo‘ladi va uni M_i bilan belgilaymiz; d) mexanizmning harakati vaqtida kinematic juftlarda reaksiya kuchlari paydo bo‘ladi.Ularni P_{12}, P_{23}, P_{34} ... bilan belgilaymiz: Bu erda P_{12} – 1 zvenoning 2 zvenoga ta’sir kuchi va hakoza qolganlari ham shunday, ya’ni jismni qo‘zg‘atuvchi sabab *kuch* deb ataladi. Bizga ma’lumki kuchning ta’siri ish bilan aniqlanadi.

Amaliy mashg‘ulotlarda asosan “LOYIHALASH” metodidan foydalanish maqsadga muvofiq. Shunki “Loyihalash” metodi talabalardao‘zlashtirilgan mavzu, masala yoki hal qilingan muammo yuzasidan mantiqiy fikrlash, loyiha-konstruktorlik qobiliyatlarini rivojlanishi, ularni kelgusi ilmiy tadqiqod faoliyatlari uchun muhim qadam hisoblanib, muhandsilik ko‘nikmalarini shakllantirishgaxizmat qiladi. Loyihalash metodi talabalrni individual yoki gurularda belgilangan vaqt davomida berilgan vazifabo‘yicha rejalashtirish, tashkillashtirish, hisob konstruktorlik shilarini amalgaoshirishi vaolingan natijalarni baholash ishlarini olib borishidir. Ushbu metodni qo‘llashda tanlab olingan loyihani mohiyati, muhim xususiyatlari, ustuvor jihatlarini to‘laoshib berishga alohida e’tibor qaratiladi.

Amaliy mashg‘ulotlarda ushbu metoddan foydalanish quyidagi bosqichda amalga oshiriladi [7]:

1. Guruhdagi talabalar talabalar sonidan kelib shiqib kichik guruhlarga bo‘linadi.
2. Talabalar o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan mavzuga tegishli topshiriqni (keyslarni) tanlab oladi va berilgan topshiriqni ma’ruza mashg‘ulotidaolgan bilimlariga tayangan holdayechimini topish usullari va medotlarini aniqlab oladi.
3. Berilgan topshiriqni kichik guruhlarda bajaradi va har bir guruh o‘zlariga berilgan topshiriqni yechimini umumiy guruh oldida taqdimot qiladi.
4. Har bir guruh topshirig‘i bo‘yicha faoliyat natijalari yakka tartibda va umumiy kichik guruhlardao‘z-o‘zini baholash metodi yordamida baholanadi.

Loyihalash metodi yordamida talabalar mexanizmlar dinamikasida - kuchlar ta’siridagi mexanizmlar harakatiga doir qator masalalar o‘rganiladi. Ya’ni, mexanizmlar bo‘g‘inlariga ta’sir etadigan kuchlarni to‘g‘ri taqsimlash hisobiga, mashinalar uchun dolzarb bo‘lgan maqbul ish rejimlarini, energiya va resurstejamkorlikni ta’minlash, yuqori ish unumdorlikka erishish malakasiga ega bo‘ladi [4, 72].

Ushbu metoddan foydalanib, dars mashg‘ulotlarini tashkil etish natijasida talabalarda tishli uzatmalarni kinematikasi va geometriyasi, ularni hisoblash va konstruksiyasiini yaratish ko‘nikmalari hosil bo‘ladi va ularni kasbiy faoliyatning loyihalash-konstruktorlik hamda ilmiy tadqiqot faoliyati kompetentligini rivojlantirishga erishamiz. Bundan tashqari talabalar ushbu mavzuni o‘zlashtirish orqali mazkur fandan berilgan kurs loyihasini bajarishda ham boshlang‘ichasosiy tushunchalargaega bo‘ladi. Mashina detallari fanidan kurs loyihasi bajarish talabalarda ilmiy tadqiqot faoliyatiga bo‘lgan qobiliyatlarini takomillashishiga olib keladi.

Tahlil va natijalar. Mexanizmlar dinamikasida quyidagi masalalar aniqlanadi [6]:

1.Mexanizm va mashina кkinematik juftlarning reaksiya kuchlarini inersiya kuchlari hisobga olinganicha aniqlash.Bu esa dinamikaning kinematika qismi deb ataladi.

2.Mashina ва мexanizmlarga berilgan energiyaning tarqalish qonuni, ya’ni ularning foydali ish koeffisientlarini energetik balans orqali topish.

3. Mashina ва мexanizmlardagi ba’zi bir zvenolarning yoki ularning nuqtalarining kuchlar ta’siridagi harakat qonunlarini aniqlash.

4. Mashina ва мexanizmlar harakatini bir xilda bo‘lishini ta’minlash.

5. Mashina ва мexanizmlardagi zveno massalarini muvozanatlash.

Mexanizmga yoki mashinaga ta’sir qilayotgan barcha kuchlarni beshta gruppaga bo‘lib o‘rganish maqsatga muvofiqdir.

1. Mexanizm yoki mashinani harakatga keltiruvchi kuchlar.

2. Mashinaga ta’sir qiladigan foydali qarshilik kuchlari.

3. Mashinani harakati davrida paydo bo‘ladigan zararli qarshilik kuchlari.

4.Mashina zvenolarining og‘irlik kuchlari.

5. Mashina zvenolarining egri chiziqli va o‘zgaruvchan tezlikdagi harakatlari davridagi inersiya kuchlari va inersiya momentlari.

Harakatlantiruvchi kuchlar. Harakatlantiruvchi kuchlarning yo‘nalishi harakat yo‘nalishi bilan bir hil bo‘lib, ular harakat yo‘nalishi bilan o‘tkir burchak hosil qiladi, ya’ni $0^0 \leq (\mathrm{P_x}\ \nu) < 90^o$

Shu sababli, ularni elementar bajargan ishlari doimo musbat bo‘ladi, ya’ni

$$\mathrm{dA} = \mathrm{P_x dScos(P}\,\nu\,)$$

Foydali qarshilik kuchlar. Bu hamma vaqt harakatga teskari yo‘nalgan bo‘lib, ular harakat yo‘nalishi bilan o‘tmas burchak hosil qiladi, ya’ni

$$90^O < (P_f\ \ V) \leq 180^o$$

SHu sababli, ularni elementar bajargan ishlari doimo manfiy bo‘ladi, ya’ni

$$\mathrm{dA} = \mathrm{P_f dScos(P_f}\,\nu\ )$$


Zararli qarshilik kuchlar. Mexanizmning kinematik juftlarida va tashqi muxit qarshiligi hisobiga hosil bo‘ladigan ishqalanish kuchlaridir. Ishqalanish kuchlari ham asosan manfiy ish bajaradi, lekin hozirgi kunda to‘xtatkich (tormoz)tizimlarida ulardan samarali foydalanilmoqda.

Og‘irlik kuchi. Og‘irlik kuchlari mashinaning harakati vaqtida harakatlantiruvchi kuch yoki zararli kuch bo‘lishi mumkin. Ya’ni, biror-bir yukni h masofaga ko‘tarishda zararli, tushirishda esa harakatlantiruvchi kuch bo‘ladi.

Shuning uchun, uning bajargan ishi quyidagicha $A = \pm P_O\ h$

Inertsiya kuchi. Mashina va mexanizmarning bo‘g‘inlarini egri chiziqli yoki o‘zgaruvchan harakatlari vaqtida inertsiya kuchi paydo bo‘ladi. Inertsiya kuchi haqida aniqroq ma’lumotga ega bo‘lish maqsadida, quyidagicha soddaroq misolni ko‘rib chiqamiz.

Tik o‘q atrofida aylanayotgan G simon jismning A uchiga ingichka ip orqali B metall sharcha osilgan (1-rasm). Agar G simon shakldagi jism tinch holatda bo‘lsa, B sharcha osilgan ip tik holatda, ya’ni u o‘qqa parallel bo‘ladi (ipni tik holati 1-rasmda uziq chiziqlar bilan ko‘rsatilgan) va sharning og‘irlik kuchi ipning taranglik kuchi bilan muvozanatlashgan. Endi G simon shakldagi jismning u o‘qi atrofida ω burchak tezlik bilan aylanma harakatga keltiraylik.




1-rasm

Agar B sharchani o‘zgarmas ω burchak tezlik bilan aylanma harakat qilmoqda deb qaralsa, u holda faqat markazga intilma tezlanish bilan harakatlanadi, ya’ni $a_n = \omega^2 R$

Bunda ω-sharchaning aylanma harakatdagi o‘zgarmas burchak tezligi, 1/s; Rsharchaning aylanish radiusi, m. 2-rasm. Demak, B sharchaga markazga intilma kuch ta’sir etadi va u quyidagiga teng (1.2-rasm): $F = m\omega^2 R$

2-rasm

Bunda m-sharcha massasi, kg.



Bunda tashqari, ushbu kuch ipning taranglik kuchi Rt bilan B sharchaning og‘irlik kuchi P_o ning teng ta’sir etuvchisidir, ya’ni $P = P_m + P_o$


Inertsiya kuchi son jihatdan markazga intilma kuchga teng bo‘lib, yo‘nalishi jihatdan unga qarama-qarshi bo‘ladi, ya’ni

$$F = -m\omega^2 R = -ma_n$$

Demak, aylanma harakatdagi bo‘g‘inga tegishli bo‘lgan barcha nuqtalar noinertsialdir. Inertsiya kuchini mexanizmlarning ayrim bo‘g‘inlarida ko‘rib chiqamiz. Mexanizm harakati vaqtida bo‘g‘inlarida paydo bo‘ladigan inertsiya kuchlari ko‘rilayotgan harakatning xususiyatiga bog‘liq. Kinematik nuqtai nazardan harkatlarning uch turga bo‘lingan edi, ya’ni ilgarilanma, aylanma va murakkab tekis parallel.

Ilgarilanma harakat qiladigan bo‘g‘inlardagi inertsiya kuchlari. 3,*a*- rasmda keltirilgan ikki krivoshipli mexanizmni ko‘rib chiqamiz. Umumiy holda, egri chiziqli ilgarilanma harakat tekis ilgarilanma harakatning hususiy holi sanalib 2, unda bo‘g‘inning og‘irlik markazi qandaydir egri chiziqli egri chiziq bo‘ylab ko‘chadi (3, *b*-rasm) .

SHuning uchun, elementar inertsiya kuchlari ham o‘zaro bir-biriga parallel bo‘lib, bo‘g‘inning inertsiya kuchi og‘irlik markazi *S* dan o‘tadi va u quyidagiga teng $P_i = -ma_s$




a) b)

3-rasm

Aylanma va murakkab tekis parallel harakat qiladigan bo‘g‘inlardagi inertsiya kuchlari hamda momentlari. 4-rasmda keltirilgan krivoship-koromisloli mexanizmni ko‘rib chiqamiz.

Krivoshipning inertsiya kuchini aniqlash. O1A krivoship *O1* atrofida o‘zgarmas *ω1* burchak tezlik bilan aylanma harakat qiladi. *O1A* bo‘g‘inda juda ko‘p nuqtalar bo‘lganligi sababli, biror-bir massani ajratib olmiz. Bunday massalar ham bo‘g‘inda juda ko‘p. Kinematikadan ma’lumki, aylanma harakat qilayotgan bo‘g‘ining



burchak tezligi shu bo‘g‘inga tegishli ekanligini inobatga olsak, ajratib olingan massa *O1* nuqta atrofida *ω1* burchak tezlik bilan aylanma harakat qiladi deb qarash mumkin (4-rasm).

4-rasm

Bu yerda, $\omega_1 = \text{const}$ va $\varepsilon_1 = \frac{d\omega_1}{dt}$ =0 bo‘lganli uchun, dm_1 massaning aylanish vaqtida quyidagi inertsiya kuchlari paydo bo‘ladi:

$$dP_{i1}^{n} = -a_{n1}dm_1 \quad \text{va} \quad dP_{i1}^{t} = 0$$

bunda dP_{u1}^{n}- dm_1 massaning normal inertsiya kuchi bo‘lib, normal tezlanishga qarama-qarshi yo‘nalgan, dP_{u1}^{t} - dm_1 massaning urinma inertsiya kuchi bo‘lib, u nolga teng, chunki, dm_1 –massa urinma tezlanishga ega emas. Krivoship massasi butun hajm bo‘yicha bir xilda taqsimlangan deb qaralsa, u holda normal inertsi kuchi quyidagicha bo‘ladi: $P_{U1}^{N} = -m_1 a_{n1}$

Demak, talabalarni keng fikrlashga olib keladigan ko‘sh usulli yechimgaega bo‘lgan masalalarni tanlash va ularni yeshib ko‘rsatishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O‘qituvchi tomonidan o‘zi dars mashg‘ulotlarini olib borayotgan fanining har bir mavzusi, har bir dars mashg‘uloti bo‘yicha tuzilgan yuqoridagi kabi texnologik xaritasi unga, fanni yagona holda tasavvur etib yondashishga,tushunishiga, maqsadidan tortib,erishiladigan natijasini ko‘raolishigacha yordam beradi. Ayniqsa, texnologik xaritani talabaning imkoniyati,ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuzilishi uni shaxs sifatida ta’limning markazigaolib keladi. Bu esao‘qishning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi.

Xulosa va takliflar. O‘qitish jarayonida talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar xamda zamonaviy metodlarni qo‘llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashishi, mas’uliyatini sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish,tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o‘qishga, fanga va o‘zi tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Talabalar mexanizmlar dinamikasi ham harakatni o‘rganar ekan, mashinalar mexanizmlardan tuzilganligi, mashinalarning harakati ikki turga bo‘linishi, ya’ni barqarorlashmagan va barqarorligi bo‘yicha nazariy va amaliy bilim ko‘nikmalar pedagogik texnologiyalar metodlaridan foydalanib shakllantiriladi. Talabalarni kasbiy

faoliyatning ishlab chiqarish va sozlash, loyihaviy-konstruktorlik, foydalanish va servis xizmati ko‘rsatish va ilmiy-tadqiqot turlariga tayyorlash metodikasi rivojlantirilishiga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Tojiboyeva D. Maxsus fanlarini o‘qitish metodikasi. Darslik. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018. -432 b.
2. Jumayev M. Mutaxassislik fanlarini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma.–T.: “Innovasiya-Ziyo”, 2021. -228 b.
3. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti. 2006, -160 b.
4. Olimov Q.T., Abduquddusov O., Uzoqova L.P., Axmedjonov M., Jalolova Darslik. Kasb ta`limi uslubiyati. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2006. -232 b.
5. Salomovna, O. N., Allanazarovich, A. N., & Serabovich, T. S. (2021). Interaction of Materials Resistance Science With Other General-Military Disciplines In Engineering Specialties. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, *25*(6), 2250-2257.
6. Eshev, S. S., Nurova, O. S., & Rakhimov, A. R. (2019). Investigation of sediment transport in watercourses taking into account the effects of wind waves. *Евразийский союз ученых*, (5-1), 12-15.
7. Djumayevich, S. M., Abdukarimovich, M. O., Mustafayevich, M. E., Rustamovich, N. J., & Salomovna, N. O. (2021). Innovative Educational Technologies In Teaching Theoretical Mechanics In Technical Areas Of Higher Educational Institutions. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, *12*(10).

TALABALARNING ELEKTROTEXNIKAGA DOIR AMALIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA “KUBIK” METODIDAN FOYDALANISH

Olimjon Otamirzaev,
Namangan davlat texnika universiteti, dotsent
Dilnoza Zokirova,
Namangan davlat texnika universiteti dotsent

Annotatsiya

Maqolada amerikalik pedagog va psixolog Bendjamin Blum tomonidan tavsiya etilgan “Blum kubigi” to‘g‘risida ma’lumotlar, undan foydalanishning afzalliklari va ushbu metoddan foydalanilganda vujudga keladigan muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari o‘rganilgan. Oliy ta’limda “Nazariy elektrotexnika” fanidan “Uch fazali zanjirlar” mavzusidagi amaliy mashg‘ulotda “Kubik” metodini qo‘llash orqali talabalarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘lar: *Blum kubigi, “Kubik” metodi, tasvirlang, taqqoslang, izohlang, tahlil qiling, liniya kuchlanishi, faza kuchlanishi, liniya toki, faza toki.*

Аннотация

В статье рассматривается основные преимущества при использования «Кубик Блума», рекомендованный американским педагогом и психологом Бенджамином Блумом, а также проблемы, возникающие при использовании этого метода, пути их преодоления. Дано рекомендации по развитию практических компетенций студентов путем использования метода «Кубик» на практических занятиях по теме «Трехфазные цепи» по предмету «Теоретическая электротехника» в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: *Кубик Блума, метод Кубик, описывать, сравнивать, объяснять, анализировать, линейное напряжение, фазное напряжение, линейный ток, фазный ток.*

Abstract

The article discusses the main advantages of using the “Bloom's Cube”, recommended by the American educator and psychologist Benjamin Bloom, as well as the problems that arise when using this method, and ways to

overcome them. Recommendations are given for the development of practical competencies of students by using the “Cube” method in practical classes on the topic “Three-phase circuits” in the subject “Theoretical Electrical Engineering” in higher educational institutions.

Keywords: *Bloom's Cube, Cube method, describe, compare, explain, analyze, line voltage, phase voltage, line current, phase current.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni oldiga qo‘ygan yuksak vazifalardan biri ichki va tashqi mehnat bozori talablariga mos, yetuk, har tomonlama raqobatbardosh, o‘z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga xam ijodiy xam amaliy yonadashadigan mutaxassis tayyorlashdan iborat [1].

Dunyoda ta’lim tizimida yaxlit barqaror taraqqiyotni ta’minlovchi mohiyatan yangi didaktik paradigma negizida bilim olish zamonaviy tendensiyalariga mos, raqobatbardosh kadrlarga bo‘lgan talabni tobora oshib borishiga olib keldi. Ta’lim jarayonini tashkil etish va ta’lim sifatini ta’minlash tizimining eng muhim elementi hisoblangan professor-o‘qituvchilar kompetentligini yuksaltirish, doimiy va izchil ravishda oshirib borish muammosi alohida dolzarblik kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniya, Xitoy, Janubiy Koreya mamlakatlarida innovatsion strategiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etish asosida talabalarning bilim olishini faollashtirish, ularni intellektual rivojlantirish, tayanch va fanga oid maxsus kompetensiyalarni shakllantirishda yangi g‘oyalarni topish va amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha olib borayotgan ishlari ko‘zga tashlanmoqda.

Respublikamizda ham barcha sohalarda islohotlar amalga oshirilmoqda, jumladan barcha OTM larning o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimi joriy etilishi Oliy ta’lim tizimidagi islohatlardan hisoblanadi.

Kredit-modul tizimida 1 kredit o‘rtacha 25 — 30 akademik soatlik o‘quv yuklamasiga teng. Ya’ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to‘plashi uchun ma’lum miqdordagi o‘quv yuklamasini o‘zlashtirishi zarur. O‘quv yuklamasi bakalavriatda — 40 — 50% auditoriya soati, 50 — 60% mustaqil ish soatiga bo‘linadi. Bundan shu narsa ko‘rinadiki talabalar o‘quv materialini 50 — 60% ni mustaqil ravishda o‘zlashtirishlari kerak bo‘ladi.

Hammamizga ma’lumki, oliy ta’lim muassasalarida talabalarni fanlarni chuqur o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari va mustaqil ishlash ko‘nikmalari o‘quv markazlarida o‘qiyotgan tinglovchilarga nisbatan anchagina past.

Oliy ta’lim tizimida talabalarni elektrotexnikaga doir amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishning samaraliroq va uncha ko‘p vaqt talab etmaydigan usuli bu talabalarni mustaqil izlanish va o‘rganishga undashdir. Bunda interfaol metodlardan foydalanish yaxshi samara beradi. “Keys-stadi”, “Kubik”, “Bumerang”, “Domino”, “Klaster” va boshqa shunga o‘xshash interfaol metodlar talabalarni ijodiy qobiliyatini o‘stirishga, o‘zaro hamkorlikda ishlashga, mustaqil fikrlashlarini rivojlanishiga olib keladi [2].

Amerikalik pedagog va psixolog Bendjamin Blum juda ko‘p o‘qitish metodlarining muallifi hisoblanadi, jumladan Kubik metodini ham, uning bu metodi “Blum kubigi” (Kubik Bluma) deb ataladi.

Kubik metodi - talabalarda ma'lumotlarni tahlil qilish va tuzish, o‘z fikrini shakllantirish va ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi. Ushbu usuldan o‘rganilayotgan materialni o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun uni birlashtirish yoki umumlashtirishda samarali foydalanish mumkin.

Kubik metodi - xotira va fikrlashni rivojlantirishning samarali usuli bo‘lib, o‘rganishni qiziqarli o‘yinga aylantiradi. Usulning ta’lim jarayonida tizimli qo‘llanilishi o‘quvchilarga ma’lumotni yaxshi eslab qolish imkonini beradi va ularni yangi bilim olishga undaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Kubik metodidan foydalanishning asosiy maqsadi talabalarda olingan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash qobiliyatini oshirishdir. Bu metod yordamida talabalar bilim olishga tayangan holda masalani mustaqil yechishni o`rganadilar, mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradilar.

O‘quv jarayonida Kubik metodidan foydalanishning asosiy afzalliklari:

- axborotni shakllantirish qobiliyatini rivojlantiradi;
- sabab-oqibat munosabatlarini izlashga undaydi;
- ob'ekt yoki hodisani turli tomonlardan ko‘rib chiqishga imkon beradi;
- tasavvur va ijodiy fikrlashni jalb qilish imkonini beradi;

➢ strategik fikrlashni rivojlantiradi.

Kubik - bu oddiy kortondan yasalgan kub bo‘lib, uning yon tomonlarida ma'lum savollar yozilgan: tasvirlang, taqqoslang, izohlang, tahlil qiling, qo‘llang va asoslang. Bular talabaga to‘g‘ri javobni shakllantirish uchun harakat qilish imkonini beruvchi asosiy iboralardir.

Amerikalik pedagog va psixolog Bendjamin Blum tavsiyasiga binoan “Kubik”ning olti tomonidagi ko‘rsatmalar quyidagi ma’nolarni anglatishi kerak:

➢ 1-tamon: Tasvirlang! Predmetni diqqat bilan ko‘zdan kechirib, uning nimaligini tasvirlab bering! Tasvirlash jarayonida predmetning shakli va tuzilishini aniq yoritishga e’tibor qarating!

➢ 2-tamon: Taqqoslang! Taqqoslash asosida predmetning nimaga o‘xshashi, nimadan keskin farqlanishini ayting!

➢ 3-tamon: Izohlang! Predmetning bunday tuzilma, hajm, shakl va rangga egaligining sabablarini tushuntiring! Predmet Sizni nimalar haqida o‘ylashga majbur etayapti? Xayollaringizga erk bering! (Tasvirlangan predmetlar bir-birlariga o‘xshashi, bir-biridan keskin farqlanishi mumkin).

➢ 4-tamon: Tahlil qiling! Predmetning yasalish (yaratilish) jarayoni qanday? (Predmetning yasalishini bilishingiz shart emas, buni o‘ylab toping!).

➢ 5-tamon: Qo‘llang! Predmetdan Siz hayotiy jarayonlarda foydalana olasizmi? Undan qanday foydalanish mumkin?

➢ 6-tamon: Asoslang! Predmetning amaliy qiymatini belgilovchi fikrlaringizni asoslang! Bu jarayonda ishonchli dalilllar topishga harakat qiling [3].

Tahlil va natijalar. Kubik metodini bunday qo‘llash maktab o‘quvchilari uchun yaxshi samara beradi, lekin Oliy ta’lim tizimida bu metodga boshqacharoq yondoshish kerak bo‘ladi.

Bu metod talabalarni muayyan mavzuni olti tomondan turlicha yondashib, muhokama qilishga undaydi. Bu harakat mavzuni tushinishni va muammoni yechimini topishni tezlashtiradi.

Oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o‘qitishda ham “Kubik” metodini qo‘llash yaxshi samara beradi. Bunda kubikning tamonlaridagi savollarni o‘zgartirish mumkin. 60710600–Elektr energetikasi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha taxsil olayotgan talabalarga “Nazariy elektrotexnika” fanidan “Uch fazali zanjirlar” mavzusidagi amaliy mashg‘ulotda “Kubik” metodini qo‘llash bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltiramiz.

Bunda o‘qituvchi kubikning tomonlariga birdan oltigacha bo‘lgan raqamlarni yozib chiqadi va mavzuga doir 100 dan ortiq test savollarini tuzadi. Masalan:

1. Uch fazali EYuK qaysi qurilma yordamida hosil qilinadi.

A) uch fazali asinxron dvigatelda. B) sinxron dvigatelda.

C) *uch fazali sinxron generatorda. D) uch fazali transformatorda.

2. Uch fazali zanjirlarda har bir faza EYuK lari chastota va amplitudalari bir xil bo‘lib, faza jihatidan bir-biridan qanday burchakka farq qiladi?

A) 90 B) *120 C) 180 D) 360

3. Istalgan ikkita liniya simi orasidagi kuchlanish nima deb ataladi?

A) *liniya kuchlanishi. B) faza kuchlanishi.

C) manba kuchlanishi. D) kuchlanishlar tushuvi.

4. Liniya simlaridan o‘tayotgan toklar nima deb ataladi?

A) *liniya toklari. B) faza toklari.

C) uyurma toklar. D) o‘zgarmas toklar.

5. Iste’molchining faza qarshiliklaridan o‘tayotgan toklar nima deb ataladi?

A) liniya toklari. B) uyurma toklar.

C) o‘zgarmas toklar. D) *faza toklari.

6. Ixtiyoriy liniya simi bilan nolinchi sim orasidagi kuchlanish nima deb ataladi?

A) *faza kuchlanishi. B) liniya kuchlanishi.

C) manba kuchlanishi. D) kuchlanishlar tushuvi.

Yuqoridagiga o‘hshash test savollari qancha ko‘p bo‘lsa shuncha yaxshi bo‘ladi, chunki “Kubik”ni bir tamoni bir necha marotaba to‘g‘ri kelishi mumkin. Agar “Kubik”ni bir tamonidagi test savoliga javob berilgandan so‘ng, o‘qituvchi o‘sha test savolini yangi savol bilan almashtirib qo‘yadi.

O‘qituvchi talabalarni 2 yoki 3ta kichik guruhga bo‘ladi, bu kichik guruhlardagi talabalar soni 10 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yuqoridagi mavzuga doir 6 ta test savollarini stol ustidagi 1 dan 6 gacha sonlar ustiga qo‘yib chiqadi, boshqa zaxiradagi test savollarini aloxida joyga olib qo‘yadi.

O‘qituvchi 1- kichik guruhdan bir talabani stol yoniga taklif qiladi va “Kubik”ni talabaga beradi. Talaba kubikning qaysi tomoni tushsa, shu tomonga mos keluvchi test savolini ovoz chiqarmay o‘qiydi va o‘zi javob variantini aytadi. Javob qabul qilingandan so‘ng esa o‘qituvchi savolni o‘zi talabalarga o‘qib beradi va javob to‘g‘ri bo‘lsa, talaba “Kubik”ni yana tashlaydi va savolga javob beradi. Bu jarayon talaba xato qilguncha 10 martagacha davom etadi. Bunda xar bir to‘g‘ri javob uchun 10 baldan beriladi. Bunda har bir kichik guruhdan sardorlar tayinlanadi, savollarga kim javob berishini sardor belgilaydi. Savollarga javob olingan taqdirda, o‘qituvchi bu savolni yangi savol bilan almashtirib qo‘yadi [4].

So‘ngra keyingi kichik guruhdan bir talaba “Kubik”ni tashlaydi va savolga javob beradi. Shunday qilib yuqoridagi jarayon yana takrorlanadi. Dars oxirida xar bir talaba va kichik guruhlar to‘plagan ballar e’lon qilinadi. G‘olib bo‘lgan kichik guruh talabalari hamda eng yuqori ball to‘plagan talabalar e’tirof etilib, ular olqishlanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki amaliy mashg‘ulotlarni Kubik metodini qo‘llab olib borilganda talabalarning mustaqil fikrlashlari rivojlanadi, ma’ruza mashg‘ulotlarida hamda boshqa manbalardan olingan mavzuga doir nazariy bilimlar mustahkamlanadi, darsning sifati va talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada ortadi.

Bu bilan bo‘lajak mutaxassislarning mustaqil o‘quv faoliyatlarini rivojlantirish, o‘quv va ilmiy ishlarning mushtarakligini ta’minlash, talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish, shular asosida yetuk mutaxassis tayyorlash sifatini oshirishga erishish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 2020 yil 23 sentyabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining qonuni. - B.5
2. Otamirzaev O.U., Zokirova D.N. Talabalarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish usullari va samaradorligi. // NamDU ilmiy axborotnomasi. 11-son. 2022 yil. - B. 687-692.
3. Зарыпова М.Ш. «Кубик Блума» — методика критического мышления, применяемая на всех предметах и на любом этапе уроке. // Всероссийский педагогический журнал «Современный урок». №11, 2020 год. С.155-162.
4. Otamirzaev O.U., Zokirova D.N. Amaliy mashg‘ulotlarda “Kubik” metodini qo‘llash orqali talabalarning mustaqil fikrlashlarini shakllantirish. // Energiyadagi perspektivalar va muammolarning zamonaviy yechimlari xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. NamMTI. 28-29-oktabr, 2022 yil. - B. 328-330.

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH TAMOYILLARI

Sevara Xakimova,
Toshkent kimyo-texnologiya instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada integrativ yondashuv asosida talabalarni kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorlashni takomillashtirishning klasterli modeliga asoslangan metodik modeli maqsadli, mazmunli, jarayonli, baholash va natija komponentlari uzviyligida integrativ-modulli o‘qitishning texnologik tuzilmasini ishlab chiqish hamda metodologik yondashuvlar va didaktik tamoyillarni shakllantirish asosida takomillashtirish tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *Interativ yondashuv, kasbiy faoliyat, integratsiya, metodologik yondashuv, didaktik tamoyil, ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dastur, pedagogik mahorat.*

Аннотация

В данной статье предложена методическая модель на основе кластерной модели совершенствования подготовки студентов к профессионально-инновационной деятельности на основе интегративного подхода, разработки технологической структуры интегративно-модульного обучения в связности целенаправленного, содержательного, процесса, Анализируются оценочная и результативная составляющие, а также совершенствование на основе формирования методических подходов и дидактических принципов.

Ключевые слова: *Интерактивный подход, профессиональная деятельность, интеграция, методический подход, дидактический принцип, передовые педагогические технологии, учебная программа, педагогическое мастерство.*

Annotation

This article proposes a methodological model based on a cluster model for improving the preparation of students for professional and innovative activities on the basis of an integrative approach, the development of a technological structure of integrative-modular training in the coherence of a purposeful, meaningful process. The evaluation and effective components are analyzed, as well as improvement based on the formation methodological approaches and didactic principles.

Keywords: *Interactive approach, professional activity, integration, methodological approach, didactic principle, advanced pedagogical technologies, curriculum, pedagogical skills.*

Ta’lim mazmunini yangilashning asosiy birliklaridan biri intekratsiya tushunchasidir. U shaxsning integrativ xususiyatini, boshqacha aytganda, bo‘lajak mutaxassisning shaxsiy sifatlari - bilimi. Ko‘nikmalari, amaliy tajribasi, qobiliyatlari, qadriyat yo‘nalishlarini ifodalaydi. Interativ yondashuv kasbiy faoliyatga tayyorgarligini ta’minlaydi va kuchaytiradi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar jamiyatda o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy rivojlanish yo‘lining tanlab olinishi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi oliy ta’limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi [1].

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasida oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish [2], talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetentsiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish vazifalari ilgari surilgan.

Adabiyotlar tahlili. O‘quv fanlarini integratsiyalashning nazariy asoslari, tamoyillari, integratsiyaga bo‘lgan yondashuv, integratsiya yo‘nalishlari, integrativ dasturlar, integrativ dars, integratsiyalashgan kurs modelini yaratish kabi masalalar o‘z yechimini kutayotgan eng muhim pedagogik muammo hisoblanadi.

Ta’lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni qo‘llash va pedagogik mahoratni takomillashtirish muammolari ustida professor N.N.Azizxodjaeva izlanishlar olib borib, o‘z tadqiqotlarida kasbiy ta’lim tizimida o‘qitish texnologiyalari fundamental va amaliy bilimlarning o‘zlashtirilishini ta’minlashini ta’kidlab o‘tgan [3, 45].

O‘.Q.Tolipov “Oliy pedagogik ta’lim tizimida umummehnat va kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari” mavzusida tadqiqot ishlarini olib borib, talabalarda kasbiy ko‘nikma va malakalarni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni va uni ta’lim jarayoniga qo‘llashning muhim tomonlarini tadqiq qilgan [4, 21].

D.O.Ximmatalievning tadqiqotlarida bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi va pedagogik faoliyatida texnologik yondashuvning o‘ziga xosligi yoritib berilgan [5].

D.N.Zokirovaning ilmiy tadqiqotlarida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining intellektual salohiyatini o‘stirish, izlanish, ijodkorlik, tadbirkorlik, tashkilotchilik malakalarini shakllantirish kabi muammolarning yechimini topish hozirgi davrda muhim vazifalardan ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan [6].

D.N.Zokirovaning tadqiqotlaridada kasbiy pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak muhandis-pedagoglarning umumkasbiy tayyorgarligini immitatsion model qurilmalari vositasida takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslarini yaratishga harakat qilingan [7].

Kasb ta’lim o‘qituvchilarini tizimli yondashuv asosida tayyorlash muammosi D.N.Zokirovaning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan [8].

Tadqiqot metodologiyasi. Integrativ yondashuv didaktik tamoyillar (ilmiylik, politexnizm, kasbiy yo‘nalganlik, muntazamlik, tizimlilik, uzviylik, tushunarlilik, ko‘rsatmalilik, tabaqalashtirish) bilan uyg‘unlik va aloqadorlikda faoliyat yuritadi.

Integrativ yondashuv ko‘p hollarda yuqorida ko‘rsatilgan tamoyillarning biror ma’nodagi bir ko‘rinishida to‘la va aniq amalga oshirishni o‘rganilayotgan ob’ektni yaxlit tizim sifatida tasavvur qilishga imkon beradi.

O‘quv materiali mazmunini integratsiyalash didaktik jarayon sifatida ko‘p o‘lchovli, ko‘pqirrali, tizim sifatidagi o‘rganilayotgan tadqiqot ob’ekti hisoblanadi va uni tahlil qilish tizimli - tuzilmali yondashuvni talab etadi. CHunki uning tarkibi, funktsiyasi, tuzilishi kabi xususiyatlarini o‘rganish ko‘zda tutiladi.

O‘rganish jarayonida dialektik tahlil metodini qo‘llanilishi bilimlarni sababdan oqibatga, oddiydan murakkabga, tasodifdan zarur yoki aks tomonga harakatlanishini talab etadi. SHunday qilib, bir so‘z bilai aytganda tahlilning eng yuqori nuqtasi yaxlit ob’ekt hisoblanadi.

Sintezlash natijasida dialektik tahlilning eng yuqori darajasi vujudga keladi.

Integratsiyalash (birlashtirish, umumlashtirish, yaxlitlash) mohiyatiga ko‘ra sintezning vazifasi bo‘lib, o‘rganilayotgan ob’ektning ichki aloqadorligi, birligi, va munosabatlari kabi tomonlari tiklanadi. SHu yo‘l bilan ob’ektning o‘zgarishi va rivojlanishi haqida tasavvurga ega bo‘lamiz.

Integratsiyalash asosan o‘quv fanlari orasidagi nazariy sintez vositasi sifatida va fanlararo sintez sifatida namoyon bo‘ladi hamda bevosita umumilmiy bilimlarni tarkib topdirishni ko‘zda tutadi.

Integrativ jarayonlar uzluksiz ta’lim jarayonida bir nechta vazifa, yo‘nalish, intilish, turli daraja va aniq shakllarning qandaydir o‘zaro bir-biriga tobe bo‘lgan modelini hisobga oladi.

O‘quv fanlarining mantiqiga muvofiq integratsiya kuyidagilar asosida namoyon bo‘ladi:

- mavjud fanlarning ob’ektlari orqali;
- mavjud fanlarning ob’ektlari mohiyatini izohlovchi qoida qonuniyat hamda nazariyalar orqali;
- tadqiqot uslublari va amaliy faoliyat orqali;
- o‘lchov-hisob tarzidagi aloqalar yordamida;
- ishlab-chiqarish jarayonlari haqidagi ilmiy bilimlar orqali;
- ta’lim va tarbiya vositasi bo‘lgan zamonaviy integrallashgan pedagogik texnologiyalar orqali.

Buning uchun, o‘qituvchi integratsiyalashgan ta’limni amalga oshirishda, birinchi navbatda:

- o‘rganilayotgan jarayon va hodisalar mohiyatini tahlil qilishga umumiy yondashuvni aks ettiradigan maqsadni aniqlab oladi;
- fanlararo aloqalardan foydalanishni yetarli darajada o‘rganishi va amalda qo‘llay olishi;
- o‘qitishni tabaqalashtirish asosida, ularni integratsiyalash uchun predmetlar doirasida o‘rganiladigan o‘quv materiallarining umumiy o‘zaro aloqadorlik jixatlarini bilishi;
- fanlarni integratsiyalash uchun qo‘yiladigan asosiy g‘oyani aniqlash mahoratiga ega bo‘lishi kerak.

Tahlil va natijalar. A.V.Xristeva ta’limoti bo‘yicha kasbiy pedagogik faoliyatni tahlil va o‘z-o‘zini tahlil qilishning bosqichlari:

1. Mazmunli – diagnostik (tayyorlov - moslashuv) bosqich;
2. Maqsadli loyihalashtirish (tahlil va o‘z-o‘zini tahlil qilishdan maqsadni aniqlashtirish) bosqichi;
3. Texnologik (kasbiy pedagogik faoliyatjarayonini va o‘z–o‘zini tahlil qilish) bosqich;
4. Tahlil va o‘z-o‘zini tahlil qilishning nazariy (pedagogik faoliyatning mohiyati, natijalari bilan pedagogik faoliyatjarayoni o‘rtasidagi aloqalarning sabab va oqibatlarini nazariy anglash) bosqichi;
5. Faoliyatni refleksiv baholash (faoliyatni baholash va refleksiv tahlil) bosqichi;

6. Korrektsiyalash (ijodiy bosqich bo‘lib, o‘z pedagogik faoliyatini nazariy jihatdan anglash va baholash asosida takomillashtirish va hamkasblarining samarali pedagogik tajribalaridan ijodiyfoydalanish yo‘llari va usullarini belgilash) bosqichi.

Bugungi innovatsion pedagogik faoliyat tanlash va tadqiqotchilik tavsifiga ega ekanligi bilan ham e’tiborga loyiqdir. SHuning uchun ham pedagogik jamoalar rahbarlari, ilmiy tadqiqot institutlarining metodik xizmatchilari faoliyatining muhim yo‘nalishi o‘qituvchilar tomonidan yaratilayotgan innovatsiyalarning tahlili va baholanishi, ularning samaradorlarini yaratish va qo‘llash uchun zaruriy sharoitlarni yaratishdan iborat.

Talabalarnining kasbiy kompetentligini shakllantirish muammolarini tahlil qilish, shuningdek, kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan kasbiy kompetentlikning alohida komponentlarini (va keyinchalik baholash mezonlarini) aniqlash "kompetentlik" tushunchasining mohiyatini hal qilishni talab qildi. "Kompetentlik" atamasi lotincha “competens” so‘zidan olingan bo‘lib, qobiliyatli degan ma’noni anglatadi: 1) kompetentsiyalarga ega; 2) ma’lum bir sohada bilimdon. SHu bilan birga "kompetentlik" tushunchasi "kompetentsiya" tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqot muammosi bo‘yicha zamonaviy ma’lumotnoma va ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish bizga bir qarashda turli xil va bir xil ma’noda ishlatiladigan "kompetentlik" va "kompetentsiya" kabi o‘xshash ikkita chalkashlikni aniqlashga imkon berdi.

O.M.Mutovkinaga ko‘ra "vakolat"-bu "kompetentsiya" “kompetentlik”dan olingan ikkilamchi tushunchadir va insonning bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini qo‘llash doirasini bildiradi, "kompetentlik" esa ularning ichki umumiyligini aks ettiradi.

E.S.Zair-Bekka ko‘ra:

1. Pedagogning *maqsadli kompetentsiyasi* eng turli xil maqsadlarni qo‘yish qobiliyatini ko‘zda tutadi. Kasbiy o‘qitish maqsadi yoshlarda texnologik madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan, ta’lim jarayoni mazmunini aniqlaydi, shakllangan bilim va qobiliyatlarni baholash mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

2. *Mazmuniy kompetentsiya* kasbiy o‘qitish bosqichlaridan har birida ta’lim, tarbiya va rivojlanish mazmuni maqsadlariga ko‘ra aniqlash qobilyatidan iborat. Ta’lim mazmuni muhimi Davlat ta’lim standarti hisoblangan me’yoriy hujjatlar bilan aniqlanadi.

3. Pedagogning *monitoringli kompetentsiyasi* qayta bog‘liqlik (nazorat muammosi) va real olingan natijalarni rejalashtirilganlar bilan qiyoslash, ya’ni ta’lim sifatini ta’minlashni qo‘llab quvvatlashda pedagog qobiliyatini tavsiflaydi.

4. *Kommunikativ kompetentsiya* pedagog kommunikativ faoliyati xususiyatlari, bo‘lajak kasb ta’limi pedagoglari bilan o‘zarota’siri o‘ziga xosligini tavsiflaydi. Urg‘u didaktik (tarbiyaviy va ta’limiy) maqsadlarga erishishga qaratilgan pedagogik faoliyat samaradorligi bilan kommunikatsiya aloqasiga beriladi. Kommunikativ kompetentsiya yuqori darajadagi muloqotga erishishga yordam beradigan usullarni o‘z ichiga oladi.

5. *Ijtimoiy kompetensiya* metodik tayyorgarlik darajasini oshirish ijtimoiy ahamiyatini anglash, taklif qilingan yangi metodik yondashishlar va ularning qo‘llanilishiga javobgarlikni o‘z zimmasiga olish qobiliyati ko‘rsatkichi, shaxsiy qiziqishlarning aniq bo‘lajak kasb ta’limi, ta’lim muassasasi, jamiyat ehtiyojlari bilan bog‘liqligining namoyon bo‘lishi hisoblanadi.

Kompetentli yondashuvdan foydalanish yuqori darajadagi kasbiy kompetentlik asosiy texnik va texnologik ta’limga, har qanday faoliyat turiga hissiy va qadriyatli munosabatga, kasbiy-innovatsion faoliyatga ega bo‘lishiga asoslanadi.

SHunday qilib, kompetentli yondashuv nuqtai nazaridan metodik modelini ishlab chiqish zarurati talabalarni kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorlash bo‘yicha mavjud amaliyotni tanqidiy qayta ko‘rib chiqish va talabalarning kasbiy faoliyatga tayyorligini aniqlash vazifasini qo‘ydi.

Yuqorida keltirilgan pedagogik qadriyatlar ijtimoiy va kasbiy komponentlarni o‘z ichiga oladigan, predmetli mazmuniga ko‘ra farq qiluvchi shaxsiy va vositali ko‘rinishlarga ajraladi. SHaxsiy qadriyatlar – bu pedagog mehnatining ijodiy tavsifini, nufuzlilik, ijtimoiy ahamiyatlilik, davlat oldidagi mas’uliyat, o‘z-o‘zini namoyon qilish imkoniyati, bolalarga mehr va g‘amxo‘rlikni o‘z ichiga oluvchi maqsadli qadriyatlardir. Bu turga xos qadriyatlar o‘qituvchi, ta’lim oluvchilarning rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Maqsadli qadriyatlar boshqa pedagogik qadriyatlar tizimida hal qiluvchi aksiologik funktsiyalar sifatida namoyon bo‘ladi, chunki uning maqsadida o‘qituvchi faoliyatining asosiy mazmun-mohiyati aks ettirilgan.

Integrativ yondashuv asosida talabalarni kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish uchun ishlab chiqiladigan modelda ishlash tamoyillari aniqlandi. Umumiy tamoyillarga talabalarning kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishga qo‘yiladigan ob’ektiv talablarni aks ettiradiganlar kiradi: *tizimlashtirish, ierarxik, rivojlanish*. *Tizimlashtirish tamoyili* modelning barcha komponentlarining o‘zaro bog‘liqliklari birligida ko‘rib chiqishga imkon beradi. *Ierarxiya tamoyili* quyi darajadagi elementlarning yuqori darajadagi elementlarga bo‘ysunishiga asoslangan model elementlarini tashkil qilishni ta’minlaydi. *Rivojlanish tamoyili* o‘quvchi shaxsi xususiyatlarining sifat jihatdan o‘zgarishini nazarda tutadi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda kasbiy-innovatsion faoliyatni samaradorligiga ko‘plab omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bular, o‘qitilayotgan fan bo‘yicha nazariy bilimlarni o‘zlashtirish; mustaqil faoliyat davomida talaba qaysi muammolarni o‘rganshi kerakligi aniq ko‘rsatilishi; tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati; talaba tomonidan muammoni qaysi metodlar bilan o‘rganishga oid tavsiyalar; baholash turi va mezonlari aniq ko‘rsatilishi kerak. Erishilgan natijalar (tamoyillar) talabalarni kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorlashning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishga keng imkoniyatlar yaratadi degan mulohazadamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi” 8.10.2019 yil, PF-5847.

2. Зокирова Д.Н. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorlashning metodik modeli. //Ta’lim, fan va innovatsiya. Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal. 2-son, 2023-yil.-590-593 bet.

3. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. Дарслик–Т.: Молия, 2003. – 192 б.

4. Толипов Ў.Қ. Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. Ўқув қўлланма. Т.:”Фан”. 2006.-76 б.

5. Химматалиев Д.О. Бўлажак ўқитувчиларда касбий компетентликни ривожлантириш механизми // Современное образование (Узбекистан). 2020. №7 (92).

6. Зокирова, Д. Н. (2021). Integration Of Professional And Educational Disciplines Into Training Of Self-Learning Motivated Students. *Современное образование (Узбекистан)*, (6), 24-28.

7. Zokirova, D. N. (2021). Goals And Objectives Of Organizing Independent Work Of Students. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, *3*(01), 179-182.

8. Nematillaevna, Z. D. (2023). INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH TAMOYILLARI. *Science and innovation*, *2*(Special Issue 14), 502-509.

O‘QUVCHILARNING TAYANCH VA FANGA OID KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA ELEKTRON TA’LIM RESURSLARINING O‘RNI.

Sherjaxon Abdufatayev,
Guliston davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada, Ta’lim jarayonida elektron ta’lim resurslaridan foydalanishning ahamiyati haqidagi qarashlar, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda elektron ta’lim resurslarining o‘rni va ahamiyati, elektron ta’lim resurslariga qo‘yiladigan talablar, va ularning tahlili yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *axborot-kommunikasiya texnologiyalari, mediata’lim resurslari, verbal, vizual va audiovisual, mediakompetentlik, kreativ dunyoqarash.*

Аннотация

В статье рассматриваются взгляды на важность использования электронных образовательных ресурсов в образовательном процессе, роль и значение электронных образовательных ресурсов в

формировании базовых и предметных компетенций учащихся общеобразовательных школ, а также роль электронных образовательных ресурсов в развитие базовых и предметно-ориентированных компетенций студентов. требования и их анализ выделены

Ключевые слова: *информационно-коммуникационные технологии, медиаобразовательные ресурсы, вербальные, визуальные и аудиовизуальные медиакомпетентности, творческое мировоззрение.*

Abstract

The article examines the views on the importance of using electronic educational resources in the educational process, the role and significance of electronic educational resources in the formation of basic and subject-oriented competencies of students in comprehensive schools, as well as the role of electronic educational resources in the development of basic and subject-oriented competencies of students. The requirements and their analysis are highlighted.

Keywords: *information and communication technologies, media-creative resources, verbal, visual and audiovisual media competence, creative worldview.*

Yoshlarimizni zamon talabiga mos yuksak intellektual salohiyatli, zamonaviy bilim va malakaga ega, yangicha mustaqil fikrli va dunyoqarashi keng bo‘lgan kadrlar tayyorlash uchun ulkan imkoniyatlar yaratilgan. Bu borada ta’lim jarayonida axborot-kommunikasiya texnologiyalari hamda mediata’lim resurslardan foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlari amalga oshirilmoqda. Lekin hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida media resurslardan foydalanishda axborot madaniyatiga rioya qilinmayotgani, o‘qitishning ta’limiy - tarbiyaviy nomutanosiblikni namoyon qiladi. Misol tariqasida, o‘rganilayotgan va tashqi muhitdan kirib kelayotgan axborotlarning bir-biriga mos tushmasligi kabilar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology) 1982 yilda qabul qilingan YUNESKO deklarasiyasida quydagi fikirlar bayon etilgan quydagi fikr “bolalar va kattalar uch (verbal, vizual va audiovizual)” ham media savodxonlikka ega bo‘lishi shart ekani ta’kidlanganini, bu jarayonda uch omustun (triada) bir - birini o‘yg‘unlashtirib olib borishiga, mediata’lim orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkinligi ravshanlashadi.

Ta’lim jarayoniga elektron ta’lim resurslarini integratsiyalash ahamiyatini xalqaro tashkilotlar va Jahon Banki ekspertlari o‘z izlanishlarida asoslab berishgan. Bulardan, S.Ugren (Shvetsiya olimi) zamonaviy o‘quv jarayonining ajralmas qismi mediata’lim va uning yordamida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati sezilarli darajada rivojlanishini ta'kidlaydi [6.633b].

Oliy ta’lim muassasalarida mediata’lim muammolari va talabalarning mediakompetentligini rivojlantirish sohasida A.V. Feodorov keng qamrovli izlanish olib brogan [1;34]. Bugungi kunda texnologiya fanini o‘qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Maxsus fanlardan o‘quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning nazariy-uslubiy asoslari, Innovatsion yondashuv asosida o‘quvchilarda texnologik kompetensiyalarni rivojlantirish, integrativ texnologiyalardan foydalanish kabi mavzular yuzasidan olimlar tomonidan salmoqli ishlar olib borilgan. Shu jumladan, internet, elektron aloqa vositalari, sun’iy yo‘ldoshlar, ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi axborotlashtirish muhitini bilimlar ko‘lamini o‘zlashtirishni dalzarblashtirmoqda.

Elektron pochta, kompyuter, «uyali» telefon, faks, kabel tv, parabolik antenna va shu kabi texnik qurilmalar axborot vositalari rivojlanishiga sezilarli ta’sir etmoqda. Ta’lim jarayonida media, ya’ni, internet, televideniye, radio, kino, video, telefon va boshqa aloqa vositalari o‘z samarasini ko‘rsatmoqda [3;27].

E-learning (ing. *E-learning* , inglizcha qisqartma . *Elektronic Learning*) — axborot — kommunikasion texnalogiyalardan foydalanib elektron ta’lim tizimini tashkil qilib, bunda „Aqilli auditoriya“dan foydalanish ko‘zda tutiladi. Elektron ta’lim elektron darsliklar, ta’lim xizmatlari va texnologiyalarini o‘z ichiga oladi. Darhaqiqat, elektron ta’lim ta’limda kompyuterlardan foydalanish bilan boshlangan. Dastlab, kompyuter yordamida o‘qitish an’anaviy keyin esa klassik amaliy mashg‘ulotlar bilan almashilindi.

Elektron ta’lim quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- shaxsiy kompyuter , televizor, DVD pleer, mobil telefon, va boshqa elektron materiallardan foydalangan holda elektron materiallar bilan mustaqil ishlash;
- masofaviy (hududiy) ekspertdan (o‘qituvchidan) maslahat, maslahat, baho olish, masofaviy o‘zaro aloqa qilish imkoniyati;

- umumiy virtual o‘quv faoliyatiga rahbarlik qiluvchi foydalanuvchilar (ijtimoiy tarmoqlar) taqsimlangan hamjamiyatini yaratish;
- elektron o‘quv materiallarini o‘z vaqtida kechayu kunduz yetkazib berish;elektron o‘quv materiallari va texnologiyalari, masofaviy o‘qitish vositalari uchun standartlar va texnik shartlar;
- guruh tarkibidagi barcha korxona va bo‘linma rahbarlari o‘rtasida axborot madaniyatini shakllantirish va takomillashtirish hamda ularning zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashi, ularning oddiy faoliyati samaradorligini oshirish;
- innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ommalashtirish, ularni o‘qituvchilarga o‘tkazish;
- ta’lim veb-resurslarini ishlab chiqish qobiliyati;
- istalgan vaqtda va istalgan joyda dunyoning istalgan nuqtasida joylashgan zamonaviy bilimlarni olish imkoniyati;
- psixofizik rivojlanishning alohida ehtiyojlari bo‘lgan shaxslar uchun oliy ma’lumot olish imkoniyati.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review) Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha ishlab chiqilayotgan elektron darslik va resurslarga qo‘yiladigan metodik talablarning asosiy mazmuni, mohiyati va mundarijasi quyidagicha belgilanishi talab etiladi.

Metodik talablar: ta’lim tizimida bilimni o‘zlashtiruvchi, rivojlantiruvchi o‘qituvchi va o‘quvchilar vazifalarining yaxlitligi, o‘qish jarayonida o‘quvchining faol va ongli ishtiroki, o‘zlashtirishning osonligi, ilmiylik, muammoni qo‘yish hamda asosli tarzda bilim olish, bilim olishning izchil - tizimli va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirilishini ta’minlanishi, o‘qitishning interaktivligi, o‘quv bilish faoliyatiga kompetenisyaviy yondashuv o‘quvchi uchun o‘qishning mustaqil holda bo‘lishni ta’minlanishi, uning uyg‘unligini ta’minlash va boshqalar kiradi.

Fan mazmunidagi bilimlarni o‘zlashtirishda axborotning faqat mazmuninigina emas, balki ma’lumotning o‘lchami, rangi va tasvirning harakati harflarning ko‘rinishlari kabi omillar ham yetarli darajada o‘ringa ega. Shundan kelib chiqgan holatda elektron resursning matni o‘zining hossa - xususiyatlariga ega bo‘lishi lozim bo‘ladi.

Ta’lim oluvchilarning axborotlarni qabul qilishiga elektron ta’lim resursidagi o‘ziga xos talablar, rangini ajratib ko‘rsatish, ya’ni o‘chib –yonishi va ovoz, tagiga chizib ko‘rsatish kabilar ta’sir qilishi ko‘zda tutiladi.

Elektron ta’lim resurslari ta’lim jarayonida quydagilarga imkon berishi aniqlandi**:**

o‘quv faning maqsad va vazifalariga mos ravishda tanlanadi hamda har bir jarayonda o‘quvchilarni yangi axborotlarni o‘zlashtirishga hamda bilimlarini bosqichma - bosqich rivojlantirishga imkon beradi;

elektron ta’lim resurslari vositasida o‘quvchilar maktabda, uyda yoki ish faoliyati jarayonida bilimlarni o‘zlashtirish imkonini beradi;

fan mavzularining soddadan murakkabga o‘tish imkoni;

turli fanlararo integratsiyaning mavjudligi, Masalan, chizmachilik va texnologiyani integratsiyalagan holda buyumning texnologik xaritasini tayyorlash;

Ta’lim jarayonida elektron ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatlari o‘quv-bilish faoliyatining sifat va samaradorligiga ijobiy ta’siz ko‘rsatadi. Bu jarayon o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishini ortishiga sabab bo‘ladi, fan mashg‘ulotlarda faol ishtirokini va uzluksiz ravishda bilimlarni egallash uchun imkon beradi.

G. Bauer (Shvetsariyalik olim) ning fikricha, Elektron ta’lim resurslari o‘quvchilarning muammo yechish va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vositadir [6;635].

Tahlil va natijalar (Analysis and results) Elektron ta’lim resurslari o‘quvchilarda har xil ta’lim resurslardan foydalanib, texnologiya fani yuzasidan yangi va dolzarb bilimlar egasi bo‘ladilar. Bu ularga texnologiya fani bo‘yicha dunyoviy yangiliklardan xabardor bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Texnologiya fani mashg‘ulotlarida electron ta’lim resurslarinig qo‘llanilishi texnik ko‘nikmalarni rivojlantirish, zamonaviy o‘quv materiallarini tahlil qilishda muhim sanaladi. Quyidagilar elektron ta’lim resurslarining asosiy vositalari sanaladi:

Interaktiv simulyatorlar va dasturlar- bu vositalar o‘quvchilarga texnologik jarayonlarni virtual

ko‘rinishda o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Misol uchun, SolidWorks, AutoCAD va boshqa dasturlar yordamida o‘quvchilarda muhandislik loyihalarini ishlab chiqish kompetensiyasi shakillanadi.

Videodarsliklar. Fan mavzularni o‘rgatishda audio-video resurslaridan foydalanish axborotlarni yanada tushunarli va sodda bo‘ishini taminlaydi. Natijasida o‘quvchilarda texnologiya fanigaoid bilimlarni mustahkamlash qobiliyati yanada ortadi.

Virtual reallik hamda kengaytirilgan reallik- Ushbu texnologiyalar texnologiya fanini o‘rgatishda yangi imkoniyatlarni yaratadi. Misol uchun, virtual reallik bilan o‘quvchilar xavfli texnologik jarayonlarni xavfsiz muhitda o‘rganishlari mumkin bo‘ladi.

O‘quvchilar elektron ta’lim resurslaridan foydalanishda quyidagilarni bajarishlari lozim boladi:

qidirilayotgan axborotlar tizimidagi manbalarning mavzusi, nomi va darslik mazmuniga mos kelish, ularga berilgan tavsif hamda qo‘shimcha didaktik materiallardan oqilona foydalana olish kompetensiyasiga ega bo‘lishi;

texnologiya fani bo‘yicha olinayotgan axborot, material va manbalarni, darslik mazmuniga integratsiyalasshtirib foydalanishga o‘rgatish;

taqdim etilayotgan (chizma, surat, rasm ko‘rinishidagi) materiallarga ishlov berish kompetensiyasini ega bo‘lishi;

berilgan vizuval elektron axborot resursi materiallarini o‘zlashtirish, ya’ni berilgan ma’lumotlar mazmuni, hajmi va shaklini darslik materiallariga moslashtirish, o‘zgartirish, qisqartirish kabi jarayonlarga ahamiyatli bo‘lish lozim;

olgan bilim ko‘nikmalarini so‘zlab bera olish, (argumentlash) isbotlash orqali kommunikativ kompetentiligi rivojlantirish.

O‘quv bilish faoliyatida ta’lim jarayonini tashkil etishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini mamlakatimizda keng joriy qilish, ta’lim sifati ko‘rsatkichlari bo‘yicha jahon tajribasi darajasiga ko‘tarish, o‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish uchun elektron ta’limni amaliyotga joriy etish zamon talabiga aylanib bormoqda.

Shu sababli Internet tarmog‘idan ta’lim berish sohasida qo‘llanishi axborot texnologiyalaridan foydalanishning barcha imkoniyatlarini to‘liq ochib beradi, sinf-dars tizimida mavjud bo‘lgan kamchiliklar bartaraf qilinadi, o‘qituvchi bilan bo‘lgan shaxsiy munosabatlar tekislanadi [2;7].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations) O‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida avvalo o‘quvchi uchun yangilikni kashf qilish, muammoni tahlil qilish, o‘quvchilarning qiziqishlari hamda amaliy tajribasi bilan bog‘liq bo‘lishi lozim bo‘ladi. Buni amalga oshirish uchun avvalo o‘qituvchi o‘quvchilarni faqat darslikdagi bilim, ko‘nikama va uni mustahkamlovchi nazorat savollari bilan chegaralanib qolmasdan ularga elektron resursda keltirilgan mavzuga doir muammoli topshiriqlarni bajarish, internet resurslari bilan ham ishlash asnosida o‘quvchilarda texnologiya faniga oid tayanch komptensiyalarini rivojlanishiga ahamiyat qaratishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Феодоров А.В.Медиаобразование: творческие задания для студентов и школьников // Инновация в образовании, –Москва. 2006. – С. 175-228

2. Арипов М. и др. Основы Internet.–Т.: Университет, 2002. – С. 194.

3. Тўлқин Эшбек. Медиатаълим янги таълим усули сифатида. http://uchildiz.uz

4. Хуторской А.В. Образовательные компетенции и методология дидактики. К 90-летию со дня рождения В.В. Краевского. Электронный ресурс.

5. Sharipov Sh.S, Aripov M, Begimqulov U.Sh. Bilim olishning intelektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. - T.: Fan, 2011. - B. 72.

6. AKT yordamida biologiyani o‘qitish. Umumta’lim maktablariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish loyihasi. O‘qituvchilar uchun qo‘llanma. -Toshkent. 2010. - B. 7. Шутенко, А.В. Методы проведения учебных занятий с использованием средств информационных и коммуникационных технологий /А.В. Шутенко [Электронный документ].- (htpp://pedsovet.su/publ/ 26-1-0-841). 05.04.2010.

THE ROLE OF ENOLASE ENZYME IN PRETERM BIRTH

Parvina Ikromova,
Assistant of the Department of Obstetrics and Gynecology No.3, Samarkand State Medical University.

Annotation

Given its profound impact on fetal and neonatal health, preterm birth (PTB) continues to be a major concern in contemporary obstetrics and perinatology. Research is still ongoing to find trustworthy biomarkers for the early detection and prevention of PTB, despite advancements in prenatal care.

Important for metabolic and cellular dynamic processes, enolase is an enzyme involved in glycolysis that catalyzes the transformation of 2-phosphoglycerate into phosphoenolpyruvate. Enolase has been linked to a number of physiological and pathological disorders, including pregnancy difficulties, in addition to its basic role in energy metabolism.

Elevated enolase levels during weeks 28–34 of pregnancy may be a potential biomarker indicating a higher risk of preterm birth, according to recent research. The enzyme's role in metabolic disturbances that may lead to preterm labor is shown by this association. Further research is necessary to determine the diagnostic and prognostic importance of enolase in PTB development since early discovery may help with risk assessment and the prompt application of therapies to enhance pregnancy outcomes

Knowing how enolase contributes to pregnancy-related metabolic alterations may help us better understand the pathophysiology of PTB and open the door to new perinatal medicine treatments and prevention measures.

Keywords: *preterm birth, enolase, biomarker, pregnancy, metabolism.*

Аннотация

Учитывая его значительное влияние на здоровье плода и новорожденного, преждевременные роды (ПР) остаются серьезной проблемой современной акушерства и перинатологии. Несмотря на достижения в области пренатального ухода, исследования по поиску надежных биомаркеров для раннего выявления и профилактики ПР продолжаются.

Энолаза – это фермент, участвующий в гликолизе, который катализирует превращение 2-фосфоглицерата в фосфоенолпируват и играет важную роль в метаболических и клеточных процессах. Помимо своей основной функции в энергетическом обмене, энолаза связана с различными физиологическими и патологическими состояниями, включая осложнения беременности.

Согласно недавним исследованиям, повышенный уровень энолазы в период с 28-й по 34-ю неделю беременности может быть потенциальным биомаркером повышенного риска преждевременных родов. Эта взаимосвязь демонстрирует роль фермента в метаболических нарушениях, которые могут привести к преждевременным родам. Для определения диагностической и прогностической значимости энолазы в развитии ПР необходимы дальнейшие исследования, поскольку раннее выявление может способствовать оценке рисков и своевременному применению терапевтических мер для улучшения исходов беременности.

Понимание вклада энолазы в метаболические изменения во время беременности может помочь лучше изучить патофизиологию ПР и открыть новые перспективы для разработки методов лечения и профилактики в перинатальной медицине.

Ключевые слова: *преждевременные роды, энолаза, биомаркер, беременность, метаболизм.*

Annotatsiya

Homila va yangi tug‘ilgan chaqaloq salomatligiga chuqur ta’sir ko‘rsatishi sababli, muddatidan oldin tug‘ruq (MOT) zamonaviy akusherlik va perinatologiyada jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. Prenatal parvarish sohasidagi yutuqlarga qaramay, MOTni erta aniqlash va oldini olish uchun ishonchli biomarkerni topish bo‘yicha tadqiqotlar davom etmoqda.

Metabolik va hujayraviy dinamik jarayonlar uchun muhim bo‘lgan enolaza glikolizda ishtirok etadigan ferment bo‘lib, 2-fosfoglitseratni fosfoenolpiruvatga aylantirishni katalizlaydi. Enolaza nafaqat energiya almashinuvining asosiy ishtirokchisi, balki homiladorlikdagi asoratlar hamda turli fiziologik va patologik holatlar bilan ham bog‘liqdir.

So‘nggi tadqiqotlarga ko‘ra, homiladorlikning 28–34-haftalarida enolaza miqdorining oshishi muddatidan oldin tug‘ruq xavfining yuqori ekanligidan darak beruvchi potensial biomarker bo‘lishi mumkin. Bu bog‘liqlik fermentning muddatidan oldin tug‘ruqni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan metabolik buzilishlardagi rolini ko‘rsatadi. MOT rivojlanishida enolazaning diagnostik va prognostik ahamiyatini aniqlash uchun qo‘shimcha tadqiqotlar talab qilinadi, chunki uni erta aniqlash xavfni baholash va homiladorlik natijalarini yaxshilash uchun o‘z vaqtida terapevtik chora-tadbirlarni qo‘llashga yordam berishi mumkin.

Enolazaning homiladorlik bilan bog‘liq metabolik o‘zgarishlarga qanday hissa qo‘shishini tushunish bizga MOT patofiziologiyasini chuqurroq o‘rganishga va perinatal tibbiyotda yangi davolash hamda profilaktika choralarini ishlab chiqishga yo‘l ochib berishi mumkin.

Kalit so‘zlar: *muddatidan oldin tug‘ruq, enolaza, biomarker, homiladorlik, metabolizm.*

Introduction. One of the primary causes of perinatal morbidity and mortality globally is preterm birth (PTB), which is defined as delivery before 37 weeks of gestation. In contemporary obstetrics and neonatology, it continues to be a major obstacle, contributing to long-term health issues in infants such as respiratory distress syndrome, neurodevelopmental abnormalities, and heightened vulnerability to infections. The global prevalence of PTB is still high despite significant advancements in prenatal care, placing a significant strain on healthcare systems and raising the possibility of unfavorable consequences for both mothers and newborns.

PTB is a complex illness that is impacted by a number of pathological, physiological, and environmental variables. The most widely acknowledged causes are genetic susceptibility, infections, inflammatory processes, metabolic dysregulation, and maternal health issues such diabetes, hypertension, and preeclampsia. The exact mechanisms underpinning PTB initiation are still not fully known, despite a great deal of research. Because of this, there is increasing interest in finding possible biomarkers that could indicate the likelihood of preterm labor and enable prompt interventions to enhance the quality of pregnancies.

Research on metabolic enzymes and their function in pregnancy physiology, specifically their impact on fetal development and the onset of labor, is one exciting field. Enolase, a crucial glycolytic enzyme that catalyzes the transformation of 2-phosphoglycerate into phosphoenolpyruvate, has drawn notice due to its role in both healthy and unhealthy metabolic processes. Alpha-enolase (ENO1) and neuron-specific enolase (NSE) are two of its isoforms whose functions in cellular stress responses, inflammation, and metabolic control have been thoroughly investigated.

Recent studies have suggested a strong correlation between elevated enolase levels in maternal plasma and amniotic fluid and an increased risk of PTB. Enolase appears to play a crucial role in inflammatory cascades, energy metabolism, and tissue remodeling—three processes that are intimately linked to the initiation of labor. As a result, fluctuations in enolase levels during pregnancy may serve as an early indicator of preterm labor, potentially aiding in risk stratification and clinical decision-making.

Gaining insight into enolase's function during pregnancy may pave the way for the creation of trustworthy prognostic biomarkers for PTB. Early diagnosis and more successful preventive measures, like focused pharmaceutical therapies, tighter maternal monitoring, and lifestyle changes, may be made possible if enolase can be reliably recognized as a sign of approaching preterm labor.

This study's main goal is to assess how changes in enolase levels during pregnancy affect the ability to predict PTB risk. By investigating the connection between enolase activity and preterm labor, this study seeks to improve maternal and newborn health outcomes by advancing perinatal medicine's diagnostic and treatment approaches.

Materials and Methods: The study included 120 pregnant women in all, who were split up into the following groups:

Pregnant women at risk of PTB (28–34 weeks) made up the main group (n=85); women with a normal pregnancy progression made up the control group (n=35).

Research techniques:

1. Biochemical analysis: An ELISA test was used to evaluate the levels of plasma enolase.

2. Immunological analysis: Immunohistochemical techniques were used to ascertain the expression of NSE and ENO1 biomarkers.

3. Statistical analysis: SPSS 26.0 was used to examine the data, and $p<0.05$ was deemed statistically significant.

Results and Discussion: The study findings indicate a significant difference in plasma enolase levels between the main group (women at risk of PTB) and the control group (healthy pregnancies), with enolase levels being markedly elevated in the main group ($p<0.01$). Elevated levels of neuron-specific enolase (NSE) and alpha-enolase (ENO1) were closely associated with cellular breakdown and inflammatory processes, suggesting that metabolic disturbances play a crucial role in the pathophysiology of PTB.

A notable trend was observed in the progressive increase of enolase levels across different gestational weeks. Higher enolase activity correlated with an increased risk of preterm labor, implying a direct link between metabolic dysregulation and early labor onset. This suggests that enolase-mediated metabolic imbalances may contribute to uterine contractions and cervical changes, accelerating the labor process.

Table 1. Changes in Enolase Levels by Gestational Age

Gestational Age (weeks)	Main Group (n=85) (ng/ml)	Control Group (n=35) (ng/ml)	p-value
28-30 weeks	5.4 ± 1.2	3.2 ± 0.8	<0.01
31-32 weeks	6.1 ± 1.5	3.4 ± 0.7	<0.01
33-34 weeks	7.2 ± 1.8	3.6 ± 0.6	<0.01

Additionally, women with significantly elevated enolase levels were more likely to exhibit cervical shortening and insufficiency—both well-known risk factors for PTB. This further reinforces the hypothesis that enolase may be involved in structural changes within the cervix and myometrium that contribute to premature labor.

The inflammatory response associated with increased enolase levels suggests a potential link between early labor activation and metabolic dysregulation. Given enolase's role in glycolysis and cellular stress adaptation, it may influence the biochemical and structural modifications that precede labor. Enolase-driven metabolic alterations could exacerbate inflammatory cascades, increasing uterine irritability and hastening labor onset.

The findings of this study support the potential clinical utility of enolase as a biomarker for monitoring pregnancy progression and assessing PTB risk. Elevated enolase levels may serve as an early warning sign, allowing clinicians to implement targeted interventions to prevent or delay premature birth. However, further research is needed to clarify the precise molecular pathways by which enolase contributes to labor initiation and to determine whether metabolic-targeted therapies—such as enolase inhibitors or metabolic modulators—could help mitigate PTB risk in high-risk pregnancies.

Future studies should focus on larger population-based cohorts to validate these findings and explore whether integrating enolase measurements into standard prenatal screening could enhance early detection and improve maternal-fetal outcomes. Understanding enolase’s broader role in pregnancy metabolism could also open new avenues for therapeutic strategies aimed at prolonging gestation and reducing the global burden of PTB.

Conclusion: This study highlights the potential of the enolase enzyme as a useful biomarker for risk assessment and early identification, underscoring its critical role in the pathophysiology of preterm birth (PTB). According to the results, there is a substantial correlation between a higher risk of preterm labor and heightened enolase levels between weeks 28 and 34 of pregnancy. Because PTB is complicated and multifactorial, finding trustworthy biomarkers like enolase could greatly improve prenatal care by enabling early diagnosis and enabling prompt intervention methods.

A non-invasive, economical, and effective way to identify pregnancies at high risk for preterm delivery may be to incorporate enolase level monitoring into standard prenatal screening procedures. With this strategy, obstetricians and perinatologists could carry out focused interventions, such as tailored obstetric management

plans, lifestyle changes, medication, and closer maternal monitoring, with the goal of extending gestation and enhancing neonatal outcomes.

Furthermore, more research is necessary to fully understand the possible therapeutic implications of enolase during pregnancy. The creation of enolase-based treatment plans, including the investigation of enolase inhibitors or other pharmaceutical substances that might alter its action, should be the main focus of future studies. New therapy strategies intended to lessen the consequences of PTB may be made possible by a better knowledge of the molecular processes via which enolase contributes to the disease. Further improving clinical decision-making, research on enolase in combination with other metabolic and inflammatory biomarkers may result in a more complete predictive model for PTB.

Healthcare professionals may be able to give more accurate risk stratification and create customized pregnancy care plans based on the needs of each patient by integrating enolase testing into routine obstetric practice.

Long-term improvements in mother and newborn health outcomes would result from this, in addition to lowering the rate of preterm deliveries.

To sum up, enolase has a lot of potential for use as a therapeutic and diagnostic target in the treatment of premature delivery. Translating these findings into clinical applications will require further research in this area, which will ultimately lead to better prevention tactics and treatment for pregnancies at risk.

REFERENCES:

[1]. Goldenberg, R. L., Culhane, J. F., Iams, J. D., & Romero, R. (2008). Epidemiology and causes of preterm birth. *The Lancet*, 371(9606), 75-84.

[2]. Wu, Y., Chen, L., Wu, X., Shang, M., Li, D., & Zhao, J. (2020). Role of metabolic biomarkers in the prediction and prevention of preterm birth. *BMC Pregnancy and Childbirth*, 20(1), 712.

[3]. Romero, R., Dey, S. K., & Fisher, S. J. (2014). Preterm labor: one syndrome, many causes. *Science*, 345(6198), 760-765.

[4]. Kh, Ikromova P. "Sexual Dysfunction in Women Suffering From Gynecological Diseases." Central Asian Journal of Medical and Natural Science 4.1 (2023): 313-317.

[5]. Шавази Н.Н., Алимова П.Б. СОВРЕМЕННЫЕ АСПЕКТЫ АКУШЕРСКИХ КРОВОТЕЧЕНИЙ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ) //ЖУРНАЛ РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ И УРОН-НЕФРОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ. – 2022. – Вып. 3. – № 2

[6]. Ikramova, P. X., & Mansurova, M. (2023). VULVOVAGINITIS WITH HELMINTHOSIS: EPIDEMIOLOGY, PATHOGENESIS AND TREATMENT. JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH, 2(4), 67-73.

[7]. Shavazi N., Akhtamova N., Katkova N. Perinatal risk of premature birth: New obstetric opportunities //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 413. – С. 03035.

[8]. Ахтамова Н. А., Шавази Н. Н. PREDICTION OF OBSETRIC BLOOD LOSS IN WOMEN WITH PRETERM BIRTH (LITERATURE REVIEW) //УЗБЕКСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ. – 2022. – Т. 3. – №. 5.

[9]. ШАВАЗИ Н. Н. и др. TOTAL GISTEREKTOMIYANING SUBTOTAL GISTEREKTOMIYADAN USTUNVORLIGINI TAHLILLASH //ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ. – 2022. – Т. 7. – №. 3.

[10]. Nasyrovich S. S. et al. PREDICTORS OF BLEEDING IN PRETERM LABOR: RETROSPECTIVE OBSERVATIONAL //Journal of Modern Educational Achievements. – 2023. – Т. 5. – №. 5. – С. 185-196.

[11]. Nuraliyevna S. N., Dilshodovna J. M. MORPHOFUNCTIONAL STRUCTURE OF THE PLACENTA IN PREMATURE LABOR //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 4. – С. 381-384.

[12]. Nuralievna S. N., Akbarjonovna A. N., Farkhodovna R. N. Management of the Reatening Preterm Birth //Texas Journal of Medical Science. – 2023. – Т. 17. – С. 25-38.

[13]. Nuralievna S. N., Akbarovna A. N. FETAL STANDING AND PERINATAL OUTCOMES OF PREMATURE BIRTH //Confrencea. – 2023. – Т. 10. – №. 1. – С. 14-16.

[14]. Parvina, Ikromova. "The Role of Infections in Obstetrics and Perinatal Pathologies." EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE 4.3 (2024): 99-103.

[15]. Khamidovna, Ikromova Parvina. "Modern Approaches in the Diagnosis of Premature Rupture of Membranes in Pregnant Women." Research Journal of Trauma and Disability Studies 3.3 (2024): 215-218.

OILAVIY NIZOLAR VA ULARNING IJTIMOIY MUNOSABATLARGA TA’SIRI

Iroda Yusupova,
Urganch texnologiyalar universiteti magistranti

Annotatsiya

Oilaviy nizolar jamiyat barqarorligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Ular oiladagi ijtimoiy muhitning buzilishiga, psixologik stressning oshishiga va farovonlikning pasayishiga sabab bo‘ladi. Bunday nizolar ijtimoiy munosabatlarning zaiflashishiga, ishonchsizlik va tushunmovchiliklarning kuchayishiga olib keladi. Natijada jamiyatda ijtimoiy integratsiya qiyinlashadi va kelajak avlodlar ham ushbu muammolardan aziyat chekishi mumkin. Shuning uchun oilaviy nizolarning oldini olish va ularni samarali hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *oilaviy nizolar, jamiyat, psixologik stress, ijtimoiy munosabatlar, farovonlik, mojarolar, ishonchsizlik, tushunmovchilik, integratsiya.*

Аннотация

Семейные конфликты оказывают значительное влияние на стабильность общества. Они приводят к нарушению социальной среды в семье, росту психологического стресса и снижению уровня благополучия. Такие конфликты ослабляют социальные отношения, усиливают недоверие и непонимание между людьми. В результате общественная интеграция затрудняется, а будущие поколения также могут страдать от этих проблем. Поэтому важно предотвращать семейные конфликты и эффективно их разрешать.

Ключевые слова: *семейные конфликты, общество, психологический стресс, социальные отношения, благополучие, споры, недоверие, непонимание, интеграция*

Abstract

Family conflicts have a significant impact on societal stability. They disrupt the social environment within families, increase psychological stress, and reduce overall well-being. Such conflicts weaken social relationships, intensify distrust, and create misunderstandings among individuals. As a result, social integration becomes more difficult, and future generations may also suffer from these issues. Therefore, it is crucial to prevent family conflicts and resolve them effectively.

Keywords: *family conflicts, society, psychological stress, social relationships, well-being, disputes, distrust, misunderstanding, integration*

Kirish: Oilaviy nizolar inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, ularning ijtimoiy munosabatlarga ta’siri juda katta. Har bir jamiyatda oilalar asosiy ijtimoiy birlik sifatida shakllanadi va uning barqarorligi butun jamiyat taraqqiyotiga ta’sir qiladi. Oilada yuzaga keladigan mojarolar faqat shaxsiy munosabatlar doirasida qolmay, balki kengroq ijtimoiy muhitga ham tarqaladi. Bunday nizolar oilaviy muhitning buzilishiga, psixologik stressning ortishiga va jamiyatdagi ijtimoiy aloqalarning zaiflashishiga sabab bo‘ladi. Oilaviy mojarolar turli omillar natijasida kelib chiqadi, jumladan, iqtisodiy qiyinchiliklar, turmush tarzidagi farqlar, kommunikatsiya muammolari va ijtimoiy bosimlar muhim rol o‘ynaydi. Mojarolarning davomiyligi va og‘irligi oilaviy a’zolar o‘rtasidagi ishonch va hurmatga jiddiy putur yetkazishi mumkin. Natijada, jamiyatda nizolar ko‘payib, ijtimoiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, bunday muammolar bolalar va o‘smirlarning ruhiy holatiga ham zarar yetkazishi mumkin, bu esa kelajak avlodning ijtimoiy rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Oilaviy nizolarning oldini olish va ularni samarali hal qilish yo‘llarini izlash jamiyat barqarorligi uchun muhim vazifalardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Oilaviy nizolar va ularning ijtimoiy munosabatlarga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Tadqiqotlar oilaviy mojarolar inson psixologiyasiga,

jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga va ijtimoiy institutlarning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatadi. Jumladan, G. Simmel nizolarni jamiyatning ajralmas qismi sifatida ko‘rib, ularning ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishdagi rolini ta’kidlagan. U nizolar ijtimoiy o‘zgarishlarga turtki berishi mumkinligini, biroq tartibsiz va zo‘ravonlikka asoslangan mojarolar jamiyatda beqarorlikni kuchaytirishini qayd etgan. **T. Parsons esa oilani** ijtimoiy tizimning muhim elementi deb hisoblab, oiladagi nizolar ijtimoiy institutlarning mustahkamligi yoki zaifligiga ta’sir qilishini ta’kidlaydi. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, nizolar faqat shaxsiy darajada qolmay, balki jamiyatdagi umumiy ijtimoiy jarayonlarga ham ta’sir etadi. Shuningdek, J. Boulening oilaviy nizolar va farzand tarbiyasiga oid tadqiqotlari bolalar tarbiyasida ota-onalar o‘rtasidagi nizolarning salbiy oqibatlarini ko‘rsatgan. Uning fikriga ko‘ra, bunday mojarolar bolalar ruhiyatiga ta’sir qilib, ularning ijtimoiy moslashuvchanligiga putur yetkazadi. Ijtimoiy psixologiya sohasida olib borilgan tadqiqotlarda, xususan, K. Levin va A. Bandura ishlarida, oiladagi nizolar shaxslararo munosabatlar va jamiyatdagi zo‘ravonlik darajasiga qanday ta’sir ko‘rsatishi o‘rganilgan. Ularning nazariyalariga ko‘ra, oilada nizolar doimiy takrorlanib tursa, bolalar kelajakda tajovuzkor yoki o‘ziga ishonchsiz shaxs sifatida shakllanishi mumkin. Bundan tashqari, oilaviy nizolar va jamiyatdagi jinoyatchilik darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik sotsiologik tadqiqotlarda ham tasdiqlangan.

Zamonaviy tadqiqotlar oilaviy mojarolarni hal qilishning turli usullarini taklif etadi. Konfliktologiya va sotsiologiya olimlari nizolarni hal qilishda mediatorlik, psixologik maslahatlar va kommunikatsiyani yaxshilash muhimligini ta’kidlaydilar. Ayniqsa, **J. Galtungning tinchlik va nizolarni hal qilish modellari** oilaviy mojarolarni yumshatishda samarali usullarni taklif qiladi. Shu sababli, oilaviy nizolar ijtimoiy barqarorlikka ta’sir qiluvchi muhim omillardan biri bo‘lib, ularni o‘rganish va hal etish jamiyat rivojlanishi uchun dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot metodologiyasi oilaviy nizolar va ularning ijtimoiy munosabatlarga ta’sirini chuqur o‘rganish hamda tahlil qilishga yo‘naltirilgan. Ushbu tadqiqotda ilmiy asoslangan yondashuvlar qo‘llanilib, muammoga kompleks tarzda yondashiladi. Tadqiqotning asosiy metodlari sifatida empirik, statistik, sotsiologik va psixologik usullar qo‘llaniladi. Empirik metodlar doirasida oilaviy nizolarning sabablari, oqibatlari va ijtimoiy munosabatlarga ta’siri haqidagi ma’lumotlar real holatlarni o‘rganish orqali tahlil qilinadi. Bu usul oilalar bilan olib borilgan suhbatlar, respondentlar orasida so‘rovnomalar o‘tkazish va kuzatish jarayonlari orqali amalga oshiriladi. So‘rovnomalar turli yoshdagi va ijtimoiy qatlamga mansub insonlar orasida o‘tkazilib, oilaviy mojarolarni shakllantiruvchi omillar aniqlanadi.

Statistik tahlil usuli yordamida oilaviy nizolar chastotasi, ularning jamiyatdagi umumiy tendensiyalari va dinamikasi o‘rganiladi. Tadqiqot doirasida oilaviy mojarolar ishtirokchilari bilan intervyular, psixologik testlar va kuzatuvlar olib boriladi. Bu yondashuv oilaviy nizolar ta’sirida yuzaga keladigan psixologik muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi. Tadqiqot doirasida 2023-yilda O‘zbekistonning turli hududlarida 1000 ta respondent ishtirokida so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomalar natijalariga ko‘ra, respondentlarning **68%** oilaviy nizolarni turmush sharoitidagi qiyinchiliklar bilan bog‘lashdi. **47%** respondentlar esa mojarolarni kommunikatsiya muammolari va o‘zaro tushunmovchilik natijasi deb hisobladilar. Shu bilan birga, oilaviy nizolarga uchragan respondentlarning **39%** ularning uzoq davom etishini psixologik bosim va stress bilan izohlashdi. Statistik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ajrimlar soni yildan-yilga ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan taqdim etilgan rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda 39 mingdan ortiq ajrim holatlari qayd etilgan bo‘lsa, 2023-yilda bu raqam **41 mingga** yetgan. Bu oilaviy nizolar ortib borayotganini va ularning ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini anglatadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari oilaviy mojarolarning farzandlar tarbiyasiga ta’sirini ham ochib berdi. Psixologik kuzatishlarga ko‘ra, oilasida muntazam nizolar bo‘ladigan bolalar orasida tajovuzkorlik darajasi **26%** ga yuqori ekani aniqlandi. Bundan tashqari, oilaviy nizolar bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytirib, ularning ijtimoiy moslashuvchanligiga ham salbiy ta’sir qiladi.

Tahlil va natijalar: Tadqiqot natijalari oilaviy nizolarning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga ta’siri ko‘p qirrali ekanini ko‘rsatdi. Oilaviy mojarolar faqatgina oila doirasida qolmay, balki jamiyat barqarorligiga ham bevosita ta’sir qiladi. Tadqiqot davomida 2023-yilda turli hududlarda 1000 nafar respondent ishtirokida o‘tkazilgan so‘rovnomalar oilaviy nizolar kelib chiqishining asosiy sabablarini va ularning oqibatlarini aniqlashga yordam berdi. So‘rovnomalar natijalariga ko‘ra, respondentlarning **68%** oilaviy mojarolarni moliyaviy

qiyinchiliklar bilan bog‘lasa, **47%** ularni turmush o‘rtog‘ining noto‘g‘ri xatti-harakatlari va tushunmovchiliklar bilan izohladi. Bundan tashqari, respondentlarning **35%** o‘z oilalarida muntazam nizolar yuz berishini tan oldi, ulardan **22%** esa bu mojarolar bolalar tarbiyasiga salbiy ta’sir qilayotganini ta’kidladi. Statistik tahlillarga ko‘ra, oilaviy nizolar ajrimlar sonining oshishiga ham sabab bo‘layotgani kuzatildi. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, **2021-yilda 37 ming**, **2022-yilda 39 ming**, **2023-yilda esa 41 mingdan ortiq** ajrim holatlari qayd etilgan. Bu esa oilaviy mojarolarning keskinlashib borayotganidan dalolat beradi. Mojarolar natijasida insonlar o‘zaro ishonchni yo‘qotishi, ijtimoiy beqarorlik yuzaga kelishi va farzandlarning kelajak hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, oilaviy nizolarni oldini olish va ularni hal qilish bo‘yicha samarali usullarni joriy etish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, oilaviy nizolar jamiyat barqarorligiga sezilarli ta’sir qiladi. Mojarolar nafaqat oilaviy muhitga, balki bolalar tarbiyasiga, psixologik holatga va ijtimoiy munosabatlarga ham salbiy ta’sir etadi. So‘rovnomalar va statistik tahlillar oilaviy mojarolarning asosiy sabablarini aniqlashga hamda ularning oqibatlarini baholashga yordam berdi.

Quyidagi jadvalda oilaviy nizolarning asosiy sabablari va ularning jamiyatga ta’siri ko‘rsatilgan:

Oilaviy nizolar sabablari	Foiz (%)	Jamiyatga ta’siri
Moliyaviy qiyinchiliklar	67%	Ijtimoiy taranglik ortishi
Tushunmovchilik va kommunikatsiya muammolari	47%	Oilaviy ajrimlar ko‘payishi
Oilaviy zo‘ravonlik	29%	Ruhiy holatning yomonlashishi
Ishsizlik va iqtisodiy beqarorlik	34%	Jinoyatchilik darajasining oshishi
An’anaviy va zamonaviy qadriyatlar to‘qnashuvi	25 %	Avlodlararo nizolarning kuchayishi

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, oilaviy nizolar turli omillar natijasida kelib chiqadi va ularning ta’siri faqat oila ichida qolmay, balki jamiyatning umumiy barqarorligiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. **Oilaviy nizolarni oldini olish bo‘yicha dasturlar** – oilalarga mojarolarni boshqarish va hal qilish bo‘yicha trening va maslahatlar berish tizimini yo‘lga qo‘yish.
2. **Psixologik maslahat markazlarini rivojlantirish** – oilalar va bolalar uchun bepul psixologik yordam xizmatlarini kengaytirish.
3. **Moliyaviy barqarorlikni oshirish** – ishsizlikni kamaytirish va oilalarga iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish.
4. **Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash** – an’anaviy va zamonaviy qadriyatlar o‘rtasida muvozanatni saqlash bo‘yicha targ‘ibot ishlarini olib borish.
5. **Mediatorlik tizimini rivojlantirish** – oilaviy mojarolarni sudgacha hal qilish bo‘yicha mediatorlar faoliyatini kengaytirish.

Xulosa va takliflar: Oilaviy nizolar bolalar tarbiyasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, oilasida muntazam mojarolar bo‘ladigan bolalar orasida ruhiy stress va tajovuzkorlik darajasi **25-30%** ga yuqori ekani aniqlangan. Bundan tashqari, oilaviy mojarolar ishtirokchilari orasida depressiya, ruhiy bosim va ijtimoiy izolyatsiya kabi muammolar kuzatiladi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. **Oilaviy nizolarni oldini olish dasturlarini rivojlantirish** – mojarolarni boshqarish va kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha trening va seminarlar tashkil etish.
2. **Psixologik maslahat markazlarini kengaytirish** – mojarolar ishtirokchilari, ayniqsa, bolalar va ayollar uchun bepul psixologik xizmatlarni kuchaytirish.
3. **Iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish** – oilalar uchun bandlik va tadbirkorlikni rag‘batlantirish, moliyaviy savodxonlik bo‘yicha o‘quv dasturlarini ishlab chiqish.

4. **Mediatorlik tizimini rivojlantirish** – oilaviy nizolarni huquqiy yo‘l bilan sudgacha hal qilish mexanizmlarini kengaytirish.

5. **Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash** – an’anaviy va zamonaviy qadriyatlar o‘rtasida muvozanatni saqlash bo‘yicha ommaviy axborot vositalari va ta’lim muassasalari orqali targ‘ibot ishlarini olib borish.

Xulosa qilib aytganda, oilaviy nizolarni hal qilish va ularning oldini olish jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Davlat organlari, nodavlat tashkilotlar va jamiyatning boshqa institutlari hamkorligida samarali strategiyalar ishlab chiqish va amalga oshirish oilaviy muhitni mustahkamlash hamda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. D. Levinson. “Madaniyatlararo nuqtai nazardan oiladagi zo‘ravonlik”. Newbury Park, Kaliforniya: Sage. (1989)

2. H. Makkubbin, S. Figli, “Stress va oila: Normativ o‘tishlar bilan kurashish”. Nyu-York: Bruner / Mazel. (1983).

3. PULATOV SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiysiyosiy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468-474 P.

4. Po‘latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma’rifatga qo‘shgan xissasi.// “SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.

5. Po‘latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta’limning rivojlanish bosqichlari. //“SCIENCE AND EDUCATION” Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.

6. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.

7. Saidov S.A., Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san’atiga qo‘shgan hissasi. // “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences” Scientific journal Volume 1, 2021. 332-336 P.

8. Sulaymonov, J. Abdurahmon ibn Xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlarida jamiyat tahlili//Academic Research in Educational Sciences, Vol. 2 Special Issue 1, 2021. 451-455 R.

NATYURMORTDAN FOYDALANIB TASVIRLASHNI O‘RGANISHDA XOMAKI RASMLAR ISHLASHNING TUTGAN O‘RNI

Odina Baxronova,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,
Muhandislik grafikasi va dizayn nazariyasi magistranti

Annotatsiya

Kelajak yoshlarini komil, sog‘lom, teran fikrli, dunyo qarashi keng, vatanga, xalqimizga foydasi tegadigan barkamol insonlar bo‘lib yetishishida tasviriy san’at fanining ham o‘z o‘rni bor. Ushbu maqolada tasvirlashni o‘rganishda yuzaga keladigan ba’zi muammolarni bartaraf etishning dastlabki bosqichlari yoritib berilgan. Unda, natyurmort orqali rasm chizishni o‘rganishda, xomaki rasmlar ishlashning o‘ziga xos muhim tomonlari, tasvirlash jarayonida ayrim kerakli materiallar va qurollardan to‘g‘ri foydalanish, natyurmort tuzish va uni tasvirlash qoidalari, tasviriy san’atni ta’lim va tarbiyada tutgan o‘rni kabi bilimlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Natyurmort, qalam, xomaki rasm, qog‘oz, tasvirlash, material, chiziq, o‘rganish.*

Аннотация

Воспитание молодого поколения как гармонично развитых, здоровых, мыслящих широко и глубоко, обладающих широким мировоззрением, приносящих пользу своей родине и народу — важная задача, в которой изобразительное искусство играет свою роль. В данной статье рассматриваются начальные этапы устранения некоторых проблем, возникающих при изучении рисования. В частности, освещены ключевые аспекты работы с набросками при обучении рисованию через натюрморт, правильное использование некоторых необходимых материалов и инструментов в процессе изображения, правила

построения и изображения натюрморта, а также роль изобразительного искусства в образовании и воспитании.

Ключевые слова: *Натюрморт, карандаш, эскиз, бумага, иллюстрация, материал, линия, исследование.*

Annotation

The present article posits that fine arts education has the capacity to foster the development of future youth as complete, healthy, deep-thinking, broad-minded, and well-rounded individuals who will contribute to the benefit of our homeland and people. This article sheds light on the initial stages of overcoming some of the problems that arise in learning to paint. The article addresses salient aspects of the learning process, including the use of sketches and the depiction of still life. It also encompasses the correct utilisation of materials and tools, the rules for composing and depicting still life, and the role of fine arts in education and upbringing.

Keywords: *Still life, pencil, sketch, paper, painting, material, line, learning.*

Kirish (Introduction). Mamlakatimizda yoshlarning tasviriy san’at orqali tarbiyalanishiga ularning ilk yoshlik davrlari, bog‘cha yoshidan boshlab e’tibor qaratiladi. Bolalar atrofidagi voqelikni o‘zlaricha talqin qilib boradilar. Har bir inson tug‘ilib voyaga yetar ekan, unda qaysidir bir kasbga nisbatan qobiliyati, qiziqishi, iste’dodi, iqtidori bo‘ladi. Ularning tasviriy san’at bilan yaqindan tanish bo‘lib borishlari dunyoni to‘g‘ri anglab olishlarida yordam beradi. Hozirgi davrimizda tasviriy san’atning rivojlanishiga mamlakatimizda yanada yuqori darajada e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli farmonlari, 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli qarori, Yoshlarning ma’naviyatini yuksaltirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning 19-mart kuni ilgari surgan 5 ta muhim tashabbusi hamda 2020-yil 1-apreldagi “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4688-sonli qarori bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Vatanimizning turli hududlaridagi yoshlar orasida tasviriy san’atga qiziqishi yuqori bo‘lgan, tasviriy san’atni jon dilidan sevuvchi ulkan maqsadlar bilan harakat qiladigan yoshlar talaygina. Xuddi shunday tasvirlash sirlarini o‘rganishga ishtiyoqi baland yoshlarning qiziqish va intilishlarini vaqtida ilg‘ab, ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishning ahamiyati kattadir.

Tasvirlash sirlarini o‘rganishda avvalo qalamtasvirga oid bilimlarni egallash kerak bo‘ladi. Chunki barcha rassomlar tasviriy san’atning qaysi tur va janrida ijod qilmasinlar ular birinchi navbatda oddiy qalamdan foydalanib rasm chiza boshlaydilar. Tasvirlashni mukammal o‘rganmoqchi bo‘lganlar natyurmortdan foydalanib xomaki rasmlar ishlamasdan, puxta rasm chizishni o‘rgana olmaydilar . Rasm chizishni o‘rganishda xomaki rasm ishlashdan o‘rinli foydalanish rasm chizish qobilyatini oshiradi. Ayni damda uzoq muddatli chiziladigan amaliy mashg‘ulotlarga ham tayyorgarlik bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tasviriy san’at janrlaridan biri bu natyurmort deb ataladi. Natyurmortlarni tuzish va uni tasvirlashda ko‘pincha uy ro‘zg‘orda ishlatiladigan turli xil buyumlar, o‘quv va durodgorlik qurollari, gullar, sabzavot va mevalar, sport buyumlari va hokazolardan foydalanish mumkin. Natyurmort orqali xomaki rasmlar ishlash to‘g‘ri tashkil etilsa, tasvirlashda ancha qulayliklarga erishiladi. Buning uchun quyidagilarga amal qilish kerak. Rasm chizish uchun kerakli naturalar, turli xil buyumlar va rangli matolar tanlab olingandan so‘ng uni maqsadga muvafiq to‘g‘ri joylashtirish muhim. Endi rasm chizishni o‘rganayotganlar uchun oddiy buyumlardan natyurmortlar tuzilsa to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki ular tarjibasiz ekanliklari sababli murakkab natyurmort kompozitsiyalarini tasvirlashda qiynalib qolishlari tabiiydir. Avvalambor natyurmortni qo‘yib joylashtirish uchun, yorug‘lik yaxshi tushadigan joyni tanlash kerak. Xona ichkarisida tasvirlash uchun quyilgan natyurmort yorug‘likdan qanchalik uzoqda joylashgan bo‘lsa, yoki yorug‘likning natyurmortga ikki va undan ortiq tamonlardan tushushi tasvirlash jarayonida o‘ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Xona ichkarisida joylashgan natyurmortga yorug‘lik bir tamondan tushsa to‘g‘ri bo‘ladi. Bunday joylarga misol qilib derazalarning yon atrofini misol keltirishimiz mumkindir. Chunki bu joylarda yorug‘lik yaxshi taraladi. Mana shunday sharoitda quyilgan natyurmortdagi yorug‘-soyalar va ranglar aniq va ravshan ko‘rinadi. Bu esa tavirlash jarayonida buyumlarning hajmdorligini va

tus munosabatlarini topishga yaqindan yordam beradi. Hamda tasvirlash jarayoni yengil, oson va qiziqarli kechadi. Xomaki rasmlar ishlash jarayonida bitta qo‘yilgan natyurmortni bir tamondan ishlab yakunlangandan so‘ng, uni yana turli tamonlardan ham tasvirlash mumkin. Natyurmortning to‘g‘risidan, chap va o‘ng tamonlaridan ozgina – ozgina surilib bir necha tamonlardan ishlash mumkin.

Tasvirlash materiallari va qurollaridan o‘rinli foydalanish ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib xomaki rasmlar ishlashda ish unumdorligini oshirishga sababchi bo‘ladi. Buning uchun quyidagilarga e’tibor berish lozim. Xomaki rasmlar ishlashda qog‘ozning yetarli darajada sifatli va oq rangda bo‘lishi shart emas. Lekin uzoq muddatli qalamtasvirlar ishlaganda qog‘oz yetarli darajada sifatli va oq rangda, chiziqlarni o‘chirganda uvalanmaydigan iflos bo‘lmaydiganini tanlash kerak.

Xomaki rasm chizishda ko‘pincha turli qattiqlikdagi va yumshoqlikdagi oddiy qalamlardan foydalaniladi. Unda qalamlarning uchlari me’yor talablari asosida to‘g‘ri ochilganligi ham ahamiyatlidir. Rasm chizishda yumshoq sifatli o‘chirg‘ichlardan foydalangan ma’qul. U qog‘oz yuzasidagi qalam izlarini shikast yetkazmasdan o‘chiradi. Keraksiz chiziqlarni o‘chirishda o‘chirg‘ichni qattiq bosmaslikka, iloji boricha o‘chirg‘ichdan kamroq foydalanishga odatlanish lozim.

Tasvirlashni o‘rganishda kerak bo‘ladigan tamonlardan yana biri bu tasvirlashning asosiy qonun – qoidalarini bilishdir. Bularga quyidagilar kiradi. Perspektiva qonuni, surat tekisligi, buyum tekisligi, ko‘rish maydoni va ko‘rish burchagi, ufq chizig‘i, fazoviy perspektiva, chiziqli konstruktiv tuzilish, buyumlarning nisbati, hajmi kabilardir. Bu qoidalar tasviriy san’atga oid kitoblarda keng yoritilgan bo‘lib, ustozlar har bir amaliy mashg‘ulot darslarida bu borada takidlab o‘tadilar.

Yuqorida keltirib o‘tilgan nazariy bilimlarni o‘z vaqtida egallash tasvirlashni yaqindan o‘rganishga yordam beradi. Amaliy jihatdan xomaki rasmlarni muntazam ravishda ishlashni odat qilish esa tasvirlash jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarini egallab qalamtasvirda yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi. Barcha rassomlar ham tasviriy san’atning qaysi tur va janrida ijod qilmasinlar ular birinchi navbatda oddiy qalamdan foydalanib rasm chiza boshlaydilar. Uzoq muddatli natyurmort qalamtasvirini tasvirlash jarayoniga kirishishdan avval bo‘lajak rassom bir necha xomaki rasmlar ishlasa uning qo‘li, chiziq va chiziqchalarni aniq va to‘g‘ri chizishga kelishib qoladi. Shundan so‘ng aylana, ellips, burchaklarni to‘g‘ri qurish, ularni teng bo‘laklarga bo‘lish kabi mashqlarini bajarish kerak. Oddiy qalamda chizishni o‘rganib olgandan so‘ng, oddiy naturalardan tashkil topgan natyurmortlar tasvirini chizishga kirishilsa to‘g‘ri bo‘ladi.

Qalamtasvir mashg‘ulotlarida talabalariga xomaki rasmlar bajarib kelishni ustozlar tamonidan uyga vazifa qilib topshiriladi. Ammo ayrim talabalar tasvirlashni yaxshi o‘zlashtirishda yengil xomaki rasmlar ishlashning ahamiyati yo‘q deb o‘ylaydilar. Shuningdek amaliy mashg‘ulot darslarida ishlagan uzoq muddatli qalamtasvirlarini natyurmort ishlashda yaxshi o‘zlashtirish uchun yetarli deb tushunadilar. Bunday fikr yuritish xato albatta. Keling fikrlarimizni jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari bilan taqqoslashga harakat qilib ko‘ramiz. Hammamizga ma’lumki, jismoniy tarbiya darslarida ustozlar amaliy mashg‘ulot boshlanishi avvalida shogirdlariga turli yengil jismoniy mashqlarni bajartiradilar. Bunga misol qilib shogirdlar tamonidan sport maydoni bo‘ylab asta-sekinlik bilan yugurish mashqlari o‘tkaziladi. Undan so‘ng qo‘l, oyoq va tananing boshqa a’zolari yordamida yengil harakatlari bajartiriladi. Shu jarayonda nafas olish va nafas chiqarish mashqlarini ham bajariladi. Bu bilan ustozlar talabalar organizimini navbatdagi murrakkab jismoniy mashg‘ulotlariga tayyorlaydilar. Bu fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki talaba xomaki rasmlar ishlashni o‘z vaqida bajarib bormasligi sababli uzoq muddatli natyurmort ishlash jarayonida ijobiy natijalarga erisha olmaydi. Natyurmort ishlash jarayonida muammo va qiyinchiliklarga duch keladi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review). Natyurmort - fransuzcha jonsiz tabiat degan ma’noni beradi. Odamlar hayotida ishlatiladigan buyum-narsalar, sabzavot va mevalar, asbob-uskuna kabilarga o‘xshash namunalarning tasviri muayyan shaklda chizilishi mazkur janrga xos. Ma’lumki, har bir rassom tasviriy san’at sirlarini o‘rganishni natyurmort ishlashdan boshlaydi. Buyumlar va narsalar shaklini, formasini, xarakterini o‘zlashtirish san’atning boshqa jihatlarini va turlarini o‘rganishdagi dastlabki saboqlardir [1.10 b].

Xomaki rasm ma’lum vaqt oralig‘ida kuzatilayotgan natura haqida to‘liq tasavvur berishni maqsad qilib qo‘yadi. Xomaki rasmlar har xil davomiylikda, har xil ishlanishi, ish shart-sharoitlari va rassomning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalariga qarab yarim soatli, bir soatli, o‘n minutli va hokazo bo‘lishi munkin.

Xomaki rasm - bu naturadan tezgina chizgi qilib olishdir; u talabani tez fikrlash, tasvirlashning eng ishonchli va mantiqiy vositalarini qidirib topishga o‘rgatadi, kuzatuvchanligini rivojlantiradi. [2.197 b].

Rasm chizish uchun naturalardan istalganini tanlash mumkin. Lekin endi rasm chizishni o‘rganayotganlar uchun eng oddiy va kam buyumlar (natyurmort) rasmini chizishdan boshlashni maslahat beriladi. [3.27 b].

Naturadan bajariladigan qoralama va xomaki chizgilar o‘rab turgan muhit predmetlarining tashqi ko‘rinishini ko‘rib o‘rganish, ularning estetik mohiyatini anglash, yengil, ravon, bejirim qirralari, rang barang qurish, hajmning go‘zalligi, tasvirlanayotgan ob‘ektlarning bir-biriga o‘zaro aloqadorligini ko‘rib o‘rganishda muhim vositadir. Tezkor chizgilar, manzara, inson, hayvonlarning ajralib turuvchi tomonlarini kuchli sezishga o‘rgatadi. [4.58 b].

Yuksak mahorat bilan ishlangan tasviriy san’at asarlarini, vaqtlar o‘tishi bilan madaniy meros sifatida qadri oshib boradi. O‘tgan vaqtlarni tarixga aylantirib kishilarni ana shu tarix bilan tanishtiradigan vositalardan biriga aylanadi. Shu bilan birgalikda tarbiyaviy vosita sifatida yanada qadrlanadi. Tasviriy san’at asarlarini tushunishning bir oz osonligi shundaki rassom, o‘z fikri va mulohazalarni tahlil qilib umumlashtirib bo‘lgan, voqeyliklarni tomoshabin hukmiga havola qiladi. [5.179 b].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, xomaki rasmlarni muntazam ravishda chizib yurgan talabalar rasm ishlash jarayonida ishni davom ettirolmasdan qiynalib, qolmaydilar. Yana shunga e’tibor berib qaraydigan bo‘lsak bu talabalarda o‘z ustida muntazam ishlagani tufayli, bilim, ko‘nikma, malakalar shakllanib boradi. Buning natijasida chizayotgan rasmiga qancha vaqt ajratsa shunchalik jilolanib - jonlanib boraveradi. Shu jarayonda bo‘lajak mo‘yqalam sohiblari san’at olamiga asta-sekinlik bilan qadam tashlab boradi. Bu harakatlar vaqti kelib kelajakda yuqori saviyadagi san’at asarlarni yaratilishiga tutrki bo‘ladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Talabalarga xomaki rasmlar ishlashdan o‘rinli foydalanishni o‘rgatish tasviriy san’atning barcha janrlarida tasvirlash samaradorligini oshiradi. Ayni damda uzoq muddatli chiziladigan amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ham bo‘ladi. Albatta me’yoriga yetkazib ishlangan tasvirlar, kishilarni o‘ziga rom etib go‘zallik sari chorlaydi. Kishi qalbida tevarak atrofga ijobiy munosabatini o‘stirib vatanga bo‘lgan muhabbatni oshiradi. Hamda qadimiy milliy urf odatlariga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otib, uni qadrlashga o‘rgatadi. Shuningdek yoshlarni yaxshilikga yetaklab dunyo qarashini kengayishiga va har tamonlama barkamol insonlar bo‘lib yetishishi ushun yordam beradi. Ularni sabr toqatli, chidamli bo‘lishlarida va mehnat qilish ko‘nikmalarini shakllanishida ham yordam beradi.

Mashhur rassomlarning hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishsak, ular tasvirlash sirlarini o‘rganishda va bo‘lajak asarlarini yaratishda xomaki rasmlar chizishdan unumli foydalanganliklarini guvohi bo‘lamiz. Shunday rassomlardan Leonardo Da Vinchi, Rafael Santi, Rembrandt, Karl Bryullov; O‘zbekistonlik rassomlardan O‘ral Tansiqbayev, Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Malik Nabiyev, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzayev, O. Qozoqov , N. Oripova, A. Isayev, E. Muhammadiyev, N. Kalonov, va boshqa rassomlarni aytish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOT RO‘YXATI:

1. Oydinov N. O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixidan lavhalar. –T.: “O‘qituvchi”. 1997 y. 94 b.
2. Boymetov B. Qalamtasvir. –T.: “Musiqa” nashriyoti 2006 y. 210 b.
3. O‘rolov S. Mo‘jiza yaratish san’ati. –T.: “Mehnat” nashriyoti 1996 y. 127 b.
4. A. Kalonov. Qoralama va xomaki chizgilar. –T.: “Tafakkur” nashriyoti 2013 y.104 bet.
5. Oydinov Sharip. Oliy o‘quv yurtlari tasviriy san’at mashg‘ulotlarida etyudlar ishlashni o‘rgatish metodikasi. *(“Ilmiy axborotnoma” 2021. 2-son. 198 b. E-mail: axborotnoma@samdu.uz)*

IT TEXNOLOGIYASINI ADABIYOT FANLARIDA QO‘LLASHDA O‘QITUVCHILARNING KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Shoira Bekchonova,
O‘zPFITI innovatsion loyiha ishtirokchisi, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada IT-texnologiyalarni adabiyot fanlarida qo‘llash jarayonida o‘qituvchilarning kompetensiyasini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Raqamli ta’lim muhitining takomillashishi, pedagoglarning zamonaviy texnologiyalarni samarali qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish zarurati yoritiladi. Tadqiqot davomida ilg‘or xalqaro tajribalar o‘rganilib, IT-texnologiyalardan foydalangan holda adabiyot darslarini yanada interaktiv va samarali tashkil etish strategiyalari ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *IT-texnologiyalar, o‘qituvchi kompetensiyasi, raqamli ta’lim, o’quvchi, talaba, rivojlantirish.*

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы развития компетенций преподавателей в процессе применения IT-технологий в преподавании литературных дисциплин. Анализируется необходимость формирования навыков эффективного использования современных технологий в цифровой образовательной среде. В ходе исследования изучается передовой международный опыт и разрабатываются стратегии повышения интерактивности и эффективности уроков литературы с применением IT-технологий.

Ключевые слова: *IT-технологии, компетентность преподавателя, цифровое образование, ученик, студент, развитие.*

Annotation

This article examines the development of teachers' competencies in the process of applying IT technologies in literature education. The necessity of developing skills for the effective use of modern technologies in a digital learning environment is analyzed. The study explores advanced international experiences and proposes strategies for making literature lessons more interactive and effective through the use of IT technologies.

Keywords: *IT technologies, teacher competence, digital education, pupil, student, development.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim jarayonida IT-texnologiyalarning roli ortib borayotgani o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyasini yangi bosqichga olib chiqishni talab qiladi. Ayniqsa, adabiyot fanlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘quvchi va talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, interaktiv yondashuvlarni joriy etish va dars jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Biroq, raqamli ta’lim vositalaridan samarali foydalanish uchun o‘qituvchilarning IT-kompetensiyasini shakllantirish zaruriyati dolzarb masalaga aylanmoqda. Ushbu tadqiqotda adabiyot darslarida IT-texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning samarali usullari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning ta’limga integratsiyasi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqot davomida adabiyot fanlarida IT-texnologiyalarni qo‘llash va o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha bir qator ilmiy manbalar tahlil qilindi.

• Jones (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda IT-texnologiyalar o‘quvchi va talabalarning tanqidiy va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu tadqiqotdan raqamli platformalar yordamida adabiyot darslarini interaktiv tashkil etish masalasida foydalanildi [2,103].

• Kim (2021) o‘z ishida Janubiy Koreyada o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalar asosida kompetensiyasini rivojlantirish tajribalarini tahlil qilgan. Ushbu manbada pedagoglarning IT-kompetensiyasini shakllantirishga doir ilg‘or usullarni o‘rganish uchun ishlatilgan[3,39].


• Bekchonova (2023) tomonidan keltirilgan kiberpedagogik kompetensiya nazariyasi tadqiqotning nazariy asoslarini belgilashda foydalanildi. Xususan, raqamli ta’lim muhiti va o‘qituvchining texnologik savodxonligi haqida ma’lumot olish uchun ushbu adabiyotdan foydalanildi [1,18].

• Smith va Brown (2019) adabiyot fanlarida IT vositalari yordamida interaktiv ta’lim metodlarini joriy qilish bo‘yicha ilmiy-amaliy tajribalarini bayon etgan. Ularning yondashuvi ushbu tadqiqotda o‘qituvchilar uchun samarali o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda qo‘llandi [4,85].

Shuningdek, Khan Academy, MindMeister, Grammarly AI kabi onlayn resurslardan multimediaviy ta’lim yondashuvlarini chuqurroq o‘rganish, interaktiv platformalar yordamida darslarni samarali tashkil qilish bo‘yicha amaliy misollar olish uchun foydalanildi[6, 7].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, IT-texnologiyalar adabiyot fanlarida nafaqat bilim berish jarayonini takomillashtirish, balki o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirishga ham xizmat qiladi. Biroq, bu jarayonni yanada takomillashtirish uchun mahalliy sharoitga mos keladigan metodik yondashuvlarni takomillashtirish va ishlab chiqish talab etiladi.

Metodika



1-rasm. Tadqiqotimizda qo‘llanilgan metodlar

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Tahliliy-metodologik yondashuv – adabiyot darslarida IT-texnologiyalarni qo‘llashga oid mavjud ilmiy manbalarni o‘rganish va taqqoslash.
2. Tajriba-sinov ishlari – IT vositalari asosida o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha eksperimental mashg‘ulotlarni tashkil etish.
3. Diskurs ta’lim metodi – adabiy matnlarni interaktiv muhokama qilish, raqamli platformalar yordamida o‘quvchi va talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.
4. So‘rov va intervyu usullari – adabiyot o‘qituvchilarining IT-texnologiyalarni qo‘llashga doir tajribalarini o‘rganish va ularning ehtiyojlarini aniqlash.
5. Taqqoslash va modellashtirish – xalqaro va mahalliy ta’lim tizimlaridagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ularni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish.

Mazkur metodlar asosida adabiyot fanlarida IT-texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘qituvchilarning kompetensiyasini rivojlantirish strategiyalari ishlab chiqiladi va ularning samaradorligi baholanadi.

Muhokama. Metodik yondashuvlar o‘qituvchilarning IT-texnologiyalarga asoslangan kompetensiyasini shakllantirishning samarali strategiyalarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi muhim jihatlar aniqlangan:

1. *Diskurs ta’lim metodi va raqamli texnologiyalar uyg‘unligi*

   - Matnni chuqur o‘rganish va muhokama qilish uchun Zoom, Google Classroom, Moodle kabi vositalardan foydalanish adabiyot darslarini yanada qiziqarli qiladi.

   - Smith va Brown (2019) tomonidan taklif qilingan interaktiv muhokamalar modeli o‘qituvchilarning yangi pedagogik yondashuvlarni o‘zlashtirishiga yordam beradi[4,85].

2. *Interaktiv platformalar yordamida kasbiy kompetensiyani shakllantirish*

   - Kim (2021) tadqiqotida o‘qituvchilar uchun onlayn ta’lim kurslari va seminarlar orqali kompetensiyalarni rivojlantirish muhimligi ta’kidlangan[3,39].

- Bekchonova (2023) tomonidan ilgari surilgan cyberpedagogik kompetensiya modeli asosida, o‘qituvchilarning IT vositalaridan samarali foydalanish malakasini oshirishga e’tibor qaratildi[1,18].

3. *O‘qituvchilarning IT-kompetensiyasini baholash va rivojlantirish*

- Eksperimental tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, o‘qituvchilarning raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish bo‘yicha dastlabki tayyorgarlik darajasi yetarli emasligi aniqlandi.

- Shu sababli, ularning malakasini oshirish uchun doimiy ravishda onlayn treninglar va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish zarurligi ta’kidlandi.

IT-texnologiyalarini adabiyot fanlarida qo‘llash imkoniyatlari. Zamonaviy ta’lim tizimida IT-texnologiyalarning o‘rni kundan-kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, adabiyot fanlarida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning badiiy asarlarni chuqur tushunishiga, ijodiy tafakkurini rivojlantirishga va ta’lim jarayonini qiziqarli tashkil etishga yordam beradi. Quyida IT-texnologiyalarining adabiyot ta’limida qo‘llanilish imkoniyatlari batafsil yoritiladi.

1. Interaktiv va raqamli ta’lim muhitini yaratish

1.1. Elektron darsliklar va onlayn manbalar

- Elektron darsliklar yordamida o‘quvchiva talabalar istalgan vaqtda adabiy matnlarni o‘qish, qo‘shimcha izohlarni o‘rganish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.
- Khan Academy, Coursera, EdX, Google Books kabi platformalar orqali o‘qituvchilar va o‘quvchi(talaba)lar zamonaviy adabiyot nazariyalari bilan tanishishlari mumkin[5, 10].

1.2. Virtual kutubxonalar va audiokitoblar

- Project Gutenberg, Google Scholar, LibriVox, Z-Library kabi raqamli kutubxonalar orqali turli tillardagi adabiyotlarni topish va o‘qish mumkin.
- Audiokitoblar yordamida o‘quvchilarning eshitish orqali o‘rganish qobiliyatini rivojlantirishga erishiladi. Masalan, Audible va Storytel kabi platformalar orqali adabiy asarlarni audiovariantda tinglash mumkin.

1.3. Interaktiv darslar va raqamli taqdimotlar

- PowerPoint, Prezi, Canva kabi dasturlar orqali adabiy asarlarning taqdimotlarini yaratish mumkin.
- Padlet, MindMeister, Miro kabi interaktiv doskalar yordamida o‘quvchi(talaba)lar badiiy asarlarni tahlil qilish va muhokama qilish jarayonlarini osonlashtiradi[6,7].

2. Diskurs ta’lim metodini qo‘llash va interaktiv muhokamalar

2.1. Forum va blog platformalaridan foydalanish

- O‘quvchi(talaba)lar uchun Google Classroom, Edmodo, Moodle kabi platformalarda maxsus forumlar yaratilib, ular o‘z fikrlarini yozma shaklda ifodalashlari mumkin.
- WordPress, Blogger kabi platformalar orqali o‘quvchi(talaba)larga adabiy mavzularda bloglar yuritish topshirig‘i berilishi mumkin.

2.2. Videokonferensiyalar va vebinarlar

- Zoom, Microsoft Teams, Google Meet kabi platformalar yordamida o‘quvchi(talaba)lar o‘zaro onlayn muhokamalarni amalga oshirishlari mumkin.
- Mashhur yozuvchilar, adabiyotshunoslar va olimlar bilan onlayn seminarlar tashkil qilish orqali o‘quvchi(talaba)larning ilmiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirish mumkin.

2.3. Raqamli fikr xaritalari (Mind Mapping)

- MindMeister, XMind, Miro kabi vositalar orqali badiiy asar syujetlarini tahlil qilish, asosiy qahramonlarni ajratib ko‘rsatish va ularning xarakteristikasini tuzish mumkin[6,8].
- Bu usul orqali o‘quvchi(talaba)lar roman, qissa va hikoyalarning asosiy fikrlarini tushunish va eslab qolishlariga yordam beriladi.

3. Sun’iy intellekt va ta’limdagi avtomatlashtirilgan tizimlar

3.1. Matn tahlili uchun sun’iy intellektdan foydalanish

- Grammarly, QuillBot, Hemingway Editor kabi vositalar yordamida adabiy matnlarning uslubiy va grammatik xatolarini tahlil qilish mumkin.

• ChatGPT va Bard AI kabi sun’iy intellekt asosida ishlovchi chatbotlardan foydalangan holda adabiy matnlarni tahlil qilish va muhokama qilishda foydalanish mumkin[7,3].

3.2. O‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash tizimlari

• Google Forms, Kahoot, Quizizz kabi vositalar yordamida o‘quvchi(talaba)lar o‘z bilimlarini testlar orqali mustahkamlashlari mumkin.

• Adaptive Learning Systems (moslashuvchan o‘quv tizimlari) yordamida har bir o‘quvchi(talaba) o‘zining bilim darajasiga qarab maxsus topshiriqlar oladi.

3.3. Sun’iy intellekt yordamida hikoyalar yozish

• AI Dungeon, Jasper AI kabi vositalardan foydalangan holda o‘quvchi(talaba)larga interaktiv hikoyalar yozish imkoniyatini berish mumkin[7].

• O‘quvchi(talaba)lar o‘z hikoyalarini yaratishda sun’iy intellektdan foydalanib, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

4. Gamifikatsiya va o‘yinlashtirilgan ta’lim yondashuvlari

4.1. Ta’limiy o‘yinlar va ilovalar

• Minecraft: Education Edition, Classcraft, Storybird kabi ilovalardan foydalanib, o‘quvchi(talaba)lar uchun adabiyot bo‘yicha maxsus topshiriqlar berish mumkin.

• O‘quvchi(talaba)lar asar qahramonlari hayotini vizual tarzda yaratishlari va ularga oid muhim tafsilotlarni o‘rganishlari mumkin.

4.2. Virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalaridan foydalanish

• Google Expeditions, Oculus VR kabi vositalardan foydalanib, tarixiy voqealar asosida yozilgan adabiy asarlarni vizual tarzda tushuntirish mumkin.

• Augmented Reality (AR) ilovalari yordamida adabiy obrazlarni interaktiv tarzda kashf etish imkoniyati yaratiladi.

5. Mustaqil ta’lim va masofaviy o‘qitish imkoniyatlari

5.1. Mustaqil ta’lim uchun platformalar

• O‘quvchilar Duolingo, Coursera, EdX, Udemy kabi platformalardan mustaqil ta’lim olish uchun foydalanishlari mumkin.

• Masofaviy adabiyot kurslarini yaratish va ulardan o‘quv jarayonida foydalanish mumkin.

5.2. O‘quvchi(talaba)lar uchun individual ta’lim dasturlarini ishlab chiqish

• Har bir o‘quvchi(talaba) o‘ziga mos keladigan ta’lim yo‘nalishini tanlab, mustaqil ravishda adabiy asarlarni o‘rganishi va tahlil qilishi mumkin.

• Google Classroom va Moodle kabi tizimlar yordamida har bir o‘quvchi(talaba)ga mos topshiriqlar berish imkoniyati mavjud.

Xulosa. Adabiyot fanlarida IT-texnologiyalarni qo‘llash o‘qituvchilar va o‘quvchi(talaba)larga bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Raqamli texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonini yanada interaktiv, qiziqarli va samarali tashkil qilish mumkin. IT-texnologiyalarning ta’limga integratsiyasi nafaqat o‘qituvchilarning kompetensiyasini oshirishga, balki o‘quvchi(talaba)larning tahliliy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga ham yordam beradi. Shu sababli, adabiyot ta’limida IT-texnologiyalarni keng qo‘llash bo‘yicha metodik yondashuvlar ishlab chiqilishi zarur.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, adabiyot fanlarida IT-texnologiyalarni qo‘llash nafaqat o‘quvchi(talaba) va talabalarning o‘zlashtirish darajasini oshirishga, balki o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. O‘qituvchilar uchun raqamli texnologiyalar asosida malaka oshirish kurslarini tashkil etish, interaktiv platformalardan foydalanish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar yaratish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, xalqaro tajribalarga asoslanib, o‘qituvchilarning IT-kompetensiyasini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish muhimligi aniqlandi. Bu esa, o‘z navbatida, zamonaviy ta’lim tizimini global standartlarga moslashtirish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bekchonova, Sh. B. (2023). *Cyberpedagogical Competence in Modern Education: Methodological Foundations and Practical Approaches*. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti. – 256 b. (S. 15–98).
2. Jones, R. (2020). *Digital Technologies in Literature Education: Enhancing Student Engagement and Critical Thinking*. London: Routledge. – 312 b. (S. 45–150).
3. Kim, S. H. (2021). *Moral and Aesthetic Education through Digital Learning: A Case Study of South Korean Schools*. Seoul: Springer. – 289 b. (S. 30–120).
4. Smith, J., & Brown, L. (2019). *Transforming Literature Lessons with IT: A Pedagogical Approach to Interactive Learning*. New York: Cambridge University Press. – 278 b. (S. 60–180).
5. Khan Academy. (2022). *Using Multimedia for Literature Analysis: An Educational Perspective*. Retrieved from www.khanacademy.org.
6. MindMeister. (2021). *Mind Mapping for Literature Studies: Enhancing Conceptual Understanding*. Retrieved from www.mindmeister.com.
7. Grammarly AI. (2022). *Artificial Intelligence in Text Analysis: Improving Literary Interpretation*. Retrieved from www.grammarly.com.

NAFOSAT TARBIYASINING NAZARIY ASOSLARI VA XORIJIY TIL O‘QITUVCHILARI UCHUN AHAMIYATI

Dilafruz Kenjabayeva,
Termiz davlat universiteti, Fakultetlararo chet tillarikafedrasi dotsenti v.b.,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada axborotlashgan ta’lim muhitida bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarida nafosat tarbiyasini shakllantirish metodologiyasi tahlil qilinadi. Nafosat tarbiyasining nazariy asoslari, pedagogik va psixologik jihatlari ko‘rib chiqilib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida estetik didni rivojlantirish imkoniyatlari o‘rganiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, interaktiv metodlar, vizual materiallar va san’at elementlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish xorijiy til o‘qituvchilarining estetik kompetentligini oshirishda samarali ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning media-kompetentligini rivojlantirish zarurati ham muhokama qilinadi. Tadqiqot asosida media-kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari belgilab berilib, ta’lim jarayonida uni shakllantirish yo‘nalishlari bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *axborotlashgan ta’lim, nafosat tarbiyasi, xorijiy til o‘qituvchisi, media-kompetentlik, interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar, estetik did, pedagogik innovatsiyalar, media-madaniyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.*

Аннотация

В статье анализируется методика формирования эстетического воспитания будущих учителей иностранных языков в информационно-образовательной среде. Рассматриваются теоретические основы, педагогические и психологические аспекты эстетического воспитания, исследуются возможности развития эстетического вкуса с использованием современных информационно-коммуникационных технологий. По результатам исследования установлено, что интеграция интерактивных методов, наглядных материалов и элементов искусства в образовательный процесс является эффективной для повышения эстетической компетентности преподавателей иностранных языков. При этом будет обсуждаться необходимость развития медиакомпетентности учителей. На основе проведенного исследования были выявлены основные компоненты медиакомпетентности и даны рекомендации по направлениям ее формирования в образовательном процессе.

Ключевые слова: *информационное образование, воспитание элегантности, учитель иностранного языка, медиакомпетентность, интерактивные методы, цифровые технологии, эстетический вкус, педагогические инновации, медиакультура, информационно-коммуникационные технологии.*

Abstract

This article analyzes the methodology for the formation of aesthetic education in future foreign language teachers in an information-based educational environment. The theoretical foundations, pedagogical and psychological aspects of aesthetic education are considered, and the possibilities of developing aesthetic taste using modern information and communication technologies are studied. According to the results of the study, it was found that the integration of interactive methods, visual materials and elements of art into the educational process is effective in increasing the aesthetic competence of foreign language teachers. At the same time, the need to develop teachers' media competence is also discussed. Based on the study, the main components of media competence are identified and recommendations are given on the directions of its formation in the educational process.

Keywords: *information-based education, aesthetic education, foreign language teacher, media competence, interactive methods, digital technologies, aesthetic taste, pedagogical innovations, media culture, information and communication technologies.*

Kirish. Axborotlashgan ta’lim muhitida xorijiy til o‘qituvchilari nafaqat lingvistik bilimlarga, balki estetik did va madaniy qadriyatlarga ham ega bo‘lishi lozim. Zamonaviy texnologiyalar ta’lim jarayonining uzviy qismiga aylangan bir davrda nafosat tarbiyasini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarida nafosat tarbiyasini shakllantirish metodologiyasining psixologik va pedagogik jihatlari tahlil qilinadi.

Nazariy asoslar. Nafosat tarbiyasi o‘qituvchilarning estetik va axloqiy qadriyatlarini shakllantirish bilan bog‘liq murakkab jarayon bo‘lib, u pedagogika va psixologiya tamoyillariga asoslanadi. Axborotlashgan ta’lim sharoitida multimediya texnologiyalari, interaktiv usullar va san’at elementlaridan foydalanish orqali estetik didni rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi[5,344]. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisining asosiy vazifalaridan biri – yangi axborot va media-madaniy texnologiyalar vositalaridan foydalanish shartlari va usullarini aniqlashdan iboratdir. Aniqlangan va tahlil qilingan shart-sharoitlar muqarrar ravishda integratsiyalashib, tabiatan har xil bo‘lgan talaba shaxsining media kompetentligini rivojlantirish jarayonini amalga oshirish uchun oliy o‘quv yurtida mediatirlashtirilgan o‘quv muhitini tashkil etishga qaratilgan pedagogik holatlarning kompleks birligini tashkil qiladi [3,4].

Metodologiya. Tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlil usullari uyg‘unlashtirilgan. Tadqiqot ishtirokchilari sifatida xorijiy til o‘qituvchilari va pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar tanlangan. So‘rovnomalar, intervyular va kuzatishlar orqali nafosat tarbiyasining rivojlanish darajasi hamda unga ta’sir qiluvchi omillar o‘rganildi. Eksperimental tadqiqot doirasida axborot texnologiyalaridan foydalanish natijalari tahlil qilindi.

Tahlil va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish xorijiy til o‘qituvchilarining nafosat tarbiyasini rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Interaktiv darslar, vizual materiallardan foydalanish va san’at elementlarini kiritish estetik didni shakllantirishga yordam beradi[2, 66]. Biroq, ayrim o‘qituvchilarda bu jarayonni ta’limga integratsiya qilish bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalar yetishmayotgani aniqlandi. Shuning uchun maxsus metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish va o‘qituvchilarni shu yo‘nalishda tayyorlash zarur.

Oliy ta’lim muassasasida axborotlashtirilgan ta’lim sharoitida o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri – zamonaviy axborot va media-madaniy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilishdir. Bu jarayon o‘qituvchilardan nafaqat texnik vositalardan foydalanish ko‘nikmasini, balki talabalarning media-kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvni ham talab qiladi.

Media-kompetentligini rivojlantirish va uning asosiy tarkibiy qismlari

Media-kompetentlik – bu shaxsning zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni (AKT) samarali qo‘llash, media mahsulotlarini tahlil qilish, axborotni tanqidiy baholash va axborot xavfsizligiga rioya qilish qobiliyatidir. Ushbu kompetentlik quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat:

1. **Axborot bilan ishlash ko‘nikmalari** – Talabalar axborotni izlash, saralash, tahlil qilish va taqdim etish strategiyalarini o‘zlashtirishlari kerak.
2. **Media va axborot savodxonligi** – Talabalar turli media resurslarni tushunish, tahlil qilish va ulardan tanqidiy foydalanish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur.

3. **Raqamli kommunikatsiya** – Media texnologiyalar orqali samarali o‘zaro aloqada bo‘lish va fikr almashish ko‘nikmalarini shakllantirish.

4. **Media etikasi va axborot xavfsizligi** – Shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va media platformalarida axborot etikasi qoidalariga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA. Xorijiy til o‘qituvchilarida nafosat tarbiyasini rivojlantirish axborotlashgan ta’lim sharoitida innovatsion texnologiyalar yordamida samarali amalga oshirilishi mumkin. Bu jarayonda interaktiv metodlar, raqamli resurslar va madaniy kontekstlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kelajakda bu yo‘nalishda yanada chuqurroq tadqiqot olib borish va amaliy model ishlab chiqish talab etiladi. Axborotlashtirilgan ta’lim sharoitida oliy ta’lim o‘qituvchisining asosiy vazifalaridan biri – talabalarning media-kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shart-sharoitlarni aniqlash va ushbu jarayonni samarali yo‘lga qo‘yishdan iborat. Mediatirlashtirilgan o‘quv muhitini tashkil etish talabalarning mustaqil o‘rganish qobiliyatini oshirish, media resurslardan ongli foydalanish va ularning axborot savodxonligini rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa zamonaviy oliy ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Haqberdiyev, Jamoliddin & Zarina, Ro'ziboyeva. (2024). ESHITISHDA NUQSONI BO`LGAN BOLALARNI TARBIYALASHDA NAFOSAT TARBIYASINING O`RNI. 5. 136-138.

2. Giyosova Gulnoza Nuraliyevna (2020). O'zbek xalq pedagogikasi va nafosat tarbiyasi. Евразийский научный журнал, (1), 65-67.

3. Umarov Azizbek Vaxobovich (2023). TA’LIMNI AXBOROTLASHTIRISH SHAROITIDA BO‘LAJAK MUHANDISPEDAGOGLARNING MEDIAMADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY MEXANIZMI. Современное образование (Узбекистан), (7 (128)), 3-10. doi: 10.34920/SO/VOL_2023_ISSUE_7_1

4. Sug’Diyona Mashrabova (2022). ESTETIK TARBIYA. MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA. Scientific progress, 3 (4), 1135-1140.

5. D. Kenjaboyeva (2021). BO’LAJAK XORIJIY TIL O’QITUVCHILARINING DEONTOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. Academic research in educational sciences, 2 (NUU Conference 1), 344-345.

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O‘QITISHDA MA’LUMOTLAR BAZASIDAN FOYDALANISH

Dilshod Nabiyev,
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanida ma’lumotlar bazasini o‘qitish jarayonining amaldagi holati tahlil qilingan. Tadqiqot davomida O‘zbekiston maktablarida ma’lumotlar bazalari bo‘yicha mavjud o‘quv dasturlari, o‘qitish metodikasi, o‘qituvchilar va o‘quvchilarning bilim darajasi hamda texnik ta’minot holati o‘rganildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilarning asosiy qismi faqat Microsoft Access bilan ishlashga tayyorlangan bo‘lib, zamonaviy SQL yoki NoSQL ma’lumotlar bazalari bo‘yicha bilimlari cheklangan. Tadqiqot natijalariga asoslangan holda, maqolada zamonaviy DBMS (MySQL, PostgreSQL, MongoDB, Firebase) tizimlarini maktab dasturlariga kiritish, amaliy mashg‘ulotlarni kengaytirish va o‘qituvchilar malakasini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu tavsiyalar maktablarda informatika ta’limining sifatini oshirish, o‘quvchilarning axborot texnologiyalari bo‘yicha tayyorgarligini mustahkamlash, ma’lumotlar bazasi va zamonaviy IT-sohalariga yo‘naltirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: *Ma’lumotlar bazasi, NoSQL bazalar, relyatsion, texnik ta’minot, lokal server, virtual laboratoriya, mobil ilova, dasturiy loyiha, onlayn platforma, interaktiv mashg‘ulot, bulutli texnologiya va boshqalar.*

Аннотация

В данной статье проанализировано текущее состояние преподавания баз данных в рамках предмета «Информатика и информационные технологии» в общеобразовательных школах. В ходе исследования были изучены существующие учебные программы по базам данных, методики преподавания, уровень знаний учителей и учащихся, а также состояние технического обеспечения в школах Узбекистана. Результаты анализа показали, что большинство учителей подготовлены только для работы с Microsoft Access, а их знания современных баз данных SQL или NoSQL ограничены. На основе результатов исследования в статье представлены рекомендации по интеграции современных СУБД (MySQL, PostgreSQL, MongoDB, Firebase) в школьные программы, расширению практических занятий и повышению квалификации учителей. Данные рекомендации направлены на повышение качества образования в области информатики, укрепление подготовки учащихся в сфере информационных технологий и их ориентацию на изучение баз данных и современных IT-направлений.

Ключевые слова: *База данных, NoSQL базы, реляционная, техническое обеспечение, локальный сервер, виртуальная лаборатория, мобильное приложение, программный проект, онлайн-платформа, интерактивное занятие, облачная технология и другие.*

Abstract

This article analyzes the current state of teaching databases in the subject of "Informatics and Information Technologies" in general secondary education schools. During the research, the existing curricula on databases, teaching methodologies, the knowledge level of teachers and students, as well as the state of technical infrastructure in schools in Uzbekistan were examined. The analysis results indicate that most teachers are trained only to work with Microsoft Access, while their knowledge of modern SQL or NoSQL databases is limited. Based on the research findings, the article presents recommendations for integrating modern DBMS (MySQL, PostgreSQL, MongoDB, Firebase) into school curricula, expanding practical training, and improving teachers' qualifications. These recommendations aim to enhance the quality of informatics education in schools, strengthen students' preparation in information technologies, and facilitate their orientation toward databases and modern IT fields.

Keywords: *Database, NoSQL databases, relational, technical support, local server, virtual laboratory, mobile application, software project, online platform, interactive lesson, cloud technology, and others.*

Kirish. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, Informatika va axborot texnologiyalari fanida ma’lumotlar bazasi tushunchasini umumta’lim maktablar o‘quvchilariga zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Jahon hamjamiyatida ta’lim sohasidagi ilm-fan taraqqiyoti, axborotlashgan jamiyatda o‘qitishning zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari vositalarini keng joriy etish va ulardan yanada samarali foydalanish dolzarbligini ko‘rsatmoqda.

Rivojlangan davlatlarda o‘quvchilar ijodiy qobiliyatlarini faollashtiruvchi tamoyillarni (ijtimoiy media marketing, dizayner, loyihalarni modellashtirish, dasturiy ilovalar yaratish, ma’lumotlar bazasi va axborot tizimlari hamda ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlarini yaratish) yoritishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim tizimida olib borilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy islohotlar yuqori malakali raqobatdosh malakali kadrlar tayyorlashga qaratilganligi, o‘quvchilarga ma’lumotlar bazasi va dasturlash tillariga bo‘lgan e’tiborini kuchaytirish, o‘qitishda innovatsion dasturiy ta’minotlardan foydalanib o‘qitish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ushbu yo‘nalishda mavjud holatni tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir .

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi kunda turli sohalarda ma’lumotlar bazalari foydalanuvchilarga ma’lumotlarni samarali saqlash, ularga kirish va tahlil qilish imkonini beradi, shu bilan bir qatorda o‘quvchilarga ma’lumotlar bazasi va axborot tizimlarini yaratish hamda unlarning imloniyatidan to‘laqonli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biridir.

Tadqiqotning asosiy maqsadi - Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanida ma’lumotlar bazalaridan foydalanishning amaldagi holatini tahlil qilish va bu yo‘nalishda ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. [1].

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ma’lumotlar bazasi bo‘yicha ta’lim jarayonini o‘rganish.

- Informatika darslarida ma’lumotlar bazalarini o‘qitishning metodologik jihatlarini tahlil qilish.
- O‘qituvchilar va o‘quvchilarning ma’lumotlar bazalariga oid bilim va amaliy ko‘nikmalarini baholash.
- Maktablardagi texnik jihozlar va dasturiy ta’minotning yetarliligini aniqlash.
- Chet el tajribalarini o‘rganib, maktablarda ma’lumotlar bazasini o‘qitishni rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Ma’lumotlar bazasi (MB) – bu katta hajmdagi ma’lumotlarni samarali saqlash, ularga tezkor kirish va boshqarish imkonini beruvchi texnologik tizimdir [2]. Zamonaviy jamiyatda MB moliya, tibbiyot, ta’lim, sanoat va boshqa ko‘plab sohalarda keng qo‘llaniladi [3]. O‘quvchilarga ma’lumotlar bazasi tushunchasini o‘rgatish quyidagi muhim jihatlarni qamrab oladi:

- *Tizimli tafakkurni shakllantirish* – ma’lumotlarni to‘g‘ri saqlash va ularga ishlov berish metodlarini o‘rgatish.
- *Dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirish* – Access, SQL, NoSQL va boshqa dasturlar bilan ishlashni o‘rgatish.
- *Real hayotiy masalalarni yechish* – ma’lumotlarni tahlil qilish va boshqarish orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida Informatika va axborot texnologiyalari fanidan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ma’lumotlar bazasi bo‘yicha ta’lim berishning amaldagi holati va o‘qitish shaklari kamchiliklar quyidagicha:

1. *O‘quv dasturidagi mavzular*
- 8-9-sinflarda ma’lumotlar bazasi haqida asosiy tushunchalar o‘qitiladi.
- 10-11-sinflarda esa SQL, MySQL va boshqa texnologiyalar bilan tanishish amalga oshiriladi.

Biroq, o‘quv dasturida ma’lumotlar bazalarini amaliy o‘rgatish yetarli darajada emas. O‘quvchilarga asosan nazariy bilimlar beriladi va ularda real loyihalar ustida ishlash imkoniyati kam [4].

2. *Amaliyotga yo‘naltirilgan yondashuv yetishmovchiligi*
- Maktablarda laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlar uchun texnik resurslar yetishmovchiligi.
- Ko‘pgina maktablarda MySQL, PostgreSQL kabi ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari (MBBT) dasturlarining o‘rnatilmaganligi.
- O‘qituvchilarning ma’lumotlar bazalarini amaliy o‘qitish bo‘yicha malakasi turlicha darajada.

3. *Dasturiy vositalarning cheklanganligi*
- Maktablarning ko‘pchiligida faqatgina Microsoft Access bilan ishlash o‘rgatiladi.
- MySQL yoki PostgreSQL kabi professional darajadagi bepul MBBT lar bilan ishlash imkoniyati cheklangan.
- Cloud (bulutli) xizmatlardan foydalanish imkoniyati mavjud emas.

Tahlil va natijalar. Umumta’lim maktablarida ma’lumotlar bazasidan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. *O‘quv dasturlarini takomillashtirish* – ma’lumotlar bazasi bo‘yicha mavzularni kengaytirish va amaliy mashg‘ulotlar sonini ko‘paytirish:
- Informatika fanining o‘quv dasturiga ma’lumotlar bazasi bilan ishlash bo‘yicha ko‘proq mavzular kiritish.
- SQL bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni o‘quv jarayoniga joriy qilish.
- O‘quvchilarga real hayotda qo‘llash mumkin bo‘lgan ma’lumotlar bazasi loyihalarini ishlab chiqish imkoniyatini berish.

2. *O‘qituvchilar malakasini oshirish* – Axborot texnologiyalari bo‘yicha o‘qituvchilarga doimiy trening tashkil etish:
- Informatika o‘qituvchilari uchun ma’lumotlar bazasi bo‘yicha maxsus trening va kurslar tashkil etish.

- Zamonaviy dasturiy vositalar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun amaliy seminarlar o‘tkazish.

3. *Texnik ta’minotni yaxshilash* – Zamonaviy kompyuter sinflari va dasturiy ta’minot bilan ta’minlash:

- Maktablardagi kompyuter sinflarini zamonaviy dasturlar va texnologiyalar bilan jihozlash.
- Internet tezligi past bo‘lgan hududlarda lokal server yoki oflayn dasturiy vositalardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish.

4. *Amaliy loyihalarni joriy etish va interaktiv o‘qitish usullarini qo‘llash* – O‘quvchilarga real ma’lumotlar bazasini yaratish va ishlatish bo‘yicha kichik loyihalar ustida ishlash virtual laboratoriya hamda mobil ilovaladan foydalanish imkoniyatini yaratish:

- Ma’lumotlar bazasi yaratish va ishlatish bo‘yicha loyihaviy yondashuvni o‘quv jarayoniga kiritish [5].
- O‘quvchilarga amaliy topshiriqlar berish orqali ularning real dasturiy loyihalar ustida ishlashiga imkon yaratish.
- Onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar va interaktiv mashg‘ulotlardan foydalanish tavsiya etiladi [6].

Xulosa. Hozirgi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ma’lumotlar bazasini o‘qitish bo‘yicha ayrim qiyinchiliklar mavjud. Asosiy muammo amaliy mashg‘ulotlarning yetishmovchiligi va zamonaviy texnologiyalarga yetarlicha e’tibor qaratilmaganligidadir.

Kelajakda maktablarda ma’lumotlar bazalari va axborot texnologiyalari bo‘yicha ta’lim sifatini oshirish uchun quyidagilar amalga oshirilishi lozim:

- Texnik jihozlarni yangilash;
- Dasturiy vositalarni kengaytirish;
- O‘qituvchilar malakasini oshirish;
- Amaliy loyihalar asosida o‘qitish tizimini joriy etish.

Mazkur tadqiqot “Informatika va axborot texnologiyalari” fanida ma’lumotlar bazalaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun ilmiy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan . Unga asoslanib, ta’lim jarayonini yanada innovatsion va samarali qilish imkoniyatlari aniqlanadi. Bu yo‘nalishdagi islohotlar o‘quvchilarning ma’lumotlar bazasi va axborot texnologiyalari bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishini ta’minlaydi hamda kelajakda ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni integratsiya qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Зарипов Н. Н. Использование иностранного опыта в обучении информатике и информационным технологиям в школе //проблемы современного образования. – 2020. – №. 6. – С. 213-218.

2. Zaripov, N. (2024). Maktab o‘quvchilariga dasturlash tillarini o‘qitish usullari: muammolar va yechimlar. News of the NUUz, 1(1.9), 88-90.

3. Nabiyev D. (2023). Modern in education electron technologies and interactive of the methods of use importance. innovative research in modern education, 1(3), 27-30.

4. Paxlavonovich, N. D. (2024). The problem of innovative activity in the organization of education on the base of information technologies in general education schools. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(6), 634-638.

5. Abdullayevich, S. M. (2024). Linking tables in database management system. pedagogical reforms and their solutions, 3(2), 57-58.

6. Paxlavonovich, N. D. (2024, March). The issue of organizing classes of general education schools in an electronic system. In International Global Conference (Vol. 1, No. 1, pp. 161-163).

ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННЫХ ГЛОБАЛЬНЫХ ПРОБЛЕМ

Дилноза Усмонова,
старший преподаватель кафедры «Химия и методика ее преподавания»
Ташкентский государственный педагогический университет
имени Низами

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы проблемы экологической культуры при формировании профессиональных образование обучающихся. Для достижения этой цели может использоваться дидактическая игра для решения глобальных задач, который учит правильно и логически мыслить, развивает умение наблюдать и анализировать проблемы, вытекающие из определенной профессиональной деятельности. Основное внимание акцентирует на том, что концептуализация понятия «экологическая культура» возможна на основе применения концепции взаимодействия природы и общества, определяющей их как отличные и взаимопроникающие образования. Раскрыта связь экологической культуры общества и экологической культуры личности.

Ключевые слова: *экологическая культура, наука, метод, природа, концептуализация, понятия, экология, образования, формирование, проблема*

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarning kasbiy ta'limini shakllantirishda ekologik madaniyat muammosi masalalari ko‘rib chiqiladi. Ushbu maqsadga erishish uchun to‘g'ri va mantiqiy fikrlashni o‘rgatadigan, muayyan kasbiy faoliyatdan kelib chiqadigan muammolarni kuzatish va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradigan global muammolarni hal qilish usulidan foydalanish mumkin. Asosiy e'tibor "ekologik madaniyat" tushunchasini kontseptualizatsiya qilish tabiat va jamiyatning o‘zaro ta'siri kontseptsiyasini qo‘llash asosida amalga oshirilishi mumkinligiga qaratilgan bo‘lib, ularni mukammal va o‘zaro kirib boruvchi shakllanishlar sifatida belgilaydi. Jamiyatning ekologik madaniyati va shaxsning ekologik madaniyati o‘rtasidagi bog'liqlik aniqlandi.

Kalit so‘zlar: *ekologik madaniyat, fan, usul, tabiat, kontseptualizatsiya, tushunchalar, ekologiya, ta'lim, shakllanish, muammo*

Annotation

This article discusses the issues of environmental culture in the formation of professional education of students. To achieve this goal, a method of solving global problems can be used, which teaches correct and logical thinking, develops the ability to observe and analyze problems arising from a particular professional activity. The main attention is focused on the fact that the conceptualization of the concept of "ecological culture" is possible based on the application of the concept of interaction between nature and society, defining them as distinct and interpenetrating entities. The connection between the ecological culture of society and the ecological culture of the individual is revealed.

Keywords: *ecological culture, science, method, nature, conceptualization, concepts, ecology, education, formation, problem*

Введение. Экологическая культура в наши дни занимает особое место по нескольким причинам. Во-первых, она является системным фактором преобразования мировоззрения людей в отношении к природе и природопользованию, во-вторых, она находится в процессе становления всех своих компонентов, в-третьих, в ней находятся много проблемных моментов, которые связаны главным образом с экологическим образованием и учебными программами, которые интегрируются в различные преподаваемые предметы. Сегодня наиболее актуальной является задача формирования интегрального подхода к воспитанию экологической культуры. Такие науки, как физика, химия, биология и др., должны включить в учебные программы вопросы, которые непосредственно касаются компонентов, складывающихся в единое понимание экологической культуры человека, и создают основу для его социализации. Это требует от естественнонаучных дисциплин осознания важности включения в свои программы вопросов экологического воспитания и координации усилий научного и педагогического

сообщества по совместной разработке интегральных тем, позволяющих раскрыть особенности экологической культуры и ее функциональность в образовании.

Проблемы экологического образования, формирования экологической культуры личности достаточно недавно разрабатываются в педагогической науке. Экологические проблемы, прежде всего ухудшение среды жизни человека, являются общими проблемами населения Земли. Ученые всего мира сошлись в едином мнении, что экологические проблемы и катастрофы связаны с образованностью населения – ее недостаточность или отсутствие и породили потребительское отношение к природе. Обретение экологической культуры, экологического сознания и мышления – единственный для человечества выход из сложившейся ситуации. Необходимо формирование человека нового типа, с новым экологическим мышлением, способного осознавать последствия своих действий по отношению к окружающей среде и умеющего жить в относительной гармонии с природой. Бережное отношение к природе должно быть нормой поведения людей любого возраста. В контексте концепции устойчивого развития формирование экологической культуры имеет особо важное значение [1; с. 18-19].

Формируя экологическую культуру личности, необходимо учитывать особенности каждого структурного компонента образовательного пространства, а также специфику их взаимосвязи и взаимодействия при управлении данным процессом. В концепции общего экологического образования указывается, что экологическая культура опирается на духовный и практический опыт прошлых и нынешних поколений, а также учитывает прогнозы специалистов по изменению экологического качества среды в наступившем третьем тысячелетии [2; с. 14].

В условиях глобального экологического кризиса, переживаемого человечеством, возникла необходимость в непрерывном экологическом образовании, основная цель которого состоит в формировании нового типа отношения к природе на основе воспитания экологической культуры личности. Современные проблемы взаимоотношения человека с окружающей средой могут быть решены только при условии формирования экологического мировоззрения у всех людей, повышения их экологической грамотности и культуры, понимания необходимости реализации принципов устойчивого развития.

Обзор литературы. Каждое новое поколение должно овладеть способами воспитания, оставленные в наследство прежними поколениями, а также уже известными способами изменения унаследованного, которые в совокупности создают возможность творить новые способы деятельности и новые способы изменения условий. Вне культуры нет ничего, что могло бы войти в содержание образования, поэтому исследование понятия «экологическая культура» неразрывно связано с ним.

Существующая в настоящее время практика химического образования, явление хемофобии, а также низкий интерес учащихся к изучению химии может быть существенно изменен за счет усиления в содержании курса химии эколого-химического материала, что отражено в работах химиков-методистов М.Н. Берулавы, А.Ю. Жегина, А.В. Ефимова, Н.Е. Кузнецовой, В.М. Назаренко. Н.Ф. Винокурова подчеркивает, что «в экологической культуре интегрируются все сферы сознания личности: когнитивной (познавательной), аффективной (эмоционально-ценностной) и психомоторной». [3;с.11].

И.Д. Зверев отмечает, что экологическая культура отражает целостное понимание мира, синтез многообразных видов деятельности человека, основанных на знаниях универсальных свойств биосферы, доминирующего положения в ней человека. Родзевич считает, что составной частью экологической культуры является экологическое мировоззрение, представляющее систему обобщённых взглядов на отношения людей к окружающей среде. [4; с. 58-59]

Н.С. Дежникова считает, что «контрапунктом воспитания экологической культуры является формирование такого представления о месте и роли человека во взаимоотношениях с окружающей средой, при котором ни человек не противопоставляется природе, ни природа человеку, а их существование воспринимается в единстве и неразрывной связи друг с другом». [5;с.17]

Методология исследования. Наиболее актуальными и обсуждаемыми в современном обществе являются проблемы в области экологии. В процессе решения экологических проблем тратится огромное

количество денег, но состояние окружающей среды не улучшается, и человечество стремительно теряет способность контролировать и предвидеть природные явления.

На протяжении многих лет человечество пытается реализовать различные подходы к преодолению природного дисбаланса, хотя их успех далеко не очевиден. Проблема взаимосвязи человек с природой не нова, она имела место всегда. Но сейчас, в настоящее время, экологическая проблема взаимодействия человека и природы, также воздействия человеческого общества на окружающую среду стала очень острой и приняла огромные масштабы. Общество не выживет без экологического сознания. Это сознание должно проникнуть во все области науки, техники и производства и изменить их так, чтобы они способствовали выживанию человечества, не его гибели. Сущность экологического сознания является отражением реально практических отношений общества. Обществу необходимо знать экологические нормы, правила поведения, иметь высокий уровень экологической культуры. Процесс формирования экологической культуры рассматривается как единство трех проблем: широкое разъяснение гибельных последствий загрязнения среды обитания; приобретение экологического подхода к организации экономики и другим сферам жизни и деятельности общества; формирование экологического сознания. На формирование сознания огромное влияние оказывает общественная жизнь. Экологическая культура органически связана с сущностью личности в целом, с ее различными сторонами и качествами. Неправильно полагать, что сфера нравственно-экологической ответственности начинается и действует в рамках профессиональной морали. Самое существенное в процессе экологизации морали постепенная сложная перестройка сознания. Нормы нравственного отношения к природе, ставшие внутренней потребностью, могут сыграть высокую роль в решении экологических проблем. [6; с. 137-139]

Анализ и результаты. Экологическая культура в наши дни занимает особое место по нескольким причинам. Во-первых, она является системным фактором преобразования мировоззрения людей в отношении к природе и природопользованию, во-вторых, она находится в процессе становления всех своих компонентов, в-третьих, в ней находятся много проблемных моментов, которые связаны главным образом с экологическим образованием и учебными программами, которые интегрируются в различные преподаваемые предметы. Экология является интегрирующей наукой, включающей в себя знания многих естественных и гуманитарных наук. Под экологией принято понимать науку о взаимоотношениях живых существ между собой и с окружающей их природой, о структуре и функционировании надорганизменных систем. В свою очередь, определений культуры очень много. Принципиальными являются определения, где подчеркивается, что под культурой понимают человеческую деятельность в ее самых разных проявлениях, включая все формы и способы человеческого самовыражения и самопознания, накопление человеком и социумом в целом навыков и умений. В этой связи, экологическая культура представляет собой человеческую деятельность, умения и навыки по сохранению и поддержанию взаимоотношений живых существ, в том числе человека, в рамках окружающей среды. Она представляет собой систему понятий и практических навыков по охране и организации окружающей среды и природных процессов, присущих ей. Проблемные составные моменты заключаются в том, что экология не во всем определилась с содержанием учебных программ в каждой отдельной дисциплине. Следовательно, необходимы время и практика для того, чтобы уточнить содержание учебных курсов и приблизить их как можно более к ярко выраженному экологическому содержанию в каждом предмете. Проблемы выявляются в результате их верификации в процессе подготовки специалистов по экологии или в процессе экологического просвещения. Проблема заостряется в противоречии между, с одной стороны, необходимостью формирования экологической культуры подрастающего поколения с целью преодоления глобальных экологических проблем, с другой – формальным подходом к формированию экологической культуры в процессе образования.

Предмет: Экологическая химия

Цель: распространение личного профессионального опыта в свете формирования экологической грамотности учащийся для устойчивого развития.

Задачи:

- создание условий для профессионального общения;
- распространение передового педагогического опыта;
- внедрение новых технологий воспитания.

Компетенции:

Формирование умения у педагогов:

- организовывать ведущие виды деятельности учащихся
- организовывать совместную и самостоятельную деятельность
- применять теорию и педагогические методики познавательного и личностного развития.

Оборудование: ноутбук, мультимедийная установка, колонка.

Раздаточный материал: бэйджик для участников, задания подгруппам.

Ход:

1. Вводная часть. Игра-коммуникация: «Здравствуй, милый друг…»

Участники встают в круг, двигаются под музыку со словами:

Здравствуй, здравствуй, милый друг,
Здравствуй, здравствуй, оглянись вокруг,
Здравствуй, здравствуй, ты мне улыбнись,
Здравствуй, здравствуй, со мною подружись!

Участники выбирают себе пару, называют друг другу свое имя, знакомство продолжается.

Ведущий: Добрый день, уважаемые коллеги, вот мы и познакомились. А теперь я предлагаю Вам принять участие в интервью:

-Зайдя в магазин за продуктами вы покупаете новый пакет?
-У Вас дома установлены счетчики для воды?
-Что было бы, если бы дети и взрослые бросали мусор прямо на улице?
-У вас дома пластиковые окна?
-Если села батарейка в часах, что вы делаете дальше?
-Берете ли Вы чек-выписку в банкомате?
-Что произошло бы, если бы все пчелы исчезли?
-Как Вы поступаете с упаковкой товара?
-У Вас дома энергосберегающие лампы?

Спасибо!

2. Основная часть. Погружение в тему: доклад с представлением опыта работы по «Зеленым аксиомам»

Ведущий:

-Уважаемые участники, предлагаю вашему вниманию просмотр мультфильма «Человек-царь природы».

Вопросы для аудитории:

-Какие у вас впечатления после просмотра мультфильма?

-Какими качествами обладает человек-герой мультфильма? (жестокость, агрессивность, алчность, безжалостность, безответственность, глупость, грубость, властолюбие, эгоизм…)

-Что, на ваш взгляд, необходимо предпринять человечеству, чтобы жизнедеятельность человека не привела к таким печальным событиям?

Выводы и рекомендации. Как уже было отмечено во введении, экологическая культура – сравнительно новая проблема, которая остро встала в связи с тем, что человечество вплотную подошло к глобальному экологическому кризису. Все мы прекрасно видим, что многие территории, по причине хозяйственной деятельности человека, оказались загрязнёнными, что сказалось на здоровье и на качестве населения. Можно сказать прямо, что в результате антропогенной деятельности окружающая природа оказалась перед прямой угрозой уничтожения. Из-за неразумного отношения к ней и к её ресурсам, из-за неправильного понимания своего места и положения во вселенной человечеству грозит деградация и

вымирание. Поэтому проблема “правильного” восприятия природы, равно как и “экологической культуры” выходит в настоящий момент на передний план.

Экологическая культура личности представляет собой сложное интегративное образование, в центре которого находятся экологическое мировоззрение, экологические мышление и ответственность. В этой триаде базовым для экологической культуры является экологическое мировоззрение личности – система её взглядов, убеждений, универсальных ценностей, идеалов и принципов, норм и требований экологического императива, образцов экологически сообразного поведения и деятельности, способов познания и деятельности, характерны для экоцентрического подхода к миру. Базисные идеи, лежащие в основе формирования экологической культуры учащихся: идея целостности мира, единства человека с природой, служащая истоком осмысления сущности человека в современном мире, а также идея о конволюции общества и природы, предполагающая ответственность человека за сохранность и существование всего живого на планете и биосферы в целом данная идея позволяет выделить экологическую ответственность как один из ведущих диагностических признаков при формировании экологической культуры учащихся

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Алексеев, С.В. Экологическое образование в базовой школе: методическое пособие/ С.В. Алексеев, Н.В. Груздева, Л.В. Симонова. – СПб.: Специальная литература, 2011. – 102с.

2. Горелов, А.А. Экология: учебное пособие / А.А.Горелов.- Москва: Юрайт-М, 2002.-312с

3. Пономарева И. Н. Проблемы экологии в практике современного экологического образования / Содержание регионального компонента экологического образования при апробации учебных пособий в образовательной области «Экология» / И. Н. Пономарева. – СПб., 1994. – С. 69–72.

4. Кузенкова, Г. В. Введение в экологический мониторинг: учебное пособие. – Н.Новгород: НФ УРАО, 2002. – 72 с.

5. Глазачев С.Н. Экологическая культура: пробное учеб. пособие/ С.Н. Глазачев, О.Н. Козлова. - М.,199с

6. С. Д. Дерябо, В. А. Ясвин Экологическая педагогика и психология : [Учеб. пособие для вузов] /. - Ростов н/Д : Феникс : АО "Книга", 1996. – 476с

7. Павлов, А. Н. Основы экологической культуры : учебное пособие / А. Н.Павлов. – СПб.: Политехника, 2004 – 333 с.

8. Вернадский, В. И. Размышления натуралиста. Научная мысль как планетарное явление. Кн. вторая / В. И. Вернадский. – М., 1977 – 192 с.

9. Усмонова, Д. Т., Игамназарова, З., & Тоирова, Х. ВАЖНЕЙШИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ ТЕНДЕНЦИИ. *Zbiór artykułów naukowych recenzowanych, 103*.

10. Усмонова, Д. Т. (2023). Использование Дидактических Игры В Обучение Химии В Школе. *International Journal of Formal Education*, *2*(2), 1-4.

11. Усмонова, Д. Т., & Миркомилов, Ш. М. (2021). ОСНОВНЫЕ ВИДЫ ВОЗДЕЙСТВИЯ ЧЕЛОВЕКА НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ. *ТОШКЕНТ-2021*, *18*.

DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE FOR ECONOMICS STUDENTS

Ibodat Khidirova,
Teacher of termez state pedagogical institute

Abstract

Communicative competence has become essential for economics students as they prepare for careers in international business and finance. This study explores methods for developing linguistic, sociolinguistic, and pragmatic skills tailored to economics students. Through case studies and task-based learning approaches, we identify best practices for integrating language instruction with economic content. Our findings suggest that immersive, industry-specific communication training significantly enhances students' professional effectiveness.

Key words: *Communicative competence, economics students, linguistic skills, sociolinguistics, pragmatics, task-based learning, business communication, globalization, English proficiency, financial reporting, business simulations, professional effectiveness.*

Аннотация

Коммуникативная компетентность стала неотъемлемой частью подготовки студентов-экономистов к карьере в сфере международного бизнеса и финансов. В этом исследовании изучаются методы развития лингвистических, социолингвистических и прагматических навыков, адаптированных для студентов-экономистов. С помощью тематических исследований и подходов к обучению на основе задач мы выявляем лучшие практики интеграции обучения языку с экономическим содержанием. Наши результаты показывают, что иммерсивное обучение отраслевой коммуникации значительно повышает профессиональную эффективность студентов.

Ключевые слова: *коммуникативная компетентность, студенты-экономисты, лингвистические навыки, социолингвистика, прагматика, обучение на основе задач, деловое общение, глобализация, владение английским языком, финансовая отчетность, бизнес-симуляции, профессиональная эффективность.*

Annotatsiya

Iqtisod talabalari uchun kommunikativ kompetentsiya xalqaro biznes va moliya sohasida martabaga tayyorlanayotganda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu tadqiqot ishi iqtisod talabalariga moslashtirilgan lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik ko'nikmalarni rivojlantirish usullarini o'rganadi. Keys tadqiqotlari va topshiriqlarga asoslangan ta’lim yondashuvlari orqali biz til o‘rgatishni iqtisodiy mazmun bilan birlashtirish bo‘yicha ilg‘or tajribalarni aniqlaymiz. Bizning topilmalarimiz shuni ko'rsatadiki, immersiv, sohaga oid muloqot mashg'ulotlari talabalarning kasbiy samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so‘zlar: *Kommunikativ kompetentsiya, iqtisod talabalari, lingvistik ko'nikmalar, sotsiolingvistika, pragmatika, vazifaga asoslangan ta'lim, biznes aloqasi, globallashuv, ingliz tilini bilish, moliyaviy hisobot, biznes simulyatsiyasi, professional samaradorlik.*

Introduction. The increasing globalization of economies has heightened the demand for professionals with strong communicative competence in English. Economics students must not only master technical economic concepts but also effectively convey ideas in diverse professional contexts. Communicative competence includes linguistic accuracy, sociolinguistic adaptability, and pragmatic skills necessary for negotiations, presentations, and business correspondence. This paper examines strategies for improving English proficiency among economics students, emphasizing practical applications in global business environments.

Methodology. This study employs a mixed-methods approach, combining qualitative case studies and quantitative assessments. Data were collected from:

- **Case Studies**: Analyzing real-world examples of economics students engaging in business communication tasks.
- **Task-Based Learning Activities**: Implementing business simulations, financial reporting exercises, and economic debates in English language courses.
- **Surveys and Assessments**: Evaluating students' linguistic, sociolinguistic, and pragmatic progress before and after the interventions.

In contemporary contexts, specialized texts mean not only what we watch in the news, read in the newspapers or produce as a piece of business correspondence, but also what we hear, read, produce or interpret in the social media. Modern generations grow up using modern technological gadgets and devices and perceive in a way which differs from the way we as their teachers or parents perceive [1, 6].The rapid development and advance of information and communication technologies affected human everyday interaction with the invention of the Internet, social media and various devices aimed at facilitating our daily routine and communication[1, 7].

Results. Findings indicate that integrating communicative competence training within economics curricula significantly enhances students’ ability to express complex economic concepts effectively. Key outcomes include:

- **Improved Linguistic Competence**: Students demonstrated a stronger grasp of industry-specific vocabulary and grammatical structures essential for financial and business communication.
- **Enhanced Sociolinguistic Adaptability**: Exposure to cultural norms in business communication led to more effective professional interactions.

Increased Pragmatic Proficiency: Students developed better negotiation, persuasion, and discourse management skills, crucial for international business settings. From the moment of its introduction into the linguistic discourse, the notion of communicative competence has been constantly changed and adapted to the context of its use. This process was accompanied by a change in the originally used term. Thus, instead of the term «communicative competence», the use of some other terms that either coexisted at that time or were completely new were proposed and subsequently used, for instance language proficiency, communicative proficiency, communicative language ability, communicative language competence etc[3,152].

Discussion. The study highlights the importance of integrating real-world economic scenarios into language instruction. Case studies and simulations proved effective in reinforcing linguistic and professional communication skills. Additionally, industry-relevant assessments helped measure communicative competence more accurately than traditional language exams. Future research should explore how digital learning tools can further enhance economics students' language proficiency.

Conclusion. Developing communicative competence in economics students is vital for their success in global markets. By implementing task-based learning, business simulations, and case studies, educators can equip students with essential language skills. These strategies enable students to navigate professional environments with confidence, improving their employability and effectiveness in international business roles.

REFERENCES:

1. Stefanova Albena (2021). HONING STUDENT COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH FOR ECONOMICS AND POLITICAL STUDIES: USING SPECIALISED TEXTS INTERACTIVELY. Балканско научно обозрение, 5 (2 (12)), 5-9.

2. Komilova, Dildora. (2024). DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMMUNICATIVE COMPETENCE OF ECONOMICS STUDENTS IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 4. 10.47390/SPR1342V4I5Y2024N61.

3. Taylor, D.S. (1988). The meaning and use of the term competence in linguistics and applied linguistics. Applied Linguistics, 9, 148-169.

4. Cazden, C.B. (1996). Communicative Competence, 1966-1996. Paper presented at the Annual Meeting of the American Association for Applied Linguistics (18th, Chicago, IL, March 23-26, 1996).

BADMINTON SPORT O‘YINI BO‘YICHA OLIB BORILUVCHI MUSOBAQA TURLARI

O‘ktabar Samadova,
Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jismoniy madaniyat fakulteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Badminton – qadimgi o‘yin bo‘lib, uning kelib chiqishi haqida ko‘plab manbalar mavjud. Eng qadimgi “Uchadigan par” o‘yini Xitoyda milodiy 1000 yil avval paydo bo‘lgan. Maqolada badminton sport o‘yini bo‘yicha olib boriluvchi musobaqa turlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *badminton, musobaqa, aylanma tartibda o‘tkazish musobaqasi, chiqib ketish tartibidagi musobaqalar, aralash tartibda o‘tkaziladigan musobaqalar.*

Annotation

Badminton is an ancient game, and there are many sources about its origin. The oldest game "Flying Steam" appeared in China 1000 years ago. The article deals with the types of badminton competitions.

Keywords: *badminton, competitions, circular competitions, away competitions, mixed competitions.*

Аннотация

Бадминтон – это древняя игра, происхождение которой имеет множество источников. Самая старая игра под названием «Летающее перо» появилась в Китае примерно за 1000 лет до нашей эры. В статье рассматриваются виды соревнований, проводимых по спортивной игре бадминтон.

Ключевые слова: *бадминтон, соревнование, круговая система соревнований, соревнования на выбывание, соревнования смешанного типа.*

Kirish. Badmintonning kelib chiqishi Hindistonda o‘ynalgan "Poona" nomli o‘yinga borib taqaladi. Bu o‘yin 19-asrda Britaniya harbiylari tomonidan Angliyaga olib kelingan va tez orada zamonaviy badminton shakliga ega bo‘lgan. 1873-yilda Buyuk Britaniyaning Badminton qasrida ilk bor rasmiy o‘yin tashkil qilingan va sport o‘yiniga shu nom berilgan. Badminton o‘yinining rasmiy qoidalaridan tashqari badmintonchining axloq kodeksi ham mavjud. U o‘yinchilaming kortdagi o‘zaro munosabatlarining umumqabul qilingan tartibi bo‘lib, musobaqa davomida odobsizlik holatlari ro‘y berishining oldini olishga, do‘stona munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu ayniqsa, hakamsiz o‘tkaziladigan havaskorlik bahslarida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, o‘yin boshanishi oldidan raqiblar o‘zaro tanishadilar: bir-birlarining qo‘llarini siqib o‘z ismi shariflarini aytishadi. O‘yin davomida begona gap-so‘zlar va xatti harakatlarga chalg‘imaydilar, qo‘pol va odobsiz so‘zlarni ishlatmaydilar. Badminton dunyo bo‘ylab keng tarqalgan va jadal rivojlanayotgan sport turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sport turi nafaqat professional darajada, balki havaskorlar orasida ham ommalashib bormoqda. Badminton o‘yini yuqori tezlik, aniqlik va chidamlilikni talab qilishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, u inson salomatligi va jismoniy faolligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. [3,5]

Sport musobaqalarini o‘tkazish tartib va qoidalariga ko‘ra, badminton musobaqalari turli formatlarda tashkil etiladi. Har bir format o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ishtirokchilarning mahoratini baholashga va raqobat darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada badminton sport o‘yinida keng qo‘llaniladigan musobaqa turlari, ularning o‘tkazilish tartibi va xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Musobaqalarni aylanma tartibda o‘tkazishning mohiyati shundaki, unda har bir sportchi boshqa barcha badmintonchilar bilan navbatma-navbat o‘ynab chiqadi. Eng ko‘p g‘alabaga erishgan ishtirokchi musobaqa g‘olibi bo‘ladi.

Agar ishtirokchilar soni juda ko‘p bo‘lsa, ular bir nechta guruhlarga bo‘linadi. Guruhlarga bo‘lish kuchlilarni bo‘lib chiqish yo‘li bilan qur‟a tashlash orqali amalga oshiriladi. Har bir guruhda o‘yinlar aylanma tartibda o‘tkaziladi. Shundan so‘ng guruhlarning g‘oliblari yana o‘zaro aylanma tartibda o‘ynab, o‘zaro o‘rinlarni aniqlashadi. Aylanma tartibdagi musobaqalarda olingan o‘rin yutilgan uchrashuvlar soniga qarab aniqlanadi. Agar ishtirokchilardan ikki nafari bir xil yutuqlar soniga ega bo‘lsa, o‘zaro uchrashuvda g‘alaba qozongan sportchi yuqoriroq o‘rinni egallaydi. Agar uch va undan ortiq ishtirokchi bir xil yutuqlar soniga ega bo‘lsa, ular o‘rtasida

o‘rinlar mazkur ishtirokchilarning barcha uchrashuvlardagi yutuqlari va mag‘lubiyatlarining eng yaxshi farqiga qarab taqsimlanadi. [4,2]

Agar shundan keyin ham ikki nafar ishtirokchi teng kelib qolsa, o‘zaro uchrashuvda g‘alaba qozongan sportchi yuqoriroq o‘rinni egallaydi. Agar uch va undan ortiq ishtirokchi bir xil yutuqlar soniga ega hamda barcha uchrashuvlardagi yutuqlari va mag‘lubiyatlari ham teng bo‘lsa, mana shu ishtirokchilarning o‘zaro uchrashuvlarida yutuqlari va mag‘lubiyatlari soni eng yaxshi farqqa ega bo‘lgan sportchiga ustunlik beriladi. Agar shundan keyin ham ikki nafar ishtirokchi teng kelib qolsa, o‘zaro uchrashuvda g‘alaba qozongan sportchi yuqoriroq o‘rinni egallaydi. Agar barcha hisob-kitoblardan keyin uch va undan ortiq ishtirokchi bir xil natijaga ega bo‘lib qolsa, ular o‘rtasida o‘rinlar qur‟a tashlash yo‘li bilan aniqlanadi. Jamoaviy bahslarda ikkita jamoada g‘alabalar soni bir xil bo‘lib qolsa, o‘zaro uchrashuvda g‘alaba qozongan jamoa yuqoriroq o‘rinni egallaydi. Agar uch yoki undan ortiq jamoalarda yutuqli o‘yinlar soni bir xil bo‟lsa, ular o‘rtasida o‘rinlar mazkur jamoalarning barcha uchrashuvlardagi yutuqlari va mag‘lubiyatlarining eng yaxshi farqiga qarab taqsimlanadi. Agar shundan keyin ham ikki jamoa teng kelib qolsa, ular o‘rtasidagi o‘zaro uchrashuvda g‘alaba qozongan jamoa yuqoriroq o‘rinni egallaydi. [5,6]

Badminton sporti bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va nashr etilgan adabiyotlar ushbu sport turining rivojlanish tarixi, musobaqa tizimlari va o‘quv-uslubiy yondashuvlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Tadqiqotchilar badmintonning jismoniy tayyorgarlikka, psixologik barqarorlikka va texnik-taktik mahoratga ta’siri borasida turli nazariy va amaliy izlanishlar olib borganlar.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, badminton musobaqalarining o‘tkazilish shakllari bo‘yicha turli yondashuvlar mavjud. Ayrim manbalarda musobaqalar tizimi sportchilar tayyorgarligiga ta’siri nuqtayi nazaridan o‘rganilgan bo‘lsa, boshqa tadqiqotlarda turnir formatlarining sportchilar natijalariga ta’siri tahlil qilingan.

Metodologiya esa ushbu tadqiqotda ilmiy izlanishlarning uslubiy asoslarini belgilaydi. Maqolani tayyorlash jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Tahliliy metod – mavjud ilmiy adabiyotlar va badminton bo‘yicha musobaqa qoidalarini o‘rganish;

Taqqoslash metodi – turli musobaqa formatlarining afzallik va kamchiliklarini aniqlash;

Eksperimental metod – turli musobaqa tizimlarining natijalarga ta’sirini tahlil qilish uchun amaliy tajribalar o‘tkazish;

Statistik tahlil – badminton musobaqalarida qo‘llaniladigan tizimlarning samaradorligini aniqlash.

Mazkur tadqiqot badminton sportining musobaqa turlarini o‘rganish va ularning samaradorligini baholash orqali ushbu sport turining rivojlanishiga hissa qo‘shish maqsadini ko‘zda tutadi.

Natijalar va muhokama. Chiqib ketish tartibidagi musobaqalar. Yakkalik va juftlik bahslarida musobaqalarni chiqib ketish tartibida o‘tkazishning mohiyati shundan iboratki, o‘yinchi (jamoa) birinchi mag‘lubiyatdan keyin musobaqani tark etadi. Natijada birorta ham uchrashuvda mag‘lubiyatga uchramagan ishtirokchi g‘olib bo‘ladi. Jamoaviy bahslarda o‘yin g‘olibi aniqlanishi bilan match to‘xtatiladi.

Ishtirokchilar o‘yin jadvaliga kuchli badmintonchilar (reyting yoki boshqa ko‘rsatkich bo‘yicha) ro‘yxati asosida kiritiladi. Imkon qadar ikki kuchli ishtirokchi qur‟a tashlash paytida jadvalning turli qismlariga tushishiga harakat qilish kerak. Agar musobaqada ishtirok etishni istovchilar soni turnirning asosiy jadvalidagi o‘rinlardan ko‘p bo‘lsa, kvalifikatsiya turnirini o‘tkazish tavsiya qilinadi.

Bu holatda musobaqa to‘g‘risidagi Nizom yoki tashkiliy qo‘mitaning qarori bilan kvalifikatsiya turnirida qatnashishga ruxsat beriladigan ishtirokchilar soni belgilanadi. Kvalifikatsiya turniri jadvali ham asosiy musobaqa jadvali kabi shakllantiriladi. Agar kvalifikatsiya turniri ishtirokchilarning jadvalda joylashuvi qur‟a tashlash yo‘li bilan aniqlanadigan bo‘lsa, bitta tashkilot vakillarini tarqatib yuborish zarur bo‘lmaydi. Kvalifikatsiya turnirida asosiy turnirda qatnashish huquqini qo‘lga kiritadigan ishtirokchilar soni asosiy turnir ishtirokchilarning sakkizdan biridan oshmasligi zarur. Agar buning iloji bo‘lmasa, turnirni ikki bosqichda o‘tkazish tavsiya qilinadi, ya‟ni: dastlabki bosqichda ishtirokchilarning oldindan belgilangan soni aniqlab olinadi; asosiy bosqichda esa kuchli ishtirokchilar safiga kvalifikatsiya bosqichidan o‘tgan qatnashchilar qo‘shiladi. Agar asosiy yoki kvalifikatsiya turnirida bo‘sh joylar soni ishtirokchilar sonidan ortiq bo‘lsa, bo‘sh joy qur’a tashlash yo‘li bilan to‘ldiriladi. Aralash tartibda o‘tkaziladigan musobaqalar. Musobaqalarni aralash tartibda o‘tkazishning mohiyati shundan iboratki, dastlab ishtirokchilar, masalan, ikki yoki uchta turni chiqib ketish tartibida o‘tkazishadi, keyin

esa har bir turda yutqazgan va yutgan ishtirokchilardan alohida guruhlar tuziladi. Ushbu tuzilgan sakkizliklar (to‘rtliklar) aylanma tartibida tegishli o‘rinlarning (jumladan, sovrinli o‘rinlarning ham) egalarini aniqlashadi.

Ushbu tadqiqot davomida badminton musobaqalari formatlarining asosiy xususiyatlari aniqlangan. Adabiyotlar tahlili, empirik kuzatishlar va statistik ma’lumotlar quyidagi xulosalarga olib keldi:

Aylanma tartibda o‘tkaziladigan musobaqalar: Ushbu format ishtirokchilarga teng imkoniyatlar yaratadi, chunki har bir sportchi barcha raqiblar bilan o‘ynaydi. Bu, o‘z navbatida, sportchilarning mahoratini ob’ektiv baholashga va turnir davomida barqaror natijalarni kuzatishga yordam beradi.

Chiqib ketish tartibidagi musobaqalar: Ushbu formatda bitta o‘yinda mag‘lubiyat kelganda ishtirokchi musobaqadan darhol chiqib ketadi. Bu, emotsional zo‘riqish va kutilmagan natijalarni yuzaga keltirishi mumkin, ammo ba’zida kuchli sportchilarni dastlabki bosqichda yo‘qotish xavfi mavjud.

Aralash tartibda o‘tkaziladigan musobaqalar: Ushbu format aylanma va chiqib ketish tizimlarining elementlarini birlashtiradi, bu esa uzoq muddatli barqaror natijalarni va sportchilarning hozirgi formalarini bir vaqtning o‘zida hisobga olish imkonini beradi. Natijada, ishtirokchilarning umumiy darajasini yanada to‘liq baholash mumkin bo‘ladi.

Muhokama qismi shuni ko‘rsatadiki, musobaqa formatini tanlash turnirning maqsadi, ishtirokchilarning tayyorgarlik darajasi va turnirning o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq bo‘lishi kerak. Formatni optimallashtirish sportchilarning raqobatbardoshligini oshirish va turnirlarni yanada samarali tashkil etish imkonini beradi.

Ushbu tadqiqot natijalari badminton musobaqalarini tashkil etish bo‘yicha samarali metodik yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim o‘rin tutadi va trenerlar, tashkilotchilar va sportchilarga o‘z natijalarini yaxshilashda yordam berishi kutilmoqda.

Xulosa. Kichik guruhlarda aylanma tartibida musobaqalarni o‘tkazib, keyin ana shu kichik guruhlar g‘oliblari (yoki birinchi va ikkinchi o‘rinlar sohiblari) o‘rtasida chiqib ketish tartibida musobaqalarning final bosqichi o‘tkazilib, turnirdagi yakuniy o‘rinlar taqsimlanadi. Aylanma tartibdagi (shu jumladan, kichik guruhlarda) musobaqalarda Bosh hakam kasallik/jarohat yoki boshqa kutilmagan va bartaraf etib bo‘lmaydigan vaziyat tufayli musobaqani tark etayotgan ishtirokchini boshqasi bilan almashtirishga ruxsat berishi mumkin. Buning uchun ushbu ishtirokchi hali birinchi uchrashuvini boshlamagan bo‘lishi kerak, agar uchrashuv boshlangan bo‘lsa, almashtirishning imkoni bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PQ-3031, 2017.

2. Karimov A. Jismoniy tarbiyada interfaol metodlardan foydalanish. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2021. – 124 b.

3. Matkarimov X., Ahmedov D. Raqamli vositalar yordamida sport natijalarini boshqarish. “Sport va ta’lim” jurnali, 2023, №4. – 45–50-b.

4. Smith J., Brown R. Digital Tools in Physical Education. London: Pearson, 2020. – pp. 88–92.

5. Johnson L. Psychological Training in Sports. New York: Academic Press, 2019. – pp. 150–162.

KASBIY VA PROFESSIONAL TA’LIM: KELAJAKNI QURISHDA MUHIM O‘RINDIR

Jahongir Uzaqov,
Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi, bosh mutaxassis
Ulug‘bekmirzo Qurbonov,
Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi direktori

Annotatsiya

Kasbiy va Professional ta’lim — bu o‘quvchilarga ma’lum bir kasb yoki sohada chuqur bilim va ko‘nikmalarni taqdim etadigan ta’lim shaklidir. Uning maqsadi nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki amaliy ko‘nikmalarni ham o‘rgatishdir. Bu ta’lim shakli insonning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorlanishiga yordam beradi, shuningdek, iqtisodiyot va jamiyat uchun kerakli mutaxassislarni yetishtiradi.

Kalit so‘zlar: *Kasbiy va Professional ta’lim, kasb-hunar ta’limi, ta’lim tizimi, yuqori malakali mutaxassislar, amaliy ta’lim, kasbiy rivojlanish, innovatsion ta’lim metodlari ta’lim va iqtisodiyot, ta’limning ijtimoiy roli, malaka oshirish, kasb tanlash, yoshlar ta’limi, korporativ ta’lim, kasb-hunar yo‘nalishlari, kasbiy ko‘nikmalar, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, kasbiy o‘sish, kasbga tayyorlash, Kasbiy va Professional ta’limning asosiy turlari.*

Аннотация

Профессиональное образование — это форма образования, которая предоставляет учащимся глубокие знания и навыки в определенной профессии или области. Его цель — не только дать теоретические знания, но и научить практическим навыкам. Этот тип образования помогает подготовить людей к будущей карьере, а также выпускает специалистов, необходимых экономике и обществу.

Ключевые слова: *Профессиональное и профессиональное образование, профессиональное образование, система образования, высококвалифицированные специалисты, практическое обучение, профессиональное развитие, инновационные методы обучения, образование и экономика, социальная роль образования, развитие навыков, выбор профессии, образование молодежи, корпоративное образование, профессиональные направления, профессиональные навыки, подготовка высококвалифицированных специалистов, профессиональный рост, карьера Обучение, основные виды профессионального и технического образования.*

Abstract

Vocational and Professional Education is a form of education that provides students with in-depth knowledge and skills in a specific profession or field. Its goal is to provide not only theoretical knowledge, but also practical skills. This form of education helps prepare a person for future professional activities, as well as trains specialists necessary for the economy and society.

Keywords: *Vocational and Professional Education, vocational education, education system, highly qualified specialists, practical training, professional development, innovative teaching methods, education and economics, social role of education, skills development, career choice, youth education, corporate education, vocational directions, professional skills, training of highly qualified specialists, professional growth, career Training, main types of vocational and professional education.*

Kirish. Kasbiy va Professional ta’lim — bu o‘quvchilarga ma’lum bir kasb yoki soha bo‘yicha chuqur bilim va amaliy ko‘nikmalarni berishga qaratilgan ta’lim shaklidir. U talabalarni o‘z sohasida malakali mutaxassislar sifatida tayyorlashga xizmat qiladi va ish bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni egallashni ta’minlaydi. O‘zbekistonda Kasbiy va Professional ta’lim tizimi zamonaviy mehnat bozorining ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanmoqda. Davlat tomonidan ta’lim tizimi uzluksiz yangilanib, texnologiyalarning rivojlanishi, iqtisodiy o‘zgarishlar va xalqaro standartlar hisobga olinadi. Kasbiy va Professional ta’lim o‘z ichiga texnik va kasb-hunar ta’limini, oliy ta’lim va malaka oshirishni oladi, bu esa o‘quvchilarga o‘z sohalarida yuqori malakali mutaxassislar bo‘lish imkoniyatini yaratadi.

Asosiy qism. Kasbiy va Professional ta’limning asosiy maqsadi nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki amaliy ko‘nikmalarni ham shakllantirishdir. Bu o‘quvchilarni o‘z kasbida ishlash uchun zarur bo‘lgan texnik, amaliy, va jamiyatdagi ehtiyojlarga javob beradigan ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi. Shuningdek, Kasbiy va

Professional ta’lim jamiyatda yangi mutaxassislarni tayyorlash, iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shish, va kasbga tayyorlash tizimini yaxshilashga xizmat qiladi.

Kasbiy va Professional ta’lim turli yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. Bular:

- Texnik va kasb-hunar ta’limi – Bu yo‘nalishda talabalar muayyan kasbga yo‘naltirilgan amaliy bilimlar va ko‘nikmalarni egallaydilar. Misol uchun, mexanik, dasturchi, elektrchi kabi sohalarda.
- Yuqori malakali kasb-hunar ta’limi – Bu ta’lim shakli oliy ta’limdan farq qiladi, chunki o‘quvchilar kasbiy malakalarni oshirishga yo‘naltirilgan. Misol uchun, tibbiyot, muhandislik, o‘qituvchilik kabi yo‘nalishlar.
- Korporativ ta’lim – Korxona yoki kompaniyalar tomonidan o‘z xodimlarini malakalarini oshirish va yangilab turish maqsadida taqdim etiladigan ta’limdir. Bu ko‘pincha qisqa muddatli kurslar yoki treninglar shaklida bo‘ladi.

Kasbiy va Professional ta’limning afzalliklari:

- Ishga joylashish imkoniyati – Kasbiy va Professional ta’lim ko‘pincha amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatadi, bu esa o‘quvchilarga o‘z sohasida ishlash uchun yuqori imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, amaliy ko‘nikmalarni egallagan yoshlar bozor ehtiyojlariga tezda moslashishi mumkin.
- Kasbiy malaka oshirish – Kasbiy va Professional ta’limdan o‘tgan shaxslar o‘z malakalarini oshirgan holda yanada samarali ishlashlari mumkin. Bu esa ularning daromadlarini oshirishga yordam beradi va rivojlangan kasbiy o‘sish imkoniyatlarini taqdim etadi.
- Ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish – Mamlakatlar va jamoalar uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash orqali iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Kasbiy ta’lim orqali jamiyatda yangi ish o‘rinlari yaratiladi va iqtisodiyotning turli sohalari rivojlanadi.

Kasbiy va Professional ta’limning muhim jihatlari

- O‘quv dasturlarining zamon bilan hamohangligi – Kasbiy va Professional ta’lim dasturlari doimiy ravishda yangilanishi va texnologik yangiliklar bilan moslashishi kerak. Bu talabalar uchun o‘z sohalarida eng yangi bilimlarga ega bo‘lish imkoniyatini yaratadi.
- Amaliyot va tajriba – Kasbiy ta’limning eng muhim jihati bu amaliyotning mavjudligi hisoblanadi. Talabalar nazariy bilimlarni amalda qo‘llash orqali o‘z ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Bu esa ularga real ish joylarida muvaffaqiyatli bo‘lishga yordam beradi.
- Mutaxassislikka yo‘naltirilganlik – Kasbiy va Professional ta’lim o‘quvchilarga o‘zlarining qiziqishlari va malakalariga mos bo‘lgan sohada chuqur bilim olish imkoniyatini beradi. Bu o‘z navbatida, yuqori malakali mutaxassislar yetishtirishga yordam beradi.

Xulosa. Kasbiy va Professional ta’lim — bu faqat o‘quvchilarni nafaqat bir kasbga tayyorlash, balki ularga o‘zlarining kelajakdagi hayotida muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni berishning samarali shaklidir. Bu ta’lim shakli nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki jamiyat va iqtisodiyotning o‘sishiga ham katta hissa qo‘shadi. Shu sababli, Kasbiy va Professional ta’limga e'tibor berish va uni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Aliyev, A. (2019). Kasb-hunar ta’limining ahamiyati va rivojlanishi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

2. Shodiyeva, N. (2020). Oliy va Kasbiy va Professional ta’lim tizimidagi innovatsion yondashuvlar. Tashkent: O‘zbekiston Ta’lim Akademiyasi.

3. Islomov, S. (2018). Texnik va kasb-hunar ta’limi: Nazariy va amaliy masalalar. Samarqand: SamDU nashriyoti.

4. Yuldoshev, B. (2021). Kasb ta’limining jamiyatdagi roli va ahamiyati. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi.

5. O‘zbekistonda Kasbiy va Professional ta’limni rivojlantirish istiqbollari. (2022). O‘zbekiston Ta’lim Tizimi jurnali, 5(2), 45-52.

AKADEMIK LITSEYLARDA O‘QUV JARAYONLARINI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISHDA RAQAMLASHTIRISHNING O‘RNI

Jamshid Mannopov,
Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi, bosh mutaxassis
Islomjon Dexkonboyev,
Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi, bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya

Ushbu maqola akademik litseylarning o‘quv jarayonlarini raqamlashtirish orqali o‘quvchilarga va akademik litsey xodimlari hamda o‘qituvchilarga qulayliklar yaratish, shaffoflikni ta’minlash va nazorat darajasini oshirish, shuningdek, mavjud muammolarga yechim topish masalalariga bag‘ishlangan. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan “Akademik litseylarda o‘quv jarayonlarini raqamlashtirish - EMIS” axborot tizimini amaliyotga joriy etish orqali erishilgan yutuqlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *o‘quvchi, akademik litsey, raqamlashtirish, “EMIS” axborot tizimi, o‘quv jarayon, davomat, jurnal, integratsiya, o‘qituvchi, fan.*

Аннотация

Статья посвящена вопросам создания удобства для учащихся, сотрудников академических лицеев и педагогов за счет цифровизации образовательных процессов в академических лицеях, обеспечения прозрачности и повышения уровня контроля, а также поиска решений существующих проблем. Министерство высшего образования, науки и инноваций проанализировало достижения, достигнутые за счет внедрения информационной системы «Цифровизация образовательных процессов в академических лицеях – ЭМИС».

Ключевые слова: *ученик, академический лицей, оцифровка, информационная система «ЭМИС», образовательный процесс, посещаемость, журнал, интеграция, учитель, наука.*

Abstract

This article is devoted to the issues of creating convenience for students, academic lyceum staff and teachers through the digitalization of the educational processes of academic lyceums, ensuring transparency and increasing the level of control, as well as finding solutions to existing problems. The achievements achieved by the Ministry of Higher Education, Science and Innovations through the implementation of the information system “Digitalization of Educational Processes in Academic Lyceums - EMIS” are analyzed.


Keywords: *student, academic lyceum, digitalization, “EMIS” information system, educational process, attendance, journal, integration, teacher, science.*

Kirish. Hozirgi kunda zamonaviy ta’lim tizimi raqamlashtirish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jarayon o‘quv jarayonining sifatini oshirish va samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘zbekistonda akademik litseylarida "EMIS" (Education Management Information System) axborot tizimi ishga tushirildi. Ushbu tizim ta’lim jarayonini avtomatlashtirish, ma’lumotlarni tezkor qayd etish va boshqarish imkoniyatini yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-maydagi PQ-162-son qarori 1-ilovasida akademik litseylarda guruh jurnali, reyting daftarchasi, o‘quv mashg‘ulotlari, imtihon jadvallari, o‘quvchilar o‘zlashtirishi, davomati, diplom va akademik ma’lumotnomalarni raqamlashtirishni nazarda tutuvchi axborot tizimini joriy etish vazifalari belgilangan. Ushbu topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida “Akademik litseylarda o‘quv jarayonlarini raqamlashtirish - EMIS” axborot tizimi ishlab chiqilib, 90 dan ortiq tashkilotlarga joriy qilindi.

Asosiy qism. “EMIS” axborot tizimi akademik litseylarda qog’oz shaklidagi jurnallardan voz kechib, o‘quv jarayonlarini raqamlashtirish uchun xizmat qiladi. O‘quv jarayonlarini raqamlashtirish nafaqat o‘qituvchi va o‘quvchilarga qulaylik, balki yuqori tashkilot mas’ullari, ota-onalar va akademik litsey rahbarlari o‘quvchilarning baholari, davomat va faoliyatini onlayn kuzatib borishi, diplomlardan tortib joriy baholargacha barcha ma’lumotlar yagona tizimda jamlanishi, o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun elektron darsliklar, testlar va ta’lim materiallari mavjudligi, ma’lumotlarning xavfsiz saqlanishi va o‘quv jarayonidagi shaffoflikni oshirishga

hamda statistikalarni aniq va tezkor olish imkoniyatlarini yaratadi.



”EMIS” axborot tizimidagi statistika menyusi


EMIS axborot tizimi quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

Ma’lumotlar bazasi – O‘quvchilar, o‘qituvchilar, dars jadvali, baholar va boshqa tegishli ma’lumotlarni saqlash;

Elektron jurnal va baholash tizimi – O‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilar faoliyatini baholash va natijalarni real vaqt rejimida kuzatish;

Onlayn monitoring va tahlil – Ta’lim muassasalari tomonidan statistik tahlil va monitoring olib borish imkoniyati;


Mobil ilovalar va veb-platforma – O‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun moslashuvchan foydalanish imkoniyati yaratilgan.



“EMIS” axborot tizimidagi o‘quv guruhning dars jadvali

Emis.edu.uz axborot tizimi o‘z faoliyatini 2023-yil III-choragidan boshlagan bo‘lib, shu o‘quv yilidan boshlab akademik litseylar bitiruvchilari tizimga kiritilgan. Hozirgi kunda 2024-2025 o‘quv yili uchun litsey faoliyati to‘liq avtomatlashtirilgan holda bo‘lib, axborot tizimida mavjud imkoniyatlar quyidagilardan iborat:

- Har bir litsey o‘z o‘quvchilarini to‘liq tizimga kiritish;
- O‘quv reja shakllantirish;
- O‘quv rejadagi o‘quv guruhlarini yaratish;
- Har bir o‘quv rejaga asosan o‘qitiladigan fanlar ro‘yxatini tuzish va ularni 4 semestr kesimida dars soatlariga taqsimlash;
- Fan o‘qituvchilarini tizimga kiritish;
- Ta’lim muassasadagi bino, korpuslar va xonalar yaratish;
- Dars jadvali shakllantirish;
- Davomat;
- O‘quv guruhdagi talabalarning fanlardan va imtihonlardan olgan baholarini kiritish;
- Har bir semestr yakunida o‘quv guruhlarini keyingi semestrga o‘tkazish va huddi shu ketma ketlik asosida o‘quv yilini tugatish;
- O‘quvchilarga kunlik o‘tilgan mavzu materiallari va uyga vazifalarni yuborish;
- Akademik litsey adminlari tomonidan o‘quvchilarning davomati va baholarini kuzatib borish;
- Tizim tomonidan berilgan diplomlarga dublikat diplom yaratish kabi imkoniyatlar yaratilgan.



”EMIS” axborot tizimi sxemasi

Xulosa. Akademik litseylar va boshqa ta’lim muassasalarida EMIS axborot tizimining joriy etilishi ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi. Ushbu tizim nafaqat o‘quv jarayonini avtomatlashtirish, balki ta’lim sifatini oshirish va shaffoflikni ta’minlashga xizmat qiladi. EMIS tizimining keng joriy etilishi akademik litseylar o‘quvchilari va o‘qituvchilari uchun innovatsion va samarali ta’lim muhitini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-maydagi “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-162-son qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-357-son qarori

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 05-iyundagi “O‘quvchilarni akademik litseylarga qabul qilish, ularning o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlatish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 320-son qarori

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-martdagi “Akademik litseylarga umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarini tanlab olish, o‘qishga qabul qilish, ularning o‘qishini ko‘chirish va o‘qishdan chetlatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida

KASBIY VA PROFESSIONAL TA’LIM JARAYONLARINI BOSHQARISH AXBOROT TIZIMI

Jahongir Uzaqov,
Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi, bosh mutaxassis
Alisher Abdullayev,
Tashkent International University,
Raqamlashtirish va axborot texnologiyalar prorektori

Annotatsiya

Hozirgi davrda ixtiyoriy sohani axborot kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ta’lim jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda axborot tizimlarini ishlab chiqish va joriy qilish muxim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada Kasbiy va Professional ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimini ishlab chiqish hamda Kasbiy va Professional ta’lim muassasalar faoliyatini raqamlashtirish masalasi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *O‘quvchi, Kasbiy va Professional ta’lim, raqamlashtirish, “prof-emis.edu.uz” axborot tizimi, to‘lov shartnoma, yagona interaktiv davlat xizmatlari portali, integratsiya, talim-krediti.mf.uz axborot tizimi.*

Аннотация

В настоящее время волонтерский сектор невозможно представить без информационно-коммуникационных технологий. Разработка и внедрение информационных систем является одной из важных задач организации и управления образовательными процессами. В статье рассматриваются вопросы разработки информационной системы управления процессами профессионального и профессионального образования и цифровизации деятельности учреждений профессионального и профессионального образования.

Ключевые слова: *Студент, профессионально-техническое образование, цифровизация, информационная система «prof-emis.edu.uz», договор оплаты, единый портал интерактивных государственных услуг, интеграция, информационная система talim-krediti.mf.uz.*

Abstract

Nowadays, the voluntary sector cannot be imagined without information and communication technologies. The development and implementation of information systems in the organization and management of educational processes is one of the important tasks. This article considers the issue of developing an information system for managing vocational and professional education processes and digitizing the activities of vocational and professional educational institutions.


Keywords: *Student, Vocational and Professional Education, digitization, “prof-emis.edu.uz” information system, payment agreement, single interactive public services portal, integration, talim-krediti.mf.uz information system.*

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan bir paytda ta’lim tizimining samaradorligini oshirish maqsadida ko‘plab innovatsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Kasbiy va Professional ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim jarayonlarni raqamlashtirish orqali o‘qituvchilarning ta’lim berish jarayonlarini yanada samarali tashkil etish, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, vaqtni tejash va ta’lim jarayonida shaffoflikni ta’minlashga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son farmoni 21-ilova 14-bandida “Kasbiy va Professional ta’lim jarayonlarini boshqarish” axborot tizimini ishlab chiqish ustuvor vazifa sifatida belgilandi va tizim ishlab chiqildi.

Asosiy qism. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 15 fevraldagi “Davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini yanada kompleks rivojlantirish choralari haqida”gi PQ-4193-son qarorida “Umumta’lim, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarida o‘qish joyidan ma’lumotnoma taqdim etish zaruriyatini bekor qilish” vazifasi hamda 2022-yil 22-avgustdagi “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-357-son qarorida “Kasbiy va Professional ta’lim muassasalari diplom ma’lumotlari bazasi va ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarning dublikatini

berish, kollej va texnikumlarda o‘qitish bo‘yicha shartnomalarni elektron tarzda taqdim etish axborot tizimini yaratish va takomillashtirish” bo‘yicha bir qator vazifalar belgilangan.

Ushbu axborot tizimida bir nechta administrator qismlari mavjud. Ularning funksional vazifalari bilan batafsil tanishib chiqamiz(1-rasm).



Ushbu vazifalarni amalga oshirishda Kasbiy va Professional ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi muayyan darajada xizmat qiladi. Kasbiy va Professional ta’lim muassasalarining to‘lov-shartnomasiga o‘quvchilardan onlayn ravishda arizalar olish, to‘lov-shartnomasini berish hamda ta’lim jarayonlarini monitoring qilishni avtomatlashtirishga qaratilgan yagona axborot tizimini yaratish orqali Kasbiy va Professional ta’lim jarayonlari shaffofligi ta’minlanmoqda. O‘z navbatida axborot tizimining yaratilishi Kasbiy va Professional ta’lim muassasalarining ma’muriy, akademik, iqtisodiy va moliyaviy ma’lumotlarini to‘plash, qayta ishlash va uzatish jarayonlarini avtomatlashtirish natijasida ma’lumotlarni markazlashgan holda ma’lumotlar aniqligi va haqqoniyligi taminlashga, xisobotlarni onlayn shaklda olish hamda yagona diplom va sertifikatlar elektron bazasini yaratishga olib keladi. Bundan tashqari, hujjat haqiqiyligini tasdiqlash uchun muhr va imzo o‘rniga QR-kodidan foydalanish mumkin.

Kasbiy va Professional ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi quyidagi imkoniyatlarni o‘z ichiga oladi:

- Vazirlik va Kasbiy va Professional ta’lim muassasalari o’rtasida ma’muriy, akademik va ilmiy axborot almashish uchun yagona axborot muhiti yaratildi;
- Kasbiy va Professional ta’lim jarayonlarini bitta umumiy bazaga jamlash va istalgan ma’lumotlarni olish imkoniyati yaratildi;
- Kasbiy va Professional ta’lim muassasalarining ta’lim jarayonini nazorat qiluvchi hududiy boshqarmalar uchun o’quv jarayonlarini monitoringi va statistik ko‘rsatkichlarini yuritish imkoni yaratildi;
- Kasbiy va Professional ta’lim sohasida o’quv jarayonlarinin tashkil etish va boshqarish bo’yicha monitoring qilish imkoni yaratildi;

- Bitiruvchilarni ro’yxatdan o’tkazish jarayonlarini avtomatlashtirish;
- Elektron shaklda diplom shakllantirish;
- QR-kodli diplom berish;
- Davlat boshqaruv organlariga tezkor statistik hisobotlarni berish imkoni yaratilganligi;
- Barcha Kasbiy va Professional ta’lim muassasalari barcha xodimlar bazasi, guruhlar kesimida o‘quvchilar bazasi, ularning diplom va kasb sertifikatlari kabi ma’lumotlar to‘liq raqamlashtirildi.

Kasbiy va Professional ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimida quyidagi asosiy foydalanuvchilar ko‘zda tutilgan:

1. **Administrator**

Tizimning barcha foydalanuvchi rollari va hisoblarini, ma’lumotlar bazasi va dasturining yaxlitligini, ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlovchi, kirish huquqini taqsimlash hamda asosiy foydalanuvchilarni ro’yxatdan o‘tkazish vakolatiga ega. Administrator axborot tizimi tomonidan taqdim etilgan quyidagi funksiyalarni bajarish huquqiga ega:

- Foydalanuvchi profilini ro‘yxatdan o‘tkazish, ko‘rish va o‘zgartirish;
- Axborot tizimidagi mavjud klassifikatorlar va fanlarni nazorat qilish va yangilarini ro‘yxatdan o‘tkazish;
- Tizimga yangi sertifikatlar haqidagi ma’lumotlarni kiritish.

2. **Vazirlik Kasbiy va Professional ta’lim boshqarma administratori**

Ta’lim muassasalari joylashgan hududlarning xodimlarini nazorat qilish, diplom va sertifikat raqamlarini hududiy boshqarmalar bo‘yicha taqsimlash dan iborat. Vazirlik Kasbiy va Professional ta’lim boshqarma administratori axborot tizimi tomonidan taqdim etilgan quyidagi funksiyalarni bajarish huquqiga ega:

- Tizim bo‘yicha hududiy boshqarmalar mas’ullarini tayinlash va nazorat qilish;
- Mavjud ta’lim muassasalari hisobini yuritish;
- Uzoq muddatli kurslar uchun fanlar kiritish, diplomlarni hududlar kesimida taqsimlash;
- Qisqa muddatli kurslar uchun kvalifikatsiyalar qo‘shish, sertifikatlarni hududlar kesimida taqsimlash;
- Uzoq va qisqa muddatli kurslarni bitirgan guruhlarni ortga qaytarish, mavjud yuborilgan so‘rovlarga javob qaytarish;
- Bitirgan o‘quvchilarni ishga joylashish, Oliy ta’lim muassasalariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish hamda ijtimoiy toifasi bo‘yicha hisobotlarni yuritish.

3. **Hududiy boshqarma administrator**

Hududiy boshqarma administratori axborot tizimi tomonidan taqdim etilgan quyidagi funksiyalarni bajarish huquqiga ega:

- Ta’lim muassasa administratorlarini yaratish;
- Ta’lim muassasalari kesimida hisobotlarni yuritish;
- Qabul jarayonida BMBA (DTM) dan ro‘yxatdan o‘tkan, lekin imtixonda yetarli ball to‘play olmagan hamda tegishli qaror asosida o‘qishga qo‘shimcha qabul qilinganlarni verifikatsiyadan o‘tkazish;
- Xorijda ta’lim olgan o‘quvchilar hisobini yuritish;
- Talim muassasalar kesimida sertifikatlarni taqsimlash;
- Bitirgan o‘quvchilarni ishga joylashish, Oliy ta’lim muassasalariga suhbat asosida o‘qishga qabul qilish hamda ijtimoiy toifasi bo‘yicha hisobotlarni yuritish.

4. **Ta’lim muassasa administrator**

Ta’lim muassasa administratori axborot tizimi tomonidan taqdim etilgan quyidagi funksiyalarni bajarish huquqiga ega:

- Ta’lim muassasasiga tegishli dastlabku ma’lumotlarni kiritish;
- Ta’lim muassasa xodimlarini yaratish va ularga tegishli rollarni berish;
- Auditoriya va xonalarni kiritish;

- Dars jadvalini yaratish;
- Mutaxassislik, o‘quv reja, akademik guruhlarni shakllantirish va o‘quvchilarni akademik guruh kesimida kiritish;
- O‘quvchilarga diplom ma’lumotlarini shakllantirish va diplom yaratish;
- Qisqa kurslat bo‘yicha kvalifikatsiyalarni yaratish, o‘quvchilarini kiritish hamda sertifikatlarni berishdan iborat.

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Kasbiy va Professional ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi joriy qilish orqali Kasbiy va Professional ta’lim tizimidagi muammolarga barham berilganligi, diplom va sertifikat bazasi yaratilganligi, mustahkam ishonchli himoyalanganligi va o‘quv jarayonini to‘liq yo‘lga qo‘yish imkoniyati yaratilganligi kabi muhim imkoniyatlar taqdim etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 15 fevraldagi PQ-4193-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son qarori.
3. A.Toshqulov, S.Siddiqova, Z.Xudoyberdiyev. O‘zbekistonda Kasbiy va Professional ta’lim // Ilmiy jurnal // Kasbiy va Professional ta’limni rivojlantirish instituti. Toshkent 2022
4. I.Abdurahmonov, K.Karimov, Z.Xudoyberdiyev. O‘zbekistonda Kasbiy va Professional ta’lim // Ilmiy jurnal 2-son // Kasbiy va Professional ta’limni rivojlantirish instituti. Toshkent 2023

O‘ZBEKISTONDA AKADEMIK LITSEYLARDA RAQAMLI INNOVATSIYALAR ASOSIDA PEDAGOGIK METODLARNI MODERNIZATSIYA QILISH

Moxirjon Maxmudjonov,
Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi, bosh mutaxassis
Alisher Abdullayev,
Tashkent International University,
Raqamlashtirish va axborot texnologiyalar prorektori

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda akademik litseylar ta’lim tizimida raqamli innovatsiyalarni joriy etish va pedagogik metodlarni modernizatsiya qilish masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlari: *oliy ta’lim, raqamlashtirish, ta’lim jarayoni, boshqarish tamoyillari, texnologiya, zamonaviy pedagogika, litsey, EMIS, vosita, ta’lim sifati.*

Abstract

This article analyzes the issues of introducing digital innovations and modernizing pedagogical methods in the educational system of academic lyceums in Uzbekistan.

Keywords: *higher education, digitalization, educational process, management principles, technology, modern pedagogy, lyceum, EMIS, tool, quality of education.*

Аннотация

В статье анализируются вопросы внедрения цифровых инноваций и модернизации педагогических методов в образовательную систему академических лицеев Узбекистана.

Ключевые слова: *высшее образование, цифровизация, образовательный процесс, принципы управления, технологии, современная педагогика, лицей, ИСУО, инструмент, качество образования.*

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim jarayoniga tub o‘zgarishlar olib kirdi. Xususan, akademik litseylar ta’lim tizimida zamonaviy innovatsion yondashuvlarni joriy etish pedagogik metodlarni takomillashtirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. O‘zbekistonda akademik litseylar faoliyatida raqamli innovatsiyalardan foydalanish nafaqat o‘quv jarayonini modernizatsiya qilish, balki ta’lim sifatini oshirish,

o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish va ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston ta’lim tizimida akademik litseylar oliy ta’lim muassasalariga tayyorgarlikning muhim bosqichi hisoblanadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bu jarayonni yanada samarali qilishga yordam beradi. Raqamli innovatsiyalar, jumladan, onlayn ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar, sun’iy intellekt asosidagi o‘quv dasturlari va masofaviy ta’lim imkoniyatlari akademik litsey o‘quvchilarining bilim olish jarayonini interfaol va o‘zlashtirishga qulay holga keltiradi.

Raqamli innovatsiyalarning ta’lim jarayoniga qo‘llanilishi o‘quvchilarning individual ehtiyoj va qobiliyatlariga moslashtirilgan ta’lim jarayonini tashkil etish, turli vizual taqdimotlar va interaktiv darsliklar yordamida o‘quv materiallarini o‘zlashtirish samaradorligini oshirish, geografik jihatdan uzoq hududlardagi o‘quvchilar uchun ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, istalgan vaqtda va istalgan joyda bilim olish imkoniyatining yaratilishi hamda sun’iy intellekt va raqamli platformalar yordamida o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash va tahlil qilish kabi afzalliklarni ta’minlaydi.

O‘zbekistonda akademik litseylar faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar doirasida 2019-yil 6-sentyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi akademik litseylarining faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror, shuningdek, 2020-yil 6-noyabrda imzolangan “O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni muhim ahamiyatga ega. Ushbu hujjatlar akademik litseylar ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlarni tezlashtirish maqsadida qabul qilingan.

O‘zbekistonda akademik litseylar faoliyatini raqamlashtirish jarayonida EMIS (Education Management Information System) axborot tizimi muhim rol o‘ynamoqda. Ushbu tizim ta’lim jarayonini monitoring qilish, akademik litseylar faoliyatini muvofiqlashtirish va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratish, o‘qituvchilarning ishlash samaradorligi va metodikasini baholash orqali ta’lim sifatini yaxshilash hamda ta’lim sohasida qabul qilinadigan qarorlar uchun muhim bo‘lgan ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish kabi vazifalarni bajaradi.

Akademik litseylar ta’lim tizimida raqamli innovatsiyalarni joriy etish zamonaviy pedagogikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonning samarali amalga oshirilishi uchun raqamli ta’lim vositalaridan keng foydalanish bo‘yicha normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish, akademik litseylar uchun maxsus raqamli ta’lim platformalarini yaratish va ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish, o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalar bo‘yicha malakasini oshirish dasturlarini yo‘lga qo‘yish va o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan raqamli metodlarni keng joriy etish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

EMIS (Education Management Information System) emis.edu.uz — O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini raqamlashtirish maqsadida joriy etilgan axborot tizimi bo‘lib, ta’lim muassasalari faoliyatini avtomatlashtirish, ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va boshqarish uchun mo‘ljallangan.

Akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish va avtomatlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi “2022-2023-yillarda axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-357-son Qaroriga asosan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi tomonidan Emis.edu.uz axborot tizimi ishlab chiqildi va hozirgi kunga kelib umumiy hisobda 83 ta (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi huzuridagi) akademik litseylar platforma orqali o‘z o‘quv jarayonlarida foydalanib kelishmoqda.

EMIS tizimining asosiy maqsadi va vazifalari:

✓ Ta’lim muassasalarini yagona elektron platformada boshqarish – barcha maktablar, akademik litseylar, kollej va universitetlar haqida ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish.

✓ O‘quvchilar, o‘qituvchilar va ta’lim muassasalarining yagona ma’lumotlar bazasini yuritish – har bir muassasa va undagi xodimlar haqida aniq ma’lumotlar saqlanadi.

✓ Ta’lim jarayonlarini monitoring qilish va tahlil qilish – o‘quv jarayoni va o‘qitish sifatini nazorat qilish uchun statistik ma’lumotlar jamlanadi.

✓ Elektron hujjatlar aylanishi – ta’lim muassasalarida qog‘oz hujjatlar o‘rniga elektron shaklda ish yuritish imkoniyati yaratiladi.

✓ Avtomatlashtirilgan hisobot tizimi – ta’lim sohasidagi turli hisobotlarni avtomatik tarzda shakllantirish va tahlil qilish.

✓ Ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini boshqarish – maktablar va litseylarning infratuzilmasi, jihozlanish darajasi bo‘yicha ma’lumotlarni yuritish.

✓ O‘qituvchilar va o‘quvchilar reyestrini yuritish – har bir o‘qituvchi va o‘quvchining shaxsiy ma’lumotlari tizimda saqlanadi.

EMIS tizimi O‘zbekiston ta’lim tizimini zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida boshqarish uchun yaratilgan. U ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish, boshqarish, kuzatish va optimallashtirish imkonini beradi. Tizim orqali ta’lim muassasalari faoliyati ancha samarali bo‘lib, o‘quv jarayoni shaffof va tezkor tarzda olib boriladi.

Xulosa. O‘zbekistonda akademik litseylar faoliyatida raqamli innovatsiyalar asosida pedagogik metodlarni modernizatsiya qilish ta’lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali yosh avlodning zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi ta’minlanadi. EMIS axborot tizimi va boshqa raqamli platformalar akademik litseylarning samarali boshqaruvini ta’minlash bilan birga o‘quvchilarning ta’lim olish jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonini innovatsion texnologiyalar bilan boyitish orqali O‘zbekiston ta’lim tizimini jahon standartlariga moslashtirish hamda kelajak avlod uchun yanada samarali ta’lim tizimini yaratish imkoniyati paydo bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kuznetsov, A. (2016). "Pedagogika: Ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish." — Moskva: Oliy ta'lim nashriyoti.

2. Graham, J. W., & Wong, L. S. (2018). "Educational Individualization and Its Impact on Learning." Journal of Educational Psychology, 110(5), 1243-1255.

3. Jabborov, X. (2011). Pedagogika. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi.

4. Khamidov, S. (2015). Ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

5. Abduazizov, I. (2014). Pedagogik texnologiyalar va individualizatsiya. — Toshkent: O‘zbekistan milliy pedagogika akademiyasi.

6. Bergman, M., & Sulaimonov, A. (2016). Innovatsion ta'lim texnologiyalari. — Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi.

7. Nizamov, D. (2013). Ta'lim metodikasi va shaxsiylashtirilgan yondashuvlar. — Toshkent: O‘zbekiston ta'lim muassasalarining nashriyoti.

8. Turaev, R. (2017). Shaxsiylashtirilgan ta'lim va o‘quvchilarning rivojlanishi. — Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti.

9. Khamdamov U., Abdullayev A., Elov J., Sultanov D. Conceptual Model of the Education Management Information System for Higher Education Institutions. International Journal of Advanced Trends in Computer Science and Engineering, 2020, Volume 9, No.5.

10. Jamshid Elov, Utkir Khamdamov. Development of a database of higher education process management information system based on the relational model , International Conference of Information science and communications technologies applications, trends and opportunities ICISCT 2021. 3-5 November, 2021. Tashkent, Uzbekistan, 5p.

O‘ZBEKISTONDA DIPLOMLARNI RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI: AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA KELGUSI REJALAR

Imronbek Xakimov,
Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi,
Yetakchi muhandis-dasturchi
Ulug‘bekmirzo Qurbonov,
Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi direktori

Annotatsiya

Ushbu maqolada diplomlarning elektron shaklga o‘tkazilishi, ularning maxsus ma’lumotlar bazalarida saqlanishi, QR-kod va blokcheyn texnologiyalari yordamida tekshirilishi kabi yo‘nalishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu jarayonda shaffoflikni ta’minlash va nazorat darajasini oshirish orqali mavjud muammolarga yechim topish masalalariga bag‘ishlangan. Maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamlashtirish jarayonlarining joriy holati, mavjud muammolar va ularni hal qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar batafsil yoritiladi. Kelgusi rejalar qatorida xalqaro tajribani o‘rganish, ma’lumotlar xavfsizligini kuchaytirish, ish beruvchilar va ta’lim muassasalari o‘rtasida integratsiyalashgan raqamli platformalarni rivojlantirish kabi yo‘nalishlar yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: *QR-kod, blokcheyn texnologiyalar, dublikat, OneID tizimi, my.gov.uz portali, Auksion, iOS, Android, PDF.*

Аннотация:

В данной статье анализируются такие направления, как перевод дипломов в электронный вид, их хранение в специальных базах данных, а также проверка с использованием QR-кодов и технологий блокчейн. Он также фокусируется на поиске решений существующих проблем путем обеспечения прозрачности и повышения уровня надзора за этим процессом. В статье подробно описывается современное состояние процессов цифровизации в системе образования Узбекистана, существующие проблемы и меры, принимаемые для их решения. В планах на будущее — изучение международного опыта, укрепление безопасности данных и разработка интегрированных цифровых платформ между работодателями и образовательными учреждениями.

Ключевые слова: *QR-код, технологии блокчейн, дубликат, система OneID, портал my.gov.uz, аукцион, iOS, Android, PDF.*

Abstract

This article analyzes such areas as the transfer of diplomas to electronic form, their storage in special databases, verification using QR-code and blockchain technologies. It also discusses the issues of ensuring transparency in this process and finding solutions to existing problems by increasing the level of control. The article discusses in detail the current state of digitization processes in the education system of Uzbekistan, existing problems and measures being taken to solve them. Future plans include studying international experience, strengthening data security, and developing integrated digital platforms between employers and educational institutions.

Keywords: *QR-code, blockchain technologies, duplicate, OneID system, my.gov.uz portal, Auction, iOS, Android, PDF.*

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan bir paytda ta’lim tizimining samaradorligini oshirish maqsadida ko‘plab innovatsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon ta’lim sifatini yaxshilash, shaffoflikni ta’minlash va ma’lumotlarga oson kirishni ta’minlashga qaratilgan. Oliy ta’lim muassasalarini tugatganlik to‘g‘risidagi diplom ma’lumotlarini elektron shaklda olish uchun diplom.edu.uz axborot tizimi ishlab chiqildi. Diplom.edu.uz platformasi orqali bakalavr, magistr, litsey, texnikum, kasb-hunar maktabi va kollejlarni bitirganlik to‘g‘risidagi diplom ma’lumotlarining haqiqiyligini tekshirish va qo‘shimcha ta’lim ma’lumotlarini kiritish mumkin.

Platformaning asosiy funksiyalari:

Diplom ma’lumotlarini kiritish va tasdiqlash: Bitiruvchilarning diplom ma’lumotlari platformaga kiritiladi va tasdiqlanadi. Agar ma’lumotlar mavjud bo‘lmasa, bitiruvchilar Yagona identifikatsiya tizimi — OneID orqali ro‘yxatdan o‘tib, o‘zlarining diplom ma’lumotlarini kiritishlari mumkin. So‘ngra, tegishli oliy ta’lim muassasasi ushbu ma’lumotlarning to‘g‘riligini tasdiqlaydi.

Diplom ma’lumotlarining haqiqiyligini tekshirish: Ish beruvchilar yoki boshqa manfaatdor tomonlar platforma orqali diplomlarning haqiqiyligini onlayn tarzda tekshirishlari mumkin.


Platformaning afzalliklari:

Qulaylik: Bitiruvchilar va ish beruvchilar uchun diplom ma’lumotlarini olish va tekshirish jarayonini soddalashtiradi.

Shaffoflik: Diplom ma’lumotlarining ochiqligini ta’minlaydi va soxtalashtirishning oldini oladi.

Integratsiya: Platforma boshqa davlat idoralari axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan bo‘lib, ma’lumotlar avtomatik tarzda yangilanadi.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Raqamli ta’lim texnoligiyalarini rivojlantirish markazi tomonidan ishlab chiqilgan mazkur axborot tizimida bugungi kunda 3,5 mlndan ortiq bitiruvchilarning diplom ma’lumotlari jamlangan. Ma’lumot uchun, bundan 2 989 692 ta Bakalavr, 259 533 ta Magistratura, 8100 ta Akademik litsey, 23 333 ta Kasb-hunar maktabi, 140 061 ta Kollej, 34 425 ta Texnikum diplom ma’lumotlari hamda 98 319 ta mutaxassislik va 1 mln dan ortiq foydalanuvchilar mavjud.




Diplom dublikatlarini olishning soddalashtirilishi:

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida raqamlashtirish doirasida diplom dublikatlarini olish tartibi soddalashtirildi. Endilikda, fuqarolar Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali my.gov.uz orqali yoki Davlat xizmatlari markazlariga tashrif buyurib, diplom dublikatini olish uchun so‘rovnoma to‘ldirishlari mumkin.

Bunda boshqa hech qanday hujjat talab etilmaydi va diplom dublikati 15 ish kuni ichida so‘rovnomada ko‘rsatilgan manzilga yetkazib beriladi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda diplomlarni raqamlashtirish jarayonlari ta’lim tizimining samaradorligini oshirish, shaffoflikni ta’minlash va fuqarolarga qulaylik yaratishga qaratilgan muhim qadamdir.

Axborot tizimlari bilan integratsiya. Vazirlik va idoralarning axborot tizimlari bilan axborot tizimi integratsiya qilinmoqda. Jumladan, My.gov.uz portali, O’zbekiston Respublikasi kambag’allikni qisqartirish va bandlik vazirligining “Yagona milliy mehnat tizimi”, O’zbekiston Respublikasi huzuridagi statistika agentligining axborot tizimi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining axborot tizimi, "E-AUKSION" - elektron savdo platformasi, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining Davlat fuqarolik xizmati vakant lavozimlarining yagona ochiq portali” kabi 10 dan ortiq platformalarga integratsiya qilindi.



Diplom ma’lumotlarini haqiqiyligini tasdiqlash jarayoni

Axborot tizimining afzalliklari hamda funksional imkoniyatlari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish joiz:

Diplomlarni tekshirish: Foydalanuvchilar berilgan diplomning haqiqiyligini tekshirishlari mumkin. Diplom seriya va raqami bo‘yicha ma’lumotlarni olish imkoni mavjud.

Yangi bitiruvchilarning ma’lumotlari: Yangi bitirgan talabalar haqidagi diplom ma’lumotlari tizimga avtomatik yuklanadi.

Onlayn arizalar qabul qilish: Diplom nusxasini olish yoki uni tasdiqlash uchun elektron ariza topshirish imkoniyati.

Tashkilotlar uchun qulaylik: Ish beruvchilar va tashkilotlar nomzodlarning ta’lim hujjatlarini tekshira oladi.

Shaffoflikni oshirish: diplom.edu.uz orqali barcha jarayonlar davlat tomonidan boshqariladi va monitoring qilinadi.

O‘zbekiston ta’lim tizimini raqamlashtirish doirasida diplom.edu.uz platformasi yanada rivojlantirilmoqda. Kelajakda ushbu tizimni takomillashtirish bo‘yicha bir qancha muhim rejalar belgilangan.

Diplomlarning soxtalashtirishni oldini olish tizimini kuchaytirish: Ma’lumotlarni blokcheyn texnologiyasi asosida himoyalash orqali diplomlarning soxtalashtirilishining oldini olish. Yangi xavfsizlik mexanizmlarini joriy qilish va ma’lumotlarni yanada mustahkam himoya qilish.

Ish beruvchilar uchun kengaytirilgan imkoniyatlar: Kompaniyalar va tashkilotlar uchun nomzodlarning ta’lim ma’lumotlarini tezkor va qulay tekshirish imkoniyatini yanada soddalashtirish. Ish beruvchilar uchun avtomatik tekshirish tizimini ishlab chiqish va integratsiya qilish.

Xalqaro integratsiya: diplom.edu.uz tizimini xorijiy universitetlar va ta’lim muassasalari bilan bog‘lash.

Mobil ilova va qulay interfeys yaratish: Foydalanuvchilar uchun maxsus mobil ilova ishlab chiqish va uni iOS va Android platformalarida ishga tushirish. Foydalanuvchilarning shaxsiy kabinet imkoniyatlarini kengaytirish.

Talabalar va bitiruvchilar uchun qo‘shimcha xizmatlar: Diplomdan tashqari akademik ma’lumotnomalar, baholar va kurs ishlari kabi ma’lumotlarni elektron shaklda olish imkoniyatini ta’minlash. Ta’lim grantlari va magistratura uchun hujjat topshirishda avtomatik tasdiqlash tizimini joriy etish.

Xulosa. O‘zbekistonda diplomlarni raqamlashtirish jarayoni ta’lim hujjatlarining xavfsizligi, shaffofligi va foydalanish qulayligini ta’minlashga qaratilgan muhim islohotlardan biridir. Hozirgacha QR-kod joriy etish, blokcheyn texnologiyasidan foydalanish va dublikat olish jarayonini avtomatlashtirish kabi muhim qadamlar tashlandi. diplom.edu.uz platformasi ta’lim tizimining zamonaviy va innovatsion yo‘nalishda rivojlanishiga katta hissa qo‘shmoqda. Platformaning kelajakdagi maqsadi – O‘zbekiston oliy ta’lim tizimini yanada shaffof va raqamlashtirilgan holatga keltirishdir. Ushbu rejalarning amalga oshirilishi bitiruvchilar, ish beruvchilar va ta’lim muassasalari uchun katta qulaylik yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.08.2022 yildagi PQ-357-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.10.2019 yildagi PQ-4502-son qarori.
4. Qurbonov U.O. Oliy ta’lim tashkilotlaridagi o‘quv jarayonlarini boshqarish axborot tizimlari va imkoniyatlari. Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali. 12/2024. 147-153 b.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.08.2022 yildagi PQ-357-son qarori.

OLIY TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH: INNOVATSIYALAR VA YANGI TEXNOLOGIYALAR

Komronbek Xaydarov,
Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi, bosh mutaxassis
Moxirjon Maxmudjonov,
Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi, bosh mutaxassis

Annotatsiya

Ushbu maqola oliy ta’lim muassasalarini o‘qish jarayonlarini raqamlashtirish orqali talabalarga va oliy ta’lim muassasalari xodimlariga qulayliklar yaratish, shaffoflikni ta’minlash, o‘quv nazorat jarayonini oshirish, korrupsiya holatlarining oldini olish, shuningdek, talabalarga qulayliklar yaratish haqida. Oliy ta’lim muassasalari talabalariga online ravishda shartnoma shakllantirish va taqdim etish masalasi ko‘rib chiqiladi

Kalit so‘zlar: *talaba, oliy ta’lim, raqamlashtirish, “HEMIS” axborot tizimi, “billing.edu.uz” axborot tizimi, “billing.e-edu.uz” axborot tizimi, “shartnoma.edu.uz” axborot tizimi, “kontrakt.edu.uz” axborot tizimi, Payme, Uzasbo, integratsiya.*

Аннотация

В статье речь идет о создании удобства для студентов и сотрудников высших учебных заведений путем оцифровки процессов обучения в высших учебных заведениях, обеспечения прозрачности, усиления процесса академического контроля, предотвращения коррупции и создания удобства для студентов. Будет рассмотрен вопрос оформления и предоставления договоров в электронном виде студентам высших учебных заведений

Ключевые слова: *студент, высшее образование, цифровизация, информационная система «HEMIS», информационная система «billing.edu.uz», информационная система «billing.e-edu.uz», информационная система «shartnoma.edu.uz», информационная система «kontrakt.edu.uz», Payme, Uzasbo, интеграция.*

Abstract

This article is about creating convenience for students and employees of higher education institutions through the digitalization of the educational processes of higher education institutions, ensuring transparency, increasing the process of educational control, preventing corruption, as well as creating convenience for students. The issue of forming and submitting contracts online to students of higher education institutions is considered.

Keywords: *student, higher education, digitalization, “HEMIS” information system, “billing.edu.uz” information system, “billing.e-edu.uz” information system, “shartnoma.edu.uz” information system, “kontrakt.edu.uz” information system, Payme, Uzasbo, integration.*

Kirish. Hozirgi kunda raqamlashtirish jarayonlari rivojlanmoqda, ko‘plab innovatsiyalar amalga oshirilmoqda. Shuningdek oliy ta’lim jarayonini boshqarish Hemis axborot tizimi ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 05.10.2020 yildagi PF-6079-son ijrosini ta’minlash maqsadiga Hemis axborot tizimi ishlab chiqilgan. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.12.2021 yildagi PQ-61-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadiga billing.edu.uz axborot tizimi ishlab chiqilgan va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 01.06.2023 yildagi PF-82-son ijrosini ta’minlash maqsadiga billing.e-edu.uz axborot tizimi yaratilgan


Asosiy qism. Bugungi kunda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi tomonidan ishlab chiqilgan “HEMIS”, “Billing.edu.uz” va “Billing.e-edu.uz” axborot tizimlari oliy ta’lim muassasalarida raqamlashtirish jarayonlariga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Ushbu HEMIS axborot tizimida quyidagi imkoniyatlar joriy etilgan:

- Talabalarni o‘quv jarayonini nazorat qilish
- Dars jadvalini nazorat qilish
- Statistika ma’lumotlarini ko‘rish
- Talabalarga stipendiya berish
- Online kutubxona tizimidan foydalanish
- Talabalarga guvoxnoma online berish
- Bitiruvchilarga diplom shakilantirish

Shuningdek, HEMIS axborot tizimi Iqtisodiyot va moliya vazirligining ta’lim-kredit.mf.uz platformasi bilan integratsiya qilingan bo‘lib, talabalar o‘z uyidan chiqmagan holda ta’lim krediti olish uchun masofaviy, ya’ni onlayn ravishda ariza qoldirish imkoniyati joriy etilgan.

Shartnoma.edu.uz

Nodavlat va xorijiy oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar Shartnoma.edu.uz axborot tizimi orqali to‘lov shartnomasini olish uchun ariza qoldirishlari mumkin. Bunda ta’lim muassasasi mas’ul xodimlari Billing.e-edu.uz axborot tizimi orqali kelib tushgan arizalarni ko‘rib chiqib tasdiqlaydi hamda shartnomani shakllantiradi.



1-rasm. Shartnoma.edu.uz tizimida shartnoma shaklantirish.

Shuningdek, talabalarni qo‘llab-quvvatlash uchun Telegram ilovasida bot ham yaratilgan bo‘lib, ushbu bot orqali talabalar tizimdagi muammoli vaziyatlarga javob olishlari yo‘lga qo‘yilgan.

Shakllantirilgan shartnomani bekor qilish imkoniyati ham yaratilgan. Shartnomani bekor qilish 2 ta usulda amalga oshiriladi:

1. Shartnoma.edu.uz tizimidan shartomani talabani o‘zi bekor qilish imkoni yaratilgan.
2. Billing.e-edu.uz tizimidan ta’lim muassasasini buxgalteriya mas’ul xodimi rad qilish imkoni bor.

Billing.e-edu.uz axborot tizimida ta’lim muassasalari o‘zlarining shartnoma shablonini biriktiradi. Shuningdek, har bir yo‘nalish hamda ta’lim shakllari bo‘yicha shartnoma summalari tizimga bir marotaba oliy ta’lim muassasasi mas’uli tomonidan kiritib qo‘yiladi. Talabalarga shartnoma shakllantirish jarayonida ushbu summalar avtomatik ravishda tizimda aks etadi va, albatta, shartnoma berish jarayonida shartnoma summasini tahrirlash imkoniyati yaratilgan. Shuningdek, shartnoma miqdoriga chegirma qo‘llash imkoniyati ham yaratilgan.

Kontrakt.edu.uz


Kontrakt.edu.uz ushbu tizim davlat ta’lim muassasasida o‘qish faoliyatini olib borayotgan talabalar uchun yaratilgan

Tizim qulayliklari:

1. Talaba masofaviy (online) shartnoma olish
2. Kontrakt to‘lov miqdorini ko‘rish va amalga oshirgan to‘lovni kuzatib borish
3. Kontrakt qarzdorligi va to‘lash kerakli bo‘lgan summani ko‘rish
4. Ijaraga online ariza yuborish
5. TTJ (talabalar turar joyi) uchun online ariza yuborish
6. Qayta o‘qish kredit modulga uchun online ariza yuborish


Talabalar shartnoma olish uchun kontrakt.edu.uz tizimi orqali ariza yuboradi. Yuborilgan ariza oliy ta’lim muassasasining mas’ul xodimiga kelib tushadi. Oliy ta’lim muassasasining mas’ul xodimi arizani ko‘rib tasdiqlaydi va kontrakt.edu.uz tizimiga yuboradi. Talaba esa shartnomani kontrakt.edu.uz tizimidan yuklab oladi.

Shuningdek, talaba kontrakt.edu.uz axborot tizimi orqali amalga oshirgan to‘lov miqdorini va qarzdorligini ko‘rishi mumkin. Talaba amalga oshirgan to‘lov miqdori UzAsbo DM (dasturiy majmua) orqali billing.edu.uz tizimiga eksport (sinxronizatsiya) qilingan holda talaba tomoni (kontrakt.edu.uz) tizimida ko‘rinadi va tizim hisoblab, qarzdorligini chiqarib beradi.



2-rasm. Kontrakt.edu.uz tizimida shartnoma shakllantirish.

Talabaning fan qarzdorligi, ya’ni kredit modulga masofaviy (onlayn) ariza yuborish imkoniyati yaratilgan. Shuningdek, shakllantirilgan kredit modul shartnomalarini ko‘rish hamda kredit modul to‘lov tarixini ko‘rish uchun qulayliklar yaratilgan.



3-rasm. Qayta o‘qish uchun kredit modulga shartnoma olish bo‘yicha ariza yuborish.

HEMIS


Yuqorida aytib o‘tilgan axborot tizimlarining barchasi HEMIS axborot tizimi bilan integratsiya qilingan.

Talabalar uchun my.hemis.uz axborot tizimi yaratilgan.

Ushbu tizimda talabalar dars jadvalini, fandan olgan baholarini, fan qarzdorligini, GPA ballini, o‘qituvchi tomonidan yuborilgan topshiriqlar hamda testlarni ko‘rish va javob qaytarish imkoniyatiga ega.

Shuningdek, talaba o‘qishi haqida ma’lumotnoma, chaqiruv varaqasi, ID guvohnoma va buyruqlarni ko‘rish hamda shakllantirish qulayliklari yaratilgan.

Bundan tashqari, my.hemis.uz axborot tizimida elektron kutubxona bo‘limi ham mavjud.



4-rasm. My.hemis.uz talaba profili.

Xulosa. Hozirgi kunda oliy ta’lim muassasalarida raqamlashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimini samarali boshqarish va talabalarga yuqori sifatli xizmatlar ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi. "Hemis",

"Shartnoma.edu.uz", "Kontrakt.edu.uz" kabi axborot tizimlarining joriy etilishi orqali talabalar o‘z o‘quv jarayonlarini online tarzda kuzatish, shartnomalar shakllantirish, to‘lovlarni amalga oshirish, va qarzdorlikni nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu tizimlar nafaqat talabalar uchun, balki oliy ta’lim muassasasi xodimlari uchun ham ishni soddalashtirishga yordam beradi.

"Hemis" tizimi talabalar uchun o‘quv faoliyatini nazorat qilishda, "Billing.edu.uz" va "Kontrakt.edu.uz" tizimlari esa moliyaviy masalalarni masofaviy boshqarishda yordam beradi.

Shu bilan birga, raqamlashtirish oliy ta’lim muassasalarining ichki jarayonlarini yanada shaffof va samarali qilish hamda ta’lim sifatini yaxshilashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, talabalar uchun qulayliklar yaratishda barcha tizimlarning integratsiyasi ularning o‘quv faoliyatini yanada samarali va tezkor qilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli Farmoni "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-son qarori "Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida"

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son Farmoni "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida".

4. Qurbonov U.O. Oliy ta’lim tashkilotlaridagi o‘quv jarayonlarini boshqarish axborot tizimlari va imkoniyatlari. Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali. 12/2024. 147-153 b.

5. Abdullayev A. I. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi uchun oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimining funksional imkoniyatlari. Muhammad al-Xorazmiy avlodlari, № 4 (22), dekabr 2022

TA’LIMGA ARIZA TOPSHIRISH JARAYONINING RAQAMLASHTIRILISHI: AFZALLIKLAR, KAMCHILIKLAR VA KELAJAKDAGI RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Bexzod Aliyev,
Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi,
Yetakchi muhandis-dasturchi
Ulug‘bekmirzo Qurbonov,
Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi direktori

Annotatsiya

Maqolada ta’lim muassasalariga ariza topshirish jarayonining raqamlashtirilishi, uning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilinadi. Raqamli tizimlarning integratsiyasi, avtomatlashtirilgan tanlov jarayonlari, shaffoflik va samaradorlikni oshirishga ta’siri muhokama qilinadi. Shuningdek, kelajakda ushbu tizimning rivojlanish istiqbollari, xavfsizlik choralari va foydalanuvchilarga qulaylik yaratish imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *raqamli tizim, ta’lim, ariza topshirish, avtomatlashtirish, shaffoflik, onlayn platforma, texnologik rivojlanish, xavfsizlik, ma’lumotlarni himoya qilish, my.edu.uz.*

Аннотация

В статье анализируется цифровизация процесса подачи заявлений в образовательные учреждения, ее преимущества и недостатки. Будут обсуждаться интеграция цифровых систем, автоматизированные процессы отбора и их влияние на повышение прозрачности и эффективности. Также будут рассмотрены перспективы дальнейшего развития этой системы, меры безопасности и возможности создания удобства для пользователей.

Ключевые слова: *цифровая система, образование, приложение, автоматизация, прозрачность, онлайн-платформа, технологическое развитие, безопасность, защита данных, my.edu.uz.*

Abstract


The article analyzes the digitalization of the application process for educational institutions, its advantages and disadvantages. The integration of digital systems, automated selection processes, their impact on increasing transparency and efficiency are discussed. The prospects for the development of this system in the future, security measures and opportunities for creating user convenience are also highlighted.

Keywords: *digital system, education, application, automation, transparency, online platform, technological development, security, data protection, my.edu.uz.*

Kirish. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va internetning rivojlanishi ta’lim sohasida ham sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi. Ta’lim muassasalariga ariza topshirish jarayoni, an'anaviy shakllardan raqamli platformalarga (keyengi hollarda my.edu.uz) o‘tish bilan, yanada soddalashgan va samaraliroq bo‘ldi. Bu maqolada abituriyentlar uchun ariza topshirish jarayonining raqamlashtirilishi haqida so‘z boradi, uning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, kelajakda bu tizimning qanday rivojlanishi mumkinligi tahlil qilinadi.

1. Raqamli tizimning joriy etilishi:

Bugungi kunda ta’lim muassasalariga ariza topshirish jarayoni asosan raqamli platformalarda amalga oshiriladi. Ma’lumki, har qanday axborot tizimini rivojlantirish va uning funksionalligini kengaytirish uchun uni boshqa platformalar bilan integratsiya qilish zarur. Shunga ko‘ra, ariza yuborish jarayonida abituriyentning shaxsiy ma’lumotlarini shakllantirish maqsadida "Yagona identifikatsiya tizimi" tizimi bilan integratsiya qilish orqali ma’lumotlar avtomatik tarzda olinadi. Abituriyentlar attestat va diplom nusxalarini onlayn tarzda yuklab, kerakli shakllarni to‘ldirgan holda arizani yuborishlari mumkin. Bu jarayon abituriyentlarning vaqtini tejashga, shuningdek, hujjatlarni qog'ozda topshirishning oldini olishga yordam beradi.



2. Ariza topshirish jarayonining soddalashishi:


Raqamli tizim abituriyentlarga o‘z arizalarini bir nechta ta’lim muassasalariga bir vaqtda topshirish imkoniyatini yaratadi. Bu, o‘z navbatida, abituriyentlar uchun katta qulaylik yaratadi, chunki ular har bir universitet uchun alohida-alohida hujjatlarni to‘plash, ularni arxivlash va yuborish bilan vaqt va energiya sarflashdan qochadilar. Buning o‘rniga, abituriyentlar barcha arizalarini yagona platformada bir necha marta bosish orqali topshirishlari mumkin, bu jarayonni sezilarli darajada tezlashtiradi.

Shu bilan birga, raqamli tizim universitetlar uchun ham samarali bo‘lib, ariza berish jarayonini tizimli va tartibli olib borish imkonini yaratadi. Har bir ariza, uning holati va qayta ishlanishi haqida aniq va real vaqt ma’lumotlari mavjud bo‘ladi. Bu, universitetlarga arizalar soni va ularning holatini nazorat qilishni osonlashtiradi, ariza berish jarayonida xatoliklarni kamaytiradi va vaqtni tejashga yordam beradi. Bundan tashqari, raqamli tizim avtomatik ravishda barcha zarur hujjatlarni to‘plashni ta’minlaydi, bu esa universitet xodimlariga arizalarni tez va samarali tekshirish imkonini beradi.

3. Avtomatlashtirilgan tanlov jarayonlari:

Raqamli platformalar orqali arizalar to‘planganidan so‘ng, ta’lim muassasalarining qabul komissiyalari tanlov jarayonini avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida o‘tkazishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, inson omili ta’sirini sezilarli darajada kamaytiradi va tanlov jarayonining adolatli, shaffof va xolis bo‘lishini ta’minlaydi.

Avtomatlashtirilgan tizimlar, masalan, arizalarni qabul qilishdan tortib, ularni saralash, tasdiqlash va abituriyentlarga mos yo‘nalishlarni tavsiya qilishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarni tez va samarali amalga oshiradi.



Bunday tizimlar, abituriyentlarning arizalarini avtomatik kerakli mezonlar bo‘yicha saralash imkonini beradi. Bu esa tanlov jarayonida xatoliklarni kamaytiradi va har bir ariza bo‘yicha aniq va obyektiv baholashni ta’minlaydi. Avtomatik tizimlar orqali abituriyentlarning barcha ma’lumotlari va hujjatlari yagona bazada saqlanadi, bu esa qayta ishlash va tekshirishni osonlashtiradi.

Shuningdek, avtomatlashtirilgan tizimlar shaffoflikni oshiradi, chunki barcha ariza va tanlov jarayonlari tizimda qayd qilinadi va natijalar avtomatik tarzda barcha ishtirokchilarga ma’lum qilinadi. Bu, o‘z navbatida, tanlov jarayonida noxolislik yoki soxta ma’lumotlarning oldini oladi. Bunday tizimlar universitetlarga vaqtni tejash va resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi, chunki ko‘plab jarayonlar avtomatik tarzda amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, avtomatlashtirilgan tizimlar ma’lumotlarning xavfsizligini ta’minlaydi va ular huquqbuzarliklardan himoya qilinadi, shuningdek, ma’lumotlar doimiy ravishda yangilanadi va monitoring qilinadi.

4.Raqamli tizimning afzalliklari:

- **Vaqtni tejash:** Abituriyentlar uchun ariza topshirish jarayoni yanada tez va samarali bo‘ladi. An'anaviy tarzda hujjatlarni yig'ish, yuborish, kutilayotgan navbatlarni kutish kabi jarayonlar endi onlayn tarzda amalga oshiriladi. Bu abituriyentlarga va qabul komissiyalariga vaqt tejashga imkon yaratadi.
- **Geografik cheklovlardan xoli bo‘lish:** Raqamli tizimlar orqali ariza topshirish jarayoniga dunyoning istalgan nuqtasidan kirish mumkin. Bu o‘z navbatida, chekka hududlarda yashovchi yoki xorijda ta’lim olishni xohlaydigan abituriyentlar uchun imkoniyatlar yaratadi.
- **Shaffoflik va adolat:** Raqamli tizimlar yordamida har bir ariza va hujjatning qabul qilinishi va tasdiqlanishi avtomatik tarzda qayd qilinadi. Bu, o‘z navbatida, soxta hujjatlar yoki yondashuvdagi xatoliklarni kamaytiradi va tanlov jarayonini shaffof qiladi.

- **Avtomatlashtirish va xatoliklarni kamaytirish:** Ariza topshirish jarayonida inson omili ta’sirini kamaytirish mumkin. Texnik vositalar yordamida avtomatik tarzda hujjatlar tekshiriladi, bu esa xatoliklar va kamchiliklarni kamaytiradi. Masalan, ariza shakllari to‘liq to‘ldirilmagan bo‘lsa, tizim avtomatik tarzda bu haqda ogohlantiradi.
- **Resurslarni samarali taqsimlash:** Raqamli tizimlar yordamida resurslar, masalan, vaqt, xodimlar va mablag'lar samarali ravishda taqsimlanadi. Universitetlar va boshqa ta’lim muassasalari arizalarni qayta ishlash uchun zarur bo‘lgan ishchi kuchini optimallashtirishi mumkin.
- **Yangi texnologiyalarni qo‘llash imkoniyati:** Raqamli tizimlar orqali sun'iy intellekt, ma’lumotlarni tahlil qilish va foydalanuvchi tajribasini yaxshilash kabi texnologiyalarni qo‘llash mumkin. Masalan, arizalar tahlil qilinib, abituriyentlarga eng mos bo‘lgan ta’lim yo‘nalishlari tavsiya etilishi mumkin.
- **Ma’lumot xavfsizligi va shaxsiy ma’lumotlarning himoyasi:** Raqamli tizimlar ma’lumotlarni shifrlash va xavfsiz saqlash imkonini beradi. Bu abituriyentlarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilishga yordam beradi va ma’lumotlar yo‘qolishi yoki noto‘g'ri qo‘llanilishi xavfini kamaytiradi.

5. Raqamli tizimning kamchiliklari:

- **Internetga kirishdagi muammolar:** Ba’zi hududlarda, ayniqsa qishloq joylarda yoki rivojlanayotgan mamlakatlarda, internetning tezligi yoki mavjudligi muammolarga olib kelishi mumkin. Bu holat, raqamli tizimdan foydalana olmaydigan abituriyentlar uchun adolatsiz holatni yuzaga keltirishi mumkin.
- **Texnik xatoliklar va tizimning ishdan chiqishi:** Har qanday raqamli tizimda ba’zida texnik nosozliklar yoki serverning ishdan chiqishi mumkin. Bu esa abituriyentlarning arizalari vaqtida qabul qilinmasligi yoki ma’lumotlar yo‘qolishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun tizimning doimiy ishlashini ta’minlash juda muhim.
- **Raqamli savodxonlikka talab:** Ba’zi abituriyentlar raqamli tizimlardan foydalana olishmaydi, chunki ular internetga yoki texnologiyalarga yaxshi moslashmagan. Bu holat yosh yoki texnologik jihatdan kamroq tajribaga ega bo‘lgan odamlar uchun qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.
- **Shaxsiy yordam va maslahatning yo‘qligi:** Raqamli tizimlar orqali barcha jarayonlarni amalga oshirish, ba’zan insoniy yondashuvni yo‘qotishga olib keladi. Abituriyentlar, ayniqsa, tizimni to‘liq tushunmaganlar, ba’zan shaxsiy maslahat olishni xohlaydilar. Raqamli yordamning cheklanganligi ba’zi foydalanuvchilarni qiyin ahvolga solishi mumkin.
- **Ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiylik:** Agar tizim xavfsiz emas bo‘lsa, abituriyentlarning shaxsiy ma’lumotlari xavf ostiga tushishi mumkin. Ma’lumotlar huquqbuzarligi yoki kiberhujumlar, tizimni ishdan chiqarishi va foydalanuvchilarning maxfiyligini buzishi mumkin.
- **Sistemalar o‘rtasidagi muvofiqlik muammolari:** Ba’zida ta’lim muassasalarining raqamli tizimlari o‘rtasida muvofiqlik yetishmasligi mumkin. Bu holat abituriyentlar uchun ariza topshirish jarayonini murakkablashtirishi mumkin, chunki ular turli tizimlarga hujjatlarni yuklash yoki qayta ishlashda qiynalishadi.
- **Texnologik farq:** Raqamli tizimlarning joriy etilishi, ba’zida turli regionlar yoki tumanlarda teng imkoniyatlar yaratmaydi. Ta’lim muassasalariga ariza topshirish imkoniyatlari o‘rtasidagi farq, texnologiyaga qaram bo‘lib, ayrim abituriyentlarning imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

6. Kelajakda rivojlanish istiqbollari:

Raqamli tizimlarning yanada takomillashishi, texnologiyaning doimiy ravishda rivojlanishi va yangi imkoniyatlarning paydo bo‘lishi orqali ariza topshirish jarayonlari yanada samarali va qulay bo‘ladi. Kelajakda mobil ilovalar yordamida ariza topshirishning kengayishi, abituriyentlarga o‘z arizalarini istalgan vaqtda, istalgan joyda topshirish imkonini beradi. Mobil ilovalar orqali hujjatlarni yuklash, kerakli shakllarni to‘ldirish va arizani yuborish jarayonlari juda soddalashadi. Bu, ayniqsa, mobil internetga kirish imkoniyati keng bo‘lgan yoshlar uchun qulay bo‘ladi va ular uchun ariza topshirish jarayoni yanada osonlashadi.

Shu bilan birga, raqamli tizimlarning rivojlanishi bilan bir qatorda, ma’lumotlarning xavfsizligi va foydalanuvchi huquqlarini himoya qilish masalalari ham yanada dolzarb bo‘lib qoladi. Shaxsiy ma’lumotlar va hujjatlarning xavfsizligi ta’minlanishi kerak, chunki ular kiberhujumlar, kiberxavf-xatarlar va noqonuniy foydalanishdan himoyalanishi zarur. Bu borada, ma’lumotlarni shifrlash, ikki faktorlu autentifikatsiya va

foydalanuvchilarning ma’lumotlarini himoya qilish bo‘yicha ilg'or xavfsizlik protokollarining joriy etilishi talab qilinadi.

Bundan tashqari, foydalanuvchilarning huquqlarini himoya qilish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli tizimlar orqali ma’lumotlar yig'ish va ulardan foydalanish jarayonida foydalanuvchilarning maxfiylik huquqlari himoya qilinishi kerak. Shaxsiy ma’lumotlarning qonuniy va adolatli ishlatilishi, foydalanuvchilarga ma’lumotlarini qanday ishlatilishi to‘g'risida aniq ma’lumot berish zarur bo‘ladi. Shu bilan birga, foydalanuvchilarga o‘z ma’lumotlariga kirish va ularni boshqarish huquqi berilishi kerak.

Kelajakda, raqamli tizimlarning kengayishi va yanada rivojlanishi abituriyentlarga ariza topshirish jarayonini yanada tezlashtirishi, osonlashtirishi va samarali qilish bilan birga, xavfsizlik va shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish masalalariga ham alohida e'tibor qaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar ta’lim sohasida barcha ishtirokchilarga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Abituriyentlar uchun bu tizim nafaqat ariza topshirishni osonlashtiradi, balki ta’limning barcha bosqichlariga ta’sir qiladi, masalan, o‘quv dasturlarini tanlash, stipendiyalar haqida ma’lumot olish, va boshqa qo‘llab-quvvatlash xizmatlariga kirish imkoniyatlarini yaratadi. Universitetlar uchun esa, ariza topshirish jarayonini avtomatlashtirish va ma’lumotlarni tahlil qilish orqali ta’lim sifatini oshirish va o‘qituvchilarga ko‘proq vaqti bilan resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi.

Raqamli tizimlar nafaqat ta’lim jarayonini samarali va shaffof qilishga yordam beradi, balki barcha ta’lim sohasidagi ishtirokchilarning o‘zaro aloqalarini kuchaytiradi. Bu, o‘z navbatida, ta’lim tizimining rivojlanishi va yangi imkoniyatlar yaratish uchun asos bo‘ladi.

Xulosa. Abituriyentlar uchun ta’lim muassasalariga ariza topshirish jarayonini raqamlashtirish — bu ta’lim tizimidagi muhim o‘zgarishlardan biridir. Raqamli tizimning joriy etilishi abituriyentlar uchun jarayonni soddalashtirib, ularning vaqtini tejashga va hujjatlarni tezkor va samarali tarzda taqdim etishlariga imkon yaratadi. Bu o‘zgarish, shuningdek, ta’lim muassasalariga ariza topshirish jarayonining shaffofligi va samaradorligini oshiradi. Avtomatlashtirilgan tizimlar, abituriyentlarning arizalarini oson va tez tarzda to‘plash, qayta ishlash va tasdiqlashni ta’minlaydi, bu esa barcha jarayonlarni yanada yaxshilaydi va tizimda xatoliklarni minimallashtiradi.

Kelajakda, bu tizimni yanada takomillashtirish zarur. Foydalanuvchi tajribasini yaxshilash, tizimni intuitiv va oson ishlatiladigan qilish, shuningdek, ariza topshirish jarayonini yanada qulay va shaxsiylashtirilgan qilish uchun yanada ko‘proq imkoniyatlar yaratish kerak. Raqamli platformalar orqali abituriyentlarga qo‘llanmalarga, maslahatlarga va ariza berish jarayonidagi barcha bosqichlar haqida real vaqt ma’lumotlarini olish imkoniyatlarini taqdim etish foydalanuvchi tajribasini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Texnik jihatdan tizimning ishonchliligi va xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha ham yangi qadamlar qo‘yish zarur. Barcha ma’lumotlar xavfsiz tarzda saqlanishi, shaxsiy ma’lumotlar himoya qilinishi va tizim barqaror ishlashi uchun ilg'or texnologiyalarni joriy etish kerak. Ma’lumotlarni shifrlash, autentifikatsiya jarayonlarini kuchaytirish va foydalanuvchilarning maxfiyligini himoya qilish bo‘yicha ilg'or xavfsizlik choralarini ko‘rish tizimning ishonchliligini oshiradi va foydalanuvchilarga tizimga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ««Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6079-son Farmoni. 2020-yil 5-oktyabr.
2. O‘zbekiston Res. Vazirlar Mahkamasining 11.11.2020 yildagi 715-son qarori
3. O‘zbekiston Res. Vazirlar Mahkamasining 11.01.2022 yildagi 17-son qaror.
4. Qurbonov U. O. Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimlarini takomillashtirishning ahamiyati. Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnali. 11/2024. 151-155 b.
5. Utkir Khamdamov, Alisher Abdullaev, Khurshid Sultanov, Jamshid Elov “Models of integration of higher education management information systems”, International Conference of Information science and communications technologies applications, trends and opportunities ICISCT 2021. 3-5 November, 2021. Tashkent, Uzbekistan, 4p.

YURAK ISHEMIK PATOLOGIYALARI BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA STOMATOLOGIK STATUSI VA HAYOT SIFATINI BAHOLASH KO‘RSATKICHLARI

Saodat Muratova,
Nazira Xabibova,
Buxoro davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya

Yurak ishemik patologiyalari bilan kasallangan bemorlarda og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatining yallig‘lanish kasalliklari eng keng tarqalgan patologik jarayonlardan biri bo‘lib, ular organizmning zararli agent ta’siriga birinchi himoya reaksiyasi hisoblanadi. Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatining yallig‘lanish kasalliklarining kechishi umum e’tirof etilgan qonunlarga bo‘ysunadi, ammo u ushbu to‘qimalarning tuzilishining anatomik va fiziologik xususiyatlariga bog‘liq bo‘lgan bir qator xususiyatlar bilan ham ajralib turadi.

Kalit so‘zlar: *yurak ishemik patologiyalari, stomatologik status, hayot sifatini baholash, og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavati.*

Аннотация

У пациентов с ишемической патологией сердца воспалительные заболеваниуа слизистой оболочки полости рта уавлуаютсуа одним из наиболее распространенных патологических процессов, которые уавлуаютсуа первой защитной реакцией организма на действие вредного агента. Течение воспалительных заболеваний слизистой оболочки полости рта подчинуаетсуа общепризнанным закономерностуам, но оно также характеризуетсуа руадом особенностей, которые зависуат от анатомических и физиологических особенностей строениуа этих тканей.

Ключевые слова: *ишемическая патология сердца, стоматологический статус, оценка качества жизни, состояние слизистой оболочки полости рта.*

Annotation

In patients with ischemic heart disease, inflammatory diseases of the oral mucosa are one of the most common pathological processes that are the first protective reaction of the body to the action of a harmful agent. The course of inflammatory diseases of the oral mucosa follows generally recognized patterns, but it is also characterized by a number of features that depend on the anatomical and physiological features of the structure of these tissues.

Keywords: *ischemic heart disease, dental status, quality of life assessment, condition of the oral mucosa.*

Tadqiqotning dolzarbligi. Yurak ishemik patologiyalari bilan kasallangan bemorlarda og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatining eng ko‘p uchraydigan yallig‘lanish kasalliklari turli xil etiologiyali stomatitlar, gingivit, parodontit va boshqalardir. Shunisi e’tiborga loyiqki, ushbu patologiya bilan og‘rigan bemorlarning taxminan 90% surunkali jarayonning bosqichida tibbiy yordamga murojaat qilishadi, bunday vaziyatlar davolash jarayonini va dori-darmonlarni tanlashni murakkablashtiradi. Yallig‘lanish jarayonining tez-tez erta surunkalilashuvi nafaqat taniqli mahalliy omillar, balki tananing turli tizimlarining ishlashini buzish bilan ham bog‘liq. Bu fakt og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatining yallig‘lanishi muammosining nafaqat stomatologlar, balki immunologlar, gastroenterologlar, endokrinologlar va boshqa mutaxassislar uchun ham dolzarbligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning maqsadi. Yurak ishemik patologiyalari bilan kasallangan bemorlarda stomatologik holatini o‘rganish.

Natija va tahlillar. Yurak ishemik patologiyalari bilan kasallangan bemorlarda og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatining yallig‘lanishining turli xil etiologik omillari ma’lum bir yallig‘lanish patologiyasining shakllanishini aniqlaydi. Shunday qilib, kasallik rivojlanishi bilan yuqumli-allergik, virusli, autoimmun va boshqa nazariyalarni ko‘rib chiqiladi. Yurak ishemik patologiyalari bilan kasallangan bemorlarda og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatining yallig‘lanishida Proteus, stafilokokklarning L-shakllari, streptokokklar va ichak tayoqchasiga mono- va polivalent bakterial allergiya rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik eksperimental tarzda isbotlangan. Ushbu patologiya tarixi bo‘lgan ko‘plab bemorlarga avtoimmun kasalliklar (yarali kolit, Kron kasalligi, Behchet kasalligi va boshqalar),

ovqat hazm qilish tizimining funksional buzilishlari (gastrit, disbakterioz, ich qotishi, diareya, o‘t yo‘llari diskinezi va boshqalar), endokrin kasalliklar tashxisi qo‘yilgan, tizimli buzilishlar ham kiradi.

Yurak ishemik patologiyalari bilan kasallangan bemorlarda og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatining yana bir keng tarqalgan yallig‘lanish kasalligi o‘tkir va surunkali gingivit bo‘lib, odatda tishlarda bakterial blyashka to‘planishi tufayli yuzaga keladi. Uning rivojlanishiga nafaqat noto‘g‘ri ortodontik davolanish, tug‘ma malokluziya, balki protezlash qoidalarining buzilishi ham sabab bo‘lishi mumkin. Ushbu sabablar, tishlar yoki protezlarni noto‘g‘ri parvarish qilish bilan birgalikda og‘iz bo‘shlig‘ining biotsenozini buzilishiga olib keladi. Bu yerda bevosita qo‘zg‘atuvchi moddalar St. Oralis, B. Gingivalis va boshqalar. Gingivit rivojlanishining qo‘zg‘atuvchi omillari ham yomon odatlar, immunosupressiv holatlar, to‘yib ovqatlanmaslik, diabet, S vitamini yetishmovchiligi va somatik kasalliklardir. Shunga qaramay, gingivitning turli shakllarini rivojlanishining asosiy qo‘zg‘atuvchi omili mahalliy omillar hisoblanadi: blyashka to‘planishi va supra- va subgingival cho‘kindilarning shakllanishi.

Yurak ishemik patologiyalari bilan kasallangan bemorlarda og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatining yallig‘lanish patologiyalarini davolashda asosiy bo‘lib qolmoqda, bu yetarli gigienik sharoitlarni yaratish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ekzogen vositalarni yo‘q qilish, antiseptik va yallig‘lanishga qarshi choralar va tiklashni o‘z ichiga oladi. Yallig‘lanish o‘chog‘ida normal mikrosirkulyasiyani ta’minlashimiz kerak. Davolashning yaxshi natijasi, o‘tkir yallig‘lanishni to‘liq bartaraf etish va yoki kasallikning surunkali shaklidagi kuchayishi o‘rtasidagi uzoq reabilitatsiya davridir. Yurak ishemik patologiyalari bilan kasallangan bemorlarda og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatining yallig‘lanishini davolashda eng ko‘p ishlatiladigan va yaxshi tasdiqlangan vositalar Xolisal, Solkoseril va Metragil-Dent preparatlaridir. Kversetin dori vositasidan foydalanish kompleks ravishda qo‘llash esa juda yuqori effektivlikni beradi. Maqsad va vazifalarga erishish uchun biz tug‘ma va orttirilgan yurak nuqsoni shakllari bilan kasallangan barcha bemorlarni kuzatdik. Davolashni boshlashdan oldin biz yallig‘lanish kasalliklarini rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida og‘iz bo‘shlig‘i organlarining gigienasi va holatini o‘rganib chiqdik [1.3.5.7.9.11.13.15.17].

Og‘riqli his-tuyg‘ular mavjudligi sababli, ko‘plab bemorlar uchun gigienaga rioya qilish qiyin kechdi va ularga umumiy qabul qilingan gigiena choralari buyurildi. Olingan ma’lumotlar shuni tasdiqlaydiki, gigienaga rioya qilish barcha tadbirlardan keyin yaxshilangan bo‘lsa-da, ikkala guruhlardagi bemorlarning ko‘pchiligida "qoniqarli" darajada saqlanib qolgan. Bu bemorlarning ushbu guruhida kerakli natijaga erishish uchun tish cho‘tkasi, tegishli pastalar va antiseptiklardan foydalanish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Buning uchun yallig‘lanish jarayoni susaygandan va og‘riq belgilaridan so‘ng, professional gigiena kerakligi uqtirildi [19.21].

Tishning qattiq to‘qimalari holatining ko‘rsatkichlarini o‘rganishda barcha guruhlarda kariesning tarqalishi 100%, I guruhda intensivlik 8,7, II guruhda - 8,6 ya’ni. o‘rtacha ko‘rsatkichlar darajasida va guruhlarda sezilarli farqlarsiz edi. Barcha muhtoj bemorlarga, gigienik tadbirlardan tashqari, og‘iz bo‘shlig‘ini sanitariya qilish va iloji bo‘lsa, yallig‘lanishning barcha mumkin bo‘lgan sabablarini bartaraf etish (tishlarning o‘tkir qirralarini tekislash, protez to‘shagini tuzatish, boshqa bezovta qiluvchi omillarni bartaraf etish) tushuntirildi. Yallig‘lanish jarayonining og‘irligini aks ettiruvchi gingivit indeksining ko‘rsatkichlari bo‘yicha gingival chetining shilliq qavatining holatini o‘rganib chiqdik. Og‘iz bo‘shlig‘ining gigienik holatini, yallig‘lanish jarayonining og‘irligini o‘rganishda olingan ma’lumotlar guruhlardagi bemorlarda keskin farqlar kuzatilmaganligini ko‘rsatadi. Infiltratning rezorbsiya tezligini o‘rganishda, bu jarayon kversetin dori vositasidan foydalanish bilan kompleks davolangan tug‘ma va orttirilagan shakllarda guruh bemorlarida eng faol davom etganligi qayd etildi. Bu yerda infiltrat ananaviy davolash guruhga qaraganda 2 kunga tezroq yallig‘lanishga qarshi ta’siri bilan izohlanishi mumkin. Kversetin dori vositasidan foydalanishning yana bir muhim tomoni shuki, mikrosirkulyasiyani faol ravishda tiklash qobiliyati kuchliligidadir. Yallig‘lanish yoki eroziv jarayon bilan zararlanganda shilliq qavatning yaxlitligini tiklash patologik jarayonning yakuniy bosqichidir [2.4.6.8.10.12.14.16.18.20].

Yurak ishemik patologiyalari bilan kasallangan bemorlarda og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatidagi yallig‘lanish jarayonini vizual nazorat qilish va ularni qiyosiy baholash bo‘yicha taqdim etilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Kversetin dori vositasidan foydalanish bilan kompleks davolashni terapevtik maqsadlarda qo‘llashda eng yaxshi natijalar qayd etilgan degan xulosaga kelish mumkin. Bemorlarning og‘iz bo‘shlig‘i shilliq

qavati shikastlanishining 100% epitelizatsiyasi kuzatuvning 7-kunida qayd etilgan, qo‘shimcha guruhda - 87,8% 12-kunida qayd etilgan. Fotoplanimetrik o‘lchovlar ma’lumotlari quyidagilarni ko‘rsatdi: Kversetin dori vositasidan foydalanilgan guruh bemorlarida regenerativ jarayonda 7-kuni 100% bemorlarda, qo‘shimcha guruhda 12-kuni bemorlarning 39% da aniqlangan individual sohalar mavjudligi ko‘rindi.

Xulosa. Shunday qilib, yurak ishemik patologiyalari bilan kasallangan bemorlarda og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatining yallig‘lanishini stomatologik hayot darajasini qiyosiy baholashda u klinik va laborator ko‘rsatkichlari ma’lumotlariga o‘xshash bo‘lib chiqdi: eng aniq ijobiy ko‘rsatkichlar tish qattiq to‘qimasidagi, parodont to‘qimasidagi va og‘iz bo‘shlig‘i a’zolarida o‘zgarishlar o‘rganildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Khabibova N.N. Characteristic features of free-radical processes and antioxidant protection in the oral cavity during chronic recurrent aphthous stomatitis// European Science Review. - 2018. - P. 191-193.
2. Khabibova N.N. Changes in biochemical and immunological indicators mixed saliva of patients with chronic recurrent aphthous stomatitis// European journal of pharmaceutical and medical research. –2018. – (5) 11. – P. 143-145.
3. Хабибова Н.Н. Клинико-биохимические особенности течения псевдоаллергических вариантов хронического рецидивирующего афтозного стоматита// Проблемы биологии и медицины. – 2018. - № 4 (104). – С. 220-222.
4. Хабибова Н.Н., Саидов А.А., Саидова М.Р. Сурункали рецидивирловчи афтозли стоматитда липидларни перекис оксидланишини ўзига хос хусусиуатлари ва оғиз бўшлиғи антиоксидант ҳимоясининг ҳолати// Тиббиётда янги кун. – 2018. - № 3 (23). – Б. 61-63.
5. Хабибова Н.Н., Вахидова М.А. Оценка защитной системы слизистой оболочки ротовой полости при хроническом рецидивирующем афтозном стоматите// Вестник ТМА. –2019. -№ 3. – С. 131-133.
6. Хабибова Н.Н., Хабилов Н.Л. Рол адгезивных молекул в развитие афтозного стоматита// Stomatologiya. Ташкент. -2019. - № 3. – С. 32-36.
7. Khabibova N.N. Clinical characteristics of patients with recurrent aphthous stomatitis// Annals of international medical and dental research. – 2019. – Vol. 5. Issue 5. - P. 64-66.
8. Хабибова Н.Н., Хабилов Н.Л. Оценка сосудисто-тканевых расстройств и регионарного кровотока при хроническим рецидивирующим афтозном стоматите// Новый ден в медицине. - 2019. – 3 (27). – С. 262-266.
9. Khabibova N.N., Khadjimetov A.A. Some occurrence aspects of chronic recurrent aphthous stomatitis of the oral cavity// Global Journal of Medical, Physical and Health Education. – 2019. - Vol. 7 (3). - P. 284-286.
10. Khabibova N.N. Characteristic features of the biochemical indicators of mixed saliva in patients with chronic recurrent aphtosis stomatitis// Global Science Research Journals. - 2019. - Vol. 7 (8). – P. 521-526.
11. Хабибова Н.Н., Олимова Д.В., Норова М.Б. Лечение началных форм кариеса методом инфилтратsiи. // Тиббиётда уанги кун. с2020. - № 4 (32). – Б. 290-292
12. Habibova N.N., Olimova D.V. Features of clinical manifestations, diagnostics and treatment of glossalgy. // New Day in Medicine. –2021. - № 6 (38). – P. 96-98
13. ХАБИБОВА Н.Н., ОЛИМОВА Д.В. THE EFFICIENCY OF GLOSSALGIA AND STOMATALGIA COMPLEX TREATMENT. // Электронный научный журнал «Биологиуа и интегративнауа медицина» № 6 – ноуабр-декабр (53) 2021. – С. 374-379
14. KHABIBOVA, N. N., RUZIEVA, S. S., SHIRINOVA, K. K., & QURBONOVA, N. I. (2021). INFLUENCE OF NATURAL AND ARTIFICIAL FEEDING ON THE FORMATION OF DISORDERS OF TEETHING AND FORMATION OF OCCLUSION IN EARLY CHILDREN. *Journal of Natural Remedies*, *22*(1 (1)), 87-91.
15. Khabibova, N. N. (2018). Changes in biochemical and immunological indicators mixed saliva of patients with chronic recurrent aphthous stomatitis. *European journal of pharmaceutical and medical research.–2018.–(5)*, *11*, 143-145.

16.Tailakova, D. I., & Khabibova, N. N. (2020). Determination of the immunological status of the oral cavity of the child population with congenital lip and palate in the studied areas. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, *7*(3), 3023-3026.

17. S Muratova, N Shukurova, N Xabibova. TO STUDY PERIODONTAL, HYGIENIC INDICES OF THE ORAL CAVITY, MINERAL COMPOSITION OF ORAL FLUID IN DENTAL PATIENTS WITH ISCHEMIC PATHOLOGY. Journal Science and innovation Vol.3 Issue D4, Pages 211-215

18. S Muratova, N Shukurova, N Xabibova. THE PREVALENCE OF A COMBINATION OF THE THREE MAIN DENTAL DISEASES OF DENTAL CARIES IN PATIENTS WITH CHRONIC CORONARY HEART DISEASE. Journal Science and innovation Vol.3 Issue D4, Pages 216-220

19.Khabibova, N. N. (2021). Examination of patients with different forms RFL MMOC Sobirov Sh. S.

20.Nasullaevna, H. N. (2018). Characteristic features of free-radical processes and antioxidant protection in the oral cavity during chronic recurrent aphthous stomatitis. *European science review*, (9-10-2).

21.Qurbonova, N., Khabibova, N., & Ikhtiyarova, G. A. (2020). Hygienic condition of the oral cavity and the level of hygienic knowledge of silk motor workers. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, *7*(3), 3027-3033.

TARBIYADA O‘QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILI

Dilshoda Saparboyeva,
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrasi v.b.dotsenti, p.f.b.f.d. PhD

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarbiya jarayoni asosida o‘quvchi shaxsini shakllantirish mazmuni va vazifalari, shakllari,vositalari kabilarning pedagogik shart sharoitlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Ta’lim, tarbiya, shaxs, predmet, obyekt, mahorat, pedagogika, bilim, metod, malaka, ko‘nikma, kompetensiya, muloqot madaniyati*

Аннотация

В статье рассматриваются педагогические условия, такие как содержание, задачи, формы и средства формирования личности студента на основе образовательного процесса.

Ключевые слова: *Образование, воспитание, личность, субъект, объект, умение, педагогика, знание, метод, квалификация, способность, компетентность, культура общения*

Abstract

This article describes the content and tasks, forms and pedagogical conditions for the formation of a student's personality based on the educational process.

Keywords: *Education, upbringing, person, subject, object, skill, pedagogy, knowledge, method, qualification, skill, competence, culture of communication*

Prezidentimiz Shavkat Miramonovich Mirziyoyevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash-davr talabi” anjumanidagi nutqida: ”Yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin”-degan g‘oyalari bugungi kunda ta’lim –tarbiya tizimini isloh qilish, barkamol avlodni shakllantirish vazifalarini amalga oshirishni talab etadi.

Chunki, tarbiya-bu yosh avlodni har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lib, shaxsning aqliy, jismoniy, axloqiy, ma’naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan, ularning jamiyatda muovaffaqiyatli yashashini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan yuksak insoniy xususiyatlarini tarkib toptirish jarayoni hisoblanadi. Shu jihatdan ham tarbiya shaxsni shakllantirishga

qaratilgan bo‘lib, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar asosida shakllanadi. Tarbiya faqatgina oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan jarayonlarda, uning yetakchilari, g‘oyalari ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar muhim o‘rin tutadi. Tarbiya ta’limga nisbatan kengroq tushunchadir. Ulug‘ olim, mutafakkir Arastuning ta’kidlashicha: ”Tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi; iste’dodga, ilmga, mashqqa”. Shunga ko‘ra tarbiya ishi bilan shug‘ullanuvchilar quyidagilarga amal qilishi lozim:

-tarbiyaviy ishlar jarayonida va tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb -milliylikning o‘ziga xos an’ana, vositalariga tayanish, milliy merosga asoslanish;

bilish, har bir bola, o‘smir va yoshlarning o‘ziga xosligini hurmat qilish;

-o‘quvchilar faoliyatida tarbiyaviy jarayonning asosini tashkil etishda ularning yosh jihatlariga mos turli xil ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga qatnashishini ta’minlash, ijtimoiy foydali, ko‘ngilochar tadbirlar tashkil etish lozim.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, tarbiya shaxs kamolotining uzluksizligini va uzviyligini muvaffaqiyatli ta’minlaydi. Shu jihatdan ham tarbiyaviy ishlar tizimi shaxs kamolotining eng muhim va zaruriy omillaridan biri hisoblanadi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

-maqsadning aniq ekanligi;

-faoliyat maqsadini amalga oshirishda xizmat qilishi;

-bolalar tarbiyasidagi faoliyatni o‘qituvchi, ota-ona va jamoa bilan hamkorlikda boshqaruvni ta’minlash muhimdir.

Tarbiya ta’lim jarayonida olgan bilimlariga uyg‘un bo‘lishi, tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda turli fanlarning integratsiyasini hisobga olish ijobiy xarakter kasb etadi. Tarbiyaviy ishlar yosh avlod ongiga Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga oid g‘oyalarni singdirishda kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Ularda sog‘lom hayot, sog‘lom turmush tarzi, barkamollik, milliy qadriyatlarga sadoqat, jamiyatdagi tinchlik, xotirjamlikni saqlashga ongli munosabatda bo‘lish, tinch va farovon hayot yaratish, ijtimoiy ma’naviyatni yuksaltirishga intilish kabi omillar asosiy o‘rin egallaydi. Oliy ta’lim muassasalaridagi tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etish bevosita o‘qitish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni amalga oshiradi. Tarbiyaviy ishlar tizimini amalga oshirish va uning samaradorlik darajasi shaxsning qanday tarbiya topganligiga bog‘liq. Tarbiyaviy ishlar jarayoni o‘quvchilarning ruhiy holatini yuqori samaradorlikka erishsh, ma’naviy –axloqiy jihatdan tarbiyalash-xalqning boy milliy, ma’naviy-tarixiy merosi umumbashariy qadriyatlarga, urf-odat va an’analar asosida intelektual salohiyatini rivojlantirish orqali quyidagi kompetensiyalarni shakllantiradi:

-o‘quvchilar jamoasining tarbiyalanganlik darajasini o‘rganib, unga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish;

-tarbiyaviy ish va tadbirlar uchun zarur bo‘lgan metodlarni tanlab, ko‘zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarini ko‘ra bilish;

-tarbiyaviy ishlarning o‘quvchilar ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta’sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirish va takomillashtirish;

-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘z bilimini doimiy rivojlantirib borishi.

Ushbu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarning yuksak axloqiy fazilatlar egasi qilib tarbiyalash jarayonlarini, shakl va yo‘llari hamda bilim, ko‘nikma va malaka hosil qilishda milliy qadriyat va urf-odatlardan keng foydalanadi.

Ularni tarbiyaviy jihatdan hayot va faoliyatga tayyorlash ishlariga alohida e’tibor beriladi. Shu jihatdan ta’limda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarda yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga asoslanish eng muhim hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya jarayonida yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy tamoyillari hisoblangan:

-insonparvarlik, ezgulik, bunyodkorlik, milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish bilan yosh avlodni jamiyat ehtiyojlari va talablariga mos ravishda tarbiyalash, tarbiyaviy ishlar jarayonida umuminsoniy qadriyatlarning yo‘naltiruvchi, baholovchi va samaradorlikni ta’minlovchi asoslariga tayangan holda bu boradagi faoliyat samaradorligiga erishish, tarbiyaviy ishlarda eng avvalo milliy, umuminsoniy va ijtimoiy qadriyatlarning uyg‘unligiga tayangan holda strategik maqsadlarga erishishdan iborat, tarbiyaviy ishlarning tashkil etilishida ta’lim tizimida olib boriladigan ishlarda yangi O‘zbekiston g‘oyasini, jamiyat va davlat manfaatlarini ifodalovchi tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish, ta’lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqot madaniyati o‘qituvchi va o‘quvchilarning bevosita o‘zaro munosabatini ma’lum bir maqsad

sari hamjihatlikka yo‘naltirsh, o‘qituvchining tarbiyaviy faoliyatidan boshlab muloqot madaniyatiga rioya qilishi, u jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasi bilan har kungi muomalani vaziyatga qarab rejalashtirish, har bir harakat, so‘z ohangiga e’tibor berish, muloqot jarayonida sinf jamoasidagi turli vaziyatlarni qayd etish o‘quvchilar xatti-harakatining oldingi holati bilan, tarbiyaviy faoliyatidan keyingi holatini qiyoslab baho berish, o‘qituvchi tarbiya uslublari natijalarini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilish, kamchiliklarini bartaraf etish muhim hisoblanadi.

Ushbu jarayonda har bir o‘qituvchi o‘quvchilarga to‘g‘ri, axborot uzatish va unga suhbatdoshini ishontira olishi kasbiy zaruriyat hisoblanadi. Bu o‘rinda o‘qituvchining muloqot madaniyati, ma’naviy olamining kengligi muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya va pedagogik muloqotning o‘ziga xos an’analari, milliyligimizga xos bo‘lgan shakl va metodlari mavjud. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari va ko‘nikmalari darajasiga chiqarish kabilar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi. Bu borada davlatimiz tomonidan hozirgi zamon o‘qituvchisidan, hayot sinovlariga bardoshli bo‘lish, millat qadriyatlarini anglash, jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini topish, yuksak ma’rifatli va ulkan salohiyatli bo‘lish, eng so‘nggi zamonaviy texnologiyalarni mukammal bilish talab etiladi. Shu jihatdan ham barkamol avlodni tarbiyalash mazmunida milliy qadriyatlarga sadoqat, jamiyatdagi tinchlik, xotirjamlikni saqlashga ongli munosabatda_bo‘lish, tinch va farovon hayot yaratish, ijtimoiy ma’naviyatni yuksaltirishga intilish kabi omillar tarbiyaviy ishlarda asosiy o‘rin egallaydi. Tarbiyaviy ishlarning asosiy jihati barkamol avlodning har tomonlama kamol topishini hisobga olgan holda ularning tarbiyaviy jihatiga e’tiborni qaratishda o‘qituvchi va tarbiyachilar yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda mahoratlilikka, metodikaga tayanishlari maqsadga muvofiqdir. Chunki insoniyatning boy ma’naviy-tarixiy merosidan tarbiya jarayonida samarali foydalanish o‘sib kelayotgan yosh avlodni_vatanparvar, xalqparvar, yuksak ma’naviyat sohibi qilib voyaga yetkazish, unda axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish ko‘p jihatdan tarbiyaviy ishlarni to‘g‘ri tashkil etishga bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Mirziyoyev Sh.M. “Insonparvarlik ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning asosiy poydevoridir”.Toshkent 2021.T.Tasvir.14-b.

2.Mirziyoyev.Sh.M. “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash-davr talabi” anjumanidagi nutqidan.Toshkent 2017.

3.Tarbiyaviy ishlar metodikasi. /o‘quv qo‘llanma/ O.M.Jabborova. <Book trade>2022.13-19b.

4. B.S.Axmadaliyev, O‘.N.Farmonov /Tarbiyaviy ishlar metodikasi/ O‘quv qo‘llanma.Toshkent: <Book trade 2022>.3-11b.

YURAK ISHEMIK PATOLOGIYASI BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA PARODONT TO‘QIMASIDAGI GISTOLOGIK O‘ZGARISHLAR

Saodat Muratova,
Nazira Xabibova,
Buxoro davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya

Hozirgi vaqtda yurak ishemik patologiyalarining tarqalishi ortib bormoqda, bu murakkab qon tomir patologiyalarining jarrohlik yo‘li bilan davolashdagi yutuqlar va zamonaviy terapiya usullari fonida kardiomiopatiyali bemorlarning umr ko‘rish davomiyligining oshishi bilan bog‘liq. Ushbu holatlarda parodont to‘qimasidagi o‘zgarishlarni oldini olish muhit ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *yurak ishemik patologiyalari, parodont to‘qimalari, gistologik o‘zgarishlar, shilliq qavat, epiteliy.*

Аннотация

В настоуащее время распространенност ишемической патологии сердца растет, что связано с достижениями в хирургическом лечении сложных сосудистых патологий и увеличением продолжителности жизни пациентов с кардиомиопатией на фоне современных методов терапии. В этих случаях окружающая среда важна для предотвращения изменений в тканях пародонта.

Ключевые слова: *ишемические патологии сердца, ткани пародонта, гистологические изменения, слизистая оболочка, эпителий*

Annotation

Currently, the prevalence of coronary artery disease is increasing, which is associated with advances in the surgical treatment of complex vascular pathologies and an increase in the life expectancy of patients with cardiomyopathy against the background of modern therapies. In these cases, the environment is important to prevent changes in periodontal tissues.

Keywords: *ischemic heart diseases, periodontal tissues, histological changes, oral mucosa.*

Tadqiqotning dolzarbligi: Yurak ishemik patologiyalari eng keng tarqalgan asoratlaridan biri yurak nuqsoni sindromining (YuN) rivojlanishidir. Rivojlangan mamlakatlarda yurak nuqsoni nogironlik va mehnatga layoqatli aholi o‘limining asosiy sabablaridan biridir (JSST, 2005). Yurak ishemik patologiyalari eng ko‘p uchraydigan sabablari: yurak ishemik kasalligi (50-70%), arterial gipertenziya (12-17%), spirtli ichimliklarni suiiste’mol qilish (7-9%), diabetes mellitus (10%), kardiomiopatiya (3-4%). Ko‘plab tadqiqotlar natijalari ateroskleroz va uning asoratlarining boshlanishi va rivojlanishida tizimli va mahalliy yallig‘lanishning bevosita ishtirok etishini tasdiqlaydi. Shu munosabat bilan og‘iz bo‘shlig‘ining yuqumli kasalliklari yurak-qon tomir kasalliklarining rivojlanishi uchun xavf omili sifatida qaraladi. Yurak ishemik patologiyalari bo‘lgan bemorlarning og‘iz bo‘shlig‘ida xarakterli o‘zgarishlar aniqlanmadi ammo ateroskleroz, koronar arteriya kasalligi, gipertenziya va periodontal kasalliklar rivojlanishida statistik jihatdan muhim bog‘liqlik aniqlandi.

Yurak ishemik patologiyalari epitelial hujayralarning miqdori o‘tkazilgan SDPK kursidan so‘ng oshdi, ko‘rsatkichlarning fiziologik qiymatiga yaqinlashdi, bu ayniqsa davolashdan bir necha oy o‘tib fiziologik ko‘rsatkichlarning qiymatiga yetadigan tikanli qatlam yadroli hujayralarining soni bo‘yicha ifodalangan. Dag‘al yadrosiz hujayralar davolash kursining ta’siri ostida shuningdek oshdi va kuzatuv yakunida, 6-oyga kelib dastlabki ma’lumotlardan ishonchli yuqori bo‘ldi. Sitopatologiya alomatlari bo‘lgan hujayralarni o‘rganishda ham yetarlicha ahamiyatli va ishonchli pasayishlar kuzatildi. Agar bemorlarda bu ko‘rsatkichlar ishonchli oshgan bo‘lsa, unda davolashdan so‘ng (1 oydan keyin) ushbu ko‘rsatkichlarning pasayishi, lekin xarakterining keskin ifodalanishi kuzatildi.

Shu tariqa, agar vakuolizirlangan sitoplazmali hujayralar davolashdan so‘ng ikkala kichik guruhda dastlabki qiymat bilan taqqoslaganda hamda bir necha oy kuzatuv davom ettirilganida ishonchli pasaygan bo‘lsa, bu pasayish nafaqat saqlandi, balki pasayishda davom etdi va bir necha oydan so‘ng fiziologik ko‘rsatkichlar darajasiga yetdi. Mikroorganizmlar bilan kontaminirlangan hujayralar ham shunday pasayish xarakteriga ega bo‘ldi. Navbatdagi o‘rganilgan ko‘rsatkichlar, bazofil qo‘shimchalar va fagirlangan hujayralar davolashdan so‘ng ishonchli darajada pasaydi, bir necha oy kuzatuvdan so‘ng pasayishda davom etdi, lekin fiziologik qiymatlarga yetmadi, biroq bu ko‘rsatkichlarga yaqin keldi. Bemorlarda barcha turdagi bog‘lovchi to‘qima hujayralarining miqdori SDPK kursidan so‘ng fiziologik qiymat ko‘rsatkichlariga yaqinlashib, ishonchli pasaydi. Shunday qilib, yurak ishemik patologiyalari kuzatuvning bir necha oyda asosan erishilgan ijobiy darajada saqlandi, bu ko‘rsatkichlar dastlabki ma’lumotlardan ishonchli past va fiziologik me’yorga yaqin keldi. Shikastlanmagan monotsitlar ijobiy o‘zgarishining dinamikasi mazkur ko‘rsatkichlar davolashdan keyinoq fiziologik me’yorga yaqinlashishi (ayniqsa 2 guruh bemorlarda) va bir necha oy kuzatuvdan so‘ng 1 guruh bemorlarda dastlabki ma’lumotlardan pastda, ijobiy darajada saqlanishini ko‘rsatdi. 2 guruh bemorlarda ushbu ko‘rsatkich davolashdan so‘ng fiziologik ko‘rsatkichlarga yetadi va kuzatuvning yakunigacha shu darajada qoladi. Shuni aytib o‘tish kerakki, 2 guruh bemorlarda o‘rganilayotgan barcha sitologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha milk hujayra tarkibining qayta tiklanishi ham davolashdan keyin, ham kuzatuvning uzoq muddatlarida ifodalangan.

Yurak ishemik patologiyalari davolash samaradorligining muhim mezoni sitopatologiya hodisasi bilan hujayra elementlari sonining ishonchli kamayishi bo‘ldi. Sitologik o‘zgarishlarning ijobiy dinamikasi standart stomatologik davolashda bo‘lgan bemorlarning nazorat guruhida ham kuzatiladi, lekin olingan ma’lumotlar

davolash kursidagidan sezilarli darajada past va farq ishonchli emas. Orttirilgan shakli bilan kasallangan bemorlarning o‘rganilishi SDPK kursidan so‘ng sitogrammalarda epitelial hujayralarning miqdori tekshiruvdan oldingi holat bilan taqqoslaganda sezilarli darajada ishonchli yuqori bo‘lganligi va davolashdan bir necha oydan so‘ng ko‘rsatkichning fiziologik qiymatiga yaqinlashganligini aniqlab berdi [2.4.6.8.10.12.14.16.18.20.22].

Bunda tikanli qatlamning yadroli hujayralari davolashdan so‘ng fiziologik me’yorga yaqinlashdi va 3 oydan so‘ng 1 va 2 guruh bemorlarda fiziologik me’yorgacha ko‘tarildi. Shu bilan bir vaqtda ikkala kichik guruhdagi bemorlarda dag‘al yadrosiz hujayralarning soni davolashdan so‘ng fiziologik qiymatga yetdi va kuzatuv yakunigacha erishilgan darajada qoldi. Davolash samaradorligidan darak beruvchi muhim mezon dastlabki ma’lumotlar bilan taqqoslaganda davolash kompleksidan so‘ng ishonchli pasaygan va erishilgan darajada kuzatuv yakunigacha saqlangan sitopatologiya hodisalari bilan hujayra elementlari sonining kamayishi hisoblanishini aytib o‘tish lozim. Sitopatologiya alomatlari bo‘lgan hujayralar tarkibidan vakuolizirlangan sitoplazmali hujayralar davolash kursidan keyin dastlabki ma’lumotlar bilan taqqoslaganda ishonchli pasayadi, fiziologik qiymatlarga yaqinlashadi va faqat 6-oyga kelib fiziologik me’yorga yetadi. Deformatsiyalangan yadroli hujayralar soni SDPK kursidan so‘ng yetarlicha ahamiyatli pasayib ($P<0,01$) fiziologik me’yorga yaqinlashadi va kuzatuv yakunigacha shu darajada qoladi. Bog‘lovchi to‘qima hujayralarining o‘rganilishi yallig‘lantiruvchi infiltrat – PMYaH asosiy hujayra elementlarining miqdori orttirilgan yurak nuqsoni shakliga ega bo‘lgan bemorlarda sog‘lom bemorlar bilan taqqoslaganda keskin yuqori, SDPK kursidan so‘ng uning yetarlicha ahamiyatga ega ishonchli pasayishi ($P<0,01$) kuzatiladi va butun kuzatuv davrida tobora pasayishda davom etib, 6-oyga yetganda fiziologik me’yorga yaqin qiymatga yetadi.

Shikastlanmagan monotsitlarning miqdori PMYaH kabi pasayish xarakteriga ega. Davolash kompleks kursidan so‘ng dastlabki qiymat bilan taqqoslaganda 1 guruhda 1,5 martadan ortiq va 2 guruh bilan taqqoslaganda 2 marta ishonchli pasayadi, shuningdek ikkala yosh guruhda fiziologik ko‘rsatkichlarga yaqinlashib, kuzatuv yakunigacha pasayishda davom etadi. Ochiq yadroli monotsitlarning miqdori shunga o‘xshash pasayish xarakteriga ega. Ushbu guruhda shuningdek yurak ishemik patologiya shaklidagi kabi orttirilgan shakliga ega bemorlarda aniqlangan patologik, sitologik o‘zgarishlar chuqur va yorqin ifodalangan bo‘ldi va o‘tkazilgan SDPK natijasida milkning hujayra tarkibi – parodont yumshoq to‘qimalarining qayta tiklanishi, asosan o‘rganilayotgan barcha sitologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha kuzatuvning barcha muddatlarida juda davomiy natijalar bilan ifodalandi. SDPK bemorlarda SKG ni davolashda samarali, bu klinik va sitologik usullar bilan tasdiqlandi. Umuman, sitologik usuldan foydalanish sog‘lom milk hujayra tarkibiga tasnif berish, yurak nuqsoni kasalligiga chalingan bemorlarda parodontning yumshoq to‘qimalari SKG shikastlanishida sitologik o‘zgarishlarni aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalari shuningdek parodontning yumshoq to‘qimalarida yallig‘lanish reaksiyalarining yopiq kechuvuda, qo‘llanilgan usullarning samaradorligini tekshirish va baholashda sitologik usuldan foydalanish imkonini berdi. Shunday qilib, olingan ma’lumotlarning qiyosiy tahlili bir oy davomida SDPK kursining o‘tkazilishi an’anaviy davolash bilan taqqoslaganda yurak nuqsoni kasalligiga chalingan bemorlarda asosiy stomatologik kasalliklarning profilaktikasi va davolanishi uchun yetarlicha samarali usul degan xulosaga kelish imkonini berdi. Bunda asosiy kasallikning davolash fonida bemorlarda so‘lakning reminerallashtiruvchi potensiali, quruqligi va sekresiyasi, tishlar emalining mustahkamligi oshganligini aytib o‘tish lozim [1.3.5.7.9.11.13.15.17.19.21.23].

O‘tkazilgan tadqiqotdan xulosa qilib, SDPK ning qo‘llanilishi og‘iz bo‘shlig‘i a’zolarining gigiena va fizik-kimyoviy holati yaxshilanishiga, kariesogen holat, yallig‘lanish reaksiyasi va parodont yumshoq to‘qimalarida qon ketishining pasayishiga, SST ortishi va qovushqoqligining kamayishiga va bir vaqtning o‘zida aralash so‘lakda pH ortishiga olib keldi.

Olingan ijobiy natijalar SDPK ni bemorlarning og‘iz bo‘shlig‘ida turli patologik o‘zgarishlar rivojlanganida tavsiya qilish imkonini beradi. O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida biz asosiy kasallikni davolash fonida qon tomir tizimi patologiyalariga bemorlarda stomatologik davolash-profilaktika kompleksining algoritmini ishlab chiqdik.

Xulosa. Taklif qilinayotgan algoritmni qo‘llashda ketma-ketlik va kombinatsiyalariga rioya qilish, qon tomir tizimi patologiyalariga chalingan bemorlarning og‘iz bo‘shlig‘i a’zolarida asosiy stomatologik kasalliklarning ijobiy kechuvi va ularni davolashda samaradorlikni ta’minlaydi. O‘tkazilgan kompleks tadqiqot

umumiy yurak nuqsoni kasalligiga chalingan bemorlarning og‘iz bo‘shlig‘i a’zolarida kasalliklarning kechuvida o‘ziga xosliklarni o‘rganish va ularni davolashga kompleks yondashuv zarurligini tasdiqladi, qon tomir tizimi patologiyalariga chalingan bemorlarning hayot sifatini ko‘tarishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Khabibova N.N. Characteristic features of free-radical processes and antioxidant protection in the oral cavity during chronic recurrent aphthous stomatitis// European Science Review. - 2018. - P. 191-193.

2. Khabibova N.N. Changes in biochemical and immunological indicators mixed saliva of patients with chronic recurrent aphthous stomatitis// European journal of pharmaceutical and medical research. –2018. – (5) 11. – P. 143-145.

3. Хабибова Н.Н. Клинико-биохимические особенности течениуа псевдоаллергических вариантов хронического рецидивирующего афтозного стоматита// Проблемы биологии и медицины. – 2018. - № 4 (104). – С. 220-222.

4. Хабибова Н.Н., Саидов А.А., Саидова М.Р. Сурункали рецидивирловчи афтозли стоматитда липидларни перекис оксидланишини о‘зига хос хусусиуатлари ва ог‘из бо‘шлиг‘и антиоксидант нимоуасининг holати// Тиббиётда уанги кун. – 2018. - № 3 (23). – Б. 61-63.

5. Хабибова Н.Н., Вахидова М.А. Оценка защитной системы слизистой оболочки ротовой полости при хроническом рецидивирующем афтозном стоматите// Вестник ТМА. –2019. -№ 3. – С. 131-133.

6. Хабибова Н.Н., Хабилов Н.Л. Рол адгезивных молекул в развитие афтозного стоматита// Stomatologiya. Ташкент. -2019. - № 3. – С. 32-36.

7. Khabibova N.N. Clinical characteristics of patients with recurrent aphthous stomatitis// Annals of international medical and dental research. – 2019. – Vol. 5. Issue 5. - P. 64-66.

8. Хабибова Н.Н., Хабилов Н.Л. Оценка сосудисто-тканевых расстройств и регионарного кровотока при хроническим рецидивирующим афтозном стоматите// Новый ден в медицине. - 2019. – 3 (27). – С. 262-266.

9. Khabibova N.N., Khadjimetov A.A. Some occurrence aspects of chronic recurrent aphthous stomatitis of the oral cavity// Global Journal of Medical, Physical and Health Education. – 2019. - Vol. 7 (3). - P. 284-286.

10.Khabibova N.N. Characteristic features of the biochemical indicators of mixed saliva in patients with chronic recurrent aphtosis stomatitis// Global Science Research Journals. - 2019. - Vol. 7 (8). – P. 521-526.

11. Хабибова Н.Н., Олимова Д.В., Норова М.Б. Лечение началных форм кариеса методом инфилтратsiи. // Тиббиётда уанги кун. с2020. - № 4 (32). – Б. 290-292

12. Habibova N.N., Olimova D.V. Features of clinical manifestations, diagnostics and treatment of glossalgy. // New Day in Medicine. –2021. - № 6 (38). – P. 96-98

13. ХАБИБОВА Н.Н., ОЛИМОВА Д.В. THE EFFICIENCY OF GLOSSALGIA AND STOMATALGIA COMPLEX TREATMENT. // Электронный научный журнал «Биологиуа и интегративнауа медицина» № 6 – ноуабр-декабр (53) 2021. – С. 374-379

14. KHABIBOVA, N. N., RUZIEVA, S. S., SHIRINOVA, K. K., & QURBONOVA, N. I. (2021). INFLUENCE OF NATURAL AND ARTIFICIAL FEEDING ON THE FORMATION OF DISORDERS OF TEETHING AND FORMATION OF OCCLUSION IN EARLY CHILDREN. *Journal of Natural Remedies*, *22*(1 (1)), 87-91.

15.Khabibova, N. N. (2018). Changes in biochemical and immunological indicators mixed saliva of patients with chronic recurrent aphthous stomatitis. *European journal of pharmaceutical and medical research.–2018.–(5)*, *11*, 143-145.

16.Tailakova, D. I., & Khabibova, N. N. (2020). Determination of the immunological status of the oral cavity of the child population with congenital lip and palate in the studied areas. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, *7*(3), 3023-3026.

17.Khabibova, N. N. (2019). Characteristic Features of Biochemical Indicators of Mixed Saliva in Patients with Chronic Recurrent Aphthous Stomatitis. *Journal of Advances in Medicine and Medical Research*, 1-7.

18.Khabibova, N. N. (2019). Clinical characteristics of patients with recurrent aphthous stomatitis. *Annals of international medical and dental research*, *5*(5), 64-66.

19 S Muratova, N Shukurova, N Xabibova. TO STUDY PERIODONTAL, HYGIENIC INDICES OF THE ORAL CAVITY, MINERAL COMPOSITION OF ORAL FLUID IN DENTAL PATIENTS WITH ISCHEMIC PATHOLOGY. Journal Science and innovation Vol.3 Issue D4, Pages 211-215

20.S Muratova, N Shukurova, N Xabibova. THE PREVALENCE OF A COMBINATION OF THE THREE MAIN DENTAL DISEASES OF DENTAL CARIES IN PATIENTS WITH CHRONIC CORONARY HEART DISEASE. Journal Science and innovation Vol.3 Issue D4, Pages 216-220

21.Qurbonova, N., Khabibova, N., & Ikhtiyarova, G. A. (2020). Hygienic condition of the oral cavity and the level of hygienic knowledge of silk motor workers. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, *7*(3), 3027-3033.

22.Khabibova, N. N., & Khadjimetov, A. A. (2019). Some occurrence aspects of chronic recurrent aphthous stomatitis of the oral cavity.*Global Journal of Medical, Physical and Health Education*, *7*(3), 284-286.

23.Хабибова, Н. Н., Вахидова, М. А., & Жабборова, Ф. У. (2016). Эффективност комплексной терапии генерализованного пародонтита у болных с ожирением. *Наука молодых–Eruditio Juvenium*, (2).

ИЗУЧЕНИЕ ГЛАГОЛОВ В НЕРУССКИХ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Дилдора Юлдашева,
Университет экономики и педагогики

Аннотация

Настоящее исследование посвящено изучению трудностей усвоения русского глагола учащимися нерусских начальных классов. В работе анализируются проблемы, связанные с образованием видо-временных форм, выбором глаголов в контексте и употреблением форм будущего времени. Основные трудности учащиеся испытывают из-за различий между родными языками и русским, что затрудняет восприятие и использование глагольных форм. Результаты исследования показывают, что активное использование коммуникативных методов, таких как диалоги и ролевые игры, способствует лучшему усвоению грамматических категорий. Работа также предлагает рекомендации для улучшения методов преподавания русского языка с учетом билингвального контекста.

Ключевые слова: *русский язык, глагол, билингвизм, видо-временные формы, коммуникативные методы, начальные классы, трудности усвоения, педагогические методы.*

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot rus tili bo'lmagan boshlang'ich maktab o'quvchilari tomonidan rus tilidagi fe'lni o'rganishdagi qiyinchiliklarni o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada aspektual-zamon shakllarining shakllanishi, kontekstda fe'l tanlash va kelasi zamon shakllaridan foydalanish bilan bog'liq muammolar tahlil qilinadi. Talabalarning asosiy qiyinchiliklari o'z ona tillari va rus tili o'rtasidagi farqlar bilan bog'liq bo'lib, bu fe'l shakllarini idrok etish va ulardan foydalanishni qiyinlashtiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, dialog va rolli o'yinlar kabi kommunikativ usullardan faol foydalanish grammatik kategoriyalarni yaxshi o'zlashtirishga yordam beradi. Ishda, shuningdek, ikki tilli kontekstni hisobga olgan holda rus tilini o'qitish usullarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *rus tili, fe'l, ikki tillilik, aspektual-zamon shakllari, kommunikativ usullar, boshlang'ich sinflar, o'rganishdagi qiyinchiliklar, pedagogik usullar.*

Abstract

This study is devoted to the study of the difficulties of mastering the Russian verb by non-Russian primary school students. The paper analyzes the problems associated with the formation of aspectual-tense forms, the choice of verbs in context and the use of future tense forms. The main difficulties students experience are due to the differences between their native languages and Russian, which complicates the perception and use of verb forms. The results of the study show that the active use of communicative methods, such as dialogues and role-playing games,

contributes to a better mastery of grammatical categories. The work also offers recommendations for improving the methods of teaching Russian, taking into account the bilingual context.

Keywords: *Russian language, glagol, bilingualism, video-time forms, kommunikativnye metody, nachalnye klassy, trudnosti usvoeniya, pedagogicheskie metody.*

Введение. Изучение русского языка в нерусских начальных классах является одной из актуальных задач современной педагогики. Особое внимание уделяется глаголу, как ключевой части речи, которая играет важную роль в формировании навыков устной и письменной речи. Однако глагол также представляет собой одну из самых сложных категорий для усвоения младшими школьниками, особенно в условиях билингвизма. Дети из нерусскоязычных семей сталкиваются с трудностями восприятия и освоения морфологических и синтаксических особенностей русского глагола, что обусловлено различиями в языковых системах и отсутствием должного языкового опыта. Глаголы, как грамматическая категория, являются основным средством выражения действий, состояний или процессов. Их правильное использование требует от учащихся не только понимания семантики, но и освоения широкого спектра морфологических форм: времени, лица, числа, вида и залога. Однако нерусскоязычные школьники зачастую испытывают трудности в формировании и использовании этих форм. Как отмечают Кислицкая и Мугидова (2016), морфологические категории русского глагола представляют значительные затруднения для учащихся Дагестанской национальной школы, что связано с отсутствием аналогичных грамматических структур в их родных языках.

Другой важный аспект — развитие коммуникативных навыков, которые напрямую связаны с умением правильно употреблять глаголы в речи. Биджиева и Алимсакаева (2016) подчеркивают, что работа над глаголом способствует улучшению речевых навыков младших школьников-билингвов, однако данный процесс требует целенаправленного и системного подхода. Цель данного исследования — изучить особенности освоения русского глагола младшими школьниками в нерусских классах, выявить основные трудности и предложить эффективные методики их преодоления. Основной задачей работы является анализ существующих подходов к обучению глаголам и их адаптация для использования в условиях билингвизма.

Обзор литературы. Проблема изучения русского языка в нерусских классах исследовалась многими учеными, которые акцентировали внимание на специфике обучения глаголам. Кислицкая и Мугидова (2016) отмечают, что основные трудности при усвоении морфологических категорий русского глагола связаны с несовпадением грамматических систем. Их исследование, проведенное в Дагестанской национальной школе, показало, что учащиеся испытывают сложности в освоении видо-временных форм, что обусловлено отсутствием аналогичных категорий в их родных языках.

Важный вклад в исследование проблемы внесли Биджиева и Алимсакаева (2016), которые изучали развитие коммуникативных умений младших школьников-билингвов в процессе работы над глаголами. Авторы подчеркнули значимость комплексного подхода, включающего работу над лексико-грамматическим значением глагола, его использованием в контексте и развитием речевых умений. Они утверждают, что систематическое использование упражнений на формирование глагольных форм способствует улучшению речевой активности детей.

Камолов (2009) в своих исследованиях предложил лингводидактические основы обучения русской лексике, включая глаголы, студентов-таджиков начальных курсов. Он акцентировал внимание на необходимости разработки методик, учитывающих билингвальную среду, и подчеркивал важность учета национально-культурных особенностей студентов при обучении русскому языку.

Таким образом, существующие исследования подчеркивают важность работы с глаголами в процессе изучения русского языка, однако остаются открытыми вопросы адаптации методик для начальных классов в условиях билингвизма. Настоящее исследование направлено на заполнение этого пробела и разработку эффективных подходов к обучению.

Методы. В ходе исследования были использованы качественные и количественные методы анализа. Основной материал исследования составили наблюдения за учебным процессом в нерусских начальных классах, а также анализ письменных работ учащихся. Выборка включала 50 учащихся

начальных классов из школ с билингвальной средой, преимущественно в Дагестане. Для выявления основных трудностей в усвоении морфологических категорий глагола использовались специально разработанные тестовые задания. Задания включали упражнения на образование и употребление видо-временных форм, согласование глаголов с подлежащими, а также использование глаголов в контекстах, типичных для учебного процесса.

Результаты. Исследование показало, что учащиеся нерусских начальных классов сталкиваются с рядом трудностей в процессе освоения глаголов, особенно в морфологическом и синтаксическом аспектах. В ходе работы было проанализировано более 500 письменных заданий, выполненных учениками, а также проведено несколько наблюдений за уроками и интервью с учителями.

1. Ошибки в употреблении видо-временных форм. Одной из основных проблем, выявленных в ходе исследования, является трудность в образовании и употреблении видо-временных форм глаголов. Из 50 учеников 72% (36 человек) допустили ошибки при образовании прошедшего времени глаголов. Чаще всего ошибались в образовании форм совершенного вида (например, "сделать" вместо "сделал"). Ошибки также возникали при согласовании глаголов с подлежащими в разных лицах. Пример: "Они едет в школу" вместо "Они едут в школу". Такие ошибки были наиболее распространены среди учеников, чьи родные языки не имеют категории вида или используют вид в меньшей степени (например, в дагестанских языках).

2. Проблемы с использованием глаголов в контексте. Не менее значимыми оказались ошибки в использовании глаголов в контексте. 65% (33 учащихся) допустили ошибки в употреблении глаголов в предложениях с прямыми и косвенными объектами. Например, ученики путали глаголы с похожим значением, но различающиеся по виду: "позвонить" вместо "звонить". Более того, 57% (28 человек) не смогли правильно употребить глаголы в контекстах, требующих использования определенной приставки. Примером ошибки было употребление глагола "поставить" в контексте, где требовалось "поставить на место", несмотря на то, что в родных языках учеников приставки используются реже или совсем отсутствуют.

3. Ошибки в употреблении форм будущего времени. Еще одной серьезной проблемой является освоение форм будущего времени. 63% учащихся (31 человек) испытывали затруднения при образовании будущего времени совершенного и несовершенного вида. Например, ошибки при употреблении глаголов, образующих будущее время с помощью вспомогательных глаголов: "я буду идти" вместо "я пойду". Эти ошибки связаны с особенностями грамматических систем родных языков, где будущее время часто выражается другими средствами.

4. Уровень овладения глагольными формами по языковым группам. В ходе исследования было также проведено разделение учащихся на группы в зависимости от их родного языка. Учеников, чьи родные языки принадлежат к восточнокавказской языковой группе (дагестанские языки), среди всех участников было 58%. Эта группа продемонстрировала наибольшее количество ошибок в образовании форм совершенного и несовершенного вида — 80% учащихся допустили более 10 ошибок на 20 предложений. В то же время среди учеников, чьи родные языки принадлежат к тюркской языковой группе (например, азербайджанцы, турки), ошибки в образовании форм времени составили 60%, что на 20% ниже, чем у учащихся из дагестанских семей.

5. Рекомендации по улучшению учебного процесса. На основе полученных данных было предложено несколько рекомендаций для улучшения учебного процесса. Во-первых, необходимо усилить внимание к видо-временным формам глаголов, проводя больше практических занятий и упражнений, направленных на их правильное употребление. Во-вторых, следует расширить использование коммуникативных методик, которые активно включают учащихся в языковую практику, так как это способствует лучшему усвоению грамматических категорий. В-третьих, важно учитывать языковые особенности учащихся, разрабатывая методики, адаптированные под различные языковые группы.

Таким образом, исследование выявило ключевые трудности, с которыми сталкиваются учащиеся в процессе освоения русских глаголов, а также предложило пути решения этих проблем через использование адаптированных методик преподавания.

Обсуждение. Результаты исследования подчеркивают важность и сложность процесса усвоения русских глаголов учащимися нерусских начальных классов. Как показали данные, основными трудностями являются ошибки в образовании и употреблении видо-временных форм, а также проблемы с правильным выбором глаголов в контексте. Эти проблемы связаны с лексико-грамматическими особенностями родных языков учащихся, где нет аналогичных грамматических категорий, что затрудняет восприятие и использование русских глаголов. Особое внимание стоит уделить трудностям, связанным с видо-временными формами. Проблемы с усвоением этих форм объясняются различиями в грамматических системах. В большинстве родных языков учащихся (например, в дагестанских языках) видо-временные категории представлены не так ярко, как в русском языке, что усложняет процесс усвоения этих форм. Ошибки, связанные с употреблением форм совершенного и несовершенного вида, а также будущего времени, подтверждают необходимость уделять внимание этим аспектам в обучении.

Заключение. Исследование показало, что дети в нерусских начальных классах сталкиваются с множеством трудностей при освоении русских глаголов, что связано с особенностями родных языков и специфическими особенностями билингвального обучения. Основными трудностями являются ошибки в образовании видо-временных форм, неправильный выбор глаголов в контексте и проблемы с употреблением форм будущего времени. Однако успешное использование коммуникативных методов обучения может существенно улучшить процесс усвоения глагольных форм, что подтверждается данными нашего исследования. Полученные результаты подтверждают необходимость разработки и применения адаптированных методик, которые учитывают особенности языковой ситуации учащихся. Важно, чтобы педагогические подходы активно использовали устную речь и коммуникативные упражнения, которые способствуют лучшему усвоению грамматических категорий. Использование диалогов, ролевых игр и практических заданий может снизить количество ошибок и улучшить понимание учащимися различных грамматических форм глаголов.

ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Кислицкая, С. С., & Мугидова, М. И. (2016). Трудности усвоения морфологических категорий русского глагола учащимися дагестанской национальной школы. *Филологические науки. Вопросы теории и практики*, (4-3 (58)), 182-184.

2. Биджиева, В. И., & Алимсакаева, Р. К. (2016). Развитие коммуникативных умений младших школьников-билингвов в процессе работы над глаголом. *Филологические науки. Вопросы теории и практики*, (6-2 (60)), 184-187.

3. Камолов, М. К. (2009). Лингводидактические основы обучения русской лексике студентов-таджиков начальных курсов. *Вестник Таджикского государственного университета права, бизнеса и политики. Серия гуманитарных наук*, (1), 109-119.

4. Мугадова, З. К. И. (2009). Типичные ошибки в образовании и употреблении словосочетаний учащимися дагестанской начальной школы. Известия Российского государственного педагогического университета им. АИ Герцена, (98), 168-171.

5. Кислицкая, С. С. (2016). Усвоение грамматического строя русского языка учащимися начальных классов дагестанской школы. Филологические науки. Вопросы теории и практики, (6-2 (60)), 197-199.

6. Рыжова, Н. В. (2008). Проблема отбора и организации грамматического материала в обучении русскому языку нерусских. Русистика, (2), 53-59.

MIYA FALAJINING SPASTIK SHAKLLARI UCHUN REABILITATSIYA TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Malika Ibragimova,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot miya falajining spastik shakllari bilan og‘rigan bolalar uchun reabilitatsiya jarayonini takomillashtirishga qaratilgan. PNF-metodikasi va “Korvit” apparati qo‘llanilgan kompleks dastur asosiy guruhda harakat faolligi va mushak kuchini sezilarli darajada yaxshilagan. Tadqiqot davomida GMFM-88, GMFCS va MACS shkalalari, shuningdek, goniometriya va ENMG natijalari asosida reabilitatsiyaning samaradorligi baholandi. Natijalar reabilitatsiya jarayonining nafaqat mushak faolligiga, balki bemorlarning hayot sifatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *miya falaji, spastik shakllar, PNF-metodika, reabilitatsiya, “Korvit” apparati.*

Аннотация

Данное исследование посвящено совершенствованию процесса реабилитации детей с церебральным параличом спастических форм. Применение PNF-методики и аппарата «Корвит» продемонстрировало значительное улучшение двигательной активности и силы мышц у пациентов из основной группы. Эффективность реабилитации оценивалась с использованием шкал GMFM-88, GMFCS и MACS, а также данных гонойметрии и ЭНМГ. Результаты показали, что реабилитационные мероприятия улучшают не только функциональные, но и социальные аспекты жизни пациентов.

Ключевые слова: *церебральный паралич, спастические формы, PNF-методика, реабилитация, аппарат «Корвит».*

Annotation

This study focuses on improving the rehabilitation process for children with spastic forms of cerebral palsy. The use of PNF methodology and the "Korvit" apparatus significantly enhanced motor activity and muscle strength in the primary group. The effectiveness of rehabilitation was assessed using GMFM-88, GMFCS, and MACS scales, as well as goniometry and ENMG data. Results showed that rehabilitation positively affects both functional abilities and the quality of life of patients.


Keywords: *cerebral palsy, spastic forms, PNF-methodology, rehabilitation, Korvit apparatus.*

Kirish. Miya falajining spastik shakllari dunyo miqyosida jismoniy imkoniyatlari cheklangan shaxslarning salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan jiddiy kasalliklardan biri hisoblanadi. Ushbu kasallik asosan bolalik davrida aniqlanib, harakatlanish qobiliyatining pasayishi, mushaklarning haddan tashqari taranglashishi va boshqa nevrologik muammolar bilan namoyon bo‘ladi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, miya falajining spastik shakllari bilan og‘rigan bemorlarning soni yildan-yilga ortib bormoqda, bu esa ushbu sohada yangicha reabilitatsiya usullarini ishlab chiqish zaruratini ko‘rsatadi. Maqsad va vazifalarga to‘xtaladigan bo‘lsak, ushbu tadqiqot miya falajining spastik shakllari bilan og‘rigan bemorlar uchun reabilitatsiya jarayonini takomillashtirishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi - bemorlarning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy holatini yaxshilash orqali ularning hayot sifatini oshirishdir. Buning uchun zamonaviy texnologiyalar va individual yondashuv asosida reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini baholash asosiy vazifa sifatida belgilangan. Mavzuning dolzarbligi shundaki, reabilitatsiya jarayoni miya falaji bilan og‘rigan bemorlar uchun nafaqat sog‘liqni tiklash, balki ularning jamiyatga integratsiyalashuvini ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ilmiy izlanishlar natijalarini amaliyotga joriy qilish orqali miya falaji bilan bog‘liq muammolarni hal qilishga hissa qo‘shish imkoniyati mavjud. Ilmiy ahamiyatiga kelsak, ushbu tadqiqot reabilitatsiya jarayonida yangi yondashuvlarni joriy etish va ularning samaradorligini o‘rganish bilan bog‘liq nazariy bilimlarni boyitadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida yaratilgan tavsiyalar amaliyotchi mutaxassislarga yangi imkoniyatlar eshigini ochib beradi. Shu tariqa, tadqiqot sog‘liqni saqlash sohasida dolzarb bo‘lgan masalalarga yechim topishga qaratilgan qimmatli ilmiy va amaliy manba sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot miya falajining spastik shakllari bilan og‘rigan bolalarning reabilitatsiyasini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, unda turli xil ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanilgan. Birinchi navbatda, klinik tekshiruvlar amalga oshirilib, nevrologik ko‘rsatkichlar (reflekslar, mushak kuchi, koordinatsiya) baholandi. Diagnostik tadqiqotlar uchun magnet-rezonans tomografiya (MRT), elektroensefalografiya (EEG), elektroneyromiografiya (EMG) kabi zamonaviy texnologiyalar qo‘llanildi.Tadqiqotning asosi sifatida PNF-metodika va “Korvit” apparatini o‘z ichiga olgan kompleks reabilitatsiya dasturi ishlab chiqildi va uning samaradorligi GMFM-88, GMFCS, MACS va Eshuort shkalalari orqali baholandi. Bundan tashqari, olingan ma’lumotlar goniometriya va dinamometriya yordamida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida taqqoslash uchun asosiy va nazorat guruhlari tuzilib, statistik tahlillar orqali reabilitatsiya dasturining natijalari baholandi. Ushbu uslubiy yondashuvlar orqali bemorlarning holatini yaxshilashga qaratilgan innovatsion metodlar ishlab chiqildi.


Adabiyotlar tahlili. Miya falajining spastik shakllari bilan bog‘liq reabilitatsiya tadbirlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar turli yondashuvlar va natijalarga boy. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bolalik nevrologik patologiyalari, jumladan, miya falajining rivojlanishi va uni davolash usullari dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Badalayan L.O., Jurbina L.T., va boshqa mualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar miya falajining etiologik va patogenetik omillarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ularning ishlarida bolalik davridagi nevrologik kasalliklarning sabablarini o‘rganish natijasida miya falaji rivojlanishining prenatal, intranatal va postnatal omillari tasniflangan [2, 45]. Xorijiy tadqiqotlar qatorida Rosenbaum P., Damiano D. va boshqalar tomonidan olib borilgan ishlarda reabilitatsiya jarayonida individual yondashuvning ahamiyati alohida ta’kidlangan. Ularning fikricha, zamonaviy reabilitatsiya usullarini klinik va nevrologik ko‘rsatkichlarga asoslangan holda ishlab chiqish muhimdir [3, 162]. Shuningdek, Himmelmann K. va Horber V. tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, PNF-metodikasi va zamonaviy apparat vositalarini qo‘llash reabilitatsiya jarayonining samaradorligini oshiradi [4, 128]. Milliy tadqiqotchilarning ishlari ham mazkur mavzuga qimmatli hissa qo‘shgan. K.A. Semenova tomonidan taklif etilgan tasnif miya falajining spastik shakllarini batafsil o‘rganishga zamin yaratdi. Uning tasnifi asosida spastik diplegiya va gemiparalitik shakllarni davolashning zamonaviy usullari ishlab chiqilgan [1, 162]. Bundan tashqari, o‘zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar miya falaji bilan og‘rigan bolalarda reabilitatsiya jarayonini milliy sog‘liqni saqlash tizimiga moslashtirish yo‘llarini taklif qilgan [5, 97]. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadqiqot muammosini yanada chuqur o‘rganish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va PNF-metodika singari innovatsion yondashuvlarni qo‘llash orqali reabilitatsiya samaradorligini oshirish mumkin. Shu sababli, ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borish amaliy va nazariy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Natijalar. Tahlil bo‘limi tadqiqotda qo‘llanilgan metodlar natijasida olingan ma’lumotlarni tushuntirishga va ular asosida ilmiy xulosalar chiqarishga qaratilgan. Ushbu tadqiqot davomida miya falajining spastik shakllari bo‘lgan bolalarning holati turli diagnostik va baholash usullari orqali tahlil qilindi. Klinik tekshiruvlar natijasida spastik diplegiya va gemiparalitik shakllar o‘rtasidagi farqlar aniqlangan. Shuningdek, bemorlarning holatini baholashda GMFM-88, GMFCS, MACS va Eshuort shkalalaridan foydalanildi, bu esa individual reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqishda muhim omil bo‘ldi. Tadqiqotda asosiy va nazorat guruhlari bilan ishlash natijasida PNF-metodikasi va “Korvit” apparati qo‘llanilgan dastur reabilitatsiya jarayonida yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Goniometriya va dinamometriya natijalari spastik mushaklarning harakatchanlik darajasi va kuchlanish dinamikasini baholashda qo‘llanilib, bemorlarning holatini ob’ektiv ko‘rsatkichlar asosida tahlil qilish imkoniyatini berdi. Misol uchun, asosiy guruhdagi bolalarda harakat koordinatsiyasi va mushak kuchi 35% yaxshilangan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 15%ni tashkil etdi.




1-rasm. GMFM-88 shkala ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi

Tadqiqotda taklif etilgan model "Agroinjeneriya" yo‘nalishi bo‘yicha kasbiy tayyorgarlik jarayonida hayot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kasbiy kompetensiyani shakllantirish jarayonining asosiy xususiyatlarini aks ettiradi. Ko‘rib chiqilayotgan model maqsadli, tashkiliy, mazmunli va diagnostik bloklar ko‘rinishidagi umumiy yaxlitligi bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, hayot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kasbiy kompetensiya rivojlanadi, bir darajadan ikkinchisiga o‘tadi va uning holati har safar motivlar mazmuni, xavfsizlik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar, kasbiy jihatdan muhim fazilatlar ko‘rinishidagi shaxsiy shakllanishlarning muvofiqligi asosida aniqlanishi mumkin [5, 128; 6, 849].

- **Xulosa va takliflar (Conclusion/ Recommendations).** Diagnostika bloki tarkibidagi monitoring jarayon sifatida, bir tomondan, talabalarning “Agroinjeneriya” yo‘nalishi bo‘yicha erishgan yutuqlarini rejalashtirilgan natijalar bilan (mezon ma’lumotlarini yig‘ish va qayta ishlashni tashkil etish orqali) kuzatish va solishtirish, boshqa tomondan, xavfsizlikni ta’minlashda professional kompetensiyani rivojlantirish jarayonini tuzatish tartibini amalga oshirish imkonini beradi. Oxir oqibat, ushbu blok hayot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kasbiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonining miqdoriy va sifat jihatlari haqida qisqacha ma’lumot berishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Н.И.Анчукова. Психологическое сопровождение профессиональной дея- тельности: учебное пособие / Хабаровск: Изд-во ДВГУПС, 2010. – 124с.
2. И.А.Зимняя. Общая культура и социально-профессиональная компетент- ность человека // Высшее образование сегодня. –2005. – № 11. – С. 14-20.
3. В.И.Байденко. Компетенции в профессиональном образовании (К освое- нию компетентностного подхода) // Высшее образование в России, 2004. – № 11. – С 5-11.
4. Н.А.Муслимов, М.Б.Уразова, Ш.Н.Эшпулатов. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси/ Тошкент: Fan va texnologiya, 2013. – 8-9 б.
5. Ю.Г.Репьев. Интерактивное самообучение/ Монография. – М.: «Логос», 2004. – 248с.
6. Y.E.Mahmudov, Z.L.Batirov, M.Z.Lutfullayeva. Bo‘lajak mutaxas-sislarni hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlashda kompetensiyaviy yondashuvlar/ Zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonining psixologik-pedagogik masalalari mavzusidagi II xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqolalar to‘plami. Toshkent, 2023. 849…854 b.

XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA INKLYUZIV TA’LIMNI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sadoqat Berdiyeva,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada xorijiy tajribalardan olingan ma’lumotlar asosida inklyuziv ta’limni shakllantirilishning o‘ziga xos xususiyatlar ko‘rsatilgan. Xorijiy tajribalardan olingan ta’til va ta’lim modellarining O‘zbekistonda amaliyotga kiritilishini o‘rganish bu jarayonning muhimligini belgilab beradi. Maqolada tan olinadigan muhim ta’lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘llari va qadriyatlar aks ettiriladi.

Kalit so‘zlar: *inklyuzivlik mafkurasi, inklyuzivlik ta’lim, integratsiya va inklyuziya.*

Abstract

The article shows the specific features of the formation of inclusive education based on information from foreign experience. The study of the implementation of educational and training models from foreign experience in Uzbekistan determines the importance of this process. The article reflects the main ways and values of the development of a recognized important educational system.

Keywords: *inclusive ideology, inclusive education, integration and inclusion.*

Аннотация

В статье изложены особенности формирования инклюзивного образования на основе информации зарубежного опыта. Изучение внедрения в Узбекистане моделей отдыха и образования, взятых из зарубежного опыта, подчеркивает важность этого процесса. В статье отражены основные пути и ценности развития признанной и значимой системы образования.

Ключевые слова: *инклюзивная идеология, инклюзивное образование, интеграция и инклюзия.*

Kirish. Zamonaviy sharoitda inklyuziv ta’lim barcha bolalar uchun istiqbolli ta’lim shaklidir, chunki inklyuziv ta’lim jarayoni har bir bolaning ta’lim ehtiyojlarini qondiradigan ta’lim faoliyatini yetarli darajada tashkil etishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarni ijtimoiylashuv imkoniyatlari, ularning jamiyat bilan aloqa qilish usullari sezilarli darajada kengayadi, har bir bolani jamiyatga qo‘shish uchun zarur shart-sharoitlar shakllantiriladi.

Dunyo mamlakatlarida nogironligi bo‘lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni tarbiyalash, ularning jamiyatda o‘ziga munosib o‘rinni egallashlariga ko‘maklashish masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. Birlashgan Millatlar tashkilotining “Nogironlar huquqlari to‘g’risida”gi Konvensiyasi, “Ta’lim hamma uchun” reja-dasturi to‘g’risidagi Dakar deklaratsiyasi va boshqa xalqaro miqyosda qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning asosiy maqsadi nogiron bolalarni himoyalashga qaratilgan bo‘lib, ta’lim jarayoniga inklyuziv yondashuvni

samarali joriy etish ham shular jumlasidandir. Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish umumiy o‘qitish tizimi bilan inklyuziv ta’limni integratsiyalash, o‘quv-tarbiya jarayonini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqotlar metodologiyasi.

Inklyuziv ta’limni o‘rganish pedagogika fanida yangi, eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Muammoga doir tadqiqot ishlarini o‘rganish, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish asosida ma’lum bo‘ldiki, imkoniyati cheklangan yoshlarning tarbiyaviy muhiti hamma vaqt yaxshi, mo‘tadil bo‘lishi, hamisha alohida e’tiborda tutilishi, kattalarning nazaridan chetda qolmasligi lozim.

Umumjahon miqyosida alohida e’tiborga muhtoj bolalarning ruhiy holatini inobatga olgan holda psixologik korreksiyalash metodlari, oila, jamoa va guruhlarda insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish, texnologik ko‘maklashuvchi vositalar imkoniyatlarini oshirish borasida samarali ilmiy, ilmiy-texnik, ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib borilmoqda. Umumiy o‘qitish tizimida inklyuziv ta’limning pedagogik psixologik jihatlari, nogironligi bo‘lgan bolalarning ta’limiy ehtiyojlarini qondirish, ularning huquqiy tengligi sharoitini yaratish, jamiyat a’zosi sifatidagi o‘rnini mustahkamlashga oid muammolar bu izlanishlarning asosini tashkil etib, ular nogiron bolalarning individual xususiyatlari va adaptiv imkoniyatlarini inobatga olish, ijtimoiy moslashuvini texnologik ta’minlash hamda qo‘llab-quvvatlash, o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning pedagogik tizimini takomillashtirishda alohida o‘rin egallamoqda. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, xorijiy mamlakatlarning inklyuziv ta’limni omalga oshirishga bosqichma-bosqich o‘tish jarayoni nogiron bolalarga nisbatan jamiyat mafkurasining o‘zgarishi, ularning ta’lim masalalariga e’tiborning kuchayishi va rivojlanish darajasini bilan bog’liq.

Tahlil va natijalar.

Inklyuzivlik mafkurasi, bir tomondan, insonlar xilma-xilligi va odamlar o‘rtasidagi farqlarning qadr-qimmatini anglash natijasida shakllangan. Boshqa tomondan, inklyuziya konsepsiyasi mazmunining ta’rifiga "individual model" deb belgilangan oldingi yondashuvdan farqli o‘laroq, inklyuziyaning "ijtimoiy modeli" deb nomlangan toifali apparat sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Inklyuzivlik har bir insonning ta’limga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo‘lib, jismoniy salomatlik bilan bog’liq mumkin bo‘lgan cheklovlardan qat’i nazar, potensialni ochishga yordam beradi.

Inklyuziv ta’lim (Inclusif- shu jumladan, Include - men xulosa qilaman, o‘z ichiga oladi, jalb qilaman) ta’lim tizimini modernizatsiya qilishni o‘z ichiga oladi, bu nogironlar jamiyatdagi faol faoliyatga jalb qilinishi mumkin va bo‘lishi kerak degan tushunchaga asoslanadi. Inklyuzivlik siyosati har qanday boshqa shaxsning (boshqa irq, din, madaniyat, nogiron) jamiyatga jalb etilishini ta’minlaydigan jamiyat va ijtimoiy institutlarni o‘zgartirish zarurligini e’lon qiladi. Shu bilan birga, institutlarning bunday o‘zgarishi jamiyatning har bir a’zosining (shu jumladan alohida ehtiyojli shaxslarning) ehtiyojlarini qondirishga, ularning huquqlari tengligini ta’minlashga va hokazolarga yordam beradi deb taxmin qilinadi.

“Inklyuziv ta’lim” tushunchasi xorijiy adabiyotlarda turli pozitsiyalardan kelib chiqqan holda ko‘rib chiqiladi:

- falsafiy kategoriya sifatida, uning fundamental asoslari jamiyat va maktab tomonidan har bir bolaning individual farqidan qat’iy nazar o‘ziga xosligi va qadr-qimmatini tan olishdir (A.Renzaglia) [1];
- nogiron o‘quvchilar va ularning tengdoshlari, shuningdek, o‘qitish jarayonida va umumta’lim maktablarida darsdan tashqari ishlarda o‘qituvchilar o‘rtasida to‘liq va yetarli o‘zaro munosabat sifatida (D.L.Voltz)[2];
- yashash joyi yaqinida joylashgan umumta’lim maktablarida kerakli yordamni taqdim etgan holda ta’lim jarayoni va amaliyoti sifatida (R.Arends, C.A.Kochar, L.L.West, J.M.Taymans),
- barcha bolalar bitta ta’lim dasturi asosida o‘qiydigan yagona tabiiy ta’lim muhiti sifatida bevosita umumiy sinfda nogiron bolalarga zarur yordam ko‘rsatiladi, barcha bolalar noyob deb tan olinadi va bir-birlari tomonidan qabul qilinadi, rejalashtirish va amalga oshirish ta’lim strategiyalari o‘quvchilar jamoasi tomonidan amalga oshiriladi (D.L.Ryndak, L.Jackson, F.Bilingsley)[3];

- o‘ziga xos missiyasi, falsafasi, qadriyatlari, usullari va faoliyatiga ega bo‘lgan, maktab ichidagi tashkilotning asosi, uning maqsadlari, qarashlar tizimi va kundalik faoliyati sifatida tushuniladigan zamonaviy ta’lim paradigmasining ajralmas tarkibiy qismi sifatida (H.Levin)[4];
- nogiron bolalarning umuta’lim maktablarida optimallashtirilgan va keng rivojlangan integratsiyasi sifatida, bu jarayonda to‘siq sifatida qaralmaydi, balki barcha pedagogik faoliyatning boshlang’ich nuqtasi va maqsadidir (A.Sander)[5];
- “inklyuziv” va “integratsiya” - bu bir xil jarayonning ikki bosqichi bo‘lib, unda maxsus ta’lim ehtiyojlari barcha pedagogikaning asosini tashkil etadi (T.Booth, M. Ainscow, D.Kingstone)[6].

Inklyuziv ta’limning eng muhim xususiyatlarini aniqlashtirish, “inklyuziv ta’lim” tushunchasiga muallif tomonidan aksiologik, kulturologik va jarayon yondashuvlari nuqtai nazaridan ta’rif berishga imkon beradi. “Inklyuziv ta’lim – bu ko‘p o‘lchovli pedagogik hodisa bo‘lib, uning asoslari barcha bolalarning o‘ziga xosligini, qadr-qimmatini va xilma-xilligini tan tolish va har qanday diskriminatsiya shakllarini yo‘q qilish, har bir bolaning umumiy ta’lim tizimiga samarali qo‘shilish va ishtirokini ta’minlash, uning yanada to‘liq ijtimoiylashuviga hissa qo‘shish”[7].

“Integratsiya” va “inklyuziya” tushunchalarining tez-tez chalkashliklarini aniqladi va inklyuziv ta’lim integratsiya jarayonlarini takomillashtirishning navbatdagi bosqichi va barcha bolalarning ta’lim jarayoniga kiritilishini nazarda tutadi degan xulosaga kelindi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, maxsus ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarning integratsiyalashuv shakli sifatida inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish sabr-toqat va bag’rikenglik, izchillik, bosqichma-bosqichlik va uni amalga oshirish uchun kompleks yondashuvni talab qiladigan uzoq muddatli strategiyadir. Shu bilan birga, keng ma’noda – integratsiya (lotincha integratio - ulanish), rivojlanish jarayoni bo‘lib, uning alohida ixtisoslashgan elementlarining o‘zaro bog’liqligiga asoslangan tizim ichida birlik va yaxlitlikka erishishdir[8].

Hozirgi kunda ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha mavjud xorijiy tajribani o‘rganish, madaniy loyihalash, tushunish va umumlashtirish dolzarb vazifadir. Bu shubhalarni, chalkashliklarni hal qilishga va inklyuziv, yaxlit ta’limning turli xil yondashuvlari, mexanizmlari va texnologiyalarini to‘plashga, mavjud resurslardan samarali foydalanishga, xavf va mumkin bo‘lgan xatolarni kamaytirishga imkon beradi. Inklyuziv madaniyat shakllangan ta’lim jarayoni tufali o‘quvchining izolyatsiya va begonalashuvi pasayadi, faollashadi, o‘zining “o‘ziga xosligi” ni his qilishni to‘xtatadi. Inklyuziv ta’limning joriy etilishi ta’lim muassasasi madaniyatini qayta qurish jarayoniga hissa qo‘shadi, bu jarayonda hamma: o‘qituvchilar jamoasi, o‘quvchilar va ularning ota-onalari ishtirok etadi. O‘qituvchilarning bir-birlariga o‘xshashligi, ijodkorligi va rivojlantirishi namoyon bo‘lishiga hissa qo‘shadigan kuchli potensial manba bo‘lib xizmat qiladi. Umuman olganda, inklyuziv madaniyat ko‘nikmalari shakllangan ta’lim jarayoni har bir inson uchun qulay bo‘lgan noyob ta’lim jarayoni bo‘lib, uning doirasida o‘quvchilarning bir-biriga o‘xshamasligi bilan bog’liq to‘siqlar yo‘q qilinadi va insonga xos bo‘lgan potensiallarni o‘z-o‘zini ochib berish uchun sharoitlar yaratiladi.

Xulosa. Shunday qilib, inklyuziya ta’lim tizimining zamonaviy rivojlanish bosqichidagi yetakchi tendensiyadir, bu umumiy va maxsus ta’lim tizimida yaxlit o‘qitish tamoyiliga zid kelmaydi. Natijada, maxsus ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bola har qanday turdagi ta’lim muassasasida ta’lim olish huquqidan foydalanishi va kerakli ixtisoslashgan yordamni olishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Renzaglia, A. The impact of teacher education on the beliefs, attitudes, and dispositions of preservice special educators / A. Renzaglia // Teacher Education and Special Education. - 1997. - Vol. 20. - P. 360-377.
2. Voltz, D. L. What matters most in inclusive education: A practical guide for moving forward / D.L. Voltz // Intervention in School and Clinic. - 2001. - Vol. 37(1). - P. 23-30.
3. Ryndak, D. L., Jackson, L., Billingsley, F. Defining school inclusion for students with moderate to severe disabilities: What do experts say? / D. L. Ryndak, L. Jackson, F. Billingsley // Exceptionality. - 2002. - Vol. 8(2). - P. 101-116.

4. Levin, H. M. Doing What Comes Naturally: Full Inclusion in Accelerated Schools. In Inclusion and School Reform: Transforming America's Schools / H. M. Levin // in D. K. Lipsky, Gartner, A. Baltimore: Paul H. Brookes Publishing Company, 1997.
5. Sander, A. Konzepte einer inclusiven Pädagogik / A. Sander //Zeitschrift für Heilpädagogik. - 2004. - Vol. 5. - P.240-244.
6. Booth T., Ainscow, M., Kingstone, D. Index for inclusion developing play, learning and participation in yearly years and childcare / T. Booth, M.Ainscow, D. Kingstone. - CSIE, 2006.
7. Loreman, T. Inclusive education: Supporting diversity in the classroom (2nd ed.) Text. / T. Loreman, J. Deppeler, D.Harvey. London and New York: Routledge, 2010. - 302 p.
8. Основы педагогических технологий. Краткий толковый словарь. — М.: Книга, 1995.

KORPUS-LINGVISTIKASINING IJTIMOIY ZARURIYATI VA ASOSIY XUSUSIYATLARI

Madina Ashirbaeva,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Lingvistika va ingliz tilini o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ko‘pgina taniqli olimlar (Sinclair, Leech, Biber, Francis, Johnson, Conrad, Hunston va McCarthy va boshqalar) korpus lingvistikasi bilan shug‘ullanib, uning rivojida ulkan rol ijro etishgan. Albatta, ulardan faqat bir nechtasininggina ishlarini ko‘rib chiqdik. Bu olimlar o‘tmishda ham, hozirgi kunda ham korpus lingvistikasi sohasiga katta hissa qo‘shib kelmoqda va ularning korpus xususiyatlari, yoki korpusni Internetdan ajratib turadigan muhim elementlari bo‘yicha bergan xulosalarini maqolamizda ko‘rib chiqildi. Ko‘plab korpusshunos olimlar Jon Sinklerni zamonaviy korpus tilshunoslarining eng nufuzli olimlaridan biri deb bilishadi. Sinkler so‘z o‘z-o‘zidan ma’noga ega emasligini aniqladi, lekin bu ma’no ko‘pincha u bilan birga keladigan so‘zlar ketma-ketligi orqali amalga oshiriladi degan g‘oyani berdi [Sinclair,1991]. Bu esa korpus lingvistikasining asosini tashkil etuvchi g‘oya bo‘lib xizmat qildi.

Kalit so‘zlar: *korpus, korpus lingvistikasi/tilshunosligi, autentiklik, reprezentativlik, korpus o‘lchami, muvozanat, O‘zbek Milliy Korpusi.*

Аннотация

Многие выдающиеся ученые (Синклер, Лич, Бибер, Фрэнсис, Джонсон, Конрад, Ханстон и Маккарти и другие) занимались корпусной лингвистикой и сыграли важную роль в ее развитии. Конечно, мы рассмотрели работы лишь некоторых из них. Эти ученые внесли значительный вклад в область корпусной лингвистики как в прошлом, так и в настоящем, и в нашей статье рассматриваются их выводы относительно особенностей корпусов или важных элементов, отличающих корпус от Интернета. Многие исследователи корпусной лингвистики считают Джона Синклера одним из самых влиятельных ученых среди современных корпусных лингвистов. Синклер обнаружил, что слово само по себе не имеет значения, но это значение часто передается через последовательность слов, которые его сопровождают [Синклер, 1991]. Эта идея легла в основу корпусной лингвистики.

Ключевые слова: *корпус, корпусная лингвистика, аутентичность, репрезентативность, размер корпуса, баланс, Узбекский национальный корпус*

Abstract

Many prominent scholars (Sinclair, Leech, Biber, Francis, Johnson, Conrad, Hunston and McCarthy, etc.) have been involved in corpus linguistics and have played a major role in its development. Of course, we have considered the work of only a few of them. These scholars have made significant contributions to the field of corpus linguistics both in the past and in the present, and their conclusions on the characteristics of corpora, or important elements that distinguish a corpus from the Internet, are considered in our article. Many corpus scholars consider John Sinclair to be one of the most influential scholars of modern corpus linguists. Sinclair established that a word does not have meaning by itself, but that this meaning is often carried out through the sequence of words that accompany it [Sinclair, 1991]. This idea served as the basis of corpus linguistics.

Keywords: *corpus, corpus linguistics, authenticity, representativeness, corpus size, balance, Uzbek National Corpus.*

So‘nggi yillarda tilshunoslarning ilmiy til doirasiga “matnlar korpusi” tushunchasi tobora ko‘proq kirib kelmoqda, uning asosida korpus lingvistikasi rivojlanmoqda**.** Bu tushuncha ilmiy adabiyotlarda “matnlar to‘plami”, “to‘liq matnli ma’lumotlar bazasi”, “elektron arxiv”, “elektron kutubxona” tushunchalari bilan birga mavjud bo‘lib, ko`pincha birlashib keladi. Tor ma’noda matn korpusi odatta ma’lum bir filologik va kengroq ma’noga ega bo‘lgan elektron shakldagi lingvistik (nutq) ma’lumotlarining birlashtirilgan, tizimlashtirilgan va belgilangan to‘plami sifatida tushuniladi.

Korpus bilan birgalikda korpus tilshunosligi konsepsiyasini ko‘rib chiqilishi zarur, chunki u dastlab korpus bilan shug‘ullangan akademik sohadir. Mavzuni to‘liq va progressiv tushunishni ta’minlash uchun va mavzuni yanada rivojlantirish uchun korpus tilshunosligining asosiy tamoyillari taqdim etilishi zarur bo‘ladi. Yuqorida ta’kidlanganidek, “... korpuslarni tahlil qilish, xususan, generativ nazariyaga yo’ki umuman til haqidagi nazariyaga hech narsa taklif qilinmadi deb o‘ylash xatodir” [Meyer, 2002]. Korpus lingvistikasida eng ommabop yondashuv, tilga nafaqat ijtimoiy kontekstda ham e’tibor qaratadigan *firthian* va *neofirthian* yondashuv hisoblanadi. Korpus lingvistikasining maqsadi tildan foydalanishning barcha empirik jihatlarini tavsiflashdan iborat va buning uchun Aarts (1993) tilning tavsifiy modeli uchun bir qator talablarni ishlab chiqdi va ular quyidagilar:

- Model ma’lumotlarning miqdor va sifat tavsifini birlashtirishga imkon berishi kerak;
- Model til tizimidan tashqaridagi hodisalar bilan tizim ichki hodisalar o‘rtasidagi munosabatni o`rnatishi kerak;
- Model o‘z-o‘zidan tahrir qilinmagan (odatda og‘zaki) tildan tortib, o‘z-o‘zidan tahrirlangan tildan foydalanishgacha (odatda yozma yoki bosma) turlarning to‘liq spektrini tavsiflash imkonini berishi kerak;
- Model sintaktik, leksik va nutq xususiyatlarini yaxlit tavsiflash imkonini berishi kerak. [Aarts in Olohan, 2013,424].

Korpus lingvistikasi lingvistik javoblarni sifat va miqdoriy tahlil orqali izlashga harakat qiladi. Korpus lingvistikasida Internetdan foydalanish tadqiqotga yangi imkoniyatlarni qo‘shadi, u “...tildan foydalanish bo‘yicha umumlashmalarni amalga oshirishga imkon beradi, e’tiborni va qiziqishni odatda nima sodir bo‘layotganiga emas, balki nima sodir bo‘lishi mumkinligiga e’tibor qaratishni ta’kidlaydi”[Kennedy, 1998].

Korpuslarni matnlar to‘plami sifatida tavsiflovchi ta’riflar mavjud bo‘lsa ham, biz ularni bundan-da kengroq ko‘rib chiqishimiz kerak bo‘ladi. Agar biz korpusni faqat matnlarning oddiy to‘plami sifatida tan oladigan bo‘lsak “bir nechta matndan iborat deyarli har qanday to‘plamni ... korpus deb atash mumkin” [McEnery & Wilson, 2001] va bu tadqiqotchilar va tilshunoslar uchun juda qiyin bo‘lar edi.

Korpusni o‘rganish doirasini cheklash uchun tilshunoslar korpusning “...asosiy mezonlar va standartlarni o‘z ichiga olgan” (aniq va bilvosita) ta’riflarini taklif qilishdi [Gatto, 2013], ya’ni yuqorida keltirilgan ta’riflar.

Korpus tadqiqotlari bo‘ylab ko‘plab standart ta’riflar mavjud, ammo rekvizit bo‘yicha fundamental kelishuv: “korpus matnlari haqiqiy, ifodali va mashina tomonidan o‘qilishi shart” [McEnery & Xiao, 2006] degan xulosaga kelishgan. Korpus hisobga olishi kerak bo‘lgan boshqa muhim elementlar ham bo‘lib ular balans, namuna olish bo‘lib, bunga o‘lcham va tarkib ham kiradi.

B.B. Rikov korpus xususiyatlari to‘g‘risida shunday ta’riflarni beradi: “korpus lingvistikasida qabul qilingan korpusning ta’rifi 4 ta asosiy xususiyatlarni qamrab oladi: korpusning mashina dasturlari orqali joylashtirilishi, og‘zaki materiallarning standart ko‘rinishi, maxsus tanlov natijasida reprezentativlik, kvalitativ, kvantitativ o‘lchamlar ilmiy adabiyotlarda eng muhim xususiyatlari” [B.Rikov, 2004]

Yana boshqa rus olimi korpus rivojiga katta hissa qo‘shgan korpusshunos olim V. Plungyan ham til korpusini “elektron shaklda kiritiladigan va ilmiy texnikalar bilan ishlangan, aniq bir tildan olingan matnlar to‘plami” [Plungyan] deb ta’riflagan. Y. Kratovaning fikriga ko‘ra, korpus—bu “bir asosli matnlar, ya’ni bir turdagi foydalanuvchilar tomonidan ma’lum vaziyatlarda qo‘llaniladigan yoki yoziladigan ma’lum bir sohani qamrab olgan matnlar to‘plami” [E.B.Kratova, 2013] deb tushuntirgan.

Ko`p olimlarning ta’riflarida keltirilgan haqiqiylik (autentiklik) xususiyati deganda, korpus tanasi haqiqiy og‘zaki va yozma matnlardan iborat bo‘lishi kerak. Eksperimental sharoitlardan va suniy holatlardan olingan

ma’lumotlar hech qanday tadqiqot uchun haqiqiy emas, chunki u tadqiqotning boshqa tabiiy natijalari qatoriga sun’iy yoki o‘zgartirilgan ma’lumotlarni kiritadi. Bu sifat reprezentativlik bilan chambarchas bog‘liq. Haqiqiy matn yoki sun’iy bo‘lmagan matn tilning adekvat ifodasi bo‘ladi. Masalan, “televidenie interviyulari matnlari tabiiy bo‘lib ko`rinishi mumkin, ammo ular tomoshabinlarning e’tiborini jalb etadigan javoblarni olish uchun ataylab sun’iy sharoitlarga qo‘yiladi” [Dash, 2015].

Korpus hisobga olishi kerak bo‘lgan yana bir muhim element—bu reprezentativlik. Korpuslarning akademik jihatdan an’anasiga ko‘ra reprezentativlik korpusning muhim xususiyati sifatida kiritilgan [Francis,1992; Biber va boshqalar, 1998]. Francis korpus deganda “ma’lum bir til, dialekt yoki tilning boshqa quyi to‘plamining vakili bo‘lgan lingvistik tahlil uchun foydalaniladigan matnlar to‘plami” deb tushundi [Francis, 1992]. Xuddi, shu satrlarda Biber quyidagilarni keltirib o‘tgan:

“Korpus shunchaki matnlar to‘plami emas, aksincha, korpus tilni yoki tilning biron bir qismini ifodalashga intiladi. Shu sabab, korpus uchun to‘g‘ri dizayn va u nimani ifodalashi kerakligiga bog‘liq. Korpusning reprezentativligi, o‘z navbatida, hal qilinishi mumkin bo‘lgan tadqiqot savollarining turlarinini va tadqiqot natijalarining umumlashtirilishini belgilaydi” [Biber, 1998].

“Reprezentativlik” korpus nima ekanligi haqidagi ikkala ta’rifda ham ko‘rsatilgan yagona umumiy xarakterli element ekanligini ta’kidlash muhimdir. Korpus nima ekanligini aniqlashga urinayotganda “reprezentativlik” tushunchasi paydo bo‘lishi juda keng tarqalgan, chunki korpusning yakuniy maqsadiga tegishli va yakuniy xulosa chiqarish uchun tilni yoki uning bir qismini ifodalashdir. Korpus tilshunosligining maqsadi “individual ishlash darajasidagi til namunalarida” tendensiyalar va so‘z shakllarini topish [Gatto, 2013], shuning uchun korpusda ma’lum qilingan tilning autentikligi (haqiqiyligi) va reprezentativligi uni shunday qimmatli va foydali vositaga aylantiradi. Boshqacha qilib aytganda, korpus tilshunosligi va uning evolyutsiyasi tadqiqotlari natijalari ushbu ikki qadriyatga asoslanadi va shuning uchun ular korpusda juda muhimdir.

Korpusning o‘lchami haqida gap ketganda, kelishilgan taxminiy standart o‘lcham mavjud emas. Har bir korpusning o‘z maqsadi va ma’lumotlari bor, shuning uchun maqbul o‘lcham nima ekanligini aniqlash juda murakkab. Shubhasiz, talaba tomonidan 30 daqiqada yaratilgan korpus tadqiqot maqsadlari uchun mo‘ljallangan korpus bilan bir xil o‘lchamda bo‘lmasligi mumkin. Tadqiqot maqsadlari uchun tuzilgan korpus obyektlarining til shakllarining turli dalillarinini taqdim etishga harakat qiladi, shuning uchun dalil sifatida muhim ma’lumotlarni taqdim etish uchun u etarlicha katta va izchil bo‘lishi kerak. Aksincha, bir marta foydalanish uchun yaratilgan korpus nisbatan ancha kichikroq bo‘lgan. Bu kamchilik vaqt o‘tishi va texnologiyaning hajmi eksponent ravishda o‘sdi va kengayib bormoqda.

Misol tariqasida, birinchi kompyuterlashtirilgan korpus, Broun korpusi bir million so‘z hajmiga ega edi va Collins Cobuild Bank of English kabi hozirgi zamon korpusida 650 million so‘z va WebCorpora 1 milliard so‘zni tashkil qilishi mumkin. Bu 1 millard so‘zli korpus ehtimol vaqt o‘tishi bilan eskirib qoladi. Korpusga tegishli haqiqat shundan iboratki, korpus qanchalik katta bo‘lsa o‘zida shunchalik ko‘p ma’lumotlarni saqlaydi, ammo bu ma’lumotlarning barchasi ham mavzu va tadqiqot maqsadi uchun foydali bo‘lmasligi mumkin.

Til korpusining asosiy xususiyatlaridan biri, ya’ni uni internetdan ajratib turadigan tomoni, undagi keltirilgan til ma’lumotlari shakli (yoki muvozanati) bo‘lib, u korpusdagi turli davrlar va janrlardagi matnlarning mutanosib shakli sifatida tushuniladi, bu esa o‘z navbatida kerakli to‘liqlik va o‘ziga xoslikni ta’minlaydi.

O‘zbekistonda korpus va korpus lingvistikasining shakllanishi 2018-yillarda nazariy jihatidan o‘rganishlar bilan boshlanadi, va 2021 yilda O‘zbek tilining ta’limi korpusi yaratilishi bilan amaliy jihatdan rivojlana boshladi. Ayni o‘zbek korpusshunosligining rivojlanishi borasida M.Abjalovaning darsligida ko‘rsatib o‘tilgan. Bunga ko‘ra o‘zbek tilshunosligida korpus lingvistikasi rivoji jadallashganligi, amaliy ishlanmalar foydalanuvchilarga taqdim etilganligi va bu soha aslida kompyuter lingvistikasi zamirida rivojlanganligini ta’kidlagan. Demak, o‘zbek korpusshunosligida katta hajmli matnlar ustida ishlash, maxsus elektron matnlar majmuining ko‘plab ta’limiy tadqiqotlar borasida dastlabki fikrlarni A.Polatov, A.Rahimovlar tomonidan ilgari surilgan. Keyinchalik B.Mengliyev, Sh.Xamroyeva, M.Abjalova, A.Eshmuminov, D.Axmedova, O`.Xoliyorov, N.Abdurahmonova, G.Toirova, D. O‘rinboyeva, B.Elov va A.Raxmanova tomonidan korpuslar va ularning turlari tadqiq etilgan [M.Abjalova]. Tadqiqotlar natijasida quyidagilar mualliflik tadqiqotlar o‘rganildi:

- Korpus tuzishning lingvistik asoslari [Sh.Xamroyeva]

- Tabiiy tilni qayta ishlash [M.Abjalova]
- Sinonim so‘zlarni semantik teglash [A.Eshmuminov]
- O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish [L.Raupov, B.Elov, M.Abjalova, R.Alayev]
- Atov birliklarini leksik-semantik teglash [D.Axmedova]
- Elektron korpuslar modellari
- Korpus tuzishning kompyuter ususllari [A.Rahmanova]

Ushbu nazariy tadqiqotlar natijasida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida ilmiy jamoa tomonidan “O‘zbek tilining ta’limiy korpusi” yaratildi va bu bilan o‘zbek korpusshunosligida O‘zbek Milliy Korpusiga tamal toshi qo‘yildi. Hozirda ushbu korpusda matnlar bazasi boyib bormoqda.[M.Abjalova, 2021] Ushbu mavzuda yana kengroq ta’riflar berilishi shart degan fikrga qo‘shilgan holda, bu borada keyingi maqolalarimizda kengroq izohlar berib tahlil qilinib, o‘rganib chiqiladi.

Xulosa. Ushbu maqolada korpus va korpus lingvistikasining nazariy jihati ko‘rib chiqildi va tahlil qilindi. Bunda korpus va lingvistikasining nima ekanligini aniqlash va bu birmuncha qiyinligini ko‘rish uchun turli olimlarning bergan ta’rif va izohlari taqdim etildi. Maqolada taqdim etilgan barcha izohlar bilan o‘quvchi mavzu bo‘yicha o‘z xulosalarini chiqarishi mumkin, yoki aksincha, chunki bu savolga, hatto olimlar tomonidan ham aniq bir fikrga kelingan javob bo‘lmasligi mumkin. Olimlar tomonidan universal ta’rif bo‘yicha kelisha olmasligining sabablaridan biri, korpuslar doim ularni yaratadigan maqsad va ma’lumotlarga bog‘liq bo‘lib, ular doim o‘zgarib turadi degan faktlarga asoslanishi mumkin. Va yana bu mavzu har doim rivojlanib, ta’kidlanganidek o‘zgarib boradi. Va maqolada ko‘rib chiqilgan korpus elementlari bo‘yicha ko‘pgina olimlarning fikrlarini umumlashtirilgan holda shuni ta’kidlash mumkin bo‘ladi. Ulardan eng asosiylari bu—autentiklik, reprezentativlik, aniq o‘lcham va muvozanatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

13. Aarts, J. (1999). ‘The description of language use’. H. Hasselgård & S. Oksefjell (eds) (1999). Out of Corpora: Studies in honour of Stig Johansson. Amsterdam and Atlanta;
14. Abjalova M. Korpus lingvistikasi. Uslubiy qo`llanma/ M.A Abjalova.—Toshkent: Bookmany print, 2022.—103 b.
15. Biber, D., Conrad, S. and Reppen, R. (1998), ‘Corpus Linguistics. Investigating Language Structures and Use’. -Cambridge: Cambridge University Press., 1998.-286 p.
16. Dash, N.S., “Corpus based language teaching: A new method”//Proceedings of the Orientation-Cum-Workshop Programme on recent trends in language teaching, Institute of advanced studies in education, Kalkutta, India, 2010,-vol 13.1. 200-207 p.
17. Francis, N.W. “Language corpora B.C.”, in J. Svartvik (ed.), 17 p.
18. Gatto, M. (2013). ‘The Web as Corpus: Theory and Practice Cambridge: Cambridge University Press
19. Meyer Ch.F. English corpus linguistics: An Introduction. Cambridge University Press, 2002.-p.68.
20. McEnery, A. M., & Wilson, A.(2001). Corpus linguistics: An Introduction. Edinburgh: Edinburgh University Press
21. Sinclair, J. Corpus, concordance, collocation.—Oxford, UK: Oxford University Press., 1991-pp. 13-18.
22. Кратова Е. Б. Корпусная фразеография на материале немецкого языка.—дисс.канд.фил.наук.-Москва.: 2013.-296 с.
23. Плунгян В.А. Корпус как инструмент и как идеология о некоторых уроках современной корпусной лингвистики// Русский язык в научном освещении.—Москва, 2008.-№ 02 (16).-с. 7-20.
24. Рыков В.В. Корпус текстов как онтология речевой деятельности и труды международного семинара Диалог. -М.: Наука, 2004-59-61с.

PSIXOLOGIK BARQARORLIK KO‘NIKMALARINI MUSTAHKAMLASHNING NAZARIY METODOLOGIK BAZASI

Shirinoy Mustafayeva,
Central Asian Medical University
“Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat” kafedrasi o‘qituvchisi, (Ph.D.)

Annotasiya

Maqolada harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorlik ko‘nikmalarining psixologik asoslari yoritilgan bo‘lib, nazariy hamda amaliy bilimlarning tahlili keltirilgan. Ruhiy holatdagi o‘zgarishlarning xizmat faoliyatiga ta’siri, stressga bardoshlilikni shakllantiruvchi amaliy ko‘nikmalarga alohida e’tibor berilgan. Harbiy faoliyatda zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni mustahkamlovchi psixologik mexanizmlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *harbiylar, psixologik barqarorlik, ko‘nikma, stress, xulq-atvor, xavotirlik, qo‘rquv, ruhiy holat.*

Abstract

The article describes the psychological foundations of developing the skills of psychological stability of military personnel, and also analyzes theoretical and practical knowledge. Particular attention is paid to the influence of changes in mental state on work activities and practical skills that form stress resistance. The psychological mechanisms that consolidate the skills necessary in military activities are described.

Keywords: *military, psychological stability, skills, stress, behavior, anxiety, fears, psychological state.*

Аннотация

В статье описаны психологические основы формирования навыков психологической устойчивости военнослужащих, а также проведен анализ теоретических и практических знаний. Особое внимание уделено влиянию изменений психического состояния на служебную деятельность, практические навыки, формирующие стрессоустойчивость. Описаны психологические механизмы, закрепляющие навыки, необходимые в военной деятельности.

Ключевые слова: *военные, психологическая устойчивость, навыки, стресс, поведение, тревожность, страхи, психологическое состояние.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi bo‘linmalarida shartnoma bo‘yicha xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarni sifatli tayyorlash zamonaviy jangovar holatlarda ularni ahloqiy-ruhiy xolati va psixik barqarorligini mustaxkamlashga shuningdek, har qanday vaziyatda o‘z-o‘zini safarbar qilish ko‘nikmalarini mustaxkamlash zamon talabiga aylanib bormoqda. Hozirgi globallashuv va “siyosiy o‘yinlar”davrida harbiy faoliyatda askarlar va harbiy xizmatchilarning yetarli psixologik ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, o‘z-o‘zini safarbar qilishda favqulotda zakovat, o‘z-o‘zini boshqarish, ruxiy barqarorlik, ichki xotirjamlikni saqlagan holda, qo‘rquv va toliqishni yengish qobiliyatlarini mustaxkamlash kerakli psixologik bilimlarni talab qiladi. Tan olish kerak, bugungi kunda harbiy psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan o‘z-o‘zini safarbar qilish va ruhiy barqarorlikni saqlashga doir amaliy mashg‘ulotlar va ilmiy qo‘llanmalar yetarli emas. Bu esa, o‘z navbatida maslaga jiddiy yondashuvni va zamonaviy talablarni qo‘ymoqda, ya’ni xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarni ahloqiy-ruhiy xolati hamda o‘z-o‘zini safarbar qilish ko‘nikmalarini psixologik mexanizm va modullarni ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy yetish. Shu bilan birga harbiy sohada o‘z-o‘zini safarbar qilish ko‘nikmalarini mustaxkamlash borasida harbiy psixologlarning yetarli bilim va tajribaga ega emasligi, psixologik modul va mexanizmlar ishlab chiqilmagani, mavzuga doir ilmiy-amaliy qo‘llanmalar mavjud emasligi masalaga ilmiy yondashuv zarurligini ifodalaydi.

Bu masaladagi “ma’lumotlar tanqisligi” ni bartaraf etib, harbiy psixologlarning kasbiy nazariy va amaliy faoliyatga zarur bo‘lgan ilmiy-amaliy ma’lumotlar, bilim va ko‘nikmalarni yaratishga xizmat qiladigan modullar va qo‘llanmalar tayyorlashga qaratilgan. Ushbu mexanizm va modullar O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar qo‘shinlarida psixologik xizmatning nazariy, ilmiy-amaliy bilimlarga asoslangan axloqiy ruxiy holatlar va o‘z-o‘zini safarbar qilish mexanizmlarining psixologik asoslarini yaratib beradi.

Bugungi kunda ko‘plab mualliflar A.I. Dolgova, M.I. Dyachenko, K.F. Selchenok, V.V. Shelyaga, A.D. Glotochkin, K.K. Platonov, P.L. Fomenko, P.A. Korchemny, V.V. Laptev, V.G. Mixaylovskiylar harbiy xizmatning ham o‘ziga xos ekstremalligi namoyon bo‘layotganini ta’kidlaydilar. Xususan, M.I. Dyachenko

zamonaviy janglarning ekstremal sharoitlari, jangovar vaziyatlarning dinamikligi, uyqu, dam olish va ishning almashinishi, vazifani kunning turli vaqtlarida, yomon ob-havo sharoitida va dushman haqida ma’lumot yetishmasligi bilan bajarish, salbiy jangovar omillarga uzoq yoki juda kuchli ta’sir qilish, hayotga tahdid, ba’zi ma’lumotlarning yetishmasligi va noaniqligi, qarorlar qabul qilish va amalga oshirishda vaqt yetishmasligi kabi harbiy xizmatdagi xavfni asosladi. Bundan tashqari, jangovar harakatlarning barchasi psixologik stressning asosiy sabablari ekanligini ta’kidladi.[1]

Ma’lumki, Qurolli Kuchlar qo‘shinlarida psixologik xizmatning samaradorligi xarbiy xizmatchilarning ruxiy axloqiy xolati va o‘z-o‘zini safarbar qilish bilan uzviy bog‘liq, to‘g‘ri tashkil qilingan amaliy mashg‘ulotlar hamda psixologik targ‘ibot ishlari, korreksion mashqlar harbiy xizmatchilarning jangovar ruxiy xolatini rivojlantirishga hamda mustaxkamlashga xizmat qiladi. Bu borada xorij davlatlarning tajribalari va ilmiy psixologik adabiyotlarida (N.A. Konovalov, A.N. Leontev, A.R. Luriya, A.A. Smirnov, B.M. Teplov, M.P. Feofanov, G.A. Fortunatov, A.G.Karayani, V.I.Siromyatnikov va boshq.) ushbu muammo qo‘shinlarning jangovar tayyorgarlikni rivojlantirish sohasida amalga oshirilgan. Ilmiy adabiyotlar o‘rganish va tahlil qilish asosida Respublikamiz Qurolli Kuchlarida ushbu mavzuni tadqiq qilishda mexanizm va modullar, o‘quv ilmiy-amaliy qo‘llanmalar ishlab chiqilmagan, natijada psixologik tayyorgarlikni rivojlantirish bo‘yicha mudofaa vazirligi qo‘shinlarida bu savollar o‘z echimini kutayotgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

XX asr ohirlarida psixologik barqarorlik tushunchasi ko‘proq ekstremal holatlarda tezlik bilan chora ko‘rishda qo‘llaniladigan ruhiy xolat sifatida tushunilar edi. Hozirgi vaqtda harbiy chaqiruv yoshidagi ayrim yoshlarning jismoniy va ruhiy tayyorgarligidagi bo‘shliqlar, asab-psixika tizimidagi bardoshlilikning yetarli emasligi har qanday vaziyatni ekstremal vaziyat sifatida qabul qilib, ruhiy bardoshsizlik, jangovar stressga moyillikning yuqoriligi, psixologik barqarorlik mavjud emasligini ifodalamoqda.

Jangovar ruhiy stressning paydo bo‘lishiga hissa qo‘shadigan muhim omil jarohatlar, harbiy xizmatchilarning uyqu rejimining buzilishi xisoblanadi. Bir uyqusiz kechadan so‘ng, jangovar samaradorlik pasayadi, xotira hajmi tezda pasayadi, birinchi navbatda, qisqa muddatli xotira, bu esa miyaga kiruvchi ma’lumotlarning kamroq assimilyasiya qilinishiga olib keladi. Axborotni to‘g‘ri qabul qilish va tanqidiy fikrlash, qisqa daqiqalarda qaror qabul qilishni qiyinlashtiradi.

S.I. Sedin va R.A. Abdurahmonov jangovar vaziyatga ta’sir qilishning psixologik oqibatlarini o‘rganar ekan, harbiy xizmatchilarning jangovar muhitdagi faoliyati psixikaga ta’sir qilish bilan tavsiflanadi, kuchaygan intensivlikdagi stress omillarining to‘lqinlari va ularning ta’sir qilish muddati shuningdek, psixotravmatik xususiyatga ega bo‘lib, insonning aqliy faoliyatida o‘zgarishlarning paydo bo‘lishiga asos solishi mumkin.[2]

Jangovar harakatlar paytida harbiy xizmatchilarning ruhiyati ko‘pchilikka ta’sir qiladi. Ulardan ba’zilari uning jismoniy va ma’naviy imkoniyatlarini safarbar qilish va jamlashga, jangovar faollikni oshirishga, jasorat, fidoyilik bo‘lsa, boshqalar, aksincha, harbiy xizmatchining jangovar faoliyatini buzadi, tananing mavjud zaxiralariga kirishni to‘sib qo‘yadi, asab tizimi va psixikaning faoliyatini buzadi va asotsial buzilishlarga asos solishi mumkin. Ayrimlari esa, jangovar hatti-harakatlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi.

Askarning ruhiy holati dinamikasida uch bosqichni belgilash mumkin:

1) xizmat va jangovar topshiriqlarni bajarishga tayyorgarlik;
2) jangovar harakatlar, mashqlar va kampaniyalar;
3) harbiy harakatlarni tugatish va rasmiy vazifalarni bajarish

Tayyorgarlik bosqichida inson ruhiyatida jangovar topshiriqni bajarishga o‘tish bilan bog‘liq inersiya namoyon bo‘ladi, bunda harbiy qat’iylik holatini yaratish, stereotipik xulq-atvor, yod olingan operasiyalarga o‘zini jalb qilish, harakat shakllari va usullari paydo bo‘ladi.

Murakkab jangovar vaziyatda psixologik jihatdan tayyor bo‘lmagan harbiy xizmatchilar qo‘rquvni boshdan kechirishi mumkin, bu o‘ta kuchli, hayotga xavf tug‘diradigan tashqi ta’sirlar natijasida yuzaga keladigan affektiv ruhiy holatdir. Qo‘rquv askarning ruhiy barqarorligini buzishi, salbiy ko‘rinishlarni keltirib chiqarishi va jangovar samaradorligini zaiflashtirishi mumkin. Tajribaning intensivligi va chuqurligi darajasiga ko‘ra, u havotir, hayajon, qo‘rquv, vaxima shaklida o‘zini namoyon qilishi mumkin.

Vaxima holati astenik va stenik shakllarga ega bo‘lishi mumkin. Birinchisida, ba’zi hollarda xavf ta’sirida odam qotib qoladi va o‘zini harakatga qodir emas deb biladi; ikkinchisida, yuqori darajadagi qo‘zg‘alish kuzatiladi. Vahimaning ikkala shakli ham harbiy xizmatning o‘ta og‘ir holatlarida namoyon bo‘ladi.

Tayyorlanmagan harbiy xizmatchilarda namoyon bo‘ladigan qo‘rquvning chuqur patologik shakllaridan biri bu - psixologik shok. Bunda insonda aqliy faoliyatning kognitiv funksiyalari tormozlanib, vaxima xurujlari namoyon bo‘ladi. Bunday ruhiy xolat atrofdagi askarlarga ham ta’sir etib, ularga go‘yoki, yaqinlashib kelayotgan xavf hissi yuqtiradi. Askarlar orasida qo‘rquv va vahimani engishning asosiy usullari quyidagilardan iborat: qo‘mondonlarning qat’iyligi va qat’iy etakchiligi, ruhiy xolatida o‘zgarish sodir bo‘layotgan askarni aniqlash qobiliyati.

Affekt - bu yetarli darajada aniqlanmagan xavf sharoitida yuzaga keladigan va hodisalarning noqulay rivojlanishini kutishda o‘zini namoyon qiladigan hissiy holat.[3] Xavotir nafaqat mumkin bo‘lgan xavf haqida signal beradi, balki harbiy xizmatchilarni uning manbalarini izlashga va aniqlashga undaydi. Bu tuyg‘u sifatida quyidagi o‘zgarishlar paydo bo‘lishi mumkin: yaqinlashib kelayotgan xavf oldida ojizlik, o‘ziga ishonchsizlik, kuchsizlik, tahdidni bo‘rttirish. Bunday holatda qo‘rquv tahdid qiluvchi stimullarning ta’siri tufayli tananing yaxlitligini saqlab qolish uchun tug‘ma, instinktiv harakat dasturini bir zumda amalga oshirishda o‘zini namoyon qiladi. Affekt holati atrof-muhitning keskin noqulay o‘zgarishiga duch kelganda o‘zini-o‘zi saqlash instinkti asosida paydo bo‘ladi. Shuning uchun affektga berilib ketgan odamning hatti-harakatlarini bevosita nazorat qilish juda qiyin. Affekt hissi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xavfni kutish yoki odamni har qanday harakatga tayyorlash bilan bog‘liq emas. Shunga qaramay, harbiy burch tuyg‘usini faollashtirish, jangovar tajriba, maqsadga muvofiq va qat’iy harakatlar namunasi, diqqatni jamlash yoki o‘zini o‘zi chalg‘itish psixologik barqorорlikka yordam beradi. Askarning qo‘rquvga qarshiligi jangning kutilmagan hodisalarini tez va to‘g‘ri idrok etish bo‘yicha dastlabki tayyorgarlik tufayli ortadi.

Uchinchi bosqichda uzoq muddatli jangovar harakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan “jangovar charchoq”, deb ataladigan buzilishlar, "jang - zarba", bir necha soatdan keyin paydo bo‘ladigan oddiy hissiy reaksiya yoki shiddatli kurash kiradi. Harbiy xizmatchilardagi zarba havotir, tushkunlik, qo‘rquv hissi va "jangovar charchoq" bilan tavsiflanadi. Uzoq muddatli jismoniy faoliyatda kuchli charchoq kuchli tufayli yuzaga keladi; perseptiv, intellektual, hissiy-irodaviy va motivasion haddan tashqari toliqish; odatlarning buzilishi, hayot ritmining o‘zgarishi (faoliyatning o‘zgarishi va sifati, dam olish, uyqu, ovqatlanish va boshqalar); aqliy o‘zini o‘zi boshqarish va jismoniy salomatlik tizimidagi buzilishlar namoyon bo‘ladi.[4]

Shunday qilib, to‘liq umidsizlik hissi, u o‘zini atrof-muhitga va vaziyatga ta’sir o‘tkazishga qodir emas deb hisoblashi, o‘zidan qoniqmasligi kuzatiladi. Harbiy xizmatchilarning ruhiyatidagi bu o‘zgarish o‘zining og‘riqli fikrlari dunyosiga to‘liq singib ketgan izolyasiya bilan ajralib turadi. Ko‘pincha, ular hayotdan ixtiyoriy ravishda ketishni vaziyatdan chiqish yo‘li sifatida ko‘rishadi. Shaxsning dezintegrasiyasi psixikaning xulq-atvor va faoliyatini boshqarishdek oliy darajadagi tashkilotchilik rolini yo‘qolishi, hayot mazmuni, qadriyatlar motivlar, maqsadlar ierarxiyasini buzilib ketishi sifatida tushuniladi, barqarorlik bevosita insonning psixik va psixosomatik salomatligini belgilaydi. Shu sababli, psixologik tayyorgarlikning vazifalaridan biri harbiy xizmatchi psixikasining, jangda barqarorligini shakllantirishdir.

Psixologik lug‘atlarda barqarorlik (mental toughness) – stabillik, qat’iylik, bardoshlilik, mustaxkamlik tarzida tushuniladi. U 2 ta asosiy sinonim “stabillik va muvozanat” bilan keltirilgan. [5]

Psixologik barqarorlik quyidagilar tufayli ortadi:

- sezgilarning yuqori sezuvchanligini, aniqligi va tezligini rivojlantirish, sog‘lom barqaror reaksiyalar, kuch, harakat va harakatning muvofiqligi va barqarorligi;

- jangda masofani doimiy ravishda to‘g‘ri baholash qobiliyatini rivojlantirish va vaqt, ob’ekt o‘lchamlari, harakat tezligi;

- harbiy xizmatchining jangda diqqatining turg‘unligi, diqqatni jamlash qobiliyatini rivojlantirish; shu bilan birgalikda asosiy faoliyatga yuqori barqarorlik va konsentrasiya, tezlik imkoniyati;

Bularning barchasiga harbiylarni jangda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan sharoitlarga psixologik jihatdan o‘rgatish orqali erishish mumkin. Bunday mashg‘ulotlar natijasida harbiylarda doimiy ravishda salbiy holatlarni engib o‘tish, jismoniy va ruhiy chidamlilik ko‘rsatish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish mumkin.

Psixologik tayyorgarlikning asosi rejalashtirilgan mashg‘ulotlar va mashqlar, qurolli kurashning barcha vositalaridan foydalangan holda, haqiqiy jangga imkon qadar yaqinroq vaziyatni hosil qilishdir.[6] Shunday qilib, taktika darslari jangni psixologik simulyasiya qilish imkoniyatlarini ochadi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, jismoniy rivojlanish harbiy xizmatchilarda aqliy funksiyalarning barqarorligi, vestibulyar apparatning fuksiyalari faoliyatini, professional muhim psixologik fazilatlarni rivojlantirishga asos soladi.

Jangovar sharoitlarda navigatsiya qilish va qurollardan foydalanish askardan yuksak ma’naviy va jangovar fazilatlar, jangovar mahorat, yuksak shaylik va ruhiy barqarorlik, mustahkam bilim, ko‘nikma va malakalarni talab qiladi. Bularning barchasi faoliyatning barqarorligini talab qiladi.

Psixologiya sohasidagi K.Padeski, A.N. Leontev, S.L. Rubinshteyn, B.G. Ananev, I.V.Pavlov va boshqa bir qator olimlarning yondashuvlari keltirilgan, xususan mualliflar barqarorlik tushunchasini quyidagi ma’nolarda talqin qiladilar: "hayotiy vaziyatlarga qarshi chidash qobiliyati", "ruhiy barqarorlikni saqlab qolish", shuningdek, "murakkab sharoitlarda muvozanatni tiklash". Bu talqinlarda shaxsning psixologik va fiziologik imkoniyatlari muhim o‘rin tutadi. Stressga qarshi chidamlilikni rivojlantirishda emosional barqarorlik, moslashuvchanlik va shaxsiy resurslarni saqlash kabi omillar e’tirof etiladi. Ba’zi mualliflar stressni bartaraf qilish usullarini "moslashuv mexanizmlari" orqali tavsiflaydilar. [7]

Stressga qarshi chidamlilikni belgilashda quyidagi omillarni hisobga olish lozim: emosional boshqaruv qobiliyati; kognitiv moslashuvchanlik;

shaxsiy tajriba va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi; ichki va tashqi stress omillarini bartaraf qilish qobiliyati.

Stressga chidamlilikni oshirishga oid ilmiy tadqiqotlar shunga ko‘rsatadiki, bu nafaqat individual xususiyatlar, balki ijtimoiy omillarga ham bog‘liq. Stressga qarshi chidamlilikni baholash va shakllantirish jarayonida turli diagnostik usullar va psixologik mashg‘ulotlardan foydalanish muhimdir. Stressga qarshi chidamlilikni o‘rganish jarayonida bir qator olimlar tomonidan turli konseptual yondashuvlar ishlab chiqilgan. Masalan, A.D. Leontev stressni boshqarishning murakkab tizimli modeli haqida gapiradi va stressga chidamlilikni shaxsning ijtimoiy va psixologik resurslari, shuningdek, kognitiv va emosional tizimlar faoliyatining barqarorligi bilan bog‘laydi.[8]

Stressga qarshi chidamlilikni baholashning amaliy usullari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Shaxsiy resurslarni mustahkamlash;
2. Emosional barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan treninglar;
3. Moslashuvchan fikrlash va stressli vaziyatlarga qarshi samarali strategiyalarni ishlab chiqish.

Ko‘plab tadqiqotlar, stressga qarshi chidamlilikni rivojlantirish individual psixoterapiya, guruhli treninglar va profilaktik choralarni amalga oshirish orqali ro‘yobga chiqarishini ifodalaydi. Shu bilan birga, stressga qarshi chidamlilikni oshirishda qo‘llab-quvvatlash muhitining roli ham muhim ahamiyatga ega. Stressga chidamlilik masalalarini o‘rganishda turli ilmiy yondashuvlar va nazariy asoslar mavjud. Masalan, G. Sele tomonidan ishlab chiqilgan stress nazariyasi shaxsning fiziologik va psixologik holatini turli tashqi ta’sirlarga javoban boshqarishni o‘z ichiga oladi.[9] Shu bilan birga, Lazarus va Folkman stressni boshqarish jarayonida kognitiv baholash va moslashuv jarayonlariga alohida urg‘u beradilar. [10]

Stressga chidamlilikni aniqlashda harbiy xizmatchining ichki omillari bilan birga ijtimoiy-madaniy omillar ham muhim ahamiyatga ega, o‘zini anglash qobiliyati, hayotiy maqsadlarni belgilash, ijtimoiy munosabatlardagi muvaffaqiyat va moslashuvchanlik kabi jihatlar stressni engib o‘tishda yordam beradi. Stressga qarshi chidamlilikning yuqori darajasiga ega bo‘lgan shaxslar murakkab hayotiy vaziyatlarga nisbatan samarali qarshilik ko‘rsatadi va o‘zlarining psixologik barqarorligini uzoq muddat davomida saqlab qoladi.

Stressga qarshi chidamlilikni rivojlantirishning psixologik usullari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Psixologik treninglar: bu mashg‘ulotlar emosional boshqaruv, ijtimoiy moslashuvchanlik va stressli vaziyatlarga nisbatan turli yondashuvlarni rivojlantirishga qaratilgan.

2. Kognitiv-bihevioral terapiya: shaxsning fikrlash jarayonlarini o‘zgartirish orqali stressli vaziyatlarga munosabatni shakllantirish.

3. Relaksasion texnikalar: nafas olish mashqlari, meditasiya va boshqa xotirjamlik usullari.

Stressga chidamlilikni o‘lchashda psixologik diagnostik vositalar va maxsus so‘rovnomalar qo‘llaniladi. Bu jarayon shaxsning ichki resurslarini aniqlash va ularni kuchaytirish uchun samarali usul hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, harbiy xizmatchilarda ruhiy barqarorlik va o‘z-o‘zini safarbar qilish jarayonlarini mustahkamlashda psixologik mexanizmlarini shakllantirish, ruhiy qobiliyatlarini hamda psixologik va psixofiziologik tayyorgarlik sifatini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda harbiy psixologlar uchun harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladigan ilmiy-amaliy qo‘llanmalar, amaliy korreksion mashg‘ulotlar to‘plamini yaratish zamon talabini belgilamoqda. Harbiy xizmatchining psixologik barqarorligi ta’minlashda ilmiy-nazariy bilimlar bilan birga ilmiy-amaliy mashg‘ulotlarning uyg‘unligiga erishish - shaxsning psixo-emosional turg‘unlik asosini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Леонтьев А.Д. Тест жизнестойкости- М.Смысл, 2006, (89 bet)
2. Селье Г. Стресс без дистресса. М. Книга по требованию, 2012. (66 bet)
3. Лазарус Р. Теория стресса и психофизиологические исследования. М.-1993. (123 bet)
4. Том Батлер-Боудон 50 великих книг по психологии. Москва 2023. (318 bet)
5. Петрушин В.И. Неврозы большого города. Москва. 2004.(368 bet)
6. Съедин С.И., Абдурахманов Р.А. Психологические последствия воздействия боевой обстановки. М.: Военный университет, 1992. (45 bet)
7. Дьяченко М.И., Кандыбович Л.А., Кандыбович С.Л., Урбанович А.А., Шабуневич Б.Б. Военная психология и педагогика.- Минск: Военная академия, 1999.(248 bet)
8. Словарь иностранных слов. Изд-4-е.Москва «Русский язык». 1987й.-(470 bet)
9. Словарь психолога-практика/ С.Ю Головин.-2-е изд. Мн.: Харвест, 2007. (59 bet)
10. Головнев А. Психологическая подготовка войск// Военный вестник.-1993. №5.(51 bet)

SHAXS TAFAKKURIDA IJODKORLIK VA IXTIROCHILIK SIFATLARINI IFODALOVCHI OMILLAR

Barnogul Raxmatova,
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada shaxs tafakkurida ijodkorlik va ixtirochilik qobiliyatlarini shakllantiruvchi omillarni tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, ijodkorlik va ixtirochilik qobiliyatlari, yangi g‘oyalar yaratish va amaliyotga tadbiq etish jarayonida shaxsning psixologik va ijtimoiy xususiyatlari, ijodkorlikni rivojlantiruvchi omillar, shuningdek, ijodkorlarning sifatlari, ularning kutilmagan yechimlarni topish va xatoliklardan o‘rganish qobiliyatlari, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan o‘quv metodikalari va mashg‘ulotlar hamda innovatsion yondoshuvlar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *ijodkor, ixtirochilik, tafakkur, innovatsiya, shaxsiy sifatlar, yangi g‘oyalar, kutilmagan yechimlar, shaxsiy rivojlanish, ijodiy qobiliyat.*

Аннотация

Данная научная статья направлена на анализ факторов, формирующих креативность и изобретательность в мышлении человека, креативность и изобретательность, психологические и социальные особенности человека в процессе создания новых идей и реализации их на практике, факторы, развивающие креативность, а также качества творцов, их способность находить неожиданные решения и учиться на ошибках, методы обучения и преподавания, необходимые для развития творческих способностей, и инновационные подходы.

Ключевые слова: *творческий, изобретательность, мышление, новаторство, личностные качества, новые идеи, неожиданные решения, личностное развитие, творческие способности.*

Annotation

This scientific article is aimed at analyzing the factors that form creativity and ingenuity in human thinking, creativity and ingenuity, psychological and social characteristics of a person in the process of creating new ideas and putting them into practice, factors that develop creativity, as well as the qualities of creators, their ability to find unexpected solutions and learn from mistakes, teaching and learning methods needed to develop creativity and innovative approaches.

Keywords: *creative, inventive, thinking, innovative, personal qualities, new ideas, unexpected decisions, personal development, abilities.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining imkoniyatlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, oliy ta’lim muassasalari ta’lim sifati va samaradorligini oshirish kabi yo‘nalishlar belgilanib, bu borada oliy ta’lim muassasasi pedagoglarini kreativligini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Respublikadagi shiddatli o‘zgarishlar ta’lim tizimiga ham jahon miqyosida keng yo‘l ochib bermoqda, jumladan, zamonaviy axborot texnologiyalarning tezkor rivojlanishi, global telekommunikatsion texnologiyalarning takomillashib borishi elektron ta’lim muhitida insonni ishga bo‘lgan munosabatini kreativ yondashuvini talab etmoqda [10].

Ta’kidlash lozimki, faqat ta’lim, uning muhim bo‘lagi hisoblangan oliy ta’lim jamiyatning turli rivojlanish bosqichlariga shaxsning moslashuvchanlik imkoniyatlarini ta’minlaydi. Yangi avlodni o‘qitish va tarbiyalash natijasida yoshlarning, bo‘lajak mutaxassislarning dunyoqarashini, madaniyatini, kasbiy bilimlarini shakllantiradi va ijtimoiy rivojlanishga oid yo‘nalishlar vujudga keladi. Ushbu omillar oliy ta’limni yangi taraqqiyot bosqichida jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi faktor sifatida ilmiy falsafiy jihatdan chuqur o‘rganishni, tadqiq etishni taqozo qiladi.

Bo‘lajak mutaxassislarning vazifasi – soha faoliyatiga oid jarayonlarni mukammal o‘rganish, har bir jarayonda kreativlikni rivojlantirish va innovatsiyalarni yaratishga yo‘naltirish, muammoli faoliyat turlarini tahlil qilish, muammolarni mustaqil anglash, o‘z imkoniyatlarini rivojlantirishga sarflashdan iboratdir. Shunday qilib, talabalarning kreativ kompetentligini va pedagogik mahoratini rivojlantirish – ularning ijodiy fikrlashini kreativ o‘qitish metodlari yordamida takomillashtirishdir.


Shaxs tafakkurida ijodkorlik va ixtirochilik qobiliyatlari insoniyatning rivojlanishi va jamiyatdagi o‘zgarishlarni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Ijodkorlik va ixtirochilik qobiliyatlari shaxsning o‘z fikrlarini yangicha tarzda shakllantirish, yangi g‘oyalarni yaratish va amaliyotga tadbiq etish imkoniyatini beradi. Shu sababli, bu sohalarga oid tasavvurlar, qobiliyatlar va shaxsiy sifatlarga chuqur nazar tashlash zarur [1]. Ijodkorlik va ixtirochilik – bu ikki o‘zaro bog‘liq, lekin har biri o‘ziga xos jarayonlar bo‘lib, ular shaxsning yangi va innovatsion fikrlarni yaratish qobiliyatini ifodalaydi. Ijodkorlik – bu yangi va original g‘oyalarni ishlab chiqish jarayonidir, bu esa o‘z navbatida kognitiv va emotsional jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Ixtirochilik esa, ushbu g‘oyalarni amaliyotga tadbiq etish va ularni texnologiya yoki boshqa sohalarda yangi yechimlarga aylantirishni anglatadi.

Tadqiqot metologiyasi. Ijodkorlik va ixtirochilik qobiliyatlari ko‘plab omillar ta’sirida shakllanadi. Ular orasida shaxsning ta’limi, ijtimoiy muhit, psixologik xususiyatlar va muloqot tajribasi alohida o‘rin tutadi.

Bo‘lajak muhandislarning ijodkorlik va ixtirochilik qobiliyatlari nuqtai nazaridan kasbiy shakllanishida ular tomonidan quyidagi kasbiy-pedagogik malakalarning o‘zlashtirilishi muhim ahamiyatga egaligini qayd etib o‘tadi:

1. Talabalar shaxsini shakllantirish malakalari.
2. Talabalarning o‘quv-kasbiy faoliyatini shakllantirish malakalari.
3. Shaxsni kasbiy yo‘nalishini shakllantirish malakalari.
4. Ta’limning shakl va metodlarini tanlash malakalari.
5. Pedagog-rejissyorlik malakalari.
6. Turli nostandart pedagogik holatlarni tahlil qilish malakalari.
7. Ilg‘or pedagogik tajribalarni umumlashtirish malakalari.
8. Muhandislik-texnik malakalari.

Innovatsion pedagogik faoliyat esa ijodkorlik va ixtirochilik qobiliyatlari nuqtai nazaridan bo‘lajak o‘qituvchining yuksalishi ta’lim va tarbiyani yangi qirralarini ochishga, noan’anaviylik va originallikka asoslangan innovatsion texnologiyalarni, eng asosiysi fikrlash, tarbiyalash, anglab olish qobiliyatlarini shakllantiradi (1-rasm).



1-rasm. Ta’limning innovatsion metodlari

Innovatsion metodlar nimalarni o‘z ichiga oladi? Hozirgi kunda mamlakatimiz metodistlari, trenerlari, amaliyotchi o‘qituvchilari turli shakl – formalar taklif etmoqda va amaliyotda qo‘llamoqda. Ulardan, korusel, kichik guruhlarda ishlash, akvarium, tugallanmagan gaplar, Broun harakati, daraxt yechimi, rolli o‘yinlar, o‘z pozitsiyasini egallash, munozara, debatlar, katta davra va boshqalar. Olimlar tadqiqotlariga ko‘ra, ijodkorlik va ixtirochilik sifatlari – bu aqliy mehnat va innovatsion ta’lim bilan birgalikdagi faoliyatning asosiy omillaridan hisoblanadi [5].

Innovatsion faoliyat – pedagogning o‘z kasbini takomillashtirishdagi mavjud metod, shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta’limdagi innovatsiyalar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror ilmiy tasavvur va tasniflarning mukammal tarkib topishi zamon talabi hisoblanadi. Buning uchun ta’limga yo‘naltirilgan ilmiy bilimlarni tizimli rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ta’limiy bilim va amaliy pedagogik faoliyat o‘rtasidagi integratsiyani mustahkamlash zarur. O‘qituvchi innovatsion faoliyatning subyekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo‘llash hamda ommalashtirishda ishtirok etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Taniqli pedagog va psixolog Abdukarimov Abdug‘aniy ijodkorlikni inson tafakkurining asosiy komponenti sifatida ko‘radi. U ijodkorlikni faqat bilim bilan bog‘lamasdan, yangi fikrlar yaratish, muammolarni hal qilishda yangicha yondashuvni topish sifatida ta’riflaydi. Shuningdek, ijodkorlik va ixtirochilikning rivojlanishida shaxsning ichki motivatsiyasi va tashqi muhitning roli muhimligini ta’kidlaydi [3].

Pedagog olim B.Shodmonov ijodkorlikni faqat individual faoliyat sifatida ko‘rmaydi, balki ijodiy faoliyatda jamiyat va guruhlarning o‘zaro aloqalari, bir-biriga ta’siri ham muhim omil ekanligini aytadi. U ijodkorlikni shaxsning ijtimoiy va madaniy tafakkuri bilan bog‘laydi. B.Shodmonov fikriga ko‘ra, ijodkorlikni rivojlantirish uchun tashqi motivatsiya, ya’ni jamiyatning ijtimoiy va madaniy talablarini hisobga olish zarur [9]. Taniqli psixolog, pedagog Sh.Xodjayev ijodkorlikni kognitiv jarayon sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha, ijodkorlikni rivojlantirishda shaxsning bilim darajasi, tafakkur faolligi va yangicha fikrlash qobiliyati muhim omillarni tashkil etadi, ijodiy faoliyatni shakllantirishda ta’limning muhim ahamiyatini ta’kidlaydi [8].

Bo‘lajak mutaxassis o‘qituvchi tahsil olayotgan turli yo‘nalishlari talabalarida kreativ o‘qitishni amalga oshirish uchun quyidagi tashkiliy-pedagogik shartlarining bo‘lishi talab qilinadi. Bulardan motivatsiyani rivojlantirish, innovatsion-metodik loyihalarni bajarish, uzluksiz o‘z-o‘zini tahlil qilish, nazorat qilish, o‘quv-metodik ta’minotni faoliyat natijalaridan foydalanish hamda ijodkorlik va ixtirochilik sifatlarini namoyon etish. Mutaxassis o‘qituvchi talabaning intellektual ijodkorligini rivojlantirish bilan birga ularning innovatsion faoliyatini kreativ olib borishda turli xil texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi [4].

Innovatsion faoliyatning maqsadi – sarflangan kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan yangiliklardan farqli o‘laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat

qilinuvchi o‘zgarishlar mexanizmini tashkil etadi. Ta’lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo‘la olmaydi. Shu sababli “novatsiya” va “innovatsiya” tushunchalari o‘rtasidagi umumiylik va farqlarni ko‘rsatib o‘tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko‘lami asos bo‘lib xizmat qiladi [2].

Agar faoliyat qisqa muddatli bo‘lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lmasa, o‘z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba’zi elementlarni o‘zgartirishni vazifa qilib qo‘ygan bo‘lsa, u holda biz novatsiya bilan muloqot qilayotgan bo‘lamiz. Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagicha: novatsiya amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko‘lam va vaqt bo‘yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi. Innovatsiya esa tizimli, yaxlit va davomli bo‘ladi, ma’lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot subyektlari pozitsiyalarini to‘la yangilaydi. Bunda faoliyatning yangi yo‘nalishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat natijalariga erishiladi, natijada amaliyotning o‘zi ham yangilanadi. Innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi. Innovatsion jarayon innovatsion o‘zgarishlarga tayyogarlik ko‘rish va uni amalga oshirish tadriji hisoblanadi. Ta’lim olishni tashkil etishning tashqi shakllari tarkibiga quyidagi-larni kiritish mumkin:

– ma’ruza, seminar;
– didaktik o‘yinlar;
– loyihaviy-ijodiy faoliyat;
– masofaviy ta’lim;
– ilmiy seminar va konferensiyalar;
– o‘qitishning mualliflik texnologiyalari boshqalar.

Ijodkorlik va ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish yo‘llari sifatida quyidagilarni savab o‘tish mumkin: maqsadli mashg‘ulotlar va treninglar, Xalqaro va ijtimoiy muloqot, muammolarni yechishning innovatsion yondoshuvi. Bularning mazmuniga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, maqsadli mashg‘ulotlar va treninglar maxsus treninglar bo‘lib, mashg‘ulotlar ta’lim oluvchining yangi fikrlarni yaratish, muammolarni yechish va sinovlar o‘tkazish qobiliyatini oshiradi.

Tahlil va natijalar. Innovatsion usulning bosh maqsadi o‘quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o‘quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishdir. U o‘zining intellektual salohiyatini, imkoniyatlarini namoyon etadi va o‘quv sifati va samaradorligini oshiradi. Jumladan, ijodkorlik va ixtirochilik qobiliyatlarini shakllantiruvchi omillar quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

1. Ta’lim va bilim – ta’limning yuqori darajasi va ilmiy ishlarni olib borish imkoniyatlari ijodkorlikni rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. Shuningdek, keng bilim doirasi va turli sohalarga qiziqish, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish uchun zamin yaratadi.

2. Ijodiy va ilmiy muhit – ijodkorlikni rivojlantiradigan ijtimoiy muhit va ilmiy makon ham muhim ahamiyatga ega. O‘zgacha fikrlashga yo‘l ochuvchi, tadqiqot va tajriba o‘tkazish imkoniyatlarini taqdim etadigan jamiyatda ijodkor shaxslar ko‘proq paydo bo‘ladi.


3. Shaxsiy xususiyatlar – ijodkorlik va ixtirochilikni shakllantiruvchi eng muhim omillardan biri shaxsiy sifatlar bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

kreativlik – shaxsning yaratish, o‘zgacha fikr yuritish va yangi g‘oyalarni qabul qilish qobiliyati ijodkorlikni rivojlantiradi. Kreativlikni shakllantiruvchi muhim jihatlar orasida xayolning erkinligi, tavakkalchilikka moyillik va normadan chiqishga bo‘lgan istak mavjud.

kutilmagan yechimlarni topish qobiliyati – ijodkorlar va ixtirochilar mavjud muammolarga yangicha qarashni biladilar va turli xil alternativ yechimlarni taklif qilishadi. Bu sifat tizimli fikrlash va tasavvur qilish jarayonlarini birlashtiradi.

xatoliklardan o‘rganish – ijodkorlar muvaffaqiyatsiz natijalardan o‘rganib, ularni takomillashtirishga va yangi yondoshuvlarni sinashga tayyor bo‘ladilar. Bu ularning muvaffaqiyatga erishishdagi muhim jihatlaridan biridir.

moslashuvchanlik va ochiqlik – ijodkorlar doimiy o‘zgarishlarga moslashish va yangi ma’lumotlarga ochiq bo‘lishadi. Ular o‘zlarining o‘ylash shakllarini kengaytirib, doimiy rivojlanishga intilishadi (2-rasm).



2-rasm. Ijodkorlik va ixtirochilik qobiliyatlarini shakllantiruvchi omillar

Xalqaro va ijtimoiy muloqotda esa yangi madaniyat va fikrlarni o‘rganish shaxsning ijodiy potentsialini kuchaytiradi. Shu bilan birga, ijtimoiy muhitda fikr almashish va o‘zaro hamkorlik qilish ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Muammolarni yechishning innovatsion yondoshuvida ixtirochilikni rivojlantirish uchun shaxslar o‘zlarini yangi yechimlar qidirishda va yangi g‘oyalar ishlab chiqishda o‘rgatishlari kerak. Bu usullar hamma sohalarda innovatsion fikrlashni rivojlantirishga olib keladi.

Ta’lim jarayonidagi innovatsion o‘zgarishlar, ta’lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o‘qituvchi faoliyatini yangilash va o‘zgartirish orqali amalga oshirilishi olimlar tomonidan qayd etilgan. Ta’lim tizimidagi innovatsiyalar, ularni amaliyotga kiritish, innovatsion jarayonlarni boshqarishni tahlil qilish orqali innovatsion faoliyat tushunchasini ta’riflash imkoniyati paydo bo‘ldi. Innovatsion pedagogik faoliyat – pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg‘a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuchdir. Innovatsion pedagogik faoliyat - uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash bo‘lib, u uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi [6].

O‘qituvchi innovatsion faoliyati xususiyatlarini o‘rganib chiqqan pedagog olimlar fikrlariga tayangan holda quyidagilarni innovatsion pedagogik faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblaymiz:

- ✓ ijodiy pedagogik faoliyatning ilmiy-nazariy jihatlarini egallash;
- ✓ pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlarini egallash va amalda qo‘llash;
- ✓ yaratuvchanlik qobiliyatiga ega bo‘lish;
- ✓ tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshirish;
- ✓ pedagog-o‘qituvchilar tajribalarini o‘rganish, yoyish va ommalashtirish;
- ✓ hamkasblar bilan doimiy ijodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- ✓ o‘zaro fikr almashish va metodik yordam ko‘rsata olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;
- ✓ pedagogik jarayondagi ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- ✓ yangiliklarni izlab topish va ularni o‘z sharoitiga moslashtirib borish.

Yosh pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlash muammosiga murojaat etish jamiyatda innovatsion jarayonlar dinamikasining o‘sib borayotganligini tushunish natijasida vujudga keldi. Uning tahlili faqat fan va

texnika erishgan zamonaviy yutuqlardan foydanishni o‘z ichiga olmasdan, balki yangiliklarni izlash, yaratish, moslashtirish, tatbiq etish va olingan natijalarni qayta tekshirish kabi jarayonlarni ham qamrab oladi. Demak, ijodkorlik va ixtirochilik – bu nafaqat shaxsning aqliy salohiyati, balki uning psixologik, madaniy va ijtimoiy xususiyatlariga ham bog‘liq bo‘lgan jarayonlardir. Ularni rivojlantirishda bilim, ijodiy muhit va shaxsiy sifatlar muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa va takliflar. Talabalar hamkorlik, ham ijodkorlikda ishlashda mavzu mazmunini bilish va o‘zlashtirishda o‘zlarining shaxsiy hissalarini qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘zaro bilimlar, g‘oyalar, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo‘ladi. Aytish mumkinki, shaxs tafakkuridagi ijodiy jarayonlar kreatilikni ifodalovchi to‘rtta asosiy sifat ko‘rsatgichlari orqali namoyon bo‘ladi. Ular:

- obrazli moslashuvchan moyillik. Bu o‘quvchi tomonidan idrok etilgan obyektning noma’lum tomonini ko‘ra olishni anglatadi;

- tafakkurning betakrorligi. Bunda g‘oyalar va obrazlarning noodatiy, o‘ziga xosligi nazarda tutiladi;

- tafakkurning moslashuvchanligi. Bu obyektni turli tomon va turli nuqtai nazardan ko‘ra olish, uning noma’lum jihatlarini kashf etishni anglatadi;

- tafakkkurning mustaqilligi. Bunda nostandart vaziyatlarda turli vaziyatlarni ilgari surish nazarda tutiladi.

Innovatsion pedagogik faoliyat va uning tarkibiy qismlari, asosan, innovatsiya, pedagogik innovatika, innovatsion jarayon, kreativ yondashuv, innovatsion ta’lim, innovatsion faoliyat va shu kabilardan tashkil topadi. Bunday holatlar o‘zaro samimiylikni ta’minlaydi, yangi bilimlarni olish, o‘zlashtirishga havas ortadi [7]. Demak, jamiyat shiddat bilan taraqqiy etib borar ekan, ta’lim sohasi ham u bilan barobar o‘zgaradi va o‘qituvchidan o‘z faoliyatini rivojlantirib, yangilab borishni talab etadi. Bugun o‘qituvchining asosiy vazifasi faqat ta’lim berishgina emas, balki boshqaruvchilikdan iborat bo‘lib, u ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil qilishi va boshqarishi lozim. Innovatsion pedagogik faoliyat bo‘lajak muhandisning hamma muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy faoliyat turi bo‘lib, u shaxsning kasbiy, metodik mahoratini sifatli rivojlantirish demakdir.

Shaxsning ijodiy qobiliyatlari va innovatsion yechimlar yaratishdagi muvaffaqiyatlari jamiyatning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, ijodkorlik va ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirish, nafaqat shaxsiy, balki jahon miqyosida ham ilg‘or ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Muslimov N.A., Raximov Z.T., Xo‘jaev A.A., Qodirov H.Sh. Ta’lim texnologiyalari. Darslik, – T.: «Voris - nashriyot», 2019. 337-бет.

2. Яковец Ю.В. Инновации: теория, механизм, государственное регулирование: Учебное пособие /Под ред.. – М.: РАГС, 2000.

3. Abdukarimov A. Inson tafakkuri va ijodiy faoliyat. Tashkent, 2010. – 52-55 betlar.

4. Tukhtayeva Z.Sh., Saidova Kh.Kh. Innovative forms of education in Uzbekistan International journal of innovations in engineering research and technology [IJIERT] Volume 7, ISSUE 4, Apr.-2020. – Pages 258-261.

5. Mamatqulov A.N. Kasbiy ta’limda talabalar ijodkorligini rivojlantirish. “Zamonaviy ta’lim” ilmiy-amaliy ommabop jurnal – Toshkent, 2019. №12 (85). –11-17 b.

6. Структура ИКТ – компетентность учителей. Рекомендации YuNESKO. Gamburg, 2011. URL: http://ru.iite.unesco.org/publications/3214694

7. Sharipov Sh.S. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dokt. ... diss. – T., 2012.–264 б.

8. Xodjayev Sh. Kreativ tafakkur va ijodiy qobiliyat. Tashkent, 2015. 78-80 b.

9. Shodmonov B. “Ijodiy faoliyat va uning psixologik asoslari”. Tashkent, 2007. – 101-104 b.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 22.09.2018 y., 06/18/5544/1951-son.

RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI SHAROITIDA TA’LIM SIFATI MONITORINGINI BOSHQARISHNING PEDAGOGIK SHART SHAROITLARI

Dilshod Abdug‘aniyev,
Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi bosh mutaxassisi

Аннотация

В статье рассматриваются основы внедрения мониторингово-управленческого подхода в сфере педагогики с использованием цифровых технологий и его развития с использованием соответствующих образовательных технологий и средств ИКТ. Также приведены конкретные примеры использования данных методик в различных областях высшего образования.

Ключевые слова: *современные информационные технологии, образовательные технологии, средства ИКТ, цифровое пространство, информационное движение, информационное движение, качество образования.*

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli texnologiyalardan pedagogika sohasidagi monitoring boshqarish yondashuvini amalga oshirish, uni tegishli ta'lim texnologiyalari va AKT vositalari bilan rivojlantirishning asoslari o‘rganilib chiqilgan. Shuningdek, ushbu metodologiyalardan oliy o'quv yurtlarining turli yo'nalishlarida foydalanishning aniq misollari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *zamonaviy axborot texnologiyalari, ta'lim texnologiyalari, AKT vositalari, raqamli makon, axborot harakati, axborot harakati, ta’lim sifati.*

Annotation

This article examines the basics of implementing a monitoring and management approach in the field of pedagogy using digital technologies, developing it with appropriate educational technologies and ICT tools. Also, specific examples of using these methodologies in various areas of higher education institutions are presented.

Keywords: *modern information technologies, educational technologies, ICT tools, digital space, information traffic, information traffic, quality of education.*

Zamonaviy ta’lim axborot va raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq ta’limdagi integratsiya jarayonlarida bilim talab qiladigan sohalarni rivojlantirishga, shaxslarning kasbiy faoliyatining intellektual darajasini oshirishga va samarali mehnat ko‘lamini kengaytirishga yordam beradi. Raqamli voqelikning jadal rivojlanishi va amalga oshirilishi insoniyatni kelajakdagi taraqqiyot yo‘nalishini tanlashdan oldin inson faoliyatining barcha sohalarini tadqiq etishni maqsad qiladi. Bu kasbiy tayyorgarlikning asosiy klasteri sifatida oliy ta’lim tizimiga to‘liq xosdir. Raqamli jamiyat sharoitida axborot strategik manbaga aylanadi, uning rivojlanishi uchun psixologik sharoitlar ramziy faoliyat bilan yaratiladi. O‘quv jarayonida uni o‘zlashtirish bilimlarni namoyish etishning turli modellari va texnologiyalarini amalga oshirishni o‘z ichiga oladi, bu esa o‘z navbatida talabalarning aqliy funksiyalarining murakkabligiga ta’sir qiladi. Shu sababli, ta’lim sifatini yaxshilash, subektlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning yangi shakllari va vositalarining paydo bo‘lishi, yagona raqamli ta’lim makonining ishlashi va rivojlanishini ta’minlash mumkin [16]. Raqamli inqilobning ta’siri va raqamli makonning jamiyatga, insonga va sivilizatsiya rivojlanish istiqbollariga ta’siri katta. Aynan shu ta’sir falsafiy, uslubiy tahlilni va umuman oliy ta’limni rivojlantirish strategiyasini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Amaldagi amaliyot raqamli texnologiyalarni joriy etishni e’tiborsiz qoldirishga imkon bermaydi, shu bilan birga u faqat raqamli uskunalar yoki qurilmalarga e’tibor qarata olmaydi, aksincha ta’lim va uning rivojlanish istiqbollariga alohida e’tibor berishni talab qiladi.

Bugungi kunda, har qachongidan ham ko‘proq, raqamli makonga integratsiyalashuvi asosida universitetlarda o‘quv jarayonini va ta’limini modernizatsiya qilish masalasi mavjud.


Ta’lim va raqamli makonning integratsiyasi nafaqat kasbiy tayyorgarlik jarayoniga ta’sir qiladi, uning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi, balki universitetda ko‘p o‘lchovli va ko‘p qirrali xarakterga ega

bo‘lgan ta’lim sifatini boshqarish tizimidagi o‘zgarishlarni ham o‘z ichiga oladi. Doimiy axborot harakati sharoitida (yangilanish, globallashuv, kengayish va boshqalar.) boshqaruvning ko‘p sonli “bog‘liqliklarni” yaratadigan bir tomonlama “Ushlash – boshqaruv” sxemasi o‘z ahamiyatini yo‘qotadi. Ushbu sxemani tadqiqotning asosiy g‘oyasi nuqtai nazaridan, o‘z-o‘zini rivojlantirish shakli sifatida ishtirok etishni hisobga olgan holda, boshqaruv talabaning individual va shaxsiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda individual ta’lim yo‘nalishini yaratish va loyihalashda yordam beradigan tubdan yangi dizayn zarur.

“Menejment” tushunchasining an’anaviy xarakteristikasi bilim, fikr, mulohaza va xulosalar almashmasdan, o‘quv jarayonida talaba hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi bir tomonlama o‘zaro ta’sir sxemasini ko‘rib chiqadi. Buning sababi bir muncha vaqtgacha oliy o‘quv yurtlarida talaba tayyor bilim va echimlarni kelajakdagi kasbiy faoliyatining “ideal” namunasi sifatida yodlash orqali oladi deb taxmin qilib, juda qat’iy meyoriy, uslubiy va ma’muriy asoslar mavjud edi. “Menejment” tushunchasida o‘qituvchining o‘quvchiga ta’siri jarayoni asosiy hisoblanadi, o‘zaro ta’sir raqamli sharoitda boshqaruvning markaziy tarkibiy qismiga aylanadi. Bunday boshqaruv uchun eng muhim va asosiy narsa o‘quv jarayonining barcha ishtirokchilarini talabaning o‘quv jarayonining subekti sifatidagi rolini qayta ko‘rib chiqish hisoblanadi. Subekt-subekt munosabatlariga asoslangan boshqaruvda talabaning roli bilish jarayonining faol ishtirokchisiga o‘zgaradi; shaxsning o‘zi, uning xususiyatlari va salohiyati birinchi o‘rinda turadigan sharoitlar ta’minlanadi.

2-rasmda “raqamli boshqaruv” va “boshqaruv” tushunchalari o‘rtasidagi farq sxematik tarzda ko‘rsatilgan. An’anaviy sxemada (o‘ngdagi rasmda) talabaning munosabati, ehtiyojlari, bilimlari va ko‘nikmalari o‘quv jarayonining boshqa ishtirokchilarining unga ta’siri asosida boshqariladi. “Ta’sir qilish sxemasi” almashinuvni o‘z ichiga olmaydi.

Raqamli sharoitda boshqaruvdagi “o‘zaro ta’sir sxemasi” (Chapdagi 2-rasmda) o‘quv jarayonining har bir ishtirokchisining quyi tizimlarining o‘zaro bog‘liqligining keng ko‘lamli tizimini yaratishni o‘z ichiga oladi, bu o‘z bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish orqali har birining o‘z taqdirini o‘zi belgilashi va rivojlanishiga yordam beradi.



2-rasm. Raqamli sharoitda boshqaruvdagi “o‘zaro ta’sir sxemasi”

Bizning fikrimizcha boshqaruv jarayonini ishlab chiqarish bilan bog‘lash quyidagilarga imkon beradi:

1) turli xil o‘zaro ta’sirlarni ta’minlash, o‘zaro ta’sirlar doirasini sezilarli darajada kengaytirish, jarayonning ko‘p funksionalligi, axborot ta’minotini professionallashtirish;

2) o‘quv jarayonida individual yo‘nalishini amalga oshirish; ta’lim jarayonining faoliyatini ko‘p vazifali hal qilish, ta’lim muassasasi faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlarini belgilaydigan mexanizmni yaratish.

Ilmiy tadqiqotimizga asoslanib, biz raqamli ta’lim muhitida ta’lim sifatini boshqarishning asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- o‘quv jarayoni subektlari tomonidan birgalikdagi o‘quv faoliyatining umumiy mazmuni, maqsad va vazifalarini loyihalash;

- belgilangan maqsadlarga erishishga imkon beradigan o‘zaro ta’sir va hamkorlikdagi yagona faoliyat sifatida o‘quv jarayonini rag‘batlantirish va qabul qilish;

- talabaning o‘quv jarayoni mazmunidan xabardorligi uchun maxsus shart-sharoitlarni yaratish va loyihalash, talabaning o‘z-o‘zini anglashi, o‘zini o‘zi shakllantirish hamda rivojlantirishga imkon beradigan sharoitlar yaratish;

- o‘quv jarayonining har bir ishtirokchisining subektivligining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonida hamkorlik aloqalarini o‘rnatish;

- o‘quv jarayonining boshqa subektlari ishtirok etish jarayonida talabani sifatli ta’lim berish, kasbiy vazifalar va vaziyatlarni hal qilishga o‘rgatish;

- talabalarning ilmiy yutuqlarini monitoring qilish va kuzatish uchun maxsus ishlab chiqilgan tizimni tashkil etish, bu kelajakdagi kasbiy imkoniyatlar va harakatlarni o‘z vaqtida aniqlash va baholashga imkon beradi.

Oliy ta’lim tizimida o‘qitishning tarkibiy qismi sifatida ta’lim sifatini boshqarish o‘quv jarayoni subektlarining uni amalga oshirish sifatini, shartlari va natijalarini raqamli texnologiyalar integratsiyasi bilan loyihalashtirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha birgalikdagi faoliyat jarayonini tashkil etish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqish. O‘quv jarayoni subektlarining birgalikdagi faoliyati o‘quv jarayonining yadrosi va uning mazmuni, usullari, texnologiyalari va shakllarini belgilaydigan ustun tizimga aylanadi. Biz o‘quv jarayonini ma’lum bir subektining talabaning individual yutuqlari deb hisoblaydigan ta’lim sifatining semantik xarakteristikasi ko‘p komponentli va har biri alohida holatda alohida belgilanadigan maxsus tanlangan pedagogik ko‘rsatkichlar yordamida shakllanadi. Bunday holda, o‘quv jarayonini tashkil etish va o‘tkazish uchun raqamli sharoitlar subektlarning tajribasi va qiziqishini hisobga olgan holda pedagogik jihatdan asosli maqsadli va kasbiy o‘zaro ta’siriga imkon beradi. Ijtimoiy hodisa nuqtai nazaridan raqamli sharoitda ta’lim sifatini boshqarish, talabaning shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirishga va uning kasbiy salohiyatini shakllantirishga yordam beradigan muayyan sharoitlarda o‘quv jarayoni subektlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, munosabatlarning maxsus tashkil etilgan tizimi sifatida belgilash mumkin. Oliy ta’limning ijtimoiy jihatidagi ta’lim sifatini boshqarish o‘quv jarayoni subektlarining bir-biri bilan o‘zaro ta’sirining ma’lum bir qatorini, shuningdek o‘zaro ta’sir qiluvchi guruhlarning tashkiliy tuzilmasida yuzaga keladigan bir qator hodisalarni ifodalovchi hodisa sifatida ko‘rib chiqilishi kerak, buning natijasida munosabatlar yoki tarkibiy elementlar guruhlari o‘zgaradi.

Rivojlanayotgan o‘zaro ta’sirlarda o‘quv jarayonining har bir subekti faoliyatining individual yo‘nalishi aniqlanadi. Rivojlanayotgan o‘zaro ta’sirlar majmuasi vaqt o‘tishi bilan o‘ziga xoslikni saqlaydigan va bu kompleksni boshqalardan ajratib turadigan jarayon sifatida tushuniladi. Talaba va ta’lim muhitidagi fanlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ko‘p bosqichli seriyasi o‘quv jarayoni subektlarining o‘ziga xosligi, talabaning keyingi o‘zaro ta’sirlarga va paydo bo‘layotgan ta’lim, tarbiya va boshqa hodisalarga munosabati tufayli o‘zligini saqlab qoladi. Raqamli sharoitda rivojlanish-bu o‘zaro ta’sirlar tarkibiy va funksional bog‘liqliklarning yangi usullari va texnologiyalarini joriy etish uchun o‘quv jarayoni subektlari guruhini yoki guruhini ajratib turadigan ma’lum bir “yaratilgan” hodisalar qatorini ifodalovchi ijtimoiy jarayon. Ilmiy tadqiqotlar terminologiyasida qabul qilingan asosiy xususiyatlar (jarayon – vositalar – natija) bilan belgilanadigan ta’lim sifatini boshqarishning konseptual va kategorik apparati 3-rasmda keltirilgan.

Raqamli sharoitda oliy ta’lim sifatini boshqarish oliy ta’limning asosiy maqsadlarini ta’minlash uchun ishlab chiqilgan pedagogik kategoriyalar orqali ko‘rib chiqsak bu:

- bo‘lajak mutaxassisni o‘z shaxsiyatini rivojlantirishga yo‘naltirish;


- ta’limning uzluksizligini amalga oshirish;

- raqamli texnologiyalar va o‘quv jarayon integratsiyasini ta’minlash;

- oliy ta’limning shakllangan mazmunining inson faoliyatining ilmiy, texnologik va ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirishdagi zamonaviy prognoz qilinayotgan tendensiyalari hamda innovatsiyalarga muvofiqligini aniqlash;

- o‘quv jarayoniga talabalarning jamoaviy ijodda ham, qo‘yilgan vazifalar echimini individual izlashda ham ehtiyojlarini qondirish uchun uni tashkil etishning barcha mavjud shakllarini joriy etish va ulardan foydalanish zarurati;

- raqobatbardosh mutaxassisni shakllantirish uchun ish beruvchilar va professional jamoalarning buyurtmasini bajarish, ular uchun zarur kompetensiyalar va o‘quv natijalarini shakllantirish, tanlangan kasb hamda muayyan faoliyat turiga kasbiy soha tomonidan qo‘yiladigan talablarga javob berish.



1-rasm.

Raqamli sharoitda ta’lim sifatini boshqarishning konseptual va kategorik apparati

Raqamli sharoitda ta’lim sifatini boshqarish oliy ta’lim tizimida talabalarni tayyorlashni takomillashtirish, ijodiy va kreativ fikrlay oladigan, o‘z ishida eng yangi texnologiyalarni topa oladigan hamda undan foydalana oladigan malakali mutaxassisni shakllantirish zarur. Raqamli sharoitda ta’lim sifatini boshqarish tizimini samarali tashkil etish natijasida bo‘lajak mutaxassisni kasbiy tayyorlashning strategik vazifasini sifatli oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunga kelib, ta’lim sifati muammolarini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab ilmiy muassasalar, markazlar mavjud bo‘lib uning tub mohiyatini aniqlash va o‘lchashga yagona yondashuvlar va tamoyillar mavjud emas. Ta’lim sifati ko‘pincha mahsulot sifatiga (intellektual faoliyat) emas, balki standartlarga (ishlab chiqarishda bo‘lgani kabi) qandaydir muvofiqlik o‘lchoviga tenglashtiriladi. Ishlab chiqarishda va texnologik sohada rivojlangan sifat g‘oyalarini ta’lim jarayonlariga oddiygina tadbiq etmaslik lozim.

V.I.Polishchuk fikricha “ta’limni faqat umumiy, mavhum shaklda ishlab chiqarish deb atash mumkin” deb izohlaydi va oddiy mahsulot hamda o‘qituvchilar faoliyatining obekti bo‘la olmaydigan ta’lim predmetini kiritish o‘rtasidagi tub farq borligini tushuntiradi. Raqamli sharoitda ta’lim sifatini boshqarish yuqorida aytib o‘tilgan darajadagi bo‘linishni anglatmaydi. Bunday sharoitda har bir fan yaratilgan sharoitda bo‘lib, muammoni hal qila oladigan va talabani qiziqtirgan masalalarga yo‘naltira oladigan har qanday fan bilan bevosita bog‘lanishi mumkin. Universitet ichida o‘zaro ta’sir “gorizontal” yoki “vertikal” iyerarxik munosabatlar bilan chegaralanmagan keng qamrovli aloqa sxemasini ifodalovchi o‘quv jarayonining barcha subektlarining ko‘p kanalli o‘zaro bog‘liqligini ta’minlaydi. Ushbu sxema individual ahamiyatga ega yo‘nalish, birgalikdagi faoliyatga e’tibor berish bilan tavsiflanadi; faoliyatning barcha turlari va turlarini birlashtirish; natijaga ta’sir qiluvchi subektlarning tizimli harakatlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Makarova, E. A. Современные мультимедийные средства в преподавании русского языка / E. A. Макарова. – Казань: Казанский федеральный университет, 2019. – 250 с.
2. Петрова, А. В. Развитие речевой компетенции с использованием цифровых образовательных платформ / А. В. Петрова // Вестник педагогики. – 2020. – № 5. – С. 112-118.
3. Литвинова, Ю. И. Дистанционное обучение и мультимедиа в процессе изучения иностранных языков / Ю. И. Литвинова. – Новосибирск: Сибирское научное издательство, 2021. – 220 с.
4. Сорокина, Л. А. Влияние мультимедийных технологий на эффективность изучения русского языка / Л. А. Сорокина // Современные образовательные технологии. – 2018. – № 7. – С. 67-75.
5. Sweller, J. Cognitive Load Theory and Multimedia Learning / J. Sweller // Journal of Educational Psychology. – 1988. – Vol. 80. – No. 3. – P. 257-265.
6. Bruner, J. Toward a Theory of Instruction / J. Bruner. – Harvard University Press, 1966. – 224 p.

ИННОВАЦИОННОЕ НАПОЛНЕНИЕ ПРОБЛЕМНО-ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА В ПЕДАГОГИКЕ СФЕРЫ ИСКУССТВ И КУЛЬТУРЫ

Шахноза Сабирова,
Научный исследователь государственного института искусств и культуры Узбекистана

Аннотация

В данной статье рассматривается реализация проблемно-интегративного подхода в педагогике сферы искусств и культуры, наполнение его актуальными образовательными технологиями и средствами ИКТ. Также приведены конкретные примеры использования данных методик на различных направлениях высших учебных заведений творческого характера.

Ключевые слова: *искусство, культура, образовательные технологии, средства ИКТ, проблемно-интегративный подход, проблемные методы.*

Annotatsiya

Ushbu maqolada san'at va madaniyat sohasidagi pedagogikada muammoli-integrativ yondashuvni amalga oshirish, uni tegishli ta'lim texnologiyalari va AKT vositalari bilan to'ldirish ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ushbu metodologiyalardan ijodiy xarakterdagi oliy o'quv yurtlarining turli yo'nalishlarida foydalanishning aniq misollari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *san'at, madaniyat, ta'lim texnologiyalari, AKT vositalari, muammoli-integrativ yondashuv, muammoli usullar.*

Annotation

This article deals with the implementation of the problem-integrative approach in the pedagogy of arts and culture, filling it with actual educational technologies and ICT tools. Specific examples of using these techniques in various directions of higher educational institutions of creative character are also given.

Keywords: *art, culture, educational technologies, ICT tools, problem-integrative approach, problem methods.*

Введение. Сегодня в динамично, меняющуюся эпоху необходимо применять рациональные подходы и методы в передаче и закреплении педагогических знаний. Данный постулат касается всех сфер образовательного процесса и сферу искусств и культуры, в частности. Учитывая данный факт важно отметить, что рациональным является использование таких подходов, которые помогут студентам справляться со сложными задачами, а также совмещать воедино знания из различных областей. К таким подходам уместно отнести проблемно-интегративный. Он способствует более глубокой и комплексной подготовке будущих специалистов и эффективной организации образовательного процесса.

Основной особенностью данного подхода является синтез проблемного и интегративного методов с использованием современных образовательных технологий и средств ИКТ.

Методология исследования. Методология исследования статьи включает себя такие методы как: контент-анализ, анализ и синтез традиционных и инновационных подходов, сравнительный анализ.

Литературный обзор. Дж. Дьюи рассматривал теоретические основы проблемного обучения. В 1916 году он фокусирует свое внимание на формировании знаний умений и навыков посредством анализа и решения практических проблем и задач.

Теоретическими вопросами проблемно-интегративного подхода занимался такой ученый как: Ж.Пиаже – в 1950-е годы он предположил, что студенты самостоятельно строят знания по дисциплинам, работая именно над сложными задачами. Его теория придерживалась конструктивизма.

В 1983 году американский психолог, автор ставшей классической теории множественного интеллекта Г.Гарднер выдвинул такую теорию о том, что интеграция дисциплин способствует формированию многогранного взгляда на изучаемый предмет. То есть как мы ранее отмечали необходимо научить студентов совмещать воедино знания из различных областей.

Вышеуказанные ученые внесли значительный вклад в теорию и практику развития проблемно - интегративного подхода в педагогико-психологическом аспекте на мировом уровне, однако в сфере искусств и культуры Узбекистана данный вопрос остается малоизученным и требует дальнейших педагогических исследований.

Результаты. *Примерами проблемно-интегративного подхода использованного для студентов направления «Анимация и мультимедийный дизайн в искусстве»* было «создание творческого проекта» на примере анимационных заставок мобильных игр PUBG Mobile. Студентом предлагалось выполнить задание на примере педагогических игр, которые использовались на занятиях, такие как «Верю не верю» (суть игры в том, что студенты делятся на две группы и одна группа говорит определенный факт из истории педагогики, или любого другой изучаемой на тот момент дисциплины относящейся к дисциплинам кафедры «Общественно-гуманитарные науки», а вторая группа отвечает правда это или нет). Также предлагалось выполнить аналогичное задание к игре «Угадай кто» (суть игры в том, что предварительно студенты загадывали друг другу персонажа (из известных мультипликаций), написав имя на стикере. Затем каждый приклеивает стикер с именем на доску или на спину (смотреть, что написано на стикере, запрещено.) Задача студентов — отгадать, кто он такой, задавая одногруппникам вопросы о себе, на которые те могут отвечать только «да» или «нет». В этой игре студенты делали не только заставки, но и анимации на мультипликации.

В процессе выполнения вышепредложенного задания студенты использовали такие средства ИКТ как видеоредактор Movavi, Adobe express, Adobe Character Animator и Animaker (доступные в интернет ресурсе мобильные и компьютерные приложения).

Примером использования проблемно-интегративных подходов можно привести задания для направления «Вокального исполнительства». К ним мы отнесли следующие:

- создание вокальной интерпретации песни с использованием видеоряда, который отражает ее содержание. При выполнении данного задания студентами использовались такие приложения как: InShot (для видеомонтажа и добавления музыки), CapCut (для профессионального редактирования видео с эффектами), Adobe Premiere Rush (для создания высококачественных видеороликов).

- создание изображения визуальной интерпретации песни (сюжета, настроения, эмоций). Для выполнения задания данного характера использовались такие приложения как Procreate Pocket (мобильная версия для создания цифровых рисунков), Canva (для комбинирования текстов, изображений и цветов), Paper by WeTransfer (интуитивно понятный инструмент для зарисовок).

- вокальное исполнение песни на виртуальной сцене. Выполнение данного задания требовало применения таких приложений как: VRChat (создание и участие в виртуальных представлениях), YouTube VR (просмотр VR-концертов для вдохновения и анализа), SingSpace VR (вокальное исполнение в виртуальном мире).

В данных заданиях мы видим, как происходит интеграция визуализации музыкального произведения через: живопись и графику (создание картин или иллюстраций, отражающих содержание песни), дизайн и сценография (оформление сцены, использование костюмов и декораций), видеоарт (создание видеоряда или проекций для сопровождения исполнения).

Также здесь мы используем такие проблемные методы как проблемный анализ, проблемное моделирование, метод творческой проблемы, импровизация.

Для направления «актерское искусство театра кукол» были эффективны проблемно-интегративные методы игрового характера.

- использование Геймификации: Здесь студенты делились на группы и подручными реквизитами создавали инсталляции определенных героев сказок. К примеру, используя те же самые новогодние гирлянды- фонари они обворачивали себя и показывали интересные сценические образы, такие как волшебное дерево, звездный путеводитель или персонажей, излучающих свет и магию. Использовали при этом, программы вроде Resolume Arena, TouchDesigner или Adobe After Effects, которые позволяли добавлять проекционные эффекты на фон или реквизит, например, анимацию света для гирлянд, усиливая магический эффект. С помощью проектора студенты создавали движущиеся изображения звездного неба, а студенты, обернутые гирляндами, при этом выступали «живыми» звездами. Такая работа развивает не только творческое мышление, но и способность импровизировать в ограниченных условиях.

- другое задание подразумевало под собой сочетание традиционного подхода с инновационным. Студенты использовали бумагу, ткани или даже пластик, чтобы создать маски, тени или простейших кукол. После этого они инсценировали игровые мини-спектакли, активно взаимодействуя голосом, мимикой и движением, интегрируя элементы актерского мастерства, вокала и кукольной техники. В данном случае они использовали 3D-анимацию при помощи приложений Toon Boom, Moho, Blender — для создания анимационных персонажей, которые взаимодействовали с реальными актерами.

- активно выполнялись задания с использованием робототехники. Студенты делали инсценировку на тему: «Будущее защитников Отечества» на 14 января ко Дню Защитников Родины. Они изображали военных, а роботы выступали в качестве боевой техники и дополнительного реквизита. В процессе

использовались анимация и проекторы: применяя проекторы, можно оживить роботов, анимации или дополнительные сцены, создавая виртуальных роботов, которые взаимодействуют с реальными актерами.

- также со студентами использовался метод моделирования. К примеру, для моделирования героев произведения Хамса известного поэта и писателя Алишера Навои студентами было использовано такое мобильное приложение как Sculpt+ (Android) - легкий инструмент для скульптинга, с помощью которого можно создавать детализированные модели героев вручную.

Для студентов направления «Организация и управление учреждениями искусств и культуры» было предложено сделать творческий проект «Виртуальный музей джадидов» с использованием инструментов Искусственного интеллекта. Для этого были применены такие приложения как: MagiScan 3D SCANNER, Polycam для оцифровки реальных книг, картин. Такие приложения как Remini или Adobe Photoshop AI, помогли восстановить старые фотографии джадидов. Это помогло для оцифровки редких рукописей и превращение их в виртуальные экспонаты. Виртуальная реальность (VR): Использовались платформы, такие как Oculus Rift или HTC Vive, чтобы обеспечить полное погружение.

Вывод. Проведенный анализ данной тематики показал высокую эффективность применения проблемно-интегративного подхода в подготовке специалистов творческих специальностей. Наполнение традиционного подхода инновационным наполнением актуальными образовательными технологиями и средствами ИКТ значительно расширили возможности применяемых методов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Дьюи, Дж. (1916). Демократия и образование. Москва: Прогресс, 432 с.
2. Пиаже, Ж. (1950). Психология интеллекта. Москва: Педагогика, 287 с.
3. Гарднер, Г. (1983). Структуры разума. Теория множественного интеллекта. Москва: Прогресс, 412 с.
4. Абдужаббарова, М.Л. Воспитательный потенциал образовательных программ в Узбекистане. — Ташкент: Издательство "Узбекистан", 2010. — 220 с.
5. Баходирова, Г.К. Интеграция инновационных технологий в образовательные учреждения Узбекистана. — Ташкент: Издательство "Фан", 2018. — 250 с.

OLIY TA’LIM TIZIMIDA TA’LIM SIFATI MONITORINGINI TAKOMILLASHTIRISH

Dilshod Abdug‘aniyev,
Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi bosh mutaxassisi

Annotatsiya

Bugungi zamonaviy rivojlanib borayotgan ta’lim jarayoni sharoitida oliy ta’lim tizimini monitoring qilish asosiy talablardan biri hisoblanadi. Bunda oliy ta’limda o‘qituvchi va talabalarni o‘quv jarayoni faoliyatini monitoring qilish doimiy rivojlanishning asosidir. G‘ayratli va shijoatli o‘qituvchilar faoliyatida ayniqsa bu faoliyat alohida o‘ringa ega.Qolaversa bugun ta’limga kirib kelayotgan innovatsion yondashuvlar monitoring qilish natijasida rivojlanish tendensiyalarini aniqlab berishi kuzatiladi.

Kalit so‘zlar: *Ta’lim jarayoni, pedagogika universitetlari, hamkorlikda o‘qitish, muloqot ko‘nikmalari, tanqidiy fikrlash, yo‘naltirilgan ta’lim, pedagogik kompitensiyalar.*

Аннотация

В современном, динамично развивающемся образовательном процессе мониторинг системы высшего образования является одним из основных требований. В этой связи мониторинг образовательной деятельности преподавателей и студентов вузов является основой постоянного развития. Эта деятельность занимает особое место в работе амбициозных и целеустремленных учителей. Кроме того, отмечается, что мониторинг инновационных подходов, которые сегодня внедряются в образование, позволяет выявить тенденции развития.

Ключевые слова: *Образовательный процесс, педагогические вузы, совместное обучение, коммуникативные навыки, критическое мышление, направленное обучение, педагогические компетенции.*

Annotation

In the conditions of today's modern developing educational process, monitoring the higher education system is one of the main requirements. In this regard, monitoring the activities of teachers and students in the educational process in higher education is the basis for continuous development. This activity has a special place in the activities of enthusiastic and ambitious teachers. In addition, it is observed that the innovative approaches that are entering education today, as a result of monitoring, determine the development trends.

Keywords: *Educational process, pedagogical universities, collaborative learning, communication skills, critical thinking, directed learning, pedagogical competencies.*

Mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlanishini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etishi ko‘rsatilgan. Qaror va qonun osti hujjatlarda:

- ta’lim jarayoni va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta’minlash, ta’limning barcha turlari va bosqichlarida o‘quv-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;

- ta’limning belgilangan davlat ta’lim standarti talablarini bajarilishiga erishish monitoringi amalga oshirilishini tartibga solish;

-sifatli ta’lim xizmatlari ko‘rsatish, ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish;

- mehnat va ta’lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlilikni ta’minlash;

- kadrlar tayyorlash sifati va pedagogik faoliyat natijalarini baholash mezonlari va tartibini belgilash;

- ta’lim sifati va ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari nomenklaturasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilash;

- ta’lim va uning pipovapd natijalari, ta’lim oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini muntazam baholash tartibi va mezonlarini ishlab chiqish;

- o‘quv-tarbiya jarayoni, unda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar, axborot ta’minotiga erishish;

- o‘qitish darajasini nazorat qilish, ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan meyoriy talablarni belgilash;

- ta’lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning xolis tizimi, hamda ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish va akkreditatsiya qilishni joriy etish;

- milliy standartlar talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash;

- ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagog kadrlar bilimi va kasbiy kompetensiyalari sifatini nazorat qilish hamda xolisona baholash tizimini tashkil etish masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Mazkur masalalar o‘qitish sifatini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlarini ifodalab, ularning nazariy-emperik asoslari pedagog, psixolog, huquqshunos, siyosatshunos va faylasuf olimlar tomonidan tadqiq etishni taqozo qiladi. Mazkur muammo, avvalo, pedagogika fanining tadqiqot predmeti bo‘lib, quyidagi tushunchalar konseptual ilmiy talqinni talab etadi:

ta’lim sifatini monitoring qilish modeli, obekti, predmeti, davriyligi, samarali shakl va metodlari;

ta’lim sifatini monitoring qilish modelini takomillashtirishning nazariy asoslari;

o‘qitish sifati diagnostikasi, pedagogik diagnostika modeli, ko‘rsatgichlari va uning tarkibiy qismlari;

o‘qitish sifati ko‘rsatgichlar tizimi prinsip, parametr, indikatorlarning ilmiy-metodik asoslari;

o‘qitish sifatini baholashda oila, mahalla, ta’lim muassasasi va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamkorligi, ular orasidagi munosabatlarning psixologik-pedagogik asoslari;

o‘qitish sifati monitoringini amalga oshirishning didaktik asoslari;

o‘qitish sifati monitoringini amalga oshirish mexanizmi, o‘qitish sifatiga ta’sir etuvchi omillarning o‘zaro ta’siri va boshqalar.

Ta’lim sifatini monitoring qilish bo‘yicha tadqiqotlar kompleks xarakterga ega bo‘lganligi sababli uning metodologik asoslari pedagogika, sotsiologiya, psixologiya fanlari nazariyasiga tayanadi.

Ta’lim tizimida ta’lim sifatini monitoring qilish modelini takomillashtirish bir necha o‘zaro aloqador, pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatdan ma’lum darajada mustaqil tushunchalarning o‘zaro munosabatidan

tashkil topadi. Ular: o‘qitish sifati, diagnostika, model, modellashtirish, modelni takomillashtirish tushunchalaridir.

O‘qitish sifati – ijtimoiy-pedagogik hodisa bo‘lib, O‘zbekiston jamiyatida ta’limning holati va natijalanganligini aniqlovchi hodisadir.

Kompetensiya va kompetentlik atamalari o‘zakdosh bo‘lib, ular G‘arb ilmiy adabiyotida XX asrning 60-yillarining oxiri, 70- yillarda paydo bo‘ldi. “Kompetensiya” atamasi milliy pedagogikada XX asrning 90 yillaridan e’tiboran ishlatila boshlandi. “Kompetensiya” atamasi “pedagogik madaniyat”, “kasbiy layoqatlilik”, “kvalifikatsiya” atamalari bilan ma’nodosh hisoblanib kelindi.

Kompetensiya - muayyan muammo va masala, hodisa borasida shaxsning bilim, tajriba, mutasaddilikka ega bo‘lishi va ularni hal qilishga yetadigan salohiyati tushuniladi[1]

Ta’lim jarayonini innovatsion tashkil etishda jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda o‘qituvchining o‘rni beqiyosdir. Har sohada kompetent o‘qituvchi bo‘lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o‘zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada tahsil oluvchilarni o‘qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g‘oyalar bayon etiladi. O‘qituvchining yosh individual xususiyatlarini e’tiborga olish ta’kidlanadi. Pedagogik jarayon esa juda xilma – xil va turli tumandir. Unda pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o‘qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik kompetentlikni va ijodkorlikni talab etadi.

Shu bilan birga zamonaviy o‘qituvchi buyuk ma’naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o‘zida mo‘jassamlashtirgan, yetuk kadr sifatida faoliyat yuritishi talab etiladi. Hozirgi davrning bu talabi - o‘qituvchilarni yuksak pedagogik mahorat va texnika ko‘nikmalariga ega, pedagoglik kompetensiya sirlaridan voqif bo‘lgan, umummadaniy fazilatlarga boy shaxs sifatida ta’lim-tarbiya jarayonining ijodkori bo‘lishi lozimligini isbotlamoqda.

Barcha talablar kelajak avlodning aqliy-intellektual, ma’naviy salohiyatini oshirishga qaratilgan ekan, bunga avvalo o‘qituvchi kasbiga bo‘lgan munosabatni tub jihatdan o‘zgartirish, pedagog mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirishni taqozo etadi. O‘qituvchi – avvalo jamiyatning yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga qo‘ygan ijtimoiy buyurtmasining asosiy ijrochisidir.

Shu jihatdan, bugungi mustaqillik sharoitida o‘qituvchilik kasbiga e’tibor va talab har qachongiga nisbatan ortib bormoqda.

Pedagogik kompetentlik – yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi va kasbiy faoliyatidagi individuallikning yorqin ko‘rinishi sifatida tushuniladi.

Pedagoglik kompetensiya o‘qituvchidan odatdan tashqari kuch - g‘ayratni, qat’iyatni, tirishqoqlikni, tadqiqotlarni olib borishga intilishni, yangi vaziyat, yangi jamoaga kirishish qobiliyatini, samimiyatni, to‘g‘rilik va halollikni, o‘tkir aql-idrokni, bir vositani boshqasi bilan tekshirib ko‘rish malakasini talab qiladi. Bugun respublikamizda innovatsion faoliyat asosida ish ko‘rayotgan o‘qituvchilar soni yil sayin oshib bormoqda. Bu holat hukumatimiz, xalqimiz tomonidan munosib qadrlanib, e’zozlanmoqda. Ming afsuski, o‘z ishiga sidqidildan yondashmagan, ya’ni pedagoglik kompetensiyasini to‘liq egallamagan tajribasiz o‘qituvchilar ham oramizda yo‘q emas. Shu sababli ta’lim muassasalarida sifatli ta’limni amalga oshirish va samarasiz faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar ishini innovatsion faoliyatga yo‘naltirish, ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashni ta’minlash uchun quyidagilarga e’tiborni qaratish kerak:

Birinchidan, uzluksiz ta’lim tizimi sifatini baholash metodlari hamda komponentlari asosida rivojlantirib borish;

Ikkinchidan, sifatli ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishda o‘qituvchi kompetensiyasini rivojlantirish;

Uchinchidan, ta’lim sifatini ta’minlashda zamonaviy yondashuvlarining asosiy negizi – turli xil boshqaruv, innovatsiya va axborot texnologiyalarini ta’limga joriy etishda o‘qituvchining layoqatini oshirish;

To‘rtinchidan, ta’lim-tarbiya sifatining mahsulasi – natijani qo‘lga kiritishda pedagogika va psixologiyaga oid tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish, ularni amaliyotda tatbiq qilish, ilg‘or natijalarni ommalashtirish, novator o‘qituvchilarni munosib taqdirlash va boshqalar.

Bo‘lajak o‘qituvchining ko‘p qirrali faoliyati va uning qobiliyati, ijodkor va fidoiy bo‘lishi hamda shogirdlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan biridir. Shu sababli zamonaviy o‘qituvchilar pedagoglik kompetensiyasiga mos bo‘lishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Арипов М. и др. Основы Internet.–Т.: Университет, 2002. – С. 194.
2. Тўлқин Эшбек. Медиатаълим янги таълим усули сифатида. http://uchildiz.uz
3. Феодоров А.В.Медиаобразование: творческие задания для студентов и школьников // Инновация в образовании, –Москва. 2006. – С. 175-228
4. Хуторской А.В. Образовательные компетенции и методология дидактики. К 90-летию со дня рождения В.В. Краевского. Электронный ресурс.
5. Sharipov Sh.S, Aripov M, Begimqulov U.Sh. Bilim olishning intelektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. - T.: Fan, 2011. - B. 72.

EFFECTIVE FORMS OF THE PROJECT METHOD IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO STUDENTS OF PEDAGOGICAL UNIVERSITIES

Dilbar Urazbaeva,
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Abstract

The project method has emerged as one of the most effective approaches to foreign language teaching in pedagogical universities. By engaging students in active, collaborative, and context-rich activities, it fosters critical thinking, creativity, and communication skills. This paper explores various forms of the project method, focusing on its practical application, benefits, and challenges in teaching foreign languages to future educators. Special emphasis is placed on how these methods align with modern educational goals and improve pedagogical practices.

Keywords: *Project method, foreign language teaching, pedagogical universities, collaborative learning, communication skills, critical thinking, student-centered learning.*

Аннотация

Метод проектов стал одним из наиболее эффективных подходов к преподаванию иностранных языков в педагогических университетах. Вовлекая студентов в активную, совместную и контекстно-богатую деятельность, он способствует развитию критического мышления, креативности и коммуникативных навыков. В этой статье рассматриваются различные формы метода проектов с упором на его практическое применение, преимущества и проблемы в преподавании иностранных языков будущим педагогам. Особое внимание уделяется тому, как эти методы согласуются с современными образовательными целями и улучшают педагогическую практику.

Ключевые слова: *Метод проектов, преподавание иностранных языков, педагогические университеты, совместное обучение, коммуникативные навыки, критическое мышление, обучение, ориентированное на студента.*

Annotatsiya

Loyiha usuli pedagogika oliy o‘quv yurtlarida chet tilini o‘qitishning eng samarali usullaridan biri sifatida paydo bo‘ldi. Talabalarni faol, hamkorlikdagi va mazmunga boy faoliyatga jalb qilish orqali u tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ushbu maqolada loyiha usulining turli shakllari o‘rganilib, uning amaliy qo‘llanilishi, afzalliklari va bo‘lajak o‘qituvchilarga chet tillarini o‘rgatishdagi muammolariga e’tibor qaratiladi. Bu usullarning zamonaviy ta’lim maqsadlariga qanchalik mos kelishi va pedagogik amaliyotni takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *Loyiha usuli, chet tilini o‘qitish, pedagogika universitetlari, hamkorlikda o‘qitish, muloqot ko‘nikmalari, tanqidiy fikrlash, o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim.*

Introduction. In the era of globalization, the demand for highly skilled and adaptable foreign language teachers has grown significantly. Pedagogical universities play a critical role in preparing future educators capable of meeting this demand. Among various teaching methodologies, the project method stands out as an innovative approach that bridges theoretical knowledge with practical application.

The project method emphasizes active participation, teamwork, and real-world problem-solving, making it especially suitable for language teaching. By involving students in collaborative projects, it enhances their linguistic competencies, cultural awareness, and teaching skills. This paper delves into the effective forms of the project method in foreign language education, with a focus on its implementation in pedagogical universities.

Literature review. 1. Evolution of the Project Method

The project method traces its origins to the early 20th century, with the works of John Dewey and William Kilpatrick emphasizing experiential learning and student-centered approaches. According to Dewey, education should be rooted in real-life activities that encourage active participation[1]. In the context of language learning, this approach has gained traction due to its emphasis on meaningful communication and cultural exchange.

2. Application in Language Teaching

Research shows that the project method effectively addresses the four core language skills: reading, writing, speaking, and listening [2].Projects such as role-plays, cultural presentations, and collaborative research help students internalize linguistic structures and vocabulary while fostering critical thinking and teamwork.

3. Pedagogical Universities and Future Teachers

For future language educators, the project method offers dual benefits. It not only enhances their language proficiency but also equips them with innovative teaching techniques. Studies by Smith and Johnson (2018) indicate that student teachers who engage in project-based learning are more likely to adopt interactive and student-centered approaches in their future classrooms[6].

4. Challenges in Implementation

Despite its benefits, implementing the project method is not without challenges. Limited resources, time constraints, and varying levels of student motivation can hinder its effectiveness. However, with careful planning and support, these challenges can be mitigated [3, 54].

Discussion. 1. Forms of the Project Method

The project method can take various forms in foreign language education, each tailored to specific learning objectives and contexts:

Collaborative Research Projects: Students work in groups to research a topic related to the target language or culture, such as historical landmarks or traditional festivals.

Role-Plays and Simulations: Students assume roles in simulated scenarios, such as a press conference or a job interview, to practice conversational skills.

Cultural Exchange Projects: Students interact with native speakers through online platforms or exchange programs, fostering authentic language use and cultural understanding[5].

Creative Media Projects: Students create videos, podcasts, or blogs in the target language, combining language skills with digital literacy.

2. Benefits of the Project Method

The project method offers several advantages in the context of foreign language teaching:

Enhanced Communication Skills: Collaborative activities require students to use the target language in authentic contexts, improving fluency and confidence.

Critical Thinking and Problem-Solving: Projects often involve analyzing information, generating ideas, and making decisions, fostering higher-order thinking skills.

Cultural Awareness: Projects with a cultural focus help students understand and appreciate the nuances of the target language culture.

Preparation for Real-Life Scenarios: By simulating real-world tasks, the project method prepares students for practical communication in diverse settings.

3. Integration into Curriculum

Integrating the project method into the curriculum requires a well-structured approach:

Goal Setting: Clearly define the objectives and expected outcomes of each project.

Resource Allocation: Provide access to materials, technology, and support to facilitate project completion.

Assessment Criteria: Develop rubrics that evaluate both the process and the final product of the project.

Feedback Mechanisms: Offer constructive feedback to help students refine their skills and approaches.

Results. Increased Engagement: Students participating in project-based learning demonstrate higher levels of motivation and interest in foreign language classes.

1. **Improved Language Proficiency:** Projects enhance linguistic accuracy and fluency through repeated practice and authentic communication.
2. **Development of Teaching Skills:** Future educators gain hands-on experience with innovative teaching techniques, preparing them for diverse classroom settings.

4. Case Studies on Effective Implementation

Case Study 1: Role-Playing in Pedagogical Universities

In a university in Tashkent, Uzbekistan, role-playing was integrated into an English language curriculum. Students simulated real-life scenarios such as job interviews and cultural festivals. This approach not only improved their conversational skills but also their confidence in using the language in formal settings. Feedback indicated increased enthusiasm for language learning and better retention of vocabulary.

Case Study 2: Collaborative Cultural Projects

A cohort of French language students in a pedagogical university participated in a project to design a virtual guide to Paris. They conducted research, wrote descriptions, and recorded audio guides in French. The project combined language skills with digital literacy, resulting in both improved language proficiency and practical skills applicable in the workplace.

Case Study 3: Blended Learning and Digital Media

Using technology to facilitate group projects, one university introduced podcasts where students discussed cultural topics in English. By integrating both asynchronous and synchronous methods, students enhanced their speaking and listening skills. The results showed significant improvement in pronunciation and the ability to sustain conversations[4, 206].

The outcomes of implementing the project method in foreign language teaching have shown the following benefits:

1. **Linguistic Improvement:** Students demonstrated measurable progress in speaking, writing, and comprehension skills.
2. **Increased Cultural Competence:** Exposure to authentic materials and intercultural communication enriched their understanding of target cultures.
3. **Stronger Peer Collaboration:** Group projects fostered teamwork and a sense of responsibility among students.
4. **Preparedness for Professional Roles:** Students gained confidence in applying language skills in professional and social contexts.
5. **Enhanced Engagement:** Learners reported greater interest and enthusiasm for language studies due to the hands-on and interactive nature of projects.

Conclusion. The project method is a powerful tool for teaching foreign languages to students in pedagogical universities. Its effectiveness lies in its ability to engage learners actively, promote linguistic and cultural competence, and equip future educators with innovative teaching techniques.

However, the success of this method depends on careful planning, resource allocation, and ongoing support from instructors. By integrating well-designed projects into the curriculum, pedagogical universities can prepare a new generation of language teachers who are not only proficient in their field but also capable of inspiring and engaging their students.

REFERENCES:

1. Dewey, J. (1938). *Experience and Education*. New York: Macmillan.
2. Brown, H. D. (2004). *Principles of Language Learning and Teaching*. Pearson Education.
3. Smith, J., & Johnson, L. (2018). "Innovative Teaching Practices in Pedagogical Universities." *Journal of Education Research*, 15(3), 45–62.
4. Jones, A. (2017). "Overcoming Challenges in Project-Based Language Learning." *TESOL Quarterly*, 51(2), 189–210.
5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
6. Larsen-Freeman, D. (2015). "Techniques and Principles in Language Teaching." *Oxford Handbooks Online*.

PSIXOLOGIK BARQARORLIK KO‘NIKMALARINI MUSTAHKAMLASHNING NAZARIY METODOLOGIK BAZASI

Shirinoy Mustafayeva,
Central Asian Medical University “Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat” kafedrasi o‘qituvchisi, (Ph.D.)

Annotasiya

Maqolada harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorlik ko‘nikmalarining psixologik asoslari yoritilgan bo‘lib, nazariy hamda amaliy bilimlarning tahlili keltirilgan. Ruhiy holatdagi o‘zgarishlarning xizmat faoliyatiga ta’siri, stressga bardoshlilikni shakllantiruvchi amaliy ko‘nikmalarga alohida e’tibor berilgan. Harbiy faoliyatda zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni mustahkamlovchi psixologik mexanizmlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *harbiylar, psixologik barqarorlik, ko‘nikma, stress, xulq-atvor, xavotirlik, qo‘rquv, ruhiy holat.*

Abstract

The article describes the psychological foundations of developing the skills of psychological stability of military personnel, and also analyzes theoretical and practical knowledge. Particular attention is paid to the influence of changes in mental state on work activities and practical skills that form stress resistance. The psychological mechanisms that consolidate the skills necessary in military activities are described.

Key words: *military, psychological stability, skills, stress, behavior, anxiety, fears, psychological state.*

Аннотация

В статье описаны психологические основы формирования навыков психологической устойчивости военнослужащих, а также проведен анализ теоретических и практических знаний. Особое внимание уделено влиянию изменений психического состояния на служебную деятельность, практические навыки, формирующие стрессоустойчивость. Описаны психологические механизмы, закрепляющие навыки, необходимые в военной деятельности.

Ключевые слова: *военные, психологическая устойчивость, навыки, стресс, поведение, тревожность, страхи, психологическое состояние.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi bo‘linmalarida shartnoma bo‘yicha xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarni sifatli tayyorlash zamonaviy jangovar holatlarda ularni ahloqiy-ruhiy xolati va psixik barqarorligini mustaxkamlashga shuningdek, har qanday vaziyatda o‘z-o‘zini safarbar qilish ko‘nikmalarini mustaxkamlash zamon talabiga aylanib bormoqda. Hozirgi globallashuv va “siyosiy o‘yinlar”davrida harbiy faoliyatda askarlar va harbiy xizmatchilarning yetarli psixologik ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, o‘z-o‘zini safarbar qilishda favqulotda zakovat, o‘z-o‘zini boshqarish, ruxiy barqarorlik, ichki xotirjamlikni saqlagan holda, qo‘rquv va toliqishni yengish qobiliyatlarini mustaxkamlash kerakli psixologik bilimlarni talab qiladi. Tan olish kerak, bugungi kunda harbiy psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan o‘z-o‘zini safarbar qilish va ruhiy barqarorlikni saqlashga doir amaliy mashg‘ulotlar va ilmiy qo‘llanmalar yetarli emas. Bu esa, o‘z navbatida maslaga jiddiy

yondashuvni va zamonaviy talablarni qo‘ymoqda, ya’ni xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarni ahloqiy-ruhiy xolati hamda o‘z-o‘zini safarbar qilish ko‘nikmalarini psixologik mexanizm va modullarni ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy yetish. Shu bilan birga harbiy sohada o‘z-o‘zini safarbar qilish ko‘nikmalarini mustaxkamlash borasida harbiy psixologlarning yetarli bilim va tajribaga ega emasligi, psixologik modul va mexanizmlar ishlab chiqilmagani, mavzuga doir ilmiy-amaliy qo‘llanmalar mavjud emasligi masalaga ilmiy yondashuv zarurligini ifodalaydi.

Bu masaladagi “ma’lumotlar tanqisligi” ni bartaraf etib, harbiy psixologlarning kasbiy nazariy va amaliy faoliyatga zarur bo‘lgan ilmiy-amaliy ma’lumotlar, bilim va ko‘nikmalarni yaratishga xizmat qiladigan modullar va qo‘llanmalar tayyorlashga qaratilgan. Ushbu mexanizm va modullar O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar qo‘shinlarida psixologik xizmatning nazariy, ilmiy-amaliy bilimlarga asoslangan axloqiy ruxiy holatlar va o‘z-o‘zini safarbar qilish mexanizmlarining psixologik asoslarini yaratib beradi.

Bugungi kunda ko‘plab mualliflar A.I. Dolgova, M.I. Dyachenko, K.F. Selchenok, V.V. Shelyaga, A.D. Glotochkin, K.K. Platonov, P.L. Fomenko, P.A. Korchemny, V.V. Laptev, V.G. Mixaylovskiylar harbiy xizmatning ham o‘ziga xos ekstremalligi namoyon bo‘layotganini ta’kidlaydilar. Xususan, M.I. Dyachenko zamonaviy janglarning ekstremal sharoitlari, jangovar vaziyatlarning dinamikligi, uyqu, dam olish va ishning almashinishi, vazifani kunning turli vaqtlarida, yomon ob-havo sharoitida va dushman haqida ma’lumot yetishmasligi bilan bajarish, salbiy jangovar omillarga uzoq yoki juda kuchli ta’sir qilish, hayotga tahdid, ba’zi ma’lumotlarning yetishmasligi va noaniqligi, qarorlar qabul qilish va amalga oshirishda vaqt yetishmasligi kabi harbiy xizmatdagi xavfni asosladi. Bundan tashqari, jangovar harakatlarning barchasi psixologik stressning asosiy sabablari ekanligini ta’kidladi.[1]

Ma’lumki, Qurolli Kuchlar qo‘shinlarida psixologik xizmatning samaradorligi xarbiy xizmatchilarning ruxiy axloqiy xolati va o‘z-o‘zini safarbar qilish bilan uzviy bog‘liq, to‘g‘ri tashkil qilingan amaliy mashg‘ulotlar hamda psixologik targ‘ibot ishlari, korreksion mashqlar harbiy xizmatchilarning jangovar ruxiy xolatini rivojlantirishga hamda mustaxkamlashga xizmat qiladi. Bu borada xorij davlatlarning tajribalari va ilmiy psixologik adabiyotlarida (N.A. Konovalov, A.N. Leontev, A.R. Luriya, A.A. Smirnov, B.M. Teplov, M.P. Feofanov, G.A. Fortunatov, A.G.Karayani, V.I.Siromyatnikov va boshq.) ushbu muammo qo‘shinlarning jangovar tayyorgarlikni rivojlantirish sohasida amalga oshirilgan. Ilmiy adabiyotlar o‘rganish va tahlil qilish asosida Respublikamiz Qurolli Kuchlarida ushbu mavzuni tadqiq qilishda mexanizm va modullar, o‘quv ilmiy-amaliy qo‘llanmalar ishlab chiqilmagan, natijada psixologik tayyorgarlikni rivojlantirish bo‘yicha mudofaa vazirligi qo‘shinlarida bu savollar o‘z echimini kutayotgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

XX asr ohirlarida psixologik barqarorlik tushunchasi ko‘proq ekstremal holatlarda tezlik bilan chora ko‘rishda qo‘llaniladigan ruhiy xolat sifatida tushunilar edi. Hozirgi vaqtda harbiy chaqiruv yoshidagi ayrim yoshlarning jismoniy va ruhiy tayyorgarligidagi bo‘shliqlar, asab-psixika tizimidagi bardoshlilikning yetarli emasligi har qanday vaziyatni ekstremal vaziyat sifatida qabul qilib, ruhiy bardoshsizlik, jangovar stressga moyillikning yuqoriligi, psixologik barqarorlik mavjud emasligini ifodalamoqda.

Jangovar ruhiy stressning paydo bo‘lishiga hissa qo‘shadigan muhim omil jarohatlar, harbiy xizmatchilarning uyqu rejimining buzilishi xisoblanadi. Bir uyqusiz kechadan so‘ng, jangovar samaradorlik pasayadi, xotira hajmi tezda pasayadi, birinchi navbatda, qisqa muddatli xotira, bu esa miyaga kiruvchi ma’lumotlarning kamroq assimilyasiya qilinishiga olib keladi. Axborotni to‘g‘ri qabul qilish va tanqidiy fikrlash, qisqa daqiqalarda qaror qabul qilishni qiyinlashtiradi.

S.I. Sedin va R.A. Abdurahmonov jangovar vaziyatga ta’sir qilishning psixologik oqibatlarini o‘rganar ekan, harbiy xizmatchilarning jangovar muhitdagi faoliyati psixikaga ta’sir qilish bilan tavsiflanadi, kuchaygan intensivlikdagi stress omillarining to‘lqinlari va ularning ta’sir qilish muddati shuningdek, psixotravmatik xususiyatga ega bo‘lib, insonning aqliy faoliyatida o‘zgarishlarning paydo bo‘lishiga asos solishi mumkin.[2]

Jangovar harakatlar paytida harbiy xizmatchilarning ruhiyati ko‘pchilikka ta’sir qiladi. Ulardan ba’zilari uning jismoniy va ma’naviy imkoniyatlarini safarbar qilish va jamlashga, jangovar faollikni oshirishga, jasorat, fidoyilik bo‘lsa, boshqalar, aksincha, harbiy xizmatchining jangovar faoliyatini buzadi, tananing mavjud zaxiralariga kirishni to‘sib qo‘yadi, asab tizimi va psixikaning faoliyatini buzadi va asotsial buzilishlarga asos solishi mumkin. Ayrimlari esa, jangovar hatti-harakatlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi.

Askarning ruhiy holati dinamikasida uch bosqichni belgilash mumkin:

1) xizmat va jangovar topshiriqlarni bajarishga tayyorgarlik;
2) jangovar harakatlar, mashqlar va kampaniyalar;
3) harbiy harakatlarni tugatish va rasmiy vazifalarni bajarish

Tayyorgarlik bosqichida inson ruhiyatida jangovar topshiriqni bajarishga o‘tish bilan bog‘liq inersiya namoyon bo‘ladi, bunda harbiy qat’iylik holatini yaratish, stereotipik xulq-atvor, yod olingan operasiyalarga o‘zini jalb qilish, harakat shakllari va usullari paydo bo‘ladi.

Murakkab jangovar vaziyatda psixologik jihatdan tayyor bo‘lmagan harbiy xizmatchilar qo‘rquvni boshdan kechirishi mumkin, bu o‘ta kuchli, hayotga xavf tug‘diradigan tashqi ta’sirlar natijasida yuzaga keladigan affektiv ruhiy holatdir. Qo‘rquv askarning ruhiy barqarorligini buzishi, salbiy ko‘rinishlarni keltirib chiqarishi va jangovar samaradorligini zaiflashtirishi mumkin. Tajribaning intensivligi va chuqurligi darajasiga ko‘ra, u havotir, hayajon, qo‘rquv, vaxima shaklida o‘zini namoyon qilishi mumkin.

Vaxima holati astenik va stenik shakllarga ega bo‘lishi mumkin. Birinchisida, ba’zi hollarda xavf ta’sirida odam qotib qoladi va o‘zini harakatga qodir emas deb biladi; ikkinchisida, yuqori darajadagi qo‘zg‘alish kuzatiladi. Vahimaning ikkala shakli ham harbiy xizmatning o‘ta og‘ir holatlarida namoyon bo‘ladi.

Tayyorlanmagan harbiy xizmatchilarda namoyon bo‘ladigan qo‘rquvning chuqur patologik shakllaridan biri bu - psixologik shok. Bunda insonda aqliy faoliyatning kognitiv funksiyalari tormozlanib, vaxima xurujlari namoyon bo‘ladi. Bunday ruhiy xolat atrofdagi askarlarga ham ta’sir etib, ularga go‘yoki, yaqinlashib kelayotgan xavf hissi yuqtiradi. Askarlar orasida qo‘rquv va vahimani engishning asosiy usullari quyidagilardan iborat: qo‘mondonlarning qat’iyligi va qat’iy etakchiligi, ruhiy xolatida o‘zgarish sodir bo‘layotgan askarni aniqlash qobiliyati.

Affekt - bu yetarli darajada aniqlanmagan xavf sharoitida yuzaga keladigan va hodisalarning noqulay rivojlanishini kutishda o‘zini namoyon qiladigan hissiy holat.[3] Xavotir nafaqat mumkin bo‘lgan xavf haqida signal beradi, balki harbiy xizmatchilarni uning manbalarini izlashga va aniqlashga undaydi. Bu tuyg‘u sifatida quyidagi o‘zgarishlar paydo bo‘lishi mumkin: yaqinlashib kelayotgan xavf oldida ojizlik, o‘ziga ishonchsizlik, kuchsizlik, tahdidni bo‘rttirish. Bunday holatda qo‘rquv tahdid qiluvchi stimullarning ta’siri tufayli tananing yaxlitligini saqlab qolish uchun tug‘ma, instinktiv harakat dasturini bir zumda amalga oshirishda o‘zini namoyon qiladi. Affekt holati atrof-muhitning keskin noqulay o‘zgarishiga duch kelganda o‘zini-o‘zi saqlash instinkti asosida paydo bo‘ladi. Shuning uchun affektga berilib ketgan odamning hatti-harakatlarini bevosita nazorat qilish juda qiyin. Affekt hissi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xavfni kutish yoki odamni har qanday harakatga tayyorlash bilan bog‘liq emas. Shunga qaramay, harbiy burch tuyg‘usini faollashtirish, jangovar tajriba, maqsadga muvofiq va qat’iy harakatlar namunasi, diqqatni jamlash yoki o‘zini o‘zi chalg‘itish psixologik barqororlikka yordam beradi. Askarning qo‘rquvga qarshiligi jangning kutilmagan hodisalarini tez va to‘g‘ri idrok etish bo‘yicha dastlabki tayyorgarlik tufayli ortadi.

Uchinchi bosqichda uzoq muddatli jangovar harakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan “jangovar charchoq”, deb ataladigan buzilishlar, "jang - zarba", bir necha soatdan keyin paydo bo‘ladigan oddiy hissiy reaksiya yoki shiddatli kurash kiradi. Harbiy xizmatchilardagi zarba havotir, tushkunlik, qo‘rquv hissi va "jangovar charchoq" bilan tavsiflanadi. Uzoq muddatli jismoniy faoliyatda kuchli charchoq kuchli tufayli yuzaga keladi; perseptiv, intellektual, hissiy-irodaviy va motivasion haddan tashqari toliqish; odatlarning buzilishi, hayot ritmining o‘zgarishi (faoliyatning o‘zgarishi va sifati, dam olish, uyqu, ovqatlanish va boshqalar); aqliy o‘zini o‘zi boshqarish va jismoniy salomatlik tizimidagi buzilishlar namoyon bo‘ladi.[4]

Shunday qilib, to‘liq umidsizlik hissi, u o‘zini atrof-muhitga va vaziyatga ta’sir o‘tkazishga qodir emas deb hisoblashi, o‘zidan qoniqmasligi kuzatiladi. Harbiy xizmatchilarning ruhiyatidagi bu o‘zgarish o‘zining og‘riqli fikrlari dunyosiga to‘liq singib ketgan izolyasiya bilan ajralib turadi. Ko‘pincha, ular hayotdan ixtiyoriy ravishda ketishni vaziyatdan chiqish yo‘li sifatida ko‘rishadi. Shaxsning dezintegrasiyasi psixikaning xulq-atvor va faoliyatini boshqarishdek oliy darajadagi tashkilotchilik rolini yo‘qolishi, hayot mazmuni, qadriyatlar motivlar, maqsadlar ierarxiyasini buzilib ketishi sifatida tushuniladi, barqarorlik bevosita insonning psixik va psixosomatik salomatligini belgilaydi. Shu sababli, psixologik tayyorgarlikning vazifalaridan biri harbiy xizmatchi psixikasining, jangda barqarorligini shakllantirishdir.

Psixologik lug‘atlarda barqarorlik (mental toughness) – stabillik, qat’iylik, bardoshlilik, mustaxkamlik tarzida tushuniladi. U 2 ta asosiy sinonim “stabillik va muvozanat” bilan keltirilgan. [5]

Psixologik barqarorlik quyidagilar tufayli ortadi:

- sezgilarning yuqori sezuvchanligini, aniqligi va tezligini rivojlantirish, sog‘lom barqaror reaksiyalar, kuch, harakat va harakatning muvofiqligi va barqarorligi;

- jangda masofani doimiy ravishda to‘g‘ri baholash qobiliyatini rivojlantirish va vaqt, ob’ekt o‘lchamlari, harakat tezligi;

- harbiy xizmatchining jangda diqqatining turg‘unligi, diqqatni jamlash qobiliyatini rivojlantirish; shu bilan birgalikda asosiy faoliyatga yuqori barqarorlik va konsentrasiya, tezlik imkoniyati;

Bularning barchasiga harbiylarni jangda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan sharoitlarga psixologik jihatdan o‘rgatish orqali erishish mumkin. Bunday mashg‘ulotlar natijasida harbiylarda doimiy ravishda salbiy holatlarni engib o‘tish, jismoniy va ruhiy chidamlilik ko‘rsatish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish mumkin. Psixologik tayyorgarlikning asosi rejalashtirilgan mashg‘ulotlar va mashqlar, qurolli kurashning barcha vositalaridan foydalangan holda, haqiqiy jangga imkon qadar yaqinroq vaziyatni hosil qilishdir.[6] Shunday qilib, taktika darslari jangni psixologik simulyasiya qilish imkoniyatlarini ochadi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, jismoniy rivojlanish harbiy xizmatchilarda aqliy funksiyalarning barqarorligi, vestibulyar apparatning fuksiyalari faoliyatini, professional muhim psixologik fazilatlarni rivojlantirishga asos soladi.

Jangovar sharoitlarda navigatsiya qilish va qurollardan foydalanish askardan yuksak ma’naviy va jangovar fazilatlar, jangovar mahorat, yuksak shaylik va ruhiy barqarorlik, mustahkam bilim, ko‘nikma va malakalarni talab qiladi. Bularning barchasi faoliyatning barqarorligini talab qiladi.

Psixologiya sohasidagi K.Padeski, A.N. Leontev, S.L. Rubinshteyn, B.G. Ananev, I.V.Pavlov va boshqa bir qator olimlarning yondashuvlari keltirilgan, xususan mualliflar barqarorlik tushunchasini quyidagi ma’nolarda talqin qiladilar: "hayotiy vaziyatlarga qarshi chidash qobiliyati", "ruhiy barqarorlikni saqlab qolish", shuningdek, "murakkab sharoitlarda muvozanatni tiklash". Bu talqinlarda shaxsning psixologik va fiziologik imkoniyatlari muhim o‘rin tutadi. Stressga qarshi chidamlilikni rivojlantirishda emosional barqarorlik, moslashuvchanlik va shaxsiy resurslarni saqlash kabi omillar e’tirof etiladi. Ba’zi mualliflar stressni bartaraf qilish usullarini "moslashuv mexanizmlari" orqali tavsiflaydilar. [7]

Stressga qarshi chidamlilikni belgilashda quyidagi omillarni hisobga olish lozim: emosional boshqaruv qobiliyati; kognitiv moslashuvchanlik;

shaxsiy tajriba va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi; ichki va tashqi stress omillarini bartaraf qilish qobiliyati.

Stressga chidamlilikni oshirishga oid ilmiy tadqiqotlar shunga ko‘rsatadiki, bu nafaqat individual xususiyatlar, balki ijtimoiy omillarga ham bog‘liq. Stressga qarshi chidamlilikni baholash va shakllantirish jarayonida turli diagnostik usullar va psixologik mashg‘ulotlardan foydalanish muhimdir. Stressga qarshi chidamlilikni o‘rganish jarayonida bir qator olimlar tomonidan turli konseptual yondashuvlar ishlab chiqilgan. Masalan, A.D. Leontev stressni boshqarishning murakkab tizimli modeli haqida gapiradi va stressga chidamlilikni shaxsning ijtimoiy va psixologik resurslari, shuningdek, kognitiv va emosional tizimlar faoliyatining barqarorligi bilan bog‘laydi.[8]

Stressga qarshi chidamlilikni baholashning amaliy usullari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Shaxsiy resurslarni mustahkamlash;

2. Emosional barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan treninglar;

3. Moslashuvchan fikrlash va stressli vaziyatlarga qarshi samarali strategiyalarni ishlab chiqish.

Ko‘plab tadqiqotlar, stressga qarshi chidamlilikni rivojlantirish individual psixoterapiya, guruhli treninglar va profilaktik choralarni amalga oshirish orqali ro‘yobga chiqarishini ifodalaydi. Shu bilan birga, stressga qarshi chidamlilikni oshirishda qo‘llab-quvvatlash muhitining roli ham muhim ahamiyatga ega. Stressga chidamlilik masalalarini o‘rganishda turli ilmiy yondashuvlar va nazariy asoslar mavjud. Masalan, G. Sele tomonidan ishlab chiqilgan stress nazariyasi shaxsning fiziologik va psixologik holatini turli tashqi ta’sirlarga javoban boshqarishni o‘z ichiga oladi.[9] Shu bilan birga, Lazarus va Folkman stressni boshqarish jarayonida kognitiv baholash va moslashuv jarayonlariga alohida urg‘u beradilar. [10]

Stressga chidamlilikni aniqlashda harbiy xizmatchining ichki omillari bilan birga ijtimoiy-madaniy omillar ham muhim ahamiyatga ega, o‘zini anglash qobiliyati, hayotiy maqsadlarni belgilash, ijtimoiy munosabatlardagi muvaffaqiyat va moslashuvchanlik kabi jihatlar stressni engib o‘tishda yordam beradi. Stressga qarshi chidamlilikning yuqori darajasiga ega bo‘lgan shaxslar murakkab hayotiy vaziyatlarga nisbatan samarali qarshilik ko‘rsatadi va o‘zlarining psixologik barqarorligini uzoq muddat davomida saqlab qoladi.

Stressga qarshi chidamlilikni rivojlantirishning psixologik usullari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Psixologik treninglar: bu mashg‘ulotlar emosional boshqaruv, ijtimoiy moslashuvchanlik va stressli vaziyatlarga nisbatan turli yondashuvlarni rivojlantirishga qaratilgan.

2. Kognitiv-bihevioral terapiya: shaxsning fikrlash jarayonlarini o‘zgartirish orqali stressli vaziyatlarga munosabatni shakllantirish.

3. Relaksasion texnikalar: nafas olish mashqlari, meditasiya va boshqa xotirjamlik usullari.

Stressga chidamlilikni o‘lchashda psixologik diagnostik vositalar va maxsus so‘rovnomalar qo‘llaniladi. Bu jarayon shaxsning ichki resurslarini aniqlash va ularni kuchaytirish uchun samarali usul hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, harbiy xizmatchilarda ruhiy barqarorlik va o‘z-o‘zini safarbar qilish jarayonlarini mustahkamlashda psixologik mexanizmlarini shakllantirish, ruhiy qobiliyatlarini hamda psixologik va psixofiziologik tayyorgarlik sifatini oshirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda harbiy psixologlar uchun harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladigan ilmiy-amaliy qo‘llanmalar, amaliy korreksion mashg‘ulotlar to‘plamini yaratish zamon talabini belgilamoqda. Harbiy xizmatchining psixologik barqarorligi ta’minlashda ilmiy-nazariy bilimlar bilan birga ilmiy-amaliy mashg‘ulotlarning uyg‘unligiga erishish - shaxsning psixo-emosional turg‘unlik asosini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

11.Леонтьев А.Д. Тест жизнестойкости- М.Смысл, 2006, (89 bet)

12.Селье Г. Стресс без дистресса. М. Книга по требованию, 2012. (66 bet)

13.Лазарус Р. Теория стресса и психофизиологические исследования. М.-1993. (123 bet)

14.Том Батлер-Боудон 50 великих книг по психологии. Москва 2023. (318 bet)

15.Петрушин В.И. Неврозы большого города. Москва. 2004.(368 bet)

16.Съедин С.И., Абдурахманов Р.А. Психологические последствия воздействия боевой обстановки. М.: Военный университет, 1992. (45 bet)

17.Дьяченко М.И., Кандыбович Л.А., Кандыбович С.Л., Урбанович А.А., Шабуневич Б.Б. Военная психология и педагогика.- Минск: Военная академия, 1999.(248 bet)

18.Словарь иностранных слов. Изд-4-е.Москва «Русский язык». 1987й.-(470 bet)

19.Словарь психолога-практика/ С.Ю Головин.-2-е изд. Мн.: Харвест, 2007. (59 bet)

20.Головнев А. Психологическая подготовка войск// Военный вестник.-1993. №5.(51 bet)

KREDIT-MODUL SHAROITIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING MUSTAQIL ISHLASHGA OID KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Temurmalik Shokirov,
Termiz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada kredit-modul sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ishlashga oid kasbiy kompetentligini “Ona tili o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi” fani mashg‘ulotlarida rivojlantirish metodikasi ishlab chiqish yo‘llari yoritilgan.

Shuningdek, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy pedagogik usullarni joriy etish hamda o‘qish jarayonini kredit-modul tizimiga o‘tkazish zaruriyati, mohiyati, afzalligi, ularni tatbiq etishdagi muammolar va imkoniyatlar mamlakatimiz pedagog olimlarining tadqiqot ishlari tahlili hamda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mustaqil ishlashga oid kasbiy kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan Keys-stadi metodini qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kredit-modul sharoiti, o‘qituvchi, ta’lim, tarbiya, metodika, texnologiya, Keys-stadi metodi, raqamli texnologiyalar, mustaqil ishlash, kompetensiya, kompetentlik, pedagogik jarayon, ko‘nikma, malaka, kreativ.

Аннотация

В данной статье описаны пути разработки методики формирования профессиональной компетентности будущих учителей начальной школы для самостоятельных иследоватание при обучении предмету «Родная грамотность чтения и методика ее преподавания» в условиях кредитного модуля.

- Ta’lim va tarbiyani integratsiyalash: Ma’lumotlar olish bilan birga, ma’naviy tarbiya va axloqiy talablarga e’tibor qaratish, talabalarga va ustozlarga ma’naviy qadriyatlar va ijtimoiy mas’uliyatlar bilan bog‘liq ta’lim berish.

2. Ma’naviy-ma’rifiy va ijtimoiy ishlarni tashkil etish

Direktor o‘rinbosari ma’naviy-ma’rifiy ishlar sohasida yoshlar va talabalarning ijtimoiy faoliyatiga va ma’naviy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu vazifani bajarish uchun quyidagi ko‘nikmalar rivojlantirish muhimdir:

- Talabalarning ma’naviy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash: Talabalarni axloqiy, ijtimoiy va ma’naviy jihatdan rivojlantirish uchun ular bilan muloqot qilish, ijtimoiy mas’uliyatni o‘rgatish va jamiyatga foyda keltirishga yo‘naltirish.
- Ma’rifiy tadbirlar tashkil qilish: Masalan, ma’naviy-axloqiy forumlar, seminarlar, ma’rifiy dasturlar va hamkorlik tadbirlarini tashkil etish. Buning ortidan yoshlarning hayotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish, ularning ijtimoiy qobiliyatlarini oshirish.

3. Ma’naviy qadriyatlar va etika

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil etish uchun direktor o‘rinbosariga kerak bo‘lgan asosiy kasbiy kompetensiyalardan biri – yuqori axloqiy qadriyatlar va etik prinsiplarga amal qilishdir.

- Yoshlarning axloqiy tarbiyasi: Direktor o‘rinbosari o‘quv muassasasida axloqiy qadriyatlarni joriy qilish, yoshlarning umumiy axloqiy va ijtimoiy farmonlarga rioya qilishini ta’minlash kerak.
- Adolatli va shaxsiy mas’uliyat: Har bir talabaga adolatli munosabatda bo‘lish, har bir o‘quvchiga yagona etik me’yorlar asosida munosabatda bo‘lish.

4. Liderlik va strategik fikrlash

Direktor o‘rinbosari yoshlarning ma’naviy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydigan rahbarlik qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak. Buning uchun:

- Strategik fikrlash: Ma’lumot va ma’naviy ishlarning integratsiyalangan yo‘nalishlarini belgilash, muassasaning madaniy va ma’naviy maqsadlariga erishish uchun aniq strategik rejalarni ishlab chiqish.
- Liderlik qobiliyatlari: O‘quv jarayonini boshqarish, tartibga solish va talabalarni ma’naviy rivojlanishga yo‘naltirish uchun kerakli liderlik qobiliyatlari rivojlantirish.

5. Ijtimoiy va psixologiya bilan bog‘liq kompetensiyalar

Direktor o‘rinbosarining kasbiy kompetensiyalari talabalarning psixologik holati va ijtimoiy muhiti bilan bog‘liq bo‘lgan kompetensiyalarni ham o‘z ichiga oladi.

- Ijtimoiy va psixologik tajribalar: Yoshlar bilan ishlashda ularning psixologiyasini tushunish va ijtimoiy muammolarini hal qilish uchun zarur bilimlar. Talabalarning ijtimoiy jihatdan rivojlanishini nazorat qilish va ularga psixologik yordam ko‘rsatish.
- Konfliktni hal qilish: Talabalar o‘rtasidagi muammolarni hal qilish, ijtimoiy ziddiyatlarni va konfliktlarni konstruktiv tarzda hal qilish qobiliyati.

O‘rganilgan tahliliy fikrlar haqida shu xulosaga kelish mumkinki, direktor o‘rinbosarining kasbiy kompetensiyalari, ta’lim muassasasining ma’naviy va axloqiy muhitini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Uning kasbiy rivojlanishi pedagogik va liderlik qobiliyatlarini, pedagogik usullarni, ijtimoiy va psixologik bilimlarni o‘z ichiga oladi. Bu kompetensiyalarni rivojlantirish orqali direktor o‘rinbosari o‘quv muassasasining ma’naviy-ma’rifiy faoliyatini muvaffaqiyatli boshqara oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. **Qonun-hujjatlar va davlat dasturiy hujjatlari:**

Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида"ги Қонуни. — Т.: 2020.

"Ўзбекистоннинг ривожлантириш стратегияси 2030" Давлат дастури. — Т.: 2021.

2. **Ilmiy-metodik asarlar:**

Абдуллаева Ш.М. "Замонавий педагогик технологиялар". — Т.: Ўқитувчи, 2022. — 186 б.

Қодиров Р.Н. "Маънавий тарбия: назария ва амалиёт". — Т.: Академия, 2021. — 245 б.

Нормуродов А. "Педагогик компетентлик ва уни ривожлантириш йўллари". — Т.: Ниҳол, 2023. — 132 б.

3. **Maqolalar va ilmiy ishlar:**

Жалилов Т. "Маънавий-маърифий ишларнинг замонавий методлари" // "Таълим ва инновацион тадқиқотлар" илмий журнали. — 2023. — №4. — Б.45-52.

Холиқова М. "Директор ўринбосарининг касбий маҳорати" // "Педагогик маҳорат" журнали. — 2022. — №3. — Б.28-34.

4. **Xalqaro manbalar:**

УНЕССО. "Глобал Эдутацион Мониторинг Репорт 2023". — Парис: УНЕССО Публишинг, 2023.
ОЭСД. "Инновацион Стратегй фор Эдутацион". — 2022.
5. **Elektron manbalar:**
www.ziyonet.uz — "Маънавий тарбиянинг янги усуллари" (2023 йил 15 март)
www.edu.uz — "Раҳбарлик қобилиятларини ривожлантириш" (2022 йил 10 ноябр)
6. **Учебно-методические пособия:**
"Маънавий-маърифий ишларни ташкил этиш методикаси" / Тўплам. — Т.: ТДПУ, 2021. — 98 б.
"Педагогик диагностика ва мониторинг" / Методик қўлланма. — Т.: 2022. — 76 б.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR UCHUN INTERAKTIV KITOBLARNI YARATISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Sunnatulla MUSAMEDOV,
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti “Amaliy grafika va badiiy fotografiya” kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy axborot texnologiyalarining bolalar uchun mo‘ljallangan interaktiv o‘yinchoq kitoblarni yaratishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida an’anaviy bosma kitoblar raqamli formatga o‘tkazilmoqda va interaktiv imkoniyatlar bilan boyitilmoqda. Elektron interaktiv kitoblarning o‘quv jarayonidagi o‘rni, multimediya vositalari va interfaol elementlarning bolalar tafakkurini rivojlantirishga ta’siri muhokama qilinadi. Shuningdek, mobil ilovalar orqali o‘yinchoq kitoblarni loyihalash tamoyillari va usullari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘yinchoq kitob, axborot texnologiyalari, interaktiv elektron kitob, mobil ilova, multimedia, bolalar ta’limi, raqamli nashrlar, interfaol dizayn, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.*

Аннотация

В данной статье анализируется значение современных информационных технологий в создании интерактивных книг-игрушек, предназначенных для детей. В результате развития информационно-коммуникационных технологий традиционные печатные книги переводятся в цифровой формат и обогащаются интерактивными возможностями. Рассматривается роль электронных интерактивных книг в учебном процессе, влияние мультимедийных средств и интерактивных элементов на развитие мышления детей. Также освещаются принципы и методы проектирования книг-игрушек посредством мобильных приложений.

Ключевые слова: *книга-игрушка, информационные технологии, интерактивная электронная книга, мобильное приложение, мультимедиа, детское образование, цифровые издания, интерактивный дизайн, информационно-коммуникационные технологии.*

Annotation

This article analyzes the significance of modern information technologies in creating interactive toy books designed for children. As a result of advancements in information and communication technologies, traditional printed books are being converted to digital formats and enhanced with interactive features. The article examines the role of electronic interactive books in the educational process and the impact of multimedia tools and interactive elements on the development of children's thinking. Additionally, it highlights the principles and methods of designing toy books through mobile applications.

Keywords: *toy book, information technology, interactive e-book, mobile application, multimedia, children's education, digital publications, interactive design, information and communication technologies.*

Zamonaviy axborot texnologiyalari jamiyatning turli sohalariga kirib kelishi natijasida bilimlarni kengaytirish, texnik va ijtimoiy jarayonlarni boshqarish imkoniyatlari yanada rivojlanmoqda. Axborotni qayta ishlash vositalariga barcha elektron texnika va aloqa vositalari, jumladan, kompyuterlar va zamonaviy dasturiy ta'minot kiradi. Ushbu texnologiyalar axborotni qayta ishlash va uzatishning samarali usullarini yaratishga xizmat qiladi.

Dizayn ham axborotga kirish va uni qayta ishlash usuli sifatida qaralishi mumkin. Shu bilan birga, dizayn insonning ijtimoiy muhitga moslashishi uchun muhim vositalardan biri bo‘lib, O‘zbekiston sharoitida ham mazkur yondashuv dolzarbdir. Ayniqsa, raqamli vositalardan foydalanish asoslarini dizaynerlar tayyorlash jarayoniga kiritish muhim kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi. Ushbu yondashuv turli formatlarda amalga oshirilishi mumkin, xususan, loyiha faoliyatida zamonaviy metodik yondashuvlar muhim o‘rin tutadi.

Dizayn-loyihalashda axborot texnologiyalarini qo‘llash sohasi, avvalo, vizual-grafik mahsulotlarni ishlab chiqishda maxsus dasturiy ta'minot bilan ishlashni o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda bolalar uchun mo‘ljallangan o‘yinchoq kitoblar yaratishda axborot texnologiyalarining ahamiyati ortib bormoqda. Bunday kitoblar bolalarning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan birga, milliy qadriyatlarni singdirish va an’analarni yosh avlodga yetkazish uchun ham samarali vosita hisoblanadi.

Zamonaviy o‘yinchoq kitoblarning asosiy xususiyati interaktivlikdir. Bunday kitoblar bolaga o‘yin elementlari orqali kitob mazmuni bilan o‘zaro aloqada bo‘lish imkoniyatini yaratadi. Interaktiv elementlar sifatida topishmoqlar, yopishqoq stikerlar, bo‘yash sahifalari, harakatlantiriladigan personaj figuralari va boshqa konstruksiya elementlarini kiritish mumkin. Ushbu yondashuv orqali milliy ertaklar, qadriyatlar va madaniyatni bolalar ongiga singdirish yanada osonlashadi.

Bugungi kunda bolalar nashrlarining elektron formatga o‘tish tendensiyasi kuzatilmoqda. Shu sababli, an’anaviy o‘yinchoq kitoblar ham raqamli shaklga moslashtirilmoqda. Bunday nashrlarning asosiy xususiyati bo‘lgan interaktivlik raqamli formatda yanada rivojlanmoqda. O‘zbekiston sharoitida bunday elektron kitoblarni yaratish milliy ta’lim dasturlariga mos keluvchi va bolalar uchun qiziqarli shakllarni ishlab chiqishni talab etadi.

Elektron bolalar kitoblari zamonaviy texnologiyalar orqali grafik, animatsiya, ovozli hamrohlik va interaktiv elementlar bilan boyitiladi. Bu kabi interaktiv nashrlar mobil ilovalar shaklida ham ommalashib bormoqda. Bolalar bugungi kunda mobil qurilmalar orqali bilim olishga tez moslashmoqda, shuning uchun o‘yinchoq kitoblarni elektron formatga o‘tkazish jarayoni bolalarning ijodiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish imkonini kengaytiradi.

O‘zbekistonda elektron interaktiv nashrlar hali to‘liq ommalashmagan bo‘lsa-da, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan bu jarayon jadallashishi kutilmoqda. Ko‘plab tadqiqotchilar elektron kitoblarni bosma mahsulotlarning muqobili sifatida ko‘rib, ularning kelajakdagi ahamiyatini ta’kidlamoqdalar. Shunday ekan, milliy madaniyat va an’analarni saqlab qolish bilan birga, ularni zamonaviy texnologiyalar orqali yangi avlodga yetkazish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. O‘yinchoq kitoblarni loyihalashda interfaol tajribalarni yaratish strategiyalarini belgilash, ularning bolalar bilan o‘zaro ta’sirini yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

Zamonaviy interaktiv kitob sifatida mobil ilova konsepsiyasi an’anaviy hikoya elementlarini innovatsion texnologiyalar bilan uyg‘unlashtiradi va foydalanuvchiga raqamli kontent bilan dinamik o‘zaro aloqa tajribasini taqdim etadi. Bunday ilovaning asosini kitob sahifalarini imitatsiya qiluvchi slaydlar tashkil etadi. Ular animatsion effektlar, ovozli jo‘rlik va matn bilan birgalikda tasviriy rasmlar bilan boyitilgan. Elektron interaktiv kitob bilan ishlash tajribasi bosma kitobga nisbatan o‘ziga xos parametrlarga ega bo‘lib, undan farq qiladi.

Shu sababli, zamonaviy o‘yinchoq kitob formati sifatida mobil ilova dastlab o‘z loyiha vazifalariga muvofiq ishlab chiqilishi lozim. Elektron nashr mazmunining interaktivlik darajasi bolalarning yosh xususiyatlari va mazmunning o‘ziga xos jihatlari bilan belgilanishi kerak. Interaktiv elektron darslik

tushunchasi o‘qitishning yangi modeli sifatida qaraladi, ammo belgilangan mezonlarni zamonaviy o‘yinchoq kitobga ham kengaytirish mumkin. U ma’lumot olishga va o‘quvchi bilan faol o‘zaro ta’sirga qaratilgan interaktiv tarkibni o‘z ichiga olishi lozim. Mobil ilova formatida muloqotning ushbu usulini amalga oshirish elektron kitob-o‘yinchoqning interaktiv tajribasini loyihalash tamoyillari va usullarini bolalar mobil o‘yinlarini ishlab chiqish xususiyatlari bilan yaqinlashtiradi.

Mobil ilovalarni ishlab chiqishda loyiha muammosini aniqlash, faraz ilgari surish, tadqiqot usullarini muhokama qilish, ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish, olingan natijalarni rasmiylashtirish muhim bosqichlar hisoblanadi. Texnik jihatdan mobil qurilmalar uchun dasturiy ta’minotni ishlab chiqish g‘oyani tanlash, texnik topshiriqni tuzish, tahlil qilish, dizayn yaratish, sinovdan o‘tkazish va nashr etish kabi bosqichlardan iborat. Ushbu jarayon mobil ilovaning sifatli va foydalanuvchiga qulay bo‘lishini ta’minlashga qaratilgan.

Mobil ilovani ishlab chiqishda quyidagi tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi: segmentlangan maqsadli auditoriya, aniq janr va kontent maqsadi, oddiy navigatsiya, ko‘rsatmalar, animatsiyalarni oqilona ishlatish va ota-onaning minimal aralashuvi. Belgilangan parametrlar mobil ilovaning dizayni uchun asos bo‘lib, uning foydalanish qulayligi va foydalanuvchi tajribasiga ta’sir qiladi. Statik grafika, tipografika, animatsiya, video, ovozli buyruqlar va sahifalarni taqlid qilish kabi elementlar raqamli mahsulot sifatini belgilaydi.

Bugungi kunda bolalar o‘yinchoq kitobini raqamlashtirishning eng istiqbolli shakli sifatida mobil ilovalar ko‘riladi. Bunday ilovalar multimedia, matn, grafika, audio va video ma’lumotlarni yaxlit axborot maydoniga birlashtiradi. Elektron nashrning dizayni bolalarga dinamik va hissiy jihatdan boy interaktiv tajribani taqdim etish uchun yo‘naltirilgan.

Bolalar uchun o‘qishga mo‘ljallangan va interaktiv imkoniyatlarga ega bo‘lgan mobil ilovalar multimedia tarkibi, sensorli elementlar va kengaytirilgan reallik unsurlari bilan ajralib turadi. Matnni ta’kidlash va hikoyani moslashtirish orqali bolalarning diqqatini jamlash, obrazli tafakkurini rivojlantirish va o‘quv jarayonini qiziqarli qilish mumkin. Interaktiv elementlar hikoyaning immersivligini oshirib, bolalarni faol o‘quv jarayoniga jalb qiladi.

Axborot texnologiyalarini o‘yinchoq kitob formatiga joriy etish tamoyillari va usullari ta’lim va texnologik jihatlar bilan bog‘liq. Zamonaviy interaktiv kitoblar yosh auditoriyaning ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Ular foydalanuvchi interfeysining tushunarli dizayniga ega bo‘lib, bola tegish, siljitish va boshqa harakatlar yordamida hikoya bilan o‘zaro aloqaga kirisha oladi. Aniq ko‘rsatmalarning mavjudligi bolaga texnologiya bilan ishlashni tushunishga yordam beradi va raqamli savodxonlik kompetensiyalarini shakllantiradi.

Ta’lim jihati bolalarning mantiqiy va obrazli tafakkurini, bog‘liq hikoya va tasviriy nutqni, diqqatni jamlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Matnni vizual belgilash so‘zlarni tanib olish va tushunishga yordam beradi, ovozli o‘qish esa to‘g‘ri talaffuzni mustahkamlaydi. O‘yin faoliyatlari xotira va diqqatni mashq qildiradi, boshqotirmalar esa tanqidiy fikrlash va mantiqiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Sensorli o‘zaro ta’sir usullari bolalarning motorik ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Elektron interaktiv kitobning texnologik elementlari hikoyaning yaxlitligi va hissiy ta’sirini kuchaytirishga xizmat qiladi. Qahramonlar bilan birgalikda hikoyani boshdan kechirish bolaning ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Interaktiv elementlar orqali hikoyaning immersivligi oshirilib, o‘quvchining qiziqishi yuqori darajada saqlanadi.

O‘yinchoq kitob formatiga axborot texnologiyalarini integratsiya qilishning muhim tamoyili inklyuziv muhitni yaratishdir. Matnni nutqqa aylantirish, ovozli va imo-ishorali buyruqlar mahsulotni imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham qulay qiladi.

Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalari bolalar o‘yinchoq kitobini raqamli muhitga o‘tkazish jarayonini ta’minlaydi. Ushbu jarayonda bosma formatga xos bo‘lgan funksiyalar saqlanib qoladi va yangi shakllar bilan boyitiladi. Raqamli sharoitlarda interaktiv o‘quvchi tajribasini loyihalash asosiy muammo

hisoblanadi. Buning yechimi texnologik va ta’lim komponentlarining birligini ta’minlovchi tamoyillarga amal qilish orqali hal etilishi mumkin. Interaktiv elektron kitoblarni loyihalashda ushbu tamoyillarni qo‘llash bolalar uchun samarali ta’lim muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Авдеева, А. В. Информационные технологии в работе с дошкольниками и их влияние на дальнейший процесс обучения /

А. В. Авдеева, М. В. Богданова // Информационные технологии в образовательном процессе вуза и школы : материалы XIV Всероссийской научно-практической конференции. — 2020. — С. 5—10.

2. Асфандиярова, Г. Р. Влияние современных информационных технологий на личность дошкольника / Г. Р. Асфандиярова // Модернизация системы профессионального образования на основе регулируемого эволюционирования : материалы XVII Международной научно-практической конференции. — 2018. — С. 96—99.

3. Аюченко, А. Е. Дидактическая готовность педагогов к развитию цифровой образовательной среды в дошкольной организации / А. Е. Аюченко, М. П. Тырина // Современные проблемы науки и образования. — 2019. — № 6. — С. 98.

4. Байбородова, Л. В. Трансформация дидактических принципов в условиях цифровизации образования / Л. В. Байбородова, Н. В. Тамарская // Педагогика. — 2020. — № 7. — С. 22— 30.

5. Беляев, Г. Ю. Социально-цифровая среда как источник новых возможностей и новых рисков для современного образования / Г. Ю. Беляев // Отечественная и зарубежная педагогика. — 2020. — Т. 1.— № 4 (69). — С. 109—123.

6. Баранова, Ю. Л. Информационно-коммуникативная компетентность педагога: теоретико-методологические основы организации воспитательно-образовательного процесса в условиях реализации ФГОС ДО / Ю. Л. Баранова, И. В. Микитюк // Традиции и новации в дошкольном образовании. — 2018. — №4 (7). —С. 8—10.

7. Батенова, Ю. В. Факторы, определяющие формирование информационной грамотности детей старшего дошкольного возраста / Ю. В. Батенова // Азимут научных исследований: педагогика и психология. — 2018. — Т. 7. — № 1 (22). — С. 31—34.

8. Берибесова, О. И. Использование цифровых образовательных ресурсов в воспитании и обучении детей дошкольного возраста / О. И. Берибесова, А. Г. Воропаева, Н. А. Шенцева // Информационные технологии в образовательном процессе вуза и школы : материалы XIV Всероссийской научно-практической конференции. — 2020. — С. 29—33.

9. Бетелин, В. Б. Основные понятия программирования в изложении для дошкольников / В. Б. Бетелин, А. Г. Куш-ниренко, А. Г. Леонов // Информатика и ее применения. — 2020. — Т. 14. — № 3. — С. 55—61.

AHMAD YASSAVIYNING MA’NAVIY MEROSI

Nasiba Tursunbayeva,
O‘zDK “O‘zbek tili va ijtimoiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada asrlarda Markaziy Osiyoda shakllangan tasavvuf oqimlaridan biri bo‘lgan Yassaviylik tariqati haqida so‘z yuritiladi. Xoja Ahmad Yassaviy hayoti, faoliyati va tasavvufiy merosi, xususan, uning “Devoni hikmat” asari orqali turkiy xalqlarning ma’naviy rivojlanishiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Shuningdek, Yassaviylik tariqatining asosiy g‘oyalari, ijtimoiy-ma’naviy ta’siri va zamonaviy yoshlar tarbiyasiga bo‘lgan ta’siri ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Xoja Ahmad Yassaviy, Yassaviylik tariqati, tasavvuf, Devoni Hikmat, turkiy adabiyot, ma’naviyat, axloqiy tarbiya.*

Аннотация

В данной статье рассматривается тарикат Яссавия, одно из суфийских течений, сформировавшихся в Центральной Азии на протяжении веков. Анализируются жизнь, деятельность и суфийское наследие Ходжи Ахмада Яссави, в частности, его вклад в духовное развитие тюркских народов через произведение " Девони хикмат " Также на научной основе освещаются основные идеи тариката Яссавия, его социально-духовное влияние и воздействие на воспитание современной молодежи.

Ключевые слова: *Ходжа Ахмад Яссави, тарикат Яссавия, суфизм, Диван-и Хикмет, тюркская литература, духовность, нравственное воспитание.*

Annotation

This article discusses the Yasawi order, one of the Sufi movements that emerged in Central Asia over the centuries. The life, activities, and Sufi heritage of Khoja Ahmed Yasawi are analyzed, particularly his contribution to the spiritual development of Turkic peoples through his work "Devoni Hikmat" (Divan of Wisdom). Additionally, the main ideas of the Yasawi order, its socio-spiritual influence, and its impact on the upbringing of modern youth are scientifically examined.

Keywords: *Khoja Ahmad Yasawi, Yasawi order, Sufism, Divan-i Hikmat, Turkic literature, spirituality, moral education.*

O‘rta Osiyoda birinchi vujudga kelgan so‘fiylik oqimi Yassaviylikdir. Bu oqimga Yassi (Turkiston) shahrida dunyoga kelgan Xoja Ahmad Yassaviy asos solgan.Uning otasi Shayx Ibrohim eshonlar avlodidan bo‘lgan.Onasidan go‘dakligida, otasidan 7 yoshida ayrilganligi uchun uni o‘z davrining mashhur shayxlaridan bo‘lgan bobosi Arslonbobo (Arslonbob) o‘z tarbiyasiga olgan.

U dastlabki ta’limni Yassidagi madrasada olgan.Ulg‘aygach otasi Shayx Ibroximning muridi bo‘lgan Muso Shayxning qizi Oyshaga uylangan. Uning Ibrohim ismli o‘g‘li va Gavhari Shahnoz ismli qizi bo‘lgan. Arslonbob vafotidan keyin u Buxoroga borib, tasavvuf falsafasi donishmandi Yusuf Hamadoniydan ta’lim olgan.Uning vafotidan keyin Ahmad Yassaviy ustozining ishini davom ettirgan. O‘z dunyoqarashini xalq orasida yoyish uchun turkiy qo‘shiqlarga yaqin she’rlar yozgan. Vaqt o‘tib Yassiga qaytadi va ko‘plab shogirdlar orttirgan. 63 yoshida, ya’ni payg‘ambar yoshiga yetgach, yer ostidagi yerto‘lada qolgan umrini toat-ibodat, Xudo yo‘liga bag‘ishlab 1166-yilda vafot etgan.Ba’zi manbalarda uning 125-yil, ba’zilarida esa 133-yil umr ko‘rganligi qayd etilgan. Agar Sharqdagi so‘fi-donishmandlarning 100-120-yil umr ko‘rganligini hisobga olsak, Ahmad Yassaviyning uzoq umr ko‘rganligi ham haqiqatga to‘g‘ri keladi.

Turkiston shahri Yassaviya tariqatining markazi hisoblangan. Bu yerda Ahmad Yassaviyning maqbarasi ham joylashgan.

Yassaviya tariqati Markaziy Osiyo, Turkiya va Kavkazda keng tarqalgan. Ahmad Yassaviy ta’limoti yo‘lida ko‘plab shogirdlar yetishib chiqqan, ulardan eng mashhuri Sulton Uvays Qaraniy hisoblanadi.Uning hikmatlari islomiy ma’naviy va axloqiy tarbiyani chuqur anglashga ko‘maklashgan.

Ahmad Yassaviy va uning tariqati islom dinining ma’naviy qadriyatlarini boyitib, insoniy munosabatlarda insof va adolatni rivojlantirishga xizmat qilgan. Uning Turkiston shahrida joylashgan maqbarasi o‘z davrida Temuriylar tomonidan qayta tiklangan va bugungi kunda YUNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Uning asosiy asari – "Devoni Hikmat" nomli she’rlar to‘plamidir. Bu asarda Yassaviy islomiy tasavvuf falsafasini va odob-axloq tamoyillarini xalqona tilda bayon qilgan. She’rlar oddiy turkiy xalq tilida yozilgan, shu bois, ular keng xalq ommasi tomonidan oson tushunarli bo‘lgan. Hikmatlar Allohga muhabbat, taqvo, zohidlik va insonparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etadi.Uning ijodi xalq og‘zaki ijodiyotiga yaqin bo‘lib, tasavvufiy poeziyani xalq orasida ommalashtirgan. Ahmad Yassaviyning ijodi Turkiston, Movarounnahr va butun turkiy xalqlar o‘rtasida islom dinining ma’naviy rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Uning tasavvuf ta’limoti nafaqat diniy, balki ijtimoiy-ma’naviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Bahovuddin Naqshbandga taalluqli bo‘lgan “Dil ba yoru, dast ba kor” iborasini Ahmad Yassaviy “Niyating xudoda, qo‘lda ishing” shaklida ifoda etgan, ya’ni Yassaviy tariqati bilan Naqshband ta’limotining mohiyati bir bo‘lib, o‘sha mashhur ibora birinchi marta Yassaviy tomonidan XII asrda turkiy, Naqshbandiy tomonidan XIV asrda forsiy tilda aytilgan.

Ahmad Yassaviy turkiy xalqlarning ma’naviy va madaniy merosini boyitib, ularning milliy ongini shakllantirishga hissa qo‘shgan. Yassaviyning hayoti va ijodi hozirgacha turkiy xalqlar orasida katta hurmatga sazovor. Uning asarlari insoniy qadriyatlarning ulug‘lanishi va ma’naviy yuksalish ramzi sifatida ahamiyatga ega.

Yuqorida aytganimizdek, Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asari turkiy adabiyotning eng muhim va qadrli asarlaridan biri hisoblanadi. Bu asar sufiylikning asosiy g‘oyalarini, insonning ma’naviy rivojlanishi va Allohga yaqinlashish yo‘lini yoritib beradi. Asardagi asosiy g‘oyalar quyidagilardir:

1. Insonning qilgan gunohlaridan tavba qilishi, Allohdan mag‘firat so‘rashi kerakligi uqtiriladi. Bu insonning o‘z qalbini ma’naviy tozalash va ruhiy ozodlikka erishish yo‘lidagi muhim qadamlaridan biri sifatida ko‘rsatiladi.

2.Ahmad Yassaviy insonni doimo taqvodor bo‘lishga, ya’ni Allohdan qo‘rqib, Uning buyruqlariga amal qilishga chaqirgan. Unga ko‘ra, inson Allohni haqiqiy sevganda va Uning roziligini maqsad qilgandagina haqiqiy saodatga erishadi.

3. Yassaviy ruhiy tarbiya orqali nafsni tozalash, axloqni sayqallash va Alloh yo‘lida sodiqlikni uqtirgan. Uning ta’limotlarida shariat, tariqat, ma’rifat va haqiqat kabi tushunchalar ayniqsa muhim o‘rin tutadi.

4.Insonning dunyoviy maqomlar va boyliklarga emas, balki kamtarinlik va Alloh oldidagi haddini bilishga urg‘u berilgan. Yassaviy o‘z asarida dunyo o‘tkinchi ekanligini ko‘p ta’kidlaydi va insonni faqat oxirat uchun amal qilishga chorlaydi.

5.Asarda boshqa insonlarga yordam berish, adolatli bo‘lish va xalq manfaatini o‘ylash muhimligini o‘quvchilarga uqtiradi.Bu g‘oya sufiylikning asosiy prinsiplaridan biri bo‘lib, dunyoda insonlar o‘rtasidagi hamkorlik va mehr-shafqatni rag‘batlantiradi.

6.Yassaviyning ta’limotlarida dunyoviy nafslardan, boylik va shuhrat orzusidan voz kechish muhim ekani ta’kidlangan. U insonni dunyo o‘tkinchi ekanini tan olib, oxiratga tayyorgarlik ko‘rishga chaqirgan.

7.Asarda Alloh yo‘lida ixlos bilan ibodat qilish va turli sinovlarga sabrli bo‘lish muhimligi uqtiriladi. Yassaviyning fikriga ko‘ra, sabr insonni ma’naviy yuksaklikka yetkazadigan muhim fazilatdir.

8.Yassaviy Muhammad alayhissalomga bo‘lgan chuqur muhabbatini ifoda etgan. U payg‘ambar sunnatlariga amal qilish va Unga ergashishni insonning komillikka erishish yo‘li deb ko‘rsatadi.

Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asari inson ma’naviyati, axloqi va ichki olamini yaxshilashga yo‘naltirilgan. Asarda sufiylik g‘oyalari orqali insonning Allohga yaqinlashish, o‘z nafsini tozalash va kamolga yetish yo‘lidagi ahamiyatli ta’limotlari bayon etilgan. Bu asar, nafaqat dindorlik, balki axloqiy va ma’naviy tarbiya uchun ham muhim qo‘llanma sifatida xizmat qiladi.

Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asari o‘z davrida ham, hozirgi kunda ham ahamiyatli axloqiy-tarbiyaviy qadriyatlarga boy asar hisoblanadi. Asardagi g‘oyalar yoshlarning axloqiy tarbiyasi va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi ko‘plab muhim nuqtalarni o‘z ichiga oladi. Quyida ularning zamonaviy yoshlar axloqi va tarbiyasiga ta’siriga doir ba’zi jihatlar qayd etiladi:

Ahmad Yassaviy asarida ilm olish, ma’rifatli bo‘lish va tafakkur qilish muhimligini ta’kidlaydi. Bugungi yoshlar uchun ham ta’limga bo‘lgan muhabbat, yangiliklarni o‘rganishga intilish, zamonaviy ilm-fanni egallash kabi tushunchalar "Devoni hikmat" g‘oyalari bilan uyg‘unlashadi.Filologiya fanlari doktori Ergash Rustamov “Xo‘ja Ahmad Yassaviy masjidi peshtoqiga Hazrati Rasululoxning “Talabul ilmi farizatun ali kulli muslimin va muslimatin” – ilm talab qilish har bir musulmon erkak va ayol uchun farz”, degan hadisi yozilganini qayd etgan.

Asarda insonlarni axloqiy va ruhiy tarbiya qilish, yaxshi xulq, halollik, adolatparvarlik kabi sifatlar o‘rgatiladi. Bugungi kunda yoshlar o‘rtasida insonparvarlik, boshqalarga hurmat ko‘rsatish, o‘z xatti-harakatlari uchun mas’uliyatni his qilish kabi tushunchalarni shakllantirishda "Devoni hikmat"dan foydalanish muhimdir.

Asarda mehnat va sabrning ahamiyati haqida ko‘p gapiriladi. Zamonaviy yoshlar uchun mehnat qilish orqali muvaffaqiyatga erishish va qiyinchiliklarni yengishga sabrli bo‘lish o‘ta muhim sifatlardan sanaladi.

Ahmad Yassaviy o‘z asarida din va ma’naviyat masalalariga alohida e’tibor qaratadi. Bugungi kunda ham yoshlarning ma’naviy rivojlanishi, ma’naviy qadriyatlarni anglashi ularning hayotda mustahkam poydevorga ega bo‘lishida muhim o‘rin tutadi.

"Devoni hikmat"da insonlarning jamiyatga foyda keltirishi, yaxshilik qilish, boshqalarga yordam berish kabi g‘oyalar ilgari suriladi. Bugungi yoshlar uchun ham ijtimoiy mas’uliyat va jamoat ishlarida faol bo‘lish tarbiyaning muhim qismidir.

Ahmad Yassaviyning "Devoni hikmat" asaridan yoshlar axloqiy tarbiyasini shakllantirishda keng foydalanish mumkin. Uning g‘oyalari yoshlarni ma’naviy yetuklikka, axloqiy barkamollikka va jamiyatda faol shaxs bo‘lishga chorlaydi. Zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonida ushbu asarni o‘rganish va undan foydalanish juda samarali bo‘ladi,zero tasavvuf o‘z davrida Movarounnahr aholisining ma’naviy hayoti bilan chambarchas bo‘lib, unga e’tiqod qilgan xalqparvar adib va mashoyixlar uni chuqur o‘rganishga va u orqali xalqqa ma’rifat tarqatishga intilishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Komilov N.Tasavvuf. –T.,“Yozuvchi”, 1996 y.
2. Rustamov E. “Yassaviy hikmatlarida tarix va hayot sadosi”. – T., “O‘zbek tili va adabiyoti” gazetasi № 4,5 ,1972 y.
3. Siyoyev S. Yassaviyning so‘nggi safari. – T., “Ma’naviyat”, 2002 y.
4. Usmonov Orif. Ma’naviyat yulduzlari". – T.,"O‘zbekiston”, 2001 y.
5. Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. – T.,“Sharq”, 2009 y.
6. Haqqulov Ibrohim. "Tasavvuf va she’riyat". – T., “Adabiyot va san’at”, 1991 y.

BO‘LAJAK REJISSYORLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA’LIM MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI

Mamatqosimov Jahongir Abirqulovich
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etish, jumladan ommaviy axborot vositalari orqali mazkur mavzuni targ‘ib qilish metodikasi tadqiq etilgan. Maqolada mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlari tahlil qilingan va mualliflik tavsiyalari berilgan.

Kalit so‘z: *san’at, rejissyor, rejissura, kurs badiiy rahbari, adabiy asar, kasbiy kompetentlik, mustaqil ta’lim, mustaqil ish, mustaqil rejissyorlik ishi.*

Аннотация

В статье рассматривается методика организации самостоятельных образовательных сессий по развитию профессиональной компетентности будущих режиссеров, в том числе посредством продвижения данной темы через средства массовой информации. В статье анализируются исследования, проведенные по теме, и даются рекомендации автора.

Ключевые слова: *искусство, режиссер, режиссура, художественный руководитель курса, литературное творчество, профессиональная компетентность, самостоятельное образование, самостоятельная работа, самостоятельная режиссерская работа.*

Annotation

This article examines the methodology of organizing independent educational training in developing the professional competence of future directors, including promoting this topic through the media. The article analyzes research on the topic and gives author's recommendations.

Keywords: *art, director, directing, course artistic director, literary work, professional competence, independent education, independent work, independent directing work.*

Kirish. Talabalarning chuqur nazariy va amaliy bilimlar bilan bir qatorda tanlagan sohasi bo‘yicha mustaqil faoliyat ko‘rsata oladigan, o‘z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondoshgan holda muammoli vaziyatlarni to‘g‘ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda bosh mezondir.

Talabalar mustaqil ishi – rejissura fanidan o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakaning ma’lum bir qismini kurs badiiy rahbari maslahati va tavsiyalari asosida auditoriyadan tashqari jarayonlarda o‘zlashtirishidir.

Bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ta’limning maqsadi – talabalarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida individual yondashuv asosida rivojlantirish, zururiy bilimlarni egallash, rejissura san’ati, xususan mustaqil rejissyorlik ishi uchun adabiy asar tanlash va sahnalashtirishga oid bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishdan iborat.

Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarida bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirish bevosita auditoriya mashg‘ulotlarida egallangan bilim va ko‘nikmalarga asoslanib, bir maqsadga qaratilgan ikki obyektdagi ta’lim jarayonini integratsiyalagan holda olib borish nazariy va amaliy bilimlarning mustahkamlanishiga asos bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Respublikamizda mustaqil ta’lim va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, mashg‘ulotlarni innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish yuzasidan bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan. G.R.Sobirova talabalarda kasbiy auditiv layoqatini axborot ta’limiy resurslar vositasida rivojlantirish bo‘yicha auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar dasturini [4], O.M.Jabbarova auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarida badiiy idrokni rivojlantirish texnologiyasini [2], D.R.Farsaxonov auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda talabalarda ijobiy ma’naviy-axloqiy munosabatlar va fazilatlar tarkib toptirish metodlarini [1] tadqiq etgan.

O‘quvchilarning mustaqil o‘qishini tashkil etish ularning har tomonlama barkamol etib tarbiyalanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi, ularning dunyoqarashini boyitadi, shaxsiy qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash hamda rivojlantirishga imkon beradi, individual ehtiyojlarini qondiradi, o‘quvchilarda o‘ziga ishonchni hosil qiladi, ularning ongli ravishda kasb tanlashiga yordam beradi. Biroq mustaqil o‘qishni tashkil etishdan avval – o‘qituvchi o‘quvchilar qachon va qayerda o‘qishi, qaysi kitoblar ularning hamrohiga aylanganligi, qaysilariga tasodifan duch kelinganligi, qaysilari esa ular uchun zerikarli ekanligini bilishi lozim, – deya ta’kidlaydi S.A.Gurevich [6, 50].


Tadqiqotchi O.A.Turakulova tomonidan adabiyot fani bo‘yicha sinf va ta’lim muassasasidan tashqari ish turlariga adabiy to‘garak, adabiy zal, adabiy o‘yin, adabiy hordiq, adabiy almanax, ko‘rgazma zali, adabiy yarmarka, auksion, adabiy targ‘ibot guruhi, kitobxon haftaligi, ommaviy tadbirlar kabilar kiritiladi [5, 97].

Dunyo ta’lim tajribasida auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari sifatida amalga oshirilib, nazariy va amaliyotning integratsion usuli sifatida qaraladi.

Jumladan, AQSH kollejlari va universitetlarida talabalar auditoriyadan tashqarida katta vaqt zahirasiga ega bo‘ladilar. Bu ularga mustaqil ishlar: seminar va amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rish, qo‘shimcha adabiyotlar bilan ishlash, insho, referat, kurs va diplom loyihalari ustida ishlash, kichik amaliy tadqiqotlar olib borish, hisobotlar tayyorlash va boshqa tadqiqotchilik ishlarini olib borish imkonini beradi. Talabalarning mustaqil ishlarida ilmiy tadqiqot faoliyati muhim o‘rinni egallaydi. Talabalar o‘quv laboratoriyalarida professional olim metodikasidan foydalangan holda, jiddiy ilmiy loyihalarni amalga oshirishga jalb etiladilar [3, 19].

Muhokama va natija. Bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar orqali rivojlantirishda auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar kurs badiiy rahbari nazoratida mustaqil ta’lim obyekti: nazariy va ijodiy xarakterdagi jarayonlarda amalga oshirilib, o‘quv jarayonining ajralmas qismi bo‘lib xizmat qiladi.

Bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ta’limning vazifalari quyidagilardan iborat (1-rasmga qarang):



1-rasm. Bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ta’limning vazifalari


Tabiiyki, rejissura fanidan talabaning mustaqil ishini tashkil qilish va unga rahbarlik qilishning asosiy prinsiplarini ko‘rib chiqqanda asosiy e’tiborni talabada o‘quv va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash, eng muhimi mustaqil rejissyorlik ishlarini sahnalashtirish ustida mustaqil ishlashning mustahkam ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirishga qaratish lozim.

Talabalar mustaqil ishlarining shakli va hajmini belgilashda quyidagi omillar e’tiborga olinishi lozim (2-rasmga qarang):



2-rasm. Mustaqil ishlarning shakli va hajmini belgilovchi omillar

Bo‘lajak rejissyorlarni “Estrada va ommaviy tomoshalar rejissurasi” fanidan mustaqil ta’limni tashkil etish usullari talabaning akademik o‘zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi ijodiy jarayonlar asosida tashkil etiladi (3-rasmga qarang):



3-rasm. Mustaqil ta’limni tashkil etish usullari

Bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar orqali rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining ahamiyati va ta’sirchanligi muhim bo‘lib, keng auditoriyani qamrab olishi bilan xarakterlidir. Shu sababli quyida mazkur jarayonni tashkil etish usullarini tadqiq etamiz:

Mavzu yuzasidan OAVda chiqishlar usuli. Bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishda ommaviy axborot vositalari (OAV) keng imkoniyatga ega. Chunki OAVning auditoriyasi

keng bo‘lib, bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan nafaqat soha pedagoglari fikrlari, balki sohadagi taniqli ijodkorlar bilan suhbatlar, sohaga oid intellektual o‘yinlar, hujjatli filmlar orqali adabiy asarlar mutolaasini targ‘ib etish mumkin.

Jumladan, tadqiqot jarayonida 2024-yil 1-2-mart kunlari soat 14.30da FM 103,1 “O‘zbekiston” radio kanalining “Millat va ma’naviyat” eshittirishida ishtirok etilib, millatning ma’naviy yuksalish omillari, jumladan davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ma’naviyat va madaniyat, xususan teatr san’atiga berilayotgan e’tibor, teatr san’ati yuksalishida jadidlar tomonidan olib borilgan ulkan ishlar, zamonaviy teatr san’atining ijtimoiy ahamiyati, rejissura masalalari va bo‘lajak rejissyorlarni tarbiyalashda badiiy kitob mutolaasi haqida fikr almashildi (4-rasmga qarang):

4-rasm. Mavzu yuzasidan OAVda chiqishlar

Shuningdek, 2023-yilning 15-maydan 26-may kuniga qadar FM 106,5 “Oriat Dono” radiosida efirga berilgan “G‘alvir” radio loyihasining maxsus eshittirishlari mazkur tadqiqot doirasida mualliflik konsepsiyasi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, mazkur eshittirishning asosiy maqsadi rejissyorlik san’ati, o‘zbek rejissyorlari ijodiy faoliyati, bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirish masalalariga qaratildi.

Radio loyihada bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan 100 ta savol efirga uzatildi va 300 dan ortiq tinglovchilar bilan muloqot o‘rnatildi. Faol tinglovchilar teatr, rejissura va aktyorlik san’atiga oid ilmiy-o‘quv adabiyotlari, poytaxt teatrlariga bepul chipta va esdalik sovg‘alari bilan rag‘batlantirildi. Quyida mazkur savollardan namunalar beriladi:

1-savol. Markaziy Osiyoda rejissyorlar dastlab qanday nom bilan yuritilgan?

Variantlar:

1. Suxandon

2. Boshqaruvchi

3. Boshlovchi

4. Korfarmon

2-savol. Mahalliy dalillarga asoslanib yozilgan, badiiy to‘laqonli asar bu ... Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring?

Variantlar:

1. Pyesa

2. Ssenariy

3. Qo‘shiq

4. Masal

Xulosa va tavsiya. Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari orqali bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligi adabiy asarlar asosida rivojlantirish yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosa va tavsiyalarga kelindi:

bo‘lajak-rejissyorlar uchun mustaqil ta’lim – bu mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlashda, mustaqil faoliyat ko‘rsatish qobiliyatini rivojlantirishda va ularda ijodiy ishlashga qiziqishning ortishida asosiy obyektdir;

bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirshga qaratilgan mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini tashkil etishda bosh lokomotiv – bu kurs badiiy rahbari bo‘lib, barcha jarayonlar kurs badiiy rahbarining jiddiy nazoratida amalga oshirilishi lozim;

bo‘lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirshga qaratilgan mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarini ustoz-shogird an’analariga tayangan holda olib borish zarurati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Farsaxonova D.R. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning shakl va metodlari // Pedagogik mahorat ilmiy-nazariy va metodik jurnal. – Buxoro: 2020, – № 3. – B. 71-76.

2. Jabbarova O.M. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilari badiiy idrokini rivojlantirish (auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar misolida): ped. fan.fals. dok. diss. avtoref. – Chirchiq: Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, 2021. – 43 b.

3. Mamatkulov S. Mustaqil ta’lim: tadqiqot, xorijiy tajriba va tavsiyalar. Metodik qo‘llanma – Toshkent: Sano-Standart, 2023. – 43 b.

4. Sobirova G.R. Talabalarning kasbiy auditiv layoqatini rivojlantirishda axborot ta’limiy resurslardan foydalanish texnologiyasi (ingliz tilini o‘qitish misolida): ped. fan. fal. dok. dis. – Jizzax: Guliston davlat universiteti, 2021. – 166 b.

5. Turakulova O.A. Adabiy ta’lim jarayonida akademik litsey o‘quvchilarida mutolaa madaniyatini rivojlantirish texnologiyasi: ped. fan. fals. dok. diss. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, 2020. – 162 b.

6. Гуревич С.А. Организация чтения учащихся старших классов. – Москва: Просвещение, 1994. – 142 с.